

MINISTRY OF CULTURE OF UZBEKISTAN  
FERGANA REGIONAL BRANCH OF UZBEKISTAN  
STATE INSTITUTE OF ARTS AND CULTURE

# ORIENTAL ART AND CULTURE

ISSN 2181-063X  
SCIENTIFIC  
METHODICAL  
JOURNAL  
VOLUME 3 ISSUE 1  
MARCH 2022

KOKAND

MINISTRY OF CULTURE OF UZBEKISTAN

FERGANA REGIONAL BRANCH OF UZBEKISTAN STATE INSTITUTE OF  
ART AND CULTURE

# ORIENTAL ART AND CULTURE

ISSN 2181-063X  
SCIENTIFIC METHODOICAL JOURNAL  
VOLUME 3 ISSUE 1 / MARCH 2022

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2021 yil 31 iyuldagi №303/6-sonli qaroriga asosan “Oriental Art and Culture” ilmiy-metodik elektron jurnali San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etiladigan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



KOKAND

**Editor in chief**

Ximmatov Davlat Axatqulovich

*Associated Professor*

**Executive Secretary**

Turgunbaev Rashid Muxtorovich

**Corrector**

Asqarova Munojat Husanovna

**Bosh muharrir**

Ximmatov Davlat Axatkulovich

*Dotsent*

**Mas’ul kotib**

Turg’unboev Rashid Muxtorovich

**Musaxxix**

Asqarova Munojat Husanovna

**Editorial board**

S.Mannopov

*National artist of Uzbekistan, Professor*

I.Yuldashev

*Doctor of Philology, Professor*

M.Bashmanov

*Candidate of Philology, Associated Professor*

M.Abdullayeva

*Honored mentor of youth of Uzbekistan,*

*Professor*

K.Yuldashev

*Honored Artist*

Sh.Usmonov

*Professor*

Sh.Imomnazarova

*PhD of Philological Sciences*

R.Xolmatov

*Candidate of Historical Sciences, Associated*

*Professor*

Z.Fazliyeva

*Associated Professor*

D.Mamajonov

*PhD of Historical Sciences, Associated*

*Professor*

**Tahririyat**

S.Mannopov

*O’zbekiston xalq artisti, professor*

I.Yo’ldashev

*Filologiya fanlari doktori, professor*

M.Bashmanov

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

M.Abdullaeva

*O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan yoshlar*

*murabbiyi, professor*

K.Yo’ldashev

*O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi*

Sh.Usmonov

*Professor*

Sh.Imomnazarova

*Filologiya fanlari PhD*

R.Xolmatov

*Tarix fanlari nomzodi, dosent*

Z.Fazliyeva

*Dotsent*

D.Mamajonov

*Tarix fanlari PhD, dotsent*

**Ta’sischi**

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining  
Farg’ona mintaqaviy filiali

## Table of Contents/Mundarija

1.	Элдор Хушвақтов ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ТЕАТРИ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ТАРАҚҚИЁТИДА ЖАДИДЛАР ВА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	11
2.	Madaliyev Abdurashid Raximberdiyevich TEMP VA RITMNING AKTYORLIK SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI	15
3.	Madaliyev Abdurashid Raximberdiyevich YOZMA DRAMATURGIYAGA ASOSLANGAN QO'G'IRCHOQ TEATRIDA AKTYORNING O'RNI	20
4.	Ahmetjanova Mohinur Olim qizi “QIROLICHANING YURISHI” MINI-SERIALIDA YOSH QAHRAMON OBRAZINING GAVDALANTIRILISHI	29
5.	Arzimatov Botirali Abdumajidovich FOLKLOR SAN'ATI TARIXI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI TUTGAN O'RNI	33
6.	Aximbetova Tolg'anay Oraqbaevna AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION USULLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI	39
7.	A.Xaydarov O'SMIRLIK YOSHIDAGI IJODKOR BOLALARNING OVOZINI TARBIYALASHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR	45
8.	M.Азизхонова, Э.Қобилова ЁШЛАРНИ МУСИҚИЙ МАДАНИЯТИ ВА МАЪНАВИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МУСИҚИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ	51
9.	Z.Ahmedov BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA XALQ O'YINLARINING AHAMIYATI	58
10.	Xasanova (Qubonova) Barno Akmal qizi O'ZBEK XALQ CHOLG'U SOZLARINING MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	64
11.	B.Mamatqulov QO'G'IRCHOQ TEATRI AKTYORINING XUSUSIYATLARI	70
12.	To'ychiyeva Shoiraxon No'monovna BOLALAR KITOBXONLIGI	77
13.	Burxonova Dilnoza Ilhomjon qizi ON LEXICAL SUPPLETIVES AND THEIR RELATION TO PHENOMENA HYPONYMIES AND EQUONYMIES	84
14.	Mo'minmirzo Xolmo'minov, Azizbek Xushvoqov MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH	89
15.	Mo'minova Latofat Nuriddin qizi DUTOR ANSAMBLI IJROSIDA YANGICHA TALQIN, ESKICHA QARASH, NAVOIYNING “MUBTALO BO'DIM” G'AZALI TAHLILI VA TALQINIDA	96
16.	Fayziyeva Feruza Xojimurodovna EKTRAN ASARI G'OYAVIY YECHIMINI AKS ETTIRISHDAGI REJISSORLIK IZLANISHLAR	102
17.	Qosimov Faxriyor Paxlavon o'g'li G'IJAK IJROCHILIK MAKTABLARI VA USLUBLARI PROFESSIONAL USTOZLAR TALQINIDA	107
18.	Gulishod Abdiyeva O'ZBEK MEROSIY RAQSLARIDA AKTYORLIK MAHORATINING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI	113

19.	G'aybulloyev Baxtishod BUXORO VILOYATI MUSIQALI DRAMA TEATRI TARIXIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'RNI	121
20.	Guliruxsor Jo'rayeva TOJIXON TANOVORIGA HAYOT BAXSH ETGAN INSON	127
21.	Karim Yuldashev, Mamlakatxon Jo'rayeva IJODKORLAR	133
22.	Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi INGLIZ TILIDAGI ANTONIMLARINING BADIY MATNDAGI ROLI	142
23.	Nabijon Qodirov O'ZBEK MUMTOZ ASHULALARI TALQINI (JALOLIDDIN RUMIYNING "BILMASSEN" ASARI MISOLIDA)	147
24.	Isaev Kamoliddin Saidovich STAGES OF HISTORICAL DEVELOPMENT AND REPERTORY STAGES OF FOLKLORE AND ETHNOGRAPHIC COMMUNITIES OF TASHKENT	151
25.	Pirmagambetova Mariya Turganbaevna YOSH AVLOD TARBIYASIDA RAQS SAN'ATINING AHAMIYATI	160
26.	Mo'minmirzo Xolmo'minov, Azizbek Xushvoqov MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI MOLIALASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	164
27.	Maftuna Mo'minova BESH TASHABBUS IZIDAN	172
28.	Дилдорахон Тўйчиева АМИР ТЕМУРНИНГ КИТОБХОҢЛИК ОДОБИ ХУСУСИДА	176
29.	Sarvinoz Saksonova O'ZBEK TEATRI RIVOJIDA MA'SUMA QORIYEVA FENOMENI	186
30.	A.X.Alinazarov, D.A.Qayumov, O.I.Dadamirzayev OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INTEGRATSIYA UCHBURCHAGI" VA INNOVATION-KORPORATIV HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	191
31.	Anvarov Otabek, Usmonov Shamsiddin Yo'lchiboyevich QO'QON SHAHAR MUSIQALI DRAMA TEATRI AKTYORI RAXMONJON PO'LATOVNING IJRO TALQINI	197
32.	Xalliyeva Qizilgul Rajapboyevna, Yusupova Gulnoza Umarjonovna, Yusupova Dilfuza Umarjon qizi TEACHING ONLINE GENERALLY. BUILDING A BODY OF ONLINE PEDAGOGY. DISTANCE FACTOR	207
33.	Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY MASALASI	214
34.	A.Yuldashyev, V.Boboyev CHOLG'UCHI-SOZANDA TALABALARNI O'ZBEK XALQ KUYLARI VA BASTAKOR-KOMPOZITORLAR IJODIDAN NAMUNALAR IJRO QILISHLARIDA IJODIY YONDOSHUVCHANLIKKA O'RGATISH	219
35.	Илхом Масалимов ФИЛЬМЛАРДА ЖАНГ САҲНАЛАРИ, АКТЁР ПЛАСТИКАСИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ ВА ИФОДАВИЙЛИГИ	226
36.	Mo'minmirzo Xolmo'minov Zokir o'g'li YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI QADRIYATLARINI MUSTAHKAMLASHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI	231

37.	B.A.Nurmanova O‘ZBEK DRAMA TEATRLARIDA SAHNALASHTIRILGAN SPEKTAKLLARDAGI REJISSORLIK TALQINLARI	237
38.	B.A.Nurmanova XXI ASRDA O‘ZBEK DRAMA TEATRI REJISSURASIDAGI TALQINLAR	245
39.	Manzura Yuldasheva, Asilbek Qolqanatov O‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI	254
40.	Oripov Elyorjon Shavkatovich MILLIY G‘OYA VA AN‘ANAVIY QADRIYATLARGA DIALEKTIV YONDOSHUV	261
41.	Arzimatov Botirali Abdumajidovich OVOZ REJISSYORLIGI KASBI KLASSIFIKATSIYA VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	266
42.	Baratov Bahodir, Abdiraximov Javohir, G‘ofurov Mirmuhsin O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI VA ULARNING MILLIY MADANIYATIMIZ RIVOJIDAGI AHAMIYATI	276
43.	Mo‘minmirzo Xolmo‘minov, Asilbek Qolqanatov O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)	281
44.	Э.Б.Қобилова ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОР ЖАНРА	291
45.	Rahmonov Ulug‘bek Karimovich YOSHLARNI MA‘NAVIY RUHDA TARBIYASHDA BAXSHICHILIK SAN‘ATINING O‘RNI	296
46.	Elmira Ataniyazova QORAQALPOG‘ISTONDA TEATR SANATINING SHAKLLANISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (“TONG NURI” TRUPPASINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQISHLARI MISOLIDA)	302
47.	Sunnatillaev Asatilla Sunnatovich SCIENTIFIC DESCRIPTION OF UZBEK REWARDS	308
48.	Usmonov Shamsiddin Yo‘lchiboyevich SAN‘AT TA‘LIMIDA MAKTAB MASALASI	315
49.	Botirov Shonazar Xusainovich “AVESTO” DAVRIDA RAQS SAN‘ATINING SHAKLLANISHI	326
50.	Toshmatov Davlatjon ESTRADA VA BOLALAR QO‘SHIQLARI IJROCHISI, BASTAKOR SH.RAMAZONOV	331
51.	Sharipova Odinaxon Shavkatjon qizi MAQOM SAN‘ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI	334
52.	Fayziyeva Feruza Xojimurodovna TELESERIALNING TARKIBIY TUZILMASIDAGI MUALLIF VA REJISSYOR HAMKORLIGI MASALASI	337
53.	Toxtasimov Shuxrat Maxmutovich, Utaganov Ravshanbek Jurayevich INSON TARAQIYOTDA RAQS SAN‘ATINING FENOMENI	342
54.	X.Usmonova ALISHER NAVOIY-MUSULMON SHARQINING BUYUK INSONPARVARI	348
55.	Saitov Xabibullo Akbarovich XX ASR O‘ZBEK RAQS SAN‘ATINING RIVOJLANISH YO‘LLARI	352

56.	Abdullayev Lochin Tolipovich XONANDALIK OVOZLARINING MAQOMOTDA TUTGAN O'RNI VA ANAMIYATI	358
57.	Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich BOBUR SHARQ RENOSANSI NAMOYONDASI	364
58.	Абиев Султанбек Қалбай улы БЕРДАҚ НОМИДАГИ ҚОРАҚАЛПОҚ ДАВЛАТ АКАДЕМИЯЛИК МУСИҚАЛИ ТЕАТРИНИНГ ТАРИХИЙ ЧЕГАРАЛАРИ	369
59.	Абубакиров Асфандиёр БЎЛАЖАК МУСИҚА ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ БАДИИЙ ДИДИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛЛАРИ	377
60.	Ж.Хожанов, М.Хожанова САҲНАДА ҚАЙТА ТУҒИЛГАН ОПЕРА	382
61.	Караева Феруза Қурбоновна АКТЁР ИЖРОСИДА САҲНА ЛИБОСЛАРИНИНГ ЎРНИ	388
62.	Umidahon Boltaboyeva AKTYORLIK MANORATIDA SANNAVIY ERKINLIKNI TARBIYALASH MASHQLARI	393
63.	Alijon Jo'rayev UD CHOLG'USI TARIXIDAN	402
64.	Арзиматова Заррина Бахтияровна ФОРТЕПИАНО ТАЪЛИМИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ	407
65.	А.Абидов, У.Болтабоева РОЛЬ ПУБЛИЧНЫХ ВЫСТУПЛЕНИЙ В ИЗУЧЕНИИ УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	414
66.	Б.Кенжаев УСТОЗЛАР МАКТАБИ. ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА УСТОЗНИНГ МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИ	424
67.	Б.Маматқулов БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИНИНГ АҲАМИЯТИ	431
68.	Юсупов Элчинбек БАРЧА ГЎЗАЛЛИК БИР САНЪАТДА. РАЪНО НИЗАМОВА ВА РАҚС	439
69.	В.Маматқулов BOLALARNI TARBIYALASHDA QO'G'IRCHOQ TEATRINING ANAMIYATI	443
70.	Бойқўзиева Гўзалхон Худойбердиевна ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУНОСАБАТЛАРИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИ	451
71.	Усманова Гуласал Нормухаммад қизи МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК РАҚС САНЪАТИ ТАРИХИНИ ДАВРЛАШТИРИШ МАСАЛАСИ ВА ХОРЕОГРАФИЯ САНЪАТИНИ ЎРГАНИШДА МАНБАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	458
72.	Gulbaxor Eshbaeva MADANIYAT SOHASIDA SAN'AT VA XALQ OG'ZAKI IJODI SOHALARINI O'ZLASHTIRISH	469
73.	Gulchira Xodjametova DIRIJYORLIK ETISHDA QO'LLARNING TO'G'RI HOLATI	473
74.	Д.А.Исмаилов СПОРТ ВА САҲНА ҚИЛИЧБОЗЛИГИ ЎРТАСИДАГИ ЎЗАРО ФАРҚЛАР	479
75.	Dadayev Axmatjon Shakarimovich SHARQDA BASTAKORLIK IJODI	483

76.	А.Н.Кудрявцев ЗНАЧЕНИЕ ТРЕНИНГОВ И УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ	489
77.	Nadirova Yelena Faritovna A.Y.VAGANOVA VALET MAKTABINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	492
78.	Boltaboyeva Umidaxon Mansurjonovna JO'ROVOZLIK SAN'ATI	498
79.	Замира Суюнова ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ БЕРТА ДАВИДОВАНИ ХОТИРЛАБ	505
80.	Zarlıq Bekbergenov MUSIQIY SHAKL VA UNING UMUMIY TAMOIYILLARI	511
81.	Исаев Камолиддин Саидович ЎЗБЕК ХАЛҚ МАРОСИМ ҚЎШИҚЛАРИДАН “ЎЛАН” НИНГ ЭТНИК ВА ҒОЯВИЙ-БАДИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	517
82.	К.Сеитжанова ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИНИНГ АСЛ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ИФОДАСИ	523
83.	Komarova Olga Konstantinovna NAVASKOR XOREOGRAFIYA JAMOALARIDA HALQ RAQSLARINI TALQIN QILISHDAGI MUAMMOLAR	528
84.	Солиева Ҳавасхон Омоновна ПРОФИЛАКТИКА КОНСЕРВАТСИЯСИ: КИТОБ ВА ҚЎЛЁЗМА ҲУЖЖАТЛАР, ЖАМИЯТДАГИ ТАРИХИЙ ЁДГОРЛИККА ЕТАЁТГАН ЗАРАРЛАРНИ ТЎХТАТИШ ОМИЛИ СИФАТИДА	535
85.	Мадримов Қахрамон Кадирович РЕЖИССЁРНИНГ ИЖОДИЙ ШАХС СИФАТИДА ШАКЛЛАНИШИДА ПЕДАГОГИКА ВА ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ	544
86.	Kasimova Nodira Saitjanovna QISQA METRLI KINONING OMMALASHUVIDA KINOFESTIVALLARNING O'RNI	548
87.	Djurayeva Laylo Shuxratovna MAQOMLARDA ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING QO'LLANILISHI	557
88.	Мунаввара Абдуллаева БУГУНГИ КУНДА ЎЗБЕКИСТОН ТЕАТР САНЪАТИДА ПРОФЕССИОНАЛ РЕЖИССУРА МУАММОЛАРИ	564
89.	Muattarxon To'yuchiyeva TENGDOSHLARIGA TENG BOLALAR	569
90.	Арзиматова Заррина Бахтияровна МАКТАБДАН ТАШҚАРИ МУАССАСАЛАРДА ИЖОДИЙ ҲАМКОРЛИК ВА УНИНГ ЖАМИЯТ РИВОЖИДА ТУТГАН ЎРНИ	573
91.	Fayziyeva Feruza Hojimurodovna TELESERIALNING TARKIBIY TUZILMASIDAGI MUALLIF VA REJISSOR HAMKORLIGI MASALASI	579
92.	Fayziyeva Feruza Hojimurodovna EKTRAN ASARI G'OYAVIY YECHIMINI AKS ETTIRISHDAGI REJISSORLIK IZLANISHLAR	584
93.	Mirzaeva Shaxrinsa, Asqarova Munajat Husanovna O'ZBEK MILLIY ETNO-LIBOSLARI TARIXIGA BIR NAZAR	589
94.	Есанов Музаббар Омарович ЎЗБЕК ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИДА ИЖРОЧИЛИК ТАРИХИ	596
95.	Sharipova Odinakhon Shavkatjon kizi, Najmetdinova Maluda Mamasodikovna ЎЗБЕК МУСИҚА САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР	603



96.	To'uchiyeva Shoiraxon No'monovna АХВОРОТ-KURUBXONA MARKAZI XODIMLARI FAOLIYATIDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATINING ANAMIYATI	607
97.	Арзиматов Ботирали Абдумажидович МУСИҚИЙ ОВОЗ РЕЖИССЁРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИДА ТУТГАН ЎРНИ	616
98.	Охунова Гульхаё ЭРКАКЛАР РАҚСИ МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИМИЗНИНГ АЖРАЛМАС ҚИСМИ СИФАТИДА	622
99.	Давлат Ахаткулович Химматов ПЕРСОНАЛНИ АДОЛАТЛИ МОТИВАЦИЯЛАШ ТУШУНЧАСИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ГЕНЕЗИСИ	626
100.	Р.Ж.Уснатов АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИДА ЭТЮДНИНГ АҲАМИЯТИ	640
101.	Р.Орипова «МУСИҚА МАДАНИЯТИ» ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ АҲЛОҚИЙ- ЭСТЕТИК ТАРБИЯЛАШ	645
102.	Talabayev Azizjon Nabijonovich RAJABIYLAR SULOLASIGA BIR NAZAR	651
103.	Рухсора Айтмирзаева, М.У.Адашева РАҚС - НАФИС САНЪАТ ТАРИХИГА БИР НАЗАР	661
104.	Абатбаева Рано Алламбергеновна ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н.МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ	666
105.	Собирова Сайрам Мухсиналиевна КИНЕМАТОГРАФИЯДА МОНТАЖ САНЪАТИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ҲАМДА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ	672
106.	К.С.Сағатов БАЛЕТ - ЭТО ИСКУССТВА МУЗЫКАЛЬНОГО ТЕАТРА	678
107.	Орол Абдуманнонович Сафаров НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС: КАТТА АШУЛА	683
108.	Irina Radikovna Sultangirova MUSICAL DRAMATURGY OF U.MUSAEV'S BALLEТ "TOMIRIS"	690
109.	T.Xalilov XALQ MUSIQIY IJODIYOTINING MAHALLIY USLUBLARGA XOS JANR TURLARI TAVSIFI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISH MUAMMOLARI	694
110.	Тожиев Достонжон Бекназар ўғли ТУРКИЙ ДАВЛАТЛАР ТАШКИЛОТИ: ТУРКИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОН ЎРТАСИДАГИ ДИПЛОМАТИК АЛОҚАЛАРНИНГ БОШЛАНИШИ ҲАМДА ЯНГИ БОСҚИЧИ	699
111.	Safarov Zarifjon КАТТА АШУЛА ИЖОДИЛИК ЖАРAYONINING JISMONIY VA RUHIY ASOSLARI	707
112.	Улбиби Абдуллаева МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ СТИЛЕВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ СОВРЕМЕННОЙ ФОРТЕПИАННОЙ КУЛЬТУРЫ	711
113.	Xusnidaxon Qodirova, U.Boltaboyeva МАМЛАКАТИМИЗДА JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI ОММАЛАСHTIRISHDA ХОТИН-ҚИЗЛАР СПОРТИНИНГ О'РНИ	717

114.	Тиллаев Азамат Мелиевич ХОРЕОГРАФИЯ СОҲАСИНИНГ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА КЛАССИК РАҚСНИНГ АҲАМИЯТИ	723
115.	Абдираманов Ноқисбай Маратович “SHARQ QALDIRG’OCHI” TAMARAXONIM	728
116.	Усманова Хумора Аҳмаджонова ЎЗБЕК ЛИНГВОМАДАНИЯТИДА РАМЗ ТУШУНЧАСИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ	733
117.	С.Юлдашев, С.Азизов ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ - СЎЗ САНЪАТИ	744
118.	Хурлиман Аяпова РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В ДОШКОЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ	753
119.	Shaxzoda Xudoynazarova, Behzod Mamatqulov IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR VA YOSHLAR HAYOTIDA ХОРЕОГРАФИYA SAN’ATINING O’RNI	759

## ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ТЕАТРИ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ТАРАҚҚИЁТИДА ЖАДИДЛАР ВА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ

Элдор Ҳушвақтов

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Мазкур мақолда XX аср бошларида мамлакатимизда профессионал труппалар ва театрлар шаклланишида маърифатпарвар Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Абдулҳамид Чўлпонларнинг Тошкент, Қўқон, Самарқанд шаҳарларида ўзбек миллий театри тараққиёти учун амалга оширган ижодий ишлари ҳақида маълумот берилган бўлиб, унда театр-труппалари ижодий, ташкилий фаолияти, театрларда репертуар ва миллийлик масалалари, актёр ва режиссёрларнинг ижро маҳорати ва этикаси тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** Жадид, жадидчилик ҳаракати, жадидлар эстетикаси, театр-труппа, ижро интизоми, репертуар.

## JADIDS AND THEIR ACTIVITIES IN THE ARTISTIC AND AESTHETIC DEVELOPMENT OF THE UZBEK NATIONAL THEATER

Eldor Hushvaqtoev

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article provides information about the creative work of enlighteners Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Abdulhamid Cholpon for the development of the Uzbek national theater in Tashkent, Kokand, Samarkand in the early twentieth century in the formation of professional troupes and theaters in our country. , repertoire and national issues in theaters, and the performance skills and ethics of actors and directors.

**Keywords:** Jadid, Jadid movement, Jadid aesthetics, theater troupe, performance discipline, repertoire.

Маҳмудхўжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Абдулҳамид Чўлпонларнинг номлари ўзбек миллий театр санъати саҳифаларига зарҳал ҳарфлар билан битилгандир. Тошкент, Қўқон, Самарқанд шаҳарлари ўзбек миллий театри марказлари бўлиб қолди. Айнан юқорида номлари қайд этилган маърифатпарварларнинг саъй-ҳаракатлари билан ўзбек миллий театри жаҳон театр санъатида маълум даражада ўз ўрни, мавқеига эга бўлди.

Жадидлар яратган европача шакл, миллий мазмундаги янги миллий театр томошабинларнинг кўз олдида, уларнинг бевосита иштирокида чуқур бадиий-эстетик ўзгаришлар, ривожланиш ва ижодий изланишлар жараёнини босиб ўтган.

Туркистонда XX аср бошида, аввало, маорифда ислох бошланган, кейин миллий матбуот пайдо бўлган. Лекин маърифатни, миллат маънавиятини ривожлантириш учун яна эстетик амалиётнинг асосий элементи – санойи нафиса уйи – театрга эҳтиёж сезилди. XX аср бошларида Татаристон ва Озарбойжондан Ўрта Осиёга гастролга келган театр ижодкорларининг спектакллари томошасидан кейин жадидлар ғоявий ва амалий режасида театр – Ибратхона ташкил этилиши миллий эстетик онг шаклланишида алоҳида ўрин эгаллайди.

1911 йилда Махмудхўжа Бехбудий “Падаркуш ёхуд Ўқумаган боланинг ҳоли” номли “3 парда 4 манзарали миллий, биринчи фожиа”сини ёзади. Асарни чоп қилиш хусусидаги уринишлар икки йилгача муваффақиятсиз кечади [3, 52-53]. Сўнгра у пьесани бостиришга бошқа йўл кидирди, яъни пьесанинг муқовасига русча қилиб “Россиянинг француз истилосидан озод бўлиши ва машҳур Бородино жанги хотиралари юбилейига бағишлайман” деб, цензуранинг Тбилиси комитетига юборади [2, 280]. “Матбуот ишлари Тифлис кўмитаси цензори рухсати билан Кавказ ўлкаси сахналарида қўйиш мумкин” деган 1913 йил 23 март 19940-сон қарорига кўра, асар 1913 йил Самарқандда алоҳида китоб ҳолида чоп этилади [3, 52-53].

“Падаркуш” илк бор ҳаваскорлар томонидан 1914 йил 15 январь куни Самарқанднинг Янги шаҳар қисмида намойиш этилади. Шу муносабат билан “Ойна” мажалласининг 1914 йил 25 январь 14-сонида “Туркистонда биринчи миллий театр” ҳамда “Падаркуш” кетидан татар труппаси қўйган “Олдадук ҳам олдандук” номли татарча спектакль ҳақида 1 февраль 15-сонида “Самарқандда театр” номли давомли ахборот-тақризлар эълон қилинди. Унда “Падаркуш” фожиасининг “ниҳоятда яхши амалга қўйилгани” айтилиб, театр-ибратхонага минглаб халқ “хужум” қилгани, 320 ўринлик театр залига яна элликта қўшимча жой қилиниб, билетлар баланд нархларда аввалдан сотилгани баён қилинади [3, 54].

Абдулла Авлоний ўз “Таржимаи ҳоли”да шундай ёзади: “1913 йилдан бошлаб халқни кўзин очмоқ, маданиятга яқинлаштирмақ учун театруга киришиб, театру ишларини йўлга қўювчиларнинг бошлуғу бўлуб, Туркистоннинг бир неча шаҳарларига бориб ўзбеклар орасида театруга йўл очдим. ... “Турон” исмли театральни блағотворительный жамиятни юзага чиқардим”. Авлонийнинг бу сўзини Миён Бузрук Солиҳов ҳам қайд этган: “1913 дан бошлаб ҳаваскор тусида тўпланган бу тўда 1914 охирида расман

“Турон тўдаси” номи билан ўтилади ва тобора ташкилий тус ола боради” [3, 60].

“Турон” жамиятига турли дин ва мазҳабдаги кишилар аъзолик бадалини мунтазам тўлаб туриб, ҳақиқий аъзо бўлишлари мумкин эди.

Жамият фахрий, ҳақиқий ва Туркистон ўлкасида муҳим нарсаларни сотиб олиш ҳуқуқига эга бўлган ижрочи аъзолардан ташкил топади. Ижрочи аъзо сифатида қабул қилинаётган шахс 13-бандда айтилишича, биринчи маротаба ўз иқтидори (амплуа) доирасидаги кичикроқ ролда синаб кўрилиши лозим. Агар унинг иқтидори сезилса, шунга яраша роль берилиб, ижросидан сўнг ҳайъат қарори билан жамият аъзолигига қабул қилинган. Бу банд труппага шунчаки ҳаваскорни эмас, балки муайян театр талабларига жавоб бера оладиган шахсларни, яъни профессионал хусусиятли шахсларни жиддий синов ва танлаш йўли билан қабул қилинганини аниқлатади. Бу профессионал театрнинг муҳим шартларидан биридир.

Тадқиқотчиларнинг илмий хулосаларидан шуни билиш мумкинки, миллий театр ғояси 10-йилларнинг ўрталарига келиб, бутун Туркистон шаҳарларидаги зиёли ёшларнинг фикри-ёдини қамраб олганини, миллат фақат маърифат орқали тараққий топишини ва унда театр асосан эстетик восита вазифасини бажаришини, “Падаркуш” спектаклининг Самарқанд ва Тошкент театрларида муваффақиятли сахналаштирилганлиги ва унинг самараси ўлароқ тушган маблағлардан “усули жаҳид” мактабларининг қурилиши ва мактабларга керакли ўқув анжомлари келтирилганлиги ҳам театрнинг, жумладан актёрлар асосий фаолиятининг натижаси маърифатни тарғиб қилиш эканлигидир.

Қарийб ўттиз йиллар давомида фаолият юритган жаҳидлар, халқни маърифатга чорлаш борасидаги фаолиятининг 20 ёки ундан ҳам кўпроқ даврини театр санъати орқали тарғиб қилди. Мана шу қисқа бир даврда театр санъати халқнинг миллат сифатида шаклланишига, маърифатга интилиши орқали ўзликни аниқлашига, маънавий қиёфаси ўзгариб, ижтимоий онги ўйғонишига, эстетик диди камол топиб, дунёқараши тубдан ўзгаришига асос бўлди.

Жаҳидлар эстетикаси ва вужудга келган янги ўзбек театр санъати миллий уйғониш, мустамлакачиликка, қарамликка, зўровонликка қарши курашиш жараёнида шаклланган ижтимоий ҳодисадир. Зеро, XIX асрнинг охири XX асрнинг бошлари эстетика тарихида ғоят мураккаб ва хилма-хил қарашларга бой давр бўлиб, фан-техника тараққиётида, инсониятнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-маънавий ҳаётида мисли кўринмаган тарихий воқеалар юз берди. Булар инсонларнинг борлиққа эстетик муносабатини ўзгартириб, дунёни янгича ўрганиш ва ифодалаш заруриятини тақозо этганлиги жидидлар томонидан яратилган асарларда ўз аксини топган.

Жадидлар европача театр санъатининг янги жанрларини бизнинг ҳудудимизда татбиқ этар эканлар, миллатни маърифат, маънавият ва санъат орқали эстетик тарбиялаш, бу тарбия истиқболида истиқлолга етишишни кўзладилар.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абдуқундузов М. Ўзбек миллий театр санъати: тараққиёт босқичлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.
2. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи XVIII асрдан XX аср аввалигача. – Тошкент: Фан, 1968.
3. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1997.
4. Умаров М. Маннон Уйғур ва миллий театр эстетикаси. – Тошкент: Муסיқа, 2006.

## TEMP VA RITMNING AKTYORLIK SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI

Madaliyev Abdurashid Raximberdiyevich  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotasiya:** Ushbu maqolada aktyorlik san'atining temp va ritmning tutgan o'rni ahamiyati, vazifasiga to'xtalishdan avval ana shu ikki termin haqida ma'lumot beriladi. teatri aktyorining harakatlari va uning imkoniyatlari misollar yordamida ochib berilgan. Temp va ritmning aktyorlik san'ati fanida dolzarb ekanligi ushbu maqolada qisqacha yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Temp va ritm, xatti-harakat, sahna voqeasi, ichki tuyg'u, ichki ishonch, ichki sust ritmda, ichki sokinlik, shart-sharoitdan.

## THE ROLE OF TEMP AND RHYTHM IN THE ART OF ACTION

Madaliyev Abdurashid Raximberdiyevich  
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article provides information about these two terms before focusing on the role of tempo and rhythm in the art of acting. The actions of a theater actor and his potential are explained with the help of examples.

**Keywords:** Temp and rhythm, behavior, scene, inner feeling, inner confidence, inner slow rhythm, inner calm, condition.

Mavzu rejasi

1. Temp elementi
2. Ritm elementi
3. Ijobiy va salbiy tempo-ritmlar

Temp va ritmning aktyorlik san'atida tutgan o'rni, ahamiyati, vazifasiga to'xtalishdan avval ana shu ikki termin haqida ma'lumot berish o'rinli bo'ladi. Ma'lumki, temp va ritm tushunchasi musiqa olamida paydo bo'lgan. Keyinchalik esa sahna san'ati ijodiyotida ham ularning har ikkisi omadli qo'llanib kelinadi.

Sahna san'ati fanida temp - xatti-harakatning tezlik o'lchovi deb tushuniladi. Xatti-harakat turli tezlikda, ya'ni sekin, tez, o'rta va h.k. kabi vaqt o'lchovi silsilasida amalga oshiriladi. Va aniqki, ularning har biriga o'ziga xos ravishda turli energiya, quvvat sarf etiladi. Shuni e'tiborga olish joizki, xatti-harakat tezligining mexanik oshish yoki kamayishi ichki tuyg'u, fikr, kechinmaga ta'sir etmasligi mumkin. Shuning uchun ham ko'pchilik rejissyorlar vaqtdan yutish maqsadida aktyorlardan

jadal so'zlash, xatti-harakat qilishni talab etib, ichki kechinma faolligi ustida bosh qotirmaydilar va bu bilan spektakl yaxlitligiga jiddiy putur yetkazadilar.

Ritm tushunchasi bir oz o'zgacha ma'noni ifoda etadi. Xatti-harakat tempi uning yaxlit ko'rinishi, emotsional ifodasi, xatti-harakat va sahna voqeasi, aktyorlar kechinmasini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari ritm, ritmlilik, ya'ni xatti-harakat ko'rinishi, tuzilishi, qurilishi uning zamon va makonda tutgan o'rnini ham belgilovchi ma'noni ham ifoda etadi. Inson ritmik xolatda harakat qilganida uning harakat ko'rinishi bir meyorli tus oladi. Aksincha, ma'lum ritmga ega bo'lmagan xatti-harakat esa yaxshi kamol topmagan qurilishi, sistemasi bilan ajralib turadi. Ularning har ikkisi, ya'ni ritmlilik va noritmlilik tushunchalari bir termin - ritm tarkibiga kirib, xatti-harakatning dinamik xarakteri, uning tashqi va ichki tuzilmasini aniqlashda xizmat ko'rsatadi.

Ritm termini sahna xatti-harakati intensivligini belgilabgina qolmay, uning o'lchov birligini ham ma'lum ma'noda ifoda etadi. Bir o'lchov tezligi tempidagi xatti-harakat turli xarakterga, demakim, turli ritmga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun eshkak eshuvchi sportchining harakat tempi tezligi tez orada dovul turishi xavfidan qochayotgan baliqchining eshkak eshish tezligi bilan bir tempga ega bo'lishi mumkin. Ammo, ularning har ikkisi turli xatti-harakat xarakterini ifodalaydi. Ya'ni birinchi xolatda sportchi ushbu xatti-harakatga uzoq tayyorlanganlik, vazminlik va ichki ishonch, faollik xarakteriga ega. Ikkinchi xolatda esa yaqinlashib kelayotgan xavfdan qo'rquv xissi, baliqchining xatti-harakati ritmi birdaniga tez yoki sekin suratga almashib turishi, energiyaning birdaniga pala-partish sarflanishi bilan o'zgacha xarakterga ega bo'ladi.

Temp va ritm tushunchalari o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Shu tufayli ham sahna ijodida ular ikkisi birgalikda, ya'ni tempo-ritm shaklida qo'llaniladi. (ushbu termini ilk bor K.S.Stanislavskiy qo'llagan). Sahna xatti-harakatining ko'pgina ko'rinishlarida ularning har ikkisi biri-biriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Faol ritm xatti-harakat jarayonini tezlashtirishi yoki aksincha, sust ritm uning sekinlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Biroq, bu bog'liqlik har doim ham o'zini oqlamaydi. Ularning har ikkisi o'rtasida aks bog'liqlikni ham kuzatamiz. Masalan: shaxmat turnirida o'yin jarayoni juda sekinlik bilan, biroq, diqqatning yuqori darajada faolligida kechadi. Xavaskorlar o'yinida esa vaqtni o'tkazish maqsadida juda tez tempda, ammo ichki sust ritmda sodir bo'ladi.

Sust ritm jarayoni turli sabablarga ko'ra, ba'zi xollarda ichki bezovtalik, siqqlik, boshqasida esa ichki sokinlik, xotirjamlik yoki tushkun kayfiyat natijasida yuzaga kelishi mumkin. Har bir xolat o'zida individual ritmni aks ettiradi.

Temp va ritm o'zgarishi berilgan shart-sharoitdan kelib chiqib sodir bo'ladi. Ushbu mavzuga bag'ishlangan dastlabki mashqlar xatti-harakat davomiyligini o'zgartirmagan xolda bir voqeani turli-tuman va muayyan sharoitda bajarish kabi



oddiy vazifalardan boshlanadi. Pedagog talabalarga bir voqeani turli makon va vaqt sharoitida bajarish vazifasini topshiradi. Masalan: bir talabaga maktub yozish topshiriladi. Avvaliga u uy sharoitida sevgan insoniga maktub yozadi. Bunda u shoshilmasdan, turli lirik, yoqimli xislar ta'sirida hatti-harakat qiladi. endi ayni xattiharakatni uzoq o'lkadagi bir g'orga ko'chiramiz. Xalokat tufayli sheriklaridan ajralgan, o'limi yaqinlashayotganini sezgan geolog so'ngi ilinj - o'z ortidan izlab keluvchilarga ma'lumot qoldirish niyatida bo'lgan voqeani qog'ozga tushiradi. Berilgan shart-sharoitda mashqni bajarayotgan talabaning hatti-harakatlari tempi va ritmi birinchi xolatdagidan mutlaqo boshqa ko'rinishda tashkil topadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maxmudov J. Maxmudova X.-"Aktyorlik maxorati".T.:Lesson Press" nashriyoti, 2016y.
2. Axmedova Z.-"Aktyorlik maxorati" fani majmuasidan mashqlar matni. -T., 2016y.
3. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
4. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
5. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
6. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o 'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
7. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
8. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
9. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
10. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
11. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).

12. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. *Oriental Art and Culture*, (6).
13. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
14. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2407-2410.
15. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.
16. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.
17. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
18. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
19. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
20. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
21. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.
22. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).
23. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.
24. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
25. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.
26. Haydarov, A. (2019). АКTYORЛИК SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.
27. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

28. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

29. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

30. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.

31. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётгийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

32. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

33. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 37-43.

34. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.

35. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.

36. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.

37. Umarova, X. (2021). АКTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).

38. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.

39. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.

40. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.

41. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

42. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

43. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## YOZMA DRAMATURGIYAGA ASOSLANGAN QO'G'IRCHOQ TEATRIDA AKTYORNING O'RNI

Madaliyev Abdurashid Raximberdiyevich  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotasiya:** Ushbu maqolada yozma dramaturgiyaga asoslangan qo'g'irchoq teatrida aktyorning dastavval o'z yo'lini topib olguniga qadar, an'anaviy tomosha teatri an'analariga tayanib ish ko'rishish. Jamoa rahbari va yosh aktyorlar qo'g'irchoq teatri avvalo xalqqa xizmat qilishi kerak ekanligini degan g'oyani ilgari surdi. Ammo yangi teatrdagi bunga qanday erishish mumkinligi barchani birday o'ylantirardi. An'anaviy teatrdagi boy imkoniyatlari, xalq donishmandligi, uning keng masshtabligini katta maydondan kichik teatrga qanday ko'chirish mumkinligi jamoa oldida turgan dolzarb masalalarini izlanishlar, qo'g'irchoq teatri aktyorligidagi hozirgi kunda shart-sharoitlar muammo va kamchiliklar ularni qay tarzda hal etish va spektakllarning badiiy jihatdan to'laqonligini oshirish bo'yicha uzluksiz ishlar amalga oshirish, o'zini o'zi boshqarishi, raqobatbardoshligini oshirish, yozma dramaturgiyaga teatrdagi hozirgi zamon ila hamnafas qilish uchun nimalar qilish kerak ekanligi haqida batafsil hikoya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Yozma dramaturgiyaga, obraz ustida, qo'g'irchoq yasash, an'anaviy tomosha, qo'g'irchoqboz, professional teatr, an'anaviy qo'g'irchoq teatri, qahramonlar, professional qo'g'irchoq teatri, masxaraboz, korfarmon "Chodir jamol", professional ijro, san'at, tajriba, maktab, muvaffaqiyat, tomoshabin, qahramon, milliy repertuar, an'anaviy ijrochilik, an'anaviy teatr, milliy dramaturgiya, aktyorlar ansambli.

## THE ROLE OF THE ACTOR IN THE PUPPET THEATER BASED ON WRITTEN DRAMA

Madaliyev Abdurashid Raximberdiyevich  
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** In this article, a puppet show based on written drama is based on traditional theatrical traditions until the actor first finds his way. The team leader and the young actors put forward the idea that the puppet theater should serve the people first. But in the new theater, everyone was wondering how to achieve this. The rich potential of traditional theater, the wisdom of the people, how to move its large-scale from a large area to a small theater, the current issues facing the team, the current conditions of puppet theater, the problems and shortcomings, how to solve them and

continuous work on improving the artistic completeness of performances, self-governance, increasing competitiveness, written drama will tell in detail what needs to be done to keep the theater in tune with the modern world.

**Keywords:** Written dramaturgy, on image, puppetry, traditional spectacle, puppet, professional theater, traditional puppet theater, heroes, professional puppet theater, clown, employer "Tent Jamol", professional performance, art, experience, school, success, spectator, hero, national repertoire, traditional performance, traditional theater, national drama, ensemble of actors.

Yozma dramaturgiyaga asoslangan, bino ichida ish ko'ruvchi yangi uslubdagi o'zbek qo'g'irchoq teatri zamonaviy teatr san'atining boshqa turlariga qaraganda nisbatan kechroq rivojlandi.

1928 yilga kelibgina professional turdagi qo'g'irchoq teatri jamoasi yuzaga kela boshladi. Unda xalq qo'g'irchoqbozlaridan Po'latjon Doniyorov va shu san'atga ixlos qo'ygan qator ijodkorlardan Nurxon Eshmuhamedov, Hamidulla Abdullaev, Mahamatjon Soliyev va Olim Halimtoyevlar faoliyat yuritishdi. Karton, latta va yelimdan qo'g'irchoq yasash hamda yozma pyesa asosida ishlashga o'tildi.

Jamoa spektakllarni namoyish etishda an'anaviy qo'g'irchoq teatri yo'lidan borgani tufayli muvaffaqiyatga erishdi. Ilk sahna asarlari maktab, bolalar uyi va Chorsu, Eski Juva, Beshyog'och maydonlarida ijro etildi.

Yozma dramaturgiyaga asoslangan teatr dastavval o'z yo'lini topib olguniga qadar, an'anaviy tomosha teatri an'alariga tayanib ish ko'rdi. Jamoa rahbari va yosh aktyorlar qo'g'irchoq teatri avvalo xalqqa xizmat qilishi kerak, degan g'oyani ilgari surdi. Ammo yangi teatrda bunga qanday erishish mumkinligi barchani birday o'ylantirardi.

Avvaliga ilk spektakllarni sahnalashtirishda dramatik teatrta taqlid qilindi. An'anaviy teatrning boy imkoniyatlari, xalq donishmandligi, uning keng masshtabligini katta maydondan kichik teatrta qanday ko'chirish mumkinligi jamoa oldida turgan dolzarb masalalardan biri edi.

Muammo chindan ham mushkul bo'lib, to'g'ri qaror chiqarishni talab etardi. Sababi, so'z teatrning badiiy-g'oyaviy yo'nalishini aniqlash, uning poydevorini qurish to'g'risida borardi. Poydevor qanchalik pishiq va mustahkam bo'lsa, binoning yuqori qavati ham chidamli bo'ladi. Shuningdek, teatr boshidanoq o'z yo'li, maqsadi, vazifasi hamda ustuvor yo'nalishini aniq belgilab olmasa, kelajak avlod o'z oldidagi vazifani to'liq ado eta olmaydi. Agar bunda boshidanoq xatoga yo'l qo'yilsa, bu teatr uzoqqa bormaydi. Mazkur haqiqat tarixda ko'p bor o'z isbotini topgan.

To'g'ri, jamoa bor imkoniyatlardan foydalanib, an'anaviy tomoshaning shaklini shundoqqina ko'chirib olishi ham mumkin edi, biroq tanganing ikki tomoni bo'lganidek, o'sha vaqtlarda an'anaviy teatrni tushunmaydigan, uni eskilik sarqiti deb

baholaydigan tomoshabinlar buni qabul qila olmagan bo'lardi. Shunda ham P.Doniyorov jamoasi qo'g'irchoqbozlikning an'anaviy turini saqlab qolishga, uning hayotbaxsh unsurlarini, tomoshaviylik qudratini yangi teatrga olib kirishga va zamon bilan bog'lashga urindi.

Bundan tashqari, yangi uslubdagi professional qo'g'irchoq teatrining shakllanishida 1937 yilda Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadasi va unda ishtirok etgan xalq qo'g'irchoqbozlarining san'ati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu o'rinda tanqidchilar M.Qodirov va S.Qodirovalar ijrochilik masalasiga to'xtalarkan, haqqoniy bir savolni o'rtaga tashlaydi va unga asosli ravishda javob qaytaradi. "Bir umr og'zaki dramaturgiya asosida ishlab kelgan qo'g'irchoqbozlarga "Saltanat" nomli pyesa o'zining qanday xususiyati bilan yoqib qoldi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu pyesa "Chodir xayol" teatrida ko'rsatib yurilgan "Sarkardalar" nomli og'zaki pyesa kompozitsiyasi obrazlari va motivlaridan foydalangan holda yaratilgan. Xalq qo'g'irchoqbozlarining bu yozma pyesani nisbatan oson va tez o'zlashtirganliklari va katta mahorat bilan namoyish qilganliklarining boisi ana shunda"<sup>1</sup>.

Demak, bundan shuni xulosa qilish mumkinki, qo'g'irchoq teatri o'z yo'lini topib olguniga qadar an'anaviy teatrning boy imkoniyatlaridan to'liq foydalangan va shu bilan birga professional teatrning yangi ifoda vositalari, ijro uslublari, qo'g'irchoq qahramonlari va spektakllarini yaratishga intilgan.

Shu o'rinda yana bir haqli savol tug'iladi. An'anaviy qo'g'irchoq teatri ijrochisi professional teatr aktyoriga aylangach, nimalarga ega bo'ldi-yu, nimalarni boy berdi?

Ma'lumki, an'anaviy teatrdagi aktyor (qo'g'irchoqboz)ning o'rni, mavqeyi yuqori darajada bo'lgan. U birvarakayiga uch-to'rt funksiyani bajargan. To'lda tarkibidagi sozandaning birortasi kelmay qolsa, aktyor uning o'rnini bimalol to'ldira olgan. Biroq ijrochining o'zi bo'lmasa, butun tomosha yo'qqa chiqqan. An'anaviy qo'g'irchoq teatri aktyori serqirraligi bilan ham professional teatr aktyoridan farqlangan. U qo'g'irchoqning o'zidan tortib, kiyimi, sahna dekoratsiyasi, butafor, rekvizitlarigacha o'zi yasab, tayyorlagan. Pyesaning matniga haqli ravishda egalik qila olgan va erkin ijodkor sifatida improvizatsiyadan to'liq foydalangan.

Professional teatr uslubi aktyorni ko'plab majburiyatlardan xalos qildi. Ya'ni aktyor endi faqat o'z kasbi bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ldi. Dekoratsiya, butafor, rekvizit bilan bog'liq masalalarga ssenograf, tomoshaning umumiy atmosferasiga rejissor, pyesa matniga dramaturg, qo'g'irchoq yasashga qo'g'irchoq ustasi, musiqa bilan bog'liq qismiga bastakor, qo'shimcha ifoda vositalari uchun texnik, chiroqchi va boshqa xodimlar javobgar bo'lishdi. Bir so'z bilan aytganda, hamma o'z ishi bilan shug'ullanishni boshladi. Professionallikni asl mohiyati va talabi ham shu edi, aslida. Biroq an'anaviy qo'g'irchoq teatri aktyorining chegara

<sup>1</sup> Ўша маъба. 115-116-б.

bilmas imkoniyatlari qisqartirilgan professional teatrda u bo'g'ila boshladi. Yozma dramaturgiya, usti yopiq tomosha zali hamda hukmfarmon rejissor aktyorni ma'lum bir qolipga moslashtirishga majbur qilgandek edi, go'yo. Soatlab cho'zilgan repetitsiyalar, har bir obraz, matndagi replikalar va harakatlar ustida ishlash, partnyorlar bilan muloqot o'rnatish professional teatr tartibiga aylangandi. Bu erda ijrochi dramaturg tomonidan yozilgan so'zlarni aniq, ravon, xuddi matnda yozilganidek ijro etishi, o'zidan so'z qo'shmasligi va rejissor belgilab bergan umumiy xatti-harakat chizig'iga putur yetkazmasligi kerak edi.

Dramatik teatr talabi kabi qo'g'irchoq teatrda ham Stanislavskiy sistemasida ish ko'rish, Obrazsov ta'limotini qo'g'irchoq teatriga joriy qilish ishlari asta-sekin yo'lga qo'yila boshlandi.

Ijobiy tomoni shundaki, professional teatrda aktyor o'z roliga chuqurroq kirish, dramatik teatr aktyori kabi rol ustida ishlash, qahramoni xarakteriga mos harakat, ovoz, topilmalarni topishga intilish kuchaydi. U o'z roliga, qo'g'irchoq'iga javobgar shaxsga aylandi.

Professional teatr aktyorga qo'g'irchoq bilan ishlash texnikasi, badiiyatini yanada mukammal o'zlashtirish, uning ichiga chuqurroq kirish va bor imkoniyatlarni ishga solishni o'rgatdi. Ya'ni har bir aktyor o'z rolini nazariy jihatdan to'liq anglab, imkoniyatlari darajasida foydalana boshladi. Qo'g'irchoqning maqsad, vazifasi va asardagi umumiy liniyasini puxtaroq o'rganish, obrazning xarakter xususiyatlarini tahlil qilish bilan bog'liq masalalar o'rta tashlandi. Qahramonning o'zi kim, nima uchun asarga kiritilgan, uning maqsad va vazifasi nimadan iborat kabi savollarga javob izlashga urinish har bir asarni sahnalashtirishdan oldingi tabiiy jarayonga aylandi. Bunda umumiy yaxlit jarayonni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib o'rganish, qo'g'irchoq qahramonning ichki ruhiyati, qalbi, tuyg'ularini aks ettirishga bo'lgan urinish ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Keng maydon, o'ziga xon va tomoshabinning har bir nafasi, kulgusi, bahosini yaqin-yaqindan his qilib turishga odatlangan qo'g'irchoqbozlarning ko'pi dastavval "qattiq tartib"ga ko'nika olmadi. Shu tufayli ham professional teatrda ancha yillarga qadar professional teatr talabi, uning ob-havosini tushunadigan, qo'g'irchoq sahnasi qonuniyatlaridan xabardor aktyorlar tarkibini shakllantirish qiyin kechdi. Biroq shunisi ham muhimki, professional teatr aktyori o'z roligagina javobgar shaxsga aylanib, faol ijtimoiy pozitsiyasini ham yo'qotgandek bo'ldi, nazarimizda. Bu esa undagi xalqchilik, tomoshaviylik va improvizatsiyadagi erkinlik tamoyillarining xiralashishiga sabab bo'ldi.

An'anaviy qo'g'irchoq san'ati ijrochiligi professional sahnaga ko'chgach, qator xususiyatlarini ham yo'qotdi. Birinchidan, o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatrining auditoriyasi yosh jihatdan chegaralanmagan bo'lib, katta-yu kichikka birday xizmat qilgan. Professional teatr esa ijodining ilk bosqichlaridan asosan kichik yoshdagi

tomoshabinlarning xohish-istaklariga qarab moslashishga harakat qildi. Natijada, teatr an'anaviy qo'g'irchoq san'ati kabi jamiyatning barcha vakillarini qiziqish va ehtiyojlarini birday qamrab ololmadi.

Ikkinchidan, an'anaviy qo'g'irchoq teatri muqim milliy qahramonlari – Polvon Kachal, Bichaxonlarga ega bo'lib, bu qahramonlar asrlar mobaynida xalqning orzu-umidlari, armonlarini o'zida aks ettirib kelgan. Ular xalq orasidan chiqqan tipik vakillar sifatida jamiyatdagi barcha illatlarni fosh qilgan, yovuzlik, adolatsizlik va zo'ravonlikka qarshi kurashgan. Shu tufayli oddiy xalq bu qahramonlarni sevgan, o'z inqilobini qabul qilgan.

Polvon Kachal shaxs ozodligi, tenligi uchun kurashadi, chin oshiq bo'lib sevadi, sevgilisi Bichaxonga uylanadi, farzandining dunyoga kelishidan quvonadi. Shu kabi voqealar asnosiga qurilgan Polvon Kachalning turli sarguzashtlari har bir tomoshabinning boshidan o'tgan va xalqning qadrdon qahramoniga aylantirgan. Polvon Kachalning do'sti bu – xalqning do'sti, dushmani esa xalqning dushmani sifatida qabul qilingan. Shuningdek, Polvon Kachalning qochirimli iboralari, xalqona aytimlari tomoshabinlar ichida mashhur bo'lib, xalqning sevimli so'zlari, qo'shiqlariga aylangan. Professional qo'g'irchoq teatri aktyorligida, afsuski, bu kabi milliy qahramonlarning obrazlari gavalantirilmadi. Boisi, milliy dramaturgiyadagi kenglik va yangi san'at turining o'ziga xos xususiyatlari hali to'la anglab etilmagan edi. Yozilgan pyesalarning o'zi esa xalqona soflik, samimiy yumor xususiyatlaridan yiroq bo'lib, unda asosan tashviqot masalalari ustuvor edi. Shu tufayli professional qo'g'irchoq teatri ijrochiligi bir muddat xalq hayotidan uzilib qoldi.

1939 yil Toshkent shahrida rasman Respublika qo'g'irchoq teatri tashkil etilib, o'z faoliyatini boshladi. Truppaning ijodiy o'sishida uning badiiy rahbari Po'latjon Doniyorovning xissasi katta bo'ldi. Boisi qo'g'irchoq ustasi Doniyor Shohsuvorov qo'lida soha sirlarini o'rgangan shogird-o'g'il har ikki teatr ("Chodir jamol" va "Chodir xayol") turi talablarini yaxshi biladigan, an'anaviy teatr ijrochiligining qonuniyatlarini yaxshi tushunadigan ijrochi edi. O'z yo'lini qidirayotgan yangi teatr jamoasida bunday aktyorning faoliyat ko'rsatishi zarur edi. Yig'ma sahnada (shirma) spektakl ijro qilish, yangi teatr muhitiga moslashish va yozma dramaturgiyaga asoslanib ish ko'rishdek murakkab jarayonda maktab ko'rgan, soha injiqliklaridan xabardor bo'lgan aktyorni topish oson emasdi. Qolaversa, endi-endi oyoqqa turayotgan teatr dramaturgiya va rejissurada ham professional kadrlarga muhtojligi yaqqol sezilib turardi. Bunday qiyin sharoitda ijrochidan ham dramaturg, ham rejissor vazifasini bajarish talab etilardi. Shu tufayli Po'lat Doniyorov dastlabki pallada an'anaviy ijrochilik maktabini o'tagan tajribali aktyor sifatida tashabbusni o'z qo'lga oldi.

P. Doniyorov o'zining masxaraboz qo'g'irchoq'i bilan qo'g'irchoq estradasiga, konsert dasturiga asos solgan. Uning chiqishlarida badiiy yaxlitlik hamda qo'g'irchoq



teatri san'atining an'anaviy va zamonaviy tamoyillari (elementlari) uyg'unligi sezilib turgan. Aktyorning Polvon Kachalga o'xshash Masxaraboz qo'g'irchoq'i o'ziga xos boshlovchi sifatida turli kichik namoyishlarni bir-biriga bog'lab e'lon qilgan va o'rtada o'zi ham ijrochi sifatida oz-ozdan qiziqchilik qilgan.

Bir qarashda bu an'anaviy teatr tomoshasining aynan o'zini eslatadi. Unda ham kichik tomoshalar o'zaro bir-biriga mantiqli tarzda bog'lanib, yaxlit tomoshani tashkil qiladi. Bu ishni odatda korfarmon bajaradi. Bu o'rinda esa P.Doniyorovning Masxaraboz qo'g'irchoq'i jonli plandagi aktyor – korfarmonning o'rnini egallaydi. Ya'ni jonli plandagi aktyor vazifasi ham qo'g'irchoq zimmasiga yuklatiladi. An'anaviy qo'g'irchoq teatridagi korfarmon o'rnini yangi teatrdagi qo'g'irchoq egallaydi.

Qo'g'irchoq teatrlarining professional yo'nalishdagi ilk bosqichi oson kechmagan. Dastlabki o'n yillik milliy repertuar, aktyorlar ansambli va rejissurani shakllantirishga ketgan. Qizg'in faoliyat davri esa urush yillariga to'g'ri kelgan. Texnik imkoniyatlarning nochorligi, milliy dramaturgiyadagi oqsoqlik qiyinchiliklarni yanada ko'paytirgan. Biroq teatr jamoasi mushkul vaqtlarda ham nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham birday quvonch, shodlik va ertangi kunga bo'lgan ishonch tuyg'ularini bag'ishlashda davom etdi. Bu yillarda teatr qirqqa yaqin spektakl va konsertlarni sahnalashtirdi.

O'tgan yillarda yangi teatr muhitini yaratish, teatrlarining asosiy mavzusini belgilab olish va teatr jamoasini shakllantirish bilan bog'liq masalalarga echim izlandi. Bu davrda qo'g'irchoq o'ynatish texnikasi yanada takomillashtirilib, yangi teatr talablari asta-sekin o'zlashtirib borildi. Bu orada teatrga yosh iste'dodli aktyorlar T.Diyorov, Z.Ishoqova, A.Saidaliyev, M.Rahmatullayeva, V.M.Gryaznova-Shushpanova, N.Zaynutdinovlar kirib keldi.

50-yillarga kelib aktyorlar tarkibida o'zbek va rus ijodiy guruhlarini shakllanadi. 60-yillarda ham teatrdagi qizg'in ish jarayoni davom etadi. O'zbek guruhida aktyorlardan A.Saydaliyev, N.Zaynuddinov, U.Allaqulova, Z.Ishoqova va yosh artist T.Mahramovlar faoliyat ko'rsatadi. Aktyorlarning mahoratini charxlash va tajribasini oshirish maqsadida qator spektakllar sahnalashtiriladi.

Bizningcha, aynan 1960-1970 yillarga kelib professional qo'g'irchoq ijrochiligida sezilarli yutuqlar ko'zga tashlana boshladi. Unga qadar aktyorlar an'anaviy ijrochilik maktabi unsurlaridan keng foydalangan. Albatta bu jarayon 60-70 yillarga kelib to'xtab qolgan emas. Undan so'ng ham an'anaviy qo'g'irchoq teatri professional teatr ijrochiligining boy xazinasini bo'lib kelgan. Ammo ijroda mukamallikka intilish, berilgan rolni topilmalar bilan boyitish va qo'g'irchoq boshqarish texnikasini mohirlik bilan egallash mazkur yillarda dadil aktyorlik ijrolari misolida namoyon bo'ldi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekistonda davlat qo'g'irchoq teatrlarining shakllanishi va vujudga kelishida an'anaviy teatr unsurlariga uzoq vaqtga qadar muntazam murojaat qilindi. An'anaviy qo'g'irchoq teatri professional teatrnı to o'z yo'lini topib olguniga qadar o'zining ijrochilik va tomoshaviylik an'analari bilan sug'orib turdi, o'z yo'lini mustaqil belgilab olishida boy ijodiy manba bo'lib xizmat qildi. Professional qo'g'irchoq teatri aktyorligi an'anaviy teatr ijrochiligi negizida shakllandi. Uning hayotiylik prinsipi, tomoshabop xususiyatidan quvvat oldi va o'zining mukamallik darajasiga erishdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
2. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
3. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
4. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
5. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
6. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
7. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
8. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
9. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
10. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).
11. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).

12. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2407-2410.
13. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.
14. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.
15. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
16. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
17. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
18. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
19. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.
20. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).
21. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.
22. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
23. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.
24. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.
25. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).
26. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

27. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.
28. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.
29. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.
30. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
31. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.
32. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.
33. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.
34. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.
35. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).
36. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.
37. Ёулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
38. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.
39. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
40. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
41. О'Тганов, Р. J. (2020). ТА'ЛИМ USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## “QIROLICHANING YURISHI” MINI-SERIALIDA YOSH QAHRAMON OBRAZINING GAVDALANTIRILISHI

Ahmetjanova Mohinur Olim qizi  
O'zRFA San'atshunoslik instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada veb-seriallarning kinematografiya rivojida yangi bosqichga ko'tarilib borayotgani hamda seriallarda yosh qahramon obrazining gavidalanishi “Qirolichaning yurishi” mini-seriali misolida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** kinematografiya, ekran san'ati, televideniye, yosh qahramon obrazi, veb-serial, mini-serial, janr, sport dramasi.

## THE IMAGE OF A YOUNG HERO IN THE MINI-SERIES "THE QUEEN'S WALK"

Ahmetjanova Mohinur Olim qizi  
Institute of Art of the Uzbekistan Academy of Sciences

**Abstract:** This article analyzes the rise of web series to a new level in the development of cinematography with the example of the mini-series "The Queen's Gambit".

**Keywords:** cinematography, screen art, television, web series, mini-series, genre, sports drama.

Bugungi kunda ekran san'ati rivojlanish bilan birgalikda murakkablashib bormoqda. Kundan kunga yangi uslublar va qorishiq janrlar ekran san'atining barcha yo'nalishlariga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Shu jumladan televizion filmlar va teleseriallar ham yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilmoqda. Seriallarning yangi turi - veb-seriallar juda ko'plab tomoshabinlar auditoriyasini o'ziga jalb etmoqda. Bu esa veb-seriallarni tadqiq etishga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Garchi veb-seriallar yaratila boshlaganiga qariyb yigirma olti yil bo'lgan bo'lsada, uning ommalashish vaqti internet tarmog'ining rivojlanishiga bog'liq bo'ldi. So'nggi o'n yillik vaqt davomida veb-seriallar yetakchilik borasida televideniye orqali namoyish etilayotgan film va seriallarni ortda qoldirmoqda. Xususan, “Qirolichaning yurishi” (The Queen's Gambit) mini-seriali ham eng muvaffaqiyatli veb-seriallar qatoridan joy oldi.

“Qirolichaning yurishi” Netflix kinokompaniyasining buyurtma asosida yaratilgan eng muvaffaqiyatli dramatik mini seriali bo'ldi. “Qirolichaning yurishi” mini-serialining senariysi Uolter Tevisning shu nomdagi romani asosida yozilgan bo'lib, Frenk va Alan Skott tomonidan suratga olingan. Ushbu asarni mashhur aktyor

X.Ledjer ilk rejissyorlik ishi sifatida suratga olishni rejalashtirgan edi. Ammo 2008 yilda aktyorning vafot etishi bilan loyiha to'xtatiladi. A. Skottning fikricha, Ledjerni asar bosh qahramonining alkogol va giyohvand moddalarga bo'lgan qaramligi bilan kurashi qiziqtirgan. Ehtimol Ledjer postanovkasida birinchi planda noyob iste'dod egasi bo'lgan shaxmatchi chempionni emas, o'zini zararli odatlardan qutqarishga urinayotgan ayolni ko'rishimiz mumkin edi. A.Skott ekranizatsiyasida esa biz bemisl aql sohibi bo'lgan, hayotining mazmuni shaxmatga ayalangan personajni ko'ramiz. 2020 yilda mini-serial Netflix platformasida namoyish etilib, bir oy ichida oltmish ikki million marotaba tomosha qilingani qayd etildi. Bu ko'rsatkich mini-seriallar borasidagi rekord natija ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

"Qirolichaning yurishi" "Emmi" mukofotining o'n bitta nominatsiyasi, ("Eng yaxshi mini-serial" va "Mini-serialdagi eng yaxshi rejissura" (Frenk S kott) "Oltin globus" mukofotining "Eng yaxshi mini-serial yoki telefilm" va "Mini-serial va telefilmdagi eng yaxshi aktrisa" (A. Teylor-Joy) nominatsiyasi, "Televizion tanqidchilar tanlovi" mukofoti (A. Teylor-Joy), AQSh kino aktyorlari gildiyasining mini-serial va telefilmdagi eng yaxshi aktrisa (A. Teylor-Joy) mukofotlarini qo'lga kiritdi.

Mini-serial kinotanqidchilar tomonidan yuqori baholanib, tuzilish jihatidan televizion film shakliga to'la mosligi, senariy pishiq va puxta ishlangani, postanovka jihatidan sifatli va albatta aktyorlar ijrosi obrazlarga to'la mos tushishi e'tirof etildi. Serial hatto shaxmat ustalari tomonidan ham yaxshi kutib olindi va shaxmat o'yiniga nisbatan odamlarning qiziqishi keskin oshishiga sabab bo'lganligi alohida ta'kidlandi. Filmda shaxmat bilan bog'liq epizodlarning professional darajada chiqishiga sabab shundaki, shaxmat bo'yicha sobiq jahon chempioni G.Kasparov va shaxmat bo'yicha murabbiy B.Pandolfini senariy yozilishi jarayonida konsultant sifatida ishtirok etganlar. Filmdagi shaxmat yurishlarini ishlab chiqishda X.S.Kapablanka, A.Alexina, B.Spasskov va M.Botvinnikning kitoblaridan foydalanilgan. Buyuk Britaniyalik ayollar o'rtasida chempion Y.Guska serial haqida shunday deydi: "Menimcha, bu ajoyib serial... U shaxmat emotsiyalarini juda yaxshi yetkazib beradi".<sup>1</sup>

Serialni suratga olish ijodkorlardan katta mehnatni talab qildi. Ularning oldida nafaqat kino san'ati qonuniyatlarini to'g'ri qo'ya bilish, balki, dunyodagi eng murakkab aqliy sport o'yini shaxmatning qonuniyatlarini idrok etgan holda suratga olish vazifasi turardi. Hatto bosh rol ijrochisi A.Teylor-Joy aktyorlik mahorati jihatidan kastingda eng munosib nomzod sifatida tanlangan bo'lsa-da, suratga olish ishlari boshlangunga qadar shaxmatdan mutlaqo bexabar bo'lgan. Ijodiy jamoa mutaxassislar bilan parallel ravishda ish olib borib yuqori reytingni qo'lga kiritdilar. Mini-serial ko'pchilik shaxmatchilar tomonidan yaxshi baholangan bo'lsada, salbiy

<sup>1</sup> Maxwell Dominic. How true is The Queen's Gambit? What we've learnt about chess. The Times (5 November 2020).

fikrlar ham bildirilgan. Masalan, jahon chempionatida g'oliblik uchun kurashgan ilk ayol shaxmatchi Y.Polgar va kanadalik shaxmatchi A.Botez erkak shaxmatchilar bosh qahramon Bet Harmonga nisbatan "nihoyatda iltifotli" etib ko'rsatilganiga tanqidiy yondoshdilar. Chunki haqiqiy shaxmat olamida ayol shaxmatchilarga nisbatan past nazar bilan qaralishi kabi muammolar borligi va bu serialda chetlab o'tilganini e'tirof etganlar. Ammo bu fikr to'la haqiqat deb qabul qilib bo'lmaydi. Sababiki, shaxmatga hech qanday tajribasiz, tug'ma qobiliyat bilan kirib kelgan Betga chempionlar yetarlicha baho bermay, past nazar bilan qarashlari aks ettirilgan sahnalar mavjud. Bu albatta serialni reallikka yaqinlashtirganini aytib o'tish joiz. Ushbu munosabatlarga haddan tashqari urg'u berish ayollar va erkaklar o'rtasidagi teng huquqlilik muammolarini qo'zg'alishiga olib kelishi mumkin edi. Ijodkorlar oltin o'rtalikni topgan holda serialni suratga olganlar deb aytish mumkin.

Buyuk Britaniyalik yana bir chempion S.Lomngson bosh qahramon partiyalarni ko'proq yutqazishi kerak bo'lgani haqida fikr bildirgan. Amaldagi jahon chempioni M.Karlsen serialdagi Betning tezligi "juda noreal" deya baho bergan.

Bosh qahramon Bet Harmon obrazi juda g'ayri oddiy tarzda ijro etilgan. Bet kino olamidagi yosh qahramon obrazining eng professional tarzda yaratilgan namunalaridan biri deyish mumkin. Unda yoshlarga xos shijoat, tezlik, tavakkalchilik, shoshqaloqlik va ta'sirchanlik ufurib turadi. Bir qarashda kichkinagina, ko'zlari chaqnab turuvchi bu qiz shaxmatdan boshqa barcha narsaga e'tiborsizdek ko'rinadi. Aktrisa o'yin chog'ida Betning asabiyliigi va hayajonini mahorat bilan "berkita olgan". Bet qanchalik o'zini sokin tutib aql bilan qaror qabul qilsada biz uning ich-ichidan ezilayotganini sezamiz. Mas'uliyatsiz ota va irodasi sust onaning farzandi bo'lgan Bet bolaligidan og'ir vaziyatlarga tushishi, o'z onasining va unga mehr bergan o'gay onasining o'limini ko'rishi, yetimxonadagi rutubatli kunlar uni tashqi jihatdan sovuqqon qilib qo'yishi tabiiy edi. U irodasini jilovlashni o'rganadi-yu, ammo insonlar bilan munosabatga kirishish unga qiyinchilik tuyg'diradi. Bu albatta unga yetkazilgan psixologik zarbalarning asorati edi. Qahramonning xarakteri har bir qismga o'tish davrida rivojlanib boradi. Har bir qismga alohida nom berilgani ham bejiz emas.

"Qirolichaning yurishi" shaxmatga bag'ishlangan yagona film emas albatta. Unga qadar ham shaxmat haqida ko'plab filmlar yaratilgan, ammo ularda shaxmat "Qirolichaning yurishi"dagi kabi real ko'rsatilmagan. Qahramonlar sodda yurishlar bilan yoki shaxmat taxtachasini ko'rsatmagan holda kadrda namoyon bo'lgan va asosan syujet liniyasi, aktyorlar ijrosiga ahamiyat berilib, shaxmatning nozik qirralari soyada qolib ketgan. "Qirolichaning yurishida" esa shaxmat yurishlari murakkabligidan oddiy tomoshabin eslab qolishining deyarli iloji yo'q.

"Qirolichaning yurishi" shaxmatni asosiy planga chiqargan bo'lsa-da, mini-serialda feminizm va alkogolizmga qarshi kurash mavzusi ham yotadi. Asar voqealari

sodir bo'layotgan o'tgan asrning 60-yillarida ham ayollar uchun oila qurib, farzand tarbiyasi bilan shug'illanish asosiy "vazifa" deb hisoblovchilar soni juda ko'pchilikni tashkil etgan. Buni voqealar rivojida ham ko'rish mumkin. Chempion darajasiga yetgan Bet bolalar aravachasini yetaklab kelayotgan maktabdoshini uchratganida, uning Bet erishgan yutuqlarga befarqligi va hanuz oila qurmagan uchun hatto unga achinib qarashini ko'rish mumkin. Bet ayollar ham har sohada ilg'or va iqtidorli bo'lishlari mumkinligi, faqatgina yolg'iz qolmaslik uchungina oila qurib, umrini uy-ro'zg'or ishlariga sarflab yashashga hech bir ayol majbur emasligi, har bir ayol erkaklar kabi erkin shaxs bo'lib tug'ilishi va hayotini qanday o'tkazish haqida qaror qabul qilishga haqli ekanligini o'z xatti-harakatlari va qarorlari bilan ko'rsatib beradi.

Shu o'rinda yana bir narsani unutmash kerakki, mini-serialdagi asosiy g'oya shaxsning shakllanishidir. "Netfliksning mashhur seriali birinchi darajali sport dramasi, feministik risola va giyohvandlikka qarshi hikoya sifatida tan olindi, lekin aslida bu yuqoridagilardan iborat emas. Sport dramalari, biografiya yoki badiiy adabiyot bo'lsin, shaxsiyatni shakllantirish va to'siqlarni yengib o'tish, shu bilan shaxsiy rivojlanishga ilhomlantirishi mumkin"<sup>2</sup>.

Final qismida Bet shaxs sifatida shakllanadi, yolg'izlikni yengib o'tadi va qaramlikdan o'zini ozod etadi. Bu bilan har bir tomoshabinga kelib chiqish, qanday sharotida voyaga yetish keyingi hayotni belgilab beradigan omil emasligi, irodani mustahkamlash uchun har kun o'z ustida tinimsiz ishlash, soha mutaxassisiga aylanish uchun tun-u kun harakatda bo'lish lozimligi o'z ifodasini topadi. Shu jihatlari bilan "Qirolichaning yurishi" veb-seriallar rivojida muhim o'rin tutgan eng professional seriallar qatoridan joy olishga munosibdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bosselman Haley. MTV Movie and TV Awards Full Winners List: 'To All the Boys' and 'WandaVision' Take Top Honors. Variety. 16 May 2021.
2. Maxwell Dominic. How true is The Queen's Gambit? What we've learnt about chess. The Times. 5 November 2020.
3. McClain Dylan Loeb. How 'The Queen's Gambit' Is Inspiring Women to Take Up Chess. The New York Times. 10 December 2020.
4. Rosen Christopher. The Queen's Gambit Has Everyone Buying Chess Boards. Vanity Fair. 23 November 2020.

---

<sup>2</sup> Илья Кролевский. Приход королевы: наркотики, рокировка: так ли хорош самый популярный сериал Netflix? Лента. Ру, 4 декабря 2020



## FOLKLOR SAN'ATI TARIXI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI TUTGAN O'RNI

Arzimatov Botirali Abdumajidovich  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Maqolada folklor san'ati tarixi, uning ildizlari, asosiy mezonlari va bugungi kundagi ahamiyati qay darajada ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, san'at, folklor, nomoddiy madaniy meros, doston.

### HISTORY OF FOLKLORE ART AND ITS PLACE TODAY

Arzimatov Botirali Abdumajidovich  
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The article highlights the history of folklore art, its roots, main criteria and degree of importance today.

**Keywords:** culture, art, folklore, intangible cultural heritage, epos.

“Folklor” atamasi “xalq donoligi” degan ma’noni bildirib, xalq tomonidan yaratilgan har qanday san’at namunalariga taalluqlidir. Musiqada xalq kuylari, xoreografiyada xalq raqslari, me’morchilikda qurilish-ta’mirlash, pardoqlash, dekor, dizayn kabi yo‘nalishlarga oid bilim va ko‘nikmalar hamda bevosita asarlarning o‘zi, og‘zaki ijodda xalq doston va ertaklari, maqol, topishmoq, lof, askiya va latifalar folklor namunalari hisoblanadi.

Folklor asarining dunyoga kelish jarayoni o‘zining tub mazmuni bilan ajralib turadi. U ham badiiy asar va ma’lum darajada ham ommaviy, ham individual ijodiy jarayondir. Har qanday badiiy asar konkret shaxsning hayotda ko‘rgan-bilganlari, uning dunyoqarashi, tasavvuri, ehtirosi, his-hayajonlari harorati-yu qudratining uzviy birikmasidan tashkil topib, kamolotga yetib, o‘ziga yarasha so‘z, ovoz va boshqa jihatlari bilan dunyoga keladigan tafakkur va tasavvur mahsulidir. Folklor asarida ham ushbu holat mavjud. Chunki unda asarni yaratish mantig‘i, xohishi, ijodning barcha jarayoni bilan bog‘liqligi mujassam. Zero, folklor asarini davrimiz, tinglovchi yoki tomoshabinlarimiz talabiga to‘la-to‘kis javob beradigan badiiy asarlar sifatida qabul qilamiz.

Folklor san’ati katta tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi va turli yo‘nalishlarda taraqqiy topdi:

1. Madaniyatning folklor qatlami - ommaviy xalq ijodiyoti (so‘z, musiqa, o‘yin-raqs, tomosha va amaliy san’at), uning xalq urf-odatlari, marosimlari va bayramlari

bilan bog'liqligi, ularning yaratilishi, ijro etilishi va amalga oshirilishi jihatdan omma (jamo)ning ishtiroki bilan yuzaga chiqadigan badiiy iqtidor namunasidir. U o'z navbatida autentik folklor tarzida ifodalanadi;

2. Madaniyatning badiiy havaskorlik qatlami XX asrda shakllangan. Xalq va havaskorlik badiiy-ijrochilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, og'zaki-yozma an'analari asosida (folklor-etnografik, oilaviy, cholg'u, dostonchilik, maqom ansambllari, folklor san'ati va hunarmandchilik bo'yicha to'garaklar, turli studiyalar).

Folklor san'atining asosiy mezonlari:

- talqin masalasi (malaka, tajriba, mahorat);
- ijro saviyasi (eshitish qobiliyati, eslash, ovozning miqdori, saboq va bilim, tabiiy iste'dod);
- ijrochilik mohiyati (ichki dunyosi, dunyoqarashi va qobiliyati, asar ruhi, obrazi, so'z va kuy uyg'unligi,);
- ijro tarkibi (har bir tarmoqning uslub-usullaridan kelib chiqadi);
- ijro repertuari (an'anaga bo'ysunish va rivojlantirish, o'quv darajasi, xonishdagi saviya, bilim miqdori, lokallik (mahalliy) mezoni);
- ijro madaniyati (saviya, jamiyatdagi o'rni, mavqei, munosabat (ayniqsa, tinglovchiga), sahna madaniyati (yurish-turishi, kiyinishi, ijrosi), did, repertuar tanlash, matn va talaffuz, so'z va kuyning uyg'unlashgan holda mutanosib talqin etilishi (uslub, usul, mahorat, an'ana).

Folklor san'ati nomoddiy madaniy meros elementlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro miqyosda ishlab chiqilgan yagona tamoyillarga asosan yondashish uchun joriy asr boshlaridan beri "nomoddiy madaniy meros" tushunchasi ham qo'llanib kelinmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlarning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) tomonidan qabul qilingan tegishli konvensiya ustuvor hujjat hisoblanib, uni tan olgan davlatlar bu borada tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani (Parij, 2003 yil 17 oktabr) ratifikatsiya qilish haqida" 2007-yil 12-dekabrda O'zбекистон Qonuni asosida O'zbekiston ham ushbu jarayonga a'zo davlatlar qatoriga qo'shilgan.(2)

Hozirgi kunga qadar YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga O'zbekiston tavsiyanomalariga binoan quyidagi 8 ta obyekt kiritilgan:

- Shashmaqom (Tojikiston bilan birgalikda, 2008);
- Boysun madaniy muhiti (2008);
- Navro'z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston va Turkiya bilan birga, 2009, mazkur davlatlarga yana Tojikiston, Afg'oniston, Iroq, Qozog'iston, Turkmaniston ham qo'shilgan yangilangan tarkibda – 2016);
- Katta ashula (2009);

- Askiya (2014);
- Palov madaniyati va an'analari (2016);
- Xorazm raqsi - Lazgi (2019);
- Miniatyura san'ati (Ozarbayjon, Eron va Turkiya bilan birga, 2019).

Mustaqillikka erishilgan yillardan boshlab davlatimiz tomonidan milliy qadriyatlarimiz va o'zligimizni anglatuvchi xalq og'zaki ijodi namunalariga bo'lgan katta e'tibor, soha fidoyilarining mehnatlari tufayli juda ko'plab noyob durdonalarimiz qayta tiklandi va asrab qolindi.

Ayniqsa, so'ngi to'rt yil mobaynida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan qariyb 40 ga yaqin farmon va qarorlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa 90 ga yaqin qaror hamda farmoyishlar qabul qilinib, juda katta g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Ushbu hujjatlarda xalq og'zaki ijodi va uni yuksaltirishga ham alohida e'tibor qaratilib, uning huquqiy asoslari mustahkamlanayotgani barchamizni quvontiradi, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son qarori, "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5841-son, "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son farmonlari, Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 22-noyabrdagi 946-son, "O'zbek milliy maqom san'ati markazi huzuridagi Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 5-sentabrdagi 732-son, "Madaniyat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda "Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 30-martdagi 263- va 264-son qarorlari imzolanib, hayotga tatbiq etilayotgani, folklor san'ati sohasida "Nurli navolar", "Ipak va ziravorlar", "Boysun bahori", "Raq s sehri", "Buyuk ipak yo'li" kabi xalqaro festivallar o'tkazilishi, shuningdek, turli ko'rik-tanlovlar, "davra suhbatlari", "ustoz saboqlari", ilmiy anjumanlar tashkil etilayotgani, kitoblar chop etiishi, maqolalar bosilishi, televideniye va radio orqali ko'rsatuv va eshittirishlar yoo'llanishi bu boradagi faol amaliy ishlarga yaqqol misollardir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston milliy ensklopediyasi. "Davlat ilmiy nashryoti". Toshkent-2005. 278-279-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 50-51-son, 501-modda.

3. A.Haydarov "Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish". "Donishmand ziyosi" nashryoti. 2020-yil
4. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
5. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.
6. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.
7. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
8. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
9. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
10. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.
11. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).
12. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
13. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 25-28.
14. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. European Journal of Arts, (1), 85-88.
15. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
16. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий мусиқий ижрочилик санъатида бир назар. Oriental Art and Culture, (I (2)), 5-9.

17. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 253-258.

18. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Oriental Art and Culture, (V).

19. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 117-119.

20. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015 (pp. 318-316).

21. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. Oriental Art and Culture, (7), 160-170.

22. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). Oriental Art and Culture, (7), 144-151.

23. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1750-1758.

24. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. Oriental art and culture, 2(3), 62-75.

25. Qurbonova, M. (2020). SHET EL MUSIQASI TARIXIGA BIR NAZAR. Oriental Art and Culture, (V).

26. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 50-54.

27. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. Oriental Art and Culture, (V).

28. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 113-115.

29. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. Oriental Art and Culture, (V).

30. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. Oriental Art and Culture, (V).

31. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. International Journal of Culture and Modernity, 11, 90-96.

32. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.

33. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.

34. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*.

35. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

36. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.

37. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.

38. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.

39. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.

40. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

## **AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION USULLARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI**

Aximetova Tolg‘anay Oraqbaevna  
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada axborot-kutubxona faoliyatida zamonaviy innovatsion usullarni amaliyotga tadbiq etishning ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** axborot-kutubxona, innovatsiya, faoliyat, usul, kitob, rivojlanish.

## **THE IMPORTANCE OF APPLICATION OF INNOVATIVE METHODS IN INFORMATION AND LIBRARY ACTIVITIES**

Aximetova Tolganay Orakbaevna  
Nukus branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article discusses the importance of the implementation of modern innovative methods in information and library activities.

**Keywords:** information-library, innovation, activity, method, book, development.

Kitob - bilim, ma‘naviyat va ma‘rifat manbai, insonni ulug‘lab, ma‘naviyat va ma‘rifat asoslarini shakllantiradigan, komil qilib tarbiyalaydigan kuch hisoblanadi. Kitobning sehri, so‘zning sehri bashariyatni o‘z o‘qi atrofida adashmay aylanib turishiga katta xizmat qiladi. Kitob asrlar davomida insoniyatni yaxshilikka va ezgulikka shorlab kelgan. Albatta, bu soha zamonlar o‘tishi bilan rivojlanib, yangilanib borgan. Kutubxonashunoslik davlat va jamiyat taraqqiyotida katta rol o‘ynagan, javhalardan biridir.

Hozirgi zamon kutubxonashunosligining umumiy yo‘nalishi jamiyatning har tomonlama axborotlashuvchi, milliy axborot infratuzilmalarini yaratish, yuksak axborot texnologiyalari yutuqlarini amaliyotga joriy qilish singari ijtimoiy va texnik hodisalarning g‘oyaviy-nazariy mazmunini aks ettirishdan iboratdir[332].

Yangi O‘zbekiston strategiyasi - Uchunchi Rennensans poydevorini barpo etish borasidagi ulug‘bor ishlarimizning davomi sifatida xizmat qiluvchi azmu - shijoatiga aylanib ulgurdi. Uning zamirida kitobxon jamiyatini taraqqiy ettirish, man‘aviy yangilanish, man‘aviy taraqqiyotdan marifatli jamiyat sari harakatga kelgan qudratli kuch bo‘lib, bugungi kunda xalqning ayniqsa yoshlarning yo‘lchi yulduzi bo‘lib

xizmat qilmoqda. Biz bu yoʻlda insoniyatning qadim qadriyati hisoblangan, axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratishimiz kerak.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev taʼkidlagani kabi, "Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, har qanday yangi sivilizatsiya, yangi Uygʻonish davri kitob va kutubxonalaridan boshlanadi". Haqiqatan ham Yangi Oʻzbekiston oʻz uygʻonish davri rivojini kutubxonalar faoliyatini tubdan yangilash va innovatsion gʻoyalarni amaliyotga tadbiiq etishdan boshladi. Bu toʻgʻri yoʻl edi, aslida. Chunki, hamma ilmiy-tadqiqot ishlarning asosi kutubxonalarda olib boriladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari esa, davlatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Yangi Oʻzbekistonda xalqning maʼnaviy tarbiyasini oshirishda bir qancha islohatlar olib borildi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2018-yilning 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng oʻrganish va targʻib qilish maqsadida yoshlar oʻrtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish toʻgʻrisida"gi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi, 2020-yil 26-dekabrda "Yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan "Yosh kitobxon" tanlovini tashkil etish va oʻtkazish toʻgʻrisida"gi qarori natijasida yoshlarning mutolaa madaniyatini yuksaltirish, kitobxonlikni keng targʻib qilish va ommalashtirish, sohaga innovatsion ishlanmalarni yaratish imkoniyatini vujudga keltirdi.

Bizning buyuk mutaffakkir bobolarimiz oʻzlarining ulkan ilmiy salohiyati bilan olamshumul kashfiyotlari orqasida katta yutuqlarga erishib, dunyo sivilizatsiyasiga mislsiz hissa qoʻshganlar. Bizning dunyo ilm-u zakosiga tamal toshini qoʻygan mutafakkirlar va maʼrifatli ajdodlarimiz hamma zamonlarda ham millat yoʻlining yoʻlchiroqlari hisoblangan. Ular bu darajaga erishishida kitob mutolaasining oʻrni beqiyosligini alohida taʼkidlab, kitob oʻqishga daʼvat etgan. Tarixdan maʼlumki, axborot-kutubxona faoliyati doimo ilmiy izlanish va yangi tadqiqotlarni talab qiladi. Bugungi kunda ham bu ishlar tizimli ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Yangi Oʻzbekistonda axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish zaruriyatining paydo boʻlishi haqida tadqiqotshilarimizning ishlarida quyidagicha fikrlar bildirilgan.

Bugungi kunda kutubxona va kitobxonlikka alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ayniqsa, muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ichida aholi, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni keng targʻib qilish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgani fikrimizning yaqqol misolidir. Maʼlumki, 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan taʼminlashni tashkil etish toʻgʻrisida" PQ-381-son qarorga asosan Madaniyat ishlari vazirligi kutubxonalarini Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, OOʻMTBning Oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi markazi, Xalq taʼlimi vazirligi ixtiyoriga oʻtkazish yoʻli bilan axborot-resurs markazlari tashkil etilgan. 2006-yilga qadar Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi



ommaviy kutubxonalar soni 5745 tani (2005-yil 1-yanvar ma'lumoti bo'yicha), shundan; respublika miqyosida Markaziy kutubxonalar tizimi (MKT) soni 207 ta, qishloq kutubxonalari soni esa 4735 tani tashkil etgan. Axborot-resurs markazlari ta'lim muassasalarida joylashtirildi, ammo aholiga xizmat ko'rsatish uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilmadi[4].

Chunonchi, axborot-kutubxona faoliyati tizimida boshlagan katta islohatlar sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Biz kitob va kitob mutolaasi haqida gapirar ekanmiz, eng asosiysi mazkur sohaning asosiy yo'nalishi bo'lgan kutubxona faoliyatining asosiy vazifalariga to'xtalib o'tamiz.

Kutubxona faoliyati axborot xizmatining (bibliografik, hujjatlar, faktografik va boshq.) barcha turlarini qamrab oladi. Shunga ko'ra kutubxona - axborot xizmati ijtimoiylashtiruvchi institut bo'lgan kutubxonaning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojlarini qondirish va rivojlantirish maqsadida jahon axborot resurslari asosida kutubxona - bibliografik va axborot faoliyati vositalari yordamida turli usullar va shakllarda kutubxona - bibliografik va axborot mahsulotlarini hamda xizmatlarini taqdim etishdan iboratdir. Xizmat ko'rsatish zamonaviy kutubxonalarining yetakchi funksiyalaridan bo'lib, tizimga kiruvchi barcha bo'limlarning faoliyatini hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarni uyg'unlashtirilgan tarzda maqsadga yo'naltirishdir[3].

Mazkur yo'nalishni rivojlantirish maqsadida sohada faoliyat olib borayotgan olim va mutaxassislarimiz hozirga qadar xorij kutubxona faoliyatlari bilan tanishib o'z taklif va tavsiyalarini berganlar. Ayniqsa, G.Ismoilovanning bildirgan dolzarblikga ega takliflarni e'tiboringizga havola etmoqchimiz. Yurtimizdagi axborot-kutubxona yo'nalishidagi ishlarda tatbiq qilishda yanada ijobiy natijalarga erishish uchun biz quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim deb bilamiz:

– barcha tizim kutubxonalarini mukammal ishlangan yagona dasturiy ta'minot bilan ta'minlash;

– fondlarni kutubxonalarining talab va ehtiyojlarini hisobga olib maqsadli ravishda shakllantirish;

– kirill va lotin alifbosidagi fan sohalariga oid va badiiy adabiyotlarni yetarli sotib olish uchun respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar miqdorini ko'paytirish;

– nashrlar sifatini oshirish;

– kutubxonashunoslik, bibliografiya, axborot xavfsizligi, raqamlashtirish, konservatsiya va restavratsiya bo'yicha oliy ta'lim bazasida kadrlarni tayyorlash;

– kutubxona fondlarini saqlashning me'yoriy sharoitlarini yaratish;

– raqamlashtirish, restavratsiya va audio kitoblarni yaratish uchun kerakli qurilma hamda jihozlar bilan ta'minlash.

Xalqimizning ma'naviy kamolatini yuksaltirish, kutubxona-axborot sohasida sifatli xizmat ko'rsatishning imkoniyatlarini oshiradigan zamonaviy infratuzilmalar

yaratish va davlat dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha yurtimizda keng ko'lamli ijobiy ishlar amalga oshirish vaqti keldi. Davlatimiz tomonidan ham uzoq kelajagimizni inobatga olgan holda ma'naviy-ma'rifiy sohaga katta moliyaviy qarajatlar sarflanmoqda. Bu o'z natijasini berari aniq. Chunki, faqat ma'naviy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanish, hozirgi davr sharoitiga to'g'ri kelmaydi. Axborot-kutubxona faoliyatiga innovatsion yondashuvlar va g'oyalar olib kelish orqali ham sohani rivojlantirish mumkin. Sohadagi innovatsion ishlanmalarni amalga oshirishda esa, axborot-kutubxonalar faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur.

Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq [237].

Yangi O'zbekistonda axborot-kutubxona faoliyatida qo'llanib kelayotgan va amalda tadbiiq etilgan innovatsion g'oyalar yaxshi natija bermoqda. Ammo, jahon bozorida texnologiyaning shiddat bilan rivojlanishining oqibatida hozirgi innovatsiya ertasi kuni ma'lum darajada o'z yangiligini asrab qola olmayapti. Biz kitoblarni har xil yangi innovatsion usullar yordamida qayta tiklash, ishlash va asrab qolishimiz kerak.

Kitob bu tarix haqidagi ma'lumotlarni avlodlardan avlodga yetkazuvchi, moziy haqiqatlarini kelajakka eltuvchi, jamiyatdagi voqeliklar, ilm-fandagi yangilik va kashfiyotlarni o'zida qayd etib boruvchi, makon va zamon bilmaydigan inson zakosining buyuk mahsullaridan biridir. Xalqimiz azal-azaldan kitob o'qishga, u bilan oshno bo'lishga intilib yashab kelgan. Xalqimiz shuuridagi bu qadimiy an'ana bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Mustaqillik yillarida yurtimizda qadriyatlarini qayta tiklash, ma'naviyatni yuksaltirish, milliy g'ururni poydo qilish, adabiyot va san'atni ma'anaviyatning negizi sifatida rivoj toptirish, erkin fikr, ezgu so'z va xayrli amallarga bosh bo'lish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil qilib kelmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev adabiyotimizning bugungi kuni va ertangi istiqboli, yozuvchilar oldida turgan muhim va dolzarb muammolar: ijodkorning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy burchi, ijodiy uyushmalar faoliyatining samaradorligini oshirish, adabiyotimiz rivoji uchun nafaqat yozuvchi va shoirlar, balki butun jamiyat mas'ul ekaniga e'tiborimizni qaratmoqdalar [3].

Shunday ekan, axborot-kutubxona faoliyatida innovatsion usullarni qo'llashda birinchi navbatda soha vakillarining zimmasidagi masuliyatli ish faoliyati hisoblanadi. Albatta, axborot-kutubxona faoliyatiga innovatsion usullarni qo'llashda biz ko'proq xorij tajribalarini o'rganishimiz va tahlil qilishimiz kerak.

Ayrim rivojlangan mamlakatlar kutubxonalarini ish tajribalarini o'rgansak ular kitobxonlarni 15% - 20% ga yaqinini kutubxonalardan tashqarida adabiyotlar bilan ta'minlash usullaridan foydalanmoqdalar. Shuni hisobga olib iste'molchilarni kutubxonalardan tashqari xizmat ko'rsatish usullarini yangi usullarini shakllantirib texnika vositalaridan samarali foydalanmoqdalar. Xatto bu usullarini ayrimlarini 2 smenada ishlashni taklif qilmoqdalar. Bunga ko'chma kutubxonalar misol bo'la oladi. Kitobxonlarni kutubxonaga ko'proq jalb qilish, aholi o'rtasida kitob o'qishni keng targ'ib qilish maqsadida axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning kutubxonadan tashqaridagi xizmat ko'rsatish shakllaridan foydalaniladi. Bu ishlar kutubxonalar tomonidan turli ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlarda, dala shiyonlari va fermalarda, yotoqxonalarda, ish joylarida tashkil qilinadi. Maqsad: kitob va axborotni har bir iste'molchigaga yetkazish, statsionar kutubxonadan uzoq joyda yashayotgan yoki ishlayotgan iste'molchini kitob va axborotdan foydalanishi uchun imkon yaratishdan iborat [47].

Bugungi kunda axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishda asosiy e'tibor iste'molchilarga yakka va ommaviy xizmat ko'rsatishning xorijiy va innovatsion shakllari va usullarini o'zlashtirish va soha xodimlarini xalqaro talab darajasida malakasini oshirish zaruriyatini taqoza etmoqda.

Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, aholiga xizmat ko'rsatishning yangicha innovatsion yo'llarini amaliyotga tadbiq etish zarur. Buning uchun axborot - kutubxona xizmatini amalga oshiruvchi xodimlar kasbiy mahorati bo'yicha zamonaviy nazariy va amaliy bilimlarni, ish uslublarini egallash va doimiy tarzda ko'nikmasini oshirib borishi zarur.

Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarishni takomillashtirishda muhim rolni kutubxona-axborot sohasini axborotlashtirish, kutubxona va axborot muassasalarida yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va takomillashtirish, elektron manbalar bazasini yaratish va undan foydalanish, Respublika miqyosida axborot-kutubxona tarmoqlarini yagona dasturini yaratishni o'ylashi lozim. Respublika miqyosida ahborot - kutubxona tarmoqlarini yaratish dasturi bizningcha quyidagi vazifalarni xal etishi kerak:

- turli darajadagi va idoraviy mansublikdagi kutubxona va axborot muassasalarning axborot resurs bazalariga kirish va ularda foydalanishni ta'minlash;
- nashrlarni, turli axborotlarni kataloglashtirish va qayta ishlov berish jarayonida kutubxona-axborot faoliyatini koordinatsiyalash va kooperatsiyalashni ta'minlash;
- iste'molchilarni respublika va jahon ahborot resurslariga kirishi va ulardan foydalanishni ta'minlash;
- Respublika axborot resurslarini yaratish jarayonini faollashtirish;

– Ishlayotgan va yaratilayotgan elektron kataloglardan iste'molchilarni foydalanishlarini takomillashtirish;

– Respublikamizning kutubxonachilik standartlarini, kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy normativ aktlarini takomillashtirish;

– Kutubona va axborot muassasalari uchun mutaxassislar tayyorlash, ularni malakasini oshirish va xalqaro kutubxonachilik hamkorligini rivojlantirish[202].

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Davlatov s. X, Nosirov O', Berdiyeva Z., O'rozov A., Kutubxonashunoslik. Toshkent - 2020. 432 b.

2. Sh.Mirziyoev. yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. Toshkent-2021: Toshkent nashriyot uyi. 42-bet

3. Teshaboeva U. Yangi tizm yoshlarda mutolaa madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. // jur. Kutubxona.uz №2 (49), 2019.

4. Yuldashev I., O'. Nosirov. Kutubxona - axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, 2020. 360

5. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston". 2021, 464 b.

6. Yo'ldoshev I. O'zbek kitobat san'ati va terminologiyasi. Toshkent - 2018

7. Maxmudov M., Shokirov T., Niyozova E., Axborot-kutubxona xizmati: Nazariyasi va metodikasi. - Toshkent,2007. 152 b.

8. Maxmudov M. Kutubxona - axborot faoliyatini boshqarish. - Toshkent 2019. 505

## **O‘SMIRLIK YOSHIDAGI IJODKOR BOLALARNING OVOZINI TARBIYALASHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR**

A.Xaydarov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg’ona mintaqaviy filiali

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o‘smirlik yoshida bo‘ladigan o‘zgarishlar, ovoz pardalarining yo‘g‘onlashib borishi va ularni tarbiyalashda pedagogik yondashuvlar haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Mutatsiya, ovoz, tarbiya, alt, soprano, ovoz diapazoni, ovoz tarbiyasi.

## **PEDAGOGICAL APPROACHES TO EDUCATING THE VOICE OF CREATIVE CHILDREN IN ADOLESCENCE**

A.Xaydarov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article discusses the changes that take place during adolescence, the thickening of the vocal cords and pedagogical approaches to their upbringing.

**Keywords:** Mutation, voice, education, sub, soprano, sound range, voice education.

O‘smir yoshida yuz beradigan o‘zgarishlarning eng muhimi, bu ularda Mutatsiya holatining yuz berishidan iboratdir. O‘smirlik yoshida bo‘ladigan o‘zgarishlar ularning ovoz paylariga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Ovoz paylari va ovoz pardalari bu yoshdagi o‘g‘il bolalarda ikki hissa o‘sadi. Ma‘lumki, torlar qanchalik uzun bo‘lsa, undan shunchalik past ovoz hosil bo‘ladi. Ovoz paylarining ikki hissa o‘sishi ham ularning ovozlarini ikki hissa pasaytirishga olib keladi. Ovoz pardalarining yo‘g‘onlashib borishi ham ulardagi ingichka, nafis ovoz o‘rniga qo‘pol, yo‘g‘on ovozning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Mutatsiya bu ovozning bir turdan - ikkinchi turga o‘tish holatini bildiruvchi jarayondir. Endi o‘g‘il bolalarning ovozida erkaklarga xos yo‘g‘on, qo‘polroq ovoz hosil bo‘ladi. Ammo u darrovgina yuz beradigan hodisa bo‘lmay ikki-uch yil davomida ba‘zan ingichkalashib, ba‘zan yana yo‘g‘onlashib turadi. Yettinchi sinfning oxirlariga borib ovoz endi anchagina mustahkam, o‘zining yangi holatiga o‘tgan bo‘ladi.

Qiz bolalarda mutatsiya davri deyarlik sezilmasdan o'tishi mumkin. Ularda ham ovoz paylari qisman uzayadi va ovoz pardalari yo'g'onlashadi. Natijada, ilgarigi bolalarcha ovoz o'rnini endi katta qizlarga xos yo'g'onroq, kuchliroq ovoz egallaydi.

O'g'il bolalarda ham, qizlarda ham mutatsiyaning o'tayotganligini ularning hiqildoq atrofidagi paylarning, pardalarning qizarib qolishidan bilib olish mumkin.

Ayni shu o'smirlik yoshidagi o'quvchilarni, loringologlar tez-tez ko'rikdan o'tkazib turishlari tavsiya etiladi.

5-7-sinf o'quvchilarining ovozi musiqa o'qituvchisining ham qat'iy nazoratida bo'lishi kerak. Ayrim metodist o'qituvchilar bu yoshdagi o'quvchilarga ashula aytirishni mutlaqo taqiqlab qo'yishni maslahat beradilar. Ammo bunga mutlaqo qo'shilib bo'lmaydi. Ularni doimiy nazorat ostida saqlash va zarur bo'lgan hollarda, loringolog maslahati bilan ularni kuylashdan ozod qilish tavsiya etiladi.

Musiqa o'qituvchisi o'smirlarning ovozlari tekshirish jarayonida ham mutatsiyaning yuz berayotganligini hisobga olib borishlari lozim bo'ladi. O'g'il bolalarning ovozlariida bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib borish natijasida ularning ovoz diapazonlari endi katta oktava «lya», «si» notasidan to 1-oktava «mi», «fa» notalarigacha bo'lgan oraliqni ola olishlari mumkinligini kuzatdik. Ayni paytda ularni differensial guruhlarga ham ajratib olish tavsiya etiladi.

2 ovozdagi o'g'il bolalar katta oktava «lya» pardasidan 1-oktava «re»gacha bo'lgan oraliqda kuylay olishlari aniqlanadi.

1 ovozdagi o'g'il bolalar esa «do» kichik oktavadan 2-oktava «mi», «fa»gacha bo'lgan oraliqda kuylay olishlari mumkin.

Shunga ko'ra alohida e'tibor berish lozimki, o'g'il bolalarning ovozlari mutatsiyadan o'tgandan keyin ham skripka kalitidagi notalar orqali yozib boriladi. Ammo endi ular tenor va baslar skripka kalitlarida yozilaveradi. (Bas kaliti ham kamdan-kam hollarda uchraydi) ularning ovozi transpozisiya qilingan tarzda 1-oktava past eshitiladi.

Qizlar ovozi esa deyarlik o'zgarmaganligi uchun, ilgarigiday skripka kalitida yozilaveradi va skripka va alt singari o'zgartirmasdan kuylanadi.

Soprano partiyasining ovoz diapazoni «si» kichik oktavadan 2-oktava «fa»gacha bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi.

Alt partiyasi esa «lya» kichik oktavadan «re» 2-oktavagacha bo'lgan oralikda kuylanadi.

Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki, ularning ovozlari hali etilib, qotmagan bo'lganligi uchun o'ta darajadagi past va ayniqsa o'ta darajadagi baland tovushlarda kuylatmaslik lozim.

Shunday ovozlari ham borki, ularning ovoz diapazonlari 4-5 notadan nariga o'tmaydi. Dars jarayonida ular bilan alohida mashq olib borishning imkoniyati

bo'lasa-da, ularni ba'zi-ba'zida ovozlari mos pardalarda kuylatib borish lozim bo'ladi.

Musiqqa o'qituvchisining muhim ishlaridan biri barcha o'quvchilarga issiq va sovuq taomlarni iste'mol qilishdan saqlanish lozimligini maslahat berib borishdan iboratdir. Yangi paydo bo'lgan ovozlarda haddan tashqari ko'p kuylash, qattiq baqirish ham ovozning buzulib qolishiga olib kelinishi mumkin.

O'smir yoshdagi o'quvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilari singari narsa va hodisalarinng faqat tashqi tomonlarini emas, balki ularning ichki murakkab tomonlarini ham analiz va sintez qila olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ammo ularning kuzatish va idrok qilishlarida hali tajribasizlik elementlari ham sezilib turadi.

O'quvchilar o'smirlik yoshida milliy ruh tushunchasini darov ilg'ab olavermaydilar. Buning uchun albatta o'qituvchining sa'yi-harakatlari, mahorati, tajriba va omilkorligi zarur bo'ladi.

Ayrim tushunchalarni ular anglab olishga qiynaladilar. Xususan, so'zlarda ma'joziy ma'noda berilgan fikrlarni anglab olishlari bir oz qiyin kechadi.

O'quvchilar o'smir yoshida zaruriy narsalarni tezda esda saqlab qola olishi, xususan qo'shiqlarning she'rlarini tezda yod ola bilish qobiliyatiga ega bo'lsalar-da, ma'lum vaqt o'tishi bilan bu narsalar ularning xotirasida uzoq saqlanib qolmaydi. Shuning uchun muhim fikrlarni ularga alohida ta'kidlab o'rgatish va ularning xotirasidan mustahkam o'rin olishi uchun bu materiallarni ora-sira takrorlab turish ham zarur bo'ladi.

Ba'zan o'quvchilarning o'zlari bunga ishora qilganlaridek, ba'zi qo'shiqlarni qayta-qayta kuylatishni iltimos qiladilar. Ammo haddan tashqari ko'p qaytarish ham xotirani o'tmaslashtiradi va bora-bora ular yaxshi ko'rgan qo'shig'idan etirlicha zavq ololmay ham qoladilar.

Musiqqa o'qituvchisi o'smirlarda xayoliy fikrlash malakalarini o'stirib borishlari lozim. Xususan, mamlakatimizning kelajagi ularning qo'lida bo'lishini tushuntirgan holda ularni bilim olishga, jahon bolalari oldida o'zlarining bilimlari bilan raqobatbardoshlik ko'rsata olishlari lozimligini uqtirib, ularni ilhom bilan bilim olishga yo'naltirishlari mumkin.

O'quvchilarning hissiy bilimlarini rivojlantirishda musiqaning o'rni alohida ahamiyatlidir. Musiqqa asarlarini his-hayajon bilan tinglashlari, qo'shiqlarni zavq bilan kuylashlari bu yoshdagi o'quvchilar uchun ayniqsa xarakterlidir.

Hayot uchun muhim bo'lgan zaruriy tushunchalarni o'quvchilarga his-hayajon bilan idrok ettirilsa, bu tushunchalar ularning ongiga chuqurroq singib boradi.

Xullas, milliy ruhdagi xalqimizning asrlar osha to'plab kelgan milliy musiqiy merosiga bo'lgan munosabat, mehnatga muhabbat, insonlarga hurmat va burch tushunchalarining muqaddasligi musiqqa vositasida ayniqsa, qo'shiqlar orqali ularning ongiga chuqurroq singib borishi tabiiy bir holdir. Bu tuyg'ularni o'smirlarga singdirib

borish esa musiqa o'qituvchisidan tinimsiz izlanish, katta uquv, pedagogik mahorat va tadbirkorlikni talab etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi. - T.: O'qituvchi. 2011. - 167 b.
2. Qodirov R. Turkiy xalqlar bolalar folklor qo'shiqlarini ko'povozda kuylash /Turkiy xalqlar V millatlararo kongress materiallari. - Anqara, 1997. - b.
3. Qodirov D. An'anaviy qo'shiqchilik. - T.: iqtisod - moliya, 2007. - 148b.
4. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
5. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
6. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
7. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
8. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
9. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
10. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
11. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
12. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
13. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).
14. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).
15. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.



16. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.
17. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.
18. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
19. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
20. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
21. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
22. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.
23. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).
24. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.
25. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
26. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.
27. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.
28. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).
29. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.
30. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.
31. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. *Hordo Structures in Central Asian Architecture*.

32. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

33. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

34. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.

35. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.

36. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.

37. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.

38. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).

39. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.

40. Ёулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.

41. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.

42. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

43. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

44. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## ЁШЛАРНИ МУСИҚИЙ МАДАНИЯТИ ВА МАЪНАВИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МУСИҚИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

М.Азизхонова

Э.Қобилова

Қўқон давлат педагогика институти

**Аннотация:** Ушбу мақолада мусиқа дарсларини ўқитиш жараёни ташкил этилиши талабалар илмий назарий билимларни уларни амалда қўллаш методлари ижодий ташаббускорлик маънавиятли жамият тараққиёти учун ўз ҳиссасини қўшиш ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** санъат, ижод, билим, ташаббус, метод, маънавият

## THE IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN THE FORMATION OF YOUTH MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY

M.Azizxonova

E.Kobilova

Kokand State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article discusses the organization of the process of teaching music lessons, methods of applying scientific and theoretical knowledge to students in practice, creative initiative to contribute to the development of a spiritual society.

**Keywords:** art, creativity, knowledge, initiative, method, spirituality

*“Мусиқа санъати маданий феномен сифатида янги авлодни тарбиялаш ва камолга етказиш борасида чексиз имкониятларга эгадир. Санъат билан ошно бўлган ёшларнинг ҳаётга муносабати миллий урф-одат ва умумбашарий қадриятларга ҳурмати баланд бўлади” Ш.Мирзиёев*

Маълумки, давлат раҳбари ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишлари янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича 5 та муҳим ташаббусни илгари сурмоқда. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан имзоланган “Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ -4038 сонли қарори ҳам муҳим аҳамиятга эгадир.

Бугунги кунда таълим олувчиларнинг маънавиятини, онгу-тафаккурини ва фаоллигини ошириш учун мусиқа дарсларини ўқитиш жараёни шундай ташкил этилиши керакки бунда талабалар илмий назарий билимларни ҳамда уларни амалда қўллаш методларини онгли ва фаол эгаллаб оладиган, уларда ижодий

ташаббускорлик ва ўқув фаолиятида мустақил, тафаккур, нутқ ривожланадиган, чоғлу асбобларини ижро эта оладиган ва энг асосийси маънавийли жамият тараққиёти учун ўз ҳиссасини қўша оладиган бўлсин. Миллий маънавийтимиз ривожда бошқа санъат турлари қаторида мусиқа санъати ҳам муҳим ўрин тутди. Миллий мусиқа мусиқа санъатининг энг қадимий ва шу билан бирга, ҳалқ оммасига кенг тарқалган, унинг турмушига чуқур сингиб кетган соҳаларидан биридир. Мусиқа ҳам реал воқеликни акс эттиради. Мусиқанинг миллий маънавийтимизга таъсир кучи шу қадар каттаки, унинг ёрдамида беморларни даволаш мумкинлигини фан аллақачон исбот қилган. Абу Али Ибн Сино мусиқанинг таъсир кучига катта аҳамият бериб, айрим руҳий касалликларни мусиқа куйлари воситаси билан даволаш мумкин, деган фикрни илгари сурган эди. Буюк мутафаккир Абу Наср Форобий “Катта мусиқа” китобида мусиқа назарияси оҳанглариининг турлари, келиб чиқиш сабаблари, кишига маънавий, руҳий таъсири ҳақидаги қимматли фикрларини билдирган.

Форобий мусиқа илмида фақат назариётчи бўлибгина қолмай, амалиётчи ҳам бўлган. Унинг ўзи таниқли мусиқачи, ажойиб созанда ва бастакор, янги мусиқа асбоби ихтирочиси сифатида ҳам шуҳрат қозонган. Мусиқанинг ажойиб сеҳрли кучи, мўжизакор таъсири ҳақида фикр юритиб, Форобий “Илмларнинг келиб чиқиши тўғрисида” асарида шундай ёзади: “Бу илм шу маънода фойдалики, у ўз мувозанатини йўқотган одамни тартибга келтиради, мукамалликка етмаган ҳалқни мукамал қилади ва мувозанатини сақлаб туради”. Ҳусусан, миллий маданиятда мусиқа юксак туйғулар, завқ - шавқли ғоялар оламини очиб беради. Одамларни маънавий жиҳатдан бой, соф баркамоллик даражасига етказди. Бола ҳали қўлига қалам ушлашни, ўқиб ёзишни билмай турибоқ мусиқани ҳис қила олади. Кўпинча шу дастлабки таассуротлар мусиқага бўлган муносабатларнинг шаклланишига таъсир қилади. Шунинг учун умумий таълим мактабларини ислоҳ қилишнинг асосий йўналишларида мусиқа таълимига ҳам эътибор берилган. Мусиқа, аввало, болаларнинг ҳис-туйғуларини майинлаштиради. Мусиқа асарларини ҳис этиш каби уларда кўпгина инсоний фазилатларни уйғотади. Албатта, инсоний фазилатларни камол топтиришда адабиёт, тарих, спорт ва бошқа соҳалар катта ўрин тутди. Бинобарин, назм ва мусиқа доимо ёнма- ён яшайди. Мусиқани ҳис этиш табиат таассуротлари остида туғилади, қолаверса, боғча ва мактабда шаклланиб боради. Мусиқа дарслари ўқувчиларни фақатгина нафосат жиҳатдан эмас, балки кенг маънода маънавий- ахлоқий жиҳатдан ҳам тарбиялайди. Авлоддан-авлодга ўтиб келаётган, не-не замонлар зайлига бардош бериб, ҳалқнинг орзу-армонлари, ўйлари ва интилишларини мужассам этган куй-кўшиқларимиз, мақомларимиз барча турдаги таълим муассасалари ўқув

дастурларидан кенгроқ жой олса яхши бўлар эди. Замонамизнинг забардаст ёзувчиси, жаҳонга машхур адиб Чингиз Айтматов “Кунда” романида ёзади: “... ҳаёт, ўлим, муҳаббат, шавқ ва илҳом ҳаммасини мусиқа айтади, зотан, биз мусиқа воситасида энг олий хурликка эришамиз, бу хурлик учун онгимиз ёришган замонлардан бошлаб, бутун тарихимиз давомида курашганмиз, лекин унга мусиқадагина эришганмиз”. Ҳалқимиз яратган мусиқа дурдоналари ҳар бир фаолиятимизда, ҳар сонияда - тарбияда, меҳнатда, ижтимоий муносабатда маълум даражада ўз ифодасини топади. Миллий мусиқа атрофдаги ҳодисалардаги гўзалликни идрок этишга ва кадрлашга ўргатади, нозик дид ва хур фикр билан қуроллантиради, маънавий оламни кенгайтиради. Шу боис мусиқани “тилсиз фалсафа” деб бежиз айтишмаган Зеро, мусиқий билимларни эгаллаш аввало шахснинг руҳий олами билан чамбарчас боғлиқ.

Мусиқашунос олимлар томонидан тавсия этилган концепсияларга таяниб, биз мусиқий билимларни ўзлаштириш жараёнида бола шахсининг қандай фаолият турида қайси шахсий хусусиятлари шаклланишини чизма ёрдамида кўрсатиб бердик. Мусиқий билимларни ўзлаштириш жараёнида бола шахсини шакллантиришда мусиқа таълимининг аҳамиятини мусиқа машғулотларини таҳлил қилиш орқали кўришимиз мумкин.

Демак, мусиқий машғулотлар давомида:

1. Қўшиқ куйлаш фаолиятида мусиқий дунёқараш, мусиқий дид шаклланади. Бу фаолият турида болалар мусиқий билимларга асосланган ҳолда қўшиқ куйлайдилар. Бунинг учун улар мусиқий асарга тааллуқли бўлган маълумотларни ўзлаштирадилар. Шу жараёнда уларда мусиқий дунёқараш ва мусиқий дид шаклланади. Мусиқа саводи фаолиятида мусиқий тафаккур, тасаввур ва мусиқий дунёқараш шаклланади. Бу фаолият турида болалар мусиқанинг яратилиш тарихи, мусиқанинг ифода воситалари - ритм, метр, регистр, ўлчов, лад, темп, нота йўли ва ёзуви, товушлар узунлиги ва баландлиги, мусиқа ижодкорлари, ижрочилари ҳақида билимга эга бўлиш билан бирга, уларнинг мусиқий тафаккурлари шакллана боради. Бу ўз навбатида болаларни мусиқа оламига олиб киради ва мусиқий дунёқарашларини шакллантиради.

2. Мусиқа тинглаш фаолиятида мусиқий идрок, мусиқий дунёқараш шаклланади. Бу фаолиятда болалар мусиқа тинглаб, уни бевосита идрок эта бошлайдилар. Бу эса уларнинг мусиқий тафаккурларини шакллантиради

Болалар мусиқа чолғу асбобларида жўр бўлиш, қўшиқ куйлаш, мусиқа остида ритмик ҳаракатлар бажариш ва мусиқа тинглаш каби фаолиятларни бажарар эканлар уларда мусиқий тафаккур, мусиқий дунёқараш, мусиқий тасаввур, мусиқий қобилиятлар, мусиқий ҳис-туйғу, мусиқий идрок ривожланиб боради, шунингдек, уларда мусиқий маданият ва дунёқараш ҳам

шаклланиб боради. Тингланган муסיқий асар ҳақида мулоҳаза юрита бошлайдилар.

3. Муסיқа остида ритмик ҳаракат бажариш фаолиятида муסיқий дунёқараш, муסיқий дид, муסיқий тафаккур, муסיқий идрок, муסיқий ритм ҳисси ва муסיқий ҳотира шаклланади. Бу фаолият турида ўқувчиларда деярли барча муסיқий психологик ҳусусиятлар шаклланади. Чунки бу фаолиятда улар ўзлари бевосита муסיқий асарга жўр бўладилар. Аввал улар муסיқий асарни тинглаб кўрадилар (муסיқий идрок), бу эса муסיқанинг ритмик кўринишини эслаб қолишни (муסיқий ҳотира), қайси асбобда жўр бўлса яхшироқ жаранглашини (муסיқий дид) танлашни тақозо этади. Ўқувчи бу фаолиятда мустақил фикрлайди (муסיқий тафаккур), натижада унинг муסיқий дунёқарашини шаклланиб боради.

4. Болаларда чолғу асбобларида жўр бўлиш фаолиятида муסיқий дунёқараш, муסיқий дид, муסיқий тафаккур, муסיқий идрок, муסיқий ритм ҳисси ва муסיқий ҳотира шаклланади. Бу фаолият турида болаларда деярли барча муסיқий психологик ҳусусиятлар шаклланади. Чунки бу фаолиятда улар ўзлари бевосита муסיқий асарга жўр бўладилар. Аввал улар муסיқий асарни тинглаб кўрадилар (муסיқий идрок), бу эса муסיқанинг ритмик кўринишини эслаб қолишни (муסיқий ҳотира), қайси асбобда жўр бўлса яхшироқ жаранглашини (муסיқий дид) танлашни тақозо этади. Бола бу фаолиятда мустақил фикрлайди (муסיқий тафаккур), натижада унинг муסיқий дунёқарашини шаклланиб боради. Айни вақтда шуни айтиш жоизки, муסיқанинг қандай фаолият тури бўлмасин, у шахснинг барча психологик жиҳатлари шаклланишига ёрдам беради. Шуни таъкидлашимиз керакки, муסיқий фаолиятларнинг ҳар бири барча санаб ўтилган психологик ҳусусиятларни шаклланишига қисман бўлса ҳам ўз таъсирини ўтказмай қўймайди. Жумладан, муסיқий ҳис-туйғулар, муסיқий дунёқараш, муסיқий идрок, муסיқий тафаккур, муסיқий тасаввур ва муסיқий қобилиятни шакллантиради. Демак, улар болаларнинг умумий муסיқий маданияти, эстетик дунёқарашининг шаклланишига ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Бу эса баркамол шахснинг ривожланиши ва тарбияланишида ўзига ҳос аҳамиятга эга жиҳатлардан биридир. Муסיқанинг тарбиявийлик ҳусусияти нафақат инсонга ёки бирор шахсга, балки умуман жамиятга катта таъсир кўрсатади. Чунки, муסיқа кишилар қалбига руҳий жиҳатдан таъсир этиши билан ўзига ҳос аҳамиятга эга. Демак, муסיқани инсон қалбига таъсирини инобатга олсак, юқоридаги фикрлар айна муסיқа санъатига бевосита даҳлдор эканлигини кўраимиз. Муסיқанинг тарбиявийлик ҳусусияти фан - инсон - жамият - табиат муносабатларида қатор жиҳатлар билан намоён бўлмоқда. Шу сабабли, муסיқа, адабиёт, санъатга давлатимиз томонидан берилаётган эътибор ҳам унинг таъсир кучи ниҳоятда

катта эканлигини кўрсатади.

Биринчидан, музика соғлом турмуш тарзини шакллантиради, мустақкамлайди. Ҳозирги кунда тиббиёт илмига музикатерапия соҳасининг кириб келиши фандаги янги йўналиш бўлиб, у инсондаги ҳасталикларни музика билан даволашда, музика орқали таъсир кўрсатишда ўзининг самарали натижасини бермоқда.

Иккинчидан, одамларнинг ҳарактеридаги ва ҳалқларнинг менталитетидаги айрим иллатларни бартараф этади.

Учинчидан, тарбия жараёнларида музиканинг оҳанги муҳим аҳамиятга эга. Чунончи, шовқинли музика инсоннинг асаб тизимига салбий таъсир кўрсатиши тиббиётда исботланган.

Тўртинчидан, музикани эшитиш ҳам мумкин, тинглаш ҳам мумкин. Бундан ташқари, музиканинг тарбиявий таъсирини оширадиган субъектлардан бири - бу музика асбоблардир. Музика асбобларнинг музикавий тарбия жараёнига таъсири шуниси билан аҳамиятлики, ҳар қандай музика асбоби ҳам инсон тарбиясига ижобий таъсир кўрсатавермайди. Бу бир қатор омилларга боғлиқ. Биринчиси - музика чолғунинг эстетик кўринишида шакл ва мазмуннинг уйғунлиги. Иккинчиси - музика меросининг яратилиши учун зарур бўлган чолғунинг тарбиявийлик хусусияти. Масалан, музика асбоблар ичида энг соддаси ва энг қадимийси ҳисобланмиш най санъаткорнинг нафаси ва вужудидан чиқаётган овоз билан соланади ва қалб ноласи бўлиб жаранглайди. Музикачи най орқали ўзининг қалб ниголари, дарду аламларини, муҳаббатини изҳор қилади.

Киши ўзининг ҳаётий фаолияти жараёнида атрофини ўраб турган моддий борлиқ билан доимо мулоқотда бўлади. Бунинг натижасида шоду-хуррамлик, қайғу ва ғам, тўлқинланиш ва ҳаяжон, мағрурлик ва ифтиҳор, жаҳл ва ғазаб, ҳайратланиш, ҳафа бўлиш каби бошқа кўплаб майил ва туйғу (объектив дунёга субъектив муносабат кечинмалари инсоннинг эмоционал ҳис-ҳаяжон ҳолатини ифодалайди. Эмоция (туйғу кечинмаларининг шакли) ижобий ва салбий турларга бўлинади. Ижобийлари: шоду-хуррамлик, тўлқинланиш ва ҳаяжон, мағрурлик ва ифтиҳор, ҳайратланиш ва бошқалар. Салбийлари: қайғу ва ғам, жаҳл ва ғазаб, ҳафа бўлиш кабиларидан ташкил топади. Ижрочи созанданинг фаолияти ҳис-ҳаяжон ва эмоция билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, у ижодкор томонидан яратилган асардаги фикр ва мақсадни ундаги бадиий эмоционал қиёфалар тизимини тингловчига етказиб бера олиши зарур. Бунда созанда асар кайфиятига мос, чолғу садоланишига ўзига ҳос равишда қизғинлик, ифода ва жозиба баҳш этган ҳолда ижро қилади. Чолғу асари ҳеч қандай эмоция ва ҳис-ҳаяжонсиз чалинган бўлса, тингловчи юрагига етиб бора олмайди, уни бефарқ қолдиради ва у ижродан ҳам чолғучидан норози бўлади. Шунинг учун созанда

ҳар бир асарнинг бадиий-эмоционал тимсоллар мазмунига чуқур кириб бора олиши, ундаги қайғуриш, зорланиш, қувониш, тантана, ҳазил ва бошқа кайфият турларини ишончли ёритиб бера олиши керак. Мусиқий руҳшуносликда бадиий образ уч омил асосида очиб ифодаланиб берилади. Буларнинг биринчиси моддий, яъни нола матни, чолғу товуши, куй, гармония, усул, динамика, тембр, регистр ва ҳ.к. Иккинчиси руҳий, яъни кайфият, тасаввур, ифода, ирода, ҳиссиёт. Учинчиси мантиқий, яъни шакл, жанр, мазмун каби омиллардир. Созанданинг ижрочилик амалиётида интеллектуал ва эстетик, яъни энг нозик ва гўзал олий нафосат эмоция шаклланади. Ушбу ҳис туйғулар созанда ижрочилик фаолиятида ўз олдига аниқ мақсад қўйиб онгли равишда турли восита ва йўллардан фойдаланган ҳолда мусиқий асардаги бадиий образни очиб бериш учун хизмат қилади. Ижрочилик жараёнининг жисмоний ва руҳий асосларини чуқур ўрганиш бўлғуси ўқитувчи, тарбиячи ва созанда учун жуда муҳим шартлардан биридир. Мусиқанинг илоҳийлиги, унинг руҳиятга боғлиқлиги, оҳангларнинг сирли олами инсониятни доимо қизиқтириб келган. Ҳонанданинг қўшиғи дардларга малҳам бўлиб, шодликни оширса, созанданинг куйи ғамни аритиб, кўнгишларга ҳуш кайфият бағишлайди. Шунинг учун мусиқанинг чинакам сеҳрига ҳар икки субъект бирдек даҳлдор бўлади. Шундай экан, инсонни камолга етказишда мусиқа санъатининг аҳамияти беқиёсдир. Мусиқа ҳаётни инсонларнинг ҳис туйғуларини ва орзу истакларини ўзига ҳос бадиий тилда ифода этади.

Ҳулоса қилиб айтганда мусиқа санъатига суяниш, унинг асрий анъаналари ва намуналаридан ёш авлодни кўпроқ баҳраманд этиш лозим.

Оилада ота-онлар, мактабда мусиқа муаллимлари болаларга яхши мусиқа ва қўшиқ одамнинг қалбини тозалашини, руҳини поклашини, кайфиятини кўтаришини, эзгу мақсадлар сари йўналтиришини кўп бор уқдиришади. Ёшларни бой маънавий мерос ҳисобланган мусиқа санъатини пухта билладиган етук мутахассис кадрлар қилиб тайёрлаш масаласи бугунги куннинг муҳим, устивор вазифаларидан ҳисобланади. Биринчи навбатда ёшлар миллий ғурур ва юксак маданият эгаси бўлишлари учун ҳам мусиқа санъатига ошно бўлишлари керак бу вазифаларни амалга оширишда мусиқа фани ўқитувчилари зиммасига катта масъулият юклайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Дарвеш Али Чангий. Рисолайи мусиқий. ЎзР ФА ШИ .Форсчадан таржима Б.Ашуровники
2. Жалолоддин Румий. Учмоққа қанот йўқ, вале учгайман. -Тошкент: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1994.
3. Г.Шарипова ,Ғ.Нажмеддинов.Мусиқа ўқитиш методикаси .Т.2018й



4. Алавия. М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. Т. 1974 й.
5. Йўлдошева. С. Халқ урф - одатлари ва анъаналари Т. 2003.
6. Файзиев. О. Мактабда мусиқий тарбия. Т.1991 й..

## **BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA XALQ O'YINLARINING AHAMIYATI**

Z.Ahmedov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri xalq o'yinlari haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Odob, ahloq, sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot.

## **THE IMPORTANCE OF FOLK GAMES IN EDUCATION OF DEVELOPED GENERATION**

Z.Ahmedov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article is about folk games, one of the means of educating children mentally, morally, physically and aesthetically.

**Keywords:** Etiquette, morality, intuition, perception, thinking, imagination, memory, attention, will, emotion.

Mustaqillik yillarida milliy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, kelajak avlodga bekam-u ko'st yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda unutilib ketayotgan xalq og'zaki ijodi namunalari, an'ana va urf-odatlar, milliy o'yinlar qayta tiklanayotir. Xalq o'yinlari azaldan ajdodlarimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida e'zozlanadi. Aksariyat o'yinlarning ildizlari juda qadimiy bo'lib, ular asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga, ong-u tafakkuri va his-tuyg'ularini teranlashtirishga xizmat qilgan. O'yinlarda xalqning turmush tarzi, mehnati, yutuqlari o'z aksini topadi. Shu bois ular yosh avlodlarni tarbiyalashda "hayot maktabi" vazifasini o'tagan. O'yin - turli ifodali vositalar bilan ma'lum qoida yoki oldindan kelishilgan shartlar asosidagi jismoniy musobaqalar, bellashuvlar, tafakkur bahslari va ijrochilik talablaridan vujudga kelgan milliy qadriyat hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida kurash va jismoniy mashqlarning kishi badan tarbiyasidagi o'rni, o'yinning shifobaxsh xususiyatlari haqida to'xtalgan. Kaykovus, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Beruniy chavgon, shaxmat, qilichbozlik, chavandozlik kabi yuzlab o'yinlar xususida yozib qoldirgan. Alisher Navoiy asarlarida bayramlar, tantanalar, to'ylar munosabati bilan

tashkil etilgan o'yinlar haqida ko'pgina ma'lumotlar bor. Ularda o'yinlarning uyushtirilishi, ijrochilari, o'tkazish qoidalari bayon etilgan.

O'yin - tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O'yin insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va boshqa mashqlar, shuningdek, san'at, ayniqsa, uning ijro shakllari bilan qo'shib kelgan. Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat, dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o'yin asosiy faoliyat hisoblanadi, keyin esa u o'qish bilan baravar davom etadi, undan so'ng esa o'yin kamayib, uning o'rnini o'qish va mehnat egallaydi. Odamzod tarixining dastlabki davrlarida o'yinlar hayotda muhim o'rin tutgan. O'yinlar yordamida insoniyat o'sgan, ulg'aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo'lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma'naviy kamol topgan. o'zbek xalq o'yinlari avlodlarni tarbiyalashda "hayot maktabi" vazifasini o'tagan. O'yinlar yosh avlodni aqlan, ruhan va jismonan barkamol bo'lib yetishishlarida muhim o'rin egallab kelgan.

Bolalar o'yinlari - bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Ular bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta'sir qiladi. O'yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok etadi. Bolalar o'yinlarining 3 asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o'yin faoliyatini bola erkin, o'z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o'yin harakatlarining jo'shqinligi: bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o'rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o'yinlari mazmuniga qarab o'yinchoqli, voqeaband (sujetli), harakatli va didaktik o'yinlarga bo'linadi: 1) o'yinchoqli o'yinlar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlaridir (soda o'yinchoqlar, mas, shiqildoq, kubiklar o'ynash; qum bilan o'ynash); 2) voqeaband o'yinlarda bolalar kattalar faoliyatiga taqlid qilishadi. Bu o'yinlar bolaning tashqi muhitidagi voqelikni aks ettiradi (mas, "bola boqish", "ovqat pishirish", "bog'cha-bog'cha" o'ynash va b.) Bolalar ulg'aygan sari ularning voqeaband o'yinlari ham murakkablasha boradi; 3) harakatli o'yinlarni bolalar yakka-yakka yoki birgalikda bajaradilar (mas, koptok o'ynash, tez yugurish va b.) Bu o'yinlar maktab yoshidagi bolalarga ayniqsa foydalidir: bolalar sog'lig'ini mustahkamlaydi, ularni irodali qilib tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarning sport o'yinlari ham harakatli o'yinlardandir; 4) didaktik o'yinlarni tarbiyachilar o'ylab topadi. Bu o'yinlar bog'chalarning katta guruhlarida tarbiyalanadigan va boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalarga mo'ljallanadi (mas, tabiiy-ilmiy mavzularga, chet tili so'zlarini eslab qolishga oid va h.k.). Bu o'yinlar bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, zehn kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolani sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishiga imkon beradi.

Milliy o'yinlar tarixini o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarining o'rni beqiyos. Asarda xalq o'yinlarining bir yuz ellikdan ziyod turi tilga olingan. Jumladan, "qorang'uni" (qorong'ida qo'rg'on olish), "bandol" (asir olish), "o'tish-o'tish" (davra o'yini), "chavgon" (to'p o'yini), "o't bandal" (tayoq o'yini), qilichbozlik, nayzadorlik va boshqa o'yinlar haqida ham ma'lumot beriladi. Lug'atda izoh berilgan o'yinlarning bir nechtasi hozirgi kunda ham bolalar uchun qiziqarli mashg'ulot sanaladi. "Alpomish" dostoni xalq o'yinlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda kurash, ot, poyga, uloq, nayza sanchish, kamondan o'q otish, qilichbozlik, merganlik kabi o'yinlar negizida mardlik, jangovarlik, oriyat, matonat, ma'naviy va jismoniy komillik kabi fazilatlar o'z ifodasini topgan. Doimiy o'tkaziladigan o'yinlar bilan birga har bir faslga xos o'yinlar ham mavjud. Masalan, bahorda daraxtlar uyg'onib, tollar kurtak chiqarganda - "tol bargak", dala gullari ochilganda - "gul o'yini", pishiqchilik paytida danak, yong'oq o'yinlari, arg'imchoq uchishlar sevib o'ynalgan. Kech kuz, qishda yog'ingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh o'yinlar odat tusiga kirgan. Qor yoqqanda "qorxat", "qorbo'ron", yomg'ir yoqqanda "yomg'ir yog'aloq", kuchli shamol esganda "bo'ron-bo'ron", sovuq o'z kuchini ko'rsatganda barcha sandal atrofida yig'ilib, "topishmoqtop", "tez aytish", "kim aytdi" kabilar o'ynalgan. Kech kuzdan to bahorgacha "uloq-ko'pkari" musobaqalari o'tkazilgan. Qadimdan yurtimizda to'y-tomoshalar, bayramlar xalq o'yinlari bilan yanada fayzli, ko'tarinki ruhda o'tgan. Xususan, eng ommaviy bo'lgan milliy o'yinlardan uloq-ko'pkari va kurash to'y va bayramlarning sevimli tomoshasiga aylangan. Xalq orasida kurash tushuvchi kuchli odamlar juda hurmat qilingan, atrofdagilar ularga havas bilan qaragan. Shuning uchun belini bog'lab kurash tushadigan polvonlar xalq shodiyonalarining ardoqli mehmoni sanalgan. Xalqimiz har yili Navro'z ayyomini katta shod-u xurramlik bilan kutib oladi. Ana shu bayram kunlari an'anaga ko'ra ko'pkari, varrak uchirish, halinchak uchish kabi turli o'yinlar o'ynaladi. Dala-yu qirlarda, bog'-u rog'larda xalq sayillari qizigandan qiziydi. Mustaqillik yillarida urf-odatlarimiz nafaqat asl qiyofasiga qaytdi, balki mazmunan boyidi va yanada sayqal topdi. Ayni vaqtda bayramlarimizda kuy-qo'shiqlar, folklor-etnografik jamoalarning chiqishlari, lapar, o'lan, alla ohanglari, milliy xalq o'yinlari uyg'unlashtirilib ijro etilmoqda. Xalq o'yinlari kishiga o'zgacha xushnudlik ulashadi, insonning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. U yoshlarning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishida, kuchli, chaqqon, topqir, farosatli, mard insonlar bo'lib kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining betakror samimiyatini o'zida aks ettiruvchi urf-odat va marosimlarimiz qadimiy madaniyatimizning go'zalligini namoyon etuvchi bir ko'zgidir.

Shunday ekan, sog'lom va barkamol avlodni ham jismonan, ham ma'nan barkamol etib tarbiyalashda milliy merosimiz va milliy o'yinlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Milliy o'yinlar bolalar hayotida shunday ahamiyat kasb etadiki, ularga qarab bolaning shaxsiyati, xarakteri, dunyoqarashi, mayllari, qobiliyatlarini aniqlash mumkin. Demak, xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati katta, shu boisdan ham murabbiylar o'quv-tarbiyaviy jarayonda ulardan foydalana bilishlari lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" 2008- yil
2. Mirziyoyev Sh. *Adabiyot, san'at va madaniyatni rivojlantrish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3 avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 2017. - 4-avgust.
3. Boltaboyeva U. Sahna nutqi. Toshkent, INNOVATSIYA-ZIYO; 2019.
4. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
5. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
6. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
7. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
8. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
9. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
10. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Хаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
11. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
12. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
13. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).

14. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
15. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2407-2410.
16. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.
17. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.
18. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
19. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
20. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
21. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
22. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.
23. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).
24. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.
25. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
26. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.
27. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.
28. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

29. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

30. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

31. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.

32. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

33. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

34. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.

35. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.

36. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.

37. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.

38. Umarova, X. (2021). АКTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).

39. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.

40. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.

41. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.

42. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

43. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

44. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## O'ZBEK XALQ CHOLG'U SOZLARINING MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Xasanova (Qubonova) Barno Akmal qizi  
barnobarno1999@gmail.com  
O'zbekiston davlat konservatoriyasi

**Annotatsiya:** Xalq cholg'ular har bir millatning ma'naviy boyligidir. Ular yillar davomida o'ziga xos tarzda shakllanib rivojlanib kelgan. Shu bilan birga hozirgi kunga kelib ham o'z nufuzini yo'qotmay kelmoqda. O'zbek xalq cholg'ulari haqiqatdan ham milliy madaniyatimizning noyob xazinasini hisoblanadi. Shuning uchun ularni ma'nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang barang ekanligini e'tirof etish joizdir. Milliy cholg'ularimizning rivojlanib borishi ham buning yorqin dalilidir.

**Kalit so'zlar:** cholg'u, dutor, tanbur, Farobiy, Ibn Sino, an'ana, ustoz-shogird, chang, moslashtirish, prezident qarori

## THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS IN THE FORMATION OF NATIONAL VALUES

Hasanova (Qubonova) Barno Akmal kizi  
barnobarno1999@gmail.com  
Uzbekistan State Conservatory

**Abstract:** Folk instruments are the spiritual wealth of every nation. They have evolved over the years. At the same time, it has not lost its prestige to this day. Uzbek folk instruments are truly a unique treasure of our national culture. Therefore, it is fair to say that they are spiritually and materially rich and colorful. The development of our national instruments is a bright proof of this.

**Keywords:** instrument, dutar, tanbur, Farobi, Ibn Sina, tradition, teacher-student, chang, arrangement, presidential decree

Sharqning musiqiy cholg'u sozlari eng qadimiy, o'ziga xos va jonli san'atdir. Bizgacha yetib kelgan arxeologik topilmalar, qadimiy tasvirlar va O'rta asrlardagi cholg'u sozlarining tavsiflari ularning qadim-qadimlardan buyon mavjud ekanligini tasavvur qilish imkonini beribgina qolmay, shu bilan birga u yoki bu musiqa sozlarining o'zbek xalqi ajdodlari orasida azaldan taomilada bo'lganligi xususida ham ma'lumotlar beradi.



Azaldan o'zbekning mehmonxonasida dutor yoki tanbur kabi biron-bir cholg'uning doimo osig'liq turishi xalqimizning san'atga cheksiz hurmati va ixlosidan dalolat beradi. Jonli merosimiz, ustoz san'atkorlarning bilim va tajribalariga murojaat qilish hamda ular bilan uzoq yillar davomida bevosita muloqotda bo'lish ko'p jihatlardan yangi, noyob va ishonchli ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Xususan, milliy cholg'ularimizning ohanglari rang - barangligi va boyligi xalqning turmush tarzi, madaniyati, shakllanishi qirralarini o'zida aks ettirgan bo'lib, sharq xalqlari musiqiy tafakkurining nafis jilolarini o'zida mujassamlashtirgan. Yuksak estetik fazilatlarga, mohirona ijrochilik an'alariga ega bo'lgan va o'ziga xos tarovatni yorqin ifodalab kelayotgan o'zbek xalq cholg'ulari shu davrlarda ilmiy asosda maxsus tadqiqot obyekti sifatida e'tiborga tushgan.

O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo'lmog'i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosni ustozdan-shogirdga bevosita o'tishida tabarruk zotlar ko'prik vazifasini o'tashi bilan birga o'zlarini ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, albatta har bir davrda milliy musiqa san'at bobida o'zidan o'chmas iz qoldirgan buyuk insonlar yashab o'tganliklariga amin bo'lamiz. Yuqorida nomlari zikir etilgan, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda o'zbek milliy musiqa san'ati tarixi zarvaraqlaridan munosib o'rin egallagan ko'plab ulug' san'at namayondalarini hayotlari ijodlarini o'rganish, ularni qoldirgan meroslariga e'tiqod va sadoqat bilan yondoshish, qalbida milliy g'ururi bor bo'lgan har bir mutaxassis vatandoshimizning insoniy burchi desak o'rinli bo'ladi.

Uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan musiqiy merosni o'rganish uni mukammal fan darajasiga olib chiqishda Abu Nasr Muxammad al-Farobiyning xizmatlari beqiyosdir. Al-Farobiy qadimgi musiqa namunalarini ijrosi va tahliliga juda katta ahamiyat berib o'tgan. Izlanishlar samarasi sifatida musiqa nazariyasi fanini yaratdi. "Kitabul al-kabr"<sup>1</sup> (Musiqaga doir katta kitob), "Kilamu fil-musiqiy" (Musiqqa uslublari haqida kitob), "Kitabul-musiqiy" (Musiqqa kitobi) kabi risolalar bevosita musiqa ijrochiligi tahliliga bag'ishlangandir.

Bu borada Al-Farobiy an'anasini davom ettirgan olimlardan yana biri Abu Ali ibn Sino edi. Uning "Kitabush-shifa" (Shifo kitob), "Donishnoma" (Bilim kitobi), "Risolatun fi ilmil musiqiy" (Musiqqa ilmi haqida risola) asarlari bevosita musiqa ilmi, ijrochilik uslublari, mavjud kuy va ashulalar tahlili haqidadir.

IX-X asr musiqa madaniyati tarixida O'rta Osiyodan chiqqan buyuk olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf al-Kotib al-Xorazmiyning "Mafatixul-ulum" (Ilmlar kaliti) ensiklopediyasining musiqa

<sup>1</sup> "Musiqqa ijodiyoti masalalari I". "Qatortol - Kamolot", Toshkent, 1997.

nazariyasiga bag'ishlangan qismida kuylar qatori xalq cholg'ulari ijro namunalari tahliliga katta ahamiyat berib o'tgan.

Keyinroq yashab ijod etgan olimlar - Safauddin Abdulmo'min, Mahmud bin Ma'sud ash-Sheroziy, Xuja Abdulqodir Marog'iy (XIV, "Jamiul - alhon" "Maqasidul-alhon" risolalar muallifi), Al Xusayniy, Abduraxmon Jomiy (XV) va kuplab musiqa ilmi olimlari risolalarida yanada rivojlantirildi.

Bular ichida o'z mulkinging sultoni Mir Alisher Navoiy Hazrat sozanda, xonanda, bastakorlarga homiy, murabbiy, murshid bo'lgan. Bu haqda Mirzo Bobur shunday yozadi: "Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabiy va muqavviy ma'lum ermashim, hargiz paydo bo'lmish bolg'ay. Ustoz Qulmuhammad, Shayhi Noiy va Husayin Udiykim, sozda saromad edilar. Bekning tarbiya va taqviyati bilan muncha taraqqiy va shuhrat qildilar"<sup>2</sup>. Alisher Navoiy "majolis un-nafois"da Pahlavon Muhammad, Hoja Abdulvafoiy Xorazmiy, Hofiz Sharbatiy, Kamoliddin Udiy kabi musiqada ham o'z iqtidorini namoyon etgan o'nlab fozillarga xayrixoh bo'lganini bildiradi.

O'rta Osiyo o'tmish musiqashunos olimlari kuylar bilan birga cholg'uchilik muammolar ustida tahliliy muhokamalar olib borganlar va risolalar yaratganlar.

XIX asrning oxirlari va XX asrda soha mutaxassislari, sozanda va musiqashunoslari tomonidan milliy cholg'ularimizni zamonaviy amaliyotga joriy etish masalalariga oid qator izlanishlar olib borilgan. XX asr 20-yillariga kelib musiqa va san'at sohasida cholg'u ijrochiligi zamonaviy talablar asosida ikki yo'nalish - xalq an'anaviy ijrochiligi san'ati va akademik ijro san'atiga bo'lindi. Ayni chog'da, milliy cholg'ularni yevropacha yo'nalishdagi ko'p ovozli musiqa uslubi o'quv dargohlari va konsert muassasalarida joriy qilina boshladi.

XX asrning ko'zga ko'ringan sozandalari Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Yunus Rajabiy, Domla Xalim Ibodov, Usta Olim Komilov, Orifxon Xotamov va boshqalar ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan asriy an'analarni davom ettirib, yangi mazmun, yangi g'oyalar bilan payvand qila olgan tabarruk zotlardir.

Bu davrlarda bastakorlik hamda kompozitorlik san'ati paydo bo'lgandan so'ng musiqa keng va chuqur ma'noda ko'p ovozli polifonik ko'rinishda va gomofon-garmonik uslubda yangray boshlaganligi barchaga ma'lum. Xalq musiqiy merosiga boy mamlakatlarda ijrochilik asosan og'zaki yo'l bilan, "ustoz-shogird" uslubida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelgan va kelmoqda. Xalq ijodiyotini yozib olish har qanday madaniyat rivojlanishida dolzarb masala bo'lgan. Bunday jarayonlar

<sup>2</sup> Шамсиев П. "Бобурнома" Т. Юлдузча. 1989

musiqada ham kuzatilgan. Xususan, O'zbekistonda bunday merosni notaga olish XIX asr oxirlaridayoq boshlangan. Xalq kuylarini qayta ishlash - bu professional musiqa hisoblanmish - bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotining bir yo'nalishidir. Namunalari muayyan janr sifatida qabul qilinganligiga ham ancha vaqt bo'ldi. Dastlab ijodiyotga kirib kelgan "garmoniyalash" tushunchasi endilikda yanada chuqurroq, yanada keng ma'noda "Aranjirovka" deb nomlanayapti va u nima ekanligini yangi zamon kishisi, u yosh bo'ladimi yoki keksa yaxshi biladi. Ta'kidlash joizki, xalq kuylarini qayta ishlash yuqoridagilarga nisbatan birmuncha murakkab va mas'uliyatliroq ijodiy jarayondir. O'z paytida To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy kabi ustozlarimiz mumtoz kuy va ashularimizni qayta ishlab, zamonaviy sayqal berib "qayta ishlash"ning monodiya zaminidagi yuksak namunalarni yaratishganligi endi musiqa san'ati tarixidan ham o'rin oldi. Bunday ijodiy izlanishlar O'zbekistonda musiqali drama, opera, balet, kamer musiqa janrlari o'zlashtirilishida muhim omil bo'ldi. Xalq kuylarini qayta ishlashda B.Nadejdin, T.Sodiqov, B.Gienko, M.Leviyev, D.Zokirov, Sayfi Jalil, F.Alimov izlanishlari alohida e'tirofga loyiq bo'lgan. Hozirgi davrda bu ustozlarning ishini R.Abdullayev, H.Rahimov, Mustafo Bafoyev, Nadim Norxo'jayev, Avaz Mansurov kabilar va ularning shogirdlari ham samarali davom ettirishmoqda. "Moslashtirish" tushunchasi ham "xalq kuylarini qayta ishlash"ga juda yaqin bo'lgan ijodiy ishni anglatadi. Notaga olingan har qanday xalq musiqa merosiga taalluqli kuyni ma'lum bir cholg'uda yoki turli cholg'ulardan tuzilgan ansambllar tarkibiga moslab ijro etish mumkin. Hamma gap shundaki, bir ovozli biror kuyning notasini puflama, tirnama, chertma, zarbli, torli-urma yoki torli-kamonli cholg'u uchun alohida yozib chiqadigan bo'lsangiz, ularning nota ko'rinishi biroz farq kilishi mumkin. Chunki monodik kuyni turli cholg'ular uchun o'ziga xos uslubda notaga tushirish lozim. Masalan, dutorda o'sha kuy albatta ikkala simda, ya'ni 2 ovozda yangrashi kerak, puflamalarda nafas bilan, torlilarda barmoqlar harakati bilan bog'liq holda nota yozuvi echim topadi. Demak, barcha cholg'ularimizda o'ziga xoslik mavjud, "moslashtirish"ning ham o'zgacha nozik tomonlari borligi hamisha e'tiborimizda bo'lishi darkor. Qayta ishlangan yoki ma'lum bir cholg'ular ansambli tarkibida ijro uchun moslashtirilgan kuylardan namunalar ko'p yillardan buyon konstert-pedagogik repertuarlarga kiritib kelinmoqda. Ta'kidlash joizki, chang cholg'usi uchun Ahmadjon Odilov, nay uchun Mirza Toirov, dutor uchun G'ulomjon Qo'chqorov kabi ustozlarimiz ham ijodiy izlanishlarga qo'l urib, bir talay namunalarni yangi avlod sozandalarini tarbiyalash uchun nota to'plamlarida e'lon qilishgan.

Milliy musiqaning tarixi, uning rivojlanishi, ijrochilik an'alarini o'rganar ekanmiz, oddiy xalq ijodiyoti xavaskor ijrochiligidan professionalizmga tomon ravnaq topayotgan bir necha yo'nalishlarning kelib chiqish tarixidan tortib bugungi kundagi ahamiyati haqida to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Chunki, bu sohalar allaqachon

Oliy o'quv dargohlarining birlamchi mutaxassislik fanlari sifatida mutasaddi vazirliklar tomonidan o'quv amaliyotiga joriy qilingan. Xususan bu harakatlar o'zbek xalq cholg'u ijrochiligi san'atini asrab avaylash, dunyoga tanitish, uni bus butunligicha avlodlarga yetkazish va rivojlantirish kabi mas'uliyatli vazifalar aynan biz yoshlarga yuklatilmoqda. Shu bois madaniyat va san'at rivoji millat imidjida muhim jarayondir.

2022-yil 2-fevral kuni muhtaram Prezidentimiz tomonidan imzolangan *"Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*<sup>3</sup>gi qarorida soha rivojiga qaratilgan chora-tadbirlar o'z aksini topdi.

Tarixdan ma'lumki, har bir Uyg'onish davrida jumladan, birinchi, ikkinchi Renesans davrida ham madaniyat va san'atning o'rni alohida bo'lgan. Mazkur hujjatning qabul qilinishi yurtimizda uchinchi Renesans davri boshlanishida muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Maktablarda milliy cholg'ularimizni mukammal o'rgatish masalasi qarorda alohida qayd etilgan. Bu yoshlarda milliy merosimiz haqida bilimlarning shakllanishiga, ma'naviy saviyasi oshishiga xizmat qiladi. Jumladan:

- mazkur qarorga 1-ilovadagi ro'yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi;

- musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakul'tativ darslari o'tkaziladi;

- mazkur qarorga 1-ilovadagi ro'yxatda keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi;

- musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi;

- notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritiladi;

Bu qarorning yana bir muhim jihati shundaki, 4-ilovada keltirilishicha, O'zbekiston Davlat Filarmoniyasi tasarrufida O'zbekiston Jazz orkestrini tashkil etish, O'zbek va jahon adabiyotining sara namunalari asosida maxsus ovoz yozish studiyalarida taniqli san'atkorlarga o'qitgan holda "Siz sevgan ijodkordan tuhfa" turkumida audiokitoblar tayyorlash, madaniyat va san'at sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy manbalarni yaratishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ham

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh. - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son

ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda, bu qaror sohamiz mutasaddilari uchun cheksiz e'tibor va madaniyatimizga bo'lgan samimiy hurmat sifatida kelajak avlodni tarbiyalashning eng maqbul usuli sifatida qabul qilindi desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son
2. Sh.M.Mirziyoyev. "5 muhim tashshabbus" 19.03.2018.
3. Mirziyoev SH. M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". -T., "O'zbekiston", 2017.
4. I. Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" - O'zSSR davlat badiiy adabiyoti nashriyoti. Toshkent 1963
5. B.Matyoqubov "Doston navolari" - Ilmiy nashr. Toshkent 2009
6. G.Muhammedova "Dutor" - Sharq nashriyoti. Toshkent 2004
7. Matyakubov Shavkat Botirovich "An'anaviy ijrochilik tarixi". T.,2018
8. Davron Qodirov "An'anaviy qo'shiqchilik". Iqtisod - moliya nash. T., 2007

## QO'G'IRCHOQ TEATRI AKTYORINING XUSUSIYATLARI

B.Mamatqulov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qo'g'irchoq teatri aktyorining sehrliligi qo'llari naqadar harakatchan, jismonan chiniqqan, chidamli bo'lishi kerakligi va qo'g'irchoq aktyorining xususiyatlari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** san'at, teatr, sahna, spektakl, qo'g'irchoq, drama, musiqali drama, opera, balet, tomoshabin, aktyor, aktyor qo'li, xatti-harakat, personaj, sehrliligi.

## CHARACTERISTICS OF PUPPET THEATER ACTOR

B.Mamatqulov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article discusses how a puppet theater actor's magic hands should be mobile, physically fit, resilient, and the characteristics of a puppet actor.

**Keywords:** art, theater, stage, performance, puppet, drama, musical drama, opera, ballet, spectator, actor, actor's hand, action, character, magic.

San'atning har bir turidan qat'iy nazar ijodkor qonuniyatlar, uslublarga tayangan holda, asar yaratadi, tomoshabin uni ko'radi, tinglaydi va bir olam zavq oladi. Balet teatrida spektakl tomosha qilish ekanmiz, sahnadagi mahoratli ijrochilarni raqsiga maxliyo bo'lamiz. Opera teatrida esa ovozlari sehridan zavqlanamiz. Shunday ekan, jozibali, sehrliligi raqslarni ko'rish hamda ariya tinglash uchun balet va opera teatriga borilsa, qo'g'irchoq teatriga, avvalo qo'g'irchoqlarni tomosha qilish uchun boriladi.

“Qo'g'irchoq teatri-teatr san'atining shunchaki bir janri emas, balki drama, opera, balet, musiqali drama, operetta singari mustaqil butun bir turidir. Binobarin, u bundan keyin tur sifatida rivojlanishi, shu paytgacha e'tibor berilmay kelingan mavzularni va obrazlarni kashf etishi, janrlar doirasini kengaytirishi, sahnalashtirish uslubi va ijrochilik vositalarini boyitishi, unitilgan shakllarni tiklashi zarur. Ana o'shanda qo'g'irchoq teatri o'z tarixiga, zamon va turli toifa tomoshabinlar talablariga munosib bo'la oladi.”<sup>1</sup>

Qo'g'irchoq teatrida namoyish etiladigan har qanday janrdagi spektakllar zamon talablaridan kelib chiqqan holda, o'z davrining ma'anaviy-axloqiy muammo va kamchiliklarini o'z ichiga olib, uni badiiy yechimini kichkintoylarga qiziqarli va tushunarli, yuqori fantaziya asosida yaratilgan, rang-barang bo'lishi kerak.

<sup>1</sup> Қодиров М., Қодирова С. Қўғирчоқ театри тарихи. – Т.Ж Талқин, 2006

“Drama, musiqali drama, balet, opera teatrlarida spektakl yaratishda aktyor eng birinchi personaj (figura) bo‘lsa, qo‘g‘irchoq teatrida birinchi personaj bu qo‘g‘irchoq, so‘ng uni boshqaradigan aktyor.”<sup>2</sup> hisoblanadi.

Qo‘g‘irchoq, jonli, tirik aktyorga nisbatan ramziy ekanligini, odamga yoki biror mahluqotga aynan o‘xshash (belgilari juda kam bo‘lishini ham yaxshi bilganimiz) holda, biz qo‘g‘irchoqni tomosha qilamiz, uning tirilishi mo‘jizasini ko‘ramiz, undan zavq olamiz. Xatti - harakatlariga, undagi insoniy tuyg‘ularga ishontirish kuchiga maxliyo bo‘lamiz.

Bir qarashda inson hatti-harakati frazeologiyasi nuqtai-nazardan odatga, ko‘nikmaga aylanib ketgan harakat stereotiplari butunlay o‘zgargandek tuyuladi. Dramatik teatr aktyori bilan qo‘g‘irchoq teatri aktyorining muskul apparatining oddiy jismoniy harakati qiyosida taqqoslab ko‘ramiz. Aytaylik, dramatik aktyor sahnaviy voqea davomida o‘tirishi zarur. Shunga muvofiq harakatga keltiruvchi buyruq dastlab miyada tug‘iladi. Bunday da‘vat markazga intiluvchi nerv orqali markaziy nerv sistemasiga boradi va undan markazdan tarqaluvchi harakat tomirlariga o‘tadi va bu tomirlar bo‘ylab yelka, bo‘ksa, oyoq va boshqa qismlar muskullarini harakatga keltiradi. Zarur mushaklarning uzayishi yoki qisqarishi berilgan bosh miya buyrug‘i bajariladi. Reflektorli yoy egib bo‘ladi, ya‘ni odam o‘tiradi.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorida bu refleks jarayonining birinchi qismi drama aktyorida qanday bo‘lsa, shunday kechadi, biroq yakun farqlanadi. Nerv tomirlari orqali bajariladigan holatni aktyor emas, balki qo‘g‘irchoq amalga oshiradi. Qo‘g‘irchoqning o‘tirishi uchun mutlaqo boshqacha fiziologik hatti-harakat amalga oshiriladi. Ya‘ni, yelka, qo‘lning bilak, tirsak, barmok mushaklari harakatga keladi. Natijada qo‘g‘irchoq istalgan holatga muvofiqlashtiriladi.

Qo‘g‘irchoq aktyor tanasida qanday jarayon kechadi. Aktyor va sahnaviy personaj, ya‘ni qo‘g‘irchoq hatti-harakatlari orasida funksional (vazifaviy) aloqa doimiy ravishda yuz beradi.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyori tanasida fiziologlar va sportchilar iborasiga ko‘ra ideomotor akti yuz beradi, Harakat haqidagi fikr mushaklarning juz‘iy torayishlari, qisqarishlari bilan barobar kechadi. Aktyorning ongida pishgan va qo‘g‘irchoq ifoda qilishi kerak. Faqat shundagina sahnaviy personaj, qo‘g‘irchoqning har bir spektakldagi qattiq harakatining plastik belgilari namoyon bo‘ladi, sahnaviy yashash tarzining lahzalik xususiyatlari yuzaga keladi.

O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat instituti qo‘g‘irchoq teatri bo‘limida, aktyorni tarbiyalash asosan Stanislavskiy sistemasi uslubiyoti zaminida olib boriladi. Aktyorlarning qo‘g‘irchoq bilan trening mashg‘ulotlari, albatta aktyor psixotexnikasi elementlari Stanislavskiy sistemasiga asoslangan mashqlari jonli plan bilan parallel holda olib boriladi. Lekin bu jarayonda ikki xil mashqni o‘zaro aloqadorligi, bir-

<sup>2</sup>Ашурова М. Кўғирчоқ театри санъатининг актёрлик мактаби Т., 2007

biriga ta'sirini amalga oshirishda zarur meyor aslo buzilmasligi kerak.

Qo'g'irchoq teatri aktyorlari tarbiyalash ishi boshlanganiga o'ttiz yildan oshiq vaqt o'tdi. Respublika qo'g'irchoq teatri, viloyatlar qo'g'irchoq teatrlarida institutni bitirib chiqqan sobiq talabalar teatr artistlarining aksariyatini tashkil qilib kelgan. Biroq so'nggi yillarda, ayniqsa viloyat teatrlarida maktab o'tagan professionallar soni kamayib borayotgani tashvishlanarlidir. To'g'ri, institutda har yili qo'g'irchoq bo'limini bitirib chiquvchilar bo'ladi. Lekin ularning aksariyati viloyat teatrlariga borib ishlamaydilar. O'zlarini boshqa sohalarga urib ketayotganlar ham yo'q emas. Ammo, masalaning boshqa bir jiddiy tomoni bor.

Institutda tahsil oldi degani diplomli qo'g'irchoqboz aktyor teatrga yetib keladi va bu kasbining kundalik mehnati, hayoti tarziga aylanadi, degani emas ekan. Yosh yigit-qiz bu ta'lim yo'nalishiga kirayotganida, kasbni tanlayotganida qalb amriga itoat qildimi, yoki boshqa sharoitlar sabab bo'ldimi, gap ana shunda. Ba'zan sharoit taqazosi bilan, aytaylik drama bo'limiga da'vogarlar ko'p bo'lib, konkurs kattaligi tufayli qo'g'irchoq bo'limiga kirib qoluvchilar ham uchrab turadi. Bunda talaba o'zida tub o'zgarishlarga erishmasa, qo'g'irchoqqa mehr-muhabbat tuyg'usini o'zida shakllantira olmasa, u san'atkor bo'lmaydi.

Qo'g'irchoq teatri aktyori boshqa janr aktyorlaridan farq qiluvchi, o'zigaxos tipdir. Boshqalardan farqlanishi uning kasb mahorati, qo'g'irchoq o'ynatilishi bilan chegaralanmaydi. U aynan boshqatipdagi shaxs. Ma'lumki, o'zining san'atini, san'atkorligini, o'z qiyofasini jamiyatga ko'rsatishga intiluvchi shaxs (bu xususiyatning yomon tarafi yo'q, bu har bir artistning haqli istagi) shirma ortida uzoq o'tirolmaydi, zerikadi, o'zini topmaydi. Demak, qo'g'irchoqboz aktyorning asosiy hislatlaridan biri kamsuqumlik, kamtarlikdir. Bunday fazilat, albatta boshqa janr artistlariga ham xos ekanligi shubhasiz, ammo bu fazilatlar drama teatrida va qo'g'irchoq teatrida turli proporsiyalarda yuzaga chiqadi, aks etadi. Qo'g'irchoq teatri aktyori uchun uning o'zi emas, undan tashqaridagi mavjudot, uning ijro quroli - qo'g'irchoq va u bilan bog'liq vaziyat ko'prok ahamiyatga ega bo'lishi diqqatga sazovor. Shu bilan birga qo'g'irchoq teatri aktyoriga xos ko'rinmaslik bilan bog'liq kamtarlikjuda faol, sermazmun mehnat, ijodiy izlanishlarga to'la bo'lishida, bu inson qo'g'irchoq san'atining odamimi, bunda o'zini topganmi, bir so'z bilan aytganda professionalmi yoki yo'qligi ekanligi o'zini ko'rsatadi.

Umuman, aktyorlik san'atining eng teran tavsifi uning organikasi, uning qo'g'irchoqqa hayot bag'ishlashida ne'mat bo'ladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi M.Ashurova Ko'g'irchoq teatri aktyori haqda shunday degan edi: "Ko'g'irchoq teatri aktyori uchun eng zarur bo'lgan yo'nalish, bu uning qo'l harakatchanligidir. Haqiqat-dan ham inson xatti-harakatining eng faol ijrochisi bo'lgan qo'l qo'g'irchoq teatrida o'zining mo'jiza-korligi, sehrgarlik kuchini



yanada yaqqol namoyon qiladi. Dramaturg asaridagi qiyofalar musavvir va qo'g'irchoq ustasining ijodiy ko'magida dunyoga kelgan qahramonlar, qo'g'irchoq teatri aktyori qo'li bilan jonlanib, mantiqli, maqsadli xatti-harakatga moyil qilinadi. Bu o'z o'rnida qo'g'irchoq teatri aktyoridan qo'llarning naqadar harakatchan, chiniq-qan, chidamli bo'lishini taqozo etadi, shuningdek u qo'g'irchoqlarni katta mahorat bilan boshqarib, turli mantiqli xatti-harakatlar sodir qilish bilan birga qo'l yalang'och holda, qo'lqopli holatda yoki dumaloqcha kiygan holatida turli harakatlarni amalga oshirib, turfa obrazlar yaratadi va boy imkoniyatlarini namoyon etadi. Demak qo'g'irchoq teatri aktyorining qo'l harakatchanligi cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak".<sup>3</sup>

Qo'g'irchoq teatri aktyorining qo'llari uning asab torlari va jismoniy energiyasini qo'g'irchoqning plastik xatti-harakatlariga aylantiruvchi, shur va sissiyotlarni yorituvchi o'ziga xos vositasidir. Barmoqlarning harakatlari, bilaklarning turli mashqlari, yoki gapit yoki vagani boshqarishda barmoqlarning salgina nozik harakati tufayli qo'g'irchoq spektakli personajining emotsional xolatida o'zgarishlar yuz beradi.

Teatrning asosiy maqsadi o'z tomoshabinini yaxshilikka chorlash, madaniyati, ma'naviyati va dunyoqarashini kengaytirish hamda bir olam zavqu, shavq taqdim etishdir. Yuksak baho berguchi bu albatta tomoshabindir. Tomoshabinning dunyo qarashini kengaytirish san'at ahlining vazifasidir. Teatr va tomoshabinni ikki ajralmas unsurga qiyos qilsak bo'ladi. Chunki tomoshabin bo'lmasa teatrning mavjud bo'lishi va qo'g'irchoq aktyori mutaxassisligi ham so'roq ostida qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – T.J Talqin, 2006
2. Ashurova M. Qo'g'irchoq teatri san'atining aktyorlik maktabi T., 2007
3. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
4. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
5. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
6. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
7. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.

<sup>3</sup> Ашурова М. Қўғирчоқ театри санъатининг актёрлик мактаби Т., 2007

8. Ҳатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 50-52.

9. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

10. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 85-92.

11. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

12. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. *Oriental Art and Culture*, (6).

13. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

14. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2407-2410.

15. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.

16. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.

17. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

18. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.

19. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.

20. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.

21. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.

22. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).

23. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.

24. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

25. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.

26. Haydarov, A. (2019). АКTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.

27. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

28. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

29. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

30. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.

31. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

32. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

33. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.

34. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.

35. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.

36. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.

37. Umarova, X. (2021). АКTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).

38. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.

39. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.

40. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.

41. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

42. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

43. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## BOLALAR KITOBXONLIGI

To'ychiyeva Shoiraxon No'monovna  
O'zbekiston davlat sa'nat va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mamlakatimizda badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining etuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari qanday olib borilayotganligini hamda bolalarga kerakli adabiyotlarni tavsiya etish orqali bolalar kitobxonligini, mutolaa madaniyatini shakillantirish masalalarini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** Kitob, kitobxon, mutolaa, noshirlik, maktabgacha ta'lim, kichik yoshdagi kitobxon, maktab yoshdagi kitobxon, o'rta yosh kitobxon, bolalar adabiyoti.

## CHILDREN'S LIBRARY

Toychiyeva Shoiraxon Nomonovna  
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article is about the publication of literature in our country aimed at increasing the artistic, educational, scientific, popular, educational, intellectual potential of young people, providing them with educational institutions, sorting and translation of mature works of national and world literature. and the formation of a culture of reading for children by recommending the necessary literature to children.

**Keywords:** Book, reader, reading, publishing, preschool education, young reader, school-age reader, middle-aged reader, children's literature.

Ma'naviyatining shakllanishida Kitobning o'rmi beqiyos. Kitob yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berish vositasidir, kitob ularni erkin fikrlashga, dunyoqarashining kengayishiga, go'zal nutq sohibi bo'lishga o'rgatadi. Kitob insonga sodiq do'st, uning *ichida barcha ilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi.* Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir.

2016-yildan buyon matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilingan. 1 677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va

shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin kutubxonalar tomonidan aholiga, bolalarga axborot-kutubxona xizmatlari hamda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitob savdo ta'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan "Ijod" jamoat fondi tomonidan yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko'p ming nusxada nashr etish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, ushbu muhim soha rivoji bilan bog'liq aholi, xususan, Yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini aniqlandi.

Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining etuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etilmagan. Chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda yetkazish, onlayn buyurtma berish va manzilga etkazish tizimi sust rivojlangan, shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi - "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi hamda 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks choratadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori yurtimizda kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini oshirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Yurtimizning barcha sohalarida, ta'limning barcha bo'g'inlarida badiiy adabiyotga, kitob o'qishga bo'lgan munosabatlarni yuksaltirdi.

Ushbu Qarorning ijrosi sifatida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimi takomillashtirilib, bolalar kitobxonligi juda mas'uliyat bilan e'tibor berilib, yozuvchilarning - bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiyommabop va publitsistik asarlari, Jahon xalqlari adabiyoti, shu jumladan o'zbek xalqi Bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, matal, masal va doston singari bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijodi namunalarini lotin alifbosida qaytadan nashr etildi, bundan tashqari o'zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalarini internet tarmog'iga joylashtirish va ularni targ'ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlari samarali tashkil etilindi. Bugungi kunda respublikamizning barcha axborot-kutubxona markazlari hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan kutubxonalar fondlari lotin alifbosiga asoslangan o'quv-uslubiy, adabiy-badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop va ensiklopedik kitoblar bilan boyitildi va bu ishlar davom etmoqda.

Bunday e'tiborli va hayrli harakatlarning barchasi barkamol avlodning kitobxonli madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir. Bolalar kitobxonligining shakllanishida oilaning, maktabgacha ta'lim maskani hamda maktab kutubxonasining, boshqacha qilib aytganda ota-onalar, tarbiyachilar, murabbiylar hamda kutubxona xodimlarining ahamiyati kattadir.

Kitobxonlikni shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rgazmalilikka asoslangan bo'lsa, bolalar va o'smirlar uchun adabiyotlarni tavsiya etish asosida amalga oshiriladi. Bunday jaroyonida kitobxon bilan suhbatlashib, uning qiziqishlarini, psixologiyasini o'rganish juda muhimdir.

Bolalar kitobxonligini o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkun:

1. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha);
2. Maktab yoshdagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha);
3. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).<sup>1</sup>

Maktabgacha ta'lim yoshdagi kitobxonlarga asosan ota-onalar, buvi-bobolar, tarbiyachilarning ta'siri katta bo'ladi, chunki hali o'qish va yozishni bilmagan bolaning kitobxonlik madaniyati do'stlik, halollik, botirlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, mehr-muhabbat g'oyalari asoslangan ertaklar tinglash orqali shakllanadi. Ertaklar xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang barang janrlardan biri. Bundan tashqari topishmoq orqali bolaning tafakkuri rivojlanadi, topishmoqlar xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusumlari o'rgatadi hamda bolalarni o'ylashga, topqirlikka o'rgatadi. Bundan tashqari bolalar «Kim?», «Nima?» so'roqlariga javob topishga o'rganadilar.

Tez aytishlar ham bola nutqining rivojlanishida samaralidir. Tez aytishlar bolaning og'zaki nutq mashqi bo'lib, kichik yoshdagi bolalar ma'lum tovushlarni to'g'ri va ohangdor talaffuz qilish ko'nikmalarini orttiradi. Tez aytishlar bolalarni biyron so'zlashga o'rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, fikrlash qobiliyatini o'stiradi hamda xotirasini mustahkamlaydi.

Maktab yoshdagi kichik kitobxon bolalarga tabiat, vatan, vatanparvarlik, botirlik, mehnatsevarlik, odob-axloq, ota-onaga, ustozlarga, o'qishga mehr-muhabbat g'oyalari singdirilgan kitoblarni o'qish tavsiya etiladi. Ular ko'proq sehrli-fantastik ertaklar, sarguzasht hikoya va qissalar, dostonlarni sevib o'qiydilar. Bunday yoshdagi bolalarga juda katta hajimdagi asarlardan ko'ra, ko'proq qisqaroq hikoya va qissalarni tavsiya etish muhimdir, chunki ba'zi bolalar katta hajimdagi asarlarni o'qishdan zerikib qolishi mumkun.

Maktabgacha ta'limdan boshlab kitobga mehr qo'ygan kichik kitobxon bolalar o'zi mustaqil kitob tanlashni biladilar. Kuzatuvlarga asoslanadigan bo'lsak, ular

<sup>1</sup> Mamasoli jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. 2006-y, 3-bet.

ko'proq bolalar yozuvchilari Anvar Obidjonning "G'alati maktublar", "Dahshatli meshpolvon", Tursunboy Adashboyevning "Osmon qaydan boshlanar", Po'lat Mo'minning "Bolajon, bolajonim", Safar Barnoyevning "Tinchlikni ulug'laymiz", Quddus Muhammadiyning "Erkinjon oyga ciqibdi", Yusuf Shodmonning "Oydan kelgan bolalar" va shu kabi bolalar shoir va yozuvchilarining asarlari ko'proq o'qiydilar. Ayniqsa ular o'zbek bolalar adabiyotidagi Hamid Olimjonning "Oygul va Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Shukur Sa'dullaning "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", Zafar Diyorning "Yangi ertak", "Toshxon bilan Moshxon", "Tulkining hiylasi", Sulton Jo'raning "Zangor gilam" va "Qaldirg'och" singari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan adabiy ertakni sevib o'qiydilar.

13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha bo'lgan kitobxon bolalar ko'proq o'zlari mustaqil ravishda kitob tanlaydilar. Bu toifadagi kitobxonlarga yosh jihatdan to'g'ri kitob tanlash juda katta ahamiyatga egadir. Ularga odob-axloq masalalari ilgari surilgan adabiyotlarni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bolaning o'smirlik chog'idan to'g'ri tarbiya olishi ham yoshlikdan o'qib o'rgangan kitoblari asosida bo'ladi. Bu borada ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr oqibat kabi g'oyalarni ilgari suruvchi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga olib boruvchi bilim"), Ahmad Yugnakiyning "Habbat ul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Ahmad Yassaviyning hikmatli kitoblari va shu kabi boshqa adabiyotlar.

O'rta va katta yoshdagi kitobxon bolalar ko'proq, o'zbek adiblari G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Nazir Safarovning "Ko'rgan kechirganlarim", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehri qalpoqcha", "Sariqdevni minib", "Sariq devning o'limi", O'rkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", Said Ahmadning "Ufq", Tohir Malikning "Alvido bolalik", Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" kabi asarlarini sevib o'qiydilar.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, undagi asarlar bolalarni olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur sevisga yordam beradi. Chunki bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi.

Shuning uchun bolalar o'zi yoshiga mos bo'lgan kitoblarini o'z dunyoqarashlari asosida tanlab o'qiydilar

Xulosa qilib aytganda, bolalar kitobxonligida bolalar adabiyoti bolalarni ma'rifatga yetaklaydi. Chunki barcha davrlar bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Shuning uchun bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.



Yurtboshimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida e'tibori tufayli barcha ta'lim maskanlaridagi o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Kirobxonlar bayrami", turli ko'rik- tanlovlari, dam olish maskanlarida ochilayotgan zamonaviy kitob do'konlari va faoliyat ko'rsatayotgan kutubxonalar yosh avlodni ma'naviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno bo'lishda muhim o'rin tutmoqda. Kitobning mohiyati mangudir... Bu mohiyat - tafakkurni abadiylashtiradi. Bu borada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha axborot-kutubxona markazlarida bolalar kitobxonligining rivojlanishiga xizmat qilmoqda

Yosh kitobxonlarga tavsiya qilgan kitoblar orqali kitobxonlar mutolaa uchun zarur adabiyotni tanlashni bilib oladilar, shu bilan birgalikda, ular kitob o'qish orqali mulohazali, bilimli bo'lib, Yuksak tafakkuri bilan boshqalardan o'zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Kitob bilan oshno bo'lgan bola yaxshi inson bo'lib ulg'ayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Muhammadaliyeva Nasiba. "Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda axborot-kutubxona markazlarining o'rni"/Umumta'li fanlar metodikasi.-2021 y, 8-son.
2. I.J. Yuldashev, O'. Nosirov. Kutubxona-axborot xizmati: nazariya va amaliyoti-o'quv qo'llanma. T.-2020y, 397 bet.
3. Erkin vohidov.Orzuli dunyo: She'rlar,-T.: "Sharq",2010.- 208 b.
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat" , 2008.
5. Bekmatova Dinara."Yoshlar tarbiyasi-kun tartibidagi masala"/Boshlang'ich ta'lim.-2021-y, 9-son.
6. Y. Isayev. Abu Ali Ibn Sino,ilmiy-ommabop risolasi, T.:2010-y. "Tafakkur"-95 bet.
7. "Buyuk yurt allomalari" risolasi,T.: "O'zbekiston".-2016 y.425 bet.
8. Mamasoli jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T.: 2006-y, 216 bet.
9. S.Yuldosheva.O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021
10. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. International Journal of Culture and Modernity, 10, 43-51.
11. Юлдашева, С. Н. (2020). СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АУДИТОРИИ. ТИПОЛОГИЯ ЧИТАТЕЛЕЙ. Oriental Art and Culture, (V).

12. Sohiboxon, Y. (2021). O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI. *Oriental Art and Culture*, (7), 260-268.
13. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.
14. Юлдашева, С. (2019). Китоб мутолаасини шакиллантиришда кутубхоначилик фаолияти. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 59-62.
15. Yuldasheva, S., & Madumarova, M. (2020). TASKS AND CONTENT OF BIBLIOGRAPHIC WORKS. *European Journal of Arts*, (1), 148-152.
16. Асқарова, М. (2020). ЎЗБЕК АДАБИЙ ТАҢҚИДИ ТАРАҚҚИЁТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
17. Мирзаева, Н., & Асқарова, М. (2020). ЧЎЛПОҢ ИЖОДИДА МИЛЛИЙ УЙҒОНИШ ҲАРАКАТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
18. Асқарова, М. (2021). Адабий жараённинг зукко тадқиқотчиси. *Oriental Art and Culture*, (7), 209-216.
19. Askarova, M. (2020). Homil yakubov's views on navoi studies. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 788-792.
20. Askarova, M. (2021). Homil Yakubov's views on Oybek lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2412-2415.
21. Nurxon, I., & Habibjonov, I. (2021). KITOB VA KITOBXONLIK–INSON MANAVIYATINING KOZGUSI. *Oriental Art and Culture*, (6).
22. Ёғли Ҳабибжонов, И. Т. (2020). ЎЗБЕК СОЛИҚ ТЕРМИНЛАРИНИНГ АФФИКСАЦИЯ УСУЛИ БИЛАН ЯСАЛИШИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 200-206.
23. Ҳабибжонов, И. Т. Ў. (2021). СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА ДУБЛЕТЛИК ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Scientific progress*, 1(6), 842-846.
24. Ismoilova, N., & Habibjonov, I. (2021). Kitob va kitobxonlik–inson manaviyatining kozgusi. *Oriental art and culture*, 2(1), 159-166.
25. Habibjonov, I. (2020). Syntactic design of uzbek tax and customs terminology. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2910-2915.
26. Oglu, H. I. T. (2020). Formation of uzbek tax and customs terms (on the example of materials on the history of language). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1308-1313.

27. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.

28. Рўзиева, Г., & Ҳабибжонов, И. (2021). САДР ЗИЁ КУТУБХОНАСИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

29. Normatova, M., & Ikromjon, X. (2021). "QUTADG'U BILIG" IKKI JANONNI TUTISHGA OCHUVCHI YO'L. *Oriental Art and Culture*, (6).

30. Ўғли, Ҳ. И. Т. (2020). ТИЛШУНОСЛИКДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ТАДҚИҚИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

31. Solieva, H. O. (2021). THE ROLE OF READING IN THE FORMATION OF A PERSON'S OPERATIVE MEMORY AND MENTAL MATURITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 178-185.

32. Солиева, Ҳ. О. (2018). ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО НА МЕДИЦИНСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-6), 56-60.

33. Омоновна, С. Ҳ. (2018). «Бебош бола» синдроми ёхуд нега болалар асабийлашади?. *Современное образование (Узбекистан)*, (11).

34. Омоновна, С. Ҳ. (2018). Ўқувчилар тарбиясини шакллантиришда ота-оналарга педагогик билим бериш тизимининг аҳамияти. *Современное образование (Узбекистан)*, (5).

35. Омоновна, С. Ҳ. (2019). Агар бола сизни «Эшитмаса»... *Современное образование (Узбекистан)*, (4 (77)), 58-63.

36. Омоновна, Ҳ. С. (2020). ТАРИХИЙ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРНИ КОНСЕРВАЦИЯ-РЕСТАВРАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ ХУСУСИДА. *Oriental Art and Culture*, (V).

37. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Глобаллашув жараёнида ахборот оқимининг ёшлар маънавиятига таъсири хусусида. *Oriental Art and Culture*, (7), 217-224.

38. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Маданият ва маънавият масалаларида тарихий илдизлар излари. *Oriental Art and Culture*, (7), 244-253.

39. Парпиев, А. (2021). ЖАДИДЧИ ОБИДЖОН МАҲМУДОВНИНГ ФАОЛИЯТИДАГИ ЯНГИ ҚИРРАЛАР. *Oriental Art and Culture*, (6).

## ON LEXICAL SUPPLETIVES AND THEIR RELATION TO PHENOMENA HYPONYMIES AND EQUONYMIES.

Burxonova Dilnoza Ilhomjon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Abstract:** The article examines the functioning of suppletivism at the lexical level of language, defines and characterizes its relationship with the phenomena of hyponymy, equonymy and heteronymy. As the actual material, separate terms of kinship of the Uzbek and Russian languages are used.

**Keywords:** Suppletivism, suppletivism, correlates,, single-root, multi-root, hyponym, hyperonym, equonym, microsystem, paradigm, Uzbek language, Russian language, etc.

The formation and functioning of suppletive forms in the language is a natural phenomenon related to the content plan of language signs. The possibility of expressing the same value using one of two different signs is carried out through suppletives. Naturally, the presence of synonymy, antonymy, hyponymy and equonymy in the language is clearly associated with the suppletives of the lexical level of the language, which is called a lexical suppletive. Lexical suppletives arise when associative interdependence (interrelation) of heterogeneous lexemes. Suppletives) are an important natural phenomenon, despite the fact at which levels of the language they are located.

M.Y.Bloch writes that "the role of suppletivism within the lexical naming paradigm is extremely important, since this type of suppletivism is one of the essential factors of openness of the significant part of the vocabulary ..." [1-79].

The suppletivism of the lexical plan arises mainly when there is a need for a logical-associative approach to meaning. In this process, the focus is not on the unit of the expression plan (i.e., the lexeme), but on the unit of the language content plan (i.e., the sememe). The development of the word and its meaning is not carried out symmetrically and regularly.

Lexical suppletives bear a close resemblance to the hyponym phenomenon, despite the significant difference between these concepts. The similarity between lexical suppletives and hyponyms is explained by the fact that both lexical suppletives and hyponyms function within the same lexeme, i.e. semantically coincide with each other in one lexeme. Compare: the lexemes *ota* and *she aka* and *uka* in Uzbek; "father and mother", "elder brother" and "younger brother"-in Russian, etc. they are hyponyms that function in the same way and as suppletives in relation to each other (hyponyms). The difference between lexical suppletives and hyponyms is

that the logical-associative connection of hyponyms is the weakest than the logical-associative connection of lexical suppletives. A phenomenon called a hyponym is one of the functional and semantic varieties of a phenomenon called a hyperonym "a word or phrase with a generic, more generalized meaning in relation to words or phrases of a specific, less generalized meaning; also a generic concept in relation to specific concepts"[2-163]. Thus, the same lexeme simultaneously, synchronously and syncretically can be both a lexical suppletive and a hyponym.

Hyponyms are combined on the basis of an archiseme of different words, which are represented as one of the members of the paradigm (microsystem) of a certain hyperonym. Thus, the lexeme words *o'g'il* "son", *qiz* "daughter" are hyponyms of the hyperonym *farzand* "children"; *ota* "father", *ona* "mother" - hyperonym *oil* "family"; *aka* "elder brother", *uka* "younger brother"-hyperonym *og'a-ini* "brothers"; *opa* "elder sister", *singil* "younger sister" - hyperonym *opa-singil* "sisters", etc. The members of the lexical-semantic equivalents of these pairs are hyponyms (co-synonyms in relation to each other) and in Russian: son and daughter, father and mother, younger brother and younger brother, older sister and younger sister, etc. The hyperonyms of the first suppletive-hyponymic pairs in the Russian language are "children", the second suppletive-hyponymic is "parents", the third suppletive-hyponymic is "brothers", the fourth suppletive-equonymic is "sisters". Suppletive interconnection forms paired words in the Uzbek language such as *ota-ona*, *aka-uka*, *opa-singil*, *o'g'il-qiz*, etc., whose functional and semantic members have specific meanings and semantically depend on the meanings of words (lexemes) with a generic meaning.

Thus, words in the language call the objects of the nomination, close to each other in one way or another, form thematic groups of words, which is called a hyperonym [3- 163].

It should be noted that in some cases suppletives-hyponyms coincide with the phenomenon of the equonym, the correlative members of the above microparadigms *singil* and *qiz*//son and daughter, *ota* and *ona*//father and mother, *aka* va *uka*//elder brother and younger brother, *opa* va *singil* //elder sister and younger sister, etc. in Uzbek and Russian, in addition to suppletives and hyponyms, are also equonyms in relation to each other. M.V.Nikitin notes that "an equonym is a concept and an expression of its name in relation to other concepts and names of the same level in a hierarchical system; for example, in the system of concepts "mother", "father", "parent", the concept and the word mother is an equonym in relation to the word father and hyponym in relation to the word parent, in turn, parent is a hyperonym in relation to mother and father." [4-166].

The factual material of this article states that the same word as a correlative term can participate in several suppletive pairs. Thus, the word *ota* "father" in the Uzbek language as a correlative term takes part in three suppletive paradigms: 1) *ota-bobo*

"father-grandfather"; 2) ota-ona "father-mother"(parents); 3) ota-bola "father-children".

The suppletives of the lexical plan in the Uzbek language are also formed due to the figurative meanings of words. In the suppletive pairs ota-ona and davlat (literally: state//power) "parents and power" ("davlat//power" in the meaning of "wealth"), farzand va qanot (literally:wings) "children and wings", farzand va tirnoq (literally: nails) "children and nails", etc. In these micro-paradigms, the correlative terms davlat are used in the meaning of "ota-ona" (parents), qanot and tirnoq - in the meaning of "children".

In conclusion, it should be concluded that suppletivism and suppletivism are complex logical-linguistic phenomena that cover all the main tiers of language, including vocabulary. The study of this important issue on the material of each individual language. It is one of the most urgent tasks of modern linguistics.

### References

1. Bloch M.Y. Theoretical foundations of grammar. M., 1986.
2. Nikitin V.M. Fundamentals of the linguistic theory of meaning. - M., "Higher.school", 1988, -p.163.
3. Dudnikov A.V. Modern Russian language. -M.: "High School", 1990. - pp.81-82.
4. Nikitin V.M. The specified work, -p.166.
5. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. International Journal of Culture and Modernity, 10, 43-51.
6. Юлдашева, С. Н. (2020). СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АУДИТОРИИ. ТИПОЛОГИЯ ЧИТАТЕЛЕЙ. Oriental Art and Culture, (V).
7. Sohibaxon, Y. (2021). O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI. Oriental Art and Culture, (7), 260-268.
8. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2925-2927.
9. Юлдашева, С. (2019). Китоб мутолаасини шакиллантиришда кутубхоначилик фаолияти. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 59-62.
10. Yuldasheva, S., & Madumarova, M. (2020). TASKS AND CONTENT OF BIBLIOGRAPHIC WORKS. European Journal of Arts, (1), 148-152.
11. Асқарова, М. (2020). ЎЗБЕК АДАБИЙ ТАНҚИДИ ТАРАҚҚИЁТИ. Oriental Art and Culture, (V).

12. Мирзаева, Н., & Асқарова, М. (2020). ЧЎЛПОН ИЖОДИДА МИЛЛИЙ УЙҒОНИШ ҲАРАКАТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

13. Асқарова, М. (2021). Адабий жараённинг зукко тадқиқотчиси. *Oriental Art and Culture*, (7), 209-216.

14. Askarova, M. (2020). Homil yakubov's views on navoi studies. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 788-792.

15. Askarova, M. (2021). Homil Yakubov's views on Oybek lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2412-2415.

16. Nurxon, I., & Habibjonov, I. (2021). КИТОВ ВА КИТОВХОНЛИК–INSON MANAVIYATINING KOZGUSI. *Oriental Art and Culture*, (6).

17. Ёғли Ҳабибжонов, И. Т. (2020). ЎЗБЕК СОЛИҚ ТЕРМИНЛАРИНИНГ АФФИКСАЦИЯ УСУЛИ БИЛАН ЯСАЛИШИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 200-206.

18. Ҳабибжонов, И. Т. Ё. (2021). СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА ДУБЛЕТЛИК ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Scientific progress*, 1(6), 842-846.

19. Ismoilova, N., & Habibjonov, I. (2021). Kitob va kitobxonlik–inson manaviyatining kozgusi. *Oriental art and culture*, 2(1), 159-166.

20. Habibjonov, I. (2020). Syntactic design of uzbek tax and customs terminology. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2910-2915.

21. Oglu, H. I. T. (2020). Formation of uzbek tax and customs terms (on the example of materials on the history of language). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1308-1313.

22. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.

23. Рўзиева, Г., & Ҳабибжонов, И. (2021). САДР ЗИЁ КУТУБХОНАСИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

24. Normatova, M., & Ikromjon, X. (2021). “QUTADG’U BILIG” IKKI JANONNI TUTISHGA OCHUVCHI YO’L. *Oriental Art and Culture*, (6).

25. Ёғли, Ҳ. И. Т. (2020). ТИЛШУНОСЛИҚДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ТАДҚИҚИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

26. Solieva, H. O. (2021). THE ROLE OF READING IN THE FORMATION OF A PERSON'S OPERATIVE MEMORY AND MENTAL MATURITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 178-185.

27. Солиева, Ҳ. О. (2018). ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО НА МЕДИЦИНСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-6), 56-60.

28. Омоновна, С. Ҳ. (2018). «Бебош бола» синдроми ёхуд нега болалар асабийлашади?. Современное образование (Узбекистан), (11).

29. Омоновна, С. Ҳ. (2018). Ўқувчилар тарбиясини шакллантиришда ота-оналарга педагогик билим бериш тизимининг аҳамияти. Современное образование (Узбекистан), (5).

30. Омоновна, С. Ҳ. (2019). Агар бола сизни «Эшитмаса»... Современное образование (Узбекистан), (4 (77)), 58-63.

31. Омоновна, Ҳ. С. (2020). ТАРИХИЙ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРНИ КОНСЕРВАЦИЯ-РЕСТАВРАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ ХУСУСИДА. Oriental Art and Culture, (V).

32. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Глобаллашув жараёнида ахборот оқимининг ёшлар маънавиятига таъсири хусусида. Oriental Art and Culture, (7), 217-224.

33. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Маданият ва маънавият масалаларида тарихий илдизлар излари. Oriental Art and Culture, (7), 244-253.

34. Парпиев, А. (2021). ЖАДИДЧИ ОБИДЖОН МАҲМУДОВНИНГ ФАОЛИЯТИДАГИ ЯНГИ ҚИРРАЛАР. Oriental Art and Culture, (6).



## MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH

Mo'minmirzo Xolmo'minov

Azizbek Xushvoqov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Maqolada madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash, madaniyat obyektlarini qay tarzda tadbirkorlarga berish, sohada bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat-xususiy sheriklik, tadbirkorlik, iqtisodiyot, madaniyat, san'at, loyiha, nizom

## IMPLEMENTATION OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PROJECTS IN THE FIELD OF CULTURE AND ART

Muminmirzo Kholmuminov

Azizbek Khushvaqov

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The article analyzes the support of public-private partnerships in the field of culture and arts, how to transfer cultural facilities to entrepreneurs, the work done today in the field of public-private partnerships.

**Keywords:** Public-private partnership, entrepreneurship, economy, culture, art, project, charter

O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini amalga oshirish bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Bunga mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda belgilangan Davlat xususiy sheriklik tamoyillari va ustuvor vazifalar asos sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblangan davlat-xususiy sheriklik sohasini boshqarish uchun kadrlar tayyorlash, ularni qayta o'qitish va malakasini oshirish o'ta dolzarb tashkiliy, iqtisodiy va ta'lim-tarbiya ahamiyatiga ega vazifalardan hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, davlat-xususiy sheriklik sohasi uchun kadrlar tayyorlash o'ta murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu jarayonda

ishtirokchilar yuqori bilim, ko'nikma va tajribaga ega mutaxassislardan iborat bo'lishi lozim[1:221].

Davlat-xususiy sheriklik sohasi mamlakatda yosh va ayni paytda istiqbolli sohalardan hisoblanadi. U davlat va xususiy sektor - tadbirkorlik sub'ektlari hamkorligida ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilma sohaslarida amalga oshirilgan loyihalar, ishlab chiqariladigan tovarlar va ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlarning turlari va sifatining oshishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishida muhim o'rin tutadi. Buni sohani yaxshi yo'lga qo'ygan Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada, Germaniya, Bangladesh kabi davlatlar misolida ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda lug'atimizda davlat-xususiy sheriklik degan ibora paydo bo'ldi. Mamlakatimizda Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyat ko'rsatmoqda [2:12].

O'zbekistonda ham davlat-xususiy sheriklik sohasini rivojlantirish, uning huquqiy asoslarini yaratishga qaratilgan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Prezidentimizning "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan Moliya vazirligi huzurida Davlat-xususiy sheriklikni (DXSh) rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Agentlikka o'z navbatida, DXSh loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishda idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlash, o'rnatilgan tartibda loyiha konsepsiyasi, loyiha baholash hujjatlari va kelishishda vazirliklarga, davlat qo'mitalariga, idoralariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashish yuklatilgan, Investorlar, xalqaro moliya va donorlik tashkilotlari va ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, davlat-xususiy sheriklikning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etish va boshqa bir qator vazifalarni bajarish ham agentlik zimmasida. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining asosiy vazifalari quyidagilar:

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi va afzalliklarini baholash uslubini ishlab chiqish, ushbu loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- davlat-xususiy sheriklik sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlash, shuningdek, loyihalar to'g'risidagi axborotni ochiq holda joylashtirish va ularning reyestrini yuritish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, shu jumladan, muayyan loyihalar konsepsiyalarini ishlab chiqishda vazirlik va idoralarga ko'maklashish;

- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalarida investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etish;

- davlat-xususiy sheriklik loyihalari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko'maklashish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari, shu jumladan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni aniqlash va taqsimlash yuzasidan ularning takliflarini ko'rib chiqish;

- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, shu jumladan, loyihalarga jalb qilingan byudjet tizimi mablag'laridan foydalanilishini, shuningdek, tegishli tarmoqlardagi xalqaro tajribani inobatga olgan holda loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish amaliyotini monitoring qilish. [3: [www.nrm.uz](http://www.nrm.uz)]

Davlat-xususiy sheriklik barcha sohalarga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda madaniyat va san'at sohasini ham chetda qoldirmadi. Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san'at muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilayotganligi meni hayratga solmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqotimiz davomida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, madaniyat va san'at muassasalari binolarini qurish va ta'mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hududlarini obodonlashtirish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish borasidagi ishlar talab darajasida emasligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish, ushbu sohadagi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va ularning moddiy-texnik ahvolini mustahkamlash, aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish hamda davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir nechta me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-mayda "Madaniyat va san'at sohasini jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli Farmoni, 2018-yil 1-avgustda "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3892-sonli qarori, 26-avgustda "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3920-sonli qarori, 28-noyabrda "O'zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyulda "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 570-sonli va 2021-yil 20-yanvarda "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida beriladigan davlat mulki obyektlarining

ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 30-sonli qarorlari [4:470-478]. qabul qilindi. Shu bilan birgalikda yana O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-36-sonli va 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarorlarida madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Sohaga davlat-xususiy sheriklikni kirib kelishi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Undan tashqari sohaga investitsiya siyosatini olib kiradi.

Investitsiya muhtini takomillashtirish tarmoqlar va sohalar kesimida investitsiya siyosati samarasini oshirish, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 2022-2026-yillarda amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalarini aniqlashtirish, iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish masalalari diqqat e'tiborimizda bo'ladi. [5:135].

Shu kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida davlat-xususiy sheriklikka beriladigan 229 ta madaniyat obyektining ro'yxati tasdiqlangan. Jumladan: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyul "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 570-sonli qarori bilan 57 ta madaniyat objekti, 2021-yil 20-yanvar "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida beriladigan davlat mulki obyektlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 30-sonli qarori bilan 172 ta madaniyat obyekt tasdiqlangan.

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarorlarida Madaniyat vazirligi bilan kelishilmasdan, ularning roziligini olmasdan turib madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, teatrlar, bolalar musiqa va san'at maktablari tasarrufidagi ko'chmas mulklarni xususiylashtirish, shuningdek ularning hududidagi yer maydonlari mahalliy hokimiyatlar zahirasi olinmasligining alohida qayd etilganligi juda muhim ahamiyatga ega, chunki Mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy hokimliklar rahbarlarning mas'uliyatsizliklari bois juda ko'p madaniyat muassasalarining binolari sotib yuborildi, boshqa tashkilotlarga berildi, ba'zilari esa buzib tashlandi.

Qarorlarda belgilangan yana bir muhim va dolzarb masala madaniyat va san'at sohasida davlat mulki obyektlari ularning ushbu yo'nalishdagi barcha faoliyat turlari saqlab qolinishi soha vakillarini ijodiy imkoniyatlarga keng shart-sharoitlar yaratadi, shuningdek, madaniyat va san'at sohasiga yaqin bo'lgan turli xizmatlar ko'rsatish, kichik ishlab chiqarish va savdo faoliyati bilan shug'ullanishiga ham ruxsat berildi.

Savol tug'iladi madaniyat obyektlarini qanday qilib davlat xususiy-sheriklikka olish mumkin? Bu bo'yicha biron mezon yoki nizom tasdiqlanganmi? Agar tasdiqlangan bo'lsa bu qanday amalga oshiriladi? Bu savollarning barchasiga

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyul “Madaniyat va san’at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko‘maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 570-sonli qarorida javob topamiz.

Mazkur qarorda “Madaniyat va san’at sohasida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun alohida ochiladigan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i mablag‘larini jamlash va undan foydalanish tartibi to‘g‘risida NIZOM”, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik shartlari asosida faoliyat yuritadigan madaniyat va san’at nodavlat muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘laridan subsidiyalar ajratish tartibi to‘g‘risida NIZOM” va “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik shartlari asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat madaniyat va san’at muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish va to‘lash SXEMASI” [6:408,416,425] tasdiqlangan. Aynan yuqorida nomi keltirilgan Nizom va Sxema asosida xususiy tadbirkor madaniyat obyektni davlat-xususiy sheriklikka olishi mumkin bo‘ladi. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik shartlari asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat madaniyat va san’at muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish va to‘lash

**SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddati
1-bosqich	Nodavlat madaniyat va san’at muassasasi	Subsidiyalar ajratish uchun moliya organiga tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan murojaat qiladi.	Zaruratga ko‘ra
2-bosqich	Moliya organi	Ariza moliya organiga kelib tushgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida uning belgilangan talablarga mosligini o‘rganib chiqadi va arizani qanoatlantirish yoki uni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi hamda nodavlat madaniyat va san’at muassasasiga byudjetdan subsidiyalar ajratish yoki arizani rad etish to‘g‘risida asoslantirilgan holda yozma shaklda, shu jumladan elektron axborot tizimi orqali xabardor qiladi. Shuningdek, nodavlat madaniyat va san’at muassasasiga byudjetdan subsidiyalar ajratish moliya organi rahbarining tegishli buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi hamda buyruqda byudjetdan subsidiyani ajratish grafigi va miqdori ko‘rsatiladi.	5 ish kuni davomida
3-bosqich	Nodavlat madaniyat va san’at	Tegishli tuman (shahar) moliya bo‘limlariga o‘tgan oyda haqiqatda ishlatilgan mablag‘lar to‘g‘risida hamda Madaniyat vazirligi va Moliya vazirligi	hisobot oyidan keyingi

	muassasasi	tomonidan tasdiqlanadigan shaklga muvofiq byudjetdan subsidiyalar olish uchun buyurtmanomani tegishli madaniyat bo'linmalari bilan kelishilgan holda moliya organlariga taqdim etadi.	o'ying 5-sanasigacha
4-bosqich	Tuman (shahar) moliya bo'limlari	Nodavlat madaniyat va san'at muassasalari tomonidan taqdim etilgan buyurtmanomalarni umumlashtirib, byudjetdan subsidiyalarni ajratish uchun belgilangan tartibda byudjetdan subsidiyalar ajratiladigan nodavlat madaniyat va san'at muassasalarining reyestrini tuzadi hamda g'aznachilik bo'linmasiga to'lovni amalga oshirish uchun va yuqori moliya organiga ma'lumot uchun taqdim etadi.	hisobot oyidan keyingi o'ying 10-sanasigacha
5-bosqich	G'aznachilik bo'linmasi	G'aznachilik bo'linmasi viloyat, tuman (shahar) moliya boshqarmalari va bo'limlari tomonidan taqdim etilgan reyestr asosida tegishli nomadaniyat va san'at muassasasining tijorat banklardagi hisob varaqlariga subsidiyalarni belgilangan tartibda o'tkazadi.	hisobot oyidan keyingi o'ying 12-sanasigacha

Madaniyat vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tasdiqlangan davlat xususiy-sheriklikka beriladigan madaniyat obyektlari to'g'risidagi loyihalarni doimiy ravishda [www.madaniyat.uz](http://www.madaniyat.uz) rasmiy sayti orqali e'lon qilib boradi. Tadbirkorlar shu asosda loyiha tendrida ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Quyidagi 1-jadvalda davlat xususiy-sheriklikka beriladigan madaniyat obyekti to'g'risida misol ketirib o'tamiz. Dalat-xususiy sheriklik loyihasi asosida tashkil etilishi kutilayotgan Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi "Beshbuloq" madaniyat markazi binosini rekonstruksiya qilish va jihozlash to'g'risida

MA'LUMOT

1-jadval

T/r	Asosiy ko'rsatkichlar	Ma'lumotlar
1.	Loyihaning nomi	Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani "Beshbuloq" madaniyat markazi.
2.	Loyiha taraflarining nomi: Davlat sherigi  Xususiy tashabbuskor	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi  "Saraton Tuya" ma'suliyati cheklangan jamiyati.
3.	Loyihaning faoliyat yo'nalishi	Madaniyat va san'at markazi.
4.	Loyihaning joylashgan manzili	Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani "Beshbuloq" MFY
5.	Loyihani amalga oshirish muddati	20 yil.
6.	Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan	Xizmat ko'rsatish orqali daromad ko'riladi.

	tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari	Ya'ni, madaniy to'garaklar, xorijiy tillarni o'rgatish kurslari, tikuvchilik va milliy liboslar dizaynerlik to'garaklari, Sport sog'lomlashtirish zali hamda tadbir va marosimlar o'tkazish zali.
7.	Loyihaning umumiy qiymati.	2 634 030 ming so'm.
8.	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Loyihaning umumiy qiymati hajmi va turlari.	Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanidagi "Beshbuloq" madaniyat markaziga tegishli umumiy yer maydoni 4 050 m <sup>2</sup> .
9.	Yaratiladigan ish o'rinlari soni.	14 ta

Hammamizda "Otang bozor, onang bozor" degan qadimiy naql bor. Endi hammasini davlat beradi, deb o'ylaydiganlar xato qiladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan har qanday jamiyat fuqarosi avvalo, yaxshi ishlashi, qonunlarni va qarorlarni o'rganib, faoliyatiga tadbir etishni bilishi ochiqroq aytadigan bo'lsak, pul topib hayotiy farovonligini oshirishini anglash zarur albatta. [7:2].

Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijod ahlini rag'batlantirish, moliyaviy madaniyatimizni rivojlantirish va yanada taraqqiy ettirishga juda katta ko'mak va imkoniyatlar yaratilganligi Yangi O'zbekistonning eng muhim va asosiy ustunlardan biri bo'lgan madaniyat va san'at sohasini yanada gullab yashnashi uchun yuksak ijodiy parvozlarni ko'zlab yangicha ishlashga o'rganishimiz bugungi hayotimizning asosiy mazmuniga aylanishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berkinov B., Shakirova G. Davlat-xususiy sheriklik sohasi uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishning ilmiy-uslubiy jihatlari// jur. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, № 1. - Toshkent, 2021.
2. Ummatov B. Davlat-xususiy sheriklik-istiqbolli soha. // Guliston jurnali. - Toshkent: 2021. 4-son. - B. 48.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institusional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 20-oktabr PQ-3980-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Axborot-qidiruv tizimi. www.nrm.uz
4. A.Haydarov. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent, Oltin meros press, 2021. - 480 b
5. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B 464
6. A.Haydarov. Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. - Toshkent, Donishmand ziyosi, 2020. 496 b
7. Normurodov SH. Yangicha ishlashga o'tish bugunning talabi // Madaniyat gazetasi. - Toshkent: 2021. - B. 8.

## **DUTOR ANSAMBLI IJROSIDA YANGICHA TALQIN, ESKICHA QARASH, NAVOIYNING “MUBTALO BO’DIM” G’AZALI TAHLILI VA TALQINIDA**

Mo’minova Latofat Nuriddin qizi  
O’zbekiston davlat konservatoriyasi

**Annotatsiya:** Alisher Navoiy maqom san’atini ham amaliy, ham nazariy jihatdan mukammal bilgani uning nazmiy-ilmiy asarlaridan ayon. Aslida ham maqom olami Navoiy badiiy tafakkuri, teran va go‘zal ruhiy olamining ajralmas tarkibiy qismidir. Zero, so‘z mulki sultonining g‘azaliyoti she‘riyati uslubida ifoda etilgan navolar ummoni bo‘lsa, maqomlar kuy sadolari vositasida taralgan hikmatlar ummonidir. Shu bois Navoiy g‘azallarini mutolaa qilib zavq oluvchi muxlisning, odatda, maqomlarni tinglashga ham mayli, ehtiyoji bo‘ladi, ulardan ma‘naviy-ruhiy bahra oladi. Go‘zal ma‘nolar bilan bezalgan bu har ikkala ummonning bir olamga bog‘lanishi buyuk “Ishq” tufaylidir. “Mubtalo bo‘ldum sango” g‘azali ana shu ishqni tarannum qilib, uning dutor ansamblidagi ijrosi esa yangicha bir olamni kashf etadi.

**Kalit so‘zlar:** Shoirlarning sultoni, Ishq, Maqom, Mubtalo, “Nozanin” ansambli, estrada, Milliy bog‘.

### **A NEW INTERPRETATION PERFORMED BY THE DUTAR ENSEMBLE, AN OLD POINT, ANALYSIS AND INTERPRETATION OF THE NAVOI GAZELLE "MUBTALO BULDIM"**

Muminova Latofat Nuriddin qizi  
Uzbekistan State Conservatory

**Abstract:** We can know from Alisher Navoi’s poetic and scientific works that he knew the art of maqom both practically and theoretically. In fact, the world of maqam is an integral part of Navoi’s artistic thinking, deep and beautiful spiritual world. For the ghazal of the sultan of the realm of words is the ocean of melodies expressed in the style of poetry, while the maqoms are the ocean of wisdom spread through the sounds of melody. Therefore, a fan who enjoys reading Navoi’s ghazals will usually need to listen to the maqoms and enjoy them spiritually. It is because of the great “Love” that these two oceans, which are adorned with beautiful meanings, are connected to one world. The ghazal "Mubtalo boldum sango" sings of this love, and its performance in the dutar ensemble reveals a new world.

**Keywords:** Sultan of Poets, Qari Navoi, Ishq, Maqom, Mubtalo, ensemble “Nozanin”, variety, National Park.



*Xaq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila.  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

*A.Navoiy*

O'tmishda ajdodlarimizning bizgacha kelgan ilmiy va adabiy merosi ulkan, ularning fanlar shakllanishi va rivojidadagi o'rni beqiyosdir. O'tmishni anglamay turib munosib kelajak yaratish mushkuldir. Istiqloq sharofati bilan asrlar davomida yuzaga kelgan qadriyatlar, milliy an'analar hamda ma'naviy merosga bo'lgan munosabat ancha jonlandi. O'tmish an'alarini o'rganish va targ'ib etishga katta imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, buyuk mutafakkir olim hazrat Mir Alisher Navoiyning serqirra faoliyati va ijodini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, o'zlashtirish va ommalashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu xususida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov Alisher Navoiy va uning ijodiga haqli ravishda yuksak baho berganligi ham yorqin misoldir: "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir".

O'zbek xalqining sevimli ashularini, maqom aytish yo'llarini hazrat Navoiyning shifobaxsh dardi bilan sug'orilgan g'azallarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki Navoiy nazmi o'zining chuqur ma'nosi va ohangdorligi bilan tinglovchi qalbidagi go'zal ichki his-tuyg'ularni uyg'otadi, ruhiy olamiga cheksiz quvvat bag'ishlaydi. Navoiyning g'azallari maqomlarda yo'g'rilgan "Ishq" mavzusi eng adog'iga yetib bo'lmas, takror o'rgangin kelaveradigan mavzudir. Uning oshiqona g'azallari lirik qahramoni, ishq alangasida toblangan shaxs - chinakam oshiq. U goh o'z ma'shuqasidan mamnun, gohida esa uning harakatlarini bevafoqlikka yo'yib, undan nolaydi. U ma'shuqasini ta'riflab turib, ayni vaqtda o'z ahvolini, ruhiyatini turli bo'yoqlarda yonma-yon holda keltiradi. Navoiy g'azallaridagi oshiq sof muhabbat egasi. U sevadi. Sevgi yo'lida turli tuman musibatlariga muhtalo bo'ladi. Ayriliq azoblariga chidaydi. U o'z ma'shuqasini qattiq e'zozlaydi: o'zini yor yo'lida fido etmoqqa tayyor... Buni esa sharq she'riyatining ajralmas qismi bo'lgan musiqiylik orqali yoritib berish, Alisher Navoiy asarlarining siymoliy-hissiy tizimida alohida o'rin tutadi. Bunda har bir so'z, jumla, misralarni musiqiy tovush, nola yoki kuylar orqali his qilamiz.

Shoir g'azaliyotining ko'lami va yo'nalishi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun uning maqom ohanglari asosida yaratilgan "Ko'rgali husnungni zor-u muhtalo bo'ldum sango" satri bilan boshlanadigan g'azali alohida ahamiyat kasb etadi. Navoiy bu g'azalni Nizomiy-al-Ganjaviyning "Hamsa"sini mutolaa qilish davrida, Gulijon ishq bilan yonib, uni ko'rish dardida yurgan pallasida bitadi, Alloh bergan ishqning isxorini o'z iste'dodi orqali namoyon qiladi. Bu haqda Qo'ldosh Mirzo o'zining "Muhtalo bo'ldim senga" deb nomlangan qissasida bayon qiladi.

*"Ko'rgali husnungni zor-u muhtalo boldum sango,  
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sango".*

Ko'rinadiki, g'azal ishqiy mavzuda. Unda iztirob va tasalli ajib bir uyg'unlikda tasvirlangan. She'r an'anaviy, oshiqning ma'shuqaga dil izhori bilan boshlanadi: oshiq - yor husnini ko'rishga zor. U ishq deb atalgan dardga muhtalo bo'lgan. Shu sababli, u yor bilan oshno bo'lgan kunni "balolig'" (balo keltirgan kun) deb hisoblaydi. Baytdagi so'zlarni tushunish qiyin emas. Ularning ko'pchiligi bugungi kunda ham tez-tez ishlatiladi. Shoir, bir tomondan, yor husnini ko'rishga zor bo'lganini aytadi. Ikkinchi tomondan, unga yo'liqqan kunini "balolig' kun" (balo keltirgan, baxtsiz kun) deydi. Buni qanday tushunish kerak? Bu yerda tazod bor. Bu tazodni birinchi satrdagi "muhtalo" (oshiqlik, bog'lanib qolish) va ikkinchi qatordagi "balo" so'zlari ta'kidlab turibdi. "Muhtalo"likka esa, chindan ham "oshno"lik sabab bo'lgan. Shu bois yorga oshno bo'lgan kun "balolig'"dir. Baytning mazmuni asosan "zor-u muhtalo", "balo", "oshno" so'zlari orqali berilgan<sup>1</sup>.

Musiqashunos professor Botir Matyoqubovning malumot berishicha, bu g'azalga kuyni Komiljon Jabborov bastalagan. Uning ijodiy uslubi tez yodda qoluvchi, jozibali ohanglarga boyligi, an'anaviy peshrav, ashula va qo'shiq shakllarining erkin uyg'unlashishiga asoslangan.

Xorazmlik doirachi Ollanazar Xasanov, Komiljon Jabborovni g'oyibona ustoz deb bilgan ekan. Kuylarni Komiljon ustozning ijrolaridan, cholg'ulardagi mohirona zarblaridan o'rgangan ekan. Uning aytishicha, K.Jabborov aynan "muhtalo bo'ldim senga" ashulasi kuyini bastalayotib, ko'chadan o'tib ketayotgan janonning qadam tashlashini kuzatib turib, shunga moslab yozgan ekan.

Bu asar Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida "Navoiy Astrobodda" musiqali dramasida Shahodat Raximova tomonidan maromiga yetkazib ijro etgan.

Bu g'azalning ijrosini, tahlilini, mazmun-mohiyatini va ohanglar jihatdan chuqur o'rganayotgan "Nozanin" dutorchilar ansambli sozandalari o'z ijrosida tadqiqot sifatida o'rganmoqda. Ansambl rahbari Ro'zibi Xodjayeva ilmiy tomonlama shogirdlar bilimni oshiribgina qolmay, ijroviy yo'l - yo'riqlarini professional tarzda nota orqali ifodalab, ansambl qizlariga o'rgatmoqda va ashulasini o'zi kuylagan holda, avj qismlari sololarga bòlib ijro etishmoqda.

1-qismida "muhtalo bo'ldim senga" g'azali bilan ijro etiluvchi ashulaning kuyi "bak-bum, bak-bum" zarblarida keluvchi qadimiy "zarbul qadim" usulida yozilgan va ritmga hamohang taktoldi boshlanuvchi kuy esa ashulani ijroga tayyorlayotgandek yana tonikaga olib keladi.

*"Ko'rgali husnungni zor-u muhtalo boldum sango,  
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sango".*

<sup>1</sup> 6. "Sharq yulduzi" jurnali, G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1981

*1-qism*

*Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,  
Vahki, kun-kundin battarroq muftalo bo'ldum sango.*

Tersiyadan boshlanuvchi ikkinchi xati miyonxat asarning mavjiga, kulminatsiyasiga tayyorlayotgandek tuyuladi. Yana tonikaga qaytib avjga olib chiquvchi cholg'u kuyi bilan davom ettiriladi

*Men qachon dedim vafo qilg'il. manga zulm aylading,  
Sen qachon deding, fido bo'lg'il mango, bo'ldum sango.*

Avj sifatida kelayotgan bu qismi oktavadan boshlanadi va uchunchi xat sifatida gavdalanadi. Bu qismi ham ma'no jihatdan ham kuy jihatdan ijrochidan kuchli ehtiros va iste'dod talab qiladi. Avjdan to tonikaga tushguncha bo'lgan aylanmalar ijrochidan kuchli mahorat talab etadi.

*Qay paripaykarga, dersen, telbabo'ldung bu sifat,  
Ey, paripaykar, ne qilsang, qil mango, bo'ldum sango.  
Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim ovora bo'l,  
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sango.*

Miyonxat sifatida kelgan ikkinchi xatining takrori shu satrlarda qayta ijro etiladi va e'tibor beradigan bo'lsak, asarda hech qanday "hang" vositalaridan foydalanilmagan. Chunki g'azalning kuyga hamohang bo'lgani va bir biriga shu qadar uyg'unligini, "O", "yoray" kabi "hang"lar ishlatilmaganidan ham bilishimiz mumkin.

*Jomi Jam birla Xizr suvi nasibimdur mudom,  
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sango.*

Ashulada bu qismning tushib qolgani spektaklning ko'rinishi bilan bog'liq holat. Kuyda A-B-C-B-C shakli kelayotgan bo'lsa, g'azalning bu satrlari kuyning cho'zilib, spektakldagi tinglovchini bezdiradigan va ijrochini charchatib qo'yadigan holatlarini vujudga keltirishi mumkin.

*G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro  
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sango.*

G'azalda "bo'ldum sango" birikmasi qofiyadan so'ng takrorlanib, radif vazifasini bajargan. Matla'dagi qofiya (mubtalo-oshno) g'azalning butun mazmuniga yo'nalish berib turibdi. She'rda tazod, tajnis, talmeh san'atlaridan samarali foydalanilgan.

G'azalning ramal bahrida yozilganligi musiqiy jihatdan bog'lash uchun juda qulay. Ramali musammani mahzuf bahri - "foilotun foilotun foilotun foilun, foilotun foilotun foilotun foilun" ifodasi bilan kelishi ritmik jihatdan musiqiyda ham talaffuz qilish, ham kuyga solish milliy ashulalarni mukammal ko'rinishga olib keladi.

Navoiy g'azali bilan kuylanuvchi "mubtalo bo'ldim senga" g'azali bugungi kungacha ko'plab mahoratli xonanda va sozandalar tomonidan ijro qilingan. Xususan, Zamira Suyunova, Doniyor G'oyipov, Surayyo Qosimovalarning ijro yozuvlari mavjud.


Xorazmlik dovudiy ovoz sohibi Raxmatjon Qurbonov aynan shu g'azalni boshqacha ohangga solib ijro etgan. Bu variant ham o'ziga xos ijroda, Xorazm maqomlari ohanggiga yaqin laddlardan foydalanilgan.

Qolaversa, yosh estrada xonandasi Ulug'bek Ulug'bek Raxmatullayev ham Navoiy g'azallariga murojaat etib, "mubtalo bo'ldim senga" g'azalini zamonaviy yo'sinda kuylab, o'z ijrosi bilan yosh muxlislari ko'nglidan joy oldi.

Shu o'rinda aytib o'tish joiz, "Navoiy Astrobodda" musiqali dramasi 1968-yilda bastakorlar Y.Rajabiy, S.Jalil, I.Mahsumov tomonidan yaratilgan. Bunda ashulaning 1-qismini sifatida "mubtalo bo'ldim senga" g'azali bilan Shaxodat Raximova kuylagan bo'lsa, undan keyin duet tarzida keluvchi 2-qismi ham mavjud. Bu ashulaning g'azali bizga noma'lum bo'lsada, ohanglarini eslashimiz mumkin:

### 2-qism

Jonli



Usmonali va Gulrux obarzari tomonidan kuylanuvchi bu qismni dramatik bariton ovoz sohibi Sur'at Po'latov va uning ayoli soprano ovoz sohibasi Naima Po'latova maromiga yetkazib ijro etishgan.

Navoiyning g'azallari asrlar davomida shakllangan mumtoz musiqa janri hisoblanmish maqomlarning ashula yo'llarida, hofizlar ijrolarida yangrab, avloddan - avlodga, ustozdan - shogirdga sayqallanib o'tib kelmoqda. Ayniqsa, XIX - XX asrlarda yashab ijod etgan hofiz-u sozandalar, bastakorlar ijodidagi asarlarni tinglaganimizda bunga amin bo'lamiz. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Hofiz, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Hojixon Boltayev, Doni Zokirov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, Faxriddin Sodiqov,

Jo'raxon Sultonov, Komiljon Otaniyozov, Orifxon Xotamov, Fattoxxon Mamadaliyev, Matnazar Xudoynazarov, Mahmujon Tojiboyev kabi zabardast ustozlar maqom g'azallari ma'no mazmunini yoritib berishda bor iqtidorini ishga solgan holda, shoir va bastakorning ichki tug'yonlarini, dardini, quvonchini, muhabbatini, falsaviy qarashlarini ijrolarida ifoda etib bera olganlar. Hozirgi davrimizda ham, Navoiy g'azallariga tez-tez murojaat etishlik odatiy tusga aylangan. Navoiyning nazmiy ijodi va bebaho ma'naviy merosi oldin ham o'rganilgan va bundan keyin ham keng va mukammal o'rganishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mutaxassis ustozlar, yosh ijrochilar, qolaversa yosh estrada xonandalari tomonidan Navoiy g'azallariga bog'lab qo'shiq ijro etilayotgani quvonarli hol. Sal oldin bu yo'nalishni bachkanalashtirgan ayrim xonandalarga musiqashunoslar e'tiroz fikri bilan qarashardi. Ammo zamonaviy estrada va she'riy nasr uyg'unligining oltin o'rtalig'ini topgan ijodkorlar ham kam emas. Jumladan, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoidova, Ziyoda, Ulug'bek Rahmatullayev kabilar. Hattoki, jahon estrada xonandasi Joss Stone O'zbekistonga kelib Navoiy g'azali bilan kuylangan "Yo labmudur" tuyug'ini ashula tarzida dotsent Shavkat Matyoqubov bilan birgalikda duet kuylashdi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz joiz, Shavkat Matyoqubov Shashmaqomdagi barcha maqomlarni kuylagan professional ustozoda ijrochi hisoblanadi va o'zbek musiqa va ashulalarini, xususan maqomlarini butun dunyoga tanitishda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". Nashrga tayyorlovchi K.Xasan. Fan. T. 1993 (43-b)
3. A. Djami "Трактат о музыке". Nashrga tayyorlovchi AN O'zSSSR T.1960 (438-b)
4. I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir". UzSSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti T. 1963.
5. X. G'ofurbekova, "Musiqa ijodiyoti masalalari", T., 1997.

## **EKRAN ASARI G'UYAVIY YECHIMINI AKS ETTIRISHDAGI REJISSORLIK IZLANISHLAR**

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna  
kaf-tvrej@mail.ru

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Maqolada teleseriallarning tarkibiy tuzilmasi va undagi dramaturgik yechim hamda ssenariynavis va rejissorning ijodiy hamkorligi masalalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** videofilm, telerejissura, ekran, telekamera, montaj, ekspozitsiya, rejissor, aktyor, teletomoshabin, ekranlashtirish

## **DIRECTING RESEARCH IN DEPICTING IDEOLOGICAL DENOUTMENT OF SCREEN WORKS**

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna  
kaf-tvrej@mail.ru

Uzbekiston State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The article deals with the morphology of television series and creative cooperation between the author of the script and the director

**Keywords:** Video films, TV directing, screen, TV camera editing exposition, directing actor TV audience screening

Bugungi kundagi teleekranlarni teleseriallarsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Har bir kanalda kamida ikkita milliy serial namoyish etilmoqda. Turk va koreys seriallarini-ku aytmasa ham bo'ladi. Seriallar namoyish eitlyaptimi, demak tomoshabinda bunga extiyoj mavjud. Zero, mazkur san'at turi "zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitda mustahkam joy egallab, muntazam o'ziga qiziqish uyg'otib kelmoqda"<sup>1</sup>.

Odatda teleserial ssenariysi o'zida dramatik, epik lirik janrlarni uyg'unlashtirish imkoniga ega. "Film ssenariysining kompozitsion qurilmasi shakllantirilar ekan, avvalo uning janri aniqlab olinishi kerak. Chunki janr hikoyaning qay yo'sinda tomoshabinga yetkazilishini hal qiladi"<sup>2</sup>. Ularning dramatik qurilishi va

<sup>1</sup> Савельева Е.Н. Искусство кино. – Томск: Томский университет, 2013. С. 2.

<sup>2</sup> Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, – 2020, N4. P. 86

kompozitsiyasi mahsulotning mazmunini ro'yobga chiqishi, syujetni harakatga keltirib, xarakterlarni o'z-o'zidan ochilishini ta'minlaydi.

Ssenariy muallifi teleserial ssenariy ustida ish olib borayotganida syujet liniyasini epizodlar bog'laydi. Masalan, rejissor Ergash Mo'minov va ssenariy muallifi Surayyo Xoshimovanning "Bedor tuyg'ular" teleseriali o'zining gumanistik g'oyasi, hayotiy obrazlari, o'tkir dramatik kolliziyalari bilan teletomoshabinni qiziqtiradi. Bu asarni ixcham sig'imli kompozitsiyasi dramatik voqealarni birlashtirib, ssenariy muallifi fikrini sodda va ravon, badiiy formada ochilishi uchun xizmat qiladi. Teleserial qahramonlarini lirik kayfiyati ham, kulgu uyg'otuvchi hatti-harakatlari ham ularni murakkab psixologik holatlari ham yurak iztiroblari ham ixcham sahnalarda tasvirlangan. Undagi qahramonlarning xarakteri, tipajlari hamda ularning harakati ushbu filmlarning g'oyasini va ichki ruhiyatini to'liq namoyon etgan.

Ushbu film yosh tamoshabinlarga mo'ljallangan sentimental melodrama janridagi filmdir. Rejissor E.Mo'minovdan boshqa kinoijodkorlarga nisbatan boshqacharakat ijod namunasini kutish tabiiy. Ssenariy muallifi S.Xoshimova va kinorejissor E.Mo'minov hamkorligida xox xususiy xox davlat buyurmasi asosida yaratilgan ko'pgina badiiy saviyasi baland, professional yondoshuvga ega filmlar sanaladi. E.Mo'minovning bugungi kunga qadar yaratgan televizion filmlari televizion kino san'atining nufuzini ko'tarishga xizmat qilgan. Taqdim etilgan "Bedor tuyg'ular" serialini ham avvalgi filmlar taassuroti ostida, ularning tajribalari va ijodiy imkoniyatlarini bilgan xolda tomosha qilgan tomoshabin kutgan natijani ko'rdi, desak mubolag'a bo'lmas. "Bedor tuyg'ular" filmi yoshlarbop bo'lgan. Aslida E.Mo'minov har bir sahna ko'rinishini sinchkovlik bilan amalga oshiradi. Uning ijod maxsuli ekranda o'zining mustaqil xayotini faoliyatini boshlagach tomoshabin kutganidek bo'lmagan kutilmaganidan ziyod "Bedor tuyg'ular" filmida tomoshabinlardan ko'ra mutaxassislar ko'proq munosabat bildirdi. Film g'oyasini S.Xoshimovaga tegishli. Bu ikki ijodkor bir biri bilan uyg'un xolda faoliyat yuritadi. E.Mo'minov ko'proq mualliflik filmlari ustida ishlaydi. Shuning uchun ishi bir biriga o'xshamaydi.

Asardagi voqelikni amalga oshirishda hatti harakatlar katta ahamiyat kasb etadi. "Filmning so'zga emas aynan harakat va obrazlarning yuz-ko'z tasvirlariga qurilganligi asarning badiiy qiymatini oshiradi"<sup>3</sup>. Chunki xatti-harakat orqali qahramonning maqsadga yo'naltirish hamda berilgan shart-sharoitdagi ruhiy va jismon holatini aks ettirish imkoniyati yaratiladi. Bunda rejissor aktyor bilan ishlash jarayonida sahna va mezansahnalarga e'tibori kuchayadi, voqealar rivojida aktyorga to'g'ri vazifa qo'ya olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek tomoshabinda

<sup>3</sup> Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Colloquium-journal, – Warszawa, – 2018, N4. P. 6

qahramonning xatti harakatlarini kuzatish orqali voqealar rivojini ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi. Qahramonning holati, uning ruhiyatida yuzaga kelayotgan kurashlar ana shu bo'g'inda yuzaga keladi. Ssenariydagi tugun esa undagi voqealarning kuchayib borayotganidan darak beradi. Bunda qahramonlar asarning g'oyasini ochishga xizmat qiluvchi muhitda birlashadi. Ssenariydagi asosiy bo'g'inlardan biri tugun -kulminatsiya asarning asosiy ziddiyati ya'ni konfliktning yuzaga kelish lahzasi xisoblanib xatti-harakat, voqea va hodisalarning eng kuchaygan konfliktning nihoyatda o'tkirlashgan lahzasi xisoblanadi. Tugun-konfliktni ilk marotaba ro'yobga chiqishi va syujetning rivojlana boshlashiga turtki bo'ladi. U bevosita ekspozitsiyadan o'sib chiqadi. Qahramon taqdiriga qiziqish ortadi. Personajlarni kolliziya maydoniga yetaklaydi. Ziddiyatlarni kurash zaminida xal qilinishiga omil bo'ladi. Masalan ssenariy muallifi R.Raldugina va rejissor M.Xamrayeva hamkorligi mahsuli bo'lgan "Yodgor" teleserialidagi voqealarning parallel tarzda rivojlanishi hamda retro shaklidagi lavhalarning o'rin olishi asarning tomoshabopligini ta'minlashi birobarida ichki kollizilarning kuchayishiga sabab bo'lgan. Serial qahramoni Yodgorning murakkab taqdiri, uning xolasi bilan bo'ladigan uchrashuvidagi xolatlar, onasining o'gay ekanligini bilganidagi ruhiy iztiroblari asarning kulminatsion nuqtasi xisoblanadi. Serial sportchi yoshlarning hayotidan xikoch qiladi. Undagi rollarga rejissor mahoratli aktyorlar bilan bir qatorda yosh akter va aktrisalarni ham taklif qilgan. Tajribali akterlarning sayi harakatlari yoshlarga tayanch bo'lgan. Shningdek rejissor akterlarning har biriga to'g'ri vazifa berolgani uning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilgan.

Odatda yechim barcha asarlarning yakunida bo'ladi. Lekin bu jarayon ekran asarlarida ba'zan boshida ham berilishi va tomoshabinni keyin voqeaning ichiga olib kirishi mumkin. Yechim - asar konfliktining hal bo'lish lahzasi xisoblanadi. "Yodgor" teleserialiga ham rejissor nihoyatda ziyraklik bilan o'ziga xos tarzda yechim topolgan. Bir qarashda qahramonlarning tabiatidagi yoshlarga xos jo'shqinlik, cho'rtkesarlik va biroz qaysarlik kabi unsurlar bo'lishiga qaramay hammasiga xos umumiy jihat u ham bo'lsa yoshlarning ko'nglidagi pok tuyg'ularini avaylashi va unga ota- onasining hayrixoxligi hamda yoshlarning munosabatiga xurmat bilan qarashida aks etadi. Asarlarning yakuni ya'ni finalida undagi asosiy konflikt yechimini topgandan keyin qahramonlar yangi maqom, yangi o'rinlarini o'zida aks ettirgan hissiy mazmundor xulosaga kelishi nazarda tutiladi.

Shu o'rinda yana bir teleserial xususida to'htalish joiz. Rejissor D.To'laganovanning "Sevgi" teleseriali 20 qismdan iborat bo'lib u biografik shaklda yaratilgan. Sevgi ismli qizning bolaligidan to'ulg'ayib hayotda o'zining o'rniga ega bo'lishi, zamonaviy tadbirkor ayol darajasigacha ko'tarilgunicha bosib o'tgan hayot yo'li, turmushidagi mashaqqatlarning yengishidagi qiyinchiliklar nihoyatda hayotiy, ortiqcha badiiy bo'yoqlarsiz, tomoshabinga ishonarli tarzda yetkazishga harakat



qilingan. Kompozitsion qurilishida ham Rejissor teleasardagi konfliktlarni nihoyatda mohirona ko'rsatishga harakat qilgan. Ba'zag teleseriallarda qahramonlar obrazini yaratishda biryoqlamalikka og'ish, sayoz, zamiri bo'sh dramaturgiya, yuzakilikka moyillikni ayrim teleseriallarda uchratish mumkin. Bu o'rinda ssenariy muallifi va rejissordan kinoning badiiy mezonlariga asoslanishi, obrazlarning ham g'oyaviy yetukligi, oliy maqsadning tomoshabinga yetkazilishidagi izlanishlar, dramaturgik jihatidan pishiq, puxtaligi, rejissurasi va aktyorlar ijrosida mukammallik talab qilinish barobariga hamda yuqori saviya, har tomonlama ekran san'ati qoidalariga rioya qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ekan teleseriallarning yaratilishidagi asosiy mas'uliyat baribir rejissorlar zimmasiga yuklatiladi. Tomoshabin ekrn asarlarini o'z psixologiyasi, dunyokarashi, biologik kobilyatiga ko'ra kabul kiladi. Kingadir asar muallifning uslubi, chekinishlari, so'z o'yini, mantik kuchi muxim bo'lsa, kimlar uning mavzusi va obrazlaridan ozuka axtaradi. Ssenariyda kolliziya keskinlashgan vaqtda teleserialda konflikt ishlatiladi. Konflikt ko'proq keskin dramatik syujetli voqealarda ishlatiladi. Masalan, "Mehmonjonlardan aylanay" teleserialidagi qahramonlar to'qnashuvida keskin konflikt kelib chiqadi. Konflikt asar voqealarini harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Konflikt muallifni maqsadini oldiga qo'ygan vazifasini, tomonlarini o'zaro aloqalar kurashini ifoda etadi.

"Zero, har bir film, garchi u qaysi bir janrda suratga olingan bo'lmasin, o'zida davr nafasini aks ettiradi. Qolaversa, har bir kartina davrimizning eng muhim voqealari-yu, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jabhalarda kechayotgan ulkan islohotlarning o'ziga xos in'ikosidir".<sup>4</sup>

Ssenariy kompozitsiyani o'rganish uchun avvalo kino san'atini montaj tabiatini o'rganish maqsadga muvofiq. Shunda rejissor syomka jarayonida ham uni qanday montaj qilishi, kadrдан kadrğa o'tishdagi detallarni ham inobatga olishi zarur bo'ladi. Undagi voqealarni tuzilishi, rivojlanishi ashyolar, makon va zamon va ularning ko'lamini bilishi montaj davrida juda asqotadi..

Kompozitsion jihatdan mukammal ssenariylarni o'qigandayoq rejissor voqealarni ko'rish va eshita oladi, tasavvur qiladi. Teleseriallar uchun ssenariy yozilarkan unda muallifga, g'oyaviy mazmunni ochish uchun ekran vaqti va kenglik zarur bo'ladi. Teletomoshabin ko'ngliga haqiqiy yo'l topish uchun, teleserial tabiatining o'ziga xosligini his qilish uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biridir. Buning uchun syomkadan avval kadr kompozitsiyasi tasavvuriga ega bo'lish hamda sahna, va epizod zarur. Misol uchun ko'p seriallarda kompozitsiyani belgilaydigan elementlariga ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, voqealarning takrorlanishi, kulminatsiya, fojea, tugun, prolog va epilog, qoliplash kiradi.

<sup>4</sup> Узбекистон ҳужжатли киноси. Ш.Муродова. Т.: 2008. – Б. 4.

Ssenariy kompozitsiyasi - syomkaga tayyorgarlik ko'rish chog'idayoq rejissor ssenariysida aks ettiriladi va unga ijodiy jarayonga tayyorgarlik ko'rish birobarida puxta texnik tayyorgarlik ham talab etiladi

Teleseriallarni tomosha qilar ekanmiz insonlarning dunyoqarashi tabiati to'g'risida fikr yuritimiz, mulohaza qilamiz mushohada qilamiz. Bunday san'at asarlari orqali o'zligimizni yana bir bor teranroq anglay boshlaymiz. San'at muxim tarbiya vositasi deb ataladi. Kino san'ati shunday ekan, bu soha namunalarini yaratuvchi ijodkorlar keng dunyoqarashli, o'z sohasining ustasi bo'lib har tomonlama tarbiya topsagina ular mehnatlari samarasi behuda ketmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B. Axmedov "Pod znakom kino", -T.: "Akademiya", 2005 y.
2. Basov V. "Rejissor na TV". -M.: "Iskusstvo", 1978 g.
3. Nemirovich - Danchenko V.I. "Iz proshlogo". "Asademia". 1936 g.
4. Kler R. "Kino vchera, kino segodnya". -M.: "Progress", 1981 g.
5. Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, - 2020, N4. P. 84-93
6. Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Colloquium-journal, - Warszawa, - 2018, N4. P. 4-6

## G'IJJAK IJROCHILIK MAKTABLARI VA USLUBLARI PROFESSIONAL USTOZLAR TALQINIDA

Qosimov Faxriyor Paxlavon o'g'li  
faxriyorqosimov@gmail.com  
O'zbekiston davlat konservatoriyasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonda g'ijjak cholg'usi ijrochiligi uslublarining turfa - xilligi, amaliyoti masalalarini tarixan hamda g'ijjakchi ustozlar maktabi silsilasida chuqur o'rganib, ilmiy yoritib berilgan. Tadqiqotning muhim jihati shundaki, nazariy-uslubiy jihatdan yoritib berilgan ko'rsatmalar ijro mobaynida ustozlar maktabi va hududiy uslublarni bir-biridan farqlagan holda g'ijjak ijrochiligini mukammal o'rganishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** G'ijjak, tabulatura, Martle, Spiccato, Pissikato, Arco, Flageolet, Nola, Molish, ko'nikma, ijrochilik maktablari, Andijon, Buxoro, Xorazm

### GIJJAK PERFORMANCE SCHOOLS AND METHODS IN THE INTERPRETATION OF PROFESSIONAL TEACHERS

Kasimov Fakhriyor Pakhlavon oglu  
faxriyorqosimov@gmail.com  
Uzbekistan State Conservatory

**Abstract:** This article examines in detail and scientifically highlights the issues of the diversity of styles of playing the gijjak - performance in Uzbekistan, the practice of the gijjak-performance instrument in the complex of schools of masters of the gijjak musical instrument. An important aspect of the study is that the theoretical and methodological illuminated guidelines help to study the performance of the gijjak perfectly, distinguishing the school of masters and local styles from each other during the performance.

**Keywords:** G'ijjak, tabulatura, Nola, Molish, skill, performance schools, Andijan, Bukhara, Khorezm

Musiqa - bu inson ruhiyatining ozig'i, insonning qalb tubiga yetib boruvchi, o'z ta'sir kuchi bilan insoniyatni boshqara oladigan yagona omillardan biridir. Shuning uchun ham barchamizning qalbimizda musiqaga moyillik sezadi. Ushbu moyillikni mavjlanishida go'daklik chog'imizda onalarimizning aytgan allalaridan to mumtoz musiqamiz, maqomlar va og'zaki an'anadagi musiq (folklor)larning o'rni

beqiyosdir. O'zbek musiqa madaniyati an'analarga boy, janrlari xilma-xildir. Milliy musiqamiz va san'atimiz yildan yilga rivojlanib ravnaq topib kelmoqda.

Xususan, prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2022-yil 2 fevraldagi *"Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"*<sup>1</sup> gi qarorning 1-ilovasida maktab o'quvchilariga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatilishi belgilangan. 4-ilovasida keltirilishicha, O'zbek va jahon adabiyotining sara namunalari asosida maxsus ovoz yozish studiyalarida taniqli san'atkorlarga o'qitgan holda "Siz sevgan ijodkordan tuhfa" turkumida audiokitoblar tayyorlash, madaniyat va san'at sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy manbalarni yaratishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ham ko'zda tutilgan. Bu esa butun san'at ahli, cholg'u ijrochilari uchun alohida e'tibordir.

Milliy cholg'ularimiz tanbur, nay, chang, rubob va boshqa cholg'ulardan taralayotgan xar bir kuy inson yuraging tub tubiga yetib boradi. Ayniqsa G'ijjakning inson ovozigacha yaqin, nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boyligi tufayli milliy mumtoz musiqamizda asosiy o'rin tutadi.

Ko'pchilik o'zbek milliy sozlari kabi g'ijjak cholg'usi ham Markaziy Osiyo xalqlari orasida, xususan, o'zbek, tojik, turkman, shuningdek, kavkaz ozarbayjon hamda arman xalqlari orasida keng tarqalgan torli-kamonli cholg'u hisoblanadi. Dastlabki yaratilgan g'ijjaklar 3 torli bo'lib, tuzilishi va sozlanishi boshqacha bo'lgan. XX asrning 20-yillarda g'ijjakning torlari unison sozlana boshladi, 30-yillarga kelib, diapazoni va ovoz ko'lamini kengaytirish maqsadida A.I.Petrosyants tomonidan o'zbek xalq cholg'ulari takomillashtirilishi natijasida g'ijjak soziga to'rtta tor joriy qilindi. Skripka andozasidan olingan g'ijjaklarning torlari kvinta intervali oralig'ida joylashtirildi.

Takomillashtirilgan o'zbek xalq cholg'ulari orqali XX asrda kirib kelgan yevropa nota yozuvi asosida musiqa savodini o'rganish ishlari boshlandi. O'rta Osiyo xalqlarida oldin ham nota tabulaturasi bo'lgan. Ammo, bu tabulatura saroy va xonliklarning xususiy mulki hisoblangani sababli oddiy halq bu notalarni o'zlashtira olmagan va xalq orasida saroy musiqalarini ijro etish ta'qiqlangan. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida aytilishicha, g'ijjakni chala bilish barcha saroy sozandalari uchun shart bo'lgan. O'rta asrda Alijon G'ijjakiy, Xo'ja O'zbek G'ijjakiy kabi san'atkorlar mashhur bo'lgan. Qolaversa, bu tabulatura asosida maqomlar notaga olingan va aynan 20-asr boshlarida maqom san'ati "eskilik sarqiti" deb mumtoz san'atni yo'q qilishga urinishlar boshlangan. Endilikda yevropa notasi juda sodda misiqiy til bo'libkirib keldi, uni o'rganish yosh o'quvchi va ijrochilarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning uchun mohir ijrochilar va musiqashunoslar o'z

<sup>1</sup> <http://old.lex.uz/uz/docs/-5849580>; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son

ilmiy faoliyatini yoritishda, unutilayozgan musiqalarni kelgusi avlodga bus-butun yetkazish yo'lida aynan yevropa notasidan foydalana boshladilar.

O'zbek xalq milliy cholg'ulari orasida g'ijjak sozi o'zining yoqimli ovozi, mungi, nolishi va inson tovushiga hamohangligi bilan ahamiyatlidir. G'ijjakda nafaqat o'zbek mumtoz kuy-qo'shiqlarimiz, balki yevropa klassik kompozitorlarining asarlarini ham ijro etish mumkin. Qiziqarli tomoni, bu sozda hatto xilma-xil qushlar va hayvonlar ovoziga taqlid qilish ham mumkin.

Havaskorlikdan professional ijrochiga aylanish uchun shogirdan avvalambor qunt, sabr-toqat, kuch-g'ayrat, kuchli iroda, musiqiy zehn talab etiladi. Ustozi orqali shogird musiqiy savodhonligini oshirish bilan birgalikda, ijrochilik ko'nikmalari (postanovka, texnika, dinamika, pozitsiya, applikatura kabilar) ni rivojlantiradi.

Demak, professional ijrochi har qanday nota yozuvi, belgilarini tez ilg'ay olishi va ijro jarayonida ularni ko'zdan qochirmasligi, g'ijjak cholg'usida ijro etiladigan turli murakkablikdagi shtrixlarni o'zlashtirishi va shu orqali har-xil janrdagi asarlarni ijro qilishga doir ko'nikmalarni shakllantirib borishi darkor. Shu bilan birga, asarni ijro qilish paytida har bir barmoq joylashgan tovushga ravon, jozibali va ta'sirchan sadolarni hamohang qilish ham professional sozandaga qo'yiladigan talab hisoblanadi. Bu mezonlarni shu sohaning professional vakillari misolida alohida ko'rib chiqamiz.

Shunday musiqachilar borki, o'limdan keyin ham xuddi hayotida bo'lgani kabi o'z ijodi bilan muxlislariga zavq bag'ishlaydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, g'ijjak cholg'usi ixlosmandi Shuhrat Yo'ldoshev, xalqning hurmat-ehtiromi ila "O'zbek Paganinisi" taxallusiga sazovor bo'lgan mohir sozandalardan biri edi. Sh.Yo'ldoshev jahon klassik kompozitorlarining asarlarini xalq cholg'u asboblarida ijro etishni cholg'u ijrochiligida qahramonlik darajasiga yetkazdi. Uning ijro mahorati nafaqat o'zbekistonlik, balki xorijlik tinglovchilarni ham o'ziga rom etdi. Skripka uchun yozilgan ko'plab asarlarni mukammal o'zlashtirgan Sh. Yo'ldoshev jahonga mashhur skripkachilar: J.Xeyfets, L.Kogan, D.Oistrax, A.Yampolskiylar tomonidan tahrir qilingan asarlarni deyarli yoddan bilardi, ular xuddi shu asarni qaysi holatda ijro etganlar, (barmoqlarning lavhada joylashishi), qanday barmoqlar, (bo'yin ustidagi barmoqlar to'g'ri joylashtirilgan), qanday zarbalar (ipning ustidagi kamoning turli harakati) va variantlarni chalkashtirmagan.

Albatta, bunday yuksak marralar bilan O'zbekistondagi g'ijjak maktabining professional ijrochiligining asoschilaridan biri bo'lgan ustoz, xalq cholg'ulari ijrochiligi kafedrasida dotsenti Obid Xalmuhamedovni ham unutmazlik kerak. Shuhrat Yo'ldoshev ijodiga uning katta mehnati, bilimi, dars berish uslubi, shogird bilan ishlash qobiliyati ijobiy ta'sir ko'rsatdi.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> <https://ipi1.ru/images/PDF/2017/87/uzbeksij-paganini.pdf> Q.Nazirovning maqolasi asosida

Quyida professional ijrochi ustozlarning o'g'itlari, amaliy bilimlarini muvofiqlashtirib, mohir ijrochi bo'lishning boshlang'ich ko'nikmalari, g'ijjak cholg'usida ijrochilik malakasini oshirish, nazariy - amaliy faoliyatlar majmuasini shakllantirish bo'yicha muntazam ravishda bajarilishi talab etiladigan shartlarni keltirib o'tamiz:

- g'ijjak sozining barcha o'ziga xos hususiyatlarini bilish va ularning oilalarini tovush tembrlarini farqlash;

- turli janr va murakkablikdagi texnik, polifonik va kompozitorlar asarlaridan namunalarini badiiy va texnik jihatdan mukammal, mazmunan idrok etgan holda ijro eta olish;

- yakka va ansamlda jo'rnavoz bo'la olish, musqiy asarni notadan o'qiy olish;

- kuyga tavsif berish;

- xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'lish;

- musiqaga oid atamalarni bilish;

- musiqaning ifoda vositalarini bilish;

- ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olish;

- musiqa janrlarini bilish va ijro uslubidan ularni farqlay olish;

- har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblarini bilish;

- Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xalq kuyi namunalaridan ijro eta olish;

- milliy musiqa amaliyotida o'zbek xalq ommaviy va kasbiy musiqa janrlarining mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish;

- Jahon xalqlari mumtoz musiqa namunalari va kompozitorlar asarlaridan namunalar ijro eta olish;

Ustoz Baxtiyor Yaminov bu masalalarda juda masulyat bilan o'z ishlarini sevib ijod qilgan. Baxtiyor Yaminov g'ijjak sozida ijro texnikasi va applikatoraga alohida e'tibor qaratgan. "Applikatura" so'zi nemischa "aplikatur", lotincha "apliko" qo'ymoq, bosmoq ma'nolarini anglatadi. Applikatorani to'g'ri tanlash usullari sozandaga bir tomondan qulaylik, asarning texnik jihatdan qiyin parchalarini o'zlashtirishda va ijro etishda yengillik yaratib bersa, yana bir tomondan o'ng qo'lning tordan torga o'tavermay, yoki ortiqcha harakat qilmasdan o'sha vaziyatdan erkin chiqishni ta'minlaydi.


Murod Toshmuhammedovning "G'ijjakda an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish" asarida bezaklarning nota vositasida ifodalanishi haqida yoritib bergan. Bu belgilar fortepianoda ishlatiladigan mordentdan ancha farq qilgan holda g'ijjakning ijro uslubi va holatidan kelib chiqib ijro etiladi.

G'ijjak sozida saboq olayotgan bo'lajak mohir sozanda quyidagi murakkab shtrixlarni ijro jarayonida qo'llay olishi kerak:

Masalan, *Nola* - go'yoki vibrato. G'ijjak sozida pardani barmoq bilan bosib, muloyim va tez qimirlatish yo'li bilan amalga oshiriladi.<sup>3</sup>



*Molish* - mazkur an'anaviy ijro bezagi tovushni chorak ton doirasida legato yordamida ko'tarish yoki tushirish bilan amalga oshiriladi.



G'ijjak sozining O'zbekistonda professional darajada shakllanishida ustoz shogird an'analari ham muhim rol o'ynaydi. Bunda har bir hududning o'ziga xos maktabi ijrochilik uslubi mavjud. G'ijjak ijrochiligining o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'ladi.

Farg'ona vodiysi hofizlik san'ati hamda surnay ijrochilik an'analari ta'sirida shakllangan Andijon maktabi (T. Jalilov, G'. Hojikulov, Ye. Ro'ziboyev, Yu. Yusupov va boshqalar) mayda urg'ular, kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo'llari, surnayga xos qochirimlar singdirilganligi bilan ajralib turadi. K.Jabborov, G'.Toshmatov, M.Niyozov, M.Muhammedov ijrosida "Surnay Irog'i", "O'yin Munojoti", "Dugohi Husayniy", "Kezarman", "Gul mavsumi" kabi g'ijjak kuylari mashhur.

Mahalliy musiqa an'analari (ayniqsa, Shashmaqom yo'llari) negizida qaror topgan Buxoro maktabiga g'ijjakning xuddi titrayotgan kamonni yurg'izib sadolanishi, har bir pardani o'zida to'lqinlatib tezlashishi xos. Buxoro g'ijjakchilik maktabi namoyondalaridan Haydarqul Qorovulbegi (Buxoro amirlari saroylarida xizmat qilgan), 20-asrda Aminjon Ismatov, Samo Vohidov, Hikmat Ne'matov, O'lmas Rasulovlar ijrosida "Surnay Irog'i", "Bahri tavil", "Kamon ufari", "Zulayho", "Noz" kabi namunalari ommalashgan.

Xorazm maktabi ijro uslubi shiddatliligi, kamonni urg'u bilan tortishi, ayni paytda yumshoq to'lqinlatish bilan ajralib turadi. Mazkur maktab vakillaridan 19-asrda faoliyat ko'rsatgan Patak-g'ijjakchi (mashhur Suyav-baxshi dastasida), Abdulla Mijana, Matyoqub Xarratov, Ollanazar Hasanov, Hasanboy Atayevlar talqinida Xorazm maqomlarining cholg'u yo'llari, surnay yo'llari, shuningdek, "Aliqambar", "Qalabandi", "Xarrotiy", "Gech polvon" singari kuylar mashhur.

<sup>3</sup> Тошмухаммедов М. "Гижжақда анъанавий ижрочиликни ўзлаштириш" Т.: Ўқитувчи, 1995.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Худоев Ғ.М “Ғижжак сабоқлари” 1-2-китоблар, Ғофур-Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижод уйи, Тошкент, 2016.
2. Акбаров И. “Муסיқа луғати” Т.: Ўқитувчи, 1997.
3. Тошмухаммедов М. “Ғижжакда анъанавий ижрочиликни ўзлаштириш” Т.: Ўқитувчи, 1995.



## O'ZBEK MEROSIY RAQSLARIDA AKTYORLIK MAHORATINING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI

Gulishod Abdiyeva  
gulishod.abdieva@mail.ru  
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

**Annotatsiya:** mazku maqolada o'zbek merosiy raqslarining o'ziga xosligi va bunda aktyorlik mahoratining o'rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada aktyorlik mahoratiga oid muhim omillar raqs san'atida qanday kasb etishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** san'at, shaxs, mahorat, baletmeyster, aktyor, raqs, harakat, musiqa, sahna, obraz, ijod, asar.

## APPLICATION AND SPECIFICITY OF ACTING SKILLS IN UZBEK HERITAGE DANCES

Gulishod Abdieva  
gulishod.abdieva@mail.ru  
State Academy of Choreography of Uzbekistan

**Abstract:** the article covers the peculiarities of Uzbek heritage dances and the role of acting skills in this. The article also describes how important factors related to acting skills are earned in the art of dance.

**Keywords:** art, person, skill, ballet dancer, actor, dance, action, music, stage, image, creativity, masterpiece.

San'atning o'zi nima? Haqiqiy san'at, eng avvalo insonning-insoniylik qiyofasini shakllantiradi. Insonni tuban fikrlardan yiroqlashtirib, yuksaklikka ko'taradi, hamdard bo'lishga da'vat etadi. San'at inson ruhiyatini poklaydi. Uning tarbiyaviy ahamiyatini hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Madaniyat va san'at insonni hayvondan ajratib turuvchi chegara. San'at - ma'naviy ijodiyotdir.

San'at - insondagi eng yuksak badiiy ehtiyojni hamda uning tug'ma - xissiy, ma'naviy, estetik, mafkuraviy ehtiyojlarni qondiradi. Badiiy timsollar orqali omma ongiga ta'sir o'tkazadi, inson dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy qiyofasiga ta'sir etuvchi vosita bo'lib hizmat qiladi. Ommaning ongiga badiiy timsollar orqali ta'sir o'tkazish, shaxsni yuksak kamolot darajasida tarbiyalab uni shakllantirishga hizmat qiladi.

Ammo shunday fikrlar ham mavjud, unga ko'ra san'at to'g'ridan-to'g'ri shaxs ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirmaydi. Bizning

fikrimizcha haqiqiy san'at, agar inson unga talpinib yashasa, sekin-asta kishining dunyoqarashini o'zgartiradi. Uning ongiga ta'sir ko'rsatish orqali fikrlash darajasini, hissiyotini, turish-turmushini, xatto tashqi ko'rinishini ham o'zgartirishi mumkin. Bu fikr san'atning barcha sohalariga - musiqa, teatr, tasviriy san'at, xaykaltaroshlik, arxitektura va so'zsiz adabiyotga ham taalluqlidir. San'atning insonni hayratga solib lol qoldiradigan kuchini, ta'sirini o'z hayotimda bir necha bor o'zimda sezganman. Fikrlar quruq so'z bo'lib qolmasligi uchun hayotiy misollar keltiraman.

Bir o'zbek ayolining go'zal, tasviriy, badiiy uslublar yuksak aktyorlik maxorati bilan ko'rsatib bera olgan "Pilla" raqsini olsak, ushbu raqs garchi bir necha daqiqalik raqs bo'lsa-da, mazmun-mohiyatan yirik sahna asari deyish mumkin.

Bu raqs, san'atning boshqa turlari: musiqa, tasviriy san'at, kino san'ati qatorida mening dunyoqarashimga ta'sir etibgina qolmay, ma'naviy estetik jihatdan shakllanishimda, raqqosa sifatida maxoratga ega bo'lishimda katta o'rin egalladi. "Pilla" raqsida nafaqat raqs harakatalari aktyorlik ijrosi, rejissyorlik yechimi va topilmalari orqali tomoshabin qalbiga kuchli hissiy ta'sir o'tkazishini ushbu raqsni ijro etish jarayonida tomoshabinlar nigohida kuzatganman. Yaratilganiga mana oradan qariyb to'qson yil o'tgan bo'lishiga qaramay "Pilla" raqsi doimo olqishlar ostida, so'nmasdan yashab kelmoqda. Mazkur buyuk asarning ta'sir kuchi nimada? Avvalo raqsdagi barcha unsurlarning badiiy yaxlitligidan, deb tushinaman. Va eng muhimi raqqosaning aktyorlik maxorati va raqs harakatalaridagi ifodaviylik bilan kishi zavqini junbushga keltiradigan darajadagi ijrosidir. Balkim buni "ijro" deb ham bo'lmas, aksincha raqqosaning sahnada timsol ruhiyati bilan yashashi, nafas olishi, harakat qilishidadir. Pilla qurt boquvchi qiz obrazi, O'zbekiston halq artisti Mukarrama Turg'unboyeva ijodiy biografiyasining gultoji desam mubolag'a bo'lmas. Shu raqs orqali Tamarxonim O'zbek milliy raqs tarixida o'chmas iz qoldirdi. Raqqosaning hishayajon bilan to'lib toshgan ijrosi keyinchalik ushbu raqsni ijro etgan raqqosalar ijrosidan farq qiladi.

O'zbek raqqosalar hayajonga beriluvchan, hissiyotlar bilan to'yingan bo'lib, ehtirolarning jo'shqinligi, ijro etayotgan raqsini yurakdan-yurakka o'tqazadigan ta'sir kuchiga ega. O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan M.Ergashevaning "Munojot" raqsi mumtoz ijrosi bunga yorqin misoldir. Biroq baletmeystersiz, uning aniq ko'rsatmalari va iste'dodisiz shakl va mazmunan yetuk obrazlar yaratish mumkin emas. M.Turg'unboyeva tomonidan raqs san'atining barcha ta'sirchan vositalari hamda unsurlarining uyg'unlashuvi natijasida yuksak badiiylikka erishilgan ushbu "Munojot" raqsida unutilmas poetik obraz yaratilgan. Raqs chuqur falsafiy mazmun, go'zal va aniq shaklga bo'ysundirilgan. Bu mashhur raqs asari sababidan men, raqs san'ati naqadar kuchli ta'sir kuchiga ega ekanligi, kishini larzaga keltiradigan tuyg'ularni uyg'otishi mumkinligi, inson ongi va shuuriga hech bir o'lchamga sig'maydigan ta'sir kuchiga ega ekanligiga amin bo'lganman. O'rni kelganda shuni ham aytish joizkim,

M.Turg'unboyeva raqs sahnalashtirayotganda doimiy tarzda ustozlari Usta Olim Komilov, Tamarxonim bilan hamfikir bo'lgan va ularning raqslardagi badiiy yaxlitlikka erishish uslubiyatlari hamohang edi.

Baletmeysterning savodxonligi, yuksak mahorati xatti-harakat tahlilini bilish, unga ko'nikma hosil qilish, tajriba ortirish va raqqos(a)lar bilan birga raqs harakati uslubiyati orqali sahnada bor iste'dodini ro'yobga chiqarishga bog'liq.

Bu borada har bir baletmeystster-rejissyor quyidagi bilimlarga ega bo'lishi va ularni amalda qo'llashi lozim: raqs harakatlarining tahlili to'g'risidagi bilim va uning rivojlanish jarayonini; raqsni insonga g'oyaviy, ma'naviy, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositalarini; asar yaxlitligining qonuniyatlarini; asar mavzusini aniqlay olishni; raqsning xissiy va g'oyaviy ta'sir ko'rsatuvchi unsurlari hamda oliy maqsadini; raqs harakatlari, imo-ishoralari orqali uzluksiz xatti-harakatni aniqlashtira olish; raqs harakati, xolati, imo-ishora va plastikada yaxlit voqelikni ko'ra olishi; asrning maromi va sur'atini belgilay olishi, ijrochilarning o'ziga xos bo'lgan tabiati, raqs chizmasini belgilash.

Baletmeyster quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur: raqs harakatlari tahlilini o'tkaza olishi; raqsni kompozitsiya jihatdan to'g'ri rejalashtirishi; asar mag'zini sahnada ochib bera olishi; raqqos(a) bilan g'oya, maqsad va obraz, turli janr va uslubga hos asarlar ustida ishlay olishi; sahnaviy bezak, musiqa, turli shovqinlar orqali sahna asarining janriga mos bo'lgan muhitni yaratishi; mizansahnalashtirish; yaxlit sahna asarini yarata olishi; barcha ishlab chiqarish bo'limlari, hamda ijodiy jamoa ishini tashkillashtira bilishi shart.

Iste'dod - sirli jozibadir. Ijodkor badiiy obrazlar orqali ijod qiladi, ular vositasida omma ongiga ta'sir ko'rsatadi. Insoniyat esa mudom badiiy obrazlar sir-asrorini anglashga intilib keladi.

Badiiy obraz - estetikaning asosiy tushunchalaridan biri. U faqat badiiy san'atga hos yo'llar bilan borliqni aks ettiradi va qayta shakllatira oladi. Shuningdek, baletmeyster yaratayotgan raqsida ijodiy yondoshib qayta gavdlanantirgan biron bir hodisa - obrazdir. Badiiy obraz na faqat borliqni aks ettiradi, shu bilan birga eng avvalo borliqni umumlashtiradi, alohidalikda ham umumiylikni aks ettiradi. Badiiy obrazning o'ziga hos tomonlari - faqat borliqni tafakkur qilibgina qolmay, o'ylab chiqarilgan yangi dunyoni kashf qidadi. O'z tasavvuri, uydirmasi mutaxayyalasi (fantaziya) orqali aniq voqelik va borliqni qaytadan barpo qiladi. Aniq harakatlar, imo-ishora, plastika va albatta aktyorlik maxorati yordamida ijodkor bus-butun raqs asarini yaratadi. To'qima - umumlashtirma obrazning qiymatini oshiradi. Aristotelning "Poetika" asarida obraz - asl, tabiiy narsani aksi sifatida emas, o'zgartirilgan - noaniq, bo'rtirilgan, kichraytirilgan narsani ifodalash orqali namoyon bo'ladi. Har qanday obraz - ong e'tiboriga tushgan ichki dunyodir. Mana shu obrazsiz na tabiiylikning aksi, na tasavvur, na anglashlik va na ijod bo'lishi mumkin emas. Obraz hissiy yoki aql-

idrokka asoslangan shaklga ega bo'lishi mumkin. Badiiy obraz yaxlit yoki uning qismlari shaklida taqdim etilishi mumkin. U inson ongi va hissiyotlariga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Badiiy obraz ijodkorni qiziqtirgan masalalariga javob bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi-yangi savollarni o'rta tashlaydi. Lo'nda javob yo'qligi, uning muhimligi obrazning tabiatiga ko'ra botiniy - subektiv sifatidir. U keng ko'lamli mazmunni ifoda qilishi mumkin, so'ngi javob orqali so'ngsizlikni ifoda etishi mumkin. U garchand bir nechta unsurlardangina barpo qilingan bo'lishiga qaramay, yaxlit bir buyum, fikr ko'rinishiga ega bo'ladi. Obraz ishoralar (eskiz) orqali, yoki yakunlangan holda ifodalanishi mumkin.

Raqsdan badiiy obraz o'ta murakkab favqulotiy tafakkur bo'lib, o'zigagina xos xususiyatni hamda umumiylikni aks ettirishi mumkin.

Badiiy obrazlarni bir-biriga taqqoslash orqali quyidagicha xulosa yasash mumkin:

1. Badiiy timsolning birinchi tarkibiy qismi. Badiiy asarning mohiyati oliy maqsaddir - badiiy asar yaratilishiga turtki bo'lgan ijodkorning dardi, hissiy sezgisi. "Jim tura olmayman!" degan ichki kuch asarning tub ma'nosini anglatishga hizmat qiladi. Ijodkor his qilish orqali ta'sir o'tkazadi, ya'ni fikrni, raqsning ma'nosini o'z hissiyotlari orqali ifoda etadi. Ijodkor jamiyatdagi og'riq nuqtalarni sezishi, ularga befarq bo'lmaganligi sababli boshqalardan ajralib turadi. Ijodkorga ta'sir etmaydigan hodisotlar to'g'risida gapirishning hojati yo'q. "Ehtirosli to'lqinida olg'a surilgan timsoliy g'oya xotirada uzoq saqlanib qoladi",- degan edi P.Simonov.<sup>1</sup>

2. To'qima - badiiy timsol yaratishning ikkinchi qonunidir. Ya'ni xaqiqiy hayot va unga bo'lgan munosabat orqali shu hayotni to'qimalar bilan boyitishlik, asliga nisbatan boshqacha shakl berishlik, xotiraga o'rnatilgan qolgan voqea, hodisaning davomini o'ylab topishlik, hamda uni raqs harakatlari orqali sahnaviy-badiiy asarga aylantirishdan iborat. Xatto sevgi ham tasavvur orqali to'qilib boyitiladi. Ijodkor - eng avvalo to'qib chiqaruvchidir, qisman "yolg'onchi, uydirmachi, avrovchi" hamdir. Ijodda tasavvur - buyuk kuchdir!

3. To'qib chiqarilgan xaqiqat mantiqiy bo'lishi kerak. U turli tuman: ijtimoiy, xayotiy, falsafiy, teatrlashgan va h.k. bo'lishi mumkin. Lekin u badiiy haqiqat qonuniyatiga so'zsiz bo'ysinishi shart.

To'qima, fikrni, g'oyani tiniqlashtiradi.

Demak: raqs yaratishda badiiy timsol hissiyotlar bilan yo'g'irilgan uchta tarkibiy qismga bog'liq. Ma'no - to'qima - haqiqat + hissiyot = timsol mohiyatini tashkil etadi. Raqsning ta'sirchanlik esa mazkur tarkibiy qismlarning uyg'unlashuvi natijasidir.

Har bir raqqos(a)ni tarbiyalashda asosiy e'tiborni oliy maqsadga va mahoratini oshirishiga qaratish kerak. San'atlarning o'ziga xos xususiyatlari foydalanadigan vositalar orqali belgilanadi: so'z, nafis harakatlar, shakl, ranglar.

<sup>1</sup> Симонов П. Метод К.С.Станиславского и физиология эмоций. М., 1962, 236-66.

Raqs san'atining eng muhim tarkibiy qismi - raqqos(a)dir. Ammo raqs san'atida sarkor, ya'ni baletmeyster bo'lmasa raqs ham bo'lmaydi. Baletmeyster g'oyaviy yetakchi, ijodiy jarayonning ilhomlantiruvchisi, sahna asarini yaratish uchun ijrochilardagi barcha kuchlarni birlashtiruvchidir. Raqs san'atida baletmeyster uchun raqqos(a) xom ashyo vazifasini bajaradi, u orqali, baletmeyster tomoshabin qiziqish bilan kuzatadigan raqs asaridagi g'oyaviy izchillikni ochib beradi. Ta'sirchan, jonli raqs sahnalashtirish uchun baletmeyster raqqos(a) psixologiyasini bilishi, ijrochi bilan ishlash mahoratini egallashi zarur. Raqqos(a) qalbida kechayotgan jarayonlarni sezishi, sahna va hayotda o'zini qanday his qilishi, ijodiy holatini tushinishi kerak. Uning izlanishlariga yo'l ko'rsatishi, tahlil qila olishi muhimdir. Ijodiy izlanishlar jarayonlari qatlamaga o'xshaydi: Baletmeyster tomonidan berilgan taklifni qabul qilib olar ekan, raqqos(a) uni har tomonlama boyitadi, shu bilan birga baletmeyster fantaziyasi uchun yo'l ochib beradi. Ayni mana shu ijodiy hamkorlikda raqs harakati, imo-ishora, plastika va albatta akyorlik maxorati yordamida raqs tug'iladi. Mustahkam sinchlarga tayanib barpo etilmagan raqs asarida raqqos(a)ning barcha harakatlari havoga sovrilishi mumkin. Ijodiy jarayonda baletmeysterga bus-butun itoat etadigan raqqos(a) (aks holda bosh-boshdoklik bo'ladi) baletmeysterning hamfikir safdoshiga aylanadi.

Raqs san'atining murakkabligi va boshqa san'atlardan farq qiladigan jihati - raqqos(a) asarning mazmun-mohiyatini tana harakati, yuz ifodasi orqali so'zsiz tarzda ifoda etadi.

Raqs ijro etmoqlik bu:

- 1) tasvirlab bermoq, ko'rsatib bermoq, taqlid qilmoq
- 2) o'sha odam bo'lmoq, timsol qiyofasida yashamoq demakdir.

Bu bizga tanish aktyorlik mahoratining "Taqlidiy" va "Kechinma" san'atlaridir. Aktyorning an'anaga aylanib qolgan sahnadagi faoliyatini "kechinma" va "taqlidiy" san'atga bo'lib atashlik bugungi kunda eskirib, o'z mohiyatini yo'qotgandir. Huddi aktyor kabi raqqos(a) kechinma orqali ko'rsatib beradi, ko'rsatib berish orqali boshdan kechiradi, yashaydi. Raqqos(a) ijrosining psixologiyasi mana shu dialektik qonuniyatiga asoslangan. Raqsning sahnadagi yashash tarzi: yurish-turishi, ijroning o'ziga hosliklari, usul va shakli asar janriga bog'liqdir.

Ijodiy hissiyot huzur baxsh etmog'i darkor. Hayotda sezgi va hissiyotlar haqiqiy bo'ladi (ko'z yoshlar, og'riq sezish, iztirob chekish va h.k.). Sahnadagi hissiyotlar tasavvurdagi hissiyotlar bo'lishi kerak. "San'atning his tuyg'usi aqlli tuyg'ular hosilidir. Ular bosh miya qobig'ida fantastik tarzda vujudga keladi. Har qanday fantastik va haqiqatdan uzoq tuyg'u va hissiyotlar real tuyg'ular oqibatida tug'iladi."<sup>2</sup> Bu hissiyotlar bir-biriga o'xshaydi. Ammo sahnaviy hissiyotlar badiiylashgan holda bo'lib, ijodkorga quvonch bag'ishlaydi. Shuning uchun raqqos(a)ning ijodida quvonch

<sup>2</sup> Выготский Л.С. "Психология творчества". М., 1965.

hislari, ko'tarinki ruh, zo'r istak va ishtiyoq bilan yonishi har bir raqs, xatto boshlang'ich mashg'ulotlar davrida yo'qolmasligi kerak. Xatto ijod mashaqqatlari ham quvonchlidir. Avvaldan, xaqiqatda bunday bo'lishi mumkin emasligini anglagan holda, o'zi bajarayotgan ish va holatga ishonmoqlik o'ta muhim qobiliyat. Esda tutib - unutish, qayg'urib turib - qayg'urmaslik, bu jumboqli qarama - qarshilik raqs ijodi psixologiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'z imkoniyatlariga ishonmoq ijodiy ilhom baxsh etadi, ilhom esa o'z navbatida ong osti hissiyotiga ta'sir etib, har qanday ijod turi uchun turtki beradi. Raqqos(a) qobiliyatini aniqlovchi ilk sinov uni berilgan obrazga bo'lgan ishonch darajasidir. Bolalardek ishonuvchanlik tabiat ehsoni bo'lib u faqat iste'dodli raqqo(a)largagina nasib etadi. Buning uchun ko'pincha sabr-toqat va mashaqqatli mehnat orqaligina erishish mumkin. Hatto eng qobiliyatli raqqos(a)lar ham, ayniqsa, ijodiy jarayonning boshlang'ich qismida o'ziga ko'pam ishonmaydilar. Ilhom so'qmoqlari ruhiy va jismoniy mehnat orqali bo'y ko'rsatishi mumkin. Tahlil, chuqur mulohaza qilish, anglash, tasavvurning ishlashi, fantaziyaning ixtiro qilish qobiliyati - obraz yaratish mumkin bo'lgan qurol. Ongli mehnat asta-sekinlik bilan sahnada aktyorlik maxorati tushunchasi bilan aytganda "jismoniy harakatlar uslubi" orqali sinovdan o'tkaziladi. Eng muhimi bunday mashaqqatli mehnat ijodkorga huzur bag'ishlashi kerak.

San'at qalb hissiyotlarni ixtiro qiladi va qalb bilan qabul qilinadi. Raqqos(a)dan xuddi aktyor kabi haqiqiy hissiyotlar bilan yashashni, qiyofaga kirish, tuslanishni talab qilinadi.

Qolaversa, Sahna asarini kompozitsion jihatdan loyihalashtirish jarayonida sahnalashtiruvchining ma'naviy dunyosi, estetik didi va madaniyati muhim ahamiyatga ega. Sahnalashtirilayotgan raqs orqali nima demoqchiman? Qaysi homashyo bilan nimani yarataman? - degan savol baletmeyster qarshisida hamisha ko'ndalang turishi shart. Bu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

Dramatik manba bilan ishlash. San'atning qaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar maqsad bitta: hissiyotlarni, tuyg'ularni izhor etish, tomosha qiluvchilarga hissiy ta'sir o'tkazish. Qolgan narsalar - xolat, harakat, marom, tasvir, musiqa bir vosita xolos. Avvalo manbani tushinish, anglash, o'ziniki qilib olish, mavzuni "o'zining mavzusi, dardiga" aylantira bilish lozim. Badiiy asarning nazariy tahlili bunda ko'p ham natija bermaydi. San'atda o'rganish, anglab yetish jarayoni, ilmiy-nazariy emas, ijodiy jarayondir. Dramatik asar shart-sharoitlar, vaziyatlar, harakat va voqealar tizimini aniqlashtirish orqali o'rganilinadi, xususan raqs ham.

*Oliy maqsad.* San'atda Nima emas, Kim? Qanday shahs ijod qilyapti? - degan tushuncha o'stivor. Shu sababdan ijodkor hayotga befarq bo'lmasdan hissiy tuyg'ular, ehtiroslar, ma'no bilan boyitib borishi kerak. Eng avvalo ma'no bilan. Oliy maqsad bilan g'oya o'z vujudingda paydo bo'lishi kerak. Har qanday ijodiy mahsulot zohiriy (subektiv) bo'lishiga qaramay, botiniy (obektiv) qadriyatlarni aks ettirishga intiladi.

Muallif ko'pincha o'z qarashlarini zohiran aks ettirishi mumkin. Ammo obektiv, zohiriy borliqning shart-sharoitlari ijodkorning ongi va miyaning ong osti qatlamiga ta'sir o'tkazmasdan qo'ymaydi. Obektiv xaqiqatni asarning o'zidan izlab so'ngra uni zohiriy fikrlar bilan solishtirib ko'rish kerak. Eng bebaho manba bu asarning o'zidir. Uning sir-asrorlarini anglab olishga intilmoq darkor. Asarni yaxlit holicha qabul qilib, uning bir bo'lagidagi jumboqni topish, so'ngra u bo'lakni yaxlit narsa bilan yana va yana solishtirib ko'rish kerak. Asarning xatto eng kichkina qismi oliy maqsadni belgilanishiga ta'sir etishi mumkin.

G'oya - pinhoniya. Asar mohiyatini, mavzusini, muallif dardini topish murakkab jarayon. Shuning uchun qidirish, uzluksiz izlanish zarur. Bir qolipda yuzaki fikrlash hamisha pand beradi. Asarni o'rganish, talqin qilishda estetik did va chuqur fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish lozim. Sahna asari mazmunan yangilikni, shaklan rang-baranglikni ixtiro etishni talab qiladi. Hamisha ana shu yangilikni qidirib topishlik va unga kutilmagan qiziqarli shakl berishga intilib ijod qilmoq maroqlidir. Buning uchun baletmeyster o'z oldiga yuksak vazifalarni qo'yishi, burchiga mas'uliyat bilan yondoshishi lozim. Na faqat davr bilan hamnafas, davrdan ilgarilab ijod qilish kerak. Raqs san'atining vazifasi faqatgina ko'ngil ochar asarlar yaratishda emas, aksincha umumbashariy qadr-qimmatlarni e'zozlaydigan, ma'naviy kurashga chorlovchi, falsafiy mushohada yuritishga undovchi umrboqiy asarlarni yaratishdadir. Bunday asarlarni keng dunyoqarashi, aql, zakovati, yuksak didi bilan bilan o'zgalardan ajralib turgan shahsgina yarataoladi. Iste'dodli shahsning ichki dunyosi boshqacha. Unda, majoziy manoda,  $2 \times 2 = 4$  emas 5 bo'lishi mumkin.

Misol uchun bosh g'oyani aniqlash uchun, baletmeysterda estetik did bilan tafakkur qilish salohiyati o'zaro birlashishi kerak. Voqelikni obektiv qabul qila bilish zarur. Oliy maqsad - obektiv g'oyaning o'zi bo'lib, bugungi kunga qaratilishi shart. Hayot albatta bir joyda turmaydi. Shunga qarab g'oya ham shu kungi talablardan kelib chiqmog'i lozim. Ayni shuning uchun ham buyuk baletmeysterlarning asarlari asriy davrlarda ham dolzarbliligini yo'qotmay kelmoqda. Har safar bunday asarlarda bugungi kunning dolzarb muamollariga javob topish mumkin. Xususan, mazkur tadqiqot ishimizga asos qilib olingan merosiy raqslarimizdan "Pilla", "Munojot", "Tanovor" raqslari yuqoridagi so'zlarimiz isbotidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avdeyeva L.A. Ozbek Milliy raqsi tarixidan. -Тошкент: Mukarrama Turgunboeva nomidagi "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi, 2001 y.
2. Авдеева Л.А. Мукарамма Турғунбоевнинг рақси. -Тошкент: Гофур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989 й.

3. Авдеева Л.А. Танцевальное искусство Узбекистана. -Ташкент: Государственное издательство художественной литературы Узбекской ССР, 1966 г.

4. Каримова Р. Ферганский танец (методическое пособие). -Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1973 г.

5. Каримова Р. Харезмский танец. -Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1975 г.

6. Каримова Р. Бухарский танец (методическое пособие). -Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1977 й.

7. Симонов П. Метод К.С.Станиславского и физиология эмоций. М., 1962



## **BUXORO VILOYATI MUSIQALI DRAMA TEATRI TARIXIDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'RNI**

G'aybulloyev Baxtishod

baxtishod0808@mail.ru

O'zRFA San'atshunoslik instituti

**Annontatsiya:** Mumtoz asarlarning sahnada talqin etilishi teatr ijodkorlarining kasbiy qirralarining ochilishi, o'sishida nihoyatda muhim o'rin tutadi. Shu jumladan, mutafakkir Alisher Navoiyning umumbashariy ruhdagi asarlaridagi badiiy-g'oyaviy negiz teatr aktyorlari, rejissyorlarning ijodi uchun zarur. Qolaversa, Navoiy ijodi har qaysi zamon uchun zarur o'lmas g'oyalar va falsafaga ega bo'lgani bois, hamma davr tomoshabin uchun yangi gap, yangi fikr taklif eta oladi. Buxoro viloyati teatri rivojlanishida ham Navoiy ijodining ahamiyati katta. Mazkur maqolada Buxoro teatrida sahnalashtirilgan Navoiy asarlarining badiiy xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro teatri, Alisher Navoiy, spektakl, talqin, mumtoz adabiyot, viloyat teatrlari.

## **THE PLACE OF ALISHER NAVOI'S WORKS IN THE HISTORY OF MUSICAL DRAMA THEATER OF BUKHARA REGION**

Gaybulloyev Bakhtishod

baxtishod0808@mail.ru

Institute of Fine arts of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

**Abstract:** The interpretation of classics on stage plays an important role in the discovery and growth of the professional side of theater artists. In particular, the artistic and ideological basis of the works of the thinker Alisher Navoi in the universal spirit is necessary for the work of theater actors and directors. In addition, Navoi's work has immortal ideas and philosophies that are necessary for any age, so all epochs can offer a new word, a new idea for the audience. Navoi's work also plays an important role in the development of the Bukhara regional theater. This article discusses the artistic features of Navoi's works staged at the Bukhara Theater.

**Keywords:** Bukhara Theater, Alisher Navoi, performance, interpretation, classical literature, regional theaters.

Alisher Navoiy ijodiy merosi sal kam olti asrdirki, Sharqu G'arb madaniyatining yuksak namunasi bo'lib kelmoqda. Shoirning ijodiy merosi adabiy dunyoda yuksak

mezon bo'libgina qolmay, undagi teranlik, umrboqiy g'oyalar ko'plab ma'daniy-ma'rifiy sohalar, xususan, tomosha san'ati rivojiga ham jiddiy ta'sir etib kelmoqda.

O'zbek professional sahna san'ati tarixida Navoiy va uning dostonlariga deyarli har bir teatr jamoasi tomonidan murojaat qilingan. Jadidchilik harakatining yirik tarmog'i bo'lgan teatr truppalari shakllanishida boshqa qo'shni va qardosh xalqlarning sahna jamoalari ta'sir etgan bo'lsa-da, tomoshalar mazmuni va repertuar masalasida milliy dramaturgiya va mumtoz asarlarga tayanildi. "Turon" teatr studiyasi ham, o'lkada yuzaga kelgan boshqa hududiy teatr truppalari ham Navoiy asarlari asosida "milliy tomosha"lar sahnalashtirish tajribasi boshlandi.

Buxoro viloyati musiqali drama teatrining sal kam yuz yillik ijodiy yo'li mobaynida Alisher Navoiy asarlari bir necha bor sahna yuzini ko'rdi. Navoiy asarlarini sahnalashtirish har bir rejissyordan kuchli ma'suliyat talab qiladi.

Buxoro teatrida 1930 yildan Yetim Bobojonov boshchiligida professional aktyor va aktrisalari Vaxtangov teatri qoshidagi ikkinchi o'zbek drama studiyasini tamomlab kelishgan. Bahodir Jamolov, Mirobid Musayev, Anvara Olimova, Muhabbat Musayeva, Xolida Xo'jayeva, San'atxon Yo'ldosheva va o'ttizga yaqin san'atsevar yoshlar ham bor edi. Ular dramatik, tragik, komedik va musiqali drama asarlarida mahorat bilan rollar ijro etishgan. O'sha yillarda "Arshin mol olon" (musiqali vodivil), "Farhod va Shirin" (operasi) tomoshobinlar o'rtasida katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni asosida Xurshid va V.A.Uspenskiy hamkorlikda ushbu asarni yaratishgan. "Farhod va Shirin" dostonining mazmuni hammaga ma'lum. Layli va Majnun kabi unda ham pok muhabbat, ijobiy mehnat, samimiyat, do'stlik tuyg'ulari olqishlanib, yovuzlik, urush, sotqinlik qoralangan. Insonning axloqiy, ma'naviy, barkamolligi masalalarini umuminsoniy darajalarga ko'targan.

1935 yilda Shamsiddin Xurshidning Alisher Navoiy dostoni asosida tayyorlangan "Farhod va Shirin" musiqiy asari rejissyor Mirobid Musayev tomonidan sahnalashtirilgan. Rejissyor spektakl voqealarini tomoshabinga osonroq yetkazish maqsadida "bayonchi" timsolini kiritgan. Bayonchi har bir ko'rinish oldidan spektakl voqealarini qisqacha hikoya qilib, sharhlab borgan. Ushbu asarda bosh rollarni Shirin - Muhabbat Musayeva, Mohinbonu - Xolida Xo'jayeva, Yosuman - Anvara Olimova, Farhod - Bahodir Jamolov, Xisrav - Aspiya Qodirov, Shoh - Bo'ri Alimov va teatrning boshqa aktyor va aktrisalari ijro qilishgan. Dastlab "Turon"da sahna yuzini ko'rgan ushbu doston buxorolik aktyorlar talqinida ham muvaffaqiyat qozonib, tomoshabinlar o'rtasida katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan.

1940 yilda ushbu asar M.Musayev tomonidan yangi talqinda sahnalashtiriladi. Spektaklning birinchi talqinida sahna bezagini rassom V.Toll ishlagan bo'lsa, ikkinchisida K.Eskodi ssenografik yechimga boshqacharoq yondashadi. Birinchi talqinida sahna bezaklari oddiy bo'lsa-da asarni mohiyatini ochib berishga xizmat

qilgan. Shuningdek, sahnada rol ijro qilayotgan aktyorlarga noqulayliklar tug'dirmagan. Ikkinchi talqinida ssenografiyaga professional yondashilgan va bu spektaklni muvaffaqiyatli chiqishiga xizmat qilgan. V.Toll ishlagan buyuk shoir Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida ilohiy muhabbat mavzusi insoniy vafodorlik, sadoqat g'oyalari bilan uyg'unlikda yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Musiqali dramaning asosi ikki qarama-qarshi kuchlar kurashidan iborat. Biri - Farhod, Shirin, Shopur va Mohinbonu obrazlarida yuksak insoniy tuyg'ular gavdalangan bo'lsa, Eron shohi Xisrav, uning atrofidagi kishilar hamda makkor Yosuman kampir obrazlari salbiy kuchlar ifodasi bo'lib xizmat qilgan. Aktyor Bahodir Jamolov ijrosidagi Farhod obrazi spektaklda lirik ariyalar, ta'sirchan musiqalar orqali talqin etilgan. Bahodir Jamolov barcha chiqishlarida sahnadagi partnyorlarini his qilgan holda Farhod obrazini boyitib borardi. Farhod obrazini ijro qilgan aktyor sahnada erkinligi va tabiiy ijrosi bilan ajralib turgan. Spektaklda makkor Yosuman kampirning musiqiy timsoli ham yaqqol va o'rinli ifodalangan. Aktrisa Anvara Olimova ijro etgan makkor va jodugar kampir Yosuman obrazi o'zining badiiy haqqoniyati, yovuzlik g'oyalari singdirilgan ariyalari va musiqiy ifodasi bilan alohida ajralib turadi. Aktrisa qahramonning kurashuvchan xarakteri, salbiy illatlarini dramatik va musiqiy ijro orqali namoyish etadi, butun spektakl davomida ijro tempo-ritmni bir maromda saqlaydi. Spektaklda Shirin obrazini Muhabbat Musayeva gavdalantirgan. M.Musayeva Shirin obrazi orqali Farhodga bo'lgan chin sevgisini namoyon qila oldi. Ayniqsa, Farhodning o'limini eshitgandan so'ng o'zi uchun zahar buyurib va o'zini olovga tashlab o'ldirmoqchi bo'lgan sahnalarida aktrisa sevgilisi uchun jon berishga tayyor ekanligini spektaklning har bir ko'rinishida, kuchli dinamik ariyalarida yaqqol namoyon etadi. Spektaklda sevgini o'ynab bo'lmaydi, aksincha, sevgi bilan sahnada yashash kerak degan g'oya ilgari surilgan. Farhod va Shirin obrazini yaratgan aktyor va aktrisalar butun spektakl davomida asar qahramonlarining ruhiyati bilan birga yashab ijro qilgani uchun asar o'z davrida muvaffaqiyatli chiqqan.

Buxoro viloyati musiqali drama teatrining rivojlanishida Alisher Navoiy dostonlari asosida yaratilgan sahna asarlari muhim o'rin egallaydi. Bu sahna asarlari Buxoro teatri aktyorlari uchun katta mahorat maktabini o'tagan.

San'atshunoslik fanlari doktori, professor T.Tursunovning ma'lumot berishicha: "1940-1945 yillar orasida Mirobid Musayev sahnalashtirgan spektakllar orasida "Nurxon", "Farhod va Shirin" (1942 yil), "Tohir va Zuhra" (1944 yil) ko'p jihatdan yetukligi va tomoshabopligi bilan e'tiborli edi. Shu davrdan e'tiboran teatrning ijrochi aktyor va aktrisalarining safi Nazokat Ne'matova, Aminjon Akobirov boshchiligida qator yosh iste'dodlar hisobiga to'ldiriladi" [1.474]. Ushbu spektakl 1944-1948 yillarda qayta tiklanib, repertuarga kiritilgan. 1951 yilda esa shoir va dramaturg Komil Yashin variantida yangidan sahnalashtirilgan.

“Farhod va Shirin” spektakli muvaffaqiyatidan so‘ng ushbu teatr jamoasi Navoiy “Xamsa”sidagi yana bir go‘zal doston - “Layli va Majnun”ni sahnalashtirish ustida ish olib boradi. 1945 yilda Xurshid inssenirovkasi asosida Bahodir Jamolov rejissyorligida “Layli va Majnun” musiqiy spektakli tomoshabinlarga taqdim etiladi. Asar musiqalari kompozitor Yunus Rajabiy tomonidan qayta ishlangan. “Buxoro teatri 1 may sanasida o‘zbek klassik shoiri Alisher Navoiyning o‘lmas “Xamsa” dostoni asosida dramaturg Xurshid tomonidan yozilgan “Layli va Majnun” musiqali dramasini tayyorladi” [2.85]. 1946 yilda Navoiyning bu asari sahna yuzini ko‘rib, birmuncha yutuqlarga erishgan. Lekin, 1947 yilga kelib, yangicha talqinda, ya’ni, Xurshid talqinidagi dostoniga Komil Yashin tomonidan o‘zgartirishlar kiritilib sahnalashtirilgan. Shu yilda sahnalashtirilgan musiqali dramada aktyor va aktrisalar tarkibi ham o‘zgargan. Ayrim manbalarda “Layli va Majnun” musiqali dramasida asar qahramonlarini sahnaga olib chiqqan aktyor va aktrisalar ijrosi haqida salbiy fikrlar bildirilgan. “Pesaning bosh qahramonlaridan Layli (aktrisa Muqaddaxon), Majnun (aktyor Sattorov) obrazlari ayniqsa, yetarlicha ishlanmagan. Qays (Majnun) obrazi o‘qimishli, fozil, o‘z fikriga sodiq, samimiy muhabbat tarafdori va o‘z davrining ilg‘or kishisi sifatida tasvirlanishi kerak. Lekin bu rolni bajargan artist Sattorov asarning bosh qahramoni Qays (Majnun)dagi ana shu ajoyib hislatlarni to‘la-to‘kis bera olmadi, uning harakatlarida ba‘zan sun‘iylik, haddan tashqari anqayib qolishlar ko‘riladi. (5-6 ko‘rinishlar)” [3.237]. Har qanday sepektaklda rol ijro etadigan aktyor va aktrisalar ijrosi har doim har xil bo‘lgan. Jonli so‘z san‘atida ijro bir xil bo‘lmaydi, sababi parda ochilishi bilan yangi kun, yangi tomoshabin va yangi muhitda aktyorlar oldingi ijroni eslab emas, yangidan yashab ijro qilishadi. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi asosiy g‘oyalar va musiqali dramaning badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berishda Gliyer va Tolibjon Sodiqovlar tomonidan yozilgan musiqalar muhim o‘rin tutgan.

B.Jamolovning mazkur spektakli to 1960-yillarga qadar bir necha bor qayta tiklanib, repertuardan tushmaydi. Bu davrda teatr repertuari ancha mustahkam, ijodiy jamoa esa o‘zbek va xorij dramaturgiyasini munosib sahnalashtiradigan darajada kuchga erishgan edi. 1960 yilga kelib, Buxoro teatri rejissyorlarining keyingi avlod vakillaridan bo‘lgan Aminjon Akobirov dostonni qayta sahnalashtiradi. Bu spektakl va 1978 yildagi qayta tiklangan varianti o‘n yildan ortiq vaqt mobaynida ijro etilib, aktyorlarning ijodiy mahoratini belgilovchi mezon-spektakllardan biri bo‘lib keldi.

Navoiy asarlari va jahon dramaturgiyasining mumtoz namunalari ustida tajribalar mamlakatdagi barcha teatrlarning ijodiy yuksalishiga ijobiy ta’sir etgan omillardan bo‘lgan. 1960-1980 yillar nafaqat poytaxt teatrlari, balki boshqa hududiy teatrlar safida Buxoro viloyati musiqali teatri ham o‘z qiyofasiga ega bo‘lgan, ijodiy imkoniyatlari kengaygan davr bo‘ldi. Buxoro teatri repertuari avval Navoiy ijodiy merosi bilan boyigan bo‘lsa, keyinchalik Alisher Navoiy siymosini yaratishdek jiddiy

izlanishlarga qo‘l ura boshlagan. Uyg‘un va Izzat Sulton qalamiga mansub “Alisher Navoiy” tarixiy dramasi o‘zbek dramaturgiyasida Navoiy siymosi gavdalantirilgan ilk sahna asari sifatida bugungi kunga qadar respublikaning aksariyat teatrlarida bir necha bor sahnalashtirilgani ma‘lum. Buxoro teatrida ushbu asarga 1952 yilda O‘zbekiston xalq artisti Javod Obidov qo‘l uradi. Spektakl bir necha yillar davomida repertuardan tushmay, ulug‘ Navoiy siymosi xalq mehriга sazovor bo‘ldi. Yosh aktyor Aminjon Akobirov asar markazida Alisher Navoiy siymosi turishini va Navoiyning barcha insoniy fazilatlarini, davlat arbobi va shoirligini o‘z ijrosida yaqqol namoyon qila oldi. Navoiy siymosini yaratib unga tamal toshini qo‘ygan O‘zbekiston xalq artisti Olim Xo‘jayev ijrosini kuzatgan A.Akobirov o‘zidagi kamchiliklarni ko‘rib, O.Xo‘jayevdan ijro sirlarini o‘rganib o‘z obrazi ustida izlanishlar olib borgan.

Amerika Qo‘shma Shtatlari tadqiqot universitetining direktori Vin Re Jon “Alisher Navoiy” dramasidan juda ta‘sir lanib bunday deb yozdi: “Navoiy” spektaklida aktyorlar ijrosi benihoya go‘zal va ta‘sirli, postanovka juda yaxshi chiqqan. Aktyorlar shu qadar tabiiy o‘ynadilarki, bu hol asarning asosiy ma‘nosini tushunib olishimiz uchun qiyinlik tug‘dirmadi. Navoiy obrazini yaratgan O‘zbekiston xalq artisti Olim Xo‘jayevga qoyil qoldim. Men ajoyib san‘atlari uchun o‘zbek aktyorlariga ta‘zim qilaman...” [4.6]. A.Akobirov yaratgan obrazi ham xuddi O.Xo‘jayevdek tomoshabinlar qalbidan joy olgan. Asardagi boshqa qahramonlarni Majiddin - A.Fayziyev, Mansur - H.Naimov, Husayn Boyqaro - H.Yo‘ldoshev, Abulmalik - A.Qodirov kabi aktyor va aktrisalar ijro qilishgan. Aktrisa M.Muxtorova ijrosida Alisherning sevgilisi o‘z yoriga vafodor Guli siymosini o‘zining xatti-harakatlari va asarning kulminatsiyasidagi ariyalari bilan mahoratini namoyon qila olgan.

Teatr jamoasi 1966 yilda ham ushbu asarni qayta sahnalashtiradi. Buxoro teatrining tajribali rejissyorlaridan biri Aminjon Akobirov asarni qaytadan tomoshabinga taqdim qilgan va bu spektakl ham oldin qo‘yilgan variantlaridan uncha farq qilmagan. Aktyorlar ijrosi professional baholangan va teatrning yetuklik davridagi spektakllardan biri bo‘lgan.

Mutaqillik yillarida Navoiy asarlari va Navoiy siymosiga murojaat respublika teatrlarida ham kuchaydi. Yangicha qarashlar, falsafiy yondashuvlar Navoiy siymosi va asarlarini tub mohiyatini ochib berish uchun rejissyorlar ijodiy izlanishlar olib borishgan. Buxoro teatri ham 1991 yilda Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasi ga qayta murojaat qilishdi. Aminjon Akobirov sahnalashtirgan bu asar tomoshabinlar qalbidan chuqur joy olgan. Teatrning yoshi ulug‘ aktyorlari hozirgi kunga qadar o‘sha spektaklni katta ijodiy maktab ekanligini e‘tirof etishadi. Bu o‘z-o‘zidan ustoz-shogird an‘analari davom etayotganidan dalolatdir.

Alisher Navoiy haqida spektakl sahnalashtirish, Navoiy siymosini sahnada jonlantirish har qaysi davrda, har qaysi rejissyor, aktyordan katta mahorat va iste'dod talab qiladi. Buxoro teatrining uzoq yillar davomida yuzaga kelgan ijodiy maktabidan mohir san'atkorlar yetishib chiqqani, ijodiy imkoniyatning mavjudligi shunday asarga qo'l urishga yo'l bergani tabiiy.

Buxoro teatrda hazrat Alisher Navoiy va uning merosi bilan bog'lik erishilgan barcha yutuqlar teatrning bugungi avlodi uchun namuna vazifasini o'taydi. Alisher Navoiy asarlari va Navoiy siymosi hozirgi kunda ham yurtimiz teatrlari repertuarida o'z o'rniga ega. Teatrning bugungi jamoasi o'tmishdagi shu ijodiy tajribalarni davom ettirishi ijodiy an'analarni yangi bosqichga ko'tarilishi uchun muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tursunov T. "XX asr o'zbek teatri tarixi". Toshkent: - 2010. 474-b.
2. Abdullayev A. "Layli va majnun" Buxoro teatrda. "Buxoro haqiqati" - 1946 y. 85-son.
3. Qozijonov M. "Layli va Majnun" postanovkasi haqida ba'zi bir mulohazalar. "Buxoro haqiqati" - 1947 y. 237-son.
4. Rahmonov M. "O'zbek teatri". Toshkent: - 1975. 6-b.

## TOJIXON TANOVORIGA HAYOT BAXSH ETGAN INSON

Guliruxsor Jo'rayeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filifali

**Annotatsiya:** Maqolada baxshi va baxshichilik an'analari hamda Xorazm vohasida o'zbek va turkmanlar orasida mashxur bo'lgan Otaxon Baxshi Matyoqubovning ijodiy faoliyati va uning Xorazm dostonchilik an'alarida tutgan o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Baxshi, baxshichilik, doston, improvizatsiya, folklor, Otaxon baxshi, baxshichilik san'ati, dostonchilik maktabi.

## THE MAN WHO GAVE LIFE TO TAJIKISTAN

Guliruxsor Jorayeva

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The article examines the peculiar epic tradition of the bakhshi of the Khorezm storytelling school, as well as the creative activity of Otaxon bakhshi, popular among the Uzbeks and Turkmen in the Khorezm oasis, and his role in the Khorezm epic traditions.

**Keywords:** folklore, bakhshi, storytelling, dastan, improvisation, folk dastans, storytelling art, dastan school

Ma'lumki, Xorazm dostonchiligi tarixida buyuk baxshi va oqinlar o'ziga xos maktab yaratib ketganlar. Ushbu boy ma'naviy merosimiz hisoblangan Xorazm dostonchiligi an'alarini bizga qadar shikast yetkazmay asrab kelayotgan ustoz baxshilarning mehnatlari alohida e'tiborga molikdir. Ana shunday baxshilardan biri el tanigan mohir Bola Baxshining duosini olgan, hozida muborak yoshlarini yashayotgan ko'hna Xorazm baxshisi Otaxon Matyoqubov qariyb 80 yildan beri sozini qo'ldan qoymay ijod qilib kelmoqda.

Otaxon baxshi Matyoqubov 1932-yilda Turkmanistonning hozirgi Toshovuz viloyatining Ilonli tumanida tug'ilgan. O'zbek millatiga mansub bo'lgan Otaxon baxshi 8 yoshdan maktabga borgan aynan shu yoshdan qo'shiqlarga, musiqaga mehri uyg'ongan. Urush yillari qalbi san'atga oshufta bo'lgan Otaxon Matyoqubov uchun juda og'ir kechdi. U urush tufayli otasidan, akasidan ayrildi. Yosh Otaxon onasi, opasi va uch singlisi bilan ochlik qiyinchilkda kun kechirdi.

1942-yillarda Ashxabodda turkman tilida "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Gulbulbul", "Tohir va Zuhra", "Sayyodxon Hamro", "Xurliqo

Hamro”, “Yusuf Ahmad” dostonlari chiqa boshlagan. Ustoz Otaxon Baxshi “bu dostonlar lotin alifbosida chop etilib, ularni o’qish qiyinchilik tug’dirmadi ya’ni bir marta o’qisam ikkinchi marta o’qishim shart emas edi, ohangi ham so’zi ham yodimda qolar edi. O’n yoshligimda 20 ga yaqin dostonlarni yoddan aytar edim” – deya eslaydi. Shulardan 12 tasi “Go’ro’g’li turkumidagi dostonlar o’n uchinchisi “Oshiq G’arib va Shohsanam”, o’n to’rtinchisi “Gulbulbul” dostoni va shu turkumdagi dostonlardir. Ustoz Otaxon baxshi barcha turkum dostonlarni yod olavergan.

1948-yili Otaxon baxshi hayotida muhim burilish ro’y berdi. O’zi xizmat qilayotgan to’ylarning biriga o’sha paytlari o’ta mashhur bo’lgan mohir baxshildardan biri Bola Baxshi (Otaxon baxshining kelgusidagi ustoz) tashrif buyurdi. Otaxon baxshi Bola Baxshi ijrosidagi o’zi yod olgan dostonlarini endi qo’shiq tarzida jonli eshitishga muyassar bo’lgan edi. Uning yod olish qobiliyati yuqori bo’lgani sabab Bola Baxshi tomonidan ijro qilingan qo’shiqlarni bir zumda yod oldi. Davralarda, yig’inlarda bu dostonlarni ijro qilib yuradigan bo’ldi. Maktab va yig’inlarga Otaxon baxshini taklif qilishar, baxshi ijrosidagi doston va qo’shiqlarni sevib tinglashar edi. Mana shunday kunlarning birida bu yosh ijodkor Komiljon Otaniyozovning e’tiboriga tushadi va u Otaxon baxshini o’zi bilan Xivaga Bola baxshiga shogirdlikka olib ketadi. Bola Baxshi ham Otaxon baxshining qobiliyatini qadrlab, yosh baxshini to’ylar va konsertlarga o’zi bilan olib ketadi. Bola Baxshi shogirdi Otaxon baxshiga katta ishonch bildiradi va katta to’ylarni, yig’inlarni o’z shogirdiga ishonib topshiradi. O’sha yillari Otaxon baxshi o’zbeklar orasida yosh baxshi sifatida yaxshigina tanilib qoladi.

O’zbekiston (1949), Turkmaniston (1964), Qoraqalpog’iston (1968) xalq artisti, jozibali va kuchli ovoz sohibi Komiljon Otaniyozov Otaxon Baxshini Toshkentga o’qishga chaqiradi. Otaxon Baxshi hamma narsani tashlab, Toshkentga oliygohda o’qish uchun keladi ammo imtixonidan o’ta olmaydi. Endi uyga qaytaman deb, xafsalasi pir bo’lib yurgan kunlarining birida o’sha yerda tanishgan og’aynisi Buxorolik Ro’ji ismli yigit “Bahor” ansambli tashkil etilyotgani va yaxshi rubob chaladigan sozandalarni qabul qilayotgani haqidagi xushxabarni yetkazadi. Vaholanki, o’sha paytlari ham Otaxon Baxshi mohir sozanda edilar. Ular ikkovlashib ansamblga borishadi va Otaxon Baxshi ansambl rahbarlariga ma’qul tushib, ishga qabul qilinadi.

O’sha yillari o’zbek ommaviy sahna raqsining asoschisi O’zbekiston xalq artisti (1937) Mukarrama Turg’unboyeva ham Bahor ansamblida faoliyat yuritardi. Otaxon baxshini Mukarram opa yoniga oladi. Oradan vaqt o’tib aniqrog’i 12-yildan so’ng Lazgi ansambliga ishga o’tib u yerda musiqa rahbari sifatida faoliyatini davom ettiradi.



Otaxon baxshi Matyoqubovni "Lazgi" ashula va raqs ansamblidagi 5 yillik faoliyatidan so'ng O'zbekiston davlat Filarmoniyasiga "Doston" guruhini tashkil etish uchun chaqiradilar. U yerda ham uzoq yillar faoliyat yuritgach, O.Matyoqubov O'zDSMI da ishlay boshladilar.

2020-yildan e'tiboran hozirgi kunga qadar Yunus Rajabiy nomidagi musiqa san'ati institutida talabalarga ta'lim berib kelmoqda.

Otaxon baxshi hozirda "Oqqan daryo oqar begumon" nomli yangi doston yaratish ustida ish olib bormoqda. Mazkur doston yaqin ikki yuz yillikdagi ilk doston bo'ladi, deydi ustoz ishonch bilan. O.Matyoqubov bizga nafaqat noyob kuy-qo'shiqlar balki bugungi kungacha yetib kelishi dargumon bo'lgan asarlarni ham asrab kelmoqda. Bulardan biri xalqimiz sevib tinglaydigan hamda hofiz va hofizalar tomonidan maroq bilan ijro qilinadigan "Tojixon tanovori"dir.

Ustoz Otaxon baxshi Mukarrama Turg'unboyeva va Saodat Qobulova bilan Tojixon Shodiyevaning yonlariga borib, qo'shiq tarixi va ijro yo'llarini o'zlaridan yozib olganlarini iftixor bilan eslaydilar. Hech qanday o'zgarishsiz, butunligicha bizgacha yetib kelgan bu noyob asarda Ustoz Otaxon Baxshining hissasi beqiyosdir. Ustoz shu kungacha yuzlab shogirdlarni tarbiya qilganlar Xorazm dostonchiligiga yaxshi mutaxasislarni yetishtirib chiqarishda Ustoz Otaxon baxshining mehnatlari ko'pdir, yoshlari ulug'ligiga qaramay Ustoz har bir talaba har bir shogirdi bilan charchamay 4-5 soatlab dostonlar ustida ishlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, 80 yildan beri sozini qo'ldan qo'ymagan Ustoz murabbiy Otaxon baxshi Matyoqubov o'zbek xalqining xazinasidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. O.Matyoqubovdek mohir baxshilar bor ekan baxshichilik an'analari o'zbek xalqining bitmas-tuganmas, noyob va mangu madaniy meros namunalarini avlodlardan-avlodlarga o'tib, sayqal topishida yanada odimlaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Imomnazarova Sh. Suyav baxshi ijodiy faoliyati va uning Xorazm dostonchilik an'analari rivojida tutgan o'rni / "Baxshichilik san'atining jahon madaniyati sivilizatsiyasida tutgan o'rni" nomli II xalqaro-ilmiy amaliy anjuman materiallari. --- Toshkent, 2021 yil 18-20 sentyabr. - B.210-214.

2. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. ИHB.№1730/11

3. Xalq og'zaki poetik ijodi O.Madayev T.Sobitova

4. Otaxon baxshi Matyoqubovdan jonli suhbat jarayonida muallif tomonidan yozib olindi.

5. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

6. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. *European Journal of Arts*, (1), 121-124.

7. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 9-14.

8. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.

9. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

10. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.

11. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 12-17.

12. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. *Перекрёсток культуры*, 1(4).

13. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

14. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 25-28.

15. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.

16. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

17. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий муסיқий ижрочилик санъатида бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.

18. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.

19. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

20. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 117-119.

21. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015 (pp. 318-316).

22. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. Oriental Art and Culture, (7), 160-170.

23. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). Oriental Art and Culture, (7), 144-151.

24. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1750-1758.

25. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. Oriental art and culture, 2(3), 62-75.

26. Qurbonova, M. (2020). SHET EL MUSIQASI TARIXIGA BIR NAZAR. Oriental Art and Culture, (V).

27. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 50-54.

28. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. Oriental Art and Culture, (V).

29. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 113-115.

30. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. Oriental Art and Culture, (V).

31. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. Oriental Art and Culture, (V).

32. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. International Journal of Culture and Modernity, 11, 90-96.

33. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 1144-1151.

34. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 54-59.

35. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. An International Multidisciplinary Research Journal.

36. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

37. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. Oriental Art and Culture, 2(4), 50-56.

38. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. International Journal of Culture and Modernity, 11, 412-418.

39. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. Oriental Art and Culture, 2(4), 149-155.

40. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. International Journal of Culture and Modernity, 11, 389-393.

41. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. Oriental Art and Culture, 2(4), 27-33.

## IJODKORLAR

Karim Yuldashev

Mamlakatxon Jo'rayeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Namangan viloyati musiqali teatrida ijod qilgan ijodkorlar va ularning faoliyatlari haqida so'z boradi. Rejissorlar, aktyor va aktrissalar ularning ijodi yoritiladi. Tarixga bir nazar bilan boqib, Namangan teatrining yetuk san'atkorlarining ijodlari bilan tanishamiz. Teatr rassomi M. Abbasovning ijodi haqida ham so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ijodkorlar, musiqali teatr, rejissorlar, aktyor

## CREATORS

Karim Yuldashev

Mamlakatkhon Jorayeva

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article is about the artists and their activities at the Namangan Regional Musical Theater. Directors, actors and actresses will cover their work. Let's take a look at the history and get acquainted with the works of the leading artists of the Namangan Theater. There is also talk about the work of theater artist M. Abbasov.

**Keywords:** artists, musical theater, directors, actors

Namangan viloyati musiqali teatrida 80 yil ichida qanchadan qancha rejissorlar, artistlar ijodiy faoliyat olib bordi. O'zbek milliy va jahon dramaturglarining sara asarlari sahna yuzini ko'rdi.

Birinchi bo'lib 1919 yilda Namanganga X.X.Niyoziy kelganda "Sharq truppasi" mehmoni bo'ladi va o'zining bir pardali asarini sahnalashtiradi. Demak, Namanganda birinchi rejissor X.X.Niyoziy.

1931 yillarda viloyatimiz teatrida rejissorlik-murabbiylik ishlarini O'zbekiston xalq artisti R.Xamroyev, A.Sultonov, N.Roziqiylar olib bordilar. Har bir obrazning ichki dunyosini ochishni, holatda, berilgan shart sharoitda yashay bilish sir-asrorlarini o'rgatdilar.

1936 yilga kelib O'zbekiston xalq artisti Amin Turdiyev rejissorlarga yordamlashish uchun keladi va bir nech yil teatrdan qolib ketadi. Teatrdan katta-katta asarlarni sahnalashtirib, muvoffaqiyatga erishadi. Amin Turdiyev 1929 yilda

Moskvada ochilgan o'zbek studiyasini tamomlagan va rejissorlik sirlarini yaxshi o'rgangan edi. Gogolning "Uylanish", Hamzaning "Tuhmatchilar jazosi", Xurshidning "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", G'.Zafariyning "Xalima" kabi asarlarini sahnalashtirdi va aktyorlarning mahoratini oshirishga ko'maklashdi. O'sha davrlarda teatrning yosh aktyorlari T.Ja'farova, M.Azizova, S.Raxmonov, M.Dadaboyevlarga ustozlik qildi.

1936 yilda Amin Turdiyev rahbarligi ostida viloyat teatri Toshkentga gastrolga boradi. Poytaxt tomoshabinlariga asarlarini namoyish etishadi. Tomoshalarda qatnashgan respublika rahbarlaridan biri A.Ikromov teatr jamoasiga shunday telegramma yuboradi: "Sizlarning qisqa muddatda yutuqlarga erishuvingiz, chindan san'atni egallagan, ayniqsa, yosh kadrlar yetishtirishda ko'rgan muvoffaqiyatlaringiz taqdir etarli bir narsadir. Bundan keyin ham xormasdan, charchamasdan o'zbek san'ati rivoji uchun ishlamo'g'ingizni istab qolaman". Bundan ko'rinib turibdiki, qisqa vaqt ichida rejissorlar va aktyorlar katta muvoffaqiyatlarga erishganlar.

Ikkinchi jahon urushi davrida S.Abdulla va Chustiy qalamiga mansub "Qurbon Umarov", G.Mdivanning "Front bo'ylab yangrar buyruq", I.Sultonning "Burgutning parvozi" kabi asarlarni sahnalashtirildi. Bundan tashqari Dneprodrejinskiy shahrining aktyorlari bilan hamkorlikda G.Artyomovskiyning "Dunay ortidagi zaporojyelik" asarini M. Dadaboyev sahnalashtirdi.

Urushdan keyin teatrga bosh rejissor qilib O'zbekiston xalq artisti Qudrat Xo'jayev tayinlandi. Qudrat Xo'jayev murabbiylik qilgan davrda jamoa ancha kuchga to'ldi. Shuning uchun bo'lsa kerak "Yurak sirlari", "Shohi so'zana", "Arshin mol olon", "Alisher Navoiy", "Unitilmas kunlar", "Xamza" asarlari sahnalashtirildi va bu yutuqlarda Qudrat Xo'jayevning xizmatlari katta bo'ldi.

1954 yilda Qudrat Xo'jayev Toshkentga Xamza teatriga xozirgi Milliy akademik teatriga chaqirtirib olindi.

1954 yili Namangan teatriga oliy o'quv yurtini endi bitirgan A.Xachaturov bosh rejissorlik lavozimiga tayinlanadi va u 1960 yilgacha mazkur teatrdagi ishladi. Ana shu davr teatr sahnasida va qisqa umr ko'rgan iste'dodli rejissor hayotining baxtiyor yillar bo'ldi.

A.Xachaturov jamoadagi tajribali ijrochilar imkoniyati va hali yosh aktyor va aktrisalarning ochilmay turgan layoqatlarini tez payqadi. Jamoa va rejissor bir-birlarini tez tushunib, katta safarbarlik bilan rejali ish boshlaydilar. Asosiy maqsad teatrdagi mavjud yaxshi an'analarni mustahkamlash, Namangan sahnasiga milliy va jahon mumtoz asarlarini dadil olib kirish, tajribali ijrochilar imkonini katta sinovdan o'tkazish, yoshlarga sahnada keng yo'l ochish edi. Ana shu maqsad yuzasidan A.Xachaturov, M.Dadaboyev bilan birga «Tohir va Zuhra», «Yurak sirlari» pyesalarini katta mas'uliyat hissi bilan sahnalashtiradi. Shu spektakllardan keyin teatr V.Shekspirning "Otello"sini qo'lga oladi.

“Tohir va Zuhra”da Zuhra rolini ijro etgan O.Tojiboyeva, Tohir rolini ijro etgan M.Isomiddinovlar shu spektaklning avvalgi nusxalarida M.Azizova, T.Ja’farova erishgan yutuq va an’analarni izchillik bilan davom ettirdilar. Bu narsa teatrdan odat tusiga kirganligini jamoaning saksoninchi yillar faoliyatida ham ko‘zga yaqqol tashlanadi.

“Yurak sirlari”da spektakldagi timsollarning katta-kichigidan qat’iy nazar ijrochi mahoratini to‘laroq ochishga e’tibor kuchaytirilib ish tutiladi. Chunonchi Ilxomni mashina haydovchisi Po‘latning uvoq roli sahna ustasi S.Rahmoniyga topshiriladi. Artist bu rolni muallifning voqea va timsollar qilmishlariga unsiz munosabatini anglatuvchi kimsadek qabul qilib ish tutadi.

Komediyaning yetakchi qahramonlaridan Sattorning ta’rifida artist M.Dadaboev qahramonning pesada mavjud qaysar va o‘jarlik sahnalariga ehtiyot bo‘lib, ijroda kechinmali holatga ko‘chib ish tutish rol badiiy qiymatini oshirar edi. Shu yo‘sindagi ijro M.Azizovning o‘ychan sanobarini xayolotda band timsoliga mos tushadi. Chunki teng huquqli yangi zamonda Sattordek ziyolini ham jufti-haloliga nisatan shubhagumonga to‘la xayoli qahramonning boshqa zamondoshlariga ham hos davr hosilasidek tipik holat edi.

«Otello»ga murojaat teatr faoliyatida ijobii natijalar bilan yakunlandi. Otello rovida M. Dadaboev, Dezdemoshada O.Tojiboyeva, Yagoda S.Rahmoniy, Rodrigo rovida M.Ubaydullayev katta yutuqqa erishdilar. Yutuq avvalo shu ediki, ishtirokchilar asar mazmuninig‘vya- tomoshabinga anglatishnigina emas, balki uning mohiyatiga kirib baholi qudrat o‘zlari tasavvur etgan obrazlar suvratini yaratishni maqsad qilib oldilar. Natijada «Otello»da yuksak muhabbat ulug‘lanib, qabohat, razillik emotsional bo‘yoqlarda qoralandi. Spektaklda muhabbat va insoniylikning qadri uning tug‘ilishi, sevgining go‘zal va hayotbaxsh qudratining bayoni singari mavzu mantiqlariga katta o‘rin berildi. Otelloning Dezdemon bilan uchrashuvi, uni Venesiyaning suv ko‘chasi uzra uyidan qayiqqa o‘tkazib olib ketish sahnasi o‘ziga xos go‘zal va faraxbaxsh edi. Ayniqsa, Otelloning buyuk odamiy, hissiy, insoniylik sifatlarini ta’riflashga rejissor va ijrochi M.Dadaboyev katta kuch sarfladi. Spektaklni bezashda rassom M.Abbosov alohida ijodiy ishtiyoq va tashabbus bilan mehnat qildi. Spektaklni tayyorlash jarayonining boshidan oxirigacha shohidi sifatida shuni aytishim mumkinki, uni chiqarish yuzasidan olib borilgan mehnat ishtirokchilarga ham rol, o‘ynamagan aktyorlarga ham ko‘ngilli mashq, ijod maktabi edi.

«Otello» misolida jamoa Shekspir ijodi bilan yaqindan tanishdi va unga talqin mehri astoydil oshdi. Shuning oqibati o‘laroq, teatr oradan besh yil o‘tgach, «Qirol Lir» tragediyasiga murojaat qildi.

A.Xachaturov sahnalashtirgan mumtoz asarlardan yana biri M.Lermontovning «Ispanlar» tragediyasi aktyorlar ijrochiligining tugalligi jihatidan juda ahamiyatli edi. Ayniqsa, Fernando rovida M.Ubaydullayev, Emiliya rovida M.Ubaydullayeva va

Roxib rovida A.Rahimov mustahkam ansambl yaratib, asar mohiyatini chuqur his etib, o'z rollarini ijro etdilar. Bu yillarning pishiq va baquvvat spektakllari qatoriga «Tohir va Zuhra», «Farhod va Shirin», «Ravshan va Zulhumor», «Alpomish», «Oshiq va G'arib» singari asarlar ham kiradiki, ularda M.Azizova, O.Tojiboyeva, T.Nazarova qahramonlariga sodiq yor, ijrochilariga hamnafas sifatida M.Mansurov ijrochilik layoqatining gullagan davri edi. Bu spektakllar avvalo ariya va duetlar bayramiga aylanardi.

Elliginchi yillar Namangan sahna ustalarining safi M.Ubaydullayev va M.Ubaydullayeva singari iste'dodlar bilan to'lish yillari bo'ldi. Shu davrdan e'tiboran, mazkur ijrochilar yetakchilar qatori talqinda mahorat namunalarini ko'rsatadigan bo'lib qoldilar. Oltmishinchi yillardan e'tiboran, Namangan teatri truppasini yangi avlod bilan to'ldirish jarayoni yana ham jadallashib ketadi. Musiqali drama janrida Tursunoy Mamedova, Habiba Oxunova va Mahmudjon Isomiddinov yetakchilar safidan o'rin oladilar. Truppaning dramatik qismi esa Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini bitirib kelgan aktyor va rejissorlar hisobiga to'ldirila boradi. Bularning orasida teatrning rejissorlari G.Kim, K.Yo'ldoshev, M.Asqarov, aktyor va aktrisalardan M.Zokirov, R.Xudoydatova, Sh.Azizova, A.Qoraboyev, R.Xamroqulov singari o'nlab iste'dodli ijrochilar bor edi.

M.Zokirov sahna realistik talqinlar prinsipini puxta egallagan va bu borada teatr ijodiy udumlarini olg'a suruvchi va chuqurlashtiruvchi yangi avlodlarning peshqadam vakili. Uning «QiroL Lir»dagi Edgar, «Qizbuloq»dagi Gung, «Faqat yigirma to'rt soat» spektaklidagi general Mazanxiashvili qiyofasini yaratish yuzasidan olib borgan samarali izlanishlari aktyorning imkon darajasini ochiq ko'rsatadi. Ijrochilikning qator janrlarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh ijodkor, R.Hamroqulov tengdoshlariga ijodda faol bo'lish tashabbusini namoyish eta boshladi.

M.Zokirov yonida oltmishinchi-yetmishinchi yillardan e'tiboran, sahnada faoliyat ko'rsatgan yoshlar musiqali drama janrida T.Saydullayev, K.Rasulov, drama va fojia bosh qahramonlari talqinida Rustam Hamroqulov boshliq iste'dodlar teatrning kelajagi bo'lib qad rosladilar T.Hamroqulovning Gamleti, T.Saydullaevning Mashrabi, K.Rasulevaning Zuhresi bu san'atkorlar kelajakda o'z muxlislarini katta talqin ixtirolari oilan xushnud etishiga kafolat edilar.

Teatrning yetmishinchi yillar faoliyati xususida shuni aytish kerakki, bu davrda truppada ijrochi kadrlarni professional bilimli mutaxassislar hisobiga ko'paytirish qizg'in tus oldi, repertuarda o'zbek, qardosh xalqlar va jahon klassikasi namunalarini sahnalashtirishda mushtarak natijalarga erishiladigan bo'lib qoldi. Masalan, 1972 yili sahnalashtirilgan V. Kandelakining «Faqat yigirma to'rt soat» (rejissor K.Yuldashev), 1977 yili sahnalashtirilgan M.Drusening «Kase Mare» (rejissor V.T.Apostol) spektakllari Butunittifoq va Respublika mukofoti, shuningdek diplomlariga sazovor bo'ldi. Shu davrda sahna yuzini ko'rgan «Rustam», «Ufq», «Xalima», «Layli va



Majnun», «Mashrab», «Tohir va Zuhra» asarlarini tomoshabinlar katta qiziqish bilan kutib oldi. V.Shekspirning «Gamlet», F.Shillerning «Qaroqchilar» fojialarining postanovkalarida M.Dadaboev, ayniqsa Karl Moor va Gamlet rollarining ijrosi yuzasidan M.Ubaydullayev katta ijodiy natijaga erishdilar. Yosh avlod vakillaridan M.Faxriddinova va R.Hamroqulov o'z imkoniyatlarini Ofeliya va G'arib rollarida sinab ko'rdilar.

Saksoninchi yillardan e'tiboran teatr sahnasida musiqali drama janrida ustozlar an'anasini O'rinboy Nuraliyev, Turdiali Saydullayev, Kamoliddin Rahimov, Habiba Oxunova, Tursunoy Mamedovalar sadaoqat bilan davom ettirdilar.

Mazkur janrda xassos solistkalardan Xabiba Oxunova xonishlarining dardli va fusunkor mundariyasi, Tursunoy Mamedovaning havoli qochirimlari, O'zbekiston xalq artisti Muxriddin Mansurov qo'shiqlarining vulqonli to'liqini o'sha chamanda kamol topdi. Sababi, uning Usta Ro'zimatxon Isaboev, Karimjon Mansurov singari bog'bon va nozikta'b ustozlari bor edi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Mahmudjon Isomiddinov, Turdiali Saydullayev, Kamoliddin Rahimov, O'rinboy Nuraliyevdek solistlar elning ardoqli san'atkorlari bo'lib, musiqali drama janrida faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan teatrdagi mavjud imkoniyatlar darajasini yuqori ko'tardi.

O'zbekiston xalq artistlari va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar M.Ubaydullayev, O'.Nuraliyev, O.Tojiboyeva, K.Rasulova, M.Raxmonov, V.Saydaliyev, shuningdek artistlardan S.Sarimsoqova, S.Omonov, M.Niyozov, M.Faxriddinova, X.Madraximova, U Mirzayev, A.Tojiboyev, A.Karimov, M.Abdullayeva singarilar teatr jamoasining Mustaqillik yillaridagi yetakchi ijrochilaridir.

Namangan teatri faxrimiz, bo'lak viloyat jamoalari, hatto respublika musiqali teatri ham unga havas qilsa arzigulik.

Teatr repertuari va ijro estetikasiga rahnamolik qiluvchi kuch dramatik plandagi artistlar bo'lib, teatrning butun tarixi davomida ularning o'zlari salmoqli realistik spektakllar yaratish bilangina kifoyalanmay, musiqali drama janrida mehnat qiluvchi artist va solistkalarga kuchli ta'sir o'tkazib keldilar. Natijada Namangan teatrning musiqali drama spektakllari o'zining hayotiy jozibasi, yetakchi ijrochilarining ijodi esa realistik emotsional kayfiyati bilan boshqalardan aniq farqlanib turdi. Fikrimizni Mukarrama Azizova, Tursunoy Ja'farova, Xabiba Oxunova ijodida mavjud bir-biriga yaqin hayotiy ijro jozibasi to'liq tasdiqlashi mumkin. Ijrodagi bu kayfiyat yarim asr davomida uzluksiz mavjud ekan, u teatr ijodiy qiyofasi, san'atkorlarning talqin uslubiga xos alomat ekanidan dalolat beradi. Shuni ham aytish kerakki, uni topshirishda usta Ro'zimatxon Isaboyev va Karimjon Mansurovlarning riyozatlari, ayniqsa salmoqli va tahsinga sazovor.

Drama, musiqali drama, xususan repertuarda hayotiy omillarni og'ishmay amalga oshirib kelgan dramatik artistlar orasida O'zbekiston xalq artisti Sobir Rahmoniy, respublikada xizmat ko'rsatgan artistlar Mirzajon Dadaboev, Akbar Rahimov va Mamatxon Ubaydullayevlar faoliyati alohida o'rin tutadi. Namangan teatri o'zligini belgilaydigan spektakllar doimo mana shu artistlar faoliyati bilan bog'liq bo'ladi - o'zbek, rus, sovet va jahon klassik dramaturgiyasi talqinlarining hamma, hammasi.

Namangan teatri postanovkalarida doim jamoaning ta'bi talqiniga xos alomatlar hukmron ekan, uning bayonida shu dargohda roppa-rosa qirq yildan beri ijod qilib kelayotgan bosh rassom, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Mutallib Abbosov xizmatlarining o'rni bo'lakcha. Bu kamtarin, shuningdek, injiq darajasida talabchan, zahmatkash rassomning teatrni hamma spektakllarida ishtiroki bor. Binobarin, uning bezak va yechimlari misolida teatr tarixi jarayonining ko'p sahifalarini o'qib olish mumkin: yutuqlarini ham, izlanish uqubatlariyu, toyilishlarini ham. U teatrdan qirqinchi yillardan e'tiboran ishlagan hamma rejissorlar bilan postanovka chiqargan.

Teatr hozir ijodiy, ayniqsa, tashkiliy jihatdan uyushqoqlik bilan ish ko'rmokda. Sababi, hayot saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqarilib, nihoyat jamoaga teatrni yaxshi tushunadigan, tashkilotchilik va insoniy fazilatlarini mushtarak kadrni topib rahbar qilib tayinlandi. Bu teatrga yetti yildan beri direktorlik qilib kelayotgan Erkin Qoraxonovdir. U san'at va jamoaning fidoyisi sifatida o'z sahna faoliyatining evaziga butun layoqatini rahbarlikka qaratdi va bu murakkab, nozik lavozimga ham o'zida iqtidor mavjud ekanini ko'rsatib, viloyat rahbariyati, shuningdek keng tomoshabinlar hurmatiga sazovor darajada ish olib bormoqda.

Namangan teatrining hozirgi faoliyatida yana bir ijobiy va ibratli an'ana bor. Bu truppani yosh va maxsus malakali kadrlar bilan to'ldirishda e'tibor va jonbozlikning muntazamligidir. Shuning uchun ham Namangan teatrida tasodifiy kadrlar kam, jalb etilganlari esa qo'lidan ish keladigan va jamoada o'rni bor odamlar.

Teatrdek murakkab ijodiy tashkilotda ishni biz zikr etganimiz darajada ta'minlash, birgina teatr rahbarlarining qo'lidan kelmasligi shubhasiz. Shuning uchun ham to'y bahonasida jarayonning shohidi sifatida mashaqqat va riyozati ko'p bu ishga katta mehr va mas'uliyat bilan rahnamolik qilayotgan viloyat rahbariyati va uning san'at, madaniyatga biriktirib qo'ygan mas'ul xodimlari mehnatini tilga olishni o'rinli deb o'ylaymiz.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. T. Tursunov O'zbek teatri tarixi –T., 2010
2. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M.T., Muxtorov I.A. O'zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T., 2003.

3. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: Sharq, 1997.
4. Istiqlol va milliy teatr (to‘plam). – T.: Yangi asr avlodi, 2002.
5. Tursunboyev S. Teatr tarixi. – T.: Bilim, 2005.
6. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
7. Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1998.
8. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
9. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
10. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
11. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
12. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
13. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
14. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
15. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
16. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
17. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).
18. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).
19. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.
20. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. International Journal of Culture and Modernity, 11, 1-7.

21. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.

22. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

23. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.

24. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.

25. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.

26. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.

27. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).

28. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.

29. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

30. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.

31. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.

32. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

33. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

34. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

35. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. *Hordo Structures in Central Asian Architecture*.

36. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.
37. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
38. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 37-43.
39. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.
40. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.
41. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.
42. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).
43. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.
44. Ёулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
45. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.
46. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
47. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
48. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## INGLIZ TILIDAGI ANTONIMLARNING BADIY MATNDAGI ROLI

Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi  
kamolaxon.oripova@gmail.com  
Qo'qon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Antonimlarni o'rganishning dolzarbligi xalqaro aloqalarning uzluksiz kengayishi sharoitida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi, bunda nutqning rejalashtirilgan pragmatik ta'siri ko'pincha nutqqa kiritilgan antonim iboralarni oladigan bo'lsak, muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Mamlakatimizda ingliz tiliga qiziqish kuchayganligi sababli, uning semantikasini, jumladan, antonimiya kabi kam o'rganilgan hodisani chuqur o'rganishga ehtiyoj bor. Ingliz tilida biz atrofimizdagi dunyoning his-tuyg'ulari, obyektlari va hodisalarini tasvirlash uchun foydalanadigan boy lug'at mavjud.

**Kalit so'zlar:** antonim, polisemantik, leksik, funksional, dialektik, kontekst, dennotat, universal, ildiz, affiksial.

## THE ROLE OF ANTONYMS IN THE LITERARY TEXT IN ENGLISH

Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi  
kamolaxon.oripova@gmail.com  
Kokand State Pedagogical Institute

**Abstract:** The relevance of the study of antonyms is particularly evident in the context of the continuous expansion of international relations, where the planned pragmatic effect of speech is often the key to success if we take the antonyms included in the speech. As interest in the English language grows in our country, there is a need for an in-depth study of its semantics, including a little-studied phenomenon such as antonymy. English has a rich vocabulary that we use to describe the emotions, objects, and events of the world around us.

**Keywords:** antonym, polysemantic, lexical, functional, dialectical, context, dennotate, universal, root, affixal.

Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi ma'lum bir tarzda tashkil etilgan tizim bo'lib, uning elementlari (so'zlar, ma'nolar) turli munosabatlar orqali bog'lanadi. Lug'at tarkibidagi tizimli munosabatlarning ko'p ko'rinishlaridan biri antonimiyadir.

Akademik N.M.Pokrovskiy shunday deb yozgan edi: "So'zlar va ularning ma'nolari bir-biridan alohida hayot kechirmaydi, lekin bizning ongimizdan mustaqil

ravishda turli guruhlarga birlashtiriladi va guruhlash uchun asos asosiy ma'nodagi o'xshashlik yoki to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilik hosil bo'ladi".

Antonimlar (gr. anti - qarshi + onyma - ism) tovush jihatidan farq qiluvchi, bevosita qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Antonimlar, qoida tariqasida, nutqning bir qismiga ikki so'z ya'ni juftlikdan iborat bo'lgan so'zlar orqali bog'lanadi.

Falsafada "qarama-qarshilik" atamasi qarama-qarshilikning rivojlanish darajalaridan birini ifodalovchi kategoriya sifatida tushuniladi. Mantiq "qarama-qarshilik" atamasini o'ziga xos tarzda izohlaydi. "Qarama-qarshilik" - bu dialektik qarama-qarshilik tomonlaridan birini ifodalovchi kategoriya bo'lib, u bir-birini istisno qiluvchi, lekin ayni paytda o'zaro va bir-biriga kirib boradigan qarama-qarshiliklar va uning holati yoki tushunchasi, bayonotlari, nazariyalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'z ichiga oladi. So'nggi paytlarda antonimiyalar tadqiqotchilarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda va shunga mos ravishda antonimiya hajmi masalasi ham batafsil o'rganilmoqda. MM.Shanskiy ta'kidlaganidek, "antonimlar - bu bir-biriga qarama-qarshi, lekin o'zaro bog'liq tushunchalarni ifodalovchi turli xil tovushli so'zlardir"<sup>1</sup>. Tilshunos L.A.Novikov shunday yozadi: «So'zlarning ikki yoki undan ortiq leksik-semantik variantlari turli belgilar (leksemalar) va qarama-qarshi ma'nolar (semalar)ga ega bo'lsa, antonim hisoblanadi»<sup>2</sup>. Binobarin, antonimiyaning mantiqiy asosini qanday tushunchalar (qarshi yoki qarama-qarshi) tashkil etadi, degan savol ilmiy adabiyotlarda turlicha hal etiladi. Qarama-qarshi tushunchalar antonimiyasining mantiqiy asos sifatida tan olinishi geterogen leksemalarni (ulardagi semantik qarama-qarshilik rasmiy ifodaga ega emas, u so'z semantikasi orqali uzatiladi) bir-birini antonim sifatida tasniflash imkonini beradi. (ulardagi qarama-qarshilik salbiy ma'nolar, manfiy qiymatli prefikslarning mavjudligi yoki yo'qligi yordamida shakllanadi). So'zlarning grammatik sinflari - gap bo'laklari va antonimlarning semantik kategoriyasi o'rtasidagi munosabat masalasini ko'taruvchi turli gap bo'laklarining antonimiyasi faktlari tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolmaydi.

To'g'ri, antonimlar nutqning bir bo'lagiga tegishli bo'lishi kerak, lekin buni shunday so'zsiz qabul qilish kerakmi? Nutqning turli qismlariga mansub antonimlarning mavjudligining ob'ektivligi ularni kontekstual bilan solishtirganda ham namoyon bo'ladi: ikkinchisi, birinchisidan farqli o'laroq, matndan tashqarida antonim emas. Qizig'i shundaki, turli gap bo'laklariga mansub antonimlar nutqning bir qismidagi so'zlarning antonimiyasida mos kelishi mumkin. Biroq, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday yozishmalar har doim ham sodir bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, antonimlar nutqning bir bo'lagiga mansub so'zlardir, lekin badiiy matnda turli gap bo'laklarining antonimlari va bir bo'lakning antonimlari bilan

<sup>1</sup> Шанский М.М. Антонимы.-М.:Висшая школа, 1989.-с.63

<sup>2</sup> Новиков Л.А. Семантика русского языка.- М.: Высшая школа, 1982.- 272с.

birga tizimli qo'llanishini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. L.A.Novikov "antonimlar bir-birini inkor etibgina qolmay, balki ijobiy mazmuni bilan ham ajralib turadi", ya'ni qarama-qarshi belgini ta'kidlaydi, deb hisoblaydi. Tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan antonimlarni ajratib ko'rsatishning lingvistik mezonlaridan biz quyidagilarni asos qilib olamiz:

1. Leksik-semantik:

a) antonimlarning bir xil umumiy tushunchani ifodalashi, bir reja hodisasini tavsiflashi, ya'ni arxisemasiga yoki "umumiy sema"ga ega bo'lishida namoyon bo'ladigan semantik umumiylik;

b) qarama-qarshi semantikaning mavjudligi. O'zaro bir-birini taxmin qiladigan va bir-birini istisno qiladigan, antonimik xususiyatga ega so'zlar o'rtasidagi munosabatni ta'minlovchi semalarning nomlanishi uchun qo'llaniladi. Bu semalarning mavjudligi antonimlar orasidagi qarama-qarshilikni ta'minlaydi. Grammatik: antonimlarning bir xil, o'xshash kontekstli muhitda qo'llash qobiliyati, semantik umumiylik mezonidan kelib chiqadi .

3. Funksional: til va nutqda muntazam qarama-qarshilik.

Antonimlarni qarama-qarshilik xususiyatiga ko'ra tasniflash masalasi tadqiqotning muhim masalalaridan biridir. L.A.Novikov antonim so'zlarning qarama-qarshilik munosabatlariga kirishi uchun uchta xususiyatni ishlab chiqdi:

1) bosqichma-bosqichlik 2) harakatning yo'nalishi yoki yo'nalishi bo'lmaganligi 3) bir hodisa yoki jarayonga (ya'ni bir denotatga) mos kelishi - turli denotatlarga mos kelishi.

Antonimlarning ajralib turadigan asosiy sinflari nomdagi uchta qarama-qarshilik turiga mos keladi.

Matnda ham, uning tashqarisida ham qarama-qarshi ma'nolari ma'lum bo'lgan antonimlar bilan bir qatorda ma'lum bir matndagina, faqat ma'lum bir vaziyatdagina antonimik munosabatga kirishadigan so'zlarni ko'p uchratamiz. Ko'pincha bunday so'zlar ko'chma ma'noda qo'llaniladi va matndan tashqarida ular qarama-qarshi ma'noga ega emas, ya'ni umumiy foydalanishda ular antonim emas.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'z ma'nosi uchun eng umumiy va muhim semantik xususiyati bilan qarama-qarshi bo'lgan so'zlar antonimlar deb tan olinishi mumkin. Antonimlarni tanlash mezonlari sifatida quyidagilar ilgari surildi: berilgan gapda so'zlarni qarama-qarshilikda ishlatish imkoniyati; leksik muvofiqlikning bir xil sohasi. Ikkita so'z guruhi aniq ajralib turadi, ularning ma'nosi antonimdir. Ularning bir-biridan farqi voqelikning turli segmentlarining bo'linishi va ularda ajralib turadigan xususiyatlarning so'z ma'nolarida ifodalanishi bilan bog'liq. Yuqorida aytilganlar bilan bog'liq holda, antonimlarning asosiy guruhi ma'lum sifatlarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganligini aniqlash mumkin bo'lib, ularni tanlash faqat qarama-qarshi ma'nolar yordamida ushbu sifatlarning bo'linishi sifatida qarash



mumkin. So'zlarning antonimik qarama-qarshiligi, ular uchun konstruktiv zarurdir. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar nutqda muntazam ravishda antonim sifatida, ya'ni bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan holdagina tilda mavjud bo'lishi mumkin. So'zning antonimi va to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshiligi bilan birga qo'llanadigan kontekstlarga antonimik kontekst deyiladi. V.N. Komissarov barcha antonimlarni ikki guruhga bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi: ildiz va affiksial antonimlar.

U bizning e'tiborimizni zamonaviy ingliz tilidagi o'zak so'zlarda - antonimlarning beshta tipik antonimik kontekstda muntazam ravishda takrorlanishiga qaratadi. Odatda kontekst 1 universallik qiymati bilan tavsiflanadi (barchasi - A va B). Qarama-qarshi so'zlar bog'lovchi yoki ajratuvchi bog'lanish orqali bog'langan gapning bir hil a'zosi sifatida qo'llaniladi.

If you have obeyed all the rules, good and bad, and you still come out at the dirty end, then I say the rules are no good.

(M.Wilson, Life with Lighting.)

Odatda kontekst 2 to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilik qiymati bilan tavsiflanadi. Qarama-qarshi so'zlar gapning bir hil a'zosi sifatida ishlatiladi. The girl was alive, not dead.

(B.Show, The Apple Cart.)

Tipik kontekst 3 muqobillik (A yoki B) qiymati bilan tavsiflanadi. Qarama-qarshi so'zlar gapning bir hil a'zosi sifatida ishlatiladi, ajratuvchi bog'lanish orqali bog'lanadi.

You will see if you were right or wrong .

(A.Cronin, The Harther's Castle.)

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir juft antonim bir yoki bir necha tipik kontekstda muntazam ravishda qarama-qarshi qo'yiladi. Antonim so'zlar leksik yaxlitlik sohalarining deyarli to'liq mos kelishi bilan tavsiflanadi, bu esa ularning qarama-qarshilikni ifodalovchi kontekstlarda muntazam qo'shma qo'llanishiga imkon yaratadi. Antonimik munosabatlar nutqning turli qismlarida mavjudligiga e'tibor berish kerak, lekin eng aniq shaklda ular sifatlar bilan ifodalanadi. Bir xil polisemantik sifat bir vaqtning o'zida turli xil ma'nolari bilan bog'liq bo'lgan bir nechta antonimlarga ega bo'lishi mumkin, masalan:

nonelastic:

flexible

floopy

droopy

plastic

elastic

Shunday qilib, antonim sifatdoshning o'rniga o'zgartirilgan gaplar o'z ma'nosini yo'qotmaydi, aksincha, qarama-qarshi ma'no kasb etadi. Demak, ayrim kontekstlarda

antonimlardan biri boshqa antonim bilan almashtirilishi mumkin va bu tarzda o'zgartirilgan matn nafaqat o'z ma'nosini yo'qotib qo'ymaydi, balki juda aniq o'zgaradi - berilganga to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshi bo'lib qoladi. O'zaro almashish imkoniyati antonimiyaning qo'shimcha mezonini bo'lib xizmat qiladi.

### References

1. Балли Ш. Противопоставление логических понятий. -К: Высшая школа; 1991. -139 с.
2. Бережан С.Г. Семантическая эквивалентность лексических единиц. - Кишинев: Штиинца, 1973.- 372с.
3. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. -М. Политвидавнитство, 1953.-Ч.2,С.45. 4.Новиков Л.А. Логическая противоположность и лексическая антонимия. Рус. язык в школе.- 1966.- №4.- С.79-87.
5. Новиков Л.А. Семантика русского языка.- М.: Высшая школа , 1982.- 272с.
6. Hornby. Oxford Advanced Learner's Dictionary of current English. Oxford University,1995
7. Шанский М.М. Антонимы.-М.:Высшая школа, 1989.-с.63

## O‘ZBEK MUMTOZ ASHULALARI TALQINI (JALOLIDDIN RUMIYNING “BILMASSEN” ASARI MISOLIDA)

Nabijon Qodirov

Yu.Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy mumtoz ashulalarimiz tarkibiga kiruvchi mashhur ashulalardan biri Jaloliddin Rumiyning “Bilmassen” asarini *irfoniy* usulda talqin qilingan.

**Kalit so‘zlar:** san’at, musiqa, ashula, talqin, asar, g‘azal, irfon, tasavvuf, ma’rifat, ishq, Samo’, mumtoz.

## INTERPRETATION OF UZBEK CLASSIC ASHULAS (ON THE EXAMPLE OF JALALIDDIN RUMI'S WORK "BILMASSEN")

Nabijon Qodirov

Uzbek National Institute of Musical Arts named after Yu.Rajabi

**Abstract:** In this article, one of the most popular songs of our national classics, Jalaliddin Rumi's "Bilmassen" is interpreted in an epistemic way.

**Keywords:** art, music, singing, interpretation, work, ghazal, gnosis, mysticism, enlightenment, love, Heaven, classic.

O‘zbekistonda musiqa san’atining tarkibiy qismi bo‘lgan mumtoz ashula ijrochiligi zamonaviy talablar asosida rivojlanib bormoqda. Bunda iste’dodli yoshlarning faol ishtirok etayotganligi kishini ruhlantiradi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ayni paytda, mumtoz ashulalarimiz ijrochiligiga oid bir qator ilmiy masalalarni hal qilib olish vazifasi mutaxassislar va keng jamoatchilik oldida turibdi. Ana shunday masalalardan biri o‘zbek mumtoz ashulalarini *talqin qilish* masalasidir. Musiqa san’atining vakillari mumtoz ashulalarimizning mazmunini individual tushinishlari sir emas. Biroq, keng jamoatchilikka manzur bo‘ladigan talqin usullarini yaratish yo‘lidan borishimiz maqsadga muvofiqdir. Bu masala ayniqsa, milliy musiqa ta’limini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, maqom san’ati bilimdoni O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev o‘rinli ta’kidlaganidek, “ijodkor ma’naviy merosini butun go‘zalligi, fasohati bilan to‘laonli holda kelajak avlodlarga yetkazishi katta ahamiyatga ega”.

O'zbek mumtoz ashulalarini talqin qilishning yo'nalishlari ko'p. Ulardan nisbatan to'laqonlirog'i *irfoniy* talqindir.

*Irfon* atamasi - bilish, anglash va tushunish ma'nolarini anglatadi. *Irfon* tasavvuf ta'limotining bilish usuli bo'lib, unda Haq taoloning ma'rifati ruhiy tasavvur va hissiy-shuuriy (intiutsiya) asosida anglab yetiladi.<sup>1</sup> Haq taoloning ma'rifati deganda Abu Usmon Hujviriy (XI asr) ta'kidlaganidek, "Ollohning ismlari, sifatlari, zotining qudsiy nurlari, insonning ruhiy kechinmalari, hayvonot va nabotot olamining mohiyatini his, tuyg'u va idrok bilan o'rganish tushiniladi".<sup>2</sup> *Irfoniy* bilishning metodi *ishq* bo'lib, u insonda tasavvur, xotira va idrokni rivojlantiradi. Shu sababli *irfoniy* ifoda badiiy ramzlar, timsollar va ishoralarga asoslanadi hamda har bir narsaga *ichki ma'no* beriladi.

Ushbu maqola orqali milliy mumtoz ashularimiz tarkibiga kiruvchi mashhur ashulalardan biri Jaloliddin Rumiyning "Bilmassen" asarini *irfoniy* usuldagi talqinini keng ommaga yetkazishni maqsad qildik. Mazkur asar O'zbekiston Respublikasi xalq artisti Sherali Jo'rayev tomonidan ma'no-mazmuniga mos ravishda go'zal kuyga solinib ijro etilgan va milliy musiqa ixlosmandlari qalbidan chuqur joy egallagan.

Mavlono Jaloliddin Rumi (1203-1270) musiqa san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan mutafakkirlarimizdan biri, o'zidan keyingi mutafakkirlarga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. U o'zi asos solgan tasavvufning Mavlaviya tariqatida musiqa, ashula va raqs mujassam bo'lgan Samo' tushish odatiga izn bergan<sup>3</sup> va o'zi ham vaqti-vaqti bilan charx urib raqsga tushar edi<sup>4</sup>. Shogirdlari esa Samo' bazmida Rumiyning serma'no g'azallari va ruboiylarini avj pardada kuylashardi.

Rumi Surxondaryoning Termiz shahrida tug'ilgan, mo'g'ullar istilosi tufayli Runga (Turkiyaga) ko'chgan va yo'lda - Eronning g'orlaridan birida mashhur Farididdin Attorni (1145-1221) ziyorat qilishadi<sup>5</sup>. Keksayib qolgan Attor yosh Rumiyni duo qiladi va o'zining "Ilohiynoma" asarini unga sovg'a qiladi. Bu kitob Rumi dunyoqarashining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi<sup>6</sup>.

Aytishlaricha, besh yoshli Rumi o'rtoqlari bilan tomda o'ynab o'tirganida yashil kiyimli mavjudotlar uni olib uchishadi va bundan bolalar cho'chib faryod ko'tarishadi<sup>7</sup>. Mutaxassislar bu mavjudotlarni farishtalar bo'lgan, - deb hisoblashadi<sup>8</sup>.

Mo'g'ullar Osiyo qit'asini g'orat qilib, Runga (Turkiyaga) yetib kelishadi. Shunda Rumi ular bilan muzokara olib borib, o'lpon to'lash evaziga Turkiyani

<sup>1</sup> Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning tutgan o'rni.-T.: "Akademiya". 2007. 6-b.

<sup>2</sup> аль-Худжвири. Раскрытие. скрветого (Kashf ul-mahjub). М.: «Единство». 2004. 266 с

<sup>3</sup> Ислам. Энциклопедический словарь.-М., 1991.

<sup>4</sup> Radiy Fish. Jaloliddiy Rumi.-T., 1986.

<sup>5</sup> Shu manba

<sup>6</sup> Gulpinarli M. Mavlono Jaloliddin.-M., 2007.

<sup>7</sup> Komilov N. Tasavvuf.-T., 2009.

<sup>8</sup> Gulpinarli M. Mavlono Jaloliddin.-M., 2007.

istilodan saqlab qoladi - mo'g'ullar Turkiyaga kirmaydi<sup>9</sup>. Amir Temur (1336-1401) iborasi bilan aytganda, "ko'ngli ko'zidek kichik bo'lgan"<sup>10</sup> mo'g'ul istilochilarini Rumiylar tafakkur kuchi bilan yenggan edi.

Mavlono Jaloliddinning g'azallari bilan ijro etiladigan ashulalar ichida "Bilmassen" ashulasi sirli ma'nolarga boyligi bilan ajralib turadi. Ashulaning boshlanmasi quyidagicha:

Ko'ngul ichra nechuk olam, nechuk sulton, bilmassen,

Tanim sarg'aydi, poyim ustuvor chandon, bilmassen.

Abu Usmon Hujviriy (1003-1077) "Kashf ul-mahjub" (Sirlar kashfi) asarida saboq beradikim, "Ko'ngul" - olami kubro, ya'ni ilohiy fayzlar mavjlanadigan katta olam, "Sulton" - ilohiy fayzlar zuhuri<sup>11</sup>. "Tanning sarg'ayishi" ga shu fayzlarni anglatuvchi Ishq sabab, ammo bu holat "Jadal harakat qilish"ga monelik qilmaydi. Shu ma'noda baytning irfoniy ma'nosi quyidagicha: "Ezgulik va insoniyliklar majmui bo'lgan ilohiy fayzlarni Ko'nglingdan angla, men shu sababli iztirobdaman, lekin buni bilmassen". Rumiylar kabi mutafakkirlar tanbehida samimiyat ustuvor bo'ladi va ko'p hollarda bundaylar o'zlariga ta'na qiladilar. Mazkur g'azalda Rumiylar rabboniylik, ya'ni fikrning avj pardasida<sup>12</sup> turib so'zlaydi (ikkinchi bayt):

Munavvar bir Quyoshmen, dur to'la to'lqinmi ummonmen,

Zamin tegramdadur, dilda yashar osmon, bilmassen.

Ya'nikim, "Inson beminnat nur sochuvchi Quyoshdir, dur beruvchi dengizdir, uning atrofida zamin (butun olam) charx uradi, chunki uning Ko'nglida olamning (osmon) siru-asrori mavjud - bilmassen".

Bunga sabab - insonning Ko'ngilga egaligidir. Hadisi qudsiyda kelishicha, "Alloh taolo bir kecha-kunduzda insonning ko'ngliga yetmish ming marotaba ilohiy fayz nazari bilan qaraydi". Shu sababli inson Borliqning sharafli toji, butun olam unga talpinadi. Rumiylardan so'radilar: "Muhammad alayhissalom ustunmi yoki avliyo Boyazid Bistomiy?" Mavlono nim tabassum bilan javob berdi: "Bizni sinamang, Rasuli Akbar ustun. Chunki u zot har kuni Ko'nglidagi ilohiy fayzlarni yetmish ming marotaba anglardi va hazm qilardi; Boyazid janoblari butun umri davomida bitta fayzni anglab yetdi va bundan shoshib qolib, Ulug'men, ulug'men – shon-sharafga to'lig'men deb baqirdilar"<sup>13</sup>. Rumiylar insonni ana shunday sevardi, bir kuni shogirdlariga dediki: "Men hamma insonlar bilan birgaman". Shunda bir kishi uni sinash uchun haqorat qildi va Rumiylar tabassum bilan "Bundaylar bilan ham birgaman", - dedi<sup>14</sup>.

<sup>9</sup> Radiy Fish. Jaloliddiy Rumiylar.-T., 1986.

<sup>10</sup> Temur Tuzuklari.- T., 2013.

<sup>11</sup> Хужвири А.У. Раскрытие скрытого.-М., 2004.

<sup>12</sup> Shu manba

<sup>13</sup> Radiy Fish. Jaloliddiy Rumiylar.-T., 1986.

<sup>14</sup> Gulpinarli M. Mavlono Jaloliddin.-M., 2007.

To‘rtinchi bayt:

Jahon bo‘stonida bir bol aridek uchganim - uchgan,  
Asaldek so‘zlarim, senga pinhon, bilmassen.

Bol ari nafaqat asal yig‘adi, agar birovni chaqsa o‘zi o‘ladi. Rumiyl demoqchiki, “Ko‘nglida ilohiy fayz bor inson bol aridek purma’no hikmatlarni odamlarga tortiq qilishi kerak, bunday insonning qo‘lidan birovga yomonlik qilish kelmaydi”. Rumiyl kabilarni tinglash insonni poklaydi, qaniydi bol ariga o‘xshash odamlar ko‘paysa...

So‘nggi bayt:

Aql begona senga, yo‘q emish fahmu farosat ham,  
Bilarmen deb dam urma, deganing yolg‘on, bilmassen.

Aql, fahm, farosat va dam (nafas) faqat insonga xos bo‘lib, ular “Ko‘ngildagi ilohiy fayzlardan nur olish bilan yetuklashadi”<sup>15</sup>. Bu tuyg‘ularning dushmani Nafsdur. Irfon falsafasi vakillari barcha noinsoniy illatlarni Nafsga yo‘yadilar, hatto Burhoniddin Rabg‘uziy (1260-1315) deydiki “Odamning nafsi qilgan ishni yetmish shayton qilolmas”<sup>16</sup>. Shunday ekan, Nafsoniy tuyg‘ularni jilovlay olmaslik Aql, Fahm, Farosat kabi eng sof tuyg‘ularning rivojlanmasligiga olib keladi. Natijada inson qadsizlanadi, o‘zligini anglamaydi va o‘zgalarni qadrlashni bilmaydi. Rumiyni mana shu kabi muammolar qiynagan.

Mumtoz ashulalarimizning ma‘no-mazmuni, falsafasi va badiiy xususiyatlarini anglash bir necha jihatlari bilan foydali hisoblanadi: *birinchidan*, yoshlarnu yuksak ma‘naviyat ruhida tarbiyalash ishlarining ko‘lami kengayadi; *ikkinchidan*, zamon sinovlaridan o‘tgan mumtoz ashulalarimiz bilan tanishtirishning ilmiy asoslari kuchayadi; *uchinchidan*, yosh xonandalarning mumtoz ashula ijrochiligi mahoratini shakllantirish ishlari takomillashadi; *to‘rtinchidan*, mumtoz ashulalarimizning musiqiy tahlilida turli yo‘nalishlar yuzaga keladi; *beshinchidan*, jamiyatda mumtoz musiqa madaniyatining darajasi yuksaladi.

Hofizlarimiz bunday ashulalarni kuylash bilan elimizga fayz nurlarini taratib kelmoqdalar, bu kabi ashulalarning musiqalari ham dilxush ekanligini eslatib qolish joiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jaloliddin Rumiyl, T., 1986; Jumayev R., Mavlono Jaloliddin Rumiyl, T., 2003.

<sup>15</sup> Хужвири А.У. Раскрытие скрытого.-М., 2004.

<sup>16</sup> Rabg‘uziy B. Qissasi Rabg‘uziy. 1-kitob.-T., 1992.

## STAGES OF HISTORICAL DEVELOPMENT AND REPERTORY OF FOLKLORE AND ETHNOGRAPHIC COMMUNITIES OF TASHKENT

Isaev Kamoliddin Saidovich  
kamoliddinisayev85@mail.ru

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** In recent years, Uzbek national folklore performing arts, stages of development and historical development of folklore and ethnographic communities, repertoire of groups, performance skills have been conducted by experts in the field, folklorists. However, the history of folklore and ethnographic communities of Tashkent-Fergana regions, especially the folklore and ethnographic communities operating in Tashkent, and aspects related to their repertoire have not been fully studied. This article provides a scientific analysis of the historical and development stages and repertoire of folklore and ethnographic communities in Tashkent.

**Keywords:** Folklore, folklore-ethnographic communities, repertoire, ethnography, performing arts.

*Introduction.* Folklore samples, which are the most ancient manifestations of a nation's culture and spirituality, reflect the way of life, life experience, achievements and successes of that nation. That is why it has been passed down from generation to generation for centuries, serving as a "school of life" in educating young people. Folklore, which embodies the national spirit, unique sincerity and beauty of our ancient culture, has been enriching the spirituality of our people for centuries, deepening their consciousness and feelings, as a true spiritual treasure, an inexhaustible spring. This great heritage of our ancestors awakens in the hearts of the nation the desire for good intentions and great goals, love and faith in the motherland.

*Main part.* Due to the policy pursued by President Mirziyoyev on the development of spirituality, enlightenment and culture, the national spirit has been growing for centuries, today it is a comprehensive school of example, following the ancient traditions and following millions of people. One of the creative artists who are instilling the seeds of spirituality in the hearts of young people is the folklore and ethnographic community.

Today, folklore and ethnographic communities serve as a creative laboratory of diligence and dedication in preserving the ancient traditions of our people, unique examples of folklore, polishing them and returning them to our people. In recent years, the activities of folklore and ethnographic communities in Tashkent have changed significantly. A number of folklore and ethnographic groups have been formed, among which the most active folklore and ethnographic groups have been

awarded the title of "People's Amateur Team" by the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan. Folklore and ethnographic groups such as "Gavhar", "Nodirabegim", "Uzbekoyim", "Hilola", "Buvijonlar", "Durдона" are among them.

The repertoire of folklore and ethnographic groups in Tashkent includes scenes reflecting kindness, generosity and human qualities, which are a means of national values and traditional ceremonies. The resulting creative freedom, spiritual renewal began the process of bringing folklore works to life more widely. For example, the national holiday Navruz, which embodies the most beautiful examples of the artistic potential of our people, has been revived songs, customs and ceremonies associated with the world. The history of the origin of Navruz, the stages of development, the artistic features of the folklore works in it, the local symbols associated with the celebration of the holiday have emerged. Traditions related to "Beshik Toi", "Kelin Salom", "Nikoh Toi", "Sumalak Sayli", "Bolani Besikka Belash", "Kelin-Kuyovni Chimildiq", "Sunnat Toi", "Gul Sayli" our ancient customs have come back to life.

During the years of independence, Uzbek national folklore has been researched by specialists in the field of performing arts, ethnocultural values, stages of development and historical development of folklore and ethnographic groups, repertoire of groups, performance skills, folklore scholars. However, the history of folklore and ethnographic communities of Tashkent-Fergana regions, especially the folklore and ethnographic communities operating in Tashkent, and aspects related to their repertoire have not been fully studied.

From the 80s of the XX century, folklore and ethnographic communities began to grow in all regions of the country. Qualified specialists, composers and choreographers from the capital were invited to provide methodological and practical assistance to singers, musicians and dancers, who are leading cultural workers working in the field. They have contributed to the formation of new teams and the enrichment of their repertoire. Among them are Tamara Toshbaeva and Saodat Yuldasheva. Through the efforts of these selfless people, several folklore and ethnographic communities were formed. (2, 18)

If we look at the current state and development of Uzbek folk art, the role of many dedicated folklore scholars, employees of cultural and educational institutions, Chechen performers, who keep and develop the masterpieces of folklore, is obvious. In this regard, it is necessary to emphasize the merits of Saodat Nazirovna Yuldasheva, one of our talented scientists, who has worked for many years in such an honorable, noble and very responsible field as preserving the best traditions of folk art. (1, 36)

Saodat Yuldasheva was one of the first scholars to study the formation of folklore and ethnographic communities in our country and the characteristics of their repertoire. In his articles and books, he described the peculiarities of the performing



arts, repertoire, costumes, jewelry, and even musical instruments of more than twenty folklore-ethnographic communities, and recorded and published the texts of samples of their performance. The characteristic feature is that the scientist proved on the basis of the analysis that each community is closely connected with the life and folklore, aesthetic tastes, customs of the population of the region, and their repertoire is a false expression of this way of life. (1, 36)

Saodat Yuldasheva together with Oykhon Yakubova, an artist with great skills and experience in art, an active promoter of folk songs, winner of the Medal of Fame, in 1988 in Tashkent formed a folklore and ethnographic group "Gavhar". (2, 110) This was the first ethnographic community in Tashkent. The artistic team includes women between the ages of 8 and 80. The team, in return for great research and tireless work, will stage more than 100 folk songs, lapars, sayings, yallas, ceremonies and traditions. Participates in national festivals, competitions and festivals and wins prizes.

The folklore and ethnographic ensemble "Gavhar", which is famous in its homeland, has an interesting, popular work, which has its own art lovers abroad. The artistic team has returned to foreign countries such as America, Italy, Turkey, India. In 2000, the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan awarded the team the title of "People's Amateur Team" for their achievements and services. (2,111)

The repertoire of the folklore and ethnographic amateur group "Gavhar" includes such ceremonial songs as "Kelin salom", "Beshik tuyi", "Nikoh tuyi", "Navruz sayli", "Aka chekmang", "Sochpopuk", "Abdullajon". located The cradle-to-cradle ceremony, which is part of the team program, is a school of life for our mothers. (2,113) There are also Uzbek rituals of cradling a baby. The mother of a wealthy family will have the privilege of rejoicing in the ceremony. This is a great happiness. According to the custom, the woman bathes the baby, then rubs clean tandoor soil and linseed oil on her body. Red soil has the power to rid the baby's body of sores and strengthen the skin. Patriotism, humanity, and the spiritual development of the child play an important role in the formation of the child's worldview. The team actively used the clothes and stage decorations of Tashkent, combining ancient and modern fabrics in a unique style.

*It was early in the morning, my son alla,  
My heart is full of sorrow, alla-yo alla,  
The old man withered me like a flower  
My dear child alla-yo alla. (2, 112)*

Oykhon Yakubova, a true fan of folklore, has found wonderful themes that others cannot imagine. He took it from the people and gave it to the people again. As you know, we drink tea every day. But we do not imagine the customs associated

with "tea drinking". This is a debate about tea. Aykhon Yakubova brought these forgotten traditions and ceremonies to life through the stage. "*Choy icharlar ozlari*",

*Eyes on the window,*

*The guys who drank tea*

*Blinking eyes. (2, 113)*

The beloved artist of our people, the tireless propagandist of our national culture Oykhon Yakubova died in 2008 of a serious illness. Oykhon Yakubova was one of the selfless people who contributed to the leadership of the folklore and ethnographic amateur group "Gavhar" to new heights. Today, his faithful students continue the masterpieces created by the master, examples of folk art.

Another active community in Tashkent is the Nodirabegim folklore and ethnographic group. Honored Artist of Uzbekistan Rayhon Turaeva is one of the most dedicated artists in the formation of the team. Rayhon Turaeva is well known to the older generation. Young people know them as the fairy-tale grandmother on the show "Evening Tales". The talented actress, who worked for many years at the Uzbek State Musical Drama Theater named after Muqimi, in 1995 founded and led the folklore and ethnographic group "Nodirabegim" at the Central Cultural Center named after Tolibjon Sodiqov (now the Central Cultural Center of Tashkent). (2,115) Attracts amateur women interested in Uzbek national folk art and teaches them folk songs and lapars. The repertoire of the ensemble is enriched with traditions and ceremonies of Tashkent, folk songs, sayings, yallas. There are rituals related to "Putting the bride and groom in the chimpanzee" prepared by the team, such as "Navruz holiday", "Nikoh tuyi", "Beshik tuyi" and other ceremonial songs and lapars.

The folklore and ethnographic ensemble "Nodirabegim" sings songs glorifying Navruz and the motherland in the spirit of the times. This is an example of the Chechen performers' boundless respect and reverence for the motherland and its values.

*Navruz is coming Navruz is coming to the country*

*Now comes Navruz, the feast of ser-fayzu barokat*

*From peach-apple blossoms adorning the creature*

*On the leaves of dew comes sarafroz*

*The farmer comes with a plow and a hoe*

*The lover coughs silently into the crack*

*Bol ol baraka eringa bersin baraka*

*Enjoy your hard work jon aka (3)*

The selfless services of the team were recognized by the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan, and in 2003 the folklore and ethnographic group "Nodirabegim" was awarded the title of "People's Amateur Team". Today, the folklore and ethnographic amateur group "Nodirabegim" is one of the leading groups

in Tashkent. Currently, the team is led by Mamura Avazova, one of the favorite students of the master artist Rayhon Turaeva. The team deservedly participates in national and international folklore competitions and festivals and wins high places.

On the initiative and under the leadership of Mahfuza Boymirzaeva, one of the favorite students of the artistic director of the folklore and ethnographic amateur group "Gavhar" Oykhon Yakubova, in 2006 in Tashkent was organized folklore and ethnographic group "Durdona". Team leader Mahfuza Boymirzaeva continued the lessons she learned from her coach Oykhon Yakubova and enriched the team with new songs, lapars, rituals and ceremonial songs. The team has prepared programs based on family and household ceremonies, customs and rituals of Tashkent and sent them to our people. The repertoire of the team includes ceremonial songs related to the holiday "Navruz", "Besik toyi", "Kelin salom", "Nikoh toyi", "Sumalak sayli".

*Sumalak in the doshkazan*

*It boils through the night*

*The girls have curly hair*

*Plays around*

*Boil my boiler*

*Play the my wife (4)*

The team has successfully participated in all competitions and festivals organized at the national and international levels and won top places. The team tries to bring to the stage the traditions and ceremonies typical of Tashkent. New songs specific to the region have also been created by the team members. For example:

*Our circle is in Tashkent,*

*It is a pleasure to be caught.*

*Greetings from the capital of our country,*

*We are lucky to have good wishes. (4)*

In accordance with the decision of the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan, the folklore and ethnographic group "Durdona" in 2017 was awarded the title of "People's Amateur Team". The team is currently researching new rituals and programs.

Another active community in Tashkent is the Uzbekoyim folklore and ethnographic group and the Hilola children's folklore and ethnographic group. At the initiative of the talented artist Jamila Hamidova at the cultural center No. 6 of the Almazar district of Tashkent in 2008 the folklore and ethnographic group "Uzbekoyim" and children's folklore and ethnographic group "Hilola" consisting of adults and children were created. Today, twelve women of different ages take an active part in the Uzbekoyim folklore and ethnographic group, and more than fifteen girls take part in the Hilola folklore and ethnographic group.

The repertoire of the groups includes songs, customs and ceremonies glorifying our identity, nationality, traditions and values. In 2013, the Uzbekoyim folklore and ethnographic team together with the Hilola children's folklore and ethnographic group took part in the Republican TV Festival of Folklore Ensembles "Old Land Melodies" organized by the National Television and Radio Company of Uzbekistan. "Was awarded.

*I have a white dress and a blue dress  
I have a toy at my grandson's wedding  
Wow, wow, where's the white jacket  
Muchal year-old girl's jacket with almond blossoms  
I want to go to the garden, I want to pick flowers  
I'd like to give flowers to a little girl. (5)*

Folklore and ethnographic group "Uzbekoyim" and children's folklore and ethnographic group "Hilola" are actively involved in all cultural and educational events, competitions and festivals organized in the country. From the repertoire of the folklore and ethnographic group "Uzbekoyim" "Ajab-ajab", "Deydiyo", "Gul berdi", "Sevsang agar", "O, layli", "Oynang qizlar", "Yalo-yalo," Karima wore a dress ", There are many sayings and sayings, such as "Nozligim", "Shoxchalab", "Achil-ochil", "Ililla yor", "Qoraqosh". The team will perform "Muchal toyi", "Beshik toyi", "Kelin salom", "Sunnat toyi", "Gul sayli", "Navruz sayli", "Sumalak" on the basis of rituals and ceremonies typical of Tashkent city. They have been preparing performances based on customs and rituals such as "Sayli" and performing them in the district's mahallas, schools and preschools, and orphanages.

The flower is a symbol of goodness, generosity, beauty. The tradition of presenting a flower to friends as a symbol of respect and esteem, expressing mutual love with a flower is of great importance in educating people in the spirit of good intentions, kindness, compassion and piety. That is why flower festivals - "Boychechak Sayli", "Binafsha Sayli", "Chuchmomo Sayli", "Kizil Gul Sayli", "Lola Sayli" are widely used in the ethnic culture of our people. "Lola Sayli", "Gul Sayli" and "Boychechak" festivals were organized around Tashkent. In order to restore these lost traditions and ceremonies, the folklore and ethnographic group "Uzbekoyim" and children's folklore and ethnographic groups "Hilola" have a special place in the repertoire of the "Flower Festival".

*Oh, layli, layli, layli  
We have a flower festival today  
Holiday in the Uzbek people  
Because of the spring holidays  
The girls are coming through the door  
Do not dig through the hole*

*Don't separate your mother*

*From the beautiful golden cradle (5)*

In accordance with the decision of the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan, the folklore and ethnographic group "Uzbekoyim" was awarded the title of "People's Amateur Team" in 2016 and the children's folklore and ethnographic group "Hilola" in 2017 "Exemplary Children's Team".

The main goal of the folklore and ethnographic amateur group "Uzbekoyim" and exemplary children's folklore and ethnographic groups "Hilola" is to promote the Uzbek national folk art, traditions and ceremonies, alla, lapar, aytish, ulan, to teach the younger generation and future generations. to contribute. The members of the team consider it their duty to pass on the national customs, traditions, rituals and values of our people from generation to generation and are constantly researching them.

One of the most enthusiastic and dedicated teams in Tashkent is the folklore and ethnographic group "Buvijonlar". Folklore and ethnographic amateur group "Buvijonlar" was founded in 2014 at the Cultural Center No. 1 of Mirabad district of Tashkent on the initiative and under the leadership of tireless promoters of folk art Asatilla Sunnatillaev and Dilshod Umarov.

The team includes more than fifteen amateur mothers of different ages interested in folk art. The repertoire of the ensemble includes programs based on the traditions and ceremonies of the city of Tashkent, songs glorifying our values. Thanks to the efforts of the artistic director of the team Asatilla Sunnatillaev and music director Dilshod Umarov, the repertoire of the team was enriched with new lapars, sayings, ceremonial songs.

*Let your husband be free*

*Let the epic be yours*

*The holiday in the country is a wedding*

*Let your tongue grow*

*The road to Tashkent is blocked*

*The guys are on fire*

*Her daughters have pencil eyebrows*

*Her lips were like rubies. (6)*

Folklore and ethnographic amateur group "Buvijonlar" took part in the festivities dedicated to the 27th anniversary of Independence in 2018, the main festivities of the national holiday "Navruz" in 2019 in the "Humo Arena" complex, "Navruz Sayli" in Sayilgoh Street. . To date, the team is actively involved in a number of competitions and festivals. In 2019, he participated in the First International Festival of Bakhshi Art in Termez, Surkhandarya region. The most attractive team. ”

The repertoire of the ensemble includes such regional customs and ceremonies as "Beshik Toi", "Navruz Sayli", "Tashkent Craftsmen", "Navruz Sayli Ananalari", "Sumalak Sayli" and related songs, lapars and sayings. The art of handicrafts is of special importance in Central Asia. Crafts are also widely developed in our country. Crafts play an important role in the production relations of Bukhara, Samarkand, Kokand, Khiva and Tashkent. The program "Craftsmen of Tashkent", prepared by the folklore and ethnographic group "Buvijonlar", sings the activities of artisans.

*A handful of soil worked wonders*

*This soil has spread its fame all over the world*

*It was heartwarming to the person looking at it*

*It is as honest as a loaf of bread*

*Someone, someone, someone, someone*

*Undoubtedly a skilled artisan potter. (7)*

The program "Craftsmen of Tashkent" is based on the selfless people of their profession, their honest work, teacher-student traditions on the basis of folk traditions and ceremonies, songs.

*Tashkent made Tashkent*

*He made his heart heaven*

*He narrated his profession*

*Craftsmen from Tashkent*

*Singing to the sky*

*Burning as my country*

*The wisdom of the wise*

*Craftsmen from Tashkent. (7)*

In 2017, the folklore and ethnographic group "Buvijonlar" was awarded the title of "People's Amateur Team" for their achievements and services. The team has repeatedly appeared on Uzbek television and presented its program to the public.

*Conclusion.* In short, to date, the folklore and ethnographic communities of Tashkent have not been fully studied. Therefore, it is important to analyze the stages of historical development, repertoire, performance traditions of folklore and ethnographic communities and to study the features that reflect its uniqueness. In the repertoire of folklore and ethnographic communities, the traditions and ceremonies formed and developed over the centuries include love for the Motherland, respect for the elderly, care for parents and the elderly, hospitality, kinship and mutual assistance, preservation of family honor and women's dignity. values that have a social character, such as the recollection of memory. Therefore, folklore and ethnographic communities help to create the ideology of independence through the values that our ancestors have preserved for centuries, to inculcate it in the way of life of young people, and to bring up a full-fledged mature person.

## References

1. Responsible editor: B.S.Sayfullaev. Devotion to the art of folklore. Collection of articles. T :, Navruz - 2017. - 140 p.
2. S.N.Yuldasheva. Methodology of folklore and ethnographic communities. T :, Navruz - 2014. - 162 p.
3. From the repertoire of the folklore and ethnographic amateur group "Nodirabegim".
4. From the repertoire of the folklore and ethnographic folk amateur group "Durдона".
5. From the repertoire of the folklore and ethnographic amateur group "Uzbekoyim".
6. From the repertoire of the folklore and ethnographic folk amateur group "Hilola".
7. From the repertoire of the folk-ethnographic folk amateur group "Buvijonlar".

## YOSH AVLOD TARBIYASIDA RAQS SAN'ATINING AHAMIYATI

Pirmagambetova Mariya Turganbaevna  
O'zDXA Urganch filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya jarayonida raqs va san'atning keng ahamiyati hamda uning oilada jamiyatdagi o'rni yoritilgan bo'lib, shuningdek, maqolada so'nggi yillarda davlatimiz tomonidan raqs san'atiga qaratilgan yuksak e'tibor yuzasidan faktlar va asosli fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, tarbiya, ta'lim, raqs, libos, farzand, millat, jamiyat, ezgulik, xalq, madaniyat, san'at.

## THE IMPORTANCE OF DANCE ART IN THE UPBRINGING OF THE YOUNGER GENERATION

Pirmagambetova Mariya Turganbayevna  
Urgench branch of Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** This article covers the wide importance of dance and art in the educational process of the growing younger generation, its role in the family in society, as well as facts and substantive opinions on the high attention paid by the state to the art of dance in recent years.

**Keywords:** family, upbringing, education, dance, libos, child, nationality, society, humanism, people, culture, art.

Jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni har tamonloma yetuk barkamol qilib tarbiyalashda, bugungi kunda bizning oldimizdagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Sababi yoshlarning bugungi kundagi olgan ta'lim- tarbiyasi nafaqat o'zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga "Agar mendan sizni nima qiynaydi" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman" - degan fikrlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga raqs san'atidan tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning raqs san'ati shu xalqning ko'zgusidir. Xalqning, xulq atvori milliy urf odati, yashash tarzi, libosi, madaniyati raqs orqali ifodalanadi. Har bir millat va elatlarni birlashtiradigan an'analarimizni mustahkamlaydigan, har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug'ini ekib



boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham raqs sa'nati desak mubolag'a emas. Raqs sa'natining inson ruhiyatiga ta'sir qilish borasida keng imkoniyatlar qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga jalb qilgan va raqs san'atining qanchalik beqiyosligi hamda tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlagan.

O'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida raqs sa'nati - qiz bolalarda, go'zallik va nafosat, nazokat, xayo va iffat, o'g'il bolalarda jasurlik, qat'iyatlilik va sabr taqot, ezgulik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda o'zbek milliy raqs san'atining o'zni hamda ahamiyati beqiyos. Milliy raqslarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari, insoniy fazilatlarini, milliy an'analarini ifodalaydi.

Raqs sa'natining tarbiyasi avvalo oiladan boshlanadi. Agar oilada o'zaro sog'lom muhit, san'atga bo'lgan qiziqish bo'lsa bolada o'z-o'zidan musiqa va raqsga qiziqish paydo bo'ladi. Ma'lumki, yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning tarbiyasi, xulq-atvori, boshqalar bilan munasabati, o'zini tutishi yaxshi bo'ladi. Turli voqea-hodisalar, urf-odat, madaniyat va san'atga oid taassurotlari ko'pincha ijobiy kechadi. Oilada birgalikda televizor ko'rish, raqs, teatr tomosha qilish va o'z taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyo qarashini rivojlantiradi. Ota-onalar bo'sh vaqtlarida farzandi bilan birga musiqa tinglab, raqsga tushsa ularda jismonan tetiklik, yaxshi kayfiyat, o'zaro mehr-oqibat paydo bo'ladi.

Bolalar tomonidan raqs ijro etilishi avvalo milliy raqsni ijro etishdan boshlanishi lozim. Biz o'qituvchilar dars jarayonida milliy raqsning o'ziga xos, bir-biridan farq qiladigan yo'nalishi haqida tushuncha berishimiz kerak. Masalan, Farg'ona, Buxoro va Xorazm yo'nalishidagi raqslar haqida ma'lumot berganda, shu yerning tabiyati, odamlarning yashash tarzi, kasb-kori, kiyimlari, urf-odatlarini haqida ma'lumot berilsa bolaga raqs harakatlarini tushunish oson bo'ladi. Vodiyning chiroyli, nozik lirik harakatlari, rang-barang atlas shoyi kiyimlari va do'ppilari, beqasam to'nlari haqida tushuncha berilsa, Buxoro raqs yo'nalishida esa bu yerdagi xalqning chiroyli zardo'zi kiyim-kechaklari, taqinchoqlari, tez va keskin shiddatli yelka va oyoq harakatlari, Xorazm yo'nalishidagi raqslarga boshqa regiyonga o'xshamaydigan nozik, chiroyli, go'zal, kayfiyatni ko'taradigan sho'x harakatlari, zebu ziynatga boy kiyimlari, qiz bolalarda do'ppisi bilan pari, o'g'il bolalarda cho'girmasi haqida tushuncha berish mumkin.

San'at - xalqlarni o'zaro birlashtiruvchi muhim vositalardan biridir. Insonlarning ma'naviy dunyosini boyitadigan va ruhiyatiga madaniy xordiq bag'ishlovchi raqs orqali borliqdagi voqeiliklar va insonlarning hissiyotlari, ichki kechinmalari, orzu-umid va dard xasratlari turli harakatlarda o'z aksini topgan. Ularda insonlarning hayot tarzi, shodliklari, qayg'ulari kabi murakkab ko'rinishlar, psixologik holatlari ko'pincha muhit bilan uyg'unlashtirilib ifodalaydi. Uning qanday ko'rinishga ega bo'lishi esa albatta ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq. Raqsda davrning ruhi

yaqqol ko'zga tashlanadi. Har bir raqsda shaxsning tuyg'ulari, g'oyalari, o'y-fikrlari va xattoki, hayotda nimaga ko'proq intilishi ham namoyon bo'lishi bilan birga, o'zi yashab turgan davr xususida ham keng ma'lumot berishi mumkin.

Odatda go'zal raqsni yaxshi san'at asariga qiyoslaydilar. Bu bejiz emas. Agar haqiqatan ham raqqos yoki raqqosa o'z ishining ustasi bo'lsa, o'zini raqsdan ayro tasavvur qila olmasa, uning ijrosi kishilarda chiroyli she'riyatdek taasurot qoldiradi. Nafosat va malohat bilan ijro etilgan raqs uzoq vaqt muxlislar tilidan tiliga ko'chib yuradi. Raqs san'atida odatda harakatlar ramziy mazmunga ega. Xususan o'zbek raqs san'ati nafaqat jozibador plastik harakatlari, balki falsafiy mohiyatga ega bo'lganligi uchun ham boshqa xalq raqslari orasida ajralib turadi.

Milliy raqsimizga milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Qadimgi va hamisha yosh "Lazgi" raqsimizni YUNESKO nomoddiy madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hukumatlararo qo'mitasi ovoz berishsiz Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritishga qaror qildi. Shunday qilib, YUNESKO Xorazm raqsini saqlab qolish, rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha zarur choralarni ko'rish majburiyatini zimmasiga oldi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir biridan go'zal raqs an'analaridan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Milliy raqs xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi go'zal badiiy ifodasi bo'lish bilan bir qatorda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi yo'lida tinmay mehnat qilayotgan xalqimizga, ma'naviy ruhiy quvvat bag'ishlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Biz aytmoqchi bo'lgan fikr shundayki, raqs san'atining g'oyaviy mazmuni, nafaqat yosh avlod balki butun insoniyat tarbiyasi bilan bog'liqdir.

Raqsning ana shunday o'tkir tarbiyaviy kuchidan foydalanish, san'at vositasida yosh avlodning ma'naviy dunyo qarashini shakllantirish, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash biz o'qituvchilarning zimmasidagi eng muhim va doim dolzarb bo'lgan vazifalardan biridir.

Ma'lumki, biz bugungi kunda, butun dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan fan-texnika, innovatsiyalar asrida yashayabmiz. Fan-texnika qanchalik tez o'zgarsa bizning hayotimizda milliy raqs san'atining o'rni shunchalik muhim bo'lib boraveradi. O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari madaniyat va san'at taraqqiyotida o'ziga xos tarixiy voqea bo'ldi. Ayni qarorlar asosida Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta'lim muassasasi shaklida Madaniyat vazirligi tizimida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi. 2021-yil 22-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarori bilan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiasining Urganch filiyali tashkil topdi. Akademiyaga bu yil 17 talaba qabul qilinib, ularga malakali o'qituvchilar raqs yo'nalishida o'quv dasturi bo'yicha dars bermoqda. O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiasining Urganch filiyali yonida boshlang'ish xoreografiya maktabi ochildi Va maktabga bu yil 24 o'quvchi tanlov asosida qabul qilindi.

Milliy raqs san'ati sohasini rivojlantirishda malakali kadrlar tayorlash, Xorazimning qadimiy raqsi "Lazgi"ni asrab-avaylash, uni ilmiy o'rganish va jahonga targ'ib qilishda akademiya zimmasiga katta mas'uliyat yuklangan. Biz buni o'zimiz sidqidildan his qilib, bor bilim va tajribamizni qo'llab, go'zal raqs san'atining rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqs tarbiyasi shaxs sifatida shakllanayotgan yoshlarda so'g'lom, qaddi qomati chiroyli, qalbida milliy ruhni kamol toptirish, ma'naviy va axloqiy madaniyatni, didni shakllantirish, tasavvurlarini yanada boyitish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini, tashabbuskorlik qobiliyatlarini kamol toptirishdir.

Zero, san'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritilar ekan, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahlida yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agarki, har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi.<sup>1</sup>

### Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi qonuni. //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; —Sharq, 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining —Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida•gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent; —Sharq, 1997,
3. И.А.Каримов. Юксак маънавият енгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008.
4. Mavlonova R. Pedagogika. -Т.: 2002.- 80 str.. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- Т.: 2001.
5. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - Т., O'zMU

<sup>1</sup>И.А.Каримов. Юксак маънавият енгилмас куч. Т.: «Маънавият», 2008, Б-3

## MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI MOLIALASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Mo‘minmirzo Xolmo‘minov

Azizbek Xushvoqov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlari faoliyatini molialashtirishning ahamiyati va zaruriyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Ayniqsa, madaniyat markazlarining aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish orqali pullik tushumlar ko‘rsatkichini yuqorilatish va istiqbollini taraqqiy ettirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** madaniyat markazi, moliya, xarajat, bozor sharoiti, faoliyat, omil, tushum, madaniy xizmat.

### MAIN FACTORS OF FINANCING THE AFFAIRS OF CULTURAL CENTERS

Muminmirzo Kholmuminov

Azizbek Khushvaqov

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The article discusses the importance and necessity of financing the activities of cultural centers operating in the system of the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan. In particular, suggestions and recommendations were made to increase the rate of paid income and develop the prospects of cultural centers through the provision of cultural services to the population.

**Keywords:** cultural center, finance, cost, market conditions, activity, factor, revenue, cultural service.

Madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish, jahon miqiyosidagi ilg‘or tajribalar asosida malakali kadrlar tayyorlash, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirishga qaratilgan ko‘plab qaror va farmonlar imzolanib, hayotga tadbiriq etilmoqda [1:21].

Yangi O‘zbekistonda madaniyat markazlari faoliyatini tubdan isloh qilish jarayonlarida sohani molialashtirishning yangicha tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qancha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Chunki, bugungi bozor sharoiti madaniy-ma’rifiy sohaning moddiy bazasini mustahkamlash

orqali, uning taraqqiyoti bardavom bo'lishini ta'minlovchi yagona omil ekanligini isbotlaydi.

Hozirgi global iqtisodiyot madaniyat va san'at sohasiga ham ta'sir ko'rsatibgina qolmay, sohani moliyalashtirishning asosiy omillarini har tomonlama integratsiyalashni talab etadi. Shiddatli jahon bozorining umumiy hususiyatiga Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev quyidagicha fikr bildirgan edi.

Jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tabiati tubdan o'zgardi. Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda. Bunday iqtisodiyotning muntazam takomillashib borishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham shundan iborat. Amaliy natijadorlik, inson manfaatlari va yana bir bor inson manfaatlari - iqtisodiy islohotlarimizning o'zak masalasidir. Bugungi kunda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish borasida oldimizda qator strategik vazifalar turibdi. Ularning barchasi ustuvor ahamiyatga egadir[2:127].

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlarning strategik vazifalarini ishlab chiqishda barcha sohaning moliyalashtirish manbalarining omillarini soddalashtirish va rivojlantirish, shu bilan birga ularning sonini va sifatini oshirish zarur. Madaniyat markazlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va bir necha mas'ul tashkilot va idoralar tomonidan moliyalashtiriladi.

Hususan, Madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

2019-yil 30-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 264-son qarorining birinchi ilovasi bilan tasdiqlangan Madaniyat markazlari to'g'risida Namunaviy nizomda belgilangan asosiy vazifalardan kelib chiqib, pullik tushum asosda tashkil etiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, to'garaklar, turli xizmatlar va boshqalar hisobidan olinadigan daromadlar; yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Markazlarda tashkil etilgan pulli to'garaklardan tushadigan mablag'larning 50 foizi ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, qolgan 50 foizi to'garak rahbarlarining ish haqiga hamda ularni rag'batlantirishga sarflanadi.

Markazlarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha hisob-kitobi va hisoboti tuman (shahar) madaniyat bo'limlarining markaziy buxgalteriyasi tomonidan byudjet muassasalari uchun belgilangan tartibda yuritiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'ysunuvdagi Markazlarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha hisob-kitobi va hisoboti o'zining buxgalteriyasi tomonidan amalga oshiriladi [3:330].

Bu murakkab jarayon hisoblanadi. Ammo, madaniyat markazlari faoliyatidagi asosiy moliyalashtirish omillari ko‘pincha markaz buxgalteriyasida shakllanadi. Qo‘yidagi 1-jadvalda Jizzax viloyati Forish tumani madaniyat markazining 2021 yilda shtatlar jadvali bo‘yicha belgilangan byudjet mablag‘lari smetasini keltiramiiz. Jadval orqali Forish tumani madaniyat markazining asosiy moliya omillarini tahlil etamiz.

1-jadval

Tuzilmaviy bo‘linmalar nomi va lavozimlar nomi	Shtat birliklari soni	YATS bo‘yicha razryadi	Tarif bo‘yicha koeffitsienti.	Lavozim bo‘yicha (so‘mda)	Ustama va qo‘shimchalar (so‘mda)			Oylik mehnatga haq to‘lash jang‘ armasi (sumda)	Izoh
						1,228			
Badiiy rahbar	1			1349380				1349380	
To‘garak (jamo va studiya) rahbari	5			1115190				5575950	
To‘garak va jamoalarning ishini tashkil qilish bo‘yicha mutaxassis	1			1349380				1349380	
Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis	1			1349380				1349380	
Xoreograf	1			1349380				1349380	
Rejissyor	1			1349380				1349380	
Ovoz rejissyori	1			1115190				1115190	
Kutubxonachi	1			1115190				1115190	
Liboschi (Kostyumer)	1			1115190				1115190	
Yuriskonsult	1	9	1,755	1192224				1192224	
Elektro montyor	0,5	3	1,106	751339				375669	
Durodgor	0,5	2	1,053	715334				357667	
Hovli supuruvchi	1	2	1,053	715334				715334	
Farrosh	2,5	1	1,000	679330				1698325	
Qorovul	4	1	1,000	679330				2717320	
Haydovchi	1	1	1,000	679330		154887		834217	
Mavsumiy o‘t yoquvchi (kohegar)	2	1	1,000	679330				1358660	mavsumiy 5 oy
Jami	25,5							24917837	
Ma‘muriy-boshqaruv, ma‘muriy-xo‘jalik, o‘quv-yordamchi va boshqa xodimlarning bir oylik mehnatga haq to‘lash jang‘armasi bo‘yicha jami	x	x	x	x				24917837	
Shuning o‘zi bir yilda	x	x	x	x				289503428,5	

Shuning o'zi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari va bo'sh ish joylari boyicha tejalganning hisobi bilan	x	x	x	x	x	x	x	283713360	
Tarifikatsiya boyicha xodimlarning (pedagog, tibbiyot va boshqa) mehnatga haq to'lash jamg'armasi bir oyda	x	x	x	x	x	x	x		
Shuning o'zi bir yilda	x	x	x	x	x	x	x		
Bir oylik xodimlarga moddiy yordam puli	x	x	x	x	x	x	x		
Bir yilda ikki marta beriladigan mukofot puli	x	x	x	x	x	x	x		
Xodimlarning ta'til davrida kechki navbatchilik va bayram vaqtlarida o'rin almashish uchun yillik mehnatga haq to'lash jamg'armasi	x	x	x	x	x	x	x		
Shuning o'zi bir yilda	x	x	x	x	x	x	x		
Byudjet tashkilotlari va muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi yillik	x	x	x	x	x	x	x	28371336	
Jami bir oylik ish haqi	x	x	x	x	x	x	x	26007058	
Jami bir yillik ish haqi miqdori	x	x	x	x	x	x	x	312084696	
Vaqtincha mehnatga qobilatsizlik varaqalari to'lovi yillik 1%	x	x	x	x	x	x	x	3120847	
Jami mehnatga haq to'lash jamg'armasi yillik	x	x	x	x	x	x	x	315205543	

Mazkur jadvalda ko'rsatilgan mablag'lar birgina Forish tumani madaniyat markazi misolida olingan. Bugungi kunda Respublikamizdagi faoliyat olib borayotgan 828 ta madaniyat markazlarining har biri o'z faoliyat doirasiga qarab yillik smeta ishlab chiqadi va hududiy moliya bo'limlari tomonidan tasdiqlanadi.

Biron-bir jamiyat o'z taraqqiyotini ta'minlashda madaniyat va san'atni, o'zining milliy-ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirmay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. O'zining qadimiy va an'anaviy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy merosimiz durdonalarini asrab-avaylash, o'zbek xalqi madaniyati va san'atining tarkibiy qismi bo'lgan qadimiy an'alarimiz, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boylik - xalq qo'shiqlari, cholg'u va kuylari, tomoshalar, dostonlar, maqomlar, raqslar va milliy marosimlarni bugungi kun talabidan o'rganish, unga katta hurmat bilan munosabatda bo'lish, kelgusi avlodlarga bekamu-ko'st yetkazish Istiqlol yillarida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shuningdek, davlat rahbari tomonidan madaniyat va san'at sohasi boshqaruvi borasiga ham juda katta e'tibor qaratilib, yangi-yangi zamonaviy tuzilmalar va birlashmalar, ijodiy ishlab chiqarish birlashmalari, ularning huzurida sohani rivojlantirishni moliyalashtiradigan jamg'armalar tashkil etildi[4:34,35].

Madaniyat markazlari faoliyatini to'g'ri moliyalashtirining asosiy omili sohada xususiy sektorining ulishini oshirish va xususiy sektor vakillariga zarur shart-sharoit yaratib berishdan iborat.

Iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi. Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda kooperatsiyani rivojlantirish bo'yicha barcha choralar ko'rilishi lozim [5:1].

Shu bilan birga, biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi[6:12].

Bozor sharoitida unga, eng avvalo, yalpi talab bilan yalpi taklif bir-biriga mos bo'lishi zarur bo'ladi. Buning uchun ishlab chiqarish tarkibi ham ularga mos bo'lishi kerak. Bu vazifani bajarishda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki usulidan foydalaniladi.

1. Iqtisodiyotning o'z-o'zini tartiblash - bozor mexanizmi usuli.

2. Davlat tomonidan tartibga solish. Lekin turli bosqichlarida ular o'rtasidagi nisbat turlicha bo'lgan[7:116].

Madaniyat markazlari uchun o'zini-o'zi tartiblash va moliyalashtirish nihoyatda dolzarblikka ega jarayoni va markaz faoliyatini moliyalashtirishning asosiy omili sanaladi. Chunki, undagi tushum madaniy bozorning yalpi talabidan shakllanadi. Ijodiy ishlab chiqish jarayoniga madaniy hordiq bozorida qancha talab yuqori bo'lsa, pullik iushum ham shunga qarab yuqoriladi.

Bu jarayonni o'rganishda Toshkent shahar madaniyat markazlarining pullik tushum ko'rsatkichlarini tahlil qildik. Qo'yidagi 2-jadvalda Toshkent shahar madaniyat markazlarining 2021-yil 6-dekabr holati nuqtaiy nazaridan ma'lumot keltiramiz.



2-jadval

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Markazlar soni	To‘garaklar soni	Unvonga ega Xalq havaskorlik jamoalar soni	Pullik tushumlar			
					To‘garaklardan tushgan tushumlar miqdori (mln. so‘m)	Xalq havaskorlik jamoalari tushumlari miqdori (mln. so‘m)	Madaniy-ma‘rifiy tadbirlardan tushgan tushumlar miqdori (mln. so‘m)	Jami tushumlar miqdori (mln. so‘m)
1	Bektemir tumani	1	13	1	9 100 000	200 000	11 500 000	20 800 000
2	Mirobod tumani	2	18	4	41 292 600	15 180 000	13 000 000	69 472 600
3	Mirzo Ulug‘bek tumani	3	33	7	85 960 000	0	2 500 000	88 460 000
4	Sergeli tumani	2	15	3	7 816 000	2 775 000	1 000 000	11 591 000
5	Olmazor tumani	4	17	3	0	600 000	2 748 000	3 348 000
6	Uchtepa tumani	2	17	7	26 316 000	3 000 000	0	29 316 000
7	Chilonzor tumani	4	25	7	17 500 000	2 500 000	0	20 000 000
8	Yashnobod tumani	3	21	3	119 125 000	600 000	3 500 000	123 225 000
9	Shayxontohur tumani	3	13	2	6 600 000	1 500 000	0	8 100 000
10	Yunusobod tumani	5	21	10	68 570 000	21 112 000	56 551 000	146 233 000
11	Markaziy madaniyat	1	26	8	108 400 000	6 000 000	3 600 000	118 000 000
12	Yakkasaroy tuman	2	15	1	14 000 000	3 000 000	10 000 000	27 000 000
13	Yangi hayot tumani	2	0	0	1 410 000	9 268 000	0	10 678 000
Jami		34	234	56	506 089 600	65 735 000	104 399 000	676 223 600

O‘z-o‘zini moliyalashtirish muammosi iqtisodiyot nazariyasi uchun azaliy hisoblanib, lekin turli davrlarda, har xil mamlakatlar uchun unga turli darajada e‘tibor qaratilishi xos.

Shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, bizning respublikada ham iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida, o‘z-o‘zini moliyalashtirish masalalari hozirgacha olimlar va amaliyotchilarning asosiy diqqat-e‘tibori obyektiga aylangani yo‘q. O‘zbekiston Milliy iqtisodiyoti asosan rivojlanishning bozor shakllariga o‘tkazilgan hozirgi sharoitda, fikrimizcha, mulkchilikning barcha shakllardagi korxonalarda o‘z-o‘zini moliyalashtirish mexanizmiga har tomonlama ta‘sir ko‘rsatish zaruriyatga aylanib qoladi[8:98].

Bu zaruriyatni to‘g‘ri tahlil qilish, moliyat resurslari balansini ishlab chiqish va boshqarishda madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirish omilining yana bir katta muammosi bu - iqtisodchi kadrlar hisoblanadi. Ma’lumotlarga qaraganda, Istanbul madaniyat institutida aynan, madaniyat va san’at sohasi uchun “Madaniyat iqtisodiyoti” yo‘nalishi tashkil etilgan bo‘lib, unda madaniyat va san’at sohasi

iqtisodchisi mutaxassisi tayyorlanadi. Mazkur o'quv yo'nalishini teran o'rganib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham "Madaniyat iqtisodiyoti" yo'nalishini tashkil etish va madaniyat va san'at muassasalari uchun malakali iqtisodchilarni tayyorlash zaruriyati yuzaga keladi. Sababi, madaniyat va san'at muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodchi buxgalterlar ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini yaxshi tushunishi va madaniyat markazlarini moliyalashtirishning asosiy omillarini chuqur bilishi zarur.

Shundagina sohani moliyalashtirish jarayonlari oson va samarali kechadi. Madaniyat markazlarini moliyalashtirishda xalqaro tajribalardan foydalanishimiz va amaliyotga tadbiq etishimiz kerak. Chunki bugungi madaniy xizmat bozori raqobotni va yaxshi iqtisodiy tahlilni talab etadi. Dastavval, madaniyat markazlarining o'zini-o'zi moliyalashtirish bo'yicha mavjud qaror va farmonlar, buyruqlar va nazariy-amaliy materiyallarni umumlashtirib, tahlil qilib istiqbolda moliyalashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan madaniyat markazlarining iqtisodiy o'sishini moliyalashtirish orqali boshqa markazlarga ham o'rgatib borishimiz kerak.

Madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy omillari o'rganar ekanmiz bu yo'lda aniq maqsad qo'yib, ko'proq intilishimiz va sohaga islohot olib kirishga qo'rqqmasligimiz, jahon va milliy bozoriga madaniy xizmat ko'rsatish tizimim sifatiga qayta tanqidiy qarab chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Zotan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tgani kabi: "Hech shubhasiz, o'z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo'lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo'lishning o'zi katta baxt, katta sharafdir"[9:1].

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo'ldoshev I. Madaniyat va san'at sohasida malakali kadrlar tayyorlash - bosh maqsadimiz//jur. Teatr. - Toshkent,SILVER STAR PRINT. 2020. 48 b.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2021, 464 b.
3. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478.
4. Haydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. - Toshkent: Kamalak. 2019. - 192 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil, 24-yanvar. - Toshkent: Tasvir. 2020. 69 b.

7. Pulatov T. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni moliyaviy ta‘minlashning hozirgi zamon muammolari. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. - Toshkent: 2003, 142 b.

8. Ruzmetov B., Ibragimov B., Ruzmetov SH., Qurbanbayeva G., Iqtisodiyot nazariyasi. - Urganch, 2016. 216 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

## BESH TASHABBUS IZIDAN

Maftuna Mo‘minova  
Xalqaro Islom Akademiyasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Prezidentimiz boshlagan besh muhim tashabbusning o‘zagi hisoblangan kitobxonlik va mutolaaga davlat tomonidan berilayotgan katta e’tibor, kitobsevarlik tamoyillarini shakllantirish borasida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Kitob, ilm, tafakkur, so‘z, adabiyot, mutolaa, tashabbus, ijod.

## FOLLOWING FIVE INITIATIVES

Maftuna Muminova  
International Islamic Academy

**Abstract:** This article deals with the formation of the book-loving tendencies, which are the core of the five important initiatives launched by the President, which are the core of the state's emphasis on reading and reading.

**Keywords:** Book, science, thinking, word, literature, reading, initiative, school of creation, treasure, definition.

Muhtaram yurtboshimiz ilgari surgan surgan besh tashabbusning biri - yoshlarni adabiyotga, mutolaaga, kitobga, kitobxonlikni rivojlantirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Mana salkam besh yildirki O‘zbekiston kitobsevarlar mamlakatiga, mutolaa mamlakatiga aylanmoqda, kitobxonlikni targ‘ib qilish, biz yoshlarni mutolaaga chorlash masalalari davlat siyosatiga aylanib ulgurdi. Bu avvalamdor Uchinchi Renessans poydevorini qurishga shaylanayotgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida o‘z aksini ko‘rsatmoqda.

Davlatimiz rahbarining Prezident bo‘lib ish boshlagan dastlabki kunlaridagi dastlabki qarorlari adabiyotga, xususan o‘zbek adabiyoti xazinasiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ shoir, taniqli davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlashga qaratildi. Shoir tug‘ilib o‘sgan Farg‘ona viloyati, Oltiariq tumani “Beglar” mahallasida Erkin Vohidov uy-muzeyi ochildi[1].

Namanganda ulug‘ ma‘rifatparvar Ishoqxon Ibrat, Andijonda mustaqillik kuychisi Muhammad Yusuf, Nukusda O‘zbekiston Qahramoni, Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov, Farg‘onada O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov, Qarshida O‘zbekiston Qahramoni, Abdulla Oripov, Jizzaxda baxt va bahor

kuychisi Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim, Xorazmda Erniyozbek o'g'li Ogahiy, Sirdaryoda Halima Xudoyberdiyeva, Toshkentda Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktablari ochilgani ma'rifatparvar millatning farzandlariga atab yaratayotgan sharoitlariga mengzaladi.

“Agar biz O‘zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak[2]” - deb yozgan edi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov.

Adabiyot vatanparvarlarni voyaga yetkazadi va tarbiyalaydi, shuning uchun ham kitobga mehr, mutolaaga e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Davlatimiz rahbari biz yoshlarning dunyoqarashimiz shakllanishi, mustaqil fikrlashimiz, jahon va o'zbek adabiyoti durdonalari bilan yaqinroq tanishishimiz maqsadida kitobxonlik va mutolaaga doir qator islohotlarni amalga oshirmoqdalar. 2018-yilning 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida”gi Prezident Qaroriga, Hukumat qaroriga asosan 2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi tasdiqlangani:

- 2020-2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- 2020-2022 yillarda oid infratuzilmani mustahkamlash;
- 2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun olib borilayotgan say-harakat yoshlarni bilimga, kitobga bo'lgan mehrini oshirishlariga qanot berishi shubhasiz.

Bilamizki, Amerikadagi Garvard universiteti dunyo ta'lim va fan reytingida yetakchi o'rinda turadi. Kitobni sevgani va qadrlagani uchun Garvard universiteti bitiruvchilarining 75 nafari Nobel mukofoti sohibi, dunyo milliarderlari boyligining yarmi mana shu universitetda tahsil olgan, Amerikaning 45 Prezidentidan 12 nafari shu universitetni bitirgan. Mana kitobning, bilimning kuchi! Bilimga intilmoq, yaxshi kitoblarni tanlab o'qimoq esa esa haqiqiy ilmga oshno vatanparvarlarni tarbiyalashi aniq.

Oddiygina misol. Falakiyot ilmining asoschisi, temuriy sulton Mirzo Ulug'bekning samodagi 1018 yulduzning harakat jadvalini tuzgani va butun jahon olimning astronomik kashfiyotlarini hali-hanuz olqishlayotgani ham bilimga, mutolaaga intilishning yorqin namunasi emasmi?

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov 1996 yili Parijda YUNESKOning o'sha paytdagi Bosh Kotibi Federiko Mayor bilan suhbatlashayotib, janob Mayorning Ulug'bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-

kitoblarini bugungi kompyuter yordamida tekshirib ko'rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishini aytganda, birinchi Prezidentimiz Ulug'bek xato qilishi mumkin emas, kompyuter xato qilgan bo'lishi mumkin deb javob qilgan ekanlar.

"Kitob bahori", "Ma'rifat haftaligi" deb e'tirof etilgan tashabbuslar yoshlarning yuragiga nur, surur bag'ishlash maqsadida "Besh tashabbus sen bilan" shiori ostida "Kitob karvoni" atalmish bibliobuslarning Toshkent viloyati va Toshkent shahri bo'ylab yo'l olgani kitobxonlikni targ'ib qilishning o'zgacha bir yo'nalishidir. Insonning aqlu tafakkuri so'z san'ati durdonalarini, kitobni yaratmaganida edi, olamni bunday tarzda ko'rish, anglash mumkin emas edi. Taraqqiyotning o'qtomiri, poydevori adabiyot bo'ladi, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti esa ma'rifatga, kitobga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tgan edi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi [5].

Inson zotining eng bebaho kitob, adabiyot ekanini nazarda tutgan holda xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda har yili aprely oyining birinchi haftasida o'tkazilishi mo'ljallanayotgan "Kitobxonlik haftaligi" nafaqat kitobsevarlar safini yanada kengaytirishiga, balki nurli tashabbuslarning keng quloqch yoyishiga xizmat qiladi.

To'rtinchi tashabbus - yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilishga qaratilgan. Uni amalga oshirishda tabiiyki, kutubxonalarning o'rni va vazifasi katta.

Hozirda respublikamizda 201 ta axborot-kutubxona markazi faoliyat yuritadi. Ular fondiga 17 millionga yaqin kitoblar jamlangan. 2020 yilda axborot-kutubxona markazlariga yana 150 ming 724 ta kitob yetkazib berildi. Bugungi kunda mazkur kutubxonalarga 1 million 196 ming 233 nafar kishi a'zo. Tashabbuslarni amalga oshirish natijasida ular soni yanada ortib borayotir. Bu esa yoshlarning o'z hayotini, turmush tarzini kitob va kutubxonalar bilan chambarchas bog'layotganidan darak beradi. Mazkur tashabbus doirasida belgilangan vazifalar muntazam amalga oshirilmoqda. "Ma'rifat karvoni" tadbirlari jarayonida chekka hududlarda istiqomat

qilayotgan yoshlarga badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarning yetkazib berilayotgani ham shular jumlasidan[6].

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan to'rtinchi tashabbus doirasida tashkil etilgan kitobxonlik klubiga 264 ming o'quvchilar a'zo bo'ldi. Qolaversa, respublikamizda tashkil etilgan "Book challenge" doirasida 600 mingdan ortiq kitoblar umumta'lim maktablariga sovg'a qilindi[7].

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.Mirziyoyevning 2016 yil 7 dekabrda "O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori // "Xalq so'zi" gazetasi. 8 dekabr 2016 yil.

2. 2018 yilning 12 mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

3. I.Karimov, "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Ma'naviyat, 2008,B.47

4. I.Karimov, "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Ma'naviyat, 2008, B.68

5. <https://tma.uz/uz/5-tashabbus/>

6. Qarang. Durdiyeva G. Taraqqiyotga tayanch tashabbus. <https://yuz.uz/news/taraqqiyotga--tayanch-tashabbus>

7. <https://www.uzedu.uz>

## АМИР ТЕМУРНИНГ КИТОБХОНЛИК ОДОБИ ХУСУСИДА

Дилдорахон Тўйчиева

ЎзДСМИ Фарғона минтақавий филиали

**Аннотация:** Ушбу мақолада буюк соҳибқирон бобомиз Амир Темур даврида ҳам кутубхона иши ва уни ривожланишига алоҳида эътибор қаратилганлиги, кутубхона масканлари зиё ва маънавият ўчоғи сифатида фаолият кўрсатиб, ўз даврининг ноёб ва нодир қўлёзма асарларни мукамал сақланишига катта эътибор қаратилганлиги ҳақида маълумот берилади. Амир Темур ҳукмронлик қилган йилларда қўлёзма манбаларни сақлаш ва кутубхоналар ташкил этиш борасида қилинган ишлар, Амир Темур ўзи илм-фан ҳомийси, саҳоватпеша ҳукмдор бўлганлиги, адабиёт ва санъатни яхши кўриб, давлат ишлари билан биргаликда кутубхоначилик ишига ҳам ўзининг муносиб ҳиссасини қўшганини гувоҳи бўламиз.

**Калит сўзлар:** саҳоватпеша ҳукмдор, тарих, нодир ва ноёб қўлёзмалар, мутоола, машхур хаттотлар, миллий қадрият, аждодлар, мерос, мадраса, салтанат кутубхоналари.

## ABOUT AMIR TEMUR'S LITERATURE ETHICS

Dildorahon Tuychieva

Fergana regional branch of UzSIAC

**Abstract:** This article informs that during the reign of our great ancestor Amir Temur, special attention was paid to the work of the library and its development. During the reign of Amir Temur, the work done on the preservation of manuscripts and the establishment of libraries, we see that Amir Temur himself was a patron of science, a generous ruler, loved literature and art, and made a worthy contribution to the work of the library.

**Keywords:** generous ruler, history, rare and unique manuscripts, reading, famous calligraphers, national values, ancestors, heritage, madrassas, royal libraries.

Тарихда ўтган буюк шахслар ҳақида бирон сўз айтиш, каттами кичикми илмий ёки адабий асар ёзиш ўта мушкул. Айниқса, Искандар Зулқарнайн, Юлий Цезарь, Чингизхон ва Амир Темурга ўхшаш ҳарбий ва сиёсий арбоблар ҳақида. Негаки, уларнинг ҳаёти, босиб ўтган йўли, фаолияти мураккаб ва ўта зиддиятлидир. Шунинг учун ҳам тарихда ўтган йирик шахсларнинг ҳаёти ва фаолиятига баҳо берганда уларнинг ҳар бир ишини ақл тарозусига солиб



қарамоқ, ўша давр ва замон шароитидан келиб чиқиб баҳоламоқ ва албатта, ўзларидан аввал ўтган ҳукмдорларга нисбатан қилган улуғ ишларига қараб ҳукм чиқармоқ жоиз. Минг афсуски, биз буюк сиймоларни ўзимиз яшаган янги даврнинг қонунларига кўра назардан ўтказамиз. Яқин-яқинларгача шундай ҳолат ҳукм сурди. Айниқса, Амир Темурга нисбатан...<sup>1</sup>

Агар биз тарихни улкан бир дарахт деб тасаввур қилсак, ўша тарихга даҳлдор ҳар қандай асар унга мазмун берувчи илдизга ўхшайди. Ўша илдизлар қанчалик мукамал манбаларга таяниб ихтиро қилинган бўлса, ўша дарахт миллатнинг чўнг маънавий бойлиги сифатида ўзининг бор бўй-басти билан дунё маърифатпарварлик айвонида маҳобатли кўр тўкиб туради. Биз фикримизни асосли ва мазмунли ифодалаш умидида ўзбек халқининг буюк манбашунос олими академик Бўрибой Аҳмедовнинг “Амир Темур” асарида келтирилган мисолларга таянган ҳолда соҳибқирон бобомиз Амир Темурнинг китобатчилик санъатига оид фазилатлари хусусида фикр юритишга жазм этдик. Мақсадимиз Амир Темур шахсини ўрганиш баробарида олимнинг машаққатли, аммо шарафли тадқиқотларини баҳоли қудрат давом эттиришдир.

Мустақиллик шарофати билан Амир Темур мероси халққа тақдим этилди. Унинг давлат арбоби сифатида олиб борган ишлари юзасидан кўплаб илмий ва бадиий асарлар юзага келди.

Тарихдан бизга маълумки, Амир Темур ўз даврида ҳам кутубхона масканлари зиё ва маънавият ўчоғи сифатида фаолият кўрсатган. Ўз даврининг ноёб ва нодир қўлёзма асарларни мукамал сақланишига соҳибқирон Амир Темур алоҳида эътибор қаратган. Бу эса кейинги даврлар учун ҳам кўп асрлик тарихга эга бўлган ноёб ва нодир тарихий қўлёзма асарлар фондларининг шаклланиши, илм-фаннинг турли йўналишларига оид асарларнинг мавжуд бўлганлиги янги кутубхоналарнинг ташкил этилишига асосий омил сифатида туртки бўлди.

Чунки китоб инсоният даҳоси яратган энг буюк кашфиётлардан биридир. У қадим замонлардан буён ижтимоий ҳаётда жуда муҳим ўрин эгаллаб келган. Агар китоб бўлмаса, биз аجدодларимизнинг турмуш тарзи, ҳаёти, маданияти, тили кабилар ҳақида маълумот ололмас эдик. Китоб - буюк куч, асрлар садосини авлодларга етказувчи манба, инсон ҳаётини чароғон этувчи нур, инсониятга маънавият-маърифат зиёсини асрлар давомида сочувчи қуёш; ижтимоий-сиёсий, илмий эстетик қарашларни шакллантириш воситаси; билимлар тарғиботи ва тарбия қуроли. Китобнинг таърифи ҳақида тинмай ёзиш мумкин<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Аҳмедов Б. Амир Темур. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1995, 4-бет.

<sup>2</sup> Йўлдошев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси. – “Фан”, 2004. 3-бет.

Ҳақиқатдан ҳам китоб бизни узоқ тарих билан учраштиради. Келажак ҳаётимиз учун янги-янги инновацион кашфиётлар яратишга туртки бўлади. Биз Амир Темур давлати ва шахсан Темур шахси ҳақида фикр юритар эканмиз, унинг китоб мутолаасига нақадар эътиборли шахс бўлганлигини академик Бўрибой Аҳмедовнинг “Амир Темур” асарида келтирилган қуйидаги матн орқали гувоҳ бўламиз: “ Амир Темур пойтахтда қарийб уч ой истиқомат қилди. Куз оёқлаб, қишнинг иси ҳам келиб қолди. Шу пайт у Боғу беҳиштда, ташқи деворлари Табриздан келтирилган оқ мрамар билан қопланган саройда турарди. Туман оғо учун 1378 йили бунёд этилган бу ажойиб чорбоғ Самарқанднинг кунботар тарафида жойлашган эди. Ҳазрат соҳибқирон бир куни кечкурун кутубхона доруғаси мавлоно Орифни чақиртириб қолди. Китобдор соҳибқирон бекорга йўқлатмаслигини яхши биларди. Биронта китоб керак бўлиб қолгандирки, йўқлатган. Ва яна унинг кўпроқ тарих китобларга қизиқишини яхши биларди. Шунинг учун ҳам эҳтиётдан тарих китоблардан битта-иккитасини: «Тарихи Табарий таржимаси», «Табакоги Носирий», «Мажмуъ ал-ансоб» ва Рашидиддиннинг «Жомиъ ут-таворих»ни ўзи билан бирга олиб келди ва ҳазрат соҳибқироннинг олдига, хон устига қўйди. Темурбек китобларнинг у ер, бу еридан варақлаб кўриб, ҳаммасини четга суриб қўйди. Китобдор бир қадар ташвиш чекди, «аълоҳазратнинг кўнглидагини топиб келмадим, чамаси», деб. Бир фурсат ўтиб ҳазрат соҳибқирон «Мен бу китобларни биламен», деб қолдилар. Китобдор даст ўрнидан турди ва таъзим қилиб хонадан чиқди. Анча вақтдан кейин у катта бир китобни кўлтиклаганича ҳаллослаб яна хонага кириб келди ва таъзим қилиб китобни ҳазрат соҳибқироннинг олдига қўйди. Амир Темур китобни бошдан варақлай кетди ва ниҳоят, тўртинчи саҳифасидан унинг номини топди.

— Ҳа, мен излагон китоб шу, мавлоно, «Тарихи жаҳонкушой». Соҳибқирони аъзам, Чингизхони муаззамнинг тарихи. Таълиф қилгон киши Алоуддин Отамалики Жувайний эркан. Мана бу ўринда ёзилибдур, - Амир Темур китобнинг ўша варағини кўрсатди. Сўнг яна китобдорга мурожаат қилди:

— Асли эронлик бўлса керак. Аммо наслу насабидин хабарим йўк.

Буни китобдор тафсилотлари билан айтиб берди:

— Шундай, аълоҳазрат. Хоразмшоҳ Алоуддин Муҳаммаднинг Хуросондаги ноиби Баҳоуддин Муҳаммаднинг кенжа ўғлидур ул. Бир вақтлар Элхон Абақхоннинг Ироқ ва Хузистондаги ноиби ҳам бўлгон. Шу ерга келганда «яна ортиқча гаплар айтаётган бўлмай» деган мулоҳаза билан ҳазрат соҳибқиронга аста назар ташлаб қўйди. Ҳикоясини диққат билан тинглаб ўлтирганидан ишонч ҳосил қилиб, сўзида давом этди. Лекин Темурбекни кўпроқ подшоҳ ва ҳукмдорларнинг эл-юрт ободонлиғи йўлида қилган

юмушлари қизиқтиришини билгани учун Жувайнийларнинг хайр-аҳсони ҳақида кўпроқ сўзлади.

— Мана шу муаррих Жувайний, аълоҳазрат, кўп ободонликлар ҳам қилгон. Масалан, ўз киссасидин ўн минг динор сарфлаб, Фрот дарёсидин Нажиф ила Куфага наҳр чиқориб, ўтмишда қақраб ётгон ул вилоятлардоғи кўп ерларни сероб қилгон.

Шу ерда Амир Темури оғир тин олди, сўнг китобдорга маънос бир тарзда арз-ҳол қилди:

— Қани энди, мавлоно, Жувайнийдек ҳокимлар ва ноиблар кўпроқ бўлса. Афсуски, ундоғ эрмас. Аларнинг кўпчилиги фақат ҳамёнини қаппайтириш пайида бўладурлар. Ҳокимлик курсида маҳкамроқ ўрнашиб олгунча тиришиб-тирмашиб меҳнат қиладурлар, локин кейин... - Темурибек буёғини айтмади. Фақат бош чайқади, сўнг қўшиб қўйди:

— Локин аларнинг орасида яхшилари, ҳалол-поклари ҳам кўп<sup>3</sup>. Демак, Амир Темури шахсининг буюкликка ундаган омил ҳам китоб бўлган, десак муболаға бўлмайди. Амир Темури ҳукумронлик қилган йилларда (1370-1405) қўлёзма манбаларни сақлаш ва кутубхоналар ташкил этиш борасида катта ғамхўрлик қилинди. Амир Темури илм-фан ҳомийси, саҳоватпеша ҳукмдор бўлганлиги боис ҳам у адабиёт ва санъатни яхши кўрган. Манбаларда қайд этилишича, унинг ҳукмронлик қилган даврининг биринчи ярмида забт қилинган ҳудудларда тўпланган китоблар ва қўлёзмаларни ўзининг она юрти Шаҳрисабзга юборилган. Ушбу келтирилган қўлёзма манбалар жамланмаси натижасида саройда маҳсус қўлёзмалар кутубхонаси ташкил этилган. Айниқса, мамлакат пойтахти бўлган Самарқанддаги сарой кутубхонаси машҳур бўлиб, бу ерда юнон, лотин, араб, арман, форс ва бошқа тилларга оид ноёб ва нодир ҳисобланган қўлёзма асарлар сақланарди.

Туркиянинг Бурна шаҳридаги машҳур кутубхонадан Самарқандга кўпгина қимматли ҳисобланган нодир қўлёзма асарлар келтирилган. Бурса кутубхонаси антик даврдаги машҳур кутубхоналардан бири - Пергам кутубхонасининг меросхўри эди. Ушбу кутубхонада Архимеднинг замондоши ҳисобланган математик Аполлоний ҳамда ўз даврининг машҳур файласуфларидан Антигон Каристский, Кичик Ненаф ва бошқа кўпгина олимлар фаолият кўрсатган. Бурса кутубхонасида сақланаётган қадимги юнон мутафаккирларидан Птолемей, Гиппарх, Диафант ва бошқа исқандариялик муаллифларнинг асарлари Пергам кутубхонасидан келтирилган асарларнинг Амир Темурининг сарой кутубхонасидан жой олганлиги соҳибқиронни китобга ва ноёб қўлёзма дурдоналарига бўлган қизиқишидан далолат беради.

<sup>3</sup> Аҳмедов Б. Амир Темури. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1995, 320-бет.

Манбаларда келтирилишича, Амир Темур китобга, китоб тўплашга ва уни тартиб билан сақлашга буюк санъат даражасида муносабатда бўлган. Унинг бу фазилатидан у ерда хизматда юрган китобдорлар ҳам соҳибқирон олдиларида ўз ишларидан кўнгли тўлмай ҳижолатда турар эдилар. Чунки Амир Темур кутубхонада қанча китоб борлиги, қандай маълумотларни қайси китобдан олиш мумкинлигини ва қайси масалага оид фикрлар айнан қайси китобдан жой олганлигини аниқ ва тиниқ таҳлиллар асосида исботлашга қодир инсон эдилар. Ўз навбатида ўз қўл остидаги барча ходимлардан ҳам шундай зийракликни талаб қилар, кези келганда уларга бунга қандай ёндашувлар асосида эришиш мумкинлигини эринмасдан ўргатар эди. Бу эса унинг вазирлар ва китобдорлар билан бўлиб ўтадиган суҳбатлар орасида келтириб ўтар эдилар.

Амир Темур кутубхонани давлат аҳамиятга молик масала даражасида тушунган ва уни такомиллаштириш учун бор кучни унга қаратган. Ҳазрат соҳибқирон вазирлар, амирлар, ҳокимлар хусусида, уларнинг сифатлари ва вазифалари ҳақида яна кўп гапларни айтди. Хиёл ўтиб китобдордан узр сўради:

— Эсим курсин, мавлоно, эзмалик қилиб сизни хоритиб қўйдим, чамаси. Бу гапларни шу ерда тўхтатиб, дунёнинг ажойиботларидин ҳам сўзлашсак.

Мавлоно Ориф ҳазрат соҳибқироннинг кўнглидагини топгандай бўлди. У китобларни варақлаганда, хиёл бош чайқаб қўйган эди. Демак, уни Кўксаройдаги кутубхонанинг умумий аҳволи қизиқтиради. Китоблар бироз нам тепчиб қолган. Демак, Кўксаройда кутубхона учун ажратилган хоналар захлик қилиб қолган. Китобдор буни анчадан бери айтмоқчи бўлиб юрган, лекин фурсати бўлмаган эди. Кўнглидагини бугун айтди:

— Хоналар захлик қилиб қолди, аълоҳазрат. Умуман, китоб учун деворлари мрамор бирлан қоплонгон хоналар тўғри келмас эркан, назаримда. Арча дарахтидин ясалгон сандуклар ҳам етишмайдур.

Ҳазрат соҳибқирон шу тобдаёқ вазири аъзамни чақиртириб, кутубхона ва китоблар хусусида унга қатор топшириқлар берди. У чиқиб кетгач, китобдорга мурожаат этди:

— Сиз, мавлоно, кутубхона хусусида не фикр бўлса, тортинмай келиб айтинг. Китоб, тақсирим, бебаҳо хазина. Ер қимирлаб қасрлар қулаб тушиши, азим шаҳарлар бир зумда йўқ бўлиб кетиши мумкин, наҳрлар издин чиқиб куриб қолиш ҳоллари ҳам бўлгон, хазинани қароқчи олиб кетиб, давлат бир фулуссиз қолиши ҳам мумкин. Аларни вақти билан тиклаб олса бўлур. Аммо китоб йўқ бўлиб кетса, уни ҳеч қачон тиклаб бўлмайдур. Биз кутубхона хусусида яна бафуржа ўйлаб кўрурмиз.

Шу билан китобдор билан бўлган суҳбат охирлади. Мавлоно Ориф фотиҳа ўқиб ўрнидан турди ва ҳазрат соҳибқирон билан хайрлашиб унинг ҳузуридан чиқди<sup>4</sup>.

Амир Темурнинг китоб сақлаш қоидаси ва у жойнинг озодалиги борасидаги бундай қарашлари ҳар қандай инсонни китоб сақлаш маданиятига қизиқишини уйғотади, албатта.

Амир Темур ва Темурийзодалар даврида турли соҳаларда қанчадан-қанча ютуқлар қўлга киритилган бўлса, инсоннинг илмий ва бадиий тафаккури натижаси бўлмиш китобларни яратиш, уларни кўчириш, сақлаш соҳасида ҳам катта ишлар амалга оширилган. Бу даврда хат ва китоб кўчириш, уни безаклар билан зийнатлаш билан боғлиқ бўлган машхур сиймолар, хаттотлар етишиб чиқдилар. Улардан, Мир Али Табризий, Султон Али Машҳадий, Мир Али Хиравий, Мир Имод, Султон Муҳаммад Ҳандон, Мавлоно Маъруф, Абдужамил котиб, Дарвеш Муҳаммад Самарқандий, Пир Муҳаммад Сўфи Бухорий ва бошқаларнинг номларини хурмат билан тилга олинади. Хаттотлар томонидан насталиқ хатида фикрларнинг гўзал тарзда баён қилиниши мутолаани ниҳоятда осонлаштиришга ёрдам берган. Китобларни муқовалаш, олтин суви ва расмлар (миниатюралар) билан безашнинг нодир санъаткорлари - Камолиддин Беҳзод, Маҳмуд Музаҳҳиблар ҳам ана шу даврда яшаб ижод қилган сиймолардандир. Ўз соҳасининг етук мутахассиси ва малакали хаттот ва рассомлар томонидан тайёрланган қўлёзмалар молиявий жиҳатдан иқтидорли шахслар буюртмаси билан амалга ошириларди ёки подшоҳлар кутубхонаси қошида бажарилар эди. Бундай китоблар ҳар жиҳатдан ноёб ва нодир қимматбаҳо ҳисобланарди. Моҳир хаттотлар томонидан кўчирилган китобларнинг нусхалари жуда кам бўлган, хаттоки, бир нусхадан бўлганлиги учун муаллифнинг ўз қўлёзмаси тарзида сақланган.

Демак, китобнинг аҳамиятини яхши англаган аждодларимиз китоб яратиш ишига - китобатчиликка алоҳида эътибор билан қарашган. XV-XVI асрларда Ўрта Осиёда китобатчилик ҳунармандчилигининг бир соҳаси сифатида такомил топди. Бу соҳа нафис санъатнинг юксак даражаси сифатида танилди. Бунда улўф соҳибқирон бобомиз Амир Темур ва унинг авлодлари, қолаверса, сўз мулкининг султони, буюк мутафаккир, илм ва фан аҳлининг ҳомийси Мир Алишер Навоий ҳазратларининг хизматлари беқиёсдир. Маълумки, темурийлар даврида китоб ёзиш ва уни безаш санъати ҳар қачонгидан ҳам катта рағбат кўрди. Шунинг учун ҳам бутун дунёни неча асрлар давомида лол қолдириб келаётган Шарқ китобатчилигининг энг нозик ва қимматли дурдоналари ана шу даврларда яратилди. Темур ва Улуғбек даврида хаттот, музаҳҳиб, наққош, мусаввир ҳамда саҳҳофларнинг юксак маҳорати безакли қўлёзмаларнинг шу

<sup>4</sup> Аҳмедов Б. Амир Темур. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1995, 323-бет.

қадар гўзал намуналари яратилдики, улар ҳанузга қадар жумлаи жаҳонни лол қолдириб келади<sup>5</sup>.

Салтанат кутубхоналари ва машҳур сиймолар кутубхоналари алоҳида манзилда, уларни сақловчи, янгисини кўчирадиган, зарар етказилган (барақлари йўқолган ёки сатрлари ўчган) китобларни таъмирловчи махсус мутахассислар билан таъминланганлар. Хатто китоблар ўзига хос тартиб билан сақланган. Унинг бошқарувчиси китобдор деб аталган. Машҳур мадрасаларда ҳам кутубхона учун алоҳида хужралар ажратилган ва унинг масъул ходимлари ҳам бўлган.

Ва ниҳоят, Амир Темурнинг ватани, халқи ва тарих олдида қилган яна бир катта хизмати борки, уни айтмай бўлмайди. У Ватани ва халқини бутун дунё олдида улуғлади! Туркистон заминини Испания, Италия, Франция, Англия, Русия, Хитой каби давлатлар танидилар ва тан олдилар. Биз буни ўша мамлакат подшоҳлари билан ҳазрат соҳибқирон ўртасидаги ёзишмалардан ва ўша замонлардан қолган тарихий китоблардан яхши биламиз. Ўша мактублардан бир қисми бизнинг замонамизгача етиб келган ва ҳозир Лондондаги машҳур Британия музейида, Парижнинг миллий кутубхонасида, Италияда сақланмоқда. Баъзи мактубларнинг нусхалари, кўп ҳолларда уларнинг қисқача мазмуни Низомиддин Шомий, Шарафиддин Али Яздий ва ибн Арабшоҳнинг китобларида келтирилган. Ҳазрат соҳибқироннинг Венеция ва Генуя дожлари билан ёзишмалари ҳақида эса Италиялик тарихчи Марино Санудонинг (XV-XVI а.) «Венеция дожларининг ҳаёти» деган китобида қимматли маълумотлар сақланиб қолган. Амир Темурнинг Франция подшоҳлари билан олиб борган ёзишмалари ҳақида XIX асрда ўтган машҳур француз шарқшуноси Силвестр де Саси, инглиз олими Е. Бретшнейдер, эронлик Мирза Муҳаммадхон Қазвиний ва бошқа олимларнинг асарларида қимматли маълумотларни учратамиз. Амир Темур давлатининг ташқи сиёсати ҳақида ўта муҳим маълумотлар учратамиз. Амир Темур давлатининг ташқи сиёсати ҳақида ўта муҳим маълумотлар 1404 йили унинг саройида қарийб уч ой туриб кетган Кастилия қироли Генрих III нинг элчиси Руи Гонсалес де Клавихонинг эсдаликларида мавжуд. Амир Темур давлатининг ташқи сиёсати ва жаҳонда тутган мавқеини бу мактубларсиз тасаввур қилиб бўлмайди, албатта. Уларни махсус ўрганмоқ зарур. Менимча бунга вақт етди...<sup>6</sup>

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш - халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир.

<sup>5</sup> Йўлдошев И.Ж. Ўзбек китобатчилиқ терминологияси. – “Фан”, 2004. 3-бет.

<sup>6</sup> Аҳмедов Б. Амир Темур. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1995, 582-бет.

(Президент Мирзиёев Шавкат Миромоновичнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузалари). - "Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил, 4 август.

2. Темур Тузуклари. - Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996-йил. - Б. 344.

3. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. - Тошкент, "Ўқитувчи" 1994. - Б 430.

4. Ахмедов Б. Амир Темур. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1995. - Б 640.

5. Йўлдошев И.Ж. Ўзбек китобатчилиқ терминологияси. - "Фан", 2004. - Б 214.

6. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар.- Тошкент, Шарқ, 1998. 240 б.

7. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 43-51.

8. Юлдашева, С. Н. (2020). СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АУДИТОРИИ. ТИПОЛОГИЯ ЧИТАТЕЛЕЙ. *Oriental Art and Culture*, (V).

9. Sohiboxon, Y. (2021). O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI. *Oriental Art and Culture*, (7), 260-268.

10. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.

11. Юлдашева, С. (2019). Китоб мутолаасини шакиллантиришда кутубхоначилиқ фаолияти. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 59-62.

12. Yuldasheva, S., & Madumarova, M. (2020). TASKS AND CONTENT OF BIBLIOGRAPHIC WORKS. *European Journal of Arts*, (1), 148-152.

13. Асқарова, М. (2020). ЎЗБЕК АДАБИЙ ТАНҚИДИ ТАРАҚҚИЁТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

14. Мирзаева, Н., & Асқарова, М. (2020). ЧЎЛПОН ИЖОДИДА МИЛЛИЙ УЙҒОНИШ ҲАРАКАТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

15. Асқарова, М. (2021). Адабий жараённинг зукко тадқиқотчиси. *Oriental Art and Culture*, (7), 209-216.

16. Askarova, M. (2020). Homil yakubov's views on navoi studies. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 788-792.

17. Askarova, M. (2021). Homil Yakubov's views on Oybek lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2412-2415.

18. Nurxon, I., & Habibjonov, I. (2021). КИТОВ ВА КИТОВХОНЛИК–INSON MANAVIYATINING KOZGUSI. *Oriental Art and Culture*, (6).

19. Ўғли Ҳабибжонов, И. Т. (2020). ЎЗБЕК СОЛИҚ ТЕРМИНЛАРИНИНГ АФФИКСАЦИЯ УСУЛИ БИЛАН ЯСАЛИШИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 200-206.

20. Ҳабибжонов, И. Т. Ў. (2021). СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА ДУБЛЕТЛИК ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Scientific progress*, 1(6), 842-846.

21. Ismoilova, N., & Habibjonov, I. (2021). Kitob va kitobxonlik–inson manaviyatining kozgusi. *Oriental art and culture*, 2(1), 159-166.

22. Habibjonov, I. (2020). Syntactic design of uzbek tax and customs terminology. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2910-2915.

23. Oglu, H. I. T. (2020). Formation of uzbek tax and customs terms (on the example of materials on the history of language). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1308-1313.

24. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.

25. Рўзиева, Г., & Ҳабибжонов, И. (2021). САДР ЗИЁ КУТУБХОНАСИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

26. Normatova, M., & Ikromjon, X. (2021). “QUTADG’U BILIG” IKKI JANONNI TUTISHGA OCHUVCHI YO’L. *Oriental Art and Culture*, (6).

27. Ўғли, Ҳ. И. Т. (2020). ТИЛШУНОСЛИҚДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ТАДҚИҚИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

28. Solieva, H. O. (2021). THE ROLE OF READING IN THE FORMATION OF A PERSON'S OPERATIVE MEMORY AND MENTAL MATURITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 178-185.

29. Солиева, Ҳ. О. (2018). ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО НА МЕДИЦИНСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-6), 56-60.

30. Омоновна, С. Ҳ. (2018). «Бебош бола» синдроми ёхуд нега болалар асабийлашади?. *Современное образование (Узбекистан)*, (11).

31. Омоновна, С. Ҳ. (2018). Ўқувчилар тарбиясини шакллантиришда оналарга педагогик билим бериш тизимининг аҳамияти. *Современное образование (Узбекистан)*, (5).

32. Омоновна, С. Ҳ. (2019). Агар бола сизни «Эшитмаса»... *Современное образование (Узбекистан)*, (4 (77)), 58-63.



33. Омоновна, Ҳ. С. (2020). ТАРИХИЙ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРНИ КОНСЕРВАТЦИЯ-РЕСТАВРАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ ХУСУСИДА. Oriental Art and Culture, (V).

34. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Глобаллашув жараёнида ахборот оқимининг ёшлар маънавиятига таъсири хусусида. Oriental Art and Culture, (7), 217-224.

35. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Маданият ва маънавият масалларида тарихий илдизлар излари. Oriental Art and Culture, (7), 244-253.

36. Парпиев, А. (2021). ЖАДИДЧИ ОБИДЖОН МАҲМУДОВНИНГ ФАОЛИЯТИДАГИ ЯНГИ ҚИРРАЛАР. Oriental Art and Culture, (6).

## O‘ZBEK TEATRI RIVOJIDA MA’SUMA QORIYEVA FENOMENI

Sarvinoz Saksonova

saksonovasarvinoz15@gmail.com

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining  
Farg‘ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada teatr san’ati rivojida aktrisalarning tutgan o‘rni. O‘zbek ayoli qiyofasini yaratish va uning prototipi haqida ideal tasavvur yaratishda Ma’suma Qoriyeva ijodining beqiyos hissi haqida fikr boradi. Unda yillar davomida ayol va erkak o‘rtasidagi gender tengsizlik, bugungi kunda hamon san’at nafasida yashayotgan nozik muammo aks etgan. Maqolada aks etgan muammolar bugungi kun teatr va kino san’ati uchun birdek dolzarbdir.

**Kalit so‘zlar:** Ijod, fenomen, benefis, repertuar, drama, tragediya, uslub, san’at, tanqid.

## THE PHENOMENON OF MASUMA QORIYEVA IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK THEATER

Sarvinoz Saksonova

saksonovasarvinoz15@gmail.com

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The role of actresses in the development of theatrical art in this article. Masuma Kariyeva's work is an invaluable contribution to the creation of the image of an Uzbek woman and the creation of an ideal image of her prototype. It reflects the gender inequality between men and women over the years, a delicate issue that still lives on in the breath of art today. The issues raised in the article are equally relevant to theater and cinema today.

**Keywords:** Creation, phenomenon, benefit, repertoire, drama, tragedy, style, art, criticism.

San’at azaldan dunyoning qurilishi haqidagi diniy, afsonaviy tasavvurlar bilan bog‘liq holda rivojlangan. Ibtidoiy davrdan to bugungi kunga qadar san’atdagi tasvirlar ko‘p xollarda o‘ziga xos tumor vazifasini o‘tab, yovuzlik va ezgulik belgisi sifatida nafaqat insonlar tomoshasiga, balki afsonaviy xudolarda xush kayfiyat va yoqimli fikrlar uyg‘otishga mo‘ljallangan holda rivojlangan. O‘rta asrlardagi san’at taraqqiyotida va turli yo‘nalishlarda ham bu an’anani kuzatish mumkin. Ularda asosiy

e'tibor syujetga berilgan, chunki bunday asarlar savodsiz insonlar ongida avvalo dinni targ'ib etish va uni mustahkamlashga qaratilgan.

Har qanday san'at turi har bir tarixiy bosqichda, geografik makonda yoki an'analar ta'sirida o'ziga xos ko'rinish, rivojlanish kasb etadi. Teatr san'ati ham qadimgi davrlardan to shu kunga qadar insonlar va jamoa e'tiborini qozongan. Tomoshabinni boshqarish, tarbiyalash, uning qalbida kotarsis sodir eta olish – poklash, undash kabi turfa xillik va hodisalarning to'liq bayoni mavjud, u taassurotlar, turli effektlarni o'zida mujassamlashtiradi, barcha hissiyotlarni, hayajon, xarakter, o'zaro munosabatlarni ifodalay oladi. Biroq, bu boylik, rang-baranglik qimmatli salohiyatni qurbon qilish, tinimsiz mehnat va yo'qotishlar evazigadir.

O'zbek teatr san'ati ham o'z rivoji dovonida anchayin murakkab va ziddiyatli yo'llarni bosib o'tgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yangi o'zbek teatrining yaratilishi to'g'risida professor Toshpo'lat Tursunov shunday deydi: "... Bu tomoshaxona Turkistonning madaniy hayotiga begona bo'lib, o'lkani Rossiya istilo qilib olganidan keyin "rus teatri" ko'rinishida, bu yerga ko'chirib keltirilgan rus zodagon va ziyolilari, harbiy xizmatchi va boshqa soha egalaridan tashkil topgan fuqarolarga xizmat qilish uchun kirib keldi".<sup>1</sup> Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek madaniyati va etnogeneziga aloqasi haminqadar yo'q bo'lgan yangicha nafas kirib kelgan. Bu o'z navbatida mutaxassis va kadr talab etadi. O'sha davr qiyofasi bilan fikrlaydigan bo'lsak, millatning prototipini rus aktyor, dramaturg, aktrisa va rejissorlari sahnaga olib chiqqan. Bu o'z navbatida etnik madaniyat va ma'naviy qiyofaning qo'pol aks etishiga sababchi bo'lgan. Shunday vaziyatda ilk o'zbek rejissor va aktyorlari dadil qadam bilan teatr sahnaga kirib kela boshlagan. Avvalo jadidlar harakati buni ommalashtirgan bo'lsa, keyinchalik Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonovlar kabi ilk rejissorlar qanoti ostida yangi yulduzlar porlagan. Musiqali teatr chamanining ilk va betakror bulbullari Ma'suma Qoriyeva, Tursunoy Saidazimova, Halima Nosirovalardir. Ular orasida tengsiz va turfa yo'llarni bosib o'tgan matonatli ayol sifatida Ma'suma Qoriyevani alohida ta'kidlash joiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 9-may "Xotira va qadrlash" kunida Ma'suma Qoriyeva faoliyatiga to'xtalib quyidagi fikrlarni bildirgani bejiz emas: "Ma'lumki, taniqli sahna ustasi Ma'suma Qoriyeva urushdan oldingi yillarda sobiq Hamza harakatining taniqli namoyandasi Abduvohid qori, qayin ukasi – iste'dodli shoir Oltoy Qoriyev, turmush o'rtog'i – Madaniyat vazirligi san'at boshqarmasining boshlig'i Bosit Qoriyev 30-yillarda nohaq siyosiy qatag'onga uchraydi. Qaynotasi va eri o'lim jazosiga hukm qilinadi. teatrining yetakchi artistlaridan biri bo'lgan.

Yurtga yov bostirib kelgan og'ir kunlarda Ma'suma Qoriyeva o'z boshiga tushgan fojeani unutib, ikki farzandi – Shavkat va Botir Qoriyevlarni fashizmga qarshi jangga

<sup>1</sup> Toshpo'lat Tursunov. XX asr o'zbek teatri tarixi 1900-2007. "Art Press" Co.Ltd, 2010. 28-bet.

yuboradi. O‘zi esa hozirgi O‘zbek milliy teatrida kasaba uyushmasiga rahbarlik qilib, g‘oyat og‘ir davrda xodimlarni moddiy ta‘minlash uchun jonbozlik ko‘rsatadi.

Urush tugaydi, lekin Ma‘suma ayaning farzandlaridan darak bo‘lmaydi. Mushtipar ona ularning izlarini izlab Moskvaga boradi. U yerda ikkala o‘g‘li ham janglarda halok bo‘lganini aniqlaydi.

Ma‘lum bo‘lishicha, urushda ko‘rsatgan jasorati uchun Shavkat Qoriyev “Qizil bayroq” ordeni, Botir Qoriyev esa “Qizil yulduz” ordeni bilan taqdirlangan ekan. Ming afsuski, Ma‘suma Qoriyeva u paytda bundan bexabar edi. Onaizor farzandlari dog‘ini ko‘tarolmasdan, 1946 yili Moskvada vafot etadi”.<sup>2</sup>

Ma‘suma Qoriyeva 1902-1946-yillarda yashab ijod etgan. Ziyoli oilasida tavallud topgan. O‘zbekiston xalq artisti unvonini olgan ushbu betakror aktrisaning haqiqiy ismi Sa‘diya Nizomiddinova bo‘lgan. O‘zbek qizlari orasida ulg‘aygan aktrisa asli tatar millatiga mansub bo‘lgan. 1916-yili 15 yoshli Ma‘suma Qoriyeva Bokudan gastrolga kelgan teatr truppasining “Layli va Majnun” spektaklini tomosha qilib sahna san‘atiga muhabbati paydo bo‘ladi. Ayni shu sabab o‘sha paytdagi teatr truppasi rahbari Sidqi Ruhillodan iltimos qilib ruhsat olgach, ommaviy teatr tomoshalarida ham ishtirok etgan.

Uning sahna san‘atiga qiziqishi va aktrisa bo‘lish haqidagi orzusi o‘sha davr jamiyatida hukmron qarashlar qarshisida katta to‘siq edi albatta. Ammo barcha sodir bo‘lajak qarshiliklarga labbay deb, cho‘chimasdan, dovyuraklik bilan sahnaga chiqib kelgan. Uning yoqimli qo‘shiq aytish layoqati va musiqadan bilimli bo‘lgani yutuqlarining kaliti bo‘ldi. Aktrisa 1916-1918-yillarda havaskorlik to‘garaklarida qatnashib yurib ko‘zga tashlangach, 1919-yilda “Turon” truppasiga ishga taklif etilgan. Truppaning shakllanishi va aktrisaning sahna yuziga dadil chiqishi to‘g‘risida bir qator manbalar saqlangan. Ma‘suma Qoriyeva haqidagi ma‘lumotlar haminqadar kam ekanligi, ba‘zilari esa umuman yo‘q bo‘lganligini inobatga olsak, biz uchun eng ishonchli manbalar uning shogirdlari xotira daftarlaridagi chizgilardir. Teatrning shakllanishi va Ma‘suma Qoriyeva matonatini yodga olar ekan O‘zbekiston Qahramoni Zikir Muhammadjonov quyidagicha xotirlaydi:

“O‘sha yillari taraqqiyot yo‘liga tushgan, o‘zlarini “jadid” deb nomlagan yoshlardan bir nechtasi teatr tuzish payida bo‘ladilar. Chor Rossiyasining Toshkentdagi general-gubernatoriga sovg‘alar taqdim etib, “Layli va Majnun” spektaklini qo‘yishga ruxsat so‘raydilar. Ayyor general-gubernator sovg‘alarni mamnunlik bilan qabul qiladi-yu hal etishni boshidan soqit qilib, Peterburgdan ruxsat olib kelishlariga ruxsat berganday bo‘ldi. Bunday uzoq safarga borib, byurokrat amaldorlar eshiklarini qoqib, olti oydan so‘ng, spektaklni faqat bir martagina

<sup>2</sup> Sh.M.Mirziyoyev. 9-may “Xotira va qadrlash” kunidagi nutqidan. 2021-yil.

ko'rsatishga ijozat olib qaytadilar. Garchi bir marta bo'lsa ham ular zavq-shavq bilan ishga kirishadilar. Ammo shariat ayol kishining sahnaga chiqishiga monelik qilardi.

Ma'suma Qoriyeva toshbo'ronga tayyor turgan holda rol ijro etishga kirishadi. Boshqa ayol rollarini erkaklar ijro etishga majbur bo'lgan edi. Spektakl shu qadar muvaffaqiyat qozongan ediki, bir marta ijro etib kifoyalanishga hech kim rozi bo'lolmasdi. Nihoyat, pyesani ruschaga tarjima qilib, yana amaldorlar eshigiga yugurishdi...".<sup>3</sup> Bundan ko'rinadiki, nafaqat ayollarning rol ijro etishi, balki spektaklni qo'yishning o'zi ham katta muammo bo'lgan.

Ma'suma Qoriyeva Abror Xidoyatovning eng yaxshi hamnafasi sifatida sahnada gavdalandi. Ham musiqali drama, ham drama spektakllarida bosh qahramon rollarni ijro etgan aktrisa Halima ("Halima"), Layli ("Layli va Majnun"), Shirin ("Farhod va Shirin") xalq e'tirofiga sazovor bo'lgan. Ayniqsa "Halima" spektaklidagi ayol qahramonning o'zbek ayoli tomonidan ijro etilishi jamoatchilik tahsiniga sabab bo'ladi. Aynan shu spektakl haqida fikr yuritilar ekan, tinimsiz namoyish etilayotgan "Halima" spektakllaridan biri "Ma'suma Qoriyeva benefisi" deb xabar berilishi munosabati bilan Cho'lpon matbuotda aktrisa sha'niga she'riy qasida e'lon qiladi.<sup>4</sup> Ushbu qasidada dadil va To'marismonand va matonatli ayol qiyofasini ko'rish mumkin.

Ey, yo'qsullar sahnasida eng qimmatli san'atkor,  
Ey, zang bosgan ko'ngillarni oqartuvchi malika!  
O'zbek qizi o'z og'zida aytolmagan so'zini  
Sening o'tkir tiling bilan eshittirdi eliga.  
O'zbek qizin sil oqartgan so'lg'in, g'amli yuzini  
Sen orqali ko'rsatdida qultirish yo'lini.  
Shuning uchun mendan senga eng samimiy olqishlar  
Ey, yo'qsullar sahnasida eng qimmatli san'atkor.

Bu matonat egasi urushdan keyingi va oldingi yillarda qator yo'qotishlariga qaramay sahnani sevdi, tomoshabinlar oldida qaddini egmadi. Urushda ikki o'g'li va qatag'on sababli turmush o'rtog'idan ayrilgan bo'lsada, minglab tomoshabinlar va yuzlab shogirdlar xotirasida abadiy qoldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshpo'lat Tursunov. XX asr o'zbek teatri tarixi 1900-2007. "Art Press" Co.Ltd, 2010. 28-bet.
2. Sh.M.Mirziyoyev. 9-may "Xotira va qadrlash" kunidagi nutqidan. 2021-yil.
3. "Ijodiy parvoz" gazetasi. 2019-yil yanvar-fevral, № 69-70. 4-bet.

<sup>3</sup> "Ijodiy parvoz" gazetasi. 2019-yil yanvar-fevral, № 69-70. 4-bet.

<sup>4</sup> Toshpo'lat Tursunov. XX asr o'zbek teatri tarixi 1900-2007. "Art Press" Co.Ltd, 2010. 172-bet.

4. Toshpo‘lat Tursunov. XX asr o‘zbek teatri tarixi 1900-2007. “Art Press” Co.Ltd, 2010. 172-bet.

## **OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA "INTEGRATSIYA UCHBURCHAGI" VA INNOVATSION-KORPORATIV HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

A.X.Alinazarov

D.A.Qayumov

O.I.Dadamirzayev

Namangan muhandislik-qurilish instituti

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda innovatsion-korporativ hamkorlikning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Fan, ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlikni rivojlantirishda innovatsion uslublardan foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, innovatsiya, korporativ hamkorlik, oliy ta'lim, fan, ishlab chiqarish, sifatli ta'lim.

## **CHARACTERISTICS OF THE INTEGRATION TRIANGLE AND INNOVATIVE-CORPORATE COOPERATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

A.X.Alinazarov

D.A.Qayumov

O.I.Dadamirzayev

Namangan engineering construction institute

**Abstract:** The article discusses the specifics of the integration of education, science and industry in Uzbekistan, as well as the development of innovation-corporate cooperation. It is shown that the use of innovative methods is important in the development of science, production integration and innovation cooperation.

**Keywords:** Integration, innovation, corporate cooperation, higher education, science, manufacturing, quality education.

*Mavzuning dolzarbligi:* Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI" nomli asarida sifatli ta'lim - inson kapitalini rivojlantirishning xal qiluvchi omili to'g'risida gapirib, bunda uzluksiz ta'lim tizimi uchun milliy o'quv dasturini joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor berib o'tgan [1].

Bizga ma'lumki, taraqqiyot va yuksalishlarni ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya hamda innovatsion jarayonlarsiz tasavvur etish qiyin. Innovatsiya, innovatsion markazlar, innovatsion muhit, uning shakllanishi, rivoji bilan bog'liq texnologiya hamda qonuniyatlar borasida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor bevosita rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlash joizdir.

Shu bois ham davlat shaxsni shakllanishi va kamol topishida muhim ahamiyatga ega bir qator vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga oladi. Shaxsni ta'lim olishi bepul ta'minlanishi masalasi asosiy qomusimizning 41 - moddasida ham belgilab qo'yilgan.

Chunki millat bilimining sifat darajasi mamlakatni kelgusidagi strategik rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Millat bilimining darajasi esa ta'lim xizmati natijasida shakllanadi. Mamlakatning dunyo bozorida raqobatbardoshligi millatning intellektual va ilmiy potentsiali darajalariga chambarchas bog'liqdir.

Shu bois davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining negizida ta'limga muhim ahamiyat berib kelinmoqda. Ta'lim olish bo'yicha davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoit, imkoniyatlar asosida shaxsning shakllanishi, kamol topishi va o'z maqsad hamda manfaatlarini ruyobga chiqarilishini ta'minlashi:

- davlatning shaxsni konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish borasidagi vazifasi ijrosini ta'minlaydi;

- shaxsning davlat, jamiyat va o'zi uchun foydali sub'ekt sifatida shakllanishiga;

- jamiyat a'zosi sifatida shaxsda davlat va xalqning umumiy manfaatlarini asosida birlashish immunitetini paydo bo'lishiga;

- oilani moddiy jihatdan ta'minlash va oila a'zolarini jamiyat hamda davlat uchun zarur sub'ekt sifatida shakllantirishda ishtirok etishi kabi bir qator vazifalar ijrosi samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Shuning uchun ta'lim sifati va uni shakllantirishni doimiy ravishda takomillashtirib borish ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan ta'lim va tarbiya, uni tashkil etish hamda huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta'lim va tarbiya masalalariga to'xtalib, «Farzandlarimiz-bizning kelajagimiz. Xalqimiz ertasining qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq», deb ta'kidlaganlarida aynan davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarini barcha jabhalardagi uyg'unligi hamda uni ta'minlash mexanizmi negizida ta'lim-tarbiyaning sifati birinchi o'rindaligi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» gi Qonunining asosiy maqsadi «Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik



davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish» hisoblanadi [2].

Milliy dastur ijrosini ta'minlash chora-tadbirlaridan biri ta'limning fan hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim omildir. Shu bois Yevropa va rivojlangan boshqa barcha davlatlarda ta'lim sifatini oshirishda fan va ishlab chiqarish integratsiyasi masalasiga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda.

*Muhokama:* Mamlakatimizda ham ta'lim sifatini oshirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e'tibor kuchaydi. Shuning uchun kadrlar tayyorlashning uchinchi bosqichida ta'lim sifatini oshirish va unda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda o'zaro hamkorligi masalasini tadqiq etish xorijiy olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Lekin ular tadqiqotlari bilan tanishish mazkur masalaga turli yondoshuv va qarashlar mavjudligini kursatadi. Moddiy mahsulotdan farqli ravishda oliy ta'lim mahsulotini tayyorlash jarayoni va uning sifatini aniqlash juda ko'p o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ta'lim xizmatlari mahsulotini tayyorlash va uning sifatini oshirish masalalarini tadqiq etgan mahalliy hamda xorijiy olimlar asosan mavzuga sotsiologik va pedagogik nuqtai-nazardan yondoshganlar. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va uning ta'lim sifati hamda mehnat bozori talabiga moslashuvchan kadr tayyorlashdagi roli va uning samaradorligini oshirishda iqtisodiy-huquqiy mexanizmlardan foydalanish masalalari o'rganilmagan.

Oliy ta'limda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta'lim sifatiga ta'sirini baholash va ushbu mexanizmdan samarali foydalanish yo'llarini belgilashga oid tavsiyalar berish maqsadida avvalo ta'lim sifati tushunchasi mazmuni to'g'risidagi qarashlarni o'rganish zarur. Ta'lim sifati, uning mazmuni va fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi to'g'risidagi qarashlarni o'rganish asosida ta'lim sifatini yaxshilashdagi rolini oshirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlar bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun avvalo ta'lim sifati tushunchasi, uning mazmuni, uning komponentlari nimalardan iborat, ta'lim sifatiga qanday omillar ta'sir etadi, degan masalalar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim sifati keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni ta'minlash bir qator omillarga bog'liqdir. Ushbu tushuncha mazmuni bilan chuqurroq tanishish uchun xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ushbu atama to'g'risidagi qarashlar, ularning mazmuni, umumiy hamda farqli jihatlarini o'rganamiz.

Akademik A. Novikov fikricha, «Ta'lim sifati deganda - me'yoriy talablar, ijtimoiy va shaxs ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim natijasi darajasini ifodalovchi kursatkichlar tizimi tushiniladi» [3].

Demak, olimning fikricha ta'lim sifati komponentlari me'yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojdan iborat. Uni baholash uchun esa ushbu komponentlar darajasini ifodalovchi kursatkichlar tizimini aniqlash zarur.

A.M.Katsning fikricha "Ta'lim sifati shaxs, jamiyat va davlatning belgilangan talablarini qondirish darajasini ifodalovchi ta'lim elementlari yig'indisi" hisoblanadi [4].

V.A.Malkova "Ta'lim sifati - o'quvchining mavjud ijtimoiy sharoitlarga moslashishini ifodalovchi munosabatlar tizimi", degan qarashni bildiradi [5].

Yuqoridagi fikrlar va qarashlarni umumlashtiradigan bo'lsak, ta'lim sifatida shaxs, jamiyat hamda davlat manfaatlari uyg'unligi ta'minlanishi muhim jihat hisoblanadi. Ta'lim sifati va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida bayon etilgan qarashlarda aynan qanday kursatkichlar ta'lim sifatini baholovchi asosiy kursatkichlar hisoblanishi, ular ta'sirini baholash mezonlari hamda ta'lim sifatini baholashga yondoshishda qanday tamoyillarga asoslanish zarurligi to'g'risida aniq xulosaga kelinmaganligini ko'rish mumkin.

Mamlakatimizning ta'lim tizimi o'ziga xos bo'lib, bizda ta'limni tashkil etish bir qator xususiyatlariga ko'ra boshqa davlatlardan farq qiladi. Shuning uchun, ta'lim sifatini ta'minlash va uni baholashda boshqa davlat amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri qo'llab bo'lmaydi. Bu holat esa mamlakatimizda ta'lim sifatini ta'minlash va uni baholash tizimiga o'ziga xos yondoshuv zarurligini talab etadi.

Ma'lumki, ta'lim natijasi bo'lgan mahsulot, ya'ni yosh kadrlar ist'molchisi ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar bozori hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslardir. Dunyo va mamlakatimiz ta'lim xizmatlari bozori holati tahlilida nafaqat ta'lim sifati balki, ta'lim xizmatlarini tashkil etish, iste'molchi talablarini inobatga olish va ularni baholashga oid yondoshuvlarda ham turlicha qarashlar hamda mezonlar mavjudligini ko'rish mumkin. Jamiyat hayotining rivojlanish darajasi tezlashuvi esa ta'lim xizmatlari mahsulotga bo'lgan talab va taklifda nomuvofiqlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sifati va bozor talablari o'rtasida yuzaga kelayotgan nomuvofiqliklar sababini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- ta'lim xizmatlarini tashkil etishning bozor talablaridan ortda qolishi;
- ta'lim xizmatlari turlarini iste'molchi bilan o'zaro bog'lanmaganligi;
- ta'lim muassasalari va iste'molchilar o'rtasidagi korporativ hamkorlik masalalariga yetarli e'tibor berilmasligi;
- ta'lim muassasalarining o'zaro innovatsion korporativ hamkorligi samaradorligi pastligi va hisobotlar uchun tashkil etilishi.

Fikrimizcha, ta'lim sifatiga baho berishda unga ta'sir etadigan omillarni ta'lim tizimida ishtirok etuvchi sub'ektlar bo'yicha guruhlab o'rganish zarur. Bunda ta'lim tizimi sub'ektlari bo'yicha ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha guruhlab olish maqsadga muvofiq:

- ta'lim siyosatini ishlab chiquvchi organga bog'liq omillar;
- ta'lim muassasasiga bog'liq omillar;
- ta'lim oluvchiga bog'liq omillar;
- iste'molchilarga bog'liq omillar;
- ta'lim muassasasi va iste'molchilar innovatsion korporativ hamkorligiga bog'liq omillar.

Qayd etilgan har guruhda ta'lim sifatiga bevosita va bilvosita ta'sir etadigan omillar mavjud bo'lib, ular ta'lim sifatining ijobiy yoki salbiy tarafga o'zgarishiga ta'sir etadi. Shuning uchun har bir guruh omilni ta'lim sifatiga ta'sirini alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Shu bois biz ushbu loyiha ishimizda ta'lim sub'ektlari uchun umumiy manfaatdorlikni ta'minlash nuqtai-nazaridan amalga oshirilishi muhim hisoblangan "ta'lim muassasasi va iste'molchilar fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga bog'liq omillar" xususida va ularni tashkiliy, huquqiy va metodologik jihatdan takomillashtirishga oid o'z qarashlarimizni bayon etamiz.

Mamlakatimizda ijtimoiy siyosat muhim ahamiyat kasb etishi munosabati, davlat ta'lim siyosatini yaratuvchi va uning natijasidan bevosita hamda bilvosita manfaatdor hisoblanadi. Davlatning oliy ta'lim natijasidan bevosita manfaatdorligi bitiruvchi kadrlarning davlat funktsiya hamda vazifalarini bajaruvchi shaxsni ish beruvchisi ekanligida namoyon bo'ladi.

Bilvosita manfaatdorligi esa shaxsning ta'lim natijasida olgan bilimlarini jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida faol foydalanishi natijasida oila, yurt tinchligi, farovonligi va ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan faoliyati natijasida ifodalanadi.

Davlat ta'limni huquqiy, tashkiliy va metodologik ta'minotlari masalalarini takomillashtirish, ta'lim tizimiga innovatsion shakllarni joriy etish hamda ta'lim tashkiliy va sifat jihatlarini xalqaro me'yorlar talablariga moslashtirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirmoqda.

Davlat ta'lim xizmatlarining natijasidan bevosita va bilvosita manfaatdor taraf sifatida o'z vazifalarini bajarib kelmoqda. Lekin ta'lim sifati va natijasidan manfaatdor taraflarning boshqa ishtirokchilarining ta'lim sifatini oshirishni ta'minlashdagi ishtiroki yetarli emas. Shuning uchun ta'lim muassasalari reytingini aniqlash bo'yicha mezonlardan biri sifatida iste'molchilardan o'tkazilayotgan so'rovlar natijalariga ko'ra ayrim yo'nalishlar va oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlar sifati pasayishi kuzatilayotganiga guvoh bo'lish mumkin.

Demak, bu borada yetarlicha muammolar mavjud. Bu muammolarni yo'qotish va ta'lim orqali fanni, fan orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun integratsiyani amalga oshirish zarur.

V.A.Slastyoninning fikricha, "innovatsiya" maqsadga qaratilgan o'zgarish bo'lib, qo'llanish sohasidagi tizimni bir holatdan sifat jihatdan yangi holatga o'tkazish, uni tubdan takomillashtirishni, innovatsion jarayon-yangilikni yaratish, o'zgartirish, qo'llash va tarqatishdagi kompleks faoliyatni anglatadi [6]. Innovatsiyalar nafaqat ta'limni balki, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida ham ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

*Xulosa:* OTMda Oliy ta'lim muassasalarida integratsiya "Uchburchagi" va innovatsion-korporativ hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlarining ahamiyati tahlil qilindi. OTM, Fan muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan har bir shaxs, rahbar va ilmiy xodim integratsiya va innovatsion-korporativ hamkorlik sifatini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuvlar asoslarini bilishlari maqsadga muvofiq bo'lishi lozimdir.

*Tavsiya:* Har bir ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish korxonalarining muammolar bazasi ishlab chiqilishi va bu baza fanlar akademiyasining tegishli muassasalari bilan birgalikda tahlil qilinishi asosida yo'nalish bo'yicha maxsus laboratoriya, konstruktorlik byurolari va texnoparklar davlat byudjeti va ishlab chiqarish korxonalarini mablag'lari hisobidan tashkil qilinishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev "YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI". -Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son.
3. Новиков А.М., Д.А. Новиков, «Как оценивать качество образования?», [www.anovikov.ru](http://www.anovikov.ru), (Муаллиф таржимаси).
4. Кац А.М. [www.mathnet.ru/at13796](http://www.mathnet.ru/at13796)автор: АМ Кац. Теория и применение регуляторов скорости с упруго-присоединенным катарактом. А. М. Кац. Центральный научно-исследовательский дизельный.
5. Малькова В.А. [studopedia.ru/11\\_140699\\_vnmalkova.html](http://studopedia.ru/11_140699_vnmalkova.html)13 июн. 2015 г. - Новое понимание качества образования формируется в ответ на вызовы со стороны мирового сообщества, страны, области, города.
6. В.А. Слостенин и др. Педагогика: учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений. М.:, 2015 г.

## QO‘QON SHAHAR MUSIQALI DRAMA TEATRI AKTYORI RAXMONJON PO‘LATOVNING IJRO TALQINI

Anvarov Otabek

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Usmonov Shamsiddin Yo‘lchiboyevich

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining

Farg‘ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ma’lumki Qo‘qon shahri azal-azaldan san’atkorlar, yozuvchilar va hunarmandlar shahri hisoblanadi. Xo‘qandi latif deb atalishi ham bejiz emas albatta. Latif kuy qo‘shiq-lari, latif askiyalari, o‘ziga xos latif tarixi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu latif shaharning teatr san’ati ham respublikamizda o‘z o‘rniga ega ekanligi hech kimga sir emas. Shaharning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turgan Qo‘qon shahar musiqali drama teatri ham so‘ngi yillarda davlatimiz tomonidan ilgari surilayotgan, yangi siyosat, xususan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga o‘z hissasini qo‘shgan xolda, ko‘plab yangi, yetuk, milliy va chet-el klassik asarlariga qo‘l urib, ijodiy izlanishlar olib bormoqda.

**Kalit so‘zlar:** aktyor, obraz, ichki-psixik, psixofizik, xatti-harakat, musiqali drama, talqin, mahorat, rol, ijro, teatr, sahna, kechinma san’at, qayta gavdalantirish, pyesa, rejissyor, pafos.

## KOKAND MUSICAL DRAMA THEATER ACTOR RAKHMONJON POLATOV'S PERFORMANCE

Anvarov Otabek

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Usmanov Shamsiddin Yulchiboyevich

Fergana regional branch of Uzbekistna State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** It is known that Kokand has always been a city of artists, writers and craftsmen. It is no coincidence that Khogandi is called latif. Latif melodies, latif askiyas, and latif history are good examples. It is no secret that the theatrical art of this delicate city also has its place in our republic. The Kokand Musical Drama Theater, which adds to the beauty of the city, has been conducting many new, mature, national and foreign classics in recent years, contributing to the new policy, especially the development strategy of Uzbekistan.

**Keywords:** actor, image, inner-psychic, psychophysical, action, musical drama, interpretation, skill, role, performance, theater, stage, experiential art, re-enactment, play, director, pathos.

Qo‘qon shahar musiqali drama teatri respublikamizda o‘ziga xos, ijodiy hamda ijro uslubi bilan yaqqol ajralib turadi. Buni aktyorlarning vodiylklarga xos chapani, samimiy, emotsional ijrolari orqali ko‘rishimiz mumkin. Aktyorlarga biror rol ishonib topshirilar ekan, har-bir aktyor mas‘uliyat bilan o‘zlarining vazifalarini bajarishga kirishadilar. Bunda asosan tajribali aktyorlarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribali ustoz san‘atkorlarning mahorat maktabi, yosh iste‘dodli aktyorlarni tarbiyalashda ahamiyatli ekanligi bois teatrda ustoz-shogird an‘anasiga ham katta e‘tibor qaratilgan. Ustoz san‘atkorlarning yoshlar bilan, doimo ijodiy hamkorlikda ekanligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu ham albatta teatr sahnasida, har jihatdan mukammal asarlar yaratilishiga turtki bo‘lmoqda.

Har bir aktyor rol ijro etayotganda tahlil etilgan obraz maqsad-vazifasining muhim ekanligini yodda tutishi lozim. Aktyor ijro etayotgan har bir roli uchun u xoh ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin, ana shu rolning o‘zigagina xos bo‘lgan jest-mimikalar ifodasini yaratadi. Har bir obraz timsolida aktyor ana shu rolning hayoti bilan yashab, uning tili bilan so‘zlashi lozim. Mazkur jarayonda uning fizik holati ham: yurish turishi, gapirish uslublari, harakatlari ham ana shu obraz qiyofasiga moslashib boradi. Bu borada Qo‘qon shahar musiqali drama teatrining ustoz san‘atkori Rahmonjon Po‘latov o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Rahmonjon Po‘latov o‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lib, xoh tarixiy, xoh zamonaviy asar bo‘lsin aktyor ijrosida o‘zgacha yondashuvni ko‘rishimiz mumkin. Eng avvalo aktyorning o‘ziga xosligi uning mas‘uliyati, intizomi, jamoaviy ishda boshqalarga nisbatan faol va talabchan ekanligi bilan ajralib turishi lozim. “Muomalada shirinsuxan bo‘lish, kundalik hayotda - kamtar bo‘lish, jamoa ishida bir-biriga yelkadosh bo‘lish, yurish- turishda oliftagarchilik qilmaslik va manmansiramalik, o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaslik, tanqidiy fikrlarga sabrli bo‘lish, o‘zgalar fikri bilan hisoblashish, mashg‘ulotlarda jiddiy intizom va fikrni bir joyga jamlash, kichik rollar yo‘q, kichik aktyorlar bor, bugun - Gamlet, ertaga - sahna ishchisi ko‘pchilik oldida, mahoratli aktyor uchun roldan voz kechish, teatr ijodiy hayotida har qanday qonunni buzish - bu jinoyatdir, kechga qolish, erinchoqlik, o‘jarlik, asabiylashish, yomon xarakter, rolni bilmaslik, bir narsani ikki marotaba qaytarishga majbur qilish - ish uchun juda zararli bo‘lib, uni ildizidan quritishi lozim.”, deb ta‘kidlaydi teatr asoschilaridan biri E. B. Vaxtangov. Aynan ushbu ko‘rsatmalarga amal qilish bo‘yicha xislatni R. Po‘latov timsolida ham ko‘rishimiz mumkin.

R.Po‘latov o‘zi uchun ishonib topshirilgan obraz ustida chuqur izlanish olib boradi. U eng avvalo pyesani ko‘p marotaba o‘qish orqali asarni mukammal o‘rganadi. Aktyor pyesani mukammal o‘rganib bo‘lgach, muallif haqida ma‘lumotlar to‘playdi va uning boshqa asarlarini o‘rganishga kirishadi. Bu jarayonda aktyor, rejissyor bilan muntazam ravishda suhbatlashib o‘zi uchun kerakli ma‘lumotlar to‘playdi. Rejissyorning o‘y fikrlari bilan muntazam qiziqishi orqali o‘zi uchun topshirilgan rolni qanday qayta gavdalandirish kerak ekanligini o‘rganadi. Rejissyorning g‘oyasi, asarni sahnalashtirishda qanday shakl va uslublardan foydalanishi bilan qiziqadi va o‘zining takliflarini bevosita rejissyor bilan o‘rtoqlashadi. Aktyor biror obraz ustida ishlar ekan rejissyor bilan do‘stlashib olishga harakat qiladi. Bu esa aktyorning qaysidir ma‘noda ayyorligidir. Bu ham albatta o‘z mevasini beradi va aktyorning ijrosining o‘ziga xosligiga sabab bo‘ladi.

Ijodkor, pyesani mukammal o‘rganib bo‘lgach, rejissyorning talablarini birin-ketin amalga oshirishga kirishadi. Buni “stol atrofida o‘qish” jarayonida kuzatish mumkin. “Stol atrofida o‘qish” jarayoni bo‘lar ekan, aktyor, har-bir so‘zga alohida e‘tibor bilan, diqqat qaratadi. Har-bir so‘zning aniq, tushunarli va ta’sirchan chiqishini ta’minlashga harakat qiladi. Bu borada yosh ijodkorlarga ham o‘zining ko‘rsatma va tavsiyalarini berib borar ekan, yosh ijodkorlar ham bevosita unga ergashadi. Ammo aktyorning ijodi ham kamchiliklardan holi emas. Ba’zida ijodkor asardagi so‘zlarni shevada talqin etadi. Bu holatga ba’zi rejissyorlar ko‘z yumadi. Ba’zilari esa bu vaziyatni tuzatishini qat’iy talab etadi. Aktyorning rol ustida ishlashga nisbatan yondashuvining o‘ziga xosligidan yana biri, bu, aktyor “stol atrofida o‘qish” jarayoni bo‘ladimi, yoki sahnada bo‘ladimi, albatta qo‘lida yozilgan pyesa so‘zlariga tez-tez ko‘z yuritadi. Bu holat, ijodkor har bir so‘z uning uchun ahamiyatli ekanligini anglatadi. Albatta bu holat doim ham takrorlanmaydi. Asosan murakkab, salobatli va mas’uliyatli rollarni ijro etayotganda bunday holatga duch kelishimiz mumkin. “Stol atrofida o‘qish” jarayoni davom etarkan R. Po‘latov o‘z ishiga jiddiy yondashib, qahramoni iztirob cheksa, iztirob chakadi, quvonsa, birga quvonadi. Bu ham albatta tahsinga sazovor bo‘lib, shunchaki ijod qilish teatr san’atida mutlaqo mumkin emasligini anglatadi.

Ammo shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, besh qo‘l barobar emas. Ayrim aktyorlar mas’uliyatni his etish o‘rniga, o‘zlariga topshirilgan rolga hafsalasiz, “qo‘l uchida” munosabatda bo‘ladilar. Ustoz aktyorlar ana shunday mas’uliyatsiz “artist”larga dakki berib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solib turishga harakat qiladilar. Darhaqiqat teatr san’atida bunday “artist”larga nisbatan aktyorlik san’ati maktabi darg‘asi, K. S. Stanislavskiy shunday deydi: “Ijodga qiziqtirish juda qiyin, lekin bu ishtiyoqni o‘ldirish juda ham oson. Butun bir guruhning ishini to‘xtatishga hech

kimning haqqi yo‘q. Jamoat ishida harbiychasiga po‘lat intizom bo‘lishi kerak. Aktyorlik ham harbiylar kabi temir intizomlikni talab etadi.”<sup>1</sup>

“Stol atrofida o‘qish” jarayoni bevosita sahnaga “sahnalashtirish” jarayoniga ko‘chgach, R.Po‘latov yanada o‘zgacha ko‘rinadi. “Stol atrofida o‘qish” jarayonidagi “aktivlik” mutlaqo o‘zgacha uslubda ya’ni og‘ir, bosiqlikka almashadi. Ijodkor sahnada xatti-harakat qilar ekan og‘ir, vazmin, kam harakat bo‘lib qolganini ko‘ramiz. Ammo bu ichki kechinmasida mutlaqo boshqa ekanligi ko‘zlarida namoyon bo‘ladi. Jest-mimikalardan juda kam, ammo o‘rinli foydalanish aktyorning ayni rol talqinida namoyon bo‘ladi. Tashqi ko‘rinishidan kam harakat bo‘lib ko‘rinsada aktyorning ichki-psixik harakati, izchil va rivojlanib boradi. Bu borada ijodkor Stanislavskiyning aktyorlik san’ati maktabiga ko‘proq amal qilishini anglashimiz mumkin. Jumladan, K.S.Stanislavskiyning quyidagi ko‘rsatmalari yodimizga tushadi: “Sahnada qimirlamay o‘tirgan kishi ham xatti-harakat qilayotgan bo‘lishi mumkin. Lekin tashqi-jismoniy emas, balki ichki-psixik harakatdir. Binobarin jismoniy sokinlik ko‘pincha kuchli ichki xatti harakat tufayli sodir bo‘ladi, bu ijod qilishda juda muhim, juda qiziqarlidir. San’atning qimmatini, uning ma’naviy mazmuni bilan belgilanadi. Shuning uchun sahnada ham jismoniy, ham ruhiy xatti-harakat qilmoq kerak.”<sup>2</sup> Demak R. Po‘latovning ijrosida faqat ichki - psixik harakatning o‘zi yetarli emas. Ijodkor albatta jismoniy xatti - harakatni ham o‘z ijodiga tatbiq etishi muhim hisoblanadi.

Ba’zan shunday aktyorlarga duch kelamizki ular sahnada biron bir obrazni gavdalantirayotganda uning sahnadagi xatti-xarakatlari tushunarsiz va maqsadsiz ekanligi ko‘rinib qoladi. Aktyorning hattoki butun badani masalan qo‘li, o‘ziga bo‘ysunmaydi. U qo‘lini qanday ishlatishni bilmay, goh beliga taqab oladi, goh tushunarsiz ravishda jest-mimika qiladi. Bu esa aktyor o‘zi gavdalantirayotgan obrazini timsolini ko‘z oldiga keltirmay shunchaki “shunday qilishim kerak, shunda harakatsiz qolmayman” deb xatti-harakat qiladi. Buni esa mutlaqo sahna san’atiga zid deb aytishimiz mumkin.

Bunday aktyorlar sahnada, o‘zini qanchalik achinayotgan, iztirob chekayotgan qilib ko‘rsatmasin, tomoshabin buni darhol payqab oladi. Negaki, uning barcha urinishlari inson tabiatidagi qonunlarga zid bo‘lib, tabiiy ravishda tug‘ilmaydi. Aslida, boshiga falokat tushgan kishi o‘z xohishi bilan iztirobga tushmaydi. Bunday kezlarda havaskor aktyor o‘zini iztirob chekishga majbur qiladi. Zo‘rlab ko‘z yosh chiqazmoqchi bo‘ladi. Aslida-chi? Xoxolab kulayotgan odam, juda ham kulishni istagani uchun kuladimi? Aksincha, u qanchalik qattiq kulmasin, shunchalik kulgisini tiyishga harakat qiladi. Havaskor aktyor esa o‘zini zo‘rlab kuldirmoqchi bo‘ladi. Soxta kulgi hamisha nosamimiy va sun’iy ko‘rinadi. R. Po‘latovning ijodida ana

<sup>1</sup> K. S. Stanislavskiy “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” Toshkent – “Yangi asr avlodi” – 2017 (14-bet)

<sup>2</sup> K. S. Stanislavskiy “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” Toshkent – “Yangi asr avlodi” – 2017 (63-bet)



shunday soxtaliklarga deyarli duch kelmaymiz. U hamisha ijodiga professional nuqtai nazar bilan yondashadi va ijrosining ta'sirli va ishonchli chiqishiga erishadi.

R.Po'latov sahnada mizanssenalardan uncha yorqin tarzda foydalanmay balki asosiy e'tiborini yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ichki-psixik harakatga qaratadi. Aktyorning ijodida Meyrxoldning "Biomexanika" sini deyarli uchratmaymiz, aksincha uning ijro mahoratining asosi "kechinma san'at" ga suyanadi. Bunday ijrolarni ko'plab, spektakllarda yaratgan obrazlari orqali tahlil qilishimiz mumkin. Masalan: R.Po'latov ijrosida "Qo'qonning o'n ikkinchi darvozasi" (Nurilloxoji Abdullayev ) tarixiy spektaklida, Qo'qon xoni, "Xudoyorxon" obrazining talqinida aktyor, ayni "kechinma san'ati" dan unumli foydalangan bo'lib, og'ir, bosiq, mulohazali hukmdor sifatida namoyon bo'lgan. Aktyor davlat arbobi sifatida sahnada xatti - harakat qilar ekan, qarama - qarshi kuchlarga nisbatan emotsional munosabatda bo'lishi, ortiqcha "pafos" ga berilmasdan sahnada real xatti - harakat qilishi, ijodkor ijrosining jozibadorligini oshirgan.

Yuqorida aktyorning mizanssenadan yorqin tarzda foydalanmasligi haqida fikr yuritgan edik, ayni "Xudoyorxon" obrazida bunga guvoh bo'lishimiz mumkin. R. Po'latov ushbu obrazni gavdalantirish chog'ida asosiy e'tiborini obrazning jismoniy hatti-xarakatiga emas balki o'z uslubida ya'ni ichki-psixik harakatga qaratgan. Shu bois sahnada aktyor o'zi uchun ajratilgan, taxti ravonda, qimirlamay o'tiradi va partnyorlari bilan psixologik munosabatda bo'ladi. Faqatgina so'ngi daqiqalarda avanssenaga chiqadi va tomoshabinga yuzlanib, so'ngi so'zlarini aytadi. Bu ijro qaysidir ma'noda zerikarli bo'lib tuyilishi mumkin. Ammo R. Po'latov talqinida, bu obrazning yorqin qirralari ochib berilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi aktyor, taxti ravonda tashqaridan qaraganda shunchaki hech qanday harakatsiz, o'tirgandek tuyiladi. Ammo voqealar rivojida tomoshabin ko'z o'ngida, xon savlatli taxtda emas, aksincha igna ustida, nochor, vatanidan ayrilayotgan, hamda sotqinlarning xoinligidan azob chekib o'tirgan, oddiy vatan o'g'loni sifatida, namoyon bo'ladi. Ijodkorning so'ngi daqiqalarda, vatan qadri, vatanni sevish kabi tuyg'ularni uyg'otuvchi monologi tomoshabin qalbining nozik torlarini chertadi. Aktyorning ushbu ijrosi orqali, K.S.Stanislavskiyning "kechinma san'ati" unsurlari yaqqol namoyon bo'lganligini anglaymiz. Chunki aktyor sahnada juda kam harakat qilgan bo'lsa-da, uning butun vujudi faol xatti-harakatda bo'lib turadi. Aktyor sahnada yurmaydi, qimirlamaydi, ammo uning ichki dunyosida, fikrlarida, katta kurash kechayotganini tomoshabin yaqqol anglab, tushunib turadi. U bilan birga yashaydi, birga qayg'uradi, birga iztirob chekadi. Bu esa R. Po'latovning aktyorlik mahorati yorqin darajada ekanligini anglatadi.

"Shuni unutmasligimiz lozimki, aktyor rejissyorning ish quroli bo'lishi bilan birga, u jonli shaxs va ijodkordir. Ya'ni aktyor ijodkor sifatida rejissyor san'atining materiali hisoblanadi. Aktyorning ijodiy dunyoqarashi, badiiy g'oyalari, fantaziya va

tasavvuri, hissiyoti va ijtimoiy tajribasi, hayotiy bilimi va ko'nikmalari, did, temperament, yumor hissi, sahnaviy layoqati - bularning barchasi rejissyor ijodiyotining qurolidir. Aktyor va rejissyor o'rtasidagi ijodiy hamkorlik nafaqat rejissura san'ati, balki zamonaviy teatrning ham asosi hisoblanadi."<sup>3</sup> R. Po'latov ham o'z ijod yo'lida, ana shunday ijodiy hamkorlar bilan, ko'plab ijodiy ishlarni amalga oshirgan. Yuqorida ijodkorning, ana shunday ijodiy ishlaridan birini tahlil qilib ko'rdik. Bu tahlil tarixiy asarda R. Po'latovning o'z vazifasiga yondashuvi haqida bo'ldi. Ana endi, R. Po'latovning zamonaviy, bugungi kungi dolzarb muammolarni o'z ichiga olgan asarlarda, yaratgan obrazlarining tahlilini ko'rib chiqsak.

"Aktyor qanday obraz yaratishidan qat'iy nazar, o'z nomidan, o'z hissiyoti, kechinmasidan kelib chiqib ish ko'rishi kerak. U biron bir rolda o'zligini yo'qotib qo'yar ekan, oqibatda tabiiy hissiyot, kechinmadan ayrilgan obrazi organikligini ham yo'qotadi. Har qanday obrazning tabiiy hissiyotini aktyorning o'zigina bera oladi. Shu tufayli aktyor har qanday qahramonni o'z nomidan, muallif tomonidan berilgan shart-sahroitga ko'ra ijro etishi kerak."<sup>4</sup> Shu bois ko'plab rejissyorlar teatrda asar olib kelar ekan, hayotiy tajribasi yuqori bo'lgan aktyorlar bilan ishlashni asosiy maqsad qilib oladi. R. Po'latov ana shunday hayot tajribaga ega aktyor bo'lganligi sababli, unga doimo, aktyorning o'zidan kelib chiqib obraz yarata oladigan rolni taqdim etadilar. Ana shunday asarlardan biri "Qo'ng'iroq" (Ilhom O'rmon) spektaklida "Po'lat" obrazi bo'lib, asar voqealari, uzoq muddat bir maktabda ishlab, yetuk shogirdlarni tarbiyalagan halol va samimiy ustoz haqida hikoya qiladi.

R. Po'latov ushbu obrazni talqiniga rejissyorning talabi bilan, o'zgacha uslubda yondashdi. Endi aktyor mizanssenalarda faol bo'lishga intildi. R. Po'latov har bir repetitsiya jarayonida yangidan yangi dalillar, xatti-harakatlar, fikr-g'oya, vazifalar aniqlab, kashf etib bordi. Ijodkor asarni sahnalashtirish jarayonida, har bir harakatdan tabiiylik, haqiqiylik, mantiqni qidirib topa boshladi. Aktyorning bu obrazida ham ichki - psixik harakat birinchi o'rinda ekanligi ko'rinib turadi. Shu bilan birga aktyor sahnada faol psixofizik xatti-harakat qila boshladi.

R. Po'latov "Qo'ng'iroq" spektaklida yaratgan obrazini asosan, o'zining hayotiy tajribalari orqali talqin qilgan. Aktyor asosiy e'tiborini qahramonning avtobiografiyasiga qaratdi. O'zi yaratmoqchi bo'lgan qahramonning tarixini ishlab chiqdi. Bunda asosan asar muallifining fikrlaridan keng foydalandi, masalan muallif qahramoni haqida, atrofdagilar u haqda, o'zi-o'zi haqida, kabi savollarga javob berish orqali kerakli xarakter izladi. Natijada yuqorida aytib o'tganimizdek o'z kasbining fidoiysi, sodda, samimiy, halol, talabchan, kabi xislatlarni o'z qahramoniga tatbiq etadi. Avtobiografiyasiga esa, Avg'on qatnashchisi bo'lganligi sababli, ko'plab

<sup>3</sup> M. Abdullayeva "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati" – "Tafakkur qanoti" nashriyoti Toshkent – 2014 (18-bet)

<sup>4</sup> M. Abdullayeva "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati" – "Tafakkur qanoti" nashriyoti Toshkent – 2014 (134-bet)

qiyinchiliklarga duch kelganligi, shu sababdan, garchi matematika o'qituvchisi bo'lsa ham, o'quvchilariga, o'z vatani tarixini mukammal bilish, uni sevish, ko'z qorachig'idek asrash kerakligini anglatuvchi, vatanparvar o'qituvchi, sifatida kiritdi.

Aktyor sahnada hatti-xarakat qilar ekan, voqealar rivoji bilan birga rivojlanib bordi. Qarama-qarshi kuchlar, g'oyalar, fikrlar bilan faol kurashlar olib bordi. Ijodkor har bir harakati jonli va organik chiqishiga erisha oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi tomoshabin, ijodkorning kechinmalariga beixtiyoriy ravishda ergashib, u bilan birga yashadi. Shu bilan birga, aktyorning ushbu spektaklda yaratgan obrazi, tomoshabin qalbida yaxshi sifatleri bilan joy oldi.

R.Po'latov ana shunday ko'plab ijod mahsullarini yarata olgan tajribali aktyor sifatida teatr san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan san'atkordir. Uning talqinida ko'plab, yorqin xarakterli obrazlar yaratildi va tomoshabinlar qalbida iliq ta'sirot uyg'ota oldi. R.Po'latovning ijro uslubiyatini tahlil qilish yosh aktyorlarga, kelgusida rol ustida ishlashda bevosita maktab bo'lishiga ishonchimiz komil.

Xulosa qilib aytganda, teatr sahnasi har bir aktyor mahoratini charxlovchi haqqoniy maydon hisoblanadi. Aktyorlik mahorati negizlarini yorituvchi ustoz san'atkorlarning tajriba maktabi san'atning muhim poydevori hisoblanmish aktyorlik kasbi rivoji uchun, sezilarli ravshda, hissa qo'shadi deb umid qilamiz. Shuningdek teatr san'atida ko'p yillik tajribaga ega aktyorlarning ijro talqinini o'rganish, ularning ijod yo'lini doimiy kuzatib borish, bugungi yosh aktyorlarni tarbiyalash masalasida ko'makchi bo'la olishi mumkin. Bo'lajak aktyorlarning etikasi, estetikasini shakllantirishda albatta tajribali aktyorlarning, tajriba maktabi bevosita muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, rol ustida ishlash, o'z ishiga mas'uliyatli bo'lish, kasbiga sodiqlik, hamisha izlanishda bo'lish kabi xislatlarni uyg'otishda tajribali aktyorlarning ijod yo'li, muhim ahamiyat kasb etishi, tahlillarda namoyon bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K. S. Stanislavskiy - "Aktyorning o'z ustida ishlashi" (T. Xo'jayev tarjimai) Toshkent - "Yangi avlod"- 2017
2. M. Abdullayeva "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati" "Tafakkur qanoti" nashriyoti Toshkent - 2014
3. M. Abdullayeva. "Sahna mahorat maktabi" "Chashma print" nashriyoti Toshkent - 2011
4. M. Abdullayeva. "Rejissura" "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti Toshkent - 2016
5. R. Usmanov "Rejissura" "Fan" Toshkent - 1997
6. J. Mahmud "Aktyorlik mahorati" o'quv qo'llanma Toshkent - 2005

7. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.

8. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.

9. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.

10. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o 'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.

11. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.

12. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.

13. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.

14. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.

15. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).

16. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).

17. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).

18. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.

19. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. International Journal of Culture and Modernity, 11, 1-7.

20. Abdunazarov, Z. (2021). Namza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. Oriental Art and Culture, 2(3), 170-178.

21. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).

22. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 788-792.

23. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.

24. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.

25. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.

26. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).

27. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.

28. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

29. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.

30. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.

31. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

32. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

33. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

34. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. *Hordo Structures in Central Asian Architecture*.

35. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

36. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

37. Madaliyev, A. (2021). *Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 37-43.

38. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.
39. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.
40. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.
41. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).
42. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.
43. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
44. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.
45. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
46. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
47. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## TEACHING ONLINE GENERALLY. BUILDING A BODY OF ONLINE PEDAGOGY. DISTANCE FACTOR

Xalliyeva Qizilgul Rajapboyevna  
qizilgul1967@mail.ru

Yusupova Gulnoza Umarjonovna  
rose\_1005@mail.ru

Yusupova Dilfuza Umarjon qizi  
yusupovadilfuza98@gmail.com

Urgench State University

**Abstract:** This article investigates the distance factor in online teaching and how the well-known scholars took it into consideration to make the learning more effective and positive process. It also explores the role of an online teacher and the characteristics of learners that are recommended to know to avoid serious implications and negative consequences during online teaching.

**Keywords:** COVID-19, blended courses, online courses, distance learning, physical presence, transactional distance, a sense of community, online teaching and learning, online teacher, online learner.

It is known that online courses have been on demand over the past decades. As the demand increased at the early phases of online teaching, teachers of face-to-face classrooms simply were assigned to teach online courses with no training and much support back in those years. The course instructors had to learn on their own how to use online tools, such as course management systems. However, many institutions acknowledge that it was not easy to switch from face-to-face classrooms to online or blended courses. Today, the current COVID-19 pandemic has challenged the education system worldwide and it has left no way for educators other than teaching online, regardless of their experiences and wills. Due to this urgent and unexpected challenge, face-to-face university courses have been put in a request to be taught online. Even though online teaching has been a great help during the crisis, many educational organizations, let alone teachers have not still been prepared for it. Because online teaching is not a method that can be learned overnight. A traditional classroom teacher can be effective in teaching online, but everything becomes much easier after hard work, experience and research because teaching online requires different approaches and instructions.

The uniqueness of online teaching is that teachers do not have to be somewhere to teach. Because where the location does not make any difference. Everything can be done sitting in a small town somewhere in the world. There is no need to carry a

heavy bag with a laptop and full of handouts. Teachers do not have to wait for students during office hours since office hours can be held any time, let it be after dinner or on weekends. However, before teaching online with such easiness and comfort, one should know what works well in online teaching in order to build a body of online pedagogy. In the campus class, it is generally known what works well, for example, writing clearly on the board, speaking in a louder voice, being dynamic, keeping eye contact with students, and inviting students to participate actively in discussions. In online teaching, too, as every student likes to have a sense of belonging, feeling included in a group is an important factor for encouraging the true potential for learning to take place. However, generating a feeling of place in an online class is not easy. Indeed, if we think about it, where are our bodies when we participate in an online class? Our physical bodies are indeed located in front of our computers, but our virtual bodies can be found anywhere we imagine. Specialists hold different views about it. For example, according to Dreyfus (2001), learning via the internet in online courses is impossible without physical presence. He criticizes distance learning as being far from education and even inadequate. In his opinion, the body plays an important role in the process of learning and any learning that occurs can be only intellectual, but not pragmatic. He thinks that true learning can only happen when we are physically somewhere, doing a particular activity. Based on his views, it is only under these conditions that information becomes relevant and people start realizing it. However, if that turns out to be true in this case, a question will arise about how anyone can learn from books, television, newspaper, radio, emails.

To avoid any confusion about the online class, the concepts of "space" and "place" are differentiated as in the following by Robinson (2000, p. 112). She defines space as "an abstract container determined by distance, direction and time." In addition, she states that place exists within space as a localized region. When it comes to cyberspace, Robinson argues that it is "the world of imaginary tools, which produce art, poetry, literature...(2000, p. 112)". However, since only authorized people with the password can have access, the computer program creates and defines place within cyberspace, where people meet via the internet.

In an online class, not only space but also the element of time is included as well. In this sense, Robinson questions if her responses to the students' questions posted becomes present for her students when they appear or when the students have seen the post. She thinks that in the online class time becomes space because all her responses posted must be laid out across the two-dimensional computer screen. Concerning this, Bender (2003) believes that the main objective in any teaching environment, whether it is online or on campus, is to be inspirational, exciting, and challenging so that students think about the subject matter out of the classroom. At this point, Bender (2003) believes that it is not the physical distance that should be



worried about, but rather the relational distance between teacher and student. Moore (1984) states the following concerning the meaning of distance in education: "There is now a distance between learner and teacher which is not merely geographic, but educational and psychological as well. It is a distance in the relationship of two partners in the educational enterprise. It is a transactional distance"(1984). Saba and Shearer (1994) explain the transactional distance as the extent that is managed to build by the teacher to successfully engage the students in their learning. According to them, if students are found disengaged and unstimulated into being active learners, a vast transactional distance might occur whether the students are learning with the teacher in the classroom or online. On the other hand, if the teacher can create meaningful educational opportunities, regardless of online or offline environment, with the right degree of relevance and challenge and give students a feeling of responsibility for their learning as well as a commitment to the process of learning, then the transactional gap becomes less and smaller. Consequently, nobody feels remote from each other and the source of learning. Nevertheless, there are some oppositions of how Saba and Shearer (1994) think. Some critics, such as Dreyfus (2001) do not believe that without physical presence along with the information of body language and tone of voice that is associated with it, it is hard to avoid the transactional distance. If it is the case, in campus lectures, the instructor may not be able to see the students at the back of the lecture hall, let alone correctly read body language. In this sense, the solution here is the students' commitment to learning, knowledge, and the pursuit of new ideas, not to a particular physical classroom. Summarizing that, commitment to learning can take place without a physical setting, and undoubtedly, the online class can be effective as a virtual place in order to collect, disseminate, as well as exchange knowledge and ideas. There is a big difference between physical distance and transactional distance and we can see that they are very different measures, because the main goal is to minimize the transactional distance by establishing a comfort level as well as ensuring full access to fulfill all educational aspirations, no matter the class is taught online or on campus. However, it is of utmost importance to state that social dimension, too, impacts on transactional distance. Wegerif (1998) proves it in his interview-based study conducted with students who enrolled in an interactive online course. Wegerif (1998) found out that the degree of success or failure of students was closely interconnected with whether each student felt like an insider or an outsider during the course. This is why learning was seen as a social process since the degree of learning is undoubtedly dependent on if there is a feeling of belonging to a community of practice. Wenger (1998), who is a well-known educational practitioner and theorist, asserts that communities of practice are the prime context in which we can work out common sense through mutual engagement. One student in Wegerif's study (1998) claimed

that the most valuable part that she had gained from the course was when she collaborated with other students and learned enormously from her peers. She also added that a friendship blossomed between her and some of her online colleagues. On the other hand, another student dropped the course before it ended and said that collaboration could never work for her in online classes. According to her, by the time she had logged into the class, the conversations and discussions would have started without her, which made her leave behind the pace and even feel a bit overwhelmed. This process is called social experience, as Wegerif (1998) concludes. The student who participated in online activities and discussions was well motivated. The other one who lagged behind the pace and felt like an outsider experienced online learning as remote and cold.

The National Research Council published an important study (2001), which states the role of a social context in learning. The view taken in the study stresses out that collaboration is key to learning so that students can develop arguments, understand questions, and share conclusions among a community of learners. In this sense, as Wegerif (1998) concludes, creating a sense of community seems to be an important first step for collaborative learning. Without a feeling of community, people feel anxious and unwilling to take risks in learning. The only, but crucial factor that Wegerif (1998) does not address which helps to decrease the transactional distance is the behavior of the instructor because the instructor is the one who sets the tone and atmosphere for the whole class after all. Of course, forming a sense of community in online classroom is not easy, but it is worth trying by personalizing the educational approach. This, in turn, will provide an important step toward decreasing any feeling of remoteness or coldness that might be caused by a computer screen.

The importance of personalizing education is huge in minimizing the transactional distance and it is the teacher's job to personalize the educational approach in order to decrease the level of the transactional distance in online classrooms. The instructors who are much more attentive to individual learners are more effective in this sense since they know that everyone in the class has different personalities and expectations. In this sense, Anderson and Adams (1992) mention some students being field-dependent learners, which means they tend to rely on structure and clear direction. These types of learners are as much concerned about the personality and style of the instructor as the course material that the teacher is going to deliver. In this case, the instructor should consider being encouraging and supportive towards the students, giving ample feedback, and eliciting discussions by being appropriately informal.

In the classroom, an instructor can show his attention in many different ways, depending on the role that he might take. In this sense, McKeachie (1978) differentiates six teaching roles for the campus teacher, but all of them can be applied

to online teaching. Those roles identified by McKeachie can be taken for different purposes and at different times in the semester. For example, the teacher can take one of the following roles:

- A facilitator who helps to increase student learning by motivating active participation in discussions and by supporting the student so that he can see the learning as meaningful and informative.
- An expert who communicates expertise through lectures and discussions, and can stimulate learners without making them feel unable.
- A formal authority who supports students by establishing terms of conduct and deadlines of submission work.
- A socializing agent who networks within the larger academic community and can help students by providing letters of recommendation or sources for research and publications.
- An ego-ideal who shows enthusiasm and commitment not only to the subject matter but to the students as well.
- A person who demonstrates understanding and compassion towards students' needs and requirements.

Good teaching is believed to be modified and adjusted to the needs of each individual in the class throughout the course. As McKeachie (1978) states, "Teaching should be a two-way process in which both students and teachers learn from one another; as long as teaching conditions facilitate two-way interaction, the good sense of teachers and students can be substantially relied upon" (p 255). This means that the online teacher should care about every single student to bring out the best during the class. It is not about giving too much attention but treating each student according to their needs and personality traits. Here, the online teacher is challenged to be aware of types of student personalities. McKeachie (1978) observes various kinds of student characteristics, such as intelligence, independence and responsibility, anxiety, introversion-extroversion, gender, motivation, authoritarianism, and cognitive style. In online teaching, the followings can be considered with some implications:

- Independence and responsibility: an independent student will want the teaching to be much more permissive.
- Authoritarianism: authoritarian students would prefer a considerably greater degree of control and they are likely to listen to lectures.
- Anxiety: Since uncertainty causes anxiety, it is recommended for an online teacher to be supportive, encouraging, and prompt at giving guidance and instructions so that students can do best in a highly structured environment.
- Intelligence: Recent findings (Gardner, 2000), show that there are multiple intelligences and they measure students' diverse learning styles and strengths in

different areas. Some students are good at taking information if they hear it, but others perform better if they act, or if they use their logical reasoning. Multiple Intelligences like these, identified by Howard Gardner (Gardner, 2000), help educators design and carry out their online courses accordingly, tailoring to the diversity of learners in the class.

- **Motivation:** Being an online learner means that a higher level of self-reliance is demanded, compared to a classroom learner. Unlike the peer pressure of the campus class, online learners need to stay motivated in order to be successful in online learning.

- **Introverts and extroverts:** Researchers found that when an extrovert studies with another extrovert, they learn better than they study alone, especially while doing research. In contrast, introverts perform better when they are provided with the necessary information.

- **Gender:** According to a study (McKeachie, 1978), female students in the class are much more concerned with their achievements rather than their male fellows.

- **Cognitive style:** It is preferable to come into contact more with the instructor if a student is new to a subject area. In addition, if a student does not see the instructor, as in the online class, they might need frequent online contact with the instructor. This is, especially, true for students who are new to online learning.

The above-mentioned student characteristics, such as independence and responsibility, authoritarianism, and anxiety are all interrelated, especially when the teacher decides on if the class should be cooperative or competitive. If the teacher strives for collaboration, which is likely to work best in an online classroom during an online discussion or online collaborative projects and role-playing, this also follows that students have more responsibility and this can cause anxiety for some of them. However, collaborative work can be balanced with independent work and this can lead to much greater learning and the development of critical thinking skills.

## References

1. Chi, A. (2013). The Journey to Teaching Online: A Case Study of Faculty Preparation and Experiences in Online Teaching. SSRN Electronic Journal. Published. <https://doi.org/10.2139/ssrn.2303965>
2. Conrad, R., & Donaldson, A. J. (2011). Engaging the Online Learner: Activities and Resources for Creative Instruction (Updated ed.). Jossey-Bass.
3. Hampel, R., & Stickler, U. (2015). Developing Online Language Teaching: Research-Based Pedagogies and Reflective Practices (New Language Learning and Teaching Environments) (1st ed. 2015 ed.). Palgrave Macmillan.

4. Ross, R. (2020). *Teaching Online: The Complete Guide On How To Teach Effectively Online. Find Here The Best Strategies To Engage Your Students*. Edoa Solutions Ltd.

5. Russell, V., & Murphy-Judy, K. (2020). *Teaching Language Online: A Guide for Designing, Developing, and Delivering Online, Blended, and Flipped Language Courses* (1st ed.). Routledge.

6. Serravallo, J. (2020). *Connecting with Students Online: Strategies for Remote Teaching & Learning*. Heinemann.

7. Shaughnessy, M. F., & Fulgham, S. (2013). *Pedagogical Models: The Discipline of Online Teaching (Education in a Competitive and Globalizing World)*. Nova Science Publishers, Inc.

## **YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY MASALASI**

Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich  
xudoyberganov1979@gmail.com  
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

**Annotasiya:** Mazkur maqolada yoshlarni ma'naviy-ruhiy tarbiyalash, ahloqiy va huquqiy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish hamda kamolga yetishishga intilishga etibor qaratish zaruriyati muhim masala ekanligi ko'rsatilgan. Milliy g'oyaga sodiqlikni, vatanparvarlik tuygusini, yuksak ma'naviy-axloqiy qarashlarni, mafkuraviy immunitetni, huquqiy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish mexanizmlarini yaratishning dolzarbligi ijtimoiy-huquqiy masalasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviy-ruhiy tarbiya, ahloq, huquq, qadriyat, milliy g'oya, vatanparvarlik tuygusini, yuksak ma'naviy-axloqiy qarashlarni, mafkuraviy immunitetni, huquqiy qadriyat, mexanizm, ijtimoiy.

## **SOCIO-LEGAL ISSUE OF FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUNG PEOPLE**

Khudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich  
xudoyberganov1979@gmail.com  
Kokand State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article emphasizes the importance of educating young people spiritually, forming a spirit of respect for moral and legal values, and focusing on the pursuit of maturity. The urgency of creating mechanisms for the formation of loyalty to the national idea, a sense of patriotism, high moral and ethical views, ideological immunity, respect for legal values is highlighted in the socio-legal issues.

**Keywords:** Spiritual education, morality, law, values, national idea, sense of patriotism, high spiritual and moral views, ideological immunity, legal value, mechanism, social.

Barqarorlik va taraqqiyotga rahna soladidan turli yangi tahdidlar va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda yoshlarni ma'naviyat va ma'rifatga, ahloqiy va huquqiy qadriyatlarni hurmat qilishga hamda barkamollikga yetishishga intilishiga etibor qaratish muhim masala sanaladi. Yoshlar ongida milliy g'oyaga sodiqlikni, vatanparvarlik tuygusini, yuksak ma'naviy-axloqiy qarashlarni, mafkuraviy immunitetni, huquqiy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish mexanizmlarini

yaratishning dolzarbligi yanada ortib boradi. Bunda eng birinchi masala ma'naviat masalasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz.

Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot.

Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatdir" deb takidlaydi.<sup>1</sup> Yoshlarimizni yuksak ma'naviy.-axloqiy ruhda tarbiyalash, o'z haq-huquqini biladigan darajada tarbiyalash, ma'sullik tuyg'usini shakllantirish turli mafkuraviy-ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning muhim omilidir. Mas'uliyatlilik bu-ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarni bajarilishiga, oqibatiga hatti-harakat negizida yotgan ahloqiy tamoillarga amal qilinishiga muayyan kimsa yoki ijtimoiy sinfnig javobgarligini bildiradigan falsafiy-ahloqiy katagoriya, har bir insonning yuksak kamolotga erishganini ko'rsatuvchi hodisa.

U insonning, jumladan yoshlarimizning jamiyat va uning a'zolari manfaatlarini himoya qilish, mustaqillikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash, muayyan vazifani ado etishda fidoiyligi, butun kuch va imkoniyatlarini to'la safarbar etishini anglatadigan ma'naviyat mezonidir.<sup>2</sup> Mamlakatimiz hamisha demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yib kelmoqda. Bu borada "yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir".<sup>3</sup> Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va qonunchilik jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma'nan yetuk insonlar qilib tarbiyalashga, ularning jamiyatda o'z o'rniga ega va albatta biron kasb yoki hunar egasi bo'lib yetishishini ta'minlashga xizmat qiladi. Dunyoda ma'naviy tahdidlar xavfi ortib borayotgan bir davrda mustaqil va sog'lom fikrlaydigan, ajdodlarga yuksak hurmat ruhida ularga munosib bo'lishga intiladigan avlodni tarbiyalash respublikamizda davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan ekan, bu jarayonda faol ishtirok etish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda eng muhim omillardan yana biri masala tarixiy xotiradir. Bu ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi bo'lib, o'tganlar xotirasini yodda saqlagan holda, e'zozlab yashash demakdir. Yoshlarni shunday an'ana ruhida tarbiyalash, Vatanimiz tarixi bilan qurollantirish ma'naviyat va milliy

mafkurani shakllantirish sohasidagi kechiktirib bo'lmaz vazifa. Zero, Prezidentimiz takidlaganlaridek "buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U halqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy me'rosni asrab- avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo'nalishlardan biridir".<sup>4</sup> Tarix-xalq ma'naviyatining asosidir. Binobarin, mustaqil O'zbekistonning buyuk ne'mati bo'lgan erki va ozodligi xalqimizning barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga zaminimizda voyaga yetgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib, o'z g'oyalari, tafakkuri bilan milliy g'oyaga asos solgan ajdodlarimizning boy merosi va sermazmun tarixiga ham tayanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, yoshlarimiz qalbi va ongiga milliy g'oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog'liqdir. Ana shularni nazarda tutib, yoshlarimizning mustaqil fikrlashi, ma'naviy olami, ijtimoiy faolligi o'sib borayotgani barcha yutuqlar poydevoriga, kuch-qudrat manbaiga aylanganligini, ayniqsa yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarning negizida inson omili hal qiluvchi rol o'ynayotganini kuzatish mumkin. Ma'naviy meros, milliy qadriyatlarning tiklanishi, sog'lom avlodni har tomonlama yetuk, ma'nan yuksak, komil inson qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy davlatchilik asoslari milliy o'zlikni anglash tamoyili bilan tobora mustahkamlanmoqda. Milliy-ma'naviy yangilanish, qadriyatlar qayta tiklanishi, iqtisodiy yuksalish taraqqiyot omiliga aylandi.

Yoshlarimizni har kuni, har onda fidoyi bo'lishi, o'zining tomchi va tomchi, zarrama-zarra o'z oldiga qo'ygan buyuk bunyodkorlik, yaratuvchanlik maqsadlar sari charchamay, toliqmay safarbar etib borishi, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirib borishi bu ulardagi haqiqiy ma'naviy ma'sullik ifodasidir. Kundalik turmushda turli xavfli vaziyatlar va tahdidlarda el-yurt, vatan manfaatlari uchun ixtiyoriy, ongli ravishda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsada, halokatni oldini olish uchun o'zni safarbar etish ma'sullik tushunchasining mazmunini ifodalaydi. Ma'naviy ma'sullik moddiy yoki ma'naviy manfaatdorlik evaziga amalga oshirilmayda, balki u insonning, jumladan yoshlarimizning o'z hayotini, maqsad va orzu-umidlarini xalq va jamiyat uchun bag'ishlab, amalga oshirgan ezgu faoliyatini ham ifodalaydi. Ma'naviy ma'sullik ayrim shaxslar va alohida imkoni bo'lgan kishilarning salohiyatigina emas, balki har bir inson, jumladan yoshlarimiz uchun ham ma'naviy fazilatdir.

Hozirgi murakkab tahlikali davrda yoshlar tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligi yoshlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishlari lozim, zero kelajak yoshlar qo'lida ekanligini hech qachon



unutmasliklari, bizgacha asrab avaylab yetib kelgan milliy, ma'naviy me'roslarimizni bizdan keyingi avlodlarga yetkazishlari lozimligini yana bir bor unutmaslik kerak. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston yoshlarining forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviyat yo'nalishidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Chunki bu borada yechimini kutib turgan, o'zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar ko'p. Milliy g'oyaning mohiyatini to'liq anglab yetmagan, eski mafkurani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar ham yo'q emas. Shu bois Prezident Uchinchi Renosansni qurish yo'lida mamlakatimiz mafkurasining asosiy g'oyasini ta'kidlab o'tdi:

- Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan.

Bu borada quyidagilarga e'tibor berishni lozim deb hisoblaymiz:

- Oilada, maktabgacha va maktab ta'limida ta'lim-tarbiyaga jiddiy yondashish zarur.

- Bunda zamonaviy pedagog-tarbiyachi qiyofasini aks ettiruvchi konsepsiyani ishlab chiqish zarur.

- Yoshlar qalbi va ongida zararli tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishda "ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oya"lari asos bo'lishi shart.

- Yoshlar bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishda ota-ona-mahalla-ta'lim hamkorligini innovasion usullarini ishlab chiqish.

- Yoshlarni Konstitutsiyaviy qadriyatlar hamda amaldagi qonunlarning mazmun - mohiyatini chuqur anglash va hurmat qilishga o'rgatib borish.

- Maktab ta'limida Konstitutsiya va inson huquqlariga oid mavzularini chuqurroq tushuntirib borish lozim

Yoshlarimizning vazifasi yuqoridagilardan ibrat olib, qo'lga kiritilgan mustaqillikni asrab avaylash va yanada mustahkamlashga o'z salohiyati bilan hissa qo'shishdir. Zero, biz Yurtboshimizning bugungi kunda mamalakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda azmu shijoatli yoshlarimizning o'rni va ta'siri ortib borayotgani hammani quvontiradi degan ishonchlari fikrlarini oqlagan bo'lamiz. "Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftihor bag'ishlaydi."<sup>1</sup>

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va

jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi <https://president.uz>

2. Falsafa: qomusiy lugati. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov).-T.; "Sharq", 2004.243 b.

3. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilandavom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: "O'zbekiston"NMIY,2018.-88-89 b.

4. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O'zbekiston Respublikasi PrezidentiShavkat Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar.-Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 142 b.

5. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilandavom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: "O'zbekiston"NMIY,2018.-88-89 b

## **CHOLG'UCHI-SOZANDA TALABALARNI O'ZBEK XALQ KUYLARI VA BASTAKOR-KOMPOZITORLAR IJODIDAN NAMUNALAR IJRO QILISHLARIDA IJODIY YONDOSHUVCHANLIKKA O'RGATISH**

A.Yuldashyev

V.Boboyev

O'zDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek xalq cholg'ulari sinfida "Maxsus cholg'u" fani bo'yicha talabalar bilan ishlash, ularni ijrochiligi borasida xalq kuylaridan hamda o'zbek bastakorlari va kompozitorlari asarlaridan namunalarni to'g'ri talqin qilishlari, cholg'uchilar ansamblida bir-birini his qilishi, milliy musiqiy bezaklarni to'g'ri ijro qilishlariga, erishish uslublari va milliy musuqiy bezaklarni o'ziga xosligi, ulardan o'rinli foydalanishlari haqidadir.

**Kalit so'zlar:** Milliy musiqiy bezaklar, akademik uslubdagi musigiy bezaklar, an'anaviy ijrochilik, "Ustoz-shogirdlik" maktabi, ansambldagi ijrochilik, nimpardalar, "bidratmalar", "sadolanish".

## **TEACHING STUDENTS TO PLAY MUSICAL STUDENTS IN CREATIVE APPROACH TO UZBEK FOLK SONGS AND COMPOSER-COMPOSER PERFORMANCES**

A.Yuldashyev

V.Boboyev

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article is about working with students on the subject of "Special Instruments" in the class of Uzbek folk instruments, the correct interpretation of samples of folk melodies and works of Uzbek composers and composers on their performance. The feeling of each other in the ensemble, the correct performance of national musical ornaments, the methods of achievement and the originality of national musical ornaments, their appropriate use.

**Keywords:** National musical ornaments, academic musical ornaments, traditional performance, "Teacher-Apprentice" school, ensemble performance, semi-curtains, "bidrats", "sadolanish".

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017yil 20 apreldagi Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2909-sonli qarori asosidagi

2017-2021yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishning ustuvor vazifalari, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017yil 17 noyabrdagi

PQ-3391 sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish" chora tadbirlari to'g'risidagi qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, 08.10.2019. dagi PF-5847- sonly, Vazirlar maxkamasining 31.12 2020 yildagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarorlariga binoan o'quv jarayonini DTSga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish juda dalzarb bo'lgan zamon talabidir.

Musiqqa san'ati insonlarga ko'tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo'naltirishi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa ushbu asarlar mohirona, qalb q'rini qo'shgan holda ijro qilingan bo'lsa uni ta'sirchanlik qamrovi keng bo'ladi.

Professional ta'lim(colg'u ijrochiligi) ixtisosligi bo'yicha taxsil olayotgan bo'lajak cholg'uchi-sozandalarga akademik uslubdagi ijrocilik makabi bilan bir qatorda milliy an'anaviy uslubdagi, yoki shu ruhda yozilgan kompozitorlarimiz va bastakorlarimiz ijod na'munalari ijrochiligidan ham bahramand qilish va shbu milliy ruhdagi asarlarni to'g'ri ijro qilishlariga erishish ustozlar oldiga katta vazifalarni qo'yadi.

Musuqiy cholg'u asboblarida ijro etish ko'nikma va malakalari aslida birdaniga shakllanmaydi, aksincha ushbu me'zonlarni mohirona egallash uchun ko'p yillik tinimsiz izlanishlar, ustoz cholg'uchilar ijro usullarini ko'p eshitish, o'zlaringni ijrochilik qobiliyatlaring, iste'dodlaringizni oshirish, har bir vaqtdan unumli foydalanish va ijrochilik mahoratlarini rivojlantirish orqali erishiladi.

O'zbek kompozitorlari ijodidan namunalar kiritilgan bo'lishi lozim.

Bunday qilinishiga asosiy sabab, o'qib, kasb mahorati sirlarini pog'onama-pog'ona egallab borayotgan, ijrochilik mahoratini endigina shakllanayotgan har bir talaba-bo'lajak sozandalar jaxon xalqlari musiqqa madaniyati durdonalari bilan bir qatorda, balki birinchi o'rinda o'zbek xalq musiqiy merosidan, shu jumladan o'zbek kompozitorlari ijodidan ham keng baxramand bo'lishlari, ushbu asarlarni mohirona ijro qilishlarini, an'anaviy ravishda "Ustoz-shogird" udumlari asosida asrlar osha etib kelgan ijrochilik sirlaridan bahramand bo'lishlari va kelajakda talabalarni o'zlari ham "Ustoz" darajasiga chiqib munosib sholg'uchilar darajasida shogirdlar tayyorlashlari uchun katta dasturulamal bo'lib xizmat qiluvchi bitmas-tuganmas, xuddi ummondek tuganmas manba bo'lib xizmat qiluvchi manbadir.

Ko'plab o'zbekiston kompozitorlari ijodida ham milliylik, milliy urf-odadlar yaqqol ufurib turgan asarlarni uchratamiz. Milliy ruhdagi O'zbekiston kompozitorlari ijodidagi asarlarni o'rganayotgan talabalar odatda jiddiy ruhdagi, klassik qolipdagi musiqiy asarlardan ko'ra tezroq o'zlashtirishadi.

Lekin milliy kuylarni ijro qilish talabadan oldindan birmuncha ijrochilik malakalarini, mahoratlarini egallagan bo'lishlikni ta'lab etadi. Muallif qo'ygan talablar bilan birga talabalar ham musiqiy bezaklardan keng va albatta o'z o'rnida mohirlik bilan qo'sha olish maqsadga muvofiqdir. Agar talaba yuqorida aytib o'tilganidek ijrochilik malakalariga ega bo'lishmasa unday hollarda milliy ruhdagi asarlar ijrochiligida jiddiy, lekin asta-sekinlik bilan ijobiy tarzda xal qilinsa bo'ladigan muammolarga duch kelishlari mumkin.

O'zbek xalq milliy kuylarini ijro qilish jaroyonida talabadan akademik musiqiy ijrochilikda uchramaydigan, xaqiqiy o'zbekona musiqiy bezaklar-qochirimlar, nimpardalar, "tebratmalar" kabi aynan mentalitetimizga xos bezaklarni yaxshi egallashlarini maqsadli deb bilamiz.

Mukammal ijrochilikka erishish uchun ritmni yaxshi his etishni, dinamika, frazirovka kabi muhim ijrochilikdagi me'zonlarga bo'ysinish, applikatura va to'g'ri postanovka orqali turli shtrixlar, tovushlarni bir-biriga to'g'ri bog'lash yo'llarini mustahkam egallashni talab etadi.

O'zbek xalq milliy kuylarini odatda doira, yoki milliy cholg'uchilar ansambllari bilan hamoxanglikda ijro etish keng targalgan. Ansambllar bilan ijro qilish ham sozandadan mohirona kasbiy bilimlarni, ijrochilik mahoratini, ijrochilik madaniyatini, eshita bilish va jo'r bo'la bilish kabi malakalarini puxta egallaganlikni talab etadi.

Talabalarga O'zbekiston kompozitorlari ijodidan namunalarni berayotganda albatta dastlab oddiy musiqiy jummalardan iborat bo'lgan kichik hajmdagi asarlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bir necha shu ko'rinishdagi asarlar ijrosidan so'ng o'rtacha qiyinchilikdagi asarlar ijrosiga o'tish mumkin, zero talabalarda endi milliy musiqalarni o'z ijrosi bilan ijodiy yondoshib ijro qilish tamoyillari shakllangan bo'ladi.

Talabaga dars berayotgan ustozlar albatta o'qitayotgan shogirdlarini ijrochilik mahoratlarini, ularni qobiliyatlarini nechog'lik rivojlanganliklarini, egallayotgan sozandalik sirlarini nechog'lik o'zlashtirayotganliklarini va uni ijrochilik mahoratini o'shinish uchun qanday ishlar qilishi lozimligini o'zlariga istiqbolli rejalar qilib olishlari o'rinlidir.

O'quv jarayoni rejasiga o'zbek kompozitor va bastakorlari Mutavakkil Burxonov, Toliblon Sodiqov, Faxriddin Sodiqov, Sulton Xayitboyev, Sayfi Jalil, Qaxramon Komilov, Ahmadlon Jabborov, Komiljon Jabborov, To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Mustafo Bafoyev, Abdulxoshim Ismoilov va boshqalar ijodi maxsullaridan keng va unumli foydalanish talabalarni ijrochilik dasturlarini rang-barang bo'lishiga yordam beradi.

Zarbli cholg'ular ijrochiligida doira sozi uchun dastur tuzganda To'ychi Inog'omovning "Doira darsligi"1-2 gismlardan, shu muallifning "Shodlik",

“Gulsara”, “Dovul”, “Tojikcha-Buxorocho”, “Qoqoncha”, “Katta o‘yin”, “Sarboz”, Usta Olim Komilovning “Safti ufor”, “Sadr”, “Qo‘shqars” kabi Dutor va Qashqar rubobida o‘qiyotgan talabalar uchun o‘zbek xalq kuylaridan “Samoi dugoh”, “Xojiniyoz” 1-2, “Nasri segoh”, “Rajabiy”, “Oromijon”, “Dilnoz”, “Tebranur”, “Gulbahor va tanovor”, “Sharob” 1-2, va boshqa shularga o‘xshash asarlar, G‘ijjak cholg‘usi uchun o‘zbek xalq kuylaridan “Dilxiroj”, “Tanovor” 1-2, “Xojiniyoz” 1-2 qismlar, “Munojot”, “Dilxiroj” va shu kabi xalq kuylari va maqomlarni mushkulat qismlaridan, mohir ijrochi va lirik bastakorlar Muhammadjon Mirzayev, G‘ulomjon Xojiqulov, Muxtorjon Murtozayev, Faxriddin Sodiqov, To‘xtasin Jalilov, Doni Zokirov, Adulxoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulovlar va boshqa ijodkolar asarlaridan na‘munalar ijro qilishlarini tavsiya qilamiz.

Talabalar bilan musiqiy asar ijrosiga kirishilganda o‘rganilishi rejalashtirilayotgan badiiy asarlarni butun o‘quv yili davomida ijro qilishlari uchun oddiylikdan murakkablik sari tamoyiliga asoslanib rejalashtirib olish o‘rinlidir.

Musiqiy cholg‘ularda sof musiqiy tovushlar hosil qilish va ohangdoshlik ustida ishlash borasida izchillik bilan ancha ishlar qilinishi lozimdir. Shtrixlar, tovushlarni bir-biriga bog‘lash yo‘llarini to‘g‘ri o‘zlashtirish orqali turli ko‘rinishdagi mashqlar ijrosini mustahkamlash bilan musiqiy asarlar matnini to‘g‘ri talqin etish, muallif qo‘ygan talablar bilan birga ijrochi talabalarning o‘zlari ham musiqiy bezaklardan keng va albatta o‘z o‘rnida mohirlik bilan foydalana olishi, ijodiy yondosha olishni bilish maqsadga mosligini, musiqiy asarlarni ijrosi orqali his qila olish malakalarini nechog‘lik egallanganligi kelajakdagi mohirona ijrochilik uchun katta zamin bo‘lishini doimo nazarda tutishlari kerak.

Badiiy asarlarni to‘g‘ri talqin qilish orqali talabalarda musiqiy asarlarni his qilish, asar mazmuniga mos nola va qochirimlardan o‘rinli foydalanish kabi ijrochilikdagi muhim sifatlar shakllanib boradi.

O‘zbek xalq cholg‘ularida mohirona ijrochilikni o‘rganishni maqsad qilgan yosh sozandalarga ustozlar ijrosidagi asarlarni videodagi, audiodagi yozuv nusxalarini ko‘p bora eshitishlarini, milliy cholg‘ular ijrochilarining ijodiy kontsert dasturlarini jonli tomoshabin sifatida kuzatishlarini tavsiya qilgan holda o‘zlarining cholg‘uchilik mahoratlari ustida tinimsiz izlanishda bo‘lishga chaqiramiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2017.

3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

4. A.H. Jabborov “ O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent, “Yangi asr avlodi” 2004 y.

5. Ahmadjon Yuldashev, Ortiqov Normatjon, Mirzayev Husniddin “METHODS OF TEACHING STUDENTS TO WORK INDEPENDENTLY IN PERFORMING MUSICAL INSTRUMENTS . ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal Vol 11, Issue 1, January 2021

6. Ahmadjon Yuldashev “ORKESTR SINFI” FANIDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI O‘QUV ORKESTR GURUHLARI BILAN ISHLASHNING IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDAGI O‘RNI”. ORIENTAL ART AND CULTURE, 4 DECEMBER 2021

7. Yuldashev A, Azizov S., Boboyev V. Jurayev B. “ Development of a material and spiritual culture of Central Asian people”. Philosophical readings XIII.4 (2021), pp.2585-2591. 2585

8. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

9. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.

10. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.

11. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.

12. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.

13. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.

14. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.

15. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).

16. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

17. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 25-28.

18. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.

19. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

20. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий муסיқий ижрочилик санъатида бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.

21. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.

22. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

23. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 117-119.

24. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In *Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015* (pp. 318-316).

25. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.

26. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.

27. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.

28. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.

29. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).



30. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 50-54.
31. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).
32. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 113-115.
33. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. *Oriental Art and Culture*, (V).
34. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. *Oriental Art and Culture*, (V).
35. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 90-96.
36. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.
37. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.
38. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*.
39. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
40. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.
41. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.
42. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.
43. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.
44. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

## ФИЛЬМЛАРДА ЖАНГ САҲНАЛАРИ, АКТЁР ПЛАСТИКАСИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ ВА ИФОДАВИЙЛИГИ

Илхом Масалимов

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Мазкур мақолада фильмларда актёрларнинг пластика имкониятлари ҳамда ҳаракат билан боғлиқ бўлган фильмларда роль устида ишлаш жараёнида пластиканинг аҳамияти, актёр пластикасининг фильмларда ифодавийлик масалалари ёртилган. Мақолада роль устида ишлаш жараёнида, актёр пластикасини шакллантириш борасида услубий тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** фильм, эпизод, кино, кинематография, пластика, роль, режиссёр, ҳаракат, жанр, услуб.

### THE PLASTIC EXPRESSIVENESS OF THE ACTOR IN FILMS

Ithom Masalimov

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article regards the plasticity of actors in films and the importance of plasticity in working on role that requests movement, and the importance of actor plasticity in films. The article provides methodological advice on the formation of actor plastics while working on a role.

**Keywords:** film, episode, cinema, cinematography, plastic, role, director, movement, genre, style.

Кино санъати, мусиқа, рақс ва бошқа санъат турлари орқали ҳам инсонларни тарбиялаш, уларга эстетик завқ бағишлаш, эзгуликка ундаш каби мақсадлар қўйилган бўлиб, уни амалга ошириш учун эса ижрочининг маҳоратига таяниш тўғри натижадир. Асарини етуклик даражасига олиб чиқадиган пухта драматургия бу режиссёрлик талқини бўлса, уларнинг асосий ғояларини томошабинга етказиб, ҳаяжонга келтирадиган бу ижрочининг сўз санъатидир. Лекин бу икки омилни юзага чиқарувчи, уни томошабин олдида турли саҳнавий хатти-ҳаракатлар орқали юзага чиқарувчи бу актёрнинг пластикасидир. Шундай экан, режиссура учун сўз ва маҳорат нақадар муҳим бўлса, ушбу муҳимликни баён этувчи бу актёр пластикасидир. [1.Б-23].

Ўтган асрнинг 60 йилларида бутун жаҳон кино санъатида катта қизиқишлар ва миллионлаб кино мухлисларнинг олқишлари билан кутиб олинган янги жанр пайдо бўлди. Бу жангари фильмлар, қўпол қилиб айтганда,

ур-йикитлар асносида яратилган янги фильмлар жаҳон кинопрокатларида рекордлар ўрната бошлади ва бу жанр тез орада янги шохларини чиқариб, мавзу ва даврга қараб бир неча турларга бўлиниб кетди. Хусусан, жангари комедия, экцентрик комедия, жангари детектив, тарихий, ҳарбий ватанпарварлик жангари фильмлари. Умуман олганда, кино жанрларининг барча турларига жанг сахналари кириб борди. Жанг сахналари билан фильмларни тўлдириш юзага келди. Фильмнинг томошавийлигини янада ошириш мақсадида шарқ жанг санъати усулари асосида Осиё фильмлари, сўнгра бутун жаҳон жангари фильмлари пайдо бўла бошлади. Даставвал ушбу жангари фильмлар асосан ур-йикитларнинг фильмда мақсадсиз, шунчаки томошабинни қизиқтириш учунгина фойдаланилди.

Аста-секин эса жангари фильмларда ғоя, олий мақсад ва албатта қаҳрамон каби эзгу тушунчалар пайдо бўла бошлади. Мана шу пайдо бўлган ғоялар асносида жангари фильмларда тартиб пайдо бўла бошлади, яъни жангари фильмдаги бўлаётган воқеалар, ундаги қаҳрамонларнинг фаолияти барчаси эзгуликка хизмат қилиши керак эди. Оқ ва қора, эзгулик ва ёвузлик курашида эзгулик ғалаба қозониши шартлари пайдо бўлди. Жангари фильмлар йиллар ўтиб такомиллашиб, мураккаблашиб борди. Жангари фильмлар ичида жаҳон киноси шедеврлари пайдо бўлди. Айнан жанг сахналарга бой бўлган тарихий шахслар ҳақидаги фильмлар, тарихдаги бўлиб ўтган турли даврдаги урушлар ҳақида энг сара фильмлар экран юзини кўрди. Тўғри, баъзи бир хорижий жангари фильмларида ўта вахшийлик, бузғунчилик каби ғоялар ҳам илгари сурилади, бироқ бундай жангари фильмлар узоқ умр кечирмайди. Томошабин бу каби фильмларни томоша қилади ва тез унутиб юборади. Умуминсоний ғояларни илгари сурувчи, қўллаб-қувватловчи ғояларга бой бўлган жангари фильмлар эса томошабинлар қалбида узоқ яшайди ва биз ҳар сафар шундай фильмларни такрор-такрор кўраверамиз. Ҳозирги кундаги замонавий фильмларнинг аксариятини айнан жангари фильм турлари ташкил қилади.

Ўзбек халқи - буюк халқ. Ўзбек халқининг қаҳрамонлари жуда кўп. Айнан мана шу қаҳрамонлар ҳақида фильмлар суратга олиш пайти келмадимикин? Эзгуликка хизмат қилувчи, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбияловчи жангари фильмлар суратга олиш пайти келди. Жангари фильм деганда, фақат ур-йикит эмас. Энг аввало, драматургик жиҳатдан, ғоя, мазмун жиҳатдан пишиқ бўлган фильмлар яратиш керак. Фильмдаги жанг сахналари эса шунчаки тўлдиручи вазифани ўтасин. Вахшийликка йўл қўйилмасин. Ҳарбий ватанпарварлик мавзусидаги фильмлар суратга олиб ватанимиз сарҳадаларида хизмат қилаётган замон қаҳрамонларини фильмларда гавдалантиришимиз керак. Айнан мана шу мавзуга бизнинг кино тарихимизда бир неча бор қўл урилди. “18-квадрат”, “Матонат”, “Сардор”, “Ҳаёт мамот”, “Остона”, “Жасур”

каби фильмлар шулар жумласидандир. Ушбу фильмлар суратга олиниши учун кўп меҳнат ва куч сарф этилди. Шу фильмлар орасида айримлари томошабинларда катта таассурот қолдирди. Ғоя ва мазмун жиҳатдан савияли чиқди. Шахсан менда “18 квадрат” фильми илиқ таассурот қолган. Ушбу фильмда қаҳрамонларнинг ҳар хил қийин вазиятларда қолиши, экстремал шароитларда ҳаракатланиши, ҳар қандай мураккаб вазиятларда ўз мақсад йўлидан қайтмаслиги актёрлар томонидан очиб берилган. Актёрлар Тохир Саидов ва Саид Мухторов ўзига берилган вазифани яхши уддалаган. Умуман олганда, фильм ўзимизга хос жангари фильм сифатида яратилган. Жангари фильмларда томошабин фильмдаги қаҳрамонни нима учун қаҳрамон бўлганлигини сценарий муаллифи ёзганлигидан эмас, режиссёр берган вазифа ва актёрнинг яратган образидан билиб олиши керак. Томошабин актёрнинг ижроси орқали уни қаҳрамон эканлигини ҳис қилиш керак. Унинг қаҳрамон эканлигини муаллиф ёзадиган бўлса, барча ўшани қаҳрамонлигига ишонади. Лекин қаҳрамон бўлиш учун унинг қаҳрамонлигини исботлаш учун бадиий тўқималар асосида бўлсада, қаҳрамонга шарт-шароит яратиш ва актёр ижросида ҳақиқий қаҳрамонга хос жасоратга бой бўлган эпизодларни кўришимиз керак.

Ҳарбий ватанпарварлик мавзусидаги жангари фильмдаги қаҳрамоннинг бошидан кечаётган воқеалар давомида қаҳрамон тушиб қолган мураккаб вазиятларда қандай ҳаракат қилиши, мақсади йўлида, ватанга жонини фидо қилишга тайёр эканлигини исботловчи тасвирлари кўришимиз зарур. Бунинг учун эса маълум бир шарт-шароит, жанглар, омавий жанг сахналари, якка олишувлар, экстремал ҳолатларга бой бўлган шартли шарт-шароитларни актёрга яратиб бериш керак.

Ана шу вазиятларда қаҳрамони яратиб бера олган актёр замонавий актёр бўла олади, десак тўғри бўлади. Ана шунда юқорида келтирилган фильмларимиз янаям томошавийлиги ошиб қаҳрамонларимизга бўлган ишонч янаям ортади. Бу муаммоларнинг ечими эса яна ўша актёрларимиз ўз устида ишлашлари ва мутахассис масаласи.

Режиссёрнинг омавий жанг сахналари ва мураккаб трюкларни сахналаштирувчи мутахассис билан ҳамкорлигини йўлга қўйиш керак. Юқорида “Матонат” номли фильм тилга олинди. Ушбу фильм чегарада божхона ходимларнинг фаолияти ҳақида. Мавзу яхши танланган, ғоя бор. Фильмда кечаётган воқеалар кетма-кетлиги, темпоритми ҳам яхши топилган. Актёрлар таркиби ҳам яхши. Бош ролларни халқимиз ардоғидаги актёрлар Тохир Саидов ҳамда Боир Холмирзаевлар ижро этишган. Актёрларимиз яратган образларига тўлақонли куч билан ёндашишган. Фильмдаги ижроларига қойил қолмай иложимиз йўқ. Фильмда асосий қаҳрамон ролини ижро этган Боир

Холмирзаев ҳамда Тоҳир Саидовнинг якка олишув сахнаси бор. Ушбу жанг сахнаси жанглари сахналаштирувчи мутахассис томонидан сахналаштирилган. Лекин ушбу эпизодни кўрсангиз беихтиёр сизда ишончсизлик пайдо бўлади. Наҳотки, биз божхона ходимини шунчалар қулгули ҳолатини томошабинга тақдим қилсак. Божхона ходимининг жисмоний имкониятларини, унинг абжирлигини айнан ўша эпизодда очиб беришимиз керак эмасми? Режиссёрнинг шу жангни қабул қилиб олганига “қойил” қоласиз.

Ўз қаҳрамонларимиз маҳобатини янада ошириш ўрнига унга беўхшов қулгули жанг сахнасини яратиб берамизми? Ваҳоланки Тоҳир Саидов ва Боир Холмирзаев жисмоний имконият даражасида энг маҳоратли талабчан актёрлар ҳисобланади. Улар учун янада мураккаб жанг сахнасини сахналаштириш мумкин эди. Натижада ўша эпизод бойиб қолар эди. Ушбу фильмда яна бир жанг сахнаси бор бўлган эпизод мавжуд. Воқеа шундай. Божхона ходимини ҳароба бир етўлага қамаб қўйишган ва уни қочиб кетмаслиги учун қўриқлаш мақсадида букри одамни қўйиб қўйишади. Ана шу объектга актёр Боир Холмирзаев келиб букрини уриб йиқитади ва ўз ҳамкасбини кутқариб кетади. Букрини уриб йиқитиш шартмикин? Жиноий тўда бошлиғи шундай масъулиятли ишга бир бечора букрини қолдириб кетгани бироз ишончсиз. Бу бир режиссёрнинг хатоси. Бу режиссёрнинг савиясизлиги деб бутун бир ўзбек киносини қоралаш нотўғри. Бугунги кунда кино саноатимизда катта изланишлар ва ютуқлар жуда кўп. Ушбу фильмда эса жанг сахналари сахналаштирувчи мутахассис ҳам шунчаки қўл учида ишни бажаргану, режиссёрга ҳам бу маъқул тушган. Фильмдаги арзимас майда хатоликларга энди йўл қўймаслик керак.

Ҳар бир ўзбек фильмининг яралишида миллат, деган сўз ётади. Бизнинг қўлимиздан яраляётган ҳар қандай маҳсулот миллатимизнинг буюклигига исбот бўла олиши керак. Мамлакатимизда олиб бориляётган туб ислоҳотлар, илм-фан, техника, иқтисод, аграр, ҳарбий, умуман барча соҳаларда олиб бориляётган ишлар бугун жаҳон халқларини лол қолдирыпти. Мамлакатимиз кундан-кунга кучга тўлиб жаҳон миқёсида ўзининг ҳурмат-эътиборини мустаҳкамлаб бормоқда. Мана шундай бир пайтда театр ва кино санъатида майда хатоликларни қилмасликка интилиш зарур. Юртимизда ижод учун яратиб бериляётган шароитларга муносиб жавоб қайтариш устувор вазифаларидан биридир. Шундай экан, санъат асарларини яратишда жиддий меҳнат қилишимиз керак бўлади.

Яна худди шундай камчиликларни “Жасур” фильмида кўришимиз мумкин. Тан олиш керакки, драматургик жиҳатдан фильм ўта пишиқ ишланган. Умуман олганда, фильм яхши чиққан. Лекин ушбу фильмни ҳам жанг сахналари,

мураккаб трюклар билан бойитиш мумкин эди. Фильм бош қаҳрамони ҳақиқатдан жасур эканлигини исботловчи эпизодларни қўшиш керак эди. Ҳа, бундай эпизодлар жуда кўп фильмда. Лекин ҳақиқий жанг майдонида душманни сўз билан ҳар доим ҳам енгиб бўлмайди. Ушбу фильмда ҳам оммавий жанг сахналарини бойитиш, бош қаҳрамон учун якка олишувлар яратиб берилса, янада фильм ишонали чиқар эди. Жасурнинг жасур эканлигига томошабинлар кўпроқ ишонар эди.

Фильм майда нарсалардан, нозик меҳнатларда яралади. Фильм яратиш учун шунчаки сценарий бўлса, уни суратга олиб кетаверасан, дегани эмас, албатта. Кино яратишнинг ўзига яраша қонун-қоидалари ва инжиқликлари бор. Биз хоҳламасак ҳам бўйсунимиз шарт бўлган қоидалари бор. Режиссёр жангари фильмдаги жангларни танладими? Демак, жангари фильм турлари ҳақида етарлича билим тўлашга мажбур. Жангари фильмни бошқа фильмларда фарқини, нозик қирраларини ажрата билиши зарур. “Фильм суратга олиш қонун-қоидаларини биламан”, деб шунчаки фильм яратиб кетавериш ярамайди. Ҳар бир эпизод устида ижод қилиш керак. Албатта, актёр ҳам бу борада ўзига берилган образ устида янада кўпроқ изланишини талаб этилади. Жангари фильм суратга олиш майдончасида режиссёр етарли билимга эга бўлмаса, ҳеч бўлмаса актёр ўз таклифини кирита олиши керак. Ўзига шароит ярата билиш керак. Жанг сахналарига бўлган муносабатини тўғри ташкил қила олиши ва режиссёрни ҳам илҳомлантира олиши керак [2.Б-23].

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки, жангари фильмлар суратга олиш учун ҳам актёр, ҳам режиссёр ҳамкорликда, биргаликда масъул. Биргаликда меҳнат қилишлари зарур. Аввало актёр жангари фильмда суратга тушишга тайёр бўлиши керак. Фильмларда шундай камчиликлар юзага келмаслиги учун режиссёр ва экшен постановкачиси ҳамкорлигини тўғри йўлга қўйиш, ҳамкорлик давомида фильмнинг жанри, персонажларнинг характерлари, актёрларнинг жисмоний имкониятларини яхши ҳисобга олган ҳолда оммавий жанг сахналари, якка олишувлар, трюклар, ҳаракатларга боғлиқ бўлган ижро услублари устида жиддий иш олиб бориш керак.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Маҳаматов. М. Режиссура асослари. Тошкент. - 2008 й.
2. Исмоилов А. Саҳна ҳаракати (қиличбозлик). Т.: -2007 й.
3. [proyektri.ru](https://proektri.ru) “Постановшиктрюков” <https://proektoria.online/catalog/professions/postanovshhik-tryukov>

## **YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI QADRIYATLARINI MUSTAHKAMLASHDA MADANIYAT VA SAN’ATNING O‘RNI**

Mo‘minmirzo Xolmo‘minov Zokir o‘g‘li  
mominmirzoxolmominov@gmail.com  
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlarining qadriyatlarini mustahkamlash unda madaniyat va san’at sohasining qay darajada o‘rni bor ekanligi yoritilgan. Undan tashqari Madaniyat vazirligi tomonidan yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o‘stirishga doir amalga oshirilgan ishlar tahlili bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar, Yangi O‘zbekiston, qadriyat, madaniyat, san’at, milliy, umuminsoniy, tarbiya, ma’naviyat

## **THE ROLE OF CULTURE AND ART IN STRENGTHENING THE VALUES OF YOUTH OF NEW UZBEKISTAN**

Muminmirzo Kholmuminov Zokir oglu  
mominmirzoxolmominov@gmail.com  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article highlights the role of culture and art in strengthening the values of the youth of New Uzbekistan. It also provides an analysis of the work done by the Ministry of Culture to promote the national and universal values of young people.

**Keywords:** youth, New Uzbekistan, values, culture, art, national, universal, upbringing, spirituality

Yoshlarning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun yurtimizda tahsingga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarning boshida Muhtaram Prezidentimizning o‘zlari namuna bo‘layotganliklarini barchamiz ko‘rib turibmiz.

Yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari!” shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq etilmoqda. Birgina madaniyat va san’at sohasiga doir qabul qilinayotgan Farmon va qarorlarining har birida yoshlar masalasiga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabr "O'zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarorida, 2020-yil 26-may "Madaniyat va san'at sohasini jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 6000-sonli Farmonida [1:211, 423], 2022-yil 2-fevral "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarorida [2:1] va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-aprel "Milliy madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo'shgan san'atkorlarni hamda o'zbek san'atini dunyo sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish etib kelayotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 271-sonli qarorida, 2019-yil 20-mart "Xalq cholg'ulari ijrochilari", Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Milliy raqs ijrochilari" va Yunus Rajabiy nomidagi "Yosh maqom ijrochilari" respublika ko'rik-tanlovlarini o'tkazish to'g'risida"gi 237-sonli qarorida, 2019-yil 26-avgustda "Andijon viloyatida yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish orqali ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 718-sonli qarorida, 2019-yil 21-noyabr "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish orqali ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 923-sonli qarorida [3:470-477] va 2021-yil 16-noyabr "Buxoro viloyatida Yosh ijrochilarning "Shashmaqom" respublika festivalini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 685-sonlida [4: www.lex.uz] aynan yuqorida aytilgan chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan yoshlar masalasiga doir alohida yo'l xaritalari ishlab chiqib, joylarda shu asosda samarali ishlar olib bormoqda. Madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning barchasida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan. Quyidagi 1-rasmda Madaniyat vazirligi tomonidan 2019-2020-yillar mobaynida yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti statistikada ko'rsatib o'tilgan.

Yoshlarning qadriyatlarini mustahkamlash haqida bot-bot gapirayapmiz, savol tug'iladi qadriyat o'zi nima? Unga qanday ta'rif berilgan? Demak, qadriyatlar bu - borliq, jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha...Qadriyat tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin. Qadriyatning xilma-xil shakllari bor: moddiy, ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy, umuminsoniy; jamiyat hayotining sohalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyat; ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy; hayotning ijtimoiy tuzilmasiga mos keladigan milliy, sinfiy, partiyaviy qadriyatlar va boshqalar. [6:323,324] Qadriyatlarining ma'naviy, umuminsoniy, moddiy, madaniy, ijtimoiy shakllarini yoshlarda shakllantirish va mustahkamlashda madaniyat va san'at sohasining o'rni



beqiyosligini bugungi kunda jadal olib borilayotgan islohotlarda ko‘rib, guvoh bo‘lib turibmiz. Madaniyat vazirligi tizimidagi davlat teatrlari, teatr studiyalari, O‘zbek milliy maqom san‘ati markazi, Respublika baxshichilik san‘ati markazi, M. Turg‘unboeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti (*Farg‘ona va Nukus filiali*), O‘zbekiston davlat konservatoriyasi (*Nukus filiali*), O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi (*Urganch filiali*), Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san‘ati instituti K. Zaripov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan estrada va sirk kolleji, Respublika musiqa va san‘at kolleji, R. Gliyer nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi, V. Uspenskiy nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san‘at maktablari, madaniyat va san‘atga ixtisoslashtirilgan maktab internatlar kabi muassasalar yoshlarni madaniyat va san‘at sohasi orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar mujassamligida tarbiyalashga katta xizmat qilib kelmoqda.



1-rasm [5:59]

Madaniyat, san‘at, ilm-fan, ta‘lim sohasida o‘z iqtidorini namoyon etayotgan yoshlar uchun zarur sharoitlarni yaratish hududlar hamda vazirlik va idoralar rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi shart. [7:259]

Yangi O‘zbekiston yoshlarida ezgulik g‘oyalarini shakllantirish hamda qadriyatlarni mustahkamlash bu yurt tinchligi va demokratiya tamoyillarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liqdir.

Demokratiya va siyosiy madaniyat qanchalik umuminsoniy ma‘no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini, ungga ruhiy quvvat beradigan, uni boyitib boradigan, rang-barangligini ta‘minlaydigan “milliylik”, “milliy ruhiyat” milliy-ma‘naviy qadriyatlardir. [8:20]

Yangi O‘zbekiston yoshlarini bilimli, ma’naviyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq farzand etib tarbiyalashda ajdodlarimiz merosini o‘rganish ham juda katta turtki bo‘ladi deb ayta olamiz. Chunki, ajdodlarimiz merosi biz yoshlar uchun katta bir tuhfadir.

Mustaqillik sharofati bilan boshlangan va endilikda katta bir ma’naviy ehtiyoj sifatida o‘rganilayotgan ajdodlarimizning ulkan merosi hozirda yangi bir qiyofa bilan boyib bormoqda. Bu milliy istiqlolning ma’naviy olamidir. Agarki biz bu ishga belni mahkam bog‘lagan, xalqimiz ma’naviy qiyofasini yangilash uchun chog‘langan, milliy qadriyatlarimizni idrok etishga intilayotgan ekanmiz, avvalo, zabardast allomalarimiz merosidan yanada unumliroq foydalanaylik. Ana shunda ular xotirasi oldidagi farzandlik burchini ado etgan bo‘lamiz. Shundagina insoniy kamolot, ma’naviy huzur halovat, yuksak iymon-e‘tiqod tuyg‘ularini o‘zimizda his etamiz. [9:22]

Mustaqillik yillarida yosh avlod qalbida Vatanga, millatga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalash borasida asrlarga tatigulik ishlar qilindi. Vatan ozodligi uchun kurashgan Sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalar, Vatan va millatga fidoyilik timsoliga aylangan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va ularning safdoshlari xotiralarining abadiylashtirilganligi, davlatimiz ramzlari - bayroq, gerb, madhiyaga yuksak ehtrom tuyg‘usining shakllanganligi buning yorqin dalillaridir. Shuning uchun ham bugungi kunda “Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!”, “Shu aziz Vatan barchamizniki” degan so‘zlar shunchaki shior emas, millat yoshlarining qalb da‘vatiga, siyosiy e‘tiqodiga, qadriyatiga aylanmoqda. [10:51]

Hozirgi kunda ayrim toifadagi kishilar bozor-o‘chardan boshqa narsani o‘ylamay qo‘yishdi. Ota-ona bozorda, bola bozorda. Bugun bozorni boshiga ko‘tarib suv sotayotgan, sipirtli ichimlik yoki tamaki bilan savdo qilayotgan bolalardan ertaga biz nimani kutamiz? Kun bo‘yi pul ketidan quvgan bolalarni maktabga qaytarib bo‘ladimi? To‘g‘ri biz bozor qonunlari sharoitida yashamoqdamiz. Lekin bozorni ham ma‘rifatli kishilar boshqaradi. [11:44] Ma‘rifatli, madaniyatli, ma’naviyatli inson bo‘lish uchun hozirgi yosh avlodni tarbiyalash jarayonida, ularning qiziqishlariga qarab madaniyat va san‘atga jalb etishimiz kerakdir. Yaqinda ya‘ni, 2022-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori bilan 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab ta‘lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste‘dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi. Undan tashqari musiqa fani uchun haftasiga

belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladi.

Xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlar va an'analari ming yillar davomida yaratilgan bo'lib, u insonlarining turmush tarziga, kundalik ehtiyojiga aylanib ketgan. Avlodlardan avlodga o'tib o'z tilini udumini, milliy e'tiqodini saqlab qolgan. [12:3]

Har tomonlama rivojlanayotgan, yangilanayotgan O'zbekistonda iqtisodiyot bilan bir qatorda taraqqiy etgan ilm-fan cho'qqilarini egallagan yoshlarga yuksak madaniyat va milliy ma'naviyat ham zurrur ekanligini hayotning o'zi taqazo etmoqda. Shu ma'noda mamlakatimiz istiqbolini yaratuvchilari bo'lgan yoshlarimizni vatanparvar, sadoqatli va yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda bor kuch-g'ayratimizni safarbar etish barchamizning birinchi galdagi vazifamizdir.

Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak maralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O'zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko'tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz. [13:263]. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston yoshlari yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, yurtimizni shon-shuhrati uchun doim xizmatga labbay deb javob berishimiz lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478.
2. Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 1.
3. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478.
4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Axborot-qidiruv tizimi. www.lex.uz
5. Turdiyeva M. Yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda madaniyat markazlarining o'rni. BMI. - Toshkent.:2021 - 59-b.
6. A.Umarov, M.Bekmurodov. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015. - B. 349.
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B 464
8. Haydarov A. O'zbekiston jamiyati siyosiy madaniyatida milliy-ma'naviy qadriyatlarning o'rni. Avtoreferat - Toshkent: "Moziydan sado" jurnali kichik bosmaxonasi. 2005. - B. 30
9. Haydarov A. Ajdodlarimiz merosi - milliy ma'naviyatimiz poydevori (Matn)- Toshkent: Ma'naviyat. 2015. - B. 32
10. Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar- Toshkent: Muharrir. 2008. - B. 95

11. Haydarov A. Ma'naviyat - huquqiy davlat tayanchi. - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1999. - B. 96
12. Jumayeva F. Qadriyati qadrlangan yurt.- Qarshi:Qashqadaryo ko'zgusi OAV nashriyoti, 2019-yil, 120 b.
13. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - B 464

## **O‘ZBEK DRAMA TEATRLARIDA SAHNALASHTIRILGAN SPEKTAKLLARDAGI REJISSORLIK TALQINLARI**

B.A.Nurmanova

layli.shirin00@mail.ru

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek drama teatrlarida sahnalashtirilgan spektakllardagi rejissorlik talqinlari atroflicha tahlil qilinadi. Rejissorlar tomonidan sahnalashtirilgan sahna asarlaridagi murakkab ziddiyatlar, keskin vaziyatlar tomoshabinni hayajonga soluvchi intrigalar spektaklning asosiy unsurlari ekanligi unga rejissorlar yondashuvi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** spektakl, tahlil, talqin, rejissor, aktyor, xarakter, xarakterlilik, rassom, kechinma, p’esa, repertuar.

## **DIRECTOR'S INTERPRETATIONS IN THE PRODUCTIONS OF UZBEK DRAMA THEATERS**

B.A.Nurmanova

layli.shirin00@mail.ru

UzSIAC

**Abstract:** This article provides a detailed analysis of the director's interpretations of performances staged in Uzbek drama theaters. Director's decisions in the stage representation of complex contradictions and relationships between characters, as well as intrigues that excite the audience, which are the main elements of the play in dramatic works, are considered here.

**Keywords:** performance, analysis, interpretation, director, actor, character, distinctness, artist, experience, play, repertoire.

Adabiy asar qanday shakl va janrda yozilishidan qat’iy nazar teatr sahnasida ko‘rsatilar ekan, avvalo dramatik talablarga bo‘ysunadi, ya’ni, mantiqan, dramadek zich, bir-birini taqozo etuvchi, keskin va ziddiyatli holatlar, tomoshabinni hayajonda ushlab turuvchi intrigalar, murakkab ichki hamda tashqi ziddiyatlar asosiga quriladi. “Voqealarning zichligi, dialoglarning yuzaga chiqishi dramani romandan ajratib turadigan asosiy xususiyatdir” [1. B. 315.] - deb yozadi dramaturgiya nazariyasining yirik namoyondalaridan biri V.Volkenshteyn.

O‘lmas Umarbekovning “Kuzning birinchi kuni” dramasidagi yoshlarni har davrda uchratish mumkin. Adibning “Qizimga maktublar” qissasini bu drama bilan

birlashtirib qayta ishlangani spektaklga asos bo'lgan. Ota-onalarning dilbandlarini o'ylab kelajak haqidagi qayg'urishlari yangi shakldagi dramada mustahkam bog'ichlar ila bog'langan.

Spektakl o'ziga xos manzara bilan boshlanadi. Sahna to'rida yonib-o'chayotgan mashina chiroqlari, qorong'ulikda qandaydir sho'x musiqa ichra kayf-safo qilayotgan nusxalarning ovozlari, qadahlarni bir-biriga urishtirib bazmi-jamshid qilishayotgan yoshlarning hayqiriqlari eshitiladi. Bu manzara bir oz davom etgach, sahna nim yoritilib, uzun plash kiygan, shlyapasini bostirgan, qo'lida qandaydir kitob, daftarcha tutgan shaxs qahramon paydo bo'ladi. Uning ilk gaplaridan bilinadiki, bu muallif, ya'ni O'lmas Umarbekovning sahnaviy obrazi.

Muallif sahna markazida turar ekan, yoshlar o'zgarib ketayotganligidan nolib, qizidan xavotirlanib, sahnaviy asar yozayotganligini ma'lum qiladi. So'ngra, sahnaning biroz chekkasiga o'tib, o'z asarini yoza boshlaydi. Tomosha boshlanib, Oynisa xola bilan o'g'lining o'zaro suhbatiga o'tiladi va spektakl boshlanadi. P'esadagi voqealar tizimiga biroz zamona tusi berilgan va bugungi kun yoshlari o'rtasidagi muloqot shakllariga moslashtirilganligini aytmaganda, drama borligicha sahnaga olib chiqilgan. Spektakl davom etar ekan, muallif sahna ortida nimalarnidir yozib o'tiraveradi. Dramaturg O'lmas Umarbekovning sahnaviy obrazini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Asadillo Nabiyeu ijrosida - hokisor yozuvchi sifatida gavalangan. Sobir, Farxod va Ramz esa "Kuzning birinchi kuni" dramasi ning personajlari. Ular tufayli dramani ng voqealari harakatga keladi. Lekin ular aktyorlar ijrosida naturalistik harakatlarga aylanadi.

"San'atkor o'z g'oyasi talqin qilishning vositalarini qanchalik aniq tasavvur etsa, shunga muvofiq, bu g'oya ham shunchalik aniq bo'ladi. Aktyor niyati asar g'oyasi ning o'zida mujassamlashtirilgan obraz xulq-atvori, ya'ni xatti-harakat mantiq'i haqidagi tasavvurlar birligidir". [2. B. 121.] Spektakldagi har bir voqea keyingi voqeaga turtki bo'ladi va aktyorlarni harakatga keltiradi. Bu jihatni sahna ijodkorlari yaxshi biladi. Spektaklda Shokir obrazi muhim qahramon. Uni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist - Mahmud Ismoilov ijro etgan. P'esaga ko'ra o'g'lining bunday xunrezliklariga chiday olmagan, endigina nafaqaga chiqib uyda, tinch-totuv umr guzaronlik qilaman deb turgan ota, o'g'lining shakkokligini ko'tarolmay vafot etishidan avval Oynisa xola erini Shokir akani ehtiyotlab yurishi, har bir sahnada dori ichish vaqtini eslatib turadi. Bu ehtiyotkorlik drama oxirida o'sha yurakning ado bo'lishiga asos bo'ladi. Spektaklda esa, yoshlarning hamma aybini Shokir aka o'z bo'yniga oladi.

Rejissor taklif qilgan yechimni, ya'ni, otani ng o'z farzandi uchun har narsaga tayyor ekanligini ko'rsatish deya oqlash mumkin. Har bir spektaklning sahna qonun-qoidalarga asoslangan harakati bor. Rejissor uchun uni topa bilish muhim masala. Spektaklda "Kuzning birinchi kuni" tarkibiga kiritilgan "Qizimga maktublar" asari deyarli dramaga singmay qolgan. Undan matnlar olingan, lekin undagi qimmatli

satrlar, plash kiyib, shlyapasini bostirgancha o'tirgan muallif, ko'nglimizga yaqin yozuvchi emas, hayotiy haqiqatdan yiroq, shunchaki, bir chetga o'tirib, ish kiyimlarini yechmasdan sahnaviy asar yozayotgan yozuvchi qiyofasini gavdalantiradi. Spektaklning yarmiga borib muallif, o'z so'zlarini aytib bo'lganidan so'ng chiqib ketadi va keyingi ko'rinishga o'tar payti yana paydo bo'ladi. Shu "an'ana" spektaklning oxirigacha davom etadi. Balki, shuning uchun muallif sahnadagi voqealarga birlashib ketmaydi. Natijada, har bir voqeaga sun'iy ravishda qo'shilganligi namoyon bo'lib qoladi. U voqelarning keskinlashuviga emas, balki, susayishga xizmat qiladi.

Rejissor aktyorni personaj xarakteri va o'z talqini yo'nalishiga solishi uchun berilgan shart-sharoitni tushuntirishi, sodir bo'layotgan hodisalarga unda ishonch tug'dirishi hamda chinakam ijod yo'ligagina olib kirishi zarur. Buning uchun rejissor K.S.Stanislavskiy ixtiro etgan badiiy obraz yaratish sistemasi va realistik teatrning eng ilg'or, zamonaviy asoslaridan biri bo'lgan - aktyorning tuyg'ularini sahnadagi tabiiyligiga erishishi lozim. Chunki, tabiiy tuyg'ulari sahnada uyg'onmagan aktyor personaj tashvishlari bilan yashamaydi, balki, rejissorning xohishini bajaradigan sahnadagi jonli mexanizmga aylanib qoladi. Sahnada chinakamiga yashamaslik esa, rolni shunchaki ijro etish, vazifalarni eslab qolib, mexanik ravishda bajarish - talqindan chekinish demakdir. Badiiy obrazni realistik talqin qilishning bunyodkor kuchi shundaki, sahna soxtalik va taqlidchilikdan xolis bo'ladi. Bu spektaklda rejissor yuqoridagi talablarni bajarmagani seziladi.

Har bir obrazning sahnaviy badiiy talqiniga erishmoq uchun esa rejissor kuchli ruhshunos, ajoyib murabbiy bo'lishi lozim. U aktyor bilan shunday ijod qilish usullarini topishi kerakki, aktyor beixtiyor kerakli narsalarni fahmlasin, his etsin, anglab yetsin. Rejissor aktyorlarda muayyan rolni o'ynashga ishonch, ishtiyoq, g'ayrat, zavq uyg'ota olsin.

O'zbek Milliy akademik drama teatri rejissori Valijon Umarovning - "Kunduzsiz kechalar", "Ogoh bo'ling odamlar", "Omonat dunyo", "Quyoshni sen uyg'otasan" kabi spektakllarni sahnalashtirgani diqqatga sazovor.

Usmon Azim qalamiga mansub - "Ogoh bo'ling, odamlar" dramasi o'z davrida jamiyatimizda dolzarb hisoblangan muammolardan biri bo'lgan - odam savdosi muammosini va uning zararli oqibatlarini xalqqa badiiy shaklda yetkazib berish masalasiga rejissor o'z diqqatini qaratgan. Atrofimizdagi soddadil yurtdoshlarimiz o'z nafsiga qul bo'lgan kishilarning qurboniga aylanayotgani, ularning qismatlari boshqalar hayotida ham takrorlanmasligi uchun ularni ogoh bo'lishga chaqirish - spektaklning g'oyasi edi. Spektaklda - jinoiy guruh vakillari o'zlariga dinni niqob qilib olib, qiynalgan insonlar taqdirini bir chaqaga olmasdan, ekstremistik tashkilotlarning tuban qilmishlarini amalga oshirayotgani namoyish qilinadi.

Asarning qahramonlari Mavjuda, Akbar va tergovchi Jabborovlar zamonaning ilg'or kishilari sifatida sahnada namoyon bo'ladilar. Bosh qahramonlar Mavjuda va Akbarning chekiga juda katta sinov tushadi. Yolg'on, aldov va zo'ravonlikning qurboniga aylangan - Mavjuda o'zga yurtlarda tahqirlanishga, xor va sarson bo'lishga majbur bo'ladi. Lekin, u bu xo'rliklarga chidashga va o'z yurtiga qaytib kelishga kuch topadi. Uni kuchli qilgan va irodasini mustahkamlagan asosiy sabab, o'z farzandini yana bir bor ko'rishdek orzu bo'lsa, uni armonga aylanmasligi uchun uning mustahkam irodasi yordam beradi. Bu talqin tomoshabinlarni ogohlikka chaqirgani uchun umri uzun bo'ldi.

O'zbekistonda xalq artisti Turg'un Azizov rejissorlik faoliyati davomida - "Gamlet", "Alisher Navoiy", "Mehrobdan chayon", "Mirzo Ulug'bek" "Mashrab", "Qirol lir", "O'zbekcha raqs", "Chimildiq", "Yetti faryod", "Bir koshona sirlari", "Qalliq o'yin", "Makr va muhabbat", "Oltin qiz" kabi spektakllarni sahnalashtirdi.

Shekspirning "Gamlet" asari jahon teatrlarida turli rejissorlar tomonidan, turlicha talqin qilishganligi sababli ijodiy jamoadan yuksak mahorat talab qiladi. Asardagi romantik ohang va lirik chekinishlar rejissor Turg'un Azizov talqinida uchramaydi. Natijada Gamlet ijrosida - "Zamon izdan chiqdi, uni izga solish mening zimmamga tushdi" degan Gamletning iborasi keskin vaziyatlarda bir necha bor takrorlanadi va bu fikr spektaklning letmotiviga aylanadi. Spektaklda hayotiy haqiqat, qat'iylik, maqsadli xatti-harakat paydo bo'ladi va spektaklda bundan avvalgi talqinlarda javobsiz qolgan savollarga javob axtariladi hamda onasining hiyonatkorligiga asosiy urg'u beradi.

Mashhur aktyor Tohir Saidov ijrosida Gamlet obrazining yaratilishi uning muxlislari tasavvurlariga sig'masdi. Sababi, komediyalarda rol ijro etgani uchun shahzoda qiyofasida qabul qilish murakkab edi. Biroq, rejissor aynan shu aktyorga ishonch bildirdi. Aktyor esa rejissor ishonchini oqlab, muxlislarini lol qoldirdi.

Spektakldagi Gertruda va Klavdiy obrazlarining talqinlari ham alohida e'tiborga loyiq. Aktrisa S.Yunusova talqinidagi - Gertruda birinchi sahnadayoq o'z qahramonining chuqur ichki tug'yonlarini namoyon qiladi. U so'nggi daqiqalargacha Klavdiyni tushunmaydi, nima sababdan voqealar bunchalik tez rivojlanib, hayotini izidan chiqarib yuborayotganining tagiga yeta olmaydi. Ayniqsa, Gertruda o'g'li Gamlet bilan bahslashadigan sahnasida uni umuman chorasiz va notavon o'jizaga aylanganini ko'ramiz. Bu rejissor va aktrisaning obraz talqinidagi yutug'i edi.

Klavdiy obrazi esa - jizzaki, badnafs va bemulohaza qirol sifatida talqin qilingan. U surbetlarcha beparvolik bilan o'zining nuqsonlarini fazilat darajasiga ko'tarmoqchi bo'ladi, qilgan jinoyatlari uchun afsuslanmaydi, hokimiyat va qirolichani qo'ldan boy bermasligi uchun Gamlet o'lishi kerak degan xulosaga kelgan va bu yo'lda u hech narsadan qaytmaydi. Bunday talqin ham e'tiborga loyiq. Rejissorning maqsadi, Shekspir asarlarining sahnaviy talqinlari orqali tomoshabinlarni borliqni falsafiyroq



anglashga da'vat qilish edi. Bu harakat zamonaviy teatr san'atining eng muhim intilishlaridan biridir.

Turg'un Azizovning mustaqillik davri boshlaridagi rejissorlik faoliyati o'zbek milliy teatri an'alarini saqlab qolish va yanada rivojlantirish edi. U tarixiy mavzudagi asarlarni mahorat bilan sahnalashtirib, o'zbek teatri sahnasidagi milliy an'ana va qadriyatlarni tarannum etuvchi talqindagi spektakllar sahnalashtirishni boshlab berdi.

Mashhur rejissor Olimjon Salimovning - "Omon bo'lg'in, azizim", "Ot kishnagan oqshomda" "Bir kunlik baxt", "Sohibqiron", "Ufq", "Yer baribir aylanaveradi" kabi o'ziga xos talqinda sahnalashtirgan psixologik dramalari, insoniy his-tuyg'ularni o'zida namoyon qiladigan, umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etuvchi spektakllaridir. Hamza teatrida sahnalashtirilib, shov-shuvlarga sabab bo'lgan inson qadr-qimmatini haqidagi "Omon bo'lg'in, azizim" spektaklini Olimjon Salimov qayta sahnalashtirdi. Rejissor spektaklni lirik xususiyat bilan boyitganligi sabab, sahnada - sevgi, hijron va ayriliq haqidagi mahzun tomosha paydo bo'ldi. Spektaklning oliy maqsadi - bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bir davrda, tomoshabinlarni o'zaro mehr-oqibat, hurmat, e'tiqod tushunchalarini yodda saqlashga da'vat etish, deb belgilandi.

Rejissor, Ona obraziga tanlangan aktrisa Sayyora Yunusovaga aniq vazifalar bera olgan. Aktrisa bu obrazga o'ziga xos talqin bilan yondoshgan. Uning qahramoni, butun umr oila ro'zg'or tashvishi bilan yashagan, turmush o'rtog'iga vafodor, qalbi toza, bag'rikeng va yoshi ulug' ayol. U ulg'aygan va tarqab ketgan farzandlarining keksaygan o'z ota-onasiga nisbatan e'tiborsizligiga ko'z yumadi, ularni qiliqlarini oqlashga intiladi. Qarzga botgan eri bilan hayoti bundan keyin o'nglanmasligini ich-ichidan his etsa-da, hammasi iziga tushishiga umid qiladi, turmush o'rtog'i albatta vaziyatdan chiqish yo'lini topishiga soddalarcha ishonadi. Qartaygan ota-ona qarzga botgach, farzandlaridan yordam so'rashga majbur. Farzandlar esa, odamlar orasida "ota-onasini qarovsiz qoldirgan" degan gap tarqalishidan qo'rqib, oilaviy sabablarni bahona qilib, chorasizlikdan ularni alohida-alohida "taqsimlashga" majbur bo'ladi. Uylari qarz evaziga tortib olingach, turli joydagi qariyalar uyida yashashadi. Uning uzoqdagi turmush o'rtog'i bilan telefon orqali suhbatidagi entikishlari, u kasal bo'lib qolganini eshitgach, kuyib-yonishi juda ta'sirli chiqqan. Ayniqsa, keksalarning uzoq ayriliqdan so'ng diydorlashuv onlari tomoshabin yuragini tilka-pora qiladi. Ushbu sahnada - ularning yuragi hijron o'tida yonayotgani, bu so'nggi uchrashuv ekanligini qalban his etayotgani, boshqa ko'risha olmasligidan naqadar azob chekayotgani yorqin ifodalanadi. Spektakldagi har bir farzandning o'z haqiqati mavjud. Faqat bu oilaviy haqiqatlar, ularni o'zaro murosaga keltirmaydi, oqibatda bir-biri bilan keskin to'qnashishi qariyalarga jabr yetkazadi.

Rejissor va rassom sahna atrofiga esa aylana temiryo'l o'rnatiladi. Ushbu shartli dekoratsiya jihozi juda notekis, bir tomoni baland, boshqa tarafi past. U inson umri davomida bosib o'tadigan hayot yo'lini eslatadi. Spektakl davomida ushbu temiryo'l

ustidan sariq chiroq tushiriladi. Psixologiyada sariq rangning ma'nolaridan biri - umid qilishdir. Natijada, aylana temiryo'l spektakldagi bosh qahramonlarning hayot yo'li hamda kelajakdagi farovon hayotga bo'lgan umid-ishonchi ekanligini anglatadi.

Rejissorning boshqa topilmalarini ham ta'kidlash o'rinli. Masalan, u poyezd yurishini ifodalashda, odatdagidek, yozib olingan tovushdan foydalanmaydi, balki, ommaviy sahnalarda chiqqan, vokzal uniformasidagi aktyorlar, maxsus tayoqlarni yerga urgan holda, poyezd g'ildiraklarining taraqturuqini ifodalaydi. Bunday o'ziga xos yondashuv spektaklning yanada jonli va tomoshabop chiqishiga sabab bo'lgan. Poyezd yurishiga ishora bo'lgan bu shartli topilma - yurak urishini eslatadi. Darhaqiqat, farzandlar Ota va Onani bir-biridan ayirganida hamda ular tobora bir-biridan uzoqlashayotganida, ushbu "taraq-turuq" tovushlar tezlashib, qahramonlarning hapqirib ketayotgan yuragini ifodalaydi. Yana bir topilma Ota va Onaning so'nggi valsida sahnada yosh yigit va qiz paydo bo'lib, chiroyli raqsga tushishadi. Bu topilma qariyalarning diydor ko'rishganida, o'zini yosharib qolgandek his qilishiga ishora bo'lgan hamda spektaklga romantik ruh baxsh etgan.

Olimjon Salimov spektaklga nogiron inson qahramonini kiritgan. U nogironlar aravachasida faqatgina voqealar sahnadan-sahnaga o'tayotgan paytda hamda spektaklning finalida paydo bo'ladi. Nogironning tinmay tipirchilashi, yurishga harakat qilishi, hamshiradan qochishga intilishi - bosh qahramonlarning farzandlari beoqibatligidan sinib, chalajon holga kelgan qablarning ramziy ifodasiga aylanadi. Spektaklning so'nggida esa, Ota va Ona bir-biridan butunlay ayrilganida, Nogiron ham yiqiladi va joni uzilgan jasaddek tosh qotadi.

Rejissor "Omon bo'lg'in, azizim" spektakli talqini orqali inson ruhiy olamini sahnada chuqur ochib bera olish mahoratini yana bir bor ko'rsatdi. Uning: aktyorlar ansamblini yarata olish; badiiy ifoda vositalaridan o'rinli foydalanish; obrazli yechimga psixologik yondashish; teatrning barcha komponentlarini bir g'oya ostida birlashtirish; badiiy yaxlit spektaklda yaqqol ko'rindi. Ushbu spektaklning tomoshabinlarga umuminsoniy qadriyatlarni eslatishi, ularni e'zozlashga da'vat qilishi va targ'ib qilishi bilan ham qimmatlidir.

Tarixiy asarlarning sahna talqini ustidagi izlanishlarini davom ettirgan rejissor Olimjon Salimov 2016 yili Samarqand viloyat musiqali drama teatrda, so'ngra O'zbek Milliy akademik drama teatrda Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini sahnalashtirdi.

"Rejissorning ish boshidagi eng asosiy vazifalaridan biri - aktyorni, aktyorlarni, olingan p'esaga, ijro qiladigan rollariga nisbatan kerakli, ba'zan keragidan ortiqcha bo'lsa ham zarar qilmaydi, mehr uyg'ota olish. Shuningdek, aktyorning, aktyorlarning p'esada qanday ijro uslubda ishlashi kerakligini aniqlash. Buning uchun kerak bo'ladigan, lekin, aktyorlarda yetarli bo'lmagan xususiyatlarni qanday topishni, ulardagi bunday yashirin imkoniyatlarni uyg'ota olishi ham muhimdir" [3. B. 51.],

deydi, Olimjon Salimov. U "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi talqinida monumentallikka hamda zamonaviylikka erishishni o'ziga maqsad qilib belgiladi. Rejissor zamonaviylikni asardagi ilmu ma'rifat va johillik o'rtasidagi kurashda ko'radi. Bugungi kunda islomni niqob qilib, manfur niyatlarni amalga oshirish maqsadida insoniyat ongi va qalbiga qo'rquv solmoqchi bo'layotganlardan tomoshabinlarni ogoh etishni yetakchi masala deb bildi.

Samarqand teatri va Milliy teatr sahnasidagi dekoratsiyada Ulug'bekning saroyi va rasadxonasi ramziy jihozlar orqali tasvirlanib, ularda spektakl konflikti - bosh qahramonning davlat arbobi va olimligi o'rtasidagi qarama-qarshilikka qurilganligi aniq ifodalandi. Aktyor Erkin Komilov o'z ijrosida ham Ulug'bek siymosining ong va qalbidagi mazkur ziddiyatlarni aks ettirishga intildi. Aktyor ushbu obrazni A.Ginzburg talqinidagi spektaklda gavdalantirgan Sh.Burhonovning ijodiy tajribalariga tayangan holda, tarixiy shaxsning ichki kurashiga asosiy urg'u berdi. Natijada, E.Komilovning Ulug'bek obrazi - vajohat va vazminlik, dadillik va ikkilanish, qat'iylik va ishonuvchanlikni ifodalaydi. Shuning uchun ham u keskin qarorlar chiqarishga shoshilmaydi, balki har ishni puxta o'ylab amalga oshiradi. Hatto, farzandi fitnakorligini bilsa-da, buni vazmin qabul qilishga intiladi. Rejissor tomonidan berilgan vazifaga ko'ra, Ulug'bek ishonch qurboniga aylanganligini, fitna va hiyonat domiga tushgan inson fojeasini tajribali aktyor haqqoniy ko'rsatib bera oldi hamda obraz xarakterining ichki kechinmalarini, qalb tug'yonlarini ochib berish orqali mashhur shaxsga xos ulug'vorlik va jozibani ifoda etdi.

Rejissor ikkala teatrdagi spektakllariga lirik xususiyat baxsh etdi. Samarqand teatridagi prologda Ulug'bek - E.Komilov yulduzlar bilan suhbatlashayotgan holatda paydo bo'ladi. Milliy teatrdagi esa Devonbegi obrazini gavdalantirgan aktyor Sh.Muzropov spektakl avvalida ham, xotimasida ham Alisher Navoiyning Mirzo Ulug'bekka bergan ta'rifini nola bilan hirgoyi qiladi, faqat muqaddimadagi nola keskinroq va shiddatliroq, xotimadagi esa ma'yusroq va mungliroq. Bu bilan rejissorning spektakl voqealari kechmishi baxtdan baxtsizlik sari o'zgarishini anglatadi.

Lekin, ikki teatrdagi spektaklning yakuni ham Ulug'bekning o'limi bilan emas, taxtdan voz kechishi bilan tugaydi. Bu esa asarning sahnada fojea emas, psixologik-romantik drama janrida talqin etilganidan dalolat. Shuningdek, ikkala spektaklning avji Abdullatifning qo'zg'olonida o'z ifodasini topadi, bu esa spektakl konfliktining biryozlama ko'rinishiga olib kelgan. Sababi, Ulug'bekning padarkush o'g'li Abdullatif bilan ziddiyatlariga asosiy urg'u berilgan. Oqibatda, asardagi bosh qahramonning Said Obid hamda Gavharshodbegim kabi obrazlar bilan kurashi ikkinchi planga tushib qolgan. Natijada, asardagi ota va o'g'il munosabatlaridagi axloqiy qarashlarga asoslanib, tragediyaning ijtimoiy-falsafiy zalvoriga putur yetkazilganligi sababli, ota-o'g'il nizosi taxt uchun kurashdan iborat maishiy konfliktga aylanib qolgan. Buning

ustiga Abdullatif obrazi ijrosi uchun rejissor tanlagan aktyorlarning talqinida to'laqlonlilik yo'q.

Demak, tarixiy shaxslarga bag'ishlangan spektakllar mutaxassislar va teatrshunoslar muhokamalari orqali me'yoriga yetkazilib, so'ngra keng jamoatchilik ko'rigiga havola etilishi zarur. Aks holda ularni suydiramiz deb tomoshabin hurmatini susaytirib qo'yishimiz mumkin. Aktyor ijodini ulug'lagan Gogol - "Teatr shunday minbarki, undan olamga juda ko'p yaxshi gaplarni aytish mumkin" [4. B. 88.], - deydi, sababi, dramaturgning maqsadini va rejissorning talqinini tomoshabinga badiiy obrazlar ijrosi orqali yetkazuvchilar aktyorlardir.

Jahon teatri rejissurasida yangi davrda kuzatilayotgan o'zgarishlar, o'zbek teatri san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatayapti. Bu esa milliy rejissura san'ati an'alariga, erishilgan yutuqlar zalvoriga, talqin masalasidagi yuzakilikka olib kelmoqda. Shuning uchun rejissuradagi yangi shakl izlanishlari va talqin masalasi bo'yicha alohida mulohaza yuritish lozim bo'ladi. Chunki, yuqorida tilga olingan rejissorlarning ijod yo'li turlicha bo'lib, har biri aktyorlarning xarakter yaratish iqtidoridan kelib chiqib, spektakl sahnalashtiradi. Ularning rejissorlik talqini borasidagi topilmalari, xarakter yaratishdagi izlanishlari, badiiy shakl topishdagi yangiliklari o'ziga xosdir.

Xulosa shuki, rejissor talqini va aktyor ijrosidagi obrazning mantiqiy mutanosibliigi masalasi teatr san'atining o'zagidir. Badiiy yaxlit spektaklning tug'ilishi iste'dodli rejissorning mahoratiga, asardagi qahramonlarga jon kiritish esa, aktyorlarning sahnadagi ijrosiga bog'liq hodisa ekanligini anglash yildan-yilga dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Demak, teatrdagi spektaklni yaratish jarayonida rejissorning o'ni katta ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Волкенштейн В. Драматургия. -М.: Советский писатель, 1960.
2. Umarov E. Teatrdagi badiiy obraz yaratishning estetik tamoyillari. -T.: Star poligraf. 2011.
3. Salimov O. Kasbim rejissor. -T.: G'.G'ulom, 2009.
4. Raimov A., Raimova N. Hikmatlar shodasi. -T.: O'zbekiston. 2013.

## XXI ASRDA O‘ZBEK DRAMA TEATRI REJISSURASIDAGI TALQINLAR

B.A.Nurmanova

layli.shirin00@mail.ru

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek drama teatrlaridagi ayrim rejissorlarning sahnalashtirilgan spektakllari qiyosiy tahlil qilingan. Obraz yaratishda rejissorlar e’tibor beradigan jihatlari, shuningdek aktyor sahnada talqin qiladigan obrazini maromiga yetkazishib ijro etishida rejissorning o‘rni xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** rejissor, aktyor, spektakl, rassom, tahlil, talqin, kechinma, p’esa, repertuar, xarakter, xarakterlilik.

### INTERPRETATIONS IN THE XXI CENTURY IN THE PRODUCTIONS OF THE UZBEK DRAMA THEATER

B.A.Nurmanova

layli.shirin00@mail.ru

UzSIAC

**Abstract:** This article provides a comparative analysis of the productions of some directors in Uzbek drama theaters. The aspects that directors pay attention to when creating an image are discussed, as well as the role of the director in the rhythmic performance of the image that the actor interprets on stage.

**Keywords:** director, actor, play, artist, analysis, interpretation, experiences, play, repertoire, character, distinctness.

O‘zbek teatri rejissurasi XX asr avvalida shakllanib, qariyb bir asr davomida rivojlanib ulgurdi. Soha ijodkorlari ijodkorlari qanchadan-qancha izlanishlar va mashaqqatlar evaziga professionallik maqomiga erishdilar.

XXI asrda o‘zbek teatr san’ati talablariga amal qilib samarali ijod qilgan rejissorlar sifatida Mansur Ravshanov, Karim Yo‘ldoshev, Bahodir Yo‘ldoshev, Olimjon Salimov, Valijon Umarov, Turg‘un Azizov, Marat Azimovlar shu bilan birga yosh rejissorlardan Asqar Xolmo‘minov, G‘afur Mardonov, Obidjon Abdullayevlarni tilga olish o‘rinlidir. Chunki ularning tomoshabinga aytadigan so‘zi, o‘ziga xos uslubi, yo‘nalishi, dunyoqarashi bor. Ular teatr jamoasini badiiy maqsad sari yetaklab, spektaklni muvaffaqiyatli chiqishida asosiy o‘rin egallovchi ijodkorlardir.

XXI asrga qadam qo‘ygan o‘zbek drama teatri rejissorlari yangicha qarashlari bilan zamonaviy dolzarb mavzudagi spektakllar yaratish qudratlari hamda badiiy

o'zining imkoniyatlarini namoyish etishga intilishlari orqali o'z ijodlarini jamoa e'tiboriga haqola qilmoqda.

P'esani sahnalashtirishda rejissorlik tahlili - muallif g'oyasini tushunishda, aktyorlarning sahnaviy hatti-xarakatlarni to'g'ri belgilashda muhim hisoblanadi. Chunki, rejissorning mahorati, uslubi, saviyasi, dunyoqarashi spektaklning talqinida yaqqol namoyon bo'ladi.

M.Umarov hamda T.Yo'ldoshevlar rejissorning badiiy asar tahlili xususida shunday deydi - "Sahna asarining rejissor nuqtai nazaridan badiiy tahlili - talqin uslubini yaratish, XX asr teatr nazariyotchilari va amaliyotchilari oldida turgan dolzarb masalaga aylandi. Hamon bu masala teatr ijodkorlari uchun ochiq - ilmiy masala bo'lib qolmoqda". [1. B. 10.]

XXI asrga qadam qo'ygan o'zbek teatri ijodkorlari so'nggi yigirma yillikda milliy, etnografik, tarixiy dramalarga murojaat qildilar. Ular asosida sahnalashtirilgan spektakllar o'zining milliylik xususiyatlari bilan tomoshabinlar qalbidan chuqur o'rin egalladi.

Teatrning ijodiy jamoasini yutuqlarga yetaklovchi unsurlar xususida so'z yuritarkan, professor T.Tursunov - "Yaxshi drama asari teatrni o'z ortidan ergashtiradi. Talqin ixtirolarga safarbar etadi. Teatr, rejissor ijrochilar tafakkurini boyitadi, ularning oldiga yechilishi lozim jumboqlarni qo'yadi, ilhom manbaalarini topishga da'vat etadi" [2. B. 385.], - deydi.

Spektaklning muvaffaqiyatli chiqishida, avvalo, rejissorning asar tanlashdagi to'g'ri qarori muhim omil bo'lib xizmat qiladi. "Rejissor eng avval sahnalashtirish uchun pesa tanlashda adashmasligi, o'zi rahbar bo'lgan badiiy jamoaning ijodiy kuchini, asarning badiiy imkoniyatlarini hisobga olishi kerak". [1. B. 193.] Bahodir Yo'ldoshev tanlagan "Yulduzli tunlar" asari yillar o'tsa hamki, o'z qadrini va sahnaviylikini yo'qotmay, tomoshabinlar qayta-qayta tashrif buyurayotgan spektakllar sirasiga kiradi.

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani asosida Bahodir Yo'ldoshev sahnalashtirgan spektakli avval Hamza teatrida 1983 yilda, keyinchalik o'zi rahbarlik qilgan "Diydor" teatr-studiyasida sahnalashtirildi. Ikkala teatr talqini ham muvaffaqiyatga erishdi. Ilk spektaklning muvaffaqiyati xususida mulohaza yuritgan san'atshunoslik fanlari doktori M.To'laxo'jayeva shunday yozadi - "B.Yo'ldoshev talqinidagi spektakl nafaqat shoh, shoir va ma'rifatparvar Bobur hayoti va ijodini ochdi, balki uning fojiasi, majburiy kuchlar tazyiqi bilan ona yurtini tark etgan shaxs qismatini ko'rsatib berdi. O'lis o'tgan kunlar orqali teatr tomoshabinni insoniyat taqdiridagi chigalliklar va tarixdagi buyuk xatolar haqida mulohaza yuritishga chorlaydi". [3. B. 64.]

Hamza nomidagi Akademik drama teatrida sahnaga olib chiqilgan "Yulduzli tunlar" spektaklining poetik muqaddimasidan boshlab, dardchil ohang ustuvor bo'lgani

va ayni shu go'zal ibtido to tomosha oxirigacha saqlanib qolganini ta'kidlash darkor. Sahnaga joylashtirilgan Qo'qon aravalarining g'ildiraklari - go'yo taqdir gardishidek charx urib aylanib turadi. Ular dunyoni tark etgan avlodlarni birma-bir sahnaga chiqib, tomoshabinga o'zlarini namoyon etishlariga sharoit yaratadi.

Spektakl davomida Bobur hayotining uch davri namoyon bo'ladi: 12 yoshida Andijonga podshoh bo'lgan payti; Shayboniyxon bilan jangda Samarqandni boy bergan o'rta yoshlik chog'i; Hindiston diyorida podshoh bo'lib, ona Vatanini qo'msab, o'tgan umrini sarhisob qilayotgan - keksalik payti. Boburning bolaligini Javohir Zokirov, o'rta yoshligini Yodgor Sa'diyev, keksaligini Yoqub Ahmedov ijrosida ko'ramiz. Bunday yondashuv rejissorlik talqiniga yorqin misol bo'ladi. Har uchchala aktyor ham o'zlariga yuklatilgan rollarni his etib, tarixiy davr va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, o'z obraziga yondoshadilar. E'tiborlisi shundaki, Bobur hayotining bu uch pallasi, bir-biridan farq qilguvchi qator xususiyatlarga ega bo'lib, shu alomatlarga chuqurroq nazar tashlagan aktyor o'zi uchun yetarli manbani bemalol topa olishiga rejissor imkon bergan. Masalan, garchi yosh Boburning taxtga o'tirgan bo'lsa-da, uning tiynatida beg'uborlik va bolalarcha soddalik bor. O'rta yoshlarga borgan Boburning asosiy vaqti janggu jadallar, urushlarda o'ta boshlaydi va tabiiyki bunday muhit Boburni qat'iyatli, dovyurak qilib qo'yadi.

Mazkur spektaklda rejissorning rassom Georgiy Brim bilan ijodiy hamkorligi ajoyib natija berganini alohida ta'kidlash lozim. Rassom romanning falsafiy mazmuni, ijtimoiy ko'lami va mahobatini sahna dekoratsiyalarida ramziy ifodalaydi. Natijada, spektaklning estetik ta'sirchanligi ramziy ifodaviyligi oshadi. Sokin va sohir ohanglar jo'rligida sahna yuqorisidan tushirilgan g'azal o'ramlari Bobur she'riyati naqadar nafis va go'zal ekaniga ishora qilsa, uch charxpalak timsolida umrining uch pallasi, avansahnadagi nayzalar orqali jangu jadallardagi taqdiriga murojaat ifodalanadi. Bobur hayoti-yu ijodining muhim voqeliklari yaxlit sahnaviy manzara hosil qilib, dramatik kechinmalar bilan uyg'unlik kasb etadi. Natijada, spektakl ssenografiyasi shartli-ma'juziy tasvirga asoslanib, rejissorning maqsadi va aktyorlar ijrosini yanada boyitishga, voqealarga falsafiy mazmun va g'oyaviy yuk berishga xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur umrining ko'pgina qismini Vatanidan olisda kechirib, hukumat va harbiy ishlarga sarflagan bo'lsada, ilmu-ijod ishtiyoqidan aslo ko'ngil uzmas, yuzlab ruboiylar, risolalar, eng muhimi o'zbek mumtoz adabiyotining nodir namunasi "Boburnoma"ni meros qoldirdi. Spektaklda "Boburnoma" asariga oid alohida sahna mavjud. "Yuqori ko'shkda og'ir betob Bobur (Y.Ahmedov) o'g'li - taxt vorisi Humoyunga umr daftari bo'lmish "Boburnoma"ni tortiq qiladi. Humoyun (T.Mo'minov) "Boburnoma"ni ko'ziga surib o'qiy boshlaydi. Bobur esa o'tmishni eslab ketadi. Avansahnadagi chohdan - tarix qa'ridan tarixiy shaxslar birin-ketin chiqib keladilar. Voqealar bir-birini quvib o'ta boshlaydi. Spektaklning so'nggida ham shu ko'rinish qaytarilib, voqealarga xotima yasaladi". [4. B. 7.] Yuqoridagi tahlildan

ko‘rinadiki, rejissor mashhur asarni to‘g‘ri tahlil va talqin qilgan. Shuningdek, rassom bilan ijodiy hamkorlikda ishlagan.

“Rejissorning vazifasi, avvalo, pesani to‘g‘ri o‘rganish - to‘g‘ri talqin qilish va rollarni to‘g‘ri taqsimlashdir. Teatrda ijodiy muhitni tashkil etish uchun boshqa soha ijodkorlari bilan hamkorlikda ishlash kerak”. [1. B. 153.] Bu masalalarni Bahodir Yo‘ldoshev namuna darajasida hal qilgan.

“Diydor” teatr-studiyasida mashhur rejissor tomonidan sahnalashtirilgan “Yulduzli tunlar” spektakli muvaffaqiyatga erishdi. Spektaklda Zahiriddin Muhamamad Bobur rolini aktyor - Adiz Rajabov va Alisher Uzoqovlar, Shayboniyxon rolini - Bobur Yo‘ldoshev, Qutlug‘ Nigorxonim obrazini aktrisa - Nazokatxon Narziyeva, Boburning yoshligini aktyor - Sunnat Umarov, Xonzodabegim rolini aktrisa - Yulduz Rajabovalar ijro qildilar. Drama o‘ziga xos talqinda sahnalashtirilgan bo‘lib, spektaklda zamon ruhi aks etgan va sarkardaning eng qiyin vaqtlardagi iztiroblari, qayg‘ulari inson yuragiga yetib boradigan darajada gavdalantirilgan.

“Yulduzli tunlar” spektaklida kinodagi ijrolari bilan tanilgan aktyorlar ijrosida namoyon bo‘lganiga qaramay, ijrochilar personajlarning sahnaviy kechinmalarni, his qilib, rollarini mahorat bilan ijro etib, obraz darajasiga yetkaza oldilar. Xususan, Alisher Uzoqov tomonidan gavdalantirgan Zahiriddin Muhammad Bobur roli - g‘am-tashvishlarga ko‘milgan, vatan sog‘inchida yongan, yaqinlaridan hiyonat ko‘rgan shohning iztiroblarini to‘la ochib bera olgan. Boburning opasi Xonzodabegim obrazini Yulduz Rajabova o‘ziga xos tarzda talqin qilgan. Uning ijrosida sahnaga chiqqan malika obrazida, sho‘x-shodon, hayotining eng betashvish onlarini kechirayotgan chog‘ida, oilasining boshiga tushgan bunday mudhish hodisadan g‘amga botadi.

Spektakl davomida Boburning yonida bo‘lgan maslakdosh do‘sti, me‘mor Fazliddin roli aktyor - Akbarxo‘ja Rasulov tomonidan ijro etilgan. Oddiy xalqdan chiqqan me‘mor yigit, o‘zining sofdilligi, ochiqko‘ngilligi bilan shoh va shoir Boburning qalbidan o‘rin oladi. Aktyor ijrosi, rejissor talqiniga asoslanganini alohida ta’kidlash lozim. Spektaklning so‘nggida Zahiriddin Muhammad Boburning ichki kechinmalari, qalb tug‘yonlari avj pallasiga yetib, o‘z hissiyotlarini, dardlarini to‘kib sochishi, uning chorasiz holatini gavdalantiradi. Bahodir Yo‘ldoshevning teatr-studiyasidagi rejissorlik talqini o‘ziga xos bo‘lib, bunday yechim boshqa spektakllarda uchramaydi. Chunki rejissorning “Diydor” teatr-studiyasidagi talqini butunlay shartli yechimlarga asoslangan. Natijada, ijrodagi va ssenografiyadagi ma’juziy topilmalar - falsafiy mulohazalar bilan muvofiqlashib, o‘ziga xos rejissorlik talqini yuzaga keladi.

Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida Bahodir Yo‘ldoshev sahnalashtirgan “Yulduzli tunlar” spektaklida rejissor asarning avvalgi sahnaviy talqinlaridagi singari, voqea-hodisalarning hissiy-emotsional ta’sirlanganligini, qahramonlarning ichki kechinmalariga, qarama-qarshiliklarni kuchaytirishga, ayrim voqeliklarni sharxlashga



alohida e'tibor berish maqsadida maqomlar ijrosidan o'rinli foydalanishga qaror qiladi. Bu qaror spektaklning o'ziga xos rejissorlik talqinini namoyon qiladi.

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani Bahodir Yo'ldoshevning uch xil talqinida, uchta teatrda sahnaviy ifoda topishi, nafaqat adabiyot, balki teatr san'atining ham ijodiy xazinasidan mustahkam o'rin oldi.

2000 yilning boshlarida Milliy teatr sahnasida dramaturg Usmon Azim va rejissor Valijon Umarovning hamkorligi asosida yaratilgan spektakl teatr repertuaridan o'rin egalladi. Rejissor aktyorlar jamoasi bilan hamkorlikda "Bir qadam yo'l" nomli spektaklni sahnalashtiradi. "Rejissor ijodiy jamoaning badiiy rahbari sifatida tomoshabin bilan teatrni, mualliflar bilan aktyorlarni bir-biriga bog'lovchi bo'g'indir". [1. B. 154.] Valijon Umarov bu spektaklda shu nazariya ta'kidlangan. Bu spektaklda shunisi e'tiborga loyiqki, rejissor drama talqinida personajlarning jinoiy ishlarini tasvirlashga urg'u bermaydi, balki, otaning "Samarqand, Samarqand", deya bolalaridan bo'zlab, orzusiga yeta olmay bu dunyoni armon bilan tark etish jarayoniga asosiy e'tibor qaratadi. Inson umri - bir qadam yo'l kabi qisqadir. Spektaklda bir otaning Samarqandga borish haqidagi orzusi zamirida milliy qadriyatlarni qo'msash o'z aksini topadi. Farzandlarining oqibatsizliklari sabab, otaning bu ezgu niyati sarobga aylanish jarayoni rejissor talqinining o'ziga xosligini namoyon qiladi. Spektaklning ilk sahna ko'rinishi bastakor Anvar Ergashevning shiddatli musiqiy taronasi jaranglangan holda boshlanadi. Sahnaga tepadan havorang nur quyuni yog'ilib, tog' yonbag'ridagi qishloq va otaning pastak-pastak devorlar bilan o'ralgan hovlisi namoyon bo'ladi. Sahnadagi katta hovli g'ira-shira muhit qo'ynida ikki bor aylanib, daraxtlar ostida boshlari egik, motamsaro kishilarning gavdalari ko'rinadi, bu bo'lib o'tgan behuda o'limlarning tavba-tazzarusi edi. Spektakl shu o'kinchli manzara bilan boshlanib, yana shu ko'rinish bilan yakunlandi. Bu ko'rinish rejissor talqinini namoyon qilib, drama g'oyasini anglashga yordam bergandi. Demak, drama janri - iztirob, tahlikali hislar kechinmalari va obrazlarning kompozitsion qurilishi orqali tomoshabinlar ruhida poklanish holatini paydo qilishi bilan teatr san'atining yetakchi turiga aylandi.

Dilimizdagi g'urur va achinish hislarini uyg'otuvchi dramatik sahnalar To'ychi Oripov va Tolib Karimov ijro etgan - Ota obrazi orqali o'z ifodasini topgan. Otani o'z hovlisini tashqaridan quzaturvchi nuroniy tarzida ko'rsatilishi - uni asosiy qahramoniga aylantirish niyatida tug'ilgan rejissorning va spektaklning to'g'ri talqini edi. Bunday talqinning e'tiborli tarafi shundaki, Ota rolini ijro etgan aktyor, doimo nogironlik aravachasida o'tirgan holda ichkarida bo'lib o'tayotgan nohush voqealarni, ya'ni bolalarining oqibatsizliklarini ko'rib ich-ichidan ezilishiga asos bo'ladi. U goh o'tmishni eslab, goh o'g'li Shokir va'da qilgan "Samarqand"ga borish ezgu-istagi bilan entikib yashaydi.

Ota har ikkala aktyor talqinida ham, ko'pni ko'rgan, hayot haqida uy surish, fikrlash layoqatidan mahrum bo'lmagan, kamgap, bosiq, birgina "Samarqandga borish

orzusi" bilan nafas oluvchi kamtarin inson qiyofasida gavdalangan. Bu spektaklning umri boqiy bo'ldi. Bunga sabab, rejissorning to'g'ri talqini va to'g'ri ijro asos bo'lgandi.

O'zbek milliy akademik drama teatridagi A.Kassanovning "Daraxtlar tik turib jon beradi" nomli dramasi chet el dramaturgiyasi namunasi sifatida sahnalashtirilgan. Rejissor Valijon Umarov talqini bilan tanishar ekanmiz, uni, klassik asarlarni sahnalashtirishda zamonaviy va tarixiy mavzular borasida professional tajribaga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Negaki, "Daraxtlar tik turib jon beradi" tomosha qilar ekanmiz, beixtiyor bu drama teatr jamoasining ulkan yutug'iga aylanganligiga ishonch hosil qilamiz. Sababi, dramadagi obrazlarga mos aktyorlar guruhi tanlanganligi, ularning professional tajribaga egaligi, talqinning yuqori saviyada ekanligini ko'rib, shunday xulosaga kelish mumkin.

Rejissor o'z talqinida asar mazmunini insonlarning bir-biriga mehr va muruvvat ko'rsatishi zarurligini, yaqin kishilariga, balki, butunlay begona insonlarga ham e'tiborli bo'lish lozimligini isbotlashga harakat qiladi va tomoshabinlarni insonparvarlikka da'vat qiladi. Zero, bu masala bugungi jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ekanligini va uning ahamiyatini barchamizga eslatadi. Rejissor ushbu spektaklning talqini bilan - inson o'z qadrini o'zi himoya qilishi lozim degan ma'noni alohida ta'kidlaydi. Bu ham rejissorni o'ziga xos talqini natijasi edi.

2013 yilga kelib Milliy teatr jamoasi Qo'chqor Norqobilning "Quyoshni sen uyg'otasan" nomli dolzarb mavzudagi zamonaviy asarini sahnalashtiradi. Dramatik spektaklni - rejissor Valijon Umarov, rassom Shuxrat Abdumalikov va bastakor Alisher Rasulovlar hamkorlikda yaratgan. Spektaklda umuminsoniy qadriyatlar hisoblangan - vatanga sadoqat, tug'ilib o'sgan go'shaga muhabbat, ona matonati, o'zbek ayolining sabr-toqati, shukronalik, qanoatlilik kabi yuksak insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Rejissor bu drama talqinida - o'zbek oilasida ustuvor bo'lgan qadriyatlarga asoslanib, ona va kelin obrazi orqali o'zbek ayollarining sabr-bardoshini, irodasini, matonatini, turli qiyinchiliklarga qaramasdan oila sha'nini ulug'lay olishi kabi jihatlarni ochishga urg'u beradi.

Oilaboshi Qodir pul ishlash uchun xorijga jo'nab ketganiga ham besh yil bo'ladi. Mana shu yillar ichida Qodir (Asadillo Nabiyeu) oilasiga pul nari tursin, o'zidan biror-bir xat-xabar ham yubormaydi. Ona (Dilbar Ikromova) yolg'iz o'g'lining yo'liga intizor bo'lib, ko'zi ojiz bo'lib qoladi. Bardoshi, sabr-kosasi to'lgan kelin - Shabnam (Shodiya To'xtayeva) erini izlab xorij safariga o'tlanadi. Shabnamning erini uyga qaytarish uchun xorij safariga jo'nab ketishi bilan spektakl boshlanadi.

Rejissor spektakl fabulasini, aktyorlar ijrosi uchun qulay va mantiqli qurganki, voqealar bir-biri bilan bog'liq holda izchillikda rivojlandi. Parda ochilishi bilan sahnada shovqin-suronli temir yo'l vokzali paydo bo'ladi. Turli millat vakillarining gap so'zlari, poyezdlar jo'nayotganligi to'g'risidagi xabarlar voqea muhitini aks

ettiradi. Rejissorning muhit yaratish uchun sahna imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olganligi, tomoshabinlarni beixtiyor spektaklning ruhiyatiga olib kiradi.

Shabnam rolini iqtidorli aktrisa Shodiya To‘xtayeva ijro etgan. Shodiya To‘xtayeva o‘z qahramonini shunday mahorat bilan gavdalantirganki., sahnada latofatli, go‘zal, qat‘iyatli va irodali Shabnam namoyon bo‘ladi. U erini uyga qaytishni iltimos qilib yolvorarkan, uning nafaqat vujudi, balki, muhabbat to‘la yuragi ham qo‘shilib so‘zlayotganiga tomoshabin ishonadi. Demak, qobiliyatli aktrisa rejissor talqinini va o‘z obrazi dardini his qilgan.

Qodir rolini ijro etgan aktyor Asadullo Nabiyevning sahnadagi qahramoni talqini p‘esadagi obrazidan ancha farq qiladi. P‘esadagi Qodir pul va boyluk to‘plash uchun xorijga ketgan betayin inson sifatida namoyon bo‘lsa, rejissyor sahnaga olib chiqqan aktyor esa, uni o‘z haqiqatiga ega erkak, qat‘iyatli er sifatida jonlantiradi. Aktyorning ko‘z qarashlari, keskin harakatlari tomoshabinni Qodirni qiynayotgan iztiroblarni, dard-alamlarni anglashiga yordam beradi. Rejissor va aktyorning ijodiy hamkorlikdagi talqinini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Oydin momo rolini mashhur aktrisa - Dilbar Ikromova talqinida ko‘ramiz. U xorijda sarson-sargardon yurgan o‘g‘lini o‘ylayverib, yig‘layverib ko‘zlari ojiz bo‘lib qolgan. Bunday ijro natijasida tomoshabinlar nigohida - garchi farzandi beoqibat bo‘lsa-da, uni qarg‘ash u yoqda tursin, hatto koyimagan mushtipar ona gavdalanadi. Aktrisa talqinidagi Oydin momo obrazi spektaklning g‘oyasini ochishda muhim o‘rin tutadi.

“Tartyuf” asari asosidagi spektakli Hamza nomidagi Akademik drama teatrida ilk marotaba 1941 yil 16 aprel kuni namoyish qilingan. Spektaklni rejissorlar N.V.Lodigin va Sh.Qayumovlar ijodiy hamkorlikda sahnaga olib chiqishgan. Oybek tarjimasida asosida “Starok” nomi bilan sahnalashtirilgan bu asar teatrga omad olib keldi. Rejissorlar Tartyuf obrazining talqinida - almashib turuvchi niqoblar orqali, ramziy ifoda etish vositasida, odamlarga firib berib, aldab kelayotgan ikkiyuzlamachi kishilarni tanqid ostiga olishgan.

Oradan qariyb 75 yil o‘tib, Milliy teatr sahnasida “Tartyuf” asari yana bir bor sahna yuzini ko‘rdi. Mol‘erning “Tartyuf” nomli p‘esasini bu galgi tarjimasida dramaturg Usmon Azimga tegishli bo‘lib, asarni yosh va iqtidorli rejissor Asqar Xolmo‘minov sahnalashtirdi. Keskin satira janridagi “Tartyuf” bu gal “Firibgar” nomi bilan sahnalashtirildi. Spektakl satirik komediya talablariga javob bera olmasada, tomoshabin uni nim tabassum va ko‘tarinki kayfiyat bilan qarshi oldi. Chunki, Tartyuf singari firibgar zamon va makon tanlamaydi. Sababi, ular har qanday davrda va jamiyatda qallob va ikkiyuzlamachilar ramzi bo‘lib qolaveradi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Toxir Saidov hamda yosh iqtidorli aktyor Ixtiyor Otajonov - Tartyuf obrazini gavdalantirdilar. Ikki aktyor ham bu obrazni muallifning kuzatuvlari, xulosalarini o‘z ijrosida mujassamlashtirishga erishishdi.

Ayniqsa, Ixtiyor Otajonovning bunday ma'suliyatli obrazga jalb etilganligi teatrning yoshlarga bergan e'tiborining namunasidir. Yosh aktyor ijro etgan obrazi - Tartyuf qiyofasida - teran nigoh, ayyorona kuzatuvlar firibgarlarga xos ikkiyuzlamachilik harakatlari yorqin namoyon bo'ladi. Ixtiyor Otajonov ijrosidagi - Tartyuf uddaburon, ta'sirchan, kuchli, aql egasi, firibgar qiyofasini kasb etgan.

"Dramatik asarning mazmuni faqat uning matnidagina emas, balki matn zamirida, personajlarning xatti-harakati, to'qnashuvlari, voqealarning rivojlanishida ham mujassamlashadi. Aktyor esa obrazning ichki hayotidagi ana shu jarayonni "namoyon qiladi", uni to'ldiradi va so'z zamiridagi ma'noni ro'yobga chiqaradi". [5. B. 120.]

Tajribali aktyor Toxir Saidov yaratgan - Tartyuf obrazi ham maromiga yetkazib ijro etilgan. U Tartyufni tashqi tomondan og'ir-vazmin, dunyo tashvishlarini nazarpisand etmaydigan, dindor va faylasufdek ko'rinuvchi, biroq ichki olami butunlay aksi bo'lgan insonni gavdalantirgan. Uning Tartyufi o'ta ikkiyuzlamachi va razil shaxs. Spektakl davomida Toxir Saidov osoyishtalik ortiga yashiringan nazari pastlikni birma-bir ochib, razilligini namoyon qilib boraveradi.

Rejissor o'z talqinida asardagi - meshchanlik, mol-dunyoga ortiqcha xirs qo'yishni, amalparastlikni, landovurlik va ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni fosh qilishga erishgan. Lekin, Mol'er asarlarida xizmatkorlarning zukkoligi tufayli, falokatlarni oldi olinishi va firibni oshkor qilishdagi xizmati alohida ta'kidlanmaydi. Agar asarning bu jihatiga ahamiyat berilmasa Mol'er falsafasi hamda muallif g'oyasi to'liq ochilmaydi. Bu masala rejissor talqinini zaiflashtiradi.

Zamonaviy dolzarb mavzularning sahnaviy talqinini tomoshabinlarga manzur qila olish muhim masalaga aylanmoqda. Yuqorida tahlilga olingan spektakllar o'z talqiniga ega, rejissorlik yechimini topgan asarlardir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, teatr san'atining asosini rejissor va aktyorlar jamoasi tashkil etgani sababli, ularning ijodiy hamkorligi har bir yaratilayotgan sahna asarining muvaffaqiyatli chiqishida hamda umrboqiy bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, rejissor teatr jamoasining ijodiy muhitiga javob bera olsagina, aktyorlar asarning g'oyasini va rejissor talqinini amalga oshirishga intiladi va badiiy yaxlit spektakllar yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umarov M., Yo'ldoshev T. Rejissorlik va aktyorlik san'ati asoslari. -T.: Konsalt, 2016.
2. Tursunov T. Sahna va zamon. -T.: Yangi asr avlodi, 2007.
3. To'lxo'jayeva M. Режиссура узбекского драматического театра (Тенденции развития и современные проблемы). -T.: Гафура Гуляма, 1995.
4. Qodirova D. Boburnomaning sahnaviy talqinlari // "Teatr" jurnali, 2013 y, 2-son. 7-bet.

5. Umarov E. Teatrda badiiy obraz yaratishning estetik tamoyillari. -T.: Star poligraf. 2011.

## O‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Manzura Yuldasheva  
Asilbek Qolqanatov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Maqolada jamiyatimiz rivojida zamonaviy muzey menejmentining ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Avvalo, mazkur sohada yangi madaniy ehtiyojlarni shakllantiradigan va yangi mutaxassislarni jalb qilishni talab qiladigan madaniyat sohasidagi xizmatlar bozoridagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Shunki, hozirgi kunda muzey menejmenti taraqqiyoti madaniy xizmat bozoridagi o‘rni bilan belgilanadi.

**Kalit so‘zlar:** muzey menejmenti, strategiya, missiya, texnologiyalar, xizmatlar, turizm.

## MUSEUM MANAGEMENT AND FEATURES OF ITS IMPROVEMENT IN UZBEKISTAN

Manzura Yuldasheva  
Asilbek Qolqatov

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The article discusses the importance of modern museum management in the development of our society. First of all, the changes in the market of cultural services, which create new cultural needs in this area and require the involvement of new professionals, are analyzed. Today, the development of museum management is determined by its place in the market of cultural services.

**Keywords:** Museum management, strategy, mission, technologies, services, tourism.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda muzey faoliyati ijtimoiy-madaniy sifatida yuqori ahamiyat kasb etayotgani, madaniy merosni asrab-avaylash va talqin etishda, ijtimoiy moslashuv va madaniy identifikatsiyaning murakkab jarayonlarida, ta’lim-tarbiya jarayonida va dam olishni tashkil etishda muzeylarning o‘rni tobora ortib borayotgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekistondagi zamonaviy muzeylar ta’lim, muloqot, madaniy axborot va ijodiy innovatsiyalar markazlariga aylanib bormoqda.

Muzeylar oldida nafaqat o‘z devorlariga yangi tomoshabinlarni jalb qilish, balki tashrif buyuruvchilar muzeyga bir necha marta kelishni yo‘lga qoyish uchun kreativ

tadbirkorlikdan foydalanish amaliyotga tadbiriq etildi. Tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini muntazamlik asosida tahlil qilish jarayonlari jadallashtirildi.

Muzey ishiga oid ilmiy-amaliy anjumanlar, konferensiyalar o'tkazish, xorij ilg'or tajribalarini ommalashtirish uchun zarur imkoniyatlar yaratildi. Sohada xodimlarining malakasini oshirish uchun rivojlangan davlatlardagi muzeylar va xorijiy tadqiqotchilar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlandi.

Shunki, bugungi kunda O'zbekistonda muzeylarni rivojlantirish va tijorat rentabelligining uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularning kolleksiyalarini to'ldirish, jamoat faoliyati va global miqyosda ishtirok etish bilan shug'ullanadigan muzey muassasalari va ularning birlashmalarida tajribali, yuqori malakali va o'rta boshqaruv xodimlari yetishmaydi. Muzey menejmenti bugungi kunda madaniy boyliklar, mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishning resurs salohiyati va omillaridan samarali foydalanish maqsadida amalga oshiriladigan kompleksli intellektual va iqtisodiy faoliyat hisoblanadi.

Muzey menejmentining ajralmas qismi. Muzey menejmenti, o'z navbatida, muzey ichidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish va ta'sischi larning talablariga muvofiq uning tashqi muhitda ishlashi uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. Tashkiliy qismlarga quyidagilar kiradi: menejment, kolleksiyalarni (muzey fondlarini) boshqarish, jamoatchilikka yo'naltirilgan dasturlarni boshqarish (ekspozitsiya va ko'rgazma faoliyati), o'quv dasturlari, nashrlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, muzey auditoriyasi va tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatishni kengaytirish bo'yicha tadbirlar, muzey mulki va moliyasini boshqarish [5: 69].

Ayrim tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, xususan, G.N.Novikov [6: 106], V.M.Chijikov, V.V.Chijikov [5: 28] - san'at menejmenti hozirgi vaqtda madaniyat va san'at sohasidagi tijorat faoliyatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy menejmentning mashhur tadqiqotchilari Y.I.Jdanova, S.V.Ivanov, N.V.Krotova, S.Korneyeva, badiiy menejmentni quyidagicha ko'rib chiqishni taklif qiladilar:

- san'atning har xil turlarini boshqarish (ifodali va vizual);
- badiiy qadriyatlarni (moddiy va ma'naviy) yaratish jarayonini boshqarishga yordam beradigan bilim sohasi;
- mutaxassislarning ijodiy faoliyati natijalarini madaniy xizmatlar bozoriga olib chiqish.

Yuqorida aytilganlarning barchasi boshqaruv san'atining eng muhim omillaridan birini o'z intuitsiyasiga ishonish qobiliyatini va qabul qilingan malaka darajasi va shakllangan kompensatsiyaga muvofiq har qanday murakkablikdagi qarorlarni qabul qilish tavakkalligini amalga oshiradi.

Muzeyning strategik menejmentining asosiy postulatini (talab) quyidagicha shakllantirish mumkin deya etirof etgan. Ya'ni, muzeyning uzoq muddatda saqlanib

qolishi va rivojlanishi ushbu muzeyning jamoat ehtiyojlari, iste'molchilarning motivatsiyasi va bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga va uning tashkiliy xizmat tuzulmasini hamda muzey mahsuloti nomenklaturasi assortimentini moslashtirishga bog'liq.

Muzey kolleksiyasiga kirish, o'z-o'zini tarbiyalash va muloqot qilish uchun sharoitlar yaratish, ijodkorlik va bo'sh vaqt, ma'lumotlar bilan ta'minlash, ta'lim va ta'rbiya faoliyatida yordam berish - bu zamonaviy muzey taklif qilishi mumkin bo'lgan xizmatlarning to'liq ro'yxati emas. Shu munosabat bilan marketing texnologiyalari muzey sohasiga tobora ko'proq kirib bormoqda [2: 7].

Muzeylar faoliyatini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, Britaniya Kengashi va Goldsmiths universiteti (Buyuk Britaniya) bilan hamkorlikda muzey menejmenti bo'yicha uzoq muddatli dasturni ishga tushirdi. 2018-yil 17-21-dekabr kunlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida besh kunlik kurs bilan ochildi. Kurs O'zbekistondagi muzeylarning ma'muriy tuzilmasini takomillashtirish va tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Kurs dasturi Buyuk Britaniyadagi muzey ishi tajribasi asosida ishlab chiqilgan. U muzey menejmenti, loyihalarni boshqarish, marketing va kommunikatsiya sohasidagi ilg'or xalqaro tajribani o'rganishni o'z ichiga oladi. Kurs ma'ruzachilarining fikriga ko'ra, material barcha nazariy formati bilan "ishchi" va amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'ladi.

Kurs ishtirokchilari O'zbekiston muzeylari va idoraviy muassasalari mutaxassislari. Ular orasida: O'zbekiston davlat amaliy san'at muzeyi, O'zbekiston I.V.Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi (Qoraqalpog'iston), Oybek uy-muzeyi O'zbekiston Respublikasi davlat san'at muzeyi, shuningdek, O'zbekiston madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish fondi va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti vakillari bor.

"Muzey menejmenti" dasturining birinchi kursi spikerlari madaniyat va muzey ishi sohasining yetakchi mutaxassislari bo'lishdi. Silvia Lahav (Sylvia Lahav) - Goldsmiths universitetining ijodiy va madaniy tadbirkorlik bo'limi o'qituvchisi (Buyuk Britaniya). Muzey menejmenti sohasida ko'p yillik tajribaga ega. Fransiya, Italiya, Portugaliya, Slovakiya va Sloveniyada ma'ruzalar o'qigan. Londonning Teyt Britaniya galereysi, Teyt Modern, Milliy Galereya, Milliy Portret Galereyasi va The V&A kabi yirik beshta muzeyidagi yigirma yildan ortiq tajribasiga asoslanib, "San'at muzeyida ta'lim, talqin va kommunikatsiya" mavzusi bo'yicha kurslar olib boradi. U Bem Shou nomidagi san'at maktabining (San'at universiteti) tasviriy san'at sohasi bo'yicha diplomiga ega.

Virjiniya Button, Falmut san'at maktabi direktori. Buyuk Britaniya. Teyt Britaniya galereyasi sobiq kuratori (Tate Britain). Tajribali akademik rahbar va



menejer, san'atshunos, yozuvchi, kurator, o'qituvchi va maslahatchi. Uning mutaxassisligi va qiziqishlari sohasi: zamonaviy san'at, kuratorlik, badiiy ta'lim, mahalliy va global mintaqaviy tadqiqotlar. Virjiniya muzey menejmenti kursiga kuratorlik jihatini qo'shadi, shuningdek, yirik madaniy tadbirlarni boshqarish va o'tkazish bo'yicha o'z tajribasi bilan o'rtoqlashadi.

Kurs ma'ruzachilarining O'zbekistondagi muzey muhiti bilan dastlabki tanishuvi mamlakatimizda muzey va galereyalar faoliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi, ularning turizmni rivojlantirishdagi o'rni borligini ko'rsatdi. 2019-yilning fevral oyida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, O'zbekiston madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi Britaniya Kengashi va Goldsmiths universiteti (Buyuk Britaniya) bilan hamkorlikda tashkil etilgan muzey menejmenti bo'yicha uzoq muddatli dasturning ikkinchi bosqichini boshladi. Muzeylarni boshqarish dasturining uchinchi bosqichi 2019-yil may oyida bo'lib o'tadi.

O'quv dasturi Buyuk Britaniyadagi muzey ishi tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistondagi muzey ishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Ta'kidlash joizki, kurs ma'ruzachilarining O'zbekistondagi muzey muhiti bilan dastlabki tanishuvi mamlakatimizda muzey va galereyalar faoliyatini rivojlantirish, turizmni rivojlantirishdagi o'rni uchun katta imkoniyatlar mavjudligini aniqladi. O'quv dasturi muzey menejmenti, loyihalarni boshqarish, shuningdek, marketing va kommunikatsiya sohasidagi xalqaro amaliyotni o'rganishni o'z ichiga oladi. O'rganiladigan asosiy mavzular: Muzeylarga tashrif buyurish sabablari; Tashrif buyuruvchilarning umidlari; Tomoshabinlarni idrok etishni rivojlantirish; Potensial auditoriya va strategiya yaratishni tushunish va aniqlash; Kompyuter texnologiyalarining ahamiyati, tadbirlar, talqin, marketing, aloqa. O'quv kursining bir qismi sifatida o'qituvchilar joriy amaliy tadqiqotlar asosida taqdimot qiladilar. Shuningdek, kelajakda talabalar o'z ishlarida amaliyotda qo'llashlari mumkin bo'lgan individual va guruh mashqlari o'tkaziladi.

Ikkinchi kurs ma'ruzachilari madaniyat va muzeylar sohasidagi yetakchi mutaxassislar bo'ldi. Ulardan biri Ijodiy va madaniy tadbirkorlik instituti (Goldsmiths universiteti (London)) direktori Jerald Lidston edi. Doktor Jerald Lidston San'at ma'muriyati va madaniyat siyosati magistrlik dasturini ishlab chiquvchisi hamda Ijodiy va madaniy tadbirkorlik va Madaniy siyosat, aloqalar va diplomatiya bo'yicha magistrlik dasturlarining hammuallifidir. O'n ikki yildan ortiq vaqt davomida u Vyetnamda Ford jamg'armasi moliyaviy ko'magida Xanoy madaniyat universitetida san'at menejmenti kursini yaratish ustida ishlagan. Vyetnam madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun milliy medal bilan taqdirlangan.

U Britaniya Tashqi ishlar vazirligining Slovakiyada san'at menejmenti bo'yicha o'quv tizimini yaratish bo'yicha to'rt yillik loyihasi bo'lgan Britaniya "Nou-xau"

jamg'armasi direktori bo'lgan. Yana bir ma'ruzachi Jerri Morris bo'ldi, u 35 yil davomida Buyuk Britaniya madaniyatida ishlagan, Teyt galereyasi, Milliy galereya, Britaniya muzeyi, Chikago san'at instituti va boshqa ko'plab tashkilotlar uchun maqsadli auditoriya loyihalarini taqdim etgan. Jerri Buyuk Britaniya va xorijdagi muzeylar va galereyalar uchun auditoriyani yo'naltirish bo'yicha taniqli mutaxassis bo'lib, bozor segmentatsiyasi, diversifikatsiya va maqsadlilik kabi sohalarda yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Kursda O'zbekiston muzeylari va idoraviy muassasalari mutaxassislari: O'zbekiston davlat amaliy san'at muzeyi, I.V.Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi (Qoraqalpog'iston), O'zbekiston davlat san'at muzeyi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi O'zbekiston Respublikasi "San'at va madaniyatni rivojlantirish" jamg'armasi va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ishtirok etdilar.

Zamon va zamonaviy muzeylar yangi tipdagi rahbarni talab qiladi. Muzey madaniy merosimizni asrab-avaylash, ommalashtirish va kelajak avlodlarga yetkazish vazifasini o'z zimmasiga olgan madaniyat muassasidir. Bu holat muzeylar rahbariyatidan doimo tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, etnologiya va madaniyatshunoslik bo'yicha aniq kasbiy bilimlarni talab qiladi. Ammo muzeyni to'liq boshqarish uchun ikkinchi oliy ta'lim - iqtisodiyot, menejment, marketing, sotsiologiya va turizmning asosiy fanlari siklini o'rganishni qamrab olishi kerak [2: 7].

Tomoshabinlarni o'rganish usullari, tashrif buyuruvchilarning ham, muzeylarning ham ehtiyojlarini qondirish, o'z kolleksiyalarini qanday qilib eng foydali tarzda taqdim etish va kreativ g'oyalarni mavjud muhitga etkazish bo'yicha yangi qarashlar va usullarni tadbiq etish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish - muzey faoliyatini jamoatchilik uchun yanada jozibador bo'lishi uchun tashkil etishning bir necha yo'lidan foydalanish juda zarur. Turizmning davlat iqtisodiyoti va madaniy salohiyatida ortib borayotgan roli jahon andozalaridan namuna olish, yaxshi natija berganlarini muzeylarimizga olib kirishni talab qilmoqda.

Mamlakatimizda muzeylar man'aviy merosni asrab-avaylash, madaniy amaliyotlar sohasida yorqin va nostandart yechimlarni taklif qilish, turistlarni jalb qilish va o'z aholisi tomonidan talab qilinadigan omilga aylanishi mumkin. An'anaviy muzey qadriyatlarining ijtimoiy o'zgarishi va faoliyat yo'riqnomalari sharoitida O'zbekiston muzeyi boshqaruvchisi birinchi navbatda strateg bo'lishi kerak. Zamonaviy moliyaviy, resurs va bozor muammolari undan muzeyning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan aniq strategiya va siyosatini ishlab chiqishni, uning maqsadlarini muvofiqlashtirishni, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashni, tahdid va istiqbollarni baholashni talab qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning asosiy vazifasi muzeyning uzoq muddatli raqobatbardoshligini va barqaror mavqeini ta'minlashdan iborat.

Muzey biznesida strategik rejalashtirish ajralib turadi, u o'zgaruvchan dunyoda uning mavqeini o'rganish, uning missiyasini shakllantirish, strategik maqsad va vazifalarni aniqlash asosida muzeyni rivojlantirishning optimal variantini aniqlash bilan bog'liq [1: 27].

Muzeylar quyidagi xizmatlarni taklif qiladi: ko'rgazmalarga ekskursiyalar, ma'ruzalar, tasviriy san'at haqida video tomosha qilish, sayohat ko'rgazmalari va ma'ruzalar, muzey zallarida foto va video suratga olish, bolalar va o'smir tomoshabinlari uchun muzey o'quv dasturlari, taqdimotlar, tadqiqotchilar uchun ilmiy va amaliy konferensiyalar, seminarlar, madaniy-ommaviy tadbirlar. Muzey darslari va ma'ruzalar maktab auditoriyasi bilan ishlashning eng istiqbolli shakllaridan biri bo'lib, o'quvchilar tomonidan ma'lum bir o'quv rejasiga muvofiq bilimlarni olish yoki maktab sinfida olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiladi [4: 72].

Qo'shimcha muzey xizmatlari tashrif buyuruvchilarning talabini qondirish uchun xodimlar tomonidan taqdim etiladigan va muzeyning qo'shimcha sa'y-harakatlarini talab qiladigan har qanday boshqa xizmatlar: muzey kolleksiyalaridan foydalanish, ilmiy maslahatlar, ommaviy axborot vositalariga (televideniye, bosmaxona), san'at tarixiga ma'lumotnomalarni yetkazib berish va qiymat ekspertizasi, restavratsiya ishlari, auksionlar, ijodiy kechalar va taqdimotlar tashkil etish, bolalar va o'smirlar uchun odob va madaniyat yakshanbalik maktablari, bozorning boshqa ishtirokchilariga yakka tartibdagi binolarni ijaraga berish va boshqalardir [3: 97].

Muzey ishidagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar umuman muzey xizmatlari sifatini sezilarli darajada kengaytirish va sifat jihatidan yaxshilash hamda aholi, xususan, muzey xizmatlariga yangi ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, muzeyga tashrif buyuruvchilar bilan ishlashni yangicha tashkil eta oladigan, ayniqsa, ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Bugungi kunda muzey menejmentining muammosi uning tashrif buyuruvchilari (xaridorlari, iste'molchilari) va uning potensial hamkorlari (mijozlar, homiylar)ni bilishdir. Shu bilan birga, bu muzeyning barcha faoliyati faqat jamoatchilikning bildirilgan istaklariga javob beradi degani emas. Binobarin, bugungi kunda muzey xizmati mutaxassislari, birinchi navbatda, barcha vositalar arsenalidan foydalanishlari kerak: bilim, professional muloqot qobiliyatlari, potensial auditoriyani xabardor qilishga va muzey taklifini reklama qilishga qaratilgan san'at turlarini. Asosiysi, aholining bir qismi o'rtasida muzey "eskirgan", "zerikarli" va "zamonaviy emas" madaniyat muassasasi degan qat'iy g'oyalar bilan bog'liq turli xil noto'g'ri qarashlarni o'zgartirish va sohaga samarali go'yalarni tadbiq etish zarur. Chunki, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi

strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak[8:278].

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Арзамасцев В.П. О систематической структуре музейной экспозиции. - М., 1990. - 397 с.
2. Бестужев-Лада И.В., Озерная М. Музей в системе культуры. // Декоративное искусство. - 1976. - № 9. - 7 с.
3. Дьячков А.Н. Социальные функции музея: споры о будущем. // Музееведение. На пути к музею XXI века. / Сб. научных трудов. - М.: НИИ культуры, 1989. - 196 с.
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. - М., Мысль, 1992. - 560 с.
5. Лорд Барри, Лорд Гэйл Д. Менеджмент в музейном деле. - М.: Экономика, 2002. - 390 с.
6. Новикова Г.Н. Социокультурные концепции управления в арт-менеджменте / Г.Н. Новикова // Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. - 2005. - № 2.
7. <http://www.nauki-online.ru/muzeevedenie/>
8. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2021. 464 б.

## MILLIY G'OYA VA AN'ANAVIY QADRIYATLARGA DIALEKTIV YONDOSHUV

Oripov Elyorjon Shavkatovich  
oripovelyor1982@gmail.com  
Qo'qon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatimizdagi islohotlarni "insoniylik" tamoyili asosida olib borishda milliy g'oya va an'analarni dialektik jihatdan o'rganish zarurati ilmiy asoslanadi hamda hozirgi yangilanish jarayonida an'anaviy qadriyatlarni milliy g'oya asosida qayta baholash ahamiyati tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Milliy g'oya, an'ana, qadriyat, an'anaviy qadriyatlar, an'anaviylik, liberalizm, modernism, milliy taraqqiyot, modernizatsiya

### A DIALECTICAL APPROACH TO THE NATIONAL IDEA AND TRADITIONAL VALUES

Oripov Elyorjon Shavkatovich  
oripovelyor1982@gmail.com  
Kokand State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article is scientifically based on the need for a dialectical study of national ideas and traditions in carrying out reforms in our society on the principle of "humanity" and examines the importance of re-evaluating traditional values on the basis of national ideas in the current renewal process.

**Keywords:** National idea, tradition value, values, traditional values, traditionalism, liberalism, modernism, socialism, national development, modernization

*Kirish.* Hozirgi ijtimoiy yangilanishlar sharoitida xalqimizning ko'p asrlik insonparvarlik an'alarini saqlash, ularning mazmunini yangi zamonaviy qadriyatlar bilan boyitish dolzarb ilmiy amaliy vazifa bo'lib turibdi. Bizningcha, avvalo "insoniylik" tamoyillari asosiga qurilgan an'anaviy qadriyatlarimizni milliy mafkura asosida qayta baholash, ularning shaklini yangilamoq zarur. "Milliy g'oyaning deterministik rolini milliy an'alar va o'zbek xalqi ma'naviy madaniyatining tiklanayotganida" ko'rish mumkin.

Asosiy qism. Bugungi kunda Vatanimiz milliy genofondini, etnik birligini saqlab qolish, milliy g'oyani shakllantirish masalalari milliy an'analarni alohida soha sifatida o'rganishni talab etadi. Bizningcha, bugungi kunda jamiyat siyosiy hayotini

modernizatsiyalashda liberalizm, demokratizm bilan bir qatorda traditsionalizm (an'anaviylik) ham muhim hodisadir. Jamiyatimizdagi hukmron ijtimoiy-siyosiy ongda fundamentalizm, aqidaparastlik, konservatizm tushunchalarini bir tomonlama tahlil etishga moyillik bor. Bizningcha, ayni paytda jamiyatimiz kelajagi barqarorligi va xavfsizligi uchun modernizatsiya, globallashuv, liberallashuv, demokratiya kabi ta'limotlarni o'rganish qay darajada zarur bo'lsa fundamentalizm, aqidaparastlik, konservatizm, traditsionalizm kabi ta'limotlarni ham o'rganish ob'ektiv zaruratdir.

Bugungi kunda yer yuzidagi barcha davlat, xalq yoki millatlar taraqqiyot yo'lini belgilashda asriy an'analari bilan bir qatorda liberalizm, modernizm, sotsializm kabi ta'limotlarning bunyodkorlik xususiyatlarini o'zida ifoda etgan milliy g'oyaga tayanmoqda. Ushbu ta'limotlar jamiyat barcha sohalaridagi muammolarni hal etishda milliy g'oyaga nazariy va amaliy ko'maklashadi. Shu ma'noda, an'anaviylik ulkan bir daraxt bo'lsa, uning ildizi milliy g'oyadir. Ta'kidlash zarurki, milliy g'oya va an'anaviylik uzviy bog'liq tushunchalar hisoblanib, biri ikkinchisi shakllanishi va rivojlanishi uchun negiz hisoblanadi. "Milliy ma'naviy merosning muhim tarkibiy elementlari urf-odat, an'ana va kadriyatlar milliy o'zlikni anglashda asosiy omil, harakatlantiruvchi kuch bo'lganligi uchun milliy g'oya tizimida muhim o'rin tutishini e'tiborga olish zarur".

Shu ma'noda yurtimizdagi an'anaviylikni tadqiq etish natijasida "milliy g'oya"ning xalqimiz o'tmishi bilan bog'liq jihatlarini bugungi mezonlar doirasida o'lchash imkoni yuzaga keladi hamda ularni amaliy hayotga joriy etishning nazariy-uslubiy asoslari aniqlashadi. Chunki milliy g'oya bugungi rivojlanishga nazariy-uslubiy asos bo'lsa, an'anaviylik milliy taraqqiyotni barqaror va abadiy harakatlantirib turuvchi mexanizmdir. Milliy g'oya ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi "ichki kuch" bo'lib, u etnos ruhiy holatini tez va to'g'ri angelaydi, shu asosda xalq orzu-istaklarini amalga oshirishga qodir bo'lgan o'zga mafkuralar yutuqlaridan samarali foydalana oladi.

Bugun "modernizatsiya" deb atalayotgan jarayon an'anaviylik xususiyatiga ega bo'lgan milliy g'oyani o'z ta'siriga olishi yoki inkor etishi mumkin emas, aksincha, "modernizm" jamiyat barcha sohalaridagi o'zgarishlarni etnik birlik turmush-tarziga mos holda amalga oshirishi, yanada aniqroq aytganda, u xalq qadr-qimmatini va o'ziga xosligi chegarasini belgilovchi mezon bo'lishi zarur. "Bugungi kunda milliy g'oya jamiyatni demokratlashtirish va yanada modernizatsiyalashishiga xizmat qila boshladi. Chunki milliy g'oya va mafkura yangicha fikr, yondoshuvlarni, uslub va vositalarni e'tirof etgan holda insonning faol ishtirokiga halaqit qiladigan, demokratiyaga zid qarashlar, intilishlarni tan olmaydi. Insonlarning erkin fikri va faoliyatini demokratiyani yanada chuqurlashtirish omili sifatida baholaydi va qadrlaydi".

Tarixdan yaxshi ma'lumki, e'tiqodi sust millatlarda milliy g'oya, milliy g'urur tuyg'ulari ham zaif bo'ladi. Bunday insonlardan iborat jamiyatda an'analar, milliy qadriyatlarga befarq qaraydigan xislatlar tezroq rivojlanadi. Shu ma'noda, shiddat bilan rivojlanib borayotgan fan-texnika asrida an'anaviy qadriyatlarimizga eskilik sarqiti deb qarab, ularning qadri susayishiga yo'l qo'ymasligimiz darkor. Atrofimizdagi ba'zi mamlakatlar an'anaviy qadriyatlarini esdan chiqarganligi yoki mensimasligi oqibatini teran nigoh bilan anglash mumkin. Mantiqan olib qaraganda, har qanday navdagi daraxt o'z holicha kerakligini tushunish qiyin emas-ku. Masalan bu holatga noto'g'ri yondoshuv G'arbni ma'naviy fojealar girdobiga tashladi. Yaxshi ayonki, G'arb muhitida fan-texnika jadal rivojlanishi natijasida mehnat unumi va samaradorligini o'sishi, bir tomondan ayrim kishilar qo'lida katta miqdorda mablag' to'planishiga, ikkinchi tomondan ishlab chiqarishda inson "qadr"ini pasayishiga olib keldi. Bu holat dastlab xalqning an'analari, udumlari, odatlari asta-sekin yuqolishiga sabab bo'ldi, keyinroq, ijtimoiy ongda "qadr"dan qiymat"ni ustun bilish, "inson erki cheksizligi", "vaqt bu pul", jamoa manfaatidan shaxsiy manfaatni yuqori qo'yish kabi tendentsiyalarning shakllanishi ushbu makon ijtimoiy taraqqiyoti voqeligiga bog'liq bo'lmagan butunlay yangicha qadriyatlar tizimi vujudga kelishiga asos bo'ldi. Masalaning qiziq jihati shundaki, ushbu jarayon dialektikaning inkorni-inkor qonunini chetlab o'tgan, ya'ni ikkinchi yangi voqelikni paydo bo'lishi birinchi tarixiy udum asosida emas, balki butunlay o'zga muhitda paydo bo'lgan. Endilikda ular ushbu dialektik qonunni tiklashga harakat qilishmoqda. Lekin bu harakatlar samara bermasligi mumkin, chunki ijtimoiy ong an'anaviy qadriyatlar tizimidan birmuncha begonalashgan. Milliy madaniy meroslarni asrab-avaylash uchun vatanparvar odamlar chiqmagan. Aksariyat kishilar Amerikaga yoxud boshka maskanlarga yashashga intilishgan, zamonaviy hayotni orzu qilishgan. Texnika, texnologiya, kompyuter sohalariga qiziqish ustuvor bo'lib, hech bir madaniyat uylari yoki xalqning urf-odatlarini saqlab qoladigan markazlar tashkil qilinmagan. Bu esa ijtimoiy ongda "moddiyat"ning rivojlanishiga olib kelmoqda. Masalan, Yevropada kishilik turmush-tarzi har yili yangicha shaklda rivojlanadi. Har bir inson o'z hohish-istagiga qarab e'tiqodiga yo'nalish belgilaydi. Asosan pragmatik kayfiyatdagi g'arb jamiyati vakillari uchun ruhga ozuqa bo'luvchi e'tiqod shakli ham ko'p holatlarda moddiy manfaatlarga bo'ysundirilmoqda.

An'anaviylik mohiyati negizida shakllangan va rivojlangan milliy g'oya orqali jamiyat ma'naviy hayoti barqaror va o'zgarmas axloqiy me'yorlar tizimi bilan yanada kengayadi, bu esa jamiyat ma'naviy muhitida sog'lom turg'unlik holatini yuzaga keltirib, islohotlar jarayonida ro'y berishi kutilgan destruktiv vaziyatlarni oldini oladi. An'anaviylik xususiyatlarini o'zida saqlagan milliy g'oya kishilik taraqqiyotining eng og'ir damlarida ham etnik birlikni o'z "Men"iga xos xususiyatlarini saqlab qolishga ko'maklashadi hamda tashqi ta'sirlarga qarshi o'zida ruhiy - ma'naviy kuch topa oladi.

An'ana va milliy g'oyani birlashtirib turgan omil - har ikkisi ham xalq dardi va orzu-maqсадlari in'ikos etganidir. Milliy g'oyaga nisbatan an'analar xalq qalbiga yaqinroq. Chunki tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida mustamlakachilik ta'sirida milliy g'oya elementlari tayziq ostiga olinib qadrsizlanadi, ma'lum ma'noda oddiy xalq o'z hayotini saqlab qolish uchun ulardan vaqtincha bo'lsa-da voz kechishga majbur bo'ladi. Xususan yurtimiz tarixiy jarayonlaridagi arablar, mo'g'ullar hamda rus mustamlakachilari istilosi oqibatida ajdodlarimiz e'zozlab kelgan milliy va madaniy meros ayovsiz talandi va oyoq osti qilindi. Ular bu xududda hukmronlikni abadiylashtirish uchun o'z mafkuralarini majburan xalq ongi va qalbiga tiqishtirdi, oqibatda mahalliy xalq mafkurasi qadrsizlandi, ba'zi holatlarda tahqirlanishiga olib keldi. Bu esa xalqning qadriyatga aylangan o'tmishidan, ijtimoiy-ma'naviy ideal va maqsadlaridan majburan begonalashuviga sabab bo'ldi. Shunday vaziyatlarda xalq orzu - istaklari va ruhiyatiga ma'naviy madad bergan hodisa uning an'analari bo'ldi. Aynan an'analar xalqning og'ir va yengil kunlarida hamroh bo'luvchi buyuk qadriyatdir, ular millatimizning bugungi va keyingi avlodlari uchun yangi sinovlar davrida kuch va matonat manbai bo'lib qoladi.

*Xulosa.* Bugun rivojlantirilayotgan milliy g'oyamiz mazmun va mohiyatini boyitishda ushbu xududda yashab o'tgan minglab buyuk insonlar nazariya va qarashlarining ahamiyati beqiyos. Ushbu qarashlar zamirida shakllangan ma'naviy ko'rinishdagi an'anaviy qadriyatlarni e'zozlab, ularni yashash tarziga aylantirilishi milliy fe'l-atvorimizda o'ziga xos xususiyatlarni vujudga keltirdi. An'analar xalq ruhi va dardiga yaqin bo'lgani uchun milliy g'oyani xalq ongi va qalbiga singdirishda ulardan foydalanish ijobiy samara beradi. An'analar orqali etnik birlik ichki dunyosi, tafakkur darajasi, ijtimoiy-ma'naviy ideallari kabi xususiyatlarini aniqlash mumkin. Milliy g'oyaning hayotiylik, xalqchilik tamoyillari aynan ushbu xususiyatlarni o'rganish natijasida rivojlantiriladi. Shu ma'noda milliy g'oyani yaratishda, targ'ibot-tashviqot qilishda an'analarni birma-bir tadqiq etish hamda natijalarni mafkuraviy amaliyotga tatbiq qilish, milliy g'oyani xalq ongi va qalbiga singdirishda juda katta amaliy yordam bo'lar edi. Chunki, "an'anaviy qadriyatlar jamiyatni modernizatsiyalash jarayonini xalqning tub manfaatlari bilan uyg'un kechishini ta'minlaydi, ijobiy jixatlarini rivojlantiradi, salbiy tomonlarini inkor etishning ma'naviy mezoni hisoblanadi" An'anaviy xususiyatlarni saqlagan barcha ko'rinishdagi g'oyalarni tizimlashtirish, xalqimizni beqaror davrda o'ziga xosligini saqlab qolish uchun an'anaviy mohiyatga ega bo'lgan mafkuraviy paradigmani ishlab chiqish bugungi kunning muhim muammolaridan biridir.



### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Наркулов С.Д. Мустақиллик даврида Ўзбекистонда фуқаролик жамияти ривожланиши ва ижтимоий онгдаги ўзгаришлар. Т.: фал. фан. док.(DSc). дис. автореф. -Т.: ЎзМУ, 2018. Б. 19
2. Сапаров Б. Миллий ғоя ва ўзликни англашда қадриятларнинг ўрни. ЎзМУ хабарлари, 2019 йил 1/1. Б.128
3. Эргашев И., Жакбаров М., Назаров Н. Жамиятни демократлаштириш ва миллий ғоя. Т.: “Академия”. 2007. Б. 65-66
4. Oripov E.Sh. A promising concept of ensuring the dialectic of traditional and modern values in society // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal // 2020 (№11, SJIF2020=7.13)

## OVOZ REJISSYORLIGI KASBI KLASSIFIKATSIYA VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Arzimatov Botirali Abdumajidovich  
O‘zDSMI Farg‘ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ovoz rejissorligi kasbining umumiy klassifikatsiyasi va takomillashtirish masalalari atroflicha yoritib berilgan. Shu bilan birga ovoz rejissorligi kasbining o‘ziga xos xususiyatlari va uning kinomatografiya sohasi taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ovoz rejissori, kasb, san’at, kino, studiya, jarayon, faoliyat, malaka, taraqqiyot.

## FEATURES OF CLASSIFICATION AND IMPROVEMENT OF VOICE DIRECTION PROFESSION

Arzimatov Botirali Abdumajidovich  
Fergana regional branch of the UzSIAC

**Abstract:** This article discusses the specifics of the profession of sound directing and its role in the development of the field of cinematography. The general classification of the profession of sound directing is covered in detail. At the same time, suggestions were made to improve the profession of sound directing.

**Keywords:** sound director, profession, art, film, studio, process, activity, skill, development.

Ovoz rejissori kim? degan savolga qisqa javob eshita olmaymiz. Chunki, ovoz rejissori kino, televideniye, teatr, radio va ovoz yozish sohasida faoliyat yurituvchi va ovozning badiiy jihatiga javob beruvchi shaxsdir. Ovoz rejissori kasbi vujudga kelgunga qadar san’atda, ovoz rejissorinig ayrim vazifalarini bajaradigan turli yo‘nalishlar mavjud bo‘lgan.

Jumladan, musiqa tanlovchi - teatr, kino, televideniya va radioda musiqiy eshittirishlar, spektakllar va turli janrdagi musiqalarni fonotekadan foydalangan. Ovoz operatori - asosan texnika bilan bog‘liq ishlarni bajargan, yozib olish va qayta ishlov berish. Shovqin hosil qiluvchi tabiatda mavjud bo‘lgan yoki narsa va buyumlarning tabiiy shovqinini sun‘iy ravishda hosil qiluvchi. Musiqiy sayqallovchi - film, ko‘rsatuv, spektakl va musiqiy dasturlarni turli xil musiqa, sempl ovozlar va inter shovqinlar bilan bezatuvchi. Yuqorida aytib o‘tigan kasb egalarining ish faoliyati hozirgi kunda ham davom etmoqda, faqatgina ovoz rejissor boshchiligida

amalgam oshiriladi. Ovoz rejissorligi kasbi bir qancha yoʻnalishlarga boʻlinib, bir-biridan farqlanadi. Bular quyidagilar:

- teatr ovoz rejissori;
- musiqiy ovoz rejissori;
- kino ovoz rejissori;
- radio ovoz rejissori;
- televideniya ovoz rejissori;
- ommaviy tadbirlar ovoz rejissori;

Respublikamizda ovoz rejissorligi kasbi salkam bir asr mobaynida rivojlanish bosqichini bosib oʻtdi. Bu davrda bir qancha yetuk ovoz rejissorlari jumladan: (radioda) Nabi Hasanov, Anvar Tojiyev, (kinoda) Yoʻldosh Abdulkarimov, (televideniya) Rixsixonaj Umarxonjayev, Xayrulla Karimov, Choʻlpon Abbasov ovoz injeneri boʻlib hujjatli filmlar studiyasida ishlab ovoz rejissorligining rivojlanishiga katta hissalarini qoʻshib ketishgan, hozirgi kunda oliy toifali ovoz rejissori Atabayev Zokir, (kino) Karimjon Boʻribayev, Senchilo, Rovza Hakimova, (televideniya) Muxtor Oripov, Akbar Mirzayev, (teatr) Dalil Xadjayev, Husniddin Komilov teatrdagi, Igor Iosis ommaviy tadbirlarda va boshqa koʻplab mahoratli ovoz rejissorlari oʻz ishlari bu sohada respublikamiz dovrugʻini dunyoga tanitishdi. Ayniqsa, dublyaj sohasida 60-80 yillarda dublyaj qilingan xorij filmlari oʻzining sifatli mazmuni jihatidan butun dunyoda eʼtirof etilganligi bilan respublikamiz ovoz rejissorlik sohasida ancha ilgʻor natijalarni qoʻlga kiritilganligini isbotlab berdi[1: 6,8].

Yuqorida qayd etib oʻtganimiz kabi ovoz rejissorligi maʼlum darajada murakkab kasb hisoblanadi. Uning klassifikatsiyasi (tasnif) nimada oʻz aksini topadi degan savol paydo boʻlishi tabiiy hisoblanadi. Bunga javob tariqasida klassifikatsiyaning mazmun-mohiyatiga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Klassifikatsiya oʻzi ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid oʻzaro bir xil tushunchalar sistemasi hisoblanib, har bir fanga xos muhim mantiqiy amal boʻladi[2:1]. Uning vositasida shu fan doirasida toʻplangan bilimlar qatʼiy tartibga solinadi. Klassifikatsiya yordamida esa, ovoz rejissorligi fanida muhim ahamiyat kasb etuvchi jadvallar, chizmalar, grafiklar, kodekslar vujudga keladi. Tabiiy va sunʼiy klassifikatsiyalar bir-biridan farq qiladi. Barcha sohalarda boʻlgani kabi ovoz rejissorligi sohasida hamki, davr oʻtishi bilan oʻrganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarimizning rivojlanishiga mos ravishda takomillashtirib, tuzatilib, rivojlantirilib boriladi. Ovoz rejissorligi boshqa rejissura sohalari kabi maʼlum darajada jarayonni boshqarishi taqozaga etadi. Shuningdek, u madaniyat va sanʼat sohasining barcha jabhalarining taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu bilan birga yana baʼzi manbalarda ovoz rejissorligi kasbi va uning ijodiy oʻziga xos xususiyatlari haqida quyidagicha fikr-mulohozalar keltirilgan. Xususan, ovoz rejissorligi kasbi - ijodiy kasb - badiiy tovush

obrazlarini yaratuvchi, tovushning dramaturgiyasini yaratuvchi, yangi tovushlarni yaratib ularni qayta ishlash kabi vazifalarni o'z ichiga qamraydi. Bu kasbni egallagan inson albatta texnik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak.

Ovoz rejissorligi kasbining klassifikatsiya va takomillashtirish masalari juda murakkab va katta ilmiy-tahlil ishlarini talab qiladi. Ovoz rejissori doimo o'z bilim, ko'nikma va malakasini zamonaviy xorij texnologiyalarini o'rganish orqali boyitib borishi mumkin. Bundan tashqari - fizika, musiqiy akustika, psixologiya, psixoakustika va albatta musiqiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Ovoz rejissori - ovozni yozib oladi, qayta eshittiradi, qayta ishlaydi, texnik asboblardan yordamida turli tovushlarni qo'shadi. Bu kasb kinoindustriyada, musiqiy ovoz yozuvida, teatr, radio va televideniya, konsertlarda, tovush restavratsiyasida talab qilinuvchi kasbdir. "Haqiqiy ovoz rejissori - haqiqiy artist, ijrochining sirdoshi, fikrdoshi bo'lishi muhim. U shunday sharoit yaratib berishi kerakki, ijrochi unda o'zining bor imkoniyatlarini to'kib socha olsin. Buning uchun ovoz rejissori chuqur bilim, betakror did, katta ishlash qobiliyati va albatta iqtidor egasi bo'lmog'i lozim [3:1].

Ovoz rejissorligi kasbi klassifikatsiyasining takomillashtirish masalalari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uni takomillashtirish mediaga oid bo'lib, bu madaniyat va san'at sohasi mahsulotlarining mukammaligiga erishiladi. Ovoz rejissorligining rivojlanishi nafaqat kinematografiya taraqqiyoti uchun balkim dramaturgiya, grim, rejissura sohalarining ham rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayonlar xususida taniqli san'atshunos olimi Abulqosimova "Kino san'ati asoslari" asarida: kinoning rivojlanib borish jarayonida bo'lajak film syujetini oldindan yozib olishga ehtiyoj tug'ildi. Dastlabki ssenariylar bo'lajak film voqealarini kadrlar bo'yicha muayyan nomerlar bilan yozib olishdan iborat bo'lar edi (texnik ssenariy). Keyinchalik kino uchun asar yozadigan mualliflar teatr dramaturgiyasi tajribasiga murojaat qildilar, shu tariqa ssenariylar pyesaga o'xshay boshladi. To'g'ri, bunday ssenariylarda so'z juda oz o'rin egallagan, chunki u vaqtlarda kino ovozsiz edi. Kino ovozli bo'lgandan keyin kinodramaturgiya jadal rivojlana boshladi [4:6] - deya ta'kidlab o'tganlar. Shuningdek, Sh. Amanmuradov, D.Mirsaidovalarning "Ovoz rejissorligi mahorati" asarida ham ovoz kinematografiyada namoyon bo'ladigan elementar ko'rinishlardan avval paydo bo'lgan degan fikrni ilgari suradi. "Ovoz yozuvi kinomatografdan oldin paydo bo'lib, tasvir va ovozni sinxronlashga harakat esa kino yaratilishi bilan bir vaqtda yuzaga kelgan.

Tomas Edisonning hammuallifi Uilyam Diksonning aytishicha, u 1889-yildayoq ovoz va tasvirni birgalikda ko'rsatadigan qurilma - "kinotofonograf"ni ixtiro qilgan ekan. Lekin uning so'zlarini isbotlovchi hech qanday dalil yo'q. Boz ustiga, XX asrning boshlariga qadar fonografni eng muhim ixtiro, deb yurgan Edison kinotoskopni fonograf bilan sinxronlash harakatlarini davom ettirgan, ammo qo'lidan kelmagach, bu ishga bo'lgan qiziqishi so'nmagan. Kinomatograf rivojlanishining ilk

davrlarida ovozli kino hosil qilishga ko'p mamlakatlarda urinishlar bo'ldi. Bunga ikkita asosiy muammo halal berardi: birinchisi tasvir va tovushni sinxronlash bo'lsa, ikkinchisi tovushni yetarli darajada baland chiqmasligi edi. Birinchi muammo tovush va tasvirni bitta uskunaga yozish bilan yechilgan bo'lsa, ikkinchisini yechish oson kechmadi. Chunki, tovush diapazonini elektr tebranishlarini kuchaytirib beruvchi qurilma hali kashf qilinmagan edi[5:9].

Haqiqatan ham filmlarga ovoz kirib kelishi bilan tomoshabinlar auditoriyasi kengaydi, ifoda usullari tamoman yangicha mazmun kasb etdi. Kino hali ovozsiz bo'lgan dastlabki paytlarda aktyorlar ijrosi qisman teatrni eslatib turgan. Sababi, film mazmunini yoritishda asosan ijroga tayanilgan va aktyorlar mimikasi, ifodali harakatlari yetakshilik qilgan. Ovoz filmning ta'sir doirasini yana ham kengaytirdi, maxsus tasmlarga yozib olingan nutq, musiqa, shovqin va boshqa tovushlar yordamida kadrlar "tilga kirdi"[6:31].

Raqamli va ko'p kanalli ovoz yozuvining rivojlanishi ovoz rejissoriga montaj jarayonida juda ko'p imkoniyatlar ochib bermoqda. Ularni amalga oshirish uchun chuqur musiqiy bilimlar va bejirim did egasi bo'lmoq lozim. Zamonaviy ovoz rejissorligining har qanday yo'nalishi, yosh ovoz rejissorining shakllanishida individual yondoshishni talab qiladi. Rivojlanayotgan texnika va efirda ovoz bilan ishlashda qo'llanilayotgan yangi texnologik usullar, TV va RV ovoz rejissoridan tezda yangiliklarga ko'nikish, yangi texnikani o'zlashtirish va badiiy ta'sirchanlikni qo'llashni bilishni talab qiladi. Ovoz rejissori sohaga oid barcha texnikani yaxshi bilishi kerak.

Ayniqsa ijroning ovozli dizayni uchun ishlatiladigan mayda elementlardan tortib ovoz rejissurasiga oid vositalargacha. Ovoz rejissori texnik jihatdan qanchalik malakali bo'lsa, u shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi va ijodiy muammolarni hal qilishda texnik vositalardan foydalanish mahoratini rivojlantirib boradi. Masalan, teatrdagi ovoz rejissori ikkala ijodni birlashtirishi kerak. Ijodiy va texnik vositalarni boshqarishni. Shuningdek, dramaturgiya, rejissor, aktyorlik va sahna munosabatini aniq his qilishi va shunga qarab harakat qilish texnikalarini egalashi zarur[7:18].

Hozirgi kunda zamonaviy radio uzatuvdagi ovoz rejissori kasbining ko'pqirraligi, bu sohadagi mutaxassislarni professional tayyorgarligining sifati haqidagi savolni oldinga suradi. Bu jarayonda nafaqat o'tmishdagilarning boy tajribalarini qo'llash, shu bilan birga ilg'or chet davlatlarning tajribalarini ham qo'llash lozim. G'arb davlatlarining ovoz rejissorlari juda puxta maxsus professional tayyorgarlikka, ham texnik tomondan ham musiqa tomondan, va mustaqil ish boshlashdan avval, tubdan tayyorlanishadi. Ilg'or ovoz rejissorlarning tajribasi tizimlashtiriladi va maxsus o'quv yurtlarida o'qitiladi. Ovoz rejissorlari kadrini sifatli tayyorlash uchun, ikki asosiy bosqichdan iborat bo'lgan o'quv hajmini belgilash lozim:

- musiqiy-texnik bilimlarni egallash;
- yangi radiouzatuv texnikasining paydo bo'lishi, efirda ketadigan dasturlarni ovozlashtirishdagi yangi texnologiyalar kelib chiqishi munosabati bilan, vaqti-vaqti bilan malaka oshirib turish.

Bu o'z navbatida ovoz rejissorligi kasbini takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Teleradiouzatuv ovoz rejissorining shakllanishidagi foydali rolni tajribali mutaxassislarining master-klasslari o'ynashi mumkin. Ularning hayotiy misollaridan efirdagi tovush bilan ishlash ko'nikmalarini namoyon qilishlari yosh ovoz rejissorlariga qo'l keladi. Teleradiouzatuv yo'nalishidagi ovoz rejissorlarini tayyorlash jarayonida akustika, musiqiy bilimlar asoslari, teleradio dasturlarni musiqalashtirish, tinglab tahlil qilish, orkestrlash tarixidagi yo'nalishlar kabi bilimlar asoslari katta ahamiyatga egadir. Bu bilimlarni egallash bilan bir qatorda amaliy vazifalarni ham bajarib borish muhimdir: teleradiouzatuv dasturlarining ovozlashtirilishini tahlil qilish va referat shaklida bajarish, kurs ishlari, jonli ijroning texnik ovoz yozuvi, qisqa video ko'rinishni mustaqil ovozlashtirish va boshqalar.

Yangi O'zbekistonda ovoz rejissorligi kasbini takomillashtirish uchun bir qancha ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-avgustda "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 3176-sonli qaroriga asosan, yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadigan multiplikatsion filmlar 2018-yilda 15 ta, 2022-yildan boshlab esa 50 tadan ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Sohada sifatli va milliy qadriyatlarimizga mos ijodiy ishlarni yanada ko'proq yaratish jarayonlariga xolisona qatnashadigan Badiiy kengashning yuqoridagi qaror asosida tashkil etilishi esa katta natija bo'ldi. Davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan kinofilmlarning g'oyaviy-badiiy saviyasi, mazmun-mohiyati hamda professional darajasini oshirish masalasiga ham qarorda alohida e'tibor qaratilib, shu maqsadda kino sohasining yetuk namoyandalari va tajribali mutaxassislardan iborat Badiiy kengash tuzilishi belgilangan [8:1] Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining milliy kino san'atini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni tizimli davom ettirish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yurtimizda jahon tajribasi asosida kino ishlab chiqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy kinosanoat infratuzilmasini yaratish va kinoprokat tizimini rivojlantirish maqsadida 2021-yil 7-aprelda "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6202-sonli Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra "O'zbekkino" Milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi etib qayta nomlandi. Ushbu qaror bilan, kino san'ati va sanoati vakillarining mualliflik huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradigan O'zbekiston kino sanoati vakillari uyushmasi nodavlat notijorat tashkiloti va Agentlik va O'zbekiston kino sanoati vakillari

uyushmasi muassisligida Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi nodavlat notijorat tashkilotini tashkil etildi. [9: [www.lex.uz](http://www.lex.uz) ] Bunday ijobiy o'zgarishlar soha taraqqiyoti va ovoz rejissorligi kasbining klassifikatsiyasi mukammalashuviga xizmat qilish bilan birga istiqboldagi ijodiy ishlarga motivatsiya bo'ladi.

Albatta, har bir kasbda bo'lgani singari ovoz rejissorlarining ham ijtimoiy, ham man'an himoyasi mavjud. Davlatimiz tomonidan ularning muhofazasi bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, asosiysi xavsiz va mukammal mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan:

– mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sog'lomlashtirish chora-tadbirlari bo'yicha bo'limni o'z ichiga olgan jamoaviy shartnoma;

– tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish o'rinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish o'rinlarini attestatsiya qilish kartalari;

– mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalar;

– ishchilar va muhandis-texnik xodimlarni o'qitish, yo'l-yo'riq berish va bilimlarini sinovdan o'tkazish dasturlari;

– mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ma'muriy-jamoatchilik nazoratini yuritish jurnali (uch bosqichli nazorat);

– xodimlar bilan yong'inga qarshi yo'l-yo'riq berish va yong'in-texnikaviy minimum mashg'ulotlarini o'tkazish dasturi [10:1].

Albatta, insoning hayot xavsizligi uning kasbiy xususiyatlaridan yuqori turadi. Inson sog'lom bo'lsagina yaxshi va samarali mehnat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan har tamonlama qo'llab-quvvatlangan xodimgina mukammal ijodiy asar yarata oladi. Soha xodimlariga esa, qonuniy jihatdan ham barcha shart-sharoitlar yaratib berilgani quvonarli albatta. Endi, har tomonlama yetuk asarlar orqali xalqimizga xizmat qilish har bir ovoz rejissorining oliy saodatli vazifasidir. Davlatimiz rahbari va ma'sullar tomonidan qaratilayotgan yuksak e'tibor va etirofga munosib bo'lib, Yangi O'zbekistonning ovoz rejissurasi sohasini yanada rivojlantirib, dunyo standartlariga javob beradigan media mahsulotlarini yaratish davri keldi deb, baralla aytgimiz keladi. Kinomatografiya rivojida ovoz rejissorlari qo'ldan kelguncha xalqimizga astoyidil xizmat qilamiz.

Ushbi ilmiy maqolani yozishda ko'plab adabiyotlarni va sohaga doir qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish natijasida quyidagi takliflarni bildirib o'tmoqchiman:

– O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Texnogen san'at (kino, televideniya va radio ovoz rejissorligi)" ta'lim yo'nalishi qabul kvotasini 100 foizga oshirish;

– Madaniyat markazlarida ovoz rejissorligi shtatida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarni malakasini oshirish;

– O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Texnogen san’at (kino, televideniya va radio ovoz rejissorligi)” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni xorijiy madaniyat va san’at oliygohlariga tajriba almashish maqsadida doimiy ravishda jo‘natish;

– O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Farg‘ona mintaqaviy filialida “Texnogen san’at (kino, televideniya va radio ovoz rejissorligi)” ta’lim yo‘nalishini ochish;

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz - hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz”- deya ta’kidlab o‘tgani kabi Yangi O‘zbekistonning ovoz rejissorligi sohasida ham albatta, yang tarix sahifalarini yaratamiz. Shunday ekan, buyuk madaniyat yaratgan xalq sifatida ajmu shijoatimizni, tariximizning soha taraqqiyotiga baxshida etamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amanmuradov Sh., Mirsaidova D. Ovoz rejissyorligi mahorati. - Toshkent.: O‘zDSMI. 2019. 117b.
2. To‘rayev V. Tasnif. Manba: <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tasnif/>
3. Kasimxodjayeva A. “Musiqiy ovoz rejissyorligi asoslari”. O‘zDK.
4. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. - Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2009. - 96 b.
5. Amanmuradov Sh., Mirsaidova D. Ovoz rejissyorligi mahorati. - Toshkent.: O‘zDSMI. 2019. 117b.
6. A‘zamov D. Kino muvvaafaqiyati// jur. Teatr - Toshkent, 2016.№5. 48b.
7. Бунькова А., Мещеряков С. Студийная звукозапись и основы звукорежиссуры. - Екатеринбург. УГПУ. 2014. 175 с.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-avgustda PQ - 3176-sonli “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-aprelda “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6202-sonli Farmoni Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
10. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirining Buyrug‘i. “Televideniye va radio eshittirish xodimlari uchun mehnatni



muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida". Toshkent sh., 2011-yil 30-iyun, 35-B-son. [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011-yil 25-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2248]

11. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

12. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.

13. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.

14. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.

15. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.

16. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.

17. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.

18. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).

19. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.

20. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 25-28.

21. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. European Journal of Arts, (1), 85-88.

22. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.

23. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий муסיқий ижрочилик санъатига бир назар. Oriental Art and Culture, (I (2)), 5-9.

24. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 253-258.

25. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Oriental Art and Culture, (V).

26. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 117-119.

27. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015 (pp. 318-316).

28. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. Oriental Art and Culture, (7), 160-170.

29. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). Oriental Art and Culture, (7), 144-151.

30. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1750-1758.

31. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. Oriental art and culture, 2(3), 62-75.

32. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. Oriental Art and Culture, (V).

33. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 50-54.

34. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. Oriental Art and Culture, (V).

35. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 113-115.

36. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. Oriental Art and Culture, (V).

37. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING ANAMIVATI. Oriental Art and Culture, (V).

38. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. International Journal of Culture and Modernity, 11, 90-96.

39. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.

40. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.

41. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*.

42. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

43. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.

44. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.

45. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.

46. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.

47. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

## O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI VA ULARNING MILLIY MADANIYATIMIZ RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Baratov Bahodir  
Abdiraximov Javohir  
Ilmiy rahbar: G‘ofurov Mirmuhsin  
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada milliy cholg‘ularimiz tarixi va ularning bugungi kunda milliy madaniyatimizni rivojlantirishdagi o‘rnini haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy madaniyat, musiqa, cholg‘u, san’at, ijro, xalq og‘zaki ijodi.

## UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND THEIR IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF OUR NATIONAL CULTURE

Baratov Bahodir  
Abdirahimov Javohir  
Research advisor: Gopurov Mirmuhsin  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article discusses the history of our national instruments and their role in the development of our national culture today.

**Keywords:** National culture, music, instruments, art, performance, folklore.

Insonning qalbida go‘zallik tuyg‘usini taraqqiy ettirmay turib, ma’naviy barkamol inson haqida gapirib bo‘lmaydi. Shunday ekan qudratli kuchga ega bo‘lgan musiqa, o‘z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi, uni go‘zallikga yetaklaydi. Shu boisdan ham musiqani xalqning, millatning qalbi deb, bejiz aytilmaydi. “Mustaqillik tufayli buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy qadryatlari, ming yillikni qamragan betakror va jozibali madaniyatimiz tiklana boshlandi.

Jumladan milliy urf-odatlarimiz, an‘analarimiz, milliy san’atimiz, xalq ijodiyoti va musiqamiz singari xalq ma’naviyatini ifodalovchi barcha qadryatlarimiz qad rostlamoqda[3].

Prezidentimizning madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga qaratayotgan katta e’tibori tufayli milliy musiqa san’ati o‘zining yangi rivojlanish davrini boshlab berdi. Bu islohatlarning amaliy natijasi sifatida Respublikamizning turli hududlarida o‘tkazilib kelinayotgan yirik xalqaro festival va ko‘rik tanlovlarni alohida takidlash joyiz. Xususan, Shahrizabzda o‘tkazilgan “Xalqaro maqom anjumani”, Surxondaryoda

va Qoraqalpog‘iston Respublikasida bo‘lib o‘tgan, “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivallari, Marg‘ilondagi “Buyuk Ipak Yo‘li” Xalqaro folklor musiqasi festivali, Qo‘qonda bo‘lib o‘tgan Xalqaro Hunarmandchilik festivali kabi yirik madaniy tadbirlarning tashkil etikishi milliy madaniyatimizni dunyo hamjamiyati oldida namoyon qilish va ular bilan madaniyat va san’at sohasida tajriba almashish, madaniy-ma’naviy munosabatlarni mustahkamlash, xalqaro miqyosda madaniy aloqalarni kengaytirish va o‘zbek milliy madaniyati va san’atini keng yoyishda xizmat qiladi.

Toki odamzod o‘zini qurshab turgan tashqi olamda, o‘zi yashayotgan jamiyatda ozi muloqotda bo‘layotgan kishilarda, tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilayotgan badiiy ijod namunalarida mujassamlashgan go‘zallikni his qila olmas ekan, hech qachon ma’naviy barkamol inson darajasiga ko‘tarila olmaydi. Musiqa insonga estetik zavq berish bilan birga, yon-atirofidagi go‘zallikni his etish imkoniyatini beradi.

Musiqa ana shu nozik tuyg‘ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. Musiqiy cholg‘ular esa, insoniyat ma’naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya’ni inson ijodiyoti mahsuli bo‘lib, har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayot jarayonlarini ifodalovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Cholg‘ulardan taraladigan ohanglar esa xalqning ruhiyatidan kelib chiqib yaratiladi.

O‘zbek xalqi qadimiy boy musiqiy merosga ega bo‘lib, bunda musiqiy cholg‘ularning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bizning musiqa cholg‘ularimiz xalqimizning moddiy, madaniy boyligi hisoblanib, madaniy tariximizni anglashda va milliy madaniyatimiz rivojida boshqa sohalar singari muhim o‘rin tutadi.

Tarixdan ma’lumki, o‘z davrida O‘zbekiston hududidan G‘arb va Sharq mamlakatlarini birlashtirib turuvchi Buyuk Ipak Yo‘li o‘tganligi, bu esa zaminimizga boshqa xalqlar madaniyatining kirib kelishi va bizning madaniyatimizni boshqa xalqlar madaniyatiga yoyilishiga sababchi bo‘lgan. Bu esa o‘z - o‘zidan barcha sohalar yuksalishiga, hususan musiqa madaniyati ham boshqa sohalar singari rivojlanishi va yurtimiz hududida ko‘plab cholg‘ularning saqlanib qolishiga zamin yaratib bergan. O‘zbek xalq cholg‘ulari o‘ziga xos tarzda musiqaning barcha tarmoqlariga mos shaklda asrlar osha mukammallashib, rivojlanib keldi.

Tarixiy qo‘lyozmalarda O‘rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg‘ular nomlari keltirilgan. Musiqiy risolalarda esa cholg‘ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg‘ular yasash uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k haqida) ma’lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg‘ulardan - borbad, ud, rud, qo‘biz, g‘ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli cholg‘ulardan - ruhafzo, shammoma, org‘anun, sibizg‘a, nayi anbon, chag‘ona, bulamon, surnay, nay, qo‘shnay, karnay; urma cholg‘ulardan - daf, doira, nog‘ora, safoil kabi musiqa cholg‘ulari haqida turli darajadagi ma’lumotlar keltirilgan.

Davrlarning o‘tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga musiqa cholg‘ulari ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib kelgan.

Tarixiy manba'larda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi tori taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki tori, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari qo'shilganli kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi va murakkablashib kelganligi bilan bog'liqdir. Bu kabi takomillashtirilib istemolga kirgizilgan cholg'ularga ko'plab misollar keltirish mumkin.

"XIX asr oxiri va XX asrda o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib, ijrochilik amalyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda turk cholg'usi bo'lmish - soz ham o'ziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib o'rin oldi.

Zamonaviy musiqa ijodiyoti bilan birga chang, rubob, dutor, g'ijjak kabi xalq cholg'ularining oilaviy namunalarini yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jarayonga kelib musiqiy cholg'ularning turli yo'nalishlariga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. Amalyotda an'anaviy, qayta ishlangan, takomillashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) cholg'ularning xillari keng qo'llanilmoqda[7]. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) imkoniyatlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega bo'lishi, u xalq madaniy-ma'naviy boyligi ekanligini etirof etish lozimdir.

"Biz yashab turgan hududimizda ishlatiladigan milliy musiqa cholg'ularining turlari nihoyatda ko'p. Agar ular nomma-nom sanab chiqilsa, 50 tadan ortiq ekanligining guvohi bo'lish mumkin. Shular ichidagi 18 nomdagi musiqiy cholg'u XX asrning 30-yillari oxiridan boshlab yangidan yaratilgan musiqiy cholg'ular hisoblanadi va ular asosan orkestr va ko'p ovoqli ansambllarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Bu cholg'ular muqaddam mavjud bo'lgan milliy musiqa cholg'ularining shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko'rinishga keltirish asosida yaratilgan bo'lib, o'sha cholg'u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar natijasida yaratilgan. Takomillashtirilgan cholg'ularda tajribalar olib borildi va chang, rubob, dutor, g'ijjak, qo'biz asboblarining oilasi yaratildi.

O'zbek xalq cholg'ularing rekonstruksiya qilish va takomillashtirishdan maqsad, milliy ohanglarimizni ijro qilishda yanada keng imkoniyat hosil qilish va ularni Yevropa tovush qatori tizimiga o'tkazish kabi vazifalar ustida ish olib borishgan. A.I.Petrosyans rahbarligi qo'l ostida bir guruh ustalar: Usta Usmon Zufarov ko'plab dutor va tanbur, g'ijjaklarning turdosh oilalarini yaratgan bo'lsa, Matyusuf Xarratov chang cholg'usining yuqori registrini qo'shimcha torlar va xaraklar hisobiga kengaytirdi. Yunus Rajabiy Usta Usmon Zufarov bilan hamkorlikda dutor bas, g'ijjak bas, g'ijjak alt na'munalari yaratdilar. Cholg'ularning takomillashtirish natijasida, xalq cholg'ularimiz diatonik tovushqatordan xromatik tovush qatorga o'tkazildi. Bu kabi ijod na'munalari cholg'u ustalarining bevosita sozgarlik sohasida yetarlicha tajriba to'plashganlari, asta sekinlik bilan an'anaviy cholg'ularning eski na'munalari

o'rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga to'la mos kela oladigan yangi na'munalarini yaratish, mavjud cholg'ularni yanada takomillashtirishga urinish bo'ldi.

Bugungi kunda ham yurtimizda bir qancha cholg'u sozgarlari faoliyat olib borayotganligi, milliy musiqachilik sohasida bir qator yutuqlarga erishayotganimizni takidlash joizdir. Hususan, ana shunday o'zining na'munaviy yutuqlari bilan milliy musiqa san'atimiz rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan Andijonlik ustalar bir qancha cholg'ularni qayta tiklashga erishdi va yana yangi cholg'ularni yaratish ustida izlanishlar olib bormoqdalar. Bunga misol tariqasida sozgar usta Abdimalik Madraimov tomonidan Boburiylar davriga oid milliy musiqa cholg'ularidan g'ijjaki boburiy, qo'shtor, dilrabo, dilnavo va shu kabi bir necha cholg'ularni qayta tiklashga erishilganligini takidlash joiz bo'ladi

Milliy madaniyatimizda qo'llaniladigan musiqa cholg'ularini foydalanish o'rinlariga qarab shartli ravishda 2 guruhga - professional ijrochilikda qollaniladigan va folklor cholg'ulari turlariga ajratish mumkin. Professional ijrochilikda qo'llaniladigan cholg'ularning o'zi ham an'anaviy musiqa ijrochiligida ishlatiladigan cholg'ular hamda akademik ijroda ishlatiladigan cholg'ular turlariga bo'linib ketadi[39].

An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'ular qatoriga tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, sunray, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doyra, nog'oralarni, folklor ijodiyotida qo'llaniladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'a, cho'pon nay, spol nay, safoil, sagat kabilar kiradi. Qayta ishlangan cholg'ularga: rubob, g'ijjak, dutor, chang sozlarining musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlari mezonlariga ko'ra qayta ishlangan namunalar kiradi. Mazkur cholg'ular asosida o'zbek xalq cholg'u orkestr va ansambllarining faoliyati vujudga kelgan.

O'zbek xalq cholg'u orkestr, ansambllarining tashkil etilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XIX asrning 60 - 70 - yillarida Toshkent, Moskva, Peturburg shaharlari musiqa sohasi ommalashgan yirik madaniy markazga aylanganligi, bu kabi rivojlangan markazlarda mahaliy cholg'uchilar va musiqa ixlosmandlari ishtirokida konsert, madaniy tadbirlar faoliyatlari faollashishiga o'z tasirini o'tkazgan. 1877 - yildan boshlab esa Turkiston diyori (Toshkent, keyinroq Samarqand va Farg'ona)ning boshqa markazlarga yetuk musiqa jamoalari, gastrollar va dramatik guruhlarining tashrif buyura boshladi. Bu esa rus cholg'ularining demokratik an'analari Turkistonda baynalmilal aloqalarning o'rnatilishiga ko'maklashgan. Keyinroq tezda Toshkent, Buxoro, Samarqand shaharlarida kasbiy musiqiy o'quv yurtlarining tashkil etilishiga ma'lum darajada asos bo'lib xizmat qildi.

1884 - yilda Toshkentda Eyxgori tashabbusi bilan "Musiqaviy jamiyat" tashkil qilinib, N. Shletinskiy bu jamiyatning birinchi raisi bo'ldi. Xalqning musiqaviy ma'rifatini yuksalishiga yordam ko'rsatgan L.A. Shadurenskiy va N.L. Trusovlar jamiyatning faol a'zolari edilar. Shu tariqa XIX asrning 80 - yillarida Toshkentda

orkestr jamoasi tuzilgan va orkestr tuzishning asosiy maqsadi, o'zbeklarning xalq musiqasini Nijniy Novgoroddagi Butunrossiya qishloq xo'jalik ko'rgazmasida namoyish etish bo'lgan.

Keyinchalik o'zbek musiqashunoslari dekadalarda faol ishtirok etib, ancha tajriba to'plagan. Ular qardosh xalqlar cholg'ulari, kuy-qo'shiqlarini o'rganib mahalliy bayram va tantanalarda foydalangan. Shu bilan birga boshqa o'sha davrdagi Butunittifoq xalqlari ham O'zbek madaniyati va san'atiga yuqori qiziqish bildirib, uni o'rganganlar. Mustaqillikka erishgach bu jarayonlar yanada jadallashdi.

Hozirgi kunda ham O'zbek madaniyat va san'at dunyo xalqlarini o'ziga maftun etib kelmoqada. Respublikamizda o'tkazilayotgan xalqaro festival, anjuman va bayram tantanalari esa xalqaro madaniy hamkorlika yo'l ochdi. Madaniyat sohasiga berillayotgan bu kabi imkoniyatlar biz yosh avlod vakillari ruhida shukronalik ruhini uyg'otmasdan qolmaydi va yaratilgan sharoit, e'tibordan oqilona foydalanib, bunga javoban munosib yuksak yutuqlarga erishib, vatanimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerakligini unutmasligimiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Asqar F. Musiqa va inson ma'naviyati. - Toshkent.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000.
2. S. Begmatov O'zbek an'anaviy cholg'ulari. - Toshkent: Yangi nashr, 2008.
3. Toshmatov O'., Turatov S., Ko'hna cholg'ular ijrochiligi. - Toshkent: "Tafakkur nashriyoti, 2016.
4. Jumayev S. Milliy cholg'ular tarixi va evolyutsiyasi. - Toshkent: "Kamron Press" 2017.
5. Toshmatov O'., Beknazarov X. Cholg'uchunoslik. - Toshkent: Turon-Iqbol, 2018.



## **O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA’RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)**

Mo‘minmirzo Xolmo‘minov  
mominmirzoxolmominov@gmail.com  
Asilbek Qolqanatov  
asilbekqolqanat@gmail.com  
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotasiya:** Maqolada O‘zbekiston hududida dastlabki kutubxonalar aholining g‘oyaviy-siyosiy ongini oshirishda qanday missiyani amalga oshirgani va kutubxonalarning vazifalari nimalardan iborat bo‘lganligi haqida tarixiy materiallar berilgan. Dastavval, kutubxonalar madaniy-ma’rifiy tashkilot sifatida rivojlangan. Shuningdek, maqolada kutubxonashunoslik tarixi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, yillar kesimi bo‘yicha tahlillar berilgan. O‘sha davrdagi kutubxona xodimlarining faoliyati va siyosiy-mafkuraviy jarayonlardagi o‘rni bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kutubxonachilik, maorif, jadid, klub, siyosiy-iqtisodiy jarayon, muassasa, ommaviylik, tahlil, faoliyat, kitob fondi, madaniy saviya.

## **CULTURAL EDUCATIONAL ACTIVITIES AND LIBRARY ACTIVITIES IN UZBEKISTAN (FROM THE EXPERIENCE OF THE TWENTIETH CENTURY)**

Mominmirzo Kholmominov  
mominmirzoxolmominov@gmail.com  
Asilbek Qolqanatov  
asilbekqolqanat@gmail.com  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The article provides historical material on the mission of the first libraries in Uzbekistan to raise the ideological and political awareness of the population and the role of libraries. Initially, libraries developed as a cultural and educational organization. The article also provides research on the history of librarianship and analysis over the years. Opinions were expressed on the activities of the library staff at that time and their role in the political and ideological process.

**Keywords:** librarianship, education, jadid, club, political and economic process, institution, public, analysis, activity, book fund, cultural level.

XX asrda Turkiston xalqining madaniy-ma'rifiy, siyosiy-mafkuraviy ishlar tizimini yanada rivojlantirish maqsadida klublar va kutubxonalar faoliyatiga alohida e'tibor berila boshlandi. Ommaviy tashviqot-targ'ibot ishlari o'sha davrda sovet davlatining siyosatini keng omma orasida targ'ib etishning muhim vositalaridan biri hisoblangan.

Kutubxonalar va qiroatxonalar aholining g'oyaviy-siyosiy ongini oshirishga xizmat qilib, kutubxonalarda sovet mafkurasiga zid nashrlar bo'lmagan. Natijada, o'zbek milliy madaniyati, tarixi, ma'naviy merosiga oid bilim va asarlarga yetarli e'tibor berilmagan. Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Andijondagi jadid tashkilotlari, bir tomondan, istiqlool harakatlarini olib borganlar, ikkinchi tomondan esa, milliy tarixiy asarlar to'plangan kutubxonalar tashkil etganlar. Turkistonning buyuk shoiri Andijonda jadidchilikka asos solgan, Cho'lpon o'z yurtida "Turon kutubxonasini" tashkil qilgan [1: 267].

Xalqning ma'naviy olamini oshirishga xizmat qiladigan tashabbuslar hukumat vakillariga xush kelmagan. Chunki, kutubxonalarga aholi ommaviy tarzda to'planar va ma'naviy zavq olishar, kitob mutolaasi orqali estetik madaniyatini yuksaltirar edi. Kutubxonalarning vazifalari, faoliyati, kitob fondlarining tarkibiga qarab, ommaviy, texnikaviy va turli maxsus kutubxonalar, o'quv yurtlarining kutubxonalari, ilmiy kutubxonalarga bo'lingan. Ommaviy kutubxonalar faoliyati aholining turli sohaga doir kitoblarga bo'lgan talablarini qondirishga qaratilgan.

Ommaning ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy faolligini oshirish, partiya tadbirlarining faol a'zosiga aylantirish maqsadida Maorif xalq komissarligi huzurida barcha madaniy-oqartuv ishlariga rahbarlik qiluvchi maktabdan tashqari bo'lim tashkil etilib, respublikamizning 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan barcha aholisi yangicha (rus tilida) o'qish va yozishni o'rganishga majbur etilgan. Qiroatxona va kutubxonalarga a'zo qilishgan. O'sha davrlarda 1000 ga yaqin savodsizlikni tugatish maktablari, ko'plab kutubxona, qiroatxona, klublar, qizil choyxona, xotin-qizlar klublari ish olib borgan. O'zbekiston kompartiyasining II sezida "Klub ishi" xaqida alohida rezolyusiya qabul qilgan va unda klub ishchilar ommasi madaniy saviyasi va faolligi oshirishda kutubxona va qiroatxonalar faoliyatidan keng foydalanish zarurligi ta'kidlangan.

Xalq maorifi Komissarligi huzuridagi kutubxona ishi bo'limi juda katta imkoniyat va imtiyozlarga ega bo'lib, ommaviy kutubxonalar va qiroatxonalar, ko'chma kutubxonalar tashkil etib, ularga metodik yordam ko'rsatib, kutubxona xodimlarini tayyorlashga yordam bergan. Natijada Turkiston Avtonom Respublikasida ishlab turgan 122 ta kutubxonalar soni 1924-yilning boshida 616 ming kitob jamg'armasiga ega bo'lib, mayda 132 tani klublar 21 tani, qizil choyxonalar qariyb 200 tani tashkil etgan, qiroatxonalar soni 58 ta bo'lib, yirik davlat kutubxonalari tez rivoj topdi. Jumladan, Turkiston Davlat bosh kutubxonasi (100

ming), Turkiston Davlat universitetining bosh kutubxonasi (23 ming), Andijon, Qo‘qon va Namangan kabi shaharlardagi kutubxonalar ijtimoiy nufuzi kitob fondining ortgani sari yuqorilab bordi. Masalan, birgina Buxorada 1924-yilda 14 kutubxona, drama teatri, muzey va klublar aholiga xizmat ko‘rsatgan. Dastlabki klub va kutubxona Xiva shahrida 1920-yil yozida sobiq xon saroyi binosida tashkil etildi. Shuningdek, klub va kutubxonalar Yangi Urganch, Toshhovuz, Qoraqalpog‘iston ASSRning Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot va boshqa shaharlarda ham barpo etilgan. 1923-yilga kelib Xorazm Respublikasida 8 ta klub va madaniyat uylari, 5 ta ommaviy kutubxonalar, 4 ta qizil choyxona va kino teatrlar aholiga madaniy-ma‘rifiy xizmatlar ko‘rsatgan[2: 230].

Kutubxonalar sonining ko‘payishi bilan vazifa va mas‘uliyat ham mafkuraviy jihatdan murakkablashib borgan. Birinchidan, ijtimoiy tizimdagi muammolar bo‘lsa, ikkinchidan, kutubxonalar iqtisodiy jihatdan ancha nochor ahvolda va tajribali mutaxassislar yo‘q edi. Mavjud xodimlarning malakasini oshirishni davrning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli ham taqozo etar edi. Kutubxona xodimlarini tayyorlash masalasi 1926-yili O‘zbekiston klub va kutubxona xodimlarining I qurultoyidayoq ko‘tarilgan, unda uzoq qishloq hududlari uchun kutubxona xodimlari tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega ekanligi qayd etib o‘tilib, qurultoy qarorlarini bajarish vazifalari nazoratga olinadigan bo‘ldi. 1927-yil 1-fevralda Toshkentda kutubxona xodimlarini tayyorlash bo‘yicha olti oylik kurslar tashkil qilindi. 1934-yilning yanvarida respublika Fan qo‘mitasi kutubxona xodimlari tayyorlash kurslarining oliy bo‘g‘inlarini tashkil etish to‘g‘risidagi masalani ko‘tardi. Kutubxona xodimlarining o‘rta bo‘g‘inlari vakillarini qayta tayyorlash uchun 8 oylik kurslar tashkil qilindi. Unda xodimlar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tahsil olar edilar [3: 125].

Kadrlar tayyorlash tizimining metodologiyasi markaz tomonidan ishlab chiqilar va mahalliy shart-sharoitlar to‘g‘ri tahlil qilinmasdan kutubxonalar va qiroatxonalar faoliyatiga yuzaki yondoshar edi. Ularga “buyruq”lar ham markaz tomonidan berilib, xalqni sovet mafkurasiga moslashtirib tayyorlash bosh prinsip edi. Kutubxonalardagi sovet mafkurasiga zid ko‘plab nashrlarning yo‘q qilinishi oqibatida, o‘zbek milliy madaniyati, tarixiga, ayniqsa jadid falsafasi va ma‘naviy merosiga oid ko‘plab xalqning ongu-tafakkurini uyg‘otuvchi noyob asarlar ilmiy-badiiy muomaladan olib tashlangan. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning murakkablashishi oqibatida Maorif xalk komissarligining maktabdan tashqari muassasalarini davlat byudjetidan mahalliy byudjetga o‘tkazish tufayli respublikada madaniy-ma‘rifiy muassasalar soni keskin kamaydi. Siyosiy maorif muassasalari 1922-yilda undan oldingi yildagiga nisbatan ancha qisqarib, savodsizlikni bitirish maktablari 3 mingtadan 50 taga, kutubxonalar 164 tadan 66 taga, katta yoshlilar kurslari 40 tadan 1 taga kamaygan. Yuzga yaqin kutubxonaga ega klublardan bir necha o‘n klub qolgan. Ammo, keyinchalik bu

ko'rsatkichlar tez sur'atlarda yuqorilagan. Kutubxonalar sobiq markaz nashrlari tomonidan ishlab chiqilgan, g'oyaviy jihatdan "yetuk" adabiyotlar bilan boyib bordi. RSFSR markaziy kitob palatasi, Ukraina kitob palatasi va boshqa muassasalardan kitoblar olindi. O'quvchilar soni ham ortib bordi. Xususan, Turkiston Davlat bosh kutubxonasidagi o'quvchilar soni 1920-yilda 3953 ta bo'lgan bo'lsa, 1921-yilga kelib ular soni 61887 taga yetdi. 1920-yillarga kelib, kutubxona muassasasining ish usuli va shakllari ham o'zgarib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga takomillashib bordi. Aholi nafaqat kitob o'qish, ayni paytda uni muhokama etishda ham ishtirok eta boshlagan. Klub va kutubxonalarda "Ovoz chiqarib o'qish", "kitob haftaligi", "Fan va din", "Fan va turmush", "Yangicha turmush" kabi tadbirlar o'tkazila boshlagan.

Kutubxonalar tomonidan olib borilgan siyosiy-mafkuraviy ishlarni e'tibordan chiqarmagan holda ta'kidlash lozimki, ular aholining umumiy savodxonligini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy qiyofasini shakllantirishda ham ma'lum rol o'ynagan [4: 89,90].

Barcha hududlarda ham kutubxonlar uchun imkoniyat yaratib berilmadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan hududlardagina klublar va kutubxonalar yangi adabiyotlar bilan boyitib borilar edi. Ko'pchiligi rus tilida bo'lganligi sababli mahalliy aholining bu kitoblarni o'qish imkoni yo'q edi.

Kutubxona muassasalaridan foydalanish qishloq joylarida ayniqsa og'ir edi. Buning sabablari esa qo'yidagilardan iborat edi:

1. Aholi savodxondigining o'ta past darajada ekanligi (ya'ni, rus tiliga nisbatan).
2. Mahalliy aholi tilidagi adabiyotlar sonining kamligi.
3. Shu soha mutaxassislarining yetishmasligi.

Shuning uchun ham asosan, ko'chma kutubxonalar faoliyati qishloq sharoitida katta ahamiyat kasb etdi. 1928-yilda to'rt millionli o'zbek qishloq aholisi uchun 44 ming kitob jamg'armasiga ega bo'lgan 74 kutubxonagina xizmat ko'rsatgan. Shuning uchun ham sovet davlati qishloqda o'z ta'sirini mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqur tahlil qilish uchun kutubxonalar, undagi adabiyotlar sonini oshirishga alohida e'tibor berdi.

1928-1929-yillarda adabiyotlar soni 22 tadan (131,4 ming kitob) 161 taga (308,8 ming kitob)ga yetgan. Samarqandda 1919-yilda o'tish yodgorliklarini muhofaza qilish doimiy komissiyasi ta'sis etildi, birmuncha keyinroq esa Toshkentda muzey ishlari, o'tmish yodgorliklarini, san'at va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ishlay boshladi. Toshkentda davlat xalq kutubxonasi tarkibidagi sharq bo'limi xodimlari Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tillaridagi kitoblarni va qadimiy sharq qo'lyozmalarini to'plash yuzasidan katta ishlar olib bordilar, bu qo'lyozmalarning ko'plari O'rta Osiyoning g'oyat boy tarixiy o'tmishini o'rganishga doir juda qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan edi. O'sha 1919-yilning o'zidayoq Toshkentda Arxiv

ishlari Markaziy boshqarmasi (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi) tashkil etilgan [5: 149].

Bu islohotlar yaxshi natija bera boshlagan, albatta. Ammo, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tufayli madaniyat va ma'rifat bo'yicha tajribali xodimlar siyraklashib, kutubxonalar, klublar, qiroatxonalarning moddiy bazasi yomonlashdi. Ularning ko'pchiligi noqulay xonalarga joylashganidan tashqari, kerakli anjomlar, kitoblar va ko'rsatmali qo'llanmalarga ham ega emasdi. O'sha davrda ishchilar va kolxozchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlab kutubxonalarga, klublarga, qiroatxonalarga borardilar va u yerda leksiyalar tinglashar, ro'y berayotgan voqealar haqida tegishli axborotlarni olishar, hujjatli filmlarni tomosha qilib, devoriy gazetalarni mutoala qilishar edi. Keng ommada bilimlar manbai bo'lmish kitoblarga qiziqish ortgan edi. 1935-yil 15-iyuldan 1936-yil 1-yanvargacha "Qishloqda kutubxona ishi"ni yaxshi yo'lga qo'yish bo'yicha nohiya nomini olish uchun Butunittifoq tanlovi o'tkazildi. Unda O'zbekistondan faqat kutubxonalar emas, balki madaniyat uylari va klublar ham qatnashdi. Respublika tanlovi kutubxonalar tarmog'ini kengaytirish va ularning ishini yaxshilash uchun turtki bo'ldi. Tanlov o'tkazish davrida 18 ta yangi nohiya kutubxonalari, 68 ta qishloq kutubxonalari va 122 ta klublar qoshidagi kutubxonalar ochildi 1937-yilda kutubxonalar soni 895 taga yetdi. Lekin kutubxonalar ko'paygani bilan respublikada kutubxonachilik ishlarini takomillashtirish lozim edi. Shuning uchun ham 1937-yili "Respublikada kutubxona ishi to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. Qarorga muvofiq, shaharlarda, qishloqda chekka-chekka ovullarda kutubxonachilik ishlari qoniqarsiz ahvolda ekani ta'kidlanib, kutubxonalar kam, kitob fondlari qashshoq, kutubxonalarning xodimlari maxsus ma'lumotga ega emasligi tanqidiy ko'rib chiqilgan. 1937-yilda kutubxonachilik texnikumining ochilishi respublikada kutubxonachilik ishlarining yaxshilanishiga yordam bergan.

Kutubxonachilar ham mavjud imkoniyatlardan foydalanib, o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishga harakat qildi. Ular jamoat ishlarida ham faol qatnashib kelgan. Toshkent shahridagi kutubxonalarning xizmatchilari o'z murojaatnomalarida jumladan shunday deb yozgan edilar: "Bizlar respublikadagi va shu jumladan, Farg'ona viloyatidagi barcha kutubxonalarning hamda siyosiy-ma'rifiy muassasalarning xodimlarini Katta Farg'ona kanali quruvchilariga madaniy xizmat ko'rsatishda va uni tashkil etishda faol qatnashishga chaqiramiz" [6: 128]. Kutubxonachilar jamoat ishlariga ba'zan o'z xohishi bilan, ba'zan esa, majburan jalb qilingan.

Respublikamiz hududida 1937-yilda 895 ta kutubxona ishlagan bo'lsa, 1941-yil bu raqam 1748 taga ortgan. Urush madaniy-ma'rifiy muassasalar ishini nihoyatda murakkablashtirdi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yangi qiyinchiliklar davri boshlandi. Kutubxonalar, klublar va muzeylar tarmog'i ancha qisqardi, ularga

ajratiladigan mablag'lar ham kamaydi. 1941-yil oxirida O'zbekistondagi 994 ta madaniy-ma'rifiy muassasalardan 669 tasi ishladi va ularga ajratiladigan mablag'lar 16 million so'mdan 8,7 million so'mga kamaygan [7: 29,33].

Lekin mana shu qiyinchiliklarga qaramay, urush davri sharoiti madaniyat va ma'rifat xodimlaridan siyosiy-ma'rifiy ishning mavjud shakl va metodlarini keng tus oldirish hamda yanada ommaviyroq shakllarini topishni talab qilardi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarning ko'plari yoshlar va kasaba uyushmalarining faollariga tayanib, ijodkor ziyolilar bilan hamkorlikda aholining ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan g'oyat samarador ishlarni amalga oshirdi. Barcha narsa urush uchun shiori bilan klub va uning tasarrufidagi kutubxonalarda urush davrida aholiga ruh va kuch bag'ishlash uchun ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Urush yillari O'zbekistondagi kutubxonalar ham sovet va chet ellik badiiy so'z ustalarining kitoblarini targ'ib qilish, fashizm va uning homiylari - insoniyat dushmanlarining, umuminsoniy sivilizatsiyaga doir kitoblarni yondiruvchilarning manfur qiyofasini fosh etish borasidagi ishlarini ancha kuchaytirdilar. Kutubxonalarning xodimlari aholi uchun ma'ruzalar o'qidilar, jangchilarimiz mardligining ajoyib namunalari to'g'risida, qahramonona kurashi va g'alabalari to'g'risida, fashistlar Germaniyasining halokati muqarrarligi to'g'risida qiziqarli va ta'sirchan suhbatlar o'tkazdilar. Bulardan tashqari, fan va texnikaning u yoki bu tarmoqlariga doir bilimlarni o'zlashtirishda kitobxonlarga yordam berdilar. Kolxozning, nohiya va shaharning madaniyati hamda xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirishda faol qatnashdilar. Urush yillari respublikada ilmiy muassasalar va turli korxonalarining kutubxonalarini hisobga olmaganda 440 ta kutubxona ishladi. Urush boshlangan paytda kutubxonalar tarmogi ancha qisqarganiga, qishloq kutubxonalari va bolalar kutubxonalarining ko'pchiligi yopilganiga qaramay, 1942-yilda respublika bo'yicha 193 ta ommaviy kutubxona ishlagan [8: 43,44].

O'sha vaqtlarda O'zbekistondagi kutubxonalarning xodimlari oldida urush tufayli vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengib, shaharlar va qishloqlardagi aholi orasida ma'rifiy ishlarni yanada keng tus oldirish, ommaga kitoblarni targ'ib qilish, ko'chma kutubxonalarini ko'paytirish, kitoblar ko'rgazmalarini tashkil etish, kitobxonlar konferensiyalarini o'tkazish, kitoblarning tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish vazifalari turar edi. "Kutubxonalarning xodimlari faol kitobxonlarni umumiy ishga mohirlik bilan jalb eta olgan, doimo jamoatchilikning yordamiga tayangan joylarda mehnatkashlar ommasi bilan olib boriladigan siyosiy-ma'rifiy ishlar yuqori saviyada amalga oshirildi. Kitoblarni, ayniqsa siyosatga va mudofaa ishlariga doir adabiyotlarni tarqatish ko'lami ortdi, doimiy kitobxonlar doirasi kengaydi. Agar 1941-yilda kutubxonalar o'quvchilarga 89528 ta kitoblarni bergan bo'lsa, bu raqam 1942-yilda 105 ming nusxadan oshgan [9: 44].

Kolxozlar va sovxozlarda, mahallalar, qizil choyxonalar va uy boshqarmalarida ham ko'p qirrali madaniy-ma'rifiy ishlar amalga oshirildi. Davlat madaniyat-ma'rifat va kasaba uyushma nashryotlari chiqargan "Klub xodimi kutubxonasi" va "Klub xodimi kutubxonachasi" seriyalardagi kitoblar omma bilan olib boriladigan madaniy-tarbiyaviy ishlarning g'oyaviy hamda ijodiy saviyasini oshirishda muhim rol oynadi. Madaniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha markaziy o'lka va viloyat metodika kabinetlari tomonidan madaniy-ma'rifiy muassasalarning xodimlariga beriladigan metodik yordam yil sayin kuchaytirib borildi. Respublikamiz kutubxonalari tashviqot punktlari, qizil choyxonalarni, gospitalarni, harbiy qismlarni kitoblar bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yildi. 1943-yil oxirida respublikada jami 293 ta ommaviy kutubxona qolgan va shularning 100 tasi viloyat, 120 tasi nohiya, 61 tasi shahar hamda 22 tasi bolalar kutubxonalari bo'lgan. Ularning kitob fondi 1 mln 209 ming 580 tom dan iborat bo'lgan. Madaniyat uyi xodimlari urushdan keyingi o'n yil mobaynida klub va kutubxonalarda 7890 marta leksiya, 285 marta ma'ruza o'qidilar. 8907 marta yakka tartibda va guruhli suhbatlar o'tkazdilar, 285 marta uchrashuv kechalari tashkil qildilar. 1950-yillardan e'tiboran madaniy sohani mablag' bilan ta'minlashning "qoldiq" prinsipi qaror topa boshladi. 1940-yilda ijtimoiy-madaniy tadbirlarga xarajatlar O'zbekiston davlat byudjeti bo'yicha qolgan xarajatlarning 67,9% ni tashkil etgan bo'lsa, 1950-yilda bu ko'rsatkich 64,4%, 1960-yil - 50%, 1970-yil - 49,6%, -1980-yil - 46,9% ga pasaydi. Hatto 1980-yillarning ikkinchi yarmida qayta qurish ta'sirida ro'y bergan o'zgarishlar ham ijtimoiy-madaniy sohani mablag' bilan ta'minlashning pasayish tendensiyalarini jiddiy o'zgartira olmagan.

1959-yilda respublika bo'yicha klub muassasalari shaharlar va shahar tipidagi posyolkalarda 342 taga, qishloq joylarda 2691 taga, ommaviy kutubxonalarda 3205 taga va jami kinomoslamalar 1910 taga yetgan[10:49].

"Qayta qurush" siyosati madaniy-ma'rifiy funksiyalar faoliyatiga ham ta'sir qilmay qo'ymadi. Bu ayniqsa madaniy-ma'rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasi masalasiga, ayniqsa talluqli edi. Madaniyat sohasiga mablag' sarflashning "qoldiq" prinsipi tufayli 1985-1990-yillarda madaniyat maskanlari sonining kamayishi kuzatildi. Masalan, ko'rsatilgan davrda respublikada klublar soni 55 taga, kutubxonalar soni esa 99 taga kamaydi. Binobarin O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun ahli jon boshiga 1989-yilda 3,6 so'm pul ajratildi, xolos. Bu raqam ittifoq respublikalari orasida eng past ko'rsatkich edi. Yuqorida keltirilgan raqamlar mazkur masalaning faqat tashkiliy jihatlari edi [11: 657].

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, Ittifoq tarkibidagi Respublikalarga pul taqsimlanishining aniq va to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi sababli, kutubxonalar faoliyati ham mutonasib tarzida rivojlanmadi. Ko'rsatkichlar yuqori bo'lgani bilan, amaldagi kutubxonalarda aholining madaniy hordiq chiqarishi uchun yetarli imkoniyatlar yo'q edi. Keyinchalik, 1961-yil oktabr oyida kutubxona va klub

xodimlarining ish haqini oshirishga qaror qilindi. Qishloq klublarining mudirlari taxminan ikki baravar, madaniyat uylari va klublarining xodimlari 70-80 foiz ortiqcha maosh ola boshladilar. Kutubxona xodimlarining ham ish haqlari oshdi. 1966-yilga kelib, har bir yirik aholi turar joyida, qishloq sovetlarida, kolxoz va sovxozlarda kutubxonalar tarmog‘i vujudga keldi. Jumladan, 1176 ta kolxoz, 1109 ta klub qoshidagi kutubxonalar yangidan tashkil etildi. “Qishloq joylarida madaniy-oqartuv muassasalari ishini yaxshilash va ular tarmog‘ini rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror (1968 yil) asosida bunday kutubxonalar ommaviy davlat kutubxonalariga aylantirila boshlandi. O‘zbekistonda kutubxona tarmoqlarini markazlashtirish jarayonida yangi kutubxona shaxobchalarini tashkil etish va mavjud kutubxonalar tarmog‘ini tartibga solish sohasida qator ishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda ommaviy kutubxonalar tarmog‘i ham ortib bordi. 1971-yilda 5820 ta ana shunday kutubxona ishlagan bo‘lsa, 1975-1980-yillar mobaynida kutubxona shaxobchalari yo‘q bo‘lgan aholi punktlarida yangidan 2142 kutubxona ochildi. O‘zbekiston Madaniyat va qishloq xo‘jaligi vazirliklari hay‘atlarining 1976-yil 26-yanvar qaroriga binoan 628 ta kolxoz kutubxonasi markazlashtirilgan kutubxonalar tizimi tarkibiga kiritildi, 213 ta klub qoshidagi 86 ta kasaba uyushmasi tashkilotlariga qarashli kutubxonalar markazlashtirilgan tizimi filiallariga aylantirilgan. 1980-yilda 6836 ta, shulardan qishloq joylarda, 4783 va 5548 ta kutubxona faoliyat olib borgan. Samarqand, Farg‘ona va Buxoroda kutubxonalar uchun zamonaviy tipdagi binolar qurilgan. Nashr etilgan ro‘znomalar to‘qqizinchi besh yillikning o‘zida 32taga ko‘paydi. Ularning 30 tasi o‘zbek tilida chiqdi [12: 64].

1965-yil 11-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Madaniyat vazirining “Toshkent shahar ko‘zi o‘jizlar kutubxonasini respublika markaziy ko‘zi o‘jizlar kutubxonasiga aylantirish haqida”gi buyrug‘iga binoan, 1966-yil 1-yanvardan markaziy kutubxona faoliyat boshladi. 1966-1969-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg‘ona, Xorazm viloyat kutubxonalarida Brayl yozuvida yozilgan adabiyotlar bo‘limlari tashkil etildi [13: 63]. Umuman, respublikada (1972-yil oxirigacha) kutubxona shaxobchalarini tartibga solish jarayonida 2804 ta ommaviy kutubxona ochildi. 200 dan ortiq kutubxona kichik aholi turar joylaridan yiriklariga ko‘chirildi, 500 dan ortiq kutubxona qaytadan tashkil etildi, 69 ta filial barpo qilindi, ko‘chma kutubxonalar miqdori 5552 taga yetkazildi [14: 153].

1990-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha faqat 1960-yil darajasiga erishildiki, bu aholining ancha oshgan ijtimoiy-madaniy ehtiyoj va manfaatlari yetarli darajada qondirilmaganligidan dalolat beradi. Natijada, ijtimoiy-madaniy muassasalarning moddiy ahvoli ham og‘irlashdi, bu esa tabiiy ravishda ijtimoiy-madaniy ish saviyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. 1989-yilga kelib, respublikadagi klub muassasalarining 27,9%, kutubxonalarning esa, 25,9% kapital ta‘mirlashga muhtoj,



klublarning 3% va kutubxonalarining 3,8% avariya holatiga kelib qolgan edi [15: 255]. Sotsiologik tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, XXI asr boshiga kelib sobiq shurolar davlati amal qilgan barcha makonlarda, xususan, O'zbekistonda kutubxonalar soni 15,4% ga qisqargan (masalan, Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida 1990-yili 6746 ta ommaviy kutubxona bo'lgan, 2003-yilda esa bu raqam 5710 tani tashkil etgan). Shuningdek, mazkur salbiy jarayon bir kishiga to'g'ri keladigan kitoblar soni hamda umumiy kitob fondining miqdoriy ko'rsatkichlarida ham kuzatiladi [16: 40]. Davlat va jamoat tashkilotlari madaniy-ma'rifiy faoliyatlarining turlarini yaxlitlashtirgan holda ikki guruhga ajratilib, birinchi, faoliyat vaqti va shaklini shaxsning o'zi tanlaydigan madaniy faoliyatning uy turi bo'lsa, ikkinchisi, klub, kutubxona, muzey, ko'rgazma va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarda amalga oshiriladigan uydan tashqaridagi faoliyat turi hisoblanadi. "Madaniy - ma'rifiy faoliyat", avvalo, madaniy-ma'rifiy muassasa, madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyati hisoblangan.

Mustaqillik yillarida respublikamizda umumiy fondi bir yuz qirq milliondan ortiqroq kitobga ega kutubxonalar zaxirasi bir yarim baravarga yaqin ko'paydi. Mustaqillik yillarida kutubxonalar miqdorining kamayib borganligi ko'zga tashlanadi. Kutubxonashunos olim sotsiologiya fanlari doktori, professor A.Umarovning tadqiqotlariga ko'ra, 1990-yilda Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi kutubxonalar soni 6765 ta kitob fondi miqdori 82997,6 dona, bir kishi uchun kitoblar soni 4 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000-yilda tegishli tarzda 5710, 64026, 2,5ga tushib qolgan. Sho'rolar davrida faoliyat ko'rsatgan kutubxonalar soni keyingi o'n yilda 15,4 foizga qisqardi. Bundan tashqari, kutubxona binolaridan boshqa maqsadlarda foydalanish hodisalari ham ko'zga tashlandi. Birgina Farg'ona viloyatining o'zida shu maqsadda 17 ta kutubxona sotib yuborilgan. Shuningdek, kutubxona qurilishiga ko'ngildagidek e'tibor berilmayotganlik holatlari ham yo'q emas [17: 12,13].

Biz yuqoridagi tahlillarimizga suyanib, kutubxonalar eski ittifoq davrida bo'lsin, Mustaqillikdan keyin bo'lsin, birinchi navbatga xalqimizning man'aviy olamiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy maskan ekanligini alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Hozirgi kunda ham madaniyat va san'at muassasalarida kichik kutubxonalar mavjud. Qiroatxonalar klublar tizimida tashkil etilgan, ammo ular alohida kutubxonalar tizimiga aylanishi siyosiy va iqtisodiy bosqichlar omillarga bog'liq bo'lgan. Qiroatxona va klublardagi haqchilik, ma'rifatparvarlik, badiiy-estetik ijodga undash ularni xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidan barqaror joy olgan maskanlarga aylantirgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqov H., Shamsuddinov R., Ravshanov P. va boshqa. O‘zbekistonning yangi tarixi. -Toshkent: “Sharq”, 2000. 464b.
2. Jo‘rayev M., Nurillin R., Kamolov S. va boshqalar. K2. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.-Toshkent: “Sharq”, 2000. 688 b.
3. Oxunjonov E.Vatan kutubxonachiligi tarixi. - Toshkent, 2008 y.. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 308 b.
4. Qarang: Yuldasheva M. Milliy madaniyat yo‘lining mashaqqatlari. - Toshkent: 2007 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.133b.
5. Jo‘rayev M., Nurillin R., Kamolov S. va boshqalar. K2. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. - Toshkent: “Sharq”, 2000. 688 b.
6. Qarang: Народное образование в УзССР за 15 лет (1924-1934 гг). Т., 1939. 128 b.
7. Nurmuhamedova M. O‘zbekistonda madaniy-ma’ifiy ishlar. “O‘qituvchi” nashriyoti. -Toshkent: 1993.
8. O‘sha yerda
9. O‘sha yerda
10. O‘sha yerda
11. Jo‘rayev M., Nurillin R., Kamolov S. va boshqalar. K2. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.-Toshkent: “Sharq”, 2000. - 688 b.
12. Nurmuhamedova M. O‘zbekistonda madaniy-ma’ifiy ishlar. “O‘qituvchi” nashriyoti. -Toshkent:1993. 68 b.
13. Berdiyeva Z.Sh “Kutubxonashunoslik” 2-nashri. - Toshkent: 2013, “ILM ZIYO”. 400b.
14. Qosimova O, Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik. - Toshkent. O‘qituvchi, 1994. 353b.
15. Qarang: E.Oxunjonov. Vatan kutubxonachiligi tarixi. - Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008 y. 308 b.
16. Umarov A. Mutolaa madaniyati:shaxs, jamiyat, taraqqiyot. - Toshkent, 2004, “Fan”.194 B.
17. F.Ibragimova. “Badiiy madaniyat yangilanishining iqtisodiy omillari”. “Fan” nashriyoti. Toshkent:2007. 52B.

## ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА

Э.Б.Қобилова  
КГПИ

**Анотация:** Самый ответственный период в жизни любого человека - дошкольный возраст. Именно здесь закладываются все базовые понятия и основы для дальнейшего становления личности. Для ребенка важно, чтобы его не только оберегали и поддерживали, но и показывали, куда идти, к чему стремиться. По словам В.А.Сухомлинского, «От того, кто вел ребенка за руку в детские годы, что вошло в его разум и сердце, - от этого в решающей степени зависит, каким человеком станет сегодняшний малыш».

**Ключевые слова:** духовное мировоззрение, фольклор, воспитание

## TO FORM THE SPIRITUAL WORLD VIEW OF THE GROWING GENERATION THROUGH THE FOLKLORE OF THE GENRE

E.B.Kobilova  
KSPI

**Abstract:** The most crucial period in the life of any person is preschool age. It is here that all the basic concepts and foundations for the further development of personality are laid. It is important for a child not only to be protected and supported, but also to be shown where to go, what to strive for. According to V.A.Sukhomlinsky, "The person who led the child by the hand in childhood, what entered his mind and heart, depends crucially on what kind of person today's baby will become."

**Keywords:** spiritual outlook, folklore, education

Духовно-нравственное воспитание - это система специально организованной передачи из поколения в поколение социального опыта и принципов социального формирования человека, которое обеспечивает устойчивое, гармоничное развитие человека, включает в себя воспитание чувства долга, справедливости, ответственности и других качеств.

В настоящее время проблеме духовно-нравственного воспитания уделяется пристальное внимание. Главной целью является воспитание духовно-нравственной личности ребенка, содействие приобретению им нравственного, духовного опыта, основанного на народных традициях, традициях православной культуры.

Приобщение детей к народной культуре является одним из средств формирования у них патриотических чувств и развития духовности.

Средства духовно-нравственного воспитания могут быть самыми разнообразными: это может быть игра, музыка, искусство, труд, православная культура, театр, народные традиции и творчество, устное народное творчество, сказка и другое.

Но наиболее эффективным методом работы с детьми дошкольного возраста, я считаю духовно-нравственное развитие детей посредством устного народного творчества (детского фольклора). Ведь такие произведения бесценны и именно через них дети могут приобрести тот самый необходимый им опыт, осознания себя как личности, способной правильно оценивать жизненные ситуации и принимать верное решение.

Целью нашей работы является: целостное духовно-нравственное воспитание дошкольника посредством его приобщения к ценностям культуры и освоения духовно-нравственных традиций русского народа через устное народное творчество (детский фольклор).

В настоящее время устное народное творчество утратило своё предназначение. Именно оно играет важную роль в духовном обогащении дошкольников, способствует закладке этических и эстетических чувств.

В устном народном творчестве как нигде сохранились особенные черты русского характера, присущие ему нравственные ценности, представление о добре, красоте, правде, храбрости, трудолюбию, верности. Поэтому не случайно, важным моментом в работе с детьми стало широкое знакомство с фольклорным творчеством, одним из самых ярких форм выражения народом глубокого чувства любви и привязанности к родной земле, языку, культуре, к духовной жизни своего народа.

Особое место в фольклоре занимает детский фольклор.

Детский фольклор - небольшие по объёму фольклорные произведения, созданные взрослыми для детей дошкольного и младшего возраста, передаваемые ими из поколения в поколение

Детский фольклор входит в жизнь детей с раннего возраста, сопровождает на протяжении всего дошкольного детства и остаётся с ребёнком на всю жизнь. С детского фольклора начинается его знакомство с миром литературы, с миром человеческих взаимоотношений и со всем окружающим миром в целом. Выделяется в детском фольклоре следующие жанры: «колыбельные, детские песни, дразнилки, считалки, потешки, заклички, скороговорки, игры, рассказы, сказки, загадки, частушки, пословицы и многое другое. Это первые художественные произведения, которые слышит ребенок

Фольклорные произведения являются богатейшим источником духовного и нравственного развития детей, они открывают и объясняют ребёнку жизнь общества и природы, мир человеческих чувств и взаимоотношений, развивают мышление и воображение, обогащают эмоции и даёт прекрасные образцы русского литературного языка.

Свою работу по воспитанию духовно - нравственных чувств у дошкольников через устное народное творчество (детский фольклор) мы ведем три года, начиная с раннего возраста.

При отборе фольклорного материала учитывали возрастные особенности детей. Для детей младшего дошкольного возраста доступными являются "малые фольклорные формы" - потешки, загадки, считалки, короткие сказки. Знакомство детей с народной поэзией начинали с них, они состоят из небольшого ряда строчек незатейливых по содержанию и простых по форме, но содержат в себе стилевые изобилия.

В своей работе включали фольклор во все виды детской деятельности.

Вслушиваясь в напевность, мелодичность, ритмичность и образность народного языка, ребенок не только овладевает речью, но и приобщается к красоте и самобытности русского слова. А чтобы малыши легко запоминали потешки и переносили их в повседневную игру, обыгрывали их с игрушками.

Актуальным было использование нами детского фольклора в пальчиковых играх, это помогало на ранних этапах жизни ребенка приобщить его к народной поэзии, сформировать внутреннюю готовность к восприятию наших истоков - русской народной культуры. Сопровождение потешек и прибауток соответствующими движениями, помогали развивать общую и мелкую моторику, координацию движений, внимание. Мы включали элементы фольклора в комплексы утренней гимнастики, бодрящей гимнастики после

При рассказывании сказки использовали наглядность: иллюстрации, показ, инсценировки. Чтобы у детей не пропадал интерес к сказке, использовали различные виды театра для инсценировки и повторения сказки.

В среднем возрасте, наряду с усложнением "малых форм", большее место уделяли народной сказке, пословицам, поговоркам, закличкам, загадкам .

Образы русских народных сказок - прочно входят в жизнь детей, раскрывают понятия добра и зла, воспитывают добрые чувства, дети начинают понимать, что хорошо, а что плохо. Сказка осуждает такие черты характера, как лень, жадность, скупость, и одобряет смелость, трудолюбие и верность; воспитывают гордость за свой народ, любовь к Родине. Нравственные понятия, ярко представленные в образах героев, закрепляются в реальной жизни и взаимоотношениях с близкими людьми, превращаясь в нравственные эталоны, которыми регулируются желания и поступки детей.

Только народная мудрость просто и доходчиво может показать взаимоотношения матери и детей, обогатить знания дошкольников о материнских чувствах и делах. На основе этих знаний формируется положительное отношение к матери, любовь к ней становится более осмысленной. Отношение к Родине определяется впечатлениями, полученными детьми от общения с природой.

Кроме чтения сказок, пения народных песенок, ставили их на дисках. Музыка, сопровождающая ее персонажей помогала детям вслушаться в музыку, напевность русского языка, познакомиться с национальными традициями.

В соответствии с тематическим планированием подбирали загадки - важный жанр, овладение которым способствует умственному развитию ребенка, воспитывает поэтическое чувство, подготавливает ребенка к восприятию классической литературы .

Все произведения детского фольклора используются как под руководством педагогов и родителей, также и самостоятельно. Дети применяют их в разных видах деятельности: в непрерывной образовательной деятельности, на прогулках, в свободной деятельности, в режимных моментах.

Наша практика показала, что знакомя детей с детским фольклором, они получают прекрасные образцы русского литературного языка, формируется устойчивое отношение к культуре родной страны, создаётся эмоционально-положительная основа для духовно - нравственного воспитания.

Целенаправленное и системное использование произведений детского фольклора является благоприятным средством, которое способствует духовно - нравственному воспитанию дошкольников. Развивая у детей умения эмоционально воспринимать прекрасное, чувство сопереживания героям литературных произведений, мы воспитаем духовно развитые, гармоничные личности, которые любят и уважают свою Родину, традиции, культуру [2, с.]

### **Использованная литература**

1. Аникин В. П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. - М., 2007. - 240с.
2. Бойчук И. А. Ознакомление детей дошкольного возраста с русским народным творчеством. С-П. - «ДЕТСТВО - ПРЕСС», 2018. - 352с.
3. Василенко В. А. Детский фольклор. - М.: Высшая школа, 1978. - 132с.
4. Винникова Г. И. Занятия с детьми 2-3 лет. - М.: ТЦ Сфера, 2010. - 168с.
5. Гудимов В. Л. Тематические загадки для дошкольников. - М.: ТЦ Сфера, 2002. - 64с.
6. Мельников М. Н. Русский детский фольклор: учеб. пособие для студ. пед. ин-тов. - М.: Просвещение, 1987. - 240 с.

7. Об утверждении федерального государственного образовательного стандарта дошкольного образования [Электронный ресурс]: Приказ Минобрнауки России № 1155 от 17.10.2013. Доступ из справ.-прав. Системы «КонсультантПлюс».

8. Павлова Л. Н. Роль фольклора и художественной литературы в ознакомлении детей дошкольного возраста с окружающим миром Фольклор для маленьких. - Статья //Дошкольное воспитание. 1990, № 4.

9. Печерская А. Хрестоматия для детского сада. - М.: Русское слово - учебник, 2015. - 472с.

10. Томилова С. Д. Полная хрестоматия для дошкольников. В 2 кн. Кн. 1. - М.: - Астрель: АСТ, 2011. 702с.

## **YOSHLARNI MA'NAVIY RUHDA TARBIYASHDA BAXSHICHILIK SAN'ATINING O'RNI**

Rahmonov Ulug'bek Karimovich  
Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya:** O'zbek xalqining tarixini o'rganishda dastlab ma'naviy qadriyatlarni xolisona ilmiy taxlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning asosini an'anaviy dostonchilik va baxshichilik san'atining tarixi, xalkning etnik tarixi bilan uzviy holda, an'anaviy dostonchilikning rivojlanishi og'zaki ijodning asrlar davomida shakllanib kelgan chuqur ijtimoiy tafakkur olami bilan chambarchas bog'liqligi alohidadir.

**Kalti so'zlari:** Doston, soqi, sannovchi, jirov, qalandar, darvesh, shaman, folklor, san'at, epos, afsona, asotir, xikoyat, dev, pari, ajdar.

## **THE ROLE OF THE ART OF FORGIVENESS IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE**

Rakhmonov Ulugbek Karimovich  
Fergana State University

**Abstract:** When studying the history of the Uzbek people, it is important to objectively analyze spiritual values, which are based on the history of the traditional art of epic and bakshi, in harmony with the ethnic history of the people, the development of traditional and traditional is closely connected with the deep world of social thought that has developed over the centuries.

**Keywords:** Doston, sagas, sannovchi, fats, qalandar, dervish, shaman, folklore, art, epos, legend, myth, story, giant, fairy, dragon

O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va rang-barang, ayni paytda yangi zamon an'analarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo benazir xalq musiqasi, mumtoz musiqiy meros, milliy bastakorlik, hozirgi zamon bastakorligi, shuningdek, xalq xavaskorligi hamda jo'shqin dostonchilik ya'ni, baxshichilik ijodiyoti kabi shaklan va usluban nixoyatda serjilo jabhalar namoyon bo'ladi. Istiqloq sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan diqqat-e'tibor, unutilayozgan an'analarimiz tari-xan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, isloh etish jarayonlarida ustuvorlik kasb etdi, Shuningdek, qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan madaniy musiqiy aloqalarni o'zaro boyitish yo'lida rivojlantirish sa'iharakatlari ham dolzarb



ahamiyatga ega bo'ldi. Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujjassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadirlidir. Jahon madaniy merosining bu o'lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi. Xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy madaniy meros durdonalarini asrab avaylash, xalq og'zaki ijodining qadimiy an'analari tiklash va milliy qariyatlarni izchil rivojlantirish, baxshi va dostonchilar ijodining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish borasida yurtimizda keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Har bir kishi farzandim mard, halol, o'qimishli, el koriga yaraydigan komil inson bo'lsin, deb niyat qiladi. Komillika etish uchun, avvalo, odamning ruhiyati tetik, ongi va tafakkuri sog'lom, qalbi esa shijoatga limmolim bo'lmog'i darkor. Tetik ruhiyat va shijoatkor qalb sohibining shakllanishida ta'lim tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat bilan birgalikda san'atning ham o'rni beqiyos. Qadimiy san'at turlaridan bo'lmish baxshichilik uzoq o'tmishdai ham qadr topgan.

Baxshi so'zining ma'nosi mo'g'ulcha va buryatcha baxsha, bag'sha ustod, ma'rifatchi, sanskritcha bikshu qalandar, darvesh degan ma'noni beradi deb izohlanadi.<sup>1</sup> O'zbekistonda qo'shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan avlodga etkazuvchi san'atkor. Baxshi so'zi ba'zan shaman ma'nosida ham qo'llanadi, umuman, dostonchilar, doston aytuvchilarni esa yuzboshi, soqi, sannovchi, jirov deb ataydilar. Baxshilar, asosan, ikki toifaga ijrochi va ijodkor baxshilarga bo'linadi. Ijrochi baxshilar, asosan, ustozdan o'rgangan dostonlarni juz'iy o'zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor baxshilar og'zaki epik an'ana asosida yangi dostonlar xam yaratadilar. Bunday baxshilar shoir baxshilar deb xam yuritiladi. Jumladan, Ergash shoir, Fozil shoir, Po'lkan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoirlar misol tariqasida e'tirof etish mumkin.<sup>2</sup> Baxshilar doston va qo'shiqlarni qo'biz, do'mbira, dutor kabi sozlar jurligida kuylaydi. Chunki, baxshichilik so'zi va ohang uyg'unligida yoshlarning mard, jasur va vatanparvar inson bo'lib ulg'ayishida katta o'rin tutgan. Og'zaki ma'lumotlarga ko'ra, sarkardalar urush safarlarida askarlarning shijoati va jasoratini, Vatanga sadoqatini yuqori darajadaga ko'tarish maqsadida o'zlari bilan baxshilarni olib yurgan.

Baxshichilik sa'natiga oid an'anaviy musika madaniyati boy va xilma-xil, u bir necha maxalliy baxshichilik uslubdan tashkil topgan. Baxshichilik musiqa ijodida mehnat, maishiy va marosim qo'shiqlarida "Mayda", "Yor-yor", "Naqsh" "Alla",

<sup>1</sup> I.Akbarov. Musiqa lug'ati.

<sup>2</sup> B.Sobirov. Folklorshunoslik maktablari.

“Boychechak”, “Sadr”, “Marsiya” kabi, lirik qo‘shiqlardan “Muxammas” “Bayt” kabilar qatorida laparlar, bastakorlar ashula va kuylari, xalq va professional sozlardan dutor, gijjak, chang, nay, surnay, qo‘shnay, doira va boshqalar asosiy o‘rin tutadi.<sup>3</sup> “Falak” qo‘shiq turkumlari lirik-falsafiy mazmundagi forscha she‘rlarga yakkaxon xonanda tomonidan soz jo‘rligida aytiladi. O‘zbekistonda baxshichilik maktablari xalqimizning turmush tarzini yuksalishida xalq og‘zaki ijodining ahamiyati katta bo‘lib, asrlar davomida boy ma‘naviy e‘tikodga ega meros to‘planib, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo‘shib kelmokda. Xalq og‘zaki ijodining muhim yo‘nalishi bo‘lgan dostonlar juda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uzok asrlar davomida yaratilib kelingan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoit-larda kuylangan. Ilk dostonlar Yunonistonda paydo bo‘lgan, ularda afso-naviy qaxramonlarning jasorati, xudolarning karomati haqida kuylangan. Gomerning “Iliada”, “Odisseya”, Abulqosim Firdavsiyning “Shoxnoma” Aligeri Dantening “Ilohiy komediya” asarlari doston janrining qadimgi namunalaridir. Dostonlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, qaxramonlik masalan, “Alpomish”, “Farhod va Shirin”, sarguzasht detektiv “Sab‘ai sayyor», ishqiy romantik “To‘xir va Zuxra”, “Layli va Majnun”, jangnoma “Yusuf va Axmad”, “Saddi Iskandariy”, tarixiy-memuar “Shayboniynoma”, “Jizzax qo‘zg‘oloni”, falsafiy “Xayrat ul-abror”, fantastik allegorik “Lison ut-tayr”, didatik “Qutadg‘u bilig” turga bo‘linadi.<sup>4</sup>

Qaxramonlik dostonlarida xalq, jamiyat taqdiri tasvirlansa, ishqiy romantik dostonlarda oshiq ma‘shuqlarning sarguzashti bosh o‘rinda turadi. Tarixiy memuar yoxud tarixiy-biografik dostonlarda biror tarixiy shaxs-lar ramziylashtirilib, bo‘rttirib tasvirlanadi. Umuman, dostonlarda ideallashtirish, mubolag‘ali tasvir ustun bo‘ladi, ularda turli afsonalar, asotirlar, xikoyatlar, dev, pari, xizr, ajdar, ajabtovur otlar, sehrjodu ko‘p ishtirok etadi. Xalq dostonlari baxshi, dostonchi va xalq shoirlari tomonidan dutor, dumbira va boshqa xalk cholg‘u asboblari jo‘rligida ijro etiladi. Folklordagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil kurinishda bo‘lsada, yozma adabiyotdagi doston-lar yozuvchining dunyoni o‘ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o‘z fikr-g‘oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usuli, uslubida farqlanadi. Garchand, Navoiyning aksar dostonlari, jumladan, “Layli va Majnun”, “Sad-di Iskandariy” asarlari asosida folklor mavzui turgan bo‘lsada, shoir ularni o‘z estetik qarashlari va badiiy niyatidan kelib chikib, tubdan qayta yaratgan. Dostonlar mazmunan qaxramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik, maishiy turmush yunalishlarida bo‘lgan. Dostonlarni ijro etishda baxshi shoirlar muhim o‘rin tutgan. Mamlaktimizda doston kuylash an‘anasi qadimda uch yo‘nalishda rivojlangan. Birinchi yo‘nalishi - Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shaxrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek laqay

<sup>3</sup> A.Nurmuhhammadjonov. Bolalar folklor o‘yinlar to‘garaklarning ahamiyati.

<sup>4</sup> B.Sobirov Baxshichilik san‘atining rivojlanishida xalq og‘zaki ijodari va unin o‘ziga xos xusisiatlari.

dostonchilik maktablarida do‘mbira chertib, yakka holda, bo‘g‘iz ovoz bilan ijroetilgan. Ikkinchi yo‘nalish Xorazmda tor, dutor, g‘ijjak, bulamon, qo‘shnay, doira jo‘rligida ba‘zan yakka, ba‘zan juft holda, ochiq ovoz bilan kuylangan. Uchinchi yo‘nalish Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lib, unda dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan.

Dostonchilik Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida, Xorazmda hamda Samarqand viloyatida keng rivojlangan. Bu davrda doston kuylovchi baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo‘lgan. Xalq orasida Yuldosh bulbul, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yuldosh o‘g‘li, Po‘lkan, Islom shoir, Berdi baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi doston kuylovchilar mashhur edi. Favqulodda xotira qudratiga ega bo‘lgan Po‘lkan shoir etmishdan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki uch ming satrdan tortib, o‘n-o‘n besh, xatto yigirma ming misragacha she‘rni o‘z ichiga olganligi xalq baxshilarining katta salohiyatga, kuchli xotiraga, yod olish va esda saqlash qobiliyatiga, ijod qilish qudratiga ega bo‘lganligidan dalolat berar edi. Fozil Yuldosh o‘g‘li otmishta, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ellikta dostonni yoddan ayta olganlar, baxshilarning ba‘zilari faqat doston aytsa, ba‘zilari o‘zlari ham dostonlar to‘qiganlar.<sup>5</sup>

Doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, to‘y hashamlar ham baxshilarsiz o‘tmagan, tinglovchilar baxshini to‘rga o‘tkazib, uni diqqat bilan tinglaganlar. Iqtidorli dostonchilar ikki uch kecha mobaynida doston kuylay olganlar, chunki dostonlarning hajmi ham ikki uch kecha muttasil ijro etishni taqozo etgan. Baxshilardan Shernazar Berdinazar o‘g‘li yetti kecha davomida doston ayta olgan. Dostonchilik kechalariga tashrif buyurgan baxshilar o‘z iqtidorlari, so‘zga chechanligi, soz chalishdagi mahorati bilan o‘zaro bellashganlar. Mintaqada o‘ziga xos an‘analarga ega bo‘lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Ayniqsa Bulung‘ur, Narpay, Qo‘rg‘on, Xorazm, Shaxrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo‘lgan.

Ular repertuarlari, uslubi, ma‘lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko‘ra bir-biridan ajralib turgan. Bulung‘ur dostonchilik maktabi “Alpomish” dostonini kuylash mahorati bilan ajralib turgan, bu erga boshqa baxshilar kelib o‘z mahoratlarini oshirganlar. Uning vakili Amin baxshi “Alpomish” dostonini uch oygacha kuylay olgan. Qashqadaryo vohasidagi Qamay qishlog‘ida shakllangan Qamay dostonchilik markazi Dehqonobod va G‘uzor tumanlari atrofida yashovchi oltmishga yaqin baxshilarni birlashtirgan. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi Mangishtovdan Nurotaga qadar cho‘zilgan tog‘lar etaklarida yashagan baxshilarni birlashtirgan. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi-ning eng iste‘dodli vakillaridan biri Ergash Jumanbulbul o‘g‘li (1868-1937) va Po‘lkan shoir (1874-1941) bo‘lib, ulardan “Alpomish”, “Yakka Axmad”, “Oysuluv”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Yunus pari”, “Miskol pari”, “Avaxxon”, “Xasanxon” kabi dostonlari yozib olingan. Bu

<sup>5</sup> U.Raxmonov. Xalq ijoldiyotining rivojlantirishda miliy udumlarni o‘rnini.

dostonchilik maktabida Ergash Jumanbulbul o'g'lining ota bobolari, Sulton kampir, Tilla kampir, Jodmon baxshi kabi o'nlab dostonchilar faoliyat yuritishgan.

Dostonchilik xalq og'zaki poetik ijodidagi qadimgi epik an'ana. Dastlab qo'shiq shaklidagi, musiqa asbobisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. X-XI asrlarda dostonlarni do'mbira jo'rligida aytiladiganlari yuzaga kelgan. Dostonning bunday namunalari Kaspiy va Orol dengizlari buylaridagi qadimgi ko'chmanchi turkiy kabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago'ylar ko'payib borgan sari ustoz shogirdlik an'analari vujudga kela boshladi. Natijada XV-XVI asrlarga kelib kurgina dostonchilik maktabi paydo buldi. XVII-XVIII asrlar doston taraqqiyotida jiddiy ko'tarilish bosqichi, XIX-XX asrlar esa uning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda baxshilar repertuarida 150 dan ortik xalq dostonlari bo'lib, ularni Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Jossoq, Xonimjon xalfa, Buvi shoira, Suyav baxshi, Amin baxshi, Yuldoshbulbul, Sultonmurod, Kurbonbek, Yuldosh shoir, Suyar shoir, Sherna Yuzboshi kabi mashhur baxshilar kuylab kelganlar. Lekin, hozirgi kunda qo'biz cholg'usi vohada udumdan chiqib ketgan, xuddi shunday holat urma-zarbli asbob dap (daf, ya'ni childirma)ga ham tegishlidir.<sup>6</sup> Dap doiraga o'xshash bo'lib, gardishi (kashnok, asli qasmoq) o'rik yoki yong'ok yog'ochidan yasalgan va echki terisi bilan qoplangan. Gardishi (doira, aylana atrofi) da xalqachalar osilmagan, uning tovushi past va jarangsizroq bo'lib, baxshi xonishiga hamohanglik kasb etgan. Boysunda kasal va bemorlarni davolash maqsadida o'tkaziladigan "jahr" marosimida asosan dap (talaffuzda dapp, ya'ni doira) keng qo'llangan. Xususan, Karomat baxshi, Said baxshilar o'z aytimlarida dapdan istifoda etishib, "jahr" marosimlarini o'tkazib kelishgan.

Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og'zaki ijodi folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qariyatlari va an'-analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarori o'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Dostonlar xalqimizning uzoq o'tmishidan habar beruvchi noyob manbalar hamdir. Yoshlarni ma'naviy ruhda tarbiyalashda va ularni keng o'rganishda, targ'ib qilishda imkon beradi. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida xalq dostonlarini izlab topish va tadqiq etishga e'tibor kuchaydi.

<sup>6</sup> U.Rahmonov. Musiqa folklor to'garakning tashkilashtrishda yoshlarning bo'sh vaqtlarini band etishning o'rmini va ahamiyati.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O‘zbekiston. 2017 yil.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. Toshkent. O‘zbekiston. 2017 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 1 noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori. Xal so‘zi gazetasi. 2018 yil 2 noyabr soni.
4. Akbarov I.A. Uzbekskiy muzikalniy folklor. Toshkent. O‘zdavnashr, 1974 yil.
5. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. Toshkent. O‘zdavnashr, 1959 yil.
6. Alimboev K. O‘zbek xalq qo‘shig‘i. Toshkent. O‘zdavnashr. 1955 yil.
7. A.Navoiy. Uchinchi tom. Xazoyin ul maoniy. Toshkent. Fan. 1988 yil.
8. Dulgarova I. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. Toshkent. O‘zadabiy nashr. 1960 yil.
9. A.Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. Fan. 1993 yil.

## **QORAQALPOG‘ISTONDA TEATR SANATINING SHAKLLANISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (“TONG NURI” TRUPPASINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQISHLARI MISOLIDA)**

Elmira Ataniyazova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qoraqalpog‘istonda teatr san’atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari o‘rganib chiqilgan. Shuningdek, “Tong nuri” truppasi ijodidan boshlangan havaskorlik keyinchalik, Qoraqalpoq davlat teatrini tuzishi va professional tarzda ijodiy ishlarni olib borish yo‘llari haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** havaskorlik, ijod, teatr, rivojlanish, rejissyor, aktyor, truppa, dramaturgiya.

## **FORMATION AND SPECIFIC FEATURES OF THEATER ART IN KARAKALPAKSTAN**

Elmira Ataniyazova

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article examines the stages of formation and development of theatrical art in Karakalpakstan. The hobby, which began with the work of the troupe “Tong nuri”, was followed by discussions on the creation of the Karakalpak State Theater and ways to carry out creative work in a professional manner.

**Keywords:** amateur, creativity, theater, development, director, actor, troupe, dramaturgy.

Qoraqalpog‘istonda madaniy-oqartuv muassasalari, ya’ni teatrlarning dastlabki ildizlari 1920 yillardan boshlab, har hil atama bilan har hil hududiy punktlarda paydo bo‘la boshlagan. Uning tarixi bilan yaqinroq tanishib ko‘rsak, ularga o‘sha davr siyosiy-ijtimoiy nuqtaiy nazaridan nomlar berilib, sovetlik ideologiyani yel orasida targ‘ibot-tashviqot sifatida olib borish vazifalari topshirilgan. Bu madaniy-oqartuv muassasalari o‘sha yillarda: “Qizil o‘y”, “Qizil otov”, “Qizil arava”, “Qizil karvon”, “Qizil mo‘yesh”, “Qizil kater” kabi nomlar bilan atalgan. Ular mahalliy va ko‘chmanchi (gastrol) tarzida faoliyat olib borgan. Mazkur madaniy-oqartuv muassasalarining yonida kichkina ko‘chmanchi kutubxona, agit-krujok, havaskorlar to‘garaklari bo‘lgan. Shuningdek, teatr truppasi kabi atamalar umuman bo‘lmagan.

Qoraqalpoq teatr san'atining birinchi professional rejissyori To'resh Ollonozorovning ma'lumotlariga qaraganda: madaniy-oqartuv muassasalarida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchi mahsus atamalar bo'lgan. Mana shu atamalar "agit-krujok", "havaskorlik to'garagi" da rejissyorlikning vazifalarini bajargan. Ammo, ular "rejissyor" deb nomlanmagan. "Teatr", "teatr truppasi" - degan atama so'zlar, bizning qoraqalpoq yelati orasida, 1920 yilning o'rtalaridan boshlab tarqala boshlagan. Bundan keyingi o'zining milliy an'anasida teatr bo'lmagan. Milliy Respublikalarda, oblastlarda, rus, yevropa namunasiidagi teatrlar shu yillardan boshlab, ochilib o'zlarining milliy tilida faoliyat olib bora boshlaydi. Bu yangi tashabbuslarga xalq juda qiziqib, lol qolib qaraganlar.

Keskin kurashlar davom etayotgan 20-yillari Qoraqalpog'iston avtonom respublikasi madaniyati tarixida ulkan va unutilmas voqea ro'y berdi. Ya'ni qoraqalpoq jamoatchiligi 1920 yillarning ikkinchi yarimidan boshlab, o'zining "Tong nuri" nomli eng birinchi milliy teatr truppasini tashkil qilgan edi. Mazkur "Tong nuri" truppasini eng dastlabki tashkilotchisi teatr azamati, To'rtko'l shahridagi muallimlar tayyorlash texnikumining o'qituvchisi Zarip Fatixovich Qosimov bo'ldi. Keyinchalik bu tashabbusning davomchisi Abdiraman O'tepov bo'ldi. Endi, asosiy masalaga kelganda, mazkur 1926 yili tashkil qilingan "Tong nuri" truppasida, 1930 yilga qadar rejissyor degan mahsus kasb yo'q edi. Sababi, 1976 yildan boshlab To'rtko'l shahrida ofitserlar yig'ilishi klubida paydo bo'lgan. Rus teatr to'garaginda ham 1918 yildan boshlab paydo bo'lgan.

Ammo, bu vazifani yuqorida ta'kidlab o'tkanimiz kabi havaskorlik to'garaklarining rahbarlari, dramaturgalar, yetakchi artistlar ijro etib kelgan. Misol tariqasida shu yillarda Qosim Avezov, Seyfulg'abit Majitov, Abdiraman O'tepov, Asan Begimov, Jolmurza aymurzaevlar rejissyorlik qilishgan. Chuningdek, o'z davrining taniqli aktyori Bayniyaz Seytov ham, taniqli baxshi Aytjan yusupov ham "Tong nuri" teatr truppasida rejissyorlik ishlarini amalga oshirib kelgan.

1930 yillari "Tong nuri" truppasi asosida birinchi Qoraqalpoq davlat teatrini tuzish darajasigacha keltirdi. Mana shu masalada o'zi milliy truppaning ham direktori, ham rejissyori, ham artisti, ham sozandasi, ham qo'shiqchisi, ham dramaturgi bo'lib, nihoyatda katta xizmatlari bilan Abdiraman O'tepovning ijodiy va tashkilotchilik mehnatlari yuqori bo'lgan. Milliy an'ana, milliy urf-odatga moslik va boshqa sahnaviy talab, tartib asnosida tashkil qilinmagan.

Unga e'tibor berilmagan. 1930 yildan boshlab shu kabi teatr turmushida ustuvorlikka ega bo'lgan, sahnaviy qarashlarga nuqta qo'yila boshladi. Buning asosiy sababi, 1930 yili qoraqalpoq teatr tarixida tub burilish yili bo'ldi.

VKP (b) o'ninchi s'ezdi qaroriga binoan eski Sovetlar ittifoqining tarkibidagi barcha milliy respublikalarda milliy teatrlar vujudga kela boshladi. Teatrning shakllanishi va rivojlanishida L.M.Leonidov, V.I.Kachalov, O.I.Pitjova, B.B.Bibikov.

B.A.Bronskaya singari xorij mutaxassislari va Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mannon Uyg'ur, Zuhur Qobulov, Javod Obidov kabi zabardast san'atkorlar munosib hissa qo'shdilar. Ularning sayi-harakati bilan qoraqalpoq teatrida dastlab bir pardali sodda pesalar, kontsert namoyishlari, so'ngra katta hajmdagi dramatik va musiqali drama asarlar sahnalashtirildi.

Shu bilan birga ularga barcha davlat muassasalar qatorida davlat teatri degan unvonlar "statuslar" berila boshladi. Mana shu butut ittifoqlik tarixiy hujjatga muvofiq 1930 yili dekabrda eski "Tong nuri" truppasining asosida qoraqalpoq davlat milliy teatri paydo bo'ladi.

Qoraqalpoq teatrining davlat teatri darajasiga ko'tarilishi uning hammasidan avval professional teatrlar bosqichiga o'tishiga asos soldi. 1930 yildan boshlab qoraqalpoq davlat teatriga boshqa shtatlar bilan bir qatorda rejissyor degan mahsus shtat ham belgilanib, teatrning istiqboldagi barcha ijodiy ishlar taqdiri shu rejissyor deb nomlangan kasbing zimmasiga yuklatila boshlaydi. Sahna madaniyatini belgili bir yo'nalishda tartibga solish, uning kasbiy mahoratini shakllantirish, teatr bilan teatr tomoshabinlarining o'zaro munosabatini tafakkur bilan yaxshilashning yechimi sifatida yangis sayi-harakatlarni ishlab chiqish vazifasi ham rejissyorga tegishli bo'ldi.

O'sha yillari teatr san'atiga o'ziga xos milliy respublikalar teatriga rahbarlar tomonidan e'tibor o'zgacha kuchli bo'ldi. Bu siyosiy vaziyatga qarab, motbuot, radio va barcha jamoat tashkilotlari, umumiy xalq tarafidan, teatr san'atiga alohida yuqori nuqtaiy nazardan qarashlarini yuzaga chiqarishga, jamoatchilikning fikr-mulohozalaridan, to'yg'ularidan o'rin egallay boshlagan edi. Haqiqatan ham teatr san'ati o'sha yillari xalqqa estetik tarbiya berishda xalqning tafakkuriga ta'sir qilib, unga ma'ul darajada yo'nalish berishda, beqiyos tarbiya o'chog'i bo'ldi.

Ayniqsa, milliy respublikalarda alohida qoraqalpog'istonda xalq hali teatr bo'yicha to'liq ma'lumotlarga ega emas edi. Faqat ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitganiga amal qilishdan boshqa televizor kabi qulayli va tushunarli qurollar u paytlari yo'q edi. Jumladan, radio va kinoteatrlar bo'lsa, intelegentlarga bo'lmasa, asosiy mehnatkash xalqdan yiroq ko'rinar edi. Mazkur vaziyatlarni hisobga olgan holda teatr ishga e'tibor kuchaytirilishi bilan birga davlat tomonidan uning ishini nazorat qilish, g'amxo'rlik ham, boshqaruvchi muassasalar tomonidan qattiq ko'lga olingan edi.

Shunday qilib, o'sha davrlarda yuqoridan kelgan "topshiriqlar" bo'yicha tarixida teatr bo'lmagan respublikalar singari bizning milliy davlat teatrimizda yevropa, rus teatrlarining namunasida milliy rivojlanish yo'liga tushdi.

Shunday qilib 1930-1939 yillari qoraqalpoq teatrining davlat teatrlari katoriga qo'shilib, tajriba bosqichiga endi-endi ko'tarilib kelayotgan davri o'lgan. Ammo, yevropa teatrlarining "sahnaviy realizm" deb nomlangan ijodiy ish tajribasiga



ma'lum bir obektiv sabablarga bo'liq, hali to'liq amaliyotga joriy etilmasdan, orqada qolib kelayotgan edi. 1930 yili bu muammoli masala uchunchi turkum rejissyorlarning hissasiga to'g'ri keldi. 1936 yildan boshlab 1940 yillari oralig'ida eski ittifoq tarkibida istiqomat qilgan barcha milliy respublikalar uchun katta sinovli yillar bo'ldi. 1939 yili iyul oyida bir guruh qoraqalpok yoshlari Moskvadagi Lunacharskiy nomidagi davlat teatr institutini bitirib kelgani bo'ldi. Bu esa, qoraqalpoq teatrining tarixidagi ilk mutaxassis kadrlar edi. Shu bilan birga To'rtko'l shahrida 1939 yili tahminan oktyabr oyida moskavdvn mahsus o'quv o'rnini bitirib kelib, qoraqalpoq davlat teatriga qo'shilgan yigirma oltita yosh mutaxassislar bilan qoraqalpoq oblastli partiya komitetining birinchi sekreatri Qalekeevning kabinetida qabul marosimi o'tkazildi. Mazkur qabul marosimiga avtonomik respublikaning barcha raxbarlari bilan bir qator moskvali professor O.I.Pijova, B.B.Bibikov, moskvali rassom Ye.M.Romanovskiylar ham ishtirok etgan edi.

1926 yilda birinchi qoraqalpoq professional teatri tashkil topdi va uning tarix yilnomasi shu yildan boshlanadi. Hozirgi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri 1926-yili 11-aprel kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati tomonidan "Qoraqalpoq milliy truppasini tashkil etish tug'risida"gi qaror qabul qilinib, "Tong nuri" truppasi tashkil qilinadi. Truppaning badiiy rahbari etib To'rtkul shahri pedagogika texnukimi o'qutuvchisi Zarip Qasimov tayinlanadi. Teatr o'zining birinchi pardasini 1926-yil 8-noyabr kuni Qasim Avezovning "Tilak yulida" 4 aktli musiqali dramasi bilan ochadi.

Qoraqalpoq teatrining yilnomasi ush bu sanadan boshlandi. 1927-yili truppaga rahbar etib yosh istedodli yozuvchi Abdirahman Utepov tayinlanadi. Q.Avezov, Z.Qasimov, A.Utepovlar qoraqalpoq teatrining asoschilari hisoblanadi. 1926-yili truppa xodimlari soni 13 ta bo'lsa, 1927-yilga kelib 29 taga yetadi. Ularning ichida Jolmurza Aymurzaev, Seyfulg'abit Majitov, Qaljan Begimova, Bayniyaz Seytov, Qurbangul Bekmuratova, Genjebay Ubaydullaevlar bor edi. Teatrning qaldirg'och aktyorlari va tashkilotchilari san'atni sevuvchi mahalliy yosh ziyolilar edi. Teatr repertuarini asosan mahalliy dramaturglarning asarlari tashkil qilardi.

A.Utepovning "Tengini topgan qiz", S.Majidovning "Yigit bo'ldik", "Ernazar olako'z", Q.Avezovning "Maqsad yo'lida" va boshqa asarlar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari mahalliy yosh shoirlarning she'rlari, sevimli xalq qo'shiqlari, dostonlardan parchalar, Ajiniyoz, Berdaq kabi Qoraqalpoq klassik shoirlarining ijodlaridan namunalar ham teatr repertuaridan keng o'rin olgandi.

Mazkur ijodiy izlanishlar tez orada milliy dramaturgiyaning vujudga kelishiga turtki berdi. H.Davqoraevning "Alpomish", S.Xo'janioyozovning "Sevmaganga suykalma", J.Oymirzaevning "Oygul va Obod", "Berdaq" asarlari fikrimizga misol. Shu bilan birga qardosh halqlar dramaturgiyasining badiiy puxta, sahnabop namunalariga murojaat qilinib, hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, jahon

klassikasidan "Otello" (V.Shekspir) "Tartyuf" "Skapening nayranglari" (Mol'er), "Ikki boyga bir malay" (Karlo Gal'doni) kabi shoh asarlarning sahnalashtirilishi teatr jamoasining ijodiy imkoniyatlari yetarlicha ekanidan darak berib, repertuar salmog'ini oshirdi, mavzu va janrlar xilma-xilligini ta'minladi. Mazkur asarlar T.Ollonozarov, Y.Sharipov, Y.Mamutov, S.Jumaniyozov, Z.Qobulov, J.Obidov kabi rejissyorlar tomonidan sahnaga olib chiqilib, teatr tarixida chuqur iz qoldirdi. Shuningdek, spektakllarda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artistlari O.Shomurotova, R.Seitov, Z.Zaripov, M.Matjonov, A.Sapargaliev, T.Rahmonova, T.Sheroziyeva, S.Qoraboevalar rang-barang xarakterga ega betakror obrazlarni yaratishdi.

To'g'ri, Qoraqalpoq davlat teatrining dastlabki ijod yo'li bir tekisda kechmagan. Professional kadrlarning yetishmasligi, tashkiliy va moliyaviy masalalar, repertuarni shakllantirish qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Lekin teatrning mehnatsevar ijodiy jamoasi bu yulda sabot bilan harakat qilib, mazmunli spektakllar yaratishga intildi. Bu yillar folklor an'anasiga tayangan holda rejissyor M.Griboedov Dariboevning "Kokem botir" "S.Majitovning "Bag'dagul", A.Begimov va T.Ollanazarov "G'arib oshiq", Ozarbayjon bastakori U.Xojibekovning "Arshin mol olon" Komil Yshin va M.Muhamedovning "Gulsara", H.H.Niyoziyning "Maysaraning ishi", Xurshid, T, Sodiqov va R. Glierning "Layli va Majnun", S.Abdulla va T.Jalilovning "Tohir va Zuhra" qozoq dramaturgi S.Muqonovning "Ko'zi Ko'rpeh Bayn suluv", "Qiz jibek" kabi pesalarini olib chiqib, milliy sahna amaliyotiga yangiliklar kiritdi, To'xta Rahmonova, Gulxon Sheroziyeva, Yo'ldosh Mamutov, Reyimboy Seyitov, A.Sapargaliev kabi teatrning yetakchi san'atkorlari mahoratini to'la ochib beruvchi spektakllar qo'yishga muvaffaq bo'ldi.

Keyingi yillarda aktyorlar tarkibi Sh.O'temuratov, Z.Piyzov, A.Juginisov, Sh.Bekmuratov, P.Reyimbaeva Z.Sayipova kabi yoshlar hisobga kengaydi. E'tiborlisi, milliy rejissuraning jonlanishi sezila boshlandi.

Bu bevosita murakkab ijodiy vaziyatlarning mustaqil hal e'tilishi, jahon dramaturgiyasi durdonalarining mazmun-mohiyati, badiiylik darajasini chuqur tushunish, ko'tarilgan hayotiy hamda ijtimoiy masalalarni sahna talablari va ifoda vositalariga mos tilda jonlantirish, go'yaviy tarbiyaviy jihatlarini to'g'ri yoritib berish bilan bog'liq.

Mazkur ishlar ijodiy rejalar qamrovining kengayishi va tetr nufuzining ortishiga imkon berdi. Ayniqsa, 70-yillar avvalida teatr bosh rejissyorligiga Q.Abdurayimovning tayinlanishi yangi ijodiy jarayonlarga yo'l ochdi. Yosh rejissyor dastlabki qadamlardan oq maishiy teatni keskin rad etib, buning o'rniga sof poetik sahna asarlarini yaratishga intildi. Maqsadini to'la amalga oshirish uchun, avvalo, repertuarlarni tubdan yangilaydi, jamoaga iqtidorli, izlanuvchan, yangi goya va rejalar bilan ishlaydigan jonkuyar ijodkorlarni to'playdi. Natijada "Otello",

“Qoraqalpoq qizi”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Gerotratni unut”, “Arava ag‘darilmay turib”, “Aldermushli Almandar” kabi yahlit, tomoshabinlarni fikrlashga undaydiga, zavq-shavq bag‘ishlaydigan, rejissyorlik topilmalariga boyspektaklar vujudga keldi. Sahna asarlari salmog‘ini belgilashda Q.Abdireyimov aktyorlarning potentsial kuchini, sahnaviy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholab, shunga muvofiq ish yuritdi. Mahorat masalalariga ham alohida ahamiyat qaratdi.

Qoraqalpoq teatri mustaqillik davrida qator e‘tiborga molik ishlarni amalga oshirdi, mutahassislar tadqiqotiga arziydi, janr, mavzu va mazmun jihatidan yangilik hisoblangan birinchi milliy opera va baletlarini tomoshabinlarga havola etdi. Hususan, kompozitor H.Muhammadinov, atoqli shoir Ibrayim Yusupov librettosi asosida qoraqalpoq klassik shoiri Ajiniyoz hayotiga bag‘ishlangan shu nomdagi milliy opera hamda baletmeyster T.Qo‘janovning H.Muhammadinov bilan ijodiy hamkorlikda sahnalashtirgan “Oyjamol” baleti teatr faoliyatida tamoman yangi yo‘nalishlarni belgilab berdi. Ayni shu ilk urinishlar birin-ketin tarixiy mavzudagi “To‘maris” (Q.Zaretdinov musiqasi Sh.Yusupov librettosi) operasi, halq dostoni asosidagi “Qirq qiz” (Q.Zaretdinov musiqasi J.Turdimuratov librettosi) baletining yaratilishiga zamin hozirlab, istiqloq yillaridagi muvaffaqiyatli izlanishlar namunasiga aylandi.

1930 yili truppa Qoraqalpoq davlat teatri bo‘lib tashkil qilindi. 1939 yili teatrga K.Stanislavskiy nomi berildi va Qoraqalpoq davlat musiqali drama va komediya teatri deb nomlandi. 1989 yili Qoraqalpoq davlat musiqali teatri statusi berildi. 1991 yildan teatr Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri deb nomlandi. 2017 yili fevral oyida Akademik maqomi berildi. Teatr ko‘p janrli hisoblanadi. Unda opera, balet, musiqali asarlar va drama janrdagi asarlar saxnalashtiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Allanazarov T. Qoraqalpoq teatrida milliy rejissuraning qaliplesivi. 1926-1959-jj. - Nókis: Bilim, 1996. 64 b.
2. Bayandiev T. San‘at masalalari - teatrshunos nigohida. - Toshkent: O‘zDSMI, 2009.
3. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining veb-sayti. Qarang: <https://berdaq-teatr.uz/39-teatr-tarijhi-aida-malumot.html>.
4. Bayandiev T. Qoraqalpoq sahnasidagi odimlar. Jurnal. “Teatr”. 2016/6 son.
5. Qarang: Gaz// O‘zbekiston madaniyati. - Toshkent., 1969 yil, 3 yanvar, (1337)
6. “Teatr” jurnali, -Toshkent., 2000, 2-son, 32-bet

## SCIENTIFIC DESCRIPTION OF UZBEK REWARDS

Sunnatillaev Asatilla Sunnatovich

assunnatillayev92@bk.ru

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** Ceremony folklore and its two parts, seasonal rituals and family rituals, are the main source of the identity of each nation. The seasonal and family ritual folklore of the Uzbek people reflects the worldview of the hardworking people regarding their understanding of the world, the role and function of the individual. This article analyzes the study and classification of Uzbek ritual songs.

**Keywords:** Folklore, ritual folklore, ritual songs, lyrics, classification, description.

### INTRODUCTION

In Uzbek, the song is in a broad sense folk poetry and folklore. The basis of the treasure trove of songs consists of high artistic samples. In folklore, as well as in public, poetry is traditional and poetic. For this reason, traditional songs have an exterior meaning, in addition to the photographic meaning, which relates to the ancient beliefs, rituals, and rituals of the people, which modern singer and listener cannot achieve (1, 10).

Ceremonial songs are one of the oldest and most lively forms of folk music. That is why in the ceremonial songs, the lifestyle, ethnic history, customs, beliefs and beliefs of a particular nation are reflected in its originality. Each ritual has its own pronunciations, melodies and chants, a song and a word component together.

The song is a response to social events in life. The song is thought to be the earliest human art form. It is believed that the first song on earth was the mourning for Adam by the death of his son, Abel. Indeed, from the birth of a human, it is heard and weeping when it dies.

The people sang and sang songs in both sad and joyous times. Among the Uzbek people, the words "Burn singer, loved singer" or "Become a favorite singer, die burner" are used as proverbs.

Paul LaFargh emphasizes the historical significance of the songs, saying: "... these songs, like the flower on the branches of a fruit tree, have a high historical significance.

In the emergence and development of folk songs, he has a mythic-poetic vision. The traditional songs are mythological expression.

The emergence and development of folklore has been and continues to be important in repetitive artistic expressions of mythological images (3,15). But

because life is in constant motion, modern songs are being created to reflect the spirit of the new world and its people. As a result, in recent years, new songs, expressing the dreams and experiences of our people, filled with gratitude for independence, began to be heard. The fact that they are created in the spirit of traditional folk songs is an attractive factor. In traditional folk songs, in addition to the external meanings, the listener also has a deep sense of meaning that relates to the historical and mythological worldview of the people, their primitive notions, rituals, customs and beliefs. In this way, they are slightly different from the songs they are currently creating. But when we look at the songs that are currently being created, we see that they are nourished by elements directly related to the past. There is no doubt that this element serves as the foundation of contemporary songs. After all, it is true that people who have no past will not exist tomorrow.

#### MATERIALS AND METHODS

The song is one of the most common and oldest forms of poetry. Before the creation of writing and the emergence of written literature, there is a song, and poetry in written literature was originally created on this earth. In the lyrical species of folk poetry, the ancient beliefs, customs, rituals and rituals of the people are preserved to a considerable extent as artistic transitions. In fact, no matter what type of folklore, the researcher tries to study the historical roots of the genre, he is certainly exposed to traditional impressions, customs, rituals, and mythological mythology. For this reason, all spheres of the art of the peoples of the world, and in particular the folklore, go back to the same ground (1, 12).

As M. Gorky said, "The beginning of art is in folklore." (4,32)

The term "song" is used in two ways: it is in the broadest sense of the poetry of the people, and in the narrow sense it represents the form and genre of the folk song. The terms "Surud", the Karakalpak "Kosyk", the Azerbaijani "United" and the Uyghur "Koshak" are aesthetic. In the book *Devonu Lugotit Turk* by Mahmud Kashgari there are four:

On the shelf,  
Tergur asked me.  
The wrecker will heal you,  
Otnur is a taboo. (14, 357)

Content:

Spoonful woman,  
A poem from me.  
Your employee,  
Go ahead and pay it

1. Ceremonial folk songs or ritual folklore: Includes seasonal, family-folk and ritual-related songs.

2. Folk songs or non-ceremonial folk songs and songs belonging to this group also include labor songs, lyrical songs, historical songs, and melodies, which appear in four ways depending on genre form, performance and motives, and social aesthetics. (7, 82)

But in O. Madaev's book "Poetical Creativity of the People" we find a different version of this classification. In other words, the teacher considers it appropriate to classify folk songs into the following types.

1. Labor songs
2. Season - ceremonial songs
3. Lyrical Songs
4. Historical Songs. (8, 77)

Songs that are essentially related to the labor process are called labor songs. Labor songs occupy a separate and independent place in the singing repertoire of our nation. The content of the work songs, the genre characteristics determine the types of work and the process of its implementation. Labor songs are played without a specific tone.

Labor is one of the oldest forms of folk poetry. The earliest examples have reached us through Mahmud Kashgari's book *Devonu Luqotit Turk*. The songs of labor formed and developed in direct relation to the labor activity of the primitive man.

According to B.Sarimsakov, the historical development of labor songs took place in three stages:

1. Songs related to farming.
2. Livestock Songs.
3. Crafts related songs. (9, 144)

Seasonal songs are associated with winter, spring, summer, and fall. The ritual is an event or gathering held in the form of religious or traditional ceremonies.

"Songs of Nowruz", "Woman", "Tea momo", "Call of rain". Seasonal rituals such as "Calling the Wind", "Stopping the Wind", family songs such as "Yor-Yor", "Olan", "Kelin Salom" and "Martia" are poems that fully meet the requirements of artistic expression.

Another major type of folk songs is lyrical songs. They are distinguished by their high art, traditionality and popularity. The word lyric comes from the name of a musical instrument known as a lyre, and in ancient Greece, harp has been an integral part of religious ceremonies.

Both forms of lyric fiction are literary forms of oral and written art. However, there are also significant differences between them in common (1, 17).

The main content of lyrical songs, which is a popular genre, is the portrayal of love, the spiritual world and inner experiences of the person. Lyric songs are played

by one or more people. Frequently such songs appear as independent quartets. The most important thing is that the real reality is reflected through the subjective experiences of the individual (the lyric hero) and created only for singing. Different from the epic poem in terms of artistic expression of the emotion born in the heart of a person through the depiction of certain images and subjects.

Historical songs constitute a separate series of Uzbek folk poetry. The songs in this category are very old, with historical and political events and lyrical-epic interpretations of the activities of real persons. That is why they are used in the historical song. Historical songs, which are largely narrative, are recognized in Uzbek folklore as a distinct genre. Their main contents are historical events, facts and interpretations of the activities of real historical figures, which have left a mark on the life of the people.

The scientific classification of ritual songs is a peculiar nature of the genres that exist, and its role in genres. Scholarly researches by M. Alawi are included in the monograph "Uzbek folk songs" published in 1974. This monograph describes the role and significance of songs in various ceremonies of

Uzbek people. In this monograph, M. Alavia categorizes the songs as follows:

1. Song Lyrics (The Four Seasons)
2. Bytes of love.
3. Sets.
4. Labor songs.
5. Seasonal ritual songs.
6. Wedding Ceremony.

Lyric songs refer to a particular type of folk song - oral poetry composed of independent quartets, created by one or more people on the subject of love. The lyrical songs that sing only to sing, reflecting the real story through the experiences of the person, created by love, and sadness, sadness and longing, bitterness and sorrow, the heartache of people.

Mehts Bytes - There is a long tradition of writing some fragments of written and oral poetry, which are in everyone's mind, to write the acceptable bytes on the mosque and madrassah, on the walls of luxurious houses and hotels, on various palaks and suzanni. These examples we have conditionally referred to as love bytes. (10, 100)

Sets - Lyrical, lyrical poems from 10 to 12 lines, 150-200 and sometimes even more, with verses devoted to the description or criticism of individuals and animals, about various events in social life that are about discipline, morality, music and speech. Are referred to as (11,169)

Seasonal ritual songs are seasonal ritual songs. The seasonal ritual will include songs such as "Ramadan", "Barot has come", "Miss Woman", "Safar escaped", "Badik" and "Boychechak".

Songs that are sung during the wedding ceremony are counted as wedding songs. They included songs such as "Uldan", "Lapar", "Bayt Ghazal", "Kelin Salom", "Welcome".

In his monograph on ritual folklore, the Uzbek folklore B.Sarimsakov categorized the folklore of the seasonal ceremonies as follows: 1) Winter folklore (mourning and gossip); 2) Spring ritual folklore (horns, singing, sludge, Navruz holiday, "Sustainer"); 3) Folklore of Summer Ceremonies ("Blessings" and Winds) (12, 8)

The scholar of folklore M.Juraev notes that among the classics of the Uzbek seasonal ritual folklore there is a certain perfection of the following classification, which covers all known genres of Uzbek folklore ritual. M. Pirmatova, a young researcher with a special interest in Uzbek seasonal rituals, summarized the scientific classifications and classifications available in folklore in her dissertation and introduced the following new classifications: , "The Journey Run", "Last Wednesday"; 2) Genres of ritual folklore related to the seasons: "mourning", "clay", "horns" or "first couple", "pot filled", ritual, warm, sumalac cooking ("Ashshadarozi" game) , "Sumalak Beviti," "Sumalak Beetle", "Boychuk Message" or "Boy Scales", "Tulip Say", "Flower Sur", "Red Flower", "Rainbow" Wife, "Wife", "Tea Kazakh" etc., wind chants ("Yaydar") and wind resting ceremonies ("Tea momo", "Yalli momo") , "The king is ornamented 'Moshoba; 3) ceremonial folklore related to the account of the mourning: "the long wedding" (12,9)

In almost all peoples of the world, ritual folklore is divided into two major groups of seasonal ritual folklore and folklore with no seasons, in other words, family folklore. Hence, the Uzbek ritual folklore is divided into two major categories - folklore of the seasonal ceremonies and family folklore. (13,30)

Seasonal rituals are also divided into genres of ritual folklore associated with two seasons, as well as seasonal and labor ritual folklore. (13, 31)

Apparently the ritual songs are also in line with these classifications:

1. Seasonal ritual songs;
2. Family and family ceremonies are classified as songs.

Seasonal rituals are also divided into:

1. Seasonal ritual songs. ("Daddy's Run," "The Wife", "Lola's Sayings", "Tea Momo", "Small", "The Song of the Sowers", "Yas-yusun" and so on).

2. Songs and lyrics of seasonal-labor rituals. ("Clay", "Cocks", "Blessings")

Family songs may include the birth of a child, circumcision and a wedding, a mourning, a mournful occasion, and a song about a mourning ceremony.



Ceremonial folklore and its two parts, seasonal rituals and family rituals, are the cornerstones of every nation's identity. The system and folklore of the Uzbek people reflects the worldview of its understanding of the world, its role and function. All life experiences, knowledge and conclusions of the people are reflected primarily in this seasonal, family system of folklore and folklore.

Doctor of Philology, Professor J. Eshankulov classifies the songs as follows.

The songs are classified according to the role, status, attitude and art of the music: the role of the song, the poetic structure, the music and the attitude towards the dance.

When categorized by performance, songs are subdivided into songs: ceremonial and irregular. In turn, ritual songs are also divided into two: seasonritual and family-ritual songs. (6, 24)

The rituals reflect the most important periods of human life, turning points (birth, maturity, marriage, death) and their relationship to nature, and also carry on a domestic, psychological and aesthetic function. (6, 25)

Researchers have studied the fact that Uzbek ritual folklore is divided into two major groups. We believe that it is necessary to include religious rituals in the classification of ritual songs that do not deny that these two groups are the main members.

1. Seasonal ritual songs;
2. Family songs;
3. Religious ritual statements.

Seasonal rituals, in turn, are divided into 2 large groups:

1. Songs related to the season.
2. Seasonal-labor ritual songs.

Family and family ritual songs also come in 4 large groups:

1. Ritual statements based on the magical power of the word.
2. Childhood cradle rituals and songs.
3. Wedding ceremony songs.
4. Mourning ceremonial songs.

Religious ritual statements can also be divided into two groups:

1. Religious ritual statements.
2. Religious thematic statements.

Folk songs have a strong position in Uzbek folklore, as do other types. The main reason for the song is the deep pain or sudden rise in the mood of the person. The person is silent during adverse times, trying to find a solution to the situation. At such moments, sad music is comforting, and a bit of a heartbeat. In the moments of joy, accompanied by singing and dancing. Such negative and positive circumstances can

give rise to lyrical experiences in the person's heart, which eventually lead to the creation of the song.

### CONCLUSION

In conclusion, the issues of domestic orientation and performance in folk songs are factors that characterize it, and in their classification, first and foremost the emergence, development of each genre, and the state of modern live performance, poetic features, artistic expressions, and mythology. The nature of thinking and the image system need to be considered in integrity.

### References

1. Musakulov A. The Uzbek national lyrics. T.: Science, 2010. 10 pp.
2. Alavia M. Uzbek Folk Songs T., 1959. p.
3. Eremina V.I. Ritual i folklore. - L.: Nauka, 1991. S.B - 3-15.
4. Alavia. M. Uzbek folk songs T., 1959. 32 p.
5. Mahmud Kashghari. Devonu dictionary Turkish. 1st floor. - T.: Science, 1960. 357 pp.
6. Eshankulov J. Problems of Study of Intangible Cultural Heritage and Uzbek Folk Songs // Proceedings of the Republican Scientific - Practical Workshop "Introduction of Intangible Cultural Heritage in Education System". Responsible person: Akhmedova O.M. - Tashkent; Navruz 2015. 23 p.
7. Safarov O. Uzbek folklore. T.; Music, 2010. 82 p.
8. Madaev O, Sobitova T. Poetic folklore. T.; East, 2010. 77 p.
9. Sarymsakov B. Songs / Poetry of Uzbek folklore. - T.: Instructor, 1990. 144 p.
10. Alavia M. Uzbek folk songs. Tashkent. 1974. 100 p.
11. Imamov K, Mirzaev T, Sarymsakov B, Safarov O. Uzbek folklore poetic creativity. T., Instructor. 1990. 169 p.
12. Juraev M. Uzbek seasonal folklore. T: Science, 2008. 8 p.
13. The garlic. B. "Uzbek ritual folklore" T.: Fan Publishing. 1986. p.
14. Mahmud Kashghari. Devonu dictionary dictionary Turkish. 1st floor. - T.: Science, 1960. 357 pp.

## SAN'AT TA'LIMIDA MAKTAB MASALASI

Usmonov Shamsiddin Yo'lchiboyevich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ma'lumki san'at va madaniyat oliygohlari yurtimizning san'at va madaniyat muassasalariga har tomonlama yetuk, qobiliyatli, raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berishda o'ziga xos uslubga ega san'at maktablaridan foydalanadilar. Uzoq yillik izlanishlar orqali o'z isbotini topa olgan san'at maktabi negizida, yosh san'atkorlarni tarbiyalash, kelgusida yetuk mutaxassislar yetishib chiqishida asos bo'ladi. Shu maqsadda san'at oliygohlarining professor va pedagoglari o'z o'quv uslubiy qo'llanmalarini ishlab chiqqan bo'lib, ushbu uslub va qo'llanmalar ma'lum bir san'at maktabiga bo'ysunadi.

**Kalit so'zlar:** san'at, aktyor, berilgan shart-sharoit, sirli agarda, eksperiment, innovatsiya, psixofizik, xatti-harakat, kechinma, qayta gavydalanish, sistema, san'at maktabi, rol, ijro, teatr, pyesa, rejissyor, obraz, talqin.

## SCHOOL ISSUES IN ART EDUCATION

Usmanov Shamsiddin Yulchiboyevich

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** It is known that the universities of arts and culture use art schools with their own style in order to provide the country's arts and culture institutions with fully mature, talented and competitive personnel. On the basis of a school of art that has proven itself through many years of research, the training of young artists will be the basis for the development of future professionals. To this end, professors and educators of art colleges have developed their own textbooks, which are subject to a particular art school.

**Keywords:** art, actor, given conditions, mysterious agar, experiment, innovation, psychophysics, behavior, experience, reincarnation, system, art school, role, performance, theater, play, director, image, interpretation.

*"Iqtidorli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab - quvvatlash, ularning ijodiy kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lishi kerak."* Sh.M.Mirziyoyev

San'at maktablarida azaldan har bir pedagogning o'ziga xos uslubi, o'ziga xos yo'nalishlari bo'lgan. Bu uslublarning har biri turli ko'rinishda namoyon bo'lishidan qat'iy nazar barchasi o'tgan asirning boshlarida K.S.Stanislavskiy tomonidan bir

tizimga solingan aktyorlik maktabi, umuman, san'at maktabi mahoratiga bag'ishlangan tizimdan oziqlanadi.<sup>1</sup>

K.S.Stanislavskiy o'z sistemasi bilan aktyorlik va rejissyorlik san'atida buyuk o'zgarish yasadi. Dunyodagi ko'pgina millat san'atkorlari uning hayotbaxsh nazariyalaridan bahramand bo'lishga intilardi. Stanislavskiy o'z sistemasi bilan teatrdan bachkana teatrni, aktyorlik o'yinidan soxtalikni, yuzakilikni, taqlidchilikni, bachkana qiliq qilishni quvib chiqardi hamda mazmundorlik va hayotiylikni o'rnatishga urindi.

K.S.Stanislavskiy o'zining "Aktyorning o'z ustida ishlashi" kitobida aktyorda tabiiy qobiliyat va undan qanday foydalanish yo'llarini nazariy jihatdan isbotlab berishga harakat qiladi. Kitobda tabiiy – organik hissiyotlar, psixotexnika ahvoli, ruhiyat, tuyg'u hamda "agarda men shart-sharoitga tushib qolsam nima qilgan bo'lar edim?" tarzidagi savolni qo'yish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin degan tavsiya beriladi. Shuningdek maqsad, oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat, bir-biri bilan uzviy bog'liqligi nazariy jihatdan isbotlab berilgan. Mazkur "sistema" bo'yicha aktyor berilgan rol ustidagi ishni o'zining ichki hissiyot va tuyg'ularini, rol talab qiladigan holatga keltira bilishi, ichki tuyg'ularini harakatga keltira bilishi, buning uchun ishni o'zidan boshlashi, ichki imkoniyatlarini ishga sola bilishi lozim bo'ladi.<sup>2</sup>

Aktyorlik san'atini o'qitilish jarayonlarida qo'llaniladigan aniq tizimga yo'naltirilgan, har biri alohida o'rganilib mustahkamlangach, birlashtirilganda beqiyos kuch-qudratga ega his-hayajonlarni junbishga sola oladigan energiya, qudrat, kuch, hosil qila oladigan o'qitish "sistema"si mavjuddir. Bu "sistema" aktyorda "kechinma", "qayta gavdalantirish" qobiliyatini shakllantirish tamoyilidir.

Talaba-aktyorlarda "kechinma" va "qayta gavdalantirish" qobiliyatlarini tarbiyalar ekan, bu tamoyilni aniq biluvchi ustoz nazari, nigohi bilan kuzatuv jarayonida kechadi. Avvalambor erkinlik tug'dirish uchun tana gimnastikalari, musiqa ostida uning ritmiga mos oddiy yurish mashqlaridan boshlanadi. So'ng ularning tasavvurini uyg'otish, qo'zg'otish mashqlar majmuasi, jamoa shaklida va alohida har bir talaba imkoniyati va undagi mavjud kamchiliklar bartaraf etish nazarda tutilgan holda "sistema" bosqichlaridan olib o'tiladi.

Talabalar aktyorlik texnikasi elementlarini o'rganishni davom ettirgan holda sahnada ishlash metodlarini o'rganishga kirishadilar. Agar talabalar birinchi kursda shaxsiy hayotiy mantiq va ularga yaqin bo'lgan shart-sharoitlar doirasida harakat qilishga o'rgangan bo'lsalar, ikkinchi kursda muallif matni bo'yicha, ya'ni dramaturg

<sup>1</sup> M. Abdullayeva – "Rejissura" Toshkent – "Adabiyot uchqunlari" – 2016 (6-bet)

<sup>2</sup> M. Chexov «Aktyor texnikasi» "Jahon adabiyoti" jurnali (J. Mahmud tarjimasini)

tomonidan tuzilgan sharoitda harakatlanuvchi obrazlarning mantiqiy xulq-atvorini o'rganadilar.<sup>3</sup>

Aktyorlik mahoratini o'qitishda aynan birinchi hamda ikkinchi kursni to'g'ri o'qitish juda ham muhim hisoblanadi. Aktyorlik san'atining poydevori hisoblangan ushbu birinchi va ikkinchi kursni yaxshi o'zlashtirgan talaba uchun, keyingi kurslarda adabiy parchalar hamda spektakl sahnalashtirishda bevosita ko'makchi bo'ladi.

Birinchi kursda o'rganilgan xatti-harakatning organik jarayoni murakkab sharoitda o'tadi, bu esa o'quvchidan yuqori texnikani talab etadi. Shuning uchun aktyorlik ustaxonasidagi mashq jarayoni bir tomondan avval olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, ikkinchi tomondan esa aktyorlik texnikasining yangi elementlarini o'zlashtirishga yo'naltirilishi lozim bo'ladi.

Asarda muallif tomonidan taklif etilgan shart-sharoitni va undagi xatti-harakatni o'rganish - ikkinchi o'quv yilining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mualliflik matniga o'tish bu yangi bosqich bo'lib, u so'z harakati texnikasini egallash bilan bog'liqdir.

Ammo shuni ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda ba'zi pedagoglar boshlang'ich maktabni o'qitishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. Buni semestr yakunida topshirilishi ko'zda tutilgan ijodiy ishlarning natijasida guvoh bo'lishimiz mumkin. Imtihon topshirayotgan talaba yoshlarda aktyorlik mahorati shakllanishida kamchiliklarga duch kelmoqdamiz. Talaba yoshlarning o'qishga, o'z kasbini ishtiyoq bilan o'rganishga bo'lgan intilish, eng muhimi xohish va iroda ularda mavjudligini ko'ramiz. Ammo negadir natija salbiy bo'lib chiqmoqda. Buni asosan pedagoglarning imtihonni umumiy sifatiga e'tibor qaratib, oliygoh ichida obro' orttirishga intilishi natijasi deb taxmin qilishimiz mumkin. Chunki umumiy imtihon tomoshabinda juda yaxshi ta'sirotni uyg'otadi va ba'zi kamchiliklar ko'zga tashlanmaydi. Ammo bu kamchiliklar asosiy e'tiborni qaratish kerak bo'lgan omil bo'lib, bular asosan talabaning aktyorlik mahoratini ochib berishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Jumladan ikkinchi kurs birinchi yarim yillik uchun namoyish etilgan imtihonda go'zal dekoratsiyalardan foydalanilganiga guvoh bo'lamiz. Yoki talabalarning grim qilib olganliklarini, teatr kostyumlaridan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Endigina shakllanayotgan talabani bunday go'zal va salobatli kostyum, grim, dekoratsiyalar bilan ko'rsatish mutlaqo xato hisoblanib, biz sahnada talabani umuman ko'ra olmaymiz. Talaba aktyorlarga yetarlicha baho qo'yish u yog'da tursin biz hatto shakllanayotgan aktyorni sahnada topa olmaymiz. Chunki pedagog tomonidan talaba aktyorni kostyum, grim, dekoratsiya bilan berkitib qo'yilganiga guvoh bo'lamiz xolos.

"Ba'zi hollarda talabalarni juda erta, ya'ni birinchi, ikkinchi kursdanoq sahna dekoratsiyalari, grim, butofor buyumlariga moslashishlarini nazarda tutib, ulardan foydalanishga ruxsat etiladi. Biroq bu kabi tajribalar har doim ham o'zini

<sup>3</sup> M. Abdullayeva "Sahna mahorat maktabi" "Chashma print" Toshkent – 2011 (3-4 bet)

oqlayvermaydi. Aktyorga butunlay o'zga qiyofa beruvchi og'ir bo'yoqlar, soxta grim, libos va dekoratsiyalar bo'lajak yosh aktyor ijodini bo'g'ib qo'yishi, uni soxta «teatrlilik»ka o'rgatishi mumkin. Albatta, grim va libos yordamida talaba-aktyorning ma'lum kamchiliklari berkitilishi sir emas. Biroq teatr san'atining asl maqsadi aktyor kamchiliklarini niqob ortiga berkitish emas, balki ayni kamchiliklarni bartaraf etib, sahnada haqiqatni ifoda etish va shu orqali insonlarni ma'naviy poklashdan iborat. To'g'ri, ba'zi hollarda omadli qo'llanilgan libos, grim yaratilajak obraz qiyofasining takomillashishiga ko'mak berishi mumkin. Biroq shunga qaramay, sun'iy bo'yoqlar aktyor ijodining organikligi, his-tuyg'u, ilhomiga salbiy ta'sir etadi. Bundan tashqari, ijodiy mahoratini namoyish etish jarayonidagi bu kabi qo'shimcha dastaklarni shoshma-shosharlik bilan qo'llash yosh aktyorda grim, libos, sahna bezagiga nisbatan noto'g'ri munosabat uyg'onishiga sabab bo'ladi."<sup>4</sup>

Demak bu bosqichda dekoratsiya, grim va teatr liboslaridan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Talaba aktyorlar uchun dekoratsiya sifatida foydalanishi uchun, ijod ustaxonasida mavjud bo'lgan kub va taburetkalardan foydalanish tavsiya etiladi. Libosdan esa mukammal foydalanish shart emas, aksincha ba'zi ifoda vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Grim uchun ayni ushbu bosqichda ehtiyoj sezmasligi lozim. Bularning barchasi yuqorida ta'kidlangani kabi, talabani mahoratini berkitib qo'yishga xizmat qiladi va bo'lajak aktyorlar ongida salbiy ta'sirot uyg'otmoqda. Bu asosan inson tanasi bilan bog'liq omil bo'lib, badanni ishlatish psixologiyasi mavjud, to'n kiydimi "men cholman" deydi, lekin badani ishlaymaydi. Talaba buni ongsiz ravishda o'zi bilmagan holda amalga oshiradi. Chunki uning badani allaqachon libos va grimga moslashib bo'lgan bo'ladi. Shuning uchun hozir talaba aktyorlarni yolg'on aralashtirmasdan, konkret, qanday bo'lsa shunday ko'rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak. Hassani ushlab, soqolni qo'yib chol bo'lmoqchi bo'lgan talabani emas balki o'zidan kelib chiqib, yoshiga mos, talantiga mos xarakter yaratganini ko'rishimiz lozim.

Yana bir muhim jihatlardan biriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, endigina ikkinchi kursni birinchi yarim yilligini tamomlayotgan bo'lajak aktyorlarning ijodiy ishlarida, adabiy parchalarning dialoglaridan, so'zlaridan to'laqonli foydalanayotganini ko'ryapmiz. Bunday etyudlarda ko'proq so'zga urg'u beriladi, xatti-harakatning ahamiyati esa yo'qola boradi. Talabalar bunday etyudlar uchun besamar vaqt ketkazishdan saqlash kerak. E'tibor bering endigina shakllanayotgan aktyor, ushbu avtor tomonidan berilgan dialoglarni to'g'ri ijro eta olyaptimi? Sahna nutqi fanidan endigina to'g'ri nafas olishni o'zlashtirayotgan talabaning nutqi ravon talaffuz etilmoqdami? Yoki talaba o'zi ijro etayotgan rolining so'zlarini mantiqiy to'g'ri ifodasini tushuna olyaptimi? Bu savollarning barchasiga "mahorat" fanini

<sup>4</sup> M. Abdullayeva "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati" "Tafakkur qanoti" Toshkent – 2014 (173-174)

o'qitayotgan pedagog javob berishga majbur. Ammo imtihonni "zo'r" topshirgan pedagog sifatida olqishlanyapti xolos!

"So'z harakati yoki aniqrog'i so'zlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash murakkab san'at. Bu jarayon uzoq yillik o'qish va mashqlar asosida amalga oshiriladi. Uning asoslari teatr maktabida sinchkovlik bilan o'rganiladi. Nutq texnikasi bo'yicha o'qituvchining mashg'ulotlari natijasida so'z bilan harakat uyg'unlashtiriladi."<sup>5</sup> Shunday ekan bu bosqichda dialoglardan keng foydalanish emas aksincha psixofizik xatti-harakat jarayonidan so'zga o'tish jarayonini ko'rishimiz kerak.

Ayni ushbu bosqichda imtihon uchun saralanishi kerak bo'lgan asarlarda ham xatoliklarga duch kelmoqdamiz. Endigina tetapoya bo'layotgan talaba aktyorlar chet-el dramaturglarning klassik asarlariga qo'l urganligini ijodiy ishlarda guvoh bo'ldik. Masalan: V. Shekspirning "Romeo va Julietta" tragediyasiga murojaat qilishgan. Yana qaysi sahnasiga deng? Hatto mana-man degan aktyorlar ham ijro masalasiga kelganda o'ylanib qoladigan, o'z-o'zini o'ldirish sahnasiga murojaat etganlar. Inson butun ruhiyatidan chiqib ketib, o'zini o'ldirish qaroriga kelish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi. Qanday omillar insonni butun ruhiyatidan chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Aktyorlik mahoratini boshlang'ich ta'limini olayotgan bo'lajak aktyor butun ruhiyatidan chiqib keta oladimi? Agar shunday bo'lsa biz talabaning qo'lga diplom berib, teatrga ishga olaylik.

Zamonaviy aktyorlik mahoratini o'qitish tizimi bosqichma-bosqich tarzda, soddadan murakkablikka tomon rivojlanib boradi. Shuning uchun ikkinchi kursning birinchi yarmi, chet-el adabiyotiga murojaat etishga biroz ertalik qiladi. Avval milliy adabiyotga murojaat etish orqali milliy o'zbekona obrazlar yaratishga harakat qilish muhimdir. Agar talaba aktyorlarning emotsional kuchlariga yaqin obrazlar tanlansa maqsadga yanada yaqinroq kelish mumkin.

Yana bir eng achinarli jihatlardan biri bu bo'lajak aktyorlarning plastikasi bo'lib, talaba yoshlarning badanida taranglik kuzatilmoqda. O'zi ijro etayotgan rolining plastikasini o'zlashtirishda kamchiliklar mavjud bo'lib, talabaning xatti-harakatlari ishonarsiz va mantiqsiz kechmoqda. Pedagog tomonidan oldindan chizib berilgan mizanssenadan nariga o'ta olmayaptilar. Talaba aktyorlarda kuzatuvchanlik qobiliyati sezilmayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'ziga topshirilgan obraz qiyofasini yaratishda fikr birinchi navbatda turishini hisobga olsak, biz aynan hozirgi talabalarning fikrlash qobiliyatida kamchiliklar ko'rmoqdamiz. Masalan: chol obrazini gavdalantirayotgan aktyor chopon kiyib, soqol qo'ysa chol bo'lib qolmaydi-ku. Uning xatti-harakatida, so'zlarida, qarashlarida o'zgarish bo'lishi kerak albatta. Yuqorida to'xtalganimiz "Romeo va Julietta" asaridan olingan o'lim sahnasini olsak, aktyor o'z-o'ziga pichoq urishi mutlaqo noto'g'ri va dag'al ko'rinish olgan. Bu ham

<sup>5</sup> M. Abdullayeva "Sahna mahorat maktabi" "Chashma print" Toshkent – 2011(4-bet)

fikrlash, kuzatuvchanlik va obraz plastikasini o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar borligini yaqqol namoyon qilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun san'at maktabi professor o'qituvchilari tomonidan turli o'quv uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan bo'lib, unda aktyorlarni tarbiyalashda bevosita foydalanish mumkin bo'lgan ko'rsatmalar mavjuddir. Jumladan talaba aktyorlarning plastikasi bilan bog'liq muammolarni ya'ni rol ijrosidagi siqqlikni bartaraf etish uchun ko'rsatmalar ham mavjud.

Bulardan biri mushaklar mashqi bo'lib, eng avvalo, aktyorning ichki texnik qonuniyatlari qatoriga kirib, aktyor ilhomi va ongi bilan bog'liq. Biroq pedagog aktyorga mushaklarni nazorat qilish mashqini topshirar ekan, bevosita uning tashqi texnik imkoniyatini ham hisobga olishi zarur. Mushaklar nazorati mashqi birinchi darslardayoq aktyor layoqati, imkoniyatiga qarab boshlanishi kerak. Bu har bir dars, keyinchalik har bir repetitsiyada to aktyorda mushaklar tarangligini yo'qotish va mushaklarni nazorat qilish bo'yicha mashqlarni bajarish odat tusiga aylanguniga qadar davom etishi kerak. Dars jarayonida pedagogdan talabalardagi jismoniy zo'riqish, tana mushaklarining aynan qaysi nuqtasida taranglik, siqqlik yuz berayotganini aniq bilish va uni nazoratga olish, siqqlikni bartaraf etishga ko'maklashish talab etiladi. Chunki mushaklar siqqligidan xalos bo'lish sahna san'atida, aktyorlik ijodida zarurat deb baholanadi.

Talaba aktyorlarning fikrlash masalasiga kelganda yana bir bor ustozlar maslahatiga yuzlanamiz. "Aktyorning fikr va fantaziyasini to'g'ri, kerakli nuqtaga yo'naltirish uchun asarni o'rganib, uning matnidan kelib chiqib, yaratayotgan qahramoni tavsifi (xarakteristikasi)ni to'liq ravishda tashkil etish kerak bo'ladi. Bunday yondashuv aktyorga intuitiv ravishda topilmagan yoki topilsa-da, oxirigacha tushunib yetilmagan rol xarakterini aniqlashga yordam beradi. Obraz tavsifi har qanday holatda ham aktyorning xatti-harakat mantig'ini shakllantirib, tashqi xarakter xususiyatlarini topishga zamin yaratadi."<sup>6</sup>

"Agarda men berilgan shart-sharoitda bo'lib qolsam nima qilgan bo'lar edim?" K. S. Stanislavskiyning ushbu sehrli "agarda"si aktyorni tabiiy, organik, psixofizik xatti-harakat qilishiga undashini yaxshi bilamiz. Ammo shunday talabalarga duch kelmoqdamizki, ular Stanislavskiy ta'limotini chetlab o'tib, "agarda shu yerda musiqa bo'lsa men yaxshi o'ynab beraman", degan fikrda ekanligiga guvohi bo'ldik. Bu ham katta muammolardan biri bo'lib, hozirgi bosqichda etyudlarda musiqalardan keng foydalanish hozircha mumkin emasligini anglatadi. Musiqa qo'yib bersak haqiqatdan ham yaxshi ijro eta olsa ekan, bu boshqa masala bo'lgan bo'lar edi.

Talabaning musiqiy bilimni shakllantirish uchun bir qator mutaxassislik fanlar mavjud bo'lib aynan shu fanlar, shu vaqtgacha o'qitilib kelinmoqda. Ammo ba'zi bir mahorat o'qituvchilarining o'z fanlarini o'qitish o'rniga sahna harakati yoki plastika

<sup>6</sup> M. Abdullayeva "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati" "Tafakkur qanoti" Toshkent – 2014 (167)



fanlarining elementlarini o'rgatishini odat qilib olganligini kuzatishimiz mumkin. Har bir fanning o'ziga xos uslubi, o'qitish bosqichlari, yo'nalishlari mavjudligini inobatga olsak, buni ham noto'g'ri yo'nalish ekanligini anglaymiz. Agar sahna harakati fanining biror elementi yoki mashqida xatoliklarga yo'l qo'yilsa oqibati salbiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shuning uchun har-bir pedagog o'z mutaxassisliklari bo'yicha metod qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Aks holda havaskorlik to'garigidan mutlaqo farq qilmay qoladi.

Yuqorida tahlil etganimiz muammo va kamchiliklarni kelib chiqishining asl sababini o'rganganimizda, talabalar, ustozlari tomonidan "eksperiment" qilib ko'rishganligini ta'kidladilar. Shunda pedagoglar talabalar ustida tajriba amalga oshirishgan bo'lib chiqadimi? Amalda o'z isbotini topgan va shu kungacha o'z mevasini berib kelayotgan san'at maktabining o'qitish "sistemasini" chetlab o'tib, tajriba qilib ko'rmoqchi bo'lganmi? "Eksperiment" lotinchadan tarjima qilinganda tajriba, sinab ko'rish ma'nolarini anglatishini hisobga olsak, demak taxminlarimiz to'g'ri bo'lib chiqmoqda. Ammo talabalar bilan bunday tajribalarni, o'tilishi kerak bo'lgan darslar vaqtida amalga oshirish mutlaqo mumkin emas. Chunki o'tkazilgan tajriba o'zini oqlamasa, behuda o'tkazilgan tajriba natijasida talabaning o'tib ketgan vaqtini ortga qaytarib bo'lmaydi va bu mutlaqo mumkin emas.

Ta'lim jarayonida turli eksperimentlarni va innovatsiyalarni qo'llash juda muhim va samarali bo'lishi mumkin. Ammo mohiyatan noto'g'ri yondashish salbiy oqibatlar keltirib chiqarishiga sabab bo'lishi ham hech gap emas. Eksperiment qilib ko'rish kerak bo'lsa bu yaxshi albatta, ammo talabalarning bo'sh vaqtida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar eksperiment amalga oshmasa yoki o'zini oqlamasa e'tiroz bildirishga hojat qolmaydi. Chunki bu eksperiment talabaning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish uchun amalga oshirilgan hisoblanadi. Bordi-yu eksperiment o'zini oqlasa demak bu jarayonni ta'limga tatbiq etish mumkin bo'ladi. Ana shunda eksperiment o'rinli va o'z vaqtida amalga oshirilgan tajriba bo'lib qoladi. Ba'zilar eksperimentlarni innovatsiya deyishi ham mumkin. Xo'sh san'at ta'limida innovatsiya deganda nimani tushunish kerak? San'atda innovatsiya bu – madaniy ijod bo'lib, shu kunga qadar o'z mohiyatini yo'qotmay yetib kelgan, klassik san'at maktabiga yangicha yondashish hamda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish nazarda tutiladi. Shunday ekan o'zbek aktyorlik san'atini o'qitishda keng qo'llanilayotgan san'at maktabining o'zagini buzib qo'ymasdan, turli tajribalar o'tishda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Demakki har qanday tajribaga ham, yangiliklarga ham mohiyatan to'g'ri yondashish yoshlarni to'g'ri tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aktyorning o'z ustida hamda asar, rol ustida ishlashi kabi bosqichlarni birma-bir yoritish va barcha bosqich, vazifalardan ko'zlangan oliy maqsad aktyorning sahnada erkin ijod qilishiga, yosh talaba-aktyor uchun ham, mahorat o'qituvchisi uchun ham

hal qiluvchi imtihon - sahnaga o'tish jarayoniga qaratiladi. Talabalar ma'lum vaqt davomida egallagan bilim va ko'nikmalarining namunasi sahnada namoyon bo'ladi. Mahorat o'qituvchisi imtihon topshirar ekan, obro' e'tibor uchun yoki olqish olish uchun emas, balki talabalari bilan qanday dars o'tgan bo'lsa shuni namoyish etishi lozim. Agar maktabni to'g'ri o'rgata olgan bo'lsa shuning o'zi uning uchun katta obro' va olqish bo'ladi. Oliy dargohda olqishlarga sazovor bo'lishni istagan pedagog turli ilmiy unvonlarni himoya qilish orqali olsin, shundagina olqishlar haqqoniy va samimiy bo'ladi. O'zi tarbiyalayotgan talabalari kelgusida yetuk mutaxassis bo'lib yetishib chiqsa shuning o'zi pedagog uchun olqishdir.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, aktyorlik san'atini o'qitishda uzoq yillar davomida o'z mohiyatini saqlab kelgan "Sistema"dan foydalanish va o'z uslubini topish foydadan holi bo'lmaydi. Stanislavskiy sistemasining o'z oldiga qo'ygan eng asosiy vazifalaridan biri - aktyorning organik tabiatda beixtiyor ijod qo'zg'atishdir. Talaba aktyorlarda beixtiyor ijodni qo'zg'atish oson ish emas albatta, bunga faqat sistemani bosqichma-bosqich o'rgatish va mashaqqatli mashqlar orqali erishiladi. Shuning uchun ham pedagog bu jarayonda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasligi lozimdir.

Shu o'rinda tajribali ustozlarimizdan biri professor Arsen Ismoilovning tavsiyalarini eslashga harakat qilamiz. Ustoz mashg'ulot o'tar ekan, eng avval yengil qurollardan foydalanishni tavsiya etardi. Chunki yengil quroldan foydalanib sahna jangi sirlarini mukammal egallab olinsa kelgusida murakkab mashqlarni bajarishda qiyinchilik tug'dirmaydi. Yoki O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi professor Munavvara Abdullayevaning tavsiyasiga e'tibor bering, "Ikkinchi kursda chet-el dramaturgiyasiga murojaat qilmang, aksincha milliy adabiyotimizni tanlang va siz eng avval o'zingizga yaqin xarakter yaratishga harakat qiling. Bizni kasbda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yish yaramaydi." Ushbu tavsiyalarga amal qilib, bu maktabni bosqichma-bosqich o'rganib borgan talabalar, bugungi kunda qanday darajalarda ekanligi san'at olamiga ma'lum bo'lib ulgurgan.

Demakki har bir pedagog o'zi tarbiyalayotgan talabaning shakllanishida bevosita javobgarlikni his etishi hamda yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun mas'uldir. Shunday ekan talabalarni tarbiyalashda san'at maktabini mohiyatan to'g'ri anglagan holda ta'lim berishi maqsadga muvofiq hisoblanib, tajribali ustozlarni o'quv uslubiy qo'llanmalari va tavsiyalarini amalda to'g'ri qo'llashi, muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh. M. Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" "O'zbekiston" Toshkent - 2016

2. K. S. Stanislavskiy – “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” (T. Xo‘jayev tarjiması) Toshkent – “Yangi avlod”- 2017
3. M. Abdullayeva “Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati” “Tafakkur qanoti” nashriyoti Toshkent – 2014
4. M. Abdullayeva. “Sahna mahorat maktabi” “Chashma print” nashriyoti Toshkent - 2011
5. M. Abdullayeva. “Rejissura” “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti Toshkent – 2016
6. M. Chexov “Aktyor texnikasi” “Jahon adabiyoti” jurnali (J. Mahmud tarjiması)
7. R. Usmanov “Rejissura” “Fan” Toshkent - 1997
8. J. Mahmud “Aktyorlik mahorati” o‘quv qo‘llanma Toshkent – 2005
9. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
10. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
11. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
12. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san’atining o‘ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
13. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
14. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
15. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
16. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
17. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
18. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).
19. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).

20. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2407-2410.
21. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.
22. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.
23. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
24. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
25. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
26. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
27. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.
28. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).
29. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.
30. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
31. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.
32. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.
33. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).
34. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

35. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.
36. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.
37. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Хаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.
38. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
39. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 37-43.
40. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.
41. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.
42. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.
43. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).
44. Умарова, Х., & Қурбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.
45. Ёулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
46. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.
47. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
48. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
49. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## “AVESTO” DAVRIDA RAQS SAN’ATINING SHAKLLANISHI

Botirov Shonazar Xusainovich  
shbotirov72@gmail.com

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorazm raqslarining ilk shakllanish tarixi va unga ijtimoiy-siyosiy muhitning ta’siri, rivojlanish bosqichlari ilmiy yoritilgan. Shuningdek, maqolada zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da bayon etilgan raqslar haqida atroflicha ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarix, din, zamon, kuy, raqs, marosim, an’ana, o‘yin, asar.

### FORMATION OF THE ART OF DANCE IN THE AVESTO PERIOD

Botirov Shonazar Khusainovich  
shbotirov72@gmail.com

Urgench branch of Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** In this article, the history of the first formation of Khorezm dances and the impact of socio-political environment on it, the stages of development are scientifically illuminated. In addition, the article provides comprehensive information about the dances described in the Bible of Zarathustra religion "Avesto".

**Keywords:** history, religion, time, melody, dance, ritual, tradition, play, masterpiece.

Raqs shunday san’atki, uni biz boshqa san’at turlaridan butkul farqlashimiz va buning o‘zini alohida san’at turi sifatida qarashimiz shart. To‘g‘ri, sintetik san’at hisoblangan teatr va kino san’atida raqs kuzatilishi mumkin, ammo bu sohalarda raqs yetarlicha ochib berilmaydi, aksincha ularni to‘ldirishga xizmat qiladi. Vaholanki, raqs san’atini qanchalik qadimiy tarixga ega ekanligini, jamiyatda tutgan o‘rni, dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari, hamda raqs san’atida aktyorlik mahoratining tutgan o‘rni, merosiy raqslar ijrosi jarayonida ishlatiladigan yuz imo-ishoralari, bu imo-ishoralardan va raqs ijrosi jarayonida aktyorlik mahoratidan unumli foydalanish, ayniqsa, merosiy raqslarimizda kuzatiladigan o‘zbekona ibo, hayoni saqlab qolish dolzarb masaladir. Bundan tashqari raqs faqatgina musiqa ohangiga mos harakatlardan emas, balki, ma’lum bir voqeaviylikka, janrga ega bo‘lgan san’atdir, shuning uchun ham har bir raqsni ijro etish jarayonida aktyorlik mahoratiga jiddiy e’tibor bermog‘imiz shart. Buni tushunish uchun esa raqs haqida nazariy bilimga ham ega bo‘lmoqlik lozimdir.

Har bir millatning ma'naviy qiyofasi, yuzi uning raqs san'atida ham yaqqol namoyon bo'ladi, O'zbek raqs san'ati milliy joziba, or-nomus, hayo, andisha, betakror nafosatga asoslanadi. Liboslar, hatti-harakatning musiqaga uyg'un bo'lishi, kuy mazmunini ochib berish, milliy ruhni saqlagan holda milliy g'ururni yuksaltirish raqqosa zimmasidagi katta mas'uliyatdir. Bunda eng avvalo yurtimizda qadimdan shakllangan an'analar, ustozlar bisotidagi o'gitlar bilan birga raqs san'atining tub ildizlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganmoq zarurdir. Xususan, qadimiylikda ulug'vor sanalagan xorazm raqs san'ati shular jumlasidandir.

Xorazm raqslari va kuylarining eng qadimiyligini tasdiqlash uchun qadimiy Xorazmning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylik dini va uning marosimlari bilan bog'laydilar - deb yozadi Iso Jabborov "Buyuk xorazmshohlar davlati" kitobida<sup>1</sup>.

Xorazm yer yuzidagi eng qadimiy davlatlardan biridir. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda payg'ambar Zardusht tomonidan yozilgan "Avesto" kitobi ushbu sarzaminda yaratilgan.

Tarixan o'ta qadimiy davlatlardan biri bo'lgan Xorazmda ibtidoiy tuzum odamlari yashaganligi to'g'risida ma'lumotlar S. P. Tolstovning Xorazmda olib borgan arxeologik ekspeditsiyalari natijalariga bag'ishlangan "Qadim Xorazm", "Qadim Xorazm sivilizatsiyasini izlab" kabi va boshqa qator tarixiy manbaalarda yetarlicha ma'lumotlar berilgan.

Raqs san'ati bu zaminda ibtidoiy tuzumda, hali odamlarda zakovat va til u darajada shakillanmagan va rivojlanmagan davirdayoq patomima ko'rinishida paydo bo'lgan. Albatta bu raqslarni xorazmcha raqs edi deb ayta olmaymiz, lekin xorazmcha raqslarning ildizi shu yerdan boshlangan degan xulosani aytishimiz mumkin.

L.Avdeyeva ibtidoiy davrdagi ovchilik bilan bog'liq raqslarning vujudga kelishiga to'xtalib: "Muvaffaqiyatli ovdan keyin odamlar gulxan atrofida to'planishib bir - birlariga ov haqida so'zlashar, so'z yetishmay qolganda esa kun davomida esida saqlanib qolgan narsalarni, voqea hodisalarni yengil tana harakatlari bilan ko'rsatishar edi. Bular ilk raqslar edi"<sup>2</sup> - degan fikri ham bu so'zimizni tasdiqlaydi.

Darhaqiqat patomimik harakatlar ibtidoiy tuzumda paydo bo'lgan bo'lsa - da hozirgi kunda ham pantomimik harakatlardan iborat raqslar mavjud. Oddiygina bir misol; Xorazm xalq raqslaridan "Cho'girma" raqsini olaylik. "Cho'girma" raqsi kasb - hunarga taqlid qilib yaratilgan raqs bo'lib ushbu raqsda cho'girma tikayotgan cholning ip yigirish, ignaga ip o'tkazish, "Nosvoy otish", cho'girmani tikish va raqsda "o'g'ri"larning orasida bo'lib o'tadigan dialoglarining barchasi pantomimik harakatlardan iborat. Demak ibtidoiy tuzumdan me'ros qolgan ushbu pantomimik

<sup>1</sup> Буюк хоразмшохлар давлати. И. Жаббаров. Тошкент 1999

<sup>2</sup> Ўзбек рақси санъати тарихидан. Л. Авдеева. Тошкент 2001.

harakatlar hozirgi kun professional raqs san'atida ham keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda.

Xorazm tarixini o'rganish jarayonida olimlar, boshqa xalqlarga nisbatan xorazmliklar turmush tarzida, urf - odat, udum va marosim, to'y va ma'raka hamda bayramlarida qadimiylk ko'proq saqlanib qolganligini ta'kidlashadi. Ko'p ming yillik tarixga ega an'analar qatorida shunday bir raqslarimiz borki ularda ham ilk paydo bo'lgan davrdagi raqsning negizi, mazmun va moxiyati saqlanib qolgan.

Albatta ibtidoiy tuzumda paydo bo'lgan raqs san'ati "Avesto" davriga kelib ancha taraqqiy topadi, yaxshigina shakillanadi. Endi til va ong to'liq shakillangan bu davrda hamma narsa, odamlarning turmush tarzi ham o'ziga yaarasha rivojlangan edi. Qolaversa bu davrda ilk davlatchilik paydo bo'lib boshlagandi. Bu davrda madaniyat ham san'at ham insonlar turmush tarzidagi ijtimoiy - madaniy, diniy o'zgarishlar zamirida rivojlanib bordi.

T. Qilichev ("Xorazm xalq teatri" G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1988 y) - rivojlanishda Baqtriyadan oldinda bo'lgan Xorazm ibtidoiy jamoa davrida ibtidoiy teatr kurtaklari paydo bo'lgan bo'lsa, eramizdan avvalgi IV - III asrlarga kelib shakillanish davriga qadam qo'yadi, eramizning III - IV asrlariga kelib maxsus tomosha ko'rsatish zallariga ega bo'ladi - deb yozadi.

S.P.Tolstovning ekspeditsiyasi davrida tuproqql'adan topilgan maskalar zali (S.P.Tolstov ushbu zalni "Zal tansuyushix masok" deb nomlaydi) va u yerdan eramizdan avvalgi IV - III asr va eramizning III - IV asriga oid maskalarning topilishi ham Xorazmda raqs san'ati ayniqsa masxarabozlar raqs san'atining qanchalik qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, xorazm masxarabozlari tomonidan ijro qilib kelingan "Xo'bbimboy", "O't o'yini" va boshqa bir qator raqslar borki bular "Avesto" davrida, "Avesto"dagi voqealar va afsonalar asosida paydo bo'lgan va shakillangan.

Xo'bbimboy "Aveto"da tarixiy shaxs va ma'bud - xudo sifatida ta'riflanadi. U suv ostida yashovchi suv toshqinini keltirib chiqaruvchi "arallar"ga boshchilik qiladi. Ta'rif bo'yicha Xo'bbimboy xushsurat, chaqqon, uchqur ot minib yuruvchi jangovar mard yigit sifatida namoyon bo'ladi. Xalq shundan kelib chiqib Xo'bbimboyga bag'ishlab qo'shiq va raqslar yaratgan. Shu qo'shiq va raqs bugungacha masxarabozlar tomonidan ijro qilinib kelinadi.

Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida bayon etishicha, Xorazm xududida yashovchi xalqlar otashparastlik marosim bayramlarida kechasi gulxan yoqib, uning atrofida aylanib tong otguncha raqs tushib, qo'shiq aytishgan. X. Vamberi og'ziga issiq temirni qistirib qo'lida olov bilan raqs tushgan erkaklar haqida, Xorazmlik tarixnavis, adabiyotshunos olim, dramaturg Ayyomiy "Kokilli qalandarlar" uyushmasining diniy marosimlarda o'rtaga olov



yoqib qo'lida cho'g' bilan jazavaga tushib raqs tushganligi to'g'risidagi ma'lumotlar xorazmda ijro qilinadigan "O't o'yini" ham "Avesto"dan bizgacha yetib kelgan qadimiy raqslardan ekanligidan darak beradi.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Doston ijrochiligi" kafedراسи Professoři v,b. San'atshunoslik fanlari nomzodi. Ardaxan (Turkiya) universiteti go'zal san'atlar Fakulteti doktori, professor B. Matyaqubov - Ollabergan Hoji sulolasidan Rahim va Karim Ollaberganovlar el yurt ichida ancha taniqli raqqoslar bo'lib, ayniqsa Rahim qayroq juda chaqqon, mag'aldaqchi-ekvillibrüst, xalq ta'biri bilan aytganda "Og'zidan o't sohib o'ynovchi" raqqos bo'lgan - deb yozadi "Doston nomalarining raqs bop usullari" maqolasida.<sup>3</sup>

"Avesto" - Ma'naviyatimiz sarchashmasi" kitobida berilgan ma'lumotlar biz uchun yanayam qadirliroqdir. "Yasna" matnlarini diqqat bilan mutolaa qilsak deb yozadi mualliflar - Navro'z bayrami xar yili Xorazmda yangi yil bayrami sifatida o'tkazilgani, yomonlik xudosi Axriman bilan yaxshilik xudosi Axura - Mazda o'rtasida kurash raqsi o'ynalganligi va o'yin yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasi bilan nixoyalanganligi bizga ma'lum bo'ladi. Raqqoslar davra tuzib, ins - jinslarni "jaxuv", "jaxuv" deb haydaganlar. "Kisht - kisht" deb yomonlikni surib quvganlar. Yomonlik yaxshilikdan zarba yeganda "ox, ox, vox, vox" deb qichqira boshlagan. O'yin oxirida yaxshilikni zafarga undab, davra ishtirokchilari baland ovozda "ova, ovva" ya'ni "uraver - uraver" deya baralla qichqirishgan. Raqqoslar xoldan toyguncha raqsga tushganlar va yengil tortib, ruxan poklanganlar.<sup>4</sup>

Xozirgi xorazmliklarda hali hanuzgacha bemorga isiriq tutatib "Kisht ho kisht, qayerdan kirgan bo'lsang o'sha yerdan chiq" - kabiy aytimlar bilan bemor tanasiga kirgan insu jinslarni quvish odati bor.

Xorazm raqslari XX asrning oxirigacha ustoz - shogird an'anasi asosida avloddan avlodga o'tib, sayqal topib shakillanib, rivojlanib kelgan. Ming afsuskiy "O't o'yini", "Ho'bbimboy" va shunga o'xshagan uch ming yillik tarixga ega qator masxaraboz raqslari bugungi kunda ijro qilinmay yo'qolib ketyabdi. Lekin san'atsevar xalqimiz va fidoiy ustozlarimizning sayi harakatlari tufaylidan uch ming yildan keyin ham saqlanib gullab yashnayotgan raqslarimiz bor. Ayniqsa "Lazgi", "Gusfand", "Orazibon", "Ushlini uforisi", "Norim - norim", "Galalaylim" va boshqa qator raqslarimiz borki har bittasi xorazmning bitta shox asariga aylanib mangulikka yuz tutgan asarlar deb ayta olaman.

<sup>3</sup> "Марказий осиё халқларининг маданий ҳамкорлик истиқболлари". I Халқаро илмий-амалий конференцияси материалларидан. Тошкент 2020.

<sup>4</sup> «Авесто маънавиятимиз сарчашмаси» Ҳ. Бобоев, С. Ҳасанов Тошкент - Адолат 2001.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Буюк хоразмшоҳлар давлати. И. Жаббаров. Тошкент 1999
2. Ўзбек рақси санъати тарихидан. Л. Авдеева. Тошкент 2001.
3. “Марказий осиё халқларининг маданий ҳамкорлик истиқболлари”. I Халқаро илмий-амалий конференцияси материалларидан. Тошкент 2020.
4. «Авесто маънавиятимиз сарчашмаси» Ҳ. Бобоев, С. Ҳасанов Тошкент - Адолат 2001.
5. Хоразм халқ театри. Т. Қиличев

## **ESTRADA VA BOLALAR QO'SHIQLARI IJROCHISI, BASTAKOR SH.RAMAZONOV**

Toshmatov Davlatjon  
O'zDSMI FMF

**Annotatsiya:** O'zbekiston xalq artisti, kompozitor Sharif Abdullayevich Ramazonov XX asr ko'p ovozli o'zbek musiqa san'atining tamal toshini qo'ygan kompozitorlar: K.Abdullayev, V.Uspenskiy, N.Mironov, M.Ashrafiy, M.Burhonov T.Sodiqov, M.Leviyev, S.Yudakovlarning safdoshidir. U ijodkorlik, rahbarlik va jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi.

**Kalit so'zlar:** «Asl farzand», «G'unchalar», «Quyoshli O'zbekiston», «Xorazmcha» «Mard paxtakorlar»

## **SINGER OF POP AND CHILDREN'S SONGS, COMPOSER SH.RAMAZONOV**

Toshmatov Davlatjon  
FRB UzSIAC

**Abstract:** People's Artist of Uzbekistan, composer Sharif Abdullayevich Ramazonov Composers who laid the foundation stone of Uzbek polyphonic music of the XX century: K.Abdullayev, V.Uspenskiy, N.Mironov, M.Ashrafiy, M. Burhanov is a comrade of T. Sodikov, M. Leviev, S. Yudakov. He has left a bright mark on the history of modern Uzbek music with his creativity, leadership and public activities.

**Keywords:** "Original child", "Gunchalar", "Sunny Uzbekistan", "Khorezm", "Brave cotton growers"

Ramazonov Sharif Abdullayevich 1910 yili 16 iyunda Xorazm viloyati Xiva tumani Gandimyon qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topdi. Ota - onasidan juda erta yetim qolgan Sharif xolasinikida va begonalarning xonadonlarida kun kechirdi. 1920 yilda Xorazm xalq respublikasi rahbariyati davlat bolalar uyini tashkil etib, ularni o'qitdi, tarbiya hamda musiqadan birinchi saboq berdi. 1923 yil Xivada bolalar musiqa maktabi ochilishi bilan Sharif birinchilardan bo'lib skripka sinfiga kirdi, so'ngra o'qishini Toshkent musiqa texnikumida davom ettirdi. 1928 yili Samarqandda O'zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topishi munosabati bilan mazkur institutga ko'chirma qilindi. Bu o'quv dargohida u T.Sodiqov, M.Ashrafiy, M.Burhonov, Sh.Sohibov, M.Leviyev, O.Halimov, M.Nasimov, N.Hasanov, F.Shamsuddinov, D.Zokirov, F.Shahobov, P.Rahimovlar

bilan o'zbek musiqa merosining bilimdonlari: Ota Jalol Nosirov, Hoji Abdurahmon Umarov, Domla Halim Ibodov, M. Xarratov, Ahmadjon Umurzoqov, Abduqodir Ismoilov kabi ustozlardan hamda Yevropa musiqa nazariyasi va tarixidan saboq oldi. Shu institutda u musiqa bastalashga ham ilk qadam qo'yib, bir necha kuy va qo'shiqlar yaratdi. Jumladan, N.Mironov rahbarligida M.Ashrafiy, T.Sodiqov va Sh.Ramazonovlar birgalikda «Sadrash» nomli simfonik orkestr uchun marsh yozdilar. O'zbek xalq qo'shiq va kuylarini notaga yozib olib, «Farg'ona, Buxoro va Xiva qo'shiqlari» nomli to'plamni 1931 yilda nashrdan chiqardilar.

Sh.Ramazonov o'qishni bitirgandan so'ng 1933-1941 yillarda Toshkent davlat musiqa teatri dirijori, Urganch musiqali drama teatri badiiy rahbari va bosh dirijori, Xorazm viloyat san'at bosh boshqarmasining boshlig'i lavozimlarida ishladi. 1936 yilda Urganch musiqali drama teatrida uning «Xolisxon» (Hamzaning shu nomli dramasi asosida M. Majidiy tomonidan tayyorlangan), 1940 yil «Varka» (M. Majidiy pyesasi), 1940 yil «Shoxsanam» (S.Abdulla pyesasi) musiqali dramalari sahna yuzini ko'rdi. Shu yillarda u bir talay qo'shiqlar ham yaratdi. 1942 yili Sh.Ramazonov harbiy xizmatga chaqiriladi va front janglarida qatnashdi. So'ngra o'zi tashkil etgan damli cholg'ular orkestri bilan urush tugaguncha diviziya qaramog'ida xizmatda bo'ldi va 1946 yili armiya safidan zahiraga o'tkazilib, vataniga qaytadi.

Sh.Ramazonov 1946-1955 yillarda Namangan viloyati Navoiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri dirijori, keyinchalik direktor, ayni paytda, Namangan musiqa bilim yurti va musiqa maktabi direktori, 1948- yildan esa Namangan viloyati madaniyat va san'at bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 1955 yili Toshkentga ko'chib kelgan Sh.Ramazonov O'zbek davlat estradasi konsert tashkilotiga badiiy rahbar etib tayinlandi. 1958 yilda O'zbekiston estrada - jaz orkestri tashkil etildi.

Sh.Ramazonovning o'zi ham estrada qo'shiqlari yaratadi va tez orada bu jamoa respublikamizda mashhur bo'ldi. Sh. Ramazonovning otalarcha g'amxo'rliги tufayli mazkur jamoaga sevimli estrada xonandalaridan Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Elmira O'razboyeva, Staxan Rahimov, Bahrom Mavlonov, Yunus To'rahyevlar dadil ijodiy qadamlarini qo'ygan edilar.

Sh.Ramazonov 1962 yilda T.Sodiqov nomidagi 1-son bolalar musiqa maktabiga direktor lavozimiga tayinlandi. Mazkur maktabda uzoq yillar davomida yosh san'atkorlarni tarbiyalash bilan mashg'ul bo'ldi. 1990 yili nafaqaga chiqdi.

Sh.Ramazonov mas'ul lavozimlarda mehnat qilishi bilan birga ijodga ham vaqt topib, Namangan teatrida sahna yuzini ko'rgan «Asl farzand» (A.Mirtemir p'esasi, 1947 y.), «G'unchalar» (Z.Fatxulin p'esasi, 1947 y.) musiqali dramalar, simfonik orkestr uchun «Quyoshli O'zbekiston» (1948 y.), «Xorazmcha» (1951 y.) syuitalari, «Mard paxtakorlar» (A.Po'lat so'zi, 1953 y.) kantatasi; simfonik orkestr uchun syuita №3 (1955 y.), O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun «Mirzacho'l» uvertyurasi

(1956 y.), kompozitor A.Malaxov bilan hamkorlikda «Plyus bir» kinofilmiga musiqa (O.Yoqubov ssenariysi, 1967 y.) kabi yirik asarlar yaratdi. Shuni alohida aytish lozimki, Sh.Ramazonovning ijodida qo‘shiq janri muhim o‘rin egallaydi. Uning ovoz uchun, xor va bolalar uchun, ayniqsa, estrada qo‘shiqlari uchun yozgan kuylari alohida qimmatga ega.

Jumladan «Ozod diyorum», «Tinchlik uchun», «Go‘zal Farg‘ona» (A.Bobojonov so‘zlari), «Raqqos», «Oltin ter», «Toshkent gulshani» (O.Kamtar so‘zlari), «Yayrayman» (M.Rahmonov so‘zi), «Bir o‘zimga havola» (T.To‘la so‘zi), xor uchun: «O‘zbekiston» (A.Isroilov so‘zi), «Andijonim» (X.Xo‘jaev so‘zi), «Terimchi qizlar taronasi» (A.Po‘lat so‘zi), «Qutlayman» (E.Vohidov so‘zi), xor va raqsga mo‘ljallab «Raqsga tushing, dugonalar» (B.Isroilov so‘zi), xor, solist va o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun «Muborak ellik bahor» (O.Kamtar so‘zi), «Namanganning olmasi» (Xalq kuyi) va «Ey mehribonim» (Ogahiy so‘zi) kabi qayta ishlangan o‘zbek xalq qo‘shiqlari Luiza Zokirova ijrosida, «Intizorman», «Dilrabo», «Shahlo ko‘zim» (O.Kamtar so‘zlari); «Gulchi qiz» (M.Qoriev so‘zi), «G‘azalxon», «Bog‘ yerda barno qiz», «Yigitlar» (T.To‘la so‘zi), «Sevdim dildan» (A.Isroilov so‘zi), «Sir o‘zingga havola» (A.Po‘lat so‘zi), «Ra‘no qiz» (B. Nasriddinov so‘zi), «Do‘stlik vatani» (D.Polinin so‘zi) kabi qo‘shiqlar Ra‘no Sharipova, Staxan Rahimov, Bahrom Mavlonov, Yunus To‘rayev, T.Sharipov, E.O‘razboyeva, E.Qandov va M.Shamayevalarning ijrolarida mashhur bo‘lib ketdi. O‘zbekiston radiosining G‘.Toshmatov nomidagi Dutorchilar ansambli uchun: «Yayrayman» (M. Rahmonov so‘zi), «To‘quvchi qiz qo‘shig‘i», «Yor yaxshi» va «Mirzacho‘l yo‘lida» (A.Po‘lat so‘zlari) kabi qo‘shiqlarni yaratgan. Shuningdek, «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi uchun qator quvnoq, jozibali, «Paxtaoy» bolalar estrada ansambli uchun «A‘lochi» (X.Muhammadali so‘zi), «Bugun bayram» (B.Isroilov so‘zi), «Ko‘zichog‘im», «Bo‘shashmayman», «Jibilajibon» (P.Mo‘min so‘zlari) va boshqa qo‘shiqlari ular ijrosida keng ommaga tanildi.

Sh. Ramazonov 1952 yilda «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi», 1970 yilda «O‘zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlari, jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki Sharif Ramazonov serqirra ijodkor sifatda o‘zidan katta maktab qoldirdi ba bu maktab kelgusi avlod uchun ko‘p yillar xizmat qilgusidir

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharif\\_Ramazonov](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharif_Ramazonov)
2. Ўзбекистон бастакорлар ижоди фанидан маърузалар матни. Урганч давлат университети Санъат факултети “Муסיкий таълим” кафедраси. Урганч-2010

## MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Sharipova Odinaxon Shavkatjon qizi  
Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda musiqa ta'limi, taraqqiyoti va tadqiqotlari yuzasidan qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan. Bundan tashqari uning yaqin o'tmishi va bugungi ahvoli haqidagi ayrim fikrlar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, an'ana, san'at, konservatoriya, shashmaqom.

## THE ROLE OF MAKOM ART IN YOUTH EDUCATION

Sharipova Odinahon Shavkatjon qizi  
Fergana State University

**Abstract:** This article provides valuable information on music education, development and research in Uzbekistan. It also provides some insights into its recent past and present.

**Keywords:** pedagogy, tradition, art, conservatory, shashmaqom.

Istiqlol yillarida milliy ma'naviy merosga bo'lgan yuksak e'tibor natijasi o'laroq yurtimizda mazkur jabhada salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, asriy qadriyatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizning o'rganish masalalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbek xalq og'zaki an'anasidagi kasbiy san'at asarlarining xalq e'zoziga tushishi, maqom ashulalarining, katta ashulalarining va maqom yo'llaridagi mumtoz asarlarining ijrochilik taomilidan munosib o'rin egallashi bu jarayonga o'zgacha salohiyat baxsh etdi.

Bugungi kunda ularni tadqiq etish, pedagogik ta'lim tizimida ularning o'rganilishini o'tmish va bugungi kun misolida tahlil qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shunnigdek, har qanday san'at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so'nggi yuz yillik mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish va uni tadqiq etish ustivor ahamiyat kasb etib bormoqda.

Ma'lumki maqom ta'limotini o'rganish mazkur muhtasham san'at paydo bo'lishidan boshlab vujudga kelgan. Qolaversa maqom san'atini o'rgatilishi, ta'lim shakllari uzoq o'tmishdan shakllanib bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda.

An'anaviy qo'shiq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda bu muqaddas san'atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos

Abdulg'ani, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir.<sup>1</sup>

Aytish joizki, 1920 yillardan boshlab o'zbek musiqa ijodiyotini o'rganish va uni yozib olish alohida o'rinni egalladi. 1919 yilda Turkiston respublikasida badiiy-etnografik komissiya tuzildi va bu komissiya hayatida V.A.Uspenskiy, G'ulom Zafariy, E.Melngaylis, N.Mironovlar kirdilar. Komissiya o'ziga maqsad qilib birinchi o'rinda «Shashmaqom»-ni va O'rta Osiyoda yashovchi barcha xalqlar ijodiyotini o'rganishni o'z oldiga qo'ydi. 1923 yilning boshlarida V.A.Uspenskiy boshchiligida komissiya Buxoroda bo'lib Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anilardan maqom majmuasini hammasini yozib oladilar.

Aytish joizki dastlab 1918 yilda Turkiston Xalq konservatoriyasi keyinchalik Toshkent davlat konservatoriyasi 1936 yillarda ochilgan bo'lsa, qariyb bir asrdan beri dunyo musiqasini o'zbek ijrochilari bilan boyitib kelmoqda.

Ayniqsa mustaqillik yillarida Oliy ta'lim muassasalari ichida O'zbekiston davlat konservatoriyasi "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" va "An'anaviy xonandalik" kafedralari mumtoz musiqamizning yetuk ijrochilarini tayyorlashda jonbozlik qilib keldi. O'zbekiston davlat San'at va Madaniyat Instituti esa xalq og'zaki ijodini o'rganish va izlanishlar borasida yetakchi ta'lim muassasasidir. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018 yil 6 apreldagi "Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida"gi qarorlari o'zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlar bo'ldi.

2017 yil badiiy jamoalar safidagi Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli va maqom ijrochiligini o'ziga kasb bilgan san'atkorlar uchun "Maqom markazi" tashkil etildi. Markaz qoshida ovoz yozish studiyalari ochildi. Barcha viloyatlar maqom ansambllari safi kuchaytirildi, ta'lim muassasalarini bitirib chiqqan yosh mutaxassis xodimlar nafaqat ijodiy, balki ilmiy yo'nalishda ham tadqiqot ishlarini boshlab yuborishdi. Xorazm viloyati maqom ijrochilari uchun ham "Maqom markazi" mavjud. Maqom jamoasining Buxoro viloyati bo'limida esa maqomga bo'lgan e'tibor avvaldan kuchli bo'lganligi sabab hozirda bu san'at ijrochiligi yuksak darajada rivojlanmoqda.<sup>2</sup>

Darhaqiqat, so'nggi yillarda Yangi O'zbekiston muhitida ulkan tarixiy jarayonlar san'at sohasida ham o'z ini'kosini topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini

<sup>1</sup> I.Rajabov "Maqomlar" "San'at" nashriyoti T., 2020 y. 52-b.

<sup>2</sup> Sh.Matyoqubov "An'anaviy ijrochilik tarixi" O'quv qo'llanma T., 2018 y. 9-b.

yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilganligi ham olamshumul voqea sifatida e'tirofga loyiqdir<sup>2</sup>. Mazkur institut yurtimizda maqom, xalq musiqasi, baxshichilik va katta ashula ijrochiligini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish kabi qator vazifalarni bajaradi.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti o'z ta'lim yo'nalishlari bo'yicha "ustoz-shogird" maktablarini tashkil etib, rivojlantirishi, shuningdek, bu sohaga kirib kelayotgan yoshlar uchun muntazam ravishda mahorat darslarini o'tkazib borishi ham muhtasham maqom san'atimizning taraqqiy etishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.Rajabov "Maqomlar" "San'at" nashriyoti T., 2020 y.
2. Sh.Matyoqubov "An'anaviy ijrochilik tarixi" O'quv qo'llanma T., 2018 y
3. Умарова, А. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНО-ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ У УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА УЗБЕКСКИХ КОМПОЗИТОРОВ. Scientific progress, 1(5).



## TELESERIALNING TARKIBIY TUZILMASIDAGI MUALLIF VA REJISSYOR HAMKORLIGI MASALASI

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna  
kaf-tvrej@mail.ru  
O'zDSMI

**Annotatsiya:** Maqolada teleseriallarning tarkibiy tuzilmasi va undagi dramaturgik yechim hamda ssenariynavis va rejissyorning ijodiy hamkorligi masalalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** videofilm, telerejissura, ekran, telekamera, montaj, ekspozitsiya, rejissyor, aktyor, teletomoshabin, ekranlashtirish

## AUTHOR AND DIRECTOR COOPERATION ISSUE IN STRUCTURE OF TELEVISION

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna  
kaf-tvrej@mail.ru  
UzSIAC

**Abstract:** The article deals with the morphology of television series and creative cooperation between the author of the script and the director

**Keywords:** Video films, TV directing, screen, TV camera editing exposition, directing actor Tv audience screening.

Kino, televideniye asarlari insonning dunyoqarashi, ma'naviy dunyosi, didini tarbiyalash, fikrlash doirasini kengaytirishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Kino va televizion asarlarning o'ziga xosligi, ularning estetik imkoniyatlari boshqa san'at turlarining qamrashi bilan ahamiyatli. "Texnologik taraqqiy etish bilan bir vaqtda jamiyatning ma'naviy-madaniy hayotiga g'oyaviy ta'sir ko'rsatmoqda"<sup>1</sup>. Film va teleradio dasturlarning badiiy-g'oyaviy asosi ssenariyga borib taqalarkan u atashuv degan ma'noni bildiradi.

Qo'lida qalam tutgan har bir inson bu soxada faoliyat yurit olmaydi. Chunki uning ishi tomoshabinni hayratlantira olmaydi. Ssenariy yozish uchun ham hamma turdagi badiiy asar yaratish uchun insonda avvalo adabiyotga kuchli muhabbat va moyillik, iste'dod bo'lishi talab etiladi. Original ssenariy yozish kishidan izlanish va kuzatuvchanlikni talab qiladi.. Ko'pincha yozuvchilik salohiyati yo'q rejissyorlarning

---

<sup>1</sup> Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Colloquium-journal, – Warszawa, – 2018, N4. P. 4

o‘zi ssenariy yozib, uni o‘zi ekranga olib chiqadi. Buning natijasida har doim ham ko‘ngildagidek ekran asari yuzaga kelavermaydi..To‘g‘ri, agar san‘at tarixiga nazar tashlasak o‘zbek teatri tarixida ham juda ko‘p mashhur rejissyorlar pe’sa yozib o‘zi sahnalashtirgan. Lekin yozuvchilik salohiyati yetishmasligidan ularning birortasi dramaturg sifatida e’tirof etilmagan. Ayrim rejissyorlar “axir ssenariynavisga aytib turaman-ku qanday bo‘lishligini nega yozilmas ekanman”- degan fikrda bo‘ladi. Aslida aytib turish bilan yozishning farqi katta. Adabiyotdagi kuzatuvlaridan ma’lumki, mashhur yozuvchi va shoirlarning ustozlari fikr bildirgan, lekin shogirdning o‘zi ijodiy yondashib, adabiyotda o‘z o‘rnini topgan. Ssenariynavislikda ham xuddi shu jarayonni kuzatish mumkin. Bu xolatni ayrim o‘zbek filmlarining ssenariylarida uchratish mumkin. Aslida dramaturglar ssenariy muallifi sifatida tilga olinib keyin sahnalashtiruvchi rejissyor va boshqa ijodiy guruxlar tilga olinsa to‘g‘ri bo‘ladi. “Ssenariy filmning asosini tashkil qilar ekan afisha va reklamalarda birinchi ssenariy muallifi so‘ngra rejissyorlar, operatorlar tilga olinish kerak. Shunda ssenaristning muallifik huquqini joyiga qo‘ygan va uning ijodiy mavqeini ko‘targan bo‘lamiz. Kino, televideniye ssenaristlarining ishi biroz murakkabroq. Tajriba bilan dunyo televideniye, kino san‘atkorlari qiziqib keladi- deb”<sup>2</sup>. Demak, adabiy ssenariy adabiy asar sifatida kinosan‘atining ham asosi hisoblanadi. Binobarin kino - asar sifatida rejissyorning ish obyektidir. Bu kabi fikrlar uyg‘unlashuvi rejissyor bilan ssenaristning ikki teng huquqli ijodkorlarning qo‘shma ijodiy mas’uliyatlarning birlashuvidir.

Ba’zi nazariyotchi kinoshunoslarning ssenariy yozish hamma yozuvchining ham qo‘lidan kelavermaydi- degan taxminlari mutloqo baxsli. Chunki kino syujet liniyasi, voqealar rivoji, qolaversa montajni adabiy asardan oladi. Rejissor qancha bilimdon bo‘lmasin kinodramaturg yozuvchisiz shunchalik ojizdir. Shu bilan bir qatorda kinodramaturg ssenariynavis qanchalik buyuk bo‘lmasin rejissyorsiz o‘zining ijod maxsulini ekranda ko‘ra olmaydi.

Buning uchun ikki hamfikir inson birgalikda harakat qilib kino asarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun yaxshi ssenariynavis bilan rejissyor yakdil fikrda harakat qilsa, saviyali kino, teleseriallari yuzaga keladi.

Ssenariynavisga hayotda ko‘rgan kechirgan xodisalari yuzasidan qilgan mushohadalari kelajak uchun hayotiy saboq bo‘lib qolishi vazifasi yuklanadi.

Adabiyotni hayotiy asosiga oid bu chuqur fikr qayd etilgan joyda dramaning kelib chiqishini tushunish muhimdir.

Demak, voqelikka munosabatning adabiy ifodasi ssenariy ekan u kino va televideniye soxasiga adabiyotning bir yo‘nalishi bo‘lmish dramaturgiya orqali kirib kelgan. Lekin kino va televideniye sohasi uchun adabiyotda qalam tebratayotgan yozuvchining hammasi ham hamkorlik qila olmaydi. Chunki kino va

<sup>2</sup> Е.Габрилович. “Кино и литература” Москва 1965 йил 48 бет.

televideniyeining o'ziga xos ifoda vositalarini bilmay turib bu soxada foliyat yuritish mumkin emas. Masalan, yozuvchi voqelikni tasvirlashda ikki-uch bet peyzajni tasvirlashi mumkin. Kino va televideniyeida esa peyzajni tasvir orqali o'n uzog'i o'n ikki sekund ko'rsatish mumkin. Kino va televideniyeida radio va teatrga nisbatan so'z kamroq ishlatiladi. Dialoglar qisqa, siqiq va lo'nda bo'lishi talab etiladi. Kino va ssenariylarga rejissyor uchun remarka ham qoldiriladi. Ularning kompozitsiyasi va syujetlar tizimida ham uzviylik bo'lishi talab etiladi. Agar ssenariy kompozitsion jihatdan yaxlitlikka ega bo'lmasa unga ssenariy maqomini berish noo'rin. Chunki ssenariy dramaturgiyaning mahsuli ekan demak unda g'oya, g'oyani ochishga xizmat qiluvchi unsurlar ya'ni voqealarni rivojlanish sxemasi bo'lishi talab etiladi.

Rus adabiyotshunoslar ichida "formal maktab"ga asos solgan V.Shkolovskiy voqealarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan tartibini fabula deb, ularni badiiy asardagi tasviri tartibini syujet deyishni taklif etgandi. Syujet va fabulani bunday talqin etish adabiyotshunoslikda hali ham uchrab turadi.

Fabula -ssenariy negizini tashkil etuvchi sintez materiallar sifatida talqin qilinadi. Fabula bilan syujetni bir yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Hozirda yaratilayotgan teleseriallarda bir necha syujet liniyalari qorshib keladi. ("Opa –singillar", "Tutash taqdirlar", "Zurriyod") Boshqacha qilib aytganda "syujet"da ertak ichida ertak voqea ichida voqealar bo'lishi tabiiy xolatga aylanib bormoqda.

Asarga asos bo'lgan fabula va syujet shu materiallarning ma'lum tartibdagi sharxidir. Ijodkor fabula asosida badiiy syujetni yaratadi va asarga badiiy sifat baxshlaydi. Syujet fabulaga nisbatan ko'proq ma'noga egadir. Materiallarni tipiklashtirib, individuallashtirish natijasida ma'lum xarakterlar yaratilishi tufayli fabula syujetni harakatga keltiradi. Masalan ("Shaytanat" teleseriali) ssenariyda bir nechta syujetlar mavjud bo'ladi. Ba'zi teleseriallarda esa bitta syujet asosida voqealar rivojlanib yechimini topgan. Shu o'rinda "Saodat" teleserialidagi voqealarning kuchayishi personajlar o'rtasida aloqalarni avj olishi asarni butun strukturasi o'zak bo'lib xizmat qiladi va asarning g'oyasi va mazmunini aniq tushunishga yordam beradi. "Saodat" teleserialida kollejni bitirishga ulgurmagani qizlarni erta turmushga berishning salbiy oqibatlari, sog'lom bolalarni tug'ilishiga erishish, yoshlarni kasb-hunarli qilish, oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish kabi mavzular sevgi-muhabbat, ya'ni melodrama va detektiv janrlariga uyg'un tarzda, tomoshabin uchun nihoyatda qiziqarli qilib, ta'sirchan hamda tushunarli tarzda ochib berilgani bilan ahamiyatli. Uning rejissurasida yangi yechimlar topishga urinilgan, aktyorlar ansambli o'rinli to'planilganligi serialning ko'rimlilikini oshirgan.

Tasviriy jarayonda rejissyorning ekran tili va uning imkoniyatlarini yaxshi bilishi ko'rinib turibdi. Eng muhimi aktyorlar ishonchli ijro etishgan, qahramonlar yashaydigan uy-joy, ko'chalar, kiyim-kechak, umuman aholining madaniy qiyofasini belgilaydigan tasvirlar efir talabiga moslab olingan.

«Saodat» teleserialida davrimiz muammolari ta'sirchan tarzda va badiiy talqin qilingan.

Syujetga badiiy asar mazmuni va undagi qahramonlar xarakterini ochib beridigan o'zaro uzviy bog'langan voqealar hodisalar tizmasi xisoblanadi. Ssenariy muallifi ekran asarini yaratishda barcha adabiyot qonuniyatlariga amal qilganligini ko'rinib turadi. Ekran asari uchun ssenariy yozayotgan muallif ham adabiyotning syujet va kompozitsiya qonun-qoidalariga to'la amal qilishi shart. "Saodat" teleserialining ssenariy muallifi ham oldiga qo'ygan maqsad va vazifasidan kelib chiqqan xolda to'plagan adabiy, hayotiy materiallardan ma'lum bir syujet yaratishga muvaffaq bo'lgan.

H.Abdusamatov "Drama nazariyasi" kitobining "Syujet va kompozitsiya-dramaning qolipi va qiyofasi" bobida bunday yozadi:

"Ma'lumki, adabiyotning barcha komponentlari syujet atama ham turlicha talqin qilib kelingan. Albatta bu atama adabiyot tarixida, umuman falsafa, estetika va xalqlar madaniyatida juda ko'p qo'llanilgan."<sup>3</sup>

Syujetni badiiy asarning muhim unsuri sifatida pafosli bo'lishga da'vat etiladi. Uni ehtiros deb talqin qilish mumkin. Huddi shuningdek syujet nuqtai nazardan ssenariylar ham ehtirosli va hayajonli yozilishi kerak. Vaholanki syujetsiz ekran mahsuloti badiiy kinofilmlar tele seriallar bo'lmaydi. Syujetning elementlaridagi prolog, konflikt-syujetning o'zagi hisoblanadi. Epilog, ekspozitsiya va konfliktni boshlanishdan oldin keladigan muqaddimadir. Bular ichida tugun-konfliktni ilk marotaba ro'yobga chiqishi va syujetning rivojlana boshlashiga turtki berilishidir. Voqealar rivoji-konfliktlarning asta-sekin ochilishi va hal bo'lishi jarayonidir.

"Saodat" teleserialining muvaffaqiyati avvalo serial ssenariysi pishiq va mazmundor ekanining natijasi, ikkinchidan, ssenariy muallifi va sahnalashtiruvchi rejissyorning yaqin hamkorligi hosilasi. Serial yuksak did bilan, zamonaviy yondashuvlar asosida tasvirga olingan va montaj qilingan. Aktyorlar ansamblini shakllantirish tajribasini boshqa seriallarni yaratishda ibrat, namuna sifatida olish kerak. Ba'zan tomoshabini tugun nimada ekanligini tushunolmay qolsa filmni oxirigacha tushunmasligi mumkin. Shuning uchun tugunni ssenariyda aniq va tushunarli qilib yozish kerak. Masalan, "Saodat" teleserialida bosh qahramon Saodatning kollejdagi o'qituvchilar bilan bo'lgan to'qnashuvi asarga tugun bo'lib tushadi.

Mazkur serialning sahnalashtiruvchi rejissyori M. Erkinov haqiqatan ham o'z ishiga nisbatan mas'uliyat bilan yondashgan, iste'dodli aktyorlar o'ziga topshirilgan vazifani rejissyor ko'nglidagidek bajargan, dedi.

<sup>3</sup> X.Abdusamatov. "Drama nazariyasi". Toshkent. Fan. 2000 й. 138 бет

«Saodat» teleseriali tomoshabinni o‘zida qiziqtirib tutib tura olishi (dinamikasi) yaxshi ekani va birinchi fasl tomoshabinni keyingi faslni ham intiqlik bilan kutishga undovchi holatda tugatilgani e‘tiborga loyiq.

Har qanday asarning kompozitsion tuzilishi mukammal bo‘lmasa uni tomoshabin uni badiiy yaxlitlikda qabul qilolmaydi. “Asarning kompozitsion qurilmasi shunchaki qonun-qoida emas, balki asarning tomoshabinga tushunarli, qiziqarli va shu bilan birga uning diqqat-e‘tiborini birday jalb qilib turish garovi hamdir”<sup>4</sup>. Chunki kompozitsiya asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblikni bildiradi, aniqrog‘i voqelik liniyasini bir bosh syujet liniyasiga qamrab olishi, turli qismlarda o‘zaro birlashishidir. Agar asarda shu mezonga amal qilinmasa undagi voqealar tarqoq uzuq yuluq xolatda bo‘ladi. Bunday vaziyatda har qanday rejissyor ham ana shu yaxlitlikni hech qanday montaj usuli bilan ham bir tizimga keltirishi qiyin kechadi. Lekin “Saodat” teleserialidagi ssenariyning badiiy asosi mustaxkamligi va akterlar ansamblining to‘g‘ri va o‘rinli tanlanganligi hamda rejissuradagi o‘ziga xos izlanishlarning xosilasi natijasida tomoshabinlar dili va talabiga mos teleasar yuzaga kelganligining guvohi bo‘lish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Abdusamatov. “Drama nazariyasi”. Toshkent. Fan. 2000 y. 138 bet
2. Ye.Gabrilovich. “Kino i literatura” Moskva 1965 yil
3. Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, – 2020, N4. P. 84-93
4. Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Colloquium-jurnal, – Warszawa, – 2018, N4. P. 4-6

---

<sup>4</sup> Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, – 2020, N4. P. 86

## INSON TARAQIYOTDA RAQS SAN'ATINING FENOMENI

Toxtasimov Shuxrat Maxmutovich

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Utaganov Ravshanbek Jurayevich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqs san'ati sohasi bo'yicha yoritilgan. Raqs san'ati bu yorqin, aql bovar qilmaydigan, jozibali jarayon bo'lib, insonni o'ziga jalb qiluvchi san'at turidir. Bevosita ushbu san'at turi bilan muntazam shug'illanib borish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbek, milliy, raqs, san'at, soha, Lazgi, Klassik, raqqos, professional, asar, bolalar, Tango, Vals.

## THE PHENOMENON OF THE ART OF DANCE IN HUMAN DEVELOPMENT

Toxtasimov Shukhrat Makhmutovich

Uzbekistan State Academy of Choreography

Utaganov Ravshanbek Jurayevich

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article gives you a brief overview on dance. The art of dance is a bright, incredible, engaging process that attracts people. The idea is to practice this art form directly.

**Keywords:** Uzbek, national, dance, art, sphere, Lazgi, Classical, dancer, professional, work, children, Tango, Waltz.

Mamlakatimiz mustaqilligining o'tayotgan 30 yili davlatimiz va xalqimiz hayotida keng ko'lamli islohotlar, ulkan yangilanish va bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan davr sifatida tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Xususan, o'zbek raqs san'atida ham ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so'nggi besh yillikda madaniyat va san'at sohasiga oid qator qaror va farmonlar, olib borilayotgan tub islohotlar sabab raqs san'atimiz yangi taraqqiyot sari yuz tutmoqda.

Jumladan, Mamlakatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 4-fevraldagi "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari imzolandi. Bu albatta, raqs san'atiga bo'layotgan e'tibor va o'ziga xos tarixiy sana bo'lib muxirlanib

qoladi. Shuningdek, qarorga muvofiq milliy raqs san'atida professional badiiy jamoalar faoliyatini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni izlab topish, ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish, shu bilan birga, o'zbek raqs san'atining "oltin fondi"ni yaratish maqsadida Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansamblining qayta tashkil etilishi chin ma'noda o'zbek raqsiga bahorni qaytardi.

Qolaversa, milliy merosimiz hisoblanmish "Lazgi"ning YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy me'ros obyektleri ro'yxatiga kiritilgani o'zbek milliy raqs maktabining jahon miqyosidagi e'tirofidir. Raqs san'atidagi bunday izchil o'zgarishlar, yutuqlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga hamohang tarzda kechayotgani biz uchun ham quvonarli, ham faxrlanarli xoldir.

Raqs san'ati haqida so'z yuritadigan bo'lsak, hayoti davomida kamida bir marotaba bo'lsa ham raqsga tushishni orzu qilmagan inson bo'lmasa kerak nazarimizda. Kimdir bu ishni sinab ko'rgan, kimdir esa bugungi kunda raqs maktablari va to'g'arklari orqali shug'ullanib raqs san'atini o'rganishga harakat qilib kelmoqda.

Agar har bir inson raqs tushushni xohlasa, raqs maktablari va to'g'arklarga borib o'rganishi mumkin. Raqs sirlarini o'rganishda ma'lum bir chegaralangan yosh yo'q, faqat xohish bo'lsa bas, chunki bu san'at insondan ishtiyoq va katta mehnat talab etadi.

Raqs - bu yorqin, aql bovar qilmaydigan, jozibali jarayon. Albatta, boshqalarning raqsga tushishini tomosha qilish juda maroqli va yoqimli. Agar o'zingiz raqsga tushgudek bo'lsangiz be ihtiyor butun tanangiz yayraydi. Hamda bu san'at turi orqali ehtirosni, sevgini, g'azabni, sog'inichni va quvonchni ifodalashi mumkin. Raqsga tushish orqali biz o'z his-tuyg'ularimizni idrok etibgina qolmay balki o'zimizni baxtli his qilamiz. Bu vaqtda miyyamizdan xar-xil o'y-fikrlar chiqib ketib, xayol va orzu qilishga o'tamiz. Bularning barchasi birgina raqsda aks etadi. Bu san'at turi nafaqat iste'dod, mahorat hamda katta mehnat talab etadi. Yana bir jihati shundaki, tomoshabinlarni hayratda qoldiradigan va inson hayotining noma'lum dunyosini o'ziga xos taassurot bilan to'ldiradigan, sahnada reen Karnatsiya haqidagi fikrlar va tuyg'ularni harakatda yetkazish qobiliyatidir. Raqs san'ati xalq amaliy san'atining eng qadimiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, kuchli his-tuyg'ularning ifodasi sifatida vujudga kelgan, bu san'atining shakllanish tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi.

"Raqs - insoniyat paydo bo'lgan ilk davrlardayoq tug'ilgan va san'atning eng qadimgi, keng tarqalgan va ommabop turlariga kiradi. Qadimdan inson hayotining muhim jabhalarida raqs alohida o'rin tutgan. Ibtidoiy davrda insonlar tomonidan tabiat hodisalari (quyosh, suv, olov bilan bog'liq) turli afsonaviy ko'rinishlarda tushunilgan. Tabiat mo'jizalari insonlarga yaxshilik yoki yomonlik keltiruvchi kuch sifatida tasavur qilingan. «Avesto», afsona hamda bitiklarda tabiat mo'jizalari jonli

timsollarda tasvirlangani va ular pantomimaraqs shaklida ijro etilgani haqida aytib o‘tilgan. Insonlarning mehnat jarayonlari, hayvonlarning harakatlari, afsonaviy xarakterdagi harbiy vatanparvarlik ruhidagi raqslarni ijro etishgan. Bunda tabiat kuchiga tayanganlar. Ular o‘z fikrlarini bayon eta olmay omadli ov bo‘lishini so‘rab yalinishgan, yomg‘ir yog‘ishini, farzand ato etishini iltijo etganlar. Hozirgi davrgacha dunyoning ba‘zi bir joylarida, masalan, Afrikada shunday raqslar saqlanib qolgan. Folklorshunoslar, sayohatchilar yozib qoldirganlari o‘sha davrdagi xalqning yashash tarzi, urf-odatlarini, aqidalari haqida so‘zlaydi.”<sup>1</sup> Yana bir manbada shunday keltirilgan “Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari, arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiy san‘at ekanligidan guvohlik beradi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» davridayoq raqs san‘ati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yo‘nalishda rivojlanishga kirishgani haqida tarixiy ma‘lumotlar bor. Shuningdek, turli taraqqiyot bosqichlarida yurtimizda raqs va o‘yinlar bir-biriga ta‘sir ko‘rsatishi natijasida «Beshqarsak», «Katta o‘yin», «Lazgi», «Kema o‘yin», «Ashshadaroz» kabi qadimiy o‘yinlar vujudga kelgan”<sup>2</sup>. Raqs orqali biz musiqani ko‘rishimiz va his qilishimiz mumkin.

“O‘zbek milliy raqs san‘ati ko‘p asrli tarix va boy an‘analarga ega. Asrlar davomida o‘zbek xalqi yaratgan raqslar bebaho nomoddiy madaniy meros bo‘lib qoldi. O‘zbek raqs san‘ati namoyondalari yaratgan ajoyib raqslar asrlar davomida xalqimizni vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, go‘zallik ruhida tarbiyalab kelmoqda. Barcha xalqlarda bo‘lgani kabi, o‘zbek raqslarini qadim zamonlarda vujudga kelishi haqida arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan raqqos va raqqosalarning haykalchalari, qadimiy g‘orlar va qoyatoshlarga chizilgan tasvirlar, kitob miniatyuralari dalolat beradi.

Jahon sivilizatsiyasi rivojlanishi bilan raqs san‘ati ham rivojlanib boraverdi. O‘zbek raqs san‘atining o‘zida turli maktablar, yo‘nalishlar vujudga keldi va mahalliy raqslar taraqqiyot tufayli milliy raqs maqomigacha o‘tib bordi. Raqs san‘ati ayniqsa Sharq Renessansi, ya‘ni Amir Temur va temuriylar davrida ravnaq topdi. Unda ayniqsa xotin – qizlarning o‘rni katta bo‘ldi. Raqslarda rang-baranglik tarixiy qatlamlar yaqqol ko‘zga tashlanib turdi. Keyinchalik ham raqs fidoyilari tufayli o‘zbek milliy raqsi rivojlanishda davom etadi va hozirgacha saqlanib qolgan holda ajoyib raqslar vujudga keldi. Raqslar turmushdagi va mehnatdagi biror harakat va holatlarga taqlid ma‘nosida vujudga keladi va raqs harakatiga aylanib qoladi. Keyinchalik ularga yanada ishlov berilib nazokatlilik baxsh etilaverdi. XX asr boshlaridan o‘zbek sahna raqsi alohida mustaqil san‘at sifatida rivojlandi. Muhiddin Qoriyoqubov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim,

<sup>1</sup> E.Sayitova, N.Abraykulova Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari. T.-2015. 11-bet

<sup>2</sup> Avdeyeva L. Танцевальное искусство Узбекистана Т: Государственное издательство художественной литературы, 1960



Isohor Oqilov, Mukarrama Turg'unboyeva, Gavxar Raximova kabi ko'plab raqs san'ati fidoyilari uning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minladilar. Fidoyi baletmeyster, xoreograf va pedagoglarning har biri o'ziga xos uslubga ega bo'lganligi tufayli ular tarbiyalagan san'atkorlar raqslari ham rang – baranglik kasb etadi. XX asrning 60-yillariga kelib nafaqat raqs amaliyotchilari, balki nazariyotchilari ham uning taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shdilar. Ularning mehnati tufayli raqsga bag'ishlangan qo'llanmalar, darsliklar, monografiyalar, vujudga keldiki, bu o'z navbatida raqs ta'limi va tarbiyasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmay qolmadi. Ayniqsa, san'atshunos olimi Lyubov Avdeyevaning o'zbek raqs san'ati tarixiga bag'ishlagan ilmiy tadqiqotlari, raqs amaliyotchisi va nazariyotchisi Roziya Karimovalarning o'quv qo'llanmalari raqs sohasidagi muhim qo'llanmalar bo'lib qoldi.”<sup>3</sup>

Raqsga tushish professional raqqoslar uchun juda maroqli bo'lib, chunki bu san'at turi doimo o'z ustida ishlashni va tinmay mashq qilib raqs harakatlarini takomillashtirish kerakligini bildiradi. Agar siz ushbu san'atning yuqori cho'qqilariga chiqishni istasangiz, kuniga kamida 4 soat hamda bolalar uchun haftada 3 marotaba 2 soatdan kam bo'lmagan mashg'ulot o'tkazish talab etiladi. Haqiqiy raqqosaning xislatlari esa iste'dod bilan birga sabr-toqat, istak, mehnat qobiliyati va qilayotgan ishingni sevish kabi ko'rsatkichlardir.

Raqslarning juda ko'p turlari borki, odamning yoshi va didiga qarab tanlash mumkin. Shunday raqslar borki, umr bo'yi yashaydi. Biroq 1-2 yil davomida paydo bo'lib keyin yo'qolib ketadigan raqs uslublari ham bor. Ammo raqsning tango, vals va klassik balet turlari o'lishi mumkinmi? Yo'q alabatta. San'atning qiyin, mukammal darajada yaratilgan asarlari abadiy yashaydi.

“Raqs san'ati sohasida “ustoz-shogird” an'alariga asoslangan raqs maktablarini yaratish, xalqaro standartlarga muvofiq yuqori malakali mutaxassislar va kadrlarni tayyorlash, ilmiy salohiyatdan samarali foydalangan holda ilm-fanni jadal rivojlantirish maqsadida”<sup>4</sup> biz dunyo xalqlarining turli xil usuldagi raqslarini o'rgatamiz.

Mutaxassislar tomonidan tasdiqlanganidek: qanchalik ko'p bilsangiz, haqiqatni yaxshiroq tushunasiz. Shuning uchun, har xil raqs turlarini o'rganib, siz ufqlaringizni kengaytirasiz va dunyo xalqlarining madaniyati, an'analari hamda qadryatlarini o'rganasiz. Shuning uchun biz dunyo xalqlarining raqslarini o'rgatamiz; lo'li, ispan, yunon, arab, hind va albatta milliy raqslar shular jumlasidandir.

Klassik-zamonaviy raqs san'atining o'ziga xos turi bo'lib, unda biz o'z xoreografiyamizni yaratishimiz mumkin, zamonaviy texnika va klassikani bir

<sup>3</sup> Sh.Jalilova O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti. O'quv qo'llanma.-T.2020 83-84 betlar

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4585-son qarori

butunga birlashtiramiz. Ushbu shaklda siz cheksiz yangi asarlarni yaratishingiz va fantaziya qilishingiz mumkin.

Biz, o'z navbatida, xoreografiyaning ma'nosini raqs chiqishlarimiz bilan ifodalashga harakat qilamiz va tomoshabin buni ko'rishi va raqsda nimani o'ylayotganimizni va his qilayotganimizni tushunishi uchun harakat qilamiz. Shuning uchun, raqqosalarimiz yanada ko'proq o'rganishlari va raqs san'atini yaxshilashlari uchun yangi asar yaratishga intilamiz.

Ajablanarlisi shundaki, raqs darslari bolalarning aqlli va xushmuomala bo'lishiga yordam beradi, chunki harakat musiqa bilan bog'liq va bu aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun ota-onalar, agar farzandlari raqsga tushsa, ular maktabda yaxshi o'qimaydilar, deb tashvishlanmasliklari kerak.

Tashqi o'zgarishlarga kelsak, hatto olomon ichida ham siz Raqqosani har doim ko'rishingiz mumkin: mukammal tekis turish, yengil, nafis qadam, go'zal harakatlar, go'yo u yurmaydi, balki suzib yuradi. Raqs san'ati, sizga nisbatan boshqalarni hayratda qoldirishga, o'zingizga e'tiborni jalb qilishga yordam beradi. Hatto to'yda ham raqsga tushish qobiliyati sizga yordam beradi, chunki hamma sizga, mahoratingizga hasad qiladigan original va jozibali to'y raqsini ijro qilishingiz mumkin. Albatta sizning do'stlaringiz va qarindoshlaringiz uni ko'p yillar davomida eslashadi: axir, u nikohning cho'qqisi bo'lib xizmat qiladi.

Yaxshi raqqosalar ko'p, lekin virtuoazlar kam. Shubhasiz, Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyeva kabi raqqosalar nafaqat iste'dodli, balki katta sabr-toqatga ega edilar va shu qadar uzoq vaqt to'xtamasdan raqsga tushdilarki, tomoshabinlar ushbu san'atkorlar bilan birga nafas oldilar.

Bu xatto, chunki raqs qizlarga ham, o'g'illarga ham ko'p jihatdan yordam beradi. O'g'il bolalar erkin muloqot qilishadi va hayotda yanada erkin bo'lishadi. O'z navbatida, qizlar raqsda sheriklarga muhtoj, chunki o'g'il bolalarsiz to'liq raqs bo'lmaydi - bu faqat yarmi. Darhaqiqat, raqsda, hayotda bo'lgani kabi: sheriksiz hech qanday foyda yo'q.

Raqs barcha san'atlarning eng ulug'vori, eng go'zalidir, chunki u shunchaki hayotning aksi yoki undan chalg'itish emas, raqs hayotning o'zi. Raqs insonning ruhini "oshkor qiladi", uni tashvish va stressdan xalos qiladi va raqsga tushayotganda o'zingizni kuzatib, o'zingiz haqingizda juda ko'p qiziqarli narsalarni bilib olishingiz mumkin. Raqs va tananing alohida qismlarining harakatlarini ozod qilish yordamida siz o'zingizni o'zgartirishingiz va o'zingiz xohlagan hamma narsani rivojlantirishingiz mumkin! Jonli - raqsga tushing!

Hali qilinishi lozim bo'lgan ishlarimiz ko'p. Erishilgan yutuqlar o'zimizniki. Mustaqillik xadya etgan ne'matlardan bahramand bo'lish, ular bilan faxrlanish

yaxshi, albatta. Siz bilan bizning bosh vazifamiz, burchimiz, ana shu ne'matlarni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, ularni yanada ko'paytirishdir.

Yaxshi kayfiyat va salomatlik uchun - raqsga tushing va muammolarni unuting.

### **Foydalanilgan adabiyotlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4585-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4584-son qarori
3. Sh.Jalilova O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti. O'quv qo'llanma.-T.2020 83-84 betlar
4. E.Sayitova, N.Abraykulova Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. T.-2015. 11-bet
5. Avdeyeva L. Танцевальное искусство Узбекистана Т: Государственное издательство художественной литературы, 1960

## ALISHER NAVOIY-MUSULMON SHARQINING BUYUK INSONPARVARI

X.Usmonova

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning ulug' mutafakkir shoir, olim, davlat arbobi ekanligi, Xuroson davlat muhrdori sifatida olb borgan insonparvarlik faoliyati, shuningdek, asarlarida insonparvarlikg'oyalarining ulug'lanishi bayon etilgan

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, inson, insonparvarlik, davlat, homiy,xalq, Xazoyin ul-ma'oni", «Lison ut-tayr», "Hamsa"

## ALISHER THE GREAT HUMANITARIAN OF NAVOI-MUSLIM EAST

X.Usmonova

**Abstract:** The article describes Alisher Navoi as a great thinker, poet, scientist, statesman, his humanitarian work as the state seal of Khorasan, as well as the glorification of humanistic ideas in his works.

**Keywords:** Alisher Navoi, man, humanity, state, patron, people, "Khazain ul-ma'oni", "Lison ut-tair", "Khamsa"

"Shamsul millat" deb sharaflangan ulug' mutafakkir shoir, olim, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tahallusi ostida chig'atoy, ya'ni o'zbek tili hamda forsiyda ijod qilgan. G'arbda chig'atoy adabiyoti hisoblanmish o'zbek adabiyotining eng yirik namoyondasi. Umuman olganda, butun turkiy xalqlari orasida u kabi yirik shaxs yo'qdir.

Nizomiddin Mir Alisher hayoti davomida Navoiy tahallusi bilan musulmon Sharqining turli mamlakatlarida bo'ladi, o'z davrining taniqli shaxslari bilan ko'rishadi. O'zining she'riy mahoratini oshiradi va mashhur shoir bo'lib ulug'lanadi.

Xuroson hukmdori tomonidan davlat muhrdori etib tayinlangan Alisher Navoiy mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi va mamlakatning madaniy-ilmiy taraqqiyotida katta yordam ko'rsatadi. Masalan, insonparvar shahs sifatida 1480 yil Hirot shahrida va boshqa viloyatlarda o'z hisobidan bir nechta madrasa, 40 ta rabot, ya'ni yo'lovchilar uchun bekat, 17 ta masjid, 10 ta so'fiylar turarjoyi, ya'ni xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ta ko'prik va boshqalarni qurdiradi. U tomonidan kuylangan:

Odami ersang, demagil odami,

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami

baytida ham Navoiyning xalq gami bilan yashaganini bilishimiz mumkin. Mashhur bu bayt orqali Navoiy barcha-barchani insonga g'amxo'r bo'lishga

chaqirgan, insonparvarlikni kuylagan. Baytning mashhurligi ila asrlar osha hammamiz uchun ibrat yanglig' yangrab turibdi va hozirgi kunda ham tarbiya vositasi sifatida ta'lim-tarbiya jrrayonida qo'llanilib kelinmoqda

Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, Ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga olgan. Zero, bosh vazir Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida taniglan. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqqan.

Alisher Navoiyning insonparvarlik faoliyati, ilg'or qarashlari, uning obro'e'tibori xalq orasida tobora ortib borishi o'z manfaatlarini ko'zlagan saroy a'yonlari orasida norozilik tug'dirgan. Ular shoir bilan podsho orasiga nifoq solib, 1487 yilda Husayn Boyqaroning Alisher Navoiyni vazifasidan bo'shatishiga erishadilar. Lekin Navoiyning davlat boshqaruvi Astroboddagi hokimlik bilan davom ettadi. Navoiy hokimlik qilgan 2 yil davomida Astrobod shahri va viloyati obodonlashib, qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatiladi, savdo ishlari yo'lga qo'yiladi.

Navoiy lirikasida odam va olam, hayot va uning go'zalliklari madh etiladi. Adib lirikasida yuksak insonparvarlik, ezgulik g'oyalari deyarli barcha asarlarida aks etgan. Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oniy" asari, aslida, to'rta mustaqil devondan tashkil topgan. Shuning uchun ham u xalq orasida "Chor devon" - "To'rt devon" nomi bilan mashhur bo'lgan. Shoir "Xazoyin ul- maoniy"ni tuzar ekan, umrni to'rt faslga bo'ladi. 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davrlarni umr fasllarining navbahoriga o'xshatadi va ushbu devonini "G'aroyib us - sig'ar", ya'ni "Yoshlik g'aroyibotlari" deb ataydi. Umrning yigitlik davrini shoir 20dan 30 yoshgacha deb belgilaydi va umr fasllarining yozi deb ataydi. Bu devonga Navoiy "Navodir ushshabob", ya'ni "Yigitlik nodirliklari" deya nom beradi. 35dan 45 yoshgacha bo'lgan davrni umr fasllarining kuzi, tiriklik bog'ining xazonrezgisi deya belgilaydi va bu asarini "Badoye ul- vasat", ya'ni "O'rta yosh go'zalliklari" deb nomladi. Qirq besh yoshdan oltmish yoshgacha bo'lgan davrni qarilik davri deb ataydi va bu faslga mansub she'rlarini "Favoyid-ul kibar", ya'ni "Keksalik foydaliklari" devoniga jamlaydi. Shoirning "Xazoyin ul- maoniy" devonidagi quyidagi baytlari diqqatga sazavor:

Muruvvat - barcha bermakdur, yemak yo'q,  
Futuvvat - barcha qilmakdur, demak yo'q.

Mazkur baytda juda yuksak va salmoqdor insonparvar g'oyalar ilgari surilgan. Navoiy shu ikki misradayoq Sharq tasavvuf ta'limotining eng ilg'or oqimlaridan biri - javonmardlik sulukining dasturiy qoidalarini qoyilmaqom darajada ifodalab berolgan. Javonmardlik namoyandalari muruvvat ahli, futuvvat ahlidirlar. Ularni Navoiy o'z asarlarida «axiy» nomi bilan ham yuritgan. Muruvvat ahli eng olijanob toifa sifatida tasvirlangan. Chunonchi, baxil - o'zi ham yemaydi, boshqaga ham bermaydi; xasis - o'zi yeydi, boshqaga bermaydi; saxiy - o'zi ham yeydi, boshqalarga ham beradi; axiy esa - o'zi yemaydi, faqat boshqalarga ulashadi. Futuvvat ahli - fatiy - javonmard esa faqat yaxshilik qiladi, lekin uni aytmaydi, ya'ni minnat qilmaydi.

«Lison ut-tayr» - Alisher Navoiyning so'nggi dostoni. Dostondagi bosh g'oya, bosh muammo tasavvufdagi imon, e'tiqod va ma'naviyat masalalaridir. Alisher Navoiyning niyati oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berish, ularni og'ir sinovlardan o'tkazib, komil inson darajasida ko'rish. Shoir asarda qushlar timsolida tasavvuf yo'liga kirgan va Allohni ko'rishga, unga yetishishga astoydil kirishgan xudojo'y insonlarni tasvirlashga intilgan. Hudhud degan qush nomidan so'ylangan yuzlarcha hikoyalar tasavvufiy mazmunda bo'lib, ular hammasi hayotiy, biri biridan qiziqarli. Qushlarning rang-barang timsollari orqali Alisher Navoiy o'zining tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq g'oyalarini, Allohning hamma narsaning tashqarisida emas, balki ichida, o'zida ekanini ko'rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug'vorligini majoziy uslub bilan, ta'sirli qilib, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar ila bog'lab tasvirlagan. Tasavvufning vaxdat ul-vujud nazariyasi ham shu tarzda o'zining badiiy in'ikosini topgan. Bu bilan Navoiy tasavvuf g'oyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy ko'rkam va jonli yetkazishda oliy darajada san'atkorlik ko'rsatgan.

Adabiyotshunos Z.Mamadaliyeva o'zining "Alisher Navoiy "Lisonu-t-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi" nomli tadqiqotida mazkur ikki dostonidagi ramziy timsollarni talqin qilish asnosida Navoiy dostonidagi Hudhudning o'ziga xos bir necha xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

1) Navoiy talqinidagi Hudhud komil inson ramzi bo'lish bilan birga muallifning dostonidagi birinchi raqamli timsoli hamdir;

2) Navoiy tasvirlagan Hudhud yuksak irfoniy masalalarni har bir qushning darajasiga mos ravishda sodda hayotiy voqealar va misollar bilan tushuntirib beradi [1]. Demak, Navoiy eng nafis, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarini yaratgan shaxs, uning asarlarda jamoat ruhi, davrga xos muhim muammolar ustundir. Zero, Navoiy-musulmon Sharqining, deyarli barcha janrlarida o'z qalamini sinab ko'rgan va o'z ovozi, o'z uslubi borligini ko'rsata olgan ulug' mutafakkir shoir.

Sharq adabiyotida Navoiy tomonidan yaratilgan "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Hayrat ul-Abror" dostonlarida so'fiylik mavzusi umumfalsafiy darajaga ko'tarilgan, shuningdek, bir vaqtning o'zida shoirning insonparvarlik dunyoqarashlari

orqali dunyoning dolzarb muammolari ham qo'yilgan. "Hamsa"dagi boshqa ikki dostonida - "Sab' ai sayyor", "Saddi Iskandariy" hukmdor bilan bog'liq muammolar ham yetakchi o'ringa [2]chiqqan. Insoniylik fazilatlari ulug'langan Navoiy "Hamsa"sining miqdori va keng tarqalishi uni O'rta Osiyo intellektual hayotida alohida o'rin egallaganligini ko'rsatadi.

Navoiyning insonparvarlik g'oyalari bilan sugorilgan vatan va atanparvarlik haqidagi she'rlari ham faqat o'sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo'lishi tabiiydir.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,  
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.

Xilosa o'rnida, Navoiy ijodini uzoq yillar davomida jiddiy o'rgangan taniqli adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetovning quyidagi fikrlarinikeltirish joiz:: "Mabodo Navoiy boshqa asar yozmasdan faqat "Xazoyin ul-ma'oniy"ni, hatto uning tarkibidagi bitta devon - "G'aroyib us-sig'ar" yoki "Navodir ush-shabob", yoxud "Favoyid ul-kibar"ni yaratganda ham adabiyotimiz tarixida eng ulug' shoirlarimizdan biri bo'lib qola berar edi". Bunga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, agar Navoiy boshqa janrlarda ijod qilmasdan, faqat ruboiylari tufayli ham mana shunday ulkan obro' va martabaga ega bo'laverar edi. Shunday qilib, adib she'riyatining mavzu keng qamrovli bo'lib, ularda falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy fikr va mulohazalar yuksak badiiylik bilan ifoda etilgan. Zero, Navoiy she'riyati bilan muloqot kitobxonlarning ichki olami, ma'naviyatining boyishiga katta hissa qo'shadi. Navoiy merosi mavzu va janrlari bo'yicha turlicha. Uning asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o'zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida uning asarlari taqlid va ilhom manbai bo'lib hisoblanib kelgan. Demak, insonparvar Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo'la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo'shgan; ilm, fan, san'at rivojiga homiylik qilgan, tinchlik va totuvlik doimo hukmron surishiga doim harakat qilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mamadaliyeva Z. "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi. Filol.fan.nomz.diss. - T., 2011.
2. Qayumov A. Saddi Iskandariy. Toshkent, 1980 yil, o'zbek tilida
3. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). - T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.
4. N.Komilov. Tasavvuf. -T.: Mobarounnahr - O'zbekiston, 2009.

## XX ASR O‘ZBEK RAQS SAN’ATINING RIVOJLANISH YO‘LLARI

Saitov Xabibullo Akbarovich  
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek raqs san’atining XX asrdagi rivojlanishi, buyuk namoyondalar, o‘zbek milliy raqs san’atida mavjud raqs maktablarining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada o‘zbek milliy professional raqs san’ati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan namoyondalar haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijodkor, xalq, meros, raqqosa, professional, raqs, baletmeyster.

## WAYS OF DEVELOPMENT OF UZBEK DANCE ART IN THE 20TH CENTURY

Saitov Khabibullo Akbarovich  
Urgench branch of Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** The article covers the development of the Uzbek dance art in the 20th century, the great performances, the peculiarities of the existing dance schools in the Uzbek national dance art. The article also contains information about the performances that made a huge contribution to the development of the Uzbek national professional dance art.

**Keywords:** creative, folk, heritage, dancer, professional, dance, choreograph.

O‘zbek xalq raqs san’ati uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ijodkor xalqimiz tomonidan yillar osha yaratilgan raqslar milliy raqs san’atining noyob durdonalari sanalib kelmoqda.

O‘zbek raqs daholari yaratgan g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak mumtoz raqslar xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, kurashchanlik, go‘zal xulq ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam berib kelmoqda. Kelajak avlodni voyaga yetkazish, xalq orasida haqiqiy insoniylik munosabatlarini shakllantirishda o‘zbek xalqining merosi bo‘lgan bugungi kunda muhim estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Inson tarbiyasi estetik, ahloqiy-madaniy tarbiya sohalari bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbek raqs me’rosini o‘zlaridan oldingi avlodlardan qabul qilib, uni o‘nlab yillar va asrlar mobaynida ko‘z qorachig‘idek saqlab kelgan ko‘pgina ijrochilarning nomlari ma’lum. Raqs san’ati asoschilari Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ahmadjon Umurzoqov, Usta Olim Komilov, aka Buxor, Qimmatxon Sultonova, Sharofat To‘rayeva, Tamaraxonim kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o‘tgan o‘nlab taniqli raqs



ustalarining nomlari mashhur. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi raqs san'ati haqida shu davrda yashab ijod etgan birinchi raqs tadqiqotchisi I.G.Baxta Farg'ona va Toshkent qadimgi raqslari va raqs ustalari to'g'risida ma'lumot yig'gan. U XX asr boshlari va 20-yillarda Farg'ona vodiysi, Xorazm va Buxoroda faoliyat boshlangan taniqli raqqosalar bilan uchrashib, muloqotda bo'lgan.

Asrlar davomida ijro etilgan an'anaviy xalq va professional raqs plastikaning "haykaltaroshlik" turiga oid bo'lib, ulardagi qadam tashlashlar hech qanday badiiy-ifodaviy ahamiyatga ega emas edi. Raqs juftliklari orasidagi raqs muloqoti tamoyillari ham ishlab chiqilmagan edi. O'zbek xalq va professional raqslari esa garchi xalq bayramlarida erkaklar tomonidan ijro etilgan bo'lsa-da, ularning har biri alohida o'ziga xos xususiyatlarni mujassamlashtirgan.

Dastlabki ommaviy sahna raqsalarida Tamaraxonim slavyan va kavkaz xalqlari an'analari tayanib, bir qator saf, diagonal, doira usullaridan foydalanadi, qiyofalarning ritm-plastik haykalsimon turishini chekladi, harakatlarni "muloyimlashtirdi", raqs manzarasini "to'rtinchi devor" bo'lib turgan tomoshabinga burdi.

Tamaraxonimning raqs san'ati xotin-qizlar ozodligiga chaqiriq sifatida maydonga kelgan bo'lsa, 30-yillardagi Mukarrama Turg'unboyevaning raqs san'ati shu harakatning navbatdagi bosqichiga aylandi. Bu bosqich Sharq ayollarining san'atga intilishdagi dadil qadam edi. Mukarrama Turg'unboyeva raqslari xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga faol arashuvining o'ziga xos ramzi bo'lib ko'rindi.

Mukarrama Turg'unboyevaning lirik qahramoni o'zbek ayolning azaliy fazilatlarini hamda yuksak iroda bilan yangilikka, erkinlikka, ozodlikka intilishining ramzidir. Uning lirik raqslari kishilarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Tabiiyki, raqqosalarning qomati baletmeysterlik qoidalar talabiga ko'ra emas, balki ularning ichki ruhiyatiga ko'ra ham adllashib boraveradi. 30-yillardagi libos keyinchalik o'zbek ayollarining an'anaviy libosiga aylandi. Chunki Tamaraxonim sahna uchun o'zbek ayollarining bayramona libosini moslagan va bu libos bilan raqqosalar 1925 yili yozda Parijdagi I jahon bezak san'ati ko'rgazmasida ishtirok etishgan edi. 30-yillarda raqs libosi ko'ylak, nimcha, torroq lozimdan ibora edi. Ko'ylak to'g'ri bichimli, ochiq yoqali, o'rtacha uzunlikda edi liboslar xonatlas, yorqin rangli krep, shifon kabi matolardan tikilgan. Ko'ylak ustidan baxmal, parcha yoki gilam matosidan tikilgan kalta nimcha kiyilgan. Bu liboslar majmui ayollarining bayram libosi bo'lib, u "o'zbek libosi" modasini tashkil etadi. Keyinchalik ko'ylak bel barobar qilinib, pastiga keng burmali yubka kiyila boshlandi. Shu ikki xildagi bichim o'zbek ayollari sahna libosini tashkil etdi.

Birinchi o'zbek raqqosalarining chiqishlari yuz minglab kishilarni hayratga solib, tomoshabinlarni maftun etib qo'ydi. Ammo raqqosalarimiz mahalliy mutaassiblarning qarshiligiga ham uchradi, ular raqqosalarga nisbatan keskin choralar ham ko'rdilar.

20-yillar oxirida birinchi o'zbek raqqosalarga Xolchaxon va Nurxon mutaassiblar tomonidan vahshiyona o'ldirildi. 1929-yili Nurxon Yo'ldoshxo'jayeva qotillari ochiq sud qilindi. O'zbek ayollari bunday jaholatga norozilik bildirishib, "artistlik"ka yozila boshladilar.

Mukarrama Turg'unboyeva pedagogik texnikumda o'qib yurgan paytidek (1927-1929-yillar) teatrdan ishlashni, raqqosalikni orzu qilib yurardi. Nurxonning o'limi unga juda qattiq ta'sir qildi va u hayotini san'atga bag'ishladi. U "teatr-maktab" ekanligini tushundi. Mukarrama Turg'unboyevaning teatr sahnasiga chiqishi san'at olg'a qarab intilayotgani, bu jarayonni to'xtatib bo'lmasligini isbotladi. Uning san'ati insonning sirli kechinmalari ifodasi sifatida tomoshabinlarni go'zallik dunyosiga oshno qildi.

Taniqli o'zbek raqqosa va baletmeysteri Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy yo'li o'zbek xoreografiyasining shakllanish bosqichlarini o'zida aks ettirdi.

O'zbek musiqali teatrida ish boshlaganidan to 1936-yilgacha bo'lgan davr Mukarrama Turg'unboyeva uchun o'zbek raqs me'rosini o'rganish va raqs mahoratini egallash davri bo'ldi. Yosh raqqosa yig'inlarda xalq raqslarini ijro egiluvchilarni ko'p kuzatdi va ularning raqslari Turg'unboyeva uchun o'ziga xos darslik bo'ldi. Mukarrama Turg'unboyevaning professional raqqosa bo'lib yetishishida taniqli san'atkor Yusufjon qiziq Shakarjonov, marg'ilonlik raqqosa Qimmatxon Sultonova va namaganlik raqs aktrisasi Sharofat Satang ustozlik qildilar. U musiqali teatrdan Usta Olim va Tamaraxonimdan saboq oldi. Doira usullari jo'rligida Farg'ona raqs maktabining "Katta o'yin" ohang-plastik usullarini o'rgandi.

O'zbek raqsining har bir maktabi o'ziga xos nafis kuy-ohanglari va plastik qismlari bilan ajralib turadi.

Professional raqqosalar raqs sir-asrorlarini uzoq yillar davomida o'rganadi. Raqsning eng sodda texnikasini egallagach, uni ijro qilayotganda usulga tushish, qoidaga kirib qolgan shakllarni eslab qolish talab qilinadi. Raqsni o'rganish nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishni egallashni ham taqozo etadi.

"Qomatni tutish" va "mushaklar kuchini taqsimlash" kabilardagi o'ziga xoslik ham o'zbek an'anaviy raqsi uchun mumtoz maktabining har biri betakror ekanligini ko'rsatadi.

Yevropacha mumtoz raqsining dastlabki holatida qomat adl tutilib, oyoqlar mushagi, tizza tarang, yelkalar erkin, yelka tushirilgan, bel tekis, qo'llar mushagi tirsakdan xiyol egilgan bo'ladi.

Farg'onacha raqsda ham oyoq mushaklari tovondan belga tarang tutiladi. Lekin bel mushaklari bir oz bo'sh qo'yilib, oyoqlar xiyol bukiladi. Asta qadam qo'yilib, yengil o'tiriladi, tizza o'z o'rniga keladi. Oyoqlarning yengil egilishi tufayli mumtoz raqsda kabi kontrapunkt chizig'i belning kichik markaziy qismiga emas, yelka mushaklari bo'ksaga bosim o'tkazadi. Qo'llar yo erkin yoki yig'ilgan vaziyatda bo'ladi. Farg'onacha raqsda qo'llar "cho'zilgan" bo'lib, ular o'simlik dunyosining

badiiy ifodasiga aylanadi. Ya'ni barglar va maysalarning shamolda yengil tebranishini ifodalaydi. Xorazmcha raqslarda esa oyoqlar mushagi kuchi boldirdan tizzaga yo'lantirilib, tizzalar bukiladi. To'qnashuv chiziqlari bel, bo'ksa, tizzalar o'rtasida o'zgarib turadi. Yelka bir oz pastga osilib turadi. Qo'llar ham erkin qo'yilib, panjalar doim nafis harakatlantiriladi. Ularning nozik titrashini ko'rsatish uchun ko'p mashq qilishga to'g'ri keladi.

Xorazm raqslari o'simlik dunyosini emas, balki jonzotlar dunyosini o'zida aks ettiradi. Undagi harakatlarda qushning parvozi, otning chopishi, kaklikning yo'rtishi kabilarni anglash mumkin. Xorazmcha raqsda tananing ayrim harakatlari, undagi murakkab raqs lisoni hayvonot dunyosi hayotini ifodalaydi. Unda makon to'la egallanadi, qomat xuddi uchayotgandek, qo'llar goh keskin, goh nozik harakat qiladi. Xorazmcha raqsda keskin o'tirib-turish, sakrash ko'p. Unda ko'krak mushaklari ko'p bora silkinadi.

Buxorocha raqsda qomatning yelkadan pastki qismi erkin qo'yiladi. Tana harakati davomli va sirli. Uni bajarishda mushaklar kuchi yo'nalishini o'ziga xos tarzda tashkil qilish talab etiladi. Bel qismi orqaga turtib turadi (ispancha raqsdagi kabi). Bu qo'llarning erkin, shiddatli harakat qilishiga yordam beradi. Oyoqlar yarim o'tirish, yarim aylanishga tayyor turadi. Shu asosda oyoqlarning to'la burilishiga imkon yaratiladi. Buxorocha raqslarda farg'onachadagi kabi qo'llar cho'zilmaydi. Ularda tirsaklar qattiq bukilgan holatda bo'lib, panjalar harakati quruqroq chiqadi. Harakatlar va panjalarni qarsillatish musiqaga mos keladi. Qomat adl, sho'xchan, qadamlar esa oddiy bo'ladi.

O'zbek xalq sahnaviy raqsining shakllanishi birinchi galda Asqar hoji Xaydaraliyevning XX asr boshida faoliyat ko'rsatgan ansambli va atoqli raqqos Hamdamxon nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Hamdamxon Farg'ona vodiysi shaharlarida, Toshkent va Samarqandda, 1905-yilda esa kavkazorti mamlakatlarida o'zbek xalq raqsini yangi asosda sahnalarda ijro etib, yangi yo'nilishni boshlab berdi. Ayniqsa, xalq sahnaviy raqsi taraqqiyotida Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isaxor Oqilov, Gavhar Raximova, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova va boshqa o'nlab raqs ustalarining, "Bahor", "Shodlik", "Lazgi" kabi ansambllarning xizmati katta. Baletmeysterlar va bastakorlarning say-harakati bilan o'nlab yakka tartibda ijro etiladigan o'yinlar, duetlar, ommaviy raqslarmamlakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o'zbek raqs san'ati zahirasidan joy oldi. "Tanavor", "Munojot", "Katta o'yin", "Bahor", "Pilla", "Paxta", "Lazgi", "Dilxiroj", "Cho'pon o'yin", "Namanganning olmasi", "Andijon polkasi" va boshqalar shular jumlasidandir. Ular mumtoz raqslarga aylangan. Shu asosda raqqos va raqqosalarning bir qancha avlodi kamolga yetdi. Raqs uslublari, mahorat asoslari, harakatlar silsilasi avlodan-avlodga o'tib, yashab kelmoqda.

O'tgan XX asrning dastlabki 20 yilida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy parokandalik, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, mustamlakachilik siyosati, xalq hayotidagi turli o'zgarishlari, shu yillar mobaynida jamiyatning barcha jabhalaridagi shiddatli jarayonlar, albatta, madaniyat va san'at sohasiga ham o'z ta'sirining ko'rsatdi. Jamiyat hayotidagi mana shunday o'zgarishlar xalq madaniy hayoti ayniqsa raqs san'atining nodir namunalari yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan.

XX asrda mamlakatimizga professional teatr san'ati kirib keldi. Uzoq asrlar davomida maishiy hayot, diniy udumlar zamirida paydo bo'lgan raqs san'ati ustoz san'atkorlar: raqqos va raqqosalar, keng xalq ommasi tomonidan xalq bayramlari, ommaviy tomoshalari, to'y va marosimlarida ijro etilib, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib keldi.

XX asr sahna madaniyatining paydo bo'lishi xalq raqslarining professional sahnaviy raqs sifatida qaytadan yaralishiga, ansambllar faoliyatining shakllanishiga turtki bo'ldi. Ustoz raqqos va raqqosalar Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov, Roziya Karimova, Galiya Izmaylova, Qunduz Mirkarimova singarilarning o'zbek milliy professional raqsining jahon andozalariga mos ravishda qaytadan yaralishida xizmatlari katta bo'ldi.

Ulardan saboq olgan keyingi avlod ijodkorlari Ravshanoy Sharipova, Valentina Romanova, Halima Komilova, Klara Yusupova, Gulnora Mavayeva, Viloyat Oqilova, Ma'mura Ergasheva, Dilafruz Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhammedova, Malika Ahmedova, Gulchehra Foziljonova, O'g'iloy Muhammedova singari raqs san'ati ustalarining har biri o'ziga xos badiiy uslublar barpo etishgan. Ming yillar davomida yig'ilgan raqs san'atining durdonalari XX asrning 30 yillaridan boshlab raqs san'ati namunalari sifatida o'rganila boshlandi.

Ayni XX asrda o'zbek teatr san'atidagi o'zgarishlar raqs san'atining taraqqiyotiga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi. Natijada qisqa vaqt ichida professional o'zbek milliy raqs san'ati paydo bo'ldi va o'zining maktabiga ega bo'ldi. O'zbek raqsining har bir maktabida o'ziga xos shakl ketma-ketligi, kuy va ohang, imo-ishoralalar, xarakat xohlatlarini farqlanishi sezilib turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avdeyeva L.A. Ozbek Milliy raqsi tarixidan. –Тошкент: Mukarrama Turgunboeva nomidagi “O'zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001 y.
2. Авдеева Л.А. Мукарамма Турғунбоеванинг рақси. –Тошкент: Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989 й.
3. Авдеева Л.А. Танцевальное искусство Узбекистана. –Ташкент: Государственное издательство художественной литературы Узбекской ССР, 1966 г.

4. Каримова Р. Ферганский танец (методическое пособие). -Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1973 г.
5. Каримова Р. Харезмский танец. –Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1975 г.
6. Каримова Р. Бухарский танец (методическое пособие). –Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1977 й.

## XONANDALIK OVOZLARINING MAQOMOTDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Abdullayev Lochin Tolipovich  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMMSI

**Annotatsiya:** Xalqimizning musiqa boyliklari juda ham ko'p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz kishiga quvonch, xursandlik bag'ishlaydi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda milliy kuy qo'shiqlarimiz bilan bir qatorda ulug'vor maqomlarimiz ham takomillashib serjilo bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada maqomot tizimida xonandalik ovozlari va ijro maktablarining o'ziga xosliklarini yoritishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** Shashmaqom, an'anaviy xonandalik. rost, navo, Al-Farobiy, pang ovoz, nor ovoz, jarangdor ovoz, jarangdor kuvrak ovoz, Rasul qori Mamadaliyev, Komiljon Hamroqulov, kuyuk tik ovoz, xasta ishkami ovoz

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SINGING VOICES IN THE AUTHORITY

Abdullayev Lochin Tolipovich  
UzINMA named after Yunus Rajabi

**Abstract:** The musical wealth of our people is very diverse, rich and colorful. Our wonderful melodies bring joy and happiness. In today's fast-paced world, along with our national anthems, our glorious status is also improving. In this article, we have tried to highlight the peculiarities of singing voices and performance schools in the system of authorities.

**Keywords:** Shashmaqom, traditional singing. true, navo, Al-Farabi, pang voice, nor voice, resonant voice, resounding voice, Rasul qori Mamadaliyev, Komiljon Hamroqulov, hot standing voice, sick ishkami voice

O'zbek milliy musiqa san'ati juda qadimiy tarixga ega. Buni milliy asarlarimizning, cholg'u sozlarimiz va kuylarimizning mukammalligidan bilishimiz mumkin. Musiqa san'ati ijrochiligida an'anaviy xonandalik boshqa yo'nalishlarga nisbatan keng qamrovli, yetakchilik xususiyatiga ega yo'nalishdir. Musiqaning mukammalligi, sehri, zabardastligi hamda ifodaviyligi xonanda talqinida to'laqonli ifodalanishi muqarrar. Shu bilan birga inson ovozi jamiki sozlarning asosidir. Tarixda nimaiki yaratilgan bo'lsa, kashf etilgan bo'lsa, musiqiy cholg'ular namunasida bo'lsa, unga, albatta, inson ovozi ibrat bo'lgan. Shu bois, inson ovozining imkoniyatlari, sir-u

sinoatlari, turli mezonlariyu behisob jozibalari bashariyatni hayratga soladi. Bu asrorlarni idroklash uchun kashfiyotlar, turli urinishlar, ilmiy va ommabop tadqiqotlar olib borilgan. Bu jarayon zamonamizda ham o'z oqimida davom etib, turli yo'nalishlarda izlanishlar olib borilayotganligi quvonarlidir.

“O'zbek musiqasida an'anaviy xonandalik sohasining bir qator turlari mavjud. Ular milliy an'anaviy ijro uslublaridan toki vokal ijrochiligi andozalaridagi eng mumtoz talqinlar bilan xarakterlanadi. Chunonchi, bunday ijro uslublarining butun bir tarkibiy tizimi hamda an'analarini o'zida mujassam etganki, har biri o'z o'rnida ahamiyatli va muhimdir. Asosiy mezon esa sof ovoz, jozibali, mukammal talqin, keng diapazon, shunga xos ko'lam va mahoratda o'z ifodasini topadi. Bunga erishish uchun esa saboq, ilm, bilim, sabot hamda uquv lozimdir. Qo'shiq insonning doimiy hamrohi, ovunchog'i va madad**Qoridir**. Qo'shiq va musiqaning betimsol ruhiy quvvati odamzodni hayotga va ezgulikka chorlab kelgan. Soz chalinganda inson tanasidagi jon junbushga kelgani, goh qo'l, goh oyoq, goh tana harakatlarida yo'z, ko'z ifodasida va ayniqsa ovozda o'z aksini topadi. Bundan xulosa shuki, odamzod ma'lum bir e'tiqodni, muqaddas g'oyalarni o'ziga, o'zgalarga qudratli so'z, go'zal ohang orqali singdirgan va undan ta'sirlangan. Xalq orasida: —Alloh tomonidan xushsado, go'zal ovoz ato etilgan kishi yarim podshohdur!, degan hikmat bor. Ovozlar insonning jismoniy to'zilishiga ham bog'liq. Masalan, og'zi nisbatan katta, tanglayi keng, burni o'zun bo'lgan xonandalar ovozi o'ta jarangdor, rang-barang tembrli **yuQori** pardalarga bemalol ovozi qiynalmay chiqib tushadigandek qobiliyatga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bo'y o'zunligi, o'pkaning kengligi ham yetuk ovoz sohibi bo'lishda katta ahamiyatga ega”. [1]

Xonandalar uchun tabiiy iqlim sharoiti va ularning jismoniy to'zilishi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xonandalar boshqa mamlakatlarda gastrol-konsert safarlarida bo'lsalar, ba'zi holatlarda ovoz yurmasligi va hatto bo'g'ilib qolishi holatlari ham uchrab turadi. Lekin ba'zida shunday bo'ladiki, boshqa o'lkalarda ovozi ochilib ketishi, hattoki o'z vatanida ham ovozi bunchalik jaranglamaganligi ko'zatiladi. Bunday ijrolar, albatta, xonandaning kayfiyati, yaxshi hordiq chiqarganligi, toza, sof havodan nafas olishi, hatto qanday taom tanavvul qilishiga ham bog'liqdir. Xonanda kayfiyatining tushishi ham ijro uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sahna ortida ijroga tayyorgarlik ko'rayotgan xonandaning kayfiyati ko'tarinki bo'lishi shart. Chunki ijro qanday kayfiyatda bo'lsa bu eshituvchining kayfiyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

An'anaviy xonandalik bir qator o'zluksiz rivojlanib boruvchi omillarga tayanadi: kuy, she'r matnini puxta o'rganish, ijro maqsadini imkon qadar to'la ochib berish, ovoz yo'nalishidagi omomentik qoidalarni aniq ifodalash ana shunday omillardandir. Milliy musiqiy bezaklar, ovozning o'zbekona tuslanishi va sadolanishini ta'minlash, ijro jarayonini to'laligicha va alohida-alohida holda uni o'rab turgan ijroviy-ijodiy, ilmiy-

nazariy tomonlarini qiyosiy o'rganish san'atkorlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri. Ijroni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, mohiyatini anglashda innovatsion vositalar, xususan ovozli yozuvlar va albatta ustozona jonli ijrolardan foydalanish talab etiladi.

Ustozlar orasida ashulachilikda zarur bo'lgan tabiiylik va halollik xususiyatlari alohida e'tirof etilgan. O'z davrida ular katta izdihomlarda ashula aytishdan, undan oldin ikki rakat namoz o'qishgan. Ruhan va jismonan poklanganlar. O'zbekiston xalq hofizi, marhum Quvondiq Iskandarov "Ashulachining tomog'i, o'pkasi, oshqozoni toza bo'lishi kerak", - der edilar. Demak, bo'lg'usi xonandalarni parhezkorlikka, luqmai haromdan yiroq yurishga o'rgatib borish kerak. Bo'lajak hofizlarning xotirasini rivojlantirishda mumtoz shoirlarning sara baytlarini yod olishga ustozlar alohida e'tibor qaratishgan. O'zbekiston xalq artisti marhum, Hojixon Boltayev "Ashulachi kamida ming, bir yarim ming bayt bilishi kerak" degan iborani ko'p takrorlar edi.

"Ma'lumki, G'arb musiqasidagi tovushlarning nomi ma'lum bir ilohiy so'zlarning ilk bo'g'inlaridan olingan, shu ma'noda biz ham tilimizda mavjud maqom atamalarining tovush birikmalaridan foydalansak yomon bo'lmas edi. Buni men quyidagicha tasavvur qilaman. "Ro" - Rost maqomining birinchi ikki harfi. Rost - haq, to'g'rilik demakdir. "Mu" - Muhayyar so'zining birinchi bo'g'ini, muhayyar - hayratlanmoq. "Na" - Navo so'zining birinchi bo'g'ini, Navo - uchinchi maqomning nomi. "Cho" - Chorgoh so'zining birinchi ikki tovushi, Chorgoh - Toshkent-Farg'ona maqom yo'llarini to'rtinchisi, Xorazm va Buxoro maqomlarining sho'balaridan biri. "Se" - Segoh so'zining birinchi bo'g'ini, Segoh - maqomlardan birining nomi. "Xo" Xoro so'zining birinchi bo'g'ini. Segoh maqomi sho'balaridan birinlmg nomi. "la" - Taronas, maqomlar taronalari"[2]...

Al-Farobiyning fikrlarini ta'kidlab o'tmoqchimiz: "Musiqada ikki xil ovoz bor. Biri tabiiy ovoz bo'lib, u insonning xalqumidan taraladigan ovozidir. Uning tabiiyligi shundaki, hech bir inson ovozi boshqasinikiga o'xshamaydi, ya'ni dunyoda nechta odam bo'lsa shuncha bir-biriga o'xshamaydigan ovozlari bor. Qolaversa, o'zgarish, rivojlanish va so'nish hususiyatiga ega. Ikkinchi xil ovoz bu musiqiy cholg'ularning tovushidir. Ularning sun'iyligi shundaki, barchasi odam ovoziga taqlid qiladi. Bundan tashqari bir-biriga o'xshaydi, masalan: tanbur-tanburga, surnay-surnayga, skripka-skripkaga. Ularning ovozlari odam ovozidan farqli o'laroq o'zgarmaydi hamda umri o'zoq bo'ladi". Inson qo'li bilan yasalgan cholg'udan ko'ra inson ovoz san'ati mohiyatan birlamchi hisoblanadi. Ya'ni mavjud narsa birlamchi, yasalgan jism esa ikkilamchi va sun'idir. Shunga ko'ra ovoz tabiiy musiqiy soz bo'lganligi va boshqa inson qo'li bilan yasalgan sozlar unga taqlid etuvchi sifatida yaratilganligi aytib o'tilgan.

Bundan tashqari ovoz melizmlari haqida ham to'xtalib o'tish lozim. Melizm (Yunoncha qo'shiq, kuy) kuyning tempi va ritmik naqshini o'zgartirmaydigan tovushning turli ohangdor bezaklaridir. Ular notada maxsus belgilar yoki kichik nolalar



bilan ko'rsatiladi." Melizm - nola qochirim ma'nolari bilan bir qatorda har bir joyning o'ziga xos ovoz tembri ham ko'zda tutiladi. Maqomot tizimidagi xonandalik amaliyotida melizmlar juda kata ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos qonuniyatlarga ega.

So'z ustasi Yusufjon qiziq Shakarjonov: "O'zbek san'atini bir daraxt desak. uning ildizi Xorazmda tanasi Buxoro, Samarqandda, shoxlari vodiya va Toshkentga kelib gullaydi", degan ekan. Buxorolik san'atkorlar ovozi salobat hamda vazminlikda Xorazmlik xonandalardan hech ham qolishmaydi. Ularning o'ziga yarasha pastki pardalarda mung bilan birga jozibadorlik hususiyallari sezilib turadi. Buxoroning Olot, Qorako'l tumanlari xonandalari ovozlarida Xorazm vohasiga mansub jihatlari ham seziladi. Samarqand maktablari esa farqli o'laroq nolalar, qochirimlar ustivorligi bilan ajralib turadi, yuqori pardalarda ovozlarining to'liqligi bilan o'zgachadir.

Vodiy maktablari o'zicha bir olam deb aytishimiz mumkin. Bu yerdagi dardli, mungli ohanglar hech bir vohada uchramaydi. Vodiya ovozlar huddi o'zidan shikoyat qilayotgandek boy hissiyotga ega. Ijro paytida xonanda ekstaz xolatiga tushib, tinglovchilarni mast qilib qo'yish kuchiga ega. Shuning uchun ularda "Fig'on", "Girya", "Munojot" kabi dardli asarlar mavjud. Hatto sho'x o'ynoqi ashulalarni ham qanfadir g'amginlik va o'ziga xos mung bilan ijro qilishadi. Bu asarlarni albatta anashunday ijro etmasa bo'lmaydi.

Toshkentda ham ijrochilik maktablari juda ko'p bo'lib, ularni alohida maktablar sifatida e'tirof etish lozim. Qolaversa, bu maktablar ovozidagi dardu-hasrat ularning ovoz xususiyatlarida asosiy o'rinni egallaydi. Toshkentlik xonandalar ovozlariga emas balki so'zni chiroyli talaffo'z qilishga intiladilar. Ijro dasturida asosan nasihatoma ashulalar o'rin egallagan.

Xonandalikda ovozning tusi, jarangdorligi, kuchi, ko'lami, shiradorligi, uni ishlatish imkonlari va boshqa sifatlari tabiatan xilma-xil bo'lishi hisobga olinishi shart. Burungi davr ayrim savodxon musiqachilar tomonidan ovozlarni ta'riflash, bir-biridan farqlash, kasbiy jihatdan baholash uchun qator maxsus atama va iboralardan foydalanilgan. Demak, talaygina aniq tushunchalar og'zaki bo'lsa-da, muttasil ilmiy-amaliy muomalada bo'lgan. Ammo respublikamizda joriy etilgan maxsus musiqa o'quv tizimida avvalgi tajriba deyarli qo'llanilmadi. Ya'ni, akademik xonandalik ovozlari umumovropacha aniq nomlangan taqdirda, o'zbek milliy ashulachiligining tafsilotlari ko'pchilikka mavhumligicha qolaverdi. Oqibatda an'anaviy yo'nalishdagi eski ustoz-shogirdlik «maktablarining yutuqlari aksariyat hollarda kishilarning xotirasidan ham chiqayozdi.

O'zbek milliy xonandaligining Fargona-Toshkent udumlarini nazarda tutar ekanmiz, avvalo ashulachilar ovozining sifat darajasi hamda ovoz ishlatish yo'llarini hisobga olgan holda ular bir necha toifalarga ajratiladi. Asosiylari quyidagi nomlarda yuritilgan:

“Nor ovoz”

“Tik ovoz” (yoki “jarangdor ovoz”)

“Jarangdor kuvrak ovoz”

“Kuyuk tik ovoz” (yoki “jarangsiz ovoz”)

“Bo’zak ovoz” (yoki “moda ovoz”)

“Pang ovoz”

“Ishkami ovoz”

“Nor ovoz” (ma’nosi “tuya ovoz”) tovushlar kulamining kengligi, salobatli kuchga e egaligi bilan ta’riflanadi, Bunday toifadagi ovoznining pastu baland oralig’i katta bo’lishiga qaramay, ayni paytda ovoz sifati yumshoq, mayin hamda egiluvchandir. Odatda bunday ovoz sohibining tepa pardalari o’ta baland darajada bo’lmaydi. Tasavvur etishga qulay bo’lishi uchun amaldagi nota yozuvi yordamida belgilanadigan bo’lsa, bunda uning kenglik ko’lami, ya’ni diapazoni birinchi oktava “do” tovushidan qariyb uchinchi oktavadagi “do” tovushigacha yetadi. Undan yuqoriroq tovushlarini “nor ovoz”li xonanda olishi qiyin.

Yorqin “nor ovoz” sohiblaridan, misol tariqasida, avval tilga olingan Umrzoq Polvon Saydali qatorida mashhur o’zbek hofizlaridan Ortiqxo’ja Imomxo’jayev, Abdulla Taroq Fayzullayev, Jumavoy Polvon, Sayidxon To’ram (Andijon) kabilarni eslab o’tishimiz mumkin.

«Nor ovoz” og’iz bo’shlig’ida, ya’ni tanglay tomonda “urib” chiqarilishi bilan ham yoqimlidir. Bu sifat ovozda xalq va bastakorlik ashulalari, yallalar, katta ashulalar, shuningdek, maqom ashula yo’llari chiroyli va ta’sirchan ijro etiladi. Katta ashula aytilishida esa, odat bo’yicha, ya’ni ikki yoki uch ishtirokchi hamnafasligida ijro etilgan taqdirda, aynan “nor ovoz”li xonanda ashulani boshlab beradi, so’ngra qolganlar navbatma-navbat keyingi bayonlarda qo’shilishib, so’ngra birga tushirishadi.

“Tik”, yoki “jarangdor ovoz” ko’proq Farg’ona vodiysi Toshkent mahalliy uslubiga xos bo’lib, u har-xil ashulalarni, ayniqsa katta ashulalarni ijro etishda alohida o’rin egallaydi. Chunki ilgarigi vaqtlarda tom ma’noda “tik ovoz”i bo’lmagan ashulachilar umuman ashulachi hisoblanmas edi. Ma’lumki, ayrim musiqachilar dutor yoki tanburda o’z jo’rligida ham ashulalar ijro etardilar. Ular ham sozanda, ham xonanda bo’lib, tik ovozlari bilan avjda uchinchi oktava “re”-“mi” tovushlarini bemalol olardilar. Bunga misol bula oladigan zabardast hofizlardan Berkinboy Fayziyev, Komiljon Qurbonov, Turg’un novcha, Mulla Kenja Xoliqov, Mirzaolim, Abdurayim Qori (Xonobod), Musajon aka (Shahrixon), Foziljon va Ikromiddin, Mamadbuva Sattorovlar ham ana shular safidagi ashulachilardir. Bular ham maqom yo’llari, ham katta ashulalarni me’yoriga yetkazib ijro etgan xonandalardan.

«JARANGDOR KUVRAK OVOZ” Bunday ovozlari o’zbek xonandalari orasida ko’plab uchraydi. Kuvrak ovoz past pardalarda ham, yuqori pardalarda ham o’zining jarangdor sifatlarini yo’qotmaydi. Uning tabiati shundaki, jarangdorligi va tiniqligi tufayli xatto jo’rovoqlikda ham ajralib eshutilaveradi. Avj pardalari yuqori, jumladan

uchinchi oktava "do" tovushiga qadar yetadi. Shuningdek, quyi pardalarda ham bunday ovoz aniq va ravon eshitiladi. Taraladigan tovushlarda ko'proq o'ynoqi, bezaklarga boy pardalar ko'pligini kuzatish mumkin. Misol qilib Ma'murjon Uzoqov, Akbar Xaydarov, Rasul Qori Mamadaliyev, Komiljon Xamroqulov, Zokirjon To'rayevlarni aytish mumkin.

"KUYUK TIK OVOZ" lar ko'proq katta ashulachilarga xos bo'lib, ular ashulaning eng yuqori pardalarini zabt eta oladilar. Aslida bunday ovoz jarangsizroq eshitiladi. U ashulaning eng pastki tuzilmalarida aniq eshtilib-eshitilmay tursada, o'rta pardalaridan boshlab yaqqol ajralib yangraydi. To'g'risini aytganda, pastki pardalar kamrok bo'ladi. Ashula rivoji hisobiga ularning avj pardalari juda baland bo'lib, toki uchinchi oktavaning "mi", "fa", xatto "fa dyez" pardalarigacha yetib boradi. Bunday ovoz sohiblaridan atoqli hofiz va bastakor Jo'raxon Sultonov, shuningdek, Abbos qori, Xaydarali Hikmatov, Xudoyberdi Qori, Nabijon Saidnazarov (Chinobod), Muyiddinxoji Alixujayev, Mannon Qori (Andijon), Mamatxo'ja Eshon, Nazir Polvon (Andijon) va boisha qator ashulachilarimiz yorqin misol bo'la oladi.

«XASTA ISHKAMI OVOZ» egalari ham xonandalar orasida ko'p uchrab turadi. Bunday ovoz yordamida uncha yuqori pardalarni zabt etib bo'lmasa-da, u o'zining ta'sirchanligi bilan tavsiflanadi. Uning eshtilishi go'yo o'zidan shikoyat qilayotgandek, xol-ahvolidan sa'mimiy dil izhoridek tuyulib, kishiga o'zgacha ta'sir qiladi va huzur bag'ishlaydi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, "Xasta ishkami ovozning pastki qismlarda ham, yuqori pardalarda ham jarangdorligi nisbatan kamroq bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak maqomot tizimida xonandalik ovozlarning ko'p qismidan unumli foydalanish mumkin. Ularning ijro imkoniyatlari orqali maqomotda o'ziga xos go'zal o'zbekona melizmlarni ishlatish, bu orqali esa o'zbek mumtoz maqom ijrochiligining yanada rivojlanishiga tom ma'noda o'z hissalarini qo'shish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "An'anaviy xonandalik"., Abduraim Tursunov., Termiz – 2019;
2. "Yakkaxon qo'shiqchilik"., O'lmas Rasulov., Toshkent-2017;
3. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari"., Fattohxon Mamadaliyev., Toshkent-2001;
4. "An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubiyoti"., Sh.Matyoqubov., Toshkent-2015;
5. "An'anaviy xonandalik asoslari"., Sh.Matyoqubov., Toshkent 2022.

## BOBUR SHARQ RENOSANSI NAMOYONDASI

Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich  
xudoyberganov1979@gmail.com  
Qo‘qon DPI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk davlat arbobi, shoh va shoir, uyg‘onish davrining yetuk timsoli, Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsini o‘ziga hos jihatlari talqin qilingan. Yuksak fazilat, mardlik, jasorat, erkinlik homiysi sifatida iz qoldirgan alloma merosini o‘rganish, milliy g‘oyaga sodiqlikni, vatanparvarlik tuygusini, yuksak ma‘naviy-axloqiy qarashlarni, mafkuraviy immunitetni, umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish mexanizmlarini yaratishning dolzarbligi masalasi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, Sezar, Uilyam Erskin, davlat, arbob, shoh, shoir, uyg‘onish davri, timsol, shahs, g‘arb olimlari, tarix, xalq, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, Hindiston, turk, ijtimoiy-tarixiy, ilmiy-tabiiy, adabiy, lingvistik, ma‘lumot.

## BOBUR IS A REPRESENTATIVE OF THE EASTERN RENOSANCE

Khudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich  
xudoyberganov1979@gmail.com  
Kokand State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article describes the personality of the great statesman, king and poet, the leading figure of the Renaissance, Zahiriddin Muhammad Babur. The study of the legacy of the scientist, who left his mark as a patron of high virtue, courage, bravery and freedom, the urgency of creating mechanisms to form loyalty to the national idea, patriotism, high moral and ethical views, ideological immunity, respect for universal values.

**Keywords:** Zahiriddin Muhammad Babur, Caesar, William Erskin, statesman, statesman, king, poet, Renaissance, emblem, person, western scholars, history, people, national values, historical memory, India, Turkish, socio-historical, scientific-natural, literary, linguistic, information.

«Bobur fe‘li-sajiyasiga ko‘ra Sezarga qaraganda sevisga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan». *Eduard Xolden, ingliz tarixchisi*

Dunyodagi har qanday millat milliy qadriyatlarini o‘z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo‘qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek, “buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.”<sup>1</sup> Buyuk allomalarimiz bebaho merosi, yringilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularni milliy g‘urur va iftixob tuyg‘ularini kuchaytirishda Zaxiriddin Muhammad Bobur timsoli alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek xalqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan, temuriy hukmdorlar orasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan davlat arbobi, buyuk sarkarda, tengsiz iste’dod sohibi, matonatli, haqgo‘y shoh va shoir- Zahiriddin Muhammad Bobur ibn Umarshayx Mirzodir(1483-1530). Boburning hayoti va ijodi, davru zamonlar o‘tgani sayin necha avlodni qiziqtirib kelmoqda. U nihoyatda qisqa davrda yashab o‘tgan bo‘lsada, lekin mana besh yuz yildirki, to‘xtamay o‘rganilishda davom etayotgan hayot va ijod yo‘li naqadar nurafshondir. Bobur shaxsiyati, davlat boshqaruvi hamda ijod faoliyati haqida turli davrlarda samarali izlanishlar olib borilgan va juda ko‘plab ilmiy-tarixiy asarlar yaratilgan. Ana shunday asarlardan birning muallifi ingliz tarixchisi va tarjimoni Uilyam Erskindir.

U.Erskin (1773-1852) yetuk sharqshunos olim bo‘lib, shotlandiyalik katta yer egasi oilasida tavallud topgan. U.Erskin 1803 yilda taniqli faylasuf olim va iqtisodchi Jeyms Makkintosh taklifiga ko‘ra, uning shaxsiy kotibi sifatida Xindistonning Bombay shahriga keladi. U 1809 yilda ingliz tarjimoni Jon Leyden bilan hamkorlikda Bobur tarixiga oid manbalar tarjimasini boshlab, 1816 yilda yakuniga yetkazdi. Uilyam Erskin Bombaydan turib, Londondagi noshirlarga yozgan xatida tunganmas ganjina topib olgandek xursandligini bildiradi va «Boburnoma»ni tarjima qilayotganidan xabar beradi. Bu izlanish orqali, tarjimon Boburdan Avrangzebga bo‘lgan temuriylar tarixini yaratadi. Bu kitob “Bobur Xindistonda”nomini oladi. Erskin kitobga kattagina muqaddima yozib; «Biz, Osiyodagi hukmdorlar ichida Bobur singari genial va talantli kishilarni kamdan-kam uchratamiz. Aqlining aktiv faoliyati, xushchaqchaq va sovuqqonligi, bevafo taqdirning nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi, podshohlar orasida juda kam uchraydigan saxiyliги, mardligi, iste’dodliligi, fanga, san’atga muhabbat va ular bilan faol shug‘ullanishi jihatidan

Osiyo podsholari orasida Boburga teng keladigani yo'q»<sup>2</sup> deb Bobur va uning asarini ingliz kitobxonlariga tanishtiradi.

Erskin o'z asarining kirish qismida Bobur shaxsiyatini quyidagicha ifodalaydi; "Hindistonni zabt etilishiga asli zoti temuriylardan bo'lmish Bobur va uning hamrohlari jasorati tufayli erishildi. Uning yoshlik yillari ham shu irqqa mansub qabilalar orasida o'tganligi uchun davlatni boshqarish va idora qilish uslubida ham bu cho'l o'g'loni faoliyatida ikki ulkan qabila- mo'g'illar va o'zbeklarning ta'siri sezilib turadi"<sup>3</sup>. Erskin yuqoridagi fikrlari orqali bir haqiqatni ochib berganligi diqqatga sazovor, birinchidan: Bobur har tomonlama yetuk, qobiliyatli, Javoharlal Neru aytganidek, "Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan, u san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko'radigan ko'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan"<sup>4</sup> va o'sha davr uchun noyob fenomen ekanligi bo'lsa, ikkinchidan; uzoq yillar ayrim tarixchilar tomonidan Bobur saltanati "Mo'g'illar imperiyasi", Boburni esa mo'g'illardan kelib chiqqan sarkarda sifatida noto'g'ri talqin qilinishini ko'rsatib berdi. U o'z asarida Bobur va uning ajdodlari kelib chiqishi jihatidan turkiylardan ekanligiga urg'u beradi. "Turklar juda ko'p asrlar davomida Gobi cho'llari va g'arbiy Mo'g'iliston, janubda Qashqar va Pomir tog'larigacha, Xuroson, Kaspiy va Qora dengizlarigacha, g'arbda esa Don va Volga bo'ylarigacha, shimolda esa Sibirgacha bo'lgan ulkan hududni egallab yashaganlar. Turkiy tillarda so'zlashuvchi qavmlar qaysi urug'ga mansubligidan qat'iy nazar o'zlarini turklar deb biladilar"<sup>5</sup>. Erskin tarixiy voqealarni Bobur tilidan izohlash bilan birga, uning shaxsiyatidagi mardlik, oliyjanoblik, qa'tiy tartib intizom, shaxsiy ma'sullik kabi yuksak hislatlarini ko'rsatib o'tadi. Boburning Andijondan to Hindistongacha bosib o'tgan mashaqqatli hayot yo'lini aniq voqealar asosida tasvirlaydi. Masalan asardagi "Hindistonning olinishi va Panipat jangi" bo'limida shunday yozadi; "Boburning keyingi yillardagi hayoti tarixda o'chmas iz qoldirgan jasoratli ishlarga to'la bo'ldi. Bobur sharq mamlakatlari taxtiga yarashib tushgan hukmdorlarning yorqin namoyondalaridan biridir. Uning shaxsi olijanob inson va ulug' shohga mansub bo'lgan fazilatlardan tarkib topgan. U jasur va tadbirkor hamda shijoatli sarkarda bo'lib, kishilarni o'z ortidan ergashtira oladigan tashkilotchi lashkarboshi edi. U ko'ngli beg'araz hamda ishonuvchan kishi bo'lib, yoshlik g'ayrat va shijoati uni hech qachon tark etmagan. U bag'ri keng, ko'ngilchan inson bo'lganligi tufayli uy ichidagilariga iliq muomala qilar, qarindoshlari va do'stlari haqida doim g'amxo'r hamda qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligidan qa'tiy nazar kishilarning tashvishlariga hamdardlik bildirishga tayyor turadigan saxovatpesha kishi edi"<sup>6</sup>.

Boburda bobosi Amir Temurdek go'zallikni va san'at asarlarini qadrlash xususiyati bo'lib, ular orasida me'morchilik va bog' yaratish sa'nati alohida o'rin egallagan. Bobur bilimga bo'lgan chanqoqligi tufayli ham bilim olishga intilganlarga

hamisha otalarcha g'amxo'rlik qilar edi. Uning yaxshi xislatlaridan yana biri, shijoatliligi va muruvvatni ustun qo'yishidir.

Bobur shuningdek, ijodkor sifatida nozik did bilan yaratilgan "Turkiy devon", "Mubayyin" asarining muallifidir. Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida «Boburnoma» alohida ajralib turadi. "Boburnoma"ning A.J.Klaprot, A.Longper'e, M.Langle, A.Pave de Kurteyl, F.Grenard, Barye-Grammon kabi tadqiqotchi va tarjimonlari Bobur merosining tarixiy-etnografik, bibliografik hamda lingvistik jihatdan tavsif qilish bilan Yevropada boburshunoslikning rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Qolaversa, Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-fan, adabiyot va san'atga baxshida boy merosini to'plash, nashr etish hamda jahon miqyosida munosib baholamoq uchun yuqoridagi manbalarni e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.<sup>7</sup> Zaxiriddin Muxammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asarlar ijtimoiy-tarixiy, ilmiy-tabiiy va adabiy-lingvistik ma'lumotlar xazinasidir. Unda 1494 yildan 1530 yilgacha O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish, jangu-jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qiladi, manzara chizadi, tabiatni, etnografik holatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Buni U.Eriksin quyidagicha tasvirlaydi; "Osiyo tarixining sovuq ulug'vorligi o'rtasida, kun bo'yi yig'lab yurgan va yig'isi haqida birga o'ynab yurgan o'rtog'iga aytganidek bizga hikoya qilib berayotgan podshohni uchratish dilimizga taskin beradi" Boburning ulug'vorligi ham shundaki, uning haqiqatni real ifodalaganidir.

Muxtasar qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimiz boy tarixiy merosini o'rganish, ilmiy tadqiq etish, biz uchun sharafdir. Bu esa hozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash, Vatanni sevish va unga sodiq bo'lishda hamda davlatimiz suverenitetini g'oyaviy jihatdan mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilandavom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: "O'zbekiston" NMIY,2018.- 29 b.
2. Erskin. U. Bobur Xindistonda. Bobur xukumronligi davrida Xindiston tarixi. T. Cho'lpon nashriyoti.1995 6-b
3. o'sha asar. 6-6
4. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/mashhur-kishilar-bobur-haqida/>
5. Erskin. U. Bobur Xindistonda. Bobur xukumronligi davrida Xindiston tarixi. T. Cho'lpon nashriyoti.1995 6-b
6. o'sha asar. 6-6

7. <http://uchildiz.uz/bobur-merosi-jahon-olimlari-nigohida/>



## БЕРДАҚ НОМИДАГИ ҚОРАҚАЛПОҚ ДАВЛАТ АКАДЕМИЯЛИК МУСИҚАЛИ ТЕАТРИНИНГ ТАРИХИЙ ЧЕГАРАЛАРИ

Абиев Султанбек Қалбай улы  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Театр санъатининг мураккаблиги ва унинг ўзига хос жиҳати шундаки, актёр томошабинлар олдида чиқиш қилиб, узоқ умр кўра олади. Ўйин давомида томошабинга таъсир қилувчи омилларни ёдда тутиш керак.

**Калит сўзлар:** Театр, сахна сахнаси, қўшиқ матни, диалог, суҳбат, актёрлик театр санъати, театр томошасида уч устун, ижод.

## HISTORICAL FRAMEWORK OF KARAKALPAK STATE ACADEMIC MUSICAL THEATER NAMED AFTER BERDAKH

Abiev Sultanbek Kalbay uly  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The complexity of theatrical art and its exceptional feature is that the actor can speak to the audience and live longer. It is important to remember the factors that influence the viewer during the game.

**Keywords:** Theater, the stage, lyrics, dialogue, interviews, acting, three pillars in a theatrical performance, creativity.

Театр санъатининг энг муҳим таркибий қисми - актёрдир. Аммо театрда саркор, яъни режиссёр бўлмаса театр ҳам бўлмайди. Режиссёр ғоявий етакчи, ижодий жараённинг илҳомлантирувчиси, сахна асарини яратиш учун театрдаги барча кучларни бирлаштирувчидир. Театр санъатида режиссёр учун ҳаракатланувчи актёр хом ашё вазифасини бажаради, у орқали, режиссёр томошабин қизиқиш билан кузатадиган спектаклдаги ғоявий курашув жараёнини келтириб чиқарадиган зиддиятларни очиб беради. Ихтилофлар келтириб чиқарувчи актёр билан ишлаш, режиссёр ижодининг энг муҳим таркибий қисмидир. Таъсирчан, жонли спектакл сахналаштириш учун режиссёр актёр ижоди психологиясини билиши, актёр билан ишлаш маҳоратини эгаллаши зарур.

Актёр қалбида кечаётган жараёнларни сезиши, сахна ва ҳаётда ўзини қандай ҳис қилиши, ижодий ҳолатини тушиниши керак. Унинг изланишларига йўл кўрсатиши, таҳлил қилаолиши муҳимдир. Ижодий изланишлар жараёнлари қатламага ўхшайди: Режиссёр томонидан берилган таклифни қабул қилиб олар

экан, актёр уни ҳар томонлама бойитади, шу билан бирга режиссёр фантазияси учун йўл очиб беради. Ўз навбатида режиссёр актёр топилмасини яна ҳам ривожлантиради ва шу орқали бадиҳа учун кенг имконият барпо қилади. Ўз навбатида актёр ҳам режиссура асосларини, атамаларни билиши, сахнавий тимсол яратиш учун хатти-ҳаракат услубиятини ўзлаштирган бўлиши лазим. Айни мана шу биргаликдаги хатти-ҳаракат таҳлили услуби ёрдамида спектакл туғилади. Мустаҳкам синчларга таяниб барпо этилмаган спектаклда актёрнинг барча ҳаракатлари ҳавога соврилиши мумкин. Ижодий жараёнда режиссёрга бус-бутун итоат этадиган актёр (акс ҳолда бош-бошдоклик бўлади) режиссёрнинг ҳамфикр сафдошига айланади.[1.Б.33]

Театр санъатининг мураккаблиги ва бошқа санъатлардан фарқ қиладиган жиҳати - актёр томошабин кўз олдида ижод қилиши ва кўп нарса уларнинг муштарак яшашига боғлиқлигидадир. Спектакль тайёрланиш жараёнида томошабинга таъсир этиш омилларини эсда тутмоқ зарур.

Актёр ижодининг асосий омили - "ўйиндир". Томошабини ўйинга чорлай билиш керак. Бу жиддий драма ёки комедия бўладими фарқи йўқ. Аввалдан келишиб олинган қоидалар асосидаги "ўйин". Бу борада - тарғибот, реклама, афиша, спектакль дастурининг ўрни ҳам аҳамиятлидир. Реклама -ўйинга чорловчи, томошабин тасаввурини кўзгатувчи, спектакл қабул қилишга ундовчи воситадир. Томоша зали, сахнанинг жойлашуви, муҳит қабул қилиш жараёнига таъсир ўтказиши. Саҳна безакларнинг шакллари ўзгариб боришига ҳам аҳамият бериш керак.

Одатда, театр тарихи ҳақида гап кетганда, муҳим саналар, спектакллар, уларнинг муаллиф ва режиссёрлари хусусида фикр билдирилади. Айни дамда, мана шу ижодий ишларни миллий менталитет, миллий колорит тамойилларига дахлдорлик нуқтаи назаридан таҳлил қилишга ҳаракат қилиб кўраимиз.

Авалло Қорақалпоқ театри ташкил топиши ва мустақилликкача бўлган йўлда маълум даврларни бошдан кечирди. Бу даврларни шартли равишда қуйидаги кетма-кетликда ифодалаш мумкин.

- Театрнинг вужудга келиш даври;
- Москва студиясидаги таҳсилгача бўлган давр;
- Москва студияси таҳсилдан кейинги янгиланиш даври;
- Уруш даври;
- Урушдан кейинги ўсиш даври;
- Замонавий изланишлар даври;
- Мустақиллик арафасидаги ижод даври.

Театрнинг вужудга келиш даври бевосита оддийликка асосланган бўлиб, халқ театр томошалари ва халқ оғзаки ижоди билан боғлиқ эди. Шу асосда театрнинг дастлабки қадамлари Абдраман Утепов номи билан боғлиқ.

Театрнинг биринчи спектакли “Ўз тенгини топган қиз” бўлиб, муаллиф ўз асарига режиссёрлик қилади. Асар сахнавий талқинида халқчиллик ва томошавийлик ўз ифодасини топади. Чунки халқ қўшиқларидан унумли фойдаланилган эди. [2.Б.143]

Спектаклда янги, бахтли ҳаёт, қорқалпоқ аёлининг асрий қулликдан қутулиб озодликка, тенгликка эришиши спектаклнинг бош мавзуси ва ғоявий, тарбиявий ёъналиши қилиб белгиланди.

Миллий колоритни ифодалашда асосан, пьеса ва унга кўра анъанавий жараёнлар, ҳамда ижро муҳим рол ўйнай олди. Сабаби, театрда ҳали профессионалик кўзга ташланмас, декорация, мусиқа, тарихийлик элементлари ривожланиши учун етук мутахассис ва кадрлар керак эди.

Москва студиясидаги таҳсилгача бўлган даврда кадрларни тайёрлаш масаласи муҳим ўрин эгаллай бошлади. Шу вақтда миллий театрда қизгин ижодий муҳит пайдо бўлган бўлса-да, хануз профессионалик, жанр ва мавзу жиҳатдан, шакл ва имконият жиҳатдан камчиликлар мавжуд эди. Шу сабабдан, кадрларни тайёрлаш масаласи Москва институти қошидаги тайёрлов курсини ташкил этилиши эвазига ҳал этилди. Жами 33 нафар театр ижодкорлари студияда таҳсил олишга жўнаб кетдилар. Шу вақтда театрда оддий ҳаваскорлик ишлари даражасида ижод қилина бошланди. Кейинчалик, санъат олийгоҳи талабалари ҳисобига жамоа тўлдирилди.

Москва студияси таҳсилидан кейинги янгиланиш даврида таҳсил олган театр ижодкорлари катта иштиёқ билан қайтишди. Бу вазиятда бутун ижодий гуруҳда икки хил муҳитдан бирини танлаш вазияти туғилади. Бевосита театрнинг жорий жамоаси ва таҳсил олган гуруҳ ўртасида зиддиятлар туғилади. Янгича қарашлар билан келган санъаткорлар театрнинг танлаган йўли ва фаолиятига танқидий кўз билан қарай бошлашади. Айрим эски жамоадагилар театрдан кетиб қолади. Шу тариқа, турли қаршиликлар билан фаолиятини бошлаган ижодий гуруҳ ўзини оқлайди ва бир қанча спектакллар билан буни исботлайди ҳам.

Уруш даври. Бу давр бутун мамлакат театр фаолиятига ўзининг салбий таъсирини кўрсатди. Театр жамоасидан айримлар ҳарбий хизматга чақирилди. Шу тариқа тематика ҳам уруш, ғалаба, эрк ва тинчлик мавзуларига бағишланди. Театр халқ дарди ва меҳнат қаҳрамонларига тасалли бериш масканига айланди.

Урушдан кейинги ўсиш даври. Урушдан кейин эса театр ўзини тиклаб олишга ҳаракат қилди. Бу эса осон бўлмади. Ўз ўрнида театр жамоасида яна кадрларда тарқоқлик бўлиб, Москва институти ўрганувчилари ҳам бирин кетин театрни тарқ эта бошлади. Шу тариқа театр қашшоқлашиб қола бошлади. [3.Б.56-57]

Лекин талаб ва истаклар, халқнинг театрга бўлган меҳри ижодкорларни изланишга чорлади. Бир нечта вилоят театрлари бир-бирларига кўмаклашиб, театрнинг қайта тикланиши учун кураша бошладилар.

Замонавий изланишлар даврида айнан ранг баранг спектакллар билан театр ўзининг мақомини тиклашга интилди. Ўз ўрнида миллий, хорижий, ўзбек ва қардош миллатлар драматургиясидан фойдаланиб, бир қанча профессионал ижодий гуруҳни жалб этиб театр ўзининг йўлини тутиб олди. Бироқ ҳануз миллий драматургиянинг оқсоқланиши, бу борадаги камчиликлар театрни баъзан уялтириб кўярди. Айнан, бу борадаги камчиликларни бартараф этиш муҳим масалалардан эди.

Мустақиллик арафасидаги ижод даврида театр фаолияти давом этаверди. Мавзулар доираси кенгайиб, айнан мустамлакалик тузуми ва мустақилликка эришиш истаги асосий ғоявий тенденцияни белгилаб берди. Мана шундай фурсатда Театр янги даврни яъни Мустақилликни кутиб олишга тайёр эди.

Бердақ номидаги давлат мусиқали театри Қорақалпоғистоннинг кўҳна театрларидан. 1926 йили 11-апрель куни Қорақалпоғистон Республикаси ҳукумати томонидан «Қорақалпоқ миллий труппасини ташкил этиш тўғрисида» ги қарор қабул қилиниб, Театр ҳисобида «Тонг нури» труппаси ташкил қилинади. Труппанинг бадий раҳбари қилиб Тўртқўл шаҳри педагогика техникуми ўқутувчиси Зарип Қасимов тайинланади.

Театр ўзининг биринчи пардасини 1926 йили 8-ноябрь куни Қасим Авезовнинг «Тилак йўлида» 4 актли мусиқали драмаси билан очади. Қорақалпоқ театрининг йилномаси ушбу санадан бошланди. 1927 йили эса Зарип Қасимовнинг ўз ишига қайтиши билан, труппага раҳбар қилиб ёш истъедодли ёзувчи Абдираман Утепов тайинланади.

Қ.Авезов, З.Қасимов, А.Утеповлар қорақалпоқ театрининг асосчилари ҳисобланади.

1926 йили труппа ходимлари сони 13 та эди, 1927 йилга келиб ходимлар сони 29 тага етади. Уларнинг ичида Жолмурза Аймурзаев, Сейфулғабит Мажитов, Қалжан Бегимова, Байнияз Сейтов, Қурбангул Бекмуратова, Генжебай Убайдуллаевлар бор эди.

Театр фаолиятини «Одеколон», «Ана холос», «Тенгини топган қиз», «Саидмурод ялқов», «Кўз бўямачи вакил», «Бу ким» каби спектакллар билан бошлади.

Қорақалпоғистон Отқарув Комитетининг 1930 йил 25-декабрдаги қарори асосида театрга Қорақалпоқ Давлат театри статуси берилади. Абдираман Утепов театрининг бадий раҳбари ва директори қилиб тайинланади. [4.Б.190]

1934 йил Москва давлат театр санъати институти қошида Қорақалпоқ студияси очилади. 1939 йил театрга институтни тугатиб келган 27 актёр ва

режиссёлар келиб кўшилади. Буларнинг орасида Ўзбекистан ва Қорақалпоғистон халқ артистлари Йўлдош Шарипов, Туреш Олланазаров, Холмурод Сапаров, Йўлдош Мамутов, Сабирбай Ўтепбергенов, Мадраим Матжонов. Ёқут Олламуродовалар бор эди. Театр ҳаётида янги давр бошланади.

Битирувчилар муносабати билан Қорақалпоқ давлат театрига режиссёр реформатор К.С.Станиславский номи берилди ва театр К.С.Станиславский номидаги Қорақалпоқ давлат мусикали драма ва комедия театри деб номлана бошланади.

«Васса Железнова» (М.Горький), «Майсаранинг иши» (Ҳамза), «Камбағаллик айб эмас» (А.Островский), «Скапеннинг найранглари» (Мольер), «Алпомиш» (Н.Довқораев), «Рус кишилари» (К.Симонов) ва бошқа спектакллар миллий режиссура ва актёрлик санъати балоғатга етганлигини намойиш қилди. 1941-45 йиллар театр жамоаси ўз репертуарини миллий ва қардош халқлар драматургияси намуналари билан бойитди. «Лейтенант Элмуротов» (Ж.Оймурзаев), «Қурбон Умаров» (С.Абдулла, Чустий), «Офтобхон» (К.Яшин), «Тоҳир ва Зухра» (С.Абдулла; Т.Жалилов мусикаси), «Беш сўмлик келин» (Урдубоду) каби мусикали драма ва публицистик йўналишдаги сахна асарлари шулар жумласидан. 1950 йил театр Тошкент театр ва рассомлик санъати институтини тугатиб келган ёш мутахассислар билан тўлдирилди. Режиссёрлик бўлимини тугатиб келган Т.Олланазаров биринчи қорақалпоқ профессионал режиссёри бўлди.

Урушдан кейинги йилларда театрда О.Шомуротова, Жапақ бахши Шомуротов, Б.Каменев, А.Ҳалимов, Г. Шерозивва, Т.Раҳмонова, Р. Сеймов, С.Хўжаниёзов, Г.Дошумов, З.Зарипов, С.Ўтепбергенов, Т.Жолиμβетова, С.Юсупова, С.Қорабоева, Я.Олламуротова, Х.Сапаров, С.Олламуротова, С.Авезова, О.Давлетова, О.Умитқулов ва бошқалар фаолият кўрсатишган.

Театрнинг кейинги репертуари мавзу ва жанр жиҳатидан бойиди. Замонавий ва тарихий мавзуларда, миллий драматургия, ўзбек ва қозоқ драматургияси намуналари ҳамда Ғарбий Европа драматургиясининг мумтоз асарлари сахналантирилди: «Ойгул ва Обот» (Ж.Оймурзаев), «Суймаганга суйканма» (С.Хўжаниёзов), «Олтин кўл» (Уйғун; М.Левиев мусикаси), «Шоҳи сўзана» (А.Қаҳҳор), «Ошиқ Ғариб» (Бегимов, Т.Олланазаров), «Тартюф» (Ж.Мольер), «Ўғирланган бахт» (И.Франко), «Юрак сирлари» (Б.Раҳмонов). «Кўз Кўрпеш Баян сулу» (Г.Мусрепов) ва бошқалар. «Бердақ», «Қадрдон доктор», «Шеберхоннинг чирмовиғи» (Ж.Оймурзаев), «Талуас», «Зиёда», «Бахт» (С.Хўжаниёзов), «Тошболта ошиқ» (Ҳ.Ғуллом), «Тоға-жиянлар» (Р.Бобожон), «Шубҳа» (Уйғун), «Прокурор» (Ё. Шукуров) кабилар 50-60-йилларнинг энг яхши спектакллари бўлди.

60-йилларнинг охирига келиб театрда авлодлар алмашуви натижасида турғунлик даври бошланди. 70-йиллар ёшлар ҳисобига театр яна ўз мавқеини тиклаб олди. Театрга келган Қуатбай Абдреимов, Нажиматдин Алсатбоев, Досберген Ранов, Райҳон Сапарова, Жолгас Султабоев, Байрам Матжонов ва бошқалар қорақалпоқ театр санъатини янги ғоялар ва ечимлар, образ ва мавзулар билан бойитдилар. «Отелло» (У.Шекспир). «Тартюф» (Ж.Мольер), «Икки бойга бир малай» (К.Гольдони), «Она ер, она» (Ч.Айтматов), «Ревизор» (Н.Гоголь), «Ой тутилгай тунда» (М. Карим), «Ўн учинчи раис» (А.Абдуллин), «Тобутдан товуш» (А.Қаҳҳор), «Аризасига кўра» (Ў.Умарбеков), «Андермушлик Алмандар» (Т.Минуллин), «Хонума» (Цагарелли) каби спектакллар қўйилди.

1987 йили театр жамоаси И.Юсупов либреттосига Н.Мухаммеддинов мусиқасига «Ажиниёз» биринчи қорақалпоқ миллий операсини сахналаштирдилар. Шундан сўнг, «Майсаранинг иши», «Алеко» операларини ва «Айжамал» балетини сахналаштириб театр мутахассислари томонидан юқори баҳо олишга эришдилар. Шу тариқа театр 3 та йўналиш бўйича драма, мусиқали драма, опера ва балет жанрларида ижод қилиш имкониятига эга бўлди. [5.Б.42-44]

Театрда мустақилликка қадар сахналаштирилган спектакллар умуммикёсда ранг барангликка асосланган. Шундай бўлсада, асарларлар сирасида миллий драматургиянинг, миллий мавзуларнинг ўрни бўлакча. Шартли равишда, айнан миллий муаллифлар томонидан яратилган спектаклларни қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

– ижтимоий руҳдаги, яъни миллий муаммоларни акс эттирувчи спектакллар;

– миллий руҳдаги, яъни миллий муносабатларни, миллий қаҳрамонларни акс эттирувчи спектакллар;

– замонавий руҳдаги, миллат орасидаги янгидан янги муносабатларни акс эттирувчи спектакллар.

Ижтимоий руҳдаги, яъни миллий муаммоларни акс эттирувчи спектакллар театрнинг дастлабки йилларидаёқ ўзининг муҳим аҳамияти билан ажралиб турган. 1933 йилдаги А.Бегимовнинг “Бу ким” спектакли ўтмишдаги оғир кунлар ҳақида, шунингдек, байналминалик, халқлар дўстлиги масалаларини тарғиб этади. Айнан шу йилда сахналаштирилган Ж.Аймурзаевнинг “Бюрократлар” комедияси ўтмиш сарқитларига қарши кураш, бефарқлик ва маъмурий буйруқбозлик масалаларини талқин этади. Ж.Аймурзаев қаламига мансуб “Айгул ва Абат”, “Орол қизи”, “Равшан”, П.Тлегеновнинг “Биринчи гудок”, А.Қаҳҳорнинг “Оғрик тишлар” каби асарлари асосидаги спектаклларда

ҳам миллатга хос ижтимоий масалалар, ижтимоий юксалиш ёки тубанлашиш муносабатлари ўз ифодасини топади.

1937 йилдан мусиқа фолклорини ёзиб олиш соҳасида катта ишлар бошлаб юборилди. Фолклор манбаларига таянилган ҳолда, “Кўклам ботир” сахналаштирилди. Бу спектаклнинг қайта-қайта ишланиши қийматини оширгани шубҳасиз, ундаги халқ муаммолари, аҳолининг маҳаллий феодалларга қарши курашиш жараёнлари Кўклам ва Ойпари каби миллий қаҳрамонлар бошчилигида айнан, кадрли кўшиқлар, миллий оҳанглар остида очиб берилади.

40-йилларда эса навқирон “Алпомиш” сахна юзини кўрди. Мазкур қаҳрамонлик мусиқали драмаси айнан қорақалпоқ миллий менталитетига кўзгу тутадиган, колоритга бой томоша сифатида эътироф этилган. [6.Б.92]

Халқ мотивлари ва адабиётимиз бисотидаги “Тоҳир ва Зухра” (С.Абдулла), Ошиқ Ғариб (А.Бегимов), “Лайли ва Мажнун” (Хуршид), “Майсаранинг иши” (Ҳамза), “Ҳалима” (Ғ.Зафарий) каби асарлар ҳам миллий руҳдаги беқиёс меросимиздир. Уларни театр сахнасида кўриш ҳар қандай томошабинга завқ улашиши шубҳасиз.

Шунингдек, маҳаллий драматург Ж.Аймурзаев муаллифлигидаги “Ўз қўли билан ўз бошига” (биринчи мусиқали миллий комедия), “Бердак” (Биринчи тарихий биографик асар) каби спектакллар театрнинг ижодий юксалишини ва миллатга хос зарурий колоритни тақазо этувчи муҳим қадамлар бўлди.

Миллий драматургиянинг ривожини ҳам бевосита театр билан ҳамроҳанг тарзда кечеди. Масалан, 1967-71 йилларда театрда 21 асар сахналаштирилган бўлса, шундан 10 таси маҳаллий драматург асари, 1971-1990 йилга қадар 71 пьеса сахналаштирилган бўлса, шундан 33 таси маҳаллий муаллифларга тегишлидир. Мана шу рақамларнинг ўзиёқ, миллий драматургиянинг муносиб ёки суст ривожланганини акс эттиради. Ваҳоланки, икки рақамда ҳам сахналаштирилган спектаклларнинг ярмидан кўпроғи жаҳон драматурглари ҳисобига ўтиб кетмоқда. [7.Б.165]

Нима бўлганда ҳам, мустақилликка қадар тарихий чегараларда Бердак театри хайрли ишларни амалга оширди, миллатнинг руҳини, минталитети ва колоритини юксакка кўтаришга хизмат қилди. Театрнинг бундан кейинги қисмати ҳам ўзига хос янгилик ва изланишларини тақазо этмоқда эди. Зеро, Мустай Карим айтганидек, “Театр томошавийлик, фалсафий концепсия, инсонийликнинг абадий мавзуси сингари ўзининг қонуниятлари билан яшаган ва бундан кейин ҳам яшайди.”

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2009.

2. Алиева Н. Санъат – менинг ҳаётим – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.
3. Бехбудий Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2006.
4. Баяндиев Т. Каракалпакский театр. – Т.: Фан, 1971.
5. Станиславский К.С. Актёрнинг ўз устида ишлаши. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1965.
6. Турсунов Т. XX аср ўзбек театри тарихи. Т., 2009.
7. Умаров Э. Театрда бадий образ яратишнинг эстетик тамойиллари. – Тошкент, 2011



## БЎЛАЖАК МУСИҚА ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ БАДИИЙ ДИДИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛЛАРИ

Абубакиров Асфандиёр  
Юнус Ражабий номидаги ЎзММСИ

**Аннотация:** Мазкур мақолада бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг ўзбек миллий мумтоз мусиқаси борасидаги билим, классик асарларни ижро этиш бўйича кўникма ва малакалари, шунингдек, бадиий дидини шакллантириш масалалари хусусида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** мумтоз, мусиқа, бадиий дид, классик, мақом, лад, жанр, оҳанг, куй, мақом.

## IMPORTANT FACTORS FOR THE FORMATION OF FUTURE MUSIC TEACHERS 'ART RELIGION

Abubakirov Asfandiyor  
UzINMA named after Yunus Rajabi

**Abstract:** This article discusses the knowledge of future music teachers about Uzbek national classical music, the skills and abilities of performing classical works, as well as the formation of artistic taste.

**Keywords:** classic, music, artistic taste, classic, poppy, mode, genre, melody, melody, poppy.

Бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг бадиий дидини, шакллантиришда миллий мусиқий мерос, анъаналардан унумли фойдаланиш алоҳида аҳамият касб этади. Мумтоз миллий мусиқанинг бетакрор намунаси бўлган мақомларда мусиқий шакл ва лад тузилиши ўз ифодасини топган. Талабаларга мумтоз мусиқанинг асл намунаси бўлган мақомлар ҳақида батафсил тушунчалар бериш уларнинг бадиий дидини ўстиришда муҳим ўрин тутди.

Бўлажак мусиқа ўқитувчилари мутахассис сифатида мақомларнинг таркибий тузилишини чуқур таҳлил қила олиши, шунингдек, унга хос ижрочилик маҳоратидан ҳам етарли даражада хабардор бўлиши лозим.

Мусиқашунос олим О.Матёкубов мақомларнинг лад асоси ва маълум цикл (тизим) асосида ёзилганлигига алоҳида тўхталади<sup>1</sup>.

Мақомларнинг алоҳида бўлаклари ўзларининг шакл ва мазмун тузилишига хос хусусиятлари билан муайян умумийлик, яхлитликка ҳам асосланади.

<sup>1</sup> Матёкубов О.М. Фараби о основах музыки Востока. – Т.: Фан, 1968. – 192 с.

Умумийлик уларнинг маълум, далилий асосларга эгаллиги билан тавсифланади. Мазкур далиллар шартли равишда икки турга ажратилади. Яъни:

1. Алоҳида қисмларнинг ўзаро лад ва инитонацион боғлиқлиги.

2. Ҳар бир шўъбада маълум наъмуд (куй тузилмаси)нинг такрорланиб келиши, айнан бир хил вариантдаги (масалан: “Авжи турк” ва “Зебо пари”) авжлардан фойдаланиш ҳамда шўъбалар тузилмасининг кайфияти жиҳатидан ўхшашлиги каби жиҳатлар акс этади.

Мақом, ижрочилиги асосий соз танбур ижросининг аниқ пардасига мос келади ва бошдан охиригача шу пардага тааллуқли лад тузилмасига асосланади. “Тани мақом” деб ҳам номланувчи товуш қаторга хос хусусиятлар ҳар бир мақомда фойдаланиладиган ва уларнинг бошланиш қисмида ўз ифодасини топади. “Тани мақом” да ишлатиладиган товуш қатор ва лад тузилмаси бутун цикл ижрочилигида ўз кучини сақлаб қолади.

Хоразм мақомлари циклига кирувчи “Рост”мақомининг “тани мақом” қисмида ишлатилувчи товуш қаторларига хос хусусиятлар унинг бошқа барча қисмларида ҳам айнан қўлланилади. “Рост” мақомининг “тани” мақом қисмида ладнинг I, II ва V пардалари асосий ҳисобланиб, асарнинг тузилишига кўра куйлаш ҳолатлари айнан шу пардаларга тўғри келади. Шунингдек, “тани мақом” нинг VII босқичда гоҳ ярим тон паст ва гоҳ ярим тон юқори ҳолатда қўлланилиши ўзига хос хусусият касб этади.

“Рост” мақоми (До мажор тоналлиги)да до, ре, соль пардаларида ноталарни чўзиш ҳолатлари кўп учраши маълум бўлди. “тани мақом”нинг еттинчи пардасининг гоҳ си-бемоль, гоҳ си-бекаръ тарзида келиши мақомнинг иккинчи, яъни “Тарона” ва “Сувора” қисмларида ҳам такрорланади.

1.“Бузрук” мақомида ҳам I, II ва V босқичларнинг фаоллиги, дорий ва мексолидий ладларининг кўп ишлатилиши ўзига хос хусусият саналади. Шунингдек, “Бузрук”нинг лад тузилишида III босқичнинг икки вариант (масалан, Ре-минор)да, яъни фа-диез ва фа-бекарларнинг турлича куйланиши ва чалиниши ўзаро фарқланувчи ҳолатлар ҳисобланади<sup>2</sup>.

“Наво” мақоми лад ўзгариши билан бошқалардан ажралиб, лидий-ионий, лидий, иолий-дорий ладларининг алмашилиб келиши билан тавсифланади. Оҳангнинг асосий таянчи I, V ва VI босқичларга тўғри келади. Айни пайтда ноталарнинг икки хил вариантда юқорилатилиш ва пасайтирилиш ҳолатлари IV босқичга тўғри келади. “Сегоҳ” мақомига хос лад тузилишида эса, дорий лади асосий ўринни эгаллайди. Айни пайтда фа-диез, соль, ля, си, до тарзидаги пентакорд ҳам учрайди. “Дугоҳ” мақомида эса “Наво” мақомига хос лад тузилишлари учрайди.

<sup>2</sup> Матёкубов О.М. Фараби о основах музыки Востока. – Т.: Фан, 1968. – 8 с.

Хоразм мақомларининг лад-тоналлик тизимида турли ладлардан фойдаланилса-да, улар асосан “тани мақом” дан олинган тоналликдан деярли четга чиқмайди.

2. Мақомларни ўрганиш жараёнида мақом шўъбаларининг лад тузилишига алоҳида эътибор қаратиш, лад ўзгариши юз берадиган лавҳалардан айнан мисоллар келтириш талабалар томонидан мақомларни онгли идрок қилиниши учун катта имкон яратади. Талабаларга, шунингдек, наъмудлар, яъни ҳар бир мақомнинг ўзига хос мусиқий тузилишини ифодаловчи лавҳаларни ўргатиб бориш муҳим методик аҳамиятга эга. И.Ражабовнинг “Мақом масалаларига доир”<sup>3</sup> асарида мақомларни куйлашда йигирмадан ортиқ наъмудларнинг намоён бўлишини таъкидлаб, уларни ўрганиш алоҳида тадқиқотлар мавзуси эканлигига урғу беради.

Қ.Мамиров шахсий иш тажрибасида наъмудларни ўрганиш ва улардан фойдаланиш бўлажак мусиқа ўқитувчилари томонидан мақомларнинг маромида ижро этилишини таъминловчи омил эканлигини кўрсатиб ўтади. “Мақомларни ўрганишда наъмудларни куйлашга талабаларни ўргатиш ниҳоятда катта аҳамият касб этади. Зеро, маълум наъмудлар мақомларнинг асоси ҳисобланади. Ҳар бир мақомда, унга мансуб бўлган наъмудлар турли характер, усулда ва ўлчовда такрорланиб келади!”. Хусусан у амалиётчи-педагог авжларни ижро этишнинг муайян услубларини амалиётда қўллаш борасида талабаларга зарур кўрсатмалар берди. Машғулотлар жараёнида “Шашмақом” телефильмида куйланган “Бузрук” мақомининг “Насруллоий” шўъбасида ишлатилган “Авжи турк”дан парча куйлар экан, талабаларни авжнинг биринчи қаторини биргаликда куйлашга даъват этади. Сўнгра авжнинг “Гулузорим” асарида ҳам куйланиши тўғрисида маълумот берди. Машғулот даврида “Гулузорим”нинг авжи “Насруллоий”нинг авжи куйланган тоналлик ва худди ўша пардада куйлаб кўрсатилади. Талабалар таниш оҳанг, авжни тезда англаб олдилар ва унинг “Авжи турк” эканлигини айтдилар. Наъмудлар ҳақидаги мавзуни ўрганиш давомида “Сегоҳ” мақомининг тани мақомидаги “Сегоҳ” наъмуди ҳам жонли ижрода намоёниш этилиб, биргина мақомда айнан шу наъмуднинг такрорий қўлланиши 6, 7 та мисол асосида кўрсатиб ўтилади. Талабалар ҳам наъмудларнинг турли хил вариантларда қўлланилишини ёрқин ифода этувчи намуналарни тинглаб кўрдилар ва ўқитувчи билан ҳамкорликда куйладилар.

Юнус Ражабий “Шашмақом”да учрайдиган наъмуд ва авжларнинг турли вариантларини муайян тизимга солган. Талабаларга мақом ижрочилиги ва мақом назарияси асосларини ўргатишда мазкур тизимдан самарали фойдаланиш тақозо этилади.

<sup>3</sup> Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1963. – 300 б.

“Тани мақом”, мақом шўъбалари, мақом йўлидаги мумтоз асарларни куйлаш жараёнида улар ўртасидаги ўхшашлик ва фарқларни англаш талабаларнинг мақомга хос лад тузилиши, наъмувлари ҳақидаги билимларини янада бойитади.

Ўзбек халқининг бадиий диди ва маънавиятининг шаклланиб, ривож топишида мумтоз ашулаларнинг ўрни беқиёсдир. Бадиий жиҳатдан юксак савиядаги кўшиқлар асосан мукаммал шеър, таъсирчан ғазаллар асосида яратилади. Шеърда ифода этилган теран ҳислар, фалсафий фикрлар, бадиий образлар куй оҳанг қанотида халқ орасида тез ёйилади. Теран мазмунга эга мумтоз куй ва кўшиқлар инсон учун идеалларига айланади. А.Навоий томонидан яратилган “Ўн саккиз ёшимдадур”, “Мубтало бўлдим сенга”, “Ул сарви гулрў келмади”, “Шитоб айлаб”, “Не наво соз айлагай”, “Эй, сабо” “Дилоромимга айт”, “Кўшчинор”, “Насруллоий”, “Не ажаб” каби ўнлаб мумтоз кўшиқлар оҳанглар воситасида энг эзгу ҳисларни уйғотади. Мумтоз кўшиқлар Муҳаммад Фузулий, Лутфий, Муслухиддин Саъдий, Абдурахмон Жомий, Атоий, Бедил, Ҳофиз, Нодира, Заҳриддин Муҳаммад Бобур, Зокиржон Фурқат, Муқимий ва бошқа шоирларнинг ғазаллари негизида яратилди. Бугунги кунда Ҳабибий, Миртемир, Мискин, Собир Абдулла, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Нилуфар, Ётибор Охунова, Саида Зунунова, Нормурод Назруллаев, Расул Хамзатов, Муҳаммад Юсуф ва бошқалар томонидан яратилган шеърлар асосида яратилган кўшиқлар халққа манзур бўлмоқда. Замонавий кўшиқларнинг яратилишига ўзбек бастакорлари ҳам улкан ҳисса қўшиб келмоқдалар. Улар халқ оҳанглари, улардаги шира ва нолалар, кўшиқчилик техникаси элементларини ўзига сингдирган мусиқий асарлар яратмоқдалар. Бастакорлар - Ю.Ражабий, Т.Жалилов, Д.Зокиров, С.Калонов, Д.Соатқулов, К.Жабборов, И.Икромов, Н.Ҳасанов, М.Мирзаев, И.Жўрабоев, М.Ниёзов, Ф.Содиқов, Ғ.Тошматов ва уларнинг издошлари - Р.Турсунов, А.Исмоилов, Б.Алиев, Т.Ҳасанов, Ш.Мирзаев, Ҳ.Жўраев, Н.Қулабдуллаев, Қ.Мамиров, Ў.Расулов, Т.Отабоев ва бошқалар томонидан яратилган асарларнинг муайян қисми мумтоз ашулалар каби бадиий қийматга эга.

Талабалардаги бадиий диднинг ўсиши уларнинг чолғу асарлари ҳамда мумтоз ашулаларнинг қадрига етиб, уларни қийматига тўғри баҳо бера олиш билан бир қаторда, бу асарларни севиб тинглаш, асраб-авайлаш, шундай асарларни мукаммал ижро этишга интилиш каби иштиёқнинг пайдо бўлишида ҳам ўз ифодасини топади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Матёкубов О.М. Фараби о основах музыки Востока. – Т.: Фан, 1968. – 192 с.

2. Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1963. – 300 б.

## САҲНАДА ҚАЙТА ТУҒИЛГАН ОПЕРА

Ж.Хожанов

М.Хожанова

Ўзбекистон Давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали

**Аннотация:** Қорақолпоқ халқининг буюк шоири, таниқли сўз ўстоси Ажиниёз Қўсибой ўғлининг ҳаёти ва ижодига бағишланган Н.Мухаммеддиновнинг “Ажиниёз” операсини Бердақ номидаги қорақолпоқ давлат академик мусиқали театри қайтадан сахналаштирди. Мазкур операнинг қайта сахналаштирилиши қорақолпоқ маданияти ва санъатидаги катта бир янгилик бўлиши билан бирга, мусиқа йўналишида ҳам профессионализмга йўл очиб, янада бир баланд чўққига кўтарилди десак адашмаган бўламиз албатта.

**Калит сўзлар:** театр, актриса, спектакль, сахна, оркестр, образ, музыка, драма.

## RE-BORN OPERA ON STAGE

J.Хожанов

M.Хожанова

Nukus branch of Uzbekshkeft State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The Karakalpak State Academic Musical Theater named after Berdakh re-staged the opera "Ajiniyaz" by N.Muhammeddinov, dedicated to the life and work of the great poet of the Karakalpak people, famous master of words Ajiniyaz Kosiboy oglu. While the re-enactment of this opera is a great innovation in Karakalpak culture and art, it is safe to say that it has opened the way to professionalism in the field of music and reached another height.

**Keywords:** theater, actress, play, stage, orchestra, image, music, drama.

Театр сахнасида узоқ тарихий ўтмишни, ўтган асрдаги давлатчилик тизими, халқ ҳаёти, расм-русмлари, одатлари ва ўша даврга хос колоритни гавдалантириш қийин вазифа хисобланади. Бунинг устига, қайд қилинган даврга театримиз тарихида биринчи марта мурожаат қилинаётганлиги, вазифани янада мураккаблаштиради. Театр жамоаси бу муаммони ҳал қилишга астойдил киришган.

“Ажиниёз” операсининг яратилиши Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон санъат арбоби, Ўзбекистон давлат мукофоти лауреати композитор Нажиматдин Мухаммеддинов томонидан фақат тарихий мавзунинг кўрсатилиши билангина

эмас, балки миллий опера яратилишининг тузилиши ва ривожланиши йўлидаги дадил кадам бўлди. Композиторнинг халқ мусиқа интонацияларидан пухталиқ билан фойдалана билиши ҳам диққатга сазовордир. Тарихий мавзуда опера яратишнинг қийин томонларидан бири, асарнинг мусиқа тилини тарихий мавзуга хос овозда мослаштира билиш бўлиб топилади. Бу вазифа эса биз каламга олиб турган операда натижали ечимини топган. Опера қахрамонларининг ария ва дуэтларида, хор ва рақс бўлимларида халқ кўшиқларидан пухталиқ билан фойдаланилган. Асар мусиқасини тинглаб ўтирганимизда, ҳақиқатдан ҳам ўша давр руҳини кўрсатувчи интонациялар овозини эшитамиз. Бу эса тингловчи эътиборини мавзу ва давр чегарасидан четга чиқишга йўл кўймайди. Асарнинг маъно мазмунлиги ҳам ана шунда бўлиб топилади.

“Ажиниёз” операсининг ютуқларидан яна бири шунда, композитор қорақалпоқ халқ мусиқасининг оммавий, енгил турларидан устамонлик билан фойдалана олган. Операнинг мусиқа тили оддий булибгина қолмасдан деярли барча чиқишлар оригинал ва халқ кўшиқлари руҳида ёзилган. Арияларнинг ашула формасида ёзилиши эса тингловчининг қабул қилиш қобилиятини ўзига тортади. Арияларнинг бир шакл ва ўлчовда яратилиши опера жанрининг имкониятларини ҳар томонлама орттириб боради. Операда ҳар бир ария ёки ариоза образларни характерлашда катта урин тутишига ҳам композитор асосий эътиборини қаратганлар.

Композитор халқ сахналарига асосий эътиборини қаратиб, унинг мусибатини тасвирловчи бирмунча таъсирчан хорлар яратган. Халқ катта куч-қудрат ва шу билан бирга монолит қуркам образ бўлган ва барча сахналарда ўз ўрнини топган.

Операнинг либреттосини Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ шоири Иброим Юсупов ёзган. Либретто муалифи шоирнинг ҳаёт йўллари кўрсатиш билан бирга унинг ички туйғулари, ўзида замон оқимига қарши тура оладиган куч топиб, халқ мавқеин, халқнинг қувончи билан қайғусига шерик булиш, уларни ёрқин келажак сари мустаҳкам кадам билан туғри йулдан бошлаб борганини аниқ драматик штрихлар билан таърифлаб бера олган. Бу эса асарнинг ютуқларидан бири бўлиб топилади. Асар композицияси пишиқ, воқеа баёни ва персонажлар муносабатларининг гавдаланишида ҳам муалиф маҳорати кўзга ташланади.

Шу билан бирга операнинг бу янги талқинида Ўзбекистон халқ артисти, Бердақ номидаги давлат мукофоти совриндори, режиссер Нажиматдин Ансатбоев сўнги авлод ёш актёрларни кўпроқ жалб қилганлар. Натижада катта бир актёрлик ансамбли юзага келган. Режиссёр одамлар ҳуқуқи ва фазилатларини озодлик учун кураш мавзусини, кучли ва меҳрли одамлар

образини қахрамонлик романтик руҳ билан суғорилган ёрқин театрал формада тасвирлаб беришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган. Образлар галереясини яратишда ҳар бир образнинг ғоявий характери ва ички кечирмаларининг очилиши билан унинг театраллиги орасида тўлиқ гармония бўлишига эришган.

Режиссер асарни тўғри сахналаштирганлиги аниқ кўриниб турибди. Образларнинг талқиланишида ҳаққоний ва ўринли воситалар топа олганлар. Жумладан Ажиниёз (артист Д.Хожабергенов) образининг яратилишини олайлик. Айрим сахналарда ўз ғояларини содда ва таъсирчан ифодалар билан аниқ аңлата олган. Масалан, Ажиниёзнинг (артист Д.Хожабергенов) Хонзодага (актриса Р.Кутекеева) бўлган муҳаббати билан қалбидаги пинхон сезимларини мақсадга мувофиқ, ишонарли ва таъсирчан воситаларда берилади. Образлар талқини ҳам содда ижодий тадбирлар билан берилади. Санъатнинг кудрати шундаки, у тарихни кўрсата олиши билан бирга истиқбол режаларини равшан чизиб беради. Бу мақсадига режиссёр ушбу постановкасида тўлалигича эришган деб айта оламиз.

Операда оркестрнинг роли жуда катта. Бу ўринда оркестрнинг аниқ ва жўшқин эшитилишини алоҳида қайд қилмоқ керак. Вокал партиялари билан оркестр орасидаги уйғунлик ёки рақсларни бўрттириб беришдаги мусиқанинг ролини очиб беришда оркестрнинг вазифаси тингловчини завқлантиради. Оркестрнинг бу самарали ишида Қорақалпоғистон халқ артисти дирижер Аида Абдуллаеванинг ҳиссаси катта. Балетмейстер Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийи Зийбаш Пирлепесова томонидан сахналаштирилган рақслар постановканинг катта муваффақияти бўлиб топилади. Барча рақс сахналаридаги оригиналлик ва жозиба театрда рақс ижрочилигининг камолотга етиб бораётганлигидан дарак беради. Рақосларнинг сахнада ижод этиш жараёнида нозиклик, миллий колоритларнинг хусусиятларини тобора маҳорат билан эгаллаб бораётганлиги аниқ кўзга ташланади.

Сахна очилганда Бўзатовда эрта баҳор кўриниши.Таллиқ дарёсининг бўйи. Ёйигит-қизлар Навруз байрамида сайилга чиқишган. Хевадаги мадрасани тугатиб, қишлоққа қайтган Ажиниёз шоирни халқ кутиб олмакда. Ажиниёз “Жойида эллар бормикан” арияси билан соғинчини билдиради. Халқ шоирнинг ариясини завқланиб тинглайди.

Ҳар бир ижодкор учун ўз халқининг қайғу-дартларига шерик, давр рўҳига ҳамоҳанг, уларнинг орзу-умидларига фикрдош одамларнинг умри ва чуқур образларини яратишдан ортиқроқ бахт борми? Бунинг учун халқнинг юрагида яшай олиш, уларнинг орзую армонларини сеза билиш керак бўлади. Мана қорақалпоқ халқининг суюкли фарзанди шоир Ажиниёз образини Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист Дарибой Хожабергенов ана



шундай нуқтайи назардан талқин этган. Ажиниёз образи Дорибой Хожабергеновнинг ижросида театр йўналишида катта бир бўрилиш бўлди. Сабаби образ мағзини очишда актёр драматик йўналишини биринчи планга олиб чиққан. Шунинг учун ҳам Ажиниёз образи Д.Хожабергеновнинг ижросида бошқа образларнинг ҳеч бирини такирорламайди.

Ўзбекистонда ва Қорақолпоғистонда хизмат кўрсатган артистка Роза Кутекеева Хонзода образини катта маҳорат билан ижро этдилар. Нозиклик, эрксеварлик, дадиллик ва содиқлик бу персонаж фазилатларидан саналади. Актриса образни нозик, оқил ва шарқ аёлларига хос латофат билан очиб беради. Образнинг виждон эркинлигига интилувчи кучи қанчалик фаол бўлмасин, барибир меъёр чизиғидан четга чикмайди. Шоирга бўлган ҳиссиёт ва туйғулар гўё унинг юрагида қайнайди. Бу ҳолат тобора авж олаверади ва еттинчи кўринишда сўнги нуқтага етади. Хонзода севгисига еришади. Бу машаққатли йўлдаги унинг бошидан ўтган қанчадан қанча азоб уқубатларни, ички дунёсидаги кечинма ва қийинчиликларни актриса зўр маҳорат билан аниқ талқин эта олган. Унинг бахтга эришиб бийларнинг оқ фотиҳасини олган вақтида ичидан қандайдир бир олов лоуллаб ташқарига гўё отилиб чиккандек бўлади, бу қувонч ва бахтнинг иссиқ тафти эди. Актрисанинг тенги йўқ овози тингловчиларни бирдан ўзига боғлаб олиб мусиқанинг илохий дунёсига етаклаб кетаверади.

Ўзбекистонда ва Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист Элиза Айтниязова яратган Айборек образи яна бир катта ижодий ютуқ бўлди, десак янглишмаган бўламиз. Актриса ўз қаҳрамонини ижодининг ҳаётбахш сувлари билан суғора олган. У яратган Айборек ҳар томонлама тугал образдир. Айборек шоирни жон дили билан севиб у учун ҳаттоки ўзини ўтга ҳам сувга ҳам ташлашга тайёр турмасин барибир у шоирнинг қалбидан жой топа олмайди. Ушбу бир ички туйғуларини ташқарига чиқариб, ўз дардини шоирга ошкор қилган вақтлари ҳам Ажиниёз унинг изхорларини қабул қилмайди. Бу вақтларда актрисанинг ичидаги муҳаббат туйғулари оловга айланади, энди бу олов ўч олиш оловига айланади.

Актриса ўз услубининг кўркамлиги билан эмас балки туйғуларни намоиш эта олиши, унинг гўзаллиги, айрим шароитларда танг қоладиган даражада қизгин бўлиши билан тингловчисини ўзига жалб қилади, ўйлантиради, уни завқга белади. Олтинчи кўринишда у қамоқда ётган Ажиниёзнинг ёнига келиб бирга қочиб кетишни таклиф этади. Бу билан у ўз кўнглининг армонига етмокчи бўлади. Бироқ шоир кўнгли унга исимади. Аччиғи чиққан Айборек(актриса Э.Айтниязова) шоирни бошқа кўрмаслик учун уни озод қилишни буюради. Қанча уринмасин Айборек шоирнинг кўнглидан жой топа олмайди, демак юрак амрига қарши чиқиш мумкин эмас эканлигини актриса

ҳар тарафлама ўзининг ички кечинмалари орқали аниқ далиллаб ва кўрсатиб бера олган. Актриса Э.Айтниязова диққияси жарангли ва соф бўлиб, эшитувчига аниқ етиб боради ва уларга алоҳида кучли завқ бағишлайди.

Операдаги кўзга ташланадиган образлардан яна бири бу Пирим бий образидир. Пирим бий образини ёш актёр Бахтиёр Абденов ижро этган. Халқ вакили Пирим бийга улкан юк юкланган, у халқга бийлик этиб қолмасдан ўз халқининг мушкулини осон қилишда, мақсадларини рўёбга чиқаришдаги жонкуяр ҳам бўлиб топилади. Керак вақтда халқни мустақиллик йўлидаги курашга бирлиштира оладиган фаол йўлбошчидир. Ўз юртига бўлган чексиз муҳаббати унинг ҳар бир кадамидан ҳам аниқ кўринади. Элим деб, халқим деб ёниб турган эл фарзандининг характерини актёр бор маҳорати билан очиб беришга ҳаракат қилган. Актёр Бахтиёр Абденовнинг Пирим бийида самиймилик, образнинг ички мағзини тўлиқ очиб бериш маҳорати ошиб келаётгандек туйилади. Ария билан образни боғловчи мотивлари ёш актёрдан мохирлик талаб этиб тургандек сезилади.

Рассом Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ рассоми, Бердақ номидаги давлат мукофоти совриндори Ислом Алибековнинг ишлаган декорациялари шу бир тарихий даврни образли таърифлашда ва воқеаларни жонландиришда асосий воситалардан бири бўлди. Сахнадаги саройларнинг кўринишлари ва юқори тоифа вакилларининг кийинишидаги ўзига хослик жонли тикланганлиги бу ижодкорнинг ютуғи албатта. Бу ўринда рассомнинг хизматини алоҳида эътироф этиб ўтган ўринли. Кўринишларда тарихий деталлар очиқ ойдин кўриниб туради. Бунинг ўзи тамошабинларни олис-олисларда қолиб кетган тарихий дунёга олиб киргандек бўлади гуё. Бундек сахнада образлар яратиш ҳам ишончли чиқади.

Умуман олганда қайта сахналантирилган (интерпретация) бу “Ажиниёз” операси қорақалпоқ мусиқа санъатининг ривожланишида катта ҳисса бўлиб ҳисобланади. Шунинг билан бирга театр актёрларининг ижодкорлиги профессионал даражага кўтарилганини ҳам очиқ таърифлаб, қолаверса бутун театр жамоасининг ҳам унумли, ғайрат билан меҳнат этгани кўриниб турибди.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

Баяндиёв Т. «Қорақалпоқ театр тарихи» Т., УзДСИ, 2009.

Баяндиёв Т. «Санъат масалалари – театршунос нигоҳида». Т., УзДСИ, 2009.

Баяндиёв Т. «Театр и время». Т., ГИИУз, 2010.

Баяндиёв Т. «Современные проблемы театра». Т., ГИИУз, 2008.

Алланазаров Т. «Қарақалпоқ театрында миллий режиссураның қәлиплесиўи». Н., Билим. 1996.

Турсунов Б. «Қарақалпақ драматургиясы хәм театрының раўажланыўына аўдарма пьесалардың тәсири». Н. , Қарақалпақстан. 1984.

## АКТЁР ИЖРОСИДА САҲНА ЛИБОСЛАРИНИНГ ЎРНИ

Караева Феруза Қурбоновна  
feruzakarayeva48 @gmail.com

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Саҳнавий либос деганда, аввало нимани тушунмоқ керак? “Театр либоси (кастюми) томошабин ва актёрга бўлаётган воқеа ва даврни тушунишга, унинг руҳига сингришига ёрдамлашувчи, муаллиф ғоясини очиб берувчи кийим, парик ва гримдир”. Либослар рассоми тайёр айтилган кийимни тикувчи эмас, образни, даврни ҳис этиб, қиёфа қиёфа яратадиган мутахассис, ижодкордир. Саҳнавий либоси ҳам театрларнинг ижодий йўналишларига кўра фарқланади. Масалан, болалар театри, кўғирчоқ театри актёрлари учун яратиладиган либослар эртақнамо ҳамда ёрқин рангларда бўлади. Катталар театрида эса ҳар бир спектаклда, ҳар бир персонажларнинг турмуш тарзи ва замонидан келиб чиқиб либос тикилади. Айниқса, тарихий жанрдаги спектакллар ва жаҳон драматургияси асосида яратиладиган спектаклларда либос етакчи омиллардан бирига айланади.

**Калит сўзлар:** Актёр, режиссёр, макон ва замон, ҳаётини муҳит, характер, кино, мутахассис, фильм, рассом, воқийлик, драматург, балетмейстер, педагог, муаллиф, услуб, журналист, театршунос.

## THE ROLE OF STAGE CLOTHES IN ACTOR PERFORMANCE

Karaeva Feruza Qurbonovna  
feruzakarayeva48 @ gmail.com

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** What do you mean by stage costume first? Theatrical costume is a costume, wig and make-up that helps the audience and the actor to understand the events and times, to absorb them into his soul, to reveal the author's idea. The costume designer is not a tailor of ready-made clothes, but a specialist, a creator who feels the image, the period and creates the image. For example, costumes created for children's theater, puppet theater actors will be in fairy tales and in bright colors. In the adult theater, costumes are sewn in each performance, depending on the lifestyle and time of each character. Clothing is becoming one of the leading factors, especially in performances based on historical genres and performances based on world drama.

**Keywords:** actor, director, space and time, living environment, character, film, specialist, film, artist, realism, playwright, choreographer, pedagogue, author, style, journalist, theatrical critic.

Бугунги кунда жадаллик билан ривожланиб бораётган соҳалар кўп. Либос дизайни соҳаси ҳам бутун дунёда кенг ривожланган ва айни пайтда даврнинг энг замонавий маданият тармоқларидан биридир. Ҳар бир миллат ва даврнинг либос борасида ўз анъаналари ва услублари бўлиб, улар замонлар оша ҳамиша ўзгариб, янгиланаб келади. Янгиланишлар изланишларга ва бу изланишлар мустақил соҳаларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Дизайн соҳасининг шаклланиши ва кенг тараққий этишининг сабаби ҳам инсониятнинг ҳар қачон янгиликка интилишининг натижаси сифатида юзага келган. Тарихга назар солар эканмиз, ҳар бир халқнинг, шу жумладан, ўзбек халқининг ҳам этник ва ҳудудий асосга эга анъанавий миллий либослари бўлиб, улар замонлар ўтгани сайин туб моҳиятини сақлаб қолган ҳолда шакл ва услубий жиҳатдан ўзгариб, ривожланиб борган.

Дизайнерлик соҳаси ҳозирда бутун дунёда энг замонавий ва талаб юқори соҳалардан биридир. Маълумки, барча соҳаларнинг ягона объекти - бу инсон. Санъат қай шаклда ва қай тарзда бўлмасин, инсонни, унинг ташқи ва ички оламини ёритиш ва бойитишга интилади. Дизайн санъати эса инсоннинг ташқи кўринишини эстетик бойитишга хизмат қиладиган соҳадир. Либос инсоннинг кўрки. Уни яратишда қулайлик билан бирга унинг шакли ва усули, дизайни жуда муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун биз мода деб юритадиган кийим усуллари ҳамиша ўзгариб янгиланиб боради. Бу соҳага бизнинг давримизга келиб, шу қадар талаб ортдики, сифат ва сон жиҳатдан тобора кенгайиб бормоқда.

Ўзбекистонда ҳам дизайннинг барча тармоқлари каторида либос дизайнерлигини ривожлантиришга катта эътибор қаратиб келинмоқда. Мамлакатимизда “Осиё рамзи” Ўзбекистон дизайнерлар ва модельерлар уюшмасининг ташкил этилганлиги, ҳар йили “Миллий либос” республика мода фестивалининг ўтказиб келинаётганлиги, ўзбек дизайнерлари вакиллариининг турли халқаро ва миллий мода фестивалларида фаол иштирок этиб келаётгани ҳамда турли миллий либослар кўргазмаларининг доимий ўтказилиши соҳани ривожлантиришга катта эътибор қаратилаётганлигидан далолатдир.

Шу билан бирга бу соҳада етук кадрлар тайёрлаш, уларнинг ишларида профессионализмни ошириш долзарб масалалардан ҳисобланади. Камолиддин Бехзод номидаги миллий рассомлик ва дизайн институти, Тошкент тўқимачилик институти ва бошқа қатор ўрта махсус касб-хунар коллежлари ва ихтисослашган масканларда либос дизайнерлиги бўйича кўплаб мутахассислар

тайёрланади. Ҳар қандай таълимнинг асосини тажрибалар ва изланишлар ташкил этгани каби дизайн соҳасида ҳам малакали мутахассислар тайёрлашда жаҳон ва Ўзбекистон дизайнерлари тажрибаларини ўтганиш, соҳа ривожига кенг таъсир этаётган омилларни ўрганиш зарур.

Дизайнерлик соҳаси моҳиятига кўра, ижодий соҳа бўлиб, уни ўрганишнинг услубий шакллари ҳам турлича. Ихтисослашган олийгоҳларда дизайнер мутахассисларни тайёрлашда кастюм тарихи, либос дизайни, материалшунослик, лойиҳалаш, композиция яратиш асослари, тикув буюмларини тайёрлаш технологияси, замонавий либос тарихи сингари кўплаб йўналишлардаги фундаментал илмларнинг ўқитилиши ёш дизайнерларнинг соҳани чуқур эгаллашида муҳим ўрин тутди. Бу билимлар асосида уларда яратувчанлик, либос яратиш бўйича ижодий маҳоратни ривожлантиришда методологик ёндошувнинг ва омилларнинг роли беқиёс. Дизайнер учун энг муҳим хусусият бу албатта фантазиядир. Либос яратишда дизайнерлар ўзларининг новаторлик қобилиятларини ишга соладилар. Бу жиҳатни, яъни ёш дизайнерларнинг фантазияларини кенгайтиришга ижобий таъсир этувчи қатор омиллар бўлиб, шулардан бири театр санъатидир. Чунки, сахна либослари россомлиги дизайн санъатининг ажралмас тармоқи бўлиши билан бирга, унда кийимларда образлилик хусусияти асосий ўринда туради. Шунингдек, сахна асарларида персонажлар учун яратилган либосларда давр руҳи, этник ва минтақавий хусусиятлари ва қай бир маънода кишиларнинг характер хусусиятлари акс этади.

Саҳнавий либос деганда, аввало нимани тушунмоқ керак? “Театр либоси (кастюми) томошабин ва актёрга бўлаётган воқеа ва даврни тушунишга, унинг руҳига сингришига ёрдамлашувчи, муаллиф ғоясини очиқ берувчи кийим, парик ва гримдир”<sup>1</sup>. Либослар расмони тайёр айтилган кийимни тикувчи эмас, образни, даврни ҳис этиб, киёфа киёфа яратадиган мутахассис, ижодкордир. Саҳнавий либоси ҳам театрларнинг ижодий йўналишларига кўра фарқланади. Масалан, болалар театри, кўғирчоқ театри актёрлари учун яратиладиган либослар эртақнамо ҳамда ёрқин рангларда бўлади. Катталар театрида эса ҳар бир спектаклда, ҳар бир персонажларнинг турмуш тарзи ва замонидан келиб чиқиб либос тикилади. Айниқса, тарихий жанрдаги спектакллар ва жаҳон драматургияси асосида яратилган спектаклларда либос етакчи омиллардан бирига айланади.

Театрда инсонлар образини актёр яратади. Унинг асосий кўмакчиси ўз маҳорати бўлса, унга ҳар сафар ёрдамга келувчи воситалар бўлади. Масалан, либос. Бу умумий қаралганда, жуда оддий предметдир, бироқ, актёр ўз образини ўзига мос либосда кийинтириб, томошабин қаршисига олиб чиқади.

<sup>1</sup>Маданият ва санъат атамаларининг изоҳли луғати. Т.: Ғ.Ғулом. 2015 й.256 бет.

Шунинг учун ҳам сахна либоси дейилганда, актёрлар эгнидаги қандайдир ажиб либослар, грим қилинган қиёфа кўз олдимизда намоён бўлади. Бундай бадиий уйғунликка янгича ёндошув театр либос рассомидан чуқур касбий билим билан фантазия талаб этади. Шунинг учун сахна либослари ва театр дизайнер-мутахассисларда бундай маҳоратни ривожлантиришга ўзига хос таъсир этувчи омиллардан ҳисобланади.

Сахна асарлари учун яратилган либослардан мутаносиблик тамойилининг мукаммал ишлаши бадиий либос яратиш борасида янгича улсубий ёндашув билан бирга объектнинг айнан қайси мезонларга буйсундирилиши лозимлигини ўрганиш мумкин. Тасаввур қилайлик, сахнада тахт устида ўтириб, Шоҳни ўйнаётган актёрнинг эгнида одми кийим ва бошида тожнинг ўрнида салла бўлса, ёки тарихий жангчи ролидаги актёр кўлида найза билан, либоси замонавий аскар формасида намоён бўлса, бундай персонажларнинг ҳарчанд зўр бериб ижро этилмасин, айтган сўзларига, умуман, спектаклга ишончлиқ билан қараймиз. Чунки ташқи қиёфада, инсон ва унинг либоси мутаносиблик бўлмаса, бу қилинган ишнинг нопрофессионалликдан дарак беради.

Профессионал театрда сахнавий либосларнинг аҳамияти ниҳоятда етакчи ўринда туради. Актёрнинг ички потенциалнинг тўлиқ намоён бўлишига либос, грим ва бошқа керакли безак ашёлар худди декорация сингари кўмакчи вазифасини бажаради. Пардозчи маҳорати, либослар бўйича рассомнинг ўрни спектаклда мавжуд ҳар бир персонажнинг томошабин қаршисида ким эканлигини белгилаб беради.

Либослар бўйича рассом асарни ўқиб, воқеалар содир бўладиган давр, персонажлар характеридан келиб чиқиб, режиссёр билан маслаҳатлашган ҳолда актёрларнинг сахнавий қиёфаларини яратади. Актёрларнинг репитециядаги ролларини кузатиш ва режиссёрнинг талабчанлиги либосларнинг муносиб даражада яратилишига жуда катта ёрдам беради. Ўзбек Миллий академик драма театрининг либослар бўйича рассоми С. Зуннунова ўз касбининг сири ҳақида сўз кетганида шундай дейди: “Режиссёрнинг талабчанлиги ва репитеция жараёнини кузатиш рассом учун образлар либосларнинг дунёга келишида жуда муҳим. Асарни ўқиб, либосларни ўз фантазиямиз ва тажрибамизга таянган ҳолда чизиб бераверишимиз ҳам мумкин, аммо жамоа билан ҳамнафас яшаб, изланиб яратилган иш ўзгача қимматга эга бўлади”.

Умуман олганда, сахна либослари кундалик кийимлар ва бадиий либослар орасидаги фарқ ва мувофиқликни кўра билишда ёш дизайнерлар учун муҳим тажриба ҳисобланади. Бу бўлажак мутахассиснинг либос яратишда уйғунлик ва янгича шакллар топишига ва энг асосийси, ўз ижодий услубига эга бўлишига кўмаклашади. Дизайнерлар ижодий маҳоратинини ўстиришда сахна либосларидаги қуйидаги жиҳатлар катта аҳамиятга эга:

- Либосларда этник ва даврий хусусиятларнинг ёрқин ифодаланиш,
- Кийимнинг либос, либоснинг образ даражасига кўтарилиши,
- Либослардаги характерлилик,
- Бадий яхлитлик,
- Безаклар ва кўшимча аксессуарларнинг маълум мақсадга хизмат қилиши,
- Оригиналлик ва қулайлик,
- Ранглар ва ғоявий уйғунлик.

Саҳна либосларининг шу каби хусусиятлари ёш дизайнерларнинг касбий маҳоратининг ортиб боришига, айниқса, ҳар қандай кийим дизайнини яратишда ижодий ёндашув ва услубий аниқлик эришишига катта ёрдам беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

М. Абдуллаева, Режиссура. Тошкент.: “Адабиёт учқунлари” 2016 й.

Захова Б.Е. Мастерство актёра и режиссёра. – Москва: Просвещение, 1978. – 336 с.

Станиславский К.С. Актёрнинг ўз устида ишлаши. – Тошкент: Бадий адабиёт наширёти, 1965.

Тўлахўжаева М.Т. Ўзбек драма театрининг режиссураси. – Т.: 1995.  
Усмонов Р. Режиссура. – Т., 1997.



## AKTYORLIK MAHORATIDA SAHNAVY ERKINLIKNI TARBİYALASH MASHQLARI

Umidaxon Boltaboyeva  
O‘ZDSMI FMF

**Annotasiya:** Ushbu maqolada aktyorlik mahoratida sahnaviy erkinlikni tarbiyalash mashqlari va sahnaviy diqqat mashqlari haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Diqqat, mahorat, improvizasiya, fantaziya, ichki erkinlik, tasavvur.

## EXERCISES FOR DRAWING STAGE FREEDOM IN ACTING SKILLS

Umidaxon Boltaboyeva  
FRB UzSIAC

**Abstract:** This article discusses the exercises of cultivating stage freedom in acting skills and the exercises of stage attention.

**Keywords:** Attention, skill, improvisation, fantasy, inner freedom, imagination.

Sozanda, ashulachi, rassom tinimsiz ravishda mashq qilib turmasa o‘z mahorati va qobiliyatidan ajralib qolishi mumkinligini yaxshi biladi. Xuddi shunday aktyor ham tinimsiz mashq qilib turishi talab qilinadi. Bu mashg‘ulot va mashqlar orasida diqqat birinchi o‘rinda turadi.

Talabada diqqatni tarbiyalashga qaratilgan mashqlar to‘g‘risidagi so‘zimizni muxtasar qilishdan avval, o‘qituvchi etiborini yana bir narsaga qaratmoqchimiz. Ya‘ni har bir talaba o‘zi bajarilgan mashqlar to‘g‘risida o‘qituvchining holisona fikrini bilishi kerak bo‘ladi. O‘qituvchining bahosi, talaba diqqatini to‘g‘ri to‘play oldimi yo‘qmi, vazifa to‘g‘ri bajarildimi yoki bajarilmadimi? Agar talaba o‘qituvchining bahosidan qoniqmasa, uni sahnaga taklif etib yangi vazifa berish kerak. Vazifa bajarilganidan keyin tomoshabin bo‘lib o‘tirgan talabalarga so‘z berish va bajarilgan vazifa yuzasidan o‘z fikrlarini ochiq-oydin bildirishlikni taklif etish kerak.

Yuqoridagilardan ma‘lum bo‘ladiki, berilgan manbaga diqqatni to‘plash va uni berilib o‘rganishga kirishish ichki erkinlikni paydo qiladi, ichki erkinlik esa o‘z navbatida tashqi jismoniy erkinlikni tug‘diradi. Lekin aktyorda mushaklar erkinligi bo‘lmay qotib qolsa, hech bir kuch, diqqatni berilgan manbaga to‘plashga yordam beraolmaydi. Shuning uchun ko‘pincha sahnadagi aktyor diqqatini to‘plash o‘rniga, qotib qolgan mushaklarni bo‘shatish bilan ovora bo‘lib qoladi. Ayrim hollarda aktyor ichki erkinlikni paydo qilaolgan bo‘lsa ham mushaklar qotib qolishidan sira xalos

bo'laolmaydi. Agar badan a'zolaridagi taranglikni bir oz bo'lsa ham bo'shatishga erishilsa, qolgan a'zolar ham o'z-o'zidan bushashadi, ichki erkinlik diqqatni bir joyga jamlashga yordam beraboshlaydi.

Lekin ichki ijodiy erkinlikni tarbiyalash ko'p vaqt talab qiladigan murakkab jarayondir. Buni u yoki bu kursda olib boriladigan mashg'ulotlarning o'zi bilangina tarbiyalab bo'lmaydi. Aktyor amaliy mashg'ulotlar natijasida ichki va tashqi texnik unsurlarning barchasini mukammal egallab olganidan so'ngina ichki erkinlikni qo'lga kiritish mumkin. Biroq talabalarda ortiqcha taranglikdan xolos bo'lishning oddiy yo'llarini ko'rsatib berish uncha ko'p bo'lmagan vaqt talab qiladi. Navbatdagi mashg'ulotlarimiz aynan shu maqsadni o'z oldiga qo'ygan.

Mazkur mushaklarni bo'shatish mashqlarini sahnaviy diqqatni to'plashda qiyinchilik tug'diradigan manbalardan boshlashni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Odatda ko'pchilik o'rtasida o'zini yo'qotib qo'yadigan, diqqatini sira bir joyga to'play olmaydigan bir necha o'quvchi bo'ladi. Bunday talabalarda ijodiy va jismoniy taranglik darajasi shu qadar kuchli bo'ladiki, diqqatni to'plash uchun berilgan mashqlar ham ularga foyda bermaydi. Bunday kezlarda o'qituvchi avvalo ularning mushaklar tarangligidan halos bo'lishiga yordam berishi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'sha talaba tanasining qaysi a'zolarida taranglik o'ta kuchli bo'lsa, talabaga o'sha erni bo'shatishlikni tavsiya etishi lozim bo'ladi. Shu yo'l bilan shoshilmasdan birin-ketin tarang mushaklar bo'shatilishi zarur.

Bu mashqlar davomida ijobiy natija qo'lga kiritilganidan so'ng, *sahnaviy diqqat* mashqlarini berish mumkin. Agar bu safar ham yana mushaklar taranglashadigan bo'lsa taranglikni bo'shatish mashqlarini yana boshidan boshlash kerak. Bu mashg'ulot, talaba berilgan manbaga o'z diqqatini to'plashga odatlangunga qadar davom etishi kerak. Agar berilgan mashqlar izchillik bilan olib borilsa albatta ijobiy natijaga erishiladi.

Shundan so'nggina talabalar mushaklarni bo'shatish mashqlarini bajarishga o'tishlari mumkin.

1-Mashq. Navbat bilan tana a'zolarini: qo'l, oyoq, bo'yin, bel umurtqalarini, goh tarang tortib, goh bo'shatish mashqlarini bajarishga o'tiladi. Mazkur mashqlar davomida talabalar taranglashuvi va undan halos bo'lishi, mumkin qadar to'kis bo'lishi zarur.

Ushbu mashqlar yordamida talabalar o'z tana a'zolarining qaysi qismida taranglik borligi va qaysi qismi bo'shatilganligini nazorat qilishni o'rganadilar.

2-Mashq. O'qituvchi talablarni kursida qulay o'tirib olishga taklif etadi. So'ngra sira shoshilmay yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab navbatma-navbat tana a'zolarini bo'tashni buyuradi. Ya'ni, oyoq barmoqlaridan boshlab to bosh qismining quloq uchlarigacha navbati bilan bo'shatib chiqish kerak bo'ladi. Tana a'zolari shu darajada bo'shashligi kerakki, faqat tanani ushlab turadigan umurtqadan boshqa

a'zolar bo'shligidan gavda yiqilib tushish darajasigacha kelishi lozim. Ayniq a yuz mushaklariga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Agar talab qilingan darajadagi bo'shlikka erishilsa, bosh ko'krakka osilib tushishi, og'iz ochilib, pastki jag' osilib qoladi, peshona mutlaqo bo'sh bo'lishi kerak. Qoshlar umuman chimirilmasligi kerak. Mashqni nechog'lik to'g'ri-noto'g'ri bajarilayotganligini tekshirib ko'rish uchun o'qituvchi talabning qo'lini ko'tarib tashlashi, boshini chayqatib ko'rishi mumkin. Agar tana a'zolari to'g'ri bo'shatilgan bo'lsa ko'tarilgan qo'l o'z-o'zidan avvalgi joyiga tushishi, bosh esa chayqalishi muqarrar. Agar o'qituvchi talabni turtib yuborsa u xuddi qum to'ldirilgan qopdek engil va erkin ag'darilib tushadi.

Talabanning shu holatdagi tanasi uxlayotgan yosh bolaning tanasiga o'xshaydi. Hechkim uxlayotgan boladek erkin bo'lmaydi. .

K. S. Stanislavskiy bola uyqusini quyidagicha ta'riflaydi. *"Agar bola qum ustiga yotqizilib uni tinchlantirilsa, yoki uxlatilsa, so'ngra uyg'otib yubormasdan asta qumdan ko'tarsa, qum ustida to'laligicha bola tanasining izini ko'rish mumkin. Shu mashqni katta odam bilan bajarib ko'rilsa qum ustida uch-to'rt botib qolgan izlarni ko'rish mumkin. Bu uning yelka va bel suyaklarining izi bo'ladi. Qo'm ustida yotgan bolaning qoldirgan iziga o'xshash iz qoldirish uchun tana a'zolarini butunlay erkinligi va bo'shligiga erishish zarur. Mana shunday holatda inson besh-o'n daqiqa uxlasa yoki dam olsa bir kecha-kunduz uxlagandek orom olishi mumkin. "*

Yuqorida keltirilgan mashqning birinchi bosqichi o'zlashtirilgandan so'ng mashqning ikkinchi bosqichini bajarishga kirishiladi. Bunda tana a'zolarini yuqorida keltirilgan tartibda bo'shatib yana o'sha tartibda taranglashuviga harakat qilish kerak.

Uchinchi bosqichda mushaklar mumkin qadar taranglashadi so'ngra kundalik hayot talab qiladigan normal darajada bo'shatiladi.

Normal holatda mushaklarning quvvat darajasi inson a'zolarining hayotiy faoliyat ko'rsatishi uchun etarli miqdorda ta'minlangan bo'lishi zarur. Bu a'zolar zarur bo'lib qolgan zamonog, hotirjamlik holatidan izchil ishchanlik holatiga o'tishga tayyor bo'ladi.

Ishchanlik holati deganimizda ikki narsani nazarda tutish kerak: *safarbarlik* va *hotirjamlik*.

Bir tomondan siqqlikni yo'qligi, ikkinchi tomondan loqaydlik va bo'shanglik holati.

Tani-joni sog' odamning hamisha tiyrak va tetik bo'lib, har qanday vazifani bajarishga doimo shay bo'lib turgan vaziyati nazarda tutiladi. Bunday vaziyatda uning bironta harakati ortiqcha, yoki zoe ketmaydi.

Taklif etilgan mashqlarning mohiyatini o'zlashtirib olinganidan so'ng mashqlar o'qituvchining sanog'i ostida bajariladi.

Misol uchun: *1-10 gacha mushaklarni mutlaqo bo'shatish, 10-20 gacha mushaqlarni mumkin darajada taranglashtirish, 20-30 gacha mushaklarni normal holatga keltirish.*

3. Mashq. O'qituvchining buyrug'i bilan barcha talabalar o'z tana a'zolari holatini o'zgartiradilar. Shundan so'ng tananing biron erida taranglik ushlanib qolgan-qolmaganligi tekshirib ko'riladi.

4. Mashq. Yurib turib, mushaklar tarangligini sezish orqali aniqlash.

5. Mashq. Vazmin bir buyumni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yish, so'ngra tanadagi mushaklar tarangligini olib tashlash.

6. Mashq. Qo'l yoki oyoq bilan keskin va kuchli harakat qilish( stolga mushtlash, er depsinish) shundan so'ng darhol tanadagi taranglikni olib tashlash.

7. Mashq. O'qituvchining buyrug'i bilan to'satdan tanadagi barcha tarangliklardan xolos bo'lish. Natijada yengil va erkin erga yiqilish ro'y berishi kerak. Mazkur mashqni tik turgan yoki yurib turib bajarish tavsiya etiladi.

8. Mashq. Tana a'zolaridan bir qismini ishchi holatga keltirish ayni shu damda tananing boshqa a'zolari mutlaqo bo'sh bo'lishi kerak .

9. Mashq Biron bir jismoniy harakat bajarish va ayni chog'da bu vazifani bajarishda qatnashmagan mushaklar bo'shligi saqlanib qolinishi kerak bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan mashqlarni takrorlash jarayonida talabalar o'z tana a'zolarida joylashgan mushaklarni, ularning faoliyati va vazifalarini to'liq o'rganib olishlari lozim. Kundalik ish jarayoni yoki sahnaviy faoliyat davrida tananing qaysi a'zosida siqqlik paydo bo'lsa, darhol o'sha qismni bo'shatib, erkin harakat holatiga keltirishni o'rganadilar. Bir so'z bilan aytganda o'z tana a'zolarini muntazam nazorat qilib turishga odatlanadilar. Avval bunday nazorat ixtiyoriy ravishda ro'y berishi tabiiydir. Ayrim hollarda doimiy nazoratdan ayrim mushaklarda siqqlik paydo bo'lishi ham mumkin. Lekin bundan qo'rqmaslik kerak. Asta- sekin bunday siqqlik yo'qoladi. Avval boshda ixtiyoriy ravishda olib boriladigan nazorat, bora-bora beixtiyoriy nazoratga aylanishi zarur.

*Sahnaviy diqqat* kabi, mushaklarni bo'shatish ham o'z-o'zidan ro'y berishi kerak. Talaba sahnaga chiqib o'z tanasidagi mushaklarni bo'shatish to'g'risida muntazam o'ylar ekan, oldinga qo'yilgan maqsadga to'liq erishildi deb bo'lmaydi. Qachonki talaba mushaklar siqqligini o'ylashdan o'zini xalos etsa, fikri chalg'imasa maqsadga erishilgan deyish mumkin. Bulardan tashqari talaba sahnaga chiqishi bilan uning mushaklari o'z-o'zidan bo'shab, ishchan holati paydo bo'lishi zarur. Tananing qaysi qismida taranglik paydo bo'lsa, o'z-o'zidan avtomatik tarzda o'sha joy bo'shatilishi kerak. Bunday faoliyat, kundalik beixtiyoriy odatga aylanib ketishi uchun talaba, darslardan tashqari mustaqil mashq qilishi maqsadga muvofiqdir. Ko'chada, uyda, jamoat joylarida, transportda, tanaffusda , boringki talaba qerda bo'lmasin, doimo o'z mushaklarini nazorat qilib turishga odatlanmog'i lozim.

Bunday mashqlarni kechqurun uyquga ketishdan oldin yoki ertlab uyqudan uygʻonganda bajarishlik oʻta foydali va samarali boʻladi. Agar uyqudan oldin mushaklarni bir qator nazoratdan oʻtkazib, ularni tamoman boʻshatishga erishilsa, tungi uyqu tinch va chuqur boʻlib, kishi tanasi va miyyasi yaxshi dam oladi.

Bulardan tashqari talabalar boshqa yondosh fanlardan (*ritmika, plastika, raqs, sahna harakati*) oʻtkaziladigan mashgʻulotlar vaqtida ham oʻz tana aʼzolari, mushaklarini doimo nazorat qilib turishlari kerak.

Aktyorda sahnadagi toʻqima hayotga boʻlgan ishonchini tarbiyalash uchun sahnada roʻy berishi ehtimoli boʻlgan voqea va hodisalarga nisbatan ishonchni tugʻdirish uning tasavvurini oʻstirish borasida tinimsiz olib boriladigan mashq va mashgʻulotlarga bogʻliqdir. Biron-bir narsani, buyumni, xodisani oqlash, (*opravdatʼ*) aktyor tasavvurini mashq qildirish hamda sahnaviy ishonchini oʻstirish demakdir. Sahnada nimaiki roʻy beradigan boʻlsa unga ishonish aktyorning tabiiy ongiga singib ketishi kerak. Agar talaba sahnada nimanidir oqlashim kerak deb, uzluksiz oʻylaydigan boʻlsa hali maqsadga erishilmagan boʻladi. Sahnada roʻy beradigan barcha voqea va xodisalarga hamisha ishonishga odatlanish uning tabiatiga singib ketishi kerak. Lekin bu hali hamma narsaga erishildi degan gap emas.

Bunga erishishlik uchun qator mashqlar, mashgʻulotlar oʻtkazish kerak. Mashqlar esa oddiylikdan murakablikka, engildan qiyin mashqlar tomon, asta - sekinlik bilan talabaning oʻziga sezdirilmagan holda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Avval boshda talabalar xona ichida boʻlgan buyumlarni oqlashii kerak.

*Oqlash* deganimizda har bir talaba oʻzi tanlagan buyum, narsani *nima uchun tomosha qilyapman, musiqani nima uchun tinglayapman, nega shu buyum yoki musiqa toʻgʻrisida oʻylayapman*, degan savollarga oʻzi javob topishga harakat qilishi nazarda tutiladi. Yuqorida keltirilgan mashq shunchaki bir diqqatni va ishonchni oqlash uchun bajarilishi zaruriy boʻlib, unda haqiqiy mavjud narsa, buyum, tovushdan tashqariga chiqilmaydi. Talabalarning nima deb javob berishi ham tahminiy maʼlum.

*Men bu narsani oʻqituvchi topshirgani uchun oqlayapman hamda oʻz diqqatimni tarbiyalayaapman*, deb aytishi ehtimoldan holi emas.

Navbatdagi mashgʻulotda *nega, nima uchun* degan savollarga javob topish uchun xaqiqatdan uzoqlashib, tasavvur va fantaziya bosqichiga oʻtishlik talab qilinadi. Talaba yuqoridagi savolga javob topish uchun oʻzi biron narsa toʻqishi, toʻqiganda ham oʻzi va boshqalar uchun qiziqroq vaziyatni toʻqib chiqarishi kerak boʻladi. Toʻqib chiqarilgan xodisa yoki voqea qanchalik qiziqarli boʻlsa, diqqat jarayoniga ijobiy taʼsir oʻtkazmay qoʻymaydi. Agar xikoya qiziqarli boʻlsa oʻqituvchining nima uchun degan savoliiga ham hojat qolmaydi. Mazkur mashqni barcha talabalar oʻtib boʻlganidan keyin oʻqituvchi talabadan nima uchun voqea xodisani, shu tarzda oqlaganligi sababini soʻrashi mumkin. Bunday usul yordamida

qaysi talaba vazifani yaxshi bajardi-yu, qaysinisi bajaraolmaganligini aniqlab oladi. Ikkinchidan mazkur mashqni bajarishga e'tiborsizlik qilgan talaba aniqlanadi.

Ikki talabalaning hikoyasini bir-biriga solishtirish orqali ham kutilgan natijaga erishish mumkin.

Ikkala talabaning hikoyasini bir-birigi qiyoslash orqali:

a. ) *sahnadagi izchil diqqat bilan sahnaviy oqlash o'rtasida o'zviy bog'liqligi,*

b) *sahnaviy diqqat bilan sahnaviy fantaziyani o'zviy bog'liqligini;*

v) *aktyorning tasavvuri qanchalik yaxshi ishlasa uning diqqati ham shu darjada bo'lishi,*

g). *aktyorning diqqati qanchalik izchil va chuqur bo'lsa uning tasavvuri shunchalik kuchli bo'lishini isbotlash kerak bo'ladi.*

Sahnaviy oqlash uchun navbatdagi mashqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan o'quvchilar xona bo'ylab yura boshlaydilar. Kutilmaganda o'qituvchi ularni to'xtatadi. Kim qaysi holatda to'xtagan bo'lsa o'z shaklini o'zgartirmay bir necha soniya shunday turadilar. So'ngra har kim o'zi turgan holatni oqlaydi. Bu albatta tashqi jismoniy harakat bilan bog'liq bo'ladi.

Keyingi mashq. O'quvchi kursida o'tirgan holda biron bir jismoniy ish bajaradi. To'satdan o'qituvchi uni to'xtatadi va o'z holatini oqlashlikka undaydi.

Yana bir mashq. O'qituvchi bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan turli vaziyatlarni gapiraboshlaydi.

Masalan:Uyga kirib ko'rpachaga cho'ziladi. O'rnidan turib kitob jovonini kavlaydi. Eski kitobni olib bir betini ochib ko'zdan kechiradi. Deraza oldiga borib tashqariga qaraydi, xontaxtaga o'tiradi. Choy ichadi, qo'lga qalam olib qog'ozga nimadir yozaboshlaydi. Mana shu bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan harakatlardan yaxlit bir voqea to'qib chiqarish kerak bo'ladi. Biz keltirib o'tgan mashqlar talabalarning ijodiy tasavvurini tarbiyalashdan tashqari yana bir muhim ahamiyati bordir. Agar talaba o'z tasavvuri yordamida *berilgan shart-sharoit* yaratishni u yoki bu vaziyatni oqlashni o'rgansa, keyinchalik piesada, berilgan shart-sharoitda o'z rolining ichki va tashqi harakat chizig'ini yaratishi o'zi yaratayotgan timsol tushib qolgan shart-sharoitda qanday ruhiy va jismoniy xatti-harakat topishlikni yaxshi biladigan bo'ladi.

Aktyorni rol ustida ishlash jarayonida *pyesada berilgan shart-sharoitdan hamda o'zi yaratayotgan qahramonning xislat va xususiyatlaridan kelib chiqib jismoniy xatti-harakat chizig'ini yarataolishlik salohiyati juda ham muhim* ahamiyatga egadir.

Navbatdagi mashq noma'lum odamning rasmiga qarab uning kimligi, yoshi nechada, nima ish bilan mashg'ul bo'lganligi, hayotda nimalarga qiziqishi, oilaviy sharoiti qanday degan turli savollarga javob qidirish orqali, talabaning tasavvurini va fantaziyasini rivojlantirib o'stirishga katta yordam berishi mumkin. Xuddi shunday mashqni ko'chada, tramvay, trolleybus, avtobus, metroda, hiyobondagi to'g'ri kelgan

odamni kuzatib ham o'tkazish mumkin. Savollar esa o'sha-o'sha yoki bir oz o'zgargan shalkda bo'lishi mumkin. Bunday mashqlar talabaning kuzatuvchanlik qobiliyatini, xotirasini, xususiyat va hislatlarni farqlashini, berilgan shart-sharoitni aniqlashda talabaga katta yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jo'ra Mahmudov, Sahna kompozitsiyasining alifbosi, Toshkent-2006y.
2. Xoliqulova G. Sahna nutqi. Toshkent – 2007 y.
3. Boltaboyeva U. Sahna nutqi. Toshkent, INNOVATSION-ZIYO, 2019.
4. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
5. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
6. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
7. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
8. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
9. Ҳатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
10. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
11. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
12. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
13. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).
14. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).
15. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.

16. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.
17. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.
18. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
19. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
20. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
21. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
22. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.
23. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).
24. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.
25. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
26. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.
27. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.
28. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).
29. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.
30. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.
31. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. *Hordo Structures in Central Asian Architecture*.



32. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.
33. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
34. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 37-43.
35. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.
36. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.
37. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.
38. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).
39. Умарова, Х., & Қурбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.
40. Ёулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
41. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.
42. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
43. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
44. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## UD CHOLG‘USI TARIXIDAN

Alijon Jo‘rayev

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola o‘zbek musiqasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan ud cholg‘usining tarixiy rivojlanish bosqichlariga bag‘ishlangan. Markaziy Osiyoda hududlaridan topilgan osori-atiqalardan, o‘tmish musiqiy risolalarda musiqaning nazariy masalalari aynan udning dastasi orqali tushuntirilganligidan cholg‘uning naqadar uzoq tarixga ega hamda ahamiyatli ekanligini anglash mumkin. Shuningdek, uning bugungi ko‘rinishi, ijrochilik amaliyotida qo‘llanilishi masalalariga ham e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** ud, barbat, lyutnya, cholg‘u, risola, terrakota, ayritom, tor, zir, bam, maslas, masna.

## FROM THE HISTORY OF UD INSTRUMENTS

Alijon Jorayev

Uzbekistan National Institute of Musical Arts named after Yunus Rajabi

**Abstract:** This article is dedicated to the historical development of the oud, which has a special place in Uzbek music. The long history and significance of the instrument can be deduced from the artifacts found in Central Asia and from the fact that in previous musical treatises the theoretical issues of music were explained through the handle of the oud. It also focuses on its current appearance and application in executive practice.

**Keywords:** ud, barbat, lyutnya, instrument, pamphlet, terracotta, ayritom, tor, zir, bam, maslas, masna.

O‘zbek xalqi musiqa san’atining tarixi juda boy va qadimiydir. O‘tmishda turli cholg‘ulardan kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, xalq sayllarida foydalanilgan. Musiqa cholg‘ulari asrlar davomida insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Arfa, udsimon, naysimon cholg‘ular eng qadimgi va uzoq o‘tmish tarixiga ega. Ana shu sozlar zamirida tanbur, g‘ijjak, nay, qonun, dutor, rubob kabi turli xildagi cholg‘u asboblari yaratildi. Ulardan biri bo‘lgan ud XVII asrgacha xalq orasida keng tarqalgan va ma’naviy, ruhiy oziq in’om etgan. Uning bizga ma’lum bo‘lgan dastlabki shakli Ayritomdan topilgan eramizning I asrlariga oid madaniy yodgorlikda

o'z aksini topganligi manbalardan ma'lum<sup>1</sup>. Ud sozi haqida o'tmishdagi ko'plab nazariyotchilar o'z risolalarida ma'lumot berganlar. Sababi ud musiqa nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tushuntirishda aniq parda va torlarga ega bo'lgan.

O'tgan asrning oxirgi 10 yilliklarida arxeologik izlanishlar natijasida Markaziy Osiyo hududidan qadimgi musiqa haqida guvohlik beruvchi va eramizning I-VII asrlariga oid musiqiy hayotni aks ettiruvchi topilmalar topildi. So'g'd, Baqtriya, Xorazm, Parfiyon, Marg'iyon hududlaridan topilgan yodgorliklar butun Markaziy Osiyo musiqa madaniyatini tasavvur etishga yordam beradi. Mazkur yodgorliklar orasida qadimgi Yunon afsonalari qahramoni "Appalon qo'lida kifara bilan", lira, avlos kabi cholg'ular keltirilgan<sup>2</sup>. Bulardan arfa va lira eng keng tarqalgan cholg'u hisoblangan. O'rta Sharqda eramizning I asrida asosiy cholg'u "lyutnya" bo'lib, u qisqa dastali "lyutnya" yoki "kalta lyutnya" deb yuritilgan. Ushbu cholg'uning ko'rinishi Shumer, Vavilon yodgorliklarida uchramaydi, shu jumladan Assir va Misr uchun ham xos emas. Kalta lyutnyaning eng avvalgi ko'rinishi er.ol. 2-ming yillikning 2-yarmiga to'g'ri keladi. Bu - katta noksimon shaklli va keng kalta dastali cholg'ular ushlagan ayollarning noyob terrakota haykalchasi bo'lib, hozirda Kair muzeyida saqlanadi.

Mutaxassislarining fikricha, bunday ko'rinishli cholg'uning kelib chiqishi Kiprga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar guvohlik beradiki, kalta dastali udning ommalashishi dastlab qadimgi Markaziy Osiyoning barcha hududlari - So'g'd, Baqtriya, Marg'iyona, kechroq Shoshga to'g'ri keladi. Xorazm va Parfiyonada uzun dastali ud keng tarqalganki, bular - do'mbra ko'rinishiga yaqin, 2-si tanburga o'xshash - juda kichik kosa va uzun dastali bo'lgan.

"Afrosiyob terrakotalarida so'g'diylarning sevimli cholg'usi lyutnya bo'lganligini ko'rish mumkin", deb yozadi T.S.Vizgo. Ko'pchilik shakllarda u aniq ko'ringan. Cholg'ular katta va kichik o'lchamlarda uchraydi. Kalta dasta va katta kosaxonaga ega bo'lgan cholg'uning bu ko'rinishi zamonaviy cholg'ushunoslik adabiyotlarida "kalta ud" nomini olgan. Mazkur ud qadimgi Xorazm, Marv va Sharqiy Turkiston terrakotalarida uchraydi<sup>3</sup>.

Qadimgi tasvirlardan anglash mumkinki, cholg'uning ikki ko'rinishi bo'lgan: birinchisi kalta dastali va ikkinchisi uzun dastali ud. Birinchi ko'rinishdagi cholg'uga kalta va ulanuvchi dasta, katta kosaxona, yakunlanuvchi orqaga egilgan bosh qism xos bo'lsa, ikkinchi ko'rinishdagisi esa buning aksi. Uzun dastasi uning kalta dastali uddan ajralib turuvchi asosiy jihatidir. Lekin dastasi juda uzun yoki ozroq uzun bo'lishi mumkin. Ba'zi cholg'ushunoslar (K.A.Vertkov) barcha uzun dastali udlarni

<sup>1</sup> И.Ражабов. Мақомлар масаласига доир. Т., 1963.

<sup>2</sup> Малькеева А.А. "О музыкальных связях Средней Азии в I-VII вв.н.э. (на примере изображений арфы и лютни)" // Музыкальное, театральное искусство и фольклор. Т.: «Фан», 1992. 30-с.

<sup>3</sup> Визго. Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки. 36-с.

“tanbursimon” deb atashni taklif qilgan. G‘arbiy adabiyotlarda uzun udlar “pandura”<sup>4</sup> deyilgan.

Baqtriyada kushonlar davrida gitara ko‘rinishidagi udning shakli mashhur bo‘lgan. U Ayrtom frizida tasvirlangan, shuningdek, Sariosiyo va Budrachadan topilgan terrakotalarda ham ko‘rish mumkin.

Izlanuvchi-tadqiqotchilarning fikricha, Sharq Turkiston udi Xitoyda ham bo‘lishi mumkin. Ma‘lumki, Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasida o‘zaro aloqalar mavjud bo‘lgan, masalan: madaniy aloqalar amalga oshirilgan (ba‘zan sozanda va raqqosalar Xitoy imperatoriga sovg‘a sifatida yuborilgan). Xitoyda kalta ud nisbatan kechroq - V asr va VI asrning boshlarida tarqalgan bo‘lib, Xitoy musiqiy cholg‘uchiligiga “pipa” nomi bilan kirgan. Xitoy xroniklarining guvohlik berishicha, chet el cholg‘usi lyutnya g‘arbiy chegaradan Xitoyga kirib kelgan.

Farmer Xitoyga udning kirib borishini Xitoy imperatori Vu-Tini turk malikasiga uylanishi bilan bog‘laydi (568 y.). Malika o‘zi bilan musiqachi sozandalar, “varvar” (Farmer buni turkman barbati deb izohlaydi) cholg‘usi ijrochisini ham olib borgan. Aynan shu sozanda Xitoyda Su Chi-po nomi bilan atalgan Xitoy musiqasidagi 7 modusni olib kirgan. Persidskiy tildagi “barbat” atamasining fonetik o‘zgargani sifatida “pipa” bo‘lib ishlatilgan. L.Pikkenning yozishicha esa bu atama “pi” qo‘lning oldinga tushirilishidan, “pa” qo‘lning orqaga qaytish harakatidan chiqqan tovushdir<sup>5</sup>.

“Ud” arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi turlichadir. Ud ismli bir daraxt bo‘lib, yonganda xushbo‘y hid taratgan. Ud dastlab shu daraxt yog‘ochidan yasalgan bo‘lishi mumkin. Boshqa tomondan esa ud iborasi bayram, to‘y-tomosha, xursandchilikni ifodalaydigan “iyd” atamasining ma‘lum shakli bo‘lsa, xushchaqchaqlik kayfiyati bag‘ishlovchi cholg‘u ma‘nosida ham kelishi mumkin. Udning dastlabki nomi barbat bo‘lganligi ba‘zi manbalarda ko‘rsatib o‘tiladi. Barbat bar - qomat, bat - o‘rdak ma‘nolarini bildirib, u qorni katta va dastasi kalta musiqa asbobidir.

Ud sozi haqida o‘tmishdagi ko‘plab nazariyotchilar o‘z risolalarida ma‘lumot berganlar. Forobiyning mashhur “Kitab al-musiqa al-kabir” asarida cholg‘uga ta‘rif berilgan. Forobiyning o‘zi ham ud chalishni yaxshi bilgan. Bundan tashqari ash-Sheroziy, al-Husayniy, Jomiyning risolalarida ud haqida maxsus boblar keltirilgan. Safiuddin Urmaviy ud ijrochisi ham bo‘lib, olib borgan tajribalariga tayanib olim o‘z nazariy qoidalarini bayon etadi. Risolalarda ud sozi Markaziy Osiyoda XVII asrgacha yashagan, deb taxmin qilinadi. Hozirda u Kavkaz xalqlarida, arablarda, Eronda, turklarda va ko‘plab Yevropa xalqlari musiqa san‘atida muhim o‘rin egallaydi. Yevropada “lyutnya” nomi bilan mashhur. Sharqda keng tarqalgan ud sozining qorni

<sup>4</sup> Zaksning fikricha udning grekcha nomlanishi pandura bo‘lib, shumer panturdan kelib chiqqan. Greklar bu atamani shumer-kavkaz xalqidan o‘rgangan.

<sup>5</sup> Yanada to‘liq ma‘lumot uchun qarang: Визго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки.

dutornikidan kattaroq, dumaloq shaklda va dastasi kalta. Qadimgi udning uzun dastali turlari mavjud bo'lganligini miniatyuralardan ko'rish mumkin.

Har bir sozning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari mavjud. Uning tashqi tuzilishi kosa, dasta va bosh qismdan tashkil topgan. Kosasi bir-biriga yopishtirilgan bir necha (10-12) qovurg'asimon taxtachadan iborat. Ustiga yog'ochdan tayyorlangan qopqoq zich qilib biriktiriladi. Qopqoqda 3 rezenatr ovoz tebranib chiqadigan teshik bo'lib, ustiga torlar tayanadigan xarrak zich qilib tutashtirilgan. Dastasi kosaga mahkam biriktirilib, parda bog'lanmaydi. U g'ijjak dastasi kabi sof va tekis bo'ladi. Udning bosh qismi torlarni mahkamlash va tortish uchun mo'ljallangan bo'lib, unga 11 ta yog'och (5 tasi o'ng, 6 tasi chap tomonga) o'rnatilgan. Cholg'uning bosh qismi va dastasi tutshgan joyda shayton xarrak joylashgan. U ochiq torlarning tayanchi hisoblanadi.

Musiqiy-nazariy risolalardan ma'lum bo'lishicha, 5 torli ud qariyb XVI asrgacha ishlatilib kelingan. San'atshunos olimlarimiz, musiqa nazariyotchilarining ilmiy risolalarida ud sozining 1-4 juft torlari oralig'ining sozlanishi sof kvartaga tengligi qayd etilgan. Eng pastki torlari, ya'ni 4 va 5, 5 va 6 torlarning oralig'i katta sekunda intervalida sozlangan. Hozirda ijrochilikda qo'llanilayotgan ud cholg'usining yuqoridan 1-3 torlari sun'iy ichakdan yoki kaprondan taqiladi. 4-6 torlari esa, pishitilgan ipak ustidan mis sim o'ralgan holda tayyorlanadi. Sun'iy ichak torlarining qo'llanilishi yaqin yillarda davomida boshlangan. Chunki ipak tor tez titilib ketish va sadosining pastligi jihatidan iste'moldan bir muncha yiroqlashgan. Sun'iy ichak taqilgach, asbobning tovushi balandlashdi, barmoqlarning torlar ustidagi harakatiga yaxshi imkoniyat tug'ildi. Udning torlari bam, maslas, masna, zir, hodd atamalari bilan nomlangan.

Cholg'uning pardalari Forobiy yashagan zamonlardan to XVI asrgacha bir necha bor o'zgargan va ularning o'rnini turlicha belgilanib kelingan. Uning pardalari taxminan XIII-XV asrlarda joriy etilgan tovush tizimiga to'g'ri keladi. Ud parda (doston)lari 8 ta bo'lgan:

1. Mutlaq - ochiq parda deb atalgan.
2. Zoid - (mutlaqqa nisbatan) orttirilgan.
3. Mujannab - "qo'shni parda", ba'zi sharq musiqa olimlarining aytishicha "chetlatilgan" (olimlar bu pardaga maxsus ism bermaganlari uchun nolanish nuqtai nazaridan chetda qoldirilgan) degan ma'noda keladi.
4. Sabboba - "ko'rsatkich barmoq" demakdir. Bu atama ko'rsatkich barmoq vositasi bilan tovush hosil etiladigan pardani ifodalaydi.
5. Vustai furs - o'rta barmoq vositaschi bilan tovush chiqarib olinadigan pardadir.
6. Vustai zalzal - Zalzal (791 yil vafot etgan mashhur arab hoqoni) hukmron bo'lgan zamonda belgilangan va o'rta barmoq vositasi bilan chalinadigan pardadir.

7. Binsir - to'rtinchi barmoqning nomi bo'lib, shu barmoq vositasida ijro etiladi.

8. Hinsir - chimchiloqning nomi bo'lib, shu barmoq orqali chalinadigan parda.

Ud pardalarining nomlanishidan ko'rinib turibdiki, kuylarning ijro etilishida ud chaluvchi sozandaning to'rt barmog'ini hammasini ishlaydi.

O'tmishda udning tor va pardalarining hammasi ma'lum bir kuyni ijro etishda birin-ketin ishlatilmay, temperatsiya etilmay diatonik lad uyushmalariga moslab chalingan. Bizgacha yetib kelgan o'zbek-tojik xalq musiqa asarlarida, ayniqsa Shashmaqomning ba'zi yo'llari va keyingi davrlarda yaratilgan xalq kuy va ashulalarining ba'zi ko'rinishlari, izlari saqlanib qolganligi bu fikrning dalilidir.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, sharq halqlari musiqa san'ati ijrochiligida eng qadimiy va amaliyotda qo'llanish o'rniga ko'ra eng yetakchi soz - ud cholg'usidir. Uning pardalari va torlari namuna sifatida musiqa nazariyasi va amaliyotining ilmiy masalalari (tovushlar oralig'i, nag'ma, jins, jam' va maqomlarni tashkil etgan pog'onalari - pardalari)ni tushuntirish uchun eng qulay bo'lgan. Xususan, sharq musiqashunoslik ilmining yetuk namoyandalari Abu Nasr Forobiy ("Kitab al-musiqa al-kabir" asari), Safiuddin Urmaviy ("Risalat ush-sharafiyya" va "Kitab ul-advor" asarlari), Zaynulobiddin Husayniy ("Qonuni ilmi va amali musiqiy" risolasi) Qutbiddin ash-Sheroziy ("Durratu-t-toj li g'urrati-d-deboj..." ("Toj durlari...") qomusiy asarining musiqaga bag'ishlangan qismi "Dar ilmi musiqiy"), Abdurahmon Jomiy ("Risolai musiqiy") kabi allomalar bu cholg'u yordamida 17 pog'onali tovushqator va tovushlar oralig'ini matematik nuqtai nazaridan hissoblab berganlar. Shuning uchun ham o'tmishda musiqa aniq fanlar, ya'ni riyoziyot tarkibiga kiritilgan. Sharq musiqa madaniyatining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan sozanda, xonanda, bastakor Borbadning nomi ham aynan shu cholg'uning qadimiy ismi bilan bog'liqligi sozning o'sha davrda keng iste'molda bo'lganligini anglatadi. Shuningdek, ud bugungi kunda ham mumtoz musiqamizning eng durdona namunalarini ijro etishda o'ziga xos tebr xususiyatlariga ega bo'lgan cholg'udir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Визго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки. - М.: "Музыка", 1980.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963.
3. Rajabov I. Maqomlar. Nashrga tayyorlovchi O.Ibrohimov. T.: "San'at". 2006.
4. Малкеева А.А. "О музыкальных связях Средней Азии в I-VII вв.н.э. (на примере изображений арфы и лютни)" // Музыкальное, театральное искусство и фольклор. Т.: «Фан», 1992. 30-с.

## ФОРТЕПИАНО ТАЪЛИМИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ

Арзиматова Заррина Бахтияровна  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
Фарғона минтақавий филиали

**Аннотация:** Ушбу мақолада фортепиано таълимнинг мазмуни ва моҳияти ҳақида фикрлар билдирилган. Фортепиано таълимнинг мазмуни ўқувчиларнинг фортепиано чолғусига бўлган қизиқишга, муסיқий қобилиятига, муסיқа асарларининг харақатерини бадий мазмунини англаб олиш масалаларини ривожлантиришга боғлиқдир.

**Калит сўзлар:** фортепиано, таълим, муסיқа асарлари, педагогик фаолият, чолғу асбоблари, бошланғич фортепиано таълими, фортепиано ижрочилиги услубиёти.

## CONTENT AND SIGNIFICANCE OF PIANO EDUCATION

Arzimatova Zarrina Bakhtiyarovna  
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article provides ideas on the content and essence of piano education. The content of piano education depends on the development of students' interest in the piano, their musical ability, the understanding of the artistic content of the character of musical works.

**Keywords:** piano, education, musical works, pedagogical activity, musical instruments, elementary piano education, methods of piano performance.

Республикамиз таълим тизимида сўнги йиллар мобайнида ёш авлодни ақлий, жисмоний ва маънавий камолотга етказишда туб ислохотлар амалга оширилди. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да узлуксиз таълимнинг барча бўғинларида таълим олувчиларнинг ҳуқуқий, иқтисодий билимларини ошириш, тахсил олувчиларнинг таълим-тарбиясини такомиллаштириш, маданиятли ва ўз эътиқодига содик ёшларни тарбиялашга бўлган эътиборни ҳар қачонгидан ҳам кучайтириш зарурлигига алоҳида урғу берилган.

Маҳоратли педагог ўқувчилар руҳиятини, билим ва даражасини ҳисобга олади. Педагогнинг одоби, маданияти юксак бўлсагина, одамларга нисбатан меҳрибон, саховатли бўла олади, уни ҳамма ҳурмат қилади. Педагог умуминсоний кадриятларни ижодий ўрганиб, таълим тарбия жараёнига татбиқ этиши лозим. Шу билан бирга миллий ўзига хослигимизни, асрлар синовидан

ўтган анъаналаримизни, хаамиша иймон-эътикод билан яшаш каби хаётий тамойилларимизни ҳам сақлаб, ҳам юксалтириб бориши ва уларни ўқувчилар қалбига сингдириш зарур. Инсоннинг маънавий камолатга эришувида фан, адабиёт ва бошқа мухим тармоқлар каби санъатнинг хусусан мусиқа санъатининг ўзигагина хос бўлган алоҳида ўрни бор.

Ёш авлодга мусиқа санъатининг тарбиявий аҳамияти фақат мусиқани тинглашни эмас, балки ўқувчиларни шу санъат бўйича мустақил билиш фаолиятини шакллантиришни ҳам тақозо қилади. Умумтаълим мактабларида, мусиқа мактабларида, санъат коллежларида чолғу асбоблари синфларида яқка тартибдаги таълимнинг мақсади ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришга қаратилгандир.

Яқка тартибдаги чолғу асбоблари таълими орасида фортепиано таълими алоҳида ўрин тутди. Деярли барча ўқув муассасаларида мусиқа таълими фортепиано ижрочилиги услубиёти илмий педагогик фан сифатида умумий дидактик тамойилларга асосланади. Шу туфайли фортепиано таълими назарияси ва амалиётини ўзлаштириш хақида илмий-тадқиқотлар олиб бориш фортепиано синфи ўқитувчилари олдида турган долзарб мавзудир.

Бундай долзарб вазифалар тизимида ёш авлодни мустақил ва ижодий фикрлашга ўргатиш масаласи алоҳида аҳамият касб этади. Чунки таълим соҳасидаги ислохотлар фақат малакали кадрлар тайёрлашга хизмат қилиб қолмай, балки фуқаролик жамиятининг илмий салоҳиятини ривожлантиришга ҳам қаратилгандир.

Ўз касбининг устаси бўлган муаллим турли даражадаги билимга, хошиш ва иродага ҳамда тарбияга эга бўлган ўқувчиларни ажойиб санъаткор каби ўзига эргаштира олиши зарур. Бундай касбий педагогик хусусиятга эга бўлган муаллим ўзига қуйидаги мажбуриятларни олиши керак:

Биринчидан, ёш педагог, тарбиячи келажакдаги педагогик фаолияти учун ўзининг имкониятларини баҳолаши, ўзининг кучли ва кучсиз томонларини билиши, касбий педагогик тайёргарлик даврида қандай касбий зарурий сифатларни шакллантириш кераклигини ва яна қандайларини мустақил педагогик жараёнда шакллантириши кераклигини билиши лозим.

Иккинчидан, ёш педагог интеллектуал фаолиятининг умумий томонлари (тафаккур, хотира, қабул қила олиши, кўз олдида келтириши, эътибори)ни хулқ-атвор маданияти ва шу жумладан, педагогик алоқани эгаллаган бўлиши шарт.

Учинчидан, педагог учун мажбурий дастлабки шарт-шароит муваффақиятли фаолияти асоси бўлган ўқувчини ўзининг тенгури деб қараши ва унинг хулқ-атвори ўзаро алоқасидаги қонун-қоидаларни билиши керак. Педагог, тарбиячи ва тарбияланувчини, унинг барча хусусиятларидан катъий назар, билиши ва қабул қилиши шарт.



Тўртинчидан, педагог нафакат ўқувчилар ўқиш фаолиятининг ташкилотчиси ва ўқиш жараёнини ташкил этувчиларнинг ўзаро алоқасини илхомлантирувчи бўлиб хизмат қилиши билан бирга маълум маънода билим, тарбия бериши ва демак, умумий мақсадларга эришишда уларнинг дўсти сифатида қатнашиши зарур. Бу эса ўқувчилар олдида доимо ўзларининг ташкилотчилиқ, коммуникатив хусусиятларини педагогик-психологик билимларни ўзлаштириш жараёнида ривожлантириб боришларини ва улардан педагогик амалиётларида самарали фойдаланишга интилишларини юзага келтиради. Педагоглар учун ҳам Гиппократ қасамини тааллуқли деб қаралса, уни қуйидагича изохлаш мумкин. Ўқувчидаги инсонийлик ва шахсликни хурмат қилиш, ўзингизга қандай муносабатда бўлишларини хоҳласангиз, уларга ҳам шундай муносабатда бўлинг:

1. Доимо ўзингизни ривожланиш ва ўсишга, ўқишга унданг, зеро, кимки ўзи билмаса, бошқаларда ўқишга иштиёқ туғдира олмайди.

2. Ўқувчиларга билимни шундай берингки, токи, улар ўзлаштиришни хоҳласин ва ўзлаштирасин.

3. Ўқитишнинг мақсади фақат ўқувчига маълум билимларни беришдан иборат бўлмай, уларда мустақил ва ўқитувчи ёрдамисиз юқори чўққиларни эгаллаш малакаларини яратишдан иборат.

Хозир дунёнинг барча мамлакатлари асосан узлуксизликни ташкил этувчи янги таълим тизимини ишлаб чиқиш фикридадирлар.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ушбу мақоламиз бошланғич фортепиано таълими мазмуни, мусиқа асарлари устида ишлаш, ўқувчиларнинг эгаллаш лозим бўлган билимлар хақида маълумотлар тўплаш ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришда ижобий натижалар беради. Шу туфайли ижобий натижаларга эришиш йўллари излашга ҳаракат қилдик.

1. Фортепиано таълимнинг мазмуни ўқувчиларининг фортепиано чолғусига бўлган қизиқишга, мусиқий қобилиятига, мусиқа асарларининг характерини бадиий мазмунини англаб олиш масалаларини ривожлантиришга боғлиқдир.

2. Барча чолғу асбоблари қатори фортепиано чолғуси ижрочилиги олдида ҳам замонавий талаблар, дарсларга ўзига хос ижодий ёндашувлар, янги педагогик технология асосида дарсларни лойихалаштириш каби педагогик талаблар амалга оширилади. Шу сабабли бу талабларни амалга оширишда фортепиано синф ўқитувчиси олдида қўйилган вазифалари хақида фикр билдирдик. Ўқувчиларнинг қобилиятларини тоифаларга ажратиб чиққан ҳолда дастур тузилса ўқувчиларнинг ўқув материалларини ўзлаштиришларида яқиндан ёрдам беради.

3. Фортепиано синф ўқитувчиси хар бир ўқувчига якка тартибда иш режа тузиш лозим. Бунинг учун хар бир ўқувчининг мусиқавий қобилиятларини аниқланган холда дастур тузиш мақсадга мувофикдир, шу сабабли фортепиано синфида категорияларга ажратилган тизимни ишлаб чиқилди. Фортепиано синфда бир қанча фаолият турлари бажаришди.

Шу мухим вазифани яъни ўқувчига мусиқа асари устида ишлашдан қўзланган мақсадни билиш зарурлигини уқтиришдир.

4. Мусиқа асари ишлаш вазифасини амалга ошириш учун муайян тизим ва воситани қўллаш керак. Шулардан бири сифатида босқичма-босқич ишлаш хақида фикр билдиришдек хуллас фортепиано таълими ижрочилиги мазмуни саводли, чуқур билимли ўқитувчи шахсига боғлиқдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Д. Жамолова , Н Ўтаева “Фортепиано оламига илк қадамлар” Жахон композиторлари асарларидан намуналар. Болалар мусиқа ва саънат мактаблари учун ўқув-услубий қўлланма. Тошкент 2016

2. Д.Ражабова “ Фортепиано машғулотлари” (фортепиано таълими методикаси) Тошкент “ Ўқитувчи” 1994

3. Рубинштейн С. Л. Принципи и пути развития психологии. М., 1959, 126-бет.

4. Р. Кодиров “ Оммабоп мусиқий глоссарий” маълумотнома “Мусиқа” нашриёти Тошкент 2014

5. Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. М., 1973, 220-бет.

6. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей.

7. Успенский В.А. Статьи, воспоминания, письма. - Т.: издлит. и искусства им. Гафура Гуляма, 1980. - 384 с.

8. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

9. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.

10. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.

11. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.

12. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

13. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.

14. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 12-17.

15. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. *Перекрёсток культуры*, 1(4).

16. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

17. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 25-28.

18. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.

19. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

20. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий муסיқий ижрочилик санъатига бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.

21. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.

22. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

23. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 117-119.

24. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In *Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015* (pp. 318-316).

25. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.

26. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА

ҚЎШГАН ҲИССАСИ (19411945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.

27. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.

28. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.

29. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

30. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 50-54.

31. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

32. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 113-115.

33. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. *Oriental Art and Culture*, (V).

34. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. *Oriental Art and Culture*, (V).

35. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 90-96.

36. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.

37. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.

38. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. *An International Multidisciplinary Research Journal. An International Multidisciplinary Research Journal*.

39. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

40. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.

41. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.

42. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR

QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.

43. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.

44. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

## РОЛЬ ПУБЛИЧНЫХ ВЫСТУПЛЕНИЙ В ИЗУЧЕНИИ УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

А.Абидов  
У.Болтабоева  
ФРФ ГИИКУз

**Аннотация:** В статье рассматривается роль ораторского искусства в изучении узбекской классической литературы, истории речевой культуры и проповеднического искусства.

**Ключевые слова:** ораторское искусство, классическая литература, проповедь, голос, слово, норма, мысль, грубость, грамматика, проповедь, ударение.

## THE ROLE OF PUBLIC SPEECH IN THE STUDY OF UZBEK CLASSICAL LITERATURE

A.Abidov  
U. Boltaboeva  
FRB UzSIAC

**Abstract:** The article discusses the role of oratory in the study of Uzbek classical literature, the history of speech culture and preaching art.

**Keywords:** oratory, classical literature, sermon, voice, word, norm, thought, rudeness, grammar, sermon, stress.

Что такое публичные выступления? «Риторика (греч. *Retorike* - «искусство ораторского искусства») - это наука об искусстве ораторского искусства, которая учит искусству публичного выступления, секретам эффективного воздействия на аудиторию через свою речь, культуре ораторского искусства».

В древности оратора называли проповедником, а его речь называли проповедью. Искусство проповеди - это искусство публичных выступлений, искусство публичных выступлений, искусство публичных выступлений, искусство публичных дебатов, искусство публичных выступлений, искусство публичных выступлений, искусство публичных выступлений.

Великий покровитель узбекского классического литературного языка Алишер Навои не только поднял в свое время искусство речи на высокий уровень, но и серьезно изучил теорию речевой культуры. Он посвятил 24-ю главу своего сочинения «Махбубул-кулуб» проповедованию, а его произведения

«Мухокаматул луғатайн» и «Мажолисун нафоис» непосредственно обращались к теоретическим проблемам лингвистики, чтобы определить место узбекского языка среди других языков. Благодаря работе Навои по изучению узбекской речевой культуры, узбекский литературный язык продемонстрировал в 15 веке, что это язык, способный создавать всемирно известные литературные произведения. Его произведения, особенно газели, внесли неоценимый вклад в развитие практики речевой культуры узбекского литературного языка.

Алишер Навои в своей работе «Мухокаматул луғатайн» сказал, что каждый язык, независимо от его размера, имеет свои преимущества, которых нет ни в одном другом языке, и персидский язык стал известным языком. Несмотря на это, он заявляет, что он не имеет некоторых возможностей тюркского языка, и в качестве доказательства он приводит 99 глаголов, которые использовались в узбекском языке в то время, указывая на то, что их не существует в персидском языке.

Произведения Алишера Навои «Мухокаматул луғатайн», «Махбубул кулуб», «Назмул жавохир» не только прекрасные образцы речи на узбекском языке, но и способствовали его развитию.

(Читаются и анализируются отрывки из произведений Навои выше.)

Знаменитый ученый Хусейн Ваз Кашфи, живший в Герате в 15 веке, также сделал ценные комментарии по поводу речи:

«Общеизвестно, что честь человечества лишена этой чести речью и человеком, не соблюдающим этикета речи. Это слово всегда следует использовать для обозначения «хорошо», «точно и правдиво».

*I. Существует шесть правил этикета для взрослых:*

1. Пусть каждый говорит сообразно своим способностям;
2. Позвольте ему говорить с добротой и мягкостью, но не грубо;
3. Позвольте ему улыбаться и открыто говорить, когда он говорит;
4. Он не должен повышать голос или говорить так, чтобы не беспокоить слушателей;
5. Говорите значимые вещи, которые приносят пользу людям;
6. Если слово не имеет ценности, не произносите его, ибо слово великое подобно семени, и если семя пустое или гнилое, оно не прорастет, где бы вы его ни посеяли;

*II. Этикет восьмилетней молодежи:*

1. Не разговаривайте, пока не спросите;
2. Не повышайте голос во время разговора;
3. Не смотрите налево или направо, когда говорите;
4. Не говорите предвзято и саркастически;
5. Не говори резко и не беги на страницу;

6. Говорите вдумчиво, чтобы не пожалеть;

7. Не позволяйте людям говорить;

8. Не говори слишком много. Потому что слишком много говорить - признак умственной отсталости. Пусть будет немного, но пусть это будет лозунг.

З.М. Бабур занимает особое место в истории узбекской литературной речи. Стихи поэта и «Бобурнома» - прекрасные образцы речи. Неслучайно мировые ученые признают Бобурнома лучшим прозаическим произведением XV века. Бобурнома - прекрасно написанное произведение. Сам Бабур - популярный писатель, и другим советует поступать так же. В частности, достаточно вспомнить письмо Бабура к Хумаюну. (Письмо читается и анализируется.)

Также в творчестве таких мыслителей, как Огахи, Камил Хорезми, Мунис Хорезми, Мащраб, Махмур, Гулхани, Нодира, Увайси, Мукими, Фуркат, Аваз Отар оглу, Фитрат, Бехбуди, Софизода, Хамза, создавшие в последующие столетия Священное Писание. нормы узбекского классического литературного языка практически усовершенствованы, а их произведения внесли неоценимый вклад в развитие речевой культуры.

Исходя из вышесказанного, можно сказать, что восточные мыслители тщательно изучают язык перед говорящим, осваивают его лексическое богатство и грамматику, учатся говорить логически, обращают внимание на внутреннюю (содержание) и внешнюю «форму» речи. задачи по привлечению внимания, составлению красивой и эффективной речи, целенаправленному и правильному использованию языковых ресурсов и глубокому анализу их выполнения.

Итак, поскольку история - это древность культуры речи, ее богатство также неисчерпаемо. Надлежащее использование этих ресурсов создает привлекательную речь. Это отличный пример нашей речи, которая представляет собой набор слов, выбранных из богатства литературного языка. В процессе речи вырабатываются и улучшаются четкие закономерности.

В существующей лингвистической литературе мы встречаем такие понятия и термины, как оратор, ораторское искусство, проповедник, проповедник, проповедническое искусство. В народе встречаются такие выражения как: красноречивый, красноречивый, красноречивый, красноречивый, красноречивый, красноречивый, красноречивый, красноречивый, красноречивый. Все процитированные слова и фразы выражают уровень человеческой речи и уровень совершенства речи, модели речи, которые отличаются от общей речи. Говорит каждый, если он не родился с дефектом речи. Но не все люди одинаковы. Беглость речи - это особая способность. Риторика в классическом понимании - это необыкновенное искусство речи. Истинные ораторы приобретают навыки ораторского искусства благодаря



естественным способностям, а также постоянной работе над своим языком и речью.

В литературе прошлого и прошлого ораторское искусство, представляющее собой особый речевой навык, отличается от повседневной речи и речевой деятельности людей. Настоящее искусство, говоря об особенных способностях, не для всех.

Не всякая речь является примером «говорения» (как искусства), и ее владелец на самом деле не «оратор» (в смысле художника). Ораторское искусство издавна трактовалось как особое умение, искусство, особые, уникальные способности человека. В связи с этим ораторское искусство (не отрицая связи между ними) необходимо отличать от речевой культуры. Любая форма устной речи не является речью в смысле разговорных навыков. На наш взгляд, работу над культурой речи и даже над лекторами, пропагандистами (среди которых настоящие ораторы редки) не стоит называть «искусством публичных выступлений».

В узбекском языкознании и истории искусства ораторское искусство и его прошлое развиты недостаточно. В результате многие сходства и различия между прошлой речью и областью речевой культуры в настоящем смысле для нас неясны. Положительные стороны прошлой речи должны широко использоваться в области культуры речи и ее цели при общении с общественностью. Многие из руководящих принципов, правил, личных способностей и действий известных ораторов могут быть хорошими образцовыми инструментами пропаганды в воспитании культуры речи. Этот вопрос хорошо освещен в книге С. Иномходжаева «Речь прошлого Востока».

Как известно, в искусстве публичных выступлений цель - привлечь публику, публику. Речь спикера должна быть красивой и увлекательной. Для достижения красоты большое внимание уделяется содержанию речи, силе логики, молчанию предложений. В этом смысле эти строки вполне уместны: «Речь - это прежде всего красивая речь. Но мало того, что речь красивая, можно говорить всякую чушь. Это не риторика, это риторика ».

В своей книге «Культура языка» Г.О.Винокур акцентирует внимание на аспектах речевой культуры, связанных с ораторским искусством: «Я понимаю речь, которая выполняет особую функцию в пробуждении системы восприятия».

Сегодня понятие ораторского искусства и термин оратор понимаются и используются в более широком, более общем смысле, а не в смысле индивидуальных навыков и искусства. Каждый, кто говорит сейчас, называется оратором. В результате термин «говорящий» отошел от своего первоначального значения и стал синонимом каждого говорящего, будь то формальный или неформальный.

Такое расширение и популяризация понятий ораторского искусства и риторики привело к более простому и широкому пониманию и интерпретации «риторики» и «риторики» в научных работах в области риторики. Соответственно, искусство публичных выступлений больше не является просто навыком говорения (уникальной способностью, искусством), но может быть истолковано как нечто, что каждый может и должен освоить.

Из вышесказанного ясно, что особый интерес представляет взаимосвязь между культурой речи и искусством публичных выступлений.

У культуры речи и публичных выступлений много общего. Обе области связаны с языком и речью, человеческой речью. Оба они стремятся сделать речевую деятельность людей полезной, эффективной, острой, служат развитию речевой культуры человека, его речевой жизни. И культура речи, и речь питаются законами речевого этикета, речевой красоты и речевой логики. Однако, на наш взгляд, публичные выступления следует отличать от публичных выступлений (public Speaking).

Искусство публичных выступлений, присущее некоторым людям, представляет собой отдельное искусство, которое достигается за счет личных способностей и активности в области устной речи. Вы можете увидеть сочетание навыков и умений в упорной работе. Это связано с тем, что в прошлой культурной жизни любого народа было немного людей, выросших в этом народе и заслуживших престижное звание оратора.

Концепция речевой культуры - это не совсем искусство публичных выступлений, но это не очень простое явление с точки зрения навыков публичных выступлений.

Из вышесказанного ясно, что есть некоторые сходства и общие черты между концепциями речевой культуры и публичных выступлений. Это отражается в общности инструментов для обеих отраслей. Но, тем не менее, понятие ораторского искусства не совсем то же самое, что понятие культуры речи. Между ними есть несколько важных различий. Эти:

1. Культура речи - это действительно явление, связанное с литературным языком. Его происхождение, языковая основа, требования и критерии связаны с литературным языком и его нормами. Это не отличительные черты публичных выступлений. Спикеры включают тех, кто не полностью соответствует требованиям литературного языка, и тех, кто демонстрирует истинное ораторское искусство на определенном диалекте или диалекте. Риторика определяется не характером языкового материала, а эффективностью речи, искусством речи.

2. Ораторское искусство - устная форма речи. Публичные выступления - это искусство говорить. Речевая культура - это понятие, применимое как к устной, так и к письменной форме речи.

3. Под культурой речи понимается общая говорящая деятельность членов сообщества. Цель и мечта области культуры речи - культурное развитие речи каждого. С другой стороны, классическая риторика представляет собой искусство речи индивидов. Риторика - это прежде всего передача идей и целей людям посредством речи, мобилизация их для достижения определенной цели. То есть в искусстве публичных выступлений главное - привлечь аудиторию.

4. Выступление художника в основном рассчитано на широкую аудиторию. Спикера слушают более одного человека. Культура речи включает в себя, помимо прочего, обычные разговоры между людьми за пределами аудитории.

5. Свободно владеть возможностями и богатством родного языка может любой желающий, отвечающий требованиям культуры речи. Но не каждый может быть оратором в смысле художника. Но каждый говорящий, использующий литературный язык, должен знать культуру речи.

6. Культура речи - это область, в которой действует большинство, широкая публика. В этом смысле культура речи является требованием для широкой публики, но публичные выступления - это прежде всего способность, личная способность. Речь в смысле индивидуального искусства учитывает искусство речи, красоту речи. И культура речи не означает, что все художники. Он в основном направлен на развитие способности говорить и писать правильно в культурном отношении на своем родном или другом языке.

7. Речевая культура - это не только понятие и область, связанная с речевой деятельностью, она также связана с языковой культурой, то есть изучением литературного языка и его норм, а также обработкой этих норм. Искусство публичных выступлений не предполагает такой научной и нормативной деятельности.

8. Ораторское искусство больше фокусируется на логической основе содержания речи, структуре содержания, а область речевой культуры больше сосредотачивается на языковой структуре речи - лингвистической структуре.

9. Спикера в первую очередь интересует речь конкретного человека - спикера или группы - спикеров. Он не учитывает речь аудитории в самом широком смысле этого слова. Под культурой речи понимается речевая деятельность людей в целом, культура речи. Следовательно, с точки зрения цели речевой культуры и с точки зрения речевой деятельности широкое поле речи является узким полем.

10. Искусство публичных выступлений не предусматривает заранее существовавшей схемы и плана для говорящего, и этот тип речи не всегда

является заранее подготовленной речью, а область культуры речи основана на богатстве и средствах носителя языка. язык, то есть литературный язык, дает возможность использовать его надлежащим образом в соответствии с требованиями цели и требованиями стиля. Это умение необходимо любому художнику-оратору.

11. Наука публичных выступлений и публичных выступлений имеет долгую историю, а культура речи все еще молода и нова как научная проблема и научная область.

Кайковус считает, что говорящий, должно быть, изучил значение слова во всех отношениях: «О дитя, знай лицо и обратную сторону слова, следуй за ними, говори многозначительно, когда говоришь, это признак красноречия. Если вы не знаете, что означает это слово, когда говорите, вы как птица, это называется попугай! Мы называем его оратором, чтобы каждое его слово было понятно людям, и каждое слово людей было известно ему. Не говорите без раздумий, обдумывайте каждое слово, пока не пожалеете о том, что сказали. Даже если вы хорошо знаете это слово и науку, не интерпретируйте ни одно слово неверно. Говори одно и то же слово ».

Итак, исходя из вышесказанного, ораторское искусство как вид искусства, как и другие виды искусства, выражает предметы и события в реальности посредством слов и создает их художественный образ. Ораторское искусство также зависит от изучения языка, что требует ясности и последовательности в выражении идей.

### **Использованная литература**

1. Махмудов Н. Адреса просвещения. Ташкент, 1999.
2. Кунгуров Р., Бегматов Э., Тоджиев Ю.О. Основы речевой культуры и методики. Ташкент, 1992.
3. Кудратов Т. Основы речевой культуры. Ташкент, 1993.
4. Болтабоева У. "Сценическая речь". Учебное пособие. Ташкент, «Инновация-Зиё» -2021.
5. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
6. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
7. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
8. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o 'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.

9. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 71-77.

10. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 50-52.

11. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

12. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 85-92.

13. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

14. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. *Oriental Art and Culture*, (6).

15. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

16. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2407-2410.

17. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.

18. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.

19. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

20. Boltaboyeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.

21. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.

22. Boltaboyeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.

23. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.

24. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).

25. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.

26. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

27. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.

28. Haydarov, A. (2019). АКTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.

29. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

30. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

31. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

32. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.

33. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

34. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

35. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.

36. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.

37. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.

38. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.

39. Umarova, X. (2021). АКTYOP ИЮДИДА СО'ЗЛАШУВ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ О'РНИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

40. Умарова, Х., & Қурбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.

41. Йўлдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
42. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 118-124.
43. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
44. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
45. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## УСТОЗЛАР МАКТАБИ. ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА УСТОЗНИНГ МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИ

Б.Кенжаев

Юнус Ражабий номидаги ЎзММСИ

**Аннотация:** Мақолада буюк аждодларимизнинг таълим-тарбия тўғрисидаги ёзма манбаларидаги устоз ва шогирдлик талаблари, ибратли қоидаларини чуқур ўрганиш, тадқиқ этиш ва улардаги илғор тажрибаларни ҳозирги замон педагогик жараёнларга тадбиқ этиш масалалари хусусида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** ижодий, маҳорат, устоз одоби, панд-насихат, маънавий, касбий кўникма, касб-хунар.

## TEACHERS SCHOOL. SPIRITUAL IMAGE OF A TEACHER IN YOUTH EDUCATION

B.Kenjaev

Yunus Rajabi UzINMA

**Abstract:** The article discusses the requirements of teachers and students in the written sources of education of our great ancestors, in-depth study of exemplary rules, research and application of their best practices in modern pedagogical processes.

**Keywords:** creativity, skill, teacher etiquette, discipline, spirituality, professionalism, profession.

Ўз касбининг моҳир усталари бўлган ҳофиз, созанда ва бастакорлар ижоди туфайли мақом дилдаги ният, амалга ошиши мумкин бўлган мавҳум мусиқий ғоядан куй ёки ашулаларга айланади. Барҳаёт мусиқий анъаналар ҳар қандай фаолият каби учта асосий тамойилга таянади: *тингловчи, ижрочи* ва *яратувчи*. Ана шу учта тамойил негизида мусиқа санъатининг муштарак жараёни юзага келади.

Озаки анъаналар шароитида ижро билан ижод фаолиятининг чегараларини белгилаш қийин. Чунки ҳақиқий ижронинг ўзиёқ, ижод демакдир. Чолғучи ёки ҳофиз ўз ҳунарининг сиру асрорларини ўзлаштиришда маълум бир даражага эришгандагина *Устоз* деган ному нишонга мушарраф бўлади. Айнан шу чинакам устоз созандалар мақомни юксак санъат даражасига кутаришга қодирлар. Уларнинг ижодий шухрати порлоқ юлдузлар каби мусиқа



маданиятини нурафшон этади. Ана шундай ёрқин юлдузларнинг шуълалари классик мусиқа меросимиз турли услубларининг чексиз қирраларини ёритиб келмоқда.

Шарқ мафқурасида қадим замонларданоқ мусиқанинг ижро ва ижод жиҳатлари бир бутун узвий ҳолда кўрилган. Созанда маҳорат йўлида маълум ютуқларни кўлга киритганда эркинлик кашф этиб, ўз ижодий қиёфасини белгилай бошлайди. Ана шундай юксак чўққига етгандагина, ижод қирраларининг қай бири *ўзиники* ва қай бири *ўзганики* эканини ажратиш жуда қийин. Шунинг учун устоз созанданинг ўзидан кўшгани асрлар оша келаётган барқарор анъаналарни инкор этмайди. Аксинча, унинг ижодий ҳиссаси табиий равишда умумий меросга кўшилиб кетади.

Буюк файласуф ва мусиқийшунос олим Абу Носир Форобий мусиқий иқтидорни уч босқичга ажратади: *Фариза (табиий куч, инстинкт)*, *ҳис* ва *ақл*. *Рариза* - инсондаги созга бўлган мойиллик, унинг куй эшитиш, чалиш ёки айтиш қобилияти. *Ҳис этиш (интуиция)* - куйни руҳий ҳолат сифатида ўзлаштириш. Масалан, созанда куй чалаётганда қайси парда, қайси оҳанг эканлигини ўйлаб ўтирмайди. Куй созанда қалбида пишиб етилади ва ундан кейин маълум товушлар сифатида ижро этилади. *Ақл (интеллект)* даражаси шундан иборатки, унга эришган созанда ким учун қандай куй чалаётганлигини, унинг тузилишини, ғоясини, шакл ва мазмунини идроклашга қодир бўлади. Ана шу юксак камолот босқичида созанда онгли равишда тушуниб етиб куй яратишга эришади. Шунинг учун ҳам Форобий куйни идроклаш ва яратиш иқтидорини мусиқа илмининг энг мукамал босқичи деб қараган.

Муомалада эса созандалик ҳунарининг ана шундай юқори даражаси “устоз” деган фахрий даража билан белгиланади. Мазкур уйғун тушунчанинг шартли равишда икки: *маънавий* ҳамда *амалий* жиҳатларини кузатиш мумкин. Маънавий тарафдан устоз ҳар бир ҳунарнинг эътиқод рамзи, уни муқаддас тутиб инсон касб - коридан барака топиб, юқори мартабага эришмоғи. Халқимизда “Устоз отангдек улуғ” деган нақл бор. Амалий нуқтаи назардан устоз - муайян ихтисос соҳасининг сиру асрорларини пухта эгаллаган ва ҳунар ўзлаштиришни олий даражага етказган комил инсон. Масалан, мусиқада устоз - куй чалиб, ўзидан бир нарсалар кўшиб, маҳоратини нафис санъат мақомига кўтарган созанда. Устоз томонидан у муқададас қобилият сифатида авайлаб-асралади. Ўзлаштирилган санъат сирларини фақат азиз фарзандлар ва энг садоқатли шогирдлар билан баҳам кўриш мумкин. Касб-ҳунарнинг сиру асрорларини бегона қилиш ёки номақбул шогирдларга раво куриш гуноҳ ҳисобланган. Шунинг учун ҳам тарихий тажрибадан маълум бўладики, устоз-шогирд силсиласида оилавий анъаналар ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Одатда, созандалар оиласидан етишиб чиққан, ташқаридан келган шогирдлар

ишончни оқлаб, унга садоқат билдиргандагина устозлар уларга меҳр қўя бошлайди. Ана шу тарифа мақом ижрочиларининг асрлар давомида шаклланган *мактаб* ва услублари заминида янги оқимлар пайдо бўлади. Ўз навбатида бу янгиликлар ҳам силсилага айланиб мақом анъаналарида ворисийлик ришталари узлуксиз давом этиб бораверади.

Ҳозирги кунда олдимизда ниҳоятда муҳим, келажагимизни ҳал қиладиган чуқур билимга эга, юксак тарбия кўрган, баркамол авлодни яъни, комил инсонни вояга етказиш вазифаси турибди. Бу вазифани амалга оширишда устозларнинг ўрни каттадир. Бугунги кунда аждодларимизнинг таълим-тарбия борасидаги ёзма манбаларидаги устоз ва шогирлик талаблари, ибратли қоидаларини чуқур ўрганиш, тадқиқ этиш ва улардаги илғор тажрибаларни ҳозирги замон педагогик жараёнларга тадбиқ этган ҳолда таълим-тарбия ишларида фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Алломаларимиз устоз одобининг саккиз шартини санаб ўтганлар. *Биринчидан, ўқувчиларга нисбатан шафқатли бўлиши ва уларга ўз болалари каби муомалада бўлиши; иккинчидан, устоз илм ўргатиши ва тарбия бериши учун ҳақ талаб этмаслик; учинчидан, ўқувчига қилиниши лозим бўлган насиҳатлардан ҳеч бирини қолдирмаслиги; тўртинчидан, таълим санъатининг нозик жиҳатларидан бири, муаллим ўқувчининг ёмон ахлоқини ошкора эмас, балки имкони борича ўзига кўрсатиши йўли билан тузатиши; бешинчидан, илмлардан баъзиларини ўрганаётган ўқувчига бошқа илмларни ёмон кўрсатмаслиги; олтинчидан, ўқувчига илмни фаҳм-фаросати ва қобилиятининг кўтаришига қараб ўргатиши; еттинчидан, зеҳни паст ўқувчига ўзига хос бўлган илмларни ўргатиши ва саккизинчидан, устоз ўз илмига амал қилиши лозимлигига урғу берилган.*

Бугунги кунда устоз қиёфасида маънавий етук устозни кўриш лозим деб ҳисоблаймиз. Маънавий етук устоз ким бўлиши керак? - деган саволга жавоб изласак, бизнингча, у - кўп мутоалаа қилган, ўрганган, билимли, малакали, ҳар қандай ижодкордан ҳам ижодкорроқ, ўз-ўзини маънан-руҳан тарбияланган, доно маслаҳатчи, ҳамдард, руҳий мададкор бўлиб пешвоз чикувчи ҳамда ўз билими ва барча ахлоқий фазилатларини шогирдининг маънавий камолоти учун сарфлаб, жон куйдирадиган, жисмонан етук ва иймонли шахсдир. Шу билан бирга, кўлидан келгунча яхши амаллар қиладиган, нолайиқ иш ва нотўғри сўздан тийилган, ёмонликдан узоқ юрадиган, ундан хазар қиладиган, шогирдларига ҳам ўзидаги фазилатларни юктирадиган маънавий инсондир.

Маънавий етук устоз хушхулқлиги, хушфеъллиги, ўз-ўзини маънан, руҳан, қолаверса, жисмонан тарбияланганлиги билан ажралиб туради. Маънавий етук устознинг энг муҳим шартларидан бири, таъсирчан ва залворли нутқ соҳиби бўлиб, шогирд туйғуларини, ўй-хаёлларини жиловлай олиши; иккинчидан,

ўқувчининг маънавий оламини бойитишга, хулқи ва одобини такомиллаштиришга хисса қўшиш; учинчидан, ўз илми билан ҳар қандай шогирдда қизиқиш уйғота олишдир.

Баъзи устозларимиз "Қанча тарбия-ю, танбеҳ берганимиз билан айрим ёшларни одам қилиб бўлмайди" дейишади. Албатта, бу нотўғри фикрдир. Чунки, тарбия табиатга таъсир кўрсатмаслиги мумкиндир, лекин ахлоқни ўзгартиради, яъни яхши фазилатларни камол топтиради. Бу албатта маънавий етук устознинг қўлида. Борди-ю, унинг бўлгани шу деб ўз ҳолига ташлаб қўйилса, ёшларимиз турли оқимлар ва йўлларга кириб қолиши ҳеч гап эмас. Бундай ҳолларда маънавий етук устоз ёшларга кучли таълим ва тарбия бериш билан ёш авлодга оқу-қорани ва яхши-ёмонни ўргатиш, миллий мафкура асосида эътиқодни шакллантириш, ҳақ-ҳуқуқлари, бурч ва масъулиятини чуқур англатиш зарур бўлади.

Маънавий етук устознинг фаолиятини қуйидаги мезонларга асослаган ҳолда баҳолаш мумкин:

- ўқувчиларнинг соғлом маънавий муҳити, касбий камолоти бўйича қўлга киритган ютуқлари;
- ўқувчиларнинг маиший ҳаётдан хабардорлиги ва уларнинг мафкуравий тайёргарлиги учун масъуллиги;
- ўқувчиларнинг касбий кўникмаси шаклланиши учун масъуллиги;
- ўқувчиларнинг ўқув ва меҳнат интизоми, таълим муассасаси ички тартиб-қоидаларига риоя қилиши;
- ўқувчиларнинг фанларни ўзлаштириш даражаси;
- ўқувчиларнинг илмий-ижодий ишларида фаол қатнашиши, турли кўрик танловлардаги иштироки ва қўлга киритган ютуқлари ва шу кабилар.

Демак, маънавий етук устозларнинг шогирдлари мустақил фикрлайдиган ва ўз-ўзини англаган, ўз ҳақ-ҳуқуқини танийдиган, ўз куч ва имкониятларига таянадиган, атрофида содир бўладиган воқеаларга муносабат билдира оладиган, ўз хатоларидан хулоса чиқара оладиган, шахсий манфаатидан мамлакат ва халқ манфаатларини устун қўядиган, Ватанини жонидан-да ортиқ кўрадиган шахслар бўлиб улғаяди. Бунга фақат ва яна фақат тарбия олиб боради.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
2. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.

3. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 9-14.
4. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.
5. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.
6. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.
7. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 12-17.
8. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. *Перекрёсток культуры*, 1(4).
9. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.
10. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 25-28.
11. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.
12. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.
13. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий муסיқий ижрочилик санъатида бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.
14. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.
15. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).
16. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 117-119.

17. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015 (pp. 318-316).

18. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.

19. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.

20. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.

21. Қурбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.

22. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

23. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 50-54.

24. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

25. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 113-115.

26. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. *Oriental Art and Culture*, (V).

27. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. *Oriental Art and Culture*, (V).

28. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 90-96.

29. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.

30. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.

31. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*.

32. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

33. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. Oriental Art and Culture, 2(4), 50-56.

34. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. International Journal of Culture and Modernity, 11, 412-418.

35. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. Oriental Art and Culture, 2(4), 149-155.

36. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. International Journal of Culture and Modernity, 11, 389-393.

37. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. Oriental Art and Culture, 2(4), 27-33.

## БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Б.Маматқулов  
ЎзДСМИ ФМФ

**Аннотация:** Ушбу мақолада болалар тарбиясига эътибор қаратилган бўлиб, уларнинг онгида меҳр-муҳаббат, яхшилик ва ёмонлик ҳақидаги тушунчаларини пайдо қилишда кўғирчоқ театри муҳим аҳамият касб этади. Чунки, болаликда олинган ҳар қандай билим ва кўз билан кўрилган таассуротлар бир умрга бола онгида сақланиб қолади.

**Калит сўзи:** болалар, билим, кўғирчоқ, театр, спектакл, томоша, сахна, маданият, актёр, қаҳрамон, эртак, сеҳрли санъат.

## THE IMPORTANCE OF PUPPET THEATER IN THE EDUCATION OF CHILDREN

B.Mamatqulov  
FRB UzSIAC

**Abstract:** This article focuses on the upbringing of children, and puppet theater plays an important role in instilling in their minds the concepts of love, good and evil. Because any knowledge and visual impressions received in childhood will remain in the child's mind for a lifetime.

**Keyword:** children, knowledge, puppet, theater, spectacle, watch, scene, culture, actor, hero, fairy tale, magic, art

Дунёдаги жамики яшаб турган инсонларнинг тараққиёти, тақдири ва келажаги албатта болажонларимиз тарбияси билан боғлиқдир.

Ёшларни эзгу ғоялар асосида тарбиялашда, уларнинг маданияти, маънавияти ва дунёқарашини кенгайтириш ҳамда беғубор қалбларини мунаввар туйғулари билан ошно қилиш келажакда етук, баркамол, ватанга муҳаббат, ота-онага хурмат, фарзандлик бурчини юракдан адо этиш, эл манфаати йўлида фидойилик ва инсонийлик фазилатлари руҳида камол топтириш, хуллас бир сўз билан айтганда ватанпарварлик руҳида тарбияланиши учун санъатнинг таъсирчан воситаларидан бири бу, театрдир. “Театр санъатининг қудрати шундаки, у драматург, актёр, режиссёр, рассом, созанда, раққос ва бошқа кўплаб сахна арбобларининг ижодий меҳнатини бир

бутун қилиб бирлаштирувчи коллектив ижодкордир.”<sup>1</sup>, “Театр воқелнкни санъатнинг турлари ёрдамида акс эттириб, уни ҳар томонлама, ҳаракат ва ривожланишда жозибали қилиб кўрсатар экан, бир вақтнинг ўзида минг-минглаб томошабинларнинг руҳий оламига чуқур кириб, унинг дил торларинн черта олади”, - деган фикрларни ёзган эди В. Г. Белинский.<sup>2</sup>

“Ёш томошабиннинг санъатга ошнолиги илк бор кўғирчоқ театридан бошланади. Шунинг учун у бу даргохни тез-тез қумсайди, ҳал эта олмаган жумбоқ-ларга шу даргохдан жавоб топади. Шу сабабдан кўғирчоқ театри спектакллари ёш томошабинларга тушунарли, жанр жиҳатидан раяг-баранг, замон талабига жавоб бера оладиган мукамал мазмунга эга, ғоявий жиҳатидан етук асарлари бўлиши шарт”<sup>3</sup>. Жажжи болажонларимиз учун театрлар ичида кўғирчоқ театрининг ўрни ва аҳамияти жуда муҳимдир. Кўғирчоқ театри томошалари болаларга бир олам завқ бағишлайди. Уларнинг онгида меҳр-муҳаббат, яхшилик ва ёмонлик ҳақидаги тушунчаларни пайдо қилади.

Кўғирчоқ театрининг яна бир муҳим жиҳати шундаки, ёшларни сахна санъати, сахна маданиятига ошино қилишдир. Улар болалиқдан аста-секин балоғат ёшига етгани сайин мавзулар ўзгариб боради ва ёшлар театри, мусиқали драма театри шу каби театрларда спектакллар томоша қилишга ўтади. Лекин шу давргача биринчи навбатда дунёқарашини шакллантирадиган театр бу - кўғирчоқ театри ҳисобланади. Чунки, болалиқда олинган ҳар қандай билим ва кўз билан кўрилган таассуротлар бир умрга бола онгида сақланиб қолади.

Бизга маълумки кўғирчоқ театри ўзининг қадимий ва бой тарихига эга. Кўғирчоқ театрининг ўзига хос - сеҳрли олами, дунёси мавжуд. Демак сеҳрли оламга саёҳат қилар экансиз албатта бош сеҳргарларга дуч келасиз. Одатда бу сеҳргарлар - актёрлар ҳисобланади. Улар ёрдамида биз эртаклар оламига саёҳат қиламиз. Эртак қаҳрамонларининг яхши-ёмон томонларини, саргузаштларини, хуллас, бошидан кечирганларини актёрлар ижроси орқали кўғирчоқ театри сахнасида томоша қиламиз. Кўғирчоқ театри актёрининг энг катта ёрдамчиси кўғирчоқлардир. У спектакл мавзу ва ғоясига мос равишда кўғирчоқ рассоми ва кўғирчоқ устаси томонидан тайёрланади.

Актёрлар жонсиз бўлган оддийгина кўғирчоқларнинг гапириши, инсон сингари хурсанд ёки хафа бўлиши, ухлаши, оғиз ва кўзларини ҳаракатлантириб, мохирона бошқариб қаҳрамонларга овоз беришади. Кўғирчоқ театрининг сеҳрли оламида қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатларини жон-у дили билан томоша қилаётган, ундан руҳан озуқа олаётган мурғак қалбларни кўрган кишида завқ, шавқ уйғонади.

<sup>1</sup> К.С.Станиславский Собр. соч., т. 6 М., 1959 стр 24

<sup>2</sup> В.Г.Беленинский Собр. соч., т. I.M., 1948, стр. 185

<sup>3</sup> М.Х.Ашурова Кўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби.Т.: 2007 Дарслик 10 бет



Мустақилликка эришган илк кунларимиздан бошлаб мамлакатимизда ёшларимизни жисмонан бақувват, соғлом, маънавиятли бўлиши учун ёшларга оид давлат сиёсати олиб борилди. Шу ўринда алоҳида таъкидлаб ўтиш жойизки, ҳозирги кунда Президент Ш.М.Мирзиёев томонидан ҳам соғлом авлодни тарбиялашга, маънавий бой, ахлоқан етук, интеллектуал ривожланган, юқори билимли шахсни шакллантириш, ёшларни ҳар томонлама комил инсон этиб тарбиялаш борасида амалга оширилаётган маънавий-маърифий ислохотларда театр санъатини изчил равнақ топтириш, ижодкорлар меҳнатини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш, юртдошларимизни эзгуликка чорлайдиган бадий асарлар яратиш, айниқса профессионал кўғирчоқ театрини ривожлантириш масаласи устувор мақсад қилиб олинган. Бунинг исботини 2017-2021-йилларда мамлакатни ривожлантириш дастури бўлган “Харакатлар стратегияси” ва “Беш муҳим ташаббус”да кўришимиз мумкин.

Бугунги кунга қадар республикаимизда ўнта профессиональ давлат кўғирчоқ театри фаолият юритиб келмоқда. Бу республика аҳолисининг катта қисмини ёшлар категорияси ташкил этадиган жамият учун жуда кам кўрсаткич эканлиги ойдек равшан албатта. Бироқ, масаланинг бошқа томони мавжуд: фаолият олиб бораётган мазкур театрлар ўз зиммасига юклатилган муҳим вазифаларни бажара олмоқдами, кўғирчоқ театрларининг бугунги кун болалар маданий ҳаётида тутган ўрни қандай даражада, Тошкент шаҳрида фаолият олиб бораётган Ўзбек миллий кўғирчоқ театри пойтахт аҳолиси маънавий эҳтиёжларини қондира олаётгани ёки ушбу театр қанча томошабинларни ўз бағрига сиғдира олади-ю, бир йил мобайнида қанча болаларга хизмат қилиши мумкин, каби саволлар кўндаланг бўлиб қолмоқда.

Ўзбекистон ахборот агентлигининг маълумотига кўра Тошкент шаҳар доимий аҳолиси сони 2021 йил декабр ҳолатига 2,71 млн кишини ташкил этмоқда. Келтирилган рақамлардан пойтахт кўғирчоқ театрининг аҳолини қамраб олиши даражасини тахмин қилиш қийин эмас. Вилоят кўғирчоқ театрлари хусусида ҳам шунга ўхшаш рақамлар юзага чиқиши аниқ. Ачинарлиси ушбу кўрсаткичлар қайсидир вилоят ёшлари мазкур санъат туридан бутунлай бебаҳра улғайиб келаётганлигидан дарак беради.

Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш, янги Ўзбекистоннинг янги тарихини яратиш, моддий ва номоддий маданий мерос дурдоналарини сақлаш ва тарғиб этиш, халқ оғзаки ижодиёти ва хаваскорлик санъатини янада оммалаштириш, юртимизнинг жаҳон маданий маконига фаол интеграциялашувини таъминлаш, маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантиришга қаратилган тизимли чора-тадбирларни амалга

ошириш<sup>4</sup> юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6000-сон Фармони имзоланди ҳамда шу фармон асосида Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 30 ноябрь куни 754 сонли қарори тасдиқланди. Қарорда Сирдарё, Наманган, Навоий ва Тошкент вилоятларида давлат кўғирчоқ театрини ташкил этиш, Республика кўғирчоқ театрига Ўзбек миллий кўғирчоқ театри мақомини бериш, яна кўғирчоқ театри тарихида бўлмаган ишлардан бири профессионал кўғирчоқ театрлари фаолиятида муҳим касб эгаси яъни “Кўғирчоқ яшаш устаси” бугунги кунга қадар ҳеч қаерда ўқимаган, лекин театрда қўйилган спектаклларнинг кўғирчоқларини ўзлари билган усулда ясаб келган. Эндиликда фармон ва қарорда 2021-2022 ўқув йилида Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтида “Кўғирчоқ яшаш технологияси” мутахассислиги бўйича бакалаврият таълим йўналишини очиш кўзда тутилган.

Кўғирчоқ театри санъати халқимизнинг ҳамда бутун жаҳондаги халқларнинг энг бой қадимий санъат турларидан бири ҳисобланади худди балет театри, мусикий ва драматик театрлари каби ўз йўналишига эга бўлган мустақил театрлардир. Кўғирчоқ театри бошқа театрлардан яққол ажралиб туради. Чунки, бошқа театрларда актёрлар сахнада томошабинлар олдида жонли планда намоён бўлса, кўғирчоқ театрида эса аксинча кўғирчоқ актёрлари ширма ортида бўлишади. Демак бундан кўриниб турибдики Ҳозирда Республикамиздаги давлат кўғирчоқ театрларида қўлқопли, симли кўғирчоқ турларидан кенг фойдаланилиб келинмоқда. Бироқ, бугунги замонавий жараёнлар жажжигина болаларни ҳам ҳар тарафлама “пишитиб” бормоқда. Мактабгача таълим ёшли болаларнинг сўнги русумдаги компьютер технологиялари ва телефон аппаратларидан фойдаланиб, мультфильмлар томоша қилар экан, бу жараёнларда уларни спектакль сахнасидаги томошаларга “ишонтириш”, мазкур томошалар орқали улар руҳиятини тарбиялаш ўз долзарблигини янада ошириб бораверади. Бу жараёнларда сахнада медиа воситаларидан кенг фойдаланиш ҳамда кўғирчоқ яшаш технологиялари ва бошқариш механикаларини дунёнинг ривожланган давлатларидан ўрганиб, қийосий таҳлил қилган ҳолда, янгича усулларни, инновацияларни, жалб этиб Республика кўғирчоқ театрига тадбиқ этиш муҳим аҳамиятга эга, назаримда.

Кўғирчоқ театри ҳақида биз кўп гапирганда ҳали кўғирчоқ театри тарихи, назарияси ҳақида эмас балки аслида кўғирчоқлар нима эканлигини, улар қандай ясалишини бу турли халқлар, турли миллатлар менталитетига кўра қандай маъно ва мазмун касб этиши ҳақида кўпчилик тасаввурга эга эмас. Европа

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 26 майдаги ПФ-6000-сонли Фармони

халқлари ёки Америка халқлари қўғирчоқлари билан Ўзбекистонни ёки шарқ халқлари қўғирчоқларини бир-бирига таққослаб ҳам бўлмайди ва буларда айнан қўғирчоқ ясашидаги уни юзида, кўзида ёки бўлмаса ташқи кўринишидаги маъно-мазмунлар ҳамма халқларда ҳар-хил кетади. Бунга сабаб ўша халқ яшаётган табиий шароит, муҳит билан боғлиқ бўлса ўша халқ менталитети, дунёқараши, яшаш тарзи каби бир қанча параметрлардан келиб чиқади. Энди бу ҳақида кўп гапириш мумкин мисол тариқасида бугунги кунда Америка Қўшма Штатларининг “Mattel” компанияси томонидан ишлаб чиқарилган “Барби” қўғирчоғи дунёда жуда машҳур бўлиб кетган. Қўғирчоқлар нафақат болалар учун балки катталар учун ҳам жуда кучли салбий оқибатларга олиб келади ҳатто қомати чиройли ёшгина қўғирчоқ кўринишига эга бўлган ўйинчоқлар тарқалиши, ота-оналар уни фарзандига сотиб олиб бериш билан ўзлари ҳам унга хавас қилади.

Арзимасдек туюлган бу каби ҳолатлар фарзанднинг мурғак тасаввурига сингади. Унинг кийиниши, юриш-туришига, тарбиясига аста-секин таъсир кўрсатиб, ҳаётий жараёнларида акс эта бошлайди. “Мард ва жасур миллий қаҳрамонларимиз, болаларни яхшиликка, эзгуликка, теран фикрлашга ундайдиган қанчадан-қанча эртак ва афсоналаримиз бўла туриб, фарзандларимиз бундай қўғирчоқларга берилиб кетаётганликларига эътиборсиз қараб бўлмайди”<sup>5</sup>. Шунинг учун бола тарбияси жуда жиддий жараён ҳисобланади.

Содда дил эгалари бўлмиш жажжи болажонларимиз ишонувчан бўлади.

“Барби” сингари қўғирчоқларни болани овунтириш учун олиб бермаслик, балки маънавий ва маданий озуқа берувчи қўғирчоқ театри томошаларига кичкинтойларни биз ота-оналар томошабин сифатида олиб кирсак, фарзандларимиз келажакда албатта, жисмоний ва маънавий камолотига, тафаккурининг шаклланишига эзгу амаллар қилишга кўникма ҳосил бўлишига ҳизмат қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чоратadbирлари тўғрисида”ги 2020 йил 26 майдаги ПФ-6000-сонли Фармони
2. М.Х.Ашурова Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби.Т.: 2007
3. М.Қодиров Саҳнамиз Лочинлари Тошкент 1986
4. К.С.Станиславский Собр. соч., т. 6 М., 1959
5. В.Г.Белениский Собр. соч., т. I.М., 1948

<sup>5</sup> Г. Сатторова Muslima.uz “Фарзанд тарбиясида ўйинчоқларнинг ўрни”

6. Г.Сатторова Muslima.uz “Фарзанд тарбиясида ўйинчоқларнинг ўрни”

7. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.

8. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.

9. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.

10. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o 'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.

11. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.

12. Ҳатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.

13. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.

14. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.

15. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).

16. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).

17. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).

18. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.

19. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. International Journal of Culture and Modernity, 11, 1-7.

20. Abdunazarov, Z. (2021). Namza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. Oriental Art and Culture, 2(3), 170-178.

21. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).

22. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.

23. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.

24. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.

25. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.

26. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).

27. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.

28. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

29. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.

30. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.

31. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

32. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

33. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

34. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.

35. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

36. Деҳқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ҲУҚУҚИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

37. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.
38. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.
39. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.
40. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.
41. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).
42. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.
43. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
44. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.
45. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
46. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
47. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## БАРЧА ГЎЗАЛИК БИР САНЪАТДА. РАЪНО НИЗАМОВА ВА РАҚС

Юсупов Элчинбек

elchinyusupov.vl@gmail.com

Ўзбекистон давлат хореография академияси

**Аннотация:** Ушбу мақолада ўзбек рақс хореографиясининг кўзга кўринган вакиласи, рақс санъати ривожини учун ўзининг беназир хиссасини кўшган инсон, Ўзбекистон халқ артисти, истеъдодли раққоса, мохир педагог "Баҳор" ансамблининг яккаҳон ижрочиларидан бири саналган ва ўзининг унитилмас рақслари билан мухлислар қалбидан жой олган раққоса Раъно Низамова ҳақида баён этилган.

**Калит сўзлар:** рақс, санъат, мерос, тушунча, педагог, касб, хореография, изох.

## ALL BEAUTY IS IN AN ART. RANO NIZAMOVA AND DANCE

Yusupov Elchinbek

elchinyusupov.vl@gmail.com

Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** In this article, a prominent representative of Uzbek dance choreography, a person who has made a unique contribution to the development of dance, People's Artist of Uzbekistan, a talented dancer, a talented educator, one of the soloists of the ensemble "Bahor" described.

**Keywords:** dance, art, heritage, concept, pedagogue, profession, choreography, commentary.

*Хиром айласа дилдан, булбул мисол куйлайди*

*Хиром айласа Раъно кунгил ила сўзлайди.*

Доирачи доирани маҳорат билан ижро этар экан, раққоса унинг атрофида гир-гир айланиб доиранинг турли усуллариға ҳамоханг бўлган ҳолда бир гўзалик яралади. Раққосанинг майин кўл ҳаракатлари, оёғининг тезкор тепки қадамлари, доира усуллари ва рақсни янада бойитиб завқ ва шавққа тўлдиради. Сўзим истеъдодли раққоса, мохир педагог, ҳақиқий санъат устаси, латофатли, гўзал Раъно Низамова ҳақида борар экан, жажжи Раъно 1935 йили гўзал фаслларнинг бири бўлган декабр ойининг 25 кунда Тошкент шаҳрида таввалуд топади. Шавқатсиз уруш йиллари қизалоқнинг қувончли ҳаёт дамларини четлаб ўтмайди. Отаси Қурбонов Хошим 2-жаҳон урушида вафот

этади. Онаси Қурбонова Жўрахон ая 1942 йилда ҳаётдан кўз юмади. Ота-она меҳрига тўйиб улгурмаган Раъно 7 ёшидаёқ етимлик нима эканлигини хис қилади. 1941 йилдан 1954 йилга қадар Қўқон ва Тошкентаги болалар уйида тарбияланади. Болалар уйига Раъно тезда кўникиб кетади. Ўқиш жараёнида устозлари ва дугоналари билан кичик тадбирлар саҳналаштира бошлайдилар. Раъно албатта қачондир яхши кунлар келишига умид қилиб яшайди. 1948 йилда Республика миқёсидаги “Болалар олимпиадасида” рақс йўналиши бўйича фаол иштирок этиб хореография билим юртига қабул қилинади. Хореография билим юртида Раъно меҳнат қилишдан тўхтамайди хореографиянинг барча кўникмаларини ўрганишга ҳаракат қилади. 1951 йилда Москва шаҳрида Ўзбекистон санъати ва адабиёти декадасида қатнашиб, “Митти оққушлар” рақсини маромига етказиб ижро этканлиги учун “Меҳнат аълочиси” медали билан тақдирланади. 1954 йилда Раъно Низамова хореография билим юртини мувофақиятли тугатади.

Ўзбек рақс санъатининг ҳақиқий устаси Раъно Низамова 1954-1957 йилларда Алишер Навоий номидаги Опера ва балет театрининг балет труппасида ўз меҳнат фаолиятини бошлайди. Театрда ишлаш жараёнида “Оққуш кўли”, “Уйқудаги гўзал”, “Раққоса”, “Жизел”, “Етти гўзал”, “Эсмералда”, “Шурали”, “Доктор Айболит”, “Боғчасарой фаввораси” ва бошқа спектаклларда турли туман ролларни ижро этади. Кўзган кўринган Раъно ўзбек рақсининг билимдони Мукаррама Турғунбоева этиборига тушади ва 1957 йили устознинг таклифига кўра “Баҳор” ансамблига раққоса сифатида ишга қабул қилинади. 1978 йилга қадар Раъно Низамова “Баҳор” ансамбли ва ўзбек рақс санъати учун бор вужуди билан хизмат қилади. 1965-1976 йилларда балетмейстер ёрдамчиси, 1971-1972 йилларда бадий раҳбарнинг ўринбосари каби вазифаларни бажарди.

Санъатни севган, санъат билан яшаган Раъно Низамова рақсни пухта эгаллаб, уни бутун дунёга танитишга ҳаракат қилди. Раъно Низамова меҳнати, тиришқоқлиги сабабли ҳаётда ва санъатда ўз ўрнини топди. “Рохат”, “Учрашув”, “Шаббодалар”, “Пилла”, “Ўйна Раъно”, “Фарғона рубойиси”, “Ларзон”, “Тановар”, “Аста қиёлаб ўтди”, “Помирча”, “Хиндча” каби классик ва халқ рақслари “Афғонча”, “Чехча”, “Полякча”, “Арабча” ва бошқа жаҳон халқлари рақсларини Раъно Низамова ўзининг мухлислари ва ҳақиқий рақс шайдолари учун ижро этиб, ўзбек рақс санъати камолотида ҳам муҳим ўрин топди. 1964 йили Раъно Низамова кўп йиллик самарали меҳнат фаолияти учун “Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист” фахрий унвони билан мукофотланди.

Раъно Низамова “Баҳор” ансамбли ва республиканинг иқтидорли солистлари билан бирга Европанинг ва Ўрта Осиёнинг Австрия, Чехословакия, Кипр, Шветция, Полша, Ироқ, Болгария, Германия, Венгрия, Канада,



Монголия, Малайзия, Сингапур, Покистон, Корея, Афғонистон, Индонезия, Япония, Судан, Мароқаш, Жазоир, Миср, Хиндистон ва бошқа чет эл мамлакатларида гастрол сафарларида бўлиб, ўзбек рақс санъатини тарғиб қилиб турли концерт дастурларини оммага тақдим этишди.

Раъно Низамова чет эл гастрол сафарларини катта қувонч ва эсда қоларли хотиралар билан эслайди:” Бизнинг ижодий жамоамиз бутун дунё бўйлаб саёхат қиларди ва ҳар қандай мамлакатда бизни меҳр билан кутиб олишарди. Қизиқ воқеалар ҳам содир бўларди. Бир марта биз Россияга қишда концерт дастури билан ташриф буюрдик. Табиий совуқ. Қалхоздаги чиқишлар учун хона ажратилди у собиқ кинотеатрнинг бир хонаси эди. Улар умуман иситилмаган эди. Биз кийимни алиштирардик совуқдан тишимиз тишимизга тегмасди ва кимдир катталардан “Қизлар мен жуда қизиқ кетдим” деди ва бутун қизлар орасида кулгу бошланди. Шу тарзда қизлар орасида хазиллар бўлиб турар эди” - деб эслайди.

Баъзида биз вагонда яшаганимизда режалаштирилган йўналишга қараб бир поездга, кейин бошқасига уланган вагонда яшар эдик. Бир куни биз Қозоғистонга етиб келдик, у ерда тунда тўсатдан нолдан паст ҳарорат пайдо бўлди. Аёздан поезд титани ёрилиб, кетди сув ўтиш йўлакини босди ва йўллар музлаб қолди. Биз баҳорда ётиб қишда уйғондик пол эса конки майдончасига айланди.

Хориж сафари ҳеч эсимдан чиқмайди. Бир марта биз Людмила Зикинадан кейин чиқишимиз керак эди. Ва шу орада муаммо пайдо бўлди. Бизнинг юқларимиз етиб келмапти. Биз концерт кийимларимиз бўлмаса сахнага чиқа олмасдик. Людмила Зикина хайратга тушмади ва икки соат мобайнида қўшиқ айтишда давом этди. Юкимиз ҳеч ҳам етиб келмади ва вазиятни тўғри тушиниб кетиб ўзимизнинг ўзбекона атлас либосларимизда чиқишларимизни мухлисларга тақдим этдик” - дейди Раъно Низамова.

Раъно Низамова 1978 йилда Шайхонтохур тумани пионерлар уйига ишга ўтиб, “Наргиза” номли қўшиқ ва рақс ансамблини ташкил қилди. Бу ансамбл кўп йиллар мобайнида ўзларининг турли концерт дастурлари билан томошабинлар қалбидан жой олиб уларга манзур бўлди. Ансамбл “Санъат байрами” танловининг совринли ўринига эришди, бир нечча маротаба зангори экран орқали чиқиш қилди. “Артекда” ва АҚШда гастрол сафарида бўлиб катта хурмат ва олқишларга сазовор бўлди.

Раъно Низамова 1979 йилдан ўзларининг педагогик фаолиятларини олиб бордилар, 1982 йилда Тошкент Давлат Маданият институтини тугатилар. Маданият институтида ишлаш жараёнида кўплаб ёш кадрларни таёрлашда ўз меҳнатларини аямадилар. Раъно Низамова талабалари учун жуда қаттиқ эди. Ҳар бир талаба ўз касбининг мохир ижодкори бўлишини астойидил ҳоҳларди.

Раъно Низимова Маданият институтида доцентлик илмий унвонига сазовор бўлди, кейинчалик 1992 йили “Хореография” кафедраси профессори сифатида самарали фаолият кўрсатиб келди.

Раъно Низомованинг гўзал рақс санъати соҳасидаги улкан меҳнати муносиб тақдирланди. 1964 йилда “Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист” 1974 йилда “Ўзбекистон халқ артисти” 1984 йилда “Халқ таълим аълочиси” унвонлари билан мукофотланди.

Раъно Низимова 2013 йил 10 апрел куни бу ёриқ оламни 78 ёшида тарк этди.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Қ.Сағатов М.Мухамедова “Ўзбекистон маданияти ва санъати фидойилари” “Навруз” 2017й
2. Ольга Фазилова Ансамбль “Баҳор” “Особенности танцевальных композиций ансамбля”.
3. Список Народных артистов Узбекской ССР(википедия)
4. Ўғилой Мухамедова “Роль женщин в хореографическом искусстве”
5. Ўзбекистон Давлат хореография академияси электрон кутубхонаси ARM.UZDXA.
6. ФМ Азатова, ЗК Фазлиева.АСРЛАРГА ТАТИГУЛИК РАҚС АСАРИ// Oriental Art and Culture,(6) 8 2021
7. ЗК Фазлиева.ЎЗБЕК САҲНА РАҚСИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙУЛЛАРИ//Oriental Art and Culture.-2020.-№. III 6
8. СШ Маннонов, ЗК Фазлиева.ИБТИДОЙ ПАНТОМИМАЛАР: ЎЙИНЛАР ВА СЮЖЕТЛАР//Oriental Art and Culture 2 (3), 99-105 4 2021
9. SF qizi Yangiboyeva, ZK Fazliyeva.O’ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATIDA MAQOM JANRINING O’RNI//Oriental Art and Culture 2 (1), 32-35 2021
10. ИМ Иманкулова, ЗК Фазлиева. АЛИШЕР НАВОЙЙ НОМИДАГИ ДАВЛАТ АКАДЕМИК КАТТА ТЕАТРИ САҲНАСИДА “ЛАЗГИ ҚАЛБ ВА СЕВГИ РАҚСИ” БАЛЕТИ СЦЕНОГРАФИЯСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИН//Oriental Art and Culture 2 (4), 295-302 2021
11. ФМ Азатова, ЗК Фазлиева. “МУНОЖОТ” АСРЛАРГА ТАТИГУЛИК РАҚС АСАРИ//Oriental Art and Culture 2021
- 12.ФЗ Камарбековна.Рақс ансамбллари ижодида ўзбек миллий рақс мактабларининг услубий ифодаланиши//International scientific-practical online conference on Emergency management and public health research in Asia. 2020

## **BOLALARNI TARBIYALASHDA QO‘G‘IRCHOQ TEATRINING AHAMIYATI**

B.Mamatqulov  
O‘zDSMI FMF

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar tarbiyasiga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, ularning ongida mehr-muhabbat, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarini paydo qilishda qo‘g‘irchoq teatri muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bolalikda olingan har qanday bilim va ko‘z bilan ko‘rilgan taassurotlar bir umrga bola ongida saqlanib qoladi.

**Kalit so‘zi:** bolalar, bilim, qo‘g‘irchoq, teatr, spektakl, tomosha, sahna, madaniyat, aktyor, qahramon, ertak, sehrli san‘at.

## **THE IMPORTANCE OF PUPPET THEATER IN THE EDUCATION OF CHILDREN**

B.Mamatqulov  
FRB UzSIAC

**Abstract:** This article focuses on the upbringing of children, and puppet theater plays an important role in instilling in their minds the concepts of love, good and evil. Because any knowledge and visual impressions received in childhood will remain in the child's mind for a lifetime.

**Keyword:** children, knowledge, puppet, theater, spectacle, watch, scene, culture, actor, hero, fairy tale, magic, art

Dunyo hamjamiyatining taraqqiyoti, taqdiri va kelajagi albatta bolalar tarbiyasi, ularning ma‘naviy ongi, bilim va ko‘nikmalari bilan bog‘liqdir.

Yoshlarni ezgu g‘oyalar asosida tarbiyalashda, ularning madaniyati, ma‘naviyati va dunyoqarashini kengaytirish hamda beg‘ubor qalblarini munavvar tuyg‘ulari bilan oshno qilish kelajakda yetuk, barkamol, vatanga muhabbat, ota-onaga xurmat, farzandlik burchini yurakdan ado etish, el manfaati yo‘lida fidoyilik va insoniylik fazilatlari ruhida kamol toptirish, xullas bir so‘z bilan aytganda vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uchun san‘atning ta‘sirchan vositalaridan biri bu, teatrdir. “Teatr san‘atining qudrati shundaki, u dramaturg, aktyor, rejissyor, rassom, sozanda, raqqos va boshqa ko‘plab sahna arboblarning ijodiy mehnatini bir butun qilib birlashtiruvchi

kollektiv ijodkordir.”<sup>1</sup>, “Teatr voqelnkni san’atning turlari yordamida aks ettirib, uni har tomonlama, harakat va rivojlanishda jozibali qilib ko’rsatar ekan, bir vaqtning o’zida ming-minglab tomoshabinlarning ruhiy olamiga chuqur kirib, uning dil torlarinn cherta oladi”,- degan fikrlarni yozgan edi V. G. Belinskiy.<sup>2</sup>

“Yosh tomoshabinning san’atga oshnoligi ilk bor qo’g’irchoq teatridan boshlanadi. Shuning uchun u bu dargoxni tez-tez qumsaydi, hal eta olmagan jumboqlarga shu dargoxdan javob topadi. Shu sababdan qo’g’irchoq teatri spektakllari yosh tomoshabinlarga tushunarli, janr jihatidan rayag-barang, zamon talabiga javob bera oladigan mukammal mazmunga ega, g’oyaviy jihatidan yetuk asarlari bo’lishi shart”<sup>3</sup>. Jajji bolajonlarimiz uchun teatrlar ichida qo’g’irchoq teatrining o’rni va ahamiyati juda muximdir. Qo’g’irchoq teatri tomoshalari bolalarga bir olam zavq bag’ishlaydi. Ularning ongida mehr-muhabbat, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni paydo qiladi.

Qo’g’irchoq teatrining yana bir muhim jihati shundaki, yoshlarni sahna san’ati, sahna madaniyatiga oshino qilishdir. Ular bolalikdan asta-sekin balog’at yoshiga yetgani sayin mavzular o’zgarib boradi va yoshlar teatri, musiqali drama teatri shu kabi teatrlarda spektakllar tomosha qilishga o’tadi. Lekin shu davrgacha birinchi navbatda dunyoqarashini shakllantiradigan teatr bu - qo’g’irchoq teatri xisoblanadi. Chunki, bolalikda olingan har qanday bilim va ko’z bilan ko’rilgan taassurotlar bir umrga bola ongida saqlanib qoladi.

Bizga ma’lumki qo’g’irchoq teatri o’zining qadimiy va boy tarixiga ega. Qo’g’irchoq teatrining o’ziga xos - sehrli olami, dunyosi mavjud. Demak sehrli olamga sayoxat qilar ekansiz albatta bosh sehrgarlarga duch kelasiz. Odatda bu sexrgarlar - aktyorlar hisoblanadi. Ular yordamida biz ertaklar olamiga sayohat qilamiz. Ertak qahramonlarining yaxshi-yomon tomonlarini, sarguzashtlarini, xullas, boshidan kechirganlarini aktyorlar ijrosi orqali qo’g’irchoq teatri sahnasida tomosha qilamiz. Qo’g’irchoq teatri aktyorining eng katta yordamchisi qo’g’irchoqlardir. U spektakl mavzu va g’oyasiga mos ravishda qo’g’irchoq rassomi va qo’g’irchoq ustasi tomonidan tayyorlanadi.

Aktyorlar jonsiz bo’lgan oddiygina qo’g’irchoqlarning gapirishi, inson singari xursand yoki xafa bo’lishi, uxlashi, og’iz va ko’zlarini harakatlantirib, moxirona boshqarib qahramonlarga ovoz berishadi. Qo’g’irchoq teatrining sehrli olamida qahramonlarning xatti-harakatlarini jon-u dili bilan tomosha qilayotgan, undan ruhan ozuqa olayotgan murg’ak qalblarni ko’rgan kishida zavq, shavq uyg’onadi.

Mustaqillikka erishgan ilk kunlarimizdan boshlab mamlakatimizda yoshlarimizni jismonan baquvvat, sog’lom, ma’naviyatli bo’lishi uchun yoshlarga oid

<sup>1</sup> К.С.Станиславский Собр. соч., т. 6 М., 1959 стр 24

<sup>2</sup> В.Г.Беленинский Собр. соч., т. I.M., 1948, стр. 185

<sup>3</sup> М.Х.Ашурова Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби.Т.: 2007 Дарслик 10 бет

davlat siyosati olib borildi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joyizki, hozirgi kunda Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan ham sog'lom avlodni tarbiyalashga, ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli shaxsni shakllantirish, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda teatr san'atini izchil ravnaq toptirish, ijodkorlar mehnatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, yurtdoshlarimizni ezgulikka chorlaydigan badiiy asarlar yaratish, ayniqsa professional qo'g'irchoq teatrini rivojlantirish masalasi ustuvor maqsad qilib olingan. Buning isbotini 2017-2021-yillarda mamlakatni rivojlantirish dasturi bo'lgan "Xarakatlar strategiyasi" va "Besh muhim tashabbus"da ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunga qadar respublikamizda o'nta professional davlat qo'g'irchoq teatri faoliyat yuritib kelmoqda. Bu respublika aholisining katta qismini yoshlar kategoriyasi tashkil etadigan jamiyat uchun juda kam ko'rsatgich ekanligi oydek ravshan albatta. Biroq, masalaning boshqa tomoni mavjud: faoliyat olib borayotgan mazkur teatrlar o'z zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalarni bajara olmoqdami, qo'g'irchoq teatrlarining bugungi kun bolalar madaniy hayotida tutgan o'rni qanday darajada, Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri poytaxt aholisi ma'naviy ehtiyojlarini qondira olayaptimi yoki ushbu teatr qancha tomoshabinlarni o'z bag'riga sig'dira oladi-yu, bir yil mobaynida qancha bolalarga xizmat qilishi mumkin, kabi savollar ko'ndalang bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston axborot agentligining ma'lumotiga ko'ra Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2021 yil dekabr holatiga 2,71 mln kishini tashkil etmoqda. Keltirilgan raqamlardan poytaxt ko'g'irchoq teatrining aholini qamrab olishi darajasini taxmin qilish qiyin emas. Viloyat qo'g'irchoq teatrlari xususida ham shunga o'xshash raqamlar yuzaga chiqishi aniq. Achinarlisi ushbu ko'rsatkichlar qaysidir viloyat yoshlari mazkur san'at turidan butunlay bebahra ulg'ayib kelayotganligidan darak beradi.

O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va xavaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integrasiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish<sup>4</sup> yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni imzolandi hamda shu farmon asosida Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 30 noyabr kuni 754 sonli qarori tasdiqlandi. Qarorda

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев "Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2020 йил 26 майдаги ПФ-6000-сонли Фармони

Sirdaryo, Namangan, Navoiy va Toshkent viloyatlarida davlat qo'g'irchoq teatrlarini tashkil etish, Respublika qo'g'irchoq teatriga O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri maqomini berish, yana qo'g'irchoq teatri tarixida bo'lmagan ishlardan biri professional qo'g'irchoq teatrlari faoliyatida muxim kasb egasi ya'ni "Qo'g'irchoq yasash ustasi" bugungi kunga qadar hech qayerda o'qimagan, lekin teatrdagi qo'yilgan spektakllarning qo'g'irchoqlarini o'zlari bilgan usulda yasab kelgan. Endilikda farmon va qarorda 2021-2022 o'quv yilida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Qo'g'irchoq yasash texnologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishini ochish ko'zda tutilgan.

Qo'g'irchoq teatri san'ati halqimizning hamda butun jahondagi xalqlarning eng boy qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanadi xuddi balet teatri, musiqiy va dramatik teatrlari kabi o'z yo'nalishiga ega bo'lgan mustaqil teatrdir. Qo'g'irchoq teatri boshqa teatrlardan yaqqol ajralib turadi. Chunki, boshqa teatrlarda aktyorlar sahnada tomoshabinlar oldida jonli planda namoyon bo'lsa, qo'g'irchoq teatrida esa aksincha qo'g'irchoq aktyorlari shirma ortida bo'lishadi. Demak bundan ko'rinib turibdiki Hozirda Respublikamizdagi davlat qo'g'irchoq teatrlarida qo'lqopli, simli qo'g'irchoq turlaridan keng foydalanilib kelinmoqda. Biroq, bugungi zamonaviy jarayonlar jajjigina bolalarni ham har taraflama "pishitib" bormoqda. Maktabgacha ta'lim yoshli bolalarning so'ngi rusumdagi kompyuter texnologiyalari va telefon apparatlaridan foydalanib, multfilmlar tomosha qilar ekan, bu jarayonlarda ularni spektakl sahnasidagi tomoshalarga "ishontirish", mazkur tomoshalar orqali ular ruhiyatini tarbiyalash o'z dolzarbligini yanada oshirib boraveradi. Bu jarayonlarda sahnada media vositalaridan keng foydalanish hamda qo'g'irchoq yasash texnologiyalari va boshqarish mexanikalarini dunyoning rivojlangan davlatlaridan o'rganib, qiyosiy tahlil qilgan holda, yangicha usullarni, innovatsiyalarni, jalb etib Respublika qo'g'irchoq teatrlariga tadbiiq etish muhim ahamiyatga ega, nazarimda.

Qo'g'irchoq teatri haqida biz ko'p gapirganda hali qo'g'irchoq teatri tarixi, nazariyasi haqida emas balki aslida qo'g'irchoqlar nima ekanligini, ular qanday yasalishini bu turli xalqlar, turli millatlar mentalitetiga ko'ra qanday ma'no va mazmun kasb etishi haqida ko'pchilik tasavvurga ega emas. Yevropa xalqlari yoki Amerika xalqlari qo'g'irchoqlari bilan O'zbekistonni yoki sharq xalqlari qo'g'irchoqlarini bir-biriga taqqoslab ham bo'lmaydi va bularda aynan qo'g'irchoq yasalishidagi uni yuzida, ko'zida yoki bo'lmasa tashqi ko'rinishidagi ma'no-mazmunlar hamma xalqlarda har-xil ketadi. Bunga sabab o'sha xalq yashayotgan tabiiy sharoit, muxit bilan bog'liq bo'lsa o'sha xalq mentaliteti, dunyoqarashi, yashash tarzi kabi bir qancha parametrlardan kelib chiqadi. Endi bu haqida ko'p gapirish mumkin misol tariqasida bugungi kunda Amerika Qo'shma Shtatlarining "Mattel" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan "Barbi" qo'g'irchoq'i dunyoda juda mashhur bo'lib ketgan. Qo'g'irchoqlar nafaqat bolalar uchun balki kattalar

uchun ham juda kuchli salbiy oqibatlar olib keladi xatto qomati chiroyli yoshgina qo'g'irchoq ko'rinishiga ega bo'lgan o'yinchoqlar tarqalishi, ota-onalar uni farzandiga sotib olib berish bilan o'zlari ham unga xavas qiladi.

Arzimasdek tuyulgan bu kabi holatlar farzandning murg'ak tasavvuriga singadi. Uning kiyinishi, yurish-turishiga, tarbiyasiga asta-sekin ta'sir ko'rsatib, hayotiy jarayonlarida aks eta boshlaydi. "Mard va jasur milliy qahramonlarimiz, bolalarni yaxshilikka, ezgulikka, teran fikrlashga undaydigan qanchadan-qancha ertak va afsonalarimiz bo'la turib, farzandlarimiz bunday qo'g'irchoqlarga berilib ketayotganliklariga e'tiborsiz qarab bo'lmaydi"<sup>5</sup>. Shuning uchun bola tarbiyasi juda jiddiy jarayon xisoblanadi.

Sodda dil egalari bo'lmish jajji bolajonlarimiz ishonuvchan bo'ladi.

"Barbi" singari qo'g'irchoqlarni bolani ovuntirish uchun olib bermaslik, balki ma'naviy va madaniy ozuqa beruvchi qo'g'irchoq teatri tomoshalariga kichkintoylarni biz ota-onalar tomoshabin sifatida olib kirsak, farzandlarimiz kelajakda albatta, jismoniy va ma'naviy kamolotiga, tafakkurining shakllanishiga ezgu amallar qilishga ko'nikma hosil bo'lishiga hizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 26 maydagi PF-6000-sonli Farmoni
2. M.X.Ashurova Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi.T.: 2007
3. M.Qodirov Sahnamiz Lochinlari Toshkent 1986
4. K.S.Stanislavskiy Sobr. soch., t. 6 M., 1959
5. V.G.Beleniskiy Sobr. soch., t. I.M., 1948
6. G.Sattorova Muslima.uz "Farzand tarbiyasida o'yinchoqlarning o'rni"
7. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
8. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
9. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
10. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.

---

<sup>5</sup> Г. Сатторова Muslima.uz "Фарзанд тарбиясида ўйинчоқларнинг ўрни"

11. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 71-77.
12. Ҳатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 50-52.
13. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.
14. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 85-92.
15. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
16. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. *Oriental Art and Culture*, (6).
17. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
18. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2407-2410.
19. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 1-7.
20. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.
21. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
22. Boltaboyeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
23. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
24. Boltaboyeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
25. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.



26. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).

27. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.

28. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

29. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.

30. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.

31. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

32. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

33. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

34. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. *Hordo Structures in Central Asian Architecture*.

35. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

36. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ҲУРИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

37. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.

38. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.

39. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.

40. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.

41. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).

42. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. Oriental Art and Culture, 2(3), 76-87.

43. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. Oriental Art and Culture, 2(3), 114-124.

44. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 118-124.

45. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, (V).

46. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. Oriental Art and Culture, (V).

47. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. Oriental Art and Culture, (V).

## ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУНОСАБАТЛАРИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИ

Бойқўзиева Гўзалхон Худойбердиевна  
boyquzieva 1989@gmail.com.  
Қўқон давлат педагогика институти

**Аннотация:** Мазкур мақолада Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий ҳамда ижтимоий-иқтисодий фаоллигининг айрим жиҳатлари ёритилган.

**Калит сўзлар:** сиёсат, ҳуқуқ, иқтисод, хотин-қизлар, сайлов, хотин-қизлар ҳуқуқлари, тинчлик, тотувлик, ижтимоий тараққиёт.

## THEORETICAL AND PHILOSOPHICAL BASIS OF THE STUDY OF GENDER RELATIONS IN UZBEKISTAN

Boyquzieva Guzalhon Hudoyberdievna  
boyquzieva 1989@gmail.com  
Kokand State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article explores some aspects of the role of women in the socio-political and socio-economic spheres of life in Uzbekistan.

**Keywords:** politics, law, economy, women, elections, women's rights, peace, harmony, social progress.

Инсоният тарихини гендер муносабатлари, яъни эркаклар ва аёллар ўртасидаги муносабатлар тарихи тарзида ҳам таҳлил қилиш мумкин. Гендер муносабатларини ўрганишда хотин-қизларнинг эрки ва эркисизлиги, моддий ва маънавий аҳволи доимо жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий, маданий, сиёсий ҳолати билан боғлиқлигига эътибор бериш зарур. Бутун башарият тарихий тараққиёти давомида эркак ва аёл ўртасидаги муносабат маълум бир давр муҳитидан келиб чиқиб турли кўринишда шаклланган. Эркак ва аёл ўртасидаги муносабат жараёнини таҳлил қилишнинг назарий-фалсафий асослари сифатида қуйидагиларни ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади:

1. Эркак ва аёл ўртасидаги муносабат масаласи кишилик жамияти, ижтимоий муносабатлар, миллатлар ва давлатлар, маданият ва цивилизация билан чамбарчас боғлиқ;

2. Эркак ва аёл ўртасидаги муносабат масаласини таҳлил этганда, оила, урф-одат, маданият, дин - аёлларнинг бир қатор фаолиятларини, хусусан,

меҳнат қилиши, таълим олиши, жамиятни бошқаришда, сиёсий жараёнларда қатнашишни бирмунча чеклаб келинганлигини унутмаслик зарур;

3. Турли минтақаларда эркак ва аёл ўртасидаги муносабатнинг турли туман бўлиши, аёл ҳуқуқлари ва имкониятларининг ҳам турли тараққиёт босқичларида турлича бўлишига олиб келди. Аёл ҳуқуқлари инсон ҳуқуқлари сифатида тан олиниб, халқаро ҳамжамият томонидан алоҳида эътибор талаб қилувчи соҳа даражасига етгунга қадар кўп асрлар давомида курашиб келинди;

4. Эркак ва аёлнинг тенг ҳуқуқлилиги масаласи бугунги кунда инсоният муаммоси даражасига кўтарилди. Эндиликда халқаро майдонда аёлларга нисбатан муносабат маданиятини шакллантирмасдан туриб, инсон ҳуқуқлари тенглигига эришиб бўлмайди.

Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, Марказий Осиё, хусусан, Ўзбекистонда гендер муносабатлари эволюцияси шартли равишда қуйидаги даврларга бўлишимиз мумкин:

1. Ўрта Осиёнинг қадимий маданиятида аёлларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётда тутган ўрни (исломгача бўлган даврда);

2. XX асрнинг биринчи чорагигача мусулмон маданиятида аёл ва эркак муносабати;

3. Шўролар ҳукмронлиги даврида инқилобий чоралар билан аёлнинг тенг ҳуқуқлилигини таъминлашга ҳаракат;

4. Мустақиллик даврида гендер маданияти шаклланишининг ўзига хос хусусиятлари.

Қадимги давр (ислом дини қабул қилингунгача бўлган давр) - Марказий Осиёда гендер муносабатлари ва маданият ривожининг тарихида алоҳида саҳифани ташкил этади. Марказий Осиёдаги қадимги давр ҳақидаги маълумотларни ўзида акс эттирувчи, ўша давр фалсафий ва ижтимоий ҳаёти ҳақидаги фикрларнинг дастлабки куртаклари ҳисобланган қадимий эртақлар, афсоналар, ривоятлар, шунингдек, ёзма, археологик ва бошқа манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, Марказий Осиёда аёллар тарихий жараёнларга фаол таъсир кўрсатганлар, улар сиёсий ҳаётда муҳим рол ўйнаш билан бирга, иқтисодий фаолият билан шуғулланганлар.<sup>1</sup> Баъзи адабиётларда қайд этилишига, уларнинг мақоми кўпинча жамиятда эркакларникига нисбатан юқорироқ деб тан олинган. Шуни қайд этиш жоизки, кўчманчи ва ярим кўчманчи халқларнинг қаҳрамонлари мисолида ҳам ўша давр аёл ва эркак муносабатларининг акс этганлигини кўришимиз мумкин. Бу ҳолат Марказий Осиё эпосининг ўзига хос хусусиятга эга эканлигидан далолат беради. Халқимизнинг минг йиллик тарихи акс этган афсона ва ривоятларда аёллар ватанни чет эл босқинчиларидан қаҳрамонларча ҳимоя қилувчи, тинч ҳаёт учун курашувчи, меҳнат, ҳунарда

<sup>1</sup> Жумабоев И. Ўзбекистонда фалсафий ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. – Т.: Ўқитувчи, 1997. 10 б.

ўзини кўрсатган қобилиятли, ақлли, тадбирли шахс сифатида ифодаланади. Оғир ва мушкул вазиятларда тўғри йўл топа билиш, ақл ва фаросат билан иш юритиш афсона ва ривоятлардаги қаҳрамон, жанговар аёлларнинг ажойиб хусусиятларидандир. Марказий Осиё тарихида айрим ҳукмдор аёлларнинг ва лашкарбошиларнинг номлари ҳамда жасоратлари сақланиб қолган. Халқ оғзаки ижодининг жуда бой материаллари тарихий маълумотлар билан ҳам тўлдириладики, бу маълумотларда аёлларнинг фақат жасур жангчи сифатидагина эмас, балки юксак ахлоқий фазилатларга эга бўлган ажойиб инсон сифатида ҳам иш тутишлари ҳақида ҳикоя қилинади. Марказий Осиё эпосидаги Зарина, Спаретра, Тўмарис каби сиймолар худди ана шундай инсонлардир. Сак маликаси Зарина ва Мидия саркардаси Стрингий ҳақидаги ривоят, гамаш, ривоятлар ичида энг қадимийси бўлиб, унда Марказий Осиё халқларининг Мидия ҳукмронлигидан озод бўлиш учун олиб борган курашини акс эттирувчи воқеалар ҳақида ҳикоя қилинади. Антик дунё тарихчиларидан бири Геродотнинг хабар қилишича, милoddан аввалги VIII асрда Ассирия қулагандан кейин Мидия Осиёда етакчи мавқени эгаллаган ҳамда милoddан аввалги VI аср охиригача Марказий Осиёда ҳукмронлик қилган.<sup>2</sup> Ктеций ёзиб қолдирган ривоят ҳам ўша давр тарихини баён қилади.

Зарина жангчи аёлнинг ўз халқи мустақиллигининг ҳомийси, шаҳарларни бунёд этувчи улугвор образи сифатида намоён бўладики, ана шу аёл раҳномолигида саклар юрти гуллаб яшнайти. Спаретра ва Тўмарис ҳақидаги ривоят Марказий Осиёда аҳамонийлар ҳукмронлик қилган даврга тааллуқли бўлиб, бу ҳукмронлик икки асрдан ортиқроқ давом этди. Мил. авв.

VI аср ўрталарида аҳамонийларнинг Марказий Осиёга қилган босқинчилик юришлари анча узоқ давом давом этади, ана шу ҳудудда яшаган халқлар босқинчиларга мардонавор қаршилик кўрсатадилар. Ктеций сак малакаси Спаретра ва унинг эри Амерг ҳақидаги ривоятни келтиради. Эрон давлатини барпо этган Кир Амергни асир олади. Спаретра эркаклар ва аёллардан кўшин ташкил қилиб, жангда Кирни тормор келтиради. Ана шу ривоятда жасур ва фидойий маъшуқа, эрининг содиқ умр йўлдоши намоён бўлади. Массagetлар маликаси саҳоватли ва довюрак Тўмариснинг Эрон шоҳи Кир билан кураши тарихини баён этар экан, Геродот массagetларнинг эпик ривоятдан фойдаланади. Ҳикоя замирида ҳақиқий факт ётадики, бу фақат эпик тус олган ҳолда Геродотгача етиб келган.

Кир Мидия ва Вавилонни забт этиб, Тўмарис ҳукмронлик қилаётган Каспий денгизининг шарқидаги ялангликлар томон йўл олади. Тўмарис Кир билан жангга киришар экан, ғалаба қилганимдан кейин, истилочини қон симиришга мажбур қиламан деб қасамёд қилади. Ғалабадан кейин у ўз

<sup>2</sup> Геродот. История и девяти книгах. –М.: Наука, 1972. 89 б.

ваъдасининг устидан чиқиб мағлуб шоҳнинг калласини қон тўлдирилган мешга солишини буюради.<sup>3</sup>

Дарҳақиқат, Марказий Осиёнинг қадимги ҳаёти шароитида аёллар, асосан, юқори мартабаларни эгаллаб, жуда ҳурмат-иззатда бўлганлар.

Инсоният тарихий тараққиётининг натижаси, аёллар фаолиятининг нисбатан торроқ доирада белгиланишига олиб келган бўлсада, лекин уни бутунлай чеклаб қўйилади. Биргина Марказий Осиё маданиятининг таҳлили жамиятдаги аёллар маданиятининг юқори даражасидан далолат беради. Марказий Осиёда деҳқончилик ва шаҳар типидagi қадимий жамиятда аёллар ва эркаклар ижоди ўртасида чегаралар аниқ белгиланган эди. Мусиқа маданиятида фақат хотин-қизлардан иборат бўлган ансамбллар қайд этилган. Ўзбекистон жанубида Термиз шаҳрининг яқинидан топилган эрамизнинг дастлабки асрларига мансуб машҳур Айритом пештоқидаги тасвирлар, буларнинг барчаси махсус аёллар мусиқа санъатининг мавжуд бўлганлигидан ва унинг, эҳтимол, эркаклар санъатидан жиддий фарқланишидан далолат беради. Айни пайтда ижодий ва маданий фаолиятда, маданий ҳаётнинг ташкилий шаклларида гендер ўзаро ҳамжиҳатлик ва мулоқот сақланиб қолган. Аёллар эркаклар билан баравар ва биргаликда жамоат йиғинларида, маросимларда, саройдаги зиёфатларда ва театрлашган тамошаларда иштирок этишган. Кейинчалик жамият тараққиёти натижасида, шаҳар-давлатлар ривожланишда давом этган бўлсада, аёллар ижоди ҳамон юқори мақомга эга бўлиб, эркакларникига нисбатан унинг аҳамияти кам эмас эди. Жамиятнинг ижтимоий иерархиясида унга алоҳида жой ажратилган эди: расмий давлат маросимларида, диний маросимларда иштирок этиш, сарой аъёнларининг зиёфатларида хизмат кўрсатиш.<sup>4</sup> Ана шу вазифалар кейинчалик ҳам сақланиб қолиб, ўрта аср мусулмончилиги даврида ҳам бирмунча амалда бўлган. Айрим топилмалар (масалан, юқорида тилга олинган Айритом пештоқи) қадимги давлатлар ва ўрта асрларнинг бошида (аввало, Кушонлар империяси) диний маросимлар, зодагонлар зиёфатларида хизмат қилиш учун мусиқачи аёлларни тайинлаш бўйича махсус ташкилотлар бўлганлигидан далолат беради.

Аёл образи расмий ва диний йўналишдаги тасвирий санъатда ҳам кенг ифодаланган. Антик давр ва ўрта асрларнинг дастлабки даврига оид бўлган кўп сонли катта ва кичик ҳажмдаги аёллар ҳайкалчалари, (шу жумладан) олий табақага мансуб аёллар сиймоси) девордаги чизмалар ҳамда ҳозирги Марказий Осиё худудидан топилган бошқа буюмлар бу ернинг тарихий, маданий, ижтимоий ҳаётида аёлларнинг алоҳида ўрни бўлганлигидан далолат беради.

<sup>3</sup> Ўзбекистон тарихи. 1-жилд. –Т.: 1996. 70 б.

<sup>4</sup> Жумаев А. Гендер ва маданият. “Гендер муносабатлари назарияси ва амалиётига кириш”. –Т.: 2007. 376 б.

Исломгача бўлган даврда зардуштийлик динига эътиқод қилиш бирмунча юқори даражада эди. Зардуштийликнинг муқаддас “Авесто” китоби буюк аждодларимизнинг кенг қамровли ҳаёт тарзини умрбоқий урф-одатларини, таълим-тарбияси, бошқарув тизимини акс эттирибгина қолмай, аёллар масаласини ҳам ўз доирасида ҳал этди. “Авесто”нинг жуда кўп ўринларида эркаклар билан бир қаторда аёллар мадҳини ҳам учратамиз. Жумладан, 3-хатда “Биз барча аёл ва эркакларнинг пок рафторлари ва равонларини мадҳ этамиз” дейилса, Митраларда “Биз пок ва шижоатли аёл-у эркакларнинг руҳи равонларини мадҳ этамиз”<sup>5</sup> деган фикрларни учратамиз. Зардуштийлик динида эркаклар билан бир қаторда аёл ҳуқуқларига ҳам алоҳида эътибор қаратилганлигини кўришимиз мумкин. Масалан, Зардуштийлик аёлни уй ҳўжалик ишларини олиб боришда, урф-одатларни сақлаш ва маросимларни ўтказишда, ҳатто диний тартибларни қарор топтиришда эркаклар билан тенг ҳисобланган.<sup>6</sup>

Манбалар кўрсатадики, зардуштийлик аёлларнинг ижтимоий-маданий, диний ҳаётда қатнишиш ҳуқуқларини ҳимоя қилган, уларнинг оилавий урф-одатларни, маросимлардаги ўрнини қайд этган.<sup>7</sup> Никоҳ, зардуштийликда унга кирувчиларнинг икки томонлама келишуви бўлиб, фақат шундан кейин ота-оналар ва васийлар томонидан тасдиқланган. Агар эр судда ўз хотинини бўйсунмасликда айбласа, ҳам аёл ҳуқуқлари ҳисобга олинган. Ўзига юкланган айбни ҳамма олдида рад этиш ва ўзининг айбдор эмаслигини исботлаш ҳуқуқи хотинда қолган.

Зардуштийларда никоҳ бир умрга муҳрланган, бир эркакка икки никоҳ ёки вақтинча никоҳ раво бўлган эмас. Эр-у хотиннинг бир-бирига хиёнати лаълатланган. Зардуштийликда кўп хотинлилик қатъиян маън этилган. Айни пайтда ҳаётни бундоқ ўтказиш ҳам қораланган. Хуллас, зардуштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто”да аждодларимизнинг оила ва хотин-қизларни муқаррам тутиш ҳақидаги пешқадам фикрлари ўз ифодасини топган. Энг муҳими, зардуштийлик эътиқодидаги боболаримиз оилани жамиятнинг муқаддас бўлаги деб билиб, унинг ривожу-равнақида эркак ва аёлнинг ўрни тенг эканлигини билдириб ўтишган.

Мовароуннаҳр ҳудудларида араблар ҳукмронлиги ўрнатилгунга қадар мавжуд бўлган Сўғдиёна давлатида фуқаролар орасидаги муносабатлар ва инсон ҳуқуқлари ҳақида маълумот берувчи сўғд ҳужжатлари бу даврда ҳуқуқий маданият юқори бўлганлигидан далолат беради.<sup>8</sup> Мисол учун, никоҳни қайд қилиш ҳақидаги ҳужжат фикримизнинг ёрқин далилидир. Бу ҳужжат лақаби

<sup>5</sup> Авесто. –Т.: Шарқ, 2001. 180 б.

<sup>6</sup> Пяреханян А.Г. Общество и право Ириново порфенский и сасапидский периоды. – М.: Наука, 1983. 82-83 б.

<sup>7</sup> Махмудов Т. “Авесто” ҳақида. –Т.: Шарқ, 2000. 47 б.

<sup>8</sup> Жумабоев И. Ўзбекистонда фалсафий ва ахлоқий фикрлар тарихидан. –Т.: Ўқитувчи, 1997. 32 б.

Нидон бўлган Уттакин, Навкат хукмидори Чер Вохзанак ўғлининг ҳомийлигидаги Виюснинг қизи номи Дуғдгунча (лақаби Чата)ни хотинликка олиши ҳақида тузилган. Унда Уттакин Чатани севикли хотини сифатида ҳурмат ва эҳтиром билан озиқ-овқат, кийим-кечак, безак тақинчоқлар билан таъминлаши, эъзозлаб, муҳаббат билан ўз уйида сақлаши, Чата эса Уттакинни севикли ёр сифатида ҳурмат ва эҳтиром билан асраши, у эрининг бахт-саодати ҳақида қайғуриши, унинг буйруғини ўзига қонун деб ҳисоблаши лозимлиги қайд этилган ҳужжатда ёзилишича, агар келажакда Уттакин Чатани хотин қилмайман деган қарорга келса, бу ҳолда уни қўйиб юбориши, биргаликда яшаган вақтида олган шахсий нарсалар ва товон пулини бериб, ҳеч қандай шартларсиз жўнатиб юбориши, Чата Уттакинга кийимга яроқли кийимлар қолдириши, Уттакиндан олган безак тақинчоқларни ва бошқа нарсаларни ташлаб кетиши, лекин Чата ўзига тегишли ва биргаликда ҳаёти давомида орттирган мулкни олиб кетиши керак бўлган. Шунингдек, Чата, ҳуқуқий ҳужжатда қайд қилишинича, бошқа ҳеч нарса бўйича товондор бўлмайди, у ўзи хоҳлагна кишига турмушга чиқиши мумкин. Ажримдан сўнг, Уттакин ва Чата бир-бирларининг ғайриқонуний ҳатти-ҳаракатлари учун жавоб бермайдилар.

VI аср ўрталарида Олтой, Еттисув, Марказий Осиёдаги турли қабилалар бирлашувидан ташкил тотган Турк хоқонлигининг давлат ҳуқуқида инсон ҳуқуқлари, айниқса хотин-қизлар ҳуқуқи қаттиқ ҳимоя қилинганлигининг гувоҳи бўламиз. Аёл кишининг номусига тегиш энг оғир жиноят (қўзғолон кўтариш, хоинлик, одам ўлдириш, йўл учун мўлжаллаб қўйилган отни у тони ўғирлаш билан бир қаторда қўйилган) ҳисобланиб, ўлим жазосига маҳкум этилган. Безорилик орқасидан жабрланувчи аъзоларига шикаст етказиш даражасига қараб, зарарни ундириш жазоси қўлланилган. Шуни алоғида қайд этиш лозимки, хоқонликда хотин-қизлар тўла мулкӣ ва ворислик ҳуқуқига эга бўлганлар.<sup>9</sup>

Кўришиб турибдики, Ўзбекистон ҳудудида араблар хукмронлиги ўрнатилгунга қадар инсон ҳуқуқларини тартибга солувчи, шу билан бирга аёл ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи ўз даври учун мукамал ишлаб чиқилган қонунлар, уларнинг ижросини таъминлашнинг зарур механизмлари мавжуд эди.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Жумабоев И. Ўзбекистонда фалсафий ва ахлоқий фикрлар таракқиёти тарихидан. – Т.: Ўқитувчи, 1997. 10 б.
2. Геродот. История и девяти книгах. –М.: Наука, 1972. 89 б.

<sup>9</sup> Ahmad Leila. Woman and Gender in Islam. New Haven, CT: Yale University Press. 1992. 54 p.



3. Ўзбекистон тарихи. 1-жилд. –Т.: 1996. 70 б.
4. Жумаев А. Гендер ва маданият. “Гендер муносабатлари назарияси ва амалиётига кириш”. –Т.: 2007. 376 б.
5. Авесто. –Т.: Шарқ, 2001. 180 б.
6. Пяреханян А.Г. Общество и право Ириново порфенский и сасапидский периоды. – М.: Наука, 1983. 82-83 б.
7. Маҳмудов Т. “Авесто” ҳақида. –ТИ.: Шарқ, 2000. 47 б.
8. Жумабобоев И. Ўзбекистонда фалсафий ва ахлоқий фикрлар тарихидан. – Т.: Ўқитувчи, 1997. 32 б.
9. Ahmad Leila. Woman and Gender in Islam. New Haven, CT: Yale University Press. 1992. 54 p.

## МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК РАҚС САНЪАТИ ТАРИХИНИ ДАВРЛАШТИРИШ МАСАЛАСИ ВА ХОРЕОГРАФИЯ САНЪАТИНИ ЎРГАНИШДА МАНБАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Усманова Гуласал Нормухаммад қизи

Rus\_rock@bk.ru

Ўзбекистон давлат хореография академияси

**Аннотация:** Мазкур мақола ўзбек рақс санъатининг янги тарихий шароитдаги тараққиёти таҳлилига бағишланган илк фундаментал тадқиқот бўлиб, унда 1991-2021 йилларда Ўзбекистонда миллий рақс санъатининг бадиий-маданий ҳаётида кечган жараёнлар, янги ижодий йўналишлар ва анъанавий шаклларнинг мутаносиблиги масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** Балетмейстер, композиция, драматургия, рақс ансамбллари, фестивал, кулминация, экспозиция.

## THE ISSUE OF CIRCULATION OF THE HISTORY OF UZBEK DANCE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE AND THE IMPORTANCE OF SOURCES IN THE STUDY OF THE ART OF CHOREOGRAPHY

Usmanova Gulasal Normuhammad kizi

Rus\_rock@bk.ru

Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** This article is the first fundamental study devoted to the analysis of the development of Uzbek dance in the new historical context, which covers the processes of artistic and cultural life of national dance in Uzbekistan in 1991-2021, new creative directions and the balance of traditional forms.

**Keywords:** Balletmeister, composition, dramaturgy, dance ensembles, festival, culmination, exposition.

Ўзбекистон санъати тарихини олиб қарайдиган бўлсак, ўзбек санъатшунослигининг фан сифатида ривожланиши XX аср бошларига тўғри келади. Ўзбекистон санъатининг рақсшунослик йўналишида олиб борилган илмий-амалий тадқиқот ишларининг асосий муаллифлари сифатида Любовь Авдеева ҳамда Розия Каримовани келтириб ўтиш лозим.

Ўзбекистонда бугунги кунгача айнан ўзбек рақс санъати муаммоларига бағишланган илмий мавзуларда олиб борилган илмий тадқиқот ишлари таҳлили қуйидагича: 1965 йилда Л.А.Авдееванинг *“Традиции и новаторство в*

узбекской хореографии”<sup>1</sup>, Г.Хамраеванинг “Общие законы сценической хореографии и национальный образ танца: на примере анализа программы ансамбля «Баҳор»”<sup>2</sup>, диссертацияси, 1987 йилда Т.Г.Литвинованинг “Формирование каракалпакского народно-сценического танца”<sup>3</sup>, 1991 йилда эса М.В.Исроиловнинг “Уйгурский танец на территории Средней Азии и Казахстана”<sup>4</sup> мавзусидаги номзодлик диссертациялари ҳимоя қилинган.

Ўзбек рақсшунослик илмининг таҳлил натижаларига кўра охириги номзодлик диссертацияси ҳам (1991 йил 24 декабрда) ҳимоя қилинган. Ушбу ҳимояга ҳам жорий йилда 30 йил бўлди.

Мустақиллик йилларида миллий рақс санъати анчайин такомиллашиб, ривожланди. Янги анъаналар, услублар, майдон рақслари, театрлаштирилган хореографик спектакллар сахналаштирилди, янги-янги профессионал рақс ансамбллари, балетмейстер ва раққос-раққосалар кашф қилинди, давлат тадбирлари, халқаро фестивал ва спорт мусобалари ташкил этилиб, ўзбек рақси етакчи санъат турига айланиб, мавқеи тобора юксалди.

Ўзбек рақс санъатинининг шаклланиш ва тараққий этиш жараёнини илмий кузатишлар ўзбек балетмейстерлик санъати XX асрнинг 20-йилларидан босқичма-босқич тадрижий жараёнларни босиб ўтганлигини кўрсатади. Аммо ўзбек рақс санъатининг умуман тарихий жараёни ўрганилганида, бу босқичларни 6 даврдан иборат эканлиги маълум бўлди.

Ўзбекистон санъатшунослигида санъат тарихи, уни даврлаштириш масалалари етакчи олимлар - М.Е.Массон, Г.А.Пугаченкова, Л.И.Ремпель, Э.В.Ртвеладзе тадқиқотларида акс эттирилган.

ЎЗРФА академиги А.А.Ҳакимов ўзининг 2010 йилда нашр этилган “Искусство Узбекистана. История и современность” номли тадқиқотида Ўзбекистон санъати тарихини қўйидаги даврларга тақсимлаган:

*Биринчи давр* - Милоддан аввалги 2 минг йиллик, яъни замонавий Ўзбекистон минтақасида Бактрия, Суғд ва Хоразм каби учта йирик тарихий-маданий ҳудуд шаклланиши даври.

*Иккинчи давр* - милоддан аввалги I минг йилликнинг I ярми, яъни илк давлатчилик тузилмалари даври санъати.

*Учинчи давр* - милоддан аввалги IV асрдан милодий IV асрга қадар, яъни эллинизм билан боғлиқ бадий маданиятнинг юксалиш даври,

<sup>1</sup> Авдеева Л. Традиции и новаторство в узбекской хореографии. Автореферат дисс. насоиск. канд. искусств. – Ташкент: 1965. – 104 с.

<sup>2</sup> Ҳамраева Г.Р. Общие законы сценической хореографии и национальный образ танца: на примере анализа программы ансамбля «Баҳор». дис...канд.наук.искусств.– Ташкент: 1986. – 164 с.

<sup>3</sup> Литвинова Т.Г. Формирование каракалпакского народно-сценического танца. дис...канд.наук.искусств.– Ташкент: 1987. – 140 с.

<sup>4</sup> Исроилов М. В. Уйгурский танец на территории Средней Азии и Казахстана. дис...канд.наук.искусств.– Ташкент: 1991. – 155 с.

*Тўртинчи давр* - V - VIII асрлар, яъни илк ўрта аср маданияти даври.

*Бешинчи давр* - IX - XIII асрлар, яъни Моварроунахр давлатлари маданияти ва санъати.

*Олтинчи давр* - XIV - XVI аср бошланиши, яъни Амир Темур даври санъати.

*Еттинчи давр* - XVII аср - XIX асрнинг биринчи ярми - ўзбек хонликлари, яъни Хоразм, Бухоро ва Қўқон хонликлари санъати.

*Саккизинчи давр* - XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг охири, яъни Туркистон ўлкаси Россия таркибига, сўнг совет давлати таркибига кирган даври.

*Тўққизинчи давр* - 1991 йилдан - мустақил Ўзбекистон даври санъати.

Ўзбекистон театршунослигида ўзбек театр санъати тарихини даврлаштириш масалалари билан етакчи олимлардан М.Р.Раҳмонов, М.Ҳ.Қодиров, Л.А.Авдеевалар шуғулланишган. Академик М.Р.Раҳмоновнинг археологик топилмалар, тарихий ва филологик манбаларга, тасвирий ва амалий санъат ёдгорликларига, фольклор ва ёзма асарларга асосланиб, “Ўзбек театри тарихи” каби тадқиқотларида қадимий анъаналарга эга бўлган ўзбек театрига мураккаб тарихий-бадий тизим сифатида ёндошиб, унинг 2,5 минг йиллик тарихга эга эканлигини аниқлаган.

М.Р.Раҳмонов тадқиқотларида сўз, ҳатти-ҳаракат, мусиқа, кўшиқ, рақс, пластикани ўзида мужассамлаган ўзбек театр санъати ривожланиши тарихи қўйидаги олти даврага тақсимланади:

Биринчи давр - м.а. I минг йиллик - м.а. IV аср.

Иккинчи давр - Ўрта Осиёда эллинистик театр даври м.а. III аср - м. IV аср.

Учинчи давр - илк ўрта аср театри - V - IX аср.

Тўртинчи давр - ривожланган феодализм даври театри - IX - XVII асрлар,

Бешинчи давр - XVIII аср - XIX аср охири театри.

Олтинчи давр - XX аср бошланиши - янги ўзбек театрини вужудга келиши.

М.Т.Тўлаҳўжаева фикрича, мазкур даврлаштириш тизими асосида ўзбек рақс санъати тарихини ҳам даврлаштириш мумкин. Ҳақиқатдан ҳам ўзбек рақс санъати тарихини ўрганиш давомида ушбу даврлаштириш тизими мос эканлиги ўрганилди. Аммо XX асрни қамраб олган олтинчи давр ушбу тадқиқотда ўзбек профессионал рақс санъати вужудга келиши ва ривожланиши даври деб белгиланди.

XX асрда профессионал ўзбек рақс санъати қўйидаги даврларда шаклланиб, ривожланди:

- шаклланиш даври (1920-1940 йиллар);
- ривожланиш даври (1940-1990 йиллар);
- тараққиёт даври (Мустақиллик даври)

### Мустақиллик даври (1991-2021 йиллар)

- Мустақилликнинг биринчи ўн йиллиги (1991-2001 йиллар);
- Мавжуд ансамблларнинг тугатилиши ва янги ансамблларнинг пайдо бўлиши (2003-2011 йиллар);
- Ўзбек рақс санъатида янги, ёш ансамблларнинг ташкил этилиши (2011-2017 йиллар);
- Миллий рақс санъатида уйғониш даври пойдеворининг яратилиши (2017-2021 йиллар)

Мустақиллик даврида миллий рақс санъатини илмий жиҳатдан ўрганиш жараёни қисқа хронологияси қуйидаги воқеалардан иборат бўлди. “Баҳор” ансамбли раққосаларидан бири Гулсум Ҳамраева 1986 йилда ““Баҳор” ансамбли фаолияти ҳақида (1957-1077 йиллар дастурлари таҳлили мисолида)” мавзуида, М.Исроилов 1991 йилда “Ўзра Осиё ва Қозоғистон ҳудудларида уйғур рақслари” мавзуида номзодлик диссертацияларини ҳимоя қилишди. Афсуски бугунги кунгача хореография санъати муаммолари ҳақида бошқа номзодлик ёки докторлик диссертациялари ҳимоя қилинмади.

Л.Авдеева ва Р.Каримова Санъатшунослик институти “Театр ва хореография” бўлимида олиб борган илмий фаолиятлари мобайнида ўзбек хореография санъати амалиётини мунтазам равишда жонланиб туриши учун улкан ҳисса қўшган. Уларни илмий-амалий қўлёзма рисоалари, монографиялари анъанавий профессионал санъатнинг бадиий услубларини, рақс суръати ва сийратини ёритишга бағишланганлиги билан аҳамиятлидир.

2001 йилда Санъатшунослик илмий тадқиқот институти томонидан Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган “Ўзбекистон санъати” (1991-2001 йиллар) тўплами нашр этирилди. Мазкур китобда “Опера ва балет”, “Рақс санъати” мақолалари тарихий нуқтаи назардан пухта ёзилган ва талайгина мисоллар билан бойитилган. “Рақс санъати” мақоласининг бир қисми Ўзбекистон вилоятлари ҳудудларидаги фольклор-этнографик ансамбллар таркиби, репертуарига бағишланган бўлса, қолган қисмида “Тановар” рақс театри ижодиги бағишланган ва бу ижодий гуруҳ спектакллари, рақс дастурлари атрофлича таҳлил этилган.

2008-2009 йилларда Санъатшунослик институтида М.Тўлаҳўжаевани (Фан ва технологияларни ривожлантириш қўмитаси) гранти асосида нашр этилган “Зрелищные искусства Узбекистана в системе художественной культуры Узбекистана XX века” тўпламини 1.2 жилдларида “бу танқид эмас, лекин таъкидлаш жоизки тетар, кино, сценография ва цирк тарихи, ўзига хос

хусусиятлари ёритилган, лекин хореография мутахассислари бўлмагани учунми рақс санъати ҳақида мақола йўқ”-деган эди<sup>5</sup>.

2012 йилда “Санъат” нашриёти томонидан “Баҳор” ансамблининг истеъдодли раққосаси Г.Ҳамраеванинг “Рақсинг миллий қиёфаси” (Национальный образ танца) монографияси ўзбек ва рус тилларида нашр этилган.

2009 йилдан бошлаб Тошкент давлат миллий рақс ва хореография олий мактабида ўтказилган хореография санъати ва таълим методикасига бағишланган илмий-амалий конференцияларда қатнашган педагоглар, илмий ходимлар, магистрлар истеъдодли талабаларнинг маърузалари нашр этиб келинган. 2012 йилда ўтказилган Республика илмий-амалий конференция мавзуси “Глобаллашув жврвёнидахореография санъати соҳасида миллийликни сақлаш муаммолари”<sup>6</sup> деб номланган.

2014 йилда нашр этилган тўплам таркибига “М.Турғунбоева ижоди ва унинг ўзбек сахна хореографияси ривожини учун қўшган ҳиссаси”<sup>7</sup> мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари киритилган.

2015 йилда нашр этилган тўплам таркибига “Ўзбек хореографияси санъатида ворислик масалалари”<sup>8</sup> конференция материаллари киритилган.

2016 йилда нашр этилган тўплам таркибида “Ўзбекистон хореография санъати: анъана ва замонавийлик”<sup>9</sup> мавзусига бағишланган конференция материаллари киритилган бўлиб, мазкур тўпламда хореография санъатига эндигина кириб келаётган ёш олимларнинг соҳага оид қатор фикр-мулоҳазалари баён этилган.

2017 йилда нашр этилган тўплам таркибида “Ўзбекистонда хореографик таълимни замонавий ҳолати ва ривожланиш истиқболлари”<sup>10</sup>, 2018 йилда эса “Ўзбекистонда миллий рақс ва хореография таълимининг долзарб масалалари”<sup>11</sup> мавзуларига бағишланган конференция материаллари киритилган.

<sup>5</sup> Т.Юлдашев. Ўзбек рақсшунослиги тарихига бир назар. “Ўзбекистонда рақс санъати ривожини ва истиқболлари: ижтимоий жараёнлар” II-Республика илмий-амалий конференцияси материаллари., Т.,2019. 19-б.

<sup>6</sup> Глобаллашув жврвёнидахореография санъати соҳасида миллийликни сақлаш муаммолари. (Илмий-амалий анжуман материаллари). Т., 2012. 180 б.

<sup>7</sup> Мукаррама Турғунбоева ижоди ва унинг ўзбек сахна хореографияси ривожини учун қўшган ҳиссаси. (Илмий-амалий анжуман материаллари). Т., 2014. 238 б.

<sup>8</sup> Ўзбек хореографияси санъатида ворислик масалалари (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Вопросы преемственности в узбекском хореографическом искусстве (Сборник материалов республиканской научно-практической конференции). Т., 2015. 224 б.

<sup>9</sup> Ўзбекистон хореография санъати: анъана ва замонавийлик. (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Т., 2016. 171 б.

<sup>10</sup> Ўзбекистонда хореографик таълимни замонавий ҳолати ва ривожланиш истиқболлари. (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Т., 2017. 186 б.

<sup>11</sup> Ўзбекистонда миллий рақс ва хореография таълимининг долзарб масалалари. (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Т., 2018. 200 б.

2019 йилда нашр этилган тўплам “Ўзбекистонда рақс санъати ривожланиши ва истиқболлари: ижтимоий жараёнлар”<sup>12</sup> деб номланиб, унинг 19-20 саҳифаларида санъатшунослик фанлари номзоди Тоҳир Юлдашев томонидан мустақиллик даврида хореография санъатини илмий жиҳатдан қандай ўрганилганлиги ёритилган.

2020 йилдан бошлаб Ўзбекистон хореография академиясида ўтказилган хореография санъати ва таълим методикасига бағишланган илмий-амалий конференциялар халқаро миқёсда ўтказиладиган бўлиб, I-Халқаро илмий-амалий конференция “Марказий Осиё халқларининг маданий ҳамкорлик истиқболлари”<sup>13</sup> деб номланган. Мазкур конференция пандемия шароити туфайли онлайн тарзда ўтказилиб, унда дунёнинг кўплаб мамлакатларида айнан хореография санъати соҳасида фаолият юритаётган педагоглар, илмий ходимлар, магистрлар истеъдодли талабалар иштирок этдилар.

Мустақилликка эришилганидан сўнг, Хореография санъатига ихтисослаштирилган таълим муассасаларини илғор жаҳон тажрибалари асосида яратилган янги авлод дарслик, ўқув қўлланмалари ҳамда даврий нашрлар билан тизимли таъминлаш мақсадида жуда кўплаб ўқув адабиётлари нашр этилди. Аввалари миллий рақс санъати бўйича ўқув дарсликлари жуда камлиги боис, бугун хореография академиясининг мутахассислик фанлари бўйича деярли барча ўқув адабиётлари яратилди. Буларга мисол, К.С.Сагатов ҳамда М.Мухамедовалар томонидан “Ўзбекистон маданияти ва санъатининг фидойилари”<sup>14</sup> ўқув-услубий қўлланмасида миллий рақс санъатига бугунги кунга қадар ўз хиссасини қўшиб келган ўзбек рақс санъатининг асосчилари, раққос-раққосалар, балетмейстерлар ва айнан ушбу соҳада таълим бераётган профессор-ўқитувчиларнинг ижодий фаолиятларига бағишланган бўлса, О.К.Комарова “Методика преподавания народного-сценического танца”<sup>15</sup>, А.А.Магдиева “Методика изучения народного-сценического танца”<sup>16</sup>, К.Б.Ибрагимова “Методика изучения исторического-бытового танца”<sup>17</sup>, К.С.Сагатов “Методика преподавания классического танца (мужской класс)”<sup>18</sup>,

<sup>12</sup> Ўзбекистонда рақс санъати ривожланиши ва истиқболлари: ижтимоий жараёнлар. (II-Республика илмий-амалий конференцияси материаллари). Т., 2019. 188 б.

<sup>13</sup> Марказий Осиё халқларининг маданий ҳамкорлик истиқболлари. I-Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Т., 2020. 504 б.

<sup>14</sup> Сагатов К.С., Мухамедова М. “Ўзбекистон маданияти ва санъатининг фидойилари” (Ўқув-услубий қўлланма). –Т.: “Наврўз” нашриёти, 2019 йил. 156 бет.

<sup>15</sup> Комарова О.К. “Методика преподавания народного-сценического танца” (Учебное пособие). – Т.: Изд. “Наврўз”. 2019 г. 312 стр.

<sup>16</sup> Магдиева А.А. “Методика изучения народного-сценического танца” (Учебное пособие). – Т.: Изд. “Наврўз”. 2019 г. 400 стр.

<sup>17</sup> Ибрагимова К.Б. “Методика изучения исторического-бытового танца” (Учебное пособие). – Т.: Изд. “Наврўз”. 2020 г. 178 стр.

<sup>18</sup> Сагатов К.С. “Методика преподавания классического танца (мужской класс)” Учебное пособие – Т.: Изд. “Наврўз”. 2020 г. 180 стр.

Р.Р.Искандарова “Классик рақс”<sup>19</sup>, А.И.Ешимбетованинг “Халқ сахна рақсини ўқитиш услубиёти”<sup>20</sup> каби ўқув қўлланмалари нашр этилди.

Миллий рақс санъатида юқори малакали кадрларни тайёрлаш ва уларни соҳадаги асосий адабиётлар билан таъминлаш мақсадида Ў.Мухамедова “Ўзбек рақсини сахналаштириш амалиёти”<sup>21</sup>, Л.Н.Насибулина “История узбекского хореографического искусства”<sup>22</sup>, М.М.Махмудова “Ўзбек рақсини ўқитиш услубиёти”<sup>23</sup>, Г.Н.Усманова “Ўзбек рақсини ўрганиш услубиёти (Бухоро рақс мактаби)”<sup>24</sup>, З.К.Фазлиева “Ўзбек рақсини ўрганиш услубиёти (Фарғона рақс мактаби)”<sup>25</sup>, Ш.Ш.Жалилова “Ўзбек рақсини ўқитиш услубиёти”<sup>26</sup>, Э.Я.Саитова “Ўзбек рақсини ўрганиш услубиёти (Сурхон рақс мактаби)”<sup>27</sup>, Э.Я.Саитова “Ўзбек рақсини ўрганиш услубиёти (Уйғур рақс мактаби)”<sup>28</sup>, Д.М.Абдухакимова “Рақс композицияси асослари”<sup>29</sup> ҳамда Г.Н.Усманованинг “Рақс композицияси асослари”<sup>30</sup> каби асосий мутахассислик фанларига оид ўқув қўлланмалари нашр этилди.

Миллий рақс санъати мустақилликнинг дастлабки йилларида амалий ва услубий жиҳатдан ўрганилиши куйидаги воқеалардан иборат бўлди. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон халқи ҳаётининг барча соҳаларида бўлгани каби маданият ва санъат йўналишларида ҳам янги, тарихий туб ислохотлар амалга оширилиши кенг йўлга қўйилди. Бу борада улкан тарихий ва жаҳоншумул ишлар амалга оширилди. Жумладан:

– Халқимизнинг тарихий хотираси тикланди ва буюк аждодларнинг юбилейлари ташкил этилиб, тарихий сиймолар хореографик спектаклларида ўз аксини топа бошлади;

– Совет даврида тақиқланган асори-атиқалар, маданий мерос, кадриятлар миллий-тарихий онгни шакллантиришга йўналтирилди, бу айниқса, Наврўз тўй-томоша, сайлларидаги фольклор-этнографик ўйинлар, рақс асарлари билан қоришиб, профессионал сахна кўринишида намоён бўлди;

<sup>19</sup> Искандарова Р.Р. “Классик рақс” (Ўқув қўлланма). –Т.: “Наврўз” нашриёти, 2021., 200 бет.

<sup>20</sup> Ешимбетованинг А.И. “Халқ сахна рақсини ўқитиш услубиёти” (Ўқув қўлланма). –Т.: “Наврўз” нашриёти, 2020 йил. 74 бет.

<sup>21</sup> Мухамедова Ў.Н. Ўзбек рақсини сахналаштириш амалиёти. Дарслик. –Т.: “Наврўз” нашриёти, 2020., 480 б.

<sup>22</sup> Насибулина Л. История узбекского хореографического искусства. Учебное пособие. – Т.; Издательство “Наврўз”, 2019 г. 266 стр.

<sup>23</sup> Махмудова М.М. Ўзбек рақсини ўқитиш услубиёти. Ўқув қўлланма. – Т.; “Наврўз” нашриёти, 2020. 100 бет.

<sup>24</sup> Усманова Г.Н. Ўзбек рақсини ўрганиш услубиёти (Бухоро рақс мактаби). Ўқув қўлланма. – Т.; “Наврўз” нашриёти, 2020. 208 бет.

<sup>25</sup> Fazliyeva Z.K. O'zbek raqsini o'rganish uslubiyyoti (Farg'ona raqs maktabi). O'quv qo'llanma. –Т.: “Наврўз” нашриёти, 2020. 116 бет.

<sup>26</sup> Жалилова Ш.Ш. Ўзбек рақсини ўқитиш услубиёти. Ўқув қўлланма. – Т.; “Наврўз” нашриёти, 2020. 104 бет.

<sup>27</sup> Саитова Э.Я. Ўзбек рақсини ўрганиш услубиёти (Сурхон рақс мактаби). – Т.; “Наврўз” нашриёти, 2020. 130 бет.

<sup>28</sup> Саитова Э.Я. Ўзбек рақсини ўрганиш услубиёти (Уйғур рақс мактаби). – Т.; “Наврўз” нашриёти, 2020. 90 бет.

<sup>29</sup> Абдухакимова Д.М. Рақс композицияси асослари. Ўқув қўлланма. –Т. “Наврўз” нашриёти, 2019. 87 б.

<sup>30</sup> Усманова Г.Н. Рақс композицияси асослари. Ўқув қўлланма. –Т. “Фан зиёси” нашриёти. 2021. 140 б.



– Халқимиз ўз миллий тилига эгалик ҳуқуқини қўлга киритди, эндиликда мустақил бўлган давлат ўз она тилида ку йланган миллий куй-қўшиқ, ўлан-лапар, яллаларига эга бўлиб, уларга мос янги рақс композицияларини ҳамда рақс сюиталарини яратиш имкониятига эга бўлди;

– Миллий онг, миллий руҳ, диний эътиқодлар, халқ одатлари тикланди;

– Халқ ижоди, миллий ўйин ва рақслар, тарихий меъморчилик санъати, кўпгина анъанавий ижод турларига яна ҳаёт бахш этилди. Халқ одатлари, маросимлари ва байрамлар, айниқса миллий байрамларимиз тикланди; (Наврўз, Рўза ҳайити, Қурбон ҳайити) янги байрамлар (Мустақиллик куни, Ўқитувчилар куни, Хотира ва қадрлаш, Конституция, тил байрами кабилар) жорий этилиб, халқ маънавий ҳаётига янги руҳ ва мазмун бағишлади. Албатта, жорий қилинган мазкур маросим ва байрамларда бошқа санъат турлари каби хореография санъати етакчилик қилиб, ўзбек рақс санъатига янги услуб ва шакллар киритилишига, янги рақс асарларининг яратилишига тurtки бўлди.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида Республикамизда маданият соҳасининг янги тизими вужудга кела бошлади. Жумладан, Республика “Маънавият ва маърифат” кенгаши, “Таълим маркази”, “Ўзбекино”, “Ўзбекнаво”, “Ўзбекрақс”, “Ўзбекмузей”, “Ўзбектеатр”, Бадий академия, Миллий маданий марказлар каби кўплаб маданий-маърифий ташкилотларнинг тузилиши республика маънавияти асосий соҳаларининг равнақ топишига замин бўлди. Хуллас, мустақиллик шарофати билан халқ ижодининг ранг-баранг турларининг тикланиши халқимизнинг тарихий онги, миллий маънавиятини шакллантириш ва равнақ топтиришда муҳим омил бўлди.

Мустақиллик йилларида ҳар бир санъат тури ўз ривожланиш йўлини топиб олди десак хато қилмаган бўламиз. Хусусан, ушбу даврда рақс санъатида юксалиш ва эришилган ютуқлар, кўплаб ансамблларнинг ташкил этилиши кишини қувонтиради. Негаки ансамбллар ўртасида ижодий рақобатнинг юзага келиши натижасида рақснинг барча турлари ривожланишига ҳамда жаҳон сахналарида муносиб ўрин эгаллашига тurtки бўлганини кузатиш мумкин. Уларнинг ҳар бири ўзининг дастури, йўналиши ва услубига эга. Концерт заллари ва турли халқ байрами ва тадбирларини безаб турган, уларнинг жозибадор ва нафосатли ўтишида ушбу ансамбллар самарали меҳнат қилишмоқда. Бироқ улар томонидан амалга оширилган ижобий ишлар фақатгина матбуотдаги оммабоп мақолларда ёритилаётганини таъкидлашимиз жоиз. Бугунги кунда рақс ансамбллари фаолияти илмий тадқиқотчи, рақсшунослар томонидан ўрганилмаганлиги, ансамбллар ижоди ҳақида етарли илмий манба, каталог, буклет нашр қилинмаган.

Мустақил Ўзбекистон қанчадан-қанча давлатлар билан дипломатик алоқалар мезонида ўтказилган тадбирларнинг барчасида ўзбек рақс

ансамбллари ўзларининг гўзал миллий рақсларини намойиш этиб келишган ва бу ҳол тинимсиз равишда давом этиб келмоқда. Фикримизча, рақс ансамбллариининг давлат тадбирлари ва фестивалларда қатнашиш жараёнини ва балетмейстерларимиз томонидан яратилаётган турли рақс асарларини илмий таҳлил этиб, тарих зарварақларида қолдирмоғимиз лозим. Юртимизда жуда кўп балетмейстерлар, раққос-раққосалар ижод қиладилар ва кўплаб рақс асарлари яратадилар. Ҳар бир байрамда камида 60 дан зиёд рақс асарлари сахналаштирилди. Мустақилликнинг илк кунларидан то шу кунгача бўлиб ўтган давлат тадбирлари-ю, бошқа фестивалларга камида 200 дан зиёд раққос ва раққосалар ва 10 дан ортиқ балетмейстерлар жалб этилди.

Мустақилликка эришганимизга мана ўттиз йил бўлган бўлсада, бу балетмейстер, раққосаларнинг ижоди ва уларнинг сахналаштирган рақс асарларини бирор-бир рақсшунос ёки шу соҳанинг мутахассиси ёритиб ўтмади. Бу эса халқ орасида мустақиллик даврида миллий рақс санъатида ҳеч қандай ўзгариш бўлмаган деган фикр туғдирди. Авваллари ҳар бир балетмейстер ва раққосанинг ижодини ёритиб ўтадиган фильмлар суратга олинган. Ҳатто аввалги ўзбек филмларида ҳам раққосаларга алоҳида урғу берилган. Аммо бугун шунча кино-филмлар суратга оладиган замонавий техника воситалари бўлса ҳам бугунги кунда ушбу соҳа яхши ёритилмаётгани тадқиқот давомида маълум бўлди.

Хореография соҳасидаги мана шу муаммоларни ҳал қилиш мақсадида бугунги кунда Президентимиз Ш.Мирзиёев томонидан кўплаб Қарор ва Фармонлар доирасида юртимизда хореография санъатида ижод қилаётган ва илмий изланишлар олиб бораётган ёш тадқиқотчиларимизга кенг йўл очилди. Уларга давлатимиз томонидан турли хил грантлар ҳам ажратилмоқда. Аста-секин ўқув адабиётлари, турли рақс мактабларига бағишланган китоблар, ўқув қўлланма ва монографиялар чоп этилиши йўлга қўйилди.

Ўзбек рақс санъатини ривожлантириш йўлида мутасадди ташкилотлар ҳамда соҳа мутахассислар янгидан-янги инновацион лойиҳалар устида изланмоқда. Бунга мисол сифатида Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигининг ФЗ - 202001063 рақамли "Хореографик терминлар изоҳли луғати ва унинг мультимедиа шаклини яратиш" мавзусидаги амалий тадқиқотдир. Бу тадқиқот 2020 йилнинг апрель ойидан - 2021 йилнинг март ойларида олиб борилди. Мазкур лойиҳанинг раҳбари ЎзДХА профессори, филология фанлари номзоди Равшан Жомоновдир. Ушбу лойиҳа жараёнида ўзбек рақс санъатида мавжуд рақс мактабларининг асосий қўл, оёқ ҳолат ва ҳаракатлари учта тилга: ўзбек, рус ва француз тилига таржима қилинди. Бугунги кунга қадар мазкур ҳаракатлар, фақат рус тилида акс эттирилган эди. Бундан ташқари мазкур лойиҳа давомида ўзбек алифбоси тартибида барча

Ўзбек рақс ҳаракатларининг номланиши, қандай ижро этиш услуби жойлаштирилган. Энг асосийси ҳаракатларнинг видео дарслиги ҳам тайёрланди. Бу ўзбек рақс санъатида эришилган катта ютуқлардан бири десак, муболаға бўлмайди.

Бундай лойиҳалардан яна бири Ўзбекистон давлат хореография академияси ўқитувчиси Ш.Худойназарова томонидан яратилган бўлиб, лойиҳа Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигининг С-202003161 рақамли "Хореография санъати орқали имконияти чекланган болаларнинг жамиятдаги фаоллигини ошириш" мавзусидаги инновацион лойиҳаси ҳисобланади. Лойиҳанинг асосий мақсади имконияти чекланган болаларда хореографик машғулотлар ўтиш орқали уларнинг жамиятдаги ўрнини, фаоллигини ҳамда ўзига бўлган ишончини янада оширишга ёрдам бериш. Бугунги кунда мазкур лойиҳа устида лойиҳа раҳбари алоҳида ишчи ўқув дастурлар тайёрлаб, имконияти чекланган болаларга бепул дарслар ташкил қилмоқда.

Ўзбекистон давлат хореография академияси талабалари томонидан ҳимоя қилинаётган курс ишлари, битирув малакавий ишлар, магистрлик диссертацияларида мазкур муаммолар ёзилиб, муаммонинг ечими ҳам ёритилмоқда. Ўйлаймизки, энди рақсшунос олимларимиз сони ортиб боради, улар ўз ишларини пухта ўрганиб, докторлик диссертацияларини ҳам ҳимоя қиладилар ва мустақил Ўзбекистонимизда ижод қилаётган ва бу соҳадаги барча ўзгаришларни ёритадилар.

Изланишимиз натижасида рақсшунос олимларнинг илмий манбалари, ўзбек рақс маданиятига оид илмий рисоалари услубий асос вазифасини ўтади. Шу туфайли қадимдан ўз кучини йўқотмай келаётган амалиёт ва назария билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, тарихий йўл, тажрибалар илмий таҳлил қилинишини талаб қилишини изоҳлаш, шу нуқтаи назардан ёндошиб, миллий ва замонавий ўзбек рақс гуруҳлари фаолиятини назарий асослаш талаб этилади. Рақс соҳасига оид қатор адабиётлар ва илмий мақолалар чоп этирилган бўлса-да, ҳали қилиниши лозим бўлган ишлар талайгина. Ҳар бир балетмейстерларнинг ўз услубини, раққос-раққосаларнинг ижодий фаолиятини, рақс ансамбли ёки концерт номерларини таҳлил қилиш, унга илмий ёндашиш, илмий умумлашма ва хулосалар бериш орқали соҳани ривожлантириш амалий аҳамият касб этиши мумкин.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. И.В. Смирнов Искусство балетмейстера. М.: Искусство, 1986-192с.10 ст
2. Захаров Р. Записки балетмейстера. - М.: Искусство, 1976. -351 с.

3. Авдеева Л.А. Танцевальное искусство Узбекистана -Т.: Государственное издательство художественной литературы Узбекской ССР, 1966. 192-Б.

4. Каримова Р. Бухарский танец (методическое пособие). -Т.: Издательство литературы и искусства имени ГафураГуляма, 1977. 128-Б. 5. Каримова Р. Узбекские танцы в постановке ИсахараАкилова-Т.: Издательство литературы и искусства имени ГафураГуляма, 1987. 398-Б.

## MADANIYAT SOHASIDA SAN'AT VA XALQ OG'ZAKI IJODI SOHALARINI O'ZLASHTIRISH

Gulbaxor Eshbaeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

**Annotatsiya:** Madaniyat yoshlarni chinakam san'at va go'zallik ruhida tarbiyalash maskaniga aylanishi kerak. Biz shuni bilishimiz kerakki, yoshlar ma'naviy qabr ruhida fikr yuritadi, albatta, komil inson g'oyasi va uning milliy va umuminsoniy va umuminsoniy ma'nosi.

**Ka'lit so'zlar.** Madaniyat, boshqaruv jarayonlari, muzeylar, istirohat bog'lari, tadbirkorlik

## DEVELOPMENT OF ART AND FOLK CREATIVITY IN THE FIELD OF CULTURE

Gulbahar Eshbayeva

Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** Culture should become a place for educating young people in the true spirit of art and beauty. We need to know that young people think in the spirit of the spiritual grave, of course, the idea of a perfect man and his national and universal and universal sense.

**Keywords:** Culture, management processes, museums, parks, entrepreneurship

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Xalq bilan gaplashish, odamlarning ishiga kirish, ularning dardi bilan shug'ullanish, kadrlar bilan ta'minlash biz uchun faqat yillik vazifa emas, hamisha bizning vazifamiz", degandi.[1.B.32]

Boshqaruv texnikasi - Bu boshqaruv jarayonida o'qitish, tadbirkorlikni kompleks sifatida amalga oshirish usullari va vositalarining yig'indisidir. Boshqaruv usullari va boshqaruv jarayonlari bir-biridan alohida. Boshqaruv usullari nazorat ob'ektiga ta'sir qilishning murakkab jarayonini ta'minlaydi. Ish usullari - bu boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish uchun har qanday bo'lim yoki boshliqning bo'ysunuvchilariga aniq va samarali ta'sir ko'rsatish usullari va usullari to'plami. Masalan, davlat boshqaruvining ish uslublari va boshqalar. Turli darajadagi boshqaruv organlari va boshqaruvchilarning ishlash usullari har xil. Nihoyat, ish usullari ko'p qirrali xususiyatga ega.

Mamlakatimizda qanday huquqiy asos bo'lishidan qat'i nazar, barcha to'garaklar barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilganini inobatga olsak, bu

to'garaklarga odamlarni, xususan, yoshlarni keng jalb etish, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda to'garakka jalb etish ishlari mamlakatimizda har tomonlama komil shaxsni kamol toptirish bo'lgan keng ko'lamli tadbirkorlik faoliyatida talab darajasida bo'la olmadi.

Madaniyatning yangi avlodi mafkurani shakllantirish, xalqimiz ongiga singdirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bunda teatrlar, kutubxonalar, klublar, madaniyat uylari va madaniyat saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa ob'yektlardan keng foydalanish, odamlarning dunyoqarashini kengaytirish, odamlarga ruhiy-ma'naviy ko'rinish berish kiradi.

Milliy xolislik mafkurasi tamoyillarida ta'kidlanganidek, milliy xolislik mafkurasining mazmun-mohiyati madaniyat kontekstida har xil konferensiya, davra suhbatlari, munozaralar, madaniyat kontekstidagi milliy xolislik mafkurasining mazmun-mohiyati har xil mavzu bo'lib hisoblanadi. munozaralar, bahslar.[2.B.90-91]

Madaniyat yoshlarni chinakam san'at va go'zallik ruhida tarbiyalash maskaniga aylanishi kerak. Biz shuni bilishimiz kerakki, yoshlar ma'naviy qabr ruhida fikr yuritadi, albatta, komil inson g'oyasi va uning milliy va umuminsoniy va umuminsoniy ma'nosi. Erkin fuqarolik jamiyati ma'naviy barqarorligiga, farovon hayot g'oyalariga ega bo'lganlarga yaratilishi mumkin.

Mafkura inson ruhiyatini, tafakkurini, dunyoqarashini o'zgartiruvchi kuchli vositadir. Uning g'oyalari xalq e'tiqodi, orzu-intilishlari, qadriyatlarini ifodasiga aylansagina o'z samarasini beradi. Shu boisdan ham mafkura sohasidagi madaniy-ma'rifiy makonlarga targ'ibot va tarbiya ishlarining darajasi, fuqarolarning tushunchasi, aql va tafakkur darajasini hisobga olgan holda ta'limning ham yo'llari, ham vositalari orqali erishish mumkin. Boshqacha aytganda, ma'naviy barkamol inson tarbiyasi davlatni isloh qilishning asosiy omili hisoblanadi.

Yoshlarning madaniy bo'sh vaqtlari ularning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, o'rganish va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatning yig'indisidir. Odamlar bilan ishlashga taklif etilgan madaniyat-ma'rifiy xodimni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Madaniyat va maorif xodimlari xalqqa xizmat qiladi. Xalq madaniyatini saqlaydi, yangi madaniyat va dam olishning paydo bo'lishida, san'at asarlari yaratilishidagi roli katta. Ular jamoat xavfsizligi havaskorlik san'atini o'rganish va rivojlantirish, uning ijrosini ko'rish hisoblanadi.

Mamlakatimizda qanday huquqiy asos bo'lishidan qat'i nazar, barcha to'garaklar barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilganini inobatga olsak, bu to'garaklarga odamlarni, xususan, yoshlarni keng jalb etish, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda to'garakka jalb etish ishlari mamlakatimizda har tomonlama komil shaxsni kamol toptirish bo'lgan keng ko'lamli tadbirkorlik faoliyatida talab darajasida bo'la olmadi.

Madaniyatning yangi avlodi mafkurani shakllantirish, xalqimiz ongiga singdirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bunda teatrlar, kutubxonalar, klublar, madaniyat uylari va madaniyat saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa ob'yektlardan keng foydalanish, odamlarning dunyoqarashini kengaytirish, odamlarga ruhiy-ma'naviy ko'rinish berish kiradi.[3.B.89]

Madaniyat yoshlarni chinakam san'at va go'zallik ruhida tarbiyalash maskaniga aylanishi kerak. Biz shuni bilishimiz kerakki, yoshlar ma'naviy qabr ruhida fikr yuritadi, albatta, komil inson g'oyasi va uning milliy va umuminsoniy va umuminsoniy ma'nosi. Erkin fuqarolik jamiyati ma'naviy barqarorligiga, farovon hayot g'oyalariga ega bo'lganlarga yaratilishi mumkin.

Madaniyat sohasidagi ta'lim usuli maktab va universitetlarda qabul qilingan ta'lim usulidan butunlay farq qiladi. Madaniyat sohasidagi milliy g'oyaviy tarbiya ishlari buyuk pedagogning ta'lim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Madaniyat sohasida tarbiyaviy ishlarni olib borishda saroyga tashrif buyuruvchilarning sifatiga tayanadi. Sababi, bu odamlar ijtimoiy jihatdan kelgan. Kishilar maktab va ta'lim muassasalariga bilim olish, kasb-hunar o'rganish, qandaydir qanoat topish, hayot ehtiyojlarini qondirish uchun keladi.

Natijada, ularda ilmiy amaliyotda deyarli bir xil qiziqish, maqsad va qiziqishlarga ega bo'lgan odamlar qatnashadi.

Madaniyat sohasidagi ta'lim faoliyati uning ishtirokchilari uchun uzluksiz emas. Buning sababi shundaki, ularning ishtirokchilari doimo o'zgarib turadi.

Bir muolajada qatnashgan shaxs boshqa muolajada qatnasha olmaydi. Shuning uchun ular odamlarga uzluksiz tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish ehtimoli ko'proq.

Madaniyat sohasidagi tarbiyaviy ishlar ta'lim-tarbiyaga muhtoj kishilarning ijodiy g'ayratiga, ularning mehnatiga daxldorlarning mehnatsevarligiga asoslanadi.

Madaniy tadbirning har bir ishtirokchisi tarbiyachida ham, tarbiyachida ham tarbiyachi sifatida ishtirok etish imkoniyatiga ega deb hisoblanadi. Ta'lim muassasasida tarbiyaviy ta'sir ob'ekti o'quvchilar bo'lib, ularni faqat tarbiyachi sifatida ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda madaniyat markazining eng muhim vazifasi yoshlarning madaniy hordiq chiqarishini integratsiyalashgan holda tashkil etishdan iborat. Jamoatchilikni xushnud etish maqsadida ushbu tadbirlar barcha bo'sh vaqtlarimizni bo'sh vaqtimizda mazmunli o'tkazishga xizmat qiladi. Madaniy-ma'rifiy kasb ham inson faoliyatining barcha jabhalari kabi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ulardan eng ajralib turuvchisi ijtimoiy-ma'rifiy hayot faoliyati va mamlakatimizning o'ziga xos milliy siyosatidir.

Ta'lim muassasalarida o'quv vazifalari fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Madaniyat-ma'rifat xodimlari esa yoshlarning bo'sh vaqtlarida milliy

g'oya va milliy g'oyalarni rivojlantirish, ularning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ega.[4.B.147]

Qolgan havaskorlik mashg'ulotlari qamoqxonalar va qamoqxonalar orqali tashkil etilgan.

Madaniyat sohasida o'smirlik davrining har bir jihati tarbiyada muhim o'rin tutadi. Mazkur muassasalar faoliyati samaradorligiga erishish "yuqori ma'naviy-axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash" sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Madaniy xizmat va maktab xizmatlarini muvofiqlashtirish har tomonlama barkamol, professional shaxsni shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Shu sababli madaniyatlararo muloqot tizimida o'rta ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qilish yo'llarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Madaniyat yo'nalishida yoshlarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi, bolalar ijodiyoti jamoasi a'zolari ishtirokida bayramlar, konsert va ko'rik-tanlovlar tashkil etilayotgani ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otmoqda.

Madaniyat sohasida ta'lim va kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda qo'shimcha ta'lim muassasalari va shaharlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Nihoyat, mazkur hamkorlik doirasida o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy va shahar ta'lim imkoniyatlari muhokama qilinadi.[5.B.21-22]

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ichki salohiyati va qobiliyatini to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan xolislik sharoitida O'zbekistonda individuallikning boshlanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Nihoyat, shaxs omili boshlanganda, uning ta'lim va ijtimoiylashuvida shaharning ta'lim kuchidan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni bag'rikeng va insonparvar xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va kadrlar bilan ta'minlanishi mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. 2017 yil
3. Abdullayev M. Madaniyatshunoslik.-T .: "Farg'ona", 1998 yil.
4. Abdullayev M., Umarov E., Ashildiyev A., Madaniyatshunoslik.T.: Turon-ig'bal, 2006 yil
5. Karabayev Ol. X. Traditsionnaya narodnaya kultura: tendensii vozrojdeniya i razvitiy. Avtoref. dis. dokt. filos. nauk.-T., 1993.



## DIRIJYORLIK ETISHDA QO‘LLARNING TO‘G‘RI HOLATI

Gulchira Xodjametova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

**Annotatsiya:** Dirijyorning qo‘llariga qo‘yiladigan asosiy talab - ularning to‘la erkinligi, ya’ni tanaga bo‘ysunmasligi va mushaklarning bo‘sh qo‘yilishidir. Erkinlik dirijyorga musiqani oson ifoda etish imkonini beradi. Qo‘llarni erkin tutmaslik esa orkestrga o‘z niyatlarini to‘liq va aniq yetkazishga xalal beradi.

**Ka‘lit so‘zlar:** San’at, dirijyor, orkestr, ansambl, battuta, general-bas, xeyronomiya, avtor, manual, analiz, garmoniya, general repetitsiya, janr, cholg‘ulashtirish, partitura, ritm, transpozitsiya, fermata, liga, fraza, kompozitor.

## CORRECT POSITION OF HANDS WHILE CONDUCTING

Gulchira Khodjametova

Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The main requirement for the conductor's hands is complete freedom, that is, disobedience to the body and relaxation of the muscles. Freedom allows the conductor to express music easily. Not holding hands prevents the orchestra from conveying its intentions fully and clearly.

**Keywords:** Art, conductor, orchestra, ensemble, battuta, general-bass, heironomy, author, manual, analysis, harmony, general rehearsal, genre, instrumentation, partitura, rhythm, transposition, fermata, league, phrase, composer.

Dirijyorning qo‘llariga qo‘yiladigan asosiy talab - ularning to‘la erkinligi, ya’ni tanaga bo‘ysunmasligi va mushaklarning bo‘sh qo‘yilishidir. Erkinlik dirijyorga musiqani oson ifoda etish imkonini beradi. Qo‘llarni erkin tutmaslik esa orkestrga o‘z niyatlarini to‘liq va aniq yetkazishga xalal beradi. Bunday qo‘llar egiluvchan va plastik bo‘lmaydi, ular musiqani ifoda etishga ojizlik qiladi. Ular hatto nigohni ham charchatib qo‘yadi, eng asosiysi - erkin bo‘lmagan qo‘llarning harakatlari tushunarsiz bo‘lib, bu orkestr ishiga yordam o‘rniga, xalal beradi. Odatda bunday qo‘llarning tirsaklari ikki tomonga kerilib, tepaga ko‘tarilgan bo‘ladi.

O‘z qo‘l harakatlarining samarasiz ekanini sezgan bunday dirijyor qo‘llariga «yordam berish» uchun yana tanasi, boshini ishga solib, keraksiz harakatlarni ko‘paytiraveradi.[1.B.78-79]

Sinxron (parallel – qo‘llardagi bir xil harakat) ravishdagi harakatlar, dirijyorning texnik imkoniyatlarini chegaralanganligidan darak beradi. Sinxron harakatlar qoida

bo'yicha, orkesrning umumiy ijrosini baland nuqtalarini (tutti) va asarning avj ijrolarini ko'rsatishda qo'llaniladi. Qo'llarning vazifalarini aniq belgilab olish va uni tajribada qo'llash, avvalo, har bir dirijyorning o'z qobiliyati va asarning xarakteridan kelib chiqadi.



Musiqada berilgan biror aniq holatga ko'ra, o'ng va chap qo'l harakatlari o'z vazifalarini almashtirishi mumkin. Ya'ni, chap qo'l aniq harkatlar bilan ansambl ijrosini ushlab tursa, o'ng qo'l ifodali harakatlar bilan ijrochilarni ruhlantiradi. Masalan: dirijyorning chap tomonida o'tirgan guruhlarda aniq ritmik ijro yoki biror yangi ohangning qo'shilishi natijasida chap qo'l o'ng qo'lning vazifasini bajarishga to'g'ri keladi. Bu vaqtda o'ng qo'l o'z ijro yo'nalishini o'zgartirib, chap qo'lga yordam bergan holda, mustaqil harakatlarini davom ettiradi.

Xuddi shuningdek, kimtinib ishlaydigan dirijyor o'zi ijro etayotgan koncert yoki spektakl «yuki»ni ko'tara olmaydi.

Shu bois o'z faoliyatini endi boshlayotgan dirijyorlar bilan takt mashqlarini o'rganishni va qo'llarni «erkinlashtirish» ishidan boshlaganlari ma'qul. Bugun qo'llar - dirijyor apparatining asosiy va eng muhim qismi ekanligini unutmaslik kerak. Qo'llarning turli holatlari - harakatlari erkinlik, qulaylik, tabiiylik va muhimi ijroga to'g'ri kelish kabi talablarga javob berishi kerak.

Ma'lumki, qo'l kaft, bilak va yelkadan iborat. Dirijyorlik qilishda qo'lning eng harakatchan va ifodali qismi bo'lgan kaft (kist) eng muhim rol o'ynaydi. Kaft bilan organik ravishda bog'langan bilak va yelka yordamchi qismlar bo'lib, harakatda faqat kaftning holatlari uchun xizmat qiladi. Aksariyat hollarda qo'l qismlari o'z holatlarida shunchalik o'zaro bog'liqlik, kaftning eng kichik harakati ham bilak va yelka mushaklari ishtirokini taqozo etadi. Masalan yengil staccato dan pianissimo ga o'tish. [2.B.125]

Dirijyorlik qilishda kaftni pastga qaratib tutish - uning eng qulay holatidir. Bunda kaft bo'shashgan ham qisilgan ham, ortiqcha ko'tarilgan ham bo'lmasdan hamisha oldinga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Barmoqlarni tabiiy ravishda biroz dumaloqroq shaklda bo'lishi buning barobarida ularning erkin holati butun kaftning yetarli darajada erkinligidan dalolat beradi. Kaftning harakatchanligi, elastikligi va

yetarli darajada erkinligi mushaklarning har qanday tez harakatga tayyor turishi bilan muvofiq bo'lmog'i kerak. Kaftning bu jihati dirijyorga qo'l harakati orqali ijroning eng nozik tomonlarini ifoda etish imkonini beradi. Aynan kaft harakatlari dirijyor qo'l harakatlariga asosiy dinamik, emotsional ko'rinish beradi.

Kaft erkinligini o'rganishning dastlabki davridanoq alohida nazorat qilib turish kerak. Shunga tayanib, avval boshidanoq, darhol tayoqcha bilan dirijyorlik qilishga o'tish maslahat berilmaydi, chunki bu kaft mushaklarining zo'riqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Dirijyorlik qilish paytida qo'l holati o'zgarishsiz qolmaydi. Ularning joylashuv balandligi, cho'zilish darajasi doimo o'zgarib turadi. Bu ko'p sabablarga bog'liq. Jumladan, orkestr jarangdorligi dinamikasiga, u yoki bu epizod fakturasiga, muayyan cholg'u yoki guruhlarining ijroga kirishishini ko'rsatishga, asar janriga, uslubiga, masshtabiga, qolaversa, orkestr tarkibining kattaligiga, xor, yakkaxonlar soniga, shu bilan birga orkestr yamasi teatrlarda (orkestr joylashadigan chuqurlik) yoki estrada sahnasida dirijyorlik qilinishiga bog'liq bo'lishi mumkin. Bularning barchasi dirijyor qo'llari holatida aks etadi.[3.B.21]

O'qitish jarayoni avvalida talabalar dastlab rioya qilishi mumkin bo'lgan o'rtacha qo'l holatini belgilash tavsiya etiladi. Tabiiylik, qulaylik maqsadida qo'lning erkinligini ta'minlash va orkestrga ko'rinarli bo'lishi uchun qo'llarni ko'krakdan sal pastroq holatda tutgan ma'qul. Agar qo'l undan yuqoriroq bo'lsa - yelka mushaklari zo'riqadi, aksincha pastroq bo'lganida esa orkestrga ko'rinmaydi. O'rganuvchilar avval butun dirijyorlik apparatini to'g'ri «o'rnatish»ni bilishlari lozim. Shundan keyingina dirijyorlik texnikasini egallashga o'tish mumkin. dirijyorlik apparatini «o'rnatish» qo'l, yelka, bo'yin, bosh mushaklarini bo'shashtirish, erkin tutishdan boshlanadi. dirijyorlikni o'rgatuvchi pedagogning vazifasi avvalo har bir talaba uchun tana, bosh, qo'l va oyoqlarning eng qulay va tabiiy holatini topishdan iborat. Bu bilan talabani qaddi qomatini to'g'ri tutish, asosiy dirijyorlik holatini aniqlashga o'rgatish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, qaddi qomatni to'g'ri tutish nafaqat estetik nuqtai nazardan muhim, balki amaliyot uchun ham zarur. Ma'lumki harakatlarni o'zlashtirish qobiliyati hammada turlicha kechadi. Ba'zilarida osongina uddalansa, boshqalarda jiddiy qunt va sabotni talab qiladi.

Dirijyorning o'ng qo'li hunarmand (mehnatkash ma'nosida), biroq chap qo'li san'atkor. Ushbu ingliz maqoli har ikki qo'lning tub vazifalari to'g'risida ma'lumot beradi. Dirijyor o'ng qo'li bilan takt o'lchovini, ritmni, shuningdek zarur ijro sur'ati (temp), ijroni boshlash va tugatish, frazalarni to'g'ri talqin etish, artikulyatsiya (shtrix) va agogik nozikliklarni ifodalaydi.

Bunday holat ham kuzatilishi mumkin, agar dirijyor chapaqay bo'lsa. Istisno tariqasida dirijyorning chapaqay bo'lishiga ba'zan yo'l qo'yilishi mumkin. Bu holat

orkestr ijrochilariga ma'lum bo'lsa, orkestr bunday dirijyorlarga moslashishi oson kechadi.

Odatda, chap qo'l o'ng qo'l yordamida quyidagi vazifalarni bajaradi: u dinamik tuslar (nyuanlar)ni aniqlashtiradi va musiqachilar tegishli jarayonga tayyor bo'lishi uchun bo'rttiribroq ko'rsatadi.

Bundan tashqari, bu qo'l dirijyorning butun gavda harakatlari bilan birga tegishli Andante lirik yoki ulug'vor, yoki Allegro raqsona yoki chaqqonroq ijro etilishi zarurligini ifodalab beradi. [4.B.252]

Dirijyorning besunaqay, notabiiy, yoki qo'pol harakatlari ijrochilarda zo'riqish va noqulaylik xislarini to'g'irishi mumkin. Muayyan estetik normalarni ham mudom yodda tutish darkorki, dirijyorni butun ijrochilar guruhi avvalo ko'rish orqali qabul qiladilar.

Ba'zan koncert larda ikkala qo'li bilan takt belgilab, musiqaning sur'at va metrini faqat mexanik tarzda ko'rsatuvchi dirijyorlarni ko'rish mumkin. Ularning har ikkala qo'li takt berish bilan band bo'ladi. Shu bois, ularda boshqa vazifalarni bajarishga imkoniyat yo'q. Asarning badiiy jihatlarini ko'rsatishda chap qo'ldan samarali foydalanish o'rniga u bilan o'ng qo'l harakatlarini qaytarar ekan, dirijyor o'z texnikasini qashshoqlanishiga yo'l qo'yadi.

Parallel ravishda chap qo'lni ham takt berishga ishlatgach, ijro qilinayotgan musiqaning badiiy sifatlarini ko'rsatishga imkoni qolmaydi. Aftidan, ba'zi dirijyorlar bunday ahvoldan be'maniligini anglab, gohida faqat o'ng qo'llarini takt ko'rsatish uchun ishlatadilar. Biroq, bu ahvolda chap qo'l nima ish bajaradi? Avvaliga u partitura sahifalarini varaqlaydi, so'ngra noaniqlik bilan sust tarzda taktlash jarayoniga qo'shiladi, u yog'iga yana varaqlash uchun pastga tushiriladi, ba'zi hollarda chap qo'l dirijyor tanasida ojiz bir ahvolda osilib turadi va orkestrni boshqarish jarayonida umuman ishtirok etmaydi ham yoki - yana o'ng qo'lga qo'shib takt belgilashga tushadi. Har qanday alohida vaziyatda harakatning qanday turini qo'llash kerak? Bu avvalo musiqaning xarakteri, dinamikasi, fakturasi, asarning har qanday qismidagi tempga bog'liq. Bundan tashqari harakatning uyg'unligi, uning mutanosibligini belgilashda dirijyor faqat o'ziga qulay va erkin bo'lishini va nihoyat, harakatning yaqqol ko'zga tashlanishini hisobga olishi kerak. Shu bois dirijyorning qo'l harakatlari plastik, oddiy, ifodali, musiqaga muvofiq tushunarli va aniq bo'lishi lozim. Qo'l harakatlari vositasida dirijyor ijrochilar jamoasiga o'zining qalb kechinmasini, o'y-fikrlarini etkazadi. Qolaversa, ijrodagi muhim bo'lgan badiiy vazifalarni yuklaydi. [5.B.254]

O'ng qo'l ham, chap qo'l ham istalgan vazifani bajarishiga qaramay, dirijyorlik amaliyotida har ikkala qo'lga alohida talablar qo'yiladi. Shu bois ularni alohida jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Dirijyorlikda boshqaruv vazifasini bajaruvchi o'ng qo'l avvalo taktlash, ya'ni vazn qismlarini ko'rsatish, asarning vazn tuzilishini namoyon qilishga mo'ljallangan. Shu bilan birga u cholg'ular yoki ovozlarning ijrosiga navbat beradi, aksentlar, fermatalar, sinkopalarni belgilaydi, tempni aniqlaydi, harakat harakterini, dinamikasini aks ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki o'ng qo'l mexanik ravishda emas, balki ijro etilayotgan musiqaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishlaydi. O'ng qo'l-yetakchi, ishonchli, tashabbuskor, «qat'iyatli» qo'lidir. Va nihoyat, hammaning diqqat markazida bo'lgan, dirijyorning ritmik ko'rsatmalarini aks ettiruvchi tayoqcha ham aynan o'ng qo'lida bo'ladi. Demak chap qo'l taktini belgilashda muhim o'rin tutmasligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi. Zamonaviy dirijyorlik texnikasi har ikkala qo'llar harakati bilan belgilanishidek eskirgan va foydasiz odatdan allaqachon voz kechgan. Igor Markevichning qayd qilishicha, parallel ravishda takt belgilash bamosoli pianinochi bir xil balandlikdagi faqat unison ohangdoshligini chalishni bilganidek ma'nisizdir.

Chap qo'l cholg'ular, ovozlarning, orkestr guruhlariga, xor va yakkaxon partiyalarni ijroga yo'llovchidir. U ijroning dinamik qirralarini ifoda etadi. Bundan tashqari, asosan chap qo'l yordamida musiqiy bayon ajratiladi, jummlar ayri-ayri ko'rsatib o'tiladi, jarangdorlik, alohida pauzalar ifodalanadi, musiqiy shakl uyg'unlik, faktura o'zgarishi ko'rsatib boriladi. Yuqorida aytilganlar o'ng qo'l yoki har ikkala qo'l bilan bir vaqtning o'zida bajarib bo'lmaydi degani emas. Biz faqat dirijyor qo'llashi mumkin bo'lgan harakatlar va ularning xilma-xilligini ta'kidlab, ular erkinligi va muvofiqligi haqida, ayni vaziyatda esa - qo'llar mustaqilligi to'g'risidagi masalani olg'a surayapmiz. Dirijyor qo'llari bir-biriga bog'liq bo'lsada, mutlaqo erkin vaziyatni tutish lozim. Bir qo'lning ikkinchisi harakatlarini qaytarishi, bu harakatlar boy emasligini ko'rsatadi, dirijyordagi bir xillik yo'lini ifodalaydi. Bu albatta, simmetrik harakatlarni qo'llashdan voz kechish kerak degani emas, - ko'p hollarda ulardan qochishning o'zi qiyin. Masalan, orkestr qudratli va tantanavor yangragan chog'da uning xarakterini yorqin ifoda etish uchun dirijyorning qo'llari o'z-o'zidan holatga kirib, bir xil harakatlar bilan biri ikkinchisini qo'llab-quvvatlaydi. Biroq simmetrik harakatlarni uzoq vaqt qo'llash harakatning kambag'allashuviga, dirijyorlikni bir xillikka olib keladi va ijro etilayotgan musiqaning emotsional mohiyati va unda dirijyorning ijodiy xis tuyg'usi va maqsadini ifodalashga keng imkoniyat maydonini yaratib berolmaydi. [6.B.241]

O'ng va chap qo'l o'rtasidagi asosiy farq shundaki, taktini belgilashni o'ng qo'l bajaradi, qolgan vazifalarni esa o'ng va chap qo'l birga bajarmog'i kerak. Vazifalarni bu tarzda to'g'ri taqsimlash dirijyorga asarning barcha qirralarini to'laligicha ochib berishga imkon yaratadi. Shu bilan birga har ikkala qo'l harakati qat'iy muvofiqlashtirilgan va ularning vazifalari xilma-xil bo'lsa ham va yagona maqsad -

musiqani barcha detallari bilan imkon qadar to'liqroq ijro etishga qaratilgan bo'lishi shart.

Agar dirijyor chapaqay bo'lsa, unda chap va o'ng qo'l vazifalarni almashtirish mumkin, chunki bunday dirijyor asosiy ritmni chap qo'l bilan (uning uchun yetakchi qo'l) olib borishi, dinamika va qolgan xususiyatlarni esa o'ng qo'li bilan bemalol ko'rsatishi mumkin. Orkestr va musiqa uchun buning farqi yo'q. Shunday qilib, quyidagicha yakuniy fikrga kelish mumkinligiga amin bo'ldik: O'ng qo'l takti boshlaydi, ya'ni musiqaning asosiy ritmi va vaznini, uning dinamikasi va xarakterini boshqarib boradi. Chap qo'l zimmasiga esa musiqa dinamikasi va xarakterini belgilash, alohida ovozlari yoki orkestr guruhlari, xor, yakkaxonlarni ijroga o'tishini ko'rsatish vazifasi yuklatiladi: Bu ayniqsa opera va musiqiy teatrga taalluqli holatdir. Chap qo'l musiqiy ijro detallarini ko'rsatadi, dirijyorning xissiy - badiiy jihatlarini ifoda etishiga xizmat qiladi. [7.B.87-88]

Bu maqsadga erishishning dastlabki bosqichi vaznga xos sxemalarni o'zlashtirishdan iborat. Ko'p holda ushbu sxemalar bilan tanishuvda ikkala qo'l ishlatiladi. Bunda talabada har ikkala qo'lni simmetrik tarzda harakatlantirish odati shakllanadi va bu keyinchalik qo'l harakatlarini erkinligiga erishishni qiyinlashtiradi. Keyinchalik voz kechish lozim bo'ladigan harakatlarga o'rganishdan nima foyda? Chap qo'l o'ng qo'lni takrorlashga yoki takt belgilashga tayyor bo'ladi, ammo o'rganuvchining vazifasi aynan shundan qochishni tushunishidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimov K. O'zbekiston dirijyorlari. T.2001y.
2. Безбородова Л. Дирижирование. М., 1990.
3. Kurt Redel «Taktschlagen oder Dirigieren» М.: 2005 y. 11-b
4. Toshmatov E. Dirijyorlik. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 252 b.
5. Haqnazarov Z. Dirijyorlik haqida. – T.: "Musiqqa" 2012. 254 b.
6. Shamahmudova B. Musiqqa maktablarida xor dirijyorligiga o'qitish uslubiylotining ayrim masalalari.
7. Методические записки музыкальной школы им.В.Успенского. Вып.5. kitobida.T., 1996.

## СПОРТ ВА САҲНА ҚИЛИЧБОЗЛИГИ ЎРТАСИДАГИ ЎЗАРО ФАРҚЛАР

Д.А.Исмаилов

**Аннотация:** Ушбу мақолада саҳна жангларининг ўзига хос хусусияти уларда ҳужум ва мудофадан қочиш, қўлга олиш, қуролсизлантириш ва "жароҳатланиш" каби жанговар элементлар ҳақида баён этилган.

**Калит сўзлар:** саҳна, ҳаракат, спорт, жанг, қилич, қурол, театр, кино.

### DIFFERENCES BETWEEN SPORTS AND STAGE FENCING

D.A.Ismailov

**Abstract:** This article describes the specifics of stage battles in which they have combat elements such as attack and defense avoidance, capture, disarmament, and "injury".

**Keywords:** stage, action, sport, battle, sword, weapon, theater, cinema.

Қиличбозликнинг спортга таалуқли бўлмаган турларидан бири саҳна қиличбозлиги бўлиб, у саҳнада ёки экранда спектакл ёки сценарий сюжетига кўра қиличбозлик жараёнини тасвирлашга қаратилган бўлади.

Маълумки, узок ўтмишдан қилич инсоният учун муқаддас қурол асбоби бўлиб, у ор-номус, қадр-қиммат каби юксак тушунчаларни ўзида мужассам этган. Шубҳасиз, бундай муҳим аҳамиятга эга бўлган қуролга инсонлар чуқур ҳурмат билан қарашлари лозим бўлган.

Жанговар қиличбозлик, худди театр ва кинода тасвирлангани каби, оддий ўйин саҳнаси эмас, балки, қуролли ҳаракатлар, ҳатто сохта бўлган ҳолида ҳам, жангнинг ҳар бир иштирокчиси ёки курашувчилардан қандай масофада узокда бўлмасин атрофдаги инсонлар ҳаётига таҳдид солади.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, саҳна қиличбозлиги мактаби саҳна ва қиличбозлик спорти учун бир хил бўлган асосий билимларни ўз ичига олади. Ушбу мактабнинг асослари: жанговар позиция, қуролни ушлаб туриш, атамалар, ҳужум турлари ва маневр қилиш усуллари, позицияси, ҳимояси, ҳужум турларини ўз ичига олади.

Саҳналаштирилган жангларида барча ҳаракатлар олдиндан машқ қилинганига қарамай, инсон машина эмаслигини унутмаслик лозим. Шунингдек, унинг ҳаракатлари, ҳатто бир неча марта ўргатилган бўлса ҳам, ҳар сафар масофа ва тезлик, уларни амалга ошириш бошида шерикгача бўлган масофа, лаҳзалик ва ритмик ҳаракатлар хусусиятлари билан фарқланади. Шу

сабабли, қўлда совуқ қурол билан сахна ҳаракатини амалга ошириш маҳорати йўналиш ва ҳаракат реакцияларни мувофиқлаштириш билан амалга оширилади. Бу жараён портчи-қиличбозларни тайёрлашда қўлланиладиган машқлар ёрдамида шаклланади. Шунингдек, улар театрларда ва суратга олишда мумкин бўлган экстремал вазиятларда актёрларнинг хавфсизлиги ва сахна тасвирларининг сақланиши кафолатланади. Тасвирга олиш ёки сахналаштиришнинг биринчи кунларданок сахна қиличбозлиги билан шуғуллананувчилар шикастланиш мумкин бўлган вазиятлар асосан масофадаги хатолар оқибатида келиб чиқиши мумкинлигини билишлари лозим. Масофани тушуниш ёки қиличбозлар айтганидек, “масофани ҳис этиш” муваффақиятли қиличбозлик жангининг энг муҳим шартларидан биридир. Масофани баҳолашда қўпол хатога йўл қўйган қиличбоз мағлуб бўлишга маҳкум бўлса, аксинча, масофани ўткир идрок этган ва бу борада душмандан устунлигини жангда ишлатадиган қиличбоз ундан яққол жанговар устунликка эга бўлади.

Замонавий қиличбозлик жанги жангчилар ва қуроллар ўртасидаги масофа ва вақт муносабатларининг доимий ўзгариши билан юқори тезликда амалга оширилади.

Қиличбозларни тайёрлашнинг замонавий методологияси спортчиларда ушбу фазилатларни ривожлантириш ва такомиллаштириш имконини берадиган кўплаб махсус машқларни ўз ичига олади. Худди шу машқларни актёрларга қиличбозликни ўргатишда муваффақият билан қўллаш мумкин.

Спорт қиличбозлиги тарихий, ҳақиқий қиличбозликдан шаклланган бўлиб, замонавий сахна қиличбозлиги эса томошабинга инсоният ривожланишининг турли босқичларида, ҳатто у спорт турига айланганидан олдин қиличбозлик қандай бўлганини кўриш имкониятини берадиган жараёндир. Шу билан бирга, актёрларни сахна қиличбозлиги санъатига ўргатиш замонавий қиличбоз-спортчиларни тайёрлаш методологиясига асосланади.

Спорт ва сахна қиличбозлиги ўртасидаги асосий фарқ шундаки, спорт қиличбозлигида жангдаги ғалаба, сахна қиличбозлигида эса томошабинлар баҳоси ҳисобланади. Бунда сахна ва спорт қиличбозлиги ўртасидаги фарқни ажратиш учун мўлжалланган турли вазифалар белгиланади.

Сахна қиличбозлигининг вазифаси - бўлажак актёрларни ишончли, эстетик сифатга эга, мазмунли жанг ўтказишга ўргатиш ва самарали сахна ҳаракатлари билан тўлдиришдир. Сахна қиличбозлиги жанги ва спорт қиличбозлиги жанги ўртасидаги туб фарқ жанг иштирокчиларига импровизация қилишни тўлиқ тақиқланишидир. Қиличбозлик сахнаси иштирокчилари, рақиблар эмас, спорт жангида бўлгани каби бир-бирига қарши эмас, балки шериклардир. Камера олдида бўлгани каби сахнада ҳам қиличбозларнинг барча ҳаракатлари олдиндан тайёрланиши керак. Аниқроғи, жангчиларнинг қуролли ҳаракатлари ва жанг



майдони бўйлаб ҳаракати гимнастика ёки рақс комбинацияси сифатида ўрганилади, бу ерда ҳамма ўз шеригининг “ҳаракатлари” ни олдиндан билади. Жангнинг барча тактикалари ва уни тасвирлашнинг ҳақиқий “ҳийлалари” саҳнага қўйилишидан олдин режиссёр ва актёрлар томонидан ўйлаб чиқилади, сўнгра улар олдиндан белгиланган муайян ҳаракатларда мужассамланади ва машқлар пайтида уларни амалга ошириш ва такрорлаш учун стандартлар тузилади. Ижрочиларнинг диққат-эътибори мўлжалланган кетма-кетлик ва техникани бажаришда чалғимасагина, актёрларнинг ижоди жанг жараёнида саҳна образини гавдалантира бошлайди.

Бундан ташқари, яна бир фарқ шундан иборатки, бир хил қуролга эга бўлган фақат иккита рақиб ҳар доим спорт жангида қатнашади, жангнинг бошланиши қатъий белгиланган ва жангнинг натижаси олдиндан ҳеч кимга номаълум. Жангда қиличбозлик босқичи рақами, уларнинг жанг майдонидаги кўриниши ва қуроллари, жанг пайтидаги хатти-ҳаракати ва уни кетма-кетлиги, шунингдек, ғолиб ва мағлубларнинг номлари сюжет асосида белгиланади.

Бундан ташқари, уй-рўзғор буюмлари кўпинча саҳна жангларда қўлланилади. Турли уй-рўзғор буюмлари билан қуролланган қаҳрамонларнинг қўл жанги тарихий ва замонавий спектакл ва филмларда тез-тез учраб туради. Шу билан бирга, жанг иштирокчиларининг қўлида кўплаб объектлар қиррали қуролларни тўлиқ ўрнини босади. Бу жараён шуни англатадики, улар мавжуд махсус ҳужум ва мудофаа техникасидан фойдаланган ҳолда ҳаракат қилишлари керак.

Спорт ва саҳна қиличбозлиги ўртасидаги яна бир фарқ шундаки, спорт жанглари ўтказиш қоидаларига кўра, рақиблар бир-бирига қарама-қарши туришади ва саҳнада, кинода саҳналаштирилган жангларда эса “орқадаги душман” ва “ён томонда душман” позицияси жуда кенг тарқалган ва ҳатто бир эмас, балки бир нечта ҳаракат қилиш ва шериклар билан ўзаро курашишнинг бундай усулларидан фойдаланишни талаб қилади. Бу ҳолат спорт жангларида учрамайди.

Кўпгина қиличбозлик спорти усуллари амалга оширишнинг юқори техник мураккаблиги туфайли саҳнада қўллаш қийин. Мисол учун, тайёргарлик ҳужумлари ва қарши ҳужумлар актёрлардан пичоқ билан моҳир бўлишларини, яхши муносабатда бўлишларини ва бир-бирига қарама-қарши қурол билан шерикларнинг қарши ҳаракатидан жароҳат олишлари мумкинлиги сабабли яхшилаб машқ қилишни талаб қилади.

Саҳна жангларнинг ўзига хос хусусияти уларда ҳужум ва мудофаадан қочиш, қўлга олиш, қуролсизлантириш ва "жароҳатланиш" каби жанговар элементларнинг мавжудлигидир.

Спорт ва сахна жанги иштирокчилари учун хавфсизлик талабларида фарқлар мавжуд. Бу, биринчи навбатда, амалга ошириладиган трюкга кирадиган барча спортчиларда ягона стандартга мос келадиган жароҳат ва зарбалардан ҳимоя қилиш учун ҳимоя костюми, ниқоб, қўлқоп ва бошқа воситалар бўлиши кераклигида намоён бўлади, уларсиз спортчининг жангда иштирок этиши мумкин эмас.

Саҳналаштирилган жанглarda актёрлар тарихий даврларга мос келадиган либосларда кийинадилар, шунинг учун улар кўпинча ҳимояланмаган юз, баъзан эса ҳимояланмаган тана билан курашишади. Аммо агар костюмлар учун турли хил ҳимоя воситалари ёрдамида танаси, қўллари ва оёқларини ҳимоялаш мумкин бўлса, унда кўплаб жангларни саҳналаштирганда актёрнинг юзи очиқ бўлиши керак, бу жараён эса жуда хавфлидир. Қиличбозлик саҳнаси бўйича актёрларни тайёрлаш эса ҳеч қандай ҳимоя воситаларисиз ўтади. Шу сабабли, жанг саҳналарида иштирок этувчи барча актёрлар томонидан бажарилиши керак бўлган бир қатор талаблар мавжуд. Қиличбозлик хавфсизлигини таъминлашнинг асосий шarti бу ўзаро муносабатга асосланади - агар унинг эътибори чалғиган бўлса ва у жанговар ҳаракатларга мослашмаган бўлса, ҳеч қачон қиличининг ўткир учини шериги томонга йўналтирмаслиги керак.

Адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, қиличбозликнинг ҳар қандай тури техника деб аталадиган ўзига хос ҳаракатлар таркибири жамлаган ва энг муҳим қоидаларни ўз ичига олган мактабга асосланиши керак. Шу билан бирга, қиличбозлик спорти билан кўп ўхшашликларга эга бўлган қиличбозлик саҳнаси - бу театр санъатига хос бўлган ҳаракатлар, статик ҳолатлар ва вазиятлар тизимидир. Ҳамда, унинг спорт қиличбозлигидан фарқ қиладиган вазифаси саҳнада ва кинода бир вақтнинг ўзида ишонарли ва ажойиб жанг саҳнасини яратишдир. Ҳулоса шундан иборатки, агар актёрлар қиличбозлик мактабининг асосларини ўзлаштирмасалар, бундай томошада натижага эришиб бўлмайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Сценическое фехтование. Кох И.Э. Москва, 1948г.
2. Сценическое фехтование. А. Люгар
3. Спортивное фехтование. Учебник для ВУЗов физической культуры под общей редакцией Д.А. Тышлера. Москва, 1997г.
4. Фехтование. Под общей редакцией В.А. Аркадьева. Москва, 1959г.

## SHARQDA BASTAKORLIK IJODI

Dadayev Axmatjon Shakarimovich

Muhabbat-hon@inbox.ru

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Musiqashunoslik ilmi Sharqda qadimdan rivojlanib kelgan. Qomusiy olimlarning deyarli barchasi musiqa ilmidan habardor bo'lib, ushbu san'atning rivojlanishi uchun o'z xissalarini qo'shganlar. Bastakorlik san'ati ham musiqa ilmini rivojlantirgan yo'nalishlardan biri bo'lib, Sharqda juda ko'plab iste'dodli bastakorlar ijod qilishgan. Ushbu maqolada sharqda yashab ijod etgan, nomlari musiqiy risolalarda keltirilgan bir qancha bastakorlar haqida ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga, XV – XVI va XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning boshlanish davri, o'tgan asrning 20-yillarida yashagan bastakorlar haqida ham aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** bastakorlik, musiqiy risola, musiqiy asarlar, maqomlar, bastakorlik asarlari

## CREATIVITY OF COMPOSERS IN THE EAST

Dadayev Axmatjon Shakarimovich

Muhabbat-hon@inbox.ru

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The science of Musicology has evolved in the East from ancient times. Almost all encyclopedias of encyclopedias are aware of the science of music and have added their own hisses for the development of this art. The art of composers was also one of the directions that developed the science of music, and in the East a lot of talented composers were created. This article will tell about many composers who lived in the East, whose names are presented in musical brochures. At the same time, it is also mentioned about the period of the beginning of the XX century from the XV – XVI and the second half of the XIX century, about the composers who lived in the 20-ies of the last century.

**Keywords:** composer, musical treatise, musical works, statuses, composer's works.

Sharq amaliy musiqa madaniyatida bastakorlik qadimdan rivojlangan va shakllangan yo'nalishlardan biri sanaladi. Yetuk bastkorlar aynan Sharqda tug'ilgan va ijod qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Yaqin va O'rta Sharqning deyarli barcha

mamlakatlarida tanilgan bastakorlar sifatida 6-7 asrlarda yashagan Borbad Marviy, Abdurahmon ibn Surayj, 7-8 asrlarda yashagan Abduhafz Sug'diylarning nomlarini tilga olish mumkin. Bundan tashqari ko'pgina qomusiy olimlarimiz ham bastakorlik faoliyati bilan shug'ullanganlari hech kimga sir emas. Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy kabi allomalarning bir nechta musiqalar yaratganliklari haqida bir qancha ma'lumotlar bor. Zero, musiqa ilmidan bohobar bo'lmay, uni amaliyotda qo'llamay turib, musiqa haqida mukammal risolalar yozish amri mahol.

Qadimda bastakorlar va ularning yaratgan asarlari haqida risolalarda, qulyozmalar va ilmiy asarlarda keltirib o'tilgan. Shulardan biri, 50 yil davomida Abulfaraj Isfaxoniy (897-967 yillar) tomonidan yozilgan "Qo'shiqlar kitobi" (كتاب الأغاني) Xurosonlik mashhur musiqachi va bastakor Is'hoq Mavsiliy bastalagan va ijro etgan 100 qo'shiqqa sharx bitish maqsadida yozila boshlangan. Ushbu ko'p jildli noyob asarda V asrdan X asr boshlarigacha yaratilgan va ijro etilgan arab tilidagi qo'shiqlarning matnlari keltiriladi, ularni yaratgan shoir va bastakor hamda ilk bor ijro etgan qo'shiqchilar haqida ma'lumotlar beriladi. Uning qamrovi keng, hajmi salobatli va ahamiyati katta bo'lgani uchun "Katta qo'shiqlar kitobi" (كتاب الأغاني الكبير) deb ham ataganlar.<sup>1</sup>

Bundan tashqari Abu Nasr Farobiy o'zining musiqa ilmiga oid kitoblari ichida eng ahamiyatlisi, o'z davrining buyuk musiqiy asari "Katta musiqa kitobi" (كتاب الموسيقى الكبير) da Sharqda sermahsul ijod qilgan bastakorlar haqida ham to'xtalib o'tadi. Shulardan biri Ma'bad bo'lib uning to'liq ismi Abu Abbad bin Vahab Mavla bini Qutn Ma'bad al - Madiniy (673 - 743)<sup>2</sup>. U nafaqat bastakor balki xonanda va cholg'uchi sifatida ham tilga olingan. Abbosiy xalifalaridan Xarrun ar-Rashid (766-809) davrida noyob deb topilib, jam etilgan arablarning 100 nodir ashulasidan 3 ta eng oliylari Ma'bad ijodiga mansub deyiladi.

Farobiy tilga olgan yana bir bastakor Ibn Surayj (Abu Yahyo Ubaydulla ibn Surayj al-Makkiy (634-743)) bo'lib u o'z vaqtida saroyda xizmat qilgan. U bir qancha musiqiy asarlar bastalash bilan birgalikda ud cholg'usining betakror sozandasi bo'lgan. Shu bilan birga, shoir va xushovoz xonanda sifatida ham elga taniqli bo'lgan. Forobiyning yozishicha: "Kuy bastalash vaqtlari Ibn Surayj o'z ovozigga mos tovushga ega bo'lgan qo'ng'iroqchalar qadab qo'yilgan to'nini kiyib olar va bastalamoqchi bo'lgan kuyni (ashulani) xirgoyi qilib, tanasini, yelkalarini lozim vaznda o'ynatar edi. Uning xirgoyisi nag'malarining uzunligi harakatlari uzunligiga mos tushsa bastalanmoqchi bo'lgan kuy (ashula) tugallanar va u ashula qilib aytar edi"<sup>3</sup>

"Ramal" iyqosida ashulalar, cholg'uchilar va raqqoslar dastalari uchun kuylar bastalagan Muxoriqni ham iste'dodli bastakor, ham iqtidorli ashulachilar safida sanab

<sup>1</sup> Z.Oripov "Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar)" o'quv qo'llanma, Toshkent, 2008 y., - 17-bet

<sup>2</sup> Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy nashriyoti, 1993. - 176-bet

<sup>3</sup> Z.Oripov "Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar)" o'quv qo'llanma, Toshkent, 2008 y., - 28-29-betlar

o'tadi. Isfahonda tug'ilgan Muxoriq Arab ashula ijrochiligiga "tavi"l vaznini kiritdi hamda go'zal ovoz va chuqur nafasga ega xofiz bo'lgan.

Abu Abdulloh Xorazmiy o'zining "Mufatihu-l-ulum" asarining musiqaga oid qismida bastakorlar, ijodkorlar haqida ma'lumotlar keltirmaydi, ammo bastakorlik ijodi uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni keltirib o'tadi. Xorazmiy "musiqur" [الموسيقور] va "musiqar" [الموسيقار] atamasiga izoh berar ekan [الموسيقور] musiqur-bastakor, ya'ni kuy chaluvchi va kuy tuzuvchi ekanini tushuntirib o'tadi. Uni [الموسيقار] musiqar deb ham ataganlar.<sup>4</sup>

Aslida bastakorlar xalq orasidan chiqqan bilimli, zukko insonlar bo'lib, musiqa ilmi bilan chuqur shug'ullanganlar. Ularning deyarli hammasi faqatgina kuylar, naqsh va savtlar bastalabgina qolmay bir qancha cholg'ularning mohir ijrochisi, xushovoz xonanda, shoir yoki musiqashunos sifatida ham faoliyat olib borganlar. Aslida ham bastakorlik sohasining professional egasi bo'lish uchun musiqa ilmini chuqur egallash, cholg'ularning tabiati, sadolanish xususiyatlarini, xonandalik imkoniyatlarini bilish va imkon qadar bularni amaliy jihatdan o'zi ham bajara olishi maqsadga muvofiqdir. Sharqda dong'i ketgan bastakorlarning faoliyatiga nazar solganda buning bevosita guvohiga aylanamiz.

Bastakorlik, ayniqsa Amir Temur va temuriylar davrida yanada rivojlanib borgan va ijodkorlar yuksak e'tirof etilgan. Buning natijasida musiqa ilmi yanada mukammallashib bordi va bastakorlik san'ati maqom ijrochililigiga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. XIII asrda dastavval o'n ikki maqom shakllangan bo'lsa, keyinchalik XVI -XVIII asrlarda uning asosida Buxoro Shashmaqomi, Xorazm olti yarim maqomlari va Farg'ona Toshkent maqom turkumlari rivojlandi. Maqom turkumlari tarkibidagi "Saqli Islimxon", "Saqli Ashkullo", "Saqli Niyozjonxo'ja", "Murabbai Komil", "Samandariy", "Karimqulbegi" kabi ko'plab asarlar aynan bastakorlar ijodiga mansub ekanligini anglash qiyin emas. Bastakorlik san'ati, ayniqsa, XV – XVI asrlarda ommaviylashgan, xattoki qator shoir, olimlar ayni paytda bastakor ham bo'lgan. Abdurahmon Jomiy «Imoma» naqshi (yoki «Naqshi Mullo»)ni, A.Navoiy bir qancha naqsh va peshravlar, Bobur «Chorgoh savti» yo'llaridagi asarini ijod etgan. Bu davrga kelib Bastakorlikning asosiy janr va shakllari, uslub va usullarining rivoji o'z qiyomiga yetdi. Manbalarda, ayniqsa Darvishali Changiyning (XV – XVI asrlar) musiqaga doir risolalarida amal, qavl, savt, chorzarb hamda jir, kor, tarona ko'rinishlaridagi o'nlab asarlarning ta'rifi keltirilgan, bularning har birida ijod qilgan ko'plab bastakorlarning nomlari aytib o'tilgan.<sup>5</sup>

Darvesh Ali Changiy o'zining musiqiy risolasida xalq orasidagi iste'dodli ijodkorlar haqida ma'lumotlar keltirgan. Ushbu risolada nomi tilga olingan Mavlono Zaynulobiddin Rumiyning bastakorlik ijodi haqida bir oz to'xtalib o'tamiz.

<sup>4</sup> Bahodirov R.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan.–T.: O'zbekiston, 1995.

<sup>5</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bastakorlik-uz/>

Xirotida yashab ijod etgan Mavlono Zaynulobiddin Rumi o'z davrining mashxur xonandasi bo'lgan. Ud va chang cholg'ularining mohir sozandasi bo'lganligi tufayli saroyda xizmat qilgan. U birqancha musiqiy asarlar va peshravlarni bastalagan. Bastalagan peshravlari orasida ayniqsa, uchtasi mukammalligi va go'zalligi tufayli butun dunyo musiqa olami vakillari orasida mashxur bo'lgan. Shulardan biri "Efsan" deb nomlangan bo'lib, Xusayniy maqomining ladlari asosida yaratilgan. Ikkinchisi, Iroq maqomi ladlari asosida yaratilgan "Saql" bo'lsa, uchinchisi, Xusayniy maqomi ladlari asosida, qadimiy "davri saql" usulida ijro etiladigan "Peshravi far" asarlaridir.<sup>6</sup>

Aslida, Darvish Ali Changiyning musiqiy risolasida nomlari tilga olingan ijodkorlarning juda ko'p qismi musiqiy asarlar bastalaganlar. Ularning yaratgan asarlari el orasida mashxurlikka erishgan. Ushbu risolada nomi tilgan olingan bastakorlardan yana biri Maxzumzoda Xorazmiy bo'lib, u mashxur shayx sayid Xusayn Xorazmiyning o'g'li bo'lgan. Maxzumzoda Xorazmiy juda ko'plab savt va naqshlarni bastalagan. O'zi yaratgan musiqalarga otasi yozgan she'rlarni qo'yib ijro qilgan. Maxzumzoda Xorazmiy bastalagan naqshlar Buxoroda bemisl mashxurlikka erishgan va musiqachilar tomonidan doimiy ravishda sevib ijro etilgan.<sup>7</sup> Maxzumzoda Xorazmiyning bir qancha shogirdlari ham savt, naqsh va peshravlar bastalab, el orasida tanilganlar.

Mavlono Rizoi Samarqandiy Samarqandning buyuk olimlaridan biri bo'lgan. Musiqa ilmining bilimdoni sifatida xalqning muhabbatiga sazovor bo'lgan. U Iroq maqomi ohanglari asosida, muxammas usulida ijro etiladigan amal bastaladi. O'sha davrda bu asar "Tan tani Mulla Rizo" nomi bilan mashhurlikka erishdi.

Darvish Alining ma'lumotiga qaraganda Xoja Abdulqodir Marog'iy isfaxonlik bo'lib, o'sha davr Sharqining buyuk musiqa olimi, bastakor va nazariyotchisi edi. U Samarqandga kelgach, saroy teatri va musiqasiga rahbarlik qildi. Samarqandda o'z maktabini yaratdi, ko'plab shogirdlar tayyorladi va musiqiy taraqqiyotga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub «Zubdatul advor», «Maqosidul ilhon» nomli kitoblar yozilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lib, Darvish Ali yana uning "Miatayin" nomli musiqa to'plami yaratgani haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari Darvish Ali Changiy musiqiy risolasida bir qancha musiqiy asarlar bastalagan Xo'ja Boboi Inoq, Mavlono Oxiy, Yusuf Mavdudi Dutoriyy, Xoja Yusuf Andijoniy, Paxlavon Abu Sayid Rumiyy, Ali Shunqor, Alijon G'ijjakiyy, Muhammad Dildo'z kabi ko'plab ijodkorlarni sanab o'tgan.

Bu davrda Samarqand, Buxoro, Hirot, Toshkent, Xo'jand, Qo'qon, Xiva kabi shaharlarda xonandalik, aksariyatida sozandalik bilan birga o'ziga xos bastakorlik maktablari yuzaga kelgan. Mazkur ijodiy maktablarning yetuk namoyandalari o'z

<sup>6</sup> A.A.Semenov "Sredneaziatskiy traktat po muzike Darvisha Ali (XVII veka)", Toshkent, 1946 y. 44-45-betlar.

<sup>7</sup> O'sha manba, 64-65-betlar

asarlarida mahalliy folklor (ayniqsa, marosim va lirik mavzudagi qo‘shiq), maqom, katta ashula ijrochiligi va ijodkorligiga xos xususiyatlarni singdirishga intilganlar<sup>8</sup>.

Bastakorlik ijodi rivojining keyingi bosqichlaridan XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning boshlanish davri diqqatga sazovor. Bu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkor shaxslaridan biri bo‘lgan Muhammad Rahimxon II Feruz o‘z zamonasida ajabtovur musiqashunos va bastakor edi. U shoir va san’atkor Komil Xorazmiyning tashviqi bilan eng qadimiy “Shashmaqom” kuylarini to‘liq o‘rgandi va “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” maqomlariga bog‘lab kuylar ham yaratdi. Muhammad Rahimxon II Feruz yaratgan kuylar, Feruz I, II, III ijrolari xalq ichida mashhur bo‘lib tez orada Xorazm san’atkorlari orasida tarqalib ketdi.<sup>9</sup> Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo‘ja, Komil Xorazmiy, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub Harrat va boshqalar maqomlarga yangi cholg‘u qismlar bastalab, ularni shaklan va mazmunan boyitdilar. Bu asarlar kuy tuzilishi, lad asoslari saqlangan holda Xorazmga xos musiqiy uslublarda ijro etilib kelingan.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1852—1936 yillarda Samarqandda yashab, ijod qilgan taniqli bastakor, o‘zbek maqom san’ati rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan betakror ovoz sohibi bo‘lgan. U bastalagan «Guluzorim», «Gullar bog‘i», «Beboqcha» «Bozurgoniy», «Samarqand ushshog‘i» kabi yuzlab qo‘shiq o‘zbek mumtoz musiqa merosining eng noyob asarlari qatoridan joy olgan. Shashmaqomni o‘rganish va keng targ‘ib etishda Hoji Abdulaziz Abdurasulovning xizmatlari katta bo‘lgan. Samarqand maqom yo‘llari, soz chalish va ashula aytish bo‘yicha ko‘plab yoshlarga ustozlik qilgan, ularga o‘z san’atini o‘rgatgan. Jumladan, O‘zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiy ham uning Samarqanddagi xonadonida yashab, hofizdan saboq olgan.

Akademik Yunus Rajabiyni mohir bastakor sifatida ham taniymiz. Uning asarlari o‘zbek bastakorlik ijodining davom etishida juda katta rol o‘ynadi. U bir qancha qadimiy o‘zbek xalq kuy va ashulalarini qayta ishlab tiklagan «Subhidam», «Yolg‘iz» «Sayqal», «Fig‘on», «Oraz», «Begi Sultan» kabi asarlar shular jumlasidandir. Bilamizki bu kabi asarlarni qayta tiklash uchun ijodkorga yuksak bilim, mahorat va bastakorlik tajribasi juda muhim. Yunus Rajabiy o‘zbek musiqali dramasiyning shakllanishiga muhim hissa qo‘shgan. Dastlab «Farhod va Shirin» (Xurshid, 1922-25, Sh. Shoumarov bilan hamkorlikda), «Layli va Majnun» (Xurshid, 1926), «Rustam» (U. Ismoilov, 1933), «Avaz» (A. Hidoyatov, 1935), «Xolisxon» (Hamza, 1940) kabi spektakllarga xalq ashulalari asosida kuylar bastalagan. Keyinchalik B. Nadejdin bilan hamkorlikda «Qasos» (A. Umariy, Uyg‘un, 1941), N. Mironov bilan «Qo‘chqor Turdiyev» (S. Abdulla, Chustiy, 1942), G. Mushel bilan «Muqanna» (H. Olimjon, 1943), O. Halimov bilan «Nodira» (S. Kosimov, Ya. Mamatxonov, 1942-43), B. Zeydman bilan «O‘g‘il uylantirish» (H. Fylom, 1964), Sayfi Jalil bilan «Navoiy

<sup>8</sup> Gafurbekov T., Tvorcheskiye resursi natsionalnoy monodii i ix prelomleniye v uzbekskoy sovetskoy muzike, T., 1987

<sup>9</sup> Xorazm maqomlari I tom. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va sn‘at nashriyoti, Toshkent, 1980 y

Astrobodda» (I. Maxsumov, 1968) singari musiqali dramalarni yaratgan. Shuningdek, «Fabrika yallasi», «Bizning davron», «Mirzacho‘lda tuy», «O‘zbekiston», «Yangrasin Gulyor», «Dugonalarga», «Kadah», «Koshki», «Gul sochar», «Judo», «Ra‘nolanmasun», «Chapandoz», «Kuygay» kabi qo‘shiq va ashulalar, «O‘yin Bayoti», «O‘yin Dugohi», «Paxta» singari kuylarni yaratgan.<sup>10</sup>

Tarixda Sharqda yashab o‘tgan har bir bastakorning o‘ziga xos asar yaratish uslubi bo‘lgan albatta. Bastakorlikning tartibi va ilmiy asoslari haqida ma‘lumotlarni ham qomusiy olimlarimiz yozib qoldirgan risolalarda o‘qishimiz mumkin. Bugungi kunda bastakorlik ijodiga qo‘l urayotgan va bu yo‘lda izlanayotgan yoshlarimiz, tadqiqotchilarimiz albatta bu qo‘lyozmalarga va risolalarga ham bee’tibor bo‘lmasliklari lozim. Bugungi kunga qadar yashab ijod etgan va bugungi kunda ham faoliyatini olib borayotgan bastakorlar haqida izlanishlar olib borish, o‘zbek musiqa san’atining yanada rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi, albatta.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Z.Oripov “Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar)” o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2008 y.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy nashriyoti, 1993.
3. Bahodirov R.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan.–T.: O‘zbekiston, 1995.
4. A.A.Semenov “Sredneaziatskiy traktat po muzike Darvisha Ali (XVII veka)”, Toshkent, 1946 y.
5. Gafurbekov T., Tvorcheskiye resursi natsionalnoy monodii i ix prelomleniye v uzbekskoy sovetskoy muzike, T., 1987
6. Xorazm maqomlari I tom. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va sn’at nashriyoti, Toshkent, 1980 y
7. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bastakorlik-uz/>

<sup>10</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yunus\\_Rajabiy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yunus_Rajabiy)



## ЗНАЧЕНИЕ ТРЕНИНГОВ И УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

А.Н.Кудрявцев

Kudriavtsoff@mail.ru

Государственный институт искусств и культуры Узбекистана

**Аннотация:** Представленная научная статья по предмету «Актёрское мастерство» для начинающих преподавателей данной специальности является одним из основных в цикле специальных профилирующих дисциплин.

**Ключевые слова:** Психофизика, актёр, тренаж, зажим.

## THE IMPORTANCE OF TRAININGS AND EXERCISES FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING

A.N.Kudryavtsev

Kudriavtsoff@mail.ru

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The presented scientific article on the subject "Acting skills" for beginning teachers of this specialty is one of the main in the cycle of special majors.

**Keywords:** Psychophysics, actor, training, clamp.

Театр, являясь коллективным видом творчества, создается из художественных вкладов различных творческих специальностей: это и актеры и режиссеры и музыканты и хореографы и многие другие. Коллективность является принципиальным отличием театра от индивидуалистических вида творчества, как, например литературы или живописи.

Особенно важное значение коллективность творчества приобретает в отношении актерских работ. Поэтому принципиально важным является то, что практически с самого начала обучения актерскому мастерству необходимо обратить пристальное внимание на выработку у начинающих "чувства локтя". Упражнения по наработке коллективного "чувства локтя" у начинающих обучение актерскому мастерству адресованы, таким образом, мастеру, руководителю или лидеру группы и должны занять важное место в начале работы коллектива. Эти же упражнения целесообразны и при дальнейшей работе, как средство собрать внимание, мобилизовать группу перед началом занятия, репетиции.

«Учитесь на том, что трудно и не даётся, а не на том, что легко и самой собой приходит!» заявляет К.С.Станиславский. А что же трудного - выучить текст роли и перемещаться по сцене, следуя указаниям режиссёра-постановщика и уповая на спасительный талант, который «вывезет»? Зачем актёру трудиться над усовершенствованием своих профессиональных умений? Действительно, как будто бы незачем. Только вот смущают примеры из жизни многих крупных артистов во всех областях искусства. Примеры эти говорят, что чем крупнее талант, тем больше он стремится к совершенству и тем больше ищет - в повседневном, подчас изнурительном труде - путей к совершенству своего мастерства. Один из путей повышения мастерства - тренинг. Да, актёру нужна совершенная психотехника. Но приобретается она не с помощью какого-то шаманского тренинга Психотехника рождается в практике, в актёрском опыте. Организм сам нарабатывает и в жизни и в спектаклях нужные навыки, и они становятся подсознательными помощниками в творчестве. Чем опытнее талантливый актёр, тем богаче его психотехника. Станиславский назвал этот путь тренингом и муштрой. И добавил: «Познайте свою природу, дисциплинируйте её и, при наличии таланта, вы станете великим артистом». Своеобразный актёрский тренинг, не похожий на прежние (о них упомянем в теоретическом разделе книги), родился в педагогической практике Станиславского и его учеников. Многие его наброски упражнений ещё не опубликованы и здесь приводятся по архивным документам и по воспоминаниям. Упражнения актёрского тренинга многие десятки лет используются театральной педагогией, но ещё далеко не в той мере, в какой следовало бы. Станиславский верил, что тренинг - это способ овладения актёрской техникой, и призывал относиться к упражнениям так, как танцор, музыкант, певец относятся к обязательным своим ежедневным экзерсисам и гаммам - гарантии сохранения себя в творческой «форме». Упражнения эти от первых студий двадцатых годов до наших Дней видоизменялись, впитывали современный актёрский опыт и Новейшие психофизиологические открытия, обогащались личными коррективами многих наших педагогов. Выбрать из множества упражнений наивысшие, сгруппировать их, как-то классифицировать - дело сложное. Предоставим времени упорядочить актёрский тренинг в соответствии и с практическими задачами актёрского воспитания, и с уровнем современной науки о человеке. Попробуем - пусть временно! - разделить упражнения по психофизиологическому принципу, памятуя о тренинге «памяти пяти чувств», завещанном Станиславским. Да, сегодня уже ясно, что человек обладает не только традиционными «пятью чувствами», но ещё и многими иными, не традиционными, и даже - пока,

только, предполагаемыми. Все же сохраним этот нынешний психофизиологический ориентир.

Кроме тренинга самонаблюдения можно увидеть у Станиславского еще два вида тренинга, объединенных названием "туалет актера". Г.В. Кристи так описывает его содержание: "Туалет актера, по замыслу К.С. Станиславского, это ежедневная тренировка внутренних, психологических и физических качеств, помогающих творчеству актера. "Туалет актера", представляющий собой выжимку из всех упражнений по системе, призван был укрепить, развивать и постоянно совершенствовать артистическую технику. Перед началом студийных показов К.С. часто проводил 20-минутный туалет-настройку, подводящую актеров к нужному самочувствию. "Туалет-настройка" заканчивался обычно коллективным этюдом, непосредственно подводящим к предстоящему показу"

Актерский тренинг, следовательно, должен привести творческий аппарат ученика в соответствие с требованиями творческого процесса. Тренинг совершенствует пластичность нервной системы и помогает отшлифовать, сделать гибким и ярким психофизический инструмент актера, раскрыть все его природные возможности и подвергнуть их планомерной обработке, расширить коэффициент полезного действия всех нужных из имеющихся возможностей, заглушить и ликвидировать ненужные и, наконец, создать недостающие, насколько это возможно. Это его основные задачи.

Рабочие инструменты актера - это его психофизические данные: пластика; моторика; голосовые данные (дикция, связки, дыхательный аппарат); музыкальный слух; чувство ритма; эмоциональность; наблюдательность; память; воображение; эрудиция; скорость реакции и т.д. Соответственно, каждое из этих качеств нуждается в развитии и постоянном тренинге - только это позволяет актеру находиться в рабочей форме. Как балетному актеру каждый день приходится начинать с цикла упражнений у станка, оперному - с вокализа и распевов, так драматическому актеру насущно необходимы ежедневные занятия сценической речью и движением.

### **Использованная литература**

1. Станиславский К. С. Собр. соч. в 8-ми т., 1955 г.
2. Кристи Г. «Воспитание актера школы Станиславского», М., 1978 г.

## **A.Y.VAGANOVA BALET MAKTABINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

Nadirova Yelena Faritovna  
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada rus balet san'ati buyuk namoyondasi Agreppina Vaganovaning klassik raqs, balet maktabi shakllanishidagi faoliyati yoritilgan. A.Vaganova yaratgan o'ziga xos balet maktabining takomillashuvi haqida aniq faktlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** teatr, sahnalashtirish, balet, badiiy rahbar, texnika, raqs, xoreografiya, san'at.

### **DEVELOPMENT TRENDS OF A.Y.VAGANOVA BALLETS SCHOOL**

Nadirova Yelena Faritovna  
Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** This article covers the activity of the great representative of Russian ballet art Agreppina Vaganova in the formation of a classical dance, a ballet school. A. Specific facts about the improvement of the ballet school created by Vaganova are presented.

**Keywords:** theater, staging, Ballet, Artistic Director, technique, dance, choreography, art.

Agrippina Vaganova 1879-yil 14-iyunda (26-iyun) Sankt-Peterburgda Mariinskiy teatri bandmasteri oilasida tug'ilgan. Uning otasi - Akop (Yakov Timofeevich) Vaganov - Sankt-Peterburgga Astraxan shahridan ko'chib kelgan, u yerda Ivan Terrible davridan beri armanlar birlashmasi mavjud bo'lib, ammo, uning o'zi fors armanlaridan edi va Astraxanga kapital qo'ymaydi. U faqat tayinlanmagan ofitser sifatida xizmat qiladi va nafaqaga chiqqanidan keyin Peterburgga ko'chib o'tdi.

Agrippina Vaganova 1888-yilda u Imperator teatr maktabiga qabul qilindi. Vaganova o'qituvchilari orasida Evgeniya Sokolova, Aleksandr Oblakov, Anna Ioganson, Pavel Gerdt, Vladimir Stepanov (raqs yozuvi) bor edi. Boshlang'ich sinflarda u ikki yil davomida Lev Ivanov bilan birga o'qidi, bu safar "ikki yillik beparvolik" deb nom oldi va keyin Ekaterina Vazem sinfiga o'tdi. Vaganovaning birinchi roli Lisaning onasi, bosh qahramon Lev Ivanov tomonidan o'rta maktab o'quvchilari uchun sahnalashtirilgan "Sehrli naycha" spektaklida edi.

Agrippina Vaganova 1897-yilda kollejni tamomlagach, Mariinskiy teatrining balet truppasiga qabul qilindi, bir necha yil oʻtgach, solist maqomini oldi. Vaganova yakka oʻzgarishlarda, masalan, Delibes baletida "Kopeliya" baletida muvaffaqiyatli qatnashdi, uni "Oʻzgarishlar malikasi" deb atashdi. Oʻtgan asrning 10-yillarida, karerasi tugashiga oz vaqt qolganida, u asosiy qismlarni ijro eta boshladi. Marius Petipa esa ijro mahoratini qadrlamadi. Uning kundaliklarida bunday yozuvlarni topish mumkin: "Vaganova xonim dahshatli. Men baletga bormayman ..."

U xoreografiya texnikasiga bir qator oʻzgarishlar kiritdi, bu dastlab akademiyaning kuchli ishtiyoqchilariga nomuvofiq boʻlib tuyulishi mumkin edi, ammo keyinchalik yetakchi raqqosalar uslubida munosib oʻrin egalladi.

1916-yilda sahnani tark etib, inqilobdan keyin - Petrograd xoreografiya maktabida dars berishni boshladi. U oʻzining pedagogik tizimini texnologiyaning ravshanligi va mazmunliligi, tanani sozlashning qatʼiyligi, qoʻllar va oyoqlarning pozitsiyalariga asoslangan holda ishlab chiqdi. Vaganova tizimi XX asr balet sanʼatining rivojlanishida hal qiluvchi rol oʻynadi.

1931-1937-yillarda Vaganova S.M.Latob balet truppasining badiiy rahbari edi.

Agrippina Vaganova 1946-yilda xoreografiya arboblardan birinchi marta professor unvoniga sazovor boʻldi. Vaganova - RSFSR xalq artisti (1934), Stalin mukofoti laureati (SSSR Davlat mukofoti, 1946).

Shunday qilib, Agrippina Yakovlevna Vaganovaning ijodiy hayotida ikki davr aniq ajratilgan deb xulosa qilishimiz mumkin. U birinchisini eshladi - achchiq bilan raqqosaning sahnadagi martaba, ikkinchisi - inqilobdan keyingi pedagogik faoliyati uni butun dunyoga tanitdi. Ammo bu davrlar oʻzaro bogʻliqdir. Badiiy martaba bilan norozilik keyingi yutuqlarning kelib chiqishini yashiradi.

1921-yildan beri A.Y. Vaganova - buyuk oʻqituvchi, xoreografiyaning birinchi professori sifatida qadrlanib kelinadi. 1889-yilda u Sankt-Peterburg Imperial Teatr Maktabiga (hozirgi Rus Balet Akademiyasi) oʻqishga kirdi. Oʻqituvchilar A.A. Oblakova, E.O. Vasem, L.I. Ivanova, H.P. Yoxanson, P.A. Gerdt. 1897-yilda kollejni bitirgan. 1897-1916-yillarda - Mariinsk teatri rassomi. Qattiq akademik maktabning raqqosasi, u "oʻzgaruvchanlik malikasi" sifatida tanilgan (u Raymond, La Bayadere, Don Kixot, Koppeliya va boshqalarda yakka qismlarni ijro etgan) 1915-yilda u balerina unvonini oldi. Asosiy partiyalar orasida: Naila ("Oqim"), Odette-Odile ("Oqqush koʻli"), Tsar Maiden ("Kichkina otashin ot").

U oʻzining pedagogik faoliyatini 1918-yilda dastlab "Miklos maktabi", soʻngra A.L. Rus balet maktabida boshladi. Volinskiy.

Agrippina Vaganova 1921-1951-yillarda Petrograd-Leningrad xoreografiya maktabida klassik raqsning etakchi oʻqituvchisi boʻlib, u 29 ta chiqishni tugatdi. Talabalari orasida M.T.Semenova, O.G.Iordaniya, N.A.Anisimova, G.S.Ulanova, T.M.Vecheslova, N.M.Dudinskaya, F.I.Balabina, G.N.Kirillova, A.Y.Shelest,

O.N.Moiseeva, N.A.Kurgapkina, A.E.Osipenko, I.A.Kolpakova va boshqa bir qancha balet raqqosalari faoliyati tahsinga loyiq.

Agrippina Vaganova 1934-1941-yillarda raqs maktabi pedagogika bo'limining rahbari va etakchi o'qituvchisi, 1946-51-yillarda Leningrad konservatoriyasining xoreografiya bo'limining tashkilotchisi va mudiri bo'lgan. 1931-1937-yillarda Teatr baletining badiiy rahbari edi. Kirov (Mariinskiy), u erda "Swan Leyk" (1933) va "Esmeralda" (1935, 1948) baletlari sahnalashtirilgan. 1943-1944-yillarda - "Bolshoy balet" badiiy maslahatchisi kasbiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

U bir necha avlod taniqli balerinalarni tarbiyalagan. Izlanuvchan tadqiqotchi, ilhomlangan amaliyotchi, u rus raqs maktabining eng yaxshi xususiyatlarini - kantilena, uyg'unlik, ekspressivlik, eng yaxshi xususiyatlarni rivojlantirgan holda "Klassik raqs asoslari" darsligini (beshta nashrga qarshi chiqdi: 1934, 1939, 1948, 1963, 1980).

Vaganova harakatlarni muvofiqlashtirish sohasida ajoyib kashfiyotlar qildi, Sankt-Peterburg maktabining o'ziga xosligini aniqlaydigan korpusni ozod qildi, raqsning irodali xarakterini belgilaydigan chiroyli, kuchli va baquvvat "yangi qo'llar"ni taqdim etdi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Vaganovaning ajoyib pedagogik faoliyati va uning kitobi unga buyuk ustozlik shon-sharafini berdi va uni butun dunyoda tanitdi. Uning Rossiyada shakllangan klassik raqsni o'rgatish tizimi - "Vaganova texnikasi" deb nomlandi. Vaganova XIX asrning ikkinchi yarmidagi rus balet teatrining sahna amaliyotini (M.I.Petipaning ijodi), fransuz mumtoz raqs maktabining an'alarini (uning Rossiyada eng yorqin vakili X.P.Yoxanson edi), mohir italyan maktabining (E.Cheketti) yangiliklari, tamoyillarini o'zlashtirgan va o'z ijod yo'lining asosiy prinsiplarini egallagan olima edi.

Vaganovaning "Klassik raqs asoslari" kitobi tuzilishi - bu aniq tushunchalarga ko'ra harakatlar tavsifi, masalan, batmanlar, sakrashlar, turlar va boshqalar, bu o'quv tartibiga to'g'ri kelmaydi, ammo materialni tizimlashtiradi. Shu bilan birga, har bir bobda harakatlar o'sib boruvchi tartibda ko'rib chiqiladi - oddiydan eng murakkabgacha, ya'ni, tizimlashtirilgan A.Y.Vaganova darsda harakatlar tartibini o'rnatdi, bu boshqa maktablarnikidan ancha farq qiladi. Raqsqa uyg'unlik beradigan qo'llarning pozitsiyasini, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantirdi.

Pliye - undan, Vaganovaning so'zlariga ko'ra, mashqlarni boshlash kerak. Bu erda muallif nima uchun avval uni 1-pozitsiyada bajarishingiz kerakligini tushuntirib, xafagarchilik qildi. E'tibor bering, E.Cecchetti, N.Legat sinflarida bu harakat 2 pozitsiyadan boshlandi. Kitob muallifining so'zlariga ko'ra, pliye ikkinchi holatda o'ynash raqqosning butun muvozanati qurilgan vertikal o'qni ushlab turish uchun zarur bo'lgan ta'sirni bermaydi va u muskullarni osongina axloqsizlikka o'rgatadi.

Pliyedan so'ng, battement tendu harakati chaqirildi. Biz uchun bu, albatta, masala. Esda tutish kerakki, qadimgi frantsuz maktabida Cecchetti usuli bilan grand battement reaktivi amal qilgan.

Keyin Vaganova hamma biladigan harakatlar tartibini sanab o'tdi: rond de jamb parterre, battement fondyu, battement frappé, rond de jamb en l'air, pti battement, developpy, grand battement jet. Shunga qaramay, u shunday deb yozdi: "Men darslarni qurish uchun qat'iy sxemalar va qat'iy meyorlarni bermayman. Bu o'qituvchining tajribasi va ta'sirchanligi hal qiluvchi rol o'ynaydigan sohadir".

Vaganovani raqsdan qo'llar, tanalar va bosh harakatlarining roli va ahamiyati to'g'risida ishlab chiqqan uslubiy qoidalar alohida e'tibor bilan ko'rib chiqilishi kerak. Ishchi rol qo'llarning yordamchi roli bo'lib, bu Vaganovaning texnologik kashfiyoti bo'lib, u klassik raqs texnikasini mahoratini oshirishga yordam beradi va plastmassani ham, qo'l harakatlarining ravshanligini ham kamsitmaydi. Ushbu ajoyib usulda o'quv jarayonining puxta o'ylanganligi, mohirona texnikani rivojlantirishga qaratilgan mashqning jiddiyligi va eng muhimi, raqqosalarni har bir harakatga ongli yondoshishga o'rgatish istagi paydo bo'ldi. Vaganovaning shogirdlari pasni puxta o'zlashtiribgina qolmay, uni qanday qilib to'g'ri bajarish kerakligini va uning maqsadi nima ekanligini tushuntirishga muvaffaq bo'ldilar. Ularni individual kombinatsiyalarni yozishga majbur qilib, pasning muvaffaqiyatsiz bajarilishining sabablarini topishni taklif qilib, Vaganova harakatlarni to'g'ri muvofiqlashtirish to'g'risida tushunchani ishlab chiqdi. Raqsdan tanani erkin egalik qilishning eng muhim sharti Vaganova tananing qat'iy bayonotini ko'rib chiqdi. U 1 kursidan majburiy ravishda o'qishni tavsiya etadigan boshlang'ich kurslardan boshlab, yangi boshlanuvchilar uchun qiyinroq, ammo to'plangan tanaga odatlanib, uning harakatlari aplombni rivojlantirishga qaratilgan edi. Keyinchalik, aplomb sayohatlar va allegroda qiyin sakrashlar uchun asos bo'ladi. Vaganova o'z kitobida tez-tez harakat "tanadan" boshlanishi kerakligini ta'kidlaydi, chunki "tanadan" raqsi ishonchli qo'llab-quvvatlash va badiiy rang berish imkonini beradi. Tanaga alohida e'tibor qaratilishi (yelkalari va tanasini burish) shundan dalolat beradiki, uning darslarida ketma-ket ikkita tanani bir xil tutashgan holda ko'rish mumkin emas edi. Talabalarda zaruriy barqarorlik va moslashuvchanlikni rivojlantirgach, u jasorat bilan tanaga asoslangan turli xil suzish, renverse va boshqa harakatlarni mashqqa aylantirdi.

Vaganovaning tinimsiz g'amxo'rliги ham qo'llarni to'g'ri sozlash edi. Albatta, biz oyoqlar haqida gapira olmaymiz, chunki har qanday klassik raqs maktabi, avvalambor, eversiyani rivojlanishiga, katta qadamga va barmoqlarning kuchiga erishadi. Vaganova uning qo'llariga kam e'tibor berdi. Uning uslubiga ko'ra, qo'llar nafaqat raqqosning badiiy qiyofasini to'ldirishi, ifodali, yengil, "ohangdor" bo'lishi, balki katta sakrashlar va ayniqsa turlarda harakatga faol yordam berishi kerak, ba'zan tayyorgarlik tramplinini surishsiz bajarilishi kerak - bu erda kuch butunlay qo'lni

ushlab turish qobiliyatiga bog'liq. A.Vaganova tomonidan barcha turdagi aylanishlar texnikasi yaxshilanganligi bejiz emas. Oxir oqibat, Vaganovaning tizimi "butun vujud bilan raqsga tushishni", uyg'un harakatlarga erishishni va ekspressivlikni kengaytirishni o'rgatishga qaratilgan. Kitobda harakatlar asosiy tur bo'yicha guruhlangan. Bunday kompozitsiya dars haqida to'xtash qobiliyatini chekladi. Shu munosabat bilan uning ba'zi ajoyib xususiyatlarini esga olish kerak. Barcha talabalar Vaganova darslarining g'ayrioddiylik, mashqning tezligi va tezligi, xoreografik birikmalarning xilma-xilligini ta'kidlashadi. Agar Vaganova yangi boshlanuvchilar uchun ligamentlarning egiluvchanligini yaxshilash uchun harakatlarni takrorlash foydali va zarur deb hisoblagan bo'lsa, unda o'rta maktabda u saboqni cheksiz o'zgartirgan. Paganning mexanik assimilyatsiyasiga qarshi, Vaganova ularni har xil, har doim o'ylab topilgan kombinatsiyalarda taklif qildi -u darsda o'qituvchining improvizatsiyasini tan olmadi. Bunday dars o'quvchilarni diqqat markazida ushlab turdi, e'tiborlarini kuchaytirdi, faolligini oshirdi va katta foyda keltirdi. Talabalarning ijodiy tashabbusini rivojlantirib, Vaganova tez-tez ularga berilgan materialga kichik adagio yoki allegro taklif qilishni buyurdi. Hech qachon u erda to'xtamay, Vaganova yillar davomida yanada murakkablashib, darslarni yanada boyitdi. Xoreograflarning iste'dodli topilmalari uning e'tiboridan chetda qolmadi. U ikkilanmasdan rassomlar va maktab yoshlarini zamonaviy prodyuserlikka tayyorlash uchun tobora ko'proq harakatlar bilan shug'ullanmoqda.

Vaganova bir maqolasida shunday yozdi: "Meni uzoq vaqt ko'rmagan o'quvchilar mening tarbiyamda siljish, taraqqiyotga erishmoqdalar. Nega bunday bo'lmoqda? E'tibordan yangi tartibdagi spektakllarga. Darhaqiqat, hayot hamma joyda, hamma narsa o'smoqda, hamma narsa oldinga siljiydi. Shuning uchun men hayotni va san'atni kuzatishni maslahat beraman". Vaganova ushbu muhim vasiyatni o'z izdoshlariga qoldirgan.

Vaganovaning "Klassik raqs asoslari" kitobi nashrdan ko'p o'tmay deyarli barcha Yevropa tillariga tarjima qilingan va o'qituvchilar uchun ajralmas vositaga aylangan uzoq yillik pedagogik ishlarning natijasi, amaliyotda to'plangan va xoreografiya darslarini rivojlantirish bo'yicha chuqur fikrlar bilan umumlashtirilgan.

Ushbu kitob mahalliy va xorijiy balet sohasidagi mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi: "Madam Vaganova har bir balet raqqosasining kitob javoniga borishi kerak bo'lgan asar yozdi. U buyuk an'ananing mohir ustoz va homiysi sifatida juda katta va mukammal bo'lgan oddiy darslik yaratdi. Uning qarashlari juda sodda va professionaldir: kitob an'anaviy maktablarning texnik tafovutlariga oid dolzarb masalaga nisbatan haqiqiy nisbatlarga ega. Uning qasddan hukm qilishida va obektiv yondashishida qanday saboq bor! Unga berilgan baletni o'rganishga bag'ishlangan hayot unga ko'p bilimlar berdi, o'quvchilarining ehtiyojlarini chin



dildan anglab etdi”, deb yozgan ingliz milliy baletining badiiy rahbari Ninel de Valois Vaganovaning kitobi haqida.

Agrippina Yakovlevna Vaganova og‘ir baletning barcha bosqichlarini bosib o‘tdi. U o‘zi taniqli balerina emas edi - uning haqiqiy kasbi, iste’dodi boshqalarga raqs san’atini o‘rgatish, o‘zi tushungan narsalarni talabalarga etkazish edi.

Qizil Bayroq ordeni va medallar bilan mukofotlangan, RSFSR Xalq artisti (1934), 1946-yil uchun Stalin mukofoti laureati bo‘ldi.

Shunday qilib, ilmiy nuqtai nazardan, vaqt o‘tishi bilan bir-birini to‘ldiradigan rus, fransuz va italyan maktablarini o‘rgangan holda xulosa qilishimiz mumkin. Vaganova, Petipa maktabiga asoslanib, uni rivojlantirmoqda, chunki har qanday maktab, uning fikriga ko‘ra, tirik organizm, dogma emas, o‘z o‘quv tizimini yaratgan, raqqosa tanasining maksimal darajada rivojlanishiga hissa qo‘shadigan darslar yaratgan va uning o‘quvchilari elliktagacha bemalol raqsga tushishgan. yillar, bu butun balet olamida hayrat va hayratga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, bular ajoyib balet aktrisalari edi, chunki Vaganova raqs tasvirisiz toza texnikani tan olmadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. А. Ваганова. Основы классического танца. — Лань, 2000. // Электронная библиотека
2. Красовская В. М. Ваганова. — Л.: Искусство, 1989. — 224 с.

## JO‘ROVOZLIK SAN’ATI

Boltaboyeva Umidaxon Mansurjonovna  
O‘zDSMI FMF

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jo‘rovozlik ijro an‘analarining ayrim xususiyatlari xususida jo‘rovozda kuylash, yosh iste‘dodli xonandalar, jo‘rovozlikda ovozlarning bir-biriga mutanosibligi katta ahamiyatga ega ekanligi haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Musiqa, bastakor, xalq qo‘shiqchiligi, ovoz, katta ashula, jo‘rovozlik, klassika.

## THE ART OF CRUELTY

Boltaboyeva Umidaxon Mansurjonovna  
FRB UzSIAC

**Abstract:** This article discusses some of the characteristics of the traditions of violent performance, such as the importance of singing in violence, young talented singers, and the balance of voices in violence.

**Keywords:** Music, composer, folk song, voice, big song, violence, classical.

Musiqa san‘atining olami juda keng. Uzoq o‘tmishdan boshlangan sehrli ohanglar ummoni asrlar davomida juda ulkan merosga aylangan. Tarix davomida musiqa san‘atining behisob namunalari shakllanib, avlodan-avlodga o‘tib, rivojlanib keldi. O‘z ravnaqi jarayonida esa, musiqa turlarga bo‘linib, muayyan xususiyatlar doirasida alohida-alohida janrlarga ajratilgan. Ijodiyot esa ana shu janrlar negizida amalga oshirilib, rivojlanib keldi.

O‘zbek musiqa san‘ati boy va ulkan merosga egadir. Undagi namunalar orasida oddiy allalardan tortib, yirik-yirik maqom asarlarigacha mavjud bo‘lgan har bir namuna va janrlar o‘z shakli, mazmuni, ta‘sir kuchi, ijro vaqti va an‘anasiga ega. Ijodiyot jarayoni ana shu mezonlarga asoslangan holda muntazam ravnaq topib keladi. Uning asosiy ijodkorlari musiqa olamining sehrlarini anglab, qalblarga taqdim etuvchi xalq bastakorlaridir. Shuning uchun musiqa san‘atining doimo rivojlanib, yangilanib boruvchi xususiyati aynan bastakorlar bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbek musiqasining zamonasiga, an‘anasiga xos tarzda rivoj topishida bir qator nomdor bastakorlar samarali ijod qilganliklarini alohida aytib o‘tish lozim. Xoji Abdulaziz Abdurasulov, To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Nabijon Xasanov, G‘anijon Toshmatov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Faxriddin Sodiqov, Orifxon Xotamov kabi taniqli bastakorlarning nomlari va ular yaratgan asarlar allaqachon

o'zbek musiqa merosidan joy olib bo'lgan. Halimjon Jo'raev va Ahmadjon Dadayevlar ana shu behisob an'analarni zamonamizga mos tarzda davom ettirishga muvassar bo'lib kelayotgan ijodkorlardandir. O'zbek mumtoz va xalq ijrochiligining an'alarida, xonandalik ijro talqinlarining juda turi ko'p. Asrlar osha xalqimizning yuksak ma'naviyati negizida betakror qadriyatlari shakllangan va asrlar osha rivojlanib kelgan. Bu qadriyatlar asrlar osha avlodlardan avlodlarga o'tish jarayonida turli ijrochilik yo'nalishlari yuzaga kelgan. Ayniqsa mahalliy ijro uslublari va shaxsiy hofizlarning ijro yo'llarini bunga misol sifatida ko'rsatish mumkin. Xalq tomonidan juda yaxshi ko'rilgan va ardog'iga aylangan ijrochilik uslublari, an'anaviy tarzda avlodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda. Mumtoz xonandalik san'atining o'zi har tomonlama juda murakkabligi, ijrochidan katta iste'dod, ovoz va mahorat talab etishi bilan xalq qo'shiqchiligidan farq qiladi.

Azal-azaldan xonandaning ovozi bo'lmasa bu amalga qo'l urmay qo'ya qolgan. Ovoz, faqat aytganda chiqadigan ovozning o'zigina emas. Odatda ovoz - balandligi, diapozoni, kuchi va tusi (tembri) bilan xarakterlanadi. Lekin xalq va mumtoz xonandalik san'atida bundan boshqa insonlar qalbiga tarovat baxsh etuvchi jihatlari bilan ham sug'orilgan bo'ladi. El ichida xonanda nomini olganlarning barchasida mustahkam ovoz, shunga yarasha repertuar, bilim va mahorat bo'lgan. Shu bois bo'lsa kerak an'anaviy xonandalik sohasiga qabul qilinadigan yosh iste'dodli xonandalar, avvalambor ovoz imkoniyatlariga qarab tanlanadi. Ovoz xonandaning eng birinchi o'rinda turadigan ko'rkidir. Shu bilan birga, har bir xonandaning ovozida uning ruhiyati va qalbi bilan bog'liq jarangi, tarovati, mungi bo'ladi. Ana shu xususiyatlar xonandaning xonishidagi joziba va ma'noni bildirib turadi. Ijrochilik amaliyotida yakka xonandalik bilan dovuq taratgan xonanda-hofizlar sanoqli o'tganlar. Ular hayotlarida ham va undan so'ng ham doimo ijrochilik amaliyotining rivojida o'rnak bo'lib keladilar. Zero, mukammal ijro doimo o'zidan keyingi avlodlar uchun ibratdir. Xonandalik amaliyotida yakka xonish bilan birga qo'sh ovozlarda xonish qilish, azaldan butun dunyo xalqlari ijrochilik amaliyotida qo'llanib kelingan. Bu an'ana hozirda ham turli ko'rinishlarda davom etib kelmoqda. Jo'rovoqlik ijro an'alarining ayrim xususiyatlari xususida va turli jihatlari to'g'risida ustozlar bir qator fikrlarni aytib ularni o'ziga xos sabablari bo'lganligini qayd etib o'tadilar. Birinchidan: katta davralarda ovozni kuchaytirish (ijro hammaga yetib borishi); ikkinchidan murakkab asarlarni ijrosida ovozni toliqtirmaslik, ya'ni galma-galdan ijro etish; uchinchidan bir ijroni o'zida ikki yo'lda talqin etish va h.k.

Hattoki, musiqa nazariyasining eng yuqori bosqichlaridan biri polifoniya so'zining kelib chiqishini ham aynan jo'rovoqlikka asoslaganlar. O'zbek xalq musiqa ijrochiligida ham jo'rovozda kuylash azal-azaldan xalqimiz orasida keng ommalashib kelgan. Uning professional ko'rinishi, ya'ni mumtoz musiqa ijrochiligida muayyan janrlar korinishida amaliyotda shakllanib rivojlanib kelingan. Jumladan, katta ashula,

maqom ijrochiligi va hakazolardir. Jo'rovozlikda ikki va undan ortiq ovozlari (erkak ovozlari) birgalikda xonish qilinganga aytilib kelingan. Qayd etilgan janrlarning ijroviy xususiyatlarida aynan bu jihat bilan bog'liqlik borligini qayd etish lozimdir. O'zbek musiqqa ijrochiligining mumtoz yo'llariga mansub ashulalarini, yallalarini qo'sh ovozda aytish, XX asring birinchi choragidan so'ng ijro amaliyotiga kirib kelganligi risolalarda bayon etilgan. Uning kelib chiqishiga ham aynan katta ashula ijrochilik uslublari zamin bo'lganligini e'tirof etish lozimdir. Chunki aynan katta ashulachilar tomonidan bu uslubda aytish rasm bo'la boshlagan. Katta ashula ijrochiligidan farqli o'laroq soddaroq va o'z o'rnida mukammallik jihatlarni o'zida mujassam etgan ijro yo'li deyish mumkin. Ya'ni, Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlar ijrosida mumtoz yallalar va mumtoz ashulalar jo'rovozlikda ijro etila boshlagan. Shundan so'ng Akmalxon va Boboxon So'fixonovlar, Shoqosim, Shoolim va Shoakbar Shojalilovlarning ijro faoliyatlarida jo'rovozlik ijodi keng ommalashganligini guvohi bo'lamiz.

Orifxon Hotamov ham o'zining xonandalik faoliyatini ko'p qismini jo'rovozlik ijrosi amaliyotiga va uning rivojiga baxsh etgan ustoz san'atkorlardan biridir. Jo'rovozlik ijrochilik san'atini Orifxon Hotamov ustozlari Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlardan o'rganishga muvaffaq bo'lgan. Katta ashula ijro uslubiga xos bo'lgan ushbu ijro uslubi xonadadan katta san'at talab etadi. Ijrochilik jihatlaridan tashqari o'ziga xos tomonlari borki, bu tomonlar tinglash, anglash, his etib talqin etish bilan bog'liqdir. Ikki va undan ortiq ovozlarning bir meyorda, bir xil va bir-birini ham mazmunan, ham mantiqan va ham shaklan bir-biriga mutanosib davom ettirish jo'rovozlikning eng ahamiyatli tomonlaridandir. Jo'rovozlikning talqin mezonlari bir qator uslubiy yo'llariga ega. Bulardan, ikki ovoz bir-biriga jo'r bo'lib kuylash, ya'ni jo'rovozlikda bir xil kuylash; katta ashula uslubida birin-ketin kuylash va nihoyasida qo'shilishib kuylash; duet uslubida kuylash; erkak ovozlarning jo'rovozligi; erkak va ayol ovozlarning jo'rovozligi; polifonik uslubda ikki yo'lga ega bo'lgan musiqiy namunalarni kuylashdan iboratdir. Har bir uslubning ijro jarayonida muhim hisoblangan jarayon, bu xonandalarning ijrosidagi ovoz talqinlarini mutanosibligidir. Ovozlar har xil tusga (tembrga) ega bo'lishi ham unchalik tafovutlarga sabab bo'lmaydi. Aksincha, bir - birini boyitib, ularning jo'rovozligida inson ruhiyatiga mos keladigan o'zgacha ovoz tembrlari hosil bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Lekin, jo'rovozlikda ovozlarning bir-biriga mutanosibligi katta ahamiyatga egadir. Orifxon Hotamov o'zining ijrochilik faoliyatida ustozlari Jo'raxon Sultonov, safdoshlari Eson Lutfullayev, Hakimjon Fayziyev, ukalari Ahrorxon Xotamov, o'g'illari Ismoilxon, Muhammadxon Hotamovlar bilan' birgalikda hamnafaslik qilganliklarini e'tirof etish lozimdir. Ularning har bir jo'rovoz hamnafaslarining o'ziga xos jozibasini va ruhiyatini bo'lgan. Lekin, ijro uslubiga ustoz Orifxon Hotamovning talqini asos bo'lganligini aytib o'tish lozimdir. Jo'rovozlikda bir necha yillar faoliyat olib borgan ustoz Orifxon

Hotamov bu borada shogirdlarga nisbatan o'zgacha munosabatlarni ko'p o'ylaydigan inson bo'Mganlar. Jo'rovozlarning turli jozibalarini Orifxon Hotamov klassik namunalardagi operalarda qo'llaniladigan duet va triolar ijrosidan, g'arb musiqasining turli xalq ommaviy qo'shiqlar ijrolaridan qidirardilar. Chunki har qanday jo'rovozlarning o'z shakli, mazmuni, yo'nalishi, talqini, jozibasi va falsafasi mavjuddir. Uni qo'llashning o'zi bo'lmaydi, chunki, ovozlar mutanosibligi, ijro silliqdigi, ijrochining mahorati, bilimi, ijro talqini va tafakkur doirasining bir biriga mosligi bu jarayonda o'zini namoyon etishi begumondir. Shuning uchun jo'rovozlarning ijrochiligi bir-biriga mos xonandalarning tanlanishi juda mushkuldir. O'zbekistonda Ozarbayjon respublikasining adabiyoti va san'ati dekadasi kunlarida, Navoiy nomidani opera va balet teatri binosida Ozarbayjon san'at ustalarining konsert namoyishi bo'lib o'tadi. Shunda butun jahonga mashhur Ozarbayjonlik betakror ovoz sohibi Shushinskiy Alek Piyero bilan birgalikda duet ijro etadi. Ijroda ular opera san'atining jahon klassik namunalaridan va ozar xalq va klassik musiqqa namunalarini shu darajada ijro etadilarki, ularning jo'rovozlarning mahoratiga tasannolar o'qiladi. Bundan katta ta'sirlangan Orifxon Hotamov ham o'zbek xalq xonandalik san'atida erkak va ayollarining mutanosib ovozlarda jo'rovozlari xususida izlanadi. Shogirdlari Mahbuba Hasanova va Matluba Dadaboyevalarga bir ikki asarlarni jo'rovozlarda o'tgatadi va ularning ovozlari bunga moyilligiga amin bo'ladi. Lekin, Shushinskiy bilan Alek Piyerolarning duetiga o'xshagan ijro amalga oshirish uchun qizlarning ovoziga mos keladigan erkak- tenor ovoz zamirligi haqida o'ylaydi. Bunday imkoniyatni ustoz o'zining shogirdi Beknazar Do'stmurodovda ko'radi. Uning ovozining tikligi, eng muhimi jo'rovozlarga moyilligi xususida ishlar olib boradi. Ularning ovozlari har tomonlama o'rganib muayyan asar ustida ish olib boradilar. Matluba Dadaboyeva, Mahbuba Hasanova va Beknazar Do'stmurodovlardan ashulachilar triosini tashkil etib, ularga-mashhur bastakor To'xtasin Jalilovning "Yolg'iz" ashulasini o'rgatadi. Ikki qismdan iborat bo'lgan "Yolg'iz" ashula namunasi, ijrochilik amaliyotida bir qator xonandalar tomonidan turli uslublarda maromiga yetkazib ijro etilganligini musiqqa ixlosmandlarigina biladilar. Qayd etish joizki har bir ijrolar o'ziga xos talqin etilgan. Qolaversa bu ijrolarda biz har bir hofiz talqinining o'ziga xoslik jihatlari borligiga ishonch hosil qilamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rajabov. "Maqomlar", T., 2006 y.
2. Y.Rajabiy. "O'zbek xalq musiqasi" I-FV j. T., 1057-1959 yy.
3. S.Begmatov. "Orifxon Xotamov", T., 2000 y.
4. O'.Rasulov. "Betakror bastakor", O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2012 y.
5. O.Matyoqubov. "Maqomot", T., 2004 y.
6. O'.Rasulov. "Ko'zga aylansin ko'ngil", T., 2012y.

7. B.Shomaxmudova, "Xor lug'ati", T., "Musiqa" 2009 y.
8. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
9. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
10. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
11. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o 'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
12. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
13. Ҳатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
14. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
15. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
16. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
17. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).
18. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).
19. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.
20. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. International Journal of Culture and Modernity, 11, 1-7.
21. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. Oriental Art and Culture, 2(3), 170-178.
22. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).

23. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.

24. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.

25. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.

26. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.

27. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).

28. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.

29. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

30. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.

31. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.

32. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).

33. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.

34. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.

35. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.

36. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

37. Деҳқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

38. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.
39. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.
40. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.
41. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.
42. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).
43. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.
44. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
45. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 118-124.
46. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
47. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
48. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).



## ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ БЕРТА ДАВИДОВАНИ ХОТИРЛАБ

Замира Суюнова

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти

**Аннотация:** Мазкур мақолада ўзбек миллий мусиқа санъатида алоҳида ўринга эга бўлган санъаткор Берта Давидова ҳаёт йўли ва сермахсул ижоди ҳақида батафсил малумот берилган.

**Калит сўзлар:** санъат, узтоз-шогирд, мумтоз, кўшиқ, миллий мерос, мақом, шашмақом.

### IN MEMORY OF PEOPLE'S ARTIST OF UZBEKISTAN BERTA DAVIDOVA

Zamira Suyunova

Uzbek National Institute of Musical Arts named after Yunus Rajabi

**Abstract:** This article provides detailed information about the life and work of Berta Davidova, an artist who has a special place in the Uzbek national music.

**Keywords:** art, teacher-student, classic, song, national heritage, maqom, shashmaqom.

Ўзбек миллий мусиқа санъатига назар солар эканмиз унинг йиллар асрлар, оша авлоддан-авлодга ўтиб келаётганлиги ва бундан кейин ҳам яна ривожланиб бориши ҳаётининг қонун эканлиги айтиш ҳақиқатлигига яна бир бор ишонч ҳосил қиласиз.

Қадим замонларда яшаб ижод этган мусиқашунос олимларнинг мусиқа ҳақидаги рисолаларида, ўтмиш ҳофиз-у, созандалари ҳаёти ва ижодлари, уларнинг ижро маҳоратлари, услублари ҳақидаги маълумотлар бизга этиб келган. Манбалардан маълумки, ўтмиш устозларнинг ижодида халқимизнинг мумтоз анъанаси ва мусиқий мероси шаклланиган. Мақомнинг асрлар оша аста-секинлик билан ривожланиб, шаклланишида ўз ҳиссаларини қўшган мусиқашунос олимлар ва устоз санъаткорларнинг хизматлари беқиёсдир. Қолаверса, мумтоз кўшиқчилигимизда ўзларининг ижоди ва ижролари билан эл орасида машҳур бўлган санъаткорларимизни ижодини ўрганиш бизнинг касбий заруратимиз ва бурчимиздир.

Ўз даврида турли соҳада фаолият олиб борган ва мусиқашуносликка ҳам дахлдор бўлган инсонлар - Фаробий, Ибн Сино, Ҳусайний, Жомий, Навоий, Шерозий каби мутафаккир олимларнинг мақомларимизнинг шаклланишида

хизматлари катта. Бундай номларни кўплаб келтиришимиз мумкин. Ўтган асрда, яъни бизни давримизга яқинроқ бўлган йилларда яшаб ижод қилган устозлардан А.Фитрат, В.Успенский, Ю.Ражабий, И.Ақбаров, Мулла Тўйчи Тошмухаммедов, И.Ражабов, Ж.Султонов, Т.Жалилов, Ғ.Тошматов, М.Узоқов, Ф.Содиқов, С.Қобулова, Б.Давидова, С.Аминов, К.Исмоилова, О.Алимахсумов ва яна бир қатор устозларни хурмат билан эслаймиз. Зеро улар мумтоз мусиқамизнинг авлодлардан-авлодларга ўтиб келишига ҳисса қўшганлар. Халмизнинг маънавий дунёси ва уларни ривожда ибрат бўлганлар.

Дарҳақиқат, анъанавий мумтоз кўшиқчиликда ўзларининг гўзал овози, маҳоратли ижролари билан халқимизнинг меҳру - муҳаббатига сазовор бўлганлар жуда кўп эмас. Лекин улар маънавиятимизнинг сарбонлари бўлганлар. Уларнинг орасида бир қатор аёл хонандаларимиз ҳам тарих зарварақларига олтин ҳарфлар билан номлари билтилган. Жумладан Саодат Қобулова, Зайнаб Полвонова, Берта Давидова, Ҳабиба Охунова, Фароғат Раҳматова каби устозларнинг ижро йўллари биз учун катта мактаб ҳисобланади.

Ўтган асрнинг 45-60 йилларида яшаб, ижод қилган санъаткор аёлларимизни қаҳрамон аёллар деб атагим келади. Чунки у йилларда бу касбдаги аёл санъаткорларга халқимиз орасида салбий муносабатлар кўп бўлган. Шунга қарамасдан мусиқа санъатини ҳаётининг мазмуни деб ҳисоблаган аёлларимиздан бири Берта Давидовадир.

Тақдир тақозоси билан Берта Давидова замонасининг забардаст устоз санъаткори Юнус Ражабий билан учрашади ва умрини бахшида этган санъат даргоҳига қадам қўяди. Бу аввало тақдир бўлса, иккинчидан ўзбек санъати яна битта фидоий инсонга, бетакрор овоз соҳибасига ва ўз ижоди билан камол топган санъат намояндасига бойийди. Берта опанинг ижросини эшитган устоз Юнус Ражабий уни ансамблга олиб келган ва бу жамоа Берта опа учун муқаддас даргоҳ, устозлар, яъни билим манбаи сифатида хизмат қилган. Шу сабаб Берта Давидованинг қалбидаги орзуси ушалиб, яхши кўрган машғулоти булган хонандалик билан астойдил шуғуллана бошлаган. Устоз Юнус Ражабий Берта опанинг овозларини мақом ашулалари учун яратилган деб ҳисоблар эдилар. Шундай қилиб Берта опа профессионал хонанда бўлиб шаклланган ва устозлар, мухлислар Берта опани мақом ижролари маликаси деб таъриф берганлар.

Ўтган асрнинг 60-йилларида Ўзбекистон радиоси қошидаги мақомчилар ансамбли томонидан Шашмақом ашулаларини магнит тасмаларига туширилган. Ана шу машаққатли шароитда деярли барча асарлар ижросида опа ўз ижролари билан иштирок этганлар. Маълумки ҳар бир ансамблнинг етакчи созандаси ёки етакчи хонандаси бўлади. Мақомларни эшитганимизда Берта

Давидованинг кучли, жозибали, фақат ўзига хос бўлган ижро йўлини дарҳол илғаб оламиз. Чунки, опа доимо ансамбл жамоасида етакчи хонанда бўлган. Берта опа ижро қилган “Муножат”, “Фигон”, “Сарахбори Оромижон”, “Чапандози Наво”, “Талқини Ушшоқ”, “Таронаи Баёт” каби ашулалар хонандалар учун ижро намунаси бўлиб хизмат қилмоқда. Мен ҳам болалигимдан уларнинг қўшиқларини севиб тинглардим. Кейинчалик “Талқини Баёт”, “Тановар-2”, “Савти Чоргоҳ”, “Фигон”, “Муножат” каби уларнинг ижро йўлларида ўрганиб ижро этганман.

Санъатнинг даргоҳи кенг, унинг меҳнати машаққатли, лекин шарафли эканлиги барчага маълум. Менинг ушбу санъаткор билан илк учрашувимиз 1979-йили “Дуторчилар ансамбли” фаолияти бошланган йилларда эди. Ўша пайтлар мақомчилар ансамбли машқ қиладиган хонада биз ҳам улардан кейин ишлар эдик. Гоҳида мен вақтлироқ бориб уларнинг ижроларини эшитар эдим. Бир куни ишларини тугатиб кетаётганда бориб кўришганман. Дид билан кийган либослари ўзларига ярашган гўзал, дилбар аёл эдилар. Ҳар бир мурожаат этган инсон билан дилдан гаплашиб, синчиклаб ўрганардилар ва албатта ёрдамларини аямас эдилар. Санъатда жуда машҳур хонанда бўлсалар-да, камтарин инсон бўлганлар.

Кейинчалик Ҳабибий ғазали билан айтиладиган “Сайри гулзор этгали ҳар лаҳза жанон кўзгалур” сўзи билан айтиладиган қўшиқларини ва “Талқини Баётни” менга ўргатганлар. Камтарин инсоннинг уйларида машқ қилиб мақом сирларини ўрганганман. Ҳозир, ана шундай устоз санъаткор билан узок суҳбатлашиш бахтига муяссар бўлганимдан фахрланаман.

Берта опанинг овоз тембрлари ёқимли, жозибали ва кучли эди. Хонишда кўп устозларни сабоғини олганликлари уларнинг ўргатишларида сезилиб турарди. Чунки, ашула ўргатиш жараёнида сахна маҳоратини ҳам кўрсатиб берар эдилар. “Кўшиқ мавзуси ҳолатига кириб, бутун вужудингиз билан куйланг” дер эдилар.

Мақом асарлари ижроси созанда-ю хонандалар учун энг мураккаб ижро йўналиши ҳисобланади. Чунки мақом асарларининг диапазони нисбатан катта, усуллари эса мураккаб ва бир бирини тўлдирувчи хусусиятларга эгаллиги билан ҳам ажралиб туради. Лекин, Берта опа ҳар доим янги асарни тез ўрганар эдилар. Менга айтишларича, ишхона билан уйлари масофаси яқин бўлгани учун уйга яёв қайтар эканлар. Шу юришларида қадамлари билан усул бериб, яъни ашулани хиргойи қилиб келар эканлар ва мураккаб асарларни ҳам тезроқ ўзлаштириб олар эканлар. Бу албатта худодод устозларга хос хусусият ва Берта опанинг ижроларида ҳам буни сезиш мумкин. Чунки, ҳар бир асарни ўз меёрида, катта маҳорат билан, анъанани сақлаган ҳолда, жозибали овоз билан ижро этар эдилар.

Бизнинг давримизда мақом санъатини ўрганаётган ёшлар ўзларига муносиб ва энг муҳими мусиқий меросимизни катта маҳорат билан жозибали ижро этган хонандаларнинг ижроларини танлайдилар. Бу борада ҳам Берта опанинг мукаммал ижроларда қолдирган мерослари, ижро услублари, тарқин йўллари ёшларимиз учун ибратдир. Қолаверса, ўзбек миллий мусиқаси йўналишида фаолият олиб бораётган барча санъаткорлар устозларимиз ижодларидан ўрганган мумтоз, классик асарларни ёшларга ўргатадилар. Уларда ҳам Берта опанинг ижро услублари алорҳида аҳамиятга сазовордир. келмоқдамиз.

Ўз навбатида бу ашулалар авлоддан авлодга ўтиб, ўзбек халқининг номоддий мусиқа санъати меъроси сифатида қадрланияпти, эътироф этилияпти. Бунда албатта Ўзбекистон халқ артисти, бетакроп овоз соҳибаси Берта Давидованинг ҳам хизматлари беқиёс.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

2. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.

3. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.

4. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.

5. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.

6. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.

7. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.

8. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).

9. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

10. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 25-28.

11. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.

12. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

13. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий муסיқий ижрочилик санъатида бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.

14. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.

15. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

16. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 117-119.

17. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In *Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015* (pp. 318-316).

18. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.

19. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.

20. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.

21. Қурбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.

22. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

23. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 50-54.
24. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛГУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).
25. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 113-115.
26. Ismoilova, M. (2020). CHOLGU IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. *Oriental Art and Culture*, (V).
27. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. *Oriental Art and Culture*, (V).
28. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 90-96.
29. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.
30. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.
31. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. *An International Multidisciplinary Research Journal. An International Multidisciplinary Research Journal*.
32. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
33. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.
34. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.
35. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.
36. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.
37. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

## MUSIQIY SHAKL VA UNING UMUMIY TAMOIYILLARI

Zarlıq Bekbergenov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

**Annotatsiya:** Musiqiy asarlar tahlili fanining asosiy maqsad va vazifalari talabalarda musiqiy asarlarning har tomonlama chuqur o'rganishini, uni mazmun va shakl jihatidan bir biri bilan qanday bog'liqligini ko'rsatib berishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** musiqiy asarlar tahlili, fan, vazifalari, mazmun va shakl, analiz, badiiy obraz.

## MUSICAL FORM AND ITS GENERAL PRINCIPLES.

Zarlyk Bekbergenov

Nukus branch of Uzbekistan State Institute Arts and Culture

**Abstract:** The main goals and objectives of the analysis of musical works are to show students the in-depth study of musical works in all its aspects, how they relate to each other in terms of content and form.

**Keywords:** analysis of musical works, science, tasks, content and form, analysis, artistic image.

Musiqiy asarlar tahlili fani o'zining kengqamrovligi, murakkabligi, bilan oliy o'quv yurtida o'tiladigan muhim fanlarning biri bo'lib hisoblanadi. Bu fan o'zining tarkibida musiqa asarlarining turli tomonlarini, uning mazmunini, ifodalash vositalarini hamda shakllantirish jihatlarini qamrab oladi. O'z navbatida bu jihatlar uning janrlar, uslublar haqida so'z yuritishga imkon beradi.

Musiqiy asarlar tahlili fanining asosiy maqsad va vazifalari talabalarda musiqiy asarlarning har tomonlama chuqur o'rganishini, uni mazmun va shakl jihatidan bir biri bilan qanday bog'liqligini ko'rsatib berishdan iborat.

Analiz so'zi (tahlil) yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ajratish, bo'linish - ma'nolarini anglatadi. Qadim zamonlardan tortib kishilar dunyoni bilish jarayonida ishlatadigan, o'zaro chambarchas bog'langan tekshirish usullari. Analiz fikran yoki amalda narsa va hodisani tarkibiy bo'laklarga bo'lishdan iboratdir. Inson atrofini o'rab turgan obyektiv borliq murakkab va shu bilan birga konkret narsalar, hodisalardan iborat. Ular xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega. Shu murakkab, har turli narsa va hodisalarni o'rganish va bilish, ular to'g'risidagi tushunchalarimizni chuqurlashtirish uchun shu narsa va hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratish - analiz lozim.

Musiqqa san'atida analiz (tahlil) fani - musiqiy asarni ilmiy tadqiq qilib, uning uslubini, shaklini, musiqiy tilini, shuningdek har bir unsurining rolini va ularning musiqqa mazmuni bilan o'zaro uzviyligini o'rgatadi. Tahlil tadqiqotning uslubi sifatida butun birlikni bo'laklarga bo'lib, uning tizimidagi unsurlarni alohida-alohida o'rganib chiqishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.[1.B.312]

Musiqiy asarlarni tahlil qilish jarayonida, musiqaning turlari, qirralarini yaxshi bilish kerak bo'ladi. Bu borada tahlil fani «musiqqa tarixi», «garmoniya», «polifoniya», ayniqsa «musiqqa shakli» fanlari bilan juda yaqindan bog'liqdir. Tahlil qilinayotgan asarning janrini, uslubini yaxshi bilish bilan bir qatorda ushbu asarning yaratilish tarixini, kompozitorning shu davrda qanday sharoitda yashaganligini, zamonning shart-sharoitlari qanday axvolda ekanligi bilish xam muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy asarlar fanining murakkabligi uning ikkilamchiligidandir.

Musiqiy asarlar tahlili nafaqat turli xildagi qonunlar bilan bog'liq, shuningdek u estetika, psixologiya masalalarini xam o'z ichiga oladi. Tahlil musiqani chuqur o'rganadi, musiqqa esa o'z navbatida o'ta murakkab san'at turidir. Shuning uchun ham bu san'at turini turli xildagi mutaxassislar o'rganadi: musiqqa san'ati estetika fanining (umumiy qoidalari), psixologiya fanining (emotsional xarakterlari), falsafa fanining (mavzularning ziddiyatligi), shuning bilan birga musiqqa tarixiy faktlar (kuy, ritm, garmoniya, ovozlarning past-balandligining o'zaro bog'liqligi) obyektini bo'lib xizmat qiladi.

*Musiqiy uslub.* Musiqiy asarni to'laqonli tahlili uchun janr va uslub tushunchalari muhimdir. Uslub va janr orasidagi aloqalar nozikdir. U yoki bu janrdagi asarlar har xil uslublarda uchraydi. Shu bilan birga u yoki bu uslub ko'pgina janrlarda uchrashi mumkin. Ba'zi bir kompozitorlar uslubini uchun aniq bir janrlar xarakterlidir (Verdi, Vagner, Rimskiy-Korsakov uchun opera, Shopen uchun - fortepiano miniatyuralari). Ba'zi bir janrlar u yoki bu uslubda ko'p qo'llaniladi (Baxda - xoral, Shopenda - mazurka).

Uslub deb ko'pincha ijodiy ifoda etish yozuvi, manerasi deb tushuniladi. Ammo uslub tushunchasi ancha keng: ma'lum asar, kompozitor, ijodiy yo'nalishga xos bo'lgan ifodaviy vositalar xarakterligini ko'rsatadi.[2.B.45]

*Musiqiy uslub(stil)* - musiqiy tafakkur, timsollar va vositalarni ifodalanishi tizimidir. Uslub badiiy ijodning yuqori kateoriyasi xisoblanib badiiy tizim ichida davrni dunyoqarashini gavdalantiradi. Uslub keng (masalan vena klassik uslubini) va tor (bir kompozitorga tegishli uslub) ma'noda qo'llaniladi. Uslubni keng ma'noda biz "davr uslubini" - barokko, klassitsizm, romantizm uslublari haqida gapirishimiz mumkin. Zamonaviy musiqada uslublarni kontrast aloqalari haqida gapiramiz - bu polistilistika.



Uslubda kompozitorning musiqali tafakkuri, uning ijodiy usuli aks ettiriladi. Musiqali tafakkur esa kompozitorning dunyoqarashi bilan izchil bog'liq bo'lib, tarixan va ijtimoiy shartlangan. Shuningdek, uslub faqatgina ma'lum kompozitor ijodiga taalluqli bo'libgina qolmasdan, maktab, yo'nalish, davr, musiqaaning milliy xususiyatlariga ham xosdir.[3.B.67-68]

Uslub tushunchasi musiqiy til tushunchasiga yaqin bo'lib, ba'zida ular bir ma'noni bildiradi. *Musiqiy til* - bu ifodaviy vositalar jamidir. Unga, albatta, u yoki bu uslub xosdir. Va aksincha, barcha uslub faqat o'ziga xos xarakterli musiqiy tilda ifoda etilinadi. YA'ni, ular o'xshash bo'lsa ham, ularning tushunchalari bir emas.

San'atda *janr* asosiy tushunchalardan biri. Janrlar tarixan vujudga kelgan bo'lib, bir qator belgilar bilan ajratilgan musiqiy asarlarning nisbiy turg'un turi va xillaridir. Ulardan asosiy xususiyatlari:

1. hayotdagi o'rni, jamiyat turmushidagi funksiyasi;
2. ijroni sharoiti va vositasi;
3. mazmun turi va shaklni gavdalanishi.

Janr musiqiy ijod turg'un normalari sifatida qabul qilinadi. Uni tushunish uchun besh savolga javobni aniqlash lozim: kim uchun, qayerda, kim orkali, nima ijro etiladi va kanday maqsadda? (V.Sukkerman). Ko'pgina janrlarning hayotiy o'rni mavjuddir. "Janr" tushunchasi keng (masalan, raqs), va tor (mazurka, vals) ma'noda qo'llaniladi. Janr - bu mazmuni umumiy xarakterini ko'rsatuvchi asarning turi. Musiqiy janrlar mazmuniga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: harakatchan, lirik, dramatik, epik, dasturli va h.z. Funktsional ahamiyatiga ko'ra: maishiy va professional.

Musiqali janrlar ijro vositalar bo'yicha tasniflanishga qulaydir:

1. Cholg'u musiqa: orkestrli(simfonik), kamer (ansambl, uning turlari - trio, kvartet va hok.), yakka (fortepiano, organ va hok.).
2. Vokal musiqa: xor, ansambl, jo'rli yakka ijro va hokazo.
3. Aralash vokal-cholg'u musiqa: kantata, oratoriya, vokal-cholg'u ansambllar va hok..
4. Teatral musiqa(sahna, harakat, artistlar o'yni): opera, balet, operetta, dramatik teatr, kino uchun musiqa. [4.B.90-91]

Bu tasnif janrlar haqidagi to'liq taassurot bermaydi. Yana janrlarni yuqorida berilganiday mazmun bo'yicha ham tasniflash mumkin - lirik, dramatik, epik musiqa. Tarix mobaynida tipik, umum tarqalgan janrlar o'z nomlariga va standart ahamiyatga ega bo'ldilar.

Kichik janrlarning nomi son-sanoqsizdir: prelyudiya, kaprichchio, bagatel, skerso, so'zsiz qo'shiq, prelyud, etyud, noktyurn, ballada, rapsodiya va hok.

Janrlarning rivoji jarayonida ularning nomlari shartli va o'zgaruvchan bo'lgan. Masalan, Baxning "simfoniyalari" - o'rta hajmli cholg'u pyesa, Skarlattning

sonatalari - kichik hajmli ikki qismli fortepiano pyesasi. Ammo XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab sonata - bu bir yoki ikki musiqiy cholg'u uchun yozilgan turkumli asar, simfoniya esa - orkestr uchun yozilgan asar.

Shakl va janr tushunchalari bir-biriga juda bog'liq bolsa ham, ular boshqa-boshqa tushunchalarni bildiradilar.

Musiqiy shakl tushunchasi ikki o'zaro bog'liq bo'lgan ahamiyatni o'z ichiga oladi: keng, umumestetik va tor, mutaxassis, texnologik. Keng ma'noda shakl - bu spetsifik musiqiy vositalarda g'oyaviy-obrazli mazmunni badiiy tashkiliy aks ettirishi.

Bu ahamiyatda musiqiy shaklning komponentlari bo'lib nafaqat yaxlit asar va uning qismlarini tuzilmasi, balki faktura (kuy, garmoniya, ritm - ular birligi va bog'liqligida), tembr va registr vositalari, dinamik bo'yoqlar, temp va ularni o'zgarishi (tezlatish va sekinlash), artikulyatsiya (tovushlarni chiqarish uslublari - staccato, legato va xokazo) hisoblanadi.

*Musiqiy shakl* deb aslida musiqiy asarning tuzilishi tushuniladi. O'z navbatida shakl - asarning mazmunini yoritishini maqsad qilib, o'zga xos, xilma-xil tuzilish tarkibiga ega bo'ladi. Ma'lumki, musiqiy shakllarning tuzilish konun-qoidalari asrlar davomida shakllanib, asta sekin umumiy kompozitsion tuzilish jadvaliga bo'ysinib kelgan. Musiqiy shakllar nisbiy ravishda cheklangandir. Bu imkoniyat keyinchalik uni asosida yuzaga kelgan ko'plab yaxlit va rangbarang, umumiy va farqli kompozitsion tuzilish jadvallari va shakl turlarini yuzaga chiqarib tasniflashga asos bo'ldi. [5.B.218]

Shakl - barcha san'at turlariga xos bo'lsada, ularni qabul qilib, idrok etish jarayoni o'zgachadir. Masalan, grafika, tasviriy san'at, xaykaltaroshlik ko'rish orqali idrok etilsada uning shakli har ongda, har soniyada bir umumiy yaxlitlik shaklda ko'z oldimizda gavdalanadi. Binobarin musiqiy asar ko'rinishi (jumladan adabiyot namunalari kabi) vaqt davomida yoritilib, uning xar bir bo'lagi, tarkibiy qismi asta sekin birma-bir vaqt jarayoniga bo'ysinib, yakuniga qadar yoritiladi. YA'ni, musiqiy asarni tinglanishi va u xaqda ma'lum ma'lumotga ega bo'lish vaqt jarayoni bilan bevosita bolidir.

Repriza shaklni ma'lum darajada bir qolipga soladi. Shaklning boshida va oxirida kelib takrorlanadigan tuzilmalar uchragan hollarda, shaklning boshqa qismlariga taqqoslab olganda mutanosiblik nihoyatda kam bo'lgan hollarda ana shunday chegaralash (o'rash) haqida gapiriladi; bunda reprizalilikka unchalik urg'u berilmaydi;

5) asosiy shakl yoki uning qismiga muqaddim a, ya'ni shakl qismlaridan birining oldidan, ko'pincha undan ajralgan holda keladigan tuzilma;

6) asosiy shakl yoki uning qismiga yakun yasash, ya'ni butun asosiy shaklning oxiridan so'ng keladigan va bunday hollarda koda deb ataladigan tuzilma yoki

shaklning qaysidir bir qismi (mavzuning bayoniga, uning o'рта qismiga va boshqa shu singari qismlariga) qo'shib ketdi.

Shakldagi u yoki bu tuzilma funksiyasi ko'pincha kuy, garmoniya va tuzilmadagi xarakterli belgilarga bog'liq buladi. Xuddi ana shu xarakterli belgilar muzika materialini bayon etish turini vujudga keltiradi.

Har bir tuzilma funksiyasiga xos bo'lgan belgilarning barchasi birdaniga ham, qisman bir-biri bilan birikib kelganda ham namoyon bo'lishi mumkin.[6.B.90]

Mavzuni bayon etishga, shuningdek, ko'pincha uning repriza orqali takrorlanishiga ham bayon etish turi muvofiq keladi. Bu ekspozitsion tur deb ataladi. Uning umumiy belgilari - xarakterning turg'unligida hamda ifoda vositalarining tejab ishlatilganligida ko'rinadi. Bu vositalarga quyidagi birliklarni kiritish mumkin:

1) Mavzu birligi. U bir yoki bir necha kuy-mavzu elementlarining mavjudligida ifodalanadi.

2) Tonal birlik. U tuzilmaning-yoppasiga bir tonallikda bulishi bilan ifodalanadi. Bunday tonallik bir oz o'zgarishi, ko'pincha tonallikka yaqin bo'lgan tuzilmalar tomon o'zgarib, keyinchalik asosiy tonallikka qaytishi ham mumkin. Ba'zan esa har bir tonallikdan ancha uzoqlashib ketgan hollarda ham yana orqaga, qaytib kelinadi.

Tuzilma pirovardida ko'yaincha dominanta tomonga an'anaviy yo'nalishda modulyatsiyalash. Musiqa shakli bir butun, yaxlitlikka ega bo'lishi bilan bir vaqtda qismlarga ham bo'lingandir, ya'ni u ma'no jihatdan bir-biridan farq qiladigan qismlardan iboratdir.

Shu jihatdan musiqa og'zaki nutqqa o'xshab ketadi. Bunday o'x-shashlikni yana quyidagicha davom ettiraverish mumkin: shaklning yirik qismlari adabiy asarning boblarini bir qadar esga soladi, maydaroqlari esa - abzatlarni, turli uzunlikdagi iboralarni va hatto so'zlarni eslatadi.

Shaklning har qanday qismlari orasidagi bo'linish payti **sezura** deb ataladi. [7.B.212]

Sezura qismlarning cheklanishidagi keskinlikka qarab turli-cha teranlikka ega bo'lishi mumkin - bu teranlik davomli pauzadan tortib, to ayrim tovushlar orasida tarang seziladigan uzilishgacha davom etishi mumkin.

Bundan tashqari, sezuraning bo'lak belgilari, masalan, registrlar o'zgarishi, jarangdorlik kuchining t uslari va shunga o'xshashlar bo'lishi ham mumkin.

Odatda sezura asosiy ovozda hammadan ko'ra ravshanroq ifodalangan bo'ladi. Jo'r bo'lish (jo'r bo'lib rez berish, ikkinchi darajali ovozlari) vaqtida asosiy ovozda sezura paytida tanaffus bo'lmasligi ham mumkin.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Vasina, Grosman V. Vokalniye formi. - M. 1963.
2. Dmitrevskaya K. Analiz xorovix proizvedeniy. M., 1967.

3. Mazel Y.A., Sukerman V. Analiz muzikalnix proizvedeniy. M.,1967.
4. Protapov V. Prinsipi muzikalnoy formi Betxovena. M. 1970.
5. Tyulin Y. Stroyeniye muzikalnoy rechi. M. 1962.
6. Sukkerman V. Analiz muzikalnix proizvedeniy. Rondo. Prostiye formi 1980.
7. Sukkerman V. Analiz muzikalnix proizvedeniy. Rondo v yego istoricheskom razvitii. Chast - 1 M., 1988.

## ЎЗБЕК ХАЛҚ МАРОСИМ ҚЎШИҚЛАРИДАН “ЎЛАН” НИНГ ЭТНИК ВА ҒОЯВИЙ-БАДИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Исаев Камолиддин Саидович  
kamoliddinisayev85@mail.ru  
ЎзДСМИ

**Аннотация:** Ўзбек никоҳ тўйларида куйланадиган халқ кўшиқлари ўзининг ранг-баранглиги билан ажралиб туради. Уларнинг қамрови кенглиги сабабали, ушбу мақолада асосан, тўйнинг биринчи босқичида куйланадиган ўланнинг этник ва ғоявий-бадиий хусусиятлари илмий таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** Маросим фольклори, маросим кўшиқлари, ўлан, тўй, қизлар мажлиси, лапар кечаси, жанр.

### ETHNIC AND IDEOLOGICAL FEATURES OF "OLAN" FROM UZBEK FOLK CEREMONY SONGS

Isaev Kamoliddin Saidovich  
kamoliddinisayev85@mail.ru  
UzSIAC

**Abstract:** Folk songs sung at Uzbek weddings are distinguished by their diversity. Due to the breadth of their coverage, this article mainly analyzes the ethnic and ideological-artistic characteristics of the grass sung in the first stage of the wedding.

**Keywords:** Ceremonial folklore, ceremonial songs, olan, wedding, girls' meeting, lapar night, genre.

Истиклол йилларида миллий - маънавий меросга бўлган эътибор натижаси ўлароқ юртимизда мазкур жабҳада салмоқли ишлар амалга оширилди. Хусусан, асрий қадриятлар негизида қарор топган бой мусиқа меросимизнинг ўтмиш тақдирини идроклаш, тарихини чуқур ва ҳолис ўрганиш масалалари янги босқичга кўтарилди. Қолаверса, бугунги кунда Президентимиз Ш.М.Мирзиёев барча соҳа ва тармоқлар қатори маданият ва санъат, адабиёт, оммавий ахборот воситалари ривожига катта эътибор қаратаётганликлари тақсинга лойиқ. Айниқса, кейинги пайтда бу соҳа равнақини янги босқичга кўтариш бўйича улкан ишлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, пойтахтимизда Ўзбекистондаги Ислом маданияти маркази, Самарқандда Имом Бухорий номидаги халқаро илмий-тадқиқот маркази барпо

этилмоқда. Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқиқ этиш маркази, Ўзбекистоннинг янги тарихи маркази фаолияти йўлга қўйилмоқда. Китобхонлик маданиятини ошириш, маданият ва санъат соҳасини такомиллаштиришга катта эътибор қаратилиб, ҳудудларда улуғ санъаткорларимиз номи билан аталадиган ижодий мактаб ва марказлар ташкил қилинмоқда.

Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев санъат ва маданият, адабиётга шундай таъриф беради: “Бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган улуғ аجدодларимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган беқиёс бойликларимиз бор. Ва мен ишонаман, насиб этса, ҳавас қилса арзийдиган буюк келажагимиз, буюк адабиётимиз ва санъатимиз ҳам албатта бўлади”.(1)

Ҳақиқатдан ҳам жаҳон цивилизациясининг бешиklarидан бири бўлган Ўзбекистонда хилма-хил жанрлардан иборат бой фольклор анъаналари юзага келган. Асрлар давомида яратилиб гавҳардай асраб-авайлаб, замонамизгача етиб келган ҳикматлар, мақол ва маталлар, эртақлар ва офаризмлар, халқ қўшиқлари, достонлари ва айтишувлари аждодларимиз бадиий даҳосининг бебаҳо ёдгорлиги, ўзбек халқининг маънавий мулки, ҳуқуқий қадриятидир. Уларнинг ҳар бири аждодларимиз ақл идроки ва тафаккури, одоб-ахлоқи, маънавияти, ҳуқуқий билим бойликлари, ҳаётий тажрибалари ва сабоқларининг лўнда, ихчам ва қисқа хулосасидир. Улар неча минг йиллар олдин теран қалб соҳиблари бўлмиш ота-боболаримиз томонидан яратилган, истеъмолда қўлланган ва туб аҳолининг бебаҳо мулкига айланган. Маънавий хазинанинг асоси бўлган сўз санъати орқали қадрият бешиқлари тебратилган.

Ўзбек халқ маросим қўшиқлари агар инсоннинг рухий, маънавий, маърифий эҳтиёжига тўлақонли жавоб бермаганда, бугунги кунгача етиб кела олмаган бўлар эди. Демак, маросим қўшиқлари инсоннинг рухиятига, кайфиятига ҳамоҳанг равишда тарбиявий вазифаларни ҳам бажаради. Маросим қўшиқлари халқимизнинг кўҳна бойлиги, у ҳамма даврларда ҳам ўзининг тарбиявий таъсирчан ғоялари билан кишиларнинг маънавий жихатдан юксак шахс бўлиб шаклланишида ҳиссадор бўлиб келган. Халқимиз шеърни қўшиқ қилиб айтилишигагина эмас, унинг узоқ сақланиши, абадий қолиши, одамларнинг, айникса, келажак авлоднинг маънавий юксалишига ёрдам бериши, инсоннинг рухий озикланишига хизмат қилиши учун қадрлаган. Улардаги сода, равон сўзлар тизими, оҳангнинг миллийлиги эса ёшларда халқ қўшиқлари ҳақидаги билим ва тасаввурларнинг тўлиқ шаклланиш имконини яратибгина қолмай, улар маънавиятини юксалтиришга ҳам катта ҳисса қўшади.

Қўшиқлар ижро ўрни, ҳолати, мусиқага муносабати ва бадииятидан келиб чиқиб: ижро ўрни, поэтик структураси, мусиқийлиги ва рақсга муносабатига

қараб тасниф этилади. (3,25) Ижро ўрнига қараб тасниф этилганда, қўшиқлар: маросим ва номаросим қўшиқларга ажралади. Ўз навбатида, маросим қўшиқлари ҳам икки: мавсум-маросим ва оилавий-маиший маросим қўшиқларига бўлинади. (3,25) Маросим фольклори ва унинг икки қисми - мавсумий маросим ва оилавий маросимлар фольклори ҳар бир халқнинг ўзлигини намаён этувчи таянч манба ҳисобланади. Ўзбек халқининг мавсумий ва оилавий маросимлари тизими ҳамда фольклорида унинг оламни англаш, унда инсоннинг ўрни ва вазифасини белгилаш билан боғлиқ дунёқарашлари акс этган. Халқнинг барча ҳаётий тажрибалари, билим ва хулосалари аввало ана шу мавсумий, оилавий маросимлар тизими ва унда куйланувчи фольклор намуналарида мужассам топган.

Маросим фольклори намуналари фольклорнинг энг қадимий жанрлари сирасига киради. Маросим фольклори бўлмиш оилавий-маиший маросимлар ўзида миллий кадирият ва урф-одатларни мужассамлаштиргани билан аҳамиятлидир. Оилавий-маиший маросимларнинг энг катта қисми бу тўй маросими ҳисобланади. «Тўй» атамаси «тўймоқ», «эл-юртга зиёфат бермоқ» маънолари орқали муайян киши ҳаётидаги муҳим бурилиш нуқтасини англатади. Бинобарин, тўй ҳам моддий, ҳам маънавий озиқланиш маросимидир. Бу маросим турли муносабатлар билан ўтказилганлиги туфайли уларда ижро этиладиган фольклор жанрлари ҳам хилма-хиллик касб этади. Ўзбек тўй маросимлари сирасида никоҳ тўйлари расм-русмларга, ирим-сиримларга бойлиги, фольклор материалининг ранг-баранглиги билан алоҳида ажралиб туради. Бундай ранг-баранглик ҳамда кўтаринки рух маросимнинг мақсад ва вазифаси билан инсон ҳаётининг янги даврига қадам қўйишини алоҳида қувонч орқали нишонлаши билан боғлиқдир.

Ўзбек никоҳ тўйларида куйланадиган халқ қўшиқлари ўзининг ранг-баранглиги билан ажралиб туради. Уларнинг қамрови кенглиги сабабали, асосан, тўйнинг биринчи босқичида куйланадиган ўлан жанрига тўхталиб унинг таҳлил қилишни лозим топдик.

Ўлан асосан ўтмишда кўчманчилик ва ярим кўчманчилик тарзида ҳаёт кечирган ўзбек уруғлари ўртасида кенг тарқалган бўлиб, у қиз узатар оқшомидан бир ёки бир неча кун илгари қизнинг уйида ўтказиладиган “қиз оқшоми”, “қизлар мажлиси” каби турли номлар билан нишонланадиган тантанада ижро этилган. Ўлан шаҳар ҳамда қадимдан ўтроқ тарзда ҳаёт кечирувчи аҳоли ўртасида учрамайди. Айрим ҳолларда қиз узатар кечаси куёвнинг уйида ўтказиладиган базмларда ҳам ўлан ижро этилиши мумкин. Бунда ўлан тўйни қизитиш, меҳмонларнинг кайфиятини кўтариш мақсадида айтилган. Жанрнинг пайдо бўлиши масаласида ҳам ўзбек фольклоршунослигида аниқ бир фикр йўқ. Ўзбек қўшиқлари билан ишлаган

олима М.Алавия бу масала хусусида тўхталиб, “ўлан жанри қадимда ёр-ёр, лапар жанрлари билан бир бўлиб, кейинчалик улар турли жойлардаги традиция, турмуш тарзи билан боғлиқ ҳолда дифференциялашиб, мустақил жанр ҳолига келиб қолган”, (4,52) деб ёзади.

Фарғона водийсининг айрим жойларида ўлан мисралари охирига «ёр-ёр» сўзини радиф қилиб ишлатиш ҳоллари бу икки жанрнинг ўтмишда бир бўлганлигини билдирмайди. Чунки ёр-ёр ва ўлан жанрлари ижро усули жиҳатидан кескин фарқланадилар. Умуман, ўлан, лапар, ёр-ёр жанрларининг пайдо бўлиши, улар ўртасидаги алоқадорлик ва ўзгачаликлар масаласи алоҳида тадқиқот талаб қилади. Ўлан ижросида йигит ва қизлар юзма-юз туриши, уларнинг сўз воситасида мулоҳаза юритишлари ушбу жанрнинг тарихан ислом таъсири у қадар кучли бўлмаган кўчманчи туркий халқлар, жумладан, кўчманчи ўзбек уруғлари орасида вужудга келганлигидан далолат беради. Ўланнинг тематик доираси кенг бўлиб, унда ишқда вафодорлик, ёр висолига муштоқлик мотивлари етакчилик қилади. Ўлан айтишни, одатда, йигитлар бошлаб беришади.

Йигит:

*Қарга дейман, кўзингдан, қарга дейман,  
Қарга уя солади жарга, дейман.  
Кўрмаганга кўп вақт, ойлар ўтди,  
Ўлан билан сўрашай — «ҳорма» дейман.*

Қиз:

*Ўланларим, кўзингдан, ўланларим,  
Сен бўлдинг шу дунёда гумондорим.  
Сен бўлсанг шу дунёда гумондорим,  
Қуя-қуя кул бўлди суякларим. (6,72)*

Ўлан поэтик жиҳатдан ҳам қатор ўзгачаликларга эга бўлиб, улардан бири текстнинг изчил тўртлик шаклидаги банд тузилишига эга эканлигидир. Ҳар бир банд эса “аа”, “ба” тарзида қофияланади. Ўланлар фақат тўйларда эмас, турли йиғин маросимларида ҳам айтилган. Ўлан айтиш кўпроқ кўчманчи чорвадорлар орасида кенгроқ тарқалган бўлиб, улар тарафма - тараф айтишув сифатида куйланган. Масалан:

Қиз:

*Олти йигит ичида отинг Турсун,  
Кўзага сув қўйдим, тиниб турсин.  
Чиндан суйиб ўйнасанг, мен борайин,  
Ёлгон билан чақирсанг, бетинг қурсин.*

Йигит:

*Олти қизнинг ичида отинг Анор,*



*Анордайин бетларингдан қонлар томар.*

*Нурлар томган бетингдан бир ўптурсанг,*

*Она сутин эмгандайин меҳрим қонар. (6,74)*

Ёр - ёрларда асосий мақсад келин - куёв таърифи, уларга тилак билдириш бўлса, ўланлардаги бош мақсад айтишувда ғолиб чиқишдир. Ўзбек халқининг машхур “Алпомиш” достонидаги Алпомиш ва Бодом бикач айтишувларини назарда тутсак, ўланларнинг вужудга келиши жуда қадимий эканлигига амин бўламиз.

Фарғона вилоятида яшовчи аҳоли одатига кўра, никоҳ тўйининг «Қиз оши», «Лапар кечаси» деб аталадиган базмларида лапар, байт билан бир қаторда кўп ҳолларда ўлан айтилади. Қизлар билан йигитлар тарафма-тараф туриб, ошиқона мисра-байтларга бой ўланларни айтишганда, худди сўз билан тортишмачоқ ўйнагандай бўлади. Бу базмда қизлар ва йигитлар томонидан икки киши сал олдинга чиқиб ўлан айтишади. Одатда, тўйга атаб қизнинг отаси икки-уч жуфт олма олиб қўяди. Ўлан айтувчи йигит шулардан биттасини ушлаб туриб қўшиқ бошлайди ва қизлар тўдасидаги чечан қизга отади. Улар ҳам ўз навбатида ўлан билан жавоб бериб, ҳалиги олмани рўпарадаги йигитга отади. Шу тариқа янгидан-янги ўланчилар ўртага тушаверади.

“Ўлан” аслида “уланг” сўзининг “Ўланг ва улан” шаклларидаги фонетик ўзгариши туфайли юзага келган бўлиб, келин (қиз) ва куёв (йигит) ни бир - бирига маънавий жиҳатдан боғлаш, улаш мақсадини ифодаловчи маънога эга.

Ўланларнинг тематик доираси кенгдир. Уларда ишқда вафодорлик, ёр висолига муштоклик мотивлари етакчилик қилади. Куёв тараф - куёвни, келин тараф - келинни таърифлаш мусобақасига киришади. Тарафлар айтишуви шўх - шодон қийқириқлар оқимида қувноқ ҳазилкашликка айланади. Айрим ҳолларда қуюшқондан чиқиб кетишганини сезмай қолишади. Масалан:

Йигит:

*Олма - ўрик деганда, олма - ўрик,*

*Маҳалланинг ичида қилдинг кўрик.*

*Маҳалланинг ичида қилсанг кўрик,*

*Сендан бўлган болага мен ҳам шерик.*

Қиз:

*Унинг ўчсин деганда, унинг ўчсин,*

*Қора қайчи тилингнинг учин кессин.*

*Яна қайтиб уятли ўлан айтсанг,*

*Ит ялоқда ош ичиб кунинг ўтсин. (6,73)*

Ўланлар одатда, яккахон ўланчининг оддий овоз солиши асосида қуйланиб, у тўртликни айтиб бўлгач, тарафдорларининг жўровоз қийқириқлари

асосида ё тўртлик, ё унинг сўнги сатри ҳайкириб такрорланади. Ўланлар ҳозиржавобликни, ҳазил - мутойибани талаб этади.

Фарғона вилоятига қўшни Тошкент вилоятининг Курама тоғлари атрофларида айтиладиган ўлан ижрочилигининг таъсири ҳам сезилиб туради. Бунга кўра ўланнинг биринчи сатри бир ёки икки сўздан ташкил топган бўлади. Бундай ўланларда ҳам шу икки сўзга иккинчи ва тўртинчи сатрлар қофияланади. Биринчи сатр чўзиб айтилади. Ўланларда йигит-қизнинг бири-бирини синаш мақсадида, ҳазил-мутойибага йўл қўйилади. Бу ёшлик шўхликлари, тенг-тенги билан топишганидан кўнгли бир олам севинч билан тўлганларнинг тароналаридир.

Хуллоса қилиб айтадиган бўлсак, йигитлар ва қизлар ўртасида ҳозиржавоблик билан айтишув шаклида айтилган, фикрга фикрини шеърый йўсинда улаб кетиш ўлан жанрининг етакчи хусусияти саналади. Ўланлар ёшларни бадий-эстетик дидли, хуш хулқли, камтарин, очиқ кўнгилли, дўстга садоқат руҳида тарбиялашда, айниқса, катта аҳамиятга эгадир.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Мирзиёев Ш.М. 2017-йил 3-августда мамлакатимиз ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. "Халқ сўзи" газетаси.: 2018-йил, 4-август. (149)
2. Б.Саримсоқов "Ўзбек маросим фольклори". Тошкент, Фан, 1986, Б-216.
3. Эшонкулов Ж. Номоддий маданий мерос ва ўзбек халқ кўшиқларининг тадқиқи масалалари // "Номоддий маданий меросни таълим тизимида татбиқ этиш" Республика илмий-амалий семинар материаллари. Масъул мух: Ахмедова О.М. - Тошкент, Наврўз, 2015. Б-25.
4. Турдимов Ш. "Ўзбек фольклоршунослигининг янгиланиш тамойиллари" (Ўқув-услубий мажмуа) Тошкент, 2016, Б-43-54.
5. Мирзаев Т., Сафаров О., Ўраева Д. Ўзбек халқ оғзаки ижоди хрестоматияси. Т- 2008.

## ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИНИНГ АСЛ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ИФОДАСИ

К.Сеитжанова

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали

**Аннотация:** Ёш авлоднинг мусиқий истеъдодини ва маданиятини юксалтириш мақсадида, мамлакатимизнинг ҳар бир шаҳар-туманида мусиқа ва санъат мактабларининг фаолият кўрсатиши назарда тутилган. Ўзбекистонда профессионал мусиқа санъати ривожига жараёнида композиторлик ижодиёти алоҳида аҳамият касб этади. Табиийки, композиторлик ижодиёти кўп овозли мусиқий жанрларга мурожаат этиши, жаҳон мусиқа маданиятини чуқур ўрганиш асносида ўз миллий тараққий йўлини белгилаши тақозо этди.

**Калит сўзлар:** Мусиқа, санъат, ижодиёт, композитор, жанр, фольклор, ашула, асарлар.

## EXPRESSION OF THE ORIGINAL NATIONAL CULTURAL VALUES OF THE KARAKALPAK PEOPLE

K.Seitjanova

Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** In order to increase the musical talent and culture of the younger generation, it is planned to operate music and art schools in every city and district of the country. Composer's creativity plays a special role in the development of professional music in Uzbekistan. Naturally, the composer's creativity was required to address the genres of polyphonic music, to determine its own national path of development through an in-depth study of world music culture.

**Keywords:** Music, art, creativity, composer, genre, folklore, singing, works.

Санъат ва маданият ҳар бир миллатни дунёга танитувчи муҳим омил эканлигини мухтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев доимо эътироф этиб келган.[1. ПҚ-3022-сон 3.05.2017 й.] Бу борада ҳукуматимиз томонидан ёш авлодни ҳар тамонлама илғор ва етук қилиб тарбиялаш борасида кўплаб самарали ишлар олиб борилмоқда. Хусусан, келажак авлодга мусиқа сир-асрорларини ўргатиши борасида устозлар кўмаги остида билимларини ошириши, ўзининг ижрочилик маҳоратини намаён этишлари учун барча шарт-шароитлар яратиб берилмоқда.

Қорақалпоқ музыка маданиятида, Ўрта Осиёнинг бошқа халқлари сингари, ўзининг мураккаб ички тузилишига эга бўлган асосий қатламлари: анъанавий музыка ва Европа композиторлик ижодиёти асосида ривожланган профессионал (ёзма) турдаги замонавий музыка санъати мисолида гавдаланади. Хусусан, Қорақалпоғистон музыка ҳаётида фольклор ва анъанавий музыка санъати жанрлари (бахси, жырау, қиссахонлик) ва янги ижро жанрлари (симфоник музыка, балет, опера) ривожланиб бормоқда. Зеро, анъанавий музыка маданиятининг бошқа турлари ва жанрлари билан бирга, жырау ва баксалар ижоди Қорақалпоқ халқининг асл миллий маданий қадриятларининг ифодаси сифатида ўзининг маданий аҳамиятига эга.

Тарихга назар ташласак, эрамизнинг биринчи асрига тегишли ажойиб маданий мерос сифатида «Айиртам»дан топилган «Уд» асбоби, 1946 йили археологик экспедиция натижасида «Топирақ қалъадан» тошга ўйиб чизилган расмда «Арфа» чалиб турган музикачини ҳам 1947 йили яна шу тупроқлардан икки торли дутор туридаги чолғу асбобини ушлаб турган инсон фрагментини топилиши бунинг яққол далилидир. Мана шу музыка асбобларининг расми чизилган ёдгорликнинг, шунингдек оғзаки ва ёзма битиклардан қорақалпоқ халқининг ота-боболаримизнинг маконидан топилиши ҳам кенг тармоқли қорақалпоқ халқининг бошқа туғишган миллатлар халқлардаги сингари, музыка маданиятига эга бўлганлигидан даракдир. [2.Б.215]

Қорақалпоқ музыка маданияти миллий оғзаки ижодда гавдаланади. Миллий музикаий маданият музикани ташувчи ва сақлаб қолувчи ижодкорлар - кўшиқчи, бахши, кўшиқчи дутор чолғуси жўрлигида кўшиқ ва дostonларни ижро этувчи)лар, ҳикоячи жырау, қахрамонлик ҳикояларни баён қилувчи қиссахонлар томонидан намоёиш қилинади. Улар орасида Ғарибнияз, Ешбай, Ақимбет, Муса, Суеу, Шерназар, Арзй, Жуман, Есжан, Жапақ Оринбай.

1919 йили «Турткўл»да илк бора музикаий драматик жамоа бўлими очилди. Бу жамоа барча тўғарақларга бошчилик этиб, шаҳарлар билан қишлоқларда концертлар ташкил қилинди. Бу жамоа ўзининг касбий фаолиятини кучайтириш учун марказий шаҳарлардан тажрибали кадрларни жалб қилди.

1925 йили Туркулда «Тан нур» труппаси шакл топди. 1925-йили январь ойидан бошлаб «Қорақалпоқ труппаси» деб номланиб, ҳозирги Қорақалпоқ музикали академик театрининг негизини ташкил этди. Бу жамоанинг репертуари бир актли спектакль, интермедия ва яна бошқа жанрлардан иборат эди. Уларда халқ ва мумтоз куй-кўшиқлари - «Бозатау», «Шимбай», «Галгалай», «Недағ» кўшиқлари ва «Нар ийдирген», «Нама басы», «Қара жорға», «Пахай», «Ариухан» куйлари жой олди. Бу спектаклларда хор, ансамбль, декламация ва ҳазил сўзли шеърый номерлар айтиладиган бўлди. Театр ўзининг дастлабки ўн йиллиги давомида Қ.Авезовнинг «Тилек жоланда»,

А.Утеповнинг «Жездежан», «Зиндан», «Ашиқ зари», «Шалеке бай», «Гуман», «Тенин тапқан қиз», С.Мажитовнинг «Ерназар ала кўз» каби мусиқали пьесалар ва интермедияларни саҳналаштирди.

Мусиқа тадқиқотчиси А.Затаевич 1924 йиллари Республикамизнинг Шимбай, Кешейли, Қараузьяк, Тахтакупир, Тўрткул туманларига сафар қилганида 25 та қорақалпоқ халқ мусиқаларини ёзиб олган. Бу куйлар орасида қорақалпоқ халқининг ичидан буткул унутилиб бораётганлари ҳам учрайди. Масалан: Тахтақўпирлик Сайтбек Жаримбетов ижросида ноталаштирилган «Ерназар алакоз», «Социалистик қурилиш», Қараузьякли Генжебай Жақсимураатовнинг ижросида «Шимбай қаласина бара бер», туркумли Жолдас Жумановнинг ижросидаги «Турали шали» ва бошқа куйлар алоҳида эътиборга молик.[3.Б.90-92]

1925-1926 йиллари мусиқачи тадқиқотчиси, фольклорист В.Успенский Туркменистон территориясига йўл олган экспедициясида бир қанча куйларни йиғиб, тўплам қилиб чиқаради. Бу китобда Порси (Калинин) Хожели, Қунғирот туманларидан ёзиб олинган куйлари орасида Қорақалпоқ куйлари ҳам бор. Ҳозирда Қорақалпоқ халқи орасида ушбу куйлар, жумладан: «Айжамал», «Жиғали еки», «Ауезим», «Дургалар», «Салтиқ», «Хожа бағман», «Мухаллес», «Кор қиз», «Нарийдирген», «Яр анда қалди» ва бошқа куйлар оммалашиб катта давраларда ижро этилиб келинади.

1930-йили давлат сиёсати таъсирида ўқувчилар орасида «Комсомол», «Жана дийхан», «Пионер», «Женгежан», «Қази ийшан» сингари янги мазмундаги куй-қўшиқлар пайдо бўлди. Шу йилларда Қарақалпоқ миллий театрининг дастлабки мусиқали драма ва комедиялари учун мусиқа тўплаш ва яратиш ишларида бирқатор ижодкорлар меҳнат қилдилар: композиторлар - Ж.Шамуратов Б.Туманян, Г.Компонеес, В.Шафранников, А.Халимовлар ҳамда драматурглар - А.Утегенов, С.Мажитов, А.Бегимов, Н.Дауқараев, А.Ауезва, М.Дарибаев, Ж.Аймурзаев, Т.Сейтжановлар. Улар янги очилган театрнинг репертуарини халқ образлари, мавзулари, куйлари билан бойитиш ишларига салмоқли ҳисса қўшган. [5.Б.259-260]

Шу билан бирга, композитор Жапақ Шамуратов (1893-йили таваллуд топган) 200 дан зиёд мусиқий асарлар муаллифидир. Унинг ижодида алоҳида эътибор қўшиқ ва оёқ-ўйин рақслари, дутор чолғуси учун куй-намалари эгаллайди. Ж.Шамуратовни композиторлик услуби қорақалпоқ халқ дostonлари, бахши жырау ва халқ урф-одат куй-қўшиқлари ҳамда ҳофиз бахшиларнинг ижро йўллига ҳамоҳанглиги боис, у яратган қўшиқ ва рақслар - «Ғариб ашиқ», «Саятхан хамра», «Ашиқ Нажеп Даулетярбек» каби лирик дostonларида ва тўй маросимларида ижро этилиб келмоқда.

Иккинчи Жаҳон уруши йиллари Республика маркази бўлган Тўркул шаҳрига келган Киев Консерваториясининг профессори Г.И.Компонеес (1946-1973-йилларгача меҳнат қилган) ва В.Г.Шафранников Қорақалпоқ халқ меросини сақлаб қолишда ва мусиқа санъатини ривожига ўз ҳиссаларини қўшдилар. Жумладан, 100 га яқин қарақалпоқ халқ куйларини фольклор экспедиция жараёнларида ёзиб олиб, В.Белыевнинг редакторлиги [2.Б.12] остида тўплам кўринишида босмадан чиқди. Ҳамда ушбу куйлар асосида В.Шафранников янги мусиқий асарлар яратишга муваффақ бўлди. Хусусан, тўпламнинг 18 та куйи мусиқа асбоблари - баян ва аккордион учун қайта ишланиб, «Народная музыка каракалпакии» номи билан Москвада нашр юзини кўрди. Айнан В.Шафранников Қорақалпоғистон ижодкорлари томонидан жаҳон мусиқа жанрлари ва шаклларини ўзлаштириш учун мутахассисларни жалб қилган ва ҳозирги замон композиторларлик мактабини пойдеворига асос солган шахслардан бири ҳисобланади.

Композитор қорақалпоқ халқ куйлар асосида - фортепиано, скрипка, дамли чолғулар, ансамбль ва оркестр жамоалари учун пьесалар, маршлар, рақслар ва куйлар яратди. Унинг уруш мавзусига ёзилган «Фашизмга ўлим», «Будений жауға атланди» ва бошқа кўшиқларни ва мусиқали драмалари тарихий ва маданий эсдаликлар сифатида сақланиб қолди.[4.Б.244-249]

У ҳамкасби Ж.Шамуратов билан биргаликда «Тазагул», «Арал қизи», «Лейтенант Елмуратов» ҳамда ўзи басталаган «Алпамис» ва «Қириқ қиз» номли уруш мавзусига бағишланган мусиқали драмалари кўп йиллар мобайнида театр репертуарида муносиб ўрин эгаллаб келди. Ушбу асарларнинг драматургик услуби миллий опера ва балет намуналарини пайдо бўлишида муҳим асос бўлди. Айниқса В.Шафранниковнинг «Алпамис» ва «Қириқ қиз» драмаларининг сахна ҳаракатлари, мусиқий-драматургик ривож услуби бу жанрда эришилган муҳим ютуқлар намунаси ва келгуси ижодкорлар учун изланишлар лабораторияси бўлиб қолди.

Яна бир ёрқин ижодкорлардан бири композитор Б.Ф.Гиенко шогирди Абдирейим Султанов (1930) 40 йилга яқин умрини Қорақалпоқ мусиқа маданиятининг ривожига бағишлади ва мақтовга муносиб шогирдлар етиштирди.

А.Султановнинг сай-ҳаракати билан Халқ чолғулари оркестри тузилди ҳамда Ўрта Осиё халқлари мусиқаси, рус ва чет эл композиторларининг асарлари ушбу оркестр учун мослаштирди ва қайта ишланди. Бундан ташқари композитор Қорақалпоқ халқ куй-қошиқларини оркестрга мослаштириб янги жанрларда асарлар яратади. У ташкил қилган оркестр ўз ватани ва кўшни Республика шаҳарларида танилди.[6.Б.31]

Композитор мусикали театр соҳасида ҳам ижод қилади. Ф.Назаров, Х.Турдиқулов, А.Халимов, Ғ.Аманиязовлар билан ҳамкорликда - «Раушан» ва «Ариулар» (Ф.Назаров), «Қирли соқпақлар» (А.Халимов), «Арал хауаси» (Ғ.Аманиязов) каби драма ва комедияларга мусиқа яратади. Ҳамкасблари билан Аженияз сўзига 32 та кўшиқлар туркумини ёзади. «Бозатау» хор ва оркестри, мактаб дарсликлари учун кичик пьесалар, халқ чолғулари оркестри учун рапсодия ва сюиталар басталаган.

1936 йили халқ эътиборини қозонган ижодкорларни кенг жамоага танитиш учун уларнинг овозлари грампластинкага ёзиб олиш мақсадида Тўрткўлда катта мусобақа ўтказилди. Унинг натижасида энг юқори баҳоланган ижодкорлар, шулардан - Ж.Шамуратов, Е.Қосполатов, И.Патуллаев, Қ.Ахметовлар танлаб олинди. Улар Москва залларида концертлар берди ва пластинкага ёзиб олинди. [7.Б.54]

1938 йили Қорақалпоғистонда мусиқа санъатини янада ривожлантириш мақсадида бир қатор ижодкорлар иш олиб бордилар. Жумладан, композитор Д.Туманян халқ куйларини қайта ишлаб, фортепиано, скрипка, виолончель чолғулари ижро қилишга мослаштирди. Бахши Ж.Шамуратов билан биргаликда С.Мажитовнинг «Бағдагул» пьесасининг янги вариантыга мусиқа ёзди. Пьесада қорақалпоқ халқ куйлари: «Бозатау», «Адиннан», «Дийдим аман», «Зарли қиз», «Мухаллес», «Бесперде», «Айжамал», «Ах назли яр», «Азизим», «Дад алинен», «Не пайда» ва бошқа асарлар янги оҳанг-бўёқлар билан, оғишма ва нолалар билан бойитилиб, кўп қисмли мусиқа яратилди.

### **Фойдаланган адабиётлар**

1. Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштириш чора-тадбирлари хусусида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3022-сон Қарори. 3.05.2017 й.

2. Адамбаева Т. Музыкальная культура каракалпакского народа дооктябрьского периода. //АН КазССР. Ин-т литературы и искусства им. М.О. Ауэзова - Алма-Ата, 1967.

3. Вызго Т. Опера и музыкальная драма //в сб.: Музыкальная культура Сов. Узбекистана - Т., 1955

4. Ганзбург Г. О перспективах либреттологии / Музыкальный театр XX века: События, проблемы, итоги, перспективы / Ред.-сост. А.Баева, Е.Куриленко. - М.: Едиториал УРСС, 2004. - С. 244-249.

5. Джумаев Т. «Прodelки Майсары» - первая узбекская комическая опера. // Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. Выпуск 1. - Т., 1961

6. Друскин М. Вопросы музыкальной драматургии оперы. - Л.: Музгиз, 1952.

## HAVASKOR XOREOGRAFIYA JAMOALARIDA HALQ RAQSLARINI TALQIN QILISHDAGI MUAMMOLAR

Komarova Olga Konstantinovna  
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

**Annotatsiya:** Muallif havaskor jamoalarining zamonaviy xoreografik faoliyatidagi an'analar va innovatsiyalar masalalarini tadqiq etgan. Bugunda xalq o'yinlarining an'anaviy asosini saqlab qolgan holda uslublashtirish jarayonining muqarrarligi va zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, raqs tanlovlarida hakamlar hay'ati a'zolarining badiiy kengash sifatida faoliyatini ochiq muhokama tahlil qilish zarurligi masalasi ham ko'tariladi.

**Kalit so'zlar:** an'ana, xalq raqsi, stilizatsiya, xalq ijodiyoti, folklor yo'nalishi, yangilik, ifoda etish vositalari.

## FOLK DANCES IN AMATEUR CHOREOGRAPHY TEAMS PROBLEMS IN INTERPRETATION

Komarova Olga Konstantinovna  
Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** The author explores the issues of tradition and innovation in the modern choreographic activities of amateur groups. Today, the inevitability and necessity of the process of styling, while preserving the traditional basis of folk games. The need for an open discussion and analysis of the work of members of the jury as an artistic council in dance competitions is also raised.

**Keywords:** tradition, folk dance, stylization, folk art, folklore, novelty, means of expression.

Raqs san'ati zamonaviy jamiyatda inson hayotining ko'plab jabhalariga faol ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy hodisadir. Uning tarbiyaviy roli aniq va uzoq vaqt davomida isbotini topgan. Raqs san'ati shaxsda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni uyg'otadi, axloqiy-estetik qarashlarni, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, asl, hozirgi zamoni begona va tanishdan farqlashga o'rgatadi.

Raqs qadimgi davrlarda madaniyatning elementi sifatida an'anaviy hunarmandchilik va boshqa san'at turlari bilan birlashgandir. Sinkretik marosim harakatlari doirasida vujudga kelgan va muayyan ijtimoiy vazifalarga ega bo'lgan raqs, keyinchalik o'ziga xos xalq amaliy san'atining alohida turi sifatida vujudga kelgan.



Xalq madaniyatining an'anaviy shakllaridan biri bo'lmish folklor bu genetic kod bo'lib, uning namunalari millatlarning xarakterini, dunyoni idrok etishini, ijtimoiy munosabatlarini, ma'naviy qadriyatlarini belgilab beradi. Har bir millatning, xalqning o'ziga xosligini bildiruvchi xalq amalliy san'ati, qo'shiqlari, raqslari, tili mavjud. An'anaviy madaniyat aynan shu etnik guruhga olib keladigan tarixiy meros, insoniy ildizi sanaladi.

Globalashuv, turli xalqlar madaniyatining integratsiyalashuvi va o'zaro ta'siri kuchayib borayotgan davrda aynan an'anaviy madaniyat millatning o'ziga xosligini saqlashga, etnik-madaniy o'ziga xoslikni yo'qotmaslikka, ma'naviyatni qo'llab-quvvatlashga, milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. An'anaviy badiiy madaniyat bugun xalqqa o'z tarixiy xotirasi va g'ururini qaytarishning haqiqiy ishtirokchisiga aylanib bormoqda [1]. Binobarin, xalq madaniyatiga g'amxo'rlik qilish, uning namunalarini asrab-avaylash, o'rganish, kelajak avlodlarga yetkazish juda muhim.

Xalq amaliy san'ati ham, ming yillar vaqt davomida insonga uning taraqqiyot yo'lida hamroh bo'lib kelgan.

San'at har bir davrning ma'naviy ehtiyojlari va estetik g'oyalariga javob beradi va o'tgan asrda va har bir avlodda voqelikning badiiy aksi sifatida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar ta'sirida shakllanib boradi. San'at bugun ham odamlar uchun qiziqarli, hayotbaxshdir.

Zamonaviy san'at jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan bugungi kun bilan uyg'un holda hayotni aks ettirishning eng xilma-xil, ammo tobora ta'sirchan va samarali shakllarini izlashga majbur bo'lmoqda.

Shunday qilib, an'anaviy (xalq) madaniyati bugungi milliy madaniyatning bir qismiga aylandi.

Bugungi kunda ko'plab xoreograflar xalq uslublariga murojaat qilishmoqda. Bu har bir ijodkorga o'zini qanday his qilsa, o'shandek anglash imkonini beruvchi dunyoning oldingi xoreografik qarashlaridan farq qiladi.

Gruziyaning taniqli Suxishvilli va Ramishvilli nomli xalq raqs ansambli vaqt hujumiga qarshi tura olmadi.

Zamonaviy ansambl rahbarlarining an'anaviy san'atga yangicha yondashuvini ko'rsatadigan videolar keng tarqalgan bo'lib, ular turli sharhlarga: hayratdan tortib to'liq tushunmovchilik va rad etishgacha yetkazib boradi.

O'ttiz-qirq yil davomida havaskorlik jamoalari rahbarlarining faoliyatida an'anaviy xalq raqsi shu qadar jiddiy o'zgarishlarga duch keldiki, uni printsiptial jihatdan bir janrga bog'lash juda qiyin bo'lib qoldi. Xalq raqsi yo'nalishlari va kombinatsiyalarining xilma-xilligi, faol dinamikasi, harakatchan o'zgaruvchanligi, an'anaviy birlamchi manbaning o'ylamasdan, yuzaki o'zgarishi bugungi kunda havaskor xalq raqslarida o'ziga xos janr yo'nalishlarini ajratib ko'rsatishga imkon

bermaydi. "Stilizatsiya", "janr", "yo'nalish", "uslub" tushunchalarining mohiyati va talqini noaniqlashib bormoqda.

Raqs kompozitsiyasini yaratishda ifodali vositalarni noto'g'ri, ba'zan qabul qilib bo'lmaydigan darajada aralashtirish ushbu ish usullarini stilizatsiya usuliga bog'lashga imkon bermaydi.

Musobaqa va festivallardagi bunday kompozitsiyalar nafaqat saralash bosqichlaridan o'tadi, balki sovrinlarni ham qo'lgakiritadi!

Zamonaviy hayotning sur'ati, turli ommaviy kommunikatsiya vositalarining kuchli ta'siriga ega, jadal rivojlanayotgan turmush va uning ehtiyojlarida yangi shaxsni yaratdi. Inson his-tuyg'ularining cheksiz yangilanishiga, stereotiplarni yengishga intiladi, san'atdan yorqin, chuqur taassurotlarni kutadi, g'oyaning dadilligi, yangi shakllar bilan hayratlanadi. Bugungi kunda madaniyatning folklor yoki etnik raqs ko'rinishidagi an'anaviy shakllari madaniy muhitda deyarli uchramaydi. Hozirgi zamon odami ularni arxaik, eskirgan deb hisoblaydi. Ma'lumki: har bir avlodning o'z qo'shiqlari, o'z ritmlari bor. Shunday lahzalar keladiki, voqelikning o'zi rassomni yangi shakllar izlashga undaydi, chunki xalq tarixidagi yangi bosqichni aks ettirish uchun eskilari yetarli emas. Badiiy stilizatsiya dolzarb hodisa - san'atning dialektik rivojlanishining tabiiy va muqarrar jarayoniga aylanib bormoqda, bu ma'lum estetik maqsadlarga erishish uchun ijodiy faoliyatda allaqachon duch kelgan badiiy shakl va uslublardan yangi mazmunli kontekstda foydalanishni nazarda tutadi [2]. Stilizatsiya o'tmish va bugungi kun o'rtasidagi uzviylikni saqlagan holda an'anaviy san'atni yangi shakl va ifoda vositalari bilan boyitadi. Xalq raqslarining stilizatsiyasi tufayli musiqa doimo yangilanadigan, jonli san'at sifatida qabul qilinadi. Ularni ifodalovchi arxaik shakllar yo'qoladi, yangi va zamonaviylari paydo bo'ladi. An'anaviy folklorga nisbatan uning yo'nalishlari yangilik, "remeyk" (qayta ishlov berish), o'zgacha uslubning bir turi sifatida ishlaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida yangi, zamonaviy raqs shakllari - xalq yo'nalishlari professional san'atga ham, havaskorlik san'atiga ham kirib keldi.

An'anaviy raqsni zamonaviy raqs bilan uyg'unlashtirgan ilk islohotchi-xoreograflardan biri iste'dodli xoreograf, aktrisa, raqqosa, Toshkent xoreografiya bilim yurti bitiruvchisi Zebo Amina-Zodedir. 1979-yilda uning mashhur "Ey sanam" raqsi "Zebo" ansambli artistlari tomonidan taqdim etilgan [3].

Ansamblning 40 yoshda ekanligiga qaramay, bugungi kunda raqs o'zining lirikasi, yumshoqligi va nafisligi bilan o'ziga jalb qiladi. Mutannosiblik hissi, tanlangan uslubga qat'iy rioya qilish usta ijodida yaqqol namoyon bo'ldi.

Misol tariqasida keltirilgan raqslar g'oyaviy mazmuni, obrazlari, sur'atlari, texnikasi, uslublari, baletmeyster texnikasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Umumiy jihati shundaki, barcha xoreograflar ikkita uslubni bitta raqsda birlashtiradi - xalq va zamonaviy, ikkinchisi ustunlik qiladi. Ammo bu dissonans, disgarmoniya holatini

paydo qilmaydi. Har bir raqs organik bir butun sifatida qabul qilinadi, bu yerda o‘zaro kirish, sintez, turli xil uslubdagi elementlarning sintezi kompozitsiyani yaxshilash uchun ishlaydi.

Havaskor guruhlarda hamma narsa unchalik aniq emas. Postsovet hududida, havaskorlik jamoalari rahbarlarining ishida, qoida-buzarliklarga nisbatan doimiy tendensiya saqlanib qolmoqda ya’ni, oddiy munosabatlar, meyorlar va qonunlarni yengib o‘tish. Estetika janrining subektiv tushunchasida - ijodda hech qanday tamoyillarning yo‘qligi kuzatilmoqda. Har bir xoreograf o‘zining ijodkorlik va zamonaviylik huquqini himoya qilib, san’atda o‘zini namoyon etishga intiladi. Stilizatsiya qonunlariga e’tibor bermaslik, aksincha, mensimaslik yoki bilmaslik ijod erkinligiga da’vo bilan almashtiriladi. Raqs uslublari cheksiz, aralash, yaxlit, gibrid, sintetik xoreografik shakllar bo‘lib, “soxta etnik”, “soxta milliylik” teginish bilan “aralashtirilgan” poli stilistik janr paydo bo‘ladi. Zamonaviy xoreograflar o‘z ishlarida xalq raqslarining an’anaviy usuli bilan bir qatorda akrobatika, gimnastika, klassik raqs elementlari va zamonaviy raqs yo‘nalishlaridan foydalanadilar. Natijada, “bu kuchli, menga yoqadi” tamoyili bo‘yicha elementlardan foydalaniladigan o‘ziga xos nopok ta’msiz raqs brikolaji bo‘lib qoladi. Turli xil uslubdagi elementlarning mexanik, ta’msiz kombinatsiyasi, yorqinlikka, jozibalilikka, tashqi effektga yo‘naltirilganligi spektakllarning tashqi shubhali o‘ziga xosligi ortida xoreografning ijodiy uslubi, yangilik emas, balki oddiy noprofessionallik yashiringan degan fikrga olib keladi.

Stilizatsiyalangan xalq raqslari uchun xalq xoreografik folklor-tilida to‘liq bo‘lmagan holda qayta ishlangan xalq musiqasiga asoslangan kompozitsiyalar beriladi.

Bunday xulosaga postsovet hududida ko‘p miqdorda o‘tkaziladigan turli tanlov va festivallarda ishtirok yetuvchi guruhlarning raqs chiqishlari tahlili natijasida keldi. "Kuvirkom" raqs uyi (Rostov-na-Donu) jamoasi tomonidan taqdim etilgan kompozitsiyada "Silen polivayet" stilize qilingan xalq musiqasidan foydalanilgan [4].

Spektakl g‘oyasi haqida aniq tushuncha shakllanmayapti. Oppoq sarafanlar kiygan, sochlari taralmagan, tushunarsiz plastika yordamida o‘smir qizlar kattalarning izlanishlari, hatti-harakatlarini tomoshabinga yetkazishga harakat qilishadi. Kompozitsiya tuzilishiga ko‘ra noaniq (faqat subektiv) tuyg‘ular va taxminlarni yuzaga keltiradi.

"ID City Show" (Sankt-Peterburg) tanlovida xoreograf B. Shipulin uslubiy etnik belarus qo‘shig‘iga sahnalashtirilgan “Sokolonko” kompozitsiyasini taqdim etdi. Yashil sarafan, oq kozok va boshidagi gulchambardan iborat kostyum odatda belarus xalq musiqasiga mos keladi. Biroq, raqs matnida belarus xalq raqsi harakatlari kuzatilmaydi, ammo yuqori batmanlar juda ko‘p. Raqsning avj nuqtasi quyidagicha ifodalanadi. Davrada turgan ijrochilar qo‘llarini ushlab turishadi. Har ikkinchi qiz

oyoqlari bilan vertikal yoʻnalishda keskin burilib, qoʻshni ijrochilarning qoʻllariga bu holatda osilib turadi, yubkalari esa boshlariga tushib, etaklari osti ochilib qoladi [5].

Baʼzi xoreograflar uslublashgan folklor-sahna raqsi doirasida qolib, asossiz harakatlar bajaradilar, oʻzlarining "milliyligini" hisobga olmaydilar. Rus raqslariga ukrain harakatlari, kavkaz tiz choʻkib aylanishlarni qoʻshadilar ("Baxtli bolalik" ansambli, Navoiy sh., Oʻzbekiston. Baletmeyster F.Musayeva).

"Musiqiy koʻprik" festival-tanloviga E.V. Koroleva boshchiligidagi "Elegiya" (Ufa, Boshqirdiston) naʼmunali uslubiy va estrada raqs ansambli ijrosida "Rus motivlari" raqsi taqdim etildi. [6]. Raqs yorqin va quvnoq. Biroq, na guruhning stilizatsiya janriga yoʻnaltirilganligi, na millatga ishora qiluvchi raqs nomi, yorqin kalta sarafanlar kiygan ishtirokchilar - qizlarning erkaklar hatti-harakatlari: chuqur oʻtirishlar, darveshona harakatlar, havoda qadamlari rus motivlariga hech qanday ishora qilmaydi.

Havaskorlar jamoalaridagi rejissyor-xoreograflarning aksariyati oliy maʼlumotga, baʼzan esa magistr darajasiga ega. Savol tugʻiladi. Boʻlajak xoreograflar universitetlarda nimalarga oʻqitiladi?"

Xoreografiya universitetlarida yuqori toifali mutaxassislar anʼanalarga juda sezgir boʻlib, stilizatsiya jarayonida oʻzlari saqlab qolishga muvaffaq boʻlgan haqiqiy, universal va milliy jihatlarni yoʻqotishdan qoʻrqadilar. Talabalarga etnik materialga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish, xalq raqslarini sahnalashtirishda qanday badiiy usullardan foydalanish va boshqalar oʻrgatiladi. Tor koridorda ijod qilishdan charchagan boʻlsa kerak, uzoq kutilgan mustaqillikdan mast boʻlgan bitiruvchi xoreograflar, "Men ijodkorman! Men buni shunday koʻraman, men buni xohlayman! Bu ajoyib va tomoshabinga yoqadi!" umidsiz ishtiyoq bilan anarxik erkinlik tubiga otiladilar.

Sanʼat senzurasida bugungi kunda juda muhim. Tanlovlar va festivallar xolis badiiy tahliliy, malakali hakamlar hayʼatini professional va asosli tanqid bilan jamoa rahbarlari ishtirokida oʻtkazish kerak.

Aniqlangan muammolar nuqtai nazaridan Oʻzbekiston televideniyesining ZOR TV kanalida namoyish etilayotgan "Joziba" loyihasining formati mamnuniyat tuygʻusini uygʻotmoqda. Bolalar raqs guruhining har bir chiqishidan soʻng, professional oʻqituvchilar, xoreograflar va baletmeysterlardan iborat malakali hakamlar hayʼati guruh rahbarlari ishtirokida muhokama oʻtkazadilar qoniqarli jihatlarni taʼkidlaydilar, jamoaviy ijrolardagi xatolarni aytib oʻtadilar, guruh ishini takomillashtirish boʻyicha professional maslahatlar beradilar. Milliy telekanalda jamoa sardorlari faoliyatining ochiq, malakali muhokamasi, kasbiy maslahat oʻsha senzura, oʻsha badiiy kengash raqsning stilistik sofligini saqlash, respublikada xoreografiya sanʼatida havaskorlik jamoalari rahbarlarining mahoratini oshirish va sifatini oshirish boʻyicha ish olib boradi.

An'ana va yangilik - o'tmish va hozirgi zamonning dialektik qarama-qarshiligidir. Bir tomondan, mumtoz san'at ta'limi janr sofligini saqlashga, an'anaviy san'atni e'zozlashga qaratilgan. Bunga yangi asarlar o'tmish va hozirgi davrning ko'zga ko'ringan xoreograflari tomonidan yaratilgan badiiy namunalarga, badiiy janr qonunlariga mos kelishi sharti bilan erishish mumkin. Boshqa tomondan, aynan ijodkorlikdagi an'analarga amal qilish bo'lajak xoreograflar ongida turg'unlikka, natijada san'at rivojida uzilishlarga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy ommaviy madaniyat media texnologiyalari orqali endi hamma uchun mavjud. "YouTube" kanali havaskorlik to'garaklari yetakchilari o'z ishida yo'l-yo'riq ko'rsatishi haqida ma'lumot beradi. Bunday sahnalashtiruvchi-rahbarning madaniyati, bilimi, san'atda nima yaxshi, nima yomonligi haqida o'ziga xos g'oyalari bilan, yomon diddan immunitet bo'lsa, qo'pollik, havaskorlikka qarshi emlashda foydalidir. Shuningdek, jamoa rahbari o'quvchilar, ularning ota-onalari, tomoshabinlar va san'at oldidagi ma'naviy mas'uliyatini tushunishi ham muhimdir.

San'atdagi eklektizm - bu vaqt bilan belgilanadigan o'ziga xos estetik qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan tabiiy hodisadir. Bugungi kunda xoreograflar an'analarni saqlab qolish jarayoniga bir yoqlama qarashlari kerak emas, balki ularni saqlab qolish nuqtai nazaridan qarashlari kerak. An'anaviy raqsga hurmat, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lgan holda, ular jamiyatning madaniy va estetik ehtiyojlarini ko'rishlari va hisobga olishlari, folklor merosini eng zamonaviy shakllar, ritmlar, ranglar bilan sintez qila olishlari kerak. Bu borada ajdodlarimiz merosi katta imkoniyatlar yaratsada, undan ijod yo'lida foydalanish kasbiy mahorat va savodxonlikni, yuksak estetik did hamda mutanosiblikni talab etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Filologiya i iskusstvovedeniye. V.I. Bochkovskaya, «Traditsii v narodnom iskusstve kak dialekticheskoye yavleniye». [Elektronniy resurs]. URL: <http://izvestia.asu.ru/2011/2-1/arts/TheNewsOfASU-2011-2-1-arts-02.pdf>. (data obrasheniya: 13.05.2020 )
2. Slovar. URL: <https://litra.info/book/kak-zarabotat-esli-umeyesh-pisat/page-17.html> (data obrasheniya: 13.05.2020 )
3. <https://www.youtube.com/watch?v=LlSAk5HPhHA>
4. <https://www.youtube.com/watch?v=GPyglAjqMM>
5. <https://www.youtube.com/watch?v=EKP2xwMEy5Y>
6. <https://www.youtube.com/watch?v=E1Qa5Fkcvr0>
7. Arutyunov S.A. Narodi i kultura: Razvitiye i vzaimodeystviye. M., 1989.
8. II Maxkambayevna. SCENOGRAPHIC INTERPRETATION OF ALISHER NAVOI'S WORKS (On the example of the State Academic Theatre of Opera and

Ballet named after Alisher Navoi)// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 6 (6), page 16-19

9. ИМ Иманкулова, ЗК Фазлиева. АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ДАВЛАТАКАДЕМИК КАТТА ТЕАТРИ САҲНАСИДА “ЛАЗГИ ҚАЛБ ВА СЕВГИ РАҚСИ” БАЛЕТИ СЦЕНОГРАФИЯСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИН// Oriental Art and Culture, 2021.

## ПРОФИЛАКТИКА КОНСЕРВАТСИЯСИ: КИТОБ ВА ҚЎЛЁЗМА ХУЖЖАТЛАР, ЖАМИЯТДАГИ ТАРИХИЙ ЁДГОРЛИККА ЕТАЁТГАН ЗАРАРЛАРНИ ТЎХТАТИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Солиева Ҳавасхон Омоновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтининг Фарғона минтақавий  
филиали

**Аннотация:** Тарихий ва маданий ёдгорликлар (меъморий иншоотлар, археологик топилмалар, тасвирий ва амалий санъат асарлари, китоб, қўлёзма ва бошқалар)ни дастлабки ёки Консервацияга тушган вақтдаги қиёфаси, чидамлилигини узоқ муддатга сақлашни таъминловчи чора-тадбирлар йиғиндиси. Реставрация билан узвий боғлиқ. Музей, кутубхона, архивларни иситиш, шамоллатиш, барча сақланаётган нарсалар учун мўътадил ҳарорат, намлик, ҳаво таркиби шароитларини яратиш орқали эришилади. Махсус тартибдаги сақлашда ҳавони тозаловчи филтрли витринадан фойдаланилади; буюмлар, санъат асарлари махсус жилд ва жавонларда сақланади. Ёғоч, мато, тери буюмларига кимёвий моддалар билан ишлов берилади, хом сопол, ёғоч буюмлар бўзилмаслиги учун махсус синтетик елимлар билан ишланади; ҳужжатлар, босма матнлар шаффоф қобиг билан, металл, шиша, суюқ буюмлар рангсиз лок билан қопланади. Меъморий обидаларнинг асоси, девори, гумбазлари мустаҳкамланади, химоя қурилмалари барпо этилади;

**Калит сўзлар:** Профилактика консервацияси, реставрация, китоб, қўлёзма ҳужжатлар, китобларни кумуляция, ҳужжатлар, босма матнлар, ёғоч, мато, тери, меъморий обидалар

## PREVENTION CONSERVATION: BOOKS AND MANUSCRIPT DOCUMENTS AS A FACTOR TO STOP DAMAGE TO HISTORICAL MONUMENTS IN SOCIETY

Solieva Havasxon Omonovna

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** A set of measures to ensure the long-term preservation of historical and cultural monuments (architectural structures, archeological finds, works of fine and applied arts, books, manuscripts, etc.) at the time of their first or conservation. It is inextricably linked with restoration. The museum, library, archives are achieved by heating, ventilation, creating a moderate temperature, humidity, air composition conditions for all stored items. An air-purifying filter display case is used for special

storage; items, works of art are stored in special covers and shelves. Wood, fabric, leather goods are treated with chemicals, raw ceramics, wood products are treated with special synthetic adhesives to prevent damage; documents, printed texts are covered with a transparent shell, metal, glass, bone materials are covered with colorless lacquer. The foundations, walls, domes of architectural monuments will be strengthened, protective devices will be built.

**Keywords:** preventive conservation, restoration, books, manuscripts, book cumulation, documents, printed texts, wood, fabric, leather, architectural monuments,

Фан-техника ривожланган ҳозирги даврда кутубхоналарнинг миссияси ўзгариб бормоқда. Кутубхоналарга замонавий ахборот технологияларини кириб келиши билан ахборот кутубхона хизмати кўрсатиш турлари ошиб бормоқда электрон кутубхоналарни босқичма-босқич шакллантириб, аҳолининг кенг қатламлари фойдаланишини ташкил этиш бугунги куннинг талабидир. Диёримиз азалдан илм-маърифат ўчоғи бўлиб келган. Бу юртдан не-не аллома зотлар етишиб чиқмаган дейсиз. Улар қолдирган улкан илмий мерос гарчи турли босқинлар даврида нобуд қилинган, олиб кетилган бўлса-да, бизнинг давримизгача етиб келганларининг адади, ҳисобга олинганлари ҳам кишини ҳайратга солади. Кутубхона ушбу муҳим ижтимоий вазифани бажариш учун китоблар оламидан ўзига керакли, китобхонга мос, жамият равнақига ҳисса қўшувчи китобларни танлаб олади, ишлов беради, ўзига хос усулда тартибга солади ва инсонлар фойдаланиши учун маълум шарт-шароитларни яратади, сақлайди ва китобхонга етказиб беради.

Юқоридаги вазифани уддалашда кутубхона жуда муҳим ва машаққатли жараёнларни, яъни китоб танлаш, ҳисобга олиш, бутлаш, каталоглаштириш, жойлаштириш, сақлаш каби вазифаларни бажарадики, уларсиз кутубхона фонди вужудга келмайди ва кутубхона фаолият кўрсата олмайди. Кутубхона фонди тўлиқ шакллангандан сўнггина у ўзининг бошқа ижтимоий вазифаларини бажариш имкониятига эга бўлади.

«Агар кутубхона бўлмаганда эди,- дейди машҳур кутубхонашунос Л.Б.Хавкина, - нашр этилган мавжуд китоблар ҳамма томонга тарқалиб кетиб, комета сингари вақт ўпқонига сингиб кетарди ва улардан фақатгина библиографик маълумот қолиб, китобларсиз бу маълумотлар қабрга қўйилган тошларга ўхшаб қолар эди».

Китобларни кумуляция қилиш, яъни йиғиш, бир жойга тўплаш кутубхонанинг асосий мақсади бўлмай, уни сақлаш ва жамият эҳтиёжи учун ишлатиши бош вазифалардан бири бўлиб ҳисобланади.

Консервация (лот. консерватио - сақлаш) - 1) тарихий ва маданий ёдгорликлар (меъморий иншоотлар, археологик топилмалар, тасвирий ва



амалий санъат асарлари, китоб, қўлёзма ва бошқалар)ни дастлабки ёки Консервацияга тушган вақтдаги қиёфаси, чидамлилигини узоқ муддатга сақлашни таъминловчи чора-тадбирлар йиғиндиси. Реставрация билан узвий боғлиқ. Музей, кутубхона, архивларни иситиш, шамоллатиш, барча сақланаётган нарсалар учун мўътадил ҳарорат, намлик, ҳаво таркиби шароитларини яратиш орқали эришилади. Махсус тартибдаги сақлашда ҳавони тозаловчи филтрли витринадан фойдаланилади; буюмлар, санъат асарлари махсус жилд ва жавонларда сақланади. Ёғоч, мато, тери буюмларига кимёвий моддалар билан ишлов берилади, хом сопол, ёғоч буюмлар бузилмаслиги учун махсус синтетик елимлар билан ишланади; ҳужжатлар, босма матнлар шаффоф қобиғ билан, металл, шиша, суяк буюмлар рангсиз лок билан қопланади.

1) Меъморий обидаларнинг асоси, девори, гумбазлари мустаҳкамланади, ҳимоя қурилмалари барпо этилади;

2) бирон-бир қурилиш ёки корхона ишининг муайян сабабга кўра узоқ муддатга тўхтатиб қўйилиши;

3) двигателлар, машиналар ва бошқа техника воситалари узоқ муддат ишлатилмай турганда уларни коррозиядан сақлаш учун кўриладиган тадбирлар (мас, мойлаш, нам ўтказмайдиган нарса билан ўраш ва бошқалар);

4) ёғоч материалларни чиришдан асраш, ҳашаротлар ва денгизда яшовчи ёғоч кемирувчиларидан сақлаш учун уларга махсус модда билан ишлов бериш. Ёғочни Консервациялашнинг энг самарали ва осон усули унга кимёвий моддалар шимдириш ва махсус пасталар суркашдир.

Кутубхона фонди-бу бир жойга тўпланган китоблар йиғиндиси эмас, А.Шопенгауер айтганидек, у-инсониятнинг ягона ишончи ва йўқотилмайдиган мемориал хотираси ҳамдир. Ҳақиқатдан ҳам Ўзбекистоннинг Миллий кутубхонасида ҳамда йирик илмий кутубхоналарида, Шарқшунослик институтида буюк мутафаккирларимизнинг жаҳонга машҳур асарлари сақланади. Бу бебаҳо манбалар аждодлар хотираси бўлиб, нафақат бизнинг Ватанимиз, балки хорижий мамлакат олимларини ҳам ҳайратга солади. Буюк аждодларимиз қолдирган мерос Авестодан то улуғ шоир Алишер Навоийгача, Имом Бухорий, Марғиноний, Ал-Фарғонийдан Абдулла Қодирийгача ўтган аждодларимиз ноёб асарларининг бизгача етиб келишида кутубхоналарнинг роли бениҳоя каттадир, бу эса ўзбекларнинг жаҳон цивилизацияси ривожланишига қушган ҳиссасини кўрсатиб турадиган ўлчов ҳамдир. Бу ўлчов жаҳонда анча юқори поғонани ташкил этади.

Шунинг учун ҳам кутубхонанинг асосий вазифаларидан бири асрлар давомида тўпланган китоб бойликларини узоқ вақт асл ҳолида сақлаб, авлодларга етказишдан иборат.

Китоб бойлигини сақлаш жаҳоннинг барча халқлари учун катта ижтимоий-маданий аҳамиятга эга. 1954 йилда ЮНЕСКО ташаббуси билан ГАГГА шаҳрида чақирилган ҳукуматлараро конференция маданий бойликни асраш бўйича конвенция қабул қилди. Ана шу конвенцияга мувофиқ бошқа маданий бойликлар қатори кутубхона фондлари ҳам уларни йуқотиб юбориш ёки бирон-бир шаклда қонунсиз ўзлаштириш хавфи туғилган ҳолларда халқаро ҳимояга олинади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг № 101 чи 2012 йил 5 апрель «Архив иши тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунида ҳам фондларнинг тўқислигига уларни асраш, тўғри сақлаш ҳамда шикастланиш омилларини бартараф қилиш орқали эришлиши ҳақида маълумот келтирилган.

1. Кутубхона фондларини сақлашнинг самарали шакли сифатида профилактик консерватсия уларни табиий қариш натижасида ҳам, бахтсиз ҳодисалар, табиий ва экологик офатлар натижасида ҳам йўқ қилиш жараёнларини секинлаштиришга қаратилган. 2. Фазаларни консерватсия қилиш истиқболли профилактика шакли сифатида кутубхоналарга ҳужжатларни узоқ вақт сақлаш, атроф муҳитнинг зарарли таъсиридан ва механик шикастланишлардан ҳимоя қилиш, тиклашга бўлган эҳтиёжни камайтириш ва сақлашга маблағларни оқилона сарфлаш имконини беради. 3. Фавқулодда вазиятларни бартараф этиш жараёнида ҳар хил турдаги кутубхоналардаги маблағларнинг сақланишини таъминлаш учун ишлаб чиқилган фазаларни сақлашнинг одатий дастуридан фойдаланиш мумкин. 4. Ўрта ва юқори малакали кутубхоначиларни ўқитиш ва ўқитиш жараёнида кутубхона техник мактаблари ва олий ўқув юртларининг кутубхона-ахборот факультетларининг ўқув режаларига "Кутубхона фондлари" курси доирасида профилактика консерватсияси бўлимларини киритиш зарур.

Шу нуқтаи назардан, профилактика консерватсияси кутубхона материалларига нисбатан одамларга нисбатан профилактика тиббиёти билан деярли бир хил рол ўйнайди. Тиббий аксиома "касалликни даволашдан кўра уни олдини олиш осонроқ" бу маблағларнинг хавфсизлигини энг яхши усулда таъминлашнинг ушбу йўналишининг моҳиятини акс эттиради. Россия ФАнинг кутубхонасида олиб борилган тадқиқотларнинг аҳамияти ва зарурияти шундаки, профилактика шакли сифатида фазавий консерватсияни жорий этиш натижасида ҳар хил турдаги кутубхоналар учун Типик дастур ишлаб чиқилган. Унда қуйидаги тадбирлар кўзда тутилган: а) ҳужжатлар таркиби ва жисмоний ҳолатини ўрганиш; б) маблағларни сақлаш шароитларини мунтазам равишда экспертизадан ўтказиш; в) ахборот базасини яратиш; г) фазаларни тежашнинг технологик жараёнини ташкил этиш; ҳужжатларни физикавий, кимёвий ва

биологик қайта ишлаш; д) услубий ва меъёрий-технологик ҳужжатларни ишлаб чиқиш; е) малакали кадрлар-қўриқчиларни тайёрлаш;

Китоб тарихий объектга айланиб бўлгач ҳам ўзига юкланган асосий вазифани бажаришда, яъни ўзида қайд этилган қимматли маълумотни сақлашда давом этаверади. Хусусан, 2002 йилда қабул қилинган «Касбий йўриқнома» уч бўлимдан иборат бўлиб, Касбга 2 таъриф, Ахлоқий кодекс ва Касбий билимларга қўйиладиган асосий талабларни ўз ичига олади. Кодекснинг муқаддимасида реставрация фаолиятининг предметига таъриф берилган. «Жамият учун алоҳида бадиий, тарихий, эстетик, илмий, маънавий, диний қимматга эга ва, одатда, "маданий бойлик" деб аталувчи объектлар моддий ва маданий мерос сифатида авлоддан авлодга узатиб келинади.

Китобларни консервациялашнинг тўлиқ цикли ўз ичига қуйидаги жараёнларни олади:

- чангдан тозалаш;
- хизмат дезинфекциявадезинсекцияқилиш;
- қуруқ тозалаш;
- муқовадан ажратиш;
- ортиқча намликни кетказиш;
- эритмаларбиланишловбериш;
- нейтраллаш - ишқор билан ишлов бериш;
- мустаҳкамлаш, фиксация, ҳажмини ростлаш;
- қонламалардан халос қилиш;
- таъмирлаш;
- тўлдиришвакоррекция;
- намлаш;
- жилдлаш;
- қуриштириш ва текислаш;
- матн блокига жамлаш;
- тикиш;
- корешоккаўрнатиш;
- бортларниўрнатиш;
- мўқовалаш;
- ретушлаш (тўслаш);
- коллаж, композит бўлакларни ўрнатиш;
- белгиларниқўйиш; ўраш;
- сақлаш;
- намоишэтиш;
- жойлаш;
- ташиш.

Бу рўйхатда целлюлозали қоғоз экспонатларни консервациялашнинг тўлиқ цикли батафсил баён қилинган. Амалиётда эса, ҳар бир маданий объектнинг (китоб, тарихий ҳужжат) ўзига хос хўсусиятлари, шикастланиш даражаси, лабораторияда мавжуд шарт-шароитлардан келиб чиқиб, бу жараёнларнинг баъзиларинигина амалга ошириш кифоя қилади.

Тарихий ёдгорликка етаётган зарарни тўхтатиш мақсадида унга тўғридан-тўғри таъсир кўрсатиш оператив (тезкор) консервация дейилади.

Консерватор-реставратор унга ишониб топширилган маданий ёдгорликнинг эстетик ва тарихий аҳамияти ҳамда жисмоний яхлитлигини ҳурмат қилган ҳолда, унинг маънавий ва бадиий қийматини асл ҳолатида сақлаб қолишга интилиши керак. Бу вазифалар ўз навбатида консерватор-реставраторларга қўйиладиган талаблар жуда юқори бўлиши кераклигини англатади.

Юқорида айтилганлардан консервация илм, ҳунар ва жамиятдаги маданий бойликларни келажак авлодларга етказишга қиладиган ноёб касб эканлиги маълум бўлади. Аслини олганда, маданий ёдгорликларни консервация қилиш жараёнида жамиятининг кенг қатламлари иштирок этади. Булар:

- маданий ёдгорликнинг табиати, унинг бадиий ва тарихий қимматини ўрганувчи тадқиқотчилар;

- ўзларининг касбий бурчларига кўра маданий ёдгорликни сақловчи, ўнинг ўмирини узайтириш учун зарур шарт шароитлар яратишга масъул ходимлар;

- ўта зарур бўлган ҳолатлардагина ёдгорликларнинг аслиятига энг кам даражада дахл қилиб, уларга етказилган зарарни бартараф этувчи ва емирилиш жараёнларни тўхтатишга интилувчи реставраторлар ва ҳоказо.

Демак, ҳар қандай китоб ёки тарихий ҳўжжат умрбоқий эмаслиги, уларда кечаётган эскириш жараёнини батамом тўхтатиш иложсиз эканлигини ҳаммамиз тушуниб тўрибмиз. Лекин ўларнинг умрини имкон борича узайтириш, уларнинг шакли-шамойили-ю уларга битилган маълумотларни сақлаган ҳолда келажак авлодларга минимал талофатлар билан етказиб бериш бугунги кун кутубхоначиларининг, консервация ва реставрация мутахассисларининг муқаддас бурчидир.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида архив ишини такомиллаштириш тўғрисида” № 101 чи 2012 йил 5 апрель қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори. Ўзбекистон Республикаси аҳолисига ахборот- кутубхона хизматини кўрсатишни янада такомиллаштириш тўғрисида” “ Халқ сўзи” 2019 йил, 11 июн.

3. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 43-51.

4. Юлдашева, С. Н. (2020). СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АУДИТОРИИ. ТИПОЛОГИЯ ЧИТАТЕЛЕЙ. *Oriental Art and Culture*, (V).

5. Sohiboxon, Y. (2021). O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI. *Oriental Art and Culture*, (7), 260-268.

6. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.

7. Юлдашева, С. (2019). Китоб мутолаасини шакиллантиришда кутубхоначилик фаолияти. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 59-62.

8. Yuldasheva, S., & Madumarova, M. (2020). TASKS AND CONTENT OF BIBLIOGRAPHIC WORKS. *European Journal of Arts*, (1), 148-152.

9. Асқарова, М. (2020). ЎЗБЕК АДАБИЙ ТАНҚИДИ ТАРАҚҚИЁТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

10. Мирзаева, Н., & Асқарова, М. (2020). ЧЎЛПОН ИЖОДИДА МИЛЛИЙ УЙҒОНИШ ҲАРАКАТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

11. Асқарова, М. (2021). Адабий жараённинг зукко тадқиқотчиси. *Oriental Art and Culture*, (7), 209-216.

12. Askarova, M. (2020). Homil yakubov's views on navoi studies. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 788-792.

13. Askarova, M. (2021). Homil Yakubov's views on Oybek lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2412-2415.

14. Nurxon, I., & Habibjonov, I. (2021). КИТОВ VA КИТОВХОНЛИК–INSON MANAVIYATINING KOZGUSI. *Oriental Art and Culture*, (6).

15. ўғли Ҳабибжонов, И. Т. (2020). ЎЗБЕК СОЛИҚ ТЕРМИНЛАРИНИНГ АФФИКСАЦИЯ УСУЛИ БИЛАН ЯСАЛИШИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 200-206.

16. Ҳабибжонов, И. Т. ў. (2021). СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА ДУБЛЕТЛИК ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Scientific progress*, 1(6), 842-846.

17. Ismoilova, N., & Habibjonov, I. (2021). Kitob va kitobxonlik–inson manaviyatining kozgusi. *Oriental art and culture*, 2(1), 159-166.
18. Habibjonov, I. (2020). Syntactic design of uzbek tax and customs terminology. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2910-2915.
19. Oglu, H. I. T. (2020). Formation of uzbek tax and customs terms (on the example of materials on the history of language). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1308-1313.
20. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.
21. Рўзиева, Г., & Ҳабибжонов, И. (2021). САДР ЗИЁ КУТУБХОНАСИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
22. Normatova, M., & Ikromjon, X. (2021). "QUTADG'U BILIG" IKKI JANONNI TUTISHGA OCHUVCHI YO'L. *Oriental Art and Culture*, (6).
23. Ўғли, Ҳ. И. Т. (2020). ТИЛШУНОСЛИҚДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ТАДҚИҚИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
24. Solieva, H. O. (2021). THE ROLE OF READING IN THE FORMATION OF A PERSON'S OPERATIVE MEMORY AND MENTAL MATURITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 178-185.
25. Солиева, Ҳ. О. (2018). ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО НА МЕДИЦИНСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-6), 56-60.
26. Омоновна, С. Ҳ. (2018). «Бебош бола» синдроми ёхуд нега болалар асабийлашади?. *Современное образование (Узбекистан)*, (11).
27. Омоновна, С. Ҳ. (2018). Ўқувчилар тарбиясини шакллантиришда оналарга педагогик билим бериш тизимининг аҳамияти. *Современное образование (Узбекистан)*, (5).
28. Омоновна, С. Ҳ. (2019). Агар бола сизни «Эшитмаса»... *Современное образование (Узбекистан)*, (4 (77)), 58-63.
29. Омоновна, Ҳ. С. (2020). ТАРИХИЙ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРНИ КОНСЕРВАЦИЯ-РЕСТАВРАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ ХУСУСИДА. *Oriental Art and Culture*, (V).
30. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Глобаллашув жараёнида ахборот оқимининг ёшлар маънавиятига таъсири хусусида. *Oriental Art and Culture*, (7), 217-224.
31. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Маданият ва маънавият масалаларида тарихий илдизлар излари. *Oriental Art and Culture*, (7), 244-253.

32. Парпиев, А. (2021). ЖАДИДЧИ ОБИДЖОН МАҲМУДОВНИНГ  
ФАОЛИЯТИДАГИ ЯНГИ ҚИРРАЛАР. Oriental Art and Culture, (6).

## РЕЖИССЁРНИНГ ИЖОДИЙ ШАХС СИФАТИДА ШАКЛЛАНИШИДА ПЕДАГОГИКА ВА ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ

Мадримов Қахрамон Кадирович  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Театр - дунёни драматик ҳаракатлар орқали актёрлар ёрдамида томошабин кўз ўнгида бадиий образлар орқали ўрганувчи санъат тури ҳисобланади. Тана ҳаракатлари орқали кишининг характери, дунё ҳақидаги тушунчаларини, хиссиётларини очиб берувчи рақс санъати - инсон рухиятига ўзгача ҳис - туйғуларини бахш этади. Ана шундай санъат турларини юзага чиқарувчи, инсонларни комилликка етакловчи шахс - режиссёр ҳисоланади.

**Калит сўзлар:** Театр, режиссёр, актёр, образ, сахна, ижодий жараён, персонаж, ҳаракат ва фикр.

## THE IMPORTANCE OF PEDAGOGY AND EDUCATION IN THE CREATIVE FORMATION OF THE DIRECTOR

Madrimov Qahramon Kadirovich  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** Theater is an art form in which the spectator learns through artistic images with the help of actors through dramatic movements around the world. The art of dance, which reveals a person's character, perceptions and feelings about the world through body movements, gives a special feeling to the human spirit. The director is the person who creates such art forms and leads people to perfection.

**Keywords:** Theater, director, actor, image, stage, creative process, character, movement and thought

Мустақилликка эришганимиздан сўнг республикамизнинг барча театрларида, жумладан вилоят театрларида ҳам катта ўзгаришлар олиб борилди. Бунда асосий эътибор, энг аввола театрни малакали кадрлар билан таъминлаш ҳамда янги сахна асарларини репертуардан жой олишига қаратилди.

Бугунги кунда институтимизда тарбияланиб, ижод йўлини давом эттираётган ижодкор ёшлар республикамизда, қолаверса чет эллардаги санъат масканларида ўз фаолиятларини олиб боришмоқдалар. Улар санъат оламида ўз ўринларини топиб томошабинларга эстетик завқ, гўзал туйғулар ва манавий озуқалар бериб келмоқда. Айниқса, театр ва кино санъати режиссурасида ўз



ўрнига эга бўлган, ўзбек санъати мактабини тарғиб қилиб келаётган режиссёрлар - институтнинг собиқ талабалари эканлигини эшитиб хурсанд бўласан киши.

Театр - дунёни драматик ҳаракатлар орқали актёрлар ёрдамида томошабин кўз ўнгида бадиий образлар орқали ўрганувчи санъат тури ҳисобланади. Тана ҳаракатлари орқали кишининг характери, дунё ҳақидаги тушунчаларини, ҳиссиётларини очиб берувчи рақс санъати - инсон рухиятига ўзгача ҳис - туйғуларини бахш этади. Ана шундай санъат турларини юзага чиқарувчи, инсонларни комилликка етакловчи шахс - режиссёр ҳисоланади.

Режиссёрни тарбиялашда ижод устахонасида ижодий муҳит яратиш, ҳар бир талабани шахс сифатида шакллантириш бугунги куннинг долзарб мавзуга айланиб бораётганлиги бежиз эмас. Талабада яратган берган қобилият мавжуд бўлса-да, уни тарбиялашда педагогдан жуда катта масъулият, билим ва қобилият талаб қилинади. Лекин бўлажак режиссёрнинг ўз устида муттасил ишлаш кўникмаси юқорида тилга олинган ижод устахонасида педагог билан бирга шаклланади.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, талабаларга дарсдан ташқари мустақил иш учун танланган мавзулар ва шу мавзулар асосида белгиланган вазифалари аниқ, пухта ишлангани жуда муҳимдир. Бунинг талаба - режиссёр учун ҳам, педагог учун ҳам афзалликлари бор. Негаки, ўтилган дарсга боғланиб, аниқланган мустақил иш мавзулари режиссёрларни янада малакаларини оширишга хизмат қилади. Мисол учун, ҳар бир талаба ўзидаги ижодкорлик қирраларини ҳар томонлама синаб кўриш мақсадида этюд, адабий парча ёки аудиторияларда бўлиб ўтадиган тадбирларга режиссёрлик қилиб кўрадилар. Ўзларига мақул бўлганидан сўнг, устозининг назаридан ўтказишга ҳаракат қиладилар. Камчиликлар шу жойнинг ўзида педагог - режиссёр билан бирга бартараф қилинади. Яъни, тайёрланган этюд, парча ёки бирорта ижодий иш устида қайта ишланади. Иш яхши натижага эга бўлгач, кейинги вазифалар устида бош қотирилади.

Режиссёр тарбияловчи педагог талабаларни ҳар томонлама эркин ижод қилишига ўргатиши лозим. Базан қаттиқ қўллик, талабчанлик ҳам ўз фойдасини беради. Кичик ижодий ишни масъулият билан бажаришга ўрганган ва ўзида пайдо бўлган янги ғояларни такомиллаштириб, асраб - авайлашга ва уни тўғри тадбиқ қилишга интилган талабадан албатта режиссёр чиқиши муқаррар. Ижодий эркинликни кўпчилик талаба бошқача тушунади, у саҳнадаги ижодий эркинликни ҳаётдаги эркинлик билан алмаштириб қўяди. Яъни ўзгалар меҳнатини менсимайди, талантлиман деб, манманликка берилади, ўзига ўта ишонади ва кам изланади. Оқибатта ўзида бор қобилиятни ривожлантириш ўрнига унга тўсқинлик қилади. Бундай ҳолатнинг юзага келишида талабанинг

ҳам, педагогинг ҳам айби бўлади. Шунинг учун ҳам иждокор, айниқса режиссёр талабалар устозларимиз вақтни беҳуда сарфлашдан сақланишга, ундан унимли фойдаланишга ўргатганлар. Институтда шу бугунги кунгача талабаларнинг устахоналарида тинимсиз, кечгача ишлашларнинг боиси санъаткор тарбиялаш анъаналарининг давом этиб келаётганидан дарак беради.

Режиссёрлик ўта мураккаб касб. Республикамининг турли байрам тадбирларидан тортиб, театр ва кино, қолаверса радио, телевидение соҳаларида бу касбнинг роли катта.

“Талабалар баҳори” театр кўрик танловини олайлик. Бу кўрик танловга санъат мактабини кўрган режиссурани тушинган собиқ талабаларимиз - режиссёрлик қиладилар. Бу танловда бизнинг талабаларимиздан ташқари барча олий ўқув юртларидан истеъдодлар қатнашдилар. Устозларни бугунги кун талабаларини тарбиялашдек машаққатли меҳнатларини кузатар эканмиз, уларнинг инсонийлик ва педагогик фазилатларига, сабр-бардошларига қоил қолмай иложи йўқ. Устозларнинг одам шинаванда, ёшлар тарбиясига бефарқ бўлмастик, ёшлар билан тез тил топа олиш, ўзида бор билимларини ёшларга беришга интилиш, уларни ўз касбига меҳр-мухаббатли қилиб тарбиялаш, илм олишга ва ҳар бир топшириқни ўз вақтида бажаришга ўрганиш, муаммоларни ақл билан ҳал этиш, ҳаётнинг аччиқ-чучуқ пайтларида инсон ўзини қандай тутиш лозимлигини ўргатиш, ундан ёрдам сўраб келган хох ўқитувчи бўлсин хох талаба уларни ноумид қайтармаслик, ёшларга ишониш, уларнинг олдига юксак вазифалар қўйиш, уларнинг имкониятларини қалб кўзи билан кўра олиш бу - педагог-режиссёрнинг бебаҳо жихатлари эканлигини қайта-қайта уқтиришлари амалиётда ўз хосилини бермоқда. Биз педагог-режиссёрлар иждокор шахсни тарбиялашга бел боғлаган эканмиз, устозларнинг жихатларини чуқур ўзлаштиришимиз керак. Бугунги кунда санъат ва маданият институтида тахсил олаётган талаба, режиссёр халқни тарбияловчиси уни хиссий ёки рухий хайрат орқали қаҳрамонликка, фидойиликка, уни орзуларини рўёбга чиқаришда йўл кўрсатувчи меҳнатга ундовчи шахс эканлигини эсан чиқармаслиги лозим. Зеро, бугунги иждокор режиссёрни тарбиялаш кечаги кундан кўра анча мураккаб.

Бугуннинг педагогика янги технологияни ўзлаштирган, хорижий тилни мукамал биладиган, ўз устида тинмай меҳнат қилдиган, энг асосий ўқув услубий анъаналарини ривожлантириб ўзининг янги услубини ярата оладиган бўлиши талаб этилмоқда. Ҳар бир педагогни аждодлар ва келажак олдида вазифаси бўлади, бугунги кун ёш педагоглариининг асл мақсади ўз соҳасининг етук мутахассиси бўлиш ва санъат саҳасида камол топадиган талабаларга энг қулай ва юқори самарали билимини сингдиришидир.

Юқори салохиятли режиссёр етук санъат асарларини яратади. Уларни кўриб, тинглаб тасирланган киши ўз-ўзидан комилликка қараб қадам ташлаш иштиёқи туғилади. Инсонлар қалбида юксак манавий фазилатларни камол топтириш, миллий мафқурани шаклантириш, ёшларни бой маданий меросимиз, тарихий қадриятларимизга хурмат, ватанга мухаббат, мустақиллик ғояларига садоқат рухида тарбиялашдек муҳим бир вазифани олган ёш педагог бугунги кун педагогидир. Санъат асарларини яратувчи ижодкор кадрларни тайёрлаш институтимизни бош мақсадларидан биридир. Бундай эзгу ишларни бажариш зиммаси улуғ устозлар билан бирга ёш педагоглар елкаларига юклатилган экан, ҳар бир курсда “Устоз-шогирд” анъаналарини давом эттириш лозим. Инсон ҳар доим тараққиёт сари интилади. Ёш педагог-режиссёрларга бўлган ишончни тинимсиз изланиш, ижод қилиш ва энг асосий меҳнаткаш бўлиш шиори билан оқлаш биз педагогларнинг бурчимиздир.

Маълумки, ижодкорлик шахс рухий оламнинг энг олий босқичи бўлиб, оламни англашни ноёб ҳолатидир. Ғоялар қадриятлар, барча турдаги маданий-тарихий ютуқларни кейинги авлодга узатилиши шахс ижодий иқтидорининг намоён бўлиши билан бевосита боғлиқдир. Ижодкор учун зарур бўлган имкониятларни яратиш, яъни ижодий фаолият эркинлигини таъминлаш, керакли материал ва жихозларни мухайё қилиш табиат, санъат ҳамда одамлар билан кенг мулоқот қилиш имконини яратиш нихоятда муҳимдир. Республикамизда қабул қилинган “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” олий билим даргоҳларида мутахассис тайёрлашнинг йўналишларини белгилаш ва ҳал қилишда муҳим амалий аҳамият касб этади.

### **Фойдаланган адабиётлар**

1. Станиславский К.С. Этика . Собр. Соч. Т. 5. М.: Искусство, 1958.
2. Калашников Ю.С. Эстетический идеал К.С.Станиславского. - М.: Наука, 1965.
3. Сайфуллаев Б. Маматқосимов Ж. “Актёрлик маҳорати” Тошкент. Фан а технология 2012.
4. Маврулов А. “Маънавий баркамол инсон тарбияси” Тошкент “Ўзбекистон” 2008.

## QISQA METRLI KINONING OMMALASHUVIDA KINOFESTIVALLARNING O`RNI

Kasimova Nodira Saitjanovna  
nodira-kasimova@mail.ru  
O`zDSMI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qisqa metrli kinoning rivojida kinofestivallarning tutgan o`rni haqida yozilgan. Unda mamlakatda so`nggi o`n yillikda o`tkazilgan festivallar va ularning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** kinematografiya, qisqa metrli kino, film, rejissor, kinofestival, ijodkor, kadr, janr.

### POSITION OF FILM FESTIVALS ON SHORT FILM DISTRIBUTION

Kasimova Nodira Saitjanovna  
nodira-kasimova@mail.ru  
UzSIAC

**Abstract:** The role of film festivals on development of short films is written in this article. There is importance of festivals that have been hold in the country last decade was elucidated.

**Keywords:** cinematography, short film, film, director, film festival, artist, shot, genre.

“O‘zbekistonda qisqa metrli kinoning tarixiga nazar tashlanar ekan, uning o‘ziga xos shakllanish va tarraqiyot yo‘lini bosib otganligini ko‘rish mumkin”<sup>1</sup>. O‘zbek kino san‘atida 2010 yillarga kelib qisqa metrli kino jadallik bilan rivojlana boshladi. “Ijodkorlar katta mablag‘ talab etmaydigan shu bilan birga, o‘z qarashlarini ifoda etishga imkon beradigan bu yo‘nalishda samarali ijod qila boshladilar”<sup>2</sup>. Ijodkorlar qarashlari o‘z ifodasini topgan qisqa metrli kino namoyishi uchun ma‘lum bir maskanga ehtiyoj sezildi. Internet tarmoqlarining ommalashuvi qisqa metrli filmlarni namoyish etish imkoniyatini kengaytirdi. Rejissorlar o‘z ijod mahsulini keng ommaga taqdim qila olishi bu yo‘nalishning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishning qo‘llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu masalaga yechim sifatida kinofestivallar xizmat qildi. Bu davrda mamlakatda tashkil etilgan kinofestivallar yosh kinoijodkorlarni ijodiy rag‘batlantirdi. 2011-2013 yillarda

<sup>1</sup> Kasimova, N. Formation of short films in Uzbekistan. Theoretical & Applied Science. 2019, (9). – P. 28.

<sup>2</sup> Kasimova, N. Features of Creativity in short films. The European Journal of Arts. 2020, (3). – P. 28.

“Oltin Gepard” Toshkent halqaro kinoforumi o‘tkazilgan vaqtda U.Xamdamiyov (“Nazar” (2011)), H.Solixov (“Anor” (2011)), S.Sagdiyeva (“Sandiq” (2012)), A.Mingnorov (“Hovuz” (2012)), A.Safayev (“It” (2013) (“Sobaka”)), D.Shexotsov (“Kechir” (2013)) kabi rejissorlar qisqa metrli filmlar yaratib festivalda ishtirok etishdi.

2015-2018 yillarda “PROlogue” - yosh kinoijodkorlar tomonidan suratga olingan qisqa metrli filmlar Respublika festivali tashkil etildi. Ushbu tadbir yosh rejissorlarga ijodiy ishlarini katta ekranda namoyish etish imonini berdi. Mazkur davrning birinchi yili (2015) H.Lutfullayev (“Oq bulut”), A.Iskanderov (“Tezkor yig‘ilish”), M.Karimov, H.Qodirov (“Tobut”), M.Karimov, H.Qodirov (“Bekasiz uy”), M.Alloqulova (“Vafodor”), I.Muxammadibrohimov (“Girdob”), S.Xakimov (“Xotira yuki”), B.Xonkeldiyev (“Sovg‘a”), S.Xakimov H(“Eforiya”), D.Xodjimatom (“Qadr”) kabi ijodkorlar mahoratini namayon qildilar. Festival oliygohni tamomlab, kino sohasiga endi qadam qo‘ygan hamda xali talaba bo‘la turib, mustaqil ravishda film tasvirga olishga jazm etgan yoshlarni birlashtirib, o‘zaro tajriba almashishga sharoit yaratib berdi. Tadbirning ijobiy natijasi ikkinchi yili (2016) ayon bo‘ldi. Yosh ijodkorlarda festivalda ishtirok etishga intilish kuzatildi. Ular yaratgan filmlarni tomoshabinlar kinozalda tamosha qilishlari muhim ahamiyat kasb etardi. Shu sababli 2016 yil festival ishtirokchilarining safi yanada kengaydi. SH.Xoliqov (“Bizni tushunishmaydi” (2016)), I.Baxtiyorov (“Tong” (2016)), D.Abdurahimova (“Rishta” (2016)), K.Maxmudova (“Erk” (2016)), S.Bekmuradova (Xalimova) (“Matonat” (2016)), S.Sultonov, H.Alijonov (“Hurriyat qurbonlari” (2015)), T.Urazov (“Bir kun qaytar” (2016)), O.Xan (“Cho‘ldagi kemalar” (2016)), SH.Nabiyev (“Ertak bilan xayrlashuv” (2016)), B.Abduraxmonov (“Kechikish” (2016)), A.Arziqulov (“Adolat” (2016)), M.Azizova (“Tinchlik sohili” (2015)), A.Ilhomjonov (“Mehmon” (2016)), H.Alijonov (“Mehr” (2016)), A.Salomov (“Ojizlik” (2016)), S.Xakimov (“Mening dunyoim” (2016)) kabi yoshlarning filmlari ko‘rigi bo‘lib o‘tdi.

2017 yilga kelib, “PROlogue” - yosh kinoijodkorlar tomonidan suratga olingan qisqa metrli filmlar Respublika festivalining nufuzi oshib, unda qatnashishni xohlovchilar soni ko‘paydi. Bu o‘z o‘rnida nafaqat yosh rejissorlarni kashf qilishga, balki qisqa metrli kinoga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirishga xizmat qildi. Bu yo‘nalishning yanada rivojlanishi va qisqa metrli filmlarning ommalashuviga olib keldi. Festivalda yosh ijodkorlardan A.Ilhomjonov, B.Abduraxmonov (“Mama”), M.Azizova (“U”), J.Qizimurodov (“Janoza”), F.Nasimov (“Najot”), A.Bahodirov (“Ichki hakam”), S.Sultonov (“Ustunsiz uy”), M.Aliqulov (“Pianino”), D.Xojimatov (“Qimiz”), M.Murodov (“Fig‘on”), M.Alloqulova (“Xorazm jonginam”), SH.Xoliqov (“Dilemma”), Z.Sharipov (“Abadiy jazo”), H.Alijonov (“Akvarium”), A.Ilhomjonov (“Limuzin”), S.Bekmuradova (Xalimova), A.Shahobiddinovlar (“Qanotsiz farishtalar”) mazkur yilda tasvirga olingan filmlari bilan ishtirok etdilar.

2018 yili ushbu festival xalqaro kinofestival maqomida bo‘lib o‘tdi. Unda qisqa metrli filmlar ikki yo‘nalishda “Qisqa metrli milliy filmlar” va “Qisqa metrli xalqaro filmlar” tanlovlari doirasida namoyish qilindi. Tabiiyki, festivalning saralash bosqichi jiddiylashdi. Tanlovda 2018 yili film yaratgan Sh.Xoliqov (“Choy”), F.Nasimov (“Musavvir”), A.Mardonov (“Jarohat”), D.Abdurahimova (“Qulun”), X.Otaboyev (“Afsungarlar tuhfası”), T.Suslin (“Gunohkor”), M.Orinbasarov (“Ustoz”), G.Ivanova (“Favvora”), M.Asqaraliyeva (“Qush”), J.Rustamov (“Yo‘l”) kabi yosh rejissorlar qatnashdilar.

Sh.Xoliqovning “Choy” filmi kinofestivalda “Eng yaxshi milliy film” deb topildi. Mazkur film nafaqat o‘zbek tomoshabinlari, balki boshqa mamlakat kinomuxlislari tomonidan ham e’tirof etildi. Jumladan, Tojikistondagi “Navsoz” xalqaro qisqa metrli filmlar festivalida “Gran-pri”, Qirg‘istondagi “Umut” nomli yoshlar kinoforumida “Eng yaxshi aktyor” va “Hakamlar e’tirofi” hamda “Qirg‘iziston - qisqa metrli filmlar mamlakati” nomli festivalda “Eng yaxshi rejissor”, Rossiyadagi “LAMPA” ijtimoiy qisqa metrli filmlar, videoroliklar va ijtimoiy reklamalarga qaratilgan xalqaro kinofestivalda “Eng yaxshi dramatik film”, 2019 yilda Hindistondagi 4-“Golden Triangle” xalqaro qisqa metrli filmlar festivalida “Eng yaxshi rejissor” va “Eng yaxshi aktyor”, Makedoniyadagi xalqaro “Falsafiy filmlar” festivalida “Hakamlar e’tirofi” va “Tomoshabinlar mehri” Fransiyaning Kann shahridagi “Entr’2 Marches” festivalida “Gran-pri” mukofatlarini qo‘lga kiritdi. Undan tashqari “Choy” filmi Hindistondagi “Alpamirama” va “Dadasaheb phalke” xalqaro qisqa metrli filmlar festivallari, Rossiyadagi 38-VGIK xalqaro talabalar kinofestivali, Braziliyadagi “Lobofest” xalqaro qisqa metrli filmlar festivali, AQShdagi “Arabian Night” xalqaro qisqa metrli filmlar festivali va “Global Las Vegas” kinofestivali, Polsha “Wegiel” kinofestivali, Birlashgan Arab Amirliklaridagi “White Oryx” xalqaro qisqa metrli filmlar festivali, Gruziyadagi xalqaro kino maktablar tanlovi ishtirokchisi hisoblanadi.

Sh.Xoliqovning “Choy” filmi erishgan yutuqlar sanab o‘tilar ekan, A.Samug‘jonovning “Qurt” filmiga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Mazkur film 2018-2020 yillar davomida Turkiyadagi “International Silk Road Film Awards”ning “Hakamlar e’tirofi”, Italiyadagi “Scampia Short Film Festival Competition”ning g‘olibi, Xitoydagi “Global University Film Awards”ning “Eng yaxshi eksperimental film”, Yaponiyadagi “DigiCon 6 ASIA”ning “Oltin” mukofatiga sazavor bo‘ldi. Shu bilan birga, Avstriyaning “YOUKI” xalqaro yoshlar media-festivali, Kanadadagi “HECare Film Festival” inson va atrof-muhitga e’tibor qaratish maqsadida tashkil etilgan kinofestival, Bangladeshning “Sylhet”, Ekvadordagi “Festival Ecuatoriano de Cine Atuc”, Rossiyadagi “LAMPA” ijtimoiy qisqa metrli filmlar, videoroliklar va ijtimoiy reklamalar xalqaro kinofestivali, Qirg‘izistondagi “Qirg‘iziston - qisqa metrli filmlar mamlakati” kabi kinofestivallarda ishtirok etdi.

Ushbu filmlar misolida birgina kino asari qay darajada rejissorga, mamlakatga ijodiy muvaffaqiyat keltirishini ko'rish mumkin. Bunday e'tiroflar bir tomondan, ijodkorni ruhan rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, o'zbek kino san'atini dunyo mamlakatlari orasida targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Ketma-ket mukofatlarni qo'lga kiritgan yosh ijodkor Sh. Xoliqov taassurotlarini quyidagicha izohlaydi: "Festivalda bo'lganimda, men yaratgan filmni tomosha qilayotgan tomoshabinlarning yuzidagi ifodani kuzatish men uchun eng ahamiyatli va hayajonli damlar edi. Film tugaganidan so'ng esa ulrning fikrini eshitish menga katta zavq bag'ishlardi. Fikrlar xoh ijobiy bo'lsin, xoh salbiy bo'lsin, baribir siz ulardan kuch, g'ayrat olar ekansiz. Xatolaringizni tushunib, filmning e'tibor bermagan jihatlarini ko'rib anglaysiz. Festivallarda ishtirok etishning eng foydali tomoni, siz boshqa ijodkorlarning filmlarini ko'rasiz, ular nima haqida o'ylayotgani, nima haqida film olmoqchiligi, nima demoqchiligi, sizdan qaysi tomonlama ustun ekanligini tushunasiz, xulosa qilasiz. Boshqa davlatda mukofot olish hisi esa umuman boshqacha, bu sizga g'urur bag'ishlaydi, Vataningiz haqida o'ylaysiz, millatingizning nomi yangraganiga cheksiz quvonasiz. Buni so'z bilan ta'riflash qiyin"<sup>3</sup>. Haqiqatan ham festivalda ishtirok etish ijodkorga katta maktab vazifasini o'taydi. Tadbir jarayonida boshqa mamlakatdan kelgan tengdoshlarining ijodiy ishlarini tomosha qilish, ular bilan fikr almashish ijodkorning dunyoqarashini kengaytiradi.

Yuqorida keltirilgan festivallar ro'yxatiga ko'ra shunday xulosa qilish mumkinki, jahonda turli xil qisqa metrli filmlar festivali mavjud. Ularni mavzu (ekologik, imkoniyati cheklangan insonlar haqidagi, falsafiy, ijtimoiy mavzularga bag'ishlangan filmlar), ishtirokchilarning ijtimoiy darajasi (kinomaktablar (oliygohlar) talabalari, debyutantlar, imkoniyati cheklangan insonlar tomonidan yaratilgan filmlar) filmni tasvirga olish talabiga ko'ra (48 soatda, 5 kunda yaratilgan) turlanadi.

Shu bilan birga, qisqa metrli kinofestivallarda film davomiyligiga turlicha cheklov belgilangan. Masalan, Kann (Fransiya) festivalining "qisqa metrli filmlar" yo'nalishida 15 daqiqa, Berlinale (Germaniya)da 30 daqiqa, OSKAR (AQSH) nizomiga ko'ra 40 daqiqa, "Kinoshok" (Rossiya)da 35 daqiqa, "Qirg'iziston - qisqa metrli filmlar mamlakati" kinofestivalida 30 daqiqagacha bo'lgan filmlar qabul qilinadi. Shuningdek, "Depict Short Film Competition" (Birlashgan Qirollik) festivalida 90 soniya, "Minute Madness Toronto" (Kanada) festivalida 60 soniyagacha davomiylikka ega filmlar ishtirok etadi.

Festivallarning turli tumanligi butun dunyo miqyosida qisqa metrli filmlarga katta ahamiyat berilayotganligidan dalolat beradi. Bu yo'nalishning yanada ravnaq topishi va yosh ijodkorlarni kashf qilishga xizmat qilmoqda. "So'nggi o'n yillik kinofestivallarga bo'lgan qiziqishning bir necha yil ichida keskin ortishiga guvoh

<sup>3</sup> Xoloqov Sh. Bilan suhbat. 2019 yil may.

bo'ldi"<sup>4</sup>. Darhaqiqat, hozirgi kunda festivalda ishtirok etish murakkab emas. Barcha hujjatlar festivalning internet sahifasida to'ldiriladi, film o'sha saytga yoki aksariyat hollarda biron bir internet kanalga joylashtirilib, unga havola beriladi. Bunday tartib ijodkorga vaqt va moliyaviy jihatdan qiyinchilik tug'dirmaydi. Festival izlash jarayonini ham optimallashtirish maqsadida, FilmFreeway, Festagent kabi saytlar tashkil etilgan bo'lib, ularda barcha xalqaro kinofestivallar haqida qisqacha ma'lumot berilib, festival internet manziliga havola keltirilgan. Bu ijodkorga yanada qulaylik yaratadi.

Dunyoda festivallarning tashkil etilishi bejizga emas. U bir qator vazifalarni bajaradi. Sankt-Peterburg davlat kino va televideniye institutining soha mutaxassislari A.Klimina va S.Kartashovlar festivalning quyidagi maqsadlarini izohlab o'tadi: "Kinofestivallar ijtimoiy-madaniy samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarga qaratilgan bo'lishi kerak: eng yaxshi kinoasarlarni aniqlash va debyutantlarni qo'llab-quvvatlash; turli mamlakatlardagi kinematografiya sohasidagi mutaxassislar o'rtasida tajriba va g'oyalar almashish; ommaviy auditoriyani muayyan mamlakat, mavzu, davrning eng yaxshi kinoasarlari bilan tanishtirish; jamiyatda san'atga muhabbatni uyg'otish va qo'llab-quvvatlash; kino sohasini, muayyan yo'nalishni rivojlantirish; mamlakatlar o'rtasida kinematografiya sohasida madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni kengaytirish"<sup>5</sup>. Demak, festival shunchaki, yosh ijodkorni mashhur qilishga xizmat qilmaydi, balki ushbu tadbir doirasida jamiyat va insoniyat uchun kerakli filmlar saralanadi, bu esa kino san'atining rivojlanishiga xissa qo'shadi. Shuningdek, jahon bo'ylab kinoijodkorlarni birlashtirib, o'zaro tajriba almashish, yangi g'oya va qarashlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi. "Kino va televideniye san'ati taraqqiyotga yuz tutarkan, u hamisha yangilikka intiladi"<sup>6</sup>.

O'zbekistonda kino san'ati hamda qisqa metrli filmlarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni inobatga olinib, mamlakat miqyosida katta e'tibor berilmoqda. Buni "O'zbekkino" agentligi tomonidan amalga oshirilgan bir qator chora-tadbirlarda ko'rish mumkin. Jumladan, 2018 yili "Urushning so'nggi qurboni" (rej. Sh.Musayev) 2019 yilda esa "Kulcha" (rej. S.Bekmuradova (S.Xalimova)), "Mehribonim" (rej. B.Abdurahmonov), "So'zana" (rej. J.Narziqulov), "Ehson" (rej. M.Shodiyev), "Ishora" (rej. U.Malikov) kabi filmlar yosh kinoijodkorlar tomonidan yaratildi. Shu bilan birga, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, "Kino, televideniye va

<sup>4</sup> de Valck M., Kredell B, Loist S. Film Festivals History, Theory, Method, Practice. first published 2016 by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN and by Routledge 711 Third Avenue, New York, NY 10017. – P. 2.

<sup>1</sup> Климина А.В., Карташов С.Л. Кинофестивальная деятельность: основные направления повышения эффективности. Наука и образование в жизни современного общества: сборник научных трудов по материалам международной научно-практической конференции 29 ноября 2013 г. Часть 17. Тамбов: ООО «Консалтинговая компания Юком», 2013. – С. 69.

<sup>6</sup> Fayziyeva F. Teleserial xodisasing evolutsiyasi. Oriental Art and Culture, 2021, December. – 310 b.



radio rejissorligi" kafedrasida bilan hamkorlikda "Kino va televideniye rejissorligi" ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining dipom ishlari - qisqa metrli filmlarni tasvirga olish jarayoni moliyalashtirildi. Natijada 2019 yilgi bitiruv malakaviy ishlar - qisqa metrli filmlar ("Sovg'a" rej. M.Asqaraliyeva, "O'g'ri" rej. I.Haydarov, "Dadamning sovg'asi" rej. M.Ergashev, "Malikaniki" rej. S.Mahkamboyev, "Alla" rej. F.Nasimov) tomoshabinlarga taqdim etildi. Bundan ko'rinib turibdiki, qisqa metrli kinoga uning ma'naviy ta'sir kuchiga egaligi nuqtai nazardan katta ahamiyat qaratilmoqda.

Qisqa metrli kinoni yanada rivojlantirish va yosh kinoijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zbekkino" Milliy agentligining "Yoshlar ijodiy - tajriba studiyasi" DUK "Debyut" nomli qisqa metrli filmlar uchun ssenariylar tanlovi o'tkazildi. Unda "Men seni sevaman O'zbekiston!", "Mening dunyoim" kabi ustuvor g'oya asosida kinoalmanax janridagi loyihalarga muvofiq, erkin mavzuda 78 ta ssenariy qabul qilindi va ular orasidan 18 tasi saralab olindi. Mazkur tadbir doirasida "Sartarosh" (rej. SH.Nazarov), "Astma" (rej. H.Jomonqulov), "Qovun pishganda" (rej. J.Narziqulov), "Ilinj" (rej. H.Boybamtov), "Chana" (rej. S.Qodirov), "Va'da" (rej. O.Yo'ldoshev), "Ro'mol" (rej. H.Alijonov), "Bahs" (rej. G.Ivanova), "Ertaga bahor" (rej. U.Zokirov), "Tandir" (rej. A.Qurbonov), "Uy" (rej. F.Bahodirov), "Anvar" (rej. Sh.Subxonov), "Kichkina katta odam" (R.Grubbyak), "Svetafor" (rej. I.Risqulov), "Tuhfa" (Sh.Murodov), kabi filmlar suratga olindi hamda ular orasida "Debyut 2020" festivali ham tashkil etildi. Bu o'z o'rnida yosh ijodkorlar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantiradi hamda ijod qilishda rag'batlantiradi.

Ushbu an'ana 2021 yilda ham davom ettirildi. Natijada, "Hamroh" (rej. I.Nurmuhamedova), "Pari" (rej. T.Murodov), "Ertaga maktab" (rej. A.Haydarov), "Jur'at" (rej. M.Turdiyev), "Montaj" (rej. D.Usmonov), "Soddadil" (rej. A.Nurmatov), "Yordam" (rej. S.Jumayev), "Hali urush tugumadi" (rej. D.Qosimova), "Qovoq - mening jon-u dilim" (rej. A.Nazarov), "Sharpa" (rej. A.Jumayev), "So'nggi dars" (rej. J.Karimov), "Olimpiada" (rej. U.Ro'zimov), "Skripka" (rej. S.Qodirov), "San'at" (rej. F.Tursunxo'jayeva), "Palto" (rej. Sh.Tuyunova), "Devor" (rej. S.Mahmudov) kabi filmlar yaratildi. "Debyut" yosh ijodkorlarga film tasvirga olishga imkoniyat beribgina qolmay, qisqa metrli filmlarning saviyasi oshishiga olib keladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'zbek kinosi shuningdek, qisqa metrli filmlarning taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Bunga yorqin misol qilib kino sahasidagi so'nggi Prezident Farmonini keltirish mumkin.

2021 yil 7 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6202-sonli "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Unda qator milliy kinematografiyani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

belgilandi. Jumladan, "O'zbekkino" Milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi etib qayta nomlanishi va "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivalini ta'sis etish va uni 2021 yildan boshlab muntazam o'tkazib borish to'g'risida bandlar kiritildi. Ushbu Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyundagi "Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash va o'tkazish to'g'risida"gi PQ-5151-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda "1968 - 1997 yillar davomida O'zbekistonda o'tkazilib kelingan "Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali" "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali nomi bilan qayta tiklansin hamda 2021 yildan boshlab har yili sentabr-oktabr oylarida Toshkent shahrida o'tkazilsin."<sup>7</sup> - deya ta'kidlandi.

2021 yilning 28 sentabr - 3 oktabr kunlari "Tinchlik, taraqqiyot va ma'rifat" shiori ostida "Ipak yo'li durdonasi" XIII Toshkent xalqaro kinofestivali poytaxt hamda respublikaning boshqa hududlarini (Samarqand, Jizzax, Buxoro, Xorazm, Guliston, Farg'ona, Andijon, Qoraqalpog'iston Respublikasi) qamrab olgan holda bulib o'tdi. Festival doirasida "Kino 5 kunda" nomi ostida 25 ta qisqa metrli film suratga olindi. O'zbekiston Respublikasidan yosh rejissorlar SH.Nazarov va S.Masudxonov ishtirok etib, "Gran-pri" (rej: Sh.Nazarov "Ipak yo'li bo'ylab") hamda "Hakamlar maxsus sovrini" (rej: S.Masudxonov "Obyektiv") bilan taqdirlandilar.

Sh.Nazarovning "Ipak yo'li bo'ylab" filmi inson hayotida qanday fojia sadir bo'lmasin, u yashashda davom etishi kerakligi g'oyasini ilgari surgan. Rejissor ba'zida odam voqelikni qabul qilolmay, o'z qobig'ida qolib ketishi mumkinligini, aslida esa o'tmishni ortda qoldirib, oldinga harakat qilishi kerakligini anglatmoqchi bo'lgan. Film psixologik drama janrida bo'lib, yolg'izlik mavzusiga bag'ishlangan. "Ipak yo'li bo'ylab" voqealari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida bo'lib o'tadi. Ijodkor tomonidan tanlangan tasvirga olish obyekti - kulba va filmda qo'llanilgan tabiiy shovqinlar asar muhiti, qahramonlarning holatini ochib berishga xizmat qilgan.

S.Masudxonovning "Obyektiv" filmi muhabbat mavzusida bo'lib, inson ba'zan kimnidir qanchalik sevishini uni yo'qotganidan keyingina tushunishi haqida hikoya qiladi. Rejissor tomoshabinga sevgan insonning tuyg'ularini hurmat qilish kerak degan g'oyani yetkazmoqchi bo'lgan. Film badiiy va hujjatli kino xususiyatlaridan qorishiq holda foydalanilgan tarzda yaratilgan. Unda hujjatli kinoga xos kuzatuv usulini ko'rish mumkin. Obyektiv ya'ni asarda sodir bo'layotgan voqealar tashqaridan tashlangan nigoh orqali ko'rsatiladi. Shu bilan birga, qahramonlar badiiy kino asosi ssenariyga ko'ra xatti-harakat sodir etadilar.

"Ipak yo'li durdonasi" XIII Toshkent xalqaro kinofestivalining qayta tashkil etilgani o'zbek kino san'atining yangi bir bosqichga ko'tarilganidan darak beradi.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 19.06.2021, N PQ-5151

Mamlakatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar kinoijodkorlar, ayniqsa yoshlarni ijodiy izlanishlar olib borishga, yuqori saviyadagi kinoasarlarni yaratishga undaydi.

Toshkent xalqaro kinofestivali davomida yana bir ahamiyatli tadbir bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 avgustdagi "Toshkent shahrida "S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti" federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-5238-sonli qaroriga ko'ra 2021 yil 1-oktabr kuni institutning ochilish marosimi o'tkazildi.

"Kinematografiya sohasi uchun yuqori malakali ijodiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, ta'lim muassasalarining oliy ma'lumotli ijodiy kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida"<sup>8</sup> tashkil etilgan mazkur institut 2021-2022 o'quv yilidan o'z faoliyatini boshladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oxirgi o'n yillikda mamlakatda kino san'atini rivojlantirish uchun qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, respublikada tashkil etilgan turli festivallar bunga dalil bo'la oladi. Albatta, ma'lum bir kinofestivalning muntazam davom ettirilmagani achinarli hol. Ammo bir tadbirning o'rniga boshqa tanlovning vujudga kelishi, o'zbek kino sohasining taraqqiy etishi uchun qilinyotgan say-harakatlarning to'xtab qolmaganidan darak beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 19.06.2021, N PQ-5151
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 19.06.2021, N PQ-5138
3. de Valck M., Kredell B, Loist S. Film Festivals History, Theory, Method, Practice. first published 2016 by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN and by Routledge 711 Third Avenue, New York, NY 10017.
4. Климина А.В., Карташов С.Л. Кинофестивальная деятельность: основные направления повышения эффективности. Наука и образование в жизни современного общества: сборник научных трудов по материалам международной научно-практической конференции 29 ноября 2013 г. Часть 17. Тамбов: ООО «Консалтинговая компания Юком», 2013.
5. Kasimova, N. Formation of short films in Uzbekistan. Theoretical & Applied Science. 2019, (9).
6. Fayziyeva F. Teleserial xodisasining evolyutsiyasi. Oriental Art and Culture, 2021, December.
7. Kasimova, N. Features of creativity in short films. The European Journal of Arts. 2020, (3).

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 19.06.2021, N PQ-5138

## 8. Xoloqov Sh. bilan suhbat. 2019 yil may.

## MAQOMLARDA ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINING QO‘LLANILISHI

Djurayeva Laylo Shuxratovna  
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

**Annotatsiya:** O‘zbek mumtoz musiqasining zabardast janri hisoblangan maqom san‘atini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O‘zbek maqomlari ashula yo‘llarining katta qismi Hazrati Mir Alisher Navoiy g‘azallari bilan ijro etiladi. Mazkur maqolada shoir she‘riyati bilan bog‘liq bo‘lgan maqomlar va ularning ohangdorlik xususiyatlariga oid qarashlar o‘rin olgan. Aynan mutafakkir g‘azaliyotidagi nazm va navoning mushtarakligi musiqiy usul (ritm) va she‘riy aruz tizimi bog‘liqligi kesimida ifoda etilgan.

**Kalit so‘zlar:** maqom, Navoiy, g‘azal, musiqiy usul, aruz tizimi.

### USE OF ALISHER NAVOI'S GAZELLES

Djurayeva Laylo Shuxratovna  
Uzbekistan State Conservatory

**Abstract:** A great attention is paid to the development of maqom art, which is considered a powerful genre of Uzbek classical music. Most of the Uzbek maqom songs are performed by the participation of Hazrati Mir Alisher Navoi’s gazelles. The article provides an overview of maqoms associated with Navoi’s poetry and their harmony peculiarities. The combination of poetry and melody on the whole is expressed in terms of the connection between the musical usul (rhythm) and the poetic Aruz system.

**Keywords:** maqom, Navoi, gazzelle, musical rhythm, Aruz system


O‘zbek mumtoz musiqasining eng mukammal janri bo‘lgan maqomlarning ashula yo‘llari ko‘p asrlar mobaynida o‘tmish klassik shoirlarning g‘azallari bilan aytilib, amaliyotchilar ta‘birida - o‘qilib<sup>1</sup> kelingan. Umuman ashula yo‘llarining o‘ziga xos murakkabligi ham shundaki, ularda so‘z bor, matn bor va ular oddiy so‘zlar emas. Maqomlar tarixan shakllangandan buyon turli she‘rlar bilan ijro etib kelingan va hozirgi kunda ham bir ashulaning bir necha g‘azallar bilan kuylanadigan variantlari mavjud. Maqom tizimida hofizlar dasturida aytilib yuriladigan, amaldagi she‘rlarning miqdori kuylarnikiga qaraganda ko‘proq bo‘lishi kuzatilgan. Tajribali va albatta bilimli, musiqiy tafakkuri yuqori bo‘lishi bilan birga she‘riyatning aruz tizimini puxta o‘zlashtirgan hofizning yonida bir necha she‘rlar bitilgan bayozlar

<sup>1</sup> Bu haqda, marhum O.Alimaxsumov ko‘p ta‘kidlar edilar.

bo'ladi. O'tmishdan ma'lumki, tinglovchilarning kayfiyati va hofizning ilhomiga qarab, maqom yo'llari turli she'rlar bilan aytilavergan. Shuning uchun ham bir maqomning bir necha she'riy matn variatlari bo'lgan. Avvalgi fors-tojik tilida ijro etilgan maqomlarning ko'pchiligi bugungi kunda butun Shashmaqom turkumini notaga tushirgan akademik Yunus Rajabiy tomonidan tanlangan Alisher Navoiy g'azallari bilan ijro etiladi. Darhaqiqat, nazm o'zining navosi bilan, ohangi bilan yaratilmasa, uni kuyga solish mushkul. Navoiyning baytlari esa o'zining ohangi, o'ziga xos kuylar doirasi bilan ijod etilgan. Sababi shoirning musiqa ilmi, uning tarixiy va nazariy asoslari, xususan, bastakorlikka oid jihatlaridan boxabar bo'lganligi shubhasizdir. "O'zbek xalqining sevimli ashularini, maqom aytim yo'llarini hazrati Navoiyning shifobaxsh dard bilan sug'orilgan g'azallarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki Navoiy nazmi o'zining chuqur ma'nosi va ohangdorligi bilan tinglovchi qalbida go'zal ichki his-tuyg'ularni uyg'otadi, ruhiy olamiga cheksiz ma'naviy quvvat bag'ishlaydi" [Saipova, 2011: 32].

Navoiy so'z yordamida butun bir kuylar tizimini yaratgan. Shoir o'z asarlarida badiiy so'zga, qamroviga ta'rif berar ekan, uning - "sado", "navo", "qo'shiq" kabi borliqlarga ma'nodosh ekanligini ta'kidlaydi. Anglash mumkinki, biror-bir so'zning ohangi - musiqiy sado bilan uyg'unligini mutafakkir shubhasiz bilgan va bundan o'rinli foydalangan. Shu o'rinda hozirgi o'zbek maqom san'atimiz amaliyotida mutaffakkir qalamiga mansub g'azallar bilan ijro etib kelinayotgan aytim yo'llarini quyidagi diagramma misolida yaqqol ko'rish mumkin:

### Maqomlar she'riyatida mualliflar qo'llanilishi ko'rsatkichlari (marta)



Alisher Navoiy aruz nazariyotchisi sifatida o'zbek she'riyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yoqimli, musiqiy bahr hamda vaznlar doirasini belgilab bergan va ularning ritm-ohang imkoniyatlarini ko'plab misollar bilan isbotlab ko'rsatgan. Aruz bahrlarining o'zbek xalq og'zaki she'riyatidagi o'lchovlar bilan munosabatini

o'rganib, xalq qo'shiqlari vaznlarining yozma ijodda foydalanilishi mumkin bo'lganlarini belgilab chiqqan. Shu bilan birga shoir mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanilgan bahrlarga, ularning eng xalqchil, serjilo, ohangdor, musiqiy vaznlariga alohida e'tibor bilan qarab, aksariyat lirik she'rlarini ular asosida yaratgan.

O'zi umuman, o'tmishda shoirlik bilan shug'ullanmagan insonlar juda kam bo'lgan. Haqiqiy ziyoli kishilar bir vaqtda bir necha ilmlar sohibi bo'lishgan va shu bilan birga she'r ham yozishgan, she'r yozganlar albatta ilmi advor - musiqa nazariyasi to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lgan. She'r mashq qilish faqat ixtisosli shoirlarning ishi emas, balki davlat arboblari, ulamolar, ziyolilar, hunarmandlar, savdogarlar va boshqa ijtimoiy tabaqalarning ham zavqli mashg'ulotlaridan hisoblangan. She'riyat qonunlari, uning siru asroridan xabardor bo'lish, turli shoirlarning asarlarini mutolaa qila bilish ziyolilik, ma'naviy barkamollik belgisi hisoblangan. Navoiy tarbiyalagan shoirlarning ko'pi musiqachi, musiqachilar esa shoir ham bo'lganlar. Navoiy musiqa ilmidan xabari bo'lmagan shoirlarni iste'dodsiz deb hisoblagani xususida "Majolis un-nafois" asarida yozgan. Musiqa va she'riyatning umumiy birikuviga, ularning o'zaro mutanosib san'at turlari ekanligini ta'kidlab aytish mumkinki, umuman, musiqa va she'riyat egiz tushunchalardir. Ritm she'riyatga musiqadan kirib borgan. She'rlar ilgari kuylash uchun yoki musiqa jo'rligida aytish uchun yaratilgan (deklamatsiya antik davrlarda ham musiqa jo'rligida aytilgan) [Sarimsoqov, 1973]. Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi ichidan yetishib chiqqan baxshilar, oqinlar hozirgacha ham an'anaviy dostonlar va termalarni musiqiy cholg'u jo'rligida aytadilar. Musiqada ham, she'riyatda ham ritm bor. Ammo musiqadagi ritm musiqiy tovushga, she'riyatdagi ritm esa nutq tovushiga asoslanadi.

Navoiyning musiqa va aruz rivoji munosabatlari haqidagi fikrlari ham alohida ahamiyatga egadir. Navoiy, xususan, ramali musammani mahzuf va ramali musammani maqsur vaznlarining musiqiylik xususiyatini alohida ta'kidlagan edi. Jumladan, "qo'shuq" deb atalgan surud haqida fikr yuritar ekan: "ammo bu latif zamonda va sharif davronda bu *surudni* ramali musammani mahzuf vaznig'a elitib *musiqiy* va *advor* ilmida muloyim tab'lig' benazir yigitlar g'arib *nag'omat* va *alhon* bila ajab tasarruflar qilib, sultoni sohibqiron majlisida ayturlarki, aning muloyimlig' va xush oyandalig'i vasfg'a sig'mas va ta'sir va raboyandalig'i sifatqa rost kelmas, balki ul hazratning ixtiroidir...", [Navoiy, 2000: 180] deb yozadi. Ko'rinadiki, mazkur surud bilan ko'rsatilgan vaznda qo'shiq kuylash an'anasiga Husayn Bayqaro asos solgan, uning majlislarida ijro etiladigan qo'shiqlarning aksariyati ramali musammani mahzuf vaznidagi she'rlar bilan aytilgan.

Bugungi kunda maqom she'riyati ichki xususiyatlari, o'ziga xos musiqiyliigi nuqtai nazaridan hali yetarli darajada o'rganilmagan. Maqom nazmi bugungi kun musiqashunosi oldiga yana bir muhim vazifa - maqomlarda qo'llanilgan g'azallarni

musiqiy jihatdan tahlil etishni qo‘yadi. Ma‘lumki, maqomlar o‘tmishda fors-tojik tilida, keyinchalik esa turkiy tilda ijro etib kelingan. Hozirda ham ayrim ustoz xonandalar ijro dasturidan fors-tojik g‘azallarda aytiladigan maqomlar o‘rin olgan. Maqom she‘riyatining o‘ziga xosligining bir ko‘rinishi uning ikki tilli (o‘zbek-tojik) ekanligidir. Mavzuiylik jihatlariga e‘tibor qaratsak, tematik diapazon keng bo‘lib, muayyan mavzu bilan chegaralanmagan. Ammo har qanday she‘r ham mos kelavermaydi. Bu hodisa musiqa va she‘r vaznining mutanosibliigi bilan aloqadordir. Navoiy o‘z davrida ramal, munsarih, madid, hazaj kabi bahrlarda yozilgan she‘rlar xalq tomonidan kuyga solib aytishda mashhur bo‘lganligini aytganda, mana shu narsani nazarda tutgan bo‘lsa kerak [Navoiy, 2000: 91-94].

Maqomlarning birinchi guruh sho‘balari tarkibidan o‘rin olgan Talqinlar va ularning usullari o‘ziga xos murakkabligi bilan ajralib turadi. Mazkur sho‘baning doyra usuliga mos tushadigan aruz vazni amaliyotda keng tarqalgan - ramali musammani mahzudir. Shashmaqomning dastlabki Buzruk maqomi ashula bo‘limining birinchi guruh sho‘balari tarkibiga kiruvchi, hozirda Navoiy g‘azali bilan ijro etilib kelinayotgan Talqini Uzzol maqomini tahlil etish misolida aruz va usulning mutanosib va nomutanosib jihatlarini baholi qudrat o‘rganishga harakat qildik.

Maqomlar ashula bo‘limi doyra usulidan tashqari she‘r o‘lchovlari ham maqom qismlarining xarakterini belgilab beruvchi omillardandir. Chunki olti maqomning bir xil nom bilan ataluvchi sho‘ba yoki qismlarida doyra usuli va she‘r o‘lchovlari o‘xshashdir. Zero, kuyning ritmik mezoni matnning ruknlari bilan mutanosib kelishi ahamiyatli bo‘lib, bu xususida R.Sultanova tadqiqotlarida qayd etib o‘tgan: “Musiqiy-ritmik izchillik va uning musiqa (maqom) matnida joylanishi muayyan aytim yo‘lida ishlatilgan she‘riy matnning aruz vazni tomonidan belgilangan. Maqomlarning doyra usullari ham aruz metrikasiga bilvosita asoslangan” [Sultanova, 1988: 54-60]. Chunonchi, shoir o‘zining yozgan bahrini musiqiy ritmini ham yaxshi anglagan va o‘sha g‘azal qaysi doyra usuliga mos tushishini oldindan bilgan. Shuning uchun ham o‘tmishda hofizlar tan-tanan-tan kabi o‘lchovlarni kuylab ko‘rib, qaysi vazndagi she‘rlar qaysi usullarga mos kelishini tanlashgan. Buni quyidagi tahlil natijalari yaqqol namoyon etadi.

1.  
Э му - га - ний ё - р(и)

2.  
баз - ми - да на - во соз ай - ла - санг

3.  
жон фи - донг буа - сун, га - ми



4.  
шар - хи - дин о - роз ай - ла - санг(о)



Asar takt oldi (zatakt) bilan boshlangan. Talqin usulining oqsoqligi shuni taqozo etadi nazarimizda.





Shu o'rinda maqomlarning ichki tuzilishiga doir jihatlarni yaxlit ko'rinishi maqomlarning doyra usuli, ohangi, so'zi va aruz tizimi xususida umumiy tasavvur hosil qilishi mumkin bo'ladi.

### TALQINI UZZOLNING TUZILISHI

1	Doyra usuli	
2	Bahri va vazni	Ramali musammani mahzuf
3	Rukni	Fo i lo tun - fo i lo tun - fo i lo tun - fo i lun - V - - I - V - - I - V - - I - V -
4	Notasi	
5	So'zi	Ey mug'anniy yor bazmida navo soz aylasang...

Amaliyotda she'r hamda kuy vaznlarini dastlabki taktdan to oxirgi notagacha mos kelishi qat'iy qoida emas. Mahoratli hofizlar g'azallardan erkin foydalanishgan. Eng muhim jihat - kuyning asosiy ohangi o'zgarmasligi lozim. U badihaviy xususiyatlar asosida talqin etilishi mumkin. Bu esa oz miqdorda bo'lsada kuyning ritmik jarayoniga ta'sir etishi begumon. Mazkur holat xonandaning ustalik bilan qisqargan so'z bo'g'inlarini hanglar yordamida cho'zishi yoki aksincha, qo'shilgan so'z bo'g'inlarini uzun cho'zimli tovushlarni bo'linishi evaziga amalga oshiriladi.

### TALQINI UZZOL VAZNINI NOTA CHO'ZIMLARIGA MOS TUSHISHI

Fo - i - lo - tun	Fo - i - lo - tun	Fo - i - lo - tun	Fo - i - lun
			
Ey- mu-g'an -niy - V - -	yo - r(i) baz-mi - - V - -	da na - vo soz - V - -	ay - la - sang - V -

Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, kuy ritmik holatini saqlash, ya'ni qoidaga bo'ysunish uchun bir bo'g'inli so'z ikki bo'g'in tarzida talqin etilgan (yo-r(i)). Bunday ijro talqini uslubi maqomlar yoki mumtoz musiqa namunalari ijrochiligida so'z va kuy ohangini mutanosibligini ta'minlovchi omil sifatida ahamiyatlidir.

Demak, uzun-qisqa notalar va bo'g'inlarning mutanosib yoxud nomutanosibligi ohangni, kuy, intonatsiyani belgilaydi. Bu yerda gap notalar balandligi yoki pardalar xususida emas, aynan davomiyligi to'g'risida olib borilayotganligini qayd etish joiz. Agar bu parda - lad bilan bog'liq bo'lganda edi, barcha Talqinlar (shu jumladan boshqa sho'balar ham) bir xil bo'lib qolgan bo'lar edi. Ularning ladi emas, doyra usuli va she'ring aruz tizimi o'zgarmas (qisman o'zgarishi mumkin) - bir xil

ekanligi ma'lum. Usul va aruz orasida ularni biriktiruvchi omil - ohang mavjud. Aruz ohangga, ohang esa doyra usuliga ergashadi, tobe bo'ladi. Nutqning tovush elementlari qo'shib, nutqning dastlabki ma'no va mazmun birligi bo'lgan so'zni yaratadi. Turli so'zlar misraga birlashadi. Misra esa baytga. Misrani jumla, baytni esa davriya tashkil etadi.



Musiqashunos R.Yunusov yozadi: “ikki xalqning ham (o‘zbek va ozarboyjon - L.J.) maqomot an‘analarida ritm ifodaviy va shakliy omillardan biri bo‘lib, ma‘lum darajada mustaqil estetik ahamiyat kasb etadi. Usul maqom turkumida ikki asosiy vazifa - ma‘no-mazmun va shakliy-tizim funksiyalarini bajaradi” [Yunusov, 1998: 68]. Maqom yo‘llari qaysi yo‘lda ijro etilmasin, uning mazmuni va shakli ashula ruhiga mos kelishi shart. She‘riy vaznlarning ham o‘z tabiati mavjud bo‘lib, ko‘pincha maqomlarning usullari vaznlar mazmuniga zid kelishi kuzatiladi. Masalan, ramal yengil vazn, unda o‘ynoqilik, sho‘x kayfiyat ustun. Lekin, talqincha, qashqarcha, saraxbor kabi og‘irroq sho‘balarga uning vazni mos keladi. Bundan ayon bo‘ladiki, she‘riy vaznlar va usullarning bir-biriga moslashuvida ma‘no-mazmun, xarakter va kayfiyatdan ko‘ra, aniq uzun-qisqa hijo hamda notalar mutanosibligi birlamchi masaladir. She‘r o‘lchovi bo‘g‘inlari jihatidan ritm ruknlariga mos keladi. Ma‘lum bir vazndagi she‘r bilan muayyan sho‘baning ritmik tuzulishi mos tushsa, demak shu nomdagi boshqa sho‘balarni ham mazkur vazndagi so‘z matni bilan ijro etish mumkin.

Yuqoridagi nazariy fikrlar va tahlillardan kelib chiqqan holda Talqini Uzzol misolida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Maqom ashula yo‘llarining she‘r vazni maqomlarning tabiati va xarakteriga qarab emas, balki doyra usuliga moslab tanlangan. Bunda og‘irroq sho‘balarga o‘ynoqi vaznlar to‘g‘ri kelishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin;

2. Ashulalarga mos she‘r o‘lchoqlarining ruknlari yoki ulardagi bo‘g‘inlarning uzun-qisqaligi, kuylarning ritmik holatiga ham ta’sir etishi mumkin. Bunda uzun bo‘g‘inlar bir yoki bir necha uzun-qisqa notalarga, qisqalari qisqa notalarga mos kelishi mumkin;

3. Kuy ritmik holatini saqlash, ya’ni qoidaga bo‘ysunish uchun bir bo‘g‘inli so‘z ikki bo‘g‘in tarzida talqin etilishi yoki bir bo‘g‘inli so‘z xohlagancha (usul doirasidan chiqib ketmagan holda albatta) cho‘zib turilishi mumkin. Bu maqomlar yoki mumtoz musiqa namunalari ijrochiligiga xos hamda ularda so‘z va kuy ohangini mutanosibligini ta’minlovchi omillar sifatida ahamiyatlidir;

4. Uzun - qisqa notalar va bo'g'inlarning mutanosib yoxud nomutanosibligi ohangni, kuy, intonatsiyani belgilaydi. Usul va aruz orasida ularni biriktiruvchi omil - ohang mavjud. Aruz ohangga, ohang esa doyra usuliga ergashadi, tobe bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Saipova D. O'zbek maqomlarida Hazrat Navoiy g'azallari. // Alisher Navoiy va musiqa. - T: MUMTOZ SOZ, 2011. - B.32.
2. Саримсаков Б. Саджъ и его место в узбекском фольклоре. - Т: 1973.
3. Аlisher Navoiy. Mezon ul-avzon. 20 tomlik. 16-tom. - Т: FAN, 2000. - B.180.
4. Султанова Р. Ритмика вокальных частей Шашмакома. Автореферат. Дис. канд. Искусствоведения. - Т: 1988. - С.54-60.
5. Юнусов Р. Макамы и мугамы. - Т: 1992. - С.68.

## БУГУНГИ КУНДА ЎЗБЕКИСТОН ТЕАТР САНЪАТИДА ПРОФЕССИОНАЛ РЕЖИССУРА МУАММОЛАРИ

Мунаввара Абдуллаева

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Мени актёр, драматург, танқидчиларни спектакль кўйишга киришиб кетганлиги эмас, уларнинг кўпчилиги бу ишни айрим режиссёрларга нисбатан яхшироқ бажараётганлиги ташвишга солади. Ҳозирги режиссёрларнинг орасида дилетант ҳаваскорлик даражасидагиларнинг кўпайиб бораётганлиги ачинарли ҳолдир.

**Калит сўзлар:** Актёр, образ, сахна, ижодий жараён, персонаж, ҳаракат ва фикр.

### PROBLEMS OF PROFESSIONAL DIRECTION IN THEATER ART OF UZBEKISTAN TODAY

Munavvara Abdullayeva

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** What worries me is not that actors, playwrights, and critics are starting to put on performances, but that many of them are doing it better than some directors. It's unfortunate that there are more and more amateur amateurs among the current directors.

**Keywords:** Actor, image, scene, creative process, character, action and thought.

*“Мени актёр, драматург, танқидчиларни спектакль кўйишга киришиб кетганлиги эмас, уларнинг кўпчилиги бу ишни айрим режиссёрларга нисбатан яхшироқ бажараётганлиги ташвишга солади. Ҳозирги режиссёрларнинг орасида дилетант ҳаваскорлик даражасидагиларнинг кўпайиб бораётганлиги ачинарли ҳолдир”.* Г.Товстаноғов

Бугунги кунда Ўзбекистон театр санъатини ривожлантиришга давлат томонидан катта эътибор қаратиляпти. Бу борада ҳукуматимиз томонидан турли қарорлар қабул қилиниб, уни амалга ошириш бўйича вазифалар доимий амалга оширилиб келиняпти. Театр учун энг муҳим бўлган томошабин масаласида ҳам чора тадбирлар ишлаб чиқилган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 50-сонли баёнига мувофиқ пойтахт ва вилоятдаги барча театрларни томошабин билан таъминлашда жамоат ташкилотлари жалб қилинган. Бу эса театрга томошабин келмайди, деган

муаммони бартараф қилиш йўлида амалга оширилган чорадир. Бирок, томошабинни “ташқиллаштириш” йўли билан эмас, ўз ихтиёри, қизиқиши билан келиши бошқа гап. Бу театрда чиндан ҳам ижодий юксалиш борлигини билдиради.

Театрга томошабин керак бўлганидек, томошабин учун ҳам театр бадиий савияга эга, қизиқарли, яна театрға келишга иштиёқ уйғотувчи спектакллар керак. Табиийки, ҳеч ким театрға атайлаб илм ўргангани ёки тарбия топай деб келмайди. Завқ олиш, янги таассуротга бўлган руҳий эстетик эҳтиёж уни театрға, санъат маконларига етаклайди. Томошабин театрға келиб, спектакль томоша қилар экан, завқ, кулги, кайфият асносида қандайдир ҳаётий хулоса чиқариб кетиши лозим. Бошқача айтганда “ўйнаб келиб, ўйлаб чиқиб кетиши” зарур.

Театрлардаги ижодий жараёнларни жонлантириш, театр санъатини ривожлантиришда спектаклларнинг бадиий ғоявий даражасини кўтариш учун доимий саи ҳаракатлар, амалий чора тадбирлар бўлаётганига қарамай, режиссура масаласида муаммолар ҳамон долзарб бўлиб қоляпти. Айниқса, ёш ва профессионал салоҳиятга эга режиссёрларнинг тақчиллиги ҳақида кўп гапирилмоқда. Бу муаммо айниқса, вилоят театрларида ўзини намоён қилиб келмоқда.

Табиийки, театрда ижоднинг яхшиланиши, яхши спектаклларнинг пайдо бўлиши режиссёрсиз амалга ошмайди. Режиссура театр санъатининг барча имкониятларини кўрсатиб берадиган энг муҳим ва асосий йўналишидир. Режиссёрсиз актёр ҳам, рассом ҳам, композитор ҳам, чироқ устаси ҳам спектакль ярата олмайди. Драматургнинг асари ҳам ҳарчанд сермазмун бўлмасин, қоғозда қолиб кетаверади. Умуман олганда, театрнинг ижодий қиёфасини режиссура белгилайди, ижодий кучларни бир жойга жамлайди.

Бир қарашда, мамлакатимиздаги 37 та давлат театрлари ишлаб турибди. Уларнинг барчасида камида икки учтадан сахналаштирувчи режиссёрлар бор. Улар ҳам тинимсиз ишляпти, йилига 3 4 тадан спектакль чиқариб, репертуарларини юргизиб турибди. Лекин нима учун спектакллар савияси, салоҳият борасида режиссёрлар муаммо сифатида кўтариляпти? Нега режиссёр йўқ, деган қарашлар ўз ижобий ечимини топмаяпти? Муаммо нимада? Режиссурада профессионализм масаласига шундай танқидий муносабатларнинг ортиб бораётганлигининг қатор сабаблари бор албатта.

Очиғи, ҳозирги вақтда профессионал режиссёрлар дейилганда, бармоқ билан санагулик режиссёрлар ҳаёлимизга келади. Баҳодир Йўлдошев, Олимжон Салимов, Авлиёқули Хўжақулиев, Мансур Равшанов, Рустам Ҳамидов, Карим Йўлдошев, Мунаввара Абдуллаева, Валижон Умаров... Бу етакчи режиссёрларнинг давомидан янги авлод деб кўрсатиш мумкин бўлган

режиссёрлар сони ҳам чекланган. Бугунги кунда ёш театр режиссёрлари орасида С.Мелиев, Ф. Жумаев, А. Холмўминов, А. Тўраев, Ҳ. Бурхонов кабилар ўз спектакллари билан режиссура соҳасида яхши натижалар кўрсатяпти, дейиш мумкин. Рўйхат учун саналса, яна қанча маълумоти режиссёр бўлган номларни кўплаб топиш мумкин, аммо гап салоҳият борасида экан, уларни келтириша афсуски жиддий масала бўлади. Айнан шу кадрлар масаласини ҳал этиш мақсадида қатор ишлар амалга ошириляётганини ҳам айтиб ўтиш жоиз. Ўзбекистон давлат санъат ва маланият институтида ҳар йили режиссёрлик гуруҳларидан кадрлар битириб чиқяпти. Шунингдек, ҳар йили театр ижодкорларини малакасини ошириш курслари ҳам ташкил этилган. Театрларда моддий техник шароитларни яхшилаш учун босқичма босқич капитал таъмир ишлари амалга ошириляпти. Театр жамоаларига янги, замонавий бинолар қуриб топширилмоқда. Шунга қарамай, профессионал режиссура маҳсули бўлган, янгича изланишлар кам кузатилади.

Ҳозирги вақтда ушбу режиссёр етишмаслиги ва касбий салоҳият долзарб масала сифатида майдонга чиқишининг туб сабаблари ҳақида ўйлар эканмиз, бунинг объектив ва субъектив томонлари борлигини кўриш мумкин. Объектив сабаблар сифатида ёш режиссёрларнинг ижодий тажрибасини ошириш учун халқаро муносабатларни кучайтириш, доимий равишда янгича услубдаги режиссёрлар ўқув эксперемаентал лабораторияларини ташкил этиш, республикада халқаро фестиваллар ўтказиш, “Сени куйлаймиз, замондош”, “Дебют” фестивалларини нуфузини ошириш, рағбатлантирувчи имкониятларни кенгайтириш зарур. Буларнинг барчаси режиссёрлар ўртасида соғлом рақобат муҳитини пайдо қилади, янгича изланишларни пайдо қилади. Бу каби масалаларни бартараф қилиш борасида қатор ишларни амалга оширишга қаратилган чоралар жорий қилинмоқда. Ҳар йили турли театр жамоалари хорижий ва ҳамдўстлик мамлакатлари ўртасида ўтказиладиган театр фестивалларида иштирок этиб келади. Масалан, Москвадаги Чехов номидаги халқаро театарлар конфедерацияси томонидан ташкил этилган фестиваль доирасида ўтказиладиган ёш режиссёрлар ижодий лабораториясига бугунги кунга қадар бир қанча ёш режиссёрлар юборилган. Шу каби амалий ишлар ва ҳамкорликнинг ортиши режиссура борасида ёшларнинг тажриба орттиришига имкон кўпаяди. Шунингдек, хорижий театрлар ва Ўзбекистон театрларининг гастролларини кўпроқ уюштириш зарур. 2015 йилда Англиянинг “Глобус” театр жамоаси, Жанубий Кореянинг “Хебома” театрининг пойтахтимизга ташрифи ва тақдим этган спектакллари театр ижодкорлари, айниқса ёшларда катта қизиқиш уйғотган эди. Бундай халқаро алоқаларнинг яхшиланиши режиссура соҳасида янгича изланишларнинг ривожланишига ижобий туртки бўлади.

Энди режиссёрлик соҳаси муаммосининг субъектив жиҳатларига тўхталадиган бўлсак, бу ижодкорнинг фақатгина ўз интилиши билан боғлиқдир. Режиссёрлик касбини танлаган ижодкор ўз устида узлуксиз меҳнат қилиши зарур. Режиссёрлик доимий изланишлар, тинимсиз меҳнат эвазига эришиладиган санъат бўлиб, уни тўрт беш йил институтда ўқиб, тўла ўзлаштириб бўлмайди. Режиссёрлик дипломига эга бўлиш, бу ҳали чинакам режиссёр туғилди, режиссёр бўлиб етишди, дегани эмас. Асримизнинг йирик режиссёри, Питер Брук таъкидлаганидек, “Режиссёр деган мақомни ҳеч ким совға қилмайди. Бу даражага фақат меҳнат ва изланиш билан эришиш мумкин”<sup>1</sup>. Юқорида айтганимиздек, театрларда ёш режиссёрлар сон жиҳатдан кўп эмас. Аммо улар режиссёр сифатида ўзларини намоён қила олишмаяпти. Бунинг сабаби сифатида театрда шароитнинг йўқлиги, яхши асарнинг етишмаслиги ва бошқа турли сабабларни келтирадилар. Бу сабабларга ҳам муайян асослар бор. Аммо ёш режиссёрларнинг ўзида ички тайёргарлик бўлмаслиги сабабли турли ташкилий муаммолар таъсирига тушиб қолмоқда.

Очиғини айтиш керак, охириги йилларда долзарб тус олган бу масаласининг замирида режиссёрларнинг камлиги эмас, уларнинг профессионализи, савияси ётади.

Бугун жаҳонда театр санъати янгича қиёфада ривожланыпти. Ҳар бир даврда у театр бўладими, тасвирий санъат ёки адабиёт бўладими, ҳар бир санъат тури янгиланиб, янги мазмун ва шакл касб этиб бораверади. Бугун эскича шаклдаги спектакль билан томошабинни театр залида ушлаб туриб бўлмайди. Чунки унга янгидан янги таассуротлар берувчи интернет, телеканаллар, кино санъати бор. Демак, театрда бу санъатлар ва имкониятлар билан рақобатга кириша оладиган ҳам мазмунан ҳам шаклан янги ва оригинал сахна асарларини яратиш керак. Буни эса биринчи навбатда режиссёрлар англаб етиши, олдиларида турган вазифани ҳис этиши, одамларни бугун қизиқтириши мумкин бўлган ғояларни амалга ошириши керак. Театрда ишлашдан ягона мақсади ва бурчи фақат ва фақат янгиликка бой спектакллар сахналаштиришдан иборатлини унутмаслиги шарт. Бунинг учун шу касбни танлаб, режиссёр деган номни кўтариб юрган ижодкорларнинг ўзлари етарлича билимга эга бўлиши, жаҳон сахналари тажрибаларидан хабардор бўлиши билан бирга, ўзимизнинг ҳаёти тарзимизни кузатиши, ўрганиши ва изланишларини рўёбга чиқариш учун йўл топиши керак. Мақсади спектакль яратиш бўлган режиссёр албатта изланади.

Зеро, театрда режиссёр бирламчи экан, ҳар бир режиссёрнинг ўзи замон билан ҳамнафас яшаб, ижодий жамоага “йўл бошчилик” қилишда янги ижодий

<sup>1</sup> Жаҳон адабиёти журналы. 2016/10. 140 бет.

қарашлар билан, янги ғояларни амалга оширишга тайёрлиги билан саф бошига чиқиши керак.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Саҳна талқини ва таҳлили / Зуфаров У. Тошкент: Муסיқа наширёти 12.-13 б.



## TENGDOHLARIGA TENG BOLALAR

Muattarxon To‘ychiyeva  
toychiyeva87@list.ru

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

**Annotatsiya:** Maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslar, xususan bolalar va ularning jahon hamjamiyati nigohidagi o‘rni: manfaatlari, huquqlari, yangi O‘zbekistonda nogironlarga qaratilayotgan yuksak e‘tibor va g‘amxo‘rlik to‘g‘risida atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, maqolada imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy-psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishida xoreografiya san‘atining o‘rni, bu borada olib borilayotgan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida olib borilayotgan grant loyiha va uning mazmun-mohiyati to‘g‘risida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** nogiron, loyiha, dastur, ta‘lim, inklyuziv, xoreografiya, raqs, ritmika, jamiyat, faollik.

## CHILDREN EQUAL TO THEIR PEERS

Muattarkhan Tuychiyeva  
toychiyeva87@list.ru

Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** The article describes in detail the role of persons with disabilities, in particular children and their role in the eyes of the world community: their interests, rights, high attention and care for the disabled in the new Uzbekistan. The article also covers the role of the art of choreography in the psychological, mental and physical development of children with disabilities, the grant of the Academy of choreography of the Republic of Uzbekistan in this regard, the project and its content.

**Keywords:** disabled, project, program, education, inclusive, choreography, dance, rhythm, society, activity.

*“Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash zarur”. Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Har yili “3-dekabr - Xalqaro nogironlar kuni” butun dunyo bo‘ylab keng nishonlanadi. Bundan asosiy maqsad nogironligi bo‘lgan va nogiron bo‘lmagan kishilarning teng huquqliligini, nogironlarning manfaatlari, huquqlarini inobatga olinishini, barcha mamlakatlarda ularning qadr-qimmatini himoyalovchi

qonunlarning joriy etilishini ta'minlab, barcha uchun ma'naviy, huquqiy tenglik jamiyatini qurishdan iboratdir.

Yurtimizda ham nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatimizning to'laqonli a'zosi ekanliklarini ifoda etish maqsadida turli tadbir va islohotlar doimiy amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2017-yil 1-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonning imzolanishi Davlatimiz tomonidan kuchli va manzilli ijtimoiy himoya siyosati olib borilayotganining yaqqol isbotidir.

Ammo har sohada bo'lgani kabi nogironligi bo'lgan shaxslarning muammolarini hal qilishda, xususan bolalar ta'limida bir qator kamchiliklar mavjud. Mazkur kamchiliklar borasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi xonimi -"Zamin" fondi Vasiylik Kengashi raisi Ziroat Mirziyoyeva Jahon bolalar kuniga bag'ishlangan xalqaro forumda so'zlagan nutqida "...nogironligi bo'lgan bolalar ta'limi masalasi hanuzgacha juda achinarli ahvolda qolmoqda. Bugun fursatdan foydalanib, ushbu bolalarga ham boshqa bolalar kabi keng imkoniyat va sharoit yaratish, ularning huquqlarini ta'minlash o'ta muhim masala ekanini ta'kidlamochiman. Va nafaqat davlat idorasi mutasaddilari, balki butun jamoatchilikni mazkur masalaga jiddiy mas'uliyat bilan qarashga chaqirib qolaman Chunki har bir bolaning o'zligi bor. Bolalar har hil bo'lgani bilan ularning huquqlari teng bo'lishi lozim"<sup>1</sup> -deya, ta'kidladi. Chindan ham nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatimizdan ayri bo'lmay ulg'ayishida ta'lim tizimida islohotlar, keng jamoatchilikning e'tibori va ko'magi zarurdir.

Ma'lumki, imkoniyati cheklangan bolalar, asosan, maktab-internatlarda tarbiyalanadi, maxsus ta'lim oladi, o'z imkoniyatlari darajasida ijodiy-texnik mehnat bilan shug'ullanadi. Ayni paytda ular qo'shimcha ta'lim bilan ham shug'ullanadilarki, bu esa ularning sog'lig'i, psixodinamikasiga, ilm olishiga ta'sir ko'rsatadi

Bu borada O'zbekiston xoreografiya akademiyasida "Xoreografiya san'ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan multimedia mahsulotini yaratish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha muallifi va ilmiy tadqiqotchisi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, - Bizningcha, respublikamizdagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda ritmika va raqs fanlarini yo'lga qo'yish, buning uchun o'qituvchi-pedagog kadrlarni tayyorlash, maxsus o'quv dasturlari va qo'llanmalarni ayniqsa, multimedia elektron o'quv qo'llanmalar tayyorlash zarur.

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2020/11/19/ziroat-mirziyoyeva-bolalar-talimiga-bagishlab-otkazilgan-xalqaro-veb-forumda-nutq-sozladi/>

Sababi multimedia shaklidagi darsliklarda turli xil slayd va roliklar orqali raqs san'atining har bir harakatining xolati batafsil rasmlar orqali tushuntiriladi. Chunki raqs va ritmika bilan shug'ullanish har qanday organizm uchun, xususan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun nihoyatda muhim bo'lib, ular uchun zarur bo'lgan sport yuklamasini oson bajarishga imkon beradi. Binobarin, ritmik va xoreografik harakatlar bolaning sog'lig'ini yaxshilaydi, ruhiy kayfiyatini ko'taradi, o'z tengdoshlari bilan muloqotni yaxshilaydi, o'zidagi nuqsonlarni yengib o'tib, jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga ko'maklashadi.

Bu jarayon, aslida, ancha murakkab bo'lib, bolaning tibbiy-psixologik holatlarini aniq hisobga olishni taqozo etadi. Nazarimizda, bu jarayonda musiqaga katta e'tibor beriladi, chunki musiqa orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini izhor eta oladilar.

Multimedia darsliklarining imkoniyatlari tufayli ko'plab bolalar uchun ritmika darslari raqs o'rganishning boshlang'ich jarayonnini anglashga yordam beradi. Negaki, ritmika darslarida turli harakatlar musiqa jo'rligida bajariladi. Ritmika bilan shug'ullanish esa nogiron bolalarda abjirlikni, chaqqonlikni rivojlantiradi, shu jumladan, ularda gavda mutanosibligini ta'minlab, ulardagi ruhiy taranglik - stress va siqiluvchanlikni bartaraf etadi. Ritmika darslarida o'z tanasini tushunishni turli xil slaydlar orqali o'rganadi.

Bunday multimedia darslar o'ziga xos yondashuvlarni taqozo etadi. Masalan, ritmika darslarini o'yin tarzida olib borish bolaning darsga qiziqishini orttiradi. Topshiriqlar ham didaktik prinsiplar asosida: oddiydan murakkabga, yengildan qiyinga qarab beriladi. Ritmika darslarining dasturlari ertak, hikoya shaklida bo'lishi yoki mashhur she'rlar asosida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarning maktab tadbirlarida, turli festivallarda, konsertlarda raqs nomerlari bilan qatnashishi ularda zavq-shavq, iftixor hissini uyg'otadi, natijada ular hayotda dadil, komillik sari harakatlanadilar. Bunga 2021-yil "Zamin" fondi tomonidan Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan o'tkizilgan "Biz turlimiz - biz tengmiz!" deb nomlangan katta gala-konsert birgina yaqqol misoldir. Ushbu konsertning tayyorgarlik jarayonlarida raqs sahnasi repetitsiyalarida bevosita ishtirok etib, shuni chuqur angladikki, imkoniyati cheklangan bolalarimiz raqsni, kuy-qo'shiqni boshqa tengdoshlaridan ko'ra yaxshiroq his etadilar, ko'zlari yonib, quvonib, charchoq bilmay soatlab ishlashga ham tayyor bolajonlarni kuzatib, ular bilan birga ishlab shu qadar zavqqa to'ldikki, huddi o'zimiz ham bola bo'lib qoldik. Ulardagi nuqson jismida holos ekanini ruhan va qalban hech birimizdan kam emasligini ko'rib naqadar quvondik! Bolajonlarimizning ushbu konsertda katta sahnada o'zlarini yo'qotmay, quvnab raqs ijro etishlarini ko'rib esa yuqoridagi fikrlarimiz o'z tasdig'ini yana bir bor topganini his etdik.

Xoreografiya san'ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitish, ularning jamiyatimizda munosib o'rin egallashlarida amalga oshirilayotgan bunday ezgu ishlar yanada ko'payishi va o'z samarasini berishi barchamiz uchun quvonarli xoldir. Zero, muxtarama Z.Mirziyoyeva ta'kidlaganidek, "Barcha bolalarning huquqlari va erkinliklari bir xil darajada kafolatlanishi lozim. Ularning manfaatlari ustuvor bo'lishi kerak. Dunyodagi har bir bola bunga loyiqdir. Nogironligi bo'gan bolalar jamiyatning to'laqonli a'zolaridir. Ularning faol va maroqli hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shubhasiz, juda muhim"<sup>2</sup>.

Chunonchi, har yili "3-dekabr - Xalqaro nogironlar kuni" respublika bo'ylab turli bayramona dasturlar, konsert tomoshalar, anjumanlar, hayriya ishlari kabi tadbirlar orqali keng nishonlanishi nafaqat davlat siyosati, balki odamiylik mulkida shox-sulton sanalgan xalqimizning azaliy qadriyatlarimizga sodiqligi ifodasidir. Azal-azaldan mehr-oqibatli millat sifatida yiqilganni suyash, ko'makka muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, birdamlik insoniy burch deb bilgan ulug' fazilatli xalqimiz. Qonimizga, jonimizga singib ketgan xalqimizga xos bag'ri kenglik, mehribonlikdan beixtiyor faxr-iftixor tuyasan kishi. Binobarin, mehrni hamma narsadan ustun qo'ygani bois, o'zbek nomi, millat sha'ni yuksalib kelayotir.

### Foydalangan adabiyotlar

1. <https://daryo.uz/2020/11/19/ziroat-mirziyoyeva-bolalar-talimiga-bagishlab-otkazilgan-xalqaro-veb-forumda-nutq-sozladi/>
2. Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон халқига 3 декабрь — Халқаро ногиронлар куни муносабати билан мурожаат йўллади. Табрик матни Президент матбуот хизмати эълонидан.
3. <http://club-edu.tambov.ru/methodic/fio/p4.doc> - Иванова О.Г., Орлов В.В., Радченко И.М., Сабурова А.В. Подготовка мультимедийных материалов. Создание мультимедийных презентаций. Учебно-методическое пособие (doc-файл). Тамбов 2002 г.

---

<sup>2</sup>O'sha manbaa

## МАКТАБДАН ТАШҚАРИ МУАССАСАЛАРДА ИЖОДИЙ ҲАМКОРЛИК ВА УНИНГ ЖАМИЯТ РИВОЖИДА ТУТГАН ЎРНИ

Арзиматова Заррина Бахтияровна  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
Фарғона минтақавий филиали

**Аннотация:** Мақолада ўқувчи ёшларни мактабдан ташқари тўғаракларга жалб қилиш, маданият ва санъат соҳасида қизиқишларини ошириш ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** Мактабдан ташқари муассасаларда ижодий ҳамкорлик ва унинг жамият ривожига тутган ўрни.

### CREATIVE COOPERATION IN OUT-SCHOOL INSTITUTIONS AND ITS ROLE IN SOCIAL DEVELOPMENT

Arzimatova Zarrina Bakhtiyarovna  
Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The article deals with the involvement of students in extracurricular activities, increasing their interest in culture and art.

**Keywords:** Creative collaboration in out-of-school institutions and its role in the development of society.

Юртбошимизнинг оқилона иш юритишлари натижасида кўплаб қарор ва фармойишлар ҳаётга тадбиқ қилиниб улар туфайли юртимизда санъат ва маданият соҳасида ҳам катта ўзгаришлар янгилашлар бўлмоқда.

Билимли ҳамда интеллектуал ривожланган авлодни вояга етказиш, уларни мустақил фикрлайдиган, қатъий фуқаролик позициясига эга инсонлар этиб тарбиялашга қаратилган чора-тадбирлар мамлакатимизда олиб борилаётган кенг кўламли ислохотларнинг энг муҳим устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Бинобарин, бугун жаҳон ареналарида, нуфузли спорт мусобақаларида юртимиз доврўғини дунёга танитаётган чемпионларимиз, илм-фан, санъат, ижод, умуман, барча соҳада юксак марраларни эгаллаётган ёшларимизнинг ютуқлари мустақилликнинг дастлабки йилларида илгари сурилган баркамол авлодни шакллантириш ғоясининг ҳаётий самарасидир.

Маълумки, мактабдан ташқари таълим муассасаларида ўсмирларнинг фаолияти ўқиш ва меҳнатга қаратилган. Шу фаолият воситасида улар ташқи ижтимоий оламни билади. Улар дунё қарашида ва маънавиятига оид билимлар,

кўникма ва малака, тасаввурлар захираси тўпланади. Жумладан, тўгарак машғулотлари жараёнида кенг қўлланиладиган педагогик тренинг, шарҳлаб ўқитиш, таянч схемалар, таянч белгилар, ролли ўйинлар услубларини дарс жараёнида қўллаш орқали ўсмирлар ўз тенгдошлари орасида фаоллик кўрсатади, ижтимоий хулқ ва ҳаракатларнинг андазаларини ўзлаштиради, катталар ҳаётига кириб боради. Ўқувчилар бажараётган ролга кўра бир-бирларига бўйсунадилар ва бошқаришни ўрганадилар. Анашу тариқа ўқувчи шахсида ақлий қобилият, шахсий ва ижтимоий бурч хислари, ўткир зеҳн таркиб топади, тенглик, демократия, бирдамлик туйғулари, инсоний фазилатлар - самимият, ор-номус, хушмуомалалик, сертакаллуфлик кабилар шакллана бошлайди. Мазкур юксак туйғаларни амалиётга жорий қилиш жараёнида ўсмир шахсида юксакликка интилиш иштиёқи тарбияланади. Шу боис ўсмир ёшдаги ўқувчилар дунё қарашида ахлоқий қадриятлар ва инсонийлик сифатлари тўғрисида адекват билимлар тушунчаларининг таркиб топиши уларни комил шахс бўлиб шаклланишига асос бўлади. Бу жараённинг кечишини илмий жиҳатдан тадқиқ этиш ва илмий қонуниятлар асосида шарт-шароитларнинг яратилиши, ўз навбатида, инсон шахсини таркиб топтириш билан шуғулланувчи барча ўқитувчи - педагогларга услубий қурол сифатида хизмат қилади.

Таълим муассасаларининг мактабдан ташқари тўгаракларида ўсмирлар дунё қарашини шакллантириш долзарб муаммолардан ҳисобланади.

Ушбу жараёнда миллат ва мамлакат учун жон куйдурган Ватанга меҳр ва эътиқод асосчи бўлган Бехбудий, Фитрат, Чўлпон, Абдулла Авлоний, Тавалло, Абдулла Қодирий сингари сиймоларнинг ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш асосида ўқувчига таъсир кўрсатиш, хулқ-атворини шакллантириш ўқитувчининг педагогик маҳоратига боғлиқдир. Албатта бунда ўқувчи шахсини ривожлантириши учун тегишли педагогик муҳитни юзага келтириш, ҳамжиҳатлик, ҳамкорлик доимо демократия кўринишларидан бири ҳисобланади.

Демак, педагог ва ўқувчи ўртасидаги ҳамкорликни таъминлайдиган, ишонч ва манфаатларга риоя этилишига кўмаклашадиган, ўқувчининг қобилияти номоён бўлиши учун имконият яратадиган ўзаро муносабатлар тизимини юзага келтириш муҳимдир. Чунки шахснинг ривожига йўналтирилган демократик тарбия инсонпарварлик муносабатларининг уйғунлигини қадрият сифатида маъносини тушуниб етишга ёрдам беради. Педагогик ҳамкорлик ўзаро тушуниш, ишонч ва ўзаро ёрдамни, ижодий ҳамкорликка тайёрликни юзага келтиради. Бу эса ўсмирларда ахлоқий қадриятларни, миллий урф одатларни, миллий покланиш, миллий истиқлол ғоясининг асл моҳиятини чуқур англаб етишни таъминлайди.

Тарихий, ижтимоий тараққиёт тажрибаси шу нарсани исботлайдики, жамиятда ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий қурулма ўзгарганда, бу ўзгаришлар энг аввало таълим тарбия тизимини ислоҳ қилишни, унинг моҳияти ва мазмунини ўзгартиришни талаб қилади. Бошқача қилиб айтганда, ўқувчиларни маънавий жиҳатдан етук, миллий қадриятлар ва урф одатларга ҳурмат руҳида тарбиялаш, ўқитиш, уларда ҳаётга, миллий маданий меъросимизга нисбатан ижобий муносабатни шакллантириш, маънавий соғлом, уларнинг руҳан тетик ривожланиши учун зарур шарт шароитлар яратиш, тўғарак раҳбари ва ўқувчи фаолиятини ҳамкорлик педагогикаси асосида қуришни тақазо этади.

Ўқувчиларнинг қобилиятини ва иқтидорини ҳар жиҳатдан номоён этиш, миллий ва умуминсоний идеаллар ва қадриятлар ҳамда педагогик омиллар устиворлигини таъминлаш, шахс, жамият ва атроф муҳитнинг ўзаро муносабатларида уйғунликка эришув, ўқувчи ва ўқитувчи ўртасидаги муносабатни, анъанавий “Устоз шогирд” ўзаро муносабатларига хос чуқур инсоний эҳтиромли асосларга олиб чиқиш - таълимни инсонпарварлаштиришнинг бош йўналиши бўлиб, таълим жараёни субъектларининг ўзаро тушунишини ва ҳамкорлигини таъминлайди. Ҳамкорлик педагогикаси ёшларга ҳозирги замон руҳида таълим ва тарбия беришни назарда тутади.

Муסיқий йўналишдаги тўғараклар болаларни ўз қизиқишларига қараб бир жамоага бирлаштиради. Ёшидан қатъий назар агар тарбиячи ўз ишининг устаси бўлса, болалар билан мулоқат даврида ўзининг ҳам ижодкорлик даражаси ортиб боради.

Тўғарак раҳбари ўз иш фаолияти давомида таълимнинг узлуксизлигини таъминлашга асосий эътиборини қаратиши лозим. Ўз йўналиши бўйича мактабгача ва мактаб таълим-тарбия жараёни мазмунини тўла ўрганиб чиқиши ва шунга асосланган ҳолда машғулотларни ташкиллаштириши муҳим. Шундагина ўсмир таълимнинг узлуксизлигига тортилади, миллий анъаналарнинг энг яхшилари ва жаҳон маданият бойликлари билан танишади.

Кўпгина ривожланган мамлакатларда таълим-тарбия ишларини такомиллаштиришга ижодий ёндашилганлиги, бу борада назарий ақидалар доираси билан чекланмай, амалий самара масаласи биринчи ўринга қўйилганлиги ҳаммамизга маълум. Лекин бу мамлакатларнинг тажрибаси қанчалик яхши бўлмасин, биз уларни кўр-кўрона ўз воқелигимизга тадбиқ эта олмаймиз. Таълим-тарбиянинг ҳар қандай замонавий усуллари ахлоқ, одоб, турмуш тарзи, миллий анъаналаримиз ва қадриятларимиз билан боғлансагина ижобий самара беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Зуннунов А., Толипов Ў. Миллий қадриятлар асосида ўқувчи шахсини шакллантириш. - Т.: Шарқ, 2006
2. Мамиров Қ. Миллий мусиқа ва унинг маънавий тарбиявий аҳамияти (Тўплам. Қадриятлар ва ижтимоий тарақиёт). Т.: Ўзбекистон, 1997
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ Тошкент ш., 2020 йил 26 май, ПФ-6000-сон
4. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
5. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
6. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
7. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o 'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
8. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
9. Ҳатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
10. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
11. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
12. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
13. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).
14. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).
15. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.
16. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. International Journal of Culture and Modernity, 11, 1-7.



17. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 170-178.
18. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. *Oriental Art and Culture*, (6).
19. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
20. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
21. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
22. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.
23. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).
24. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.
25. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
26. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.
27. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.
28. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).
29. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.
30. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.
31. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. *Hordo Structures in Central Asian Architecture*.

32. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Хаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.

33. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

34. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 37-43.

35. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.

36. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.

37. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.

38. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).

39. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.

40. Ёулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.

41. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.

42. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

43. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

44. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

## TELESERIALNING TARKIBIY TUZILMASIDAGI MUALLIF VA REJISSOR HAMKORLIGI MASALASI

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna  
kaf-tvrej@mail.ru  
O'zDSMI

**Annotatsiya:** Maqolada teleseriallarning tarkibiy tuzilmasi va undagi dramaturgik yechim hamda ssenariynavis va rejissorning ijodiy hamkorligi masalalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** videofilm, telerejissura, ekran, telekamera, montaj, ekspozitsiya, rejissor, aktyor, teletomoshabin, ekranlashtirish

## AUTHOR AND DIRECTOR COOPERATION ISSUE IN STRUCTURE OF TELEVISION

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna  
kaf-tvrej@mail.ru  
UzSIAC

**Abstract:** The article deals with the morphology of television series and creative cooperation between the author of the script and the director

**Key words:** Video films, TV directing, screen, TV camera editing exposition, directing actor Tv audience screening.

Kino, televideniye asarlari insonning dunyoqarashi, ma'naviy dunyosi, didini tarbiyalash, fikrlash doirasini kengaytirishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Kino va televizion asarlarning o'ziga xosligi, ularning estetik imkoniyatlari boshqa san'at turlarining qamrashi bilan ahamiyatli. "Texnologik taraqqiy etish bilan bir vaqtda jamiyatning ma'naviy-madaniy hayotiga g'oyaviy ta'sir ko'rsatmoqda"<sup>1</sup>. Film va teleradio dasturlarning badiiy-g'oyaviy asosi ssenariyga borib taqalarkan u atashuv degan ma'noni bildiradi.

Qo'lida qalam tutgan har bir inson bu sohada faoliyat yurit olmaydi. Chunki uning ishi tomoshabinni hayratlantira olmaydi. Ssenariy yozish uchun ham hamma turdagi badiiy asar yaratish uchun insonda avvalo adabiyotga kuchli muhabbat va moyillik, iste'dod bo'lishi talab etiladi. Original ssenariy yozish kishidan izlanish va kuzatuvchanlikni talab qiladi.. Ko'pincha yozuvchilik salohiyati yo'q rejissorlarning

---

<sup>1</sup> Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Colloquium-jurnal, – Warszawa, – 2018, N4. P. 4

o'zi ssenariy yozib, uni o'zi ekranga olib chiqadi. Buning natijasida har doim ham ko'ngildagidek ekran asari yuzaga kelavermaydi..To'g'ri, agar san'at tarixiga nazar tashlasak o'zbek teatri tarixida ham juda ko'p mashhur rejissorlar pe'sa yozib o'zi sahnalashtirgan. Lekin yozuvchilik salohiyati yetishmasligidan ularning birortasi dramaturg sifatida e'tirof etilmagan. Ayrim rejissorlar "axir ssenariynavisga aytib turaman-ku qanday bo'lishligini nega yozilmas ekanman"- degan fikrda bo'ladi. Aslida aytib turish bilan yozishning farqi katta. Adabiyotdagi kuzatuvlaridan ma'lumki, mashhur yozuvchi va shoirlarning ustozlari fikr bildirgan, lekin shogirdning o'zi ijodiy yondashib, adabiyotda o'z o'rnini topgan. Ssenariynavislikda ham xuddi shu jarayonni kuzatish mumkin. Bu xolatni ayrim o'zbek filmlarining ssenariylarida uchratish mumkin. Aslida dramaturglar ssenariy muallifi sifatida tilga olinib keyin sahnalashtiruvchi rejissor va boshqa ijodiy guruxlar tilga olinsa to'g'ri bo'ladi. "Ssenariy filmning asosini tashkil qilar ekan afisha va reklamalarda birinchi ssenariy muallifi so'ngra rejissorlar, operatorlar tilga olinish kerak. Shunda ssenaristning muallifik huquqini joyiga qo'ygan va uning ijodiy mavqeini ko'targan bo'lamiz. Kino, televideniye ssenaristlarining ishi biroz murakkabroq. Tajriba bilan dunyo televideniye, kino san'atkorlari qiziqib keladi- deb"<sup>2</sup>. Demak, adabiy ssenariy adabiy asar sifatida kinosan'atining ham asosi hisoblanadi. Binobarin kino - asar sifatida rejissorning ish obyektidir. Bu kabi fikrlar uyg'unlashuvi rejissor bilan ssenaristning ikki teng huquqli ijodkorlarning qo'shma ijodiy mas'uliyatlarning birlashuvidir.

Ba'zi nazariyotchilarning kinoshunoslarning ssenariy yozish hamma yozuvchining ham qo'lidan kelavermaydi- degan taxminlari mutloqo baxsli. Chunki kino syujet liniyasi, voqealar rivoji, qolaversa montajni adabiy asardan oladi. Rejissor qancha bilimdon bo'lmasin kinodramaturg yozuvchisiz shunchalik ojizdir. Shu bilan bir qatorda kinodramaturg ssenariynavis qanchalik buyuk bo'lmasin rejissorsiz o'zining ijod maxsulini ekranda ko'ra olmaydi.

Buning uchun ikki hamfikir inson birgalikda xarakat qilib kino asarini yuzaga keltiradi. Shuning uchun yaxshi ssenariynavis bilan rejissor yakdil fikrda harakat qilsa, saviyali kino, teleseriallari yuzaga keladi.

Ssenariynavisga hayotda ko'rgan kechirgan xodisalari yuzasidan qilgan mushohadalari kelajak uchun hayotiy saboq bo'lib qolishi vazifasi yuklanadi.

Adabiyotni hayotiy asosiga oid bu chuqur fikr qayd etilgan joyda dramaning kelib chiqishini tushunish muhimdir.

Demak, voqelikka munosabatning adabiy ifodasi ssenariy ekan u kino va televideniye sohasiga adabiyotning bir yo'nalishi bo'lmish dramaturgiya orqali kirib kelgan. Lekin kino va televideniye sohasi uchun adabiyotda qalam tebratayotgan yozuvchining hammasi ham hamkorlik qila olmaydi. Chunki kino va televideniye o'ziga xos ifoda vositalarini bilmay turib bu sohada foliyat yuritish

<sup>2</sup> Е.Габрилович. "Кино и литература" Москва 1965 йил 48 бет.

mumkin emas. Masalan, yozuvchi voqelikni tasvirlashda ikki-uch bet peyzajni tasvirlashi mumkin. Kino va televideniya esa peyzajni tasvir orqali o'n uzog'i o'n ikki sekund ko'rsatish mumkin. Kino va televideniya radio va teatrga nisbatan so'z kamroq ishlatiladi. Dialoglar qisqa, siqiq va lo'nda bo'lishi talab etiladi. Kino va ssenariylarga rejissor uchun remarka ham qoldiriladi. Ularning kompozitsiyasi va syujetlar tizimida ham uzviylik bo'lishi talab etiladi. Agar ssenariy kompozitsion jihatdan yaxlitlikka ega bo'lmasa unga ssenariy maqomini berish noo'rin. Chunki ssenariy dramaturgiyaning mahsuli ekan demak unda g'oya, g'oyani ochishga xizmat qiluvchi unsurlar ya'ni voqealarni rivojlanish sxemasi bo'lishi talab etiladi.

Rus adabiyotshunoslar ichida "formal maktab"ga asos solgan V. Shkolovskiy voqealarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan tartibini fabula deb, ularni badiiy asardagi tasviri tartibini syujet deyishni taklif etgandi. Syujet va fabulani bunday talqin etish adabiyotshunoslikda hali ham uchrab turadi.

Fabula -ssenariy negizini tashkil etuvchi sintez materiallar sifatida talqin qilinadi. Fabula bilan syujetni bir yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Hozirda yaratilayotgan teleseriallarda bir necha syujet liniyalari qorshib keladi. ("Opa -singillar", "Tutash taqdirlar", "Zurriyod") Boshqacha qilib aytganda "syujet"da ertak ichida ertak voqea ichida voqealar bo'lishi tabiiy xolatga aylanib bormoqda.

Asarga asos bo'lgan fabula va syujet shu materiallarning ma'lum tartibdagi sharxidir. Ijodkor fabula asosida badiiy syujetni yaratadi va asarga badiiy sifat baxshlaydi. Syujet fabulaga nisbatan ko'proq ma'noga egadir. Materiallarni tipiklashtirib, individuallashtirish natijasida ma'lum xarakterlar yaratilishi tufayli fabula syujetni harakatga keltiradi. Masalan ("Shaytanat" teleseriali) ssenariyda bir nechta syujetlar mavjud bo'ladi. Ba'zi teleseriallarda esa bitta syujet asosida voqealar rivojlanib yechimini topgan. Shu o'rinda "Saodat" teleserialidagi voqealarning kuchayishi personajlar o'rtasida aloqalarni avj olishi asarni butun strukturasi o'zak bo'lib xizmat qiladi va asarning g'oyasi va mazmunini aniq tushunishga yordam beradi. "Saodat" teleserialida kollejni bitirishga ulgurmagan qizlarni erta turmushga berishning salbiy oqibatlari, sog'lom bolalarni tug'ilishiga erishish, yoshlarni kasb-hunarli qilish, oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish kabi mavzular sevgi-muhabbat, ya'ni melodrama va detektiv janrlariga uyg'un tarzda, tomoshabin uchun nihoyatda qiziqarli qilib, ta'sirchan hamda tushunarli tarzda ochib berilgani bilan ahamiyatli. Uning rejissurasida yangi yechimlar topishga urinilgan, aktyorlar ansambli o'rinli to'planilganligi serialning ko'rimlilikini oshirgan.

Tasviriy jarayonda rejissorning ekran tili va uning imkoniyatlarini yaxshi bilishi ko'rinib turibdi. Eng muhimi aktyorlar ishonchli ijro etishgan, qahramonlar yashaydigan uy-joy, ko'chalar, kiyim-kechak, umuman aholining madaniy qiyofasini belgilaydigan tasvirlar efir talabiga moslab olingan.

«Saodat» teleserialida davrimiz muammolari ta'sirchan tarzda va badiiy talqin qilingan.

Syujetga badiiy asar mazmuni va undagi qahramonlar xarakterini ochib beridigan o'zaro uzviy bog'langan voqealar hodisalar tizmasi xisoblanadi. Ssenariy muallifi ekran asarini yaratishda barcha adabiyot qonuniyatlariga amal qilganligini ko'rinib turadi. Ekran asari uchun ssenariy yozayotgan muallif ham adabiyotning syujet va kompozitsiya qonun-qoidalariga to'la amal qilishi shart. "Saodat" teleserialining ssenariy muallifi ham oldiga qo'ygan maqsad va vazifasidan kelib chiqqan xolda to'plagan adabiy, hayotiy materiallardan ma'lum bir syujet yaratishga muvaffaq bo'lgan.

H.Abdusamatov "Drama nazariyasi" kitobining "Syujet va kompozitsiya-dramaning qolipi va qiyofasi" bobida bunday yozadi:

"Ma'lumki, adabiyotning barcha komponentlari syujet atama ham turlicha talqin qilib kelingan. Albatta bu atama adabiyot tarixida, umuman falsafa, estetika va xalqlar madaniyatida juda ko'p qo'llanilgan."<sup>3</sup>

Syujetni badiiy asarning muhim unsuri sifatida pafosli bo'lishga da'vat etiladi. Uni ehtiros deb talqin qilish mumkin. Huddi shuningdek syujet nuqtai nazardan ssenariylar ham ehtirosli va hayajonli yozilishi kerak. Vaholanki syujetsiz ekran mahsuloti badiiy kinofilmlar tele seriallar bo'lmaydi. Syujetning elementlaridagi prolog, konflikt-syujetning o'zagi hisoblanadi. Epilog, ekspozitsiya va konfliktni boshlanishdan oldin keladigan muqaddimadir. Bular ichida tugun-konfliktni ilk marotaba ro'yobga chiqishi va syujetning rivojlana boshlashiga turtki berilishidir. Voqealar rivoji-konfliktlarning asta-sekin ochilishi va hal bo'lishi jarayonidir.

"Saodat" teleserialining muvaffaqiyati avvalo serial ssenariysi pishiq va mazmundor ekanining natijasi, ikkinchidan, ssenariy muallifi va sahnalashtiruvchi rejissorning yaqin hamkorligi hosilasi. Serial yuksak did bilan, zamonaviy yondashuvlar asosida tasvirga olingan va montaj qilingan. Aktyorlar ansamblini shakllantirish tajribasini boshqa seriallarni yaratishda ibrat, namuna sifatida olish kerak. Ba'zan tomoshabini tugun nimada ekanligini tushunolmay qolsa filmni oxirigacha tushunmasligi mumkin. Shuning uchun tugunni ssenariyda aniq va tushunarli qilib yozish kerak. Masalan, "Saodat" teleserialida bosh qahramon Saodatning kollejdagi o'qituvchilar bilan bo'lgan to'qnashuvi asarga tugun bo'lib tushadi.

Mazkur serialning sahnalashtiruvchi rejissori M. Erkinov haqiqatan ham o'z ishiga nisbatan mas'uliyat bilan yondashgan, iste'dodli aktyorlar o'ziga topshirilgan vazifani rejissor ko'nglidagidek bajargan, dedi.

<sup>3</sup> X.Abdusamatov. "Drama nazariyasi". Toshkent. Fan. 2000 й. 138 бет

«Saodat» teleseriali tomoshabinni o‘zida qiziqtirib tutib tura olishi (dinamikasi) yaxshi ekani va birinchi fasl tomoshabinni keyingi faslni ham intiqlik bilan kutishga undovchi holatda tugatilgani e‘tiborga loyiq.

Har qanday asarning kompozitsion tuzilishi mukammal bo‘lmasa uni tomoshabin uni badiiy yaxlitlikda qabul qilolmaydi. “Asarning kompozitsion qurilmasi shunchaki qonun-qoida emas, balki asarning tomoshabinga tushunarli, qiziqarli va shu bilan birga uning diqqat-e‘tiborini birday jalb qilib turish garovi hamdir”<sup>4</sup>. Chunki kompozitsiya asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblikni bildiradi, aniqrog‘i voqelik liniyasini bir bosh syujet liniyasiga qamrab olishi, turli qismlarda o‘zaro birlashishidir. Agar asarda shu mezonga amal qilinmasa undagi voqealar tarqoq uzuq yuluq xolatda bo‘ladi. Bunday vaziyatda har qanday rejissor ham ana shu yaxlitlikni hech qanday montaj usuli bilan ham bir tizimga keltirishi qiyin kechadi. Lekin “Saodat” teleserialidagi ssenariyning badiiy asosi mustaxkamligi va akterlar ansamblining to‘g‘ri va o‘rinli tanlanganligi hamda rejissuradagi o‘ziga xos izlanishlarning xosilasi natijasida tomoshabinlar dili va talabiga mos teleasar yuzaga kelganligining guvohi bo‘lish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. X.Abdusamatov. “Drama nazariyasi”. Toshkent. Fan. 2000 y. 138 bet
2. YE.Gabrilovich. “Kino i literatura” Moskva 1965 yil
3. Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, - 2020, N4. P. 84-93
4. Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Colloquium-jurnal, - Warszawa, - 2018, N4. P. 4-6

---

<sup>4</sup> Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, – 2020, N4. P. 86

## EKRAN ASARI G'UYAVIY YECHIMINI AKS ETTIRISHDAGI REJISSORLIK IZLANISHLAR

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna  
kaf-tvrej@mail.ru  
O'zDSMI

**Annotatsiya:** Maqolada teleseriallarning tarkibiy tuzilmasi va undagi dramaturgik yechim hamda ssenariynavis va rejissorning ijodiy hamkorligi masalalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** videofilm, telerejissura, ekran, telekamera, montaj, ekspozitsiya, rejissor, aktyor, teletomoshabin, ekranlashtirish

## DIRECTING RESEARCH IN DEPICTING IDEOLOGICAL DENOUTMENT OF SCREEN WORKS

Fayziyeva Feruza Xojimurodovna  
kaf-tvrej@mail.ru  
UzSIAC

**Abstract:** The article deals with the morphology of television series and creative cooperation between the author of the script and the director

**Keywords:** Video films, TV directing, screen, TV camera editing exposition, directing actor TV audience screening

Bugungi kundagi teleekranlarni telesseriallarsiz tasavvur qilib boʻlmay qoldi. Har bir kanalda kamida ikkita milliy serial namoyish etilmoqda. Turk va koreys seriallarini-ku aytmasa ham boʻladi. Seriallar namoyish eitlyaptimi, demak tomoshabinda bunga extiyoj mavjud. Zero, mazkur sanʼat turi “zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitda mustahkam joy egallab, muntazam oʻziga qiziqish uygʻotib kelmoqda”<sup>5</sup>.

Odatda teleserial ssenariysi oʻzida dramatik, epik lirik janrlarni uygʻunlashtirish imkoniga ega. “Film ssenariysining kompozitsion qurilmasi shakllantirilar ekan, avvalo uning janri aniqlab olinishi kerak. Chunki janr hikoyaning qay yoʻsinda tomoshabinga yetkazilishini hal qiladi”<sup>6</sup>. Ularning dramatik qurilishi va

<sup>5</sup> Савельева Е.Н. Искусство кино. – Томск: Томский университет, 2013. С. 2.

<sup>6</sup> Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, – 2020, N4. P. 86



kompozitsiyasi mahsulotning mazmunini ro'yobga chiqishi, syujetni harakatga keltirib, xarakterlarni o'z-o'zidan ochilishini ta'minlaydi.

Ssenariy muallifi teleserial ssenariy ustida ish olib borayotganida syujet liniyasini epizodlar bog'laydi. Masalan, rejissor Ergash Mo'minov va ssenariy muallifi Surayyo Xoshimovanning "Bedor tuyg'ular" teleseriali o'zining gumanistik g'oyasi, hayotiy obrazlari, o'tkir dramatik kolliziyalari bilan teletomoshabinni qiziqtiradi. Bu asarni ixcham sig'imli kompozitsiyasi dramatik voqealarni birlashtirib, ssenariy muallifi fikrini sodda va ravon, badiiy formada ochilishi uchun xizmat qiladi. Teleserial qahramonlarini lirik kayfiyati ham, kulgu uyg'otuvchi hatti-harakatlari ham ularni murakkab psixologik holatlari ham yurak iztiroblari ham ixcham saxnalarda tasvirlangan. Undagi qahramonlarning xarakteri, tipajlari hamda ularning xarakati ushbu filmlarning g'oyasini va ichki ruxiyatini to'liq namoyon etgan.

Ushbu film yosh tamoshabinlarga mo'ljallangan sentimental melodrama janridagi filmdir. Rejissor E.Mo'minovdan boshqa kinoijodkorlarga nisbatan boshqacharok ijod namunasini kutish tabiiy. Ssenariy muallifi S.Xoshimova va kinorejissor E.Mo'minov hamkorligida xox xususiy xox davlat buyurmasi asosida yaratilgan ko'pgina badiiy saviyasi baland, professional yondoshuvga ega filmlar sanaladi. E.Mo'minovning bugungi kunga qadar yaratgan televizion filmlari televizion kino san'atining nufuzini ko'tarishga xizmat qilgan. Taqdim etilgan "Bedor tuyg'ular" serialini ham avvalgi filmlar taassuroti ostida, ularning tajribalari va ijodiy imkoniyatlarini bilgan xolda tomosha qilgan tomoshabin kutgan natijani ko'rdi, desak mubolag'a bo'lmas. "Bedor tuyg'ular" filmi yoshlarbop bo'lgan. Aslida E.Mo'minov har bir sahna ko'rinishini sinchkovlik bilan amalga oshiradi. Uning ijod maxsuli ekranda o'zining mustaqil xayotini faoliyatini boshlagach tomoshabin kutganidek bo'lmagan kutilmaganidan ziyod "Bedor tuyg'ular" filmida tomoshabinlardan ko'ra mutaxassislar ko'proq munosabat bildirdi. Film g'oyasini S.Xoshimovaga tegishli. Bu ikki ijodkor bir biri bilan uyg'un xolda faoliyat yuritadi. E.Mo'minov ko'proq mualliflik filmlari ustida ishlaydi. Shuning uchun ishi bir biriga o'xshamaydi.

Asardagi voqelikni amalga oshirishda hatti harakatlar katta ahamiyat kasb etadi. "Filmning so'zga emas aynan harakat va obrazlarning yuz-ko'z tasvirlariga qurilganligi asarning badiiy qiymatini oshiradi"<sup>7</sup>. Chunki xatti harakat orqali qahramonning maqsadga yo'naltirish hamda berilgan shart-sharoitdagi ruhiy va jismon holatini aks ettirish imkoniyati yaratiladi. Bunda rejissor aktyor bilan ishlash jarayonida saxna va mezansaxnalarga e'tibori kuchayadi, voqealar rivojida aktyorga to'g'ri vazifa qo'ya olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek tomoshabinda

<sup>7</sup> Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Colloquium-jurnal, – Warszawa, – 2018, N4. P. 6

qahramonning xatti harakatlarini kuzatish orqali voqealar rivojini ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi. Qahramonning xolati, uning ruxiyatida yuzaga kelayotgan kurashlar ana shu bo'g'inda yuzaga keladi. Ssenariydagi tugun esa undagi voqealarning kuchayib borayotganidan darak beradi. Bunda qahramonlar asarning g'oyasini ochishga xizmat qiluvchi muhitda birlashadi. Ssenariydagi asosiy bo'g'inlardan biri tugun -kulminatsiya asarning asosiy ziddiyati ya'ni konfliktning yuzaga kelish lahzi xisoblanib xatti-harakat, voqea va hodisalarning eng kuchaygan konfliktning nihoyatda o'tkirlashgan lahzi xisoblanadi. Tugun-konfliktni ilk marotaba ro'yobga chiqishi va syujetning rivojlana boshlashiga turtki bo'ladi. U bevosita ekspozitsiyadan o'sib chiqadi. Qahramon taqdiriga qiziqish ortadi. Personajlarni kolliziya maydoniga yetaklaydi. Ziddiyatlarni kurash zaminida xal qilinishiga omil bo'ladi. Masalan ssenariy muallifi R.Raldugina va rejissor M.Xamrayeva hamkorligi mahsuli bo'lgan "Yodgor" teleserialidagi voqealarning parallel tarzda rivojlanishi hamda retro shaklidagi lavhalarning o'rin olishi asarning tomoshabopligini ta'minlashi birobarida ichki kollizilarning kuchayishiga sabab bo'lgan. Serial qahramoni Yodgorning murakkab taqdiri, uning xolasi bilan bo'ladigan uchrashuvidagi xolatlar, onasining o'gay ekanligini bilganidagi ruxiy iztiroblari asarning kulminatsion nuqtasi xisoblanadi. Serial sportchi yoshlarning hayotidan xikoch qiladi. Undagi rollarga rejissor mahoratli aktyorlar bilan bir qatorda yosh akter va aktrisalarni ham taklif qilgan. Tajribali akterlarning sayi harakatlari yoshlarga tayanch bo'lgan. Shningdek rejissor akterlarning har biriga to'g'ri vazifa berolgani uning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilgan.

Odatda yechim barcha asarlarning yakunida bo'ladi. Lekin bu jarayon ekran asarlarida ba'zan boshida ham berilishi va tomoshabinni keyin voqeaning ichiga olib kirishi mumkin. Yechim - asar konfliktining hal bo'lish lahzi xisoblanadi. "Yodgor" teleserialiga ham rejissor nihoyatda ziyraklik bilan o'ziga xos tarzda yechim topolgan. Bir qarashda qahramonlarning tabiatidagi yoshlarga xos jo'shqinlik, cho'rtkesarlik va biroz qaysarlik kabi unsurlar bo'lishiga qaramay hammasiga xos umumiy jihat u ham bo'lsa yoshlarning ko'nglidagi pok tuyg'ularini avaylashi va unga ota- onasining hayrixoxligi hamda yoshlarning munosabatiga xurmat bilan qarashida aks etadi. Asarlarning yakuni ya'ni finalida undagi asosiy konflikt yechimini topgandan keyin qahramonlar yangi maqom, yangi o'rinlarini o'zida aks ettirgan hissiy mazmundor xulosaga kelishi nazarda tutiladi.

Shu o'rinda yana bir teleserial xususida to'htalish joiz. Rejissor D.To'laganovanning "Sevgi" teleseriali 20 qismdan iborat bo'lib u biografik shaklda yaratilgan. Sevgi ismli qizning bolaligidan to'ulg'ayib hayotda o'zining o'rniga ega bo'lishi, zamonaviy tadbirkor ayol darajasigacha ko'tarilgunicha bosib o'tgan hayot yo'li, turmushidagi mashaqqatlarning yengishidagi qiyinchiliklar nihoyatda hayotiy, ortiqcha badiiy bo'yoqlarsiz, tomoshabinga ishonarli tarzda yetkazishga harakat

qilingan. Kompozitsion qurilishida ham Rejissor teleasardagi konfliktlarni nihoyatda mohirona ko'rsatishga harakat qilgan. Ba'zag teleseriallarda qahramonlar obrazini yaratishda biryoqlamalikka og'ish, sayoz, zamiri bo'sh dramaturgiya, yuzakilikka moyillikni ayrim teleseriallarda uchratish mumkin. Bu o'rinda ssenariy muallifi va rejissordan kinoning badiiy mezonlariga asoslanishi, obrazlarning ham g'oyaviy yetukligi, oliy maqsadning tomoshabinga yetkazilishidagi izlanishlar, dramaturgik jihatidan pishiq, puxtaligi, rejissurasi va aktyorlar ijrosida mukammallik talab qilinish barobariga hamda yuqori saviya, har tomonlama ekran san'ati qoidalariga rioya qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ekan teleseriallarning yaratilishidagi asosiy mas'uliyat baribir rejissorlar zimmasiga yuklatiladi. Tomoshabin ekrn asarlarini o'z psixologiyasi, dunyokarashi, biologik kobiliyatiga ko'ra kabul kiladi. Kingadir asar muallifning uslubi, chekinishlari, so'z o'yini, mantik kuchi muxim bo'lsa, kimlar uning mavzusi va obrazlaridan ozuka axtaradi. Ssenariyda kolliziya keskinlashgan vaqtda teleserialda konflikt ishlatiladi. Konflikt ko'proq keskin dramatik syujetli voqealarda ishlatiladi. Masalan, "Mehmonjonlardan aylanay" teleserialidagi qahramonlar to'qnashuvida keskin konflikt kelib chiqadi. Konflikt asar voqealarini harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Konflikt muallifni maqsadini oldiga qo'ygan vazifasini, tomonlarini o'zaro aloqalar kurashini ifoda etadi.

"Zero, har bir film, garchi u qaysi bir janrda suratga olingan bo'lmasin, o'zida davr nafasini aks ettiradi. Qolaversa, har bir kartina davrimizning eng muhim voqealari-yu, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jabhalarda kechayotgan ulkan islohotlarning o'ziga xos in'ikosidir".<sup>8</sup>

Ssenariy kompozitsiyani o'rganish uchun avvalo kino san'atini montaj tabiatini o'rganish maqsadga muvofiq. Shunda rejissor syomka jarayonida ham uni qanday montaj qilishi, kadrдан kadrğa o'tishdagi detallarni ham inobatga olishi zarur bo'ladi. Undagi voqealarni tuzilishi, rivojlanishi ashyolar, makon va zamon va ularning ko'lamini bilishi montaj davrida juda asqotadi..

Kompozitsion jihatdan mukammal ssenariylarni o'qigandayoq rejissor voqealarni ko'rish va eshita oladi, tasavvur qiladi. Teleseriallar uchun ssenariy yozilarkan unda muallifga, g'oyaviy mazmunni ochish uchun ekran vaqti va kenglik zarur bo'ladi. Teletomoshabin ko'ngliga haqiqiy yo'l topish uchun, teleserial tabiatining o'ziga xosligini his qilish uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biridir. Buning uchun syomkadan avval kadr kompozitsiyasi tasavvuriga ega bo'lish hamda sahna, va epizod zarur. Misol uchun ko'p seriallarda kompozitsiyani belgilaydigan elementlariga ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, voqealarning takrorlanishi, kulminatsiya, fojea, tugun, prolog va epilog, qoliplash kiradi.

<sup>8</sup> Узбекистон ҳужжатли киноси. Ш.Муродова. Т.: 2008. – Б. 4.

Ssenariy kompozitsiyasi - syomkaga tayyorgarlik ko'rish chog'idayoq rejissor ssenariysida aks ettiriladi va unga ijodiy jarayonga tayyorgarlik ko'rish birobarida puxta texnik tayyorgarlik ham talab etiladi

Teleseriallarni tomosha qilar ekanmiz insonlarning dunyoqarashi tabiati to'g'risida fikr yuritimiz, muloxaza qilamiz mushohada qilamiz. Bunday san'at asarlari orqali o'zligimizni yana bir bor teranroq anglay boshlaymiz. San'at muxim tarbiya vositasi deb ataladi. Kino san'ati Shunday ekan, bu soha namunalarini yaratuvchi ijodkorlar keng dunyoqarashli, o'z sohasining ustasi bo'lib xar tomonlama tarbiya topsagina ular mehnatlari samarasi bexuda ketmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B. Axmedov "Pod znakom kino", -T.: "Akademiya", 2005 y.
2. Basov V. "Rejissor na TV". -M.: "Iskusstvo", 1978 g.
3. Nemirovich - Danchenko V.I. "Iz proshlogo". "Asademia". 1936 g.
- 4 Kler R. "Kino vchera, kino segodnya". -M.: "Progress", 1981 g.
5. Kasimova, N. Genre variety and features of compositional forming of Uzbek short films. Central Asian Journal of Art Studies. Almati, - 2020, N4. P. 84-93
6. Kasimova, N. Expressing peculiar views in Uzbek short films in the XXI century. Collequem-jpurnal, - Warszawa, - 2018, N4. P. 4-6

## O'ZBEK MILLIY ETNO-LIBOSLARI TARIXIGA BIR NAZAR

Mirzaeva Shaxrinsa  
Asqarova Munajat Husanovna  
O'zDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy liboslari tarixi haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Libos, urf-odat, milliylik, hunarmand, marosimlar.

## A LOOK AT THE HISTORY OF UZBEK NATIONAL ETHNO-CLOTHES

Mirzaeva Shaxrinsa  
Askarova Munajat Husanovna  
Fergana regional branch of Uzbekistan State Medical Institute

**Abstract:** This article tells the story of the history of Uzbek national costumes.

**Keywords:** Clothing, customs, nationality, crafts, ceremonies.

Odamning shakl-u shamoyili, bo'y-basti, ko'rinishi, jussasi, tusi, ko'z qarashlari, ovozi, tarovati, xullas, ichki va tashqi dunyosi u tavallud topgan, unib-o'sgan va kamolotga yetgan joyga monand bo'ladi. Yetti iqlim kishilari yetti xildir. Demak, odam o'z vatanining bir zarrasidir. Bizning har birimiz o'z yurtimizning bir zarrasimiz. Biz qayerda bo'lmaylik, o'zbekligimizni o'z tashqi qiyofamiz, so'zimiz bilan ifoda etamiz. Shunday ekan, bizning kiyinish madaniyatimiz ma'naviyatimiz ko'zgusidir.

O'zbek xalqining o'tmishdagi kiyim-kechaklari bilan bog'liq ma'lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob miniatyuralari beradi. O'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining o'ziga xos uslubi, ya'ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini ko'rsatuvchi noyob namunalardir. Xalqning kiyim-kechaklaridagi o'zgarishlar, asosan, XX asr boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo'ladi va undagi transformasiya, asosan, shaharlarda ochiq ko'zga tashlanadi.

An'anaviy o'zbek libosi asosan, ustki ko'ylak, ishton va chopondan, boshga do'ppi, oyoqqa mahsi-kalish yoki etikdan iborat bo'lgan. Erkak-ayol va bolalar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz, yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani 2 ga buklab yelka tomoniga ko'ndalangga 2 yeng bilan

bir parcha to'rt burchak xishtak (qo'ltig'iga solingan)ni tikib qo'yilavergan. Erkaklarning an'anaviy yaktak ko'ylagi uzunligi tizzagacha, ayollar va qizlarniki to'pig'igacha bo'lgan. Farg'ona vodiysida yaktak xildagi erkaklar ko'ylagining qiyiq joyi vertikaliga (yirmochi) belgacha etsa, yana bir turining yirmochisi gorizontal holda bir egnidan ikkinchisiga qiyib cho'zilgan. Har ikki turda ham uzunasiga yoqa o'rnatilgan.

Toshkent va Farg'ona vodiysi aholisining turmush tarzi va tartibi, kiyimlari, bir-biridan deyarli farqlanmagan. Toshkent va Farg'ona vodiysida an'anaviy milliy kiyimlar aholining turli toifasi ijtimoiy holatini bildirib turgan. Chunonchi, Toshkent, Farg'ona vodiysi hunarmandlarining kiyimi, mahalliy ziyolilarning kiyimi: jadidlar, mullalar va diniy tabaqa kishilari-masjid imomi, so'fi, darvishlar kiyimi va boshqalar. Toshkent va Farg'ona vodiysi aholisining kiyinish madaniyati va uslubi badiiy adabiyotlar, xususan A.Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi asrlarida inson ruhiyati bilan bog'lab ko'rsatib o'tilgan.

Urf-odat yoki marosim kiyimlari: to'y, o'g'il bolalarning sunnat to'yida kiyadigan kiyimi, dafn marosimi kiyimlari, yodga olish marosimlari kiyimlari. Kiyimlar jins belgisi bo'yicha - erkaklar, ayollar kiyimlari, yosh belgisi bo'yicha - yosh kelinchaklar, kuyovlar, o'rta yoshdagi erkaklar va ayollar, keksalar va bolalar kiyimlariga bo'linadi. Ular boshqa mintaqalar kiyimlaridan ranglarining sokinligi bilan ajralib turadi. Farg'ona vodiysi va Toshkent kiyimlarida qora va yashil ranglar ko'proq ishlatilgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi va Toshkent O'zbekiston Respublikasining boy mintaqalari qatoriga kiradi. Ular qadimiy Ipak yo'lida asosiy bo'g'in hisoblangan.

Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an'anaviy o'zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adras) gazlamalardan tikilgan turfa kiyimlar boy-badavlat kishilar orasida rasm bo'lgan. Quyida mana shu matolarning ayrimlariga ta'rif beramiz.

Beqasam - yo'l-yo'l gazmol bo'lib undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to'nlar, ko'rpa-ko'rpachalar tikishda foydalanilgan.

Banoras - beqasamdan rang turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi bo'lmish paranji tikilgan.

Parpasha - beqasamdan qalinroq mato bo'lib, u paranji, shuningdek, chopon tikishda ishlatilgan.

Adras - abr iplar bilan gul solingan nimshoyi gazmol. Shuningdek, kanovuz, shoyi, xonatlas, guldor kimxob, duxoba kabilar ham keng qo'llanilgan.

Shoyi va nimshoyi matolar - beqasam, adras, yakruyo, kaltak shoyi, tovlanma shoyi, abrshoyi turli-tuman gullar solingan.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga Rusiyadan ip gazlama va boshqa matolarning keltirilishi sababli XIX asr oxiri va XX asr boshida mahalliy aholi

orasida asosan fabrikada tayyorlangan ip gazlamalar: chit, bo‘z, xom surpdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo‘lgan. boy-badavlat kishilar esa kimxob, ipak, atlas, duxoba, rang-barang movutlarni sotib ola boshlaganlar. SHunga qaramay, kosiblar dastgoxidan chiqqan mahalliy gazlama: mato, bo‘z, nimshoyi kabi gazmollar (adras, beqasam, podshoi, kimxob, xonatlas, katakshoyi kabilar)ning turli xillariga ehtiyoj katta bo‘lgan.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqi o‘zining milliy marosimlarida alohida kiyinadi. Nikoy yoki xatna to‘yida kelin-kuyovlar liboslari, to‘y bola kiyadigan liboslarga bo‘linadi.

Ayollarning milliy liboslari ichki, ustki va kishilik kiyimdan iborat bo‘lgan. ustki kiyimlar - kamzul, engil xalat (mursak, kaltacha), engsiz nimchalardir. Paranji ham ayollarning ustki kiyimi sanalib, u to‘n va ichidan qora ot yolidan ishlangan chachvondan iborat. XX asrning 30-yillarigacha shaharlik o‘zbek ayollarparanji yopinganlar. Paranji soxta engli, to‘nsimon, uzun yopinchiqdan iborat bo‘lib, otning dum qilidan to‘qilgan to‘n parda - chachvon betga tutilib, ustiga paranji yopilgan. CHachvon yuzni berkitib, belgacha etgan. Odatda, paranji uydan ko‘chaga chiqqanda yopinilgan. Qishloq joylarda paranji kam ishlatilgan, uni bayramlarda va uzoq safarga chiqilgandagina yopinganlar.

O‘zbek ayollarining bosh kiyimlari ham turlichadir. Xususan, ro‘mol, peshonabog‘, do‘ppilar ular sirasiga kirib, ularning har biri o‘ziga xos matodan, rang-barang ip-ipaklardan to‘qilgan, tikilgan. Ayollar poyabzali - mahsi, kavush, kalish kabilar ko‘n yoki rezinadan (so‘nggi asrlarda chetdan kirib kelgan) ishlangan.

Zeb-ziynatlar ayollar kiyim-kechagining tarkibiy qismi sanaladi. Ular orasida sochga taqiladigan shokilali marjon-munchoqlar, popuklar, tangalar, qadama bezaklar, gajimlar, zalvorli kumush ziynatlar, ikki chakkaga va quloqqa taqiladigan peshonaband, tillaqosh, zulf, shokilador ziraklar, isirg‘a va buoqilarni sanab ko‘rsatish mumkin. SHu bilan birga bo‘yin va ko‘krakka taqiladigan marvaridlar, zebigardon, tumor va boshqalar, qo‘lga va barmoqlarga taqiladigan bilakuzuk, uzuklar, kiyim ustidan taqiladigan xilma-xil tugma, marjon, tumorlar, bosh kiyimga qadaladigan ukpar, jilg‘a kabilar keng tarqalgan.

Ayollarning o‘ziga xos chopon shaklida bichib tikilgan ust kiyimi - mursak ilgari juda keng tarqalgan. Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda engi tirsakkacha kalta va kengligi bilan, Samarqand va Toshkentda uzun, engsiz, bilakkacha bo‘lgan engi bilan farqlangan. Mursak astarli qavima qilib tikilgan, qishki mursakka esa paxta solingan. O‘tgan asrning boshlarigacha u oddiy ko‘chalik libosi sifatida kiyilgan bo‘lsa, keyinchalik mursak motam libosi sifatida belbog‘ bilan kiyilgan. Ayrim ayollar uni to‘yga yoki mehmonga borganda ham kiyganlar. Hozirgacha Toshkentda mursakni dafn marosimida tobut ustiga yopadilar.

O'zbekistonning turli mintaqalaridagi liboslar bir-biridan farq qiladi. SHu ma'noda o'zbek liboslarini quyidagi mintaqalarga bo'linadi: Toshkent-Farg'ona, Buxoro-Samarqand, Qashqadaryo-Surxondaryo.

Bugungi kun zamonaviy o'zbek liboslari shaklan katta o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, an'anaviy bichim yangi ko'rinishlarda yashashda davom etmoqda. Ayniqsa mustaqillik yillarida milliy xunarmandchilikka bo'lgan e'tiborning kuchayishi milliy mato to'quvchiligining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada milliy matolardan turli bichim va shaklda tikilgan liboslar kundalik va bashang liboslar qatoridan o'rin olib, an'ana va qadriyatlar asrlar osha yashab qolishini yana bir bor tasdiqladi.

Hozirgi kunda kiyinish madaniyati-ma'naviyatimizni aks ettiruvchi omillardan biri hisoblanib, yoshlarning, ayniqsa, qizlarning kiyinish madaniyati ko'pchilik e'tiborida. Shunday ekan, ularning qalbida milliy urf-odat, an'analarga mexr uyg'otish, qizlarni "zamonaviy" deb atalmish ochiq-sochiq kiyinishdan asrash, ya'ni kiyinish odobiga rioya qilishga o'rgatish, ularning estetik didini o'stirish dolzarb mavzulardan xisoblanadi. Milliy liboslarimizni qadrlash va targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'ng'ich qizi Saida Mirziyoyeva o'zbek va qoraqalpoq tarixiga oid an'anaviy milliy etno-liboslarda tushgan fotolavhalarini namoyish etdi.

Milliy libosimizda xalqimizning ming asrlik o'tmishi, qadimiy urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek o'ziga xos xususiyatlari mujassam. Milliy liboslarimizda yoshlarga xos ibo va hayo aks etgan. Ayniqsa, ayollarimizning milliy liboslari masalasida biz xech ikkilanmasdan o'z milliylik xususiyatlarimizni targ'ib etishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

2. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.

3. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.

4. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.



5. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

6. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.

7. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 12-17.

8. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. *Перекрёсток культуры*, 1(4).

9. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

10. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 25-28.

11. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.

12. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

13. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий муסיқий ижрочилик санъатига бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.

14. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.

15. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

16. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 117-119.

17. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In *Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015* (pp. 318-316).

18. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.

19. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА

ҚЎШГАН ҲИССАСИ (19411945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.

20. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.

21. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.

22. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

23. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 50-54.

24. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

25. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 113-115.

26. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. *Oriental Art and Culture*, (V).

27. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. *Oriental Art and Culture*, (V).

28. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 90-96.

29. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.

30. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.

31. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. *An International Multidisciplinary Research Journal. An International Multidisciplinary Research Journal*.

32. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

33. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.

34. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.

35. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR

QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.

36. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.

37. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

## ЎЗБЕК ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИДА ИЖРОЧИЛИК ТАРИХИ

Есанов Музаббар Омарович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали

**Аннотация:** Ўрта аср мусиқа ижрочилиги маданиятининг ўзига хос хусусиятларидан бири шунда эдики, чолғучилар нафақат бир неча турдаги мусиқа асбобларини чала олган, балки ўзлари ҳам мусиқа басталаганлар. Чолғучилар ўз даврининг етук мусиқачилари ва шоирлари ҳам бўлишган. Ўрта аср шароитида мусиқий ихтисослашув махсус мусиқий устахоналарнинг пайдо бўлишига олиб келди. Бу ерда устоз-шогирд анъаналари қарор топди ва ривожланди.

**Калит сўзлар:** Мақом, мусиқа, чолғу, асбоб, дойра, най, сурнай, танбур, дутор, рубоб, ғижжак, қўбиз

## HISTORY PERFORMANCE ON UZBEK FOLK INSTRUMENTS

Esanov Muzabbar Omarovich

Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** One of the peculiarities of the culture of medieval music performance was that the musicians not only played several types of musical instruments, but also composed music themselves. The musicians were also mature musicians and poets of their time. In the Middle Ages, musical specialization led to the emergence of specialized music workshops. Here the teacher-student tradition was settled and developed.

**Keywords:** Maqom, music, instrument, instrument, doyra, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, gijjak, kobiz

Халқ чолғулари узоқ ўтмишда пайдо бўлган. Маълумотларга қараганда, дастлабки мусиқа чолғулари эраиздан аввалги XIII минг йилликда дунёга келган, деб тахмин қилинмоқда. Мусиқачиликда дастлаб урма зарбли чолғулар пайдо бўлган. Чунки энг қадимги меҳнат кўшиқлари ишнинг ритмик тузилиши билан бевосита боғлиқ бўлган.

Ундан кейин шовқинли чолғулар пайдо бўлди, ижрочилар қарсак чалиб ритми таъкидлаган, шовқинли чолғулар таъсирини кўпайтирганлар. Ижрочи аёлларнинг чапак зарблари ўзига хос, такрорланмас гўзал ҳолатни вужудга келтирар эди.

Қадимги шарқ маданияти бағрида, ўзбек халқ чолғулари шаклланди. Улар

кўп асрлик тараққиёт давомида ўзига хос хусусиятларни, товуш тусини сақлаб қолди. ўзига хос тузилиши туфайли, най, сурнай, танбур, дутор, рубоб, ғижжак, қўбизлар анъанавий шаклларда бизгача етиб келди.

Қулдорлик тузими даврида Мароқанд, Нисо, Тупроққалъа, Термиз ва бошқа шаҳарлар мавжуд эди. Ушбу шаҳарлар ҳудудида олиб борилган қазилма ишлар чоғида бадиий ҳунармандчилик буюмлари, турли хил чолғуларининг тасвирлари топилди. Қулдорлик жамияти Ўрта Осиё халқлари маданияти ривожига муҳим босқич бўлди. Халқ мусиқаси янада юксалиши билан бирга, чолғулар ҳам такомиллашди.[1.Б.140]

Асримизнинг 30-40-йилларида уюштирилган археологик экспедициялар (С.Л.Толстов, В.А.Вяткин, М.Б.Массон ва бошқалар раҳбарлигида) натижасида қимматли маълумотларга эга бўлинди. Топилган маданий ёдгорликларда турли хил мусиқа асбоблари: танбур, рубобсимон чолғу, қонун, уд, най, сурнай, карнай, доирасимон чолғулар чалаётган машшоклар тасвирланган.

Халқ чолғулари Ўрта Осиё аҳолисининг турмуши ва меҳнат фаолиятининг ажралмас таркибий қисмига айланди. Чолғулар жўрлигида кўшиқ, ўйин ва куйлар халқнинг катта-катта маросимлари ва оилавий байрамларида ижро этилгани бизга маълум. Байрамлар кўпроқ йил фасллари билан боғлиқ бўлган. Ўрта Осиёда «Наврўз», «Лола сайли», «Хосил байрами», «Қовун сайли», «Узум сайли» каби мавсумий байрамлар кенг тарқалган. Бундай оммавий байрамларни халқ чолғу ансамбллари, хонанда ва созандалар ҳамда раққосаларсиз тасаввур қилиш қийин. Байрамларда, маданий маросимларда айниқса карнай, сурнай, доира, ноғора ва урма зарблери мусиқа чолғулари кенг қўлланилган.

IX аср охирида Сомонийлар маҳаллий феодал сулоласи Ўрта Осиёнинг каттагина қисмини бирлаштиришга муваффақ бўлди. Сомонийлар давлатининг пойтахти Бухоро йирик маданий марказга айланди. Бу ерда адабиёт ва мусиқа тараққий этди. Ҳаёт шароитининг ўзгариши туфайли мусиқа санъатининг ижтимоий аҳамияти ошди. Шаҳарликлар ва юқори табақа синфлари турмушида мусиқанинг роли сезиларли кучайди. Ўша пайтлардаёқ яққанавоз, ансамбль мусиқачилиги ва рақсни ўз ичига олган вокал чолғу мусиқа туркумлари мавжуд эди.[2.Б.360]

Ўрта аср мусиқа ижрочилиги маданиятининг ўзига хос хусусиятларидан бири шунда эдики, чолғучилар нафақат бир неча турдаги мусиқа асбобларини чала олган, балки ўзлари ҳам мусиқа басталаганлар. Чолғучилар ўз даврининг етук мусиқачилари ва шоирлари ҳам бўлишган. Ўрта аср шароитида мусиқий ихтисослашув махсус мусиқий устахоналарнинг пайдо бўлишига олиб келди. Бу ерда устоз-шогирд анъаналари қарор топди ва ривожланди. Айни шу пайтда ансамбль ижрочилиги такомиллашди, мусиқа санъатининг асосий кўринишлари шаклланиб чолғу асбобларининг янги намуналари кашф этилди.

Шарқ олимларининг назарий қарашлари мавжуд ижрочилик санъати тажрибаси асосида шаклланган бўлиб, улар ўз рисолаларида мусиқанинг жамиятда тутган ўрни ва аҳамияти ҳақида атрофлича маълумот берганлар.

Форобийнинг (873-950) "Катта мусиқа китоби" ("Китоб ал-мусиқа ал-кабр"), ибн Синонинг (980-1037) "Даволаш китоби" ("Китоби уш-шифо") қомусидаги "Мусиқа ҳақидаги рисола", ал-Хоразмийнинг (X аср) "Билимлар калити", Сайфуддин Урмовийнинг (1216-1294) "Олижаноблик ҳақида китоби" ёки "Шарофия китоби", Жомийнинг (1414-1492) "Мусиқа ҳақидаги рисола" китобларида мусиқа ижрочилиги ва халқ чолғулари ҳақида муҳим маълумотлар баён этилган. Сайфуддин Урмавий истеъдодли уд чолғучиси, хонанда, машҳур созанда сифатида танилган. У Озарбайжоннинг Урмавия шаҳрида туғилган. Сайфуддиннинг энг катта ютуғи лад (модиус)ларнинг мукамал системасини ишлаб чиққанлигидадир. Ибн Зайлининг (1044 йилда вафот этган) "Мусиқа ҳақидаги тўлиқ китоб"и ("Китоб ул-кабир фил-мусиқий") унинг мусиқа илмидаги ягона ва бебаҳо китобидир. У янги усулни - мусиқада ладларни харфлар билан ифодалаш усулини ишлаб чиқди. Абдуқодир Мароғий (XV аср), Абдуқодир ибн-Ройибий (Мароғий) Озарбайжоннинг Мароғ шаҳрида туғилган, лекин ҳаётининг иккинчи ярми Темур саройида-Самарқандда ўтган ва Ҳиротда вафот этган. "Мусиқа илмида оҳанглар тўплами" ("Жами ал-алҳан фи-илм ал-мусиқий") рисоласида мусиқа ҳақидаги таълимотни-камонча, етти торли ғижжак каби бир турдаги мусиқа чолғуси борлиги ҳақидаги маълумотлар билан бойитди. Ал-Хусайннинг (XV аср) "Мусиқий канонлар" рисоласида асосан Ўрта Осиё халқлари орасида кенг тарқалган икки торли мусиқа чолғуси-дуптор ҳақида маълумот берилган. Қутбиддин аш-Шерозий (1236-1310) Эронлик мусиқа назариётчиси сифатида танилган бўлиб, ўз рисоласида камончали танбур ҳақида ибратли мулоҳазалар билдирган ҳамда инсон овозини мусиқа асбоблари ичида энг ёқимлиси деб ҳисоблаган. XVII асрда яшаган бухоролик мусиқашунос Дарвиш Али ўз рисоласида танбур, чанг, қонун, рубоб, кўбиз, ғижжак каби мусиқа чолғулари ҳақида батафсил маълумотлар берган.

Буюк Шарқ мутафаккирларининг мероси халқ чолғуларини ўрганиш соҳасида ҳам тарихий қийматга эга. Абу Наср Муҳаммад Форобийнинг машҳур асари «Китоб ал - мусиқа ал -кабир» («Мусиқа ҳақида катта китоб») улкан аҳамиятга эга. Ўрта аср олими бу китобида икки хил мусиқа ижрочилиги: оҳангни инсон овози (кўшиқ санъати) ва чолғулар воситаларида қайта тиклашга ажратади. Форобий моҳир ижрочи сифатида мусиқа чолғуларининг жамият ҳаётидаги ролини ўрганишга аҳамият беради ва у: «... Жангу - жадалларда, рақсларда, тўй - томошаларда, кўнгил очар базмларда ҳамда ишқ - муҳаббат кўшиқларини куйлашда чалинадиган ўзига хос чолғулар бор» деб ёзган эди. [3.Б.111]

Форобийнинг юқоридаги фикри чолғуларнинг нафақат сарой аъёнлари, балки шаҳар ва қишлоқ аҳолиси, хунурмандлар орасида шунингдек, мусиқа маданиятида етакчи роль ўйнаганлигини исботлайди.

Китобнинг иккинчи қисми бошдан-охир ўша давр мусиқа чолғуларига бағишланган. Унда лютня, танбур, най, рубоб, чанг, қонун ва бошқа мусиқа чолғулари изчил ва батафсил таърифланади. Форобий торли, мизробли лютняни ўша даврда энг кенг тарқалган чолғу ҳисоблаган. Лютня ўзига хос мизроб (чертма) воситасида чалинган, дастасида эса лигатура (ладо)лар жойлашган.

IX-X асрларда лютня арабча уд номини олади. Бу чолғу кўпгина Шарқ мамлакатларида, Кавказ орти халқлари орасида ҳозирги кунгача сақланиб келяпти. Замонавий уд намуналари Тошкент Давлат консерваториясининг соҳавий-тажрибавий синовхонасида мавжуд.

«Мусиқа ҳақидаги катта китоб»да Форобий яна бир чолғу асбоби-танбурни ҳам таърифлайди. Олимнинг фикрича, танбур (дилни тирнаш) удга энг яқин турдаги чолғулардан биридир.

Танбурда торлар нохун (металдан ясалган махсус чертмак-тирноқ) ёрдамида чертилади. Танбур худди уд каби кенг тарқалган ва халқ севган чолғудир. Танбурнинг икки ёки уч жез тори бўлган. Унинг икки тури маълум: Хуросон ва Бағдод танбурлари. Бағдод танбурларининг мақомлари камроқ (бешта), чолғу дастаси калтароқ бўлган. Хуросон танбурининг мақомлари кўп бўлган, дастасида чолғу бўғзидан то дастанинг ярмигача оралиғида пардалар жойлашган. Танбурнинг бу тури шу кунгача ўз шаклини йўқотмай, мусиқа ижрочилиги амалиётида якканавоз ҳамда ансамбль чолғуси сифатида амалиётда фойдаланиб келиняпти.

Форобий, шунингдек, найни ҳам таърифлайди. У турли хил дамли чолғуларини овоз ҳосил қилиши принципига кўра пайсимон гуруҳга киритади.

Улардан бири оддий най ёки бир йўналишда жойлашган кўп тешикли най. Бу турдаги найлар ёки турлича аталувчи найлар ҳозирги кунда ҳам Шарқ халқлари орасида мавжуд. Уни ветнамликлар сао, тожиклар тутек, татарлар кавал, қозоқлар сибизга, озарбайжонлар ней (жуда кам учрайди), қирғизлар уоо, чоор (чўпонларнинг чолғу асбоби), ўзбеклар най деб атайти. Олим кўпинча тут дарахтидан ишланадиган кенг тарқалган сурнай ҳақида ҳам тўхталади. [4.Б.315]

Форобий, шунингдек, дунай (мизмар)ни ҳам тилга олади. Дунай ҳозирги кўшнаи ёки туркман халқ чолғуси гоша-дилли тўй дуюк (кўш қамиш найчалардан тузилган чолғу)га ўхшайди.

Форобий рисоласида ўзи яшаган даврда мавжуд бўлган рубобни ҳам батафсил таърифлайди. Ўша даврдаги рубоб ҳам ҳозирги Қашқар рубобига ўхшаб, резанатор ва анча узун дастадан тузилган. Икки хил чертма торли рубоб

мавжуд бўлган. 1 ёғоч декали ва асосий қисми ёғочдан, 2 пастки қисми чармдан ишланган декали.

Форобий шаҳодат беришича, чанг очик торларнинг тебраниши орқали оҳанг ҳосил қилувчи мусиқа чолғулари туркумига киради. Ўша даврдаги чангнинг 15 тори бўлган, улар диатоник созланган ва икки октава оралиғига тенг товушқаторга эга бўлган. Рисолада таърифланган барча чолғулар ашула, рақс, якканавоз ва ансамбль ижрочилигига жўр бўлишда фойдаланилган. Форобийнинг гувоҳлик беришича, уд чолғуси ансамбль ижрочилигида етакчи роль ўйнаган. «Чолғу асбоблари ҳақида китоб» да олим танбур, рубоб, чанг каби чолғуларини удда чалинаётган куйга ёки якканавоз хонандага уйғун жўр бўлиш учун созлаш усулларини тушунтиради. Шундай қилиб, Шарқнинг улуғ алломаси мусиқа илмининг бир бўлими сифатида чолғуларни ўрганувчи чолғушунослик соҳасига асос солди.

Яшаган даврига кўра Буёк олим ибн Сино Форобийга жуда яқин. Унинг "Даволаш китоби" деб номланган йирик қомуснинг "Мусиқа ҳақида рисола" бобида ўша даврнинг мусиқачилигига оид илмий-фалсафий билимлари баён этилган. Бу рисолаларда чолғулар таърифига анчагина ўрин ажратилган. Ибн Сино ўз даври мусиқаларини икки гуруҳга бўлади: мизробли, нохунли (барбод, танбур, рубоб) ва бутун резанатор қопқоғи бўйлаб тортилган очик торли чолғулари (шоҳруҳ, чилтор, лира, чанг, арфа).

Ўша даврда Шарқнинг таниқли мутафаккири Сайфиуддин Урмавий мусиқа илми тизими (системасини) ривожлантирди. У уста чолғучи, хонанда ва моҳир бастакор сифатида машҳур эди. Удда олиб борган тажрибаларига таяниб, олим ўз назарий қоидаларини баён этди. Урмавийнинг "Тақвадорлик китоби" да чолғу асбоблари ичида уд энг машҳур ва энг замонавийдир деб таъкидлаганлар. [5.Б.428]

XIII-XVII асрларда яратилган рисолаларда чанг, қонун, нузха, рубоб, танбур каби торли чолғулар, шунингдек, дамли чолғу найнинг таърифлари берилган.

Дарвиш Алининг (XVII асрда) Бухорода яратилган мусиқага доир рисоласи анъанавий чолғулар ҳақидаги маълумот манбаи сифатида хизмат қилиши мумкин. Унда мусиқа маданияти, чунончи, Ўрта Осиёнинг йирик шаҳарларида мавжуд бўлган чолғулар ҳамда моҳир ижрочилар ҳақида нодир маълумотлар мавжуд.

Дарвиш Алининг рисоласи XVI-XVII асрлар Ўрта Осиё мусиқасини ўрганиш учун қимматбаҳо манбадир. Мазкур асарда машҳур хонанда ва чолғучилар, бастакорларнинг ижодий таржимаи ҳоллари баён этилган.

Маълумки, Шарқ адабиётида ўтмишда шоирлар асарларига жавоб ёзиш («назира») системаси кенг қўлланилган. Кўплаб «Хамса» лар ҳам шу йўсинда



яратилган. Навоий ўзининг «Сабъаи сайёр» («Хамса» дostonларининг бири) дostonида Баҳром Гўр ҳақидаги қадимий афсонани, янгича талқин этди. Асар қаҳрамони - чанг чолғучиси Дилором деб аталган. Шоир унинг чолғусини мусиқа тимсоли сифатида гавдалантирган.

XV-XVII аср ёзма ёдгорликлари маълумотларини қиёслаб шундай хулосага келиш мумкинки, бу даврга келиб, Ўрта Осиёда халқ чолғуларида ижролик маданияти ўз камолотига етди. Ўзбек халқ чолғулари ижрочилари айна чоғда ўзлари ҳам мусиқа асарлари яратганлар. Ўша пайтдаёқ моҳир чанг, уд, ғижжак, қонун, най, танбур, буламан ижрочилари ва етук хонандалари бўлган, улар ўзига хос ансамбллар тузишган. Шунингдек, якканавоз ижрочилик ҳам ривожланган.

Восифий ўз «эсталиклар» ида трелдек ажойиб услуб ўйлаб топган қонун чолғучиси Ҳожи Абдулло Марварид номини келтиради. У басталаган куй ва қўшиқлар халқ орасида кенг тарқалган. Шундай қилиб, XIV-XVII аср тасвирий санъатида ва адабий меросида илдизлари узок ўтмишга бориб тақалувчи мусиқа чолғулари асосий типларининг барқарорлигини тасдиқловчи бой материал бўлган. [6.Б.143]

Доира асбоби. Доира - ўзбек, қорақалпоқ, тожик ва уйғур халқлари орасида кенг тарқалган, товуш баландлиги ноаниқ урма чолғу асбоб. Доира гардишига бузоқ ёки балиқ териси қопланади, қирқдан ортиқ халқачалари тақилиб, булар доирани чалганда қўшимча садо беради. Доирада иккита асосий товуш бор. Бири паст "Бум" иккинчиси баланд "бак" деб юритилади. Кетма-кет келган иккита қисқа товуш «бакко» ёки "бакка" ёки "баха" деб юритилади. Доира кенг тарқалган чолғу асбоблардан. Доира ижрочилигидаги рақслар ўзбек ва тожик халқлари орасида жуда кенг тарқалган. Шошмақом доира усулисиз ижро қилинмайди. Бухорода ҳар бир мақом айтувчи ҳофиз мақом усулларини доирада усталик билан ўзлаштирган ва ўз ашулаларига жўр бўлган. Доира товушлари нотада пуфлама ва симфоник оркестрдаги урма чолғу асбоблариникидек бир чизикқа ёзилади.

### **Фойдаланган адабиётлар**

1. Вызго Т., Петросянц А. Узбекский оркестр народных инструментов / Т. Вызго, А. Петросянц. Ташкент: Гос. лит. изд-во. Уз ССР, 1962. - 140 с.
2. Кароматова Ф.М. Узбекская инструментальная музыка / Ф.М. Кароматов. - Ташкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1972. - 360 с.
3. Ковбас М., Лейсек В. в Узбекистане / М. Ковбас, В. Лейсек. // Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. Вып. Т.2. - Ташкент: Изд-во Худ. лит. им. Гафура Гуляма, 1969. - 111 с.

4. Ковбас М. Некоторые вопросы развития музыкального образования в Узбекистане / М. Ковбас // Вопросы истории и теории узбекской советской музыки. Ташкент: Гос. изд. Узбекской ССР, 1976. - 215 с.

5. Кари-Ниязов Т. Очерки культуры Советского Узбекистана / Т. Кари-Ниязов М.: Гос. изд. Узбекской ССР, 1955. - 428 с.

6. Petrosyans A.I. Cholg'ushunoslik 3-nashri. - Toshkent: «San'at», 1990. - 143 b.

## ЎЗБЕК МУСИҚА САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР

Sharipova Odinakhon Shavkatjon kizi  
Najmetdinova Maluda Mamasodikovna  
FarDU

**Аннотация:** Мазкур мақолада ўзбек мусиқа санъатининг ўтмишда ва ҳозирги кунда халқимизнинг маънавий савиясини оширишдаги аҳамияти ҳамда янги Ўзбекистоннинг ижтимоий тараққиётида мусиқа санъати етакчи омиллардан бири эканлиги ва ўзбек мусиқа маданиятини шаклланиш жараёнлари илмий асослаб берилди.

**Калит сўзлар:** мусиқа, маданият, ижодий фаолият, миллий ва умуминсоний қадриятлар, ижрочилик санъати, анъана, маънавий мерос, мақом, дутор, ҳофиз, созанда ва бастакор.

### ON THE ISSUES OF UZBEK MUSIC ART AND CULTURE

Sharipova Odinakhon Shavkatjon kizi  
Najmetdinova Maluda Mamasodikovna  
FerSU

**Abstract:** This article scientifically substantiates the importance of Uzbek music in the past and present in raising the spiritual level of our people, as well as the fact that music is one of the leading factors in the social development of the new Uzbekistan and the formation of Uzbek music culture.

**Keywords:** music, culture, creative activity, national and universal values, performing arts, tradition, spiritual heritage, status, dutar, hafiz, musician and composer.

Бугунги кунда Ўзбекистонда мусиқа санъати ва маданиятини янада ривожлантиришда учун янги имкониятлар яратилмоқда. Мусиқа маданиятининг турли йўналишлари бўйича ёш истеъдодларни излаб топиш, уларнинг ижодий фаолиятини юксалтириш юзасидан ғамхўрлик қилиш муҳим аҳамиятга молик вазифалардан бирига айланди. "...Халқимизнинг маънавий савиясини ошириш, ёш авлодни юксак инсоний ғоялар, она Ватанга меҳр ва садоқат руҳида тарбиялаш, миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида камол

топтиришда мусиқа санъатининг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир”<sup>1</sup>. Зеро, ўтмишдаги мусиқий ижрочилик анъаналарини тиклаш, замонавий шароитларда сақлаб қолиш, ўзбек миллий мусиқий асарлари ва созларини хорижий мамлакатларда намойиш этиш, мусиқа таълимида янги анъаналарни таркиб топтириш, халқ маънавий меросини асраб-авайлаш ва келгуси авлодларга етказиш, жамият ҳаётида мусиқа маданиятининг тутган ўрнини таҳлил этиш долзарб вазифа ҳисобланади.

Мусиқа маданияти тарихи мавзусига доир Собиқ Иттифок даврида яратилган асарлар кўлами ниҳоятда кенгдир. Улар орасида ўзбек халқ мусиқаси тарихини ўрганишда Бекжон Раҳмон ўғли ва Муҳаммад Юсуф Девонзода (Харратов)нинг 1925 йил Москвада араб алифбосида нашр этилган “Хоразм мусиқий тарихчаси” рисоласи муҳим аҳамиятга эга. Ушбу рисолада Хоразм мусиқачилари ижоди, Хива хонлиги ҳудудига Шашмақомнинг кириб келиши, Муҳаммад Раҳимхон Ферузнинг мусиқа санъатини ривожлантириш борасидаги ҳаракатлари ҳақида қимматли маълумотлар берилади. Шунингдек, ўзбек миллий мусиқа маданияти тарихини ўрганишда Абдурауф Фитратнинг ҳам ҳиссаси салмоқли бўлиб, муаллифнинг мазкур масалага бағишланган асар ва мақолаларида ўзбек мумтоз мусиқаси, унинг услублари ва уларнинг турк, араб, форс мусиқаларидан фарқи, “Шарқ мусиқаси” назарияси ва унинг асослари тўғрисидаги таҳлилий фикр-мулоҳазалари баён этилади.

Ўзбек миллий мусиқа санъати узоқ тарихий йўлни босиб ўтди. Хусусан, XIX аср охири - XX аср бошларида кўлами, ижро йўллари, шакллари, мураккаблигига қараб анъанавий мусиқа санъати профессионал мусиқа асарлари (мақом, катта ашула, дostonчилик) ва халқ куйларига (лапар, ялла, кўшиқ, ашула) бўлинган<sup>2</sup>. Бундан кўринадики, бу даврда ўзбек халқи мусиқа санъати намояндалари фаолияти икки йўналишда ривожланган. Мумтоз мусиқа намуналари асосан етук ҳофиз, созанда ва бастакорлар томонидан яратилиб, ўзининг жанрлари ва ижро анъаналари мураккаблиги туфайли мақомчилик санъати ва дostonчилик ижро услублари, мактаблари билан ажралиб туради.

Мақомлар Шарқ халқларининг жуда қадим замонлардан мавжуд бўлган мусиқа жанрларидан бири сифатида мусиқа меросида жуда муҳим ўринни эгаллайди. Анъанавий мусиқа санъатининг мақомчилик йўналиши Бухоро-Самарқанд, Фарғона-Тошкент ҳамда Хоразмда кенг ривож топди.

Ўз даврида Бухоро амири саройида мақомларга жуда катта қизиқиш билан қаралган. Амир Саид Олимхон мақом мусиқасини юксак даражада қадрлаган,

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 августдаги “Ўзбекистон композиторлари ва бастакорлари уюшмаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-3212-сонли қарори (Электрон ресурс) // [www.uza.uz](http://www.uza.uz).

<sup>2</sup> Зияева Д. Х. Ўзбекистон шаҳарлари XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида: шаҳар маданияти ва урбанизация жараёнлари. – Тошкент: Yangi nashr, 2017. – Б.370.

ўзи ҳам дотор чалишда мохир бўлган. Анъаналарга кўра, амирликда халқ муסיқачилари орасидан иқтидорли болалар танлаб олиниб, тажрибали муסיқачилар кўлига топширилган. Масалан, Бухоронинг машҳур мақом усталари Уста Шоди Азизов, Бобоқул Файзуллаев, Шохназар Соҳибов кабилар сарой муסיқачилари кўлида таълим олганликлари фикримизнинг далилидир.

Тошкент ва Фарғона водийсида ҳам мумтоз муסיқанинг маълум вариантлари юзага келди. Ушбу йўналиш асосан катта ашула йўлларида иборат бўлган. Ашурали Ҳофиз, Мирза Қосим Ҳофиз, Мўминжон Ҳофиз, Мўйдин Ҳожи, Беркинбой Файзиев, Мулла Тўйчи Тошмухаммедов, Ғанижон Мирзаев, Жўрахон Султонов, Маъмуржон Узоқов, Турғун Каримовлар мазкур йўналишда мохир ижрочилари бўлганлар. Фарғона водийсида маҳаллий ижрочилик мактаблари ҳам шаклланган бўлиб, улар орасида айниқса, Қўқон, Марғилон, Бешариқ каби ижрочилик мактаблари ўз даврида жуда машҳур бўлган.

XIX аср охири - XX аср бошларида Хоразм воҳаси ўзбек муסיқа санъатида ўзининг ижрочилик ва хонандалик анъаналари билан анча машҳур бўлган. Воҳада мақом ижрочилиги дoston йўллари, халқ оммавий кўшиқлари ўз йўналишлари доирасида ривожланган. Бу даврда Хоразмда Комил Хоразмий, Муҳаммад Раҳимхон Феруз, Ниёзжон Хўжа каби машҳур бастакорлар ижод қилишган.

XX аср бошларида Туркистоннинг деярли барча шаҳарларида жадидларнинг ҳаваскорлик тўғараклари ва миллий театрлари ташкил топди<sup>3</sup>. 1911-1917 йиллар давомида 20 га яқин пьесалар ёзилди. К.Нусратиллаевнинг “Тўй”, А.Қодирийнинг “Бахтсиз куёв”, Хўжа Муиннинг “Эски ва янги мактаб”, А.Бодрининг “Аҳмоқ” пьесалари шу даврда яратилган.

Хуллас, XIX асрнинг охири ва XX аср бошларида Туркистон, Бухоро амирлиги ва Хива хонлигида муסיқа санъатида жиддий ўзгаришлар ва янгиланишлар юз берди. Европалик муסיқа билимдонлари Бухоро амирлиги ва Хива хонлигида мумтоз муסיқа ва халқ оғзаки намуналарини ўрганиш ва уларни ноталаштириш, халқ муסיқа чолғуларини тўплашга эътибор қаратди. Туркистон шаҳарларида муסיқий жамиятлар тузилиб, ҳаваскорлар жалб этилди. Рус муסיқа билимдонлари томонидан ўзбек халқ кўшиқларини ўрганилиши, уларнинг ноталаштирилиши, хориж матбуотида нашр этирилиши каби ҳолатлар ўз даврида муסיқа санъатининг ривожига муносиб ҳисса қўшди. Айни пайтда, Бухоро ва Хоразм ҳудудида ҳамда Фарғона водийсида ўзбек муסיқа санъати анъаналарини сақлаб қолиш учун зарурий чора-тадбирларнинг олиб борилиши ўзбек мумтоз муסיқаси анъаналарининг ривожланишига хизмат қилади.

<sup>3</sup> Ризаев Ш. Ўзбек драматургияси ва театрининг асосчиси // Театр, 2006, №1. – Б.10-12.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 августдаги "Ўзбекистон композиторлари ва бастакорлари уюшмаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги ПҚ-3212-сонли қарори (Электрон ресурс) // [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Зияева Д. Х. Ўзбекистон шаҳарлари XIX аср иккинчи ярми -XX аср бошларида: шаҳар маданияти ва урбанизация жараёнлари. - Тошкент: Yangi nashr, 2017. - Б.370.
3. Ризаев Ш. Ўзбек драматургияси ва театрининг асосчиси // Театр, 2006, №1. - Б.10-12.

## **AXBOROT-KURUBXONA MARKAZI XODIMLARI FAOLIYATIDA NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATINING AHAMIYATI**

To'ychiyeva Shoiraxon No'monovna  
O'z DSMI FMF

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq madaniyati va notiqlik san'ati, ularning umumiy o'xshashligi, har ikkalasi ham inson nutqi bilan aloqadorligi, nutq madaniyati tilni qonun-qoidalarini ongli idrok etish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahorati bilan yuzaga kelishi haqida bayon qilingan. Hamda axborot-kurubxona markazi xodimlarining faoliyatida nutq madaniyati va notiqlik san'ati kasbiy mahoratining asosi ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutq, madaniyat, notiqlik, san'at, kutubxonachi, muomala, axborot-kutubxona, xodim, mutolaa, kitobxonlik.

## **THE IMPORTANCE OF SPEECH CULTURE AND SPEECH ART IN THE ACTIVITIES OF EMPLOYEES OF THE INFORMATION AND LIBRARY CENTER**

Toychiyeva Shoiraxon Numanovna  
FRB UzSIAC

**Abstract:** This article describes the culture of speech and the art of oratory, their common similarities, both related to human speech, the emergence of speech culture with a conscious understanding of the rules of language, the ability to compose clear, vivid, expressive speech made. It is also noted that the culture of speech and public speaking are the basis of professional skills in the activities of the staff of the information center.

**Keywords:** Speech, culture, oratory, art, librarian, communication, information-library, employee, reading, reading.

Agar nazar soladigan bo'lsak, nutq madaniyati odamlar o'rtasidagi o'zaro muomalaning asosidir. Muomala madaniyatining go'zalligi bilan muammolar yechiladi, qalblarga yo'l topiladi. Farzand tarbiyasida ham, ota-onani e'zozlashda ham nutqning-muomala madaniyatining go'zalligi muhimdir.

Xalqimizning yuksak ma'naviyati, insonlar o'rtasidagi go'zal an'analarga boyligi, o'zaro muloqat, so'zlashish va muomalada muhim bo'lgan muomala madaniyati bizning qadriyatimizdir. Muomala madaniyati keng ma'noda insonlarning

butun hayoti va faoliyati davomida tarbiyalanadigan jaroyon bo'lib, u oilada, jamiyatda, jamoada shakllanadi.

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlashish, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Nutq faoliyati kishilarning birbirlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Nutq madaniyati esa ana shu tilni - aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Bu noyob qurolni ishlatishga bo'lgan munosabat qanchalik yomon bo'lsa, uni ishlatishga qanchalik befarqlik bilan qaralsa, nutqning madaniylik darajasi ham shunchalik past bo'ladi va aksincha, munosabat qanchalik yuqori bo'lsa, nutq ham, aloqa ham shunchalik madaniy bo'ladi.<sup>1</sup>

Shu o'rinda Barxurdor ibn Mahmudning fikricha-Insoniyat odobining va odamiylik asosining ulug' qasri ustunlaridan biri so'zlashish va nutqning qimmatbaho gavharini muloyimlik va odob parmasi bilan teshmoqdir. Axloq arkining yuqorisida o'tiruvchilarning aytishicha, insonning kamolati va bilimning baland martabalaridan biri chiroyli gapirish va chiroyli so'zlash bo'lib, bu bog'ning guli aql bahoristonining nasmi bilan ochiladi va saodatning yorqin javohir dasturxonini aql savdogarigina yoza oladi,<sup>2</sup> deyilgan.

Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok etish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahorati, tilning ifodaviy vositalaridan mazmun va uslubga ko'ra nutqiy vaziyatga qarab o'rinli foydalana bilishdir.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati umumiy, o'xshash tomonlarga ega. Har ikki soha ham til va nutq, inson nutqi bilan aloqador. Har ikkalasi kishilarning nutqiy faoliyatida foydali, ta'sirchan, o'tkir bo'lishi uchun kurashadi. Nutq madaniyati ham, notiqlik ham nutqiy odob, nutqiy go'zallik' nutqiy mantiq qonuniyatlari asosida ish ko'radi.

Notiqlik - nutq so'zlamog, xutba o'qimoq (duo o'qimoq), notiq bo'lmoq ma'nolarini anglatadi. Notiqlik insonga berilgan bir qobiliyatdir. Kutubxonachi ham ana shunday qobiliyatni o'zida shakllantirishi lozimdir. Notiqlik san'ati ko'p kitob o'qish, ifodali, ma'noli, yoqimli ovoz va ohangdor so'zlash orqali shakllanadi. Demak, kitob- nutqning go'zal bo'lishida katta rol o'ynaydi, har bir kutubxona xodimi avvalo zo'r kitobxon bo'lmog'i, o'z ustida tinmay ishlamoq'i lozim, chunki ular nutq madaniyati va notiqlik qobiliyatiga, san'atiga ega bo'lishi shart. Ular o'z kasbdoshlari va foydalanuvchilar bilan uzluksiz ravishda muloqotda bo'ladi. Nutqning jarangdorligi, so'zlashganda pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishlik uning ta'sirchanligini oshiradi, tinglovchilarni e'tiborini torta oladi.

<sup>1</sup> N. MAHMUDOV, A. RAFIYEV, I. YO'LDOSHEV. NUTQ MADANIYATI VA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH. – O.:, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013 — 13 b.

<sup>2</sup> Mashriqzamin-hikmat bo'stoni: Hikmatlar xazinasidir. -T.: "Sharq", 2008y. 196-bet.



Kutubxonachi nutqining mantiqiyligi uning asosiy sifatlari to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqining ta'sirchanligi deganda og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va uning foydalanuvchilar e'tiborini tortadigan va qiziqishini oshiradigan xususiyatlarga ega bo'lishi hisobga olinadi. Foydalanuvchilar tushunadigan tilda ularni ishonтира olish san'atini egallash, mavzuni yaxshi o'rganish, uni bayon etishning aniq rejasiga ega bo'lish, samimiylik, hurmat bilan munosabatda bo'lish ham ta'sirchanlikni oshiruvchi omillar hisoblanadi.<sup>3</sup>

Axborot-kutubxona xodimi foydalanuvchilarning nimani hoqlashi, nimalarga qiziqishi, nimani tezroq bilishni istashini tez anglab olgan holda o'z nutqini tayyorlashi lozim. Uning nutqida aytmoqchi bo'lgan fikri foydalanyvchilar tomonidan to'liq anglanishi, aniq va ta'sirchan va ularga tushunarli qilib bayon etilishi zarur. Buning uchun xodim muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, izlanishi, ko'p kitob o'qishi, soda va ravon, tushunarli tilda so'zlashni mashq qilmog'i, notiqlik qobiliyatini o'stirmog'i lozim.

Notiqlik san'atini yaxshi egallagan axborot-kutubxona xodimi so'z qudratidan foydalanib odamlarni o'ziga jalb etishga, ilmga, kitob mutolaasiga qiziqishini oshirishga, kitob oqishiga rahbarlik qilib, ularning haqiqiy yo'l boshchisiga aylanadi. Notiqlik san'ati xodimlardan psixologik bilimga ega bo'lishni ham talab etadi, chunki notiqlik nazariyasini bilishda odamlar psixologiyasini bilish, nutq so'zlashni doimiy mashq qilish, so'z ustida jiddiy ishlash, tinglovchilarni diqqatini jalb etishni talab etadi.

Taniqli notiqqlar ham o'z nutqining ta'sirchanligini oshirish uchun o'z ustida juda ko'p ishlar ekanlar, yani

1. O'zi to'xtalib o'tayotgan masala yoki mavzuni chuqur o'rganish va o'zlashtirish.
2. O'z dunyoqarashiga ega bo'lishi, so'z va ish birligi, fikrlarni ilmiy asoslab berish.
3. Ma'ruzalar, suhbatlar paytida tinglovchilar bilan yaqin va samimiy muloqot o'rnatish.
4. Har bir mavzuning mazmunini to'liq ochib berishga mas'uliyat bilan yondashish.

Shunday qilib, axborot-kutubxona xodimlarining umumiy maqsad va vazifalari foydalanuvchilar bilan samimiylik, shirinsuhanlik asosida o'zaro aloqadorlikni o'rnatish, foydalanuvchilar mutolaasiga rahbarlik qilish va ularni axborot bilan ta'minlash. Bundan tashqari soha xodimlari o'zlarining notiqlik san'ati yordamida yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan komil insonni shakllantirish, jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot sohasidagi ulkan o'zgarishlarga daxldorlik hissini

<sup>3</sup> I. J. Yuldashev O'. Nosirov KUTUBXONA – AXBOROT XIZMATI: NAZARIYASI VA AMALIYOTI O'quv qo'llanma.T.: 2020-y,129- bet.

tarbiyalashda- axborot, tavsiya, targ'ibot ta'sirini o'tkazib, mutolaa madaniyati shakllantirib, foydalanuvchilar qiziqishini o'rganishish jaroyonida ularga munosib xizmat ko'rsatishdir.

Axborot-kurubxona markazi xodimlari faoliyatida nutq madaniyati va notiqlik san'atining ahamiyati kattadir. Chunki muntazam ravishda Axborot-kutubxona markazlari tomonidan foydalanuvchilarga mos madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish uchun turli mavzularda ommaviy tadbirlar, kutubxona-bibliografik xizmatlari tashkil etiladi.

Ular quyidagilar:

- Suhbatlar, baxs-munozaralar, adabiy kechalar;
- o'yinlar, sayohatlar, viktorinalar, adabiy, rolli, intellektual, interaktiv, kasba yollovchi;
- tanlovlar-adabiy, eng yaxshi ommabop kitob uchun, eng yaxshi uy kutubxonasi uchun, eng yaxshi kitobxon;
- konferensiyalar, amaliy maslahatlar, foydali tavsiyalar, savol-javoblar va boshqalar.

Bunday tadbirlarni o'tkazish uchun xodimlar puhta tayyorgarlik ko'radilar.

Axborot-kutubxona markazi xodimlarining tayyorgarlik jaroyonini quyidagi adabiy kechani o'tkazish dasturi misolida ko'rish mumkin:

Bir buyuk el bor jahonda.

(Bu tadbir senariysi barcha yoshdagi kitobxonlar uchun mo'ljallangan) Tadbitda zamonaviy texnika vositalaridan foydalaniladi. Sahna to'riga manitor o'natiladi. Sahna milliylikka hos hamda kitob ko'rgazmlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

1. Bir buyuk el bor jahonda keng baland osmoni bor,

Olam elin og'zida aytilmagan dostoni bor.

Odamiylik maktabin ming yillar avval bitkazib,

Bor ovozla "men" deyishga ushbu kun imkoni bor.

(sahna ortidan ushbu she'r yangraydi, manitorda O'zbekiston haqida vidiorolik qo'yiladi)

2. Alla. (jonli tarzda aytiladi)

1-Boshlovchi: Alla, vujudimda shirin titroq uyg'otding, sen! Ko'zlarim osmoniga onam siyratiyu, quloqlarim ostida onamning shirin zamonini sayratding, sen!

Assalomu aleykum, Azizlr, alla nolalarini eshitib titroqdan ko'zlaringizga yosh keldimi? Bolalikning shirin xotiralarini sog'indingizmi?...

2-Boshlovchi: Ha, o'zbekning mana shunday sehrli allasi bor bo'lsin, ne-ne ulug'larni voyaga yetkazgan, buyuklarni bag'riga olgan bu- alla.

Alla sadolari ostida vatan ishqi bilan yongan, vatanparvarlikning buyuk timsoli bo'lmish To'marisdek ayolni, (manitorda afsonaviy To'maris qiyofasi gavgaldanadi)

1-Boshlovchi: Dunyoni aqlu-shuuri bilan lol qoldirgan o'zbekning haqiqiy bekligini dunyolarga tanitgan buyuk Amir Temurni voyaga yetkazgan bu- alla.(manitorda A.Temur qiyofasi gavdalanadi)

2-Boshlovchi: Alla, she'riyat qalami ila dunyoni zir titratgan, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyni tarbiyalagan. (manitorda A.Navoiy qiyofasi gavdalanadi)

1-Boshlovchi: Yana shu alla sadolari ostida,  
"Tuynigin ochib alarning holidan olsam habar  
Yuzlarida parda tortig'lik turarlar bag'ri qon"-  
deya xitob aylab, nola chekkan she'riyatning dilbar vakili Uvaysiy ulg'aygan.  
(manitorda Uvaysiy qiyofasi gavdalanadi)

2-Boshlovchi: So'z sehrida yagona Nodirai Davronni ulgaytirgan  
(manitorda Uvaysiy qiyofasi gavdalanadi).

1-Boshlovchi: Bir buyuk el bor jahonda deganimizda biz mana shunday buyuk insonlarni nazarda tutgan edik. Bu muqaddas zaminda insonlar ongu-tafakkurida, yosh avlod kamolida ne-ne buyuklar qoni oqmoqda...

(manitorda yana boshqa buyuklar siymolari gavdalanadi).

(Sahnada Vatan madhini tarannum etuvchi qoshiq yangraydi, raqs ijro etiladi.)

2-Boshlovchi: Atoqli shoir Hamid Olimjonning barchamizga yod bo'lib ketgan shunday satrlari-

"Bolalik kunlarimda, Tohir-Zuhra, Yoriltosh,  
Uyqusiz tunlarimda Oyni uyaltirgan qosh...  
Ko'p ertak eshitgandim, Buvimning har qissasi,  
So'zlab berardi buvim. Har bir qilgan hissasi  
Esimda o'sh adamlar: Fikrimni tortar ,edi  
O'zi uchar gilamlar, Havasim ortar edi." - bor.

1-Boshlovchi: Sezyapsizmi, bolalikda oshno bo'lgan ertaklarni eslatyapti shoir. Bundan ko'rinadiki, hayotga, odamlarga, kitoblarga, adabiyotga muhabbat aynan o'sha beg'ubor bolalikdan boshlanadi. Behos shunday savol tug'iladi.

Darhaqiqat, bizning kitob mutolaasiga munosabatimiz qanday? Farzandlarimiz bugun "Uchar gilam"lar-u,"Tohir Zuhra" yoki "Yoriltosh"larni bilisharmikan...?

(Sahnada o'zbek xalq ertaklaridan "Zumrad va Qimmat" yoki boshqa ertakdan yosh kitobxonlar ijrosida ertak-tomosh namoyish etiladi.)

(Sahnada quvnoq bolalar qo'shig'i va raqs namoyish etiladi.)

2-Boshlovchi: Azizim, har bir yurtning o'z toshu-tarozsi, udumlari, orzu-istaklari va ko'nikmalari bor. Mana shu o'ziga hoslikni milliylik deymiz va uni avlodan-avlodga asosan onalarimiz-ayollar o'z farzandlarining ruhiga singdiradilar.

(sahnada ushbu she'r sadolari ostida qizlar milliylikni aks ettiruvchi milliy liboslar ko'rgazmzi, do'ppilar, momolarimizdan meros so'zanalar, qiyiqlar tikkayotgan jaroyonlarni bajaradilar)

Milliy g'urur shudir, azizim!

Udda qilsang, o'nta tilni so'ylagin bulbuldayin,

So'ylasang o'zbekchaga, bo'ylar tortsin guldayin.

Nozik o'tsin qildayin, izhor etarda dildagin

O'zligingni avval uq, o'zbekkinamning bolasi.

(sahnada Klara Jalilova ijrosidagi "Doppi tikdim ipaklari tillodan" qoshig'i yangraydi, raqsida jajji qizaloqlar).

1-Boshlovchi: Samolni "so'kmang", bu hadisni sharif hikmatini topay deb uringmangda, yomg'ir, do'l, dovul bo'lsa ham Allohning marhamati deb qabul qilavering.

Suvga tupirmang, axlat tashlamang! Bugungi kunga, tinchlik, osoyishtalikka shukur qiling, azizm! O'zingizdan iz qoldiring, ko'chat ekib bog' yarating!

2-B: Vatandosh, bog'ingga bir nihol qada,

Bu nihol nomini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,

U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.

Gulu niholingga baxsh etib hayot,

Suv ber va bu suvga Mehr ber.

Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,

Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

("Bir nihol" Erkin Vohidov she'ri)

O'quvchilar ijrosida "Sust xotin" qo'shig'i.....

1-B: Bizning buyuk bag'ri keng xalqimizning ana shunday azaliy qadriyarlari bor. Ota bobolarimizdan qolgan meros bu, zero mozig'a qaytib ish ko'rmoqlik hayrlidir, deydilar.<sup>4</sup>

(Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridan Anvar va Ra'no suhbtidan bir parcha namoyish etiladi yoki o'qib beriladi. Bu namoyish orqali ushbu kitob kitobxonlarga tavsiya etiladi.)

2-B: Biz bugun sizga bir ozgina mehr berdik, umid berdik, istak berdik. Ko'nglingizda fahr tuyg'usini uyg'ota olgan bo'lsak, farzandlarga e'tibor sezdira olgan bo'lsak, qadrdonimiz kitob ekanligini, uning hayotimizdagi shamchiroq ekanligini uni o'qib, manaviy kamolatga yetishimiz kerakligini anglatolgan bo'lsak boshimiz osmon qadar yuksaldi.

1-B: Bu yurt O'bekiston atalmish jannatmakon o'lka!

Bu yurtning qishlarida shivirlar bahor, bu yurtning tuprog'ida oltin gullaydi.

(Oybek "O'zbekiston" she'ri. Olingan)

Shu yurtda tug'ulganimizdan, sog'-salomat qadam tashlayotganimizdan, ilm deb atalmish buyuk ne'matdan bahra olayotganimizdan shodlanaylik. Har bir kitob

<sup>4</sup> A. Qosiriy "O'tkan kunlar" romanidan olingan.

sahifalarida biz uchun hech kim bera olmaydigan bir javohir bor, o'sha javohirlardan doim bahramand bo'laylik va ularni o'z yaqinlarimizga ham ilinaylik.

Otchopardan kimxob oling,  
Ne bo'lsa - behisob oling,  
Ammo qaytar chog'ingizda  
Bittagina kitob oling.  
O'rikzordan koshin oling,  
Sirg'alidan moshin oling,  
Jaholatning boshin oling,  
Bittagina kitob oling...  
S.Sayiid "Kitob oling" she'ri.

Mana shunday tadbirlar kitobxonlarning kitob orqali, vatanga muhabbat, go'zallik tuyg'ularini shakillantirib, manaviy boy inson bo'lib tarbiyalanishiga xizmat qilib, uning sof, beg'ubor va ulug'vorligini ko'rsatadi. Bunday sof, beg'ubor ma'naviy boyluk uzoq yillar davomida qunt va chidam bilan o'qish, taqqoslash, taxlil qilish, xulosa chiqarish, amaliy hayotda qo'llash natijasida shakillanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. MAHMUDOV, A. RAFIYEV, I. YO'LDOSHEV. NUTQ MADANIYATI VA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH. - Ò.:, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013 - 144b.
2. Mashriqzamin-hikmat bo'stoni:Hikmatlar xazinasidir.-T.: "Sharq",2008y.196-bet.
3. I.J. Yuldashev, O'. Nosirov. Kutubxona-axborot xizmati: nazariya va amaliyoti-o'quv qo'llanma. T.-2020y, 397 bet.
4. Erkin Vohidov.Orzuli dunyo: She'rlar,-T.: "Sharq",2010.- 208 b.
5. "Kutubxonalarda muloqat madaniyati " fanidan o'quv uslubiy qo'llanma. 6. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktabi 5-sinf uchun darslik/ S. Ahmedov va boshq.- T.: "Sharq", 2020-272 b.
6. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. International Journal of Culture and Modernity, 10, 43-51.
7. Юлдашева, С. Н. (2020). СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АУДИТОРИИ. ТИПОЛОГИЯ ЧИТАТЕЛЕЙ. Oriental Art and Culture, (V).
8. Sohibaxon, Y. (2021). O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI. Oriental Art and Culture, (7), 260-268.

9. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.
10. Юлдашева, С. (2019). Китоб мутолаасини шакиллантиришда кутубхоначилик фаолияти. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 59-62.
11. Yuldasheva, S., & Madumarova, M. (2020). TASKS AND CONTENT OF BIBLIOGRAPHIC WORKS. *European Journal of Arts*, (1), 148-152.
12. Асқарова, М. (2020). ЎЗБЕК АДАБИЙ ТАНҚИДИ ТАРАҚҚИЁТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
13. Мирзаева, Н., & Асқарова, М. (2020). ЧЎЛПОН ИЖОДИДА МИЛЛИЙ УЙҒОНИШ ҲАРАКАТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
14. Асқарова, М. (2021). Адабий жараённинг зукко тадқиқотчиси. *Oriental Art and Culture*, (7), 209-216.
15. Askarova, M. (2020). Homil yakubov's views on navoi studies. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 788-792.
16. Askarova, M. (2021). Homil Yakubov's views on Oybek lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2412-2415.
17. Nurxon, I., & Habibjonov, I. (2021). КИТОВ ВА КИТОВХОНЛИК–INSON MANAVIYATINING KOZGUSI. *Oriental Art and Culture*, (6).
18. ўғли Ҳабибжонов, И. Т. (2020). ЎЗБЕК СОЛИҚ ТЕРМИНЛАРИНИНГ АФФИКСАЦИЯ УСУЛИ БИЛАН ЯСАЛИШИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 200-206.
19. Ҳабибжонов, И. Т. ў. (2021). СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА ДУБЛЕТЛИК ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Scientific progress*, 1(6), 842-846.
20. Ismoilova, N., & Habibjonov, I. (2021). Kitob va kitobxonlik–inson manaviyatining kozgusi. *Oriental art and culture*, 2(1), 159-166.
21. Habibjonov, I. (2020). Syntactic design of uzbek tax and customs terminology. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2910-2915.
22. Oglu, H. I. T. (2020). Formation of uzbek tax and customs terms (on the example of materials on the history of language). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1308-1313.
23. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.

24. Рўзиева, Г., & Ҳабибжонов, И. (2021). САДР ЗИЁ КУТУБХОНАСИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

25. Normatova, M., & Ikromjon, X. (2021). "QUTADG'U BILIG" IKKI JANONNI TUTISHGA OSHUVCHI YO'L. *Oriental Art and Culture*, (6).

26. Ўғли, Ҳ. И. Т. (2020). ТИЛШУНОСЛИҚДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ТАДҚИҚИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

27. Solieva, H. O. (2021). THE ROLE OF READING IN THE FORMATION OF A PERSON'S OPERATIVE MEMORY AND MENTAL MATURITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 178-185.

28. Солиева, Ҳ. О. (2018). ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО НА МЕДИЦИНСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-6), 56-60.

29. Омоновна, С. Ҳ. (2018). «Бебош бола» синдроми ёхуд нега болалар асабийлашади?. *Современное образование (Узбекистан)*, (11).

30. Омоновна, С. Ҳ. (2018). Ўқувчилар тарбиясини шакллантиришда ота-оналарга педагогик билим бериш тизимининг аҳамияти. *Современное образование (Узбекистан)*, (5).

31. Омоновна, С. Ҳ. (2019). Агар бола сизни «Эшитмаса»... *Современное образование (Узбекистан)*, (4 (77)), 58-63.

32. Омоновна, Ҳ. С. (2020). ТАРИХИЙ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРНИ КОНСЕРВАЦИЯ-РЕСТАВРАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ ХУСУСИДА. *Oriental Art and Culture*, (V).

33. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Глобаллашув жараёнида ахборот оқимининг ёшлар маънавиятига таъсири хусусида. *Oriental Art and Culture*, (7), 217-224.

34. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Маданият ва маънавият масалаларида тарихий илдизлар излари. *Oriental Art and Culture*, (7), 244-253.

35. Парпиев, А. (2021). ЖАДИДЧИ ОБИДЖОН МАҲМУДОВНИНГ ФАОЛИЯТИДАГИ ЯНГИ ҚИРРАЛАР. *Oriental Art and Culture*, (6).

## МУСИҚИЙ ОВОЗ РЕЖИССЁРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИДА ТУТГАН ЎРНИ

Арзиматов Ботирали Абдумажидович  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Фарғона минтақавий  
филиали

**Аннотация:** XXI асрнинг фан - техника тараққиёти замонавий технологияларидан фойдаланиш овоз режиссёри учун ниҳоятда зарур иш ҳисобланади. Мусиқий овозларни (табiiй овозларни) синтез тариқасида ҳосил қилишда зарур бўладиган билимларни ўргатиш ва техникадан фойдаланиш жараёнида табiiй ҳамда замонавий жараённи мусиқий овоз режиссёри тўғри идроклай олишдан иборат.

**Калит сўзлар:** Мусиқий акустика, мусиқа санъати ва маданият, овоз режиссёри.

## THE ROLE OF A MUSIC SOUND DIRECTOR IN THE DEVELOPMENT OF MODERN SCIENCE AND TECHNOLOGY

Arzimatov Botirali Abdumajidovich  
Fergana regional branch of UzSIAC

**Abstract:** The use of modern technologies in the development of science and technology in the XXI century is a very important task for a sound engineer. The musical sound engineer must be able to correctly understand the natural and modern process in the learning process and use the techniques necessary to synthesize musical sounds (natural sounds).

**Keywords:** musical acoustics, musical art and culture, sound engineer.

Президент Ш.М.Мирзиёевнинг оқилона иш юритиши натижасида кўплаб қарор ва фармойишлар ҳаётга тадбиқ қилиниб, юртимизда санъат ва маданият соҳасида катта ўзгаришлар, янгиликлар бўляпти.

Бу жараёнда президент Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, одамзотга ҳис-туйғу, идрок этиш ва тафаккур қилиш қобилиятларига айрича таъсир этиб, унда ҳаёт кечириш кўникмасини ҳосил қиладиган санъат зарурдир. Шунинг учун ҳам бозор иқтисодиёти шароитида шу муҳитга мос одамлар маънавиятини яратишда замонавий санъат муҳим рол ўйнаши назарда тутилмоқда. Чунки истиқлол мафкураси ғоялари руҳидаги авлодни таркиб топтиришда маданий ҳаётдаги туб ислохотлар ва бурилишлар ниҳоятда долзарб вазифа ҳисобланади.



XXI асрнинг фан - техника тараққиёти ривожланган, ишлаб чиқаришда янги технологиялардан фойдаланиш оммавий бир тусга кирган шароитда инсон маънавий - маданий эҳтиёжини қондирувчи маданият ва санъатда ҳам янги технологиялардан фойдаланиш бугунги кун учун ниҳоятда зарур иш ҳисобланади. Айниқса, санъатнинг исталган бир тур ёки жанрини давр руҳига мослаштиришда фан-техника ютуқларидан фойдаланмаслик, янги технологияларни бу соҳа амалиётига татбиқ этмаслик, умуман, кечирилмас хато бўлар эди. Шундай экан бу долзарб вазифалар Президентимиз ва ҳукуматимизнинг доимий эътиборида бўлиб, бошқа фармон ва қарорларда ҳам ўз аксини топмоқда.

Ҳозирги кунда маданий хордиқий тадбирларда техник воситаларни ишлатиш ишларига, умуман замонавий техник воситаларига, уларнинг янги кашф этилган турларига эҳтиёж катта бўлмоқда. Санъатнинг инсон онги ва қалбидан жой олишида, сингишида маданий ҳаётга кириб келаётган янги замонавий овоз кучайтиргич воситаларига эҳтиёж ошгани сайин малакали Овоз режиссёрларига ҳам талаб ошиб бормоқда.

Юқорида таъкидлангандек, бирорта санъат соҳаси йўқки, унинг бугунги кундаги ҳолати, фаолияти ва ютуғи фан - техника воситаларисиз бўлишини таъсаввур қилиш қийин. Айниқса, санъатнинг исталган тури ёки жанрини давр руҳига мослаштиришда фан - техника ютуқларидан фойдаланмаслик, янги технологияларни бу соҳа амалиётига татбиқ этмаслик, умуман, кечирилмас хато бўлар эди.

Бирор оммавий - бадий ёки маданий - маърифий тадбир, концерт, кўргазмаларни овоз кучайтиргич воситаларисиз ташкил этилишини тасаввур қилиб бўлмайди.

Ўзбекистоннинг маданий ҳаётида фаолият кўрсатаётган давлат ва нодавлат йўналишдаги санъат муассасалари, намойиш қилинадиган маданий -маърифий тадбирлар, томоша ва концертлар ҳоҳ ёпиқ бино, ҳоҳ очик майдон саҳнасида бўлмасин, ўзларининг маҳоратларини, санъатини овоз кучайтиргич техникаси воситаларисиз намойиш этишлари ва кўрсатишларида овоз режиссёрининг ёрдамисиз қийинчиликга дуч келишлари барчага аён.

Бинобарин, сиз билан бизга маълумки, ҳар бир муассасаларнинг, ташкилотларнинг, корхоналарнинг, маданий маърифий муассасалар, дам олиш жойлар, истироҳат боғлар, театрлар, концерт заллари ҳамда мажлислар залларида овоз кучайтиргич воситаси ҳамда овоз режиссёрининг ушбу масканларида алоҳида мутахассислар кераклиги бор ҳақиқат. Бу ишларни ўргатиш учун ўзбек тилида махсус адабиётлар нашр этилмагани сабабли юқорида кўрсатилган барча жойларда ва ўқув юртларида замонвий техник воситалардан фойдаланиш ишлари тўлалигича амалга оширилмаяпти бу

ишларни амалга ошириш учун эса юқорида айтиб ўтилиётган яхши мутахассислар томонидан ёзилган адабиётлар ва турли хил қўлланмалар кераклиги ҳақиқатга айланмоқда. Юқорида кўрсатиб ўтилган маданий - маърифий тадбирларни амалга ошириш билан бир қаторда маданий тадбирларда замонавий овоз кучайтиргич техник воситаларидан фойдаланиш имкониятларидан тўғри фойдаланиш керак. Бунда овоз режиссёрининг алоҳида ўрни бўлиши керак.

Ҳозирги кунда юртимизда кенг миқёсда нишонланадиган "Ўзбекистон мустақиллиги", "Навруз" байрамлари, Халқаро фестиваллар каби маданий тадбирлар овоз кучайтиргич техникасиз амалга ошириб бўлмаслиги ва бу ўринда овоз режиссёрининг ўзига хос ўрни борлиги тадбирнинг юқори савияда ўтишига имкон беради.

Замонавий техник воситалардан фойдаланиш овоз режиссёрининг юксак дид эгаси бўлиши, муסיқий чолғуларнинг акустик имкониятларини билиши Овоз режиссёрининг муסיқий акустика фанини яхши ўзлаштиришлигини талаб қилади.

Хўш, муסיқий акустика ўзи нима ва у қандай вужудга келади? Акустика - тинглашга оид фан, кенг маънода товушларни эластик тулқинларини (физик ҳолатини) ўрганувчи (бўлим) омил ҳисобланади.<sup>1</sup> Тор маънода тушунилганда - товуш ҳақидаги таълимотдир. Умумий ва назарий акустика эластик тулқинларнинг ҳосил бўлиш ва турли муҳитларда тарқалиш қонунларини, шунингдек, уларнинг муҳит билан ўзаро таъсирини ўрганади.

- Муסיқада асосий мезон бўлган товуш, уларнинг муносабати, хажми, тараннум мезони (чолғулар хусусияти) - овоз имкониятлари, диапазон, товуш акс эттириш услублари:<sup>2</sup> тарихий жараён ва замонавийлик жихатларини ўрганишдан иборатдир.

Товушларни барча хусусиятларини англаш, ҳар қандай акустик шароитда муסיқий сифатларни англаш, турли овозларни ҳар қандай шароитда тўғри идроклай олиш муסיқий овоз режиссёрининг асосий вазифасидир.<sup>3</sup>

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ Тошкент ш., 2020 йил 26 май, ПФ-6000-сон
2. Сулаймонов А. Баркамол авлод орзуси . - Тошкент: 2000 йил,
3. Каримов И.А. Ўзбекистон 21 аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.Т., "Ўзбекистон",1997.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон - буюк келажак сари. Т., "Ўзбекистон",1998.
5. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида.Т., "Ўзбекистон",1998.
6. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият.Т., "Ўзбекистон",1998.

7. Гарбузов И. А. Музыкальная акустика, М 1970 г.
8. Корсунский С. Тогидесьенский А.-Музыкальная акустика, М.1954 г
9. Бегматов С.М. Мусиқий акустика марузалари 2008 й
10. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
11. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.
12. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.
13. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
14. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
15. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
16. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.
17. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).
18. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
19. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 25-28.
20. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. European Journal of Arts, (1), 85-88.
21. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
22. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий мусиқий ижрочилик санъатида бир назар. Oriental Art and Culture, (I (2)), 5-9.

23. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 253-258.

24. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Oriental Art and Culture, (V).

25. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 117-119.

26. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015 (pp. 318-316).

27. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. Oriental Art and Culture, (7), 160-170.

28. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). Oriental Art and Culture, (7), 144-151.

29. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1750-1758.

30. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. Oriental art and culture, 2(3), 62-75.

31. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. Oriental Art and Culture, (V).

32. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 50-54.

33. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. Oriental Art and Culture, (V).

34. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 113-115.

35. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. Oriental Art and Culture, (V).

36. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING ANAMIVATI. Oriental Art and Culture, (V).

37. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. International Journal of Culture and Modernity, 11, 90-96.

38. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.

39. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.

40. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*.

41. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

42. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.

43. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.

44. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.

45. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.

Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

## ЭРКАКЛАР РАҚСИ МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИМИЗНИНГ АЖРАЛМАС ҚИСМИ СИФАТИДА

Охунова Гульхаё

Ўзбекистон давлат хореография академияси

**Аннотация:** Ушбу мақолада ҳар бир миллатнинг ўзигагина хос бўлган эркаклар рақсининг ўзига хос хусусияти халқнинг ҳаёт тарзи ва урф одатлари аксини ифодасини топганлиги ҳамда рақс орқали табиат ҳодисалари, қушлар, ҳайвонларга тақлид элементларни кўриш мумкинлиги ҳақида баён этилган.

**Калит сўзлар:** рақс, меҳнат рақси, тақлид, атрибут, якка рақс

## MEN'S DANCE AS AN INTEGRAL PART OF OUR NATIONAL CULTURE

Oxunova Gulxayo

Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** This article explains that the uniqueness of men's dance, which is unique to each nation, is a reflection of the way of life and customs of the people, and through the dance you can see elements of nature, birds, animals.

**Keywords:** dance, labor dance, imitation, attribute, solo dance

Ўзбек миллий рақс санъатини дунёга машҳур қилган рақслардан бири Лаган рақсидир. Эркаклар рақсларини яккахон рақсларига келсак, Ўзбекистонда энг танилганларидан бири “Лаган” рақси. Ушбу эркаклар рақси Фаргона услубида яратилган. Рақс халқимизнинг машҳур доира, ноғора, сурнай, карнай каби чолғу асбоблари жўрлигида ижро этилади. Саҳна кўринишининг усуллари халқдан келиб чиққан. Рақс Ўзбекистон Давлат “Шодлик” ашула ва рақс ансамблининг яккахон раққосларидан бири Назриддин Шерматов томонидан ижро этилган эди. Пастановканинг характери ўйноқроқ. Унда раққос лаганни қўлларида ушлаб, бир маромда қайроқдан овоз чиқариб ижро этади. Унинг либосига келсак, қора рангдаги тўрт бурчакли гаримдори оқ гулли дўппида бўлади. Дўппи тушиб кетмаслиги учун унга ингичка резина уланади. “Яктак” миллий ўзбек кийими бўлиб, унинг енги узун бўлишига қарамасдан рақс ижро этилганда қайрилган ҳолда бўлади. “Белбоғ” махсус тўрт бурчакли рўмол бўлиб, учбурчак ҳолда букланади ва белга боғланади. Сўнг қора шим ва қора лакланган этик кийилади. Рақс ижро этиш жароёнида бошқа керак бўлган асбобларга келсак, раққосга “Қайроқ” яъни (канстанъетарларга) ўхшаш асбоб керак бўлади. Шунингдек иккита лаган,

биттаси темирдан 16 см узунликда бўлиши керак, иккинчиси эса тошдан бўлиб 10 см бўлади. Тошдан ясалган лаган катта бармоқ кўмагида қўл кафтига босилади. Темирдан ясалган лаган ҳам худди шундай кўйилиб қўлнинг учинчи ва тўртинчи бармоқлари кўмагида бажарилади. Лаганни енгил урган ҳолда раққос ўзига хос овозга эга бўлган усуллар яратади. Айтиш жоизки лаганлар иккита қўлда ҳам ушланади. “Лаган” рақс ҳаракатларининг комбинациялари асосан Фарғона услубларидан, “Лаган” рақсининг ижрочисининг қўл ҳаракатлари бошқа рақслардан олинган тирсақларнинг текислиги билан ажралиб туради.

Инсонларнинг турмуш тарзини акс эттирувчи меҳнат рақслари туркумига кирувчи “Чўпонлар” рақси 1965 йилда Қорақалпоғистонда ижро этилган. Қорақалпоқ халқи азал-азалдан чорвачилик билан шуғуллангани сабабли уларнинг бу маиший касби “Чўпонлар” рақсида ўз аксини топган. Унда шу соҳа билан шуғулланаётган одамларнинг меҳнати ва характери рақс ҳаракатлари орқали яққол намоён бўлади. Рақсда етти раққос йигитлар қатнашади. Баъзи ҳолларда бештагача бўлиши ҳам мумкин. Рақс 2т а тактдан иборат. Биринчи қисмида пантомимали сахна кўриниши бўлиб, унда Чўпон най чалиб тўдани уйғотади. Шунда бирданига тўдага қашқир ташланади. Чўпон тўдани қутқариш мақсадида қашқирни ўлдиради. Иккинчи қисмда чўпонлар қашқирлардан тўдани сақлаб қолингани туфайли хурсандчиликларини рақслар орқали ифодалайдилар.

Ижрочиларнинг костюмларига этибор берсак, оқ рангли тиззадан сал баландроқ кўйлак кийилади. Сўнг қора рангли узунлиги куйлакдан сал калтароқ нимча кийилади. Шим жигаррангда бўлади. Раққосда шунингдек ингичка қизил йўл-йўл тиззадан сал пастроқ халатни кийганини ҳам кузатиш мумкин. Бошга қалпоқ кийилади. Оёқларда эса юмшоқ этиклар бўлади. Рақсининг барча иштирокчиларининг қўлларида таёк, шунингдек биринчи чўпонда таёқдан ташқари най ҳам бўлади. Яна бир меҳнат рақсларидан “Балиқчилар” рақси бўлиб, Бу рақс қорақалпоқларнинг анъанавий рақси ҳисобланади, у 1957 йилда сахналаштирилган. Хўжайли туманида колхозчи Отажонов рақс асосчисига “Шагала” номли қадимги халқ пантомимасини кўрсатади. Беозор халқ пантомимаси ўзининг образга бойлиги, ҳаракатларининг ўзига хос кўринишлари билан ижодкорни ром этади. Рақсининг асосий элементи чағалақнинг сувдан балиқни тутиши рақсда гавдаланади. Лекин рақс композициясини тўлиқ намоёиш этиш учун бир ҳаракатнинг ўзи камлик қилади. Шунда ижодкор балиқчиларга мурожаат қилиб уларнинг меҳнат жараёнини, характерини ўрганиб чиқади. Сўнг уларнинг меҳнати осон эмаслигини, табиатнинг турли хил тўсқинликлари мавжудлигини ижодкор тушунади. Бизнингча, бундай ҳолат уларда ҳазилкашлик ҳислатини уйғотади.

Рақсда Оролнинг хурсанд меҳнаткаш “Балиқчилар”нинг ҳаракатлари гавдаланади. Рақс уч қисмдан иборат бўлиб, улар “Балиқчилар қўшиғи”, “Чимбай- намасы”, “Шағала-намасы” кабилардир. Раққосларнинг либосларига келсак, бунда оқ рангли куйлак четларига қизил тасма тикилган бўлади. Қора сатин матосидан тикилган камзул ва тўқ рангли шим кийилади. Бошга сабзи рангли қўшоқ кийилади. Этиклар эса қора рангда бўлади. Рақсни ўн бештага яқин раққос йигитлар ижро этади. Қорақалпоқ рақс мактабининг ташриф қоғози деса бўладиган “Айқулаш” оммавий қорақалпоқ рақси 1959 йилда яратилган ва Қорақалпоқ ўйини асосида саҳналаштирилган. Ой тўлганида рақсга ўғил-қизлар тушадилар ва ўйиннинг асосий маъноси қўшни ва овулдошларнинг ўғил-қизлари орасида ҳазил қўшиқ танловлари ўтказилади. Ўйинда ким ютқизса, кейинги ўйинда ўз овулининг бекларига айланадилар. Рақсдаги эркаклар либоси оқ матодан тикилган куйлак, унинг енглирида ва ёқасига нақшлар туширилган бўлади. Сўнг кўк қалин матодан тикилган ўрта узунликдаги камзул кийилади. Шим тўқ кўк рангда бўлиб этик ичига киргизилади. Оёққа қора этик ва бошга қоракўл телпаги кийилади. Бу бобда келтирилган эркаклар рақслари ҳақидаги маълумотлар, уларни таърифланган ўзига хосликлари баъзи халқларни, аجدодларимизни санъатга бўлган эҳтиёжини тўлиқ бўлмаса-да кўз олдимизга келтиришга ёрдам беради. Лекин таассуротларимиз янада аниқроқ бўлиши учун биз эркаклар рақси фидойилари ва уларни бадиий услублари ҳақида сўз юритишимиз керак. Барчасини ҳисобга олганда, эркаклар рақси ниҳоятда чуқур тарихга эга. Энг қадимги ғорлардаги деворий суратларда ҳам асосан рақс тушаётган экаклар тасвирланган. Негаки ўша даврларда ов билан асосан экаклар шуғулланганлиги маълум. Овдан олдин улар ўз рақслари билан ов бароридан келишини юқори кучлардан сўраб рақс тушган бўлсалар, овдан кейин ов натижасида берилган ризққа шукроналик ва ўлдирилган жонворлар руҳларидан кечирим сўраш маъносида рақс тушилган. Шу аснода эркаклар ўз хурсанчилиги, муваффақиятини, юқори кучларга бўлган миннатдорчилик, садоқати кабиларни ўз рақслари орқали ифодалаган. Рақсларда уйғун 18 та ҳаракатларни таъминлаш мақсадида қаттиқ предметлар (масалан, таёк, суяк, тош ва бошқалар) билан оҳанг (ҳозирги мусиқа) каби бериб турилган.

Жамият тараққий этаётган жараёнларда ижтимоий-маданий онг шакилланиб ҳаёт кечира бошлаганда ҳам эркаклар рақси ривожланишда давом этди. Ҳар бир даврнинг ўзига хос хусусиятлари бўлгандек, ўзига хос рақслари ҳам пайдо бўлди ва ривожланди. Даврлар ўзгаришига қарамай барча миллатларнинг эркаклар рақсига жанговорлик, чаққонлик, пластикага бойлик, шижоатлилик сингари хусусиятлар хос бўлиб қолаверди; кўриниб турибдики кундалик ҳаётни да учрайдиган, деҳқончилик, чорвачилик, овчилик каби



хунарлар билан асосан эркаклар иши бўлган. Шу сабабли айнан мазкур юмушлар эркаклар рақсида ўз ифодасини топди. Ҳар бир миллатнинг ўзигагина хос бўлган ва кўпроқ шуғулланадиган юмушлари бўлади. Қайсидир миллат асосан деҳқончилик билан шуғулланса, бошқаси чорвачилик ва ҳоказолар билан машғул бўлади. Айнан шулар уларнинг эркаклар рақсларида акс этади, ҳаммасини инобатга олиб, эркаклар рақсига табиий шароит, жонворлар ҳам ўз таъсирини ўтказган. Эркаклар рақсида табиат ҳодисалари, ҳам, қушлар, ҳайвонларга таҳлид элементларни кўриш мумкин.

Юқорида кўриб ўтилгандек ҳар бир миллатнинг ўзигагина хос бўлган эркаклар рақсида ўз ушбу халқнинг хаёт тарзи ва урф одатлари аксини - ифодасини топган. Кўпгина ҳолларда рақсларнинг номланиши ушбу рақс қайси меҳнат жараёни билан боғлиқ бўлса, худди шунга монанд номланган. Албатта ҳар бир рақс индивидуал ўзига мос бўлган либослар танлаган бўлиб, улар образ яратишга ёрдам берган, рақсларга қайтарилмас жиҳатларни бериб рақс дурдонаси бўлишига имкон берганлигини таъкидлаб ўтиш жоиз.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Авдеева Л. Ўзбек миллий рақс санъати тарихидан.-Т. 2001.
2. Қосимов Нозим Козимович, Ғофуров Нурбек Жўраевич. ЎЗБЕКИСТОНДА ЭРКАКЛАР РАҚСНИ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИГА АЙРИМ ЧИЗГИЛАР// МАДАНИЯТ ЧОРРАҲАЛАРИ 2 ЖИЛД, 4 СОН. 9-13 бетлар
3. СШ Маннонов, ЗК Фазлиева. ИБТИДОЙ ПАНТОМИМАЛАР: ЎЙИНЛАР ВА СЮЖЕТЛАР// Oriental Art and Culture 2 (3), 99-105 4 2021.
4. SF qizi Yangiboyeva, ZK Fazliyeva. O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATIDA MAQOM JANRINING O'RNI// Oriental Art and Culture 2 (1), 32-35 2021.
5. ИМ Иманкулова, ЗК Фазлиева. АЛИШЕР НАВОЙИ НОМИДАГИ ДАВЛАТ АКАДЕМИК КАТТА ТЕАТРИ САҲНАСИДА “ЛАЗГИ ҚАЛБ ВА СЕВГИ РАҚСИ” БАЛЕТИ СЦЕНОГРАФИЯСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИН// Oriental Art and Culture 2 (4), 295-302.
6. ФЗ Камарбековна. Рақс ансамбллари ижодида ўзбек миллий рақс мактабларининг услубий ифодаланиши// International scientific-practical online conference on Emergencymanagement and public health research in Asia.2020/5/23. 284-288 бет.

## ПЕРСОНАЛНИ АДОЛАТЛИ МОТИВАЦИЯЛАШ ТУШУНЧАСИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ГЕНЕЗИСИ

Давлат Ахаткулович Химматов

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтининг Фарғона минтақавий  
филиали

**Аннотация:** Ушбу мақолада персонални адолатли мотивациялаш тушунчасининг илмий-назарий генезиси таҳлили ва ҳозирги даврда мотивация ва уни ривожлантиришнинг илмий масалалари илмий назарий жиҳатдан ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** персонал, мотивациялаш, генезис, давлат, жамият, бошқарув

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL GENESIS OF THE CONCEPT OF JUST MOTIVATION OF PERSONNEL

Davlat Akhatkulovich Khimmatov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article analyzes the scientific-theoretical genesis of the concept of fair motivation of personnel and the scientific issues of motivation and its development in the modern era.

**Keywords:** personnel, motivation, genesis, state, society, management

XX асрнинг асосан иккинчи ярмидан бошлаб жаҳон тажрибасида турли соҳаларда мотивациялаш назариялари, қоидалари, тамойиллари, услублари ва технологиялари қатор фанлар томонидан кенг миқёсда ўрганишга киришилди ва бугунги кунда бу билимлар янада такомиллаштирилмоқда. Бу соҳадаги тадқиқотлар асосан ривожланган ва демократик давлатларда замонавий жиҳатлардан янада тараққий этаётгани кузатилади. Ҳозирги вақтда ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий, фалсафий, психологик фанлар тараққиётни йўлга қўйишда мотивациянинг тутган ўрни, амалиётга татбиқоти, унинг самарадорлиги ва умуман, мотивация масалалари билан боғлиқ турли-туман қарашларга дуч келиш мумкин. Айниқса, менежмент, маъмурий ҳуқуқ ва сиёсатшунослик, персонални бошқариш фанларида мотивация масалаларини ўрганиш сезиларли даражада кенгайган

Ривожланган мамлакатларда давлат, жамият ва турли даражадаги бошқа соҳалар бошқаруви ва кадрларини “мотивация субъектлари”, ишлаб чиқариш

соҳасидаги бошқа барча кадрларни эса “мотивация объектлари”, деб аташ анъанага айланган. Маълумки, мотивация субъектлари объектларга турлича таъсир ўтказадилар. Персонални мотивациялаш механизмидан фойдаланишнинг кенг амалиётига қарамасдан «мотивация» тушунчасининг таърифларида катта фарқ мавжуд. Ушбу фарқлар кўп жиҳатдан таъриф муаллифининг фаннинг бирор (иктисодиёт, бошқарув, психология, социология ёки бошқа) соҳасига мансублиги билан белгиланади.

Мотивация - шахс, гуруҳ ва жамият мақсадларига эришиш учун инсоннинг меҳнат хатти-ҳаракатига ташқи таъсир этишни англатади. Мотивациялаш шакллари ва усулларини танлашда, биринчи галда инсонни у ёки бу ҳаракатга ундовчи омилларни ҳисобга олиш лозим. Мотивация бу (лот. moveo - “ҳаракат”) инсонни муайян фаолиятга ундайдиган, унинг хулқ-атворини бошқарадиган психофизик жараён<sup>1</sup>. Меҳнатни пировард натижаси кадрларни мотивациялаш жараёнига бевосита боғлиқдир.

“Мотивация” сўзининг икки хил этимологик талқини бор. Биринчисига кўра, мотивация максимал ва интенсив ифодаланган белгиларга эга бўлиб, унда маълум бир сифатлар концентрациялашган бўлади. Иккинчи талқиндаги мотивацияда эса бу сифатлар маълум ўлчов белгилари воситасидаги фаолиятни англатади<sup>2</sup>.

Аслини олганда, одамларни бошқариш маданиятига оид илк диний-фалсафий қарашлар ўзига хос воқелик сифатида идрок этиш «Авесто», «Таврот», «Инжил», «Веда»ларда кенг тавсифланган бўлиб, айниқса шарқ халқларининг буюк маънавий мероси “Авесто”да батафсил ўз ифодасини топган. Авестода инсонларнинг билим ва донолик, билан, ақл-фаросат, хайри-саховат ва фаровонлик, тинчлик ва барқарорлик, зулм, адоват, низоларни одилona ҳал этишлари асосий бурчлари эканлиги уқтирилган<sup>3</sup>. Беруний жамиятни бошқариш масаласига тўхталиб «идора қилиш ва бошқаришнинг моҳияти азият чекканларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, бировларнинг тинчлиги йўлида ўз тинчлигини йўқотишдан иборатдир»<sup>4</sup>, дейди. Умуман Форобий, Беруний, Ибн Сино ва Амир Темур каби аждодларимиз тараққиётни мақсад ва манфаатлар уйғунлигида кўрганлар. Бу борада айниқса Форобий қарашлари диққатга сазовордир<sup>5</sup> (1-расм).

Биринчи замонавий ва классик илмий мотивация концепциялари XIX аср охири XX аср бошларида пайдо бўлди. Кейинчалик Маслоу, МакКлелланд,

<sup>1</sup>Қаранг: Надель-Червинская М.А.,Червинский П.П. Большой толоковый словарь иностранных слов. В 3-х т. Т.3. –Ростов-на/Д: Феникс, 1995. –Б. 421.

<sup>2</sup>Политическая социология: Учебник для вузов / Ж.Т. Тощенко, В.Э.Бойков, И.В.Образцов, С.С.Соловьев, В.Охотский и др: под ред. Ж.Т. Тощенко. –М.: ЮНИТИ ДАНА, 2002. –С. 334.

<sup>3</sup> Авесто.-А.Махкамов таржимаси. -Т.: Шарқ, 2001. -Б. 248.

<sup>4</sup>Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар, 1-жилд. -Т.: Фан, 1968. -486 б.;

<sup>5</sup> Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 1993. -Б. 160.; Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар, 1-жилд. -Т.: Фан, 1968. -486 б.; Ибн Сино. Изб. Филос. Произведения. -М.: Наука, 1980. - 478 б.; Ибн Сино. Изб. Филос. Произведения. -М.: Наука, 1980. - 478 б.; Абу Райхон Беруний. Избранные произведения, Т.II, 1963, 23-б.; Темур тузуқлари. –Т.: Шарқ, 2005. –160 б.

Герцберг, Виктор Врум, Портер ва Лоулерлар илгари сурган назариялар менжмент йўналишида мотивлаштиришнинг кенг қўлланган назарияларига айланди<sup>6</sup>. А.Маслоува К.Альдерфер назариялари эҳтиёжлар иерархияси назарияси деб танилган. Алдерфер назариясида эҳтиёжлар регресси ҳам қўрилган, яъни эҳтиёжлар иерахиясида қуйи поғоналарга тушиш. Бунда уч поғона қўрилган: Мажуд бўлиш учун керак бўлган эҳтиёжлар, қариндошчилик эҳтиёжлари, узиш учун эҳтиёжлар. Мак-Клелланд назариясида М.Вебер назариясига ўхшаш уч эҳтиёж турини ажратган: ҳокимият, бойлик, обрў.

Д.Адамс назарияси “Адолатлилик” назарияси<sup>7</sup> деб ном олган. У агарда инсонлар ўз меҳнат натижаларининг атрофдагиларга нисбатан адолатлигини баҳолашса, у ҳолда ҳар қанақа адолатсизлик инсон онгининг мотивлаштирадиган ҳолатига айланади деб такидлайди. В.Врумнинг “Кутиш” назарияси<sup>8</sup> шахснинг ҳаракати, меҳнат самараси ва натижасининг ўзаро боғлиқликлари асосида шахснинг маслаги билан ишчи мотивациянинг аниқланишини ифодалайди.

Рағбатлантириш бу хатти - ҳаракат натижаси сифатида оқибатларни бошқаришдир. Бу ёндашув асосида Д.Ф.Скиннернинг<sup>9</sup> назарияси ётади. У ходимнинг хатти-ҳаракатини қуйидагича таснифлаган: рағбат натижасида вужудга келадиган ва рағбатни кутиш натижасида вужудга келадиган хатти-ҳаракат. Рағбатлантириш назариясидаги оқибатларни бошқариш асосида Э.Л.Торндайкнинг “Самара назарияси” ётади<sup>10</sup>. “Самара назарияси” оддий тарзда ифодалансада лекин катта кучга эга, яъни у яхши оқибатга олиб келадиган хатти-ҳаракатнинг тез-тез такрорланишини эҳтимол қилади, аксинча номақул оқибатга олиб келадиган хатти-ҳаракат такрорланишининг эҳтимоли камроқ. Номақул хатти-ҳаракат салбий рағбатлантиришга яъни жазолашга олиб келади. Ходим ўзига нисбатан салбий рағбатлантириш қўлланишини хохламайди.

Айтиб ўтиш лозимки, марксизм мотивацияни иқтисодий базис устидаги устқурма, синфий манфаатлар ва иқтисодиётни концентрациялашган ифодаси, деб қараган бўлса, “илмий мотивация” назарияси тарафдорлари уни жамиятнинг тенг ҳуқуқли ва тенг қийматли соҳаси, деб талқин этганлар. Яна баъзи бир (Гаэтано Моска (1858-1941), Вильфремо Парето (1848-1923), Роберт Михельс (1876-1936) ва бошқалар) каби социолог олимлар эса

<sup>6</sup>Maslow A. Motivation and Personality – N.Y.:Harper& Row, 1970.; McClelland D. The Achieving Socie.-N.Y.: Van Nostrand, 1961.;Alderfer C. An Empirical Test of a New Theory of Human Needs.-N.Y., 1967.;Gerzberg F. The Motivation to Work – N.Y.: Wiley, 1967.

<sup>7</sup>Adams J. Inequity in Social Exchange.-N.Y.: Academic Press, 1965.

<sup>8</sup>Vroom V. Work and Motivation. – N.Y.: Willey, 1964

<sup>9</sup>Skinner B.F. Walden Two-N.Y.: Macmillan, 1948.

<sup>10</sup>Tordike E.L. Animal Intelligence. – N.Y.: Macmillan, 1911.

мотивлаштиришни ижтимоий ҳукмронликнинг дастлабки сабабларидан биридир, деб тушунганлар<sup>11</sup>.

Айрим олимлар уни янада аниқроқ - “жамиятда юксак бошқарув мавқеини эгаллаган, фаолияти давомида одамларга таъсир этишнинг юксак ташкилотчилик, профессионал бошқарув сифатлари” сифатида талқин этадилар<sup>12</sup>. Лекин, шу билан бирга, мотивациянинг “субъектлар” қатламлари билан алоқаси инкор этилмайди, балки, уларнинг ҳар иккаласи икки хил йўналишга эга, аммо тенг ҳуқуқли соҳалар деб қаралади.

Қадимги даврлардаёқ жамиятни олий ва паст табақаларга бўлиш расм бўлган. Бу ҳолатни Конфуций, Платон, Форобий, Кошифий, Ницшеасарларида кузатиш мумкин. Лекин, бу назариялар социологик асосларга эга эмас эди.

Социолог Г.Москанинг элита назариясига кўра, ҳар бир жамиятда, ҳар бир ўртача ривожланган, энди цивилизация куртаклари очилган жамиятдан кучли ва маърифатли жамиятларгача икки синф шахслари мавжуддир: бошқарувчилар синфи ва бошқарилувчилар синфи. Биринчиси доимо оз сонли бўлиб, сиёсий функцияларни бажаради, ҳокимиятни ўзлаштириб олади, ўзининг афзалликларига хос тарзда “мотивация субъектлари”га айланади. Иккинчи синф эса кўп сонли бўлиб, биринчиси томонидан бошқарилади, мувофиқлаштирилади ва унга организм сифатида хизмат қилиб, моддий воситаларини етказиб бериб турувчи “мотивация объектлари”га айланади<sup>13</sup>.

Г.Моска таҳлилларига кўра, “субъектлар”нинг шаклланиш мезони, бу одамларнинг мотивлаштириш қобилияти даражасидир, яъни, уларнинг ташкилотчилик қобилияти, шунингдек, моддий, маънавий ва интеллектуал устунлигидир.

А.Лейпхарт қарашларига кўра, мотивация табақаларнинг сиёсий жиҳатдан кучайиши ва бошқарув ишларига кириб келган қисми ҳисобига таркибий янгиланиб боради. Бу янгиланиш турғунликнинг олдини олади динамик ривожланишни ҳамиша кучайтириб боради<sup>14</sup>.

Г.Москанинг назарияси сиёсий омилга кўп эътибор бергани учун танқидга учради. Албатта, плюралистик жамиятлар учун бу назария унча тўғри келмайди. Лекин, “мотивация субъектлари” назарияси кўплаб тоталитар давлатларда ўз ифодасини топди. Бунда сиёсат иқтисодиётга нисбатан бош

<sup>11</sup> Қаранг: Соловьев А.И. Политология: Политическая теория, политические технологии: Учебник для вузов. –М.: Аспект Пресс, 2004. – С.129-130.; Основы политической элитологии. Учебное пособие / Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: ПРИОР, 1999. –С. 77, 169.; Артемов Г. П. Политическая социология: Учебное пособие. –М.: Логос, 2003. –С. 128.; Социология: Учебник / Бойков В.Э., Демидов Ф.Д., Игнатов В.Г.; под общ. ред. В.Э.Бойкова. –М.: РАГС, 2004. –С. 49, 176.

<sup>12</sup>Основы политической элитологии. Учебное пособие/ Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: ПРИОР, 1999. –С. 209,298.

<sup>13</sup>Қаранг: Основы политической науки. Учебное пособие для выс.учеб.завед. Часть I.-М.:МГУ им.М.В.Ломоносова, 1996. –С.163-165.

<sup>14</sup> Артемов Г. П. Политическая социология: Учебное пособие. –М.: Логос, 2003. –С.131.

ролни ўйнаб, бошқа соҳаларни ҳам ўзига бўйсундирди ва ўзига хос бюрократия номенклатурасини шакллантирди<sup>15</sup>.

Социологлар В.Парето Р.Михельсларнинг қарашлари Г.Москага яқин туради. Шунга қарамасдан, уларнинг таълимотига янги назария сифатида қаралади. У мотивацияни рағбатлантирадиган, бошқарувчи тизимни улуғлайдиган жамиятнинг ташкилий структураларини ҳам чуқур таҳлил этди. Унга биноан, жамиятда “олигархик тамойиллар темир қонуни” амал қилади. Ташкилотлар мотивацияси олигархиялашувга ва бир-бири билан занжирсимон боғланган омиллар натижасида гегантларнинг шаклланишига олиб келади. Инсоният цивилизацияси йирик ташкилотларсиз яшаши мумкин эмас<sup>16</sup>. Бу ташкилотлар унумдорлигининг ошиши мотивларни рационаллаштириш, “мотивация субъектлари” ядроси ва аппаратининг ажралиб чиқиши, уларни секинлик билан оддий аъзолар назоратидан чиқа бошлаши, раҳбариятнинг шахсий манфаатлари сиёсатига бўйсунга бошлаши, ўзининг имтиёзли ҳолатини сақлашга интилиши билан кечади. Омма эса кўп ҳолларда бундай тамойилларни чуқур ёки тўла англаб етмайди. Шунинг учун демократик жамиятларда мотивацияни ҳақиқатда олигархик ва элитар гуруҳ бошқаради. Михельс қарашларини шу сабабли пессимистик фикрлар дейиш мумкин<sup>17</sup>.

Мотивациянинг қадрият назарияси тарафдорлари (Р.Миллс, М.Дювежи, Н.Бердяев) қарашларини қуйидаги умумий жиҳатлар бирлаштиради: мотивлаштириш - жамиятнинг нодир унсури; мотивация жамият манфаатларидан келиб чиқади, “мотивация субъектлари” жамиятнинг махсулдор қисми; мотивнинг шаклланиши кураш натижаси эмас, балки жамиятнинг табиий танлови. Бу селекцияни ривожлантириш лозим; мотивация имкониятлар тенглиги асосида келиб чиқади, олигархия унга ҳалақит бермайди, бинобарин мотивга эга одам ёки гуруҳ олигарх бўлиши табиий<sup>18</sup>.

Р.Даль, С.М.Липсет, Л.Зиглер, Д.Й.Шумпетерлардемократик шароитда мотивация назарияси вакиллари дидир. Уларга кўра, потенциал мотивлар ўртасидаги рақобат мазкур назариянинг асосий ғояси бўлиб, қуйидаги умумий белгиларга эгадир: биринчидан, Мунасобатлар нуқтаи назаридан инсон жамиятнинг аъзоси сифатида кўрила бошлади. Одамни меҳнатга ундаш нафақат пулга боғлиқ, балки мотивлаштиришга ижтимоий эҳтиёжлар ҳам таъсир этади. Бундан ижтимоий инсон концепцияси вужудга келди; иккинчидан, ресурслар нуқтаи назаридан ёндашиш “иктисодий инсон” ва

<sup>15</sup>Основы политической элитологии. Учебное пособие / Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: ПРИОР, 1999. –С. 77-84.

<sup>16</sup>Политическая социология: Учебник для вузов / Ж.Т. Тощенко, В.Э.Бойков, И.В.Образцов, С.С.Соловьев, Е.В.Охотский и др.; под ред. чл.-корр. РАН Ж.Т. Тощенко. –М.: ЮНИТИ ДАНА, 2002. –С. 334-352.

<sup>17</sup>Ўша манба. –С. 131-133.

<sup>18</sup> Пугачев В.П., Соловьев А.И. Сиёсатшуносликка кириш. –Т.: Янги аср авлоди, 2004. –Б. 149-150.

“ижтимоий инсон” концепцияларнинг давоми бўлиб, инсон кўп қиралли шахс сифатида кўрилади ва рақобатдош сифатида тушунилади<sup>19</sup>.

XX асрнинг иккинчи ярмида кенг ёйилган ва катта баҳсларга сабаб бўлган плюралистик концепция<sup>20</sup> эса қуйидаги қоидаларга таянади: “мотивация субъектлари”нинг имтиёзли гуруҳ эканлигини инкор этиш, яъни “мотивация объектлари”ни эркинлаштириш; мотивлаштиришни ижтимоийлаштириш; мотивация субъектлари ва объектлари ўртасида рақобатни шакллантириш<sup>21</sup>.

Шу ўринда Америкада мотивациялаш масалалари билан боғлиқ баъзи тарихий жараёнларга тўхталиб ўтишни лозим топдик. Америкалик тадқиқотчилар ўз мамлакатларида бу борадаги тараққиётни: “ворислар ва жентельменлар бошқаруви” (1789-1829), “амалга ўз кучи билан эришганлар бошқаруви” (1829-1883), “умумманфаат тамойили асосида бошқарув” (1883-1906) ва “илмий асосда бошқарув тамойили устуворлиги” (1906 йилдан ҳозиргача) даврларига бўлишади<sup>22</sup>. Мазкур даврийлаштириш АҚШ давлат хизмати назарияси ва амалиётида кечган ўзгаришларни акс эттириши билан эътиборга сазовордир.

АҚШда мотивация бўйича XIX аср охирида ислохотлар ўтказилган эди. Бироқ ислохот ғоясининг бош камчилиги - “ҳар бир кишида қобилият бор”, деган янглиш хулоса эди<sup>23</sup>. Шунга кўра XX асрга келиб ислохотлар қуйи категория меҳнаткашларини рағбатлантиришдан бошланди. Ушбу ислохот ўзининг ижобий натижасини берди ва рағбатлантириш тизимининг янги даврини бошлаб берди. Яъни илмий ёндашув тамойилининг жорий қилинишига шароит яратди. Бу билан мотивацияда: натижаларни баҳолашнинг объективлигига интилиш; ходим имкониятларининг лавозим талабларига мослиги ўлчовлари жорий этилиши; шахсий муносабатларнинг танлов натижаларига таъсири бартараф қилиниши бошланди; мотивация масаласини рационаллаштиришнинг илмий услублари тобора мустаҳкамлана борди. Охир-оқибатда мотивация давлатнинг рентабел соҳасига ва илмий муаммо даражасига кўтарилди. Бунинг натижаси ўлароқ, олий ўқув юртларида “жамият бошқаруви” (public administration) бўйича ўқув курслари жорий этилди. Бу фаннинг олий таълим тизимида жорийланишига аслида позитивизм фалсафасининг асосчиси О.Контнинг (1798-1857) тараққиёт ва самарадорлик ҳақидаги ғоялари асос бўлган эди. Кейинчалик, бу курслар алоҳида институтларга айлантирилди ва кенг даражада олиб борилган илмий изланишлар натижасида жуда катта илмий захира вужудга келтирилди.

<sup>19</sup>Основы политической элитологии. Учебное пособие / Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: ПРИОР, 1999. –С. 176-184.; Артемов Г. П. Политическая социология: Учеб. пособие. –М.: Логос, 2003. –С. 131-132.

<sup>20</sup>Основы политической элитологии. Учебное пособие/ Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: Издательство ПРИОР, 1999. –С.144-168.

<sup>21</sup> Основы политической науки. Учебное пособие для высших учебных заведений. Часть I. –М.:МГУИМ.М.В.Ломоносова, 1996.–С.168-174.

<sup>22</sup>Principles of Public Administration.Washington, 1927.-P. 12.

<sup>23</sup>Ўша манба. –P.16.

АҚШда илмий бошқарув назариясининг асосчиси Ф.Тейлор ҳисобланади. У Америка инженер-механиклари жамияти фаолларидан бири бўлиб, ўз ғояларига иқтисодчиларни ҳам жалб қилган эди. Илмий бошқариш йўриқномаси: рационаллаштириш - бошқарувчининг муҳим муаммоларини ўрганиш ва оқилона қарорларга таяниш; режалаштириш - мақсадга эришиш дастурини асослаш учун дуч келиш мумкин бўлган объектив шарт-шароит ва эҳтиёжларни башорат қилиш; ихтисослаштириш - бошқарув жараёнида энг муносиб материаллар, асбоб-ускуналар, маҳсулотлар ва мутахассислардан фойдаланиш; стандартлаштириш - энг яхши намуналар ва ютуқлардан фойдаланиш; ўлчов ёки баҳолаш - ҳар бир хизматчининг масалани ҳал қилишга қўшган шахсий ҳиссаси, унинг меҳнат самарадорлиги ва малакасини аниқ ҳисоб-китоб услублари орқали ўлчаш ва баҳолаш каби тамойиллар асосига қурилди. Бу тамойиллар муаммоларни ечишнинг энг мақбул усулларини қидириб топиш ва харажатларни имкон қадар камайтириш каби талаблар билан бойитилди. 1937 йилда олимлар Ж.Галик ва Л.Эрвин томонидан “Papers on Science of Administration” номи билан чоп этилган мақолада давлат бошқаруви ва давлат хизмати мотивлаштириш нуқтаи назаридан илмий асосда ўрганилиб, бу соҳада қуйидаги етти принцип асосий йўриқнома сифатида тавсия этилганди: режалаштириш, ташкиллаштириш, штат (ихтисос)лаштириш, бошқариш ва йўналтириш, мувофиқлаштириш, ҳисоб-китоб қилиш (ўлчаш ёки баҳолаш), захиралаштириш. Бу принциплар тезда бошқарув занжири, ҳамжихатлик ва яқиндан назорат қилиш каби иерархик ўлчовларга эга бўлган ташкилотларнинг диққат-эътиборини тортган эди. Шуниси қизиқки, давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш ҳаракатида маҳаллий бошқарув органлари “мотивация субъектлари” бўлиб чиқишди<sup>24</sup>.

Илмий бошқарув назарияси мотивлаштириш ишини ташкил қилишга шунда ёрдам бердики, бу чора энг аввало бошқарув лавозимларини янгича стандартлаштириш ва таснифлашга асос бўлди. Жумладан, 1949 йилда АҚШнинг “Давлат хизматчилари лавозимлари таснифи ҳақида қонун”и қабул қилинди. Бу қонун давлат хизматининг 18 даражасини аниқлаб берди<sup>25</sup>. У ёки бу лавозимга ўтказиш, қабул имтиҳонлари орқали амалга оширилиб, бу имтиҳонлар асосан талабгорнинг лавозим вазифаларини бажариш учун зарур бўлган малакасини синаш ва баҳолашга хизмат қилди. Ростгўйлик, билим, зиёилик, сиёсий бетарафлик каби талабларга алоҳида эътибор берилди. Ана шу асосда давлат бошқаруви масаласида самарадорлик тамойилидан ижтимоий аҳамият тамойили принципига ўтиш юз берди. Иккинчи жаҳон уруши даврида омманинг фаоллашуви бу жараёни янада тезлатганини кузатиш мумкин<sup>26</sup>. Аср

<sup>24</sup>Қаранг: Скидмор М.Д., Трипп М.К. Американская система государственного управления. –М.: СП “Квадрат”, 1993. –384 с.

<sup>25</sup>Ўшаманба. –С. 17.

<sup>26</sup>Report of the Committee with Special Studies (The President’s Committee on Administrative Management). Washington, 1997. -296 p.



охирида ҳокимият тепасига келган Б.Клинтон персонални бошқаришнинг илмий тамойилларини янада илғорлаштирган 100 дан ортиқ ҳужжатлар қабул қилди ва уларнинг кўпчилиги айнан меҳнат ресурсларини мотивлаштириш масалаларига бевосита алоқадор эди<sup>27</sup>.

Ҳозирги даврда мотивация ва уни ривожлантиришнинг илмий масалалар “Менежмент”, “Персонал менежменти”, баъзи мамлакатларда эса “Персонал бошқаруви”, “Public administration” (давлат бошқаруви) каби фанларда кенг ўрганилади. Бу фанлар асосан иқтисодиёт, ҳуқуқ ва психология фанларининг баъзи йўналишларидан фойдаланаб, мақсадга кўра давлат ва нодавлат ташкилотлари, корхона, фирма, компания каби инсоний бирликлардаги бошқарувни такомиллаштириш ва самарадорлигини оширишга асосий эътибор қаратади.

Мотивацияга доир масалаларни ўрганишда менежмент фани асосан “ташкилот бошқаруви” тушунчасидан келиб чиқиб, бу соҳадаги вазифаларни белгилайди. Ташкилот бошқаруви - умуман ўзини бир бутун тизим сифатида, шунингдек, унда одамлар фаолиятини олиб боришга тегишли бўлган ўзига хос қоидалар тизимини ифодалаган тушунчадир. Ташкилотни бошқариш амалиётида у ёки бу кадрлардан фойдаланиш уларни жой-жойига қўйиш, самарадорликни оширишнинг аниқ усулларида фойдаланиш зарурияти асосланади. Шундан келиб чиқиб, менежмент фани ўрганадиган персонал бошқаруви тушунчасига таъриф берилади: персонал бошқаруви - бу ўзида ташқи ва ички муҳитдаги ўзгаришларга тезкорлик билан мослашишга мойил бўлган, юксак ишлаб чиқариш, юксак касбий маҳорат, уюшган, масъул жамоани ташкил этиш мақсадига эга бўлган персонал билан ишлашнинг бир бутун стратегиясидир.

Шунга кўра ташкилот персоналани адолатли мотивациялашнинг мақсадлари қуйидагилардир:

- режалаштириш, танлов ва ёллаш, ишдан озод этиш (ишдан бўшаш, пенсияга чиқиш), кадрлар қўнимини таҳлил этиш кабиларни ўз ичига олган ҳолда ташкилотни юксак сифатларга эга бўлган ишчи кучи билан таъминлаш;

- ходимларни ривожлантириш, касбга йўналтириш, қайта тайёрлаш, аттестациялар ўтказиш ва касбий даражасини баҳолаш, хизмат даражасини ошиб боришини ташкил этиш;

- меҳнатни ташкил этиш ва рағбатлантиришни такомиллаштириш, техника хавфсизлиги ва ижтимоий тўловларни таъминлаш ва бошқалар.

Мотивация вазифалари эса қуйидаги тарзда шаклланади:

<sup>27</sup>Creating of Government That Works Better and Costs Less.Report of the national Performance Review.Wash., 1993. -64 p.

- кадрлар билан амалга ошириладиган барча ишларнинг зарурий касбий маҳорат даражаси талабларига, ходимлар манфаатлари ва фаолиятини тўхтовсиз ва сифатли даражада таъминлашга бўйсундирилганлиги;

- бирлашма, ташкилот ва корхона қарамоғида мавжуд бўлган кадрлар салоҳиятидан рационал фойдаланиш;

- ишчан, ўзаро дўстона ишлаб чиқариш жамоасини шакллантириш ва қўллаб-қувватлаб туриш, меҳнат жараёнларини ташкил этиш жараёнлари тамойилларини ишлаб чиқиш; ички ишлаб чиқариш демократиясини ривожлантириш;

- юксак касбий маҳоратга эга бўлган кадрларни жой-жойига қўйиш, ўқитиш, танлашнинг мезонлари ва усулларини ишлаб чиқиш; ишлаётган ходимларнинг асосий қисмини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш;

- персонални бошқариш назарияси ва бу соҳа мажмуига кирадиган таълимотлардан ижтимоий ва иқтисодий самарадорларини аниқлаш тамойилларини ишлаб чиқиш<sup>28</sup>.

Ҳозирги вақтда кадрларни сақлаш, уларни мотимлаштириш ва меҳнати самарадорлигини ошириш, бу меҳнатни бошқариш, йўналтириш ва бошқаларга оид қатор назариялар ишлаб чиқилганки, улар ичида айниқса Ф.У.Тейлорнинг “илмий бошқарув”, А.Маслоу ва Альдерфернинг “шахснинг иерархик эҳтиёжлари”, Ф.Херцбергнинг “рағбатлантиришни вертикал ва горизонтал кенгайтириш”,<sup>29</sup> Адамснинг “меҳнат ва тўловда тенглик”,<sup>30</sup> В.Врумнинг “валентлик, инструменталлик, натижалар ёки эътироф ва ишонч”,<sup>31</sup> Мак-Клелланднинг “ҳокимият, муваффақият, манфаат эҳтиёжлари”,<sup>32</sup> Р.Лайкертнинг “инсоний муносабатлар”,<sup>33</sup> Б.Скиннернинг “оператив боғланганлик”,<sup>34</sup> Л.Портер ва Э.Лоулерларнинг “одиллик”<sup>35</sup> каби бозор иқтисодиёти шароитида кадрларни бошқариш жараёнини акс эттирган назарияларидан<sup>36</sup> амалиётда айниқса кенг фойдаланилади. Бу назарияларда асосан, умуман ишчи-хизматчилар фаолиятида меҳнат самарадорлигини оширишга аҳамият қаратилади<sup>37</sup>.

<sup>28</sup> Теоретические основы менеджмента персонала. Учеб. пос. –М.: РЭА, 2000. –С.77-79.

<sup>29</sup> Службная карьера/ Гусева А.С., Иглин В.А., Лытов Б.В. и др.; под общ. ред. Е.В.Охотского. –М.: ОАО Экономика, 1998. –С.236.

<sup>30</sup> Хентце Й., Метцнер Й. Теория управления кадрами в рыночной экономике.–М.: “Международные отношения”, 1998. –С.375.

<sup>31</sup> Службная карьера/ Гусева А.С., Иглин В.А., Лытов Б.В. и др.; под общ. ред. Е.В.Охотского. –М.: ОАО Экономика, 1998.–С.240.

<sup>32</sup> Хентце Й., Метцнер Й. Теория управления кадрами в рыночной экономике.–М.: “Международные отношения”, 1998. –С.379.

<sup>33</sup> Службная карьера/ Гусева А. С., Иглин В.А., Лытов Б.В. и др.; под общ. ред. Е.В.Охотского. –М.: ОАО Экономика, 1998. –С.239.

<sup>34</sup> Ўша манба –С.240.

<sup>35</sup> Ўша манба. –С. 241-242.

<sup>36</sup> Ушбу назарияларга оид маълумотлар қуйидаги Интернет сайтларида ҳам сақланади: [Principles of Scientific Management by Frederick Winslow Taylorwww.marxists.org/reference/subject/economics/taylor/index.htm](http://Principles of Scientific Management by Frederick Winslow Taylorwww.marxists.org/reference/subject/economics/taylor/index.htm); [Scientific management - Wikipedia, the free encyclopedia.en.wikipedia.org/wiki/Scientific\\_management](http://Scientific management - Wikipedia, the free encyclopedia.en.wikipedia.org/wiki/Scientific_management); [Classics in the History of Psychology - A. H. Maslow, psychclassics.yorku.ca/Maslow/motivation.htm](http://Classics in the History of Psychology - A. H. Maslow, psychclassics.yorku.ca/Maslow/motivation.htm); [Work and the Nature of Man: Books: Frederick Herzbergwww.amazon.com/Work-Nature-Man-Frederick-Herzberg/dp/0451612396](http://Work and the Nature of Man: Books: Frederick Herzbergwww.amazon.com/Work-Nature-Man-Frederick-Herzberg/dp/0451612396); [Rensis Likert management systems and styles www.accel-team.com/human\\_relations/hrels\\_04\\_likert.html](http://Rensis Likert management systems and styles www.accel-team.com/human_relations/hrels_04_likert.html); [B.F.Skinner About Behaviorism:Books.www.amazon.com/About-Behaviorism-B-F-Skinner/dp/0394716183](http://B.F.Skinner About Behaviorism:Books.www.amazon.com/About-Behaviorism-B-F-Skinner/dp/0394716183); [V.H.Vroom.Work and Motivation.\(New York: John Wiley, 1964\).www.questia.com/PM.qst?a=o&se=gglsc&d=5000556662](http://V.H.Vroom.Work and Motivation.(New York: John Wiley, 1964).www.questia.com/PM.qst?a=o&se=gglsc&d=5000556662).

<sup>37</sup> Ушбу назариялардаги давлат ва жамият бошқарувини ташкил этишга алоқадор қарашларга ўхшаш фикрлар ўз вақтида Форобий томонидан ҳам илгари сурилган эди (1-бобга қаранг).

Шунингдек, «Персонални бошқариш» ва «Давлат хизмати персоналини бошқариш» фанларида ҳам персонални мотивлаштиришнинг турли тамойиллари, усуллари ва шакллари ўрганилади. Албатта, бунда «персонал» тушунчасининг луғавий маъноси ва моҳиятини тўғри шарҳлаш талаб этилади. Персонал - лотинча «personalis» сўзидан олинган бўлиб, унинг луғавий маъноси «шахс» тушунчасига тўғри келади<sup>38</sup>. Бу тушунча аксарият ривожланган мамлакатларда муассаса ёки корхонанинг шахсий таркиби маъносида қўлланилади. Шу билан бирга, расмий иш фаолиятида «персонал» тушунчаси маълум бир касбий категорияга тааллуқли хизматчилар маъносида ҳам ишлатилади. Баъзи муаллифлар эса «персонал» атамасини кўпинча унчалик катта бўлмаган фирмалар (бу ерда 100 кишидан камроқ киши банд бўлади) бошқаруви ва ишчи-хизматчиларига нисбатан ишлатадилар<sup>39</sup>. Яна баъзи муаллифларнинг фикрича, «давлат хизмати персоналига давлат аппаратида ишловчиларнинг тўлиқ шахсий таркиби, доимий ва вақтинча ишга жалб қилинган мутахассислар, техник хизмат кўрсатаётган ишчи-хизматчилар кирадилар»<sup>40</sup>.

Бизнингча, персонал деганда муайян ташкилотнинг барча ходимлари, мутахассислари, бошқарув ёки ишлаб чиқариш билан шуғулланувчи бир бутун шахсий таркиб тушунилади. Масалан, юқори даражадаги бошқарувда оддий ходим қуйи даражадаги бошқарув учун раҳбар бўлиши мумкин. Мисол учун, вилоят ҳокимлиги масъул ходими ўз соҳаси бўйича туман ва шаҳар ҳокимликларидаги масъул шахслар учун раҳбар бўлиши мумкин. Бундай ҳолда давлат хизмати персонали ҳокимиятнинг таркибий бўлинишига кўра алоҳида номланади.

Мотивация персонални бошқариш нуқтаи назаридан ёндашилганида бошқа фанлардаги тамойиллар ва қоидаларга ўхшаб кетади. Масалан, персонал бошқаруви фани нуқтаи назаридан «персонал мотивациясининг асосий тамойиллари қуйидагичадир: жинси, ирқи, миллати, тили, келиб чиқиши, мансаби, мулкый мавқеи, яшаш жойи, эътиқоди, жамоат бирлашмаларига аъзолиги ва бошқа ҳолатларидан қатъий назар давлат томонидан фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатланиши; фуқароларнинг ижтимоий, ирқий, миллий ёки қайси динга мансублиги белгилари бўйича улар ҳуқуқларини чеклашнинг ҳар қандай шакллари таъқиқлаш тамойили; эркак ва аёллар учун ҳуқуқ ва эркинликлар тенглиги таъминланиши, уларнинг ўз салоҳиятларини намоиш этишлари учун бир хил имкониятлар яратилиши; давлат ишларини бошқаришда фуқароларнинг иштирок этиши ҳуқуқи

<sup>38</sup>Недель-Червинская М.А., Червинский П.П. Большой толковый словарь иностранных слов. В 3 томах. Т.2. –Ростов-на-Дону: Феникс, 1995. –С.436.

<sup>39</sup>Қаранг: Персонални бошқариш: ўқув қўлланма / Қ.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Шарқ, 1998. –Б. 47.

<sup>40</sup> Давлат хизмати персоналини бошқариш. Ўқув қўлланма / Қ.Х. Абдурахмонов, Д.Н. Рахимова ва б.–Т.: Академия, 2002. –Б. 8.

тенглигининг кафолатланиши; фуқароларнинг меҳнат қилиш қобилиятидан эркин фойдаланиш, фаолият тури ва касб танлаш ҳуқуқининг тенглиги эътироф этилиши; фуқароларнинг давлат хизматида ишлаш учун тенг имкониятга эга эканлиги қонуний асосда тан олинганлиги”<sup>41</sup>. Шунингдек, мотивлаштиришнинг энг муҳим талабларидан бири сифатида касб маҳорати ва омилкорлик хусусиятлари талаб қилиниши таъкидланади. “Касб маҳорати инсоннинг касбига доир билим, малака ва кўникмаларни юқори даражада эгаллагани, унда касбга доир психологик тажриба мавжудлигини билдиради”<sup>42</sup>.

Персонални мотивлаштириш масалалари яна бошқарув психологияси, бошқарув социологияси, давлат бошқаруви каби қатор фанларда ҳам тадқиқот объекти сифатида ўрганилади<sup>43</sup>. Ҳозирги даврга келиб ривожланган мамлакатлар мотивация тамойилларида кадрларнинг ўз вазифаларини бажаришлари учун шахсий ва касбий сифатларини такомиллаштириш жараёнларида бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган иккита масалани ҳал этишга устувор аҳамият берилмоқда.

Биринчи, кадрларни компьютер ва замонавий ахборот технологияларининг барча ресурсларидан фойдаланишга ўргатиш уларни мураккаб шароитларда бошқаришнинг қудратли воситаларига эга бўлиш билан, шунингдек, бошқарувнинг анархия ва тартибсизликларга айланиб кетишининг олдини олишга қодир бўлган ҳар томонламалик сифати билан таъминлайди. Шунингдек, кадрлар аниқ фикрлаш ва оқилона мулоҳаза юритиши учун ўзларининг илмий савияларини ошириб боришига эҳтиёж сезилмоқда;

Иккинчидан, раҳбар кадрлар иш услубидаги буйруқ бериш ва юқоридан туриб раҳбарлик қилиш услублари ўз имкониятларини йўқотаётган ҳозирги даврда мантиқ, фалсафа, ҳуқуқ, иқтисодиёт, индивидуал ва жамоавий психология каби фанларни чуқур ўрганишни ҳозирги мотивлаштириш ҳаёт кун тартибига қўймоқда.

Кадрларда танқидий баҳслар ва мулоқотлар олиб бориш сифатларини шакллантириш, бу жараёнларда ишончли далилларни топа олиш малакаларини эгаллаш натижасида меҳнат жамоаларини самарали бошқариш, жамоа меҳнат фаолиятининг маҳсулдорлигини оширишнинг кенг имкониятлари очилиши бугун ҳеч кимга сир эмас. Шу билан бирга, кадрларнинг доимий равишда сиёсий жараёнлар, қарорлар ва талаблар билан чуқур танишиб боришлари

<sup>41</sup> Давлат хизмати персоналини бошқариш. Ўқув қўлланма / Қ.Х. Абдурахмонов, Д.Н. Раҳимова ва б.–Т.: Академия, 2002.–Б. 64.

<sup>42</sup> Ўша манба. –Б.65.

<sup>43</sup> Каранг: Государственная служба: теория и организация. Ростов-на-Дону, Феникс, 1998. -640 с.; Теория управления. Учебник / Бойков В.Э., Демидов Ф.Д., Игнатов В.Г. и др.; Под общ. ред. Гапоненко А.Л., Панкрухина А.П. –М.: РАГС, 2005. –558 с.; Социальная политика. Учебник / Под общ. ред. Н.А.Волгина. –М.: РАГС, 2005. –544 с.; Стариков Ю. Н. Служебное право. Учебник. –М.: Бек, 1996. –698 с.; Обер-Крие Дж. Управление предприятием.-М.: Сирин, 1997. –256 с.; Пугачев В. П. Руководство персоналом организации. Учебник. –М.: Аспект-Пресс, 1998. –280 с.; Эффективность государственного управления. Пер. с англ./ Под общ. ред. Батчикова С. А., Глазтева С. Ю. – М.: Изд-во АО “Консалтбанк”, 1998. –848 с.; Галкина Т. П. Социология управления: от группы к команде. Учебное пособие. –М.: Финансы и статистика, 2001. –224 с.; Машков В. Н. Психология управления: Учебное пособие. СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2000. –208 с.; Яхонтова Е. С. Эффективность управленческого лидерства. –М.: ТЕИС, 2002. –502 с.

зарурият бўлиб қолмоқда, бунинг натижасида рўй бериши мумкин бўлган камчиликлар ва хатоларни тузатишни стратегик мўлжаллаш қобилиятига эга бўлиш - замонавий кадрларга хос бўлган хусусиятлардан бирига айланмоқда.

Ривожланган мамалакатларда мотивлаштириш учун энг муҳим бўлган сифат - бу жамиятнинг бошқа аъзоларига нисбатан кўпроқ давлат манфаатларини ифодалаш онгини тараққий эттириш бўлиб, бу рақобатдош эркинликлар босими остида умумий манфаатларни ифода этишни сақлаб туришнинг, шунингдек, эркинликлар берадиган имкониятларни ошириб боришнинг демократик воситасини шакллантириш билан боғлиқ асосий кафолатдир<sup>44</sup>.

Ривожланган давлатларда ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятлари такомиллашиб боргани сари кадрларга бўлган талаблар ҳам ўзгариб бормоқда. Россия Федерациясида 2015 йилда ўтказилган социологик тадқиқотлар натижаларига кўра кадрлар учун зарур бўлган мотивациялаш нисбатини респондентлар қуйидагича белгилаганлар: “адолатлилик, тўғрилиқ, виждонлилик, инсофлилик - 76 %; ишчи ва хизматчиларнинг ҳаётий муаммоларни тушуниши, диққат-эътиборлилик, эзгулик, инсонийлик - 25 %; техникани билиш, ишни ташкил этиш қобилияти, ишчанлик, компетентлик - 24 %; талабчанлик - 4 %”<sup>45</sup>.

Шу билан бирга, кўпчилик ривожланган мамлакатларда бошқарув кадрлари муаммолари соҳасида тадқиқот олиб борган олимлар ташкилотлар раҳбар кадрларининг ижобий сифатларини таҳлил этишдан ташқари, унинг салбий хусусиятларини ҳам ўрганишга муҳим аҳамият берилмоқда. Бу соҳада узок давр мобайнида олиб борилган тадқиқотлар натижасида “кучсиз раҳбар”нинг қуйидаги сифатлари таҳлил этилган:

- раҳбар режаларини бузиб турадиган, олдиндан эътиборга олинмаганлигидан рўй бериб турадиган нохуш ҳолатларнинг кўплиги. Албатта, бу каби ҳолатлар кўпинча “тасодифлар”, деб баҳоланса-да, у раҳбарнинг воқеалар ривожини олдиндан кўра билиш қобилияти пастлигини, бу йўналишда у ахборотлар йиғмаганлиги, бошқа шунга ўхшаш ҳолатларни чуқур таҳлил этмаганлигини билдиради;

- “очик эшиклар” усули асосида ишлаш, яъни бошлиқ хонасига ҳар қандай ходимнинг исталган масала бўйича хоҳлаган пайтда кириш имкониятининг мавжудлиги (унга қарама-қарши бўлган усул - ходимлар ва бошқа бегоналарнинг раҳбар қабулхонасида соатлаб бекор ўтказиши ҳам самарасиз бўлгани каби). Бу каби раҳбар иш столида қоғозлар ва ҳужжатлар тўлиб кетади, уларни ичидан керакли ҳужжатни топиш амри-маҳолдир;

<sup>44</sup> Высшие административные кадры и устройство Европы.-М.:Посольство Франции в Москве,1999. -С.36-37.

<sup>45</sup>Каранг: Столяренко Л. Д. Психология управления: Учебное пособие. Ростов-на-Дону, “Феникс”, 1916. -512 с.

- узоқ вақт узун нутқ сўзлашга ва давомли мажлисларга мойиллик, турли панду насихатлар қилиш, буйсунувчилар билан узоқ масофада туриш, ўзини айбсизлигига ишониш, ўзини бошқалардан ишчан деб кўрсатиш;

- саҳардан бошлаб то ярим кечагача ишлашга мойиллик, тезда ҳал қилиш керак бўлган ишларни уйга олиб келиб бажариш одати, умумий маданий савия ва интеллектуал салоҳиятнинг пастлиги;

- стереотип (бир қолипга тушган, тор) фикрлашга (“касбий деформация”га) мойиллик: раҳбарнинг ишчанлик сифатини собитқадамлик белгилари асосида баҳолаш шакллантирилади, хушомадгўй, дангаса ва гўёки “тиришқоқ” одам образида бўлади, бу каби баҳолашларни ўзгариши жуда ҳам қийин бўлади<sup>46</sup>.

Албатта, ривожланган мамлакатларда мотивациялашнинг замонавий тизимини такомиллаштириш, уни демократик тамойиллар ва қадриятлар асосида амал қилишини таъминлашга доир чуқур тасаввурларга эга бўлиш учун уларнинг айримларини алоҳида-алоҳида тарзда ўрганишга зарурият туғилади. Чунки, бу соҳада барча ривожланган мамлакатлар учун умумий бўлган қоидалар, тамойиллар ва хусусиятлардан ташқари бир неча асрлар давомида шаклланиб, сингиб кетган миллий жиҳатлар ҳам мавжудки, уларсиз бу мамлакатларнинг турли даражадаги мотивлаштириш тизимини англаш қийин кечади. Ҳозир ўтиш даврини бошдан кечираётган Шарқий Европадаги собиқ социалистик мамлакатлар, шунингдек, МДҲ давлатларининг аксарияти фуқаролик жамияти ва ҳукуқий давлат куришга доир ислохотларни амалга оширишда, давлат бошқарувини демократик тамойиллар асосида такомиллаштиришда ривожланган давлатларнинг мотивациялашга доир тажрибаларини ўрганиш ва қўллаш асосида ўз миллий услубларини ривожлантиришга интилоқдалар.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Надель-Червинская М.А., Червинский П.П. Большой толоковый словарь иностранных слов. В 3-х т. Т.3. –Ростов-на/Д: Феникс, 1995. –Б. 421.
2. Политическая социология: Учебник для вузов / Ж.Т. Тощенко, В.Э.Бойков, И.В.Образцов, С.С.Соловьев, .В.Охотский и др: под ред. Ж.Т. Тощенко. –М.: ЮНИТИ ДАНА, 2002. –С. 334.
3. Авесто.-А.Маҳкамов таржимаси. -Т.: Шарқ, 2001. -Б. 248.
4. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар, 1-жилд. -Т.: Фан, 1968. -486 б.;
5. Adams J. Inequity in Social Exchange.-N.Y.: Academic Press, 1965.
6. Vroom V. Work and Motivation. – N.Y.: Willey, 1964
7. Skinner B.F. Walden Two-N.Y.: Macmillan, 1948.
8. Tordike E.L. Animal Intelligence. – N.Y.: Macmillan, 1911.

<sup>46</sup>Столяренко Л. Д. Психология управления: Учебное пособие. Ростов-на-Дону, “Феникс”, 1916. –512 с.

9. Основы политической элитологии. Учебное пособие/ Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: ПРИОР, 1999. –С. 209,298.

10. Основы политической науки. Учебное пособие для выс.учеб.завед. Часть I.-М.:МГУ им.М.В.Ломоносова, 1996. –С.163-165.

11. Артемов Г. П. Политическая социология: Учебное пособие. –М.: Логос, 2003. –С.131.

12. Основы политической элитологии. Учебное пособие / Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: ПРИОР, 1999. –С. 77-84.

13. Политическая социология: Учебник для вузов / Ж.Т. Тощенко, В.Э.Бойков, И.В.Образцов, С.С.Соловьев, Е.В.Охотский и др.; под ред. чл.-корр. РАН Ж.Т. Тощенко. –М.: ЮНИТИ ДАНА, 2002. –С. 334-352.

14. Пугачев В.П., Соловьев А.И. Сиёсатшуносликка кириш. –Т.: Янги аср авлоди, 2004. –Б. 149-150.

15. Основы политической элитологии. Учебное пособие / Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: ПРИОР, 1999. –С. 176-184.; Артемов Г. П. Политическая социология: Учеб. пособие. –М.: Логос, 2003. –С. 131-132.

16. Основы политической элитологии. Учебное пособие/ Ашин К., Понеделков А.В., Игнатов В.Г., Старостин А.М. –М.: Издательство ПРИОР, 1999. –С.144-168.

17. Основы политической науки. Учебное пособие для высших учебных заведений. Часть I. –М.:МГУим.М.В.Ломоносова, 1996.–С.168-174.

## АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИДА ЭТЮДНИНГ АҲАМИЯТИ

Р.Ж.Уснатов  
ЎзДСМИ

**Аннотация:** Этюд санъат асарини туғилишидаги биринчи изланишлар бўйича қилинадиган қоралама чизгилар, ижодий жараённинг амалий дебчаси, ижодий жараёнда ҳосил бўлаётган илк таҳлилни амалий кўриб чиқиш услуги. Янада аниқроқ қилиб айтганда, ижодий изланишдаги таҳлилда яхлит ҳосил бўлаётган асарни кичик формадаги этюдлар ёрдамида амалий кўриб чиқиш услугидир.

**Калит сўзлар:** Этюд, образ, хореография, хайкалтарош, кино, эстрада, композиция, рассом, воқелик, баҳолаш, хонанда актёр, режиссёр, дирижёр, партитура, педагог-режиссёр, нота, ритм, темп, динамика, саҳнавий хатти-ҳаракат, воқийлик, драматург, балетмейстер, педагог, муаллиф, бастакор, репетиция.

## THE IMPORTANCE OF STUDY IN THE PROCESS OF WORKING ON THE WORK

R.J.Usnatov  
UzSACI

**Abstract:** Drawings on the first researches in the birth of a work of art, a practical prelude to the creative process, a method of practical consideration of the first analysis formed in the creative process. More precisely, it is a method of practical consideration of a work that is formed as a whole in the analysis of creative research using small-scale etudes.

**Keywords:** Etude, image, choreography, sculptor, film, variety, composition, artist, reality, evaluation, singer, actor, director, conductor, score, pedagogue-director, note, rhythm, tempo, dynamics, stage action, reality, playwright, choreographer, educator, author, composer, rehearsal.

Ҳар бир санъат турларида ўзига хос этюд шакллари бор. Рассомлар мусаввир асарни яратишдан аввал этюдлар чизиб, асар композициясини, унинг руҳиятини, қахрамонларни образ шаклидаги кўринишларини, деталларни акс этиш йўллари энтюд чизгилари орқали кўриб чиқишади.

Муסיқа санъатида этюд тўлиқ асар сифатида эмас, унга дебоча ҳолатида намоён бўлади. Баъзи бир илк туйғуни муסיқавий ифодаси сифатида ҳосил



бўлади. Кичик формадаги композицион қурилмалар орқали мусиқий этюд яратилади.

Хореография, хайкалтарошлик, кино ва эстрада санъатларида ҳам ўзига хос этюд шакллари бор<sup>1</sup>. Замонавий театр санъатида йигирманчи асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб этюд услуби алоҳида ўринга эга бўлади.

Театр санъатида этюд ҳаётнинг мўжазгина бир лавҳаси ҳисобланади. Ҳаёт, турли воқеалар тизмасидан таркиб топгандай, этюднинг ҳам негизда воқеликлар ётади. Мукамал этюд, учта воқеликдан иборат бўлади. Этюднинг уч воқелик таркибий қисмларидан биринчи воқелик, этюднинг кириш воқеаси бўлиб, у этюд кўринишидан аввал бошланган бўлиб, парда очилганда воқеликни яқунловчи қисмидан сахнада намоён бўлиб кетади. Сўнгра баҳолаш жараёнидан ўтилиб, сахнага иккинчи воқелик кириб келиб, бу воқелик сахнада тўла ҳолатда ўтади. Учинчи воқеликнинг баҳолаш жараёнидан сўнг, янги воқелик бошланганида этюд ўз якуини топа олади.

Бу уч воқеликдан таркиб топган этюд тузиш шакли, рисоладаги талаб. Аммо ижодий жараёнда, этюдни шакли ўзгача ташкил топган бўлиши ҳам мумкин. Биринчи воқеликнинг якуний қисмидан бошланиб, иккинчи воқелик тўлиқ ўтиб, тамом бўлиши билан ҳам этюд тугаши мумкин. Ёки, иккинчи асосий воқеликдан бошланиб, учинчи воқелик кириб келишида ҳам тугалланиши мумкин. Бу шакллари пайдо бўлиши, қўйилаётган асар моҳиятидан келиб чиқилган ҳолда ҳал қилинади.

Машқлардан этюдга ўтиш пайтида, ҳали муаллиф асари ҳақида сўз юритилмайди. Бошланғич пайтларда этюдларнинг муаллифлари талабаларнинг ўзлари бўлишади. Устоз бу жараёни вазифалар бериб, билвосита бошқариб туради.

Этюд машқлар асосида туғила бошланганда, ҳали кўп нарсалар устозга ҳам, талабага ҳам, номаълум бўлади. Шунинг учун устоз талабани ижодий имкониятларини англаб олиши учун этюд шаклланишида, этюдни ўзи қурмай, шогирдларини ишини билвосита бошқариб боради. Устоз, талабага мустақил этюд қуриш йўллари эгаллашига шароит яратади.

Этюд туғилиш жараёнида, талабага кўп номаълум бўлган ижодий ва ташкилий нарсалар аён бўла бошлайди. Чунинчи, бу машқ ҳали этюдга ўта оладими? Талабанинг, ижодий ва ташкилий имкониятлари қай даражада? Актерлик маҳоратини эгаллашда, эришган қудрати, туғилаётган этюдга етадими? Унда, туғилаётган этюд талабига жавоб берадиган психотехникасида, ўзлаштирган асослари борми? Машқда ташкил бўлаётган шарт шароитлар талабага мосми? Талаба қай даражада сахнада хатти -ҳаракат қилишни

<sup>1</sup> Смирнов-Неевицкий "Вахтангов" Ленинград-1987 г

ўзлаштирган? Бу этюд уни индивидуал хусусиятларига яқин бўлиб, уни оча оладими?<sup>2</sup>

Шунга ўхшаш талайгина муаммолар ечими, айнан, машқдан этюдга ўтиш жараёнида туғилиб, шаклланиб, ривожланиб боради.

Агарда талаба, шу пайтгача машқларда, хатти-ҳаракат элементлари устида иш юритган бўлса, энди у, этюд шаклланишида, тўлиқ хатти-ҳаракатни бажаришга ўта бошлайди. Этюд туғилишида талаба, актёрлик маҳоратини асосий негизи, унинг ўқ илдизи бўлган, кичик доирадаги шарт шароитларда хатти-ҳаракатни сахнада бажаришликни органикасида ўзлашириши керак. Хатти-ҳаракат, актёрлик маҳоратини ҳамма элементларини ўз ичига қамраб олгани учун талабаларнинг ҳаммаси машқдан этюдга ўтиш жараёнидан ўтишлари лозим.

Даставвал талабалар якка этюд қуришга ўрганишади. Ижодий ишларни ўзлаштиришига қараб ва талабаларнинг иқтидоридан келиб чиқиб, икки кишилиқ сўзсиз этюдлар устида ҳам иш юритилиши мумкин.

Фақат бу этюдлар хайвонот олами ва кузатувлар асосида яратилса осонроқ кечади. Биринчи босқичнинг, биринчи ярим йиллигида оммавий этюдларни сахнага олиб чиқиш ҳам яхши натижалар беради. Фақат, оммавий этюдлар машқлар туркумларидан юзага келиши маъқул. Назаримизда, улар машқлардан уйғунлашиб туғилса, ўқув жараёнида узилиш бўлмайди.

Машқдан этюдга ўтишда, устоз машқларга янги шарт шароитларни киритиб, уларни кескинлаштириш ҳисобига, этюд шаклланишини ташкил қилади. Агар машқлар устидаги ишларда талабалар, машқ доирасига таълуқли шарт шароитлар устида иш юритишган бўлишса, энди устознинг талаби билан машқлардан ташқари ётган, шарт шароитларни олиб киришади.

Ҳар қандай ҳаётий кузатувларни, хотира асосидаги хис туйғулар ва хатти-ҳаракат, буюмларни жонлаштириш, хайвонлар кузатувини, бир неча сўзлар асосида қилинадиган машқларни этюд туғилишига олиб келиш мумкин. Бунинг учун кичик доирадаги шарт шароитларга ўрта доирадаги шарт шароитларни олиб кирилса, воқелик туғилиб, машқ этюдга айланиши мумкин<sup>3</sup>.

Кўнгилдагидек бажарилаётган машқларга янги кутилмаган ёки кескинлашган шарт шароитларни олиб кириш ҳисобига, улардан бирини этюднинг етакчи шарт шароит даражасига олиб чиқилса, воқелик туғилишга асос сола олади.

Машқнинг етакчи шарт шароити бор жойда хатти-ҳаракат бўлади. Хатти-ҳаракат эса мақсадсиз бўлмайди. Мақсад туғилгандан кейин, воқеликни боши билан охири белгиланиб қолади. Машқга воқелик кириб келгандан кейин

<sup>2</sup> Встречи с Меерхольдом. Москва- 1967 г

<sup>3</sup>Смирнов-Неевицкий "Вахтангов" Ленинград-1987 г

асарнинг (этюд кичик шаклдаги асар деб қаралиши назарда тутилаяпти) етакчи шарт шароити шаклланади. Асарни етакчи шарт шароити аниқлангандан кейин, унга зид бўлган муаллифнинг (Бу ерда талабанинг ўзи этюд муаллифи сифатида иштирок этиши назарда тутилаяпти) жамиятда кузатаётган шарт шароитлардаги нуқсонга, шахсий этирози туғилади. Талаба бу этюди билан нима демоқчи? Инсоннинг қайси гуманистик эзгу ниятларини рўёбга ошироқчи бўлган истакларини ошқора қилишини кўзлагани аниқланади.

Этюд усубида ижод қилиш, актёрларни стол атрофида ортиқча ўтириб тахлил қилиш жараёнидан қочиш лозимлиги ханузгача театр тажрибасида долзарб масала бўлиб қолаяпти. Драматик асарни онгли тахлил қилиш, сахнада этюд услуби орқали, актёрни физик вужуди орқали рўёбга оширилиши кераклиги, халигача муаммоли масала бўлиб қолмоқда<sup>4</sup>. Драматик асарни маълум бўлаги олиниб, ундаги шарт шароитлар белгиланиб, этюд услубида хатти-ҳаракатга киришиб ишлаш, сахнада актёр танаси орқали, матинни қуриқ ёдлаб олмасдан ўз сўзлари билан ҳаракат қилишликдан қочишади. Стол атрофидаги тахлил қилишлик бизнинг назаримизда актёр сахнага чиқмасдан маълум қолипларни хосил бўлишига олиб келади. Актёр бу жараёндан ўтгандан сўнг стол атрофида келишилган онгли тахлил қолипларидан четга чиқа олмай қолади. Оқибатда сахнада эркин ижод қилиб бадан билан ролни ўзлаштириши ўрнига аниқлаб келишилган нарсаларни бажаришга тушади. Бу нарсалар унинг табиатига вужудига тўғри келиш-келмаслигидан қаттиқ назар, ўзини органикасини синдириб, табиатига тескари бўладиган нарсаларни ижро қила бошлайди. Этюд услуби бундай стол атрофида қолипланган ижодий жараённи қабул қилмайди. Этюда содда мақсад ва хатти-ҳаракат қилишлик учун лозим бўлган уч-тўрта шарт шароитлардан ташқари хали ҳеч нима маълум эмас. Қолган ижодий масалалар сахнада актёрни органикаси орқали, эркин изланишлар орқали аниқланади.

Этюд услубидаги бундай ижодий жараён сахнада эркинлик туғдириши билан бир қаторда актёрни индивидуал табиатини уйғотиб ишлатишига ва кутилмаган ижобий натижаларга эришишга кенг имконият туғдиради. Бу услубда ишлашда актёр ва режиссёрни бирлаштириб турадиган омил шу шарт шароитлардаги ҳаётий ҳақиқат ва унинг устидаги изланишлар оқибатида туғиладиган жонли бадиий тўқимадир<sup>5</sup>. Стол атрофидаги статик ҳолатдаги онгли изланишлар эмас, сахнадаги этюд услубида жонли хатти ҳаракат орқали хосил бўладиган изланишлар натижасида том маънода тўлиқ ижодий жараён бўлиб ўта бошлайди.

<sup>4</sup> Ж.Махмудов “XX-аср режиссураси” Ташкент 2015 й.

<sup>5</sup> Ж.Махмудов “Эргаш Масофаев” Ташкент 2014 й.

Этюдни махсус қурилма қолипларига солиб бўлмайди. Этюдни маълум қолипларга сола бошласангиз, унинг энг асосий белгиси-бадиҳагўйлик йўқола бошлаб, жонли хатти-ҳаракат ўрнини ўлик ижро эгаллай бошлайди. Этюд услубининг энг катта белгиси ва бош ютуғи эркин бадиҳагўйлик туғилишидандир. Ялқов, мустақил ижод қила олмайдиган, сахнада мураккаб изланиш жараёнидан қочадиган, эркин фикирлашни хохламайдиган, тўпори актёрлар учун режиссёрни тайёр берган вазифаларини бажаришни афзал кўриши тушунарли масала. Улар учун меҳнат қилиб нон топгандан кўра, боқиманда бўлиш осонроқ шекилли. Балким бундай актёрларга эркин ижод қилишликни худо уриб, юқтирмагандир.

Бизларга, орттирган камтарона тажрибамизда бир нарса аён бўлдики, буюк устозларимиз асар устида ишлаш жараёнида этюд услубида ишлаш лозимлигини такидлашганларида улар минг мартаба ҳақ эканликларига яна бир бор амин бўлдик.

### **Фойдаланган адабиётлар**

1. Ж.Махмудов “XX-аср режиссураси” Ташкент 2015 й.
2. Ж.Махмудов “Эргаш Масофаев” Ташкент 2014 й.
3. Т.Азизов “Мои режиссёрские работы” Ташкент 2010 й.
4. Смирнов-Неевицкий “Вахтангов” Ленинград-1987 г
5. Встречи с Меерхольдом. Москва- 1967 г

## «МУСИҚА МАДАНИЯТИ» ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ АҲЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК ТАРБИЯЛАШ

Р.Орипова

Юнус Ражабий номидаги ЎзММСИ

**Аннотация:** Мақолада мусиқа таълимидан, давлат стандартлари асосида янги таълим мазмуни ўқувчиларнинг мусиқий билим ва малакалари билан бирга уларда кузатувчанлик, хотирани мустаҳкамлаш, образли тасаввур қилиш, ижодкорлик, мустикаллик, ташаббускорлик, бадий ва мусиқий дид каби ҳислатларини ривожлантиришда муҳим омил эканлиги, шунингдек, мусиқий таълим-тарбия асосида миллий мусиқа меросимизни ўрганиш, мусиқа дарсларини ва синфдан ташқари мусиқа тарбияси тизимини ривожлантириш масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** мусиқа, миллий мерос, мусиқа таълими, хотира, тасаввур, ижодкорлик, мақом, шашмақом, бадий-эстетик, таълим-тарбия, ғоявий-сиёсий, маънавий, ахлоқий.

## ETHICAL AND AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS IN THE CLASSES OF "MUSIC CULTURE"

R.Oripova

UzINMA named after Yunus Rajabi

**Abstract:** From the music education, the new educational content based on state standards is an important factor in developing students' musical knowledge and skills, as well as observation, memory, imagery, creativity, independence, initiative, artistic and musical taste, as well as music education. - The study of our national musical heritage on the basis of education, the development of music lessons and the system of extracurricular music education.

**Keywords:** music, national heritage, music education, memory, imagination, creativity, status, shashmaqom, artistic-aesthetic, educational, ideological-political, spiritual, moral.

Бугунги ўзлигимизни англаш ўз тақдиримиз ва фарзандларимиз истиқболини яратиш имкониятига эга бўлган мустикал Ўзбекистонда миллий маданиятимизни ўзига хослигини тиклаш умумтаълим мактабларида ёшларни бадий тарбиялаш ва камол топтириш, ҳамда ҳозирги кунимизни тўлароқ идрок этиш учун энг аввало тарихимизни яхши билмоқлик ҳисобланади. Чунки, ҳар

бир янгилик, тарихий боғланиш орқали амалга оширилади. Барча фанлар қатори муסיқий таълимда ҳам давлат таълим стандартларини жорий этилиши миллий муסיқий мерослардан тўлақонли фойдаланиш имконини беради. Булар оммавий халқ куй ва қўшиқларида, хонанда ва созандаларнинг ижодий фаолиятлари, мақом, шашмақом, дostonлар ва бугунги замонавий муסיқий фаолиятида ўз аксини топади. Муסיқа санъатининг бу каби имкониятлари янги авлодни тарбиялашда, уларнинг баркамол бўлиб етишишларида ўзига хос, такрорланмас манба бўлиб хизмат қилади. Муסיқа таълимидан, давлат стандартлари асосида янги таълим мазмуни ўқувчиларнинг муסיқий билим ва малакалари билан бирга уларда кузатувчанлик, хотирани мустаҳкамлаш, образли тасаввур қилиш, ижодкорлик, мустақиллик, ташаббускорлик, бадий ва муסיқий дид каби ҳислатларини ривожлантиришни таъминлайди. Демак, ёш авлодни етук қилиб тарбиялашда «Муסיқа маданияти» дарсларини аҳамияти катта. «Муסיқий маданияти» дарслари ўқувчиларни ахлоқий-эстетик тарбиясига ижобий таъсир кўрсатади. Улардаги гўзалликка бўлган ҳис-туйғуларини ўстиради, муסיқа санъатига меҳр-муҳаббат, қизиқиш уйғотади, она-Ватанни севишга, бир-бирини, катталарни ҳурмат қилиш, меҳнатни, табиатни севишга, қадрлашга ўргатади ва ҳаётда ўз ўрнини топа олишга мадад беради. Бунда ўқувчилар муסיқа санъатини бутун нафосати билан ўрганишлари, муסיқани идрок этиш, якка ва жамоа бўлиб қўшиқ куйлаш ва рақсга тушиш, ижодкорлик малакаларини шакллантириш, муסיқа тарбиясининг асосий мақсади ҳисобланади. Шунингдек, ўқувчилар иқтидорини ривожлантириш учун зарурий шарт-шароит яратиб бериш ва уларнинг бадий эҳтиёжларини қаондириш муסיқа таълим-тарбиясининг вазифасини ташкил этади. Ҳозирги муסיқий таълим-тарбияси, шуни кўрсатадики, миллий муסיқа меросимизни ўрганишда, муסיқа дарсларини ва синфдан ташқари муסיқа тарбия тизимини аҳамияти катта. Дарсни қизиқарли бўлиши учун муסיқа ижодкорлиги қўлланилди, барча муסיқа фаолиятлари (хор бўлиб куйлаш, муסיқа саводи, муסיқа тинглаш) дарс мавзусининг ажралмас қисми ва мантиқан узвий боғланиб ўтилади.

«Дарс» - таълим-тарбияни амалга оширишнинг энг қулай ва самарали шаклидир. Жамиятимизнинг турли жабҳаларда бўлаётган сиёсий-иқтисодий, ижтимоий, маърифий ўзгаришлар барча фанлар қатори муסיқа дарсларининг мазмуни ва методикасига ҳам янги замонавий талаблар қўйилди:

1. Дарсда таълимий-дидактик, тарбиявий, ривожлантирувчи мақсадларни билиш ва уларни амалга ошириш.

2. Дарсда таълимнинг фаол усул ва услубларидан фойдаланиш.

3. Дарс жараёнида халқ педагогикаси анъаналарини, жаҳон педагогика ва психологияси, санъатимиз, буюк аجدодларимиз ўғитлари, ривоятларимиз,

ҳикмат тўла ҳадисларимиздан унумли фойдаланиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Маълумки, кейинги йилларда тажрибали методистлар, олимлар ва амалиётчи ўқитувчиларнинг ўқув жараёнини таҳлил қилиш соҳасида, ўтказилган ва дидактик шарт-шароитларга боғлиқ эканлиги кўрсатмоқда, Энг муҳим шарт-шароитлар қуйидагилардан иборат:

1. Дарсликлар, қўлланмалар, дастур, тавсияномалар, дидактик ва методик кўргазмаларни қуроллар ва техник воситалардан фойдаланиш.

2. Синфда ижобий психологик муҳит бўлиши.

3. Ўқитувчи ва ўқувчилар орасида ўзаро яхши муносабатда бўлиш.

Ушбу педагогик шарт-шароитларга амал қилиб, дарснинг мақсади ва мавзуси, тўғри ташкил қилинса, дарс сифатли ва самарали бўлиши мумкин.

Талабаларимизни олган назарий билимлари билан бирга амалий машғулот ўтказган дарслари ва ўқув-тарбия машғулотларида гуруҳнинг барча талаблари, ўқитувчи иштирокида таҳлил ва муҳокама қилишлари лозим. Таҳлил жараёнида, энг муҳими талаба ўзининг дарс ўтказувчи ўқитувчи сифатида тасаввур қилиб, ўз ишини уддасидан қанчалик чиқа олишини тўғри баҳолай олганидир. Талаба томонидан ўтказилган дарсларнинг ва тарбиявий ишларнинг таҳлили, одатда ўз-ўзини баҳолашда, ўзини ҳисоботини режа ва конспекталарни таҳлил қилишдан ўз ишини баҳолай олишдан бошланади. Методист-ўқитувчи амалиётчи-талабага методик ёрдам кўрсатиш ва маслаҳатлар бериб камчилик ва ютуқларни аниқлаб тўғри йўл кўрсатиши лозим. Бунда энг асосий мақсад талаба-ёшларимизни қобилият ва имкониятларини аниқлаб тўғри шакллантириш ва юзага чиқаришдир.

Ҳар бир мамлакатнинг мусиқа тарбияси ғоявий-сиёсий жиҳатдан халқнинг социал тузумига хизмат қилади. Шунинг учун мусиқа тарбияси мустақил мамлакатларда эътиқод учун хорижий мамлакатларида эса буржуа демократияси учун хизмат қилади. Ҳар бир халқнинг маорифида мусиқа тарбияси методикаси педагогикани дидактик қонуниятларига ва шу халқнинг миллий мусиқа маданияти, тили ва маданий анъаналарига асосланади. Шу билан бирга мусиқа тарбиясининг структураси, системаси (тизими) ва илмий-методик ютуқлар бошқа миллатнинг маърифий маданиятига ҳам ижобий таъсир этади. Хорижий мамлакатларда ягона ўқув режа ва дастурга амал қилинмайди. Давлат мактаблари билан бирга шахсий мактаблар, коллежлар ва олий таълим даргоҳлари мавжуд бўлиб, уларда турлича даражада эстетик тарбияни амалга оширишда ўқитувчига кенг ижодий эркинлик берилган. Ўқитувчи ўзининг мактаб шароити, имкониятлари ва ўқувчиларнинг билим даражасига қараб дастурга ўзлаштиришлар киритиши мумкин. Таълим ва тарбия жараёнида ўқувчиларда санъат орқали ҳаётни ўрганиш ва унга шахсий муносабат

билдириш, ижодий мунсабатда бўлиш малакаларини ривожлантиради. Мусиқа дарсларида юксак ривожланган техник воситалардан кенг фойдаланилади. Ўқувчилар электроорганларда чалиб куйлайдилар, турли фаолиятларни (айтишув, ҳаракатлар, бир-бирига жўрнавозлик қилишларни) бажарадилар.

Бунда асосан ўқувчиларда ижодий қобилиятни рўёбга чиқаришдан иборат. Жумладан, АҚШда ягона давлат дастури йўқ. Мусиқа таълими «эстетика» сифатида ўтилади. Унда мусиқа, тасвирий санъат ва меҳнат мазмунан бир-бири билан боғланган. Давлат мактаблари билан бирга диний ҳамда шахсий дунёвий мактаблар ҳам мавжуд. Шунинг учун ҳар бир штатда давлат мактабларида, шахсий ва диний мактабларда ўқув соатларини ҳам бир хил эмас, ўрта ҳисобга I-VII-синфларда ҳафтасига 1-2 соатдан дарс ўтилади. Дарсдан ташқари ҳар бир ўқувчи мусиқа тўғарақларига (хор, оркестр, рақс, ВИО) аъзо, деярли ҳар бир мактабда симфоник оркестр мавжуд.

Японияда ҳам ягона ўқув режа ва дастурга амал қилинмайди. Японияда мусиқа тарбиясининг ўзига хос системаси вужудга келган. Уларда болалар боғчасидан олий таълимгача эстетик тарбия амалга оширилади. Эстетик тарбия интеграция қилинган фан бўлиб, унга мусиқа, тасвирий санъат ва меҳнат узвий бирлашган. У бир неча босқичда амалга оширилади:

- а) 1-5 ёшгача болалар боғчасида;
- б) 6-14 ёшгача тўлиқсиз ўрта мактаб;
- в) 15-18 ёш ўрта мактаби;
- г) 18-23 ёш олий таълим мактаби.

Болалар боғчасида «Суздуки» тизими машҳурдир. Унинг тизимида она тилини ўқитилиши, мусиқа тинглаб идрок этиши билан амалга оширилади. Болалар чолғу асбобларларда куй чалишлари муҳим роль ўйнайди. Машғулотлар жараёнида болаларнинг онаси ҳам иштирок этади. Машғулот мазмуни ва мақсадидан огоҳ бўлади ва оилада ўз овози билан шуғулланади. Суздукиннинг таъбирида оналар мусиқа маълумотига эга бўлиши шарт эмас. Оилада грамзапись, телевидение, концертларда тингланган асарларни муҳокама этадилар. Бунда ва оиланинг ҳамкорлиги муҳим роль ўйнайди. Натижада 5-6 ёшли болалар Бетховен сонаталарини чалишга эришдилар. Юқори синфларга кўчган сари эстетик тарбия ҳам бир предмет сингари мураккаблашиб боради. Юқори синфларда рассомчилик, ҳайкалтарошлик, халқ амалий санъати ва мусиқа санъати танқидчилари етишади.

Ўзбекистонда мусиқанинг миллий ахлоқ меъёрлари орқали унинг ижтимоий ҳаётдаги ўрнини англаш воситасида миллий руҳият туйғусини сингдириш асосий мақсадимиздир:



- мусиқа фани соҳасида қўлланилаётган техника ва технологиялар орқали янги кашфиётлар ва ютуқлар билан хабардор этиш фахр-ифтихор туйғусини шакллантириш асосида миллий руҳияти тарбияланади;

- жисмоний куч, тезкорлик, чаққонлик, чидамлилиқ, сабот ва матонат билан тарбиявий ишларда қатнашиши орқали миллий руҳияти таркиб топтиради;

- эстетик дид, ҳис туйғуни пайдо қилиш, ижодий қобилиятлари, эстетик эҳтиёжлари, гўзаллик туйғуларини таркиб топтириш орқали миллий руҳияти шакллантирилади;

- жамият тараққиётида, инсон фаолияти ва табиат воқеа-ҳодисаларининг тарихий-тадрижий ривожланишида улар мувозанати масалаларини тушунтиришда мусиқанинг ўрни орқали миллий руҳияти тарбияланади;

- мамлакатимизда иқтисодий барқарорлик, бозор сиёсати, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш масалалари инсон меҳнати билан яратилган моддий бойликларни асраш ва кўпайтириш борасида тарихий тажрибалардан фойдаланишга бағишланган тадбирларда мусиқа воситасида миллий руҳияти шакллантирилади;

- ижтимоий - ҳуқуқий меъёрларнинг шахс ва жамият ҳаётидаги ўрни ҳақидаги тушунчаларни сингдириш, ҳуқуқий муносабатлар моҳияти ҳақида тасаввурга эга бўлишда ҳуқуқий онг, ҳуқуқий фаолиятни ташкил этишда мусиқа орқали миллий руҳияти тарбияланади;

- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, фуқаролик жамияти асослари, миллий давлатчилиқ, давлат органлари фаолияти, Давлатимиз ички ва ташқи сиёсати ҳақида маълумотга эга бўлишида мусиқа воситасида миллий руҳияти шаклланади.

Мазкур ишлар қуйидаги тарбия тамойилларига риоя қилинган ҳолда амалга оширилади:

1. Мусиқий тарбия мақсадининг аниқлиги.
2. Ўқувчи ва ўқитувчиларнинг, таълим муассасаси билан бошқа мутасадди ташкилотларнинг ҳамкорликдаги фаолияти.
3. Мусиқанинг ўқувчи - шахсининг ўз-ўзини англашга йўналтиришда муҳим омил эканлигини англаши.
4. Тарбиянинг шахсга йўналтирилганлиги, яъни ўқувчи шахсининг хусусиятлари, кизиқишлари, ўзига хос характери, кадр-қимматини англаш туйғуларининг шакллантириб борилиши.
5. Тарбиявий ишларининг эркин, ихтиёрий ташкил этилиши.
6. Тарбиявий ишларнинг жамоавий йўналиш касб этиши асосида миллий руҳни тарбиялашнинг самарали амалга ошиши.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Муסיқа ўқитиш методикаси (Маърузалар матни). Тузувчи Г.М.Шарипова. -Т: 2000-йил.
2. Эстетик тарбия асослари. Н.А.Кушаев таҳрири остида. -Тошкент: -Ўқитувчи, 1988-йил.
3. Халабузарь П., Попов В., Добровольская Н. Методика музыкального воспитания. -М: -Музыка, -1990 г.
4. Ўзбек халқ музикаси I-II-томлар. -Т.: Ўзбекистон Давлат Бадий адабиёт нашриёти. 1957-йил.

## RAJABIYLAR SULOLASIGA BIR NAZAR

Talabayev Azizjon Nabijonovich  
O‘zDSMI FMF

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr o‘zbek san’atiga ulkan hissa qo‘shgan san’atkorlar sulolasi hamda Yunus Rajabiyning musiqa ijrochiligi, kompozitorligi va fol’klorchilik faoliyatining shakllanishida u bilan zamondosh bo‘lgan mashhur xonanda, sozanda va bastakorlarning ijobiy ta’siri, ta’limi va tarbiyasi g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligi haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Sulola, fol’klor, kompozitor, sozanda, xonanda, bastakor, orkestr.

## A LOOK AT THE RAJABIYAN DYNASTY

Talabayev Azizjon Nabijonovich  
FRB UzSIAC

**Abstract:** In this article, the positive influence of the dynasty of artists who made a great contribution to the Uzbek art of the twentieth century and the famous singers, musicians and composers of his time in the formation of Yunus Rajabi's musical performance, composition and folklore, education and upbringing are of paramount importance.

**Keywords:** Dynasty, folklore, composer, musician, singer, composer, orchestra.

Rajabiylar sulolasi - XX asr o‘zbek san’atiga ulkan hissa qo‘shgan san’atkorlar sulolasi hisoblanadi. Sulola boshlig‘i Yunus Rajabiydir. O‘zbek xalqi ulkan san’atkor Yunus Rajabiyni istehdodli bastakor, mohir ijrochi, tashkilotchi, o‘zbek musiqiy boyligining bilimdoni, murabbiy va musiqa jamoat arbobi sifatida taniydi.

1923-25-yillarda Samarqand teatrining musiqa rahbari, 1925-27-yillarda O‘zbekiston radiokomiteti qoshidagi xalq cholg‘u asboblari ansamblida, keyinchalik 1927-42-yillarda xalq cholg‘ulari orkestri tashkilotchisi va badiiy rahbari, 1942-45-yillarda Yangiyo‘l teatri musiqa rahbari, 1959-76-yillarda O‘zbekiston teleradiosining “Maqomchilar” ansambli tashkilotchisi va badiiy rahbari sifatida faoliyat yuritgan. Bu ajoyib san’atkorning ko‘p qirrali ijodiy faoliyati respublikamiz musiqa madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti tarixida salmoqli o‘rin tutadi. Maqomdon xonandalar, respublikamizdagi xalq cholg‘u va ashula ansamblari, mo‘zikali drama teatrlari uning ajoyib dilrabo ashula va qo‘shiqlarini ijro etmoqdalar; uning asarlari efirda, zangori ekranlarda yangramoqda.

Yunus Rajabiyning musiqa ijrochiligi, kompozitorligi va fol'klorchilik faoliyatining shakllanishida u bilan zamondosh bo'lgan mashhur xonanda, sozanda va bastakorlarning ijobiy ta'siri, ta'limi va tarbiyasi g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi. Y.Rajabiy bir qancha qadimgi o'zbek xalq kuy va ashulalarini qayta ishlab tiklagan: "Subhidam", "Yolg'iz", "Sayqal", "Fig'on", "Oraz", "Begi Sulton" va boshqa ijrochilik faoliyatini bastakorlik bilan birgalikda olib borgan. U tug'ilgan davrda, tojik va o'zbek xalq musiqasining taniqli namoyondalari an'anaviy musiqa ijrochiligini intensiv davom ettirardilar. Buxoroda maqom ijrochiligi asosiy o'rinda bo'lib, uning mashhur ijrochilari Ota Jalol (Jaloliddin) Nosirov, Ota G'iyos Abdulg'ani, Qori Karomat, Tilloy, Tojixon, Usta Shodi singari maqomdonlar, Xorazmda esa

Matyoqub Harratov, Matkarim Kurji ota, Samarqandda Hoji Abdulaziz

Abdurasulov, Toshkentda Mirzoqosim hofiz, Mo'lla To'pychi Toshmuhammedov, Shoraaim Shoumarov, Abduqahhor, Sultonxon, Inog'om va Ilhom hofizlar, Farg'ona vodiysida Madumar hofiz, Hamroqul Qori, Jalolxon va Usta Olim sigari o'nlab mahoratli ustozlar san'ati gullagan davr edi.

Yunus Rajabiy o'zbek xalq musiqa ijrochiligi yuksak bo'lgan muhitda tarbiyalandi, o'sdi, san'atkorning ijro uslubi shu davrda shakllandi. Uning musiqa mashg'ulotlari dastlab qozoqi dutor, haqiqiy dutorda mashq qilish bilan boshlanadi. U to'ylarda, mehmondorchiliklarda, xalq yig'inlari va sayillarida eshitgan kuylarini tamburchi akasi Rizqi Rajabiydan takror- takror eshitish va birgalashib chalish yo'li bilan puxtalardi. Andijonlik hofiz Mirzaqosim mehmonxonasiga qatnab u hofizning ham boy repertuarini o'rganadi. Hofizlar va cholg'uchilar bilan yaqindan aloqa bog'lagan va mashg'ulotlar natijasida Yunus Rajabiy dutorda o'sha yillarda keng tarqalgan

«Ey, nigorim», «Ko'chabog'i I- II», «Ilg'or», «Suvora», «Ey, dastayi gul, marxabo!», «Omonyor», «Yallama yorim», «Chamanda gul», «Ajam», «Eshvoy», «Kurd» singari katta-kichik shakldagi turli xil cholg'u kuylarini, ashula va qo'shiqlarni mustaqil chaladigan va aytadigan bo'ladi. 1914- 15 yillar uning uchun xalq musiqasini o'rganish, uning xususiyatlarini anglash va ijrochilar uslubi bilan tanishish davri bo'ldi. Yunus Rajabiy 1916 yilda Chimkentda qushxonada xizmat qilib yurgan chog'larida Imomxon va Hamroqul qori singari taniqli hofizlar va boshqa xonanda va sozandalardan ko'p ashula, qo'shiq va cholg'u kuylarini og'zlashtirdi. Shular jumlasidan «Nasib etgil», «Rab-bano, dodinga yet», «Ko'p erdi», «Shafolat» kabi Farg'ona katta ashula yo'llarini o'rgandi. Maqom yo'llaridan «Guleri Shahnoz», «Chapandozi Gulyor», «Ushshoq», «Qashqarchayi Ushshoq», «Bayot», «Savti Bayot» va uning uchta shoxobchasi, «Chorgoh», «Savti Chorgoh» va uning uchta shoxobchasi, «Giryay I-II» va «Fig'on I-II» kabi kuy va ashulalarni eslatib o'tish mumkin. Shunday qilib Yunus Rajabiyning ijrochilik mahorati keksa san'atkorlar va

o'z tengqurlari bo'lgan xalq xonanda va sozandalari, hamda bastakorlari davrasida kamolga yeta bordi va rivojlandi.

Yigirmanchi yillar qo'shiq san'atining mana shu xilda rivojlanishi natijasida ruyobga kelgan xilma-xil kuylar (marsh, vals, raqs bilan aytiladigan yallalar, unison xorlar) Yunus Rajabiyning bastakorlik faoliyatiga barakali ta'sir ko'rsatgan edi. Natijada bastakor o'ttizdan ortiq ommaviy qo'shiq, ashula va marshlar yaratadi.

Rajabiyning «Bahor marshi», «Fabrika yallasi», «Yurish marshi», «Komsomol marshi» singari marshlari shunday asarlar jumlasidandir. Yunus Rajabiyning bastakorlik faoliyati uning ijrochilik faoliyati bilan chambarchas bog'lik rivoj topadi. 1927 yilda Toshkent radio eshittirish studiyasi huzurida o'zbek ashula va cholg'u ansambli tuzishga qaror qilinib, unga Yunus Rajabiy rahbar qilib tayinlanganidan so'ng ansamblga Shorahim Shoumarov, Rizqi Rajabiy, Imomjon Ikromov singari san'atkorlar jalb qilindi. Ansambl o'n uch kishidan iborat edi.

Radio ansambli 1929 yildan boshlab o'z safini atoqli san'atkorlar: Mulla Tuychi Hofiz, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdurahmon Umarov, Safo Mug'anniy, Matyusuf Xarrat va boshqa san'atkorlar bilan to'ldira boshlaydi. Ansamblning mana shu davrdagi ish faoliyati to'g'risida musiqashunos K.Olimboeva quyidagilarni yozadi: «Keyinchalik bu ansamblida Maryam Alishoeva, Nazira Axmedova va boshqalar ishlay boshladilar. Yunus Rajabiyning bu ansambl faoliyatidagi katta ishlaridan yana biri shu bo'ldiki, u ansambl tarkibiga o'zbek xotin-qizlarini jalb qila oldi. Ansambl tarkibi kengaygan sari, uning ish faoliyati doirasi ham kengaya boradi; yoz paytida har haftada bir marta Janggoh bog'ida, qish paytlarida esa Hamza teatr sahnasida kontsertlar uyushtiriladigan bo'ldi. Radio ansambli Yunus Rajabiyning bastakorlik faoliyatida muhim rol o'ynashi bilan bir qatorda u san'atkor uchun ijodiy laboratoriya xizmatini utadi. Bastakor o'zining dastlabki ashula, qo'shiq, cholg'u kuylaridan hisoblangan «Ra'nolanmasun» (G'oziy she'ri), «Birlashing!», «Fabrika yallasi», «Chamanzor marshi», «Galaba» (Mirtemir shehri), «Hammamiz» va boshqalarni yaratib, mahoratli bastakorlar qatorida» o'rin ola boshladi. 1935 yilda Yunus Rajabiy Toshkent Davlat konservatoriyasining tayyorlov kursida Yu.Semyonov, B.Nadejdin singari mutaxassislardan ta'lim olishda davom etadi.

Yunus Rajabiy ham hofizlik, ham cholg'uchilikda yuksak mahoratga yetishgan musiqa arboblari qatoridan o'rin egalladi. Bunga u o'zbek milliy cholg'u asboblari dutor va nayda juda yoshligidan chalish sanhatini mukammallashtirishi natijasida erishgan edi. Yunus Rajabiy cholg'u asboblari bilan bir qatorda ashulaxonlik sanhatini ham o'zlashtirgan edi.

Yunus Rajabiy 1918 yilda Toshkentdagi «Namuna» maktabida tashkil etilgan musiqa to'garagiga raxbarlik qildi. Atrofiga o'nilab yosh musiqa havaskorlarini to'pladi, ularga ustozlaridan o'rgangan, xalq sayillari, tuytomoshalarda eshitgan yengil xalq cholg'u kuylari, ashula, ruboiylarni o'rgatib o'zi ham yana bir kasb orttirish

maqsadida hunar maktabida duradgorlikni o'rgandi, so'ngra uch oy davomida shu maktabdagi muallimlar tayyorlash kursida o'qidi. Y.Rajabiy o'zbek musiqali dramsining shakllanishiga ham katta hissa qo'shgan bo'lib, dastlab Sh.Shoumarov bilan birgalikda "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Rustam", "Avaz", "Xolisxon" kabi spektakllarni xalq ashulalari asosida kuylar bastalagan. Keyinchalik B.Nadejden bilan hamkorlikda "Qasos", N.Mironov bilan "Qo'chqor Turdiyev", G.Mushel bilan "Muqanna", O.Halimov bilan "Nodira", B.Zeydman bilan "O'g'il uylantirish", Sayfi Jalil bilan "Navoiy Astrobodda" singari musiqali dramalarni yartgan. 1958-yilda Y.Rajabiy B.Zeydman, D.Zokirov va T.Sodiqovlar bilan birga "Zaynab va Omon" operasining yozilishida ishtirok etgan.

U 1935-yilda xalq kuy va ashularini notaga o'la boshlaydi, natijada

Y.Romanovskaya va Il.Akbarov tuzgan "O'zbek xalq qo'shiqlari" to'plamidan Y.Rajabiy notaga olgan 29 ta xalq musiqa namunasi o'rin olgan. U 1955-59 yillarda 5 jildli "O'zbek xalq musiqasi" to'plamini nashr ettirdi. Unda mingga yaqin turli janrdagi o'zbek, tojik, uyg'ur kuy va ashulalari, Buxoro Shashmaqomi, Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari, katta ashulalar, XX asr bastakorlari: K.Jabborov, N.Hasanov, S.Kalonov, F.Sodiqov, T.Jalilov, M.Mirzayev va boshqalarning asarlari kiritilgan. Y.Rajabiy "Maqom" ansmbli bilan ishlashi jarayonida Shashmaqomning 6 jildli yangi nashrini hamda 1970-yilda Toshkent grammyozuvlar studiasida gramplastinka yozuvlarini mukammal to'plamini tayyorladi.

T.Sodiqov, D.Zokirov, D.Soatqulov, K.Mo'minov, O.Imomxo'jayev, B.Davidova, K.Ismoilova, O.Alimahsumov, T.Alimatov va boshqa ko'plab san'atkorlar Y.Rajabiyning shogirdlaridir. 1971-yilda O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, 2000-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan. O'zbekiston teliradiokompaniyasi qoshidagi "Maqom" ansambli, Jizzax musiqali drama va komediya teatri, Toshkent musiqa pedagogika bilim yurti, Toshkentdagi ko'chalardan biri va metro bekati Yunus Rajabiy nomi bilan yuritiladi. Yunus Rajabiy 1957 - 76 yillar yashab ijod etgan uyda 1997-yilda Rajabiy uy muzeyi ochildi. 2001-til Yunus Rajabiy madniyat markazi tashkil etildi.

Yunus Rajabiy 1897-yil 5-yanvarda Toshkent shaxrining Chaqar maxallasi, bog'bon oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Rajab ota har qanday og'ir mehnatdan ham cho'chimaydigan, g'ayratli, juda xushchaqchaq, serzavq, xazilkash, san'atsevar, ulfatgo'y kishi bo'lgan. Rajab otaning Novza daxasida (hozirgi Chilonzor metrosining oldida) katta bog'lari bo'lib, baxor kelishi bilan u yerdagi ishlar qizib ketar, Rajab ota o'z oilasi bilan shahardan dalaga ko'chib, to kech kuzga qadar, o'sha joyda yashar ekanlar, Rajab ota serfarzand bo'lib, o'z farzandlarini og'ir mexnatdan tolmaydigan ishchan va harakatchan bo'lishlaridagi ilk bor saboqni xuddi mana shu dala bog'ida bergan ekanlar. Onasi - Oysha Bibidan avvalgi tug'ilgan 10 ta farzand yosh paytligida turli kasalliklarga chalinib, nobud bo'lgan edilar. So'nggi o'sib ulg'aygan 6 ta farzand

ichida Yunus Rajabiy eng kenjasi edi. Qilingan og'ir mexnatdan so'ng Rajab ota turli yiginlarga: choyxonalarga, to'y-u-tomoshalarga dam-badam borib turishni odat qilgandi. Ko'pincha u eng kichik suyukli va ziyrak o'g'li Yunusvoyni o'zi bilan birga olib ketardi. Bunday xollarni Rajab ota chetdan ko'zatib turar edi. Rajab ota o'g'lini elga tanilgan musiqachi yoki xofiz bo'lishini orzu qila boshlagandi. Musiqaga o'ta shinavanda otasi qo'shnilari Mirza Qosim xofiz va Mulla To'ychi xofizlarga xavasi kelar edi. O'g'li Yunusvoyga musiqaga bo'lgan qandaydir aloxida bir diqqat-e'tiborni, zavqu-shavqi, xatti-harakatidan ham sezilib turar edi. Eshitgan qaysidir bir kuyni darxol ilgab olib kuylab yurishi, esda yodlab qolish qobiliyati yaxshi ekanidan xursand edi.

Oysha Bibi - uning onasi, uy bekasi bo'lishi bilan birga katta faxm egasi, qur'on-u dostonlarni va ko'pgina mumtoz shoirlarimiz g'azallarini yod bilgan, o'zi ham she'hr to'qiydigan, mexribon va duoguy, bilimdon, otinlikka o'qigan, savodli ayol bo'lgan ekanlar. Bir uy xotinlar yig'ilishib, mashrabxonliklar, bedilxonliklar, arab yozuvidagi turli hikoyalar, dostonlarni xirgoyilab o'qib hammani diqqatiga sazovor bo'lgan ekanlar. Dastlab, Yunus Rajabiy o'z akasi Risqi Rajabiyga uning tanbur chertishiga ergashib, o'z dutorida birga qo'shilib, sekin-asta mashq qila boshlaydi shu bilan birga yengil xalq qo'shiqlarini ham aytadi. Keyinchalik bog' qo'shnilari bo'lgan Mirza Qosim, Mulla To'ychi xofizlarlan Toshkentda va Fargona vodiysida aytilib kelinadigan xalq kuylari -hamda maqom parchalarini eshitib o'zlashtirdi. Ko'p o'tmay o'zi ham dutorida musiqa chalib, ashula ayta boshladi. Davralarga kirdi. O'sha davrning yetuk xonanda-yu-sozandalarning ijrolarini, mushoiralarni murg'ak va sezgir qalbi bilan xis qilib, qalbiga jo qila boshlaydi. Otasidan unga o'tgan san'atga, musiqaga ixlosmandlik, onasidan o'tgan yodda saqlash qobiliyati, iste'dodi Yunus Rajabiyning o'z yo'lini tanlab olishda katta rol o'ynadi.

1904-1913 yillar ilk bor musiqa olamiga qadam qo'yish, ustozlarga ergashish, ularga jur bulish davri. Eski maktab, so'ngra madrasada tahsil oldi. Endi uning uchun o'qish, o'rganish, izlanish, davri kelaganda 1913 - yilda otasidan ayrildi.

1913-1914 yillar uy-ro'zg'or ishlariga yordam berish uchun har qanday mexnatdan qo'rqmaslik, xayot maktabini o'tash, katta ustoz musiqachilar davrasiga kirib, mumtoz musiqiy asarlarni diqqat bilan ustoz ijrochilardan tinglab saboq olish, har xil sinovlardan o'tish, o'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini dutor bilan chertib, elga xofiz sifatida ham tanilishi, musiqa to'garaklari, maktablarda dars bera boshlagan, musiqa ilmini o'z kasbi qilib tanlagan davriga kiradi.

1918-1923 yillar musiqa ilmini mukammal o'rganish niyatida o'sha davrda Toshkentning eski shaharida, Shayx Xovad Toxur madrasasi ichida ochilgan xalq Konservatoriyasida, nay mutaxassisligi bo'yicha o'qib tugatdi. O'zi kuylar bastalab, o'z sozi va ovozi bilan asta-sekin el og'ziga tushgan, pedagog, mexribon murabbiy sifatida tanilgan davri.

1923-1927 yillar maorif komissariyati topshirig'i bilan Samarqand shahrida ochilgan Pedagogika institutiga musiqa muallimi etib tayinlandi. 1925 yil Samarqand shahrida Respublika bo'yicha birinchi bo'lib ochilgan musiqali drama teatriga musiqachi bo'lib ishga tayinlandi. "Farxod va Shirin", "Arshin mol olon", "Unisi bo'lmasa bunisi", "Layli va Majnun", "Yorqinoy" musiqali drama asarlarga musiqalar tanlab, o'zi ham kuy bastalab sahnalashtirdi, spektakllar qo'ydi, shogirdlar yetishtirdi. 1939 yillarda Yunus Rajabiy O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida, musiqa nazariyasi bo'limida tahsil oldi.

1940- 1941 yillarda Moskva shahrida tashkil etilgan kompozitorlar kursida ta'lim olgan.

Birinchi o'zbek xalq milliy cholg'u asboblari va ashulachilar ansambli tashkilotchisi.

1942-1946 yillarda Yangi-Yo'l musiqali drama teatrida hamda o'zbek xalq cholg'u orkestrida musiqa rahbari.

1949-1976 yillarda Maqomchilar ansamblini tashkil etgan va Badiiy rahbari sifatida o'zi boshqargan.

Bundan tashqari turli sozlarda chalib ko'rsata bila olishi, ularda o'z joyida aynan ustalik bilan foydalana bilishi ustozning odati edi.

Shuning uchun bastakorning rahbarligidagi ansambl ijrosi eng yukori ko'tarinki ro'xda yangragan. Xalqining dardu-alami, xursandchiligi-yu- shodiyonasiga hamoxang bo'la olgan edi. U bir necha sozlar yasovchi ustalar bilan ham muloqatda bo'lgan. O'zbek xalq cholg'u sozlarining turli shakllarini yaratishda bamaslaxat ish olib borib, turli shakllardagi sozlarni ulardan yasab berishlariga buyurtma bergan. O'zbek xalqida qadim zamonlardan beri cholg'u asboblarining turli xillaridan keng qo'llanilgani haqida tarixiy manbaalardan, musiqiy risolalardan va hatto mumtoz shoirlarimizning she'riy asarlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Shoirlarimizning tahrifiga sazovor bo'lgan qadimiy cholg'u soz-larining qirqdan ortig'ini uchratishimiz mumkin: arganun, barbat, qonun, rud, ruxafzo, ud, chang, dutor, setor, tanbur, sato, rubob, tor, qobuz, biva, g'ajjak, chagona, shammoma, musnkor, samtur, shaypur, ishtarangez, do'mbira, kungura, sibizg'a, chang-qobuz, taburak, zir, burg'u, sur, kux, nafir-nay, anbon-nay, sarboznay, karnay, surnay, qo'shnay, bo'lamon, nog'ora, daf, qayroq, tabla, safoyl kabi cholg'u asboblarining ko'pi bizning davrimizga yetib kelgan va shularning ba'zilaridan hozirda ham foydalaniladi.

Alisher Navoiy yozadi:

Mayxonada kimki maydan ibo qilg'ay,

Nay uni bir dilkash Navo bila ani rasvo qilg'ay.

G'ijjak Maddi nolasi bila anga yolborur.

Agar kishi may xavosun boshidan chiqarur,

Va chang zorlig' bila bug'zin tortar



Va ud visoning nag'masining targ'ibi changdin ham ortar  
Andakim rubob boshin yerga qo'yib niyoz ko'rguzgay  
Va qobuz quloq to'tib ayshga targ'ib oxangin tuzgay.  
Chun qonun va chag'ona nolasi quloqqa tushgay.

Shu misolning o'zidan ham Navoiy davrida ishlatilgan turli o'zbek milliy cholg'u sozlari nomini bilib olishimiz mumkin.

Asrlar davomida o'zbek xalq cholg'u kuylari, maqom asarlari bir sozandadan ikkinchi sozandaga o'tib kelgani singari, o'zbek xalq cholg'u asboblari va uning yasalishi, taraqqiyot etilish san'ati ham, otadan-o'g'ilga, ustozdan-shogirdga o'tib, to o'zining hozirgi asl nusxasini topib olgunga qadar uzoq tarixiy muddatni o'tagan hozirgi kunimizda ham qo'llanib kelinayotgan: tambur, dutor, singari o'zbek cholg'u asboblarini har birini yakkaxonlik ijroda ham, ansambl, orkestr ijrosida ham har birining aloxida o'rni bor. Yunus Rajabiy tuzgan ansambllarda, orkestrlarda shunday sozlarning yana bir necha xil alt, bas, kontrabas xillari ham ishtirok etgan edi. Hozirda bastakor Uy-muzeyida ham shunday go'zal cholg'u sozlaridan: qonun, ud, g'ijjaki-boburiy, soz, qo'shnay, surnay, nay, rubob, afgon rubobi, sato, tanbur, dutor, setor, doyra, chanqobus, chang, tor, manzur, safoyil, qayroq, karnay, surnay, mandalino, balalayka singari cholg'u sozlari ko'rgazmada bor.

Yunus Rajabiy umr bo'yi o'zbek xalq cholg'u asboblari, ansambllari, orkestrni tuzish va ularga rahbarlik qilishi bilan o'tkazgan ekan, uning o'zi albatta har qaysi cholg'u sozning ijro uslubi, ularning jarangi, nimaga qodirligi, qaysi cholg'udan qay o'rinda-yu qay tarzda foydalana bilishi kerakligini juda yaxshi bilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. R.Yunusov. "Faxriddin Sodiqov". Toshkent-2005 y.
2. O.Matyoqubov. "Maqomot". Toshkent-2004 y.
3. K.Avaz. "Olis oxanglar". Toshkent - 1997 y.
4. Y.Norbutaev maqolasi "Milliy sozning yangi sadosi" Toshkent - 2006 y.
5. B.Mirpayazov maqolasi "San'at yo'li" jurnali. Toshkent -2007 y.
6. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
7. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.
8. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.

9. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.

10. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

11. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.

12. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 12-17.

13. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. *Перекрёсток культуры*, 1(4).

14. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

15. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 25-28.

16. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.

17. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.

18. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий мусиқий ижрочилик санъатида бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.

19. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.

20. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).

21. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 117-119.

22. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In *Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015* (pp. 318-316).

23. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.

24. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУФ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.

25. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.

26. Қурбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.

27. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

28. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 50-54.

29. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛГУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

30. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 113-115.

31. Ismoilova, M. (2020). CHOLGU IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. *Oriental Art and Culture*, (V).

32. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. *Oriental Art and Culture*, (V).

33. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 90-96.

34. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.

35. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.

36. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*.

37. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.

38. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.

39. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. International Journal of Culture and Modernity, 11, 412-418.

40. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. Oriental Art and Culture, 2(4), 149-155.

41. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. International Journal of Culture and Modernity, 11, 389-393.

42. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. Oriental Art and Culture, 2(4), 27-33.

## РАҚС - НАФИС САНЪАТ ТАРИХИГА БИР НАЗАР

Рухсора Айтмирзаева

М.У.Адашева

Ўзбекистон давлат хореография академияси

**Аннотация:** Рақс санъати узоқ тарихий ривожланиш даврини босиб ўтган ҳамда бошқа санъат турлари билан бир вақтда, бир ўзакдан келиб чиққан. Рақс аждодларимиз учун ҳаётда доимий меҳнат фаолиятини тиклашда муҳим восита бўлиб хизмат қилган. Шу билан бирга инсон меҳнат фаолияти орқали нафақат рақсга, балки кўшиқ, театр, тасвирий санъатга ҳам мурожаат этган.

**Калит сўзлар:** рақс, санъат, давр, театр

## DANCE IS A LOOK AT THE HISTORY OF FINE ART

Ruxsora Aytmirzaeva

M.U.Adasheva

Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** The art of dance has gone through a long period of historical development and, at the same time as other arts, originated from a single core. Dance has served as an important tool for our ancestors in restoring constant labor activity in life. At the same time, through his labor activity, man turned not only to dance, but also to singing, theater, fine arts.

**Keywords:** dance, art, period, theater

Рақс санъати халқларнинг энг қадимий санъат турларидан бири бўлиб, қадимий рақслар ибтидоий даврда яшаган инсоннинг меҳнат жараёнида ва атрофдаги ҳодисалардан олган ҳис-туйғулари ва таассуротлари билан боғлиқ ҳолда юзага келган. Дастлаб кўшиқ ва сўз билан боғлиқ ҳолатда ривожланган рақс, кейинчалик мустақил санъат турига айланган.

Бошқа соҳаларга қараганда санъатнинг катта тарбиявий кучга эга эканлиги маълум. Жозибали рақс юракларга эзгулик улашади, гўзал ва нафис ҳаракатлар инсонни рақснинг назокатли оламига олиб киради. Рақснинг сирли ва мафтункор ҳаракатлари инсон кўнглини завққа тўлдиради, унинг тафаккурини бойитишга хизмат қилади.

Ҳар бир халқ рақсларида ўзига хос ижро услуби, ҳаракатларнинг тасвирий воситалари мавжуд бўлиб, рақслар шу халқнинг тарихий, ижтимоий, географик шароитлари таъсирида таркиб топган ва ривожланиб келган. Ҳар бир халқнинг

ўзига хос, бир - бирига ўхшамайдиган рақс санъати мавжуд бўлиб, унинг куй - тароналарида, ҳаракатларида ранг - баранглик, халқнинг бой ҳаёлотли, гўзаллиги ва ўзлиги намоён бўлади.

Рақс санъатида ижрочининг уйғун тана ҳаракати ва ҳолатлари, юзидаги имо - ишоралари, ритм, темп орқали бадиий образ яратиши рақснинг асосий ифода воситалари ҳисобланади.

Ўзбекистон ҳудудида бундан қирқ минг йил аввал яшаган инсонлар ўз ҳистуйғулари, ҳаяжонлари ва изтиробларини турли восита ҳамда ҳаракатларда ифодалашга ҳаракат қилганлар. Бу рақслар ҳақидаги дастлабки маълумотлар республикамиз ҳудудларида жойлашган тоғ қоятошларга чизиб қолдирилган кўплаб тасвирлар орқали ҳозирги кунга етиб келган. Ўзбек рақс санъатининг қадимийлиги, унинг шакл ва турларининг бойлиги аждодларимизнинг асосан деҳқончилик ва ҳунармандчилик билан шуғулланганидан дарак беради.

Зардуштийликнинг муқаддас “Авесто” китобида рақс санъатининг бронза ҳамда илк темир даврида икки йўналишда ривожлаганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд. Ўзбекистон ҳудудида топилган турли тасвирлар, археологик топилмалар бу ерда рақс жуда қадимийлигидан ва бундан уч минг йил бурун Ўзбекистоннинг жанубий туманларида профессионал рақс санъати шакллана бошлаганидан гувоҳлик беради.

Шаҳар маданиятининг ўсиб бориши рақс санъатининг ривожланиши, мураккаб шакллари пайдо бўлишига ҳам сабаб бўлди. Рақснинг жанрлари, турлари, туркумлари кенгайиб, халқнинг маиший ҳаётида ўз ўрнига эга бўлиб борди. Республикамизни турли ҳудудларида, жумладан, қадимий шаҳарлари бўлган Бактрия, Сўғдиёна, Сурхондарёнинг Зараутсой камари, Фарғонанинг Суратсой ва Саймалитош манзили, Самарқанднинг Илонсой ва Оксой ҳудуди ҳамда Хоразмдан топилган кўплаб ёдгорликлар ўзбек рақс санъатининг қадимийлигидан гувоҳлик беради. Бактрия ва Суғдда топилган қадим ёдгорликлар кўшиқ куйлаш манзаларини ўзида акс эттирган.

Шу каби ёдгорлик намуналари Самарқанд ва Панжикент чегаралари ҳудудида ҳам топилган бўлиб, уларнинг барчаси мамлакатимизда қадимдан рақс санъати ривожланиб келганига гувоҳлик беради.

Ўрта Осиёда VII асрдан бошлаб ислом дини ҳукмрон динга айлангани ва санъатнинг ривожига тўсқинлик қилгани боис, ўрта асрларда рақс санъатининг мавжудлиги ҳамда унинг ривожига ҳақидаги маълумотлар, тасвирий санъат ёдгорликлари ва ёзма манбалар ниҳоятда кам сақланган.

IX – XII асрларга келиб рақс санъатида ривожланиш юз беради, қадимий рақслар тикланади ва улар Наврўз, Меҳржон ҳамда Сада байрамларида намоёниш этилади.

Феодаллар саройларида профессионал санъат борган сари тор доирадаги - уй ичи санъатига айланиб, унинг ихчам, кичик шакллари ривож топа бошлади. XIV-XVI асрларда Ўрта Осиёда феодализм маданияти гуллаган даврда сарой санъати жадал ривожланиб, катта ютуқларга эришди.

Рақс санъати Темурийлар даврида кенг раванқ топди. Амир Темур Моворауннахрни муҳим маданий марказлардан бирига айлантириши боис, бу ерда маданият ва санъатга эътибор ниҳоятда кучайди. Амир Темурнинг ҳукмдорлик даврида маданият, илм-фан, меъморчилик, тасвирий санъат, шеърят ва мусиқа санъати юксак даражада ривожланди. Халқ сайиллари ва байрамлар ташкил этилиб, бунинг натижасида оммавий майдон рақси ривож топди.

Темурийлар даврининг томоша ҳамда рақс санъати ҳақида маълумотлар мавжуд бўлиб, бу борада Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”, Зайниддин Восифийнинг “Бадоеъ ул-вақоеъ” каби асарларини тилга олиш мумкин. Ўрта Осиёнинг энциклопедик олими Абу Али ибн Сино, мусиқашунос Абу Наср Фаробий, Абдурахмон Жомий, сарой мусиқачиси Дарвеш Али Чангийнинг мусиқа санъатига доир илмий рисоалари муҳим манба бўлиб, уларда мусиқий товуш хусусиятлари, акустика, мусиқа чолғулари, рақс ритми ва усуллари каби мавзулар ёритилган.

Шаҳарларда савдо ва ҳунармандчиликнинг ривожланиши ҳамда уларнинг ихтисосланиши санъаткорлар ҳаётида ҳам анча ўзгаришларга сабаб бўлди. Профессional артистлар (сарой артистларидан ташқари) турли ҳунарманд косиблар каби ўзининг қаттиқ қонун - қоидаларига эга бўлган махсус цехларга бирлашганлар. Шунини алоҳида қайд этиш зарурки, кўп косиблар ёки уюшма аъзолари махсус маросим ўйинларини ижро этишни ҳам билганлар: раққослик уларнинг иккинчи ҳунарлари ҳисобланган.

XIX аср охири ва XX аср бошларида ўзбек рақс санъати “Катта ўйин” номли йирик шаклдаги бир қанча рақслардан (бу жанрдаги рақсларнинг асоси айнан шу рақснинг ўзи бўлгани учун, уларнинг ҳаммасини ҳам шу ном билан юритишар эди), “Хона базм” деб аталувчи рақслардан, оммавийлаштирилган рақслардан, циркка хос бир қанча ўйинлардан ва ижрочилари профессионал раққос бўлмаган импровизация ўйинларидан иборат эди.

Халқимизнинг хореографик меросида “Катта ўйин”нинг мавжудлиги ўзбек рақсининг катта тарихга эга эканлиги ва кўп асрлардан бери ривожланиб келаётганидан дарак беради.

XX асрларда рақс санъати Бухоро, Хоразм ва Фарғона рақси йўналишларида ва замонавий сахна талаблари асосида қайта ишланган сахнавий халқ рақси сифатида ҳамда миллий рақс элементларидан фойдаланган балет спектакллари тарзида ривожланиб келди.

Ўзбекистон Мустақилликка эришган даврдан бошлаб рақс санъати ривожига алоҳида эътибор берилди, қадимги урф-одат, анъана ва маросимлар қайта тикланди. Рақс санъати янгича шакл ва тез суръатларда ривожланиб, ўтган давр мобайнида рақс санъатининг бой анъаналари ўзига хос талқин ва мазмунга эга бўлди.

Ўзбек халқ рақслари ранг - баранг кўринишларга эга бўлиб, бу турли минтақаларда жанр, мавзу, рақсларга қизиқишнинг турличалиги билан белгиланади. Халқ рақслари ҳажвий, лирик, драматик жанрларга эга бўлиб, уларда меҳнат, маиший муҳит, инсон ва табиатнинг ўзаро муносабатлари анча содда акс этирилади.

Халқ рақси билан биргаликда мумтоз рақс туркуми ҳам мавжуд бўлиб, унинг ижро усули ва анъаналари авлоддан-авлодга ўтиб, сайқал топиб келмоқда. Дастлаб турли тарихий босқичларни босиб ўтиб, сўнгра асосан профессионал рақс усталари томонидан ижро этилган миллий рақс шакли ва ҳаракатлари тартибга келтирилган.

“Ўзбек халқининг кўҳна рақс санъатини тиклаш анъанавий рақс санъатини таснифлаш жадвалини тузиб чиқиш имконини берди. Унда тўртта рақс “мактаб”ининг гувоҳи бўламиз: фарғонача, бухороча, хоразмча ҳамда тоғли халқлар рақслари. Ана шу тўрт тизимга хос рақслар ҳар бирининг ҳаётини, машҳур мавзу ва мазмунларни мураккаб йўсинда ифода этувчи рамзли, тимсолли пластик олами мавжудлигини, ўзига хос хореографик тафаккур замирига қурилганлигини эътироф этиш лозим”.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Авдеева Л. Танцевальное искусство Узбекистана. Т. 1960.
2. Каримова Р. Ўзбек рақслари Чўлпон нашриёти 2003.
3. Сайтова Э. Ўзбек рақсини ўрганиш услубиёти 2016.
4. ФМ Азатова, ЗК Фазлиева. АСРЛАРГА ТАТИГУЛИК РАҚС АСАРИ// Oriental Art and Culture, (6) 8 2021
5. ЗК Фазлиева. ЎЗБЕК САҲНА РАҚСИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙУЛЛАРИ// Oriental Art and Culture. -2020.-№. III 6
6. СШ Маннонов, ЗК Фазлиева. ИБТИДОИЙ ПАНТОМИМАЛАР: ЎЙИНЛАР ВА СЮЖЕТЛАР// Oriental Art and Culture 2 (3), 99-105 4 2021
7. SF qizi Yangiboyeva, ZK Fazliyeva. O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATIDA MAQOM JANRINING O'RNI// Oriental Art and Culture 2 (1), 32-35 2021
8. ИМ Иманкулова, ЗК Фазлиева. АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ДАВЛАТ АКАДЕМИК КАТТА ТЕАТРИ САҲНАСИДА “ЛАЗГИ ҚАЛБ ВА СЕВГИ РАҚСИ” БАЛЕТИ СЦЕНОГРАФИЯСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИН// Oriental Art and Culture 2 (4), 295-302 2021



9. ФМ Азатова, ЗК Фазлиева. “МУНОЖОТ” АСРЛАРГА ТАТИГУЛИК  
РАҚС АСАРИ//Oriental Art and Culture 2021

10. ФЗ Камарбековна. Рақс ансамбллари ижодида ўзбек миллий рақс  
мактабларининг услубий ифодаланиши//International scientific-practical online  
conference on Emergency management and public health research in Asia. 2020

## ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МАШХУР БАСТАТОР Н.МУҲАММЕДДИНОВНИНГ ЎРНИ

Абатбаева Рано Алламбергеновна  
Ўзбекистон давлат консерваторияси

**Аннотация:** Ҳар бир муаллифни маълум жанрга ва ижодий услубига ижодида бўлган ёндашуви ва мойиллиги бевосита ижодкорнинг онги, миллий тафаккури, маданияти, олган билими ва бадиий дидининг шаклланиши каби мезонларга бориб тақалади. Қорақалпоғистон мусиқа маданияти ривожига, жумладан, бастакорлик ва композиторлик санъати ривожига ўз улушини қўшган таниқли ижодкорлардан бири, Қорақалпоғистон давлат арбоби, композитор ва педагог Нажиммадин Мухаммеддинов номи алоҳида ўрин тутди.

**Калит сўзлар:** Мусиқа, санъат, ижодиёт, композитор, жанр, фольклор, ашула, асарлар.

## THE ROLE OF THE FAMOUS COMPOSER N.MUHAMMEDDINOV IN THE DEVELOPMENT OF THE MUSICAL CULTURE OF KARAKALPAKSTAN

Abatbaeva Rano Allambergenovna  
Uzbekistan State Conservatory

**Abstract:** The approach and inclination of each author to a particular genre and creative style in his work is directly related to such criteria as the artist's self-awareness, national thinking, culture, acquired knowledge and the formation of artistic taste. Najimmaddin Mukhammeddinov, a Karakalpak statesman, composer and teacher, is one of the famous artists who contributed to the development of Karakalpak musical culture, including the art of composition and composition.

**Keywords:** Music, art, creativity, composer, genre, folklore, singing, works.

Ҳар бир композитор истеъдодининг ёрқин қирралари у яратган мусиқий асарларида гавдаланиб, миллий ва умуминсоний ғоя ва мавзуларни, ўзига хос ижодий талқини ва бадиий кўринишида тингловчиларга намоён қилади. Бу борада ҳар бир муаллифни маълум жанрга ва ижодий услубига ижодида бўлган ёндашуви ва мойиллиги бевосита ижодкорнинг онги, миллий тафаккури,

маданияти, олган билими ва бадиий дидининг шаклланиши каби мезонларга бориб тақалади.

XX аср Қорақалпоғистон мусиқа маданияти ривожига, жумладан, бастакорлик ва композиторлик санъати ривожига ўз улушини қўшган таниқли ижодкорлардан бири, Қорақалпоғистон давлат арбоби, композитор ва педагог Нажиммадин Мухаммеддинов номи алоҳида ўрин тутади.

Композитор Нажиммадин Мухаммеддинов 1974 йили «Ўзбекистонга хизмат кўрсатган санъат арбоби» унвонини ҳамда 1974 йил «Ҳамза номидаги давлат мукофоти» ва 1994 йили «Бердах номидаги Қорақалпоғистон Давлат мукофоти»ларини олишга сазовор бўлди. 2002 йили «Меҳнат шухрати» ва 2007 йил эса «Эл-юрт ҳурмати» ордени билан тақдирланди.

Нажиммадин Мухаммеддинов 1937 йили 26 августда Тахтақўпир туманида зиёлилар оиласида туғилган. Ўрта мактабни тугатгач, пойтахтда жойлашган Ҳамза номидаги санъат билим юртига ўқишга кириб (1957-1961 йиллари давомида) мусиқа бўйича таълим олади. Мазкур мусиқа даргоҳини тамомлаганидан сўнг, 1961 йилдан бошлаб туғилиб ўсган она юртига Нукусга қайтиб, ўша ернинг мусиқа билим юртида скрипка чолғуси бўйича педагоглик фаолиятида биринчи қадамларини қўяди. Аммо мусиқага бўлган катта иштиёқ, ўз устида ишлаш ва профессионалик билимларини чуқурлаштириш илинжи, қолаверса, бу ажиб мусиқа садоларига жавобан қалбида мавж уриб бораётган яратувчанлик қирраси 1966 йили Қозоғистоннинг гўзал шаҳри Алма-Атада жойлашган Қурманғазини номидаги Қозоқ давлат консерваториясига ўқишга киради. Нажиммадин Мухаммеддинов бу мусиқа олийгоҳини композиция бўйича факультетнинг етакчи профессори Е.Рахмадиев қўл остида ўз билимларини ўзлаштириб такомиллаштиради ва 1971 йили консерваторияни муваффақиятли тамомлагач, она юртига қайтади, Қорақалпоқ мусиқа ҳаёти ва маданиятини ривожига ва равнақи учун ўз кучи ва ғайратини аямай фаол меҳнат қилади. Хусусан, 1986 йилга қадар композитор Бердах номидаги Қорақалпоқ филармонияси ташкил топишида, сўнг, телерадио кўмитаси қошидаги халқ чолғулари оркестрининг ташкил қилинишида бош дирижёр сифатида ишлайди, Қорақалпоғистон композиторлари ва бастакорлари уюшмаси фаолиятини олиб боришда етакчилик қилиб раислик қилди. Вақт ўтиб, 1986-1999 йиллари Маданият ва санъат вазири, 1999-2005 йиллари Нукус маданият ва санъат коллежи директори, 2005 йилдан бошлаб Қорақалпоғистон бастакорлари ва композиторлари уюшмасининг раиси сифатида ўз фаолиятини бугунги кунга қадар олиб бормоқда.[1.Б.54]

Ўзбекистон мустақиллигининг энг дастлабки йиллариданоқ ва бугунги кунга қадар мамлакатимизда нишонлаб келаётган кўплаб давлат тадбирларида, Мустақиллик ва Наврўз умумхалқ байрамларида композитор мусиқий асарлар

томошаларининг ташкил этувчиси сифатида фаол меҳнат қилиб келмоқда ва бу улуғ саналарнинг юқори савияда ва сифатли даражада ўтказилишида ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда. Ҳар йили Нукус шаҳрида ўтказиб келинаётган Республика “Наврўз” ва Мустақиллик байрамлари концерт дастўрининг мусиқий ва бадиий раҳбари сифатида иш олиб бормоқда.

Н.Мухаммеддинов Республикада маданият ва санъат соҳасини ривожлантириш йўлида Қорақалпоғистон телевидениесига 2008 йилдан буён эфирга узатилиб келинаётган мусиқа мактаблари ва коллеж ўқитувчилари, шаҳар ва туман маданият бўлимлари ходимлари, хавоскор санъат ходимларининг беллашувидан иборат “Соз ва овоз” токшоу дастўрининг ҳайъат раиси сифатида қатнашиб, бахши ва созандалар, соз ва кўшиқ ижрочилари, матнлар муаллифи ва келиб чиқиш тарихи, ижрочилари, халқ созлари ва кўшиқлари, шоирлар, санъат арбоблари тўғрисида тўлиқ маълумотлар бериб, ўзининг одил ечими билан кенг омманинг эътиборини қозонмоқда.

2013 йилда Қорақалпоғистон Республикаси Маданият вазирлиги томонидан ташкил этилган “Йилнинг энг яхши бастакори” танлови ғолиби, 2015 йилда Қорақалпоғистон Республикасида санъат, маданият ва маънавиятни ривожлантиришдаги хизматлари учун Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Маданият вазирлиги томонидан ташкил этилган

“Ардаклаў-2015” мукофоти совриндори бўлган.

Н.Мухаммеддинов таниқли, эл-юрт ҳурматига сазовор бўлган бастакордир. Унинг яратган асарларида асосан миллий урф-одат, Ватанга садоқат, мустақилликнинг қадр-қиммати каби ғоялар мужассамлашган.

Н.Мухаммеддинов Қорақалпоғистон Республикасининг мадҳиясига мусиқа басталаган қорақалпоқ халқининг севимли фарзандидир. Н.Мухаммеддинов Ўзбекистон композиторлари ва бастакорлари уюшмаси аъзоси, фаолияти давомида 500 дан ортиқ мусиқий санъат асарларини яратган.

Унинг “Ажинияз” операси, “Айжамал” балети, “Алпомиш” мусиқий драмаси, “Тўққиз тунқиллоқ, битта чанқиллоқ” мусиқий комедияси Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат академик мусиқали драма театри ва С.Хожаниязов номидаги ёш томошабинлар театрлари, халқ театрлари репертуарларидан доимий жой олган. Унинг хор, солистлар учун “Қорақалпоғистон” кантатаси, симфоник жанрда “Хореографик манзаралар” номли 4 та бўлимга эга сюитаси, скрипка ва фортепиано учун пьеса “Кўшиқ ва рақс”, халқ чолғу асбоблари оркестри учун уч қисмли “Кўбиз наволари” пьесаси, қорақалпоқ шоирлари шеърларига. [2.Б.146]

“Аму марвариди” вокал цикли, фортепиано, скрипка, виолончельга камер-чолғу баллада, октет учун ва кўплаб асарларни яратган.

Сўнги уч йил давомида Н.Мухаммеддинов солист, хор ва симфоник оркестр учун “Гулла-яшна Ўзбекистоним!” номли симфоник поэмасини яратди, улуғ бобомиз Ажиниёз шоир таваллудининг 190 йиллигига бағишлаб “Ажинияз” операсини қайта сахналаштирган. Шунингдек, кексаларни эъозлашга қаратилган “Ёш ўтган сари” номли мусиқий асарини яратиб, халқ эътиборига ҳавола этган. Бу кўшиқ кўплаб инсонларнинг кўнглидан чуқур жой эгаллаган.

Н.Мухаммеддинов ҳозирги кунда ҳам ажойиб ижодий интилишларини намоиш этиб, ўтказилаётган барча кўрик-танлов, фестивалларда ўз асарлари билан фаол қатнашмоқда. Тошкент шаҳрида ўтказилган “Ягонасан, муқаддас Ватан” кўрик-танловида композитор Н.Мухаммеддинов мусиқаси Г.Даулетова шеърига басталанган “Туғилган эл” кўшиғи “Квартет” гуруҳи томонидан ижроси яхши баҳоланиб, совринли ўринни эгаллаган бўлса, 2014 йилда “Ватан” кўшиғини шогирди Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган артист С.Сапаев моҳирона ижро этиб, танлов ғолиби бўлган.

Ўзбекистон Республикаси халқ аристи М.Сапаева томонидан ижро этилган “Ўзбекистоним”, “Бугун байрам” кўшиқлари ва “Ажиниёз” операсидан ариялари Англия давлатида ўтказилган халқаро мусиқа фестивалида кўпчилиكنинг олқишига сазовар бўлган.

Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артистлар Ж.Пиязов, Э.Айтниязова, Р.Қутекеевалар, Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артистлар Д.Хожамбергенов, А.Тажибаевлар халқаро танлов ва фестивальларда муносиб иштирок этиб, Н.Мухаммеддинов операларидан арияларни ижро этмоқда. [З.Б.225-226]

Шунингдек, «Билим» нашриёти томонидан “Ажинияз” операсининг клавиір варианты, “Айжамал” балетининг клавири ўзбек, қорақалпоқ, рус ва инглиз тилларида китоб этиб нашр қилинган. Ушбу асарнинг инглиз тили варианты мусиқий асарнинг дунё бўйлаб кенг тарқалишига, жаҳоннинг қайси жойида, қайси давлатида бўлса ҳам ижро этишга имкон яратади.

2016 йилда “Ягонасан, муқаддас Ватан!” кўрик-танловининг якунловчи босқичида шоир И.Мирзо қаламига мансуб, унинг басталаган “Қадрдоним” кўшиғи Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Ж.Пиязов томонидан ижро этилиб, танловда 1-ўринни эгаллаган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси мадҳиясининг муаллифи, таниқли бастакор М.Бурхоновнинг 100 йиллиги бағишланиб кўрсатув тайёрланиш жараёнида фаол қатнашиб, улкан ҳиссасини қўшган.

2017-йилнинг ноябрь ойида Н.Мухаммеддиновнинг 80 ёшга тўлиши муносабати билан тантанали ижодий учрашув кечалари олий ўқув юртлари, мусиқа ва санъат мактабларида, Бердақ номидаги Қорақалпоқ академик мусиқий театрида бўлиб ўтди. Учрашувларда композиторнинг янги «Қирик қиз» достони асосида, шоира Г.Матякубова либереттосига ёзилган 4 акт, 11 картинали «Гулойим» операсидан ариялар ижро этилди.

Ўзининг меҳнат фаолияти давомида кўплаб шогирдлар тайёрлаб, аксарияти Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон Республикалари халқ артистлари ва хизмат кўрсатган артистлари ҳисобланади. Жумладан, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артистлари Б.Матчанов, Т.Дошумова, М.Сапаева, Г.Срымбетова, Г.Айимбетова, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган артистлар Э.Айтниязова, Р.Қутекеева, М.Отемуратов, Д.Мамбетмуратов, А.Усенова, С.Қаллибеков ҳамда Қорақалпоғистон халқ артистлари О.Темирханов, Б.Оттепбергеновалар халқимизнинг сеvimли хонандаларидир.

Ёш истеъдод эгаларидан Ж.Пиязов, А.Пиязов, С.Қосекеев, О.Акимбаев, А.Асқаров, Т.Тилеумуратов, М.Хожасов, Ж.Бекбергенова, Г.Сапаева, Р.Машарипов, Ж.Жиёмуратов, Ғ.Бектурғановалар бугунги кунда Н.Мухаммеддинов басталаган мусиқий асарларни маромига етказиб ижро этиб келмоқда. [4.Б.183]

Н.Мухаммеддиновнинг ёш шогирдларидан “Зульфия” номидаги давлат мукофоти совриндори А.Туремуратова, Г.Ахымбетова, У.Орынбаева, “Ниҳол” мукофоти совриндорлари, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон Республикаларида хизмат кўрсатган артистлар М.Отемуратов, Г.Оттепова, Л.Махаммаддинова, Р.Хожасов(марҳум)лар кўплаб ижодий ютуқларга эга.

Н.Мухаммеддинов Зульфия номидаги давлат мукофоти, “Ниҳол” давлат мукофоти ва “Ягносан – муқаддас Ватан” танловларининг Республика ҳайъат раиси сифатида ёшлар орасидан истеъдодли, ватан мадҳи, она ва гўзалликни ўз ижодида ёритиб бера оладиган янгидан янги истеъдод эгаларини кашф этмоқда.

2017 йилда Н.Мухаммеддиновнинг ижодига бағишланиб катта концерт дастури ўтказилган бўлса, жорий йилда 30 дан ортиқ мусиқа басталаб, улардан “Ватан мадҳи” дуэти, “Қорақалпоқ аёли” дуэти ҳар куни телевидение орқали эфирга узатилиб, томошабинлар томонидан муносиб кутиб олинган.

2017 йилда Н.Мухаммеддинов ижодига бағишланган “Қанотли кўшиқлар” номли 2 кунлик хайрия концертида Қорақалпоғистон Республикасидаги барча таниқли кўшиқчилар қатнашиб, кенг омманинг олқишига сазовар бўлган.

2017 йилда Мўйноқ туманида Халқаро Экофестивал доирасида ўтказилган мусиқий танловда унинг “Келинг, дўстлар Мўйноқ томонга” (шеъри Г.Матякубова) номли мусиқий асари фестивалда совринли 1-ўринни қўлга

киритиб, муносиб тақдирланган. Шунингдек, Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат академик мусикали драма театрида “Айжамал” балетининг янги варианты сахнага қўйилди. [5.Б.26]

Н.Мухаммеддиновнинг ҳаёт ва ижод йўли ҳақида Г.Матъякубованинг «Соз оламининг сардори» номли китоби чоп этилди. Унда композиторнинг нақадар буюк асарларни яратганлиги ва чинакам инсонийлик фазилатга эга инсонлиги кўрсатилган.

2018 йилнинг 6-10 ноябрь кунларида Тошкент шаҳрида ўтказилган Халқаро симфоник мусиқа фестивалида Н.Мухаммеддиновнинг скрипка, виолончель ва фортепиано учун ёзилган «Нораста ҳақида баллада» симфоник асари А.Пиязов томонидан ижро этилди. Шунингдек фестивалда яна бир катта асари скрипка ва фортепиано учун рақс қўшиғи Қорақалпоғистонга хизмат кўрсатган артист М.Сапаров, пианист А.Утегеновлар томонидан моҳирона ижро этилиб, танловда композиторнинг ушбу икки асари сертификат ва қимматбаҳо совға билан тақдирланди.

2019 йилнинг 30-сентябрь ва 1-октябрь кунлари композиторнинг “Гулойим” операсининг премьераси тантанали равишда ўтказилди. Операнинг энг аҳамиятли томони шундаки, опера қорақалпоқ сахнасида оркестр учун қўйилган жыроу-бахши биргаликда ижро этган дастлабки, биринчи этноопера хисобланади. Операнинг ҳар бир акти жиров томонидан бошланади. Ушбу операнинг тарихий аҳамияти ва бугунги кун ёшлари ва томошабинлари учун энг қизиқарли, мазмунли асардир.

### **Фойдаланган адабиётлар**

1. Адамбаева Т. Музыкальная культура каракалпакского народа до1октябрьского периода. //АН КазССР. Ин-т литературы и искусства им. М.О. Ауэзова – Алма-Ата, 1967.
2. Вызго Т. Опера и музыкальная драма //в сб.: Музыкальная культура Сов. Узбекистана – Т., 1955
3. Ганзбург Г. О перспективах либреттологии / Музыкальный театр XX века: События, проблемы, итоги, перспективы / Ред.-сост. А.Баева, Е.Куриленко. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 225-226.
4. Джумаев Т. «Проделки Майсары» – первая узбекская комическая опера. // Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. Выпуск 1. – Т., 1961
5. Друскин М. Вопросы музыкальной драматургии оперы. – Л.: Музгиз, 1952.

## КИНЕМАТОГРАФИЯДА МОНТАЖ САНЪАТИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ҲАМДА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ

Собирова Сайрам Мухсиналиевна  
sayram.sobirova@mail.ru

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Ҳар қандай фильмни таркибий тузилишида монтаж санъатининг аҳамияти катта. Монтаж ёрдамида режиссёр тасвирлар орқали бераётган маълумотларни бошқариш имконига эга. Бу жараёни тушуниб етиш кинематография тарихида бурилиш нуқта бўлди. Монтаж санъати ёрдамида кино ҳақиқий санъатга айланди.

**Калит сўзлар:** монтаж санъати, монтаж таснифи, мураккаб сюжет, кадрлар кетма-кетлиги, камера имкониятлари, махсус эффектлар, план, йирик лан, умумий план, монтаж усуллари, деталь

### ORIGINS AND DEVELOPMENT STAGES OF EDITING ART IN CINEMATOGRAPHY

Sobirova Sayram Mukhsinaliyevna  
sayram.sobirova@mail.ru

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** The art of editing plays an important role in the composition of any film. With the help of editing, the director is able to control the information he provides through images. Understanding this process was a pivotal point in the history of cinema. With the help of the art of editing, cinema has become a real art.

**Keywords:** the art of editing, montage classification, classification of editing, complex plot, frame sequences, camera capabilities, special effects, shot, close up, long shot, montage methods, editing methods.

*Қирши.* Монтаж санъатининг тадрижий таракқиёти ҳақида гап кетар экан, Л.Жанеттининг монтаж таснифини кўриб чиқиш ўринли бўлади. Жанетти ўз таснифида монтажнинг реалистик - классик - формал кетма-кетлиги келтирилади [1. 209]. Жаҳон киношунослигида монтаж санъати тарихи юзасидан олиб борилган тадқиқотлар монтажнинг илк кўринишлари кадри ичи монтажи ҳамда визуал эффектлар мақсадида яратилганлигини - илк монтаж намуналарини ака-ука Льюмерлар фильмларида бўлганлигини, аниқроғи, кадр ичи монтажининг илк кўриниши сифатида келганлигини таъкидлайди.



*Асосий қисм.* Маълумки, АҚШ, Собик Иттифок, Германия, Франция, ҳамда бу давлатлардаги турли кинофабрикалар (Star Film, Edison Mfg. Co., Edison Studios, Kleine Optical Co., Williamson Kinematograph Company, George Albert Smith Films, Warner Brother's ва бошқалар) кинематограф шаклланиши ва ривожда ўзига хос ўринга эга бўлган. Дастлабки фильмларни ишлаб чиқаришда монтаж техникаларидан фойдаланилган бўлмасда, назарий жиҳатдан уларда кадр ичи монтажи имкониятларини кашф этиш ва мавжудларидан унумли фойдаланиш жараёнларини кузатамиз. Монтаж техникасидан фойдаланилган илк фильм француз режиссёри Жорж Мельеснинг (1861-1938) “Дарёдан кутқариш” (1906) фильми бўлганлиги таъкидланади. Аммо бу асар бизгача етиб келмаган. Бугунги кунда сақланиб қолган фильмлар орасида Мельеснинг 1909 йилда яратилган “Ой бир кадам” (“La Lune a un metre”) фильми бир неча кадрлар йиғиндисидан ташкил топган илк фильм ҳисобланади.

АҚШда ҳам, Европада ҳам бир кадрли фильмлар даври у қадар узок давом этмаган бўлса-да, кадрлараро монтаждан илк даврларда асосан техник мақсадларда фойдаланишди. Манбаларда келтирилишича, монтаждан бадиий восита сифатида мурожаатнинг илк кўринишларини “Брайтон мактаби” вакиллари ишларида кузатилади. Хусусан, Жорж Альберт Смит (1864-1959) ва Жеймс Уильямсонлар (1855-1933) томонидан 1900 йил яратилган “Grandma's Reading Glass” фильми фикримизга мисол бўлади.

XX аср бошларида мураккаброқ сюжетли воқеаларни кўрсатишга бўлган эътибор кучайди. Сабаби бу даврга келиб томошабин экранда кўрсатилаётган кундалик воқеалар тасвирланган репортаж жанридаги фильмлар, бир хил воқеалар кўрсатилган одатий тасвирлардан зериккан, натижада киносеансларга тушмай қўйганди.

Воқеани турли жойларда содир бўлиши, турли пландаги кадрлардан фойдаланиш томошабинни кинозалларга қайта жалб этиш мақсадида юзага келган. Дастлабки монтаж намуналари тасвирга тушуриш ускунасида, яъни камераларнинг ўзида амалга оширилган. Бу жараён қуйидагича ташкил этилганлигига гувоҳи бўламиз. Оператор кадрни керакли жойда тўхтатиб турган ва сахна ўзгартирилиши ёки камерани бошқа жойга ўтказиш каби керакли амаллардан сўнг тасвирга олишни давом эттирган. Бу даврда француз режиссёри Жорж Мельес фильмлари томошабинлар орасида катта эътибор қозонган. Шу даврда Ж.Мельес камеранинг бу имкониятларидан фойдаланиб, томошабинларга кутилмаган тасвирлар кетма-кетлигини тақдим этганлиги, илк махсус эффектларни кино санъатига олиб кирганлигини гувоҳи бўлиш мумкин. Масалан, “Қўрқинчли кеча” (1896), “Иблис қасри” (1896) асарлари фикримизни далиллайди.

Америкалик монтаж санъати назариётчи олимларидан бири Кен Данцигер кино санъатида монтажнинг тарихий илдизи хусусида тўхталар экан, “монтаж бўлмаган ёки жуда кам қўлланган... дастлабки даврда монтаж ёрдамида давомийликка эришиш, маконда тўғри мўлжал олиш ёки драматик урғу учун қўллаш мақсад қилиб олинмаган” – деб ёзган эди [2. 4]. Ҳаттоки тасвирга олиш нуқтасини танлашда ҳам кадрнинг ифодавийлигини ошириш мақсади деярли назарда тутилмаган. Фильмларда монтаж ҳажми оз, шунингдек, вазифаси ҳали шакилланиб улгурмаган бўлса-да, аммо айнан шу даврда режиссёрлар томошабинга тақдим этаётган маълумотлар оқимини бошқариш имконияти борлигини тушуниб етди.

Мельес фильмларида монтаж кузатилса-да, улардаги умумий хусусият қизиқарли саҳналар йиғиндиси сифатида келиши эди. Режиссёрнинг 1902 йилда тасвирга олинган “Ойга саёҳат” фильмида монтаж алоҳида саҳналарни кўрсатиш учун қўлланди. Англиялик режиссёр Эдвин Портернинг (1870-1941) ишларидан сўнг монтажни бирор бир мақсади ва вазифа асосида қўллаш амалиёти шаклланиб бошлаганди. Масалан, “Америкалик ўт ўчирувчининг ҳаёти” (1902), “Поездаги катта ўғрилик” (1903) каби фильмлар монтажнинг асосий вазифаларидан бири бўлган замон ва макон шаклий-мазмуний категорияларини ифодалашдаги аҳамиятини очилишига сабаб бўлди. Режиссёр ўзининг “Поябзал тозаловчи” (1902), “Поездаги катта ўғрилик” (1903) каби фильмлари билан кино тилини бойитишга хизмат қилди.

“Мельес фильмлари кўлами ва сифатидан таъсирланган Портер кадрлар кетма-кетлигини режали ташкил этиш орқали воқеаларни янада жўшқинроқ руҳда кўрсатиш мумкинлигини тушуниб етди,” -деб ёзади Америкалик монтаж санъати назариётчи олими Кен Данцигер [2. 4].

Тажрибаларга таянган Портер “Америкалик ўт ўчирувчининг ҳаёти” (1902) фильмининг 20 та кадрлар кетма-кетлигидан яратди. Томошабинлар уни катта қизиқиш билан қарши олди. Фильмда Американинг жанговар динамик фильмларига хос барча жиҳатлар мужассам эди. Фильмда куйидаги воқеа тасвирланади. Ўт ўчирувчи казармада туш кўради. Тушида оиласи бошига оғир иш тушган. Уни огоҳлантириш кўнғироқи уйғотиб юборади. Ўт ўчириш насослари ортилган от аравалар шаҳар бўйлаб елиб бормоқда. Оловда қолган уйга етиб келиб, она-бола қутқарилади. Олов ўчирилади.

Портернинг фильмининг кадрлардан йиғиш ғояси ажойиб эди. Унда кадр тугалланган мазмунга эга бўлиши шарт эмас, балки мазмун ўзидан аввалги ва кейинги кадрлар йиғиндисидан ҳосил бўлиши моҳиятига таянди.

Фильм куйидаги саҳналар кетма-кетлигидан иборат:

1. Хонада ўт ўчирувчи ухлайди ва тушида оиласи хавф остидалигини кўради;

2. Деталь орқали ёнғин сигнализацияси кўриниши ва ўт ўчирувчилардан бири ёнғин сигнализациясини ёқиши кўрсатилади;
3. Огоҳлантириш кўнғироғи ухлаб ётган ўт ўчирувчиларни уйғотади;
4. Ўт ўчирувчилар, устун бўйлаб, ёнғин насослари жойлашган хонага тушадилар;
5. Ёнғин насослари юкланган от аравалар шай ҳолга келтирилди;
6. Ёнғин насослари ортилган отаравалари кўчада катта тезликда югуради;
7. Уй ёнмоқда, насосларни ишга туширишга шайланмоқда;
8. Ўт ўчирувчи ўз аёлни олов ичида қолган хонадан қутқарди;
9. Аёл нарвонда пастга туширилади;
10. Болани хонадан қутқариш;
11. Бола нарвондан пастга туширилади ва онага берилади.

“Америкалик ўт ўчирувчининг ҳаёти” (1902) фильмининг сўнги эпизоди фильм таркибий тузилиши ҳақидаги тасаввурларни кенгайтириб юборди. Бу эпизодда ўт ўчириш кучлари воқеа жойига етиб келади. Оловда қолган бино асосий планда. Ўнг томондан етиб келаётган ўт ўчирувчилар. Улар келиши билан турли ускуналарини ишган туширади. Нарвонни уйнинг бир деразаси туғрисида қўяди. Ёнаётган бинога сув сепишни бошлайди. Мана шу муҳим дамда фильм кульминацион нуқтасига етади.

Бизга оловда қолган хонада она ва боланинг тутундан бўғилаётганлигини тасвирлаган сахнани кўрсатилади. Аёл у ёқдан бу ёққа югуругиб, оловдан қочишга уринади, деразани очганда эса пастда тўпланган оломонга кўзи тушади. У тутундан буғулиб йиқилади. Шу дам хонага болта кўтарган ўт ўчирувчи киради. У пардани тортиб тушуриб, деразани кўлидаги болтаси билан синдириб, пастагиларга нарвонни қўйишни буюради. Аёлни елкасига ташлайди ва нарвондан пастга тушади. Кейин эътибор ейин яна хонанинг ички қатилади.

“У олти дақиқада она ва бола қандай қутқарилганлигини кўрсатади. Фильмнинг асл нусхаси ҳақида баъзи тортишувлар мавжуд бўлса-да, 40 йил давомида тарқалган версия қутқарувни қуйидагича тарзда тақдим этди. Она ва қиз ёнаётган бино ичида қолиб кетган. Ташқарида ўт ўчирувчилар ёрдамга шошилишади. 1944 йилдан 1985 йилгача тарқалган версияда қутқарув эпизодида хона ичидаги сахна кадрлари ташқи сахналар кадрлари билан таққослаб кўрсатиш йўли билан уланади. Ички ва ташқи сахналар кадрларининг биринкетин ўзгартириб бориш қутқарув эпизоди динамикасини кўтарган,” - деб таъкидлайди Кен Данцигер [2. 4].

Ушбу фильмда Портер ўзининг бир нечта ихтироларни қўллади: ўт ўчирувчининг туш тасвирланган кадрнинг ўнг юқори бурчагига аёл ва боланинг саросимаси тасвирланган кадрни киритди. Ёнғин ҳақида огоҳлантиришни тасвирда кўрсатишни деталь орқали очиб берди. Ўт ўчирувчиларнинг тезлигини

кўрсатишда монтаждан фойдаланди: биринчи кадрда ўт ўчирувчилар устундан пастга тушишади, кейинги кадрда от араваларни тайёрлаб жўнайди. Натижада алоҳида-алоҳида тасвирга олинган, аммо томошабин учун тушунарли бўлган ҳаракатдаги тасвирлар кетма-кетлиги пайдо бўлди. Ва, энг муҳими, фильм муваффақиятли бўлди ҳамда катта олқиш билан қабул қилинди.

Портернинг “Поездаги катта ўғрилик” (1903) фильмида янада мураккаброк сюжетга эга бўлди. 12 дақиқали фильм поездаги ўғрилик ҳамда ўғриларнинг охирги тақдирини кўрсатади. 14 та кадрдан йиғиб чиқилган фильмда воқеалар турли жойларда содир бўлади. Замон ва макон ўзгаришлари ўз даври учун юқори даражада амалга оширилганлигини кузатамиз. Воқеаларни тўлиқ тушуниб етиш учун уни томошабинга тўлиқ кўриш шарт эмаслиги “Поездаги катта ўғрилик”да (1903) сўнг ўз исботини топади. “Поездаги катта ўғрилик”нинг (1903) якунловчи сахнасини Эдвин Портернинг кинодаги энг катта муваффақиятларидан дейиш мумкин. Фильмнинг охирги кадрда қурол тўғридан-тўғри томошабинга йўналтирилади ва унга қарата отилади. Бундай усулдан фойдаланиш кино яратилган илк йиллардан мавжуд бўлишига қарамай, айнан Портердан сўнг бундай планга мурожаат кўпайди.

“Америкалик ўт ўчирувчининг ҳаёти” (1902) ўзининг интенсивлиги бўйича барча америка жанговар фильмларнинг прототипига айланди, кейинроқ яратилган “Поездаги катта ўғрилик” (1903) яна бир соф Америка жанри вестерннинг пайдо бўлишини таъминлади. Портернинг монтажга қўшган улкан ҳиссаси ҳикоянинг давомийлигини ифодалашда кадрлар кетма-кетлигидан тизимли фойдаланганлиги бўлди. Асарни томошабинга бу усулда тақдим этиш орқали у 1900 йил бошларида катта ютуқларга эришди. Портер ижод қилган давр кинематографияда реалистик монтаждан классик монтажга қараб традиций ривожланиш босқичи бўлди.

*Хулоса.* Монтаждан онгли равишда, мақсадли фойдаланиш XX асрнинг биринчи ўн йиллигида шакиллана бошлади. Сабаби фильм давомийлиги ортиб, композицион жиҳатдан мураккаблашиб борди. Режиссёрлар ўз ишларида сюжет чизиқларини параллель тарзда ривожланиб бориши, йирик ва умумий планларни алмашилиб бориши, тасвирга олиш нуқталарини тез ўзгариши, ритмнинг ортиб бориши ва шу каби монтаж усулларида фильмларда унумли фойдаланилганлигини кўрамиз.

Кинематографияга тарихий-маданий нуқтаи назардан ёндашув монтажнинг турли давлатлар ижтимоий, иқтисодий, маданий юксалиш давридаги “ижтимоий буюртма”си билан боғлиқ бўлганини кўрсатади. Аниқроғи, кинематографияда монтажга эҳтиёж туғдирадиган маданий, ижтимоий, иқтисодий муҳитнинг пайдо бўлиши турли мамлакатда ҳар хил сабабларга асосланган.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Собирова С. М. Овозсиз фильмлар даври монтаж санъати// Oriental Art and Culture. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ovozsiz-filmlar-davri-montaj-san-ati> (дата обращения: 22.02.2022).
2. Dancyger, K. (2011). The Technique of Film and Video Editing: History, Theory, and Practice (5th ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780240813967>

## БАЛЕТ - ЭТО ИСКУССТВА МУЗЫКАЛЬНОГО ТЕАТРА

К.С.Сагатов

Государственная академия хореографии Узбекистана

**Аннотация:** В данной статье рассматривается так называемый самый тонкий и изящный вид искусства - искусство балета, его место в нашей стране, его положение и самое главное в искусстве балета - гармония музыки и балета.

**Ключевые слова:** балет, музыка, балетмейстер, концертмейстер, спектакль, танцевальная композиция.

## BALLET IS THE ART OF MUSICAL THEATER

K.S.Sagatov

Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** This article discusses the so-called most subtle and elegant form of art - the art of ballet, its place in our country, its position and the most important thing in the art of ballet - the harmony of music and ballet.

**Keywords:** ballet, music, choreographer, accompanist, performance, dance composition.

*«Музыка является самым чудодейственным, самым тонким средством привлечения к добру, красоте, человечности»*

Уроки классического танца - это необыкновенно трудоёмкая и сложная учебная работа, которая наполнена бесконечно скурпулёзно повторяемой отработкой ранее пройденных и новых примеров исполнительской техники. Такого рода работа должна музыкально оформляться в строгом своем веществе с её истинным содержанием. Поэтому очень хорошо, когда ритм музыки свободно и точно согласуется с учебным заданием, и очень плохо, если музыкальная тема и её интонация не составляет характеру задания, у учащихся не возникнет истинной творческой увлеченности, стремления верно согласовывать содержание учебной работы с музыкой и своими внутренними действиями. Концертмейстер является непосредственным, ассистентом преподавателя. Зная характер, ритм и составные элементы (хореографию) учебного задания, он может предложить вниманию учащихся соответствующую тему, тональность, динамику, размер и акценты музыкальной импровизации. Правда существует мнение, что музыкальная импровизация на уроках классического танца не может отличаться достаточно

высокими художественными достоинствами, ибо она создается не великими композиторами, а всего лишь обыкновенными концертмейстерами. Это верно, но ведь танцевальные примеры составляются тоже не великими балетмейстерами, а всего лишь обыкновенными преподавателями.

Следовательно, учебная мысль-цель, которую преподаватель проводит в каждом примере, должна оформляться концертмейстером - импровизатором не равнодушно, а творчески увлеченно, но без уклона в музыкальный примитив или чрезмерную сложность.

В учебной практике существует два способа музыкального оформления уроков классического танца. Первый предусматривает музыкальные импровизации, второй - музыкальную литературу.

Само собой разумеется, что содержание музыки, предназначаются для экзерсиса во всех классах и группах, должно быть значительно проще, чем в разделах урока *adagio* и *allegro*.

Например, в младших классах, особенно в первом, музыка должна быть во всех отношениях очень простой и ясной, даже наивной понятной и близкой психологии учащихся девяти - одиннадцатилетнего возраста. Для учащихся двенадцати - пятнадцати лет содержание музыки может стать более сложной. В старших классах выбирается музыка, но своему содержанию приемлемая для учащихся шестнадцати - восемнадцатилетнего возраста. Начиная с первого же класса следует обращаться к музыке, содержание которой более близко по своему характеру психологии мальчиков и юношей, а не девочек или девушек. В младших классах это ещё не имеет такого большого учебного значения, но в средних, особенно в старших, данную особенность необходимо предусмотреть.

Способность внимательно и верно воспринимать музыку, увлекаться её содержанием необходимо воспитывать с первого года обучения, как только ученики твердо встанут на ноги, хорошо усвоив исполнительские приемы своих экзерсисов как у станка, так и на середине зала. Работу эту надо развивать и углублять постепенно, но не вообще, а в самой тесной связи с освоением техники танца.

Умение слушать музыкальную тему во время сильнейшего физического и нервного напряжения свидетельствует об истинном мастерстве танцовщика. Прервать внутреннюю связь с музыкальной темой - значит уйти от осмысленного действия только в технику. Если учащиеся в момент предельного психофизического утомления стремятся активно слушать музыку, сохранять устойчивость и точность движения, сильно, свободно и эластично выполнять большие сложные привычки, занозки, различные виды выражения и т.д., значит, они овладевают подлинным мастерством театрального танца.

Следовательно, уходит от четкого и ясного восприятия музыкальной темы в учебной работе не следует - это профессиональный просчёт.

Артист - танцовщик узнает музыкальную тему заранее, до сценического выступления и «вживается» в ее содержания. Ученик знакомится с него только в о время урока. Однако и артист и ученик в период предельного напряжения всех сил всегда испытывает огромную трудность, которая связана с задачей сохранения музыкально - творческой увлеченности. Этому искусству и надо научить своих питомцев, и не только на репетициях, но и на обычных уроках классического танца.

Уходя с урока, ученик должен отчетливо помнить не только хореографию, наставления учителя, но и музыкальные темы, которые давали ему внутреннюю увлеченность, действенность (пусть даже самую малую) и тоже помогали развивать технику танцевального мастерства.

Поэтому повторять учебное задание на текущем или следующем уроке (например, *adagio* или *allegro*) стоит не только в целях развития более точной техники танца, но и ради лучшего, более художественного осмысления темы особенно «любимые», тоже не следует, так как теряется эмоциональная острота и восприятие.

Мелодии популярных песен, а такие известные учащимся музыкальные темы из текущего балетного репертуара, но моему мнению, тоже не следует использовать на уроках классического танца, так как они всегда ассоциируются с определенным словесным содержанием или созданием актёрского образа, работы над которыми не выходят в компетенцию предмета классического танца.

Музыкальная тема должна быть не только верно воспринята, но и верно отображена в действиях ученика.

Не менее глубокое внутреннее родство обнаруживай балет с музыкой. Образная природа этих искусств во многом аналогична. Музыка опирается на выразительность интонации человеческой речи, хореография - на выразительность движений человеческого тела. Но ни то, ни другое искусства при этом не воспроизводят, в отличие драматического театра, конкретных бытовых интонаций и движений (или такое воспроизведение является частным случаем, особым приёмом дополняющим и конкретизирующим художественный образ), а используют лишь сам принцип выражения чувства и смысла в голосовом звукоизвлечении и в пластическом движении. Общность образный природы создает возможность органического соединения музыки и хореографии в едином художественном целом. Даже танец не существует без музыки, которая дает ему эмоциональную и ритмическую основу. В балете эта роль музыки становится ещё более развитой и весомой.



Значение музыки в балетном спектакле прежде всего содержательное. Как правило, композитор пишет музыку на готовое либретто или в процессе совместной работы с балетмейстером и сценаристом. Образом, заключенным в литературном и в сценарии, он даёт новую жизнь в музыке. Балетная музыка обрисовывает чувства, состояния, характеры героев, раскрывает ситуации и развитие действия, нередко содержит в себе лейтмотивы, выявляющие многообразные отношения, складывающиеся между героями и возникающие в течении действия. «Танцевальная музыка представляет собою или должна представлять своего рода программу, которая усиливает и предопределяет движения и игру каждого танцовщика». Балетмейстер ставит спектакль, опираясь не только на драматическую канву сценария, но прежде всего на музыку, претворившую и эмоционально, содержательно обогатившую эту сценарную канву. И эту существенно влияет как на особенности решения тех или отдельных эпизодов, так и на характер и формы драматургии танцевально-пластического действия. Оно определяется драматургией не только сценария, но и музыки, несёт в себе черты, родственные как драматическому театру, так и музыкальной драматургии.

Балет - искусство синтетическое, обедняющее в себе несколько видов художественного творчества. Центр этого объединения - хореография. Включая в себе разные искусства, балет тем самым обнаруживает с ними родство, обладает с ними общими свойствами. Вместе с тем балет не механический разных искусств, а их синтез подчиненный хореографическому образу.

Различные искусства существуют в балете не сами по себе, а в претворенном виде, в соподчинении и взаимодействии с хореографией.

Хореографический образ - это танцевальное воплощение жизненного содержания (настроение, чувства, состояние, действия, проникнутых мыслью), находящегося проявление в выразительных движениях человека. Зачатки образной выразительности свойственны человеческой пластике в реальной жизни. В том как человек движется, жестикулирует, действует и пластически реагируют на действия других выражаются особенности его характера, строя чувств, своеобразие его личности. Также «говорящие» характерно выразительные элементы, рожденные в реальной жизни, принято называть пластическими мотивами или пластическими интонациями. В них коренятся истоки образной природы танцевального искусства. Оно основано на том, что характерно-выразительные пластические мотивы, во-первых, обираются из множества реальных жизненных движений, во-вторых, обобщаются и заостряются в своей характерности и выразительности, в-третьих, организуются по закону ритма и симметрии, орнаментального узора, декоративного целого.

Возникновение танца было бы невозможно, если бы на помощь пластике не приходила музыка. Она усиливает выразительностью танцевальной пластика и дает ей эмоциональную и ритмическую основу. Танцевальное искусства изначально синтетично, ибо вне музыки оно не существует. У некоторых восточных и африканских народов есть танцы, идущие только под ритм ударных инструментов. Но ритм ударных инструментов - это тоже музыка, по крайней мере, существеннейшая ее сторона, и ударные инструменты - это музыкальные инструменты. Танцев же без звука - ритмического сопровождения не бывает.

Будучи неотделим от музыки, танец вместе с тем всегда представляет собою зрелище, и это тоже составляет существенный момент его характеристики. Отсюда рождается необходимость его изобразительного оформления. Образ танца дополняется характером костюмов, которые могут быть однородными или состоять из разнообразных групп. Временные ритмы танца переходят в его пространственную композицию.

Рисунок танца тем самым образуется не только с музыкой, но и с закономерностями зримого орнаментального узора. Все это составляет зрелищную сторону танца. Синтетическая природа танца развивается и усиливается в балете - высшей форме хореографического искусства.

Балет возникает там, где на основе танца строится спектакль, хореография становится явлением театра. Возникновение танца было бы невозможно, если бы на помощь пластике не приходила музыка. Она усиливает выразительность танцевальной пластика и дает ей эмоциональную и ритмическую основу. Танцевальное искусство изначально синтетично, ибо вне музыки оно не существует.

### **Использованная литература**

1. Н.И.Тарасова. «Классический танец. Школа мужского исполнительства». Санкт-Петербург. М., 2006 г., 496 ст.
2. А.Я.Ваганова. Основы классического танца. Санкт-Петербург. 2000 г.192 ст.
3. Базарова Н., Мей В. Азбука классического танца, учебно-методическое пособие, 1983 г., 189 ст.

## НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС: КАТТА АШУЛА

Орол Абдуманнонович Сафаров

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Ҳар бир халқнинг ўз номоддий маданий мероси мавжуд бўлиб, уларни асраб авайлаш, давомийлиги ва яшовчанлигини таъминлаш ўша халқнинг зиммасига улкан масъулиятни юклайди. Ўзбек халқининг ҳам бир қатор ана шундай мерослари мавжуд бўлиб, уларнинг кўп қисми ЮНЕСКО томонидан инсониятнинг номоддий маданий меросининг репрезентатив рўйхатига киритилган. Шулардан бири жуда қадимий ва бетакрор санъат тури бўлган Катта ашуладир. Ушбу мақолада, ЮНЕСКОнинг инсониятнинг номоддий маданий меросининг репрезентатив рўйхати ва унга киритилган катта ашула жанрининг муҳим жиҳатлари ҳақида маълумотлар берилади.

**Калит сўзлар:** катта ашула, ЮНЕСКО, репрезентатив рўйхат, конвенция, мерос, санъат, хонанда.

## INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE: GREAT SINGING

Safarov Orol Abdumannapovich

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** Each nation has its own intangible cultural heritage, and preserving and ensuring its continuity and survival is a great responsibility for this people. The Uzbek people also have a number of such heritage sites, many of which are included in the representative list of the intangible cultural heritage of humanity by UNESCO. One of them is Katta ashula, which is a very ancient and unique art form. This article provides information about the representative list of the intangible cultural heritage of humanity by UNESCO and important aspects of the Katta ashula genre included in it.

**Keywords:** katta ashula, UNESCO, representative list, convention, heritage, art, singer.

Номоддий маданий мерос-бу маданий фаолиятнинг анъанавий шакллари ва унинг аъзолари орасида ўзлик ва давомийлик ҳиссини шакллантирувчи инсон жамоасининг ваколатлари мажмуидир. Глобаллашув ва оммавий маданият шароитида номоддий маданий мероснинг тезда йўқолиб кетиши халқаро ҳамжамиятни уни сақлаб қолиш масаласини ҳал қилишга мажбур этди. Анъанавий номоддий қадриятлар авлоддан-авлодга, шахсдан-шахсга ўтиб, институтлашган шакллари четлаб ўтади, улар инсон жамоаси томонидан

доимий равишда қайта тикланиши керак; мероснинг бу усули уларни айниқса нозик ва заиф қилади. Хориж амалиётида “номатериал” (“non-material”) атамаси билан бир қаторда “номоддий” (“intangible”) атамаси ҳам тез-тез қўлланилиб, предмет шаклида моддийлашмаган объектлар ҳақида гапирётганимизни таъкидлайди.<sup>1</sup>

XX асрнинг сўнгги йилларида номоддий мерос объектларининг тақдири жаҳон диққат марказида бўлди. Инсон ўз-ўзини идентификация қилиш учун маданиятнинг кўплаб муҳим шакллари бутунлай йўқ қилиш хавфи ушбу муаммони йирик халқаро форумларда муҳокама қилишни ва бир қатор халқаро ҳужжатларни ишлаб чиқишни талаб қилди. Номоддий маданий мерос тушунчаси 1990-йилларда моддий маданиятга қаратилган жаҳон мероси рўйхатига ёндошув сифатида ишлаб чиқилган. 2001-йилда ЮНЕСКО таърифни ишлаб чиқиш учун давлатлар ва нодавлат ташкилотлар ўртасида сўров ўтказди. 2003 йилда номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш Конвенцияси қабул қилинди. Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш Конвенцияси (2003) номоддий маданий меросни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асосларини таъминловчи биринчи халқаро восита бўлди.<sup>2</sup> Конвенция кучга киришидан олдин инсониятнинг оғзаки ва номоддий мероси дурдоналарини эълон қилиш дастури мавжуд эди.

Халқаро ҳамжамият номоддий маданий мероснинг бебаҳо ролини одамлар ўртасида яқинлашиш, алмашилиш ва тушунишни ҳамда маданий хилма-хилликни таъминлашга кўмаклашувчи омил сифатида деярли бир овоздан эътироф этди. Жамоалар, хусусан, маҳаллий жамоалар, гуруҳлар ва айрим ҳолларда шахслар номоддий маданий меросни яратиш, ҳимоя қилиш, асраб-авайлаш ва қайта яратишда, маданий хилма-хилликни бойитишда ва инсон ижодига ҳисса қўшишда муҳим рол ўйнайди. Номоддий маданий мероснинг барқарор тараққиёт гарови сифатидаги аҳамиятини кадрлар экан, маданий хилма-хилликнинг моҳияти сифатида эътироф этилди.

2003-йил 17-октябрда номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш бўйича халқаро Конвенция қабул қилинди, унинг вазифалари қуйидагилардан иборат:

- номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш;
- манфаатдор жамоалар, гуруҳлар ва шахсларнинг номоддий маданий меросига ҳурмат
- номоддий маданий мероснинг аҳамияти ва унинг ўзаро тан олиниши маҳаллий, миллий ва халқаро даражаларда хабардорликни ошириш;
- халқаро ҳамкорлик ва ёрдам.

<sup>1</sup> Основные тексты Международной конвенции об охране нематериального культурного наследия 2003 г. Издание 2018 г.

<sup>2</sup> Основные тексты Международной конвенции об охране нематериального культурного наследия 2003 г. Издание 2018 г.

Конвенция номоддий маданий мероснинг қуйидаги таърифини қабул қилди: "номоддий маданий мерос" - бу урф-одатлар, вакиллик ва ифода шакллари, билим ва кўникмалар, шунингдек, жамоалар, гуруҳлар ва айрим ҳолларда шахслар томонидан тан олинган тегишли воситалар, объектлар, асарлар ва маданий жойлар. Авлоддан-авлодга ўтиб келаётган бу номоддий маданий мерос ўз атроф-муҳитига, табиат ва уларнинг тарихи билан ўзаро алоқаларига қараб, жамоалар ва гуруҳлар томонидан доимий равишда қайта яратилади ва шу билан маданий хилма-хиллик ва инсон ижодкорлигига ҳурматни кучайтиради. Ушбу Конвенция мақсадлари учун мавжуд халқаро инсон ҳуқуқлари воситаларига ва жамоалар, гуруҳлар ва шахслар ўртасидаги ўзаро ҳурмат талабларига, шунингдек, барқарор ривожланишга мос келадиган номоддий маданий мерос ҳисобга олинади.<sup>3</sup>

Шу тарзда аниқланган номоддий маданий мерос қуйидаги соҳаларда намоён бўлади

- оғзаки анъаналар ва ифода шакллари, шу жумладан, тил номоддий маданий меросни ташувчи сифатида;

- ижрочилик санъати;

- урф -одат, маросимлар ва фестиваллар;

- табиат ва коинот билан боғлиқ билим ва урф-одатлар;

- анъанавий ҳунармандчилик билан боғлиқ билим ва кўникмалар.

2009 йилнинг 30 сентябрь санасида ЮНЕСКО инсониятнинг номоддий маданий меросининг репрезентатив рўйхатига 76 хил шаклдаги маданий меросни киритди. Албатта ушбу рўйхатда ўзбек халқининг бебаҳо ва қадим санъатларидан бири “Катта ашула” ҳам бор.

Катта ашула жанри жуда қадимий санъат турларидан бири саналиб, мутахассислар бугунги кунда унинг келиб чиқиши билан боғлиқ равишда баҳс ва мунозаралар олиб бормоқдалар. Бир нечта мутахассилар “Катта ашула”ни диний мазмундаги мусиқалар билан боғлиқ, деб ҳисобласа, бошқа мусиқашунослар эса “шеърларни баланд овозда айтиш, юқори пардада куйлаш орқали катта ашулалар вужудга келган”, дейди. Хаттоки, ушбу санъатни қадимда камбағалчилик даврларда пайдо бўлган бўлиб, уни мусиқий созларни сотиб олишга қурби етмаган баланд овозли хонандаларнинг санъати, дегувчи санъатшунослар ҳам топилади. Аслида “Катта ашула” маълум мезон ва қонуниятларга асосланган мустақил ва етук бир санъат тури бўлиб, Тошкент–Фарғона мусиқа мактабининг алоҳида йўналиши саналади. Уни яхши биладиган, мукамал эгаллаган устозлардан ўрганиш, тарғиб этиш ва шу йўлда янги намуналарни ижод этиш бугунги куннинг энг муҳим вазифаларидан бири.

<sup>3</sup> О.В. Галкова “Культурное наследие: структура и содержание понятия” Электронный научно-образовательный журнал ВГПУ «Грани познания». №4(9). Декабрь 2010 ■ www.grani.vspu.ru

Катта ашула санъатининг ЮНЕСКО томонидан инсониятнинг номоддий маданий меросининг репрезентатив рўйхатига киритилиши бежиз эмас албатта. У маълум тарихий жараёнларни бошдан кечирган, халқнинг ижтимоий, сиёсий ҳамда маънавий эҳтиёжлари қаторида ҳаётида ўз изини қолдириб келаётган бебаҳо санъат сирасига мансуб. Энг муҳими, катта ашула жанри мусиқий меросимиз намуналари ичида алоҳида ўринга эга. Бундай дейишимизга сабаб, бу хонандалик санъати билан боғлиқ бўлиб, мусиқий созларсиз ижро қилинадиган мукамал жанрдир. Умуман олганда, чолғу созларсиз ижро этиладиган жанрлар мамлакатимизнинг бошқа воҳаларида ҳам мавжуд. Мисол учун Хоразм дostonларидаги речитатив, яъни, нутқ билан айтилувчи қисми, Бухоро мавриги ва Бухорча жанрларининг бошланиш, доира усулисиз қисми, Самарқанд, Қашқадарё, Сурхондарё воҳаларидаги мавжуд айтим яъни эшлаш, ёд олиш каби куйлаш жанрлари мавжуд. Аммо Тошкент–Фарғона воҳасига мансуб катта ашула жанри нисбатан мукамал ва ўзига хосдир.

Юнус Ражабий асрлар давомида жамланган ва ҳар бири миллий қадриятлар билан йўғрилган бебаҳо мусиқий меросимизни нота ёзувларига кўчириб, келгуси авлодларга бенуқсон етказишдек масъулиятли вазифани шараф билан уддалади. Бунга устоз-санъаткор томонидан тўпланиб, 1955–1958 йиллари нашр этилган “Ўзбек халқ мусиқаси” ноталар туркумининг I–IV жилдлари яққол далилдир. Ушбу тўпламлардан кўшиқ, лапар, ялла, ашула каби халқ мусиқий ижодининг қарийб барча жанрлари, шунингдек, катта ашула, сувора, мақом чолғу ва ашула йўллари ҳамда замондош бастакорлар қаламига мансуб айрим ижод намуналари муносиб ўрин олди. Устоз санъаткорнинг таҳсинга сазовор меҳнати туфайли асрлар давомида авлоддан-авлодга ўтиб келаётган, бироқ муайян сиёсий-мафкуравий сабабларга кўра йўқолиб кетиш хавфи остида турган мусиқий меросимиз сақлаб қолинди.<sup>4</sup> Ушбу тўплам орқали биз катта ашулалар борасида ҳам бир қанча қиммали маълумотларга эга бўлишимиз мумкин.

Ўзбекистон халқ ҳофизини, Ўзбекистон Давлат консерваторияси профессори Махмуд Тожибоев катта ашула жанри ҳақида: “Катта ашула жанри шеърлари фақат аруз вазнидадир. Шунинг учун бу жанрни келиб чиқиши барибир араблар истилосидан кейинги даврга тўғри келади. Чунки аруз вазни бизга араблардан кириб келган. Ундан олдин фақат бармоқ вазнидаги шеърлар бўлган” деб таъкидлаган эдилар.<sup>5</sup> Катта ашула жанрининг ижролари икки хилда бўлади, биринчиси мақом ладидагилари, улар “Ёввойи Чоргоҳ”, “Ёввойи Ушшоқ” каби катта ашулалардир. Ёввойи атамасининг кўшилишининг маъноси

<sup>4</sup> О.Иброхимов “Юнус Ражабий ҳақида сўз” <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/sanat/oqilxon-ibrohimov-yunus-rajabiy-haqida-soz/>

<sup>5</sup> Yoshlar радиоканали “Мақомот” эшиттириши” 2017 йил февраль ойи сонидан.

шундаки, бу асарларда доира ёки бошқа бир муסיкий чолғу иштирок этмайди, аммо хонандалар усулни ижро давомида сақлаб туришади. Масалан “Ёввойи Чоргоҳ” катта ашуласини таҳлил қиладиган бўлсак: ашула номидаги “ёввойи” сўзи асарнинг ижроси давомида доира ёки бошқа бир муסיкий чолғунинг иштирок этмаслигини билдиради. Шундай бўлса ҳам ижрочилар томонидан муайян усул сақланиб туради. “Чоргоҳ” атамаси эса мақомот сафидаги пардалар мажмуасини англатади. “Ёввойи Ушшоқ” катта ашуласининг номланиши ҳам худди шундай маънони беради, фақат унда мақомлар сафидаги ушшоқ пардалари мажмуасига нисбат берилган.

“Ёввойи чоргоҳ”ни уч нафар хонанда ижро этади. Аввалига даромад ва миёнхатида аниқ усул ликобларда билдирилиб, уччала хонандалар бир вақтнинг ўзида ижрони бошлайдилар. «Ёввойи ушшоқ» эса даромад қисмидан икки хонанданинг навбатма навбат ижроси билан бошланади. Миёнхат ва дунаسر қисмлари ҳам икки хонанданинг бир бирини тўлдирувчи ғазал байтлари билан давом эттирилади. “Ёввойи ушшоқда” бу кўриниш уч маротаба такрорланади ва сўнгги такрорланиши энг юқори авжи билан ижро этилади. Асар фурувард яъни якунловчи қисми билан тугалланади. “Ёввойи чоргоҳ”да эса ўрта авж ва дунаسر қисмларида дастлаб усулсиз яъни тремола қисмида овози нисбатан пастроқ бўлган хонанда бир хатини ижро этади, хат якунига етмай туриб унинг охириги ҳарфларидан овози нисбатан юқорироқ бўлган хонанда иккинчи хатни улаб кетади. Худди шу кўринишда учинчи хонанда иккинчи хонанданинг сўзларини улаб, кейинги хатни ижро қилади ва тўртинчи хатдан бошлаб уччала хонанда яна биргаликда давом эттирадилар. Асар ижроси авжига келганда яна усулсиз қисми бошланади. Энди овози энг баланд бўлган хонанда ижрони давом эттиради. У юқори пардаларни чиройли қочиримлар билан олиб келиб, овози нисбатан пастроқ бўлган хонандага ижрони топширади. У ҳам ўз навбатида биринчи хонанданинг овозини кейинги хатга улайди. Учинчи хонанда ҳам шу тариқа давом эттиради ва яна биргаликдаги ижро усули билан фурувард қисми якунланади.

Катта ашулаларни ижро этилиш жараёнининг ўзи тингловчида ўзгача завқ уйғотади, ижрочида эса шижоатни пайдо қилади. Четдан қараганда катта ашулаларни ижро этиш оддий туюлсада. Аслида у жуда катта куч, маҳорат ва малакани талаб этади, айниқса мақом ладида ижро этиладиган катта ашулалар. Аммо бастакорлар томонидан ижро этилган катта ашулалар ижроси ҳам ўзига ҳос талабларга эга. Бастакорлар томонидан басталанган катта ашулаларда шеърнинг маъно–моҳиятига мос равишда пардалар ва муסיкий йўл танланади. Бу катта ашулаларнинг барчаси ҳам аслида мақомлар ладидан узоқлашмаган. Чунки миллий муסיқамизнинг асосий негизи барибир мақомларимизнинг парда асосларига бориб тақалади. Масалан, “Кўкарди чаман” катта ашуласини яратар

экан Жўрахон Султонов “Муҳайяри Чоргоҳ” намудаидан моҳирона фойдаланган. Фаттохон Мамадалиев эса “Дугоҳ” намуди кўринишларидан тўлалигича “Топмадим” катта ашуласида фойдаланган.<sup>6</sup>

Катта ашула жанрининг ноёб жиҳатларидан бири шуки, унда мақом ва халқ оҳангларидан моҳирона фойдаланилади. Навбатда, бир нечта катта ашулаларни таҳлилида фикримиз янада ойдинлашади.

Катта ашулалар орасида жуда машхур асарлардан бири “Боғ аро” катта ашуласи бўлиб, у Чустийнинг мухаммасига басталанган. Унинг сўзлари ҳам, куй йўли ҳам жуфт хонандалар ижросини талаб этади. Бу ашуланинг ижроси жуда қийин бўлсада, тингловчининг қалбига тезда етиб боради. Чунки сўзлари жуда осон ва тушунарли. Катта ашулани ижро этиш қонуниятига кўра, агар ижрочилар икки нафар бўлса, катта ашулани ижро эта бошлаган хонанданинг овози нисбатан пастроқ, иккинчи хонанданинг овози эса баландроқ бўлмоғи лозим. Бошлаб берган хонанда авжга олиб чиқиб беради ва туширим қисмини ижро этади, иккинчи хонанда эса авжини ижро этади. Умуман, ижро жараёнида жуфтлик хонандалар бири ижро қилган сатрни иккинчиси узлуксиз тарзда давом эттириши керак бўлади.

Аслида катта ашулани ижро этишни бошлаган хонанда авж қисмларини ижро қилмайди, лекин катта ашуланинг бутун оғирлиги, яъни авжга олиб чиқиш, авждан тушириш каби пардалар ҳам мукамаллик ва моҳирликни талаб этади. Бу хонанданинг овози баланд бўлса шеригининг овоз имкониятларини инобатга олган ҳолда пастроқ пардалардан бошлаши лозим бўлади, аммо бунда табиийки у ўз имкониятларини тўла намоёиш эта олмайди.

Яна бир катта ашула “Кўкарди чаман” деб аталади. Унинг шундай номланиши “Кўкарди чаман” деб номланувчи ғазалга айтилганлиги сабабидандир. Ўзбекистон халқ артисти Жўрахон Султонов бу асарни катта ашулалар қонуниятларига бўйсунган ҳолда басталаганлар. Бу асосан Марғилон мактаби катта ашулачилари мусиқий услубига ҳос бўлиб, унда овоз ҳосил қилиш қонуниятларига тўла амал қилинган. Умуман Фарғона – Тошкент ашулачилик ижро мактабларининг бизгача етиб келишига асосий сабабчи ҳам Жўрахон Султоновдир. Аслида катта ашулалар қонуниятига мусиқий чолғулар иштирок этмайди. Лекин Жўрахон Султонов “Кўкарди чаман” ашуласида най ва ансамбл ижросидан моҳирона фойдаланган. Шу асардан сўнг катта ашулалар ижросида ҳам мусиқий чолғулардан фойдаланиш одат тусига кирган.

Катта ашула жанрининг ЮНЕСКО томонидан инсониятнинг номоддий маданий меросининг репрезентатив рўйхатига киритилиши албатта биз каби ижодкорларнинг ва давлатимизнинг зиммасига улкан масъулиятни юклайди. Конвенцияга мувофиқ, рўйхатга олинган жанр “мухофаза”си асосан расмий ва

<sup>6</sup> Ш.Матёкубов “Анъанавий ижрочилик тарихи” Тошкент 2018.



расмий бўлмаган таълим орқали ўргатиш, хужжатлаштириш, тадқиқотлар олиб бориш, сақлаш, ҳимоя қилиш, рағбатлантириш, унинг ролини ошириш, давомийлигини таъминлаш, шу жумладан, номоддий маданий мероснинг ҳаётийлигини таъминлаш учун чора-тадбирлар, шунингдек, бундай мероснинг турли жиҳатларини тиклашни назарда тутати. Шундан келиб чиққан ҳолда биз ҳам Катта ашула жанрини муҳофаза қилишни таъминлаш бўйича зарур чора-тадбирларни кўришимиз долзарб саналади. Ушбу номоддий маданий мероснинг жамиятдаги ролини оширишимиз, илмий-техник ва бадиий тадқиқотларни, шунингдек номоддий маданий меросни самарали ҳимоя қилиш бўйича илмий-тадқиқот услубиётларини ишлаб чиқишни рағбатлантириш жуда катта аҳамиятга эга.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Основные тексты Международной конвенции об охране нематериального культурного наследия 2003 г. Издание 2018 г.
2. Основные тексты Международной конвенции об охране нематериального культурного наследия 2003 г. Издание 2018 г.
3. О.В. Галкова “Культурное наследие: структура и содержание понятия” Электронный научно-образовательный журнал ВГПУ «Грани познания». №4(9). Декабрь 2010. [www.grani.vspu.ru](http://www.grani.vspu.ru)
4. О.Иброхимов “Юнус Ражабий ҳақида сўз” <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/sanat/oqilxon-ibrohimov-yunus-rajabiy-haqida-soz/>
5. Yoshlar радиоканали “Мақомот” эшиттириши” 2017 йил февраль ойи сонидан.
6. Ш.Матёқубов “Анъанавий ижрочилик тарихи” Тошкент 2018.

## MUSICAL DRAMATURGY OF U.MUSAEV'S BALLET "TOMIRIS"

Irina Radikovna Sultangirova

Ira.sultan78@mail.com

Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** The article is devoted to the specifics of the musical dramaturgy of the ballet U.Musayeva "Tomiris". It shows interest in history, reliance on national origins, modern musical thinking. The ballet has become a vivid example of innovative techniques for synthesizing music with choreography.

**Keywords:** U.Musaev, "Tomiris", composer, musical dramaturgy, leitmotif, score.

The ballet "Tomiris" was written by the famous Uzbek composer U.Musaev. The production of the ballet "Tomiris" was performed in Uzbekistan at the GABTA. Navoi in 1984, the choreographer is the People's Artist of Uzbekistan I. Yusupov, artist S. Fesko. The main roles were played by People 's Artists of Uzbekistan Z. Davletmuratova, I. Kistanov, marking an important stage in the development of Russian ballet art. The libretto of the ballet "Tomiris" is based on the famous work of Ya. Ilyasov's "Spotted Death", which tells about the legendary past of our ancient and beautiful land.

The ballet consists of two acts framed by an orchestral introduction and an epilogue. The first action includes three pictures. They contain an exposition of the main conflict and images - Tomiris, Phrases and Cyrus. The scene of the collision of these characters (the duel of Tomiris and Phrases, the 1st picture) becomes the beginning of the main conflict. In the second picture there is an exposition of the image of Cyrus.

The second act also consists of three pictures. The fifth picture becomes the dramatic center. In the middle of the fifth picture of the second act, preparations begin for the general climax - the scene of Spargapa's capture and subsequent suicide. The direct collision of two conflicting forces grows into a dynamic scene that pulls all the dramatic lines into a single knot. The duet-fight between Tomiris and Cyrus becomes the nodal moment of the ballet's dramaturgy, representing the culminating peak. The denouement is the apotheosis in the epilogue, where Tomiris breaks the sword in two, symbolizing victory.

The ballet score focuses on the main features characteristic of the work of the Uzbek composer Ulugbek Musayev in general - interest in history, reliance on national origins, modern musical thinking. The historical reality of the events and the prototypes of the heroes, the scale of the personalities determined the choice of

certain artistic means. The peculiarity of the musical score of the ballet "Tomiris" is determined by the combination of epic and dramatic beginnings. The main conflict of the musical dramaturgy of the play is revealed in the convex opposition of the song-romance intonation sphere of the central image of Tomiris and the march-fanfare motifs of Cyrus, conveying a generalized image of aggression. The genre antithesis of songfulness and marching conveys the basic ideological and artistic concept of ballet - the confrontation of two opposite thinking - love of freedom and expansion.

The composition "Tomiris" is based on the rich means of musical drama. Contrast becomes the fundamental principle. Large-scale mass scenes are juxtaposed with a solo monologue, divertimental dances with effective episodes. So, for example, the lyrical Adagio of Tomiris in the first picture is replaced by a furious duel of Tomiris with Frada, the languid "snake dance" turns into a pantomime dialogue of Cyrus and Frada (2nd picture). Among the striking dramatic techniques is a compositional arch that binds a large-scale stage action into a holistic structure (duets-fights Tomiris with Frada in 1 d. and with Cyrus in the final of the 2nd d.).

Musical dramaturgy is based on a rich system of leitmotives. The total number of leitmotifs is six. Of great importance in the development of musical drama is the theme of introduction, which receives the meaning of the leitmotif-refrain. This theme repeatedly arises in the nodal moments of the development of the action and unites the canvas into a single whole. Permeating the entire action of the ballet, the leitmotif becomes the carrier of the end-to-end action. The topic is characterized by the interrogativeness of the second intonations, the theses of the presentation, the chanted nature of articulation. The characteristic intonation causes an illusion with the sound of dombra. The laconic leitmotif from scene to scene increases its meaning and in the final bars of the score develops into a capacious image of an appeal to history, to time, to humanity.

In the center of the ballet is the image of Tomiris. The detailed characteristic of the leading heroic image in ballet is solved in the nature of the procedural musical and choreographic development from subjective-personal to epic-heroic. The form of a monologue is of central importance in the characterization of Tomiris. Impressive in the power of emotional impact, the first monologue of the queen (the 1st picture of the first act) reveals the personal tragedy of Tomiris. The monologue, voluminous in content and form, consists of three parts. The first musical phrases expressively embody the questions that arise in the soul of Tomiris: she cannot accept the loss of a dear person. The monologue "with the crown" (second act) turns the lyrical and dramatic perspective of the image into a heroic and dramatic one: the queen is placed in an exceptional situation and must choose the only correct solution. The dramatic pathos and declamation of her musical speech reflect her anxiety for the future of her people.

The heroic line is clearly revealed in the development of the Tomiris characteristic. The queen's duels with Freda and Cyrus bring a strong-willed, active-dynamic beginning to her image, which perfectly balances the lyrical manifestations and gives the image a versatility rare in the genre of ballet. A high degree of epic generalization is achieved by the duet-the duel of Tomiris and Kira, which is the culmination of the performance. For the composer, it is not so much the conflicting confrontation of images that is important, as the very element of the battle itself. The composer emphasizes the rhythmic beginning in the decisive deadly battle. The rhythmic pattern sounds in the character of Usul Doira. The ringing usul perfectly conveys the emotional expression and tense pulse of the fight.

Unlike Tomiris, the image of Cyrus is limited to general features, its theme is expressed mainly by marching means. The quarto-fifth moves of the melody, accompanied by the drum roll, deliberately sharp and straightforward sound delivery by brass wind instruments draw the pompous self-confidence of the emperor. The marching gait of the fanfare theme draws an imperial step, thereby personifying the image of an evil force. The concubine dance becomes not just a decorative episode, but also serves as an indirect characteristic of Cyrus. The musical theme of the dance is based on chromatic turns of an exaggeratedly languid nature. Some intonations wittily convey the plasticity of a person who is intoxicated.

There is a considerable amount of humor in the topic of the Phrase. The bassoon's short, ragged phrases in low registers sound like buffoons. There is a discrepancy between the choreographic and musical images, and this vertical installation technique helps to convey the essence of Frada - a treacherous and empty man who betrayed his native tribe.

The ballet "Tomiris" has become a vivid example of innovative techniques for synthesizing music with choreography. Along with traditional forms, U. Musaev creates new perspectives of visual and auditory communication of the artistic message. He divides the musical fabric of the ballet into two large-scale layers, which are clearly opposed to each other by communicative signs: one of them is perceived as an objective message, the second as a subjective, deeply personal experience. Music, then acts as a commentator on the events taking place and the author reviews the historical past from the perspective of modernity. In other scenes, the author gets used to his characters and the music speaks directly from the first person. As a consequence, a feature of the musical drama of the ballet becomes a major tectonics in the comparison of layers of action, observation and experience.

"Tomiris" is a ballet-a legend about our ancient and beautiful land. The music of the performance conveys the breath of the free steppe and the flying run of a horse, the pain of personal loss and love for the Motherland. The paintings are painted by

the composer with a large bold stroke and add up to a beautiful fresco. The music of the ballet "Tomiris" reaches a vivid symphonic and philosophical generalization.

### **References**

1. Avdeeva L. Ballet of Uzbekistan. T., 1973.
2. Vanslov V. Articles about ballet. Musical and aesthetic problems of ballet. L., 1980.
3. Ilyasov Ya. Spotted death. Royallib.ru

## **XALQ MUSIQIY IJODIYOTINING MAHALLIY USLUBLARGA XOS JANR TURLARI TAVSIFI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISH MUAMMOLARI**

T.Xalilov  
O'zDSMI FMF

**Annotasiya:** Ushbu maqolada xalq musiqiy ijodiyotining mahalliy uslublarga xos janr turlari tavsifi va ularning ta'lim jarayoniga tadbiiq etish muammolari, mahalliy uslublarning o'iga xos jihatlari haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** San'at, mahorat, kashfiyot, fazilat, naqsh, musiqa, uslub, yo'nalish, doston, bahshi, xalq og 'zaki ijodi.

### **DESCRIPTION OF LOCAL TYPES OF FOLK MUSICAL WORK IN LOCAL STYLES AND PROBLEMS OF ITS APPLICATION TO THE EDUCATIONAL PROCESS**

T.Xalilov  
FRB UzSIAC

**Abstract:** This article describes the genres of folk music in the local style and the problems of their application in the educational process, the specifics of local styles.

**Keywords:** Art, skill, discovery, virtue, pattern, music, style, direction, epic, bahshi, folklore.

Barkamol avlod tarbiyasida san'atning, xususan musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa tabiatiga ko'ra jon ozig'i, xissiy ruhiy kechinmalarning uyg'otuvchisi, ijod va nozik didni tarbiyalovchi kuchli vositadir. Musiqaning ana shu o'tkir tarbiyaviy kuchi vositasidan foydalanish, san'atga mehr uyg'otgan holda, o'quvchi yoshlarning nafasat dunyosini o'stirish, ularda yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalash soha vakillari va pedagoglar zimmasiga yuklatilgan.

Yurtimizda olib borilayotgan sohaga oid isloxotlar, qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar soha rivojida sezilarli natijalarni yuzaga kelishida muhim omil sanaladi. Madaniy merosga har bir avlodning o'z munosabati bo'ladi. Bu munosabat yaxshi bo'lsa, xalq ijoda va uning har bir janri, ya'ni maqol, ertak, doston, qo'shiqlari, aytimlari hayotiylik kasb etib avloddan avlodga o'tib yashashda davom etadi. Qo'shiqlari, milliy urf-odat, an'analari yashab turgan yurtning hayoti, tarixa ham yashaydi, yurti obod, xalqining ma'naviyati yuksak bo'ladi. Har bir jamiyatning o'z

madaniyati va ma'naviy omillari mavjud bo'lganidek mustaqil jamiyatimizning ham milliy ma'naviy omillari sirasida xalq musiqa merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan xalqimizning o'tmish ma'naviy merosini o'rganish, shu asosda milliy mafkurani yaratish, ularda vatanparvarlik, milliy urf-odat va qadriyatlarni sevisish hamda qadrlash tuyg'usini kamol toptirish alohida e'tiborni talab qiladi. Bu qadimiylarning g'oyaviy badiiy ifodasi bir qator badiiy qadriyatlarda, jumladan, xalq qo'shiqlari afsona va dostonlarida saqlanib qolganligi ham mamlakatimizda ta'lim-tarbiya, uztoz-shogird an'analarining tog'ri va maqsadli shakllanganligini ko'rsatadi. Ta'kidlab o'tilgan qo'shiqlar, laparlar, yalla, alla, katta ashula, diniy mazmundagi motam aytimlari, mehnat qo'shiqlari, marsiya, doston qo'shiqlari orqali o'sha hudud xalqining hayotiy falsafasi, lozim bo'lsa pedagogik ahamiyatga molik qarashlarini ham bilib olish uchun zamin yaratadi. Shuning uchun ham o'zbek xalqining musiqiy ijrochilik uslublari, an'analarining musiqiy-pedagogik xususiyatlarini muayyan janrlarga mansub aytimlar, cholg'u kuylarning amaliy-musiqiy uslublari, musiqiy ma'rifiy faoliyatini o'rganmay turib, tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish samarali bo'lmasligi mumkin.

Uzoq o'tmishda sinkretik san'atning namunasi bo'lgan qo'shiqlarni yaratuvchilar va ijro etuvchilar mehnat faoliyati-ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik ishlari, xalq amaliy san'ati kulolchilik, o'ymakorlik va boshqa san'atlar bilan bevosita aloqada bo'lib, ayni chog'da mehnatkash ommaning qadimiy urf-odatlari, xilma-xil marosimlari va e'tiqodlari negizida yashab kelgan.

Zamonlar o'tishi, davrlar almashinuvi natijasida xalqlarning chegaralanishi, ya'ni ma'lum hududlarga bo'linib yashash ko'proq va qat'iyroq tus olishi bilan har bir urug', qabilaning, xalqning urf-odatlari, nafaqat xalq, balki har bir shahar, tuman, vohaning o'ziga xosligi bo'lib, bu narsa musiqa san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surhandaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, ommaviy janrlari bunga misol bo'la oladi. Xalq og'zaki musiqa ijodiyotida mahalliy uslubga xos aytimlarning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ahamiyati kattadir. Psixolog olimlarning qayd etishicha xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar o'zining milliy ohangi va mazmuni bilan inson bosh miyasi joylashgan yarim shardagi asab qoplamasi, asab tomirlari, miya qobig'ining yeng yirik, eng nozik, boshqa hech narsa ta'sir ko'rsata olmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Talabalarda milliy musiqiy meros haqida keng qamrovli tushunchalar hosil qilishda eng avvalo, ularning o'zi yashab turgan hudud viloyat, tuman, qishloqlarda yashovchi xalqqa mansub folklor asarlar, mashhur san'atkorlar- baxshilar, o'lanchilar, laparchi-yallachilar, keng ommalashgan aytimlar bilan tanishtirish, ularning ijrochilari haqida ma'lumotlar bilan tanishtirish va talabalarga mustaqil ish sifatida yoshi ulug'lardan bu haqida ma'lumotlar, namunalar yig'ib kelishni topshireish yaxshi samara beradi. Mahalliy uslublarga xos

namunalarni o'rganishda ularni qiyosiy taxlil qilish talabalarni xalq ijodiyotiga qiziqishlarini oshiradi, bu esa ularni musiqiy go'zallikka bo'lgan haqiqiy ehtiyojini qondirishda muhim o'rin tutadi. Chunki inson tug'ilganidanoq birinchi musiqachi, kompozitor- ona allasini eshitadi. Bu milliy ohang, milliy tarbiyaning yeng asosiy vositasi sifatida insonning umri oxiriga qadar o'z kuchi, ahamiyatini yo'qotmaydigan, uning milliy qadriyatini belgilovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Milliy musiqiy asarlarning, jumladan xalq hayotini turli ko'rinishlarini aks ettiruvchi qo'shiq-raqs ayimlarni ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatgichlardan biri uning o'quvchi-yoshlarning ichki kechinma, hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishidir. San'at asarlarini hissiy-emotsional idrok qilish har qanday bilimning asosini tashkil etadi. Xalq badiiy ijodiyotini badiiy idrok etish, anglash ma'naviy ma'naviy estetik madaniyatini shakllantirishning eng muhim omillaridan sanaladi. Shu bilan birga Respublikamiz musiqa madaniyatida tavsif etilgan to'rtta asosiy mahalliy uslub - Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm musiqiy an'alarining o'ziga xosligi, o'xshashligi, farqli jihatlari va o'zaro yaqinlashib boorish xususiyatlari bugungi kunda umummusiqiy madaniyatimizni keng diapozoni va janr-barangliligini belgilab beradi. Respublikamizdagi viloyatlar aholi migrasiyalarining o'tgan asr o'rtalaridan ancha jadallashganligi, aholi umumiy madaniyati, turmush tarzining ham o'zaro faollashuvi shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ayniqsa, ayniqsa, radio, radio, televideniye kabi vositalarning madaniy qiymatlar (an'ana, urf-odat, marosim) almashinuvining tezlashuvi kabi muhim omillar sifatida ko'rsatish mumkin. Ushbu qayd etilgan mahalliy musiqiy uslublarning ayrim ko'rinishlari aks etgan Jizzax viloyati xalq musiqasi ham e'tiborni o'ziga tortmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalq musiqasi ijodiyotining mahalliy uslublariga xos namunalari sifatida tasnif etiluvchi muayyan vaziyat va tadbir, marosim bilan bog'langan ayim-kuylarning hozirgi kunda zamonaviylashgan an'alar bilan aralashib, omuxta ko'rinishlari paydo bo'layotganligini ham e'tibordan qochirmay, [olis baholash vaqti keldi. Tabiiyki, ayrim marosim, urf-odat va mehnat turlarining ijtimoiy mohuyati o'z kuchini yo'qotib borishi natijasida ular bilan bog'liq ayim yoki kuylarning ham dastlabki vazifasi o'zgarib, endilikda nomarosim xalq musiqasi guruhiga taalluqli bo'lib qolmoqda, ayrim namunalar esa o'z qadr-qimmatini yo'qotish arafasida turganidan ham ko'z yumub bo'lmaydi. Yuzaga kelgan bu vaziyatda tarixiy merosimizni saqlash va kelajak avlodga yetkazish maqsadida bir qator chora-taddirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, folklor- etnografik ansambllarning tuzilishi va faoliyatiga e'tibor kuchayganligi, maxsus ko'rik-tanlovlarning tizimli tarzda o'tkazilib kelinayotganligi, musiqiy folklorning turli hududlar (mahalliy uslublar) aholisiga tegishlilik xususiyatlarini tabiiyligini saqlab qolish ularni yosh avlod ma'naviyatiga, ta'lim-tarbiyasiga yanada chuqurroq singdirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. E'tirof etish kerakki, bizning davrimizga qadar yetib kelgan musiqiy



folklor namunalari ko'proq viloyatlarning qishloq tumanlarida o'zining tabiiy hayotini davom ettirib, o'z tabiiy xususiyatlarini saqlab kelayotgan bo'lsada, biroq shahar muhiti, turli ijtimoiy guruhlarining ma'naviy-madaniy talab va ehtiyojlari ta'sirida, ayrim holatlarda chet el madaniyatiga xos unsurlarning hayotimizga kirib kelishi oqibatida ularning tabiiyligiga putur yetib, etibor susaymoqda. Alalxusus, bugungi shahar folklorining ajralmas qismini – Yor-yor, Kelinsalom, Allalar hozirda ham asl qiyofasi va ahamiyatini deyarli saqlagan oilaviy marosim qo'shiqlari sifatida ohang va so'z matnlari ma'lum o'zgarishlarga uchragan holda saqlanganining guvohi bo'lamiz. Qolgan ko'pgina marosim va nomarosim aytimlar, raqslar, raqs-harakatli o'yinlar tobora sahna folkloriga aylanib borayotganligi ham tashvishli muammolardandir. Mana shunday vaziyatda xalq musiqa folklorlarini asl ijrochilik an'analari, shakllari, usullari, ko'rinishlarini sa'atshunoslik, musiqashunoslik, va xalq tarixiy turkumi, madaniyati, an'analari, marosimlari,urf- odatlarining badiiy in'ikosi sifatida saqlab qolishi,yoshlarimizni ularni o'rganish, asrab avaylash va ularni davom ettiruvchi vorislari sifatida tarbiyalashda daxldor kishilar oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu esa soha vakillaridan birdamlikni ta'lab etadi.

O'zbekistonda - ustoz-shogird kabi qadimiy an'analarga asoslangan bir necha dostonchilik maktablari, mashhur ijrochilik markazlari mavjud. Ular asosan Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm vohalarining bir qator hududlarida saqlanib qolgan. Hozirgi paytda dostonchi- baxshilarning turli darajada o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlari teledasturlardagi baxshilar chiqishlari,maxsus ko'rsatuvlar, ommaviy bayram tadbirlaridagi chiqishlari bu ko'hna ijodiyotni rag'batlantirishga, ayrim unutilayotgan namunalarni qayta tiklashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga qadimdan dostonchilik an'analari mavjud hududlarining musiqiy bilim yurtlari (san'at kollejlari nazarda tyutilmoqda) ushbu soha ijrochiligini amaliy o'zlashtirgan dostonchi-baxshilar (ya'ni ixtisoslashgan professional ijrochilar)ni yetishtirish maqsadga muvofiq keladi. Bu borada Xorazmda amalga oshirilayotgan ishlar ibratlidir. Bugungi kunda Xorazm viloyatida Hojixon Boltayev, A.Otajonov nomli musiqa va san'at maktablarida xalfalar sinflari mavjud. Bu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga Xorazm xalfachilik san'atidan tashqari, dostonlardan parchalar, xalq kuylari va laparlarining cholg'u yo'llari va aytimlari o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Ijrodagi milliylik, yuqori badiiylik, o'zigaxos uslubni ifoda etish natijasida ushbu maktab o'quvchilari Respublika va hatto xalqaro bolalar folklore festivallarrida munosib ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarni O'zbekiston sarhadida qaror topgan to'rtta asosiy mahalliy musiqiy uslub, uning, uning mohiyati, o'ziga xosligi, o'xshash va farqli jihatlari, aytin an'analari, ayrim o'zigagina xos janrlari, uslublari bilan tanishtirib boorish, ularda milliy o'zlikni anglashlarida, yurtning chinakam farzandlari bo'lib, ma'naviy etuk axloqiy barkamol insonlar bo'lib yetishlarida

xususan tom ma'noda madaniyatli shaxs sifatida shakllanishlarida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda xalq musiqa ijodiyoti, jumladan uning mahalliy uslublariga oid musiqiy tasavvurni shakllanishi, ularda mazkur uslublarga xos namunalarni o'rganishga nisbatan rag'batning paydo bo'lishi har bir uslubning o'ziga xos ijrochilik yo'nalishlari betakror jozibasini his etish asarlarda ifodalangan mavzu, obraz his-tuyg'ularining o'zining his-tuyg'ulari bilan mutunosibliigi ijro etilayotgan, tinglangan, tanishgan folklor qo'shiqlari mazmunidagi ifodalangan insoniy ichki kechinmalari, hayajonlari, orzu-umidlari, intilishlarini his etish vatanparvarlik, insonparvarlik, bir-biriga nisbatan mehribon va sadoqatli bo'lish, mexnasevarlik, to'g'rilik, xalollik kabi fazilatlarni qaror topishida muhim rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. –B. 5-66.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.T.: SHarq NMAK, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008.
4. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.– T.,O'qituvchi,1990.

## ТУРКИЙ ДАВЛАТЛАР ТАШКИЛОТИ: ТУРКИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОН ЎРТАСИДАГИ ДИПЛОМАТИК АЛОҚАЛАРНИНГ БОШЛАНИШИ ҲАМДА ЯНГИ БОСҚИЧИ

Тожиев Достонжон Бекназар ўғли  
tojdosbek@mail.ru

Янги аср авлоди нашриёт матбаа маркази

**Аннотация:** Ушбу мақолада Туркий давлатлар ташкилотининг тенг ҳуқуқли аъзолари бўлган Ўзбекистон ва Туркия Республикаларининг ўзаро дипломатик алоқалари тарихи, ҳамкорлик келишувлари ва Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашидаги фаолиятларига доир маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** Туркия, Ўзбекистон, Ислом Каримов, Шавкат Мирзиёев, Ражаб Тоййип Эрдоған, Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши, глобализация, Чўлпон ота саммити, Боку саммити, Марказий Осиё.

## ORGANIZATION OF TURKISH STATES: THE BEGINNING AND A NEW STAGE OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN TURKEY AND UZBEKISTAN

Tojiev Dostonjon Beknazar oglu  
tojdosbek@mail.ru

New Age Generation Publishing House

**Abstract:** This article provides information on the history of diplomatic relations between Uzbekistan and the Republic of Turkey, which are equal members of the Organization of Turkic States, cooperation agreements and activities of the Cooperation Council of Turkic Speaking States.

**Keywords:** Turkey, Uzbekistan, Islam Karimov, Shavkat Mirziyoev, Rejep Tayyip Erdogan, Cooperation Council of Turkic Speaking States, globalization, Cholpon-Ata Summit, Baku Summit, Central Asia.

XXI асрнинг дастлабки йигирма йилидаёқ бутун дунёда глобализациялашув тезлашиб кетди. Барча соҳалар кенг қамровли ўзгаришларга учради. Бутунжаҳон иқтисодий, сиёсий, маданий интеграция ва унификация<sup>1</sup> жараёнига кириб бормокда. Ишлаб чиқаришда янги нанотехнологияларнинг жорий этилиши ва роботлар меҳнатидан фойдаланиш бошланди ҳамда инсоннинг космосга

<sup>1</sup> Унификация – ўзаро бир-бирига яқинлашув жараёнлари.

чиқишига ҳам деярли тўсиқ қолмади. Бу давр ўзининг халқаро меҳнат тақсимоти, капитал, ишчи кучи ва ишлаш чиқариш ресурсларининг эркин ҳаракатлари, қонунчилик, иқтисодий ва технологик жараёнларнинг стандартлашиши, шу қаторда, турли минтақалардаги мамлакатларнинг маданиятлари қўшилиш ҳамда яқинлашувининг олдинги даврларга нисбатан фарқли кўриниши асосий хусусиятлар сифатида эътироф этилмоқда. Жумладан, глобаллашув жараёнидан Марказий Осиё ҳам четда қолган эмас. Айтиш мумкин, даврда туркий тилли мамлакатларнинг янада яқинлашуви тезлашиб бормоқда. Бу ҳолат туркий дунё учун қувонарли ҳамда узок кутилган тарихий-сиёсий воқеяликдир.

Ўзбекистон Республикасининг Туркия Республикаси билан ўзаро иқтисодий-ижтимоий ҳамкорлиги ўтган йиллар давомида ривожланиб борди. Собиқ Иттифоқ кулаб, янги республикалар шаклланаётган ва бу давлатларнинг жаҳон ҳамжамияти билан интеграцияси энди бошланган бир даврда Туркия Республикаси Ўзбекистоннинг суверен давлат сифатидаги мустақиллигини биринчи бўлиб тан олди. Ўзбекистон учун Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатларининг ҳар томонлама - ҳам тарихий, ҳам диний, ҳам урф-одату анъаналари ва тил-маданият жиҳатидан бир қадар яқинлиги бор.

Туркия 1991 йилда ўзининг иттифоқчиларини Ўзбекистонни тан олишга жуда фаол даъват этган эди. Глобаллашаётган дунёда давлатлар ва жамиятлар яшовчанлигини таъминлашнинг асосий шарти шуки, кучлар ва имкониятларни бирлаштириш керак бўлади. Ишончли бирлашув, иттифоқлар замирида эса, яқин ёки айтиш мумкин, ўзликлар туради<sup>2</sup>. Туркия ва Ўзбекистоннинг тарихан бир-бири билан кўплаб умумий жиҳатларга эгаллиги, тил ва маданият яқинлиги ҳам бу жараёнда илк истиқболли қадамларнинг ташланишига туртки вазифасини ўтади.

Сиёсат - бу жамиятни қандай қонунлар асосида бошқаришни аниқлаш жараёнидир. Сиёсат оддий сабабга кўра институтлар билан алоқадор: мамлакатнинг иқтисодий тараққиёти учун инклюзив институтлар<sup>3</sup> яхшироқ бўлгани ҳолда, айрим шахслар ёки гуруҳлар учун экстрактив институтлар<sup>4</sup> яхшироқ бўлиши мумкин<sup>5</sup>. XX асрнинг сўнгги ўн йиллигида тарихан қардош бўлган мамлакатлар ўзаро яқин ҳамкорлик алоқаларини ўрнатдилар. Инклюзив бошқарувни устун билган ҳукуматлар ҳар томонлама яқинлашиш, ўртадаги тўсиқларни олиб ташлаш йўлидан боришга ҳаракат қилди. Ўзбекистон

<sup>2</sup> <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-59259663>

<sup>3</sup> Инклюзив институтлар – аҳолининг жамият манфаати учун жавлат бошқарувида иштирок этишига ёрдам беради. Улар майда гуруҳларнинг ресурсларни бутун жамият зарарига (сайлов институти, суд ҳокимияти мустақиллиги кабилар) ўз фойдаси учун қайта тақсимлашига йўл қўймайди.

<sup>4</sup> Экстрактив институтлар – давлат элитасига мамлакатнинг қолган аҳолисини ўз манфаати йўлида эксплуатация қилишга (масалан, ҳокимиятни меросий қолдириш, жамиятдаги табақаланишни ошириб юбориш, лоббизм каби) имкон беради. Бундай институтлар, қоида тариқасида “тепадан пастга” қилиб яратилади ва уларнинг барқарорлигини ҳукмрон “синф” қўллаб-қувватлайди.

<sup>5</sup> Ажемўгли Д., Робинсон Ж.А. Мамлакатлар таназзули сабаблари: кудрат, фаровонлик ва камбағаллик манбалари. Тошкент: Nihol, 2021. – Б. 122.

мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлаб пухта ўйланган ҳаракатларни амалга оширишга интилди, ташқи сиёсатда ҳам энг аввало ўзига ҳар томонлама яқин бўлган мамлакатлар билан параллел тарзда кучли иқтисодийга эга бўлган ривожланган давлатлар билан изчил сиёсат юритишга бош анъанасига айлантира олди.

Икки мамлакат ўртасидаги илк ҳамкорликнинг бошланиш тарихи ҳам самарали бўлди. Ўзбекистоннинг давлат суверенитетини илк тан олган мамлакат - Туркия Республикасига 1991 йил 16-19 - декабрь кунларида Биринчи президент Ислам Каримов бошчилигидаги делегация йўл олди. Ушбу расмий ташриф давомида Туркия президенти Турғут Ўзол, бош вазир Сулаймон Демирэл ва бошқа раҳбарлар, ишбилармонлар билан амалий учрашувлар, суҳбатлар бўлиб ўтган эди. Илк давлат ташрифи доирасида давлат раҳбарлари давлатлараро муносабатларнинг асослари ва мақсадлари тўғрисида шартнома, консуллик ваколатхоналарини айирбошлаш тўғрисида Протокол, иқтисодий ва савдо соҳасидаги ҳамкорлик тўғрисида битим, маданият, фан, таълим, соғлиқни сақлаш, спорт ва туризм соҳасидаги ўзаро ҳамкорлик тўғрисидаги битим, транспорт ва коммуникациялар соҳасидаги ҳамкорлик тўғрисидаги битим, ахборот айирбошлаш, телевидение ва радио эшиттириш бўйича ҳамкорлик қилиш ҳақида протоколлар ва бошқа қатор ҳужжатлар расман имзоланганди<sup>6</sup>.

Бу жараёнлар ўзаро кадрларга асосланган ҳамкорликнинг тикланиши, бошланган кенг қўламли ишларнинг бундан кейин ҳам тўхтовсиз давом эттирилишига пойдевор бўлди. Юксак даражадаги ташрифлардан кўзланган бош мақсад ҳам аслида тарихан қардош мамлакатларнинг глобаллашаётган дунёда бир-бирини қўллаши, ҳар қандай вазиятда ҳам ўзаро ёрдамни аямаслик, ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан тажриба алишиш эди.

Илк ташланган қадамлар бесамар кетмади. Кейинги йилларда икки ўртадаги муносабатлар илиқлашиб, ривожланиб, янги босқичга чиқиб борди. 1992 йилнинг апрелида Тошкентда Туркия элчихонаси, 1993 йилнинг январидан Анқарада Ўзбекистон элчихонаси расмий фаолиятини бошлади. Истанбулда эса Ўзбекистон Республикасининг Бош консулхонаси очилиб, фаолият юрита бошлади<sup>7</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи президенти И.Каримов бмр неча марта расмий ташрифлар билан Туркияга сафарлар уюштирди. 1998 йил октябрида Туркия Республикасининг 75 йиллигига бағишланган расмий тантаналарда ҳам иштирок этди. Яна бир қувонарли ҳолат, Туркиянинг ўтган

<sup>6</sup> Ўзбекистоннинг энг янги тарихи (фан доктори илмий даражасига талабгорлар учун ўқув қўлланма). Муаллифлар: Қ.Э.Эргашев, А.Т.Замонов, А.Т.Замонов, Н.Т.Талипова, У.В.Фафуров, Қ.Э.Эргашев, Р.Шамсутдинов, Э.З.Нуриддинов, Т.Х.Норқобилов, А.Х.Холов, А.Т. Сабилов. Тошкент – 2013. – С. 288.

<sup>7</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2000-2005.

[https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_%E2%80%94\\_Turkiya\\_munosabatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Turkiya_munosabatlari)

даврдаги барча президент ва ҳукумат раҳбарлари - Турғут Ўзол, Сулаймон Демирэл, Тансу Чиллер, Месут Ёилмазар, Аҳмет Сезер, Ражаб Тоййип Эрдоған - бир неча бора Ўзбекистонда расмий давлат ташрифлари доирасида меҳмон бўлишган. Ўзаро тил, дин ва маданият яқинлиги икки ўртадаги ҳамкорликнинг ўсиб боришида доимий замин ҳозирлаган. Туркия ва Ўзбекистон ўртасида имзоланган “Абадий дўстлик ва ҳамкорлик тўғрисида”ги шартнома ҳам бугунги кунда юксак аҳамиятини сақлаб келмоқда. Ўзбекистон ва Туркияни боғлаб турувчи бу нафақат айна ўзликлар ҳисобланади, балки тарихий бирлик ҳамдир.

Унутмаслик керак-ки, Туркиянинг иқтисодий-сиёсий алоқалари фақат Ўзбекистон билан чегараланмаган. Дипломатик алоқаларнинг ривожидан Марказий Осиёнинг бошқа мамлакатлари ва тил яқинлиги бўлган Озарбойжон билан ўзаро ҳамкорликнинг юқори босқичи бўлган Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг ҳам тузилишига эришилган. Бу давлатларнинг тил, дин, маданият ва тарихан яқинлиги уларнинг бир ташкилот байроғи остида бирлашишига ҳамда ҳар томонлама шериклик ёрдамини беришга шай эканлигини кўрсатди. Тарихан олиб қараганда, 1992 йилдан бошлаб, туркий тилли давлат раҳбарларининг саммитлари ўтказила бошланганди. Мазкур давлатлар раҳбарлари ташаббуси билан 1993 йилда Туркий тилли халқлар маданияти ташкилоти (ТуркСой) таъсис этилди<sup>8</sup>. Туркий тилли давлатлар ҳамкорлигида ТуркПА (Туркий тилли давлатлар парламентар ассамблеяси) Туркий маданият ва мерос жамғармаси, илмий тадқиқотлар учун мўлжалланган Туркий академия сингари катор таркибий тузилмалар фаолият кўрсатиб келган эди<sup>9</sup>.

Ушбу ташкилот Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши сифатида илк бора бу ташкилот 2009 йил 3 октябрда Озарбойжоннинг Нахичеван шаҳрида тузилган эди<sup>10</sup>. Дастлаб бу кенгашнинг асосчилари ва тўлақонли аъзолари Туркия, Озарбойжон, Қозоғистон ва Қирғизистон мамлакатлари эди. Дастлабки даврда бу ҳамкорликда фаол бўлган Ўзбекистон янги аср бошидан ушбу расмий ташкилотда деярли иштирок этмаган.

Бу халқаро ташкилотнинг асосий мақсади аъзо мамлакатлар ўртасида азалий қардошлиқни мустаҳкамлаш баробарида жаҳон ва минтақавий муаммолар бўйича сиёсий маслаҳатлашувларни кучайтириш, иқтисодий ва техникавий ҳамкорликни, илм-фан, санъат ва маданият соҳасида ҳамда Туркий тилли дунёнинг моддий ва маънавий маданиятини асраш ва янада ривожлантириш борасида ҳамкорликни юқори савияга кўтаришдан иборат бўлди.

<sup>8</sup> <https://www.turkkon.org/tr/organizasyon-tarihcesi>

<sup>9</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy\\_davlatlar\\_tashkiloti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy_davlatlar_tashkiloti)

<sup>10</sup> SPECIAL PUBLICATION – Turkic Council: 10th Anniversary of the Nakhchivan Agreement. Baku – 2019. – P. 49.

Ўзбекистон биринчи маъмурият даврида ташқи дунёдан деярли ихоталанган ҳолда иқтисодий ривожланишни ўз кучи асосида амалга оширишга ҳаракат қилди. Лекин тадқиқотчилар фикрига кўра бу йўл ўзини оқламади. Биринчи президент И.Каримов янги аср бошида геосиёсий майдонда “эпиқлик”ка интилиши сабабидан қардош давлатлар билан ҳам алоқаларда масофа сақлашга интилди. Бир томондан ушбу “эҳтиёткорлик” тўғри ҳам эди. Марказий Осиёнинг тобора шимолда Россия, Шарқда эса Хитой таъсирига тушиб қолиш эҳтимоли ошиб бораётган бу глобализация даврида ҳар томонлама чеклов қўйиш маълум вақт давомида тўғридир. Бироқ бу жараён қанчалик узок чўзилса якуни мамлакатнинг ҳар тарафлама ривожланишида тўсиқ бўлиши аниқ. Ўзбекистоннинг Иккинчи маъмурияти эса, барча тарафлар билан имкон қадар ишончли, геосиёсий зўриқишлардан холи ёки бундай зўриқишларга урғу бермаган ҳолда геоиқтисодий муносабатларни жадал ривожлантириш йўлини танлади<sup>11</sup>. Ўтган 6 йиллик даврда Президент Шавкат Мирзиёев Шимол ва Шарқ билан ҳар тарафлама ҳамкорлик алоқаларини мустаҳкамлаш баробарида Марказий Осиёдаги ўз қўшнилари билан ҳам ўтган даврларда юзага келган барча “совуқлик”ларни бартараф этишга эришди. Ғарб билан эса муносабатлар ўзининг юқори чўққисига чиқиб бормоқда. Ташқи сиёсатда пухта-пишиқ режаларнинг бош мақсадга айлантирилиши Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига муаммосиз, эркин интеграциялашувига сабаб бўлмоқда.

Бугун Ўзбекистоннинг геосиёсий, хавфсизлик борасидаги муносабатларини тақсимлаш, жумладан, Туркия мисолида ишончли ҳамкор ва норасмий ёки расмий иттифоқчи шакллантириш вазифаси турибди. Бунда ташқи кучларнинг таъсиридан эҳтиёт бўлиш, ўзининг геосиёсий позициясини бой бермаслик ва тўғри танланган йўлдан қайтмаслик каби вазифалар ўз ижросини кутади<sup>12</sup>. Жаҳон майдонида ҳар бир мамлакатнинг мақоми унинг геосиёсий ўрни билан бевосита боғлиқ.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг кенг кўламли, фаол ва самарали олиб борган ташқи сиёсати қардош мамлакатлар билан муносабатларни мустаҳкамлай олди. Туркия Жумҳурияти Президенти Ражаб Тоййип Эрдоған 2018 йилда Тошкентга расмий ташрифи давомида Туркий Кенгашга Ўзбекистоннинг ҳам аъзо бўлишини ва Қирғизистондаги саммитга таклиф этгани аҳамиятли воқеялик бўлганди. Яна бир муҳим жиҳати, 2018 йилнинг 3 сентябрида Қирғизистон Республикасининг Чўлпон ота шаҳрида бўлиб ўтган Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг олтинчи саммитида Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёев ҳам мамлакатимиз номидан илк мартаба иштирок этгани бўлди. Ушбу саммитда Ўзбекистон Республикаси Президенти

<sup>11</sup> <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-59259663>

<sup>12</sup> Назарова Г., Халилов Х. ва бошқ. Халқаро иқтисодий интеграция. Тошкент: Тафаккур, 2010. – С. 69.

Шавкат Мирзиёев ва Венгрия Республикаси Бош вазири Виктор Орбан анжуманда фахрий меҳмон сифатида қатнашган бўлсаларда, Ўзбекистоннинг расмий аъзо мақомини олиш жараёнига тамал тоши қўйилди. Давлатимиз раҳбари саммитда сўзлаган нутқида халқларимизни ўзаро ўхшаш тил, муштарак маънавий-маданий қадриятлар ва мустақил ҳамкорлик ришталари бир-бирига боғлаб келаётгани, бугунги кунда Кенгашнинг сиёсий кун тартибида ҳеч бир муаммо ёки келишмовчилик мавжуд эмаслигини қайд этди. Бу жараён Ўзбекистонни Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашига янада яқинлаштириши баробарида тили ва дини бир қардош мамлакатлар билан ҳамкорлик алоқаларини ҳам мустаҳкамлаш учун пойдевор вазифасини ўтаб берди<sup>13</sup>.

Туркий тилли давлатларнинг ўзаро яқин ҳамкорлиги уларнинг сиёсий ва иқтисодий ҳаётлари ривожига ҳам кўриниш бермоқда. Биргина 2017 йилда Ўзбекистоннинг Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашига аъзо давлатлар билан ўзаро савдо ҳажми 40 фоиздан зиёдга ўсган. Бу ҳали Ўзбекистон ушбу ташкилотга аъзо бўлмаган даврдаги статистика, холос. 2018 йил сўнггида эса Ўзбекистон ушбу ташкилотнинг расмий аъзосига айланишига бир қадам қолган даврда ўзаро савдо-иқтисодий ҳажм аввалги йилгидан икки баробарга ошгани эътироф этилганди<sup>14</sup>. Бундан ташқари Туркияда 2018 йил маълумотларига кўра, ўттиз мингдан зиёд қонуний мақомдаги ўзбекистонликлар иш ва ўқиш билан бандлар.

Озарбойжон ва Туркия билан ҳам мамлакатлар ўртасидаги иқтисодий-ижтимоий ҳамкорлик алоқалари 2018 йилга қадар юқори даражада бўлмаса-да давом этиб келаётган эди. Президент Ш.Мирзиёев ҳокимиятга келган дастлабки давриданок ташқи сиёсат масалаларини мутлақ қайтадан кўриб чиқди. Кейинги йилларда мазкур давлатлар билан алоқалар тобора мустаҳкамланиб борди. Олий ва юқори даражадаги икки томонлама ташрифлар амалга оширилди. 2019 йилнинг 15-16 октябрида Озарбойжонда Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг еттинчи саммити бўлиб ўтди. Боку саммити Ўзбекистонни Туркий Кенгашнинг тенг ва тўла ҳуқуқли аъзоси сифатида ташкилотга қўшилишини таъминлади. “Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик Кенгашини тузиш тўғрисидаги Нахичеван Битимини ратификация қилиш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни 2019 йил 14 сентябрь куни Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан томонидан Олий Мажлис Сенатининг йигирма иккинчи ялпи мажлисида маъқулланган ва имзоланганди. Бу жараён 2019 йилга қадар давом этган ўзаро ҳамкорлик алоқаларининг янги даврини бошлаб берди. Бошланганда ҳам шиддатли тарзда ўсиш, ҳар томонлама алоқаларнинг мустаҳкамланиши,

<sup>13</sup><https://uza.uz/uz/posts/turkiy-kengash-arorgo-ida-zbekiston-bayro-i-ilpiraydi-14-10-2019>

<sup>14</sup> <https://president.uz/uz/2939>



Туркий дунёнинг азалий бирлигини қайта тикланиши (2021 йилги Истанбул саммитида Ўзбекистон Президенти Туркманистонга Туркий Давлатлар Ташкилотининг кузатувчиси мақоми берилганлигини қўллаб-қувватлади) сифатида жаҳон ҳамжамияти кўз ўнгида ташкилотнинг нуфузини оширди.

Ўзбекистоннинг ўтган беш йилдаги даври ўзини олдинги йилларга нисбатан қайта тиклаш, ёпилган эшикларни очиш, ҳамма томонлама ўзига дўст-ҳамкорлар излаш, ривожланган давлатлар тажрибасидан самарали фойдаланиш учун салоҳиятли кадрлар етиштиришга бор эътиборини қаратиш даври бўлди, десак муболаға бўлмайди.

Бугунги Туркия ишлаб чиқариши билан бир қаторда ҳарбий салоҳияти ҳам анчайин ўсган мамлакат (бу Озарбойжон-Арманистон урушида яққол намоён бўлди). Ана шундай қудратли давлат билан ҳамкорлик қилиш мамлакатимизнинг миллий манфаатларига тўлиқ мос тушади. Ўз навбатида, Ўзбекистон ҳам Туркия ташқи сиёсатида муҳим ўрин тутди. Мамлакатимиз бугунги кунда Туркиянинг Марказий Осиёдаги энг асосий шерикларидан бири ҳисобланади. Ўзбекистоннинг улкан бозори, тобора либераллашиб бораётган иқтисодиёти, қулай инвестициявий муҳити, тарихий шаҳарлари, муқаддас диний қадамжолари Туркияда катта қизиқиш уйғотмоқда. Демак, ҳамкорликни мустаҳкамлашдан ҳар икки томон ҳам манфаатдор бўлиб, бу эса ўзаро муносабатларнинг истиқболи порлоқ эканлигидан далолат беради<sup>15</sup>. Юксалиш сари ташланган эзгу қадамлар келажак учун самарасини беришни бошлайди. Мустақил ташқи сиёсатда ҳар томонлама ҳамкор, керак бўлса стратегик шерик бўла оладиган дўст-мамлакат бугун барча давлатларга табиий эҳтиёжлар каби зарур. Ҳозирда Ўзбекистоннинг олиб бораётган ташқи сиёсатдаги фаоллиги, халқаро муносабатларда муносиб позицияга эгаллиги ҳам халқаро майдонда мамлакатимизнинг нуфузини ошишидаи самарали ҳаракатларнинг натижасидир.

Жаҳон мамлакатларида сиёсий-иқтисодий, маданий-ижтимоий жабҳаларда интеграция ва глобаллашув жараёнлари кучайиб бораётган бир даврда дунё мамлакатларининг асосий ривожланиш тенденция ҳамда йўналишларини аниқлаб олиш муҳим аҳамият касб этади. Жаҳон сиёсати ва иқтисодиётида интеграцион жараёнларнинг ривожланиш аломатлари ўзгариб бораётган бир даврда Ўзбекистон Республикаси ҳам жаҳон ҳамжамиятига чуқур интеграциялашиб, ушбу мамлакатлар билан ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий соҳалардаги муносабатларини тобора кенгайтириб бориш ҳаракатини жадаллаштирган.

Жаҳоннинг йирик интеграцион марказлари, шу қаторда, амалда мамлакатимизнинг азалий ҳамкорлари бўлган давлатлар ривожланишининг

<sup>15</sup> Жўраев Қ. Ўзбекистон – Туркия: ҳамкорликнинг янги саҳифаси. <http://www.adolatgt.uz/policy/munosabat1/4890> № 44, 2017.

ижобий ва салбий томонларини ўрганишдаги ёндашувлар республикамиз иқтисодиётида, сиёсий-ижтимоий алоқаларида муҳим аҳамиятга эга бўлиб бормоқда. Бугунги кунда Туркий давлатлар ташкилоти билан Ўзбекистон Республикасининг ўзаро ҳамкорлик алоқалари ҳам юқори босқичли ривожланишга ўтди. Ушбу ташкилотнинг барча аъзо давлатлари ўзаро қардош халқлар сифатида азалий дўстлик алоқаларини янада юқори поғонага кўтариш стратегиялари минтақа ва жаҳонда тинчлик, барқарорлик ҳамда ҳамкорликни таъминлаш йўлида муҳим аҳамият касб этишини дунё афкор оммасига намоён этиб келмоқдалар.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ажемўғли Д., Робинсон Ж.А. Мамлакатлар таназзули сабаблари: қудрат, фаровонлик ва камбағаллик манбалари. Тошкент: Nihol, 2021. – Б. 122.
2. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи (фан доктори илмий даражасига талабгорлар учун ўқув кўлланма). Муаллифлар: Қ.Э.Эргашев, А.Т.Замонов, А.Т.Замонов, Н.Т.Талипова, У.В.Ғафуров, Қ.Э.Эргашев, Р.Шамсутдинов, Э.З.Нуриддинов, Т.Х.Норқобилов, А.Х.Холов, А.Т. Сабиров. Тошкент – 2013. – С. 288.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2000-2005.
4. SPECIAL PUBLICATION – Turkic Council: 10th Anniversary of the Nakhchivan Agreement. Baku – 2019. – P. 49.
5. Назарова Г., Халилов Х. ва бошқ. Халқаро иқтисодий интеграция. Тошкент: Тафаккур, 2010. – С. 69.
6. Жўраев Қ. Ўзбекистон – Туркия: ҳамкорликнинг янги саҳифаси

## **KATTA ASHULA IJROCHILIK JARAYONINING JISMONIY VA RUHIY ASOSLARI**

Safarov Zarifjon  
O‘zDSMI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Katta ashula” ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiyasoslari, musiqani badiiy anglash va tushunib yetish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Katta ashula”, maqom, mumtoz, ashula, ijro, diqqat, sezgi, tafakkur.

### **PHYSICAL AND SPIRITUAL BASIS OF THE GREAT ASHULA EXECUTIVE PROCESS**

Safarov Zarifjon  
UzSIAC

**Abstract:** This article discusses the physical and mental basis of the process of performing the "Great Song", the artistic understanding and comprehension of music.

**Keywords:** "Great song", status, classical, song, performance, attention, intuition, thinking.

Ma’lum bir musiqiy asar uch xil ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Birinchisi nota va g‘azal matni, ya’ni yozuv asosida bo‘lsa, ikkinchisi, ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda va uchinchisi, tinglovchining hayotiy tajribasi (sama’-samo) va badiiy obrazlarning u tomonidan qabul qilinishi natijasida asarni haqiqiy ijro jarayoniamalga oshiriladi.

Musiqiy asar, maqom mumtoz ashulani ijro qilish faqat o‘sha yaratuvchi, bastakor yoki kompozitor notaga tushirgan fikru-hayollarining talqini bo‘libgina qolmasdan, ijrochi uchun o‘ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayondir.

Ijro badiiy jihatdan yuksak bo‘lishi uchun unda xonandaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va emotsiyasi (his-tuyg‘u va hayajon) va eng asosiysi ovoz ruhiyati faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy ovoz sifati, tembrining go‘zal va boyligi, pardalarning (intonatsiya) tozaligi, musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo‘shqinligi, dunyoqarashi va erkin fikrlashi, xarakteri va mintaliteti aks etmog‘i lozim.<sup>1</sup> Ushbu shaxsiy sifatlarning barchasi insonruhiyatining o‘ziga xos xususiyati, badiiy-ijrochilik ijodining tarkibiy qismi bo‘lib, hali yaxshi

<sup>1</sup> M.Rizayeva, “Yosh xonandalarning kamoloti” Toshkent 2003 yil. B-24

tadqiq qilinmagan musiqiy(psixologiya) ruhshunoslik sohasiga aloqadordir.

Inson faoliyatining barcha turlarida bo'lgani kabi, *Diqqat* musiqa san'atida ijrochining hissiy, intellektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiqiy faoliyatning barcha turlari *diqqat* bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa jamoa shaklida ijro qilishda u juda muhimdir. YA'ni ansambl bo'lib kuylashdan avval musiqa rahbari (doira, chang cho'pi)ning ko'tarilgan qo'llari, avtakt, yakkaxon va jo'rnavoz - jo'rovoz o'rtasidagi ishora va harakatlarning hammasi musiqada *diqqat* deb ataladi. Ayniqsa an'anaviy xonandalar jismoniy va ruhiy jihatlarining barcha tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ijro jarayonida ashulachining murakkab markaziy asab tizimi, butun sezgi a'zolari, ko'rish, eshitish, xotira, harakat mayllari, musiqiy-estetik tasavvurlari va aqliy faoliyatining bir-biriga bog'langan, mujassam holda chiroyli kuylashda qatnashishini guvohi bo'lamiz. Bulardan *sezgi* - inson organizmi tomonidan eshitish, ko'rish, hid bilish, tana sezgisi, ta'm bilish va h.k. a'zolari orqali moddiy dunyoni anglaydi.

Bu murakkab jarayonda xonandaning aql-idroki va ruhiy faoliyati kuylashga qaratilgan bo'lib, u o'z ovozi va yonidagi hamnafaslari ijrosi yoki jo'rnavoz chalayotgan musiqiy tovushlarni eshitishi, nota matni yoki boshliq harakatini ko'rishi, parda, tessitura, sakrash va avjlarni ovoz apparatida his qilishi, sezishi natijasida bosh miyaga axborot yetadi.

Narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda aks etishiga *idrok* deyiladi. Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda esa predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. O'z ijrosini eshitgan xonanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi. Ammo umumlashtirish va xulosa yasash uchun inson fikrlashi, mushohada va mulohaza qilishi zarur. Bu tafakkurning vazifasi bo'lib, *Tafakkur* - obyektiv borliqning fikrda, mushohada va aqlida uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. U oliy miyaning eng yuqori mahsuli bo'lib, idrokdan farqli o'laroq, narsalarning chuqur mohiyati va mazmunini aks ettiradi. An'anaviy xonandalikda buni uch bosqichda ko'rish mumkin. Xonanda dastlab ko'rish, eshitish, ovoz apparati va ichki tuyg'u bilan his qilish va boshqa sezgilari orqali asarni bir butun holda (she'ri, g'azali, uslubi, xarakteri, asosiy matni, tonligi, va h.k.) anglaydi va har xil mayda jihatlarini aniqlashga intilmaydi. Ikkinchi bosqichda o'z ijrochilik fikrini amalga oshirish uchun turli ijro uslublarini qo'llagan holda ovozning sadolanishi, so'zlar talaffuzi, og'iz artikulyatsiyasi, bo'g'inlar bo'linishi, metroritm, sur'at, agogika, dinamika va ashula jumllariga aniqlik kiritadi. Qisqasi har bir asar bo'lagi ustida qunt bilan alohida ishlaydi. Uchinchi bosqich ijodiy jarayonning murakkab pag'onasi bo'lib, bunda ijrochi ko'rish, eshitib kuylash, sezgi harakat omillariga va ikkinchi bosqichda o'z tajribasidan o'tkazgan amaliyotiga tayangan holda asarni to'liq va pishiq tahlil

qilingan va umumlashgan shaklini bir butun holda tasavvur etadi. *Tasavvur* bilimning ibtidosi bo'lib, bosh miyada (analiz va sintez asosida) hosil bo'ladi va tafakkurdan farqli o'laroq ijrochi hayolida oldindan aks etadigan tushunchalar tizimi bo'lib, badiiy ijodiyotning barcha turlariga xosdir.<sup>2</sup> Tasavvurda inikos aks etib bosh miyaga axborot yetgandan keyin bosh miya orqali buyruq beriladi va vujud reflektorlarning turtkisi ya'ni to'xtash va yo'nalish harakatlari boshlanadi. Reflektorlarga javob tariqasida ijro harakatlari va boshqa signal tizimlari ishga tushadi.

Bunda xonanda tayyor bo'lgan ashulani qanday talqinda kuylashi va uning obrazlarini hayolida tasavvur qiladi va ongida qanday shakllangan bo'lsa shundayligicha tinglovchiga taqdim etadi.

Musiqani badiiy anglash va tushunib yetishda musiqiy tasavvur jarayoni asos sifatida xizmat qiladi. Tajribali tinglovchining tasavvurida faqat jaranglab turgan tovushlar yig'indisi yoki ashulachi ovozigina eshilib qolmasdan undan keyin keladigan ohanglar, g'azal so'zlari, kuy harakati, lad o'zgarishi, ma'lum ma'no beruvchi mavzu ham aks etadi.

Inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri *His, tuyg'u va hayajon (emotsiya)dir*. Kishi o'zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofni o'rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo'ladi. Buning natijasida shodu-xurramlik, qayg'u va g'am, to'lqinlanish va hayajon, mag'rurlik va iftixor, jahl va g'azab, hayratlanish, xafa bo'lish kabi boshqa ko'plab mayil va tuyg'ular (obyektiv dunyoga subyektiv munosabat kechinmalari) insonning emotsional his-hayajon holatini ifodalaydi.

Emotsiya (tuyg'u kechinmalarining shakli) ijobiy va salbiy turlarga bo'linadi. Ijobiylari: shodu-xurramlik, to'lqinlanish va hayajon, mag'rurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg'u va g'am, jahl va g'azab, xafa bo'lish kabi omillardan tashkil topadi.

Ijrochi-xonandaning ovozi va ijrochilik faoliyati his-hayajon va emotsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ijodkor tomonidan yaratilgan maqom, mumtoz ashula va boshqa asardagi fikr va maqsadni undagi badiiy emotsional qiyofalar tizimini tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Bunda xonanda asar kayfiyatiga mos, ovozigina, o'ziga xos ravishda qizg'inlik, ifoda va joziba baxsh etgan holda kuylaydi. Ashula hech qanday emotsiya va his-hayajonsiz aytilgan bo'lsa tinglovchi yuragiga yetib bora olmaydi, uni befarq qoldiradi va ijrodan, ashulachidan norozi bo'ladi. Shuning uchun xonanda har bir asarning badiiy emotsional obrazlar mazmuniga chuqur kirib bora olishi, undagi qayg'urish, zorlanish, quvonish, tantana, hazil va boshqa kayfiyat turlarini ishonchli yoritib bera olishi kerak.

Musiqiy ruhshunoslikda badiiy obraz uch omil asosida ochib, ifodalanib beriladi. Bularning birinchisi moddiy, ya'ni asosiy matn yoki nota matni, ashulachi

<sup>2</sup> E.Begmatov, M.Tursunpo'latov, "O'zbek nutqi asoslari" "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent 1992 yil. B-39

ovozi-tovushi, kuy, garmoniya, usul, dinamika, tembr, registr va h.k. Ikkinchisi ruhiy, ya'ni kayfiyat, tasavvur, ifoda, iroda, hissiyot. Uchinchisi mantiqiy, ya'ni shakl, janr, mazmun kabi omillardir.

Xonandaning ijrochilik amaliyotida intellektual va estetik, ya'ni eng nozik va go'zal oliy nafosat emotsiya shakllanadi. Ushbu his tuyg'ular xonanda ijrochilik faoliyatida o'z oldiga aniq maqsad qo'yib ongli ravishda turli vosita va yo'llardan foydalangan holda maqomlar va mumtoz asarlardagi badiiy obrazni ochib berish uchun xizmat qiladi.

Ashula ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini chuqur o'rganish bo'lg'usi xonanda, o'qituvchi va tarbiyachi uchun juda muhim shartlardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kaykovus "Qobusnoma" Fors tilidan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasini, nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov, Toshkent 2006 yil.

2. Rizayeva M., "Yosh xonandalarning kamoloti" Toshkent 2003 yil.

3. Matyoqubov O., "Maqomot" Toshkent 2004 yil.

4. Matyoqubov B., "Doston navolari" Toshkent 2009 yil.

5. Begmatov E., M.Tursunpo'latov, "O'zbek nutqi asoslari" "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent 1992 yil.

6. Rasulov O., "An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi" A.Navoiy nomidagi, O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent 2006 yil.

7. Nazarov A., "Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika hususida"

8. SF qizi Yangiboyeva, ZK Fazliyeva. O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATIDA MAQOM JANRINING O'RNI//Oriental Art and Culture, 2021.

9. ИМ Иманкулова, ЗК Фазлиева. АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ДАВЛАТАКАДЕМИК КАТТА ТЕАТРИ САҲНАСИДА "ЛАЗГИ ҚАЛБ ВА СЕВГИ РАҚСИ" БАЛЕТИ СЦЕНОГРАФИЯСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИН// Oriental Art and Culture, 2021.

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ СТИЛЕВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ СОВРЕМЕННОЙ ФОРТЕПИАННОЙ КУЛЬТУРЫ

Улбиби Абдуллаева

Заслуженный деятель искусств и культуры Каракалпакстан

**Аннотация:** Прогрессивное развитие мирового музыкального исполнительства обусловлено достижениями в области современной фортепианной музыки, оказывающей большое влияние на духовное совершенствование человека. В условиях глобализации фортепианное исполнительское искусство стремительно развивается и, расширяя горизонты, обретает новые стилевые качества на основе переосмысления и обновления исторически сложившихся традиций.

**Ключевые слова:** Музыка, фортепиано, композитор, классика, жанр, духовное развитие

## METHODOLOGICAL BASES FOR STUDYING THE STYLING FEATURES OF MODERN PIANO CULTURE

Ulbibi Abdullaeva

Honored Art Worker and culture of Karakalpakstan

**Abstract:** The progressive development of world musical performance is due to achievements in the field of modern piano music, which has a great influence on the spiritual improvement of man. In the context of globalization, the piano performing art is rapidly developing and, expanding its horizons, acquires new stylistic qualities based on the rethinking and updating of historical traditions.

**Keywords:** Music, piano, composer, classical, genre, spiritual development

В мировой исполнительской науке с успехом развиваются и внедряются научно обоснованные теории, практики и традиции разных национальных фортепианных школ, являющихся генераторами творческих методов и идей. Пианисты следуют исполнительским и методикопедагогическим принципам в соответствии с современными стилевыми тенденциями и социокультурной средой. На основе результатов научных исследований в данной области они демонстрируют модифицированные формы, представляющие собой качественно новые звуковые явления, свидетельствующие о стилевой множественности, исполнительской культуре в самом широком её понимании, эстетических приоритетах современного фортепианного искусства.

Президент Республики Узбекистан обозначил приоритетные направления и вытекающие из них задачи, направленные на «расширение круга международного культурного и музыкального сотрудничества, подготовку молодых композиторов, музыкантов и музыковедов на уровне современных требований, налаживание обмена опытом с известными зарубежными композиторами и музыковедами».[1] Таким образом выявляется необходимость изучения современной фортепианной исполнительской культуры республики в соотнесении с явлениями стилевого многообразия, а также определяется важность изучения отечественной фортепианной школы, способствующей интенсивному продвижению достижений композиторского и исполнительского творчества нашей страны в общемировое пространство, укреплению международного авторитета и компетентности.

До настоящего времени очень мало теоретических исследований, посвященных изучению фортепианного исполнительского стиля и культуры как научных категорий, суждения отдельных ученых в этой области противоречивы, так как не обнаруживается единства в их взглядах. Однако, это обстоятельство не снижает научной ценности ряда трудов, связанных с изучением стилевого многообразия в композиторском и исполнительском творчестве.

Одним из основополагающих трудов в разработке вопросов исполнительского стиля является работа К.Мартинсена «Индивидуальная фортепианная техника на основе звукотворческой воли» [2.С.90-91], в которой ученый обозначил существование разных типов исполнительства. По его мнению, на феномен исполнительского стиля оказывают влияние репрезентативные средства исполнительской выразительности. Они сохраняют свою актуальность в современном фортепианном исполнительском искусстве.

В работах С.Скребкова, Д.Рабиновича, М.Михайлова, Е.Назайкинского, В.Чинаева, А.Алексеева и других ученых речь идет о разнообразии направлений, наблюдаемых во второй половине XX столетия. Необходимо отметить, что фортепианный исполнительский стиль в их трудах рассматривается с точки зрения множественности и многовариантности интерпретаций. [3. С.43]

Фортепианному искусству Узбекистана посвящены труды Д.Хашимовой, Д.Мурадовой и Ф.Мухамедовой. Среди первых исследователей в Узбекистане, кто определил понятие фортепианного исполнительского стиля, А.Шарипова. Пианистка в труде «Координаты исполнительского стиля в фортепианной музыке Узбекистана (80-90-е годы)» [3.С.218] представила собственную трактовку данного понятия, обозначив его в качестве самостоятельного явления. Важным научным положением можно назвать рассмотрение



исполнительского стиля как явления вторичного порядка в отношении к композиторскому творчеству.

К новейшим исследованиям в области современного фортепианного исполнительского стиля относится диссертационное исследование Н. Драч «Основные стилевые тенденции в отечественном фортепианном искусстве второй половины XX века» [4.С.68]. Учёный выдвигает глубокое теоретическое толкование фортепианного исполнительского стиля, основываясь на материале российского фортепианного искусства второй половины XX века.

Современные исследования в музыковедении, связанные со стилевыми тенденциями исполнительской интерпретации, представлены в работе Н. Драч. Несмотря на предлагаемое ею определение понятия исполнительского стиля, имеющего важное методологическое значение, установлено, что в нем не выявлена в достаточной степени фортепианная специфика, что позволяет проецировать данное определение на другие виды музыкального исполнительства.

Проанализированные научно-методологические источники позволили выявить специфику фортепианного исполнительства и на уровне гипотезы выдвинуть рабочее определение фортепианного исполнительского стиля как комплекса *пианистических* выразительных средств, направленных на раскрытие смыслообразующей сущности музыкального произведения. На основе этого определено, что фортепианный исполнительский стиль в Узбекистане представляет собой самобытный музыкально-эстетический феномен, проявляющийся в определенном контакте пианиста с инструментом и манере звукоизвлечения.

Понятие исполнительской культуры неотделимо от понятия исполнительского стиля, но при этом является многоуровневой структурой, включающей в себя множество компонентов. Оно связано с социальными, воспитательными и духовно-нравственными качествами личности и представляет собой комплекс ее навыков, умений и представлений. Исполнительская культура является выражением духовной энергетики пианиста, магнетически воздействующей на слушателя. [5.С.37].

В результате изучения всего многообразия и интенсивности процессов, происходящих в современной фортепианной исполнительской культуре Узбекистана, выявлено, что национальная исполнительская школа представляет собой феномен, сложившийся в результате адаптации европейской музыкальной традиции в условиях сосуществования с национальным исполнительским мышлением при непрерывном их взаимодействии.

Узбекской фортепианной исполнительской культуре свойственна

специфика её национального стиля. Пианисты Узбекистана чувствуют инструмент в соответствии с многовековыми традициями, сложившимися в исполнительстве на народных инструментах и вокальном искусстве. Отсюда вытекает и своеобразие музыки композиторов Узбекистана, состоящей из импровизационных и орнаментальных приёмов. Её национальная неповторимость диктует пианисту поиски исполнительской культуры, достаточно отражающей ментальную сущность.

Исполнительский стиль представляет собой центр определенной системы, метасистемы которой формируют его динамическую целостность. Правая половина схемы стилевой структуры - это уровни эволюционного процесса, левая - национально-этнические, жанрово-эстетические и ментально-психологические процессы.

Рассмотрению типологических моделей исполнительского стиля в эволюционном аспекте посвящены труды К.Мартинсена, Д.Рабиновича,

Г.Цыпина, В.Чинаева, М.Холодной и других. Выявляя национальный исполнительский стиль в Узбекистане, диссертантом обозначены критерии его воплощения в темпо-ритме музыкального исполнения, который объясняется через параллели с представлениями о движении, пространстве, времени, плоскости национального своеобразия. [6.С.21].

Психологический аспект в типологизации исполнительских стилей позволяет обратиться к понятиям экстраверсии и интроверсии. Экстравертированный стиль выражает собой объективную действительность такой, как она есть, интровертированный же - внутренне перерабатывает ее и все объективное воссоздает субъективно.

В качестве характерной черты исполнительского стиля в Узбекистане автором диссертации выдвигается понятие рефлексивного стиля, содержащего в себе ментальные структуры, позволяющие осуществлять произвольную и произвольную регуляцию процесса исполнительской интерпретации.

Таким образом, путем интеграции типологических особенностей исполнительских стилей формируется индивидуальный стиль как своеобразная форма познавательного отношения пианиста к самому себе как к субъекту музыкальной исполнительской деятельности.

Подспорьем к выявлению и изучению проблем современного музыкального исполнительства служат кардинальные звуковысотные преобразования тембра, благодаря которым в современной фортепианной музыке творческое переосмысление получают гармония, полифония и особенно монодия.

Параллельно с этим в музыкально-слуховых представлениях и двигательном аппарате современных пианистов-практиков осваивается

сущность сенсорно-кинестических механизмов игры на инструменте.

Соответственно этому следует тенденция дифференцирования отдельных средств выразительности.

В узбекском современном композиторском творчестве происходит интенсивное стилевое обновление, обусловленное во многом расширением сферы межкультурных связей. Это все характеризуется общей тенденцией - стремлением к эмоциональному интеллектуализму, что проявляется на уровне как композиторской, так и исполнительской культур.

Фортепианные сочинения О.Абдуллаевой, Х.Хасановой-Турсуновой и Н.Эркаева характеризуются красочными музыкальными образами, рожденными ощущениями национальной музыки и восприятиями красоты окружающего мира, что созвучно музыке Сонаты для фортепиано азербайджанского композитора Р.Гасановой. Особый интерес в плане стилевых тенденций представляют фортепианные сочинения А.Садыковой.

В фортепианных произведениях современных композиторов всё активнее получают своё применение электронные и компьютерные технологии. Так, в «Абсолютной музыке для рояля №2» японский композитор Д.Ямамото использует так называемый «автоматический рояль», управляемый электроникой с использованием компьютерных графиков, что явилось эффективной новацией в современной композиторской практике.

Таким образом, стилевые аспекты современного композиторского творчества обнаруживают типологическую общность различных мировых композиторских школ с узбекской школой, что позволяет высоко оценить качественный уровень последней в ряду мировых культур.

Индивидуальный стиль, которым обладает А.Шарипова, придает ее исполнению особую значимость и способствует укреплению национального стиля, заключающегося в передаче темброво-колористической сущности музыки, национальных ритмов, национального интонирования, связанного с мелизматикой.

Таким образом, изучение различных по индивидуальности пианистов страны доказательно подтверждает концепцию диссертационного исследования о множественности исполнительских стилей пианистов Узбекистана в интерпретации современной фортепианной музыки и их типологическом единстве как в проявлении национального начала.

### **Использованная литература**

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 15 августа 2017 года №1111-3212 «Об организации деятельности Союза композиторов и бастакоров Узбекистана». - Электронный ресурс: <https://lex.uz/docs/3311835>.

2. Мартинсен К. Индивидуальная фортепианная техника на основе звукотворческой воли // Пер. с нем. В. Михелис, ред. прим. и вступ. ст. Г. Когана. - М., 1966.

3. Хашимова Д. Фортепианные произведения композиторов Узбекистана: Автореф. дис. канд. искусствоведения. - М., 1985;

4. Мурадова Д. Интерпретация фортепианной музыки. - Ташкент, 2008;

5. Мухамедова Ф. Фортепианная музыка Узбекистана, формирование, жанровое своеобразие, интерпретация: Автореф. дисс. д-ра философии по искусствоведению. - Ташкент, 2019.

6. Шарипова А. Координаты исполнительского стиля в фортепианной музыке Узбекистана (80-е - 90-е годы). - Ташкент, 1999.

7. Драч Н. Основные стилевые тенденции в отечественном фортепианном искусстве второй половины XX века: Автореф. дис. канд. искусствоведения. - Саратов, 2006.

## MAMLAKATIMIZDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI OMMALASHTIRISHDA XOTIN-QIZLAR SPORTINING O'RNI

Xusnidaxon Qodirova

FarDU

U.Boltaboyeva

O'zDSMI FMF

**Annotasiya:** Ushbu maqolada xotin-qizlar sportini rivojlantirish, ayollarning o'ziga xos bo'lgan morfo-funksional xususiyatlari, jismoniy taraqqiyoti va uning tahlili aks etgan.

**Kalit so'zlar:** xotin-qizlar sporti, mashg'ulotlar, jismoniy tayyorgarlik, trenirovka, harakat, malaka, ko'nikma.

## THE ROLE OF WOMEN'S SPORTS IN THE PROMOTION OF PHYSICAL TRAINING AND SPORTS IN OUR COUNTRY

Husnidahon Kadyrova

FerSU

U.Boltaboyeva

FRB UzSIAC

**Abstract:** This article describes the development of women's sports, the specific morpho-functional characteristics of women, physical development and its analysis.

**Keywords:** women's sports, training, physical training, training, movement, skills, abilities.

O'zbek xalqi asrlar davomida ezgulikni o'zida aks ettirgan qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizasiyasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk xalqlardan biridir. Mustaqil Respublikamizni jahonga tanitishda sportning ahamiyati katta bo'lmoqda. Hozirgi kunda milliy o'yinlar, kurash, uloq shu bilan bir qatorda xalqaro sport turlari - tennis, boks, futbolning dunyo xalqlari o'rtasida o'zbeklarning obro'sini oshirishga xizmat qilayotganligining guvohimiz. Qadriyatlarni e'zozlash, qadimiy urf-odatlarini shakllantirish, e'tiqodlarni mustahkamlash, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy merosimizni kelajak avlodga yetkazish va yoshlar ongiga milliy xalq o'yinlarining mazmun-mohiyatini chuqur singdirish bugungi dolzarb masaladir.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi

salomatligini mustahkamlaydi, yosh avlodni sogʻlom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sogʻlom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar oʻrtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishda ham muhim oʻrin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga gʻurur-iftixor bagʻishlaydi. Yosh sportchilarning dastlabki bosqichda tayyorgarlik ishlarini oʻrgatish koʻnikma hosil qilish, sport mashgʻulotlarini tashkillashtirishning eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, organizmni har tomonlama rivojlantirish, sogʻliqni mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oktyabrdagi jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish masalalariga bagʻishlangan videoselektordagi maʼruzasi takomillashtirish va tayyorgarlikning boshqa bosqichi uchun mustahkam funksional baza yaratishga yoʻnaltirilgan jarayon sifatida tushuniladi. Insonning sportga oid faoliyati qanday maqsad va mazmun yoki qaysi yoʻnalishda amalga oshirilmasin, uning pirovard unumdorligi va harakat samaradorligi, oʻz navbatida muvofiq jismoniy sifatlar, harakat malakalari, koʻnikmalari va albatta organizmning funksional imkoniyatlariga tayaniladi.

Ayollarning organizmi erkaklarnikidan bir qator morfologik va funksional, anatomik-fiziologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan ayollarda balogʻat yoshi - 34 yoshgacha, oʻrta yosh - 35-54 yosh, keksa yosh 55-74 yoshgacha hisoblandi. Bunday yoshga doir xususiyatlar birinchi navbatda eng muhim biologik vazifa - onalik funksiyalari bilan ham bogʻliq [2]. Kundalik harakat hajmi va shiddati inson salomatligi, uning jismoniy va funksional shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Lekin barcha harakat turlari, jumladan sport toʻgaraklarida ijro etiladigan jismoniy va texniktaktik mashqlar hajmi hamda shiddati shugʻullanuvchining funksional imkoniyatlariga mos kelishi yoki yuqori boʻlishi lozim. Chunki biologiya fanida azaldan oʻz isbotini topgan qonuniyatlarga koʻra, ontogenetik taraqqiyotning muayyan bosqichlarida bajariladigan kundalik jismoniy yuklamaning qisman taʼsir "kuchi" organizmning funksional imkoniyatlaridan doimo yuqori boʻlsa, shu organizmda (organlar, mushaklar, tomirlar, hujayralar, toʻqimalar, yurak, oʻpka, taloq, jigar va h.k) zoʻriqish yoki tez toliqish alomatlarini paydo boʻladi. Bunday salbiy "izlar" odamning ayniqsa yosh qizlarning odatiy funksional faoliyatini izdan chiqaradi, kayfiyatini tushiradi, uyqusini buzadi, pirovard ish qobiliyatini susaytiradi va uning toʻliq tiklanishiga toʻsqinlik qiladi. Agar shunday yuklamalar xotin-qizlar faoliyatida surunkali qaytarilib tursa, organizmning normal oʻsishiga taʼsir etibgina qolmay, balki turli funksional "obʻekt"larga lokal yoki global patologik asoratlarning yuzaga kelishiga sababchi boʻlishi ehtimoldan holi emas. Kundalik yoki yalpi

mashg'ulot yuklamalari hajmi va shiddati funksional imkoniyatdan past bo'lsa jismoniy sifatlarning shakllanishi susayadi, ish qobiliyati oshmaydi. Binobarin, kundalik yoki yalpi yuklamalar, shu jumladan, jismoniy tarbiya darslari va trenirovka mashg'ulotlariga oid yuklamalarni shug'ullanuvchilarning yoshi, jismoniy va funksional imkoniyatlariga qarab "to'lqinsimon" prinsipda oshirib borish darkor. Demak, xotin-qizlar sportiga oid mashg'ulotlarni tashkil qilishda pedagogik va tibbiy nazoratga asoslanish sog'lom barkamol avlodni tarbiyalash jarayonining ajralmas qismidir. Shunday ekan jismoniy tarbiya va sport bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar (jismoniy tarbiya darslari, trenirovka mashg'ulotlari, sport musobaqalari) mazmunini maqsadli rivojlantirish va boshqarish har bir mutaxassis (o'qituvchi, murabbiy, tashkilotchi, uslubchi, yo'riqchi) va rahbar shaxslarga katta mas'uliyat yuklashi, ularning jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va sport moslamalariga oid bilimlarni o'zlashtirishlari, muvofiq kasbiy-pedagogik malaka va ko'nikmalarni puxta egallashlari zarur ekanligi isbot talab qilmaydi. Alohida e'tibor qaratish muhimki, xotin-qizlar sportini samarali tashkil qilish, ko'p yillik sport trenirovkasi jarayonida shug'ullanuvchilar sog'ligi va ularning sport mahoratini shakllantira borish ustivor jihatdan jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlariga bog'liqdir.

Sport amaliyotida jismoniy tayyorgarlik, odatda, ikki bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik turlariga bo'linadi. Hayot davomida inson sog'ligi, uning aqliy va jismoniy faolligi, ko'p yillik sport trenirovkasi davomida sport mahoratining shakllana borishi ustivor jihatdan shu ikki tayyorgarlik turlari mazmuni va darajasi bilan bog'liq.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari oldiga qo'yiladigan asosiy maqsad sog'liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishishdir. Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, muayyan sport turi bo'yicha muntazam o'tkazib boriladigan, hajm, shiddat va mazmun jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mashg'ulotlar organizmga ijobiy ta'sir qilar ekan. Lekin umumiy jismoniy tayyorgarlikka asoslanmagan va tor doirada ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar salbiy oqibatlarga olib kelishi kuzatilgan. Darhaqiqat, jismoniy tayyorgarlik malakali sportchi xotin-qizlarni tayyorlashda eng muhim poydevor sifatida sport mahoratining samarali shakllanishida beqiyos omil bo'lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ilmiymetodik adabiyotlarning tahliliga ko'ra har qanday jismoniy tayyorgarlik jarayoni ham jismoniy sifatlarning samarali ravishda rivojlanishiga olib kelavermaydi va texnik-taktik mahoratning shakllanishiga ijobiy ta'sir etmasligi mumkin. Ko'p hollarda sport mahoratiga salbiy ta'sir etishi ham ehtimoldan holi emas. Xotin-qizlar sportini rivojlantirish kelajakda sog'lom farzandlarning tug'ilishiga olib keladi. Zero, farzandlarimizning sog'lom bo'lishi yurtimizning farovon, gullab yashnashini ta'minlaydi. Chunki, kelajagimiz bu bizning farzadlarimizdir

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Goncharova O.V. "Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish". T.: 2016y. UzDJTI, 150b.
2. Бубе Х., Штюблер Х., Трогш Ф. Тесты в спортивной практике - М.: Физкультура и спорт, 1968, 238с.
3. Abduraxmonov M., Maxmudov A. Jismoniy tarbiya va sport. Sport tibbiyoti. T.: 2016y. Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 83b.
4. "Ayollarning fan va sportdagi o'rni". Ilmiy amaliy anjuman tezislari to'plami. 2007 yil 14 aprel.
5. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 43-51.
6. Юлдашева, С. Н. (2020). СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АУДИТОРИИ. ТИПОЛОГИЯ ЧИТАТЕЛЕЙ. *Oriental Art and Culture*, (V).
7. Sohibaxon, Y. (2021). O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI. *Oriental Art and Culture*, (7), 260-268.
8. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.
9. Юлдашева, С. (2019). Китоб мутолаасини шакиллантиришда кутубхоначилик фаолияти. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 59-62.
10. Yuldasheva, S., & Madumarova, M. (2020). TASKS AND CONTENT OF BIBLIOGRAPHIC WORKS. *European Journal of Arts*, (1), 148-152.
11. Асқарова, М. (2020). ЎЗБЕК АДАБИЙ ТАЊҚИДИ ТАРАҚҚИЁТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
12. Мирзаева, Н., & Асқарова, М. (2020). ЧЎЛПОЊ ИЖОДИДА МИЛЛИЙ УЙЃОНИШ ҲАРАКАТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
13. Асқарова, М. (2021). Адабий жараённинг зукко тадқиқотчиси. *Oriental Art and Culture*, (7), 209-216.
14. Askarova, M. (2020). Homil yakubov's views on navoi studies. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 788-792.
15. Askarova, M. (2021). Homil Yakubov's views on Oybek lyrics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2412-2415.
16. Nurxon, I., & Habibjonov, I. (2021). КИТОВ ВА КИТОВХОНЛИК–INSON MANAVIYATINING KOZGUSI. *Oriental Art and Culture*, (6).



17. Ўғли Ҳабибжонов, И. Т. (2020). ЎЗБЕК СОЛИҚ ТЕРМИНЛАРИНИНГ АФФИКСАЦИЯ УСУЛИ БИЛАН ЯСАЛИШИ. *Oriental Art and Culture*, 1(5), 200-206.

18. Ҳабибжонов, И. Т. Ў. (2021). СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА ДУБЛЕТЛИК ВА УНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ. *Scientific progress*, 1(6), 842-846.

19. Ismoilova, N., & Habibjonov, I. (2021). Kitob va kitobxonlik–inson manaviyatining kozgusi. *Oriental art and culture*, 2(1), 159-166.

20. Habibjonov, I. (2020). Syntactic design of uzbek tax and customs terminology. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2910-2915.

21. Oglu, H. I. T. (2020). Formation of uzbek tax and customs terms (on the example of materials on the history of language). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1308-1313.

22. Yuldasheva, S., Habibjonov, I., & Haydarov, A. (2020). Librarianship in the formation of book reading. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2925-2927.

23. Рўзиева, Г., & Ҳабибжонов, И. (2021). САДР ЗИЁ КУТУБХОНАСИ. *Oriental Art and Culture*, (6).

24. Normatova, M., & Ikromjon, X. (2021). “QUTADG’U BILIG” IKKI JANONNI TUTISHGA OCHUVCHI YO’L. *Oriental Art and Culture*, (6).

25. Ўғли, Ҳ. И. Т. (2020). ТИЛШУНОСЛИҚДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ТАДҚИҚИ. *Oriental Art and Culture*, (V).

26. Solieva, H. O. (2021). THE ROLE OF READING IN THE FORMATION OF A PERSON'S OPERATIVE MEMORY AND MENTAL MATURITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 178-185.

27. Солиева, Ҳ. О. (2018). ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО НА МЕДИЦИНСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-6), 56-60.

28. Омоновна, С. Ҳ. (2018). «Бобош бола» синдроми ёхуд нега болалар асабийлашади?. *Современное образование (Узбекистан)*, (11).

29. Омоновна, С. Ҳ. (2018). Ўқувчилар тарбиясини шакллантиришда оналарга педагогик билим бериш тизимининг аҳамияти. *Современное образование (Узбекистан)*, (5).

30. Омоновна, С. Ҳ. (2019). Агар бола сизни «Эшитмаса»... *Современное образование (Узбекистан)*, (4 (77)), 58-63.

31. Омоновна, Ҳ. С. (2020). ТАРИХИЙ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРНИ КОНСЕРВАТЦИЯ-РЕСТАВРАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ ХУСУСИДА. Oriental Art and Culture, (V).

32. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Глобаллашув жараёнида ахборот оқимининг ёшлар маънавиятига таъсири хусусида. Oriental Art and Culture, (7), 217-224.

33. Омоновна, С. Ҳ. (2021). Маданият ва маънавият масалаларида тарихий илдизлар излари. Oriental Art and Culture, (7), 244-253.

34. Парпиев, А. (2021). ЖАДИДЧИ ОБИДЖОН МАҲМУДОВНИНГ ФАОЛИЯТИДАГИ ЯНГИ ҚИРРАЛАР. Oriental Art and Culture, (6).

## ХОРЕОГРАФИЯ СОҲАСИНИНГ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА КЛАССИК РАҚСНИНГ АҲАМИЯТИ

Тиллаев Азамат Мелиевич

Ўзбекистон давлат хореография академияси Урганч филиали

**Аннотация:** Ушбу мақолада ижрочини техникасини ривожлантиришда классик рақс машғулотнинг аҳамияти очиб берилган. Классик рақс машқининг машқлари таҳлил қилинади ва улардан хореографияда фойдаланиш хусусиятлари очиб берилди. Ижрочининг касбий тайёргарлик жараёнида мумтоз рақс воситасида шаклланган ижрочилик сифатлари кўриб чиқилади.

**Калит сўзлар:** касбий тайёргарлик, классик рақс, тренаж, машғулот, рақс, бал рақси, машқ.

## THE IMPORTANCE OF CLASSICAL DANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF CHOREOGRAPHY

Tillaev Azamat Melievich

Urgench branch of Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** This article explains the importance of classical dance training in the development of performer technique. The exercises of classical dance exercises are analyzed and the features of their use in choreography are revealed. In the process of professional training of the performer, the performance qualities formed through classical dance are considered.

**Keywords:** professional training, classical dance, training, training, dance, ballroom dancing, exercise.

Классик рақс барча саҳна рақсларининг асосидир. Классик рақс дарслари - бу мускуллар, бўғинларни чўзиш, кучайтириш ва рақс амалиётига тайёрлашга қаратилган рақс ҳаракатларини синчковлик билан ўргатиш, танангиздаги кундалик машқлар.

Узоқ тарих давомида классик рақс нафақат балет раққосалари, балки хореографик санъатнинг бошқа жанрлари ижрочилари учун ҳам ўзига хос атама ва таълим тизимини ишлаб чиқди ва тасдиқлади. Балет хореографиясининг спортчи-раққосалари ҳам бундан мустасно эмас, уларни тайёрлаш жараёнида классик рақс машғулотлари исталган спорт натижаларига эришишда муҳим рол ўйнайди.

Рақсларда хореографик тайёргарлик асосан балетда ишлаб чиқилган классик асосга асосланади. Бироқ, у бир қатор характерли хусусиятларга эга бўлиб, улар, биринчи навбатда, рақс ижрочилари ва балет артистлари олдида турган мақсад ва вазифалардаги фарқлар билан белгиланади. Рақс ижрочиларини тайёрлаш жараёнида классик машғулотлар турли шаклларда амалга оширилади: партер гимнастикасини бажариш, машқ қилиш; ўқув рақс комбинатсияларини бажариш ва бошқалар. Рақсларда классик рақс фақат машғулот жараёнининг бир қисми бўлиб, раққосаларни тайёрлашнинг бошқа турлари билан ўзаро боғлиқ бўлиши керак.

А.А.Коваленконинг фикрича, классик рақс дарсида биринчи навбатда ҳар бир топшириқнинг амалий мақсадга мувофиқлиги ҳисобга олиниши керак. Ўқув жараёнида ҳар бир машқ маълум бир семантик, техник, ўқув юкини кўтариши керак [1].

*Экзерсис* машғулотнинг асосий шаклларида бири жисмоний машқлар (франтсуз тилидан таржимаси - машқ) - бу рақс техникаси учун зарур бўлган касбий фазилатларни ривожлантирадиган дастгоҳ олдида ва залнинг ўртасида рақс дарсининг ҳаракатлар гуруҳлари тизими, оёқ мушакларининг эгилиши ва кучи, танани тўғри жойлаштириш, қўллар ва бош, барқарорлик, ҳаракатларни мувофиқлаштириш [2]. М.Н.Юрева нуқтаи назаридан, ўқитувчи ва талабанинг индивидуал ресурслари билан белгиланадиган кўп босқичли таълим бўлиб, экзерсис ўқув машқлари тизимидан иборат бўлиб, уларнинг комбинатсияси ва ўзгариши сизни такомиллаштириш ва сақлашга имкон беради. Таянч-ҳаракат тизими, ижро маҳоратини, техник имкониятларини, психологик хусусиятлари ва шахсий хусусиятларини (хотира, тасаввур, фикрлаш, ирода, комбинатсион қобилият ва бошқалар) ривожлантиради [3].

Ижрочилар томонидан классик рақсни ўрганиш қўллар, оёқлар ва тана тузилишининг асосий ҳолатларини ўрганишдан бошланади. Классик рақс дарсини қайси ҳаракатдан бошлаш кераклиги ҳақида турли нуқтаи назарлар мавжуд. К. Блазис ва А. Я. Ваганова машқни дастгоҳда бошлаш керак деб ҳисоблайди. [4], чунки раққосанинг танаси мураккаброқ ҳаракатларга тайёрлананади ("разогрев").

Хореограф машғулот жараёнида классик машғулот дарслари ҳар хил турдаги "пор де брас" билан биргаликда деми-плие ва гранд-плие билан бошланиши керак. Ишга бир вақтнинг ўзида иккала оёқ ва бутун танани киритиш муҳимдир. Деми-плие, оёқ пайларини чўзади, оёқни унга кейинги мураккаб ҳаракатга тайёрлайди, гранд-плие соннинг эгилишида ишлайдиган мушакларни чўзади ва кучайтиради. Классик рақс машқлари жараёнида мушаклар нафақат машқ қилади, балки фаол ва доимий равишда чўзилади ва мушакларнинг барча қатламлари ишлайди. Классик рақс машқлари

машғулотларида барча классик машқлар қоидаларига мувофиқ тўлиқ бажарилиши керак.

“Баттемент тенду” ва “Баттемент тенду жетте” - оёқларнинг кучини, оёқнинг эгилувчанлигини ривожлантирувчи ҳаракат. “Ронде де жамбе пар terre” машқини хотиржам суръатда бажараётганда, оёқ барча йўналишларда, тананинг турли хил ортиқча юклари билан биргаликда соннинг тўғри, эгилган ҳолати текширилади ва ўрнатилади. Ушбу ҳаракатнинг вазифаси сон бўғимининг айланиш ҳаракатчанлигини ривожлантиришга қаратилган бўлиб, унга оёқнинг бурилиш диапазони боғлиқ.

“Баттемент фонду” ярим ўтиришнинг юмшоқлигини ва сакраш ҳаракатлари учун зарур бўлган эластикликни ривожлантиради. “Ронде де жамбе ен лъаир” - тизза бўғимининг ҳаракатчанлигини ривожлантиради ва унга куч ва эластиклик беради. “Гранд баттемент жетте” - оёқнинг катта энергетик отиши ички оёқ мушакларини ривожланишига ёрдам беради, бўғимнинг ишини кучайтиради, бу қадамнинг ривожланишида асосдир. Барча машқларда тана вертикал ва таранг ҳолатда бўлади. Эгилиши ёки бурилиши комбинатсияни талаб қиладиган ҳоллар бундан мустасно. Қўлларнинг ҳолатлари ва позитсияларидаги ҳаракатларида қўлларнинг юмшоқлиги ва пластикаси ривожланади.

Классик рақс дарсларининг ўзига хос хусусиятлари раққосанинг техникасининг хусусиятлари билан белгиланади. Шундай қилиб, масалан, ижрочилар ва балет раққосалари учун қўллаб-қувватловчи оёқнинг ҳолати бошқача. Балет раққосалари учун классик машқларни бажаришнинг зарурий шarti оёқларнинг биринчи, иккинчи, тўртинчи, бешинчи позитсияларидан машқларни бажаришдир (учинчи позитсия ёрдамчи ҳисобланади). Бошқа рақсларида бундай иштирок этиш нафақат мақсадга мувофиқ эмас, балки зарарли ҳамдир, чунки Европа дастурининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, қўллаб-қувватловчи ва эркин оёқларни жойлаштириш мумкин эмас, чунки улар оёқларнинг параллел ўрнатилишини талаб қилади.

Юқорида келтирилган ҳаракатларнинг ҳар бири мушакларнинг ҳар бир қисмига ўзига хос таъсир кўрсатади, қон айланишини фаоллаштиради ва ички органларнинг ишига ёрдам беради, бўғимларнинг ҳаракатчанлигини, мушаклар ва эластиклигини оширади, оёқнинг юк кўтарувчи камарига юк туфайли текис оёқларни энгиллаштиради. Бу ижрочиларга - хореографларга Лотин Америкаси дастуридаги рақсларда (Самба, Ча-ча-ча, Румба, Пасо Добле) ўз таналарини эркин бошқариш имконини беради. Классик машғулотлар жараёнида апломб - тананинг барча қисмларини мувозанатда сақлаш қобилиятига эга бўлади. Бу ўз навбатида Европа дастурининг рақсларини (Slow Валс, Танго, Куискстеп, Вена Валси) ижро этишда ижобийдир.

Классик машқлар қуйидагиларга ёрдам беради: жисмоний, жисмоний ва ақлий хотиржамликни шакллантириш, мушакларнинг кучини, мослашувчанлигини ва эластиклигини ривожлантириш; ҳаракатларни мувофиқлаштиришни яхшилаш; ритм туйғусини ривожлантириш; вестибуляр аппаратларнинг ривожланиши, рақоснинг полда барқарорлиги ва ҳар қандай вазиятда мувозанатни сақлаш. Бироқ, оёқ, қўл, бош, тананинг ўзаро боғлиқ ҳаракатларининг турли хил мувофиқлаштирилиши, шунингдек, тананинг бутун юқори қисмининг чиройли чизиқлари ва экспрессив пластикасини ташкил қилиш билан танишиш муҳимроқ кўринади. Классик машқларнинг ҳаракатлари рақосанинг танасини тартибли, ҳаракатчан ва чиройли қилиб, уни бошқариладиган шаклга айлантириш учун мўлжалланган.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Коваленко А. А. Спортивные танцы в образовательном процессе // Пути развития инновационных физкультурно-спортивных программ для детей и учащейся молодежи в сфере досуга и их роль в патриотическом, духовном и физическом воспитании». М., 1999. С. 14-17.
2. Балет: энциклопедия / гл. ред. Ю. Н. Григорович. М., 1981.
3. Юрьева М. Н. Профессионально-творческое становление личности студента-хореографа в вузах культуры и искусств: методология, теория, практика. Тамбов, 2010.
4. Ваганова А. Я. Основы классического танца. СПб., 2015.
5. МД Тавакуловна, ФЗ Камарбековна. ҲЕ РОЛЕ ОФ ПҲЙСИСАЛ СУЛТУРЕ ИН ПРОФЕССИОНАЛ АППЛИЕД ТРАИНИНГ ИН ТҲЕ УНИВЕРСИТИЕС ОФ АРТС АНД СУЛТУРЕ//Интернационал Енжинеринг Жоурнал Фор Ресерч & Девелопмент 6 (1), 6-6 9 2021
6. ФМ Азатова, ЗК Фазлиева.АСРЛАРГА ТАТИГУЛИК РАҚС АСАРИ//Ориентал Арт анд Султуре,(6) 8 2021.
7. ЗК Фазлиева. УЗБЕК САДНА РА^ СИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙУЛЛАРИ//Ориентал Арт анд Султуре.-2020.-№. ИИИ 6
8. СШ Маннонов, ЗК Фазлиева. ИБТИДОИЙ ПАНТОМИМАЛАР: ЎЙИНЛАР ВА СЮЖЕТЛАР//Ориентал Арт анд Султуре 2 (3), 99-105 4 2021
9. СФ қизи Янгибоева, ЗК Фазлиева. ОЪЗБЕК МИЛЛИЙ РАҚС САНЪАТИДА МАҚОМ ЖАНРИНИНГ ОЪРНИ//Ориентал Арт анд Султуре 2 (1), 32-35 2021
10. ИМ Иманкулова, ЗК Фазлиева. АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ДАВЛАТ АКАДЕМИК КАТТА ТЕАТРИ САҲНАСИДА “ЛАЗГИ ҚАЛБ ВА СЕВГИ РАҚСИ” БАЛЕТИ СЦЕНОГРАФИЯСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИН//Ориентал Арт анд Султуре 2 (4), 295-302 2021

11. ФМ Азатова, ЗК Фазлиева. “МУНОЖОТ” АСРЛАРГА ТАТИГУЛИК РАҚС АСАРИ//Ориентал Арт анд Султуре 2021

12. ФЗ Камарбековна. Рақс ансамбллари ижодида ўзбек миллий рақс мактабларининг услубий ифодаланиши// Интернационал ссиентифис-прастисал онлине конференсе он Емергенсй манагемент анд публис ҳеалтх рессарч ин Асиа. 2020. Стр 284-288

## “SHARQ QALDIRG’OCHI” TAMARAXONIM

Абдираманов Ноқисбай Маратович  
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tamaraxonim hayoti, san‘atga kirib kelishi, ijodiy faoliyati, o‘zbek raqs san‘atini yanada rivojlantirishdagi xissasi, o‘zbek milliy hamda o‘zbek xalq raqslarini turli mamlakatlarda targ‘ib etganligi haqida bayon etilgan

**Kalit so‘zlar:** raqs, qo‘shiqchi, raqqosa, baletmeyster, o‘zbek professional raqsi.

## EASTERN SWALLOW - TAMARAKHONIM

Abdiramanov Nokisbay Maratovich  
Urgench branch of Uzbekistan State Academy of Choreography

**Abstract:** This article describes the life of Tamarakhonim, her introduction to art, her creative activity, her contribution to the further development of Uzbek dance, the promotion of Uzbek national and Uzbek folk dances in different countries.

**Keywords:** dance, singer, dancer, choreographer, Uzbek professional dance.

Tamara Artemovna Petrosyan 1906 yili 29 mart oyida Farg‘ona shahrining arman ishchi oilasida dunyoga keldi. Tamaraxonim taxallusi qo‘shiqchi va raqqosa, baletmeyster, o‘zbek professional raqsi asoschilaridan.

Tamaraxonim Turkiston (hozirgi O‘zbekiston) Respublikasining birinchi halq ashulachisi Muhiddin Qori Yoqubov rahbarligida 1922 yili birgina ayol bo‘lib ansamblga kirdi. Hali ancha yosh bo‘lgan Tamara Xonim vokal, raqs va musiqa san‘atining yirik ustalari Qori Yoqubov, doirachi sozanda, baletmeyster Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, To‘xtasin Jalilov, Jo‘raxon Sultonov, Xojisiddiq Islomov kabi ajoyib san‘atkorlardan kun va soat sayin ta‘lim oldi. Uning professional mahorati o‘sgan sari uning konsert repertuarlari ham boyib bordi. 1924 yildayoq yosh o‘zbek raqqosasining Sharq halqlari Kommunistik universitetining kechasida qilgan chiqishini ko‘rgan Anatoliy Vasilevich Lunacharskiy Tamara Xonimni birinchi “Sharq qaldirg‘ochi” deb atagan edi.

Ana shu “qaldirg‘och” o‘zining haqiqatdan ham chaqqonlik bilan qilgan zo‘r mehnati tufayli o‘zbek raqs san‘atini yanada gullatib yashnatdi. U halq raqsi merosining eng qimmatli, o‘ziga xos yorqin tomonlaridan foydalanib, qadimgi xususiyatlar bilan boyitdi.



1920 yillar oxirida Tamara Xonim o'zbek san'atini yaratish, rivojlantirish va uchun kurashning oldingi safida xizmat qildi. U musiqali drama spektakllarida rol o'ynadi, rang-barang rollarda raqqosa, qo'shiqchi va drama artisti bo'lib ishtirok etdi, har bir obrazda o'z qobiliyati, g'ayrati, san'atga butun vujudi bilan berilganliginin ko'rsatdi.

1930 yili Moskvada bo'lib o'tgan Sobiq ittifoq san'at Olimpiadasi yosh o'zbek san'atining yanada yuksaklarga ko'tardi. Tamara Xonim Olimpiadada ko'p qirrali istedod sohibasi sifatidagina emas, ayni vaqtda ulkan fantaziya va rang-barang xoreogarfik palitrada ega qobiliyatli baletmeyster sifatida ham maxorat ko'rsatdi. 1932 yili Tamara Xonim O'zbekiston halq san'ati Olimpiadasi uchun ustoz Usta Olim Komilov rahbarligida ommaviy va yakka raqs uchun dastur tayyorladi. Qadimiy halq maqomi asosida bu dasturga sahnalashtirilgan "Pilla raqsi" o'zbek ayollarining hayoti, ozod mehnatni aks ettiruvchi hozirgi zamon o'zbek raqslaridan biri bo'lgan edi.

1923-1924 yillari Moskva teatr texnikumida o'qigan. Ijodiy faoliyatida ko'plab raqslar yaratganligi, musiqa va raqs san'atini rivojlantirishdagi katta yutuqlari uchun 1932 yili Tamara Xonim *O'zbekiston halq artisti* unvoniga sazovor bo'ldi.

Halq raqsi va qo'shiqlariga zo'r mehr-muhabbat, izlanish ishtiyoqida yonish, topilmalaridan xursand bo'lish Tamara Xonimni o'ziga xos madaniyatiga ega qadimiy Xorazm o'lkasiga yo'llaydi. Halqning fe'l-atvori, tarixi, tili, musiqasi va raqslarini chukur anglamasdan turib Xorazm san'atining misilsiz nozik qirralarini tushunib bo'lmasdi. Sahna faoliyatini 1919 yil Hamza Hakimzoda Niyoziy truppasida boshlagan.

Keyinchalik Yusufjon qiziq truppasida ishlagan. 1921 - 1922 yillar Toshkent rus opera va balet teatrida, 1924 yildan Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi konsert trupпасi (1926 yildan O'zbek davlat konsert-yetnografik ansambli, 1929 yildan O'zbek davlat musiqali teatri)da faoliyat ko'rsatgan. 1925 yil, Parijda bo'lib o'tgan Jahon bezak san'ati ko'rgazmasida M. Qoriyoqubov bilan birgalikda ishtirok etib, o'zbek san'atini ilk bor Yevropada namoyish etgan. Tamaraxonim o'zbek lapar va yalla namunalarini sahnaviy ijro sharoitiga moslashtirib, yangicha ifodaviy vositalar (mimika, raqs, dialog va boshqalar) bilan boyitib, ular negizida bir necha kichik musiqiy insenirovkalarni yaratdi, milliy ommabop (estrada) san'at rivojiga asos soldi. Tamaraxonim ijrosidagi qo'shiq va laparlar («Lolaxon», «Qorasoch», «Bilaguzuk», «Oyijon», «Fabrikaning yo'lidan», «Qizlar, shitobingiz nima?», «Gulyor», «Yetimlar yigisi», «Tuyg'unoy», «Erk bolalari» va boshqalar), «Sinaxiroj», «Dil- xiroj», «Qarinavo», «Usmoniya» singari raqslari halqqa manzur bo'lgan. 1925-29 yillar Andijon, Qo'qon, Samarqand teatrlarida sahnalashtirilgan musiqali dramalarda Halima (G'. Zafariy, «Halima»), Shirin (Xurshid, «Farhod va Shirin»), Gulchehra (U. Hojibekov, «Arshin mol olon») singari rollarni ijro etdi.

1929-1934 yillar Samarqanddagi O'zbek davlat musiqali teatri (1931 yil teatr Toshkentga ko'chirilgan)da, 1934-1935 yillar Xorazm teatrida ishladi. Tamara Xonim qadimiy va abadiy navqiron Xorazm san'atini o'rganishga bir necha yil sarflaydi. 1934 yil M. Yanovskiyning «Ferenji» baletida Indra rolini o'ynadi. O'zi tashkil qilishda qatnashgan respublika balet maktabi 1935-1947 yillar Tamaraxonim nomi bilan yuritilgan. 1935 yili Londonda bo'lib o'tgan, Tamara Xonim, Usta Olim Kamilov, To'xtasin Jalilov, Abduqodir Ismoilovlar o'zbek raqsi va musiqa san'atining sevqli vakillari sifatida qatnashgan birinchi halqaro halq raqsi va musiqa san'ati festivalida o'zbek va Xorazmning jahonga hali noma'lum o'ziga xos san'atini namoyish qildilar va bunda Tamara Xonim bilan Usta Olim Komilov *Oltin medal* olishga sazovor bo'ldilar.

1937 yili Moskvada bo'lib o'tgan birinchi o'zbek san'ati dekadasi Tamara Xonimning Xorazm milliy raqslarini sahnalashtiruvchi baletmeyster, ajoyib san'atkorligini yana bir karra tasdiqladi. 1936- 1941 yillar O'zbek davlat filarmoniyasi, ayni vaqtda, O'zbek davlat musiqali teatri (1939 yildan O'zbek davlat opera va balet teatri)da raqqosa va baletmeyster. 1941-1969 yillarda O'zbek davlat filarmoniyasining musiqa ansamblida badiiy rahbar, baletmeyster va aktrisa. Tamaraxonim 2-jahon urushi yillarida konsert brigadalari bilan armiya qismlarida xizmat qildi. Tamaraxonim qaysi halq qo'shiq va raqsini ijro etmoqchi bo'lsa, o'sha halqning tarixi, etnografiyasi, mahalliy urf-odatlarini, san'ati va madaniyatini batafsil o'rganib, so'ng ijro etgan. Uning ijrosida «Erta bilan» (qo'qoncha), «Yallama yorim» (marg'iloncha), «Omonyor» (andijoncha), «Farg'onacha raqs», «Buxorocha raqs», «Mavrigi», «Lazgi» (xorazmcha), «Bibijon» (turkmancha), «Yangi oy» (mo'g'ulcha), «Nikoh to'yi» (guzincha), «Eshikni qoqma» (ozarbayjoncha), «Gulizor» (turkcha), «Chando» (indonezcha), «Xumor ko'zlar», «Binti shalobiya» (arabcha), «Banday tog'i» (yaponcha), «Cho'pon raqsi», «Torazi» (koreyscha), «Shirin zabon» (afg'oncha), «Nilufar» (hindcha), «Parizodoy» (qirg'izcha), «Jo'ra jonim» (tojikcha), «Garmonchi» (tatarcha), «Oy da Galya i Sultan» (ukraincha) kabi 500 dan ortiq qo'shiq va raqslar 86 tilda yangragan. U ustozlari Usta Olim Komilov bilan ko'plab o'zbek halq raqslarini sahnalashtirib, o'ziga xos (ayollar va erkaklar raqsi harakatlarini mujassam etgan) uslubini yaratdi, yangi zamonaviy raqs, teatrlashgan raqs syujetlarini, yangi xoreografik kompozitsiyalarni («Gul o'yin», «Sadr», «Zang», «Pilla», «Kema o'yini» kabi) ijod qildi. U o'zbek halq raqs harakatlari bilan Yevropa mumtoz balet raqslari harakatlarini uyg'unlashtiruvchi dasturlar («Bahor», «Navo», «Qizil va oq atirgullar urushi» va boshqalar) yaratdi, bular milliy o'zbek baletini yuzaga kelishida, milliy xoreografiyani rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. U birinchi o'zbek baletlaridan «Gulandom» (Ye. Brusilovskiy, 1938) librettosini Uyg'un va M. Yanovskiy bilan birgalikda yaratdi, uni sahnalashtirib, bosh rolni o'zi ijro etdi.

O'zbek raqs san'atini yanada rivojlantirish sohasida faol qatnashayotgan Tamara Xonim Navoiy nomli teatr sahnasida birinchi o'zbek balet spektaklini yaratish ustida ish olib boradi. U librettoning ham muallifi. 1930 yillar o'rtasidayoq Tamara Xonim o'z repertuarini turli millat qo'shiq va raqslari bilan to'ldira boshladi. Halq orasida do'stlikning mustahkamlanayotgani, milliy san'atlarning zo'r berib rivojlanishi Tamara Xonimga qardosh halqlarining ijodini chuqur o'rganish, o'zbek milliy sozandalar ansambli bilan mamlakatning turli burchaklariga qilgan safarida tomomshabinlarni ana shu halq ijodlari bilan tanishtira borishga imkon berdi.

Rossiya, Ukraina, Belorussiya va Gruziya, Ozarbaydjon va Tojikiston – barcha respublikalarda shahar va qishloqlarda arzigulik chiqishlar qilib tomoshabinlar va tinglovchilarning o'zbekcha va qozoqcha, uyg'urcha va armancha, tojikcha va tatarcha, ozarbayjoncha va ruscha, ukraincha va shular singari ko'pgina qo'shiq va raqslar bilan tanishtiradi.

1941 yilda Ulug' Vatan urushi yillarida Tamara Xonim va uning ansambli artistlari "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alab uchun" degan jangovor vaxtada turib xizmat qildilar. Tamara Xonim Kavkaz, Eron va Uzoq Sharqda qilgan chiqishlaridan so'ng Mangoliya halq respublikasining shaharlarida konsertlar berdi..

Tamara Xonim ijodiy faoliyatini bir kun ham to'xtatmasdan har bir konsertini yangi qo'shiqlar bilan, boyitdi, yangi-yangi raqs va kuylar qidirdi, o'rgandi. Turli halqlarning yangi-yangi (raqs) kiyim-boshlarini o'z ijodida qo'lladi.

Tamara Xonimning "Jahon halqlarining qo'shiq va raqslari" degan yangi konsert afishalari uning ijodiy ko'lamini tasdiqladi. G'arbiy, Yevropa halqlarining san'ati bilan yaqindan tanishish uni yaxshilab o'rganish repertuarini ko'pgina yangi qo'shiqlar bilan boyitishga katta imkon berdi.

Halqlar do'stligi tuyg'usi uni Sharq mamlakatlari sari safarga yo'lladi. U Hindiston va Afg'oniston, Indoneziya, Pokiston mamlakatlariga borib, Sharqdagi qo'shinlarimizni o'zbekcha qo'shiq va raqslar bilan tanishtirdi. Chiroyli o'zbekcha kiyim-boshlarimiz, gazlamalarimiz va kashtachilik buyumlarimiz bilan hammani maftun etdi. Tamara Xonim namoyish qilgan Sovet Ittifoqi halqlarining san'ati tinglovchi va kelgusi avlodning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Tamara Xonim o'z safarlaridan juda ko'p qo'shiq va raqslarni to'plab qaytdi. U ularni san'atkor va ehtirosli kolliksioner sifatida o'rgandi. 1956 yili Halq *artisti* unvoni berildi.

Tamara Xonim ijodiy faoliyatiga 50 yil to'lganda jamoatchilik uni 1969 yili nishonlangan katta va samarali mehnati natijasi sifatida Tamara Xonim ijodiy laboratoriyasi bizning mamlakatimizdagi va jahondagi 86 millatning qo'shiq va raqslari bilan boyitgan edi.

Tamara Xonim ijodiy yo'lining bosqichlari o'zbek sahna san'ati tarraqiyotining eng muhim bosqichlari bilan hamohang.

M.Turg'unboeva, G.Rahimova, R.Karimova, G.Mavaeva, H.Komilova, I.Oqilov, L.Petrosova kabilar Tamaraxonimning shogirdlaridir. Tamaraxonim Fransiya, Norvegiya, Germaniya, Italiya, Turkiya, Eron, Hindiston kabi davlatlarda gastrolida bo'lgan. Toshkent shahri ko'chalaridan biri (o'zi yashagan ko'cha)ga Tamaraxonim nomi berilgan. Toshkentda Tamaraxonim uy muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda. Vafotidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2001).

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fazliyeva Z.K. "O'zbek raqsini o'rganish uslubi" – O'quv qo'llanma. T. 2020 y
2. MD Tavakulovna, FZ Kamarbekovna. HE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROFESSIONAL APPLIED TRAINING IN THE UNIVERSITIES OF ARTS AND CULTURE//International Engineering Journal For Research & Development 6 (1), 6-6 9 2021
3. ФМ Азатова, ЗК Фазлиева. АСРЛАРГА ТАТИГУЛИК РАҚС АСАРИ// Oriental Art and Culture, (6) 8 2021.
4. ЗК Фазлиева. УЗБЕК САДНА РА^ СИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙУЛЛАРИ//Oriental Art and Culture.-2020.-№. III 6
5. СШ Маннонов, ЗК Фазлиева. ИБТИДОЙ ПАНТОМИМАЛАР: ЎЙИНЛАР ВА СЮЖЕТЛАР//Oriental Art and Culture 2 (3), 99-105 4 2021
6. SF qizi Yangiboyeva, ZK Fazliyeva. O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATIDA MAQOM JANRINING O'RNI//Oriental Art and Culture 2 (1), 32-35 2021
7. ИМ Иманкулова, ЗК Фазлиева. АЛИШЕР НАВОЙЙ НОМИДАГИ ДАВЛАТ АКАДЕМИК КАТТА ТЕАТРИ САҲНАСИДА “ЛАЗГИ ҚАЛБ ВА СЕВГИ РАҚСИ” БАЛЕТИ СЦЕНОГРАФИЯСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИН//Oriental Art and Culture 2 (4), 295-302 2021
8. ФМ Азатова, ЗК Фазлиева. “МУНОЖОТ” АСРЛАРГА ТАТИГУЛИК РАҚС АСАРИ//Oriental Art and Culture 2021
9. ФЗ Камарбековна. Рақс ансамбллари ижодида ўзбек миллий рақс мактабларининг услубий ифодаланиши// International scientific-practical online conference on Emergency management and public health research in Asia. 2020. Стр 284-288

## ЎЗБЕК ЛИНГВОМАДАНИЯТИДА РАМЗ ТУШУНЧАСИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Усманова Хумора Аҳмаджонова  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

**Аннотация:** Ушбу мақолада ўзбек лингвомаданиятида рамз тушунчасининг ифодаланиши ҳақида маълумот берилган бўлиб, тилда рамзларнинг қўлланилиши, уларнинг таснифлари, шунингдек халқ оғзаки ижодиётида, шеърятда, бадий адабиётда қўлланилиши ёритиб берилган. Уларнинг жамият ҳаётида тутган ўрни белгиланган, айрим семантик, структурал ва функционал хусусиятлари таҳлил этилган, рамзларнинг ёндош ҳодисаларидан бири - метафоралар билан ўзаро муносабати аниқланган.

**Калит сўзлар:** тил, лингвомаданият, рамз, семантика, маданиятшунослик, халқ оғзаки ижоди, лингвопоэтика, тасниф, психолингвистика, кўчим, метафора, белги, маданият.

## EXPRESSION OF THE CONCEPT OF RAMZ IN UZBEK LINGUISTIC CULTURE

Usmanova Xumora Ahmadjonovna  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** This article provides information on the expression of the concept of symbols in Uzbek linguacultural, the use of symbols in the language, their classification, as well as their use in folklore, poetry, fiction. Their role in the life of society is defined, some semantic, structural and functional features are analyzed, the interaction of symbols with one of the parallel phenomena - metaphors is defined.

**Keywords:** language, linguacultural, symbol, semantics, culturology, folklore, lingvopoetics, classification, cognitology, psycholinguistics, migration, metaphor, character, culture.

Тил ва маданият ҳар қандай миллатнинг миллат эканлигини тасдиқловчи воситадир. Бу икки тушунча ажралмас ва мунтазам бир-бирини тақозо этади. Тил ўзининг ҳар жабҳасида маданиятни акс эттиради, маданият ҳам шу ўринда тилсиз мукамал намоён бўла олмайди. Ҳозирги кунда тилшунослик илмида янги-янги соҳаларнинг юзага келиши, матн муаммосининг ўрганилиши билан боғлиқ ишлар жадал ривожланмоқда. Шу нуқтаи назардан бугунги кунда матн таҳлилида тадқиқотчилар грамматика, семантика, когнитология,

психоллингвистика, лингвомаданиятшунослик каби қатор йўналишлар қўлга киритган ютуқларга таяниб иш кўрмоқдалар. Бундан мақсад - нутқ яратувчи ва уни идрок этувчи шахс омилининг лисоний фаолиятда қандай ўриин тутишини аниқлаш бўлса, иккинчи томондан, матннинг семантик, лингвомаданий хусусиятларини янада чуқурроқ ўрганишдир. Шундай масала сифатида ҳозирги кунда тилшунослик илмида барчанинг эътиборини тортаётган тил ва маданият тушунчаси билан боғлиқ бўлган лингвомаданий масалалари кўпчилик тилшунос олимлар томонидан тадқиқ этилаётган бўлсада, бироқ тўлақонли ўз ечимини топган эмас.(1)

Тил - бу халқ маданиятини тушунишда рамзий бошқарувчи, лексика эса у ҳис-туйғуларга бой ифодадир. Биламизки, инсоният тараққиёти тарихида вужудга келган турли маданиятларнинг ўзаро таъсири ва бир-бирини бойитиши масалалари ҳам маданиятшунослик фани доирасида қолаверса, инсоният ҳаётининг турли томонлари билан боғлиқ маданий тушунчаларни яхлит ҳолда, бир тизим сифатида ўрганади.

Маданиятшунослик нуқтаи назаридан эса, халқ оғзаки ижоди жанрларининг бадиий-эстетик аҳамияти ва маҳаллий халқ турмушидаги роли, ижтимоий вазифаси маънавий мерос сифатида аҳамият касб этади. Маълумотларда келтирилишича, “Лингвомаданиятшунослик” атамаси В.Н.Телия бошчилигидаги тилшунослик мактабида олиб борилган ишлар натижасида вужудга келган. (2, 112б)

Лингвомаданият - замонавий тилшуносликнинг йўналишларидан бири бўлиб, тилшунослик ва маданиятшуносликнинг туташган қисмини ўрганадиган соҳа ҳисобланади. Тил менталитет, анъана ва одатларни ҳамда ўзига хос оламни тушуниш усулини айнан тил орқали қабул қиладиган инсонни шакллантирувчи қуролдир. Маданиятнинг бир томонлама тилга таъсири ёки тилнинг маданиятга таъсири ғоялари тил ва маданиятнинг ўзаро боғлиқлиги ва алоқаси, уларнинг онтологик бирлик эканлигини тасдиқлашга ёрдам беради. Тил ва маданиятнинг ўзаро алоқаси моҳиятини англаб етиш учун “маданият” тушунчасини аниқлаштириб олиш лозим бўлар экан.(3, 35-39 бетлар)

Ҳар бир миллат ўзида маълум бир миллий анъаналарни акс эттиради. Яъни ҳар бир халқнинг, миллатнинг ўз миллий анъаналари, урф-одатлари мавжуд. Бу маънода ҳар бир инсон ана шу миллийликни ўзида акс эттувчи муайян маданият, тил, тарих, халқ оғзаки ижоди, фольклор шунингдек адабиётга алоқадор. Маълумки, тили ижтимоий ҳодиса бўлиш билан биргаликда маданият билан ҳам узвий боғлиқдир. Ҳозирги кунда инсонлар, халқлар, мамлакатлар ўртасидаги иқтисодий-сиёсий, маданий ҳамда илмий алоқалар, халқаро-маданий коммуникатив жараёнлар тилшунослик соҳасида тилларнинг ўзаро муносабати ва тил маданияти ҳамда тилнинг миллий, ўзига хос кўриниши каби қатор ва

маданиятшунослик ўртасидаги алоҳида специфик йўналиши ва предметига эга бўлган янги соҳа - лингвомаданиятшуносликнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда. XX аср охирига келиб, тил ва маданият муаммосини ўрганишни мақсад қилган - тилшуносликнинг янги соҳаси лингвокультурология жадал ривожланди.

Лингвокультурология тилни маданий феномен сифатида тадқиқ этади.

Бу эса оламни миллий тил ойнаси ортидан кўриш демакдир. Ушбу жараёнда тил алоҳида миллий ички дунёси ифодаси сифатида кўзга ташланади. Лингвокультурология кўпроқ афсона, ривоят, маросим, расм-русумлар, одатлар, маданий рамзларни ва бошқаларни ўрганади.(4, 1276) Бу тушунча маданиятга тегишли бўлиб, улар турмуши, расм-русумлар кўринишларида ҳамда тилда мустақамланади. Лингвокультурология тил ва маданият алоқадорлигини ўрганувчи фан сифатида тушунтирилади. Унинг асосий мақсади - халқнинг ички олами ва маданиятини тил орқали кашф этишдир.

Лингвокультурология “тилдаги маданият омили ва инсондаги тил омилини ўрганишга қаратилган” (В.Н.Телия) фандир. Лингвокультурология соҳасига XIX асрда В. Фон Гумбольдт ўзининг “Тилнинг тузилиши ва инсоният маънавий ривожига таъсири” китоби билан тамал тошини қўйган бўлиб, тил ва миллат хусусиятларининг муносабатлари ҳақида кайд этган. Айниқса, унинг “турли тиллар, ўз хусусиятлари, фикрлаш ва ҳис-туйғуга таъсирига кўра амалда турлича дунёқарашни ифодалайди”, “тилнинг ўзига хос хусусиятлари миллатнинг ўзлигига таъсир қилади, шунинг учун тилни чуқур ўрганиш тарих ва фалсафа инсоннинг ички дунёси билан боғлаб тушунтирадиган барча нарсани қамраб олиши керак” каби фикрлари кенг тарқалган. Шундай қилиб, олим тилнинг турли шаклларида турлича ҳиссиёт ва тафаккур услубларини кўради. Демак, тилда маданий ўзига хослик акс этиб туради, деган хулосага келади. (5,1276)

Жаҳон тилшунослигида тил бирликларининг лингвопоэтик ва лингвомаданий жиҳатларини тадқиқ этиш янада долзарблик касб этмоқда. Зеро, дунё лингвистикасида XX аср охиридан бошлаб тилни антропоцентрик ёндашув асосида тадқиқ этиш барқарорлашиб, бугунги даврда лисоний бирликларни миллат маданияти билан алоқадорликда ўрганувчи лингвомаданиятшунослик тармоғи истиқболли йўналишга айланди. Сўнгги ўн йилликларда тилни ўз соҳиби, унинг миллий менталитети, миллий маданияти билан бирга тадқиқ этишга эътибор кучайди. Муайян адиб асарлари тилига поэтик жиҳатдан актуаллашган бирликларга лингвопоэтик ва лингвомаданий жиҳатдан ёндашиш бетакрор она тилимизнинг ифодавийлигини ёритиб берувчи тадқиқотларнинг янада теран, янада асосли бўлишига хизмат қилади. Дунё тилшунослигида тил ва маданият, тил ва тафаккур ўртасидаги алоқа масаласи ўз долзарблигини йўқотмайдиган масалалардан ҳисобланади. Лингвомаданиятшуносликка оид

тадқиқотларда маънавий қадриятлар тўплами ва маълум бир миллий-маданий жамоанинг тилшунослик тажрибаси ўрганилиб, тил ва маданиятнинг ўзаро боғлиқлик белгиларига бевосита эътибор қаратилган. Лингвопоэтикада эса бадиий матн тили, шакли ва мазмуни бирлиги, тил бирликларининг эстетик вазифаси, бадиий қиммати ҳамда унинг ўқувчига эстетик таъсирини ўрганиш асосий вазифа бўлиб келди. Кейинги тадқиқотларда эса лингвомаданий бирликларнинг бадиий асардаги эстетик хусусиятларини тадқиқ этувчи илмий қарашлар ҳам юзага келганини кузатиш мумкин. (6,56)

Ўзбек тилшунослигида “тил ва маданият” масалалари билан шуғулланган олим Низомиддин Маҳмудовнинг “Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...” номли мақоласида “тил” ва “маданият” тушунчалари ҳақида қуйидагиларни ёзади: “Тил ва маданият деганда, кўпинча, “нутқ маданияти” дейиладиган муаммо асосиятив ҳолда эсга тушсада, бу икки ўриндаги маданиятнинг айнанлиги асло кўрсатмайди. Тил ва маданият деганда, одатда (тўғриси ҳам шу) тил орқали у ёки бу маданиятни ёки аксинча, маданиятни ўрганиш орқали у ёки бу тилни тушунтириш назарда тутилади, аниқроқ айтадиган бўлсак, лингвокультурологиядаги маданиятнинг маъноси “ақлий-маънавий ёки хўжалик фаолиятида эришилган даража, савия (нутқ маданияти)” эмас, балки “кишилиқ жамиятининг ишлаб чиқариш, ижтимоий ва маънавий-маърифий ҳаётида қўлга киритган ютуқлари мажмуи (маданият тарихи, ўзбек маданияти)” демакдир.(7, 106)

Тилимиз ривожига оид муҳим тарихий ҳужжатда белгиланган “Ўзбек тилининг халқимиз ижтимоий ҳаётида ва халқаро микёсдаги обрў-эътиборини тубдан ошириш, униб-ўсиб келаётган ёшларимизни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларга садоқат руҳида тарбиялаш” мақсади (8) ўзбек тилшунослари олдида ҳал қилиниши лозим бўлган бир қатор вазифаларни қўйди. Ўзбек тилини юксалишига ҳамда тилимиз ривожига муносиб ҳисса қўшишда ўзбек лингвомаданиятида рамз тушунчасини ўрганиш бугунги ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади.

Ўзбек лингвомаданиятида рамз тушунчасини ифодаланишини ёритиб бериш мақсадида рамз тушунчаси ҳақида фикр юритишни лозимдир.

Ижтимоий мулоқот тизимида инсонлар мазкур жамият, гуруҳ ва ижтимоий муҳитда қабул қилинган рамзлардан фойдаланмасдан яшай олмайдилар. Инсонни ҳайвондан фарқловчи жиҳатлардан бири - унинг рамзлаштиришга бўлган эҳтиёжидир. Замонавий антропологияда Б. Франклиннинг (*toolmaking animal*) формуласи бироз ўзгартирилиб, “инсон ўзининг табиатига кўра (*symbolmaking animal*), яъни инсон нафақат “меҳнат қуроллари ишлаб чиқарадиган”, балки “рамзлар яратадиган” маҳлуқ ҳамдир”, деб талқин қилинади. (9,736) Демак, юқоридаги фикрлардан таъкидлаб турибди-ки, борлиқ,



дунё рамзлардан иборат, рамзлар эса борлиқнинг, инсониятнинг илк ҳақиқий ижодидир.

“Аждодларимиз бугун ибтидоий давр деб баҳо бериладиган пайтларда бизга қараганда юз карра шоирроқ эдилар. Улар албатта, поэзияни тушунмасдилар, бироқ бугунги тил билан айтганда, ўша минглаб йиллар аввал уларнинг тафаккур тарзи “поэтик мушоҳада” тарзида эди: улар ҳаётлари ва табиатдаги ҳар бир нарсани тасаввур қилган тушунчаларнинг рамзи сифатида қабул қилардилар. У пайтлар осмон, сув, кўкат, қуёш, ой ёруғлик ва зулмат - Тангрилар эди; қуёш ўрнини тун эгалларкан, эзгулик ва ёвузлик кураши кетяпти деб ўйлашарди. Ҳайвонлар ҳам тангрилар эди, уларнинг ичида ҳам ёқуз ва эзгу ниятлилари бор эди. Эзгулик тангрлари осмонда, ер юзида ёруқлик билан яшашади, ёвузлик тангрлари ер остида, зулмат билан бирга яшашади деб ўйлардилар”.(10,136б)

Демак, инсон моддий муҳитдан ташқари, рамзий оламда ҳам яшайди. Инсон ўз тарихининг илк давларида маънолар дунёсида яшаган, дунёни рамзлар орқали қабул қилган, табиат билан рамзлар орқали муносабатда бўлган. Шунга кўра, “инсон тилини тўла маънода рамзлар тили дейиш мумкин”. Рамзлар ўз-ўзидан шаклланмаган, улар инсоннинг билиш маҳсули сифатида вужудга келган.(11,74б)

Рамз тушунчаси қатор фанлар нуқтаий назарида турлича талқин қилинади:

1) рамз - белги билан ўхшаш тушунча (тилларни сунъий формаллаштиришда);

2) ҳаётни санъат воситасида образли ўрганишнинг ўзига хослигини ифодаловчи универсал категория (эстетика ва санъат фалсафасида);

3) муайян маданий объект (маданиятшуносликда, социологияда ва бошқа ижтимоий фанларда);

4) рамз белги бўлиб, унинг дастлабки маъносидан бошқа маъно учун шакл сифатида фойдаланилади (фалсафа, лингвистика, семиотика ва ҳ.к.).(12,95б)

Лингвокультурологияни рамзнинг белгилик жиҳати қизиқтиради. Агар оддий белги инсонга маъноларнинг предметлар оламига кириш имкониятини берса, рамз маъновий муносабатларнинг предметлар мавжуд бўлмаган оламига кириш имкониятини беради. Рамзлар орқали бизнинг онгимизда кишиларни ягона этномаданий ҳамжамиятга бирлаштирадиган маданиятнинг энг муқаддас қирралари очилади, ақлга сиғмайдиган, ғайришуурий ботиниу маънолар юзага чиқади. (13,189б) Рамзни ўзининг ўзига хос белгиси, объекти, предмети билан алоқасини йўқотган маъно сифатида қабул қилишидадир.

Ю.М.Лотман қайд қилишича рамзлар “маданий мажмуанинг энг барқарор элементлардан бири”. (14) Шундай экан, рамзлар лингвомаданий заминнинг барқарор бирликлари ҳисобланади. Улар турмуш қоидаларига айланган кузатишларни мустаҳкамлайди.

Рамз кўчим, белгиларнинг ўзига хос тури бўлиб, оламни тушуниши осонлаштириш, воқеликни образли ифода этиш учун хизмат қилади. “Рамз - моддий нарсалар ва жараёнларнинг белги ёки образ тарзида ифодаланган идеал мазмуни. Рамзнинг моҳиятини формал мантиқ доирасида аниқ таърифлаш мумкин эмас”.(15,146б)

Тилшунос олим М.Йўлдошев: “Рамз - бадий нутқда ҳаётини воқеа, тушунча ва предметлар ифодаси учун сўзларнинг маълум равишда кўчма маънода ишлатилиши” каби фикрни илгари суради.(16,130б)

Рамзга, кўп ҳолларда, метафорик эволюциянинг табиий натижаси деб қаралади. Образ метафора орфали тилга кириб, метафора ўзининг кейинги семантик тараққиётида ё рамзга айланади ёки белги даражасига тушади.(17)

Рамзга энг яқин ёндошув ҳодисалардан бири метафорадир. Метафора (юн.кўчириш) ҳосила маъно юзага келиши, у бирор предмет номини бошқа предметга ўхшашлигини эътиборга олиб кўчиришдир. У ўхшатишнинг қичқарган шаклидир. Метафора нафақат қисқарган ўхшатиш, шу билан бирга, қисқарган қарама-қарши ҳамдир. Метафора тилдаги универсал ҳодиса бўлиб, унинг универсаллиги маконда ва замонда, тил қурилишида ҳамда унинг вазифаларида намоён бўлади. Метафора ўзида фундаментал маданий қадриятларни акс эттиради.(18,мақоладан олинган)

Метафорда ўхшатишнинг тўртта узви (ўхшаган, ўхшатиш, ўхшатиш қайди, ўхшатиш воситаси)дан учтаси (ўхшаган, ўхшатиш қайди, ўхшатиш воситаси) туширилади, фақат биттаси, яъни ўхшагангина воқеланади. Тилшунос М.Миртожиев “Ўзбек тили семасиологияси” монографиясида метафоранинг уч тури борлигини қайд этади. Улар қуйидагилар: оддий метафора, персонификация (жонлантириш), синестезия. (19,238б)

Бошқа илмий тадқиқот ишларида метафораларнинг ушбу турлари бўлиниши айтиб ўтилган.(20,111-112бетлар) Юқоридагиларни хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, рамз ва метафора тасвирга асосланган кўчим, шу сабабли улар бу жиҳатдан бир-бирига муносиб лингвистик ҳодисалардир. Ўзбек лингвомаданиятида эса метафора ва рамз инсоният бадий тафаккури жараёнида шаклланган ва унинг ривожланишига бевосита боғлиқ тарзда тараққий этиб боради. Метафора маълум бир вақтда муайян мазмунни ифодалайди, рамз эса адабий ва тушунарли ҳақиқатни англатади. Объект тасвирини яратишда метафора уни англашни чуқурлаштиради, рамз эса уни тасвир чегарасидан ташқарига чиқариб, аниқ ва ёрқин тушунишга замин ҳозирлайди.(21, 338-339 бетлар)

Рамзлар жисм ва белгилар билан синонимдир. А.А.Сурковнинг фикрига қараганда, ҳар бир белги - бу тасвирдир ва ҳар қандай тасвир, ҳеч бўлмаганда, маълум даражада, белгидир. Аммо рамз тасвирнинг ўз чегарасидан чиқиб

кетишини, баъзи маъноларининг мавжудлигини, тасвир билан узвий бирлашиб кетишини билдиради. Бунга қуйидаги мисол бўла олади: далали каптар - *дунё рамзи*. Рамзнинг асосини тасвир ташкил этади. (22, 388б)

Рамз - инсон руҳиятининг тили бўлиб, у табиат билан ана шу тилда гаплаша бошлаган. Айнан шу рамзлар тилида мифлар, эртақлар, дostonлар яратилган. Фольклор рамзлари муайян халқнинг илк тафаккур тирзини, тасаффуруларини, ижодини тамсил этади. Жумладан, туркий халқлар оғзаки ижодида “Улген - ёруқлик ва эзгулик. Эрликхон - зулмат ва ёвузлик, Момақалдиروق - тангилар овози, Яшиин - тангрининг ўқи, Сел - ёвуз руҳнинг офати, Тоқ - тилсимли кўрғон, Сув, Тупроқ - тириклик, Ғор - руҳлар макони, Осмон - эзгулик тангрилари, Ер ости - ёвуз руҳлар маконининг рамзи, кодлашган исмлари” (23,67б) деб таъкидланган.

Қадимги тошёзув ва битиклар, халқ оғзаки ижоди намуналарининг энг катта маънавий бойлигимиз эканлиги ҳақида И.А.Каримов ўзининг “Юксак манъавият - енгилмас куч” асарларида ҳам алоҳида таъкидлаб ўтганлар: “Аждодларимиз тафаккури ва даҳоси билан яратилган энг қадимги тошёзув ва битиклар, халқ оғзаки ижоди намуналаридан тортиб, бугунги кунда кутубхоналаримиз хазинасида сақланаётган минг-минглаб қўлёзмалар, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат... ва бошқа соҳаларга оид қимматбаҳо асарлар бизнинг буюк маънавий бойлигимиздир. Бунчалик катта меросга эга бўлган халқ дунёда камдан кам топилади”. (24, 236б)

Шундай экан, халқ оғзаки ижодида муайян даврда яшаган аждодларимизнинг ҳаёт-кечинмалари, урф-одатлари, тасаввурлари муҳирланган. Маданиятимизни бойитишда оғзаки халқ ижоди ифодаланган рамзларни тадқиқ этиш, уларни тўғри талқин қилиш, аждодларимизнинг ички ҳиссиётларини, дунё қарашларини, ички дунёларини ёритиб беришда хизмат қилади. Рамзлар қадриятлар мажмуийдир, ўзбек лингвомаданиятида рамз тушунчаси қадриятларимизнинг тимсоли сифатида шаклланади.

Ўзбек лингвомаданиятида рамз ижтимоий мулоқот тизимида объектлар, масалан, ҳаракат, ҳодиса, матн, тасвир, ҳайвон, ўсимлик, рақам, ранг ва ҳақозо бўлиб хизмат қилади.

Ўзбек лингвомаданиятида “рамз” тушунчаси алоҳида ўрин тутади, чунки рамзлар маданиятда чинакам ўзига хос ўрин тутади, сирли маънолар оламини субъект ва прагматик муносабатлар олами билан боғлайди.

Юқорида таъкидлаганимиздек рамз - бу белги, лекин жуда ўзига хос турдаги белги, ишора воситаси ролини ўйнайди, шунингдек ўзбек лингвомаданиятида биринчи навбатда лингвистик тасвирларни таҳлил қилади.

Ўзбек лингвомаданиятида рамзлар турли ҳолатларда, асосан ўзбек халқ оғзаки ижоди намуналарида, фольклорнинг турли жанрларида, ўзбек адабиётида таҳлил этилган, ҳамда ўрганилган.

Кузатувлар ва кўпгина тадқиқотларни таҳлиллар қилиш натижасида ўзбек лингвомаданиятида рамз тушунчаси турли усуллар билан, тасвирий рамзлар, ҳайвон рамзлари, ранг рамзлари, белгили рамзлари, қуш рамзлари, дарахт ва ўсимлик рамзлари орқали ифодаланишига амин бўлинди.

Ўзбек лингвомаданиятида кўй ва от - яхшилик, ювошлик, бахт ва эзгуликни ифодалайди.

Маҳмуд Қошғарийнинг таъбири билан айтганда от “туркнинг қанотидир”(25,83б) . “От туркий қабилаларда тотем жониворлардан бири бўлиб, эзгулик руҳи сифатида шомонга ёвуз рух устидан ғалаба қилишда ёрдам беради. Шомонларнинг хассалари кўпинча от рамзини ифодалайди ва ўзбек халқида ҳозиргача отнинг деви бор деган инончлар сақланиб қолган.” Фарғонада, Қўқонда, Самарқандда, Ўратепада девни от қиёфасида тасаввур қилинади. Ўзбек халқ эртаклари ва дostonларида “от қаҳрамоннинг садоқатли йўлдоши, ҳамроҳи, ёрдамчиси, баъзан ўринбосари сифатида учрайди. Алпомишни Бойчибор, Гўрўғлини Ғиротсиз тасаввур қилиб бўлмайди. “Паҳлавон Рустам” эртагида ўт Рустамни ҳамиша фалокатлардан асрайди. “Маликаи айёр” дostonида от қаҳрамоннинг саргузашти ва қаҳрамонликларига тенг шерик. Эرتак ва дostonларда девлар ҳам баъзан от кўринишида келади ёхуд бир юмалаб отга айланади. Бир афсонага кўра, отлар тангрилар билар аждарҳолардан тарқалган. Шу сабабли халқ оғзаки ижодида қанотли отлар кўп учрайди”(26, 68-69бетлар).

Анор - ўзбек лингвомаданиятида анор ва анор дарахтининг меваси шакл, ранги, ички тузилиши туфайли жуда бой ва ижодий рамзийликка эга бўлиб, хилма-хиллик ва кўплик бирлигининг тимсолидир: умумий қобик остида яширилган жуда кўп доналар файласуфларни ажралмас олам билан боғланишга илҳомлантирган. Шунингдек, эзгулик, тўқчилик, унумдорликни, боқийликни, севги ва оила, барака рамзини ифодалайди.

Ўзбек дўпписи каштасида атиргул, гулсафсар, чиннигул, кўкнори, лола, гултожихўроз, олма гули, олча гули, чарос, бодом, қалампир, анор кабилар тасвирланади. Ўсимликсимон нақшлар орасида хўроз, булбул, тустовуқ, каби рангли қушлар рамзи элементлари ишланган. Улар гарчи шартли тасвирлансада, уларни осонгина билиб олиш мумкин. Дўппининг квадрат шаклида бўлиши одам бошига кийишда қулайлиги, чиройлилиги, рамзи бўлиб, дунёнинг тўрт томонини - осмон саройи, Қуёш фарзанди, абадийлик, ёруғликни билдиради. Дўппининг тепа қисмида тўртга қиррасининг битта нуқтада бирикиши - Оллоҳнинг ягоналигини билдиради. Дўппининг пастки қисми тўртбурчак, яъни кубба-шаклларнинг такрорланишидан ҳосил бўлган ислимий нақш, қалъани ўраб

турган деворларни эслатади. Бу тўрт томондан ёмон кўзлардан ва офатлардан сақлаб турувчи қалъа деворидир. Ота - боболар қадимдан бошидаги дўпписи орқали кишилар боши ҳар доим омон бўлсин деб яхши ният қилганлар. Хуллас, дўппида мардлик, жасорат, ҳалоллик, поклик, каби, белгилар мужассам. Чуст дўпписи тимсолидаги бундай рамзлар миллий туйғу устиворлигидан далолат. (27, 55-56 бетлар)

Ўзбек адабиёти тарихида мумтоз ўринга эга бўлган Жаҳон отин - Увайсий ўзининг “Анор” чистони рамзий ифодаланган:

*Бу на гумбаздур, эшига, туйнугидин йўқ нишон,  
Неча гулгун пок қизлар манзил айлабдур макон?  
Туйнугин очиб аларнинг ҳолидан олсам хабар,  
Юзларида парда тортуглиқ турурлар бағри қон.* (28)

Ҳаёт рамзини ўзбек лингвомаданиятида дарахт ифода этади. Масалан дарахт деганда ўзбеклар чинор, қайрағоч, тут, теракни тасаввур қилиш мумкин. “Ҳаёт дарахти” - дунё маданиятида оламнинг асоси (ўзак, ўк, устун), яъни осмон, замин ва ер ости оламларини ўзаро бирлаштириб турувчи восита сифатида тасаввур қилинади. “Ҳаёт дарахти”нинг ўзбек лингвомаданиятидаги тимсоли терак ва чинордир. Чинор узоқ умр, терак эса фарзанд кўрганлик рамзи саналади.(29, 706)

Рамз бу жиҳатдан битмас-туганмасдир. Ўзбек лингвомаданиятида рамз тушунчасини қанчалик тушунишга кўп уринмайлик, унинг чуқур ва очилмаган маънолари ойдинлашавради.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Аманова М.О. Лингвомадааниятшунослик фанининг тарихий ва назарий негизлари. - [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) - Т, 2021
2. Жўраева М.М, Хамидова М.Х. Лингвокультурология ва лингвокультурема. Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2019/4 (76). 112.
3. Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Афтореф. Фил.фан.док.дисс. -Т., 2017. Б35-39
4. Саидова М., Ғозиева У. Лингвокультурология. - Наманган, 2017. - 127 б.
5. Саидова М., Ғозиева У. Лингвокультурология. - Наманган, 2017. - 127 б.
6. Моҳирова З.Р. Ўткир Хошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари. Афтореферат фил.фан. фалсафа док (PhD). дисс. - Т., 2020, 5б.
7. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2012. №5. - Б.10

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сон Фармони. Манба: <http://lex.uz/docs/505835>; [uza.uz/uz/posts/mamlakat](http://uza.uz/uz/posts/mamlakat).

9. Худайберганава З.Н. Рамзларнинг вужудга келиши.../ Таржиманинг лингвомаданий масалалари. - Тошкент, 2016. -Б.73

10. Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. - Қарши: Насафб 1999. Б. 136.

11. Худайберганава З.Н. Рамзларнинг вужудга келиши.../ Таржиманинг лингвомаданий масалалари. - Тошкент, 2016. -Б.74

12. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. -М.: Издательский центр "Академия", 2001. - С. 95.

13. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. - М.: Флинта, Наука, 2010. -С. 189

14. Лотман Ю.М. Символ системе культуры..// Труды по знаковым системам. Вып 21. Тарту, 1987.

15. Махмараимова Ш. Лингвокультурология: Ўқув қўлланма. - Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. - 146б.

16. Йўлдошев М. Бадиий матнинг лисоний таҳлили: Методик қўлланма. - Т. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий Кутубхонаси нашриёти, 2010. - 130б.

17. Колесов В.В. Философия русского слова СПб., 2002

18. Саидов Ё, Мамадалиева М. Рамзларнинг мавзуй таснифи. Мақоладан олинган.

19. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: Фан, 2010. - 288б.

20. Сувонова Р. Метафоралар таснифига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2010. - №6.-111-112б.

21. Арутюнова Н.Д., 1998: 338-339б

22. Алифиренко Н.Ф. Лингвокультурология. - Москва: Флинта, 2016. - 388б.

23. Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. -Қарши: Насаф, 1999. -Б. 67.

24. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. - Б. 23.

25. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. - Тошкент: Фанб 1960. - Б.83.

26. Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. - Қарши: Насафб 1999. - Б. 68-69.

27. Жумаев Ш. Ўқувчиларнинг рамзийликка оид билимларини ривожлантириш. - Самарқанд: СамДУ, 2015. - Б.55-56.

28. Увайсий. Девон. Тошкент, “Фан”, 1958 йил. Увайсий. Девон, Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1963, Э.Иброҳимова. Увайсий. Т., “Фан”, 1963.

29. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. - Қарши: “Насаф”, 1999. - Б 70.

## ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ - СЎЗ САНЪАТИ

С.Юлдашев

С.Азизов

ЎзДСМИ ФМФ

**Аннотация:** Ушбу мақолада санъат асари тингловчиларда инсон иқтидори, маҳорати, ақли, заковати, ўзига хос кашфиёти билан мазкур асарга нисбатан ҳайрат, қойил қолиш туйғусини уйғота олиши ҳақида ҳикоя қилинади.

**Калит сўзлар:** Санъат, маҳорат, кашфиёт, фазилят, нақш, мусиқа, ҳайкалтарошлик, ганчкорлик, халқ оғзаки ижоди.

## PEOPLE'S ORAL CREATION - THE ART OF WORDS

S.Yuldashev

S.Azizov

FRB UzSIAC

**Abstract:** This article tells about the fact that a work of art can arouse in the listeners a sense of admiration and admiration for this work with its human talent, skill, intelligence, ingenuity and originality.

**Keywords:** Art, craftsmanship, discovery, virtue, pattern, music, sculpture, pottery, folklore.

Халқ оғзаки ижодининг сўз санъати эканлигини тушунишдан аввал санъатнинг ўзи нималигини билиш лозим. 5 жилдлик “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да (3-жилд. 442-б): “Санъат” [صنعت] - иш, меҳнат; маҳорат; касб-ҳунар деб кўрсатилган. Агар изоҳдаги сўзларга эътибор берсак, санъат деганда, маҳорат билан амалга оширилган меҳнатни тушуниш англашилади. Санъатни маҳоратсиз тасаввур қилиш мумкин эмас. Шунинг учун устозларимиз “Санъат - инсон ақлу заковатининг буюк кашфиётидир” дейишдан толиқмасдилар. Айни пайтда, “Санъат маҳоратнинг энг олий даражасида вужудга келади” деган гапни ҳам кўп такрорлар эдилар. Ҳақиқатан ҳам, санъатни тушуниш санъатни яратишдек мураккаб эканини билишимиз керак. Айниқса, филология, журналистика, тарих, фалсафа каби соҳа эгалари санъатни тушуниш, тўғрироғи, ҳис қилиш қобилиятига эга бўлишлари алоҳида фазилятдир. Одатда махсус маълумотга эга бўлмаган одамлар оддий тасвирларни санъат асари деб тушунадилар. Масалан, магазинларнинг олд қисмидаги реклама мақсадида намойиш қилинадиган расмлар: костюм кийган йигитлар, кўйлакли қизлар,



нонларнинг турли хиллари, кийим-кечаклар тасвирлари ва ҳоказолар. Аслида буларнинг биронтаси санъат асари ҳисобланмайди. Ҳатто буюк рассомлар ишлаган тасвирий санъат асарларидан олинган нусхалар - копиялар ҳам санъат асари бўлмайди. Ҳаддан ташқари чиройли безакланган чойнак, пиёла, лаганлар минглаб нусхаларда сотилади, улар санъат асари ҳисобланмайди. Чунки санъат асарлари санъаткор томонидан маҳорат билан яратилиши шарт. Шунинг учун санъат асарлари фақат санъаткор яратган ягона нусхада бўлади.

Маълумки, санъатнинг нақш, мусиқа, ҳайкалтарошлик, ганчкорлик, ўймакорлик, рақс, бадий адабиёт каби ўнлаб турлари бор. Уларнинг ҳар бири ўз қуролига эга. Аммо айрим иморатлар олдидаги савлат тўкиб ўтирган шерлар, рақс гуруҳларида четда турган раҳбарига қараб ҳаракат қилаётган раққосалар, маъносиз қофияланган шеърларнинг санъатга ҳеч қандай алоқаси йўқ. Чунки қайд этилган вазиятлардаги "санъат" асарлари бизда ҳеч қандай ҳайрат туйғусини уйғотмайди. Ҳақиқий санъат асари билан муомалада бўлганимизда эса руҳиятимизда муайян ҳиссий ўзгаришларни сезамиз. Санъат асари одамда инсон иқтидори, маҳорати, ақли, заковати, ўзига хос кашфиёти билан мазкур асарга нисбатан ҳайрат, қойил қолиш туйғусини уйғотиши керак. Айнан шу фазилати билан санъат намунаси руҳиятимизни бошқаради.

Санъат асарининг яна бир ўзига хос хусусияти шундан иборатки, унинг қадри, баҳоси ҳеч қачон ҳажм, сон, миқдор билан ўлчанмайди. Ўнлаб тасвирий санъат намунасини яратиш, кўшиқ айтиш, бадий асарлар ёзиш мумкин. Аммо уларнинг муаллифларини танимаслигимиз, ёдимизда сақламаслигимиз ҳам мумкин. Бироқ баъзан бор йўғи битта санъат асарини ижод қилиш билан халқ маданияти хазинасидан муносиб ўринга эга бўлинган, тарихда из қолдирилган. Чунки санъат ўлчови маҳорат даражасининг юксаклиги, бадийликнинг мукамаллиги билан белгиланади. Шундай қилиб, санъат ҳақидаги асосий маълумотга эга бўлдик. Энди бевосита халқ оғзаки ижодининг сўз санъати намунаси эканини билишга уринамиз.

Аввало, ҳар бир санъат намунаси, санъат асари инсон яратган мўъжиза ҳисобланади. Асарга қўйиладиган талаб ундаги кашфиёт, унинг олий даражадаги маҳсулот экани билан белгиланади. Бинобарин, оғзаки сўз санъатига мансуб асар ҳам шакли, мазмуни, ижроси, унда ифодаланган ҳаёт тасвири билан бизда ҳайрат туйғусини уйғотмоғи лозим. Агар ана шу ҳайратни айнан қандай фазилатлар ҳосил қилишини билиб олсак, фикр юритиш йўналишимизда аниқ мулоҳазалар пайдо бўлади, таҳлил қилаётган асаримиз қадри янада аниқлашади. Шу мақсадни назарда тутиб, аввало, бадий адабиётга, хусусан, халқ оғзаки ижоди асарларига қўйиладиган асосий талабларни мухтасар шаклда кўрсатиб ўтмоқчимиз. Зеро, бадий адабиёт билан ўз ҳаётини боғлаган шахс исталган сўз санъати намунаси билан танишганида,

унга баҳо бериш мезонининг аниқ бўлиши мақсадга мувофиқдир. Фақат ёдимиздан чиқмаслиги лозимки, бу талаблар сон ва мазмун жиҳатдан ўта чегараланган ҳолда тавсия этилмоқда:

Биринчидан, ҳар бир сўз санъати намунаси, жумладан, халқ оғзаки ижодидаги кўшиқ, эртак, дoston ва бошқа асарларда фикрий янгилик бўлиши лозим. Бу янгилик кичик ҳаётий воқеадан тортиб мураккаб ижтимоий вазиятларни баҳолаш билан белгиланади. Инсон ҳаёти давомида сонсиз-саноксиз янгиликларга дуч келади. Катта авлод вакили тажрибасидаги оддий ҳақиқатлар ёшлар учун янгилик ҳисобланаверади. Шунинг учун халқ оғзаки ижоди асарларини эшитганимизда, улар билан китобдаги матн воситасида танишганимизда жуда кўп янги-янги фикрларга дуч келамиз.

Масалан, “Қозонга яқинлашсанг, қораси юқар, ёмонга яқинлашсанг - балоси” мақолидаги асосий фикр ёмонга яқинлашган одамнинг тақдирида нохуш воқеалар кўпайишидан огоҳлантиришдир. Лекин аслини олганда мақолнинг биринчи қисмида ҳам эҳтиётлик белгиси аниқ кўриниб турибди. Яъни халқ ёш ва ҳали турмуш тажрибасига эга бўлмаган фарзандга қозонга яқинлашаётганда қора курум тегишидан эҳтиёт бўлишни тавсия қилмоқда. Кўшимча равишда айтиш мумкинки, ҳар бир инсон муайян вазиятда иш қилар ва қарорга келар экан, эҳтиёт чораларини эсидан чиқармаслик лозимлиги уқтирилмоқда. Айни чоқда, оғзаки ижодимиз асарлари билан танишар эканмиз, миллат тақдирига ва ижтимоий вазиятларга боғлиқ муҳим аҳамиятга эга янгиликлар ифодаланишига гувоҳ бўламиз. Масалан, “Алпомиш” достонидаги фикрий кашфиёт бу ҳар бир фарзанд юртнинг бирлигини эъзозлаши кераклигини уқтиришдир. Сенга юртни бўлиш ҳақидаги фикрини тушунтирмоқчи бўлган одам фақат сен учун эмас, миллат учун, халқ учун, ватан учун хавфлидир. Агар сен ўз она юртинг келажагини ўйласанг, уни бирлаштириш, жипслаштириш ҳақида бош қотир, деган ҳақиқат илгари сурилади. Ҳакимбек Қалмоқ юртига кўчган юртдошларини Қўнғирот-Бойсунга қайтариб олиб келади. Шунингдек, инсон қадрини асраш, ота-она ҳурматини бажо келтириш, ҳар бир фарзанднинг Алпомишдек мард, жасур, сўзига содиқ бўлиб ўсишини таъминлаш каби ҳаётий муаммолар дostonда ўз ифодасини топган. Иккинчидан, асар шакли ва мазмуни жиҳатдан мутаносиб бўлиши керак. Бадиий адабиётда жинс (айрим назарий китобларда - адабий тур) ва жанр тушунчаси бор. Жинс деганда, лирика, эпос, драма тушунилади. Лирикада ҳистуйғу, ички кечинмалар; эпосда воқеа ифодаси, асар қаҳрамонларининг тақдири баёни; драмада сахна шароитида воқеаларнинг ривожини, қаҳрамонлар диалоглари воситасида ҳаётий лавҳалар тасвири тушунилади. Жанр эса жинсдан торроқ маънони билдиради. Ёзма адабиётда роман, қисса, ҳикоя кабилар; оғзаки ижодда дoston, эртак, кўшиқ, мақол, топишмоқ, аския

жанрлари мавжуд. Ҳар бир жанрга мансуб асарларни шакл (шеърӣ ёки насрий), мазмун, ҳажм ва яратилишидан назарда тутилган мақсад бирлаштириб туради. Бир жанрда яратилган асарлар муайян шакл ва мазмунга эга бўлиши талаб қилинади. Бу талаб ҳамisha шаклнинг мазмунга муносиб бўлишини тақозо этади. Одатда, шакл қанчалар ихчам, мазмун қанчалар кенг кўламга эга бўлса, асар шунчалар қадрлидир. Халқимиз оғзаки ижодида кўпинча бундай фазилат мақолларда намоён бўлади. Бир жумладан иборат мақолнинг мазмунини ҳаётӣ далил ва мисоллар билан соатлаб таҳлил қилиш мумкин. Лекин ҳамма жанрдаги асарларга ҳам бу ўлчов билан ёндашиш мумкин эмас. Хусусан, дostonлар минг-минг мисралардан иборат шеърӣ ва ҳажм жиҳатдан катта насрий парчалардан ташкил топади. Уларнинг мазмуни миллатимиз вакилларининг ҳаётини тасвирловчи лавҳалардан иборат. Халқ фарзандларининг ҳаёти эса эл ва юрт тақдири асосида ёритилади. Шундай қилиб, топишмоқ, аския, қўшиқ ва бошқа жанрдаги асарлар ҳам ўзларида акс эттираётган мазмун билан шаклан муносиб бўлиши зарур. Айтмоқчимизки, бир-икки саҳифа ҳажмига эга мақол ва топишмоқ бўлмагани каби айнан шундай ҳажмдаги дostonни ҳам учратмаймиз. Мақол ва топишмоқларнинг ҳажми ўта сиқиклиги, дostonлар эса ҳажман кенглиги билан асарлар давомида халқ хизматини бажариб келган.

Учинчидан, бадий асар, хусусан, халқ оғзаки ижодида умуминсоний муаммолар ифодаланади. Албатта, ҳар бир халқнинг ўз миллий хусусияти, миллий табиати, яъни миллий менталитети мавжуд. Аммо бу миллийлик бадий адабиётда умуминсоний муаммоларнинг акс этишига мутлақо салбий таъсир кўрсатмайди. Чунки ер куррасининг турли минтақаларида яшайдиган, турли динларга ишонувчи халқларнинг ҳаётӣ муносабатларида муштарак нуқталар жуда кўп. Ҳар бир миллатда Ватан, халқ, ота-она, ака-ука, опа-сингил, ўғай ота, ўғай она, устоз, шогирд каби тушунчалар бор. Одамлар ўртасидаги муносабатларнинг асосини адолат, андиша, ҳақиқат каби тушунчалар белгилайди. Шунинг учун ўзбек мақоллари мазмунида дунёдаги жуда кўп миллатларда учрайдиган ҳикматлар бор. “Зумрад ва Қиммат” эртагимиздаги воқеалар кўп халқларда деярли ўзгаришсиз такрорланади. “Алпомиш” дostonидаги мардлик, жасурлик, одамийлик дунё халқлари эпоси мавзулари ва ғоявий йўналиши билан уйғун. Эртакларнинг бирида (ўзбекларда) қўй ёки эчки, иккинчисида (хитойларда) гурунч, учинчисида (грузинларда) узум етакчи унсур сифатида иштирок этади. Ўзбек мақолида “Ойни этак билан ёпиб бўлмас” дейилса, русларда “Шило в мешке не утаиш” (“Бигизни қопда яшира олмайсан”) мақоли машҳур. Ҳар икки мақолнинг мазмуни бир бирига яқин. Маълум бўладики, оғзаки ижод асарларининг бош қаҳрамони, аввало, инсон ҳисобланади. Инсон эса маълум бир миллат вакили бўлиши керак. Оғзаки ижод

асарларини эшитганимизда, ўқиганимизда биз ўзимизнинг ҳаётимиз ҳақида мушоҳада юритишга, тасвирланаётган воқеаларни мавжуд маиший муҳит билан қиёслашга ўрганишимиз, ҳар бир танишувдан фойдали маслаҳат олишга интилишимиз лозим. Тўртинчидан, халқ оғзаки ижоди сўз санъати эканини айтдик. Бу фикр оғзаки ижоднинг санъат сифатини таъминлайдиган асосий омил сўз эканини тасдиқлайди. Ҳар бир санъат турининг ўз қуроли бўлганидек, оғзаки ижоднинг ҳам ўз қуроли бор. Бу қурол сўз ҳисобланади. Фикримизнинг қанчалар тўғри экани халқимиз ижодидаги аския жанри мисолида тўлиқ исботини топади. Аввало, аския жанри (бу ҳақда аския мавзуида мукаммал маълумот берилади) дунёдаги бирорта халқ оғзаки ижодида учрамайди. Жанрнинг асосини миллий тилимиздаги омоним сўзларнинг ниҳоятда кўплиги ташкил этади. Сўзларнинг шаклан бир хил, аммо мазмунан турли маъноларни билдириши бир сўзни талаффуз қилишда биратўла бир неча фикрни ифодалаш имконини беради. Натижада, сўз ўйини усули билан кулги пайдо бўлади ва аския вужудга келади. Ўзбек миллий тилининг бой ва ранг-баранг имкониятларга эга экани бошқа жанрларда ҳам намоён бўлади. Достон, эртак, қўшиқ каби турли жанрларга мансуб асарлар сўзларини бошқалари билан алмаштириш мумкин эмас. Бошқа сўз қўлланганда, асарнинг мазмунига, шаклига, жозибасига салбий таъсир кўрсатади. Бу ҳолатни оғзаки ижодимиздаги исталган намунанинг исталган сўзига нисбатан кузатиш мумкин. Масалан: эртаклар “Бир бор экан, бир йўқ экан...” деган сўзлардан бошланади. Шу жумланинг ўзида ҳикоя қилинаётган воқеанинг ҳаётда рўй берганига шубҳа пайдо бўлиши табиийдир. Эртак давомида эса биринчи жумладаги фикр ривожланади ва тасдиқланади. Ёки достонларда қайта-қайта қуйидаги мисралар такрорланади:

Дам шу дамдир, ўзга дамни дам дема, бошинг омон, давлатингни кам дема.

Бу матндаги сўзларни ҳам бошқалари билан алмаштирадик, мисраларнинг фаизи, шукуҳи йўқолади. Халқимиз яратган мақолларни ташкил этувчи сўзлар хусусида эса, умуман, тил лол қолади. Ўзингиз тасаввур қилинг, Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғоти-т-турк” асарида 300 га яқин мақоллар келтирилган бўлиб, уларнинг айримлари шу кунгача миллатимиз нутқида айнан такрорланади. Демак, минг йил аввал боболаримиз, момоларимиз бир мақолни қандай йўсинда талаффуз қилган ва қандай мақсадда айтган бўлса, сиз ҳам шундай ҳолатда қўллаяпсиз. Хуллас, “Юраккинамнинг тафтига тандир қизийди, Кўзгинамнинг ёшига ўрдак сузийди” каби қўшиқ мисраларига дуч келар экансиз, тилимизнинг қанчалар кенг ва битмас-туганмас бойликка эга эканига ишонч ҳосил қиласиз.

Бешинчидан, халқ оғзаки ижоди бадиий адабиётнинг таркибий қисмидир. “Бадиий” сўзининг гўзал, ажойиб маъноларга эга бўлиши луғатларда қайд

этилган. Асар матнини гўзал қилиб турадиган омил эса, кўпинча, бадий тасвир воситаларига боғлиқ. Бадий тасвир воситаларини мутахассислар “бадий санъатлар”, “тасвир воситалари”, “шеър санъатлари” деб ҳам атайдилар. Уларнинг сифатлаш, ўхшатиш, муболаға каби ўнлаб турлари мавжуд. Аслини олганда, ҳар бир бадий санъат намунаси ҳам ўзига хос кашфиёт ҳисобланади. Эртакчи тасвирлаётган маликанинг гўзаллигини ўн тўрт кунлик ойга ўхшатади. Қиз шу қадар латофатга эга бўладики, кулса, атрофга гул, йиғласа, дур сочилади. У юрганида оёғи остидаги излар ўрнидан райҳон, жамбиллар ўсиб чиқади. Достон қаҳрамонлари шу қадар жаҳлдорки, ғазабга тўлганида мўйловининг устини қиров босади, тикилганида тоғ-тошлар кумдек майдаланиб кетади. “Бозиргон” достонида Гўрўғли ўттиз қўйнинг терисидан бўлган пўстинни, ўн беш қўйнинг терисидан бўлган чўғирма (пойабзал) кийиб дарё ёқалаб кетаверади. Бозиргон бўлса бир оёғини дарёнинг ўнг, иккинчи оёғини чап қирғоғига қўйиб, туяларни ўтказаётган бўлади. Юқорида қайд қилинган тасвир воситалари оғзаки ижод асарларига ўзига хос файз бағишлайди. Тингловчи отнинг осмонда учишига, қари одамларнинг гўдак чақалоқларга айланишига, ойнақдан дарё, тароқдан бутазорлар пайдо бўлишига ишонади ва бу тўқималарга қойил қолади.

Албатта, бадий адабиётнинг, хусусан, оғзаки ижоднинг сўз санъати сифатидаги фазилатлари юқорида кўрсатиб ўтилган белгилар билан чегараланиб қолмайди. Масалан, оғзаки асарларда ҳам, ёзма адабиётда ҳам ижодкор мажозий фикр юритиш усулидан фойдаланиши мумкин. Мажоз сўзи луғавий жиҳатдан “ўтиш жойи” маъносини ифодалайди. Лекин бу сўзнинг бошқача айтиш, кўчма маъно ифодалаш маъноси ҳам бор. Бадий адабиётда мажоз, асосан, восита тушунчасида қўлланади. Яъни бирор фикрни билдириш учун бошқача йўл танланади. Масалан, масалларда турли жониворлар, нарса-предметлар воситасида одамлар ўртасидаги муносабатлар ёритилади. Халқ оғзаки ижодидаги кўп жанрларда мажозий фикр юритишдан кенг фойдаланилган. Айниқса, мақолларда бу усул етакчи ҳисобланади. “Сичқон сиғмас инига, ғалвир боғлар думига”, “Отнинг яғири тойга қолар”, “Туяга янтоқ керак бўлса, бўйнини чўзар” каби юзлаб мақоллар мазмун-моҳиятан кўчма маъно ифодаловчи ҳикматлардан иборатдир. Шу боис бадий асарлар билан танишганда, муаллиф бир фикрни ифодалаш билан қандай мақсадни назарда тутганини тушунмасак, асарнинг асл баҳосини бера олмаймиз.

“Халқ оғзаки ижоди - сўз санъати” деганимизда, шунингдек, эртакчи, баҳши, қўшиқчи, аскиябоз, латифачи ижрочиларнинг тингловчиларга бағишлаётган маънавий лаззатини ҳам унутмаслик лозим. Халқ қўшиқларида акс этган ҳис-туйғу, ички кечинмалар; эртаклардаги ғаройиб воқеалар; достонлардаги гўзал тасвирлар, энг аввало, заргарона танланган сўзлардан

иборатлиги, иккинчидан, уларнинг маҳорат билан ижро қилиниши асрлар давомида халқимизга завқ бағишлаган. Шунинг учун ҳам мазкур асарлар ўзбек халқи маънавий хазинасининг бебаҳо қадриятлари сифатида ҳамisha эъзозланган.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Т.: Ўзбекистон, 1998. -Б. 5-66.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.Т.: Шарқ НМАК, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Т.: Ма'naviyat. 2008.
4. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди.-Т.,Ўқитувчи,1990.
5. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
6. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.
7. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.
8. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
9. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
10. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
11. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.
12. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).
13. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.

14. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 25-28.
15. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.
16. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.
17. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий муסיқий ижрочилик санъатида бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.
18. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.
19. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).
20. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 117-119.
21. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In *Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015* (pp. 318-316).
22. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.
23. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.
24. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.
25. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.
26. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).
27. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 50-54.
28. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).

29. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 113-115.

30. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. Oriental Art and Culture, (V).

31. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. Oriental Art and Culture, (V).

32. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. International Journal of Culture and Modernity, 11, 90-96.

33. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 1144-1151.

34. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 54-59.

35. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. An International Multidisciplinary Research Journal.

36. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

37. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. Oriental Art and Culture, 2(4), 50-56.

38. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. International Journal of Culture and Modernity, 11, 412-418.

39. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. Oriental Art and Culture, 2(4), 149-155.

40. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. International Journal of Culture and Modernity, 11, 389-393.

41. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. Oriental Art and Culture, 2(4), 27-33.



## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В ДОШКОЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Хурлиман Аяпова

Нукусский государственный педагогический институт

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы нравственного воспитания дошкольников в системе всестороннего развития гармоничной личности, предпосылки развития, формирование и воспитание нравственных качеств, устойчивой морали, поведения и взаимоотношения со сверстниками и взрослыми в социальной среде.

**Ключевые слова:** формирование нравственных качеств, мораль, воспитание, развитие личности, дошкольный возраст, педагогика, общество.

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF MUSIC IN PRESCHOOL PEDAGOGY

Khurliman Ayarova

Nukus State Pedagogical Institute

**Abstract:** The article deals with the issues of moral education of preschoolers in the system of comprehensive development of a harmonious personality, the prerequisites for development, the formation and education of moral qualities, sustainable morality, behavior and relationships with peers and adults in the social environment.

**Keywords:** formation of moral qualities, morality, upbringing, personality development, preschool age, pedagogy, society.

Нравственное воспитание личности уже с детского возраста, является одной из актуальных проблем, без решения которой не возможно воспитание гражданских позиций, усвоения социальных ценностей, формирования патриотизма и гуманизма молодого поколения в современном обществе.

Обстоятельства развития ребенка-дошкольника значительно отличаются от возрастных требований предшествующего возрастного этапа. Значительно увеличиваются требования, предъявляемые к его поведению взрослыми. Соблюдение правил социальной морали, является центральным для всех норм поведения в обществе, является для дошкольника ведущим канонем.

Возрастающий потенциал постижения ребенком окружающего мира, уводит его интересы из тесного окружения близких людей, делает познание типа взаимоотношений, существующих во взрослой жизни (учеба, работа, хобби и многое другое) изначально понятными. Предпосылки развития

личности ребенка, предъявляющие повышенные требования к восприятию, мышлению, памяти, к умению организовать свое поведение, происходят в течение всего детства дошкольника.

В исследовательской литературе нравственность определяется как специфическая форма регуляции человеческого поведения. «Нравственность регулирует человеческое поведение и сознание человека в той или иной мере во всех без исключения сферах общественной жизни» [2, с. 4].

Нравственность ребенка, в основном, совершенствуется путем «социального наследования», «присвоения» общественно-исторического опыта предшествующих поколений людей, воплощенного в продуктах материальной и духовной культуры» [3, с.14]. Уже с раннего детства у ребенка развивается генетическое наследие. В процессе такого развития, в совокупности со специфическим воспитанием в широком смысле слова, и происходит настоящее формирование психофизических особенностей ребенка. Дети осваивают не только единичные знания и умения - в их развитии происходят генеральные изменения основных нравственных процессов.

Цели, задачи и средства нравственного воспитания дошкольника изменяются в связи с его возрастными особенностями. Задачи воспитания требуют своего решения ступень за ступенью, возникая поэтапно перед педагогом и должны решаться не раньше или позже того срока, который определен особенностями детского возраста растущего человека, формирующейся личности. Обучение наукам начинается с определенного возраста ребенка, соответственно и усвоение общественных норм и правил поведения, нравственной морали должно наступать не раньше определенного возраста.

Предпосылки развития личности, сложившиеся в раннем детстве, являются базой для альтернативных путей воздействия на ребенка окружающими со стороны. В процессе развития ребенка происходит усвоение ранее неизвестных, обновленных нравственных канонov поведения, благодаря которым он становится новым членом социального общества.

Приобретая сравнительно устойчивый духовный мир, ребенок, в дошкольном возрасте реализуя свой потенциал, поистине становится индивидуальностью, вследствие передачи жизненного опыта взрослыми, который и дает основания называть его личностью, не совсем сформировавшейся, но способной к последующему изменению и усовершенствованию. Все это неторопливо и последовательно генерирует личность ребенка, вдобавок каждое последующее изменение в укреплении личности изменяет обстоятельства, расширяя возможности нравственного воспитания впоследствии. Условия развития личности ребенка, и

непосредственно развитие, разделить невозможно, так как они тесно связаны между собой. [4, с.94].

Личность ребенка развивается в двух направлениях. Смысл первого в том, что постигая внешний мир, ребенок, непосредственно осмысливает в нем свое место, понимание мира происходит постепенно. В результате новых жизненных впечатлений ребенок предпринимает действия, раньше которых не делал, как следствие возникают новые типы причин поведения. Воспитание воли и развитие чувств является противоположным направлением. Оно гарантирует результативность мотивации, не зависящую от внешних факторов стабильность манеры поведения, самостоятельность.

Важнейшим видом воспитания ребенка-дошкольника в концепции всестороннего личностного развития является нравственное воспитание. В его содержание входят: целенаправленная установка на усвоение духовных ценностей человечества и реального общества, выработка этических качеств, особенностей характера, опыт, манера поведения.

Фундаментом нравственного воспитания является мораль. Общественные принципы морали и социальные нормы общества исторически специфичны. В результате усвоения норм у личности складывается конструкция духовной мотивации, или этических побуждений. Моральные мотивы могут быть произвольными и произвольными. Первоначально человек действует нравственно непосредственно, на уровне привычки, осознавая ситуацию - поступает обдуманно, по намерению.

Анализ перехода первоначальных этических сведений дошкольника в его принципы, соответственно философию его поведения, обнаруживает, что надлежащие сведения должны базироваться на организованной нравственно психологической основе. Эта опора возникает эмпирически, в процессе социального поведения дошкольника, где он не вербально, а фактически совершает действия, касающиеся интересов окружающих его субъектов, единых для сообщества социально значимых целей. В коллективной практике, у дошкольников складывается определенная концепция моральных стереотипов и правил, создающих непрременную базу, на основе которой освоение нравственных канонов протекает серьезно и эффективно.

Выражая субъективный подход к людям, и, к себе лично, дошкольник осваивает принятые в социуме правила и нормы, постепенно, на протяжении определенного времени.

Базовым фундаментом единой концепции целостного развития личности является воспитание нравственности, напрямую связанные с физической культурой, умственным трудом, эстетикой поведения, трудом.

Целенаправленное и системное рождение гармоничной личности благоприятно осуществляется в сформированном детском коллективе. Направленная на комплексное развитие субъекта, специфически организованная деятельность реализуется именно в дошкольных учреждениях. Подготавливая молодежь к последующей взрослой жизни, воспитатели прививают положительные черты характера (скромность, честность, принципиальность), чувство патриотизма, любовь к Родине, чуткое и внимательное отношение к родителям, старшему поколению, желание трудиться, требовательно относиться к себе. Без сформированности таких свойств, характеризующих нравственность, образованного человека, невозможно представить современную, гармонично цивилизованную личность.

Определить цели воспитания нравственности у дошкольников можно следующим образом - усвоение конкретного комплекта моральных качеств: человеколюбие; воспитание трудолюбия; патриотизм; гражданская позиция; коллективное сотрудничество.

Стабильность и основательность свойств нравственности зависят от системы тренировки, заложенной в концепцию педагогического воздействия.

Комплектация всех моральных качеств должна протекать неторопливо и сознательно. Для этого требуется запас сведений, на базе которых у дошкольника будет вырабатываться индикация о сути нравственных качеств, о необходимости и ценности их познания. Непременным условием является возникновение мотивации, то есть стойкое желание, усвоения необходимых нравственных черт характера.

Возникновение мотивации влечет за собой оценку качества, в результате которой, вырабатывается социальное сознание. Сознательные переживания насыщают процесс становления личности, придают ему универсальность, а вырабатываемым качествам основательную прочность.

Желание практически реализовать свое понимание нравственного поведения рождает разнообразные поступки, характер поведения, осуществляющие обратную связь, которая дает возможность испытать и доказать устойчивость формируемого качества.

Ведущий организующий момент системы воспитания нравственности дошкольников - отсутствие альтернативы обоюдной заменяемости. Все компоненты практического воспитания нравственности имеют весомый авторитет, их нельзя ни изъять, ни фальсифицировать иными. При этом приемы и методы имеют гуттаперчевую форму: преемственность составляющих частей может чередоваться, подчиняясь свойствам характера и возрастной специфике субъекта воспитания.

Эмпиризм поведения начинается в процессе формирования эмоциональной устойчивости, а не с передачи теоретических сведений. Такая концепция станет подходящей базой для последующего приобретения знаний.

Форма и содержание нравственного воспитания меняются, согласно ряда социальных и исторических обстоятельств. На него непосредственно влияют: степень научного прогресса, культуры и образования, экономические факторы, соответственно потребности общества и физиологический потенциал воспитываемых. В результате, на отдельном витке нового развития у сообщества появляются свои идеалы, соответственно, решаются характерные для данного исторического этапа задачи воспитания молодежи. То есть, исторический подход, жизненные условия, специфика особенностей воспитания обнаруживают весомое действие на совокупность проблем нравственного воспитания. Альтернативы организации нравственных традиций имеют гибкий характер. [5, с.76].

Пути и средства успеха заданной цели и составляют методику воспитания. В педагогике классифицируют ряд существующих теоретических и практических аспектов технологии воспитания. Фундаментом воспитания исследователи считают оживление механики нравственности. То есть, воспитание нравственного поведения, установка нравственного сознания, поощрение как стимул.

Составление программы нравственного воспитания непременно требует грамотного осмысления всей концепции воспитательной деятельности и ее исполнения, отвечающей реальным запросам. А это, в свою очередь, предоставляет возможность проанализировать место и роль определенных видов воспитательной деятельности в морально-этическом, нравственном, развитии ребенка. Разумение того, какое побуждение оказывают все виды педагогического воздействия, в комплексе, на духовное формирование ребенка, позволяют объединить все воздействия в общую систему, а, следовательно, и обосновать лаконично формы и содержание педагогической деятельности, относительно всех разделов воспитательного проекта.

Таким образом, формирование нравственных принципов дошкольников должно происходить в первом детстве, так как эти каноны сопутствуют ребенку во время всей последующей жизни. Совершенствование нравственных качеств следует начинать не в начальной школе, когда у детей некоторые правила и убеждения являются уже сложившимися и слабо подлежат изменению, а в возрастной категории до школы, когда детская психика наиболее чувствительна к реформе.

### **Использованная литература**

1. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте / Л.И. Божович. - М.: Просвещение, 1968. - 464 с.
2. Гаврилова Т.П. О воспитании нравственных чувств / Т.П. Гаврилова. - М.: Знание, 1984. - 80 с.
3. Қодиров Р.Г. Музыкальная педагогика: Учебное пособие/-Т.: Музыка, 2005.-80 с.
4. Песталоцци И. Г. Избранные педагогические сочинения: В 2-х томах. / Ред. В. Л. Ротенберг, В. М. Кларина. - Т. 1. - М.: Педагогика, 1981. - 336 с.
5. Шарипова Г. Мусиқа ўқитиш методикаси-Т.: 2000 г. 56 с.

## IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR VA YOSHLAR HAYOTIDA XOREOGRAFIYA SAN'ATINING O'RNI

Shaxzoda Xudoynazarova

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Behzod Mamatqulov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslar, xususan bolalar va ularning jahon hamjamiyati nigohidagi o'rni: orzu-havaslar, quvonchli taassurotlari, voqealarga to'la baxtli bolalikni his qilishi, kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishi, hamda huquqlari, qadr-qimmatini himoyalovchi qonunlar, yangi O'zbekistonda nogironlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik to'g'risida atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, maqolada imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy-psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishida xoreografiya san'atining o'rni, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** nogiron, loyiha, dastur, ta'lim, inklyuziv, xoreografiya, raqs, ritmika, faollik.

## THE ROLE OF CHOREOGRAPHY IN THE LIVES OF CHILDREN AND YOUNG PEOPLE WITH DISABILITIES

Shaxzoda Xudoynazarova

Uzbekistan State Academy of Choreography

Behzod Mamatkulov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** In this article, people with disabilities, especially children, and their place in the eyes of the world community: dreams, happy impressions, a happy childhood full of events, future success, as well as laws protecting their rights, dignity, The high level of care and attention paid to the disabled in the new Uzbekistan. The article also discusses the role of the art of choreography in the psychological, mental and physical development of children with disabilities, as well as research in this area.

**Keywords:** disabled, project, program, education, inclusive, choreography, dance, rhythm, activity.

*Endi nogironligi bo'lgan shaxslar - "muammosi bor insonlar" degan qarashdan voz kechib, ularning imkoniyatini kengaytirish uchun, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy*

## *tizimni takomillashtirish yo'lidan borishimiz zarur.* Shavkat Mirziyoev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1992-yilning 14-oktyabr kuni Bosh Assambleyasining 37 - yalpi majlisida qabul qilingan rezolyutsiyaga muvofiq, 3-dekabr Xalqaro nogironlar kuni deb e'lon qilingan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad nogironligi bo'lgan shaxslarning butun dunyoda amalga oshiriladigan dastur, loyihalari, manfaatlari, huquqlari inobatga olinishi, nogiron bo'lmagan kishilar bilan teng huquqlilik asosida ishtirok etishini, barcha mamlakatlarda qadr-qimmatini himoyalovchi qonunlar va tartib-taomillarning joriy etilishi bilan birgalikda ularning hayot tarzini yaxshilash, tubdan takomillashtirish, to'laqonli hayot kechirishi, ishlashi, ta'lim olishi va salomatligini tiklashi uchun muntazam tarzda zarur shart-sharoitlar yaratib berish va dunyo miqyosida e'tibor qaratish lozim ekanligi belgilangan hamda mazkur kuni keng miqyosda nishonlash tavsiya etilgan. Shu kundan boshlab har yili yurtimizda ham 3-dekabr Xalqaro nogironlar kuni sifatida nishonlab kelinadi.

Bundan mustasno bo'lmagan holda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi uchun keng e'tibor qaratib kelinmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha" farmoni imzolandi hamda bu farmon minglab imkoniyati cheklangan insonlar ko'ngliga cheksiz yorug'lik baxsh etdi. Har yili 3-dekabr sanasida davlatimiz rahbari tomonidan Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaat yo'llaydilar:

"Ishonchim komil, 3 dekabr - Xalqaro nogironlar kuni mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida mustahkam o'rin egallab, jamiyatimizda ezgulik, mehr-oqibat, gumanizm g'oyalarini yanada chuqur qaror toptirishga xizmat qiladigan muhim sanalardan biri bo'lib qoladi. Millati, tili va dinidan qat'i nazar, inson qadr-qimmatini va sha'nini ulug'lash, har bir fuqaro haqida e'tibor va g'amxo'rlik, mehr-muruvvat, sahoovat va olijanoblik biz qurayotgan Yangi O'zbekiston jamiyatining hayot qoidasi bo'lib qoladi. Barchangizni ana shunday olijanob ishlarda faol ishtirok etishga da'vat etaman. Chuqur hurmat-ehtirom bilan"<sup>1</sup> - Shavkat Mirziyoev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Avvallari nogironligi bor bolalar va ularning oilalari o'zlarining asosiy inson huquqlaridan foydalanish va jamiyatga qo'shilish yo'lida doimo to'siqlarga duch kelishar edi. Ularning qobiliyatlari e'tiborga olinmasdi va ehtiyojlariga past darajada e'tibor berilardi.

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoev O'zbekiston xalqiga 3 dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan murojaat yo'lladi. Tabrik matni prezident matbuot xizmati tomonidan e'lonidan



Yurtimizda imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar uchun har bir sohada cheksiz imkoniyatlar yaratilmoqda. Birgina ta'lim jarayonidan misol keltirish mumkin. Hozirgi kunda "Ta'limni rivojlantirish dasturini amalga oshirish ishlari boshlandi, 300 dan ortiq maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishi uchun zarur sharoitlar yaratildi"<sup>2</sup>.

Nogironligi bo'lgan odamlarning badiiy intilishlari va yutuqlari yurtimiz madaniyatining qadrlil va ko'rinadigan qismidir.

O'zbekistonda nogironligi bor insonlarning ijtimoiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida ishtirok etish, imkoniyatni kengaytirish, intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ularning butun jamiyatdagi faolligini oshirish va ijobiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etgan holda, san'at va madaniy tadbirlarda ishtirokini ta'minlash maqsadida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tomonidan "Xoreografiya san'ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan mul'timedia mahsulotini yaratish" mavzusida grant loyihasi ishlab chiqilgan hamda bu mavzu doirasida respublikamizning barcha viloyatlarida imkoniyati cheklangan bolalarga xoreografiya san'ati yuzasidan turli xil seminar va treninglar o'tkazib kelinmoqda. Seminardan ko'zlangan asosiy maqsad imkoniyati cheklangan bolalarning yoshi, tayyorgarligi, maqsadlari va albatta hohishlaridan kelib chiqib klassik balet, zamonaviy raqslar yoki xalq raqslarini o'rgatish bilan bir qatorda jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan.

Har qanday imkoniyati cheklangan bolalarning orzu-havaslaril, quvonchli taassurotlari va voqealarga to'la baxtli bolalikni his qilishi, bolalarning kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun uning qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishda, orzularini ro'yobga chiqarishda ushbu grant loyihasi katta xizmat qiladi.

Grant loyihasining asosiy vazifasi - nogironligi bor bolalarga hayotga bo'lgan umidini, qiziqishlarini, har tomonlama barkamol rivojlanish va tanani to'g'ri shakllantirish uchun poydevor qo'yish, moslashuvchanlikni, xoreografiya san'ati tufayli ular klassik musiqani his qilishni hamda tushunishni o'rganadilar. Bu bilan bir qatorda eshitish, turish va muvozanat hissini rivojlantirish, tanani cho'zish, tayanch ushlagichdagi mashqlar, musiqiy ritm va, albatta, raqs raqamlarini o'rganish, mushaklarini kuchaytirish, yaxshi xulq-atvorni rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda ijodiy boyitishni o'z ichiga oladi. Unga o'z ustida ishlashga va qiyinchiliklarni engishga o'rgatish hamda bolalar xoreografiya maktabidan xabardor bo'lishga xizmat qiladi.

Har bir imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiyatini hurmat qilgan holda, biz uni boshqalar bilan solishtirmasdan va baholamasdan, xuddi shunday qabul qilamiz.

---

<sup>2</sup> Usha manba

Biz uning rivojlanishi, bolaning o'zini o'zi takomillashtirish va uning ichki ijodiy dunyosi, iste'dodini ochish haqida qayg'uramiz.

Xoreografiya o'qituvchilari mashg'ulotlarni ularning imkoniyatidan kelib chiqqan holda olib boradilar. Mutaxassislarimiz har bir imkoniyati cheklangan bolaning rivojlanishi va tarbiyasida individual natijalarni belgilab, diagnostika o'tkazadilar, prognoz qiladilar. Ushbu texnologiya jarayonning barcha ishtirokchilarini ilhomlantiradi, har bir bolaning muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Ular uchun xoreografiya san'ati hayotda kuchli shaxs bo'lib shakllanishlarida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Biz ularning muammolarni chetlab o'tmaymiz, lekin birgalikda g'alaba qozonish va muvaffaqiyatga erishish uchun imkoniyati cheklangan bolalar bilan birga o'rganamiz, quvonamiz, qayg'uramiz va mulohaza yuritamiz. Imkoniyati cheklangan bolalarning ijodiy tanlovlarda, festivallarida, kontsert va ko'rgazmalarda ishtirok etishi, ularning quvonchi va ota-onalarning farzandlari bilan faxrlanishi - bu bizning asosiy g'alabamizdir!

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoev O'zbekiston xalqiga 3 dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan murojaat yo'lladi. Tabrik matni Prezident matbuot xizmati e'lonidan.

2. <http://club-edu.tambov.ru/methodic/fio/p4.doc> - Ivanova O.G., Orlov V.V., Radchenko I.M., Saburova A.V. Podgotovka multimediyных materialov. Sozдание multimediyных prezentatsiy. Uchebno-metodicheskoe posobie (doc-fayl). Tambov 2002 g.